O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

"MAKTABGACHA TA'LIMNING KELAJAK MODELI: TADQIQOTLAR, LOYIHALAR VA AMALIY ISHLAR"

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO'PLAMI
2025-YIL 2-MAY, NAVOIY

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ КОНФЕРЕНЦИИ
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ

"МОДЕЛЬ БУДУЩЕГО ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ИССЛЕДОВАНИЯ, ПРОЕКТЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РАБОТЫ"

2 МАЯ 2025 ГОДА НАВОИ

COLLECTION OF MATERIALS OF THE INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC

"THE FUTURE MODEL OF PRESCHOOL EDUCATION: RESEARCH, PROJECTS AND PRACTICAL WORKS"

MAY 2, 2025 NAVOI



www.nspi.uz
+998-79-225-19-40

NAVOIY - 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBUKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRUGI

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

“MAKTABGACHA TA’LIMNING KELAJAK MODELI: TADQIQOTLAR, LOYIHALAR VA AMALIY ISHLAR”

MAVZUSIDAGI ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

“THE FUTURE MODEL OF PRESCHOOL EDUCATION: RESEARCH, PROJECTS, AND PRACTICAL WORKS»

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

“МОДЕЛЬ БУДУЩЕГО ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ИССЛЕДОВАНИЯ, ПРОЕКТЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РАБОТЫ”

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

II

Navoiy shahri
02. 05. 2025

“Maktabgacha ta’limning kelajak modeli: tadqiqotlar, loyihalar va amaliy ishlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2-qism – Navoiy, 2025. – 506 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27 – dekabrdagi “2025-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 490- sonli buyrug‘iga asosan Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi tomonidan 2025-yil 2-may kuni o‘tkazilgan “**Maktabgacha ta’limning kelajak modeli: tadqiqotlar, loyihalar va amaliy ishlar**” mavzuidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan mutaxassislar, olimlar, pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrirlar:	
M.Kalonov – R.Davlatova –	iqtisodiyot fanlari doktori, professor. filologiya fanlari doktori, v.b.professor.
Taqrizchilar:	
D.Lutfullayeva – S.Sayitov –	O‘zbekiston Fanlar akademiyasi professori, filologiya fanlari doktori.Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:	
G.P.Ermatova –	Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi v.b.dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
N.K.Musayeva –	Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
N.G‘.Meliyeva	Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi.

Texnik muharrir:	
S.S. Otamurodova	

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Kengashining 2025-yil 22-apreldagi 9-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi. Ma’ruzalarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

© Navoiy davlat universiteti, 2025.

4-SHO‘BA: ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHNING AMALIY-METODIK ISHLARI

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV QOBILIYATINI RIVOJLANTRISHDA IJODIY O‘YINLARNING AHAMIYATI

O‘zbekiston. N. N. Djamilova
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pegagogika universiteti professori, DSc.
N.S. Xakimova
Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatlarini ijodiy o‘yinlar vositasida rivojlantrish, hamda o‘yinlarning bolalar fikrlashi va aqliy qobiliyatiga ta’siri haqida. Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantrishda innovatsion metodlar bolalarning qiziquvchanligi, fikrlashi, idroki, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Kognitiv, idrok, tafakkur, fikrlash, interfaol, suniy intelekt, kvest, stol o‘yinlari, mantiqiy masalalar, boshqotirma, animatsiyalar, 3D modellar, virtual laboratoriyalar.

Аннотация. В статье речь идет о развитии познавательных способностей детей старшего дошкольного возраста посредством творческих игр, а также о влиянии игр на мышление и умственные способности детей. Инновационные методы развития познавательных способностей детей способствуют быстрому развитию у детей любознательности, мышления, восприятия, воображения и памяти.

Ключевые слова: Когнитивный, восприятие, мышление, интерактивный, искусственный интеллект, квест, настольные игры, логические задачи, головоломки, анимации, 3D-модели, виртуальные лаборатории

Abstract. This article is about the development of cognitive abilities of older preschool children through creative games, as well as the impact of games on children's thinking and mental abilities. Innovative methods in the development of children's cognitive abilities contribute to the rapid development of children's curiosity, thinking, perception, thinking, memory.

Keywords: Cognitive, perception, thinking, thinking, interactive, artificial intelligence, quest, board games, logical problems, puzzles, animations, 3D models, virtual laboratories.

Yurtimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodning ijtimoiylashuvi va har tomonlama kamol topishining boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta’lim tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash, milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta’lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish, ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish [1] kabi qator vazifalar amalga oshirilmoqda Ta’lim sohasida bolalar bog‘chasidagi ta’lim jarayonini butun hayot davomida o‘rganish va har tomonlama rivojlanishning mustahkam asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bola ta’lim oladigan yo‘ldagi muhim bosqich sifatida maktabgacha ta’lim nafaqat asosiy akademik ko‘nikmalarni o‘rgatish, balki muhim ijtimoiy, hissiy va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ham xizmat qiladi. Maktabgacha ta’limni samarali boshqarish tizimi ushbu jarayonlarni uyg‘unlashtiruvchi muhim element bo‘lib, har bir bolaning salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi ta’limiy parametrlarning to‘g‘ri shakllantirilishini ta’minlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatini rivojlantirishda ijodiy o‘yinlarning ahamiyati katta. Ijodiy o‘yinlar bolalar uchun o‘z fikrlarini ifodalash, muammolarni hal qilish, yangi g‘oyalar yaratish va ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu o‘yinlar bolalarning tafakkurini rivojlantirish, xayoliy va analitik fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatini ijodiy o‘yinlar vositasida rivojlantrish haqida buyuk olim A.V.Zaporojets nazariyasi mavjud. Ushbu nazariyasiga ko‘ra, “Bolalar psixikasi nafaqat biologik omillar, balki atrof-muhit va ijtimoiy omillar ta'sirida

rivojlanadi, kognitiv qobiliyatlar (masalan, tafakkur, e’tibor, xotira va boshqalar) bolalar bilan o‘zaro faoliyatda bo‘lish orqali, ayniqsa, ijodiy o‘yinlar orqali rivojlanadi. Ijodiy o‘yinlar bolalarga nafaqat shaxsiy hissiyotlarini ifodalash, balki yangi bilimlarni o‘zlashtirish, shuningdek, ijtimoiy va mantiqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.” Zaporojestning asosiy fikrlaridan biri shundaki, bolalar uchun o‘yin nafaqat o‘yin, balki psixologik rivojlanishning muhim vositasidir. O‘yinlar orqali bolalar turli ijtimoiy vaziyatlarni, his-tuyg‘ularni va fikrlash jarayonlarini o‘rganadilar. A.V. Zaporojets bolalar fikrlashining turli shakllari – ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli va og‘zaki-mantiqiy fikrlash – rivojlanishining aniq yosh chegaralariga ega emasligini ta’kidlagan. Olimning fikricha, bu shakllar muayyan mazmunni yoki haqiqatning alohida jihatlarini egallash bosqichlarini aks ettiradi. Ko‘rgazmali-harakatli fikrlashning ko‘rgazmali-obrazli fikrlashga qaraganda oldinroq shakllanishiga qaramay, bu ikki shakl aniq yosh chegaralariga bog‘liq emas[2].

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatini ijodiy o‘yin texnologiyalari vositasida rivojlantirish eng samarali usullaridan biridir. Kvestlar, stol o‘yinlari, mantiqiy masalalarni va boshqotirmalarni yechish, ta’limni real hayotiy vaziyatlar bilan muvofiqlashtirishga asoslangan o‘yinlar miya faoliyatini faollashtiradi va tanqidiy fikrlash, diqqat va xotirani rivojlantirishga yordam beradi. Multimedia texnologiyalari ham bolalardagi kreativlikni zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasini hosil qiladi. Interaktiv multimedia materiallari (video darslar, animatsiyalar, 3D modellar, virtual laboratoriyalar, bolalar uchun animatsion filmlar) axborotni chuqurroq idrok etishga yordam beradi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy o‘yinlarning kognitiv rivojlanishga ta'sirini quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlash. Ijodiy o‘yinlar bolaga har xil vaziyatlarni tahlil qilish va ularni hal qilishga o‘rgatadi. Masalan, qurilish o‘yinlari yoki konstruktiv o‘yinlar bolaga narsalar qanday birikishi, qanday o‘zgarishi va qanday natijalarga olib kelishi haqida o‘ylash imkonini beradi. Bu esa mantiqiy fikrlash va strategik rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Xayoliy fikrlash. Ijodiy o‘yinlar bolalarga o‘z dunyosini yaratish imkonini beradi. O‘yinlarda turli rollarda o‘ynash, o‘yin qahramonlarini yaratish, dunyo va muhitni tashkil etish kabi faoliyatlar xayoliy fikrlashni rivojlantiradi. Xayoliy o‘yinlar bolalar uchun o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini ifodalash va yangi g‘oyalarni sinab ko‘rish imkoniyatlarini yaratadi.

3. Til va nutq rivoji. Ijodiy o‘yinlarda bolalar turli hikoyalar yaratib, o‘zaro muloqot qilishadi. Bu, o‘z navbatida, nutq va til ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yinlar davomida bolalar yangi so‘zlar, jumlalar va ifodalar bilan tanishadilar, o‘zlarini yanada ravon va aniq ifodalashni o‘rganadilar.

4. Emotsional rivojlanish. Ijodiy o‘yinlar bolalarga turli emosiyalarni boshdan kechirish, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash va boshqalar bilan empatiya o‘rnatish imkonini beradi. Masalan, rol o‘ynash o‘yinlari bolalar uchun turli vaziyatlarda qanday his qilishni va boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rganishga yordam beradi.

5. Ijtimoiy ko‘nikmalar. Bolalar ijodiy o‘yinlarda ko‘pincha guruhlarda birga o‘ynaydilar. Bu ular uchun jamoada ishlash, boshqalar bilan hamkorlik qilish, qoidalarga rioya qilish va bir-biriga yordam berish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganish uchun ajoyib imkoniyatdir.

6. Diqqat va xotira rivoji. Ijodiy o‘yinlar diqqatni jamlash va xotirani mustahkamlashga yordam beradi. O‘yin davomida bolalar yangi ma'lumotlar qabul qiladilar, voqealarni eslab qoladilar va o‘yin shartlariga mos ravishda reaksiya beradilar. Bu esa ularning xotira va diqqatni rivojlantirishiga yordam beradi.

7. Ijodkorlik va muvozanatni topish. Ijodiy o‘yinlar bolalar uchun muvaffaqiyatli ijodkorlikni namoyish qilish va o‘z potensialini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratadi. Bu ularning o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshiradi va ijodiy yondashuvni takomillashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijodiy o‘yinlar kognitiv rivojlanishning ajralmas qismidir. Bular orqali bolalar mantiqiy, xayoliy, emotsional va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Shuningdek, o‘yinlar bolalarning qobiliyatlarini kengaytirish va ularning o‘zaro munosabatlarini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi. Ijodiy o‘yin faoliyati maktabgacha

yoshdagi bolalar tomonidan matematik tushunchalarni, ijodkorlikni, aqliy ko‘nikmalarni paydo bo‘lishini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun muhim vositadir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘yinlarni ta’lim jarayonida tizimli va metodik jihatdan to‘la tashkil etish bolalarga kognitiv bilimlarni oson qabul qilishlariga yordam beradi, bu esa maktabda keyingi ta’lim uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020.
2. Djamilova N. Khakimova N. The impact of creativity on the development of cognitive skills of preschool children age 5-7. ISSN: 2692-5206, Impact Factor: 12,23 American Academic publishers, volume 05, issue 02,2025 Journal: https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai
3. Запорожец А.В. Психология восприятия сказки ребенком дошкольником // Дошкольное воспитание. 1948. 3. Пиаже Ж., Речь и мышление ребенка: научно-популярное издание 2008.
4. Djamilova, N. (2022). FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF LIFE STRATEGIES IN STUDENTS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(04), 187-191.
5. Xakimova.N.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatlarini bilish kompotensiyasi vositasida rivojlantrish. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali 2025-yil, mart, N-3-son.

СОВРЕМЕННЫЕ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ПРОБЛЕМЕ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ЭЛЕМЕНТАМ СПОРТИВНЫХ ИГР В УЧРЕЖДЕНИИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мельникова М.С., кандидат педагогических наук, доцент, заведующий кафедрой методик дошкольного образования, учреждения образования «Белорусский государственный педагогический университет имени М. Танка»

Аннотация: в статье представлен анализ психолого-педагогических исследований по проблеме обучения детей дошкольного возраста элементам спортивных игр в учреждении дошкольного образования.

Abstract: the article presents an analysis of psychological and pedagogical research on the problem of teaching preschool children the elements of sports games in a preschool educational institution.

В настоящее время ведущими в определении особенностей физического воспитания детей дошкольного возраста является аккумулирование и глубокое осмысление комплекса научных знаний в области не только формирования двигательных умений и навыков, развития двигательных способностей, но и определении научно-методических основ использования спортивных игр с детьми дошкольного возраста. Изучение данной проблемы является особенно значимым в современных социально-экономических условиях, определяющих пути достижения нового качества дошкольного образования и укрепления здоровья воспитанников в учреждении дошкольного образования.

Проблема использования элементов спортивных игр в физическом воспитании детей дошкольного возраста рассматривалась в трудах Э. Й. Адашкявичене, Л. Н. Волошиной, Д. М. Правдова, В. И. Усаковой, Н. В. Финогеновой и др. Учеными исследован ряд аспектов рассматриваемой проблемы: влияние спортивных игр на повышение двигательной активности и уровня физической подготовленности детей дошкольного возраста (Л. Н. Волошина, Ю. Н. Ермакова, О. А. Сабуркина и др.), формирование двигательных навыков, развитие физических качеств и двигательных способностей (Э. Й. Адашкявичене, Л. Н. Волошина и др.), возможности использования спортивных игр в интеграции с познавательной деятельностью (А. А. Горелов, М. А. Правдов, И. М. Козлов и др.),

воспитание интереса и потребности в занятиях физической культурой и спортом у детей дошкольного возраста (Э. Й. Адашкявичене, А. А. Чепуркина, А. А. Мирошников, Т. А. Швалёва, С. О. Филиппова и др.). Ученые отмечают, что в дошкольном возрасте спортивные игры воздействуют на развитие двигательных способностей, способствуют совершенствованию двигательных умений, навыков и приобретению двигательного-игрового опыта (О. Г. Галимская). Кроме того, использование элементов спортивных игр в физическом воспитании детей дошкольного возраста способствует совершенствованию функциональных возможностей сердечно-сосудистой и дыхательной систем организма, укреплению опорно-двигательного аппарата, повышению функциональных возможностей сенсорных систем (зрительной, вестибулярной, слуховой и др.), удовлетворению биологической потребности ребенка дошкольного возраста в движении.

Исследователями отмечается положительное влияние спортивных игр на нравственное и социально-личностное развитие ребенка дошкольного возраста (О. А. Сабуркина, Г. Н. Олонцева, Н. В. Финогенова, В. Н. Шебеко и др.): формирование волевых (настойчивость, решительность, выдержка и др.) и субъектных качеств личности (активности, самостоятельности, инициативности, целенаправленности), субъектного опыта ребенка дошкольного возраста; развитие самоконтроля, саморегуляции в процессе спортивной игры, способности к самооценке своих возможностей в играх; осуществляется регулирование эмоциональных проявлений и характера общения ребенка со сверстниками, установление командного взаимодействия со сверстниками при выполнении правил спортивных игр; развитие социальной ответственности в командных спортивных играх (защищать интересы игроков своей команды и команды противника, не мешать сопернику добиваться результата, оказывать посильную помощь сверстникам и др.).

В психолого-педагогических исследованиях представлен определенный научно-исследовательский опыт использования элементов спортивных игр в физическом воспитании детей дошкольного возраста в учреждении дошкольного образования. Раскрыты возможности использования игры в баскетбол, волейбол, футбол в освоении техники владения мячом (Г. Л. Драндрова, М. П. Чапурина и др.), особенности обучения двигательным умениям детей старшего дошкольного возраста на материале игры в волейбол, гандбол (О. И. Маттис, Ю. К. Чернышенко и др.), повышения двигательной активности (В. П. Арсеньева) и физической подготовленности (Л. Н. Волошина, Ю. Н. Ермакова и др.) детей старшего дошкольного возраста в процессе занятий спортивными играми (гандбол, футбол, баскетбол), обогащении двигательного опыта в процессе игры в городки (А. К. Ковалевский, В. Ф. Пугачев). В исследованиях ученых также разработана и представлена методика проведения физкультурных занятий на основе использования элементов игры в футбол с детьми 5-7 лет, направленная на физическое и психическое развитие (Ю. Н. Ермакова, Е.Н. Колотилова и др.), обоснована система комплексного обучения детей 3-6 лет на начальном этапе освоения тенниса (А. Ю. Журавлева).

В Республике Беларусь отдельные аспекты проблемы обучения детей дошкольного возраста элементам спортивных игр и их влияния на развитие ребенка дошкольного возраста представлены в исследовании В. Г. Шпака, В. Н. Шебеко, В. А. Шишкиной, Н. Э. Власенко. В научно-методических материалах ученых раскрыты правила проведения некоторых спортивных игр (гандбол, хоккей с мячом, хоккей с шайбой, бадминтон и др.) с детьми старшего дошкольного возраста, описана техника выполнения основных элементов спортивных игр, адаптированных для детей старшего дошкольного возраста, рассмотрены типичные ошибки при выполнении технических элементов и правил проведения спортивных игр с детьми старшего дошкольного возраста.

Вместе с тем, в современных исследованиях ученые (А. Ю. Журавлева, О. Г. Галимская, А. В. Третьяк, Н. В. Финогенова и др.) отмечают, что использование элементов спортивных игр в физическом воспитании детей дошкольного возраста носит преимущественно ознакомительный и фрагментарный характер и не в должной мере соответствует возрастным возможностям детей старшего дошкольного возраста. Анализ

психолого-педагогических исследований (А. Ю. Журавлевой, А. В. Третьяк и др.) также показывает, что недостаточно изучены условия и факторы сотрудничества детей в ходе освоения спортивных игр, не раскрыты механизмы межличностного взаимодействия и взаимообучения детей дошкольного возраста в спортивных играх, обеспечивающие формирование двигательного и субъектного опыта ребенка.

В связи с этим, в настоящее время проводится научно-исследовательская работа на тему «Разработать научно-методическое обеспечение обучения детей старшего дошкольного возраста элементам спортивных–игр (футбол, хоккей, баскетбол, настольный теннис)». Поведение научного исследования позволит теоретически обосновать предпосылки успешного освоения детьми старшего дошкольного возраста технических элементов спортивных игр (футбол, хоккей, баскетбол, настольный теннис), а также определить перечень видов доступных детям старшего дошкольного возраста технических элементов спортивных игр (футбол, хоккей, баскетбол, настольный теннис) и охарактеризовать методы, обеспечивающие их осознанное освоение воспитанниками на разных видах физкультурных занятий.

Таким образом, проведенный анализ исследований по проблеме использования элементов спортивных игр в физическом воспитании детей дошкольного возраста свидетельствует о развивающем эффекте и высоком потенциале спортивных игр в физическом, личностном, социально-нравственном развитии ребенка дошкольного возраста.

“METODIK MAHORAT KUNI” VA “METODIK MAHORAT SOATI” TADBIRI. ОКТЯБР OYI “KUZ BO‘YOQLARI. MAVSUMIY O‘ZGARISHLAR KO‘CHMANCHI QUSHLAR” DEB NOMLANGAN HAFTALIGINI O‘TKAZISH BO‘YICHA

O‘zbekiston. M.E.Rustamova
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari
direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirining oktabr oyi “Kuz bo‘yoqlari. Mavsumiy o‘zgarishlar Ko‘chmanchi qushlar” deb nomlangan haftaligini o‘tkazish bo‘yicha bolalarga beriladigan bilimlar mazmuni, mavzular asosida tavsiyalar yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: “Metodik mahorat kuni”, “Metodik mahorat soati”, kuz bo‘yoqlari, mavsumiy o‘zgarishlar, ko‘chmanchi qushlar, tavsifnoma, ob-havodagi o‘zgarishlar, qushlar, hasharotlar, hayvonlar hayoti, qishloq xo‘jalik ishlari.

Аннотация: В статье даны рекомендации по содержанию и тематике знаний, которые необходимо передать детям в ходе мероприятий «День методических навыков» и «Час методических навыков», которые пройдут в октябре под названием «Краски осени. Сезонные изменения, перелетные птицы».

Ключевые слова: «День методического мастерства», «Час методического мастерства», осенние краски, сезонные изменения, перелетные птицы, характеристика, изменения погоды, птицы, насекомые, жизнь животных, сельскохозяйственные работы.

Abstract: The article provides recommendations on the content and topics of knowledge that must be conveyed to children during the events «Day of Methodological Skills» and «Hour of Methodological Skills», which will be held in October under the title «Colors of Autumn. Seasonal Changes, Migratory Birds»

Keywords: «Methodical Excellence Day», «Methodical Excellence Hour,» autumn colors, seasonal changes, migratory birds, characterization, weather changes, birds, insects, animal life, agricultural work.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tizimida “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari maktabgacha ta‘lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy rivojlanishi

uzluksizligini ta‘minlash, kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratini muntazam oshirib borish maqsadida tashkil etilib kelinib, tadbir davomida tayanch maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida trener (mentor)lar tomonidan yetakchi pedagoglarni maqsadli tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash va o‘z bilimini muntazam boyitib borish uchun o‘quv- seminar, trening, mahorat darslari tashkil etilyapti.

Bugungi kunda tayanch maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida trener (mentor)lar tomonidan “Mavsumiy o‘zgarishlar. Ko‘chmanchi qushlar” deb nomlangan haftaligini o‘tkazish bo‘yicha pedagoglarning kasbiy mahoratlarini oshirish uchun o‘quv- seminar, trening, mahorat darslari tashkil ishlari qizg‘in ketyapti.

Biz oktyabr oyi “Kuz bo‘yoqlari**.** Mavsumiy o‘zgarishlar. Ko‘chmanchi qushlar” deb nomlangan haftaligini o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalarni ilova qilamiz.

Oktyabr oyi “Kuz bo‘yoqlari**.** Mavsumiy o‘zgarishlar Ko‘chmanchi qushlar” deb nomlangan haftaligi mazmuni .

Maktabgacha yoshdagi bolalarni “Kuz bo‘yoqlari**.** Mavsumiy o‘zgarishlar. Ko‘chmanchi qushlar” haftaligida metodik mahorat kuni tadbirida yetakchi pedagoglarga ta’limiy faoliyatlarda, sayr jarayonlarida tarbiyalanuvchilarni kuz faslida mavsumiy haqida tanishtiriladi.

1.Kuz fasliga tavsifnoma

Ob-havodagi o‘zgarishlar. Kuzda harorat asta-sekin pasayib boradi, buning natijasida o‘simlik va hayvonot dunyosi hayotida o‘zgarish hamda susayish ro‘y beradi (harorat asta-sekin pasayib boradi, o‘simlik barglari sarg‘ayadi, to‘kiladi, ba’zi qushlar uchib ketib, boshqalari uchib keladi va hokazo).

Sentyabr kuz faslining birinchi oyidir, biroq O‘zbekistonda sentyabr oyida ham yoz faslidagidek issiq bo‘ladi. Sentyabr oyida havo issiq bo‘lib, kechalari harorat +7 darajagacha tushib ketadi. Kunduz kunlari esa + 20 +25 darajagacha ko‘tariladi.

Oktyabr odatdagidek kuz oyi hisoblanadi. Bu oyda o‘lkamiz quyoshli, issiq va quruq bo‘ladi, kunning birinchi yarmida harorat +7+10 daraja bo‘ladi, kunduz kunlari +15+23 darajaga, ba’zi hollarda esa +27 darajagacha ko‘tariladi. Ana shunday juda issiq vaqtlarda o‘simliklar, ayniqsa gunafsha, nastargul va boshqalar 2-marta gullaydi. Hayvonlar dunyosida ham bahorgi hodisalarning takrorlanishini ko‘rish mumkin: g‘urraklar g‘urullay boshlaydi, to‘rg‘aylar sayraydi, qurbaqalar qurullaydi, ba’zi bir hasharotlarda esa kuzgi urchish boshlanadi. Oktyabr oyining ikkinchi yarmida harorat odatda pasayadi, ertalab +3+5 daraja bo‘lib, kunduz kunlari esa +16+20 darajagacha ko‘tariladi. Uzoq yillik tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘simliklarning katta qismini va ayniqsa, qishloq xo‘jalik o‘simliklaridan paxta, kartoshka, pomidor, bodring va boshqalarni sovuq uradigan ayozlar o‘lkamizda taxminan 12- 18 oktyabrlarda boshlanadi.

Sovuq tushishi - bu haroratning qisqa vaqtli pasayishi bo‘lib, yer qatlamlari va yer yuzasining ustki qatlamlari nol darajadan pastroq bo‘ladi. Ana shunday dastlabki ayozlar kuz faslining boshlanganidan dalolat beradi. Shimoliy kenglikdan sovuq shamol esa boshlashi bilan sovuqlar boshlanadi. Sovuq darajasi joyning rel’yefiga va tuproqning issiqligiga bog‘liq bo‘ladi.

Odatda, sovuq tushganining dastlabki kuni kunduzi, ba’zi hollarda esa tunda havoning bulutli bo‘lishi kutiladi. Agar, kechasi osmon bulutsiz bo‘lsa, yer ustki qatlamlarining parlanishi natijasida yerning yuza qatlami muzlaydi. Bunday sovuq yer qatlamlariga tegib, havoning haroratini yanada ko‘proq pasaytiradi. Sovuqning dastlabki to‘lqinlari o‘zi qoplagan barcha hududni ozgina muzlatadi, u faqatgina past joylarga tarqaladi va bir-ikki kun davom etadi. Agar havo to‘lqinining harorati nol darajadan past bo‘lsagina muzlash barcha hududga yoyilishi mumkin. Shunda tuproq va o‘simliklarning ustki qatlamlariga ertalabki shudring tushadi.

Ba’zi vaqtlarda oktyabr oyida kuchli va sovuq shamollar aralash yomg‘irlar ham yog‘ib o‘tadi. Bunday paytlarda tarbiyachi bolalarning diqqat e’tiborini daraxtlarning katta shoxlari va ingichka novdalarning tebranishiga jalb etadi.

Noyabr qishga o‘tish oyi hisoblanadi. Odatda noyabr oyida o‘lkamizda ob-havo qulay bo‘lmaydi: goh yomg‘ir, goh qor yog‘adi, kun goho iliq, goho sovuq bo‘lib turadi.

3. Qushlar va hasharotlar hayotidagi o‘zgarishlar.

Sentyabr-oktyabr oylarida o‘lkamizga go‘ngqarg‘alar uchib kelishadi.

Biz ularni bolalar maydonchasida ham ko‘ramiz. Ular bizga tog‘lardan tushib uchib kelishadi (bu qushlar bahor va yoz fasllarida tog‘larda yashaydilar). Go‘ngqarg‘alar kunduz kunlari dalalarga uchib ketishadi va hosili yig‘ib olingan ekin maydonlaridan don va turli begona o‘tlarning urug‘larini terib yeydilar. Qarg‘a turli qoldiqlarni yeydi. Toshkentning chekka joylarida sentyabr oyining ikkinchi yarmida qizilto‘shlar (o‘rmon sayroqi qushi) paydo bo‘ladi. Ba’zan ular Toshkent bog‘larida aprel oyining oxirigacha bo‘lishadi. Odatda ular to‘da-to‘da bo‘lishib O‘zbekistonning havzalarida ko‘chib yuradi. Sentyabr oyida qorayaloqlar, chittaklar mamlakatlarga uchib ketayotgan tilla rangli qushlarni ko‘rish mumkin. Tog‘ o‘rmonlaridan vodiylarga tushib kelgan zag‘chalarning katta to‘dasini ham ko‘rish mumkin bo‘ladi. Zarg‘aldoq, qaldirg‘och, bulbul, chivinxo‘r qushlar, moyqutlar, jiblajibon, ko‘kqarg‘a va boshqa shu kabi qushlar janubdan issiq mamlakatlarga uchib ketadilar Qushlar uchib ketishga odatlanib qolganliklari, shuningdek, hasharotlarning (kapalak, ninachi, qo‘ng‘izlarning) sekin-asta yo‘qola borishi tufayli uchib ketishadi. Chunki bu hasharotlar ana shu qushlar uchun ozuqa bo‘lib xizmat qiladi.

Sentyabr oyida laylaklar, g‘ozlar, o‘rdaklar va turnalar o‘z inlariga yig‘iladilar va uchib ketishga tayyorlanadilar.

Tovuqlar tullay boshlaydi. Ularning deyarli barcha patlari to‘kilib, yangidan chiqadi. Shu bilan birga, ular qishki sovuqlarga tayyorlana boshlaydilar. Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarda ham qish sharoitiga monand keladigan tuklar o‘sa boshlaydi.

Sentyabr oyida asalarilar ham qishga tayyorlana boshlaydilar. Ular o‘zlarining asal zahiralarini uyalarining bir tomoniga olib o‘tadilar, o‘z uyalarini isitadilar, keraksiz teshik va yoriqlarni bekitadilar, o‘z uyalaridan o‘rgimchaklarni haydab chiqaradilar, chunki o‘rgimchaklar qish vaqtida asarlarilar uchun ortiqcha yuk bo‘lib, asal zahiralarini yeb qo‘yishlari mumkin. O‘rgimchaklarning asalalariniki kabi nishlari va jag‘lari bo‘lmaydi, shuning uchun ular o‘zlarini himoya qila olmaydilar, uyalarni tashlab chiqib ketib ochlikdan o‘lib qoladilar. Asalarilar boshqa hasharotlar singari uzoq uxlamaydilar. Dastlabki sovuqlar tushishi bilanoq turnalar va g‘ozlar janub tomonga gala-gala bo‘lib uchib ketishadi. Qushlar to‘dasining tuzilishi - uchib ketuvchi qushlarning xarakterli belgilaridandir. Turnalar odatda o‘tkir burchak hosil qilib, g‘ozlar esa uzun qiyshiq qator, ba’zida esa burchak hosil qilib uchadilar. Yovvoyi qushlar va kakkulargina (4 rasm) alohida-alohida uchib ketadilar. Qushlarning uchib ketishini bolalarni sayrga olib chiqqanda yo‘li bilan kuzatish mumkin. Oktyabr oyining oxirlarida shaharlar va vodiylarda sa’valar paydo bo‘ladi va ular mart oyining oxirlarigacha shu yerlarda qoladi. Ular qariqiz, otquloq urug‘larini yeb kun kechiradilar. Sa’valar o‘zlarining chiroyli patlari va ajoyib ovozlari bilan bolalarni o‘zlariga jalb qiladilar. Bolalar sa’valarni tabiat burchaklarida parvarish qilishni o‘rganadilar: toza suv, so‘k, arpa, pista donlarini maydalab beradilar. Shuningdek, kuz faslida zarang va shumtol daraxtlarining urug‘laridan tayyorlangan ozuqalarni beradilar. Sa’valar qirilgan sabzini va bolalar qo‘li bilan tabiat burchagida o‘stirilgan ko‘k sulini zo‘r ishtaha bilan yeydilar. Kechalari dalalardan shaharlarga go‘ngqarg‘a, zag‘cha va qarg‘alar to‘da-to‘da bo‘lib uchib keladi.

Haroratning pasayishi bilan hasharotlar ham asta-sekin yo‘qola boradi. Ularning ba’zilari o‘ladi, boshqalari esa (sassiq qo‘ng‘iz) daraxtlarning, (chivinlar, pashshalar) imoratlarning kavaklariga kirib yashirinadilar. Ko‘pgina chivinlar xazon boigan barglar ostiga yashirinadilar. Ba’zi hasharotlar qish uchun tuxumlarini saqlab qo‘yadilar (o‘simlik biti, kapalak), boshqalar esa lichinka holatida yerda qishlaydilar (tillaqo‘ng‘izlar). Bolalar ochiq havoga dam olgani chiqqanlarida to‘kilgan barglar tagida yotgan hasharotlarni topib oladilar.

Oltin kuz davomida uchib yurayotgan o‘rgimchak uyasi ko‘zga tashlanadi. Uning kumushsimon uzun to‘qimasida kichkina o‘rgimchak uyachalari, shuningdek, ko‘chmanchi qo‘ng‘izlar bo‘ladi.

Noyabr oyida shaharda ko‘plab go‘ngqarg‘alar, olaqarg‘alar, zag‘chalar uchib yuradi. Shaharga dala chumchuqlari uchib keladilar. Ular don izlab to‘da-to‘da bo‘lib uchib yuradilar. Shuningdek, shaharga tog‘lardan oqbosh sa’valar, shahar chetlaridan esa so‘fito‘rg‘aylar uchib keladilar.

Bog‘larda ko‘pgina qorayaloqlar va chittaklar paydo bo‘ladi. Ular, asosan, tog‘lardan uchib keladi. Ko‘k chumchuqlarning o‘tkir ovozlari ham eshitilib turadi.

4.Hayvonlar hayotidagi o‘zgarishlar.

Kuz faslida qurbaqalarning vaqirlashi kamroq eshitila boradi. Bunga bolalar e’tiborini jalb qilish lozim.

Yosh tipratikanlar mustaqil hayot kechira boshlaydilar. Bolalar tabiat burchagida ularni boqadilar va parvarish qiladilar.

Shu paytlarda tog‘ etaklari va cho‘lli xududlarda qum quyonlarini tez-tez uchratish mumkin. Kichikroq ko‘rinishdagi, unchalik katta bo‘lmagan bu quyonlar o‘ziga xos rangga egadir. Ular sariq kurakli va oq rangli bo‘ladi. Uning dumi uzun, dumining uchida popukchasi bo‘lib, boshi esa cho‘zinchoq bo‘ladi. Qum quyoni qumlar orasida, saksovul o‘rmonlarida va daryolarning qirg‘oqlaridagi to‘qaylarda yashaydi.

Kuz faslida, o‘tlar quriganda shahar atrofidagi xududlarda quyonlar yosh daraxtlarning qobiqlarini, cho‘lli xududlarda esa cherkes kandim, yulg‘un va shu kabi yovvoyi o‘simliklarning qobiqlarini kemirib tashlaydilar.

Sudraluvchi hayvonlar (kaltakesaklar, ilonlar, toshbaqalar) dong qotib uxlash davriga kiradilar. Sovuq tushishi bilan qurbaqalar hovuz tagidan balchiqlar ichiga kirib ketadilar, cho‘l qurbaqalari esa uy atrofidagi kavaklarga kirib, uyquga ketadilar.

Tipratikanlar sovuq tushguncha o‘zlarining qishgi joylariga ketishadi. Ular qishda to‘rt oydan ortiq uxlaydilar. Bu vaqt ichida qimirlamaydilar va hech qanday ovqat ham yemaydilar. Ular ana shu uyqu jarayonida o‘zlarining gavda og‘irliklarining uchdan bir qismini yo‘qotadilar.

Ba’zi vaqtlarda MTTlarda tipratikanni qish vaqtida ham olib qoladilar. Ularni qutilarga solib, bahorgacha salqin yerda saqlaydilar. Bolalar tipratikanning uyg‘onishini alohida qiziqish bilan kuzatadilar.

Ko‘rshapalaklar sovuq tushishi bilan tashlandiq uylarning shiplariga kelib, osilib olgan holda yashaydilar. Ular yoz mobaynida to‘plagan ozuqa zahiralarini qishda juda kam sarflaydilar. Agar ko‘rshapalak qishda, issiqroq joylarda yashasa, tez-tez uyg‘onib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standarti – T.:2020.
2. Grosheva I.V., Evstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/”. Toshkent, 2022-y.
3.Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh.,Rizayeva X.U., Kuryayeva I.V., Nekrasova Y.A., Shivaldova N.S., Xaziyeva L.Z. “Yer sayyorasi – umumiy uyimiz” Ekologik ta‘lim va tarbiya bo‘yicha maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun parsial dastur . – T.: 2022-y.
4.D.T.Maxmudova va boshqalar “Tabiat bilan tanishtirish metodikasi”, Toshkent, 2019 y.
5.Nigmatov A.N., Muxamedov SH.N. “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ekologik ong va madaniyatni shakllantirish”. T., 2020.

MAKTABGACHA TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA TA’LIMIY-TARBIYAVIY QADRIYATLAR ASOSIDA IJTIMOIY INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

O‘zbekiston. G.P.Ermatova
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi v.b.dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarida ta’lim, tarbiya jarayonida pedagogik qadriyatlar asosida ijtimoiy intellektni shakllantirish haqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: qadriyat, pedagogik aksiologiya, vazifa va funktsiyalari, ilmiylik, amaliylik, tajriba birligini ifoda etuvchi pedagogik aksiologiya.

Аннотация: В данной статье освещается информация о формировании социального интеллекта у учащихся дошкольного образовательного направления на основе педагогических ценностей в процессе обучения, воспитания.

Ключевые слова: ценность, педагогическая аксиология, задачи и функции, педагогическая аксиология, выражающая единство научности, практичности, опыта.

Abstract: This article highlights information about the formation of social intelligence among preschool educational students based on pedagogical values in the process of learning and upbringing.

Keywords: value, pedagogical axiology, tasks and functions, pedagogical axiology expressing the unity of science, practicality, experience.

Respublikamizda hozirgi kunda barcha sohalarda milliy qadriyatlarimizga, milliyligimizga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa yosh avlod ongida, dunyoqararashida milliy, umuminsoniy qadriyatlarimiz haqida kengroq tasavvur tushuncha hosil qilishda juda muhim sanalmoqda.

Aslida qadriyat nima va uning mazmun mohiyati nimalardan iborat?

Qadriyat - ta'lim-tarbiya jarayonida ta'sirchan vosita. Bu asosida yoshlarimizda xushmuomalalik, insof va iymon hamda o'zini-o'zi tarbiyalashda muhim hisoblanadi. Shuning uchun biz talabalarni halollik, poklik, vatan manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsatish ruhida tarbiyalashda, ularga o'zliklarini anglatish va o'zlarini-o'zlari tarbiyalash ko'nikmalarini singdirishda qadriyatlar muhim o'rin egallaydi[2].

Qadriyat bu aksiologiya so'zining mazmunida aks etadi. Aksiologiya (yunoncha axio – qadriyat va logos – fan, ta'limot) – qadriyatshunoslik, ma'naviy hodisalardan biri bo'lgan qadriyatlar sohasini o'rganadigan, uning qonun va kategoriyalarini tadqiq qiladigan ilmiy yo'nalishi, qadriyatlar haqidagi fan. Biz ta'lim-tarbiya jarayonida aksiologik yondashuv asosida talaba-yoshlarda dunyoqarashini rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan ilmiy asoslash talab etiladi. Bunday yondashuv qadriyatlarga, ular bilan bog'liq jarayonlarga nisbatan qo'llanilganida yaxshi ilmiy va amaliy natija beradi. Bunda qadriyatlar bir-biri bilan bog'langan ijtimoiy hodisalar sifatida namoyon bo'ladi.

Aksiologik yonoshuv turlari keng sanalib, bulardan biz ta'lim sohasi vakillari uchun eng asosiysi bu- pedagogik aksiologiya hisoblanadi. Bu inson va ta'limni qadriyat deb e'tirof etgan holda, ta'limiy qadriyatlarni muhokama etuvchi hamda ta'limga aksiologik yondashuvni amalga oshiruvchi pedagogik bilimlar sohasidir.

Pedagogik aksiologiyaning mazkur vazifa va funktsiyalari ilmiylik, amaliylik, tajriba birligini ifoda etuvchi pedagogik aksiologiya mazmunini ochib beradi. Imiy jihat (aspekt) boshqa barcha ijtimoiy jarayonlami aniqlab beruvchi, asosiy qadriyat sifatida ta'limni ko'rib chiqish asosida ta'limiy qadriyatlarni o'rganuvchi pedagogikaning yangi ilmiy yo'nalishi - pedagogik aksiologiyaning muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni talab etadi. Bu yerda asosiy vazifalardan biri sifatida aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, ta'limni qadriyatli bashoratlashni ilmiy asoslash aks etadi.

Aksiologik bilimlarni tizimlashtirish maqsadida pedagogikadagi qadriyatli merosni o'rganish va pedagogik aksiologiyaning kategorial apparatini aniqlash ham asosiy vazifa hisoblanadi.

Amaliy jihat o'quv rejalari va dasturlari (darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish, didaktik va metodik materiallarni ishlab chiqish, ta'lim va tarbiya kontseptsiyasini yaratishda aksiologik bilimlardan foydalana olishini tahlil etadi.

Tajribaviy(praktik) jihat talaba, o'qituvchilarning aksiologik ongi, munosabati, xulq-atvorini shakllantirish, ularni aksiologik yo'nalganligini rivojlantirishga doir aniq muammolarini hal etishga qaratilgan ta'lim muassasalari faoliyatini o'z ichiga oladi. Ularning vazifasi hozirgi vaqtda pedagogik aksiologiya nimani taqozo etsa, shularning barchasidan mohirona foydalanishni o'zida aks ettira olishdir.


Amaliy jihatni amalga oshirish to'liq ravishda aksiologik yo'nalganlikning nazariy asoslarini aniqlab beradigan ilmiy jihatni rivojlanganligiga va ta'lim sohasi barcha o'rinlari faoliyati yo'nalganligini shakllantirilganligiga bog'liq bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim sohasi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash asossan pedagogika oliy o'quv yurtlarida 60110200- bakalavriat ta'lim yo'nalishi kunduzi, sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit -modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Shu kreditlarni to'plash bu iltimoiy imtellektni shakllantirish bilan bog'liq hisoblanadi.


Ushbu yo‘nalishda ta’lim oladigan talabalar mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini asosida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydilar. O‘quv dasturlarida belgilangan mavzularni o‘zlashtirishlari muhim sanaladi.

Oliy o‘quv yurtining maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga pedagogik texnologiyalar va ta’lim metodlari asosida ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish, boshqarish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayonini tashki etadi.

Maktabgacha ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy faoliyat turlari quyidagilar hisoblanadi:



Bu jarayonda pedagogik va ilmiy tadqiqot faoliyatlari bu ta’limiy qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ma’naviy-ma’rifiy va tashkiliy-boshqaruv tarbiyaviy qadriyatlar bilan bog‘liq.



Pedagogik qadriyatlar yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilgandek quyidagicha shakllantiriladi. **Birinchidan ta’limiy qadriyatlar pedagogik faoliyatda:**

-maktabgacha pedagogika va metodika fanlarini o‘qitishda namunaviy innovatsion texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llash;

-o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasini egallash;

-elektron o‘qitish vositalaridan samarali foydalanish;

-zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noa’nanaviy o‘quv mashgulotlarini o‘tkazish;

-o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv - metodik qo‘llanmalarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;

- o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun o‘qitishning didaktik vositalaridan foydalanish;

-mustaqil ta’lim va ilmiy-ijodiy qidiruv ishlari natijasida uxitilayotgan fan bo‘yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish.

-ta’lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o‘quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doyr zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o‘quv materiallarini modellashtirish;

-yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta’lim-tarbiya jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarning uyg‘unligiga erishish;

-ta’lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o‘zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;

-ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish; o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish va o‘tkazish;

-talabalarning kreativ salohiyatni ta’lim tizimni axborotlantirish jarayonida shakllantirish ham rivojlantirish;

-ta’lim menejmenti bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shaklantirish va rivojlantirish;

-ta’lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta’minlash qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

-ilmiy-tadqiqotlarni o‘tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

-zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, ta’lim-tarbiyaga doyr nazariyalar, konsepsiyalari, ilg‘or tajribalardan foydalanish malakasiga ega bo‘lishi;

-ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta’lim yo‘unalishlaridagi fanlar va ularni o‘qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

-internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

-ta’lim yo‘nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;

-ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari exspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

-ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish;

-tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Tarbiyaviy qadriyatlar esa ma’naviy-ma’rifiy faoliyatida:

-ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o‘quvchilar ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish;

-o‘quvchilarda mafxuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

-globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ta’siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

-mahallalarda ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha individual suhbat o‘tkazish;

-milliy urf-odat va marosimlarni o‘tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mexr-muruvvat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

-maktabgacha ta’limga oid turli tadbir, anjuman va ma’rifiy suhbatlarni tashkillashtirish;

-pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

-atrof-muhitni muhafaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga moyil kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

-jamoada ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

-fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda to‘g‘ri qaror qabul qilish;

-bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari maktabgacha ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarida ta’limiy-tarbiyaviy qadriyatlar kasbiy kompetensiyalar asosida ham shakllantiriladi.Bu umumiy va kasbiy kompetensiyalar asosida amalga oshiriladi:

1.Umumiy kompetensiyalar asosida:

-davlat siyosatining dolzarb muammolarini bilish,ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

-xorijiy tillarni birida kasbiy faoliyatga oid hujjatlarni mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

-axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qullay bilishi, axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

-yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

-sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvurga ega bulish.

2.Kasbiy kompetensiyalar bilan:

meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo‘llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

korporativ axborot tizimlarini, ta’limning statistik, moliyaviy-iqtisodiy tahlili va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma’lumotlar bazasini yuritishni bilish;

maktabgacha ta’lim nazariy bilimlarga ega bo‘lishi; gumanitar va ijtimoiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustakil taklil qila olishi;

tabiat va jamiyatda kechayotgan musiqiy jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

Maktabgacha ta’lim ta’limning bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar malaka talablari asosida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari ularning ta’limiy-tarbiyaviy qadriyalar asosida ijtimoiy intellektlarini shakllantirishning zaruriyatini belgilaydi.

ФИЗКУЛЬТУРНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ЦЕННОСТНОГО ОТНОШЕНИЯ К ЗДОРОВЬЮ У ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Мельникова М.С., кандидат педагогических наук, доцент, заведующий кафедрой методик дошкольного образования, учреждения образования «Белорусский государственный педагогический университет имени М. Танка»;
Денисеня Д.В., обучающаяся факультета дошкольного образования

Аннотация: в статье представлен анализ психолого-педагогических исследований по проблеме формирования ценностного отношения к здоровью у детей старшего дошкольного

возраста в разных формах физкультурно-оздоровительной деятельности в учреждении дошкольного образования.

Abstract: the article presents an analysis of psychological and pedagogical research on the problem of forming a value attitude to health in older preschool children in various forms of physical culture and recreation activities in a preschool educational institution.

Приобщение детей к ценностям физического воспитания имеет глубоко индивидуальный характер, связанный с уникальностью каждого ребенка и особенностями исходя из его личного опыта. На этапе освоения ценностей физической культуры происходит не только накопление умений и двигательных навыков, но и развитие личностных качеств дошкольников. Эта идея реализуется через приобретение ребенком опыта физкультурно-оздоровительной деятельности, а также через его умение применять полученные знания для сохранения и укрепления своего здоровья.

Аннотация.В статье дана подробная информация о методике организации занятий по физическому воспитанию воспитателями в дошкольных образовательных организациях и правильной ее реализации в образовательном процессе.

Ключевые слова: дошкольное образование, занятия по физическому воспитанию, методика, физическая культура, комплексные упражнения, подготовка, базовая, заключительная части.

Annotation. This article provides detailed information on the methods of organizing physical education classes by educators in preschool educational organizations and their correct implementation in the educational process.

Key words: Preschool education, physical education classes, methods, physical training, complex exercises, preparation, basic, final partsАннотация.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va o‘sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda bolalarning jismoniy tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish, ilk yoshdan boshlab jismoniy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va har tomonlama uyg‘un rivojlantirish maktabgacha ta'lim jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy talablaridan hisoblanadi. Bugungi bolalar qaerda yashashidan qat`iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ilmiy, texnikaviy va industrial sohalardagi o‘zgarishlar bilan to‘qnash kelishlariga to‘g‘ri keladi. Bolaning rivojlanishi va o‘sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashyo va buyumlar orqali anglab, undan o‘zicha ma'no topishga intilishi, qiziqish, hissiyotlari, jismoniy rivojlanishini kuzatamiz. Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko‘ra o‘ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o‘sib, ulg‘ayishida maktabgacha bo‘lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o‘sish, rivojlanish va o‘zgarishlar ichida yashaydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi 5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ommaviy sportni rivojlantirish va iste'dodli yoshlarni saralash (selektsiya) sohasida ta'lim muassasalarining ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshlang‘ich gimnastika va harakatli o‘yinlar bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borish orqali jismoniy rivojlantirish hamda salomatlikni mustahkamlash uchun tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga qiziqishni shakllantirish belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-son qarori, maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, jismoniy rivojlantirish, shu bilan birga maktabga tayyorlangan holda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi.

Bolalar harakat ko‘nikmalari va malakalarini egallaydigan jismoniy mashqlar ham belgilanadi:

a) asosiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, uloqtirish, muvozanatni saqlash mashqlari): umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, safga turish va qayta safga turish:

b) sport mashqlari (suzish, chang‘ida yurish, konki uchish va hokazolar).

Harakatli o‘yinlar (syujetli, syujetsiz, sport tarkibiy qismlari bo‘lgan o‘yinlar va boshqalar) ham ko‘rsatilgan, yozgi va qishki davrda uchastka tashqariga qilinadigan uzoq sayrlar ko‘zda tutilgan.

Jismoniy tarbiya ishining mazmunini belgilab beruvchi asosiy xujjat “Bolalar bog‘chasida tarbiya va ta’lim dasturi”dir. U bolalarni izchil harakat malakalari va ko‘nikmalariga o‘rgatish imkonini beradi, harakatlarning muvofiqligini rivojlantiradi va makonda yo‘l topishni rivojlantiradi, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, tezlik, hidamliliklar)ni tarbiyalaydi.

Ko‘pincha mustaqil o‘yinlarda bolalar noto‘ri va hatto xavfli harakatlarni ham bajaradilar: kursi yoki xoda ustidan butun oyoq kaftiga tayangan holda deyarli to‘ri yoq bilan sakrab tushadilar; erdan butun oyoq kafti bilan itarilib yuguradilar. Bunday hollarda har xil yo‘llardan foydalaniladi: katta odam o‘zi o‘yinga kirishadi; bolalarga ular taqlid qila oladigan biror tanish va yaqin obrazni eslatadi (mushuk qanday yumshoq sakrashini, qushchalar qanday shovqinsiz uchishlarini). Bolalarga o‘rgatilishi kerak bo‘lgan dastlabki o‘yinlar muayyan syujet va qoidalarga ega bo‘lmaydi. Bola oddiy, qiziqarli topshiriqlarni bajaradi: kelib, o‘yinchoqni qo‘liga oladi, kattalar oldiga yugurib borib, ular qo‘lida nima yashirilganligini ko‘radi. («Bayroqchani ol», «Mening yonimga yugur», «Bayroqchani top»). O‘yinlarni o‘rgatishda muayyan izchillikka rioya qilish kerak. Masalan, «meni tutib ol» o‘yini «seni tutib olaman» o‘yiniga qaraganda soddaroq. Birinchi xolatda bola o‘zidan katta kishini tutib olishi lozim; ikkinchi o‘yinda tutilish xavfi yuzaga keladi, shuning uchun bola ko‘proq jismoniy kuch sarflashiga to‘ri keladi.

Rolli o‘yin tasavvurning rivojlanishida belgilovchi ahamiyatga ega. o‘yin faoliyatida bola bir xil predmetlarni boshqalari bilan almashtirishni, o‘ziga har turli rollarni olishni o‘rganadi. Bularning barchasi tasavvurning rivojlanishiga yordam beradi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yinlarida o‘rinbosar predmetlar ham, ko‘pgina boshqa o‘yin harakatlari ham shart emas. Bolalar predmetlar va ular bilan boliq faoliyatlarni tenglashtirib, o‘z tasavvurlarida yangi vaziyatlarni yuzaga keltira boshlaydilar. O‘yin ichki tomondan amalga oshirilishi mumkin. Bola shaxsining rivojlanishiga o‘yinning ko‘rsatadigan ta’siri shundan iboratki, u orqali bola kattalarning yurish – turishi, o‘zaro munosabati bilan tanishadi, bular uning o‘z xattiharakatlari uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi; bola o‘yinda muloqot olib borishning asosiy ko‘nikmalarini, tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatish uchun zarur sifatlarni o‘zlashtiradi. Bolani butunlay qamrab olgan o‘yin uni zimmasidagi rolga muvofiq qoidalarga bo‘ysunishga majburlaydi, his-tuyularning rivojlanishi hamda xattiharakatlarni iroda orqali boshqarish qobiliyatining takomillashishiga ko‘mak beradi.

Xulosa qilib aytganda, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jamiyatda sog‘lom avlodni tarbiyalash bo‘yicha ishlarni, xususan, Respublika hukumati qabul qilgan qarorlar bilan bog‘liq holda, maktabgacha ta’lim muassasalariga berilayotgan e’tibor, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlashini to‘g‘ri tashkil etish va amalga oshirish jamiyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar, jismonan baquvvat va ruhan sag‘lom yosh avlodni shakllantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 05.11.2021. PQ-5282-son qarori
2. Ilk qadam. Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. –T.: 2018.
3. Maktabgacha ta’lim mussasalarida jismoniy tarbiya. T.Usmonxo‘jayev¸ X.Meliyev, M.Nuriddinova¸ A.Olimov. – Toshkent: Chirchiq 2019 yil.
4. Maktabgacha ta’lim mussasalarida jismoniy tarbiya. T.S.Usmonxo‘jayev¸ S.T.Islomova. - Toshkent: 2006 yil.
5. 5-6 yoshli bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari L.I.Penzullayeva. – Toshkent: 1992 yil
6. “Maktabgacha ta’limda jismoniy tarbiya” darslik. D.X. Umarov. Chirchiq. 2021.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINING MUSIQA MASHG‘ULOTLARIDA QO‘SHIQ O‘RGATISH METODIKASI

O‘zbekiston. Majitov Sh.M.
Navoiy davlat universiteti Musiqiy ta’lim kafedrasi dotsent v/b.

Anotatsiya: Qo‘shiq bolalarning nafosatini o‘rgatishga, ularni hayot va mehnatga, muhabbat, vatanparvarlik, do‘stlik, qahramonlik, baynalminallik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalshga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Baynalminallik, insonparvarlik, izchillik, ilmiylik.

Аннотация: Песня помогает учить детей изяществу, воспитывать их в духе жизни и труда, в духе благородных качеств, таких как любовь, патриотизм, дружба, героизм, интернационализм, гуманизм.

Ключевые слова: Интернационализм, гуманность, последовательность, научность.

Abstract: The song helps to teach children grace, to educate them in the spirit of life and work, in the spirit of noble qualities such as love, patriotism, friendship, heroism, internationalism, humanism.

Key words: Internationalism, humanity, consistency, scientificity.

Qo‘shiq har tomonlama bolani kamolga yetaklaydi. Bolalardagi musiqiy qobilyatni rivojlantirishga hamda bolaning barkamol yetuk avlod kishisi sifatida o‘sishiga yordam beradi. Bolalar bog‘chasida o‘rgatiladigan har bir qo‘shiq mazmuni va xarakterini ongli tushunishga o‘rgatish kerak bo‘ladi. Avvalambor tarbiyachi biror bir she’rni yod olishni dasturdan foydalangan holda o‘rganadi. Har bir tanlangan she’r bolaning qiziqishlari, bolaning ishlari, guruhlari hamda fasllarga qarab bayramlarning turlariga qarab o‘rgatiladi.

Qo‘shiq bolaning hayotida muhim rol o‘ynaydi. Qo‘shiq inson tafakkurini va ongini rivojlantiradi. Biz qo‘shiqni bolalarga o‘rgatayotganda avval qo‘shiq kuyini, keyin she’rini misrama-misra o‘rgatamiz. Qo‘shiq kuyini o‘rgatganda to‘rt xil musiqa asboblari orqali chalib o‘rgatishimiz mumkin. She’rni esa bo‘g‘inlarga ajratib yoki chapaklar orqali yod oldiradi. Bolalar she’rlarni tezroq yod olishlari uchun she’r matnlarini takror aytishimiz kerak. Agar bolaning xayoli bir joyda bo‘lmasa, musiqa tovushlarini va she’rni tez yod olishlari murakkab bo‘ladi.

MTT yoshidagi bolalarning ongi, hali rivojlanmagan bo‘ladi. Shuning uchun ular kuyni sekin va uzoq muddatda yod olishadi. Bolalarga musiqa tovushlarini tushuntirib o‘rgatish zarur. Bolalar tarbiyasida qo‘shiqning roli katta. Qo‘shiq lirikaning eng qadimgi turlaridan bo‘lib, kuylashga mo‘ljallangan bir necha modeli she’rdir. Qo‘shiqlar kuy va ohang bilan aytiladi. Ba’zan qo‘shiq o‘yin bilan birga ijro etiladi. Demak qo‘shiq uchun she’r va kuy kerak.

Qo‘shiq xalq og‘zaki ijodining eng ko‘p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biridir. Qo‘shiqlar xalq turmushi va mehnatning ijodiy mahsuli bo‘lib, unda xalqning orzu tilaklari qalb sadolari turli-tuman hayotiy tuyg‘ulari ifodalangan. Qo‘shiq bolalarning nafosatini o‘rgatishga, ularni hayot va mehnatga, muhabbat, vatanparvarlik, do‘stlik, qahramonlik, baynalminallik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalshga yordam beradi.

Qo‘shiq hayot mohiyati va mazmuniga mos shakllarda tuziladi. Masalan: bolalar bog‘chalarida tarixiy qo‘shiqlardan foydalansak bo‘ladi. Yana o‘zimizning milliy musiqalarimizni aytishni ham bolalarga o‘rgatishimiz mumkin ekan. Masalan: «Chitti gul»,»Boychechak», «Laylak keldi» va hokazolar.Bu musiqalar mavzu jihatdan mehnat, ishqiy, lirik qahramonlik qo‘shiqlariga va shu kabi boshqa turlarga bo‘lishimiz mumkin.

Hayot tajribalariga asoslanmagan rangbarang qo‘shiqlar orqali xalqning g‘am-hasrat, dushmanga nisbatan ga‘zab va nafrati kabi his-tuyg‘ulari izhor etiladi. Qo‘shiq bolani erkalatadi, o‘yinga boshlaydi, uni his qilish qobilyatini o‘stiradi, fikrlashga o‘rgatadi.Bola tug‘ilgan kunidanoq onaning mehr to‘la allasini tinglaydi. Bunda onaning bolaga bo‘lgan samimiy chuqur muhabbati bilan birga, farzandning jamiyatga mos, yaxshi farzandlar egasi bo‘lib tarbiyalanishini ta’sirli, ohangdor qo‘shiq orqali ifodalaydi:

Alla, bolam, alla, Jonim bolam, alla.
Ikki ko‘zim, alla, Shirin so‘zim, alla.

Alla bolam, baxti bor,

Har narsaning vaqti bor. Jonim bolam alla, Shirin so‘zim alla.

Ikki ko‘zim, alla, Jonim bolam, alla.

Allada yaxshi tarbiya ko‘rgan bola jamoa o‘rtasida, to‘y tomoshalarda, ota-onaning obro‘si uning shuhrati sifatida ta’riflanadi. Alla bolani chaqaloqlik davridanoq ohanglar vositasida ezgulikka chorlaydi.

Har bir qo‘shiq pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zda tutib tanlanadi. Qo‘shiqlarni tanlashda davomiylik, izchillik, ilmiylik va oddiylikdan murakkabga qarab borish tamoyiliga rioya qilinadi. Unda har bir yangi qo‘shiq oldingisidan hosil etilgan vokal xor malakalarini mustahkamlaydi va ularni rivojlantiradi. Qo‘shiq o‘quvchilar ruhiyatiga, badiiy_oilaviy mazmuni, yil, chorak mavzulari, yil fasllari, bayramlari, tarbiyalanuvchilari yoshiga mos bo‘lishi kerak.

Qo‘shiqlarni quyidagi talablarga ko‘ra tanlash tavsiya etiladi:

-qo‘shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, siyosiy g‘oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va xarakterining bolalar yoshiga mosligi;

-qo‘shiq matnining osonligi, badiiy yuksakligi bolalarning lug‘at boyligi va ularning nutqini o‘stirish uchun xizmat qilishi;

-qo‘shiq ohangi, uning xarakteri, lad va tessiturasi, ovoz diapazoni o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi;

-qo‘shiqning badiiy xususiyati va ifodaviyligi, bolalar idrokiga mosligi, garmonik tuzilishi va ohangdoshligi;

Cha-man, cha-man o-chi-lar ba-hor cho-g_i gul-lo-la

Gul-ni yax-shi ko-ra-di kat - ta ki-chik har bo - la

Ket-gan qush - lar u-zoq-dan ya-na biz - ga qay-ta-di

Kur-tak och-gan shox-lar-da say-rab qo‘-shiq ay-ta-di.

Musiqa bolaga har tomonlama yordam berib, tevarak-atrofni obrazli, emotsional idrok etish va bola xarakterining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatish uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

1. Bolada musiqiy qobilyatni rivojlantirish.

2. Bolalarni qo‘shiq aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o‘rgatilib, ularda musiqani qabul qilishni his etish va tushinish qobilyatlarini tarbiyalash.

3. Bolada badiiy ijodiy qobilyatlarni rivojlantirish.

Musiqiylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini, ularning atrofidagi qo‘shimcha obrazlarni yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o‘z navbatida ularning tevarak-atrofni bilishida, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bolalarni musiqa bilan shug‘ullantirishning sababi bola musiqa bilan shug‘ullanmasdan, qo‘shiq aytish va musiqa – ritmik harakatlar qilish ko‘nikmalarini yuzaga keltirib, shu soha bilan bog‘liq bilimlarni o‘zlashtirishi mumkin.

MTMgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berishning o‘zaro uzviy bog‘langan uchta metodi bor:

1. Ko‘rgazmali metod.

2. So‘zlab berish metodi.

3. Amaliy faoliyat metodi.

Bolalar bog‘chasida bolalarni musiqaga o‘rgatish bosqichlari

1-bosqich:

Musiqa asari bilan dastlabki tanishtirish.

Yangi qo‘shiqni o‘rgatish jarayonida pedagog turli musiqa asboblarida chaldirib, kuyni o‘zaro taqqoslaydi va shu yo‘l bilan uni xotirasida qoldiradi.

2-bosqich: Qo‘shiq va musiqa ritmik harakatlarini ijro eta olish ko‘nikmalarini shakllantirish.

3-bosqich: Ko‘nikmalar hosil qilish va mustahkamlash. Bunda topshiriqni avtomatik ravishda bajara oladigan qo‘shiq, o‘yin va raqsni mustaqil ijro etadigan darajada musiqa ta‘limini berish, turli metodik usullarning barchasidan foydalanishni taqozo etadi. Qo‘shiq har tomonlama bolani kamolga yetaklaydi.

Bolalardagi musiqiy qobilyatni rivojlantirishga hamda bolaning barkamol yetuk avlod kishisi sifatida o‘sishiga yordam beradi. Bolalar bog‘chasida o‘rgatiladigan har bir qo‘shiq

mazmuni va xarakterini ongli tushunishga o‘rgatish kerak bo‘ladi. Avvalambor, tarbiyachi biror bir she‘rni yod olishni dasturdan foydalangan holda o‘rgatadi. Har bir tanlangan she‘r bolaning qiziqishlari, bolaning ishlari, guruhlari hamda fasllarga qarab bayramlarning turlariga qarab o‘rgatiladi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA TA’LIM-TARBIYA BERISHNING ASOSLARI

O‘zbekiston. Bobomurodov Sobit Erkinovich
NavDU Jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy tarbiya berishning prinsiplari, metodlari va usullari hamda ularga ta’lim va tarbiya berish bilan bir qatorda jismoniy tarbiya berish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, metod, prinsip, usul, o‘yin, sog‘lomlashtirish, chiqinlashtirish, harakat, faoliyat, sport, og‘zaki, amaliy, frontal.

Аннотация. В статье изложены сведения о принципах, методах и методиках физического воспитания детей дошкольного возраста, а также их обучения и воспитания.

Ключевые слова: Физическое воспитание, метод, принцип, способ, игра, укрепление здоровья, утилизация отходов, движение, деятельность, спорт, словесный, практический, фронтальный.

Abstract. This article provides information on the principles, methods and techniques of providing physical education to preschool children, as well as providing them with education and upbringing.

Keywords: Physical education, method, principle, method, game, health promotion, waste disposal, movement, activity, sport, verbal, practical, frontal.

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslar etib, voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan.O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli Qonunida jismoniy tarbiya maktabgacha ta’limning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilgan. Qonunning 4-moddasida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari belgilangan bo‘lib, ulardan biri bolalarni jismoniy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan. Bu prinsiplar orasida har bir bolaning iste’dodi, ishtiyoqi va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, ta’lim va tarbiya berishning uyg‘unligi, shaxsiy yondashuv va ta’lim-tarbiya jarayonining shaffofligi kabilar mavjud.[1] Shuningdek, qonunning 5-moddasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida bolalarni jismoniy jihatdan rivojlantirish, sog‘lomlashtirish va ularni har tomonlama rivojlantirish uchun zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish ko‘zda tutilgan. Qonun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyani quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirishni nazarda tutadi:

- **Sog‘lomlashtirish va chiniqtirish:** Bolalarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, immunitetini oshirish va kasalliklarning oldini olish.
- **Harakat faoliyatini rivojlantirish:** Yurish, yugurish, sakrash kabi asosiy harakat ko‘nikmalarini shakllantirish.
- **Sport va o‘yinlar orqali tarbiya:** Milliy va zamonaviy sport o‘yinlari orqali bolalarda jismoniy faollikni oshirish.
- **Estetik va axloqiy tarbiya:** Jismoniy mashg‘ulotlar orqali bolalarda estetik did va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish.

Bolalar rivojlanishi, jismoniy tarbiyasining nazariyasi va metodikasi fani bir qator fanlar bilan aloqaga ega. Ulardan bir guruhi jismoniy madaniyatni tashkil etish va rivojlantirishning ijtimoiy qonuniyatlari, jismoniy mashqlarning bola psixikasi va organizmiga ta’siri, shuningdek, pedagogik ta’sir metodlari va vositalarini o‘rgansa(umumiy jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyoti, umumiy va maktabgacha pedagogika, jismoniy tarbiya psixofiziologiyasi, bolalar psixologiyasi, yosh davrlar psixologiyasi, sport psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya), ikkinchi guruhi

(tibbiy-biologik sikl fanlari: fiziologiya, anatomiya, tibbiyot, biologiya, jismoniy mashqlar biomexanikasi, neyropsixologiya, gigiena) bola rivojlanishining biologik qonuniyatlarini o‘rganadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy tarbiya jarayonida ta’lim-tarbiya berishning asoslari bolalarning sog‘lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini olib borish hamda asoslab berish jarayonida quyidagi didaktik prinsiplar qo‘llaniladi: tizimlilik va izchillik; onglilik, mustaqillik va ijodiy faollik; ta’limning ko‘rgazmali, og‘zaki va amaliy metodlarini optimal tarzda birga qo‘shib olib borish; tushunarlilik va individual ishlash asosi; ta’limning frontal, guruhiy va individual formalarining birligi, talablarni tobora oshirib borish prinsipi.[2] Prinsiplar bilan bir qatorda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini jismoniy tarbiyaga o‘rgatishda metodlar ham qo‘l keladi. Bolalarni jismoniy tarbiyaga o‘rgatishning metodlari: axborot-retseptiv metod tarbiyachi bolalarda harakat ko‘nikmalarini shakllantirishda, reproduktiv metod bolalar harakat faoliyatini to‘laqonli o‘zlashtirishlari uchun xizmat qiladi shu bilan qatorda ko‘rgazmali, og‘zaki va amaliy metodlar mavjud. Bolalarni o‘rgatishda og‘zaki va ko‘rgazmali usullarning maqsadga muvofiq qo‘shib olib borilishi ularning o‘zaro bog‘liqligi bir tomondan harakatlarni idrok etish va qayta bajarishning aniqligi va obrazliligini, ikkinchi tomondan bolalar bajaradigan harakatli topshiriqlar – ular mazmuni va har bir harakat faoliyatining barcha elementlari izchilligini ongli tushunilishini ta’minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda gigiyenik omillar, tabiatning tabiiy kuchlari va jismoniy mashqlar va boshqalardan foydalaniladi. Jismoniy tarbiya berish jarayonida jismoniy inventarlar bilan mashq o‘tkazish jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Chaqqonlikni – kublar, kegli orasidan “ilon izi” bo‘lib yugurish; ko‘z chamasini – soqqa o‘yini, halqa tashlash; kuchni – to‘g‘ri qo‘llarda chalvir yoki kokilchalarni tarang tortish: bir qo‘ldan ikkinchi qo‘lga tortib o‘tkazish orqali rivojlantirish mumkin. Jismoniy mashqlar maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatiga ko‘ra tashkillashtiriladi ya’ni har bir yosh guruhlari uchun daqiqa va mashqlarning qay tartibdi bajarilisji muhim hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda jismoniy buyumlar bilan bajariladigan mashqlar keng qo‘llaniladi. Jismoniy inventarlar orasida turli kattalikdagi koptoklar, chambaraklar, arg‘amchilar, tayoqchalar, bayroqchalar, kubiklar va boshqa shu singari anjomlar ko‘proq ishlatiladi. Chiroyli rang berib tayyorlangan inventarlardan foydalanish bolalarni gimnastika mashg‘ulotlariga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, ularning emotsional tarbiyasiga ham yaxshi ta’sir qiladi.

Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash lozimki bolaga ta’lim tarbiya berish jarayonida ularda charchoq hamda toliqish kuzatilishi mumkin, jismoniy daqiqalar sport mashg‘ulotlari va musobaqalar ularni tetiklashishga hamda faollikni oshirishga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiytolar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli qarori
2. M.X. Tadjiyeva, S.I. Xusanxodjayeva “Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” Toshkent “IQTISOD-MOLIYA” 2017 Toshkent “IQTISOD-MOLIYA” 2017
3. B.B.Ma`murov Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent “Turon Zamin Ziyo” 2014
4. S.O. Mirzayeva, N.M. Boyjonova “Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi” Ученый XXI века • 2022 • № 3 (84) 48-49
5. F.A.Asqarov “Bolalar jismoniy tarbiyasi” O‘quv qo‘llanma Namangan 2022 196b.

THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM IN THE UNITED STATES: A PLAY-BASED LEARNING APPROACH

O‘zbekiston. Tillayeva Dildora Ravshanovna
Teacher of day care “Ann Kids”

Аннотация: В данной статье рассматривается организационная структура системы дошкольного образования в Соединённых Штатах Америки (США), методические подходы и принципы развития детей через игру.

Ключевые слова: Дошкольное образование в США, обучение через игру, методические подходы, ребенок в центре обучения, программа HighScope, программа Head Start, методика Реджо Эмилия, модель Bank Street, сравнение образовательных систем, индивидуальный подход, дошкольники, педагогические методы, образовательные стандарты, свободная обучающая среда.

Annotation: This article discusses the organizational structure of the preschool education system in the United States (USA), methodological approaches, and principles of child development through play.

Keywords: Preschool education in the USA, Learning through play, Methodological approaches, Child-centered learning, HighScope program, Head Start program, Reggio Emilia method, Bank Street model, Comparison of education systems, Individual approach, Preschool children, Pedagogical methods, Education standards,Free learning environment

In today's era of globalization, analyzing and learning from the educational systems of various countries has gained immense importance. Particularly, the preschool stage plays a pivotal role in shaping a child's personality, thinking abilities, and social-emotional skills. This phase serves as the foundation for subsequent educational stages. The preschool education system in the United States is predominantly organized by the private sector. Although public preschools do exist, they are limited in number and primarily serve children from low-income or socially disadvantaged families.

The U.S. preschool education system is not centrally governed; rather, it is based on standards developed by educational authorities at the federal and state levels. Preschools operate under a strict framework of licensing, quality control, hygiene, and safety regulations, and are regularly monitored. Although preschools function independently, they are supervised by special institutions such as the Department of Education to ensure educational quality. Each state follows its own preschool education standards, which help children acquire fundamental knowledge in English, mathematics, science, and social studies.

Learning Through Play: The “Learn Through Play” Approach

One of the core principles of the U.S. preschool education system is play-based learning. According to this approach, children acquire knowledge and skills not through formal instruction, but through daily life activities and role-playing games. These games are pre-planned and designed to enhance children's speech, thinking, and understanding of various professions.

For example, during a kitchen-themed game, the teacher observes the child's actions and asks questions such as: “What are you cooking?”, “What food is healthy?”, “What do we add to soup?”, “Who cooks at home?” These types of questions not only encourage communication but also help children express their thoughts freely, understand different roles, and form ideas about real-life situations and professions. If a child struggles to answer, the teacher simplifies the question or rephrases it, which demonstrates the high level of pedagogical skill required for individualized instruction.

Educational Programs and Methodological Approaches

The most widely implemented programs in U.S. preschools include:

- **Head Start and Early Head Start** – aimed at children from low-income families, these programs include education, healthcare, and nutrition services.
- **HighScope** – promotes independent thinking, planning, hands-on activities, and reflective discussions.
- **Bank Street Model** – supports holistic child development through experiential learning.

- **Reggio Emilia Approach** – encourages inquiry, creativity, and collaborative learning based on children's interests. The environment is regarded as the "third teacher."
- **Creative Curriculum** – focuses on child-centered learning integrated with interdisciplinary activities.

Content and Organization of Learning Activities

The daily schedule in preschools typically includes:

- "Circle Time" – group discussions and Q&A sessions;
- "Story Time" – reading and discussing fairy tales;
- Singing, arts and crafts, nature exploration;
- Foundational learning such as colors (red, yellow, green), numbers (1–3), shapes, and letters.

These activities are conducted in a natural and engaging way, rather than through formal lessons. For instance, children may play with water outdoors, mold animals from clay, or create imaginary hospitals or shops. These role-playing activities foster cognitive, linguistic, social, and physical development.

The Role of the Teacher and Individualized Approach

In American preschools, the ratio is typically one teacher per four to five children. This allows for individualized attention and tailored instruction based on each child's interests and needs. Teachers actively engage with children, respond thoughtfully to their questions, and support their language development. Most importantly, children are taught to express their thoughts openly and confidently.

Conclusion

The U.S. preschool education system places the child at the center of the educational process. Although not mandatory, it offers parents numerous programs and institutions to ensure quality and flexible early childhood education. Emphasis on play-based learning, individualized approaches, and the nurturing of emotional and social development positions the U.S. preschool model as a globally recognized advanced practice. Compared to the experience in Uzbekistan, this approach offers greater opportunities for children's independent development and critical thinking.

References

1. National Association for the Education of Young Children (NAEYC). (2020). Developmentally Appropriate Practice in Early Childhood Programs Serving Children from Birth Through Age 8. Washington, DC: NAEYC.
2. U.S. Department of Education. (2022). Early Learning and Development. Retrieved from https://www.ed.gov/early-learning
3. Head Start Program. (2023). Head Start and Early Head Start Overview. U.S. Department of Health and Human Services. Retrieved from https://www.acf.hhs.gov/ohs
4. HighScope Educational Research Foundation. (2021). The HighScope Preschool Curriculum. Retrieved from https://highscope.org
5. Bank Street College of Education. (2022). The Bank Street Approach. Retrieved from https://www.bankstreet.edu
6. Edwards, C., Gandini, L., & Forman, G. (2012). The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Experience in Transformation (3rd ed.). Santa Barbara, CA: Praeger.
7. Dodge, D. T., Colker, L. J., & Heroman, C. (2010). The Creative Curriculum for Preschool. Teaching Strategies.
8. Hirsh-Pasek, K., & Golinkoff, R. M. (2003). Einstein Never Used Flashcards: How Our Children Really Learn—and Why They Need to Play More and Memorize Less. Rodale Books.
9. Pianta, R. C., Barnett, W. S., Justice, L., & Sheridan, S. (Eds.). (2012). Handbook of Early Childhood Education. New York, NY: The Guilford Press.
10. OECD. (2020). Starting Strong V: Transitions from Early Childhood Education and Care to Primary Education. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/23132713.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘YINLAR ORQALI O‘RGATISH

O‘zbekiston. Yerdosova Bagida Urazaliyevna
Profi University “ Pedagogika va chet tillar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘yinlar orqali o‘rgatish haqida fikrlar bildirilgan. Bolalarga ta’lim berishda o‘yinli texnologiyalardan foydalanish va innovatsion texnologiyalari haqida qayd etilgan.

Аннотация. В статье представлены идеи обучения английскому языку через игру в дошкольных образовательных организациях. Упоминается об использовании игровых технологий и инновационных технологий в обучении детей.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiya, kreativlik, kompetensiya, o‘yin, kommunikativlik, shaxs, rivojlanish diapazoni.

Ключевые слова: инновационные технологии, креативность, компетентность, игра, коммуникация, личность, диапазон развития.

Hozirgi kunda uch tilni o‘rgatish maktabgacha ta'lim muassasalarining vazifalaridan biridir. Shunday ekan, bolalar bog‘chada yoshligidanoq uzbek tili bilan bir qatorda rus va ingliz tillarini ham o‘rganishlari kerak. Ularning chet va boshqa tillarga qiziqishini oshirish, uch tillilik orqali o‘rgatish zarur. Bolalarni bir til bilan cheklash to‘g‘ri emas.

Maktabgacha yoshdagi bolalar chet tilini o‘rganish uchun idealdir. Buning sababi shundaki, bu yoshdagi bolalarning til hodisalari va tillariga qiziqishi ortib boradi. Yana bir sabab shundaki, bola qanchalik yosh bo‘lsa, ona tilidagi so‘z boyligi shunchalik kamayib boradi. Shuning uchun, chet tilini o‘rganish katta yoshdagi bolalarga qaraganda ancha jonli va ular o‘z ona tili va chet tili o‘rtasida katta farqni sezmaydilar[2].

Maktabgacha yoshdagi bolaning og‘zaki nutqi, so‘zlarni to‘g‘ri ishlatishi, so‘z boyligi oshadi, grammatik nutq tizimi va fonemik eshitish qobiliyati faol rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar kichik mashg‘ulotlar va o‘yinlar orqali chet tilini tezda o‘rganishlari mumkin. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar ham tilni o‘zlashtirish uchun psixo-fiziologik jihatdan samarali. Chaqaloqlar har qanday tilda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga qodir. Agar bola faqat bitta tildagi so‘zlarga duchor bo‘lsa, uning nutqi o‘sha tilga “qattiq bog‘langan” bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda o‘qituvchi har bir bolaning shaxsiyatining umumiy rivojlanish diapazoni, jismoniy, intellektual va psixologik-emotsional xususiyatlarini bilishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun o‘yindan o‘qitish usuli sifatida to‘g‘ri foydalanish bolalarning o‘yin davomida bir-biri bilan va o‘qituvchi bilan osongina muloqot qilishiga imkon beradi. O‘yinlar, musiqa jo‘rligi, qo‘shiqlardan foydalanish, chet tilida multfilmlar tomosha qilish bolalarning qiziqishini oshiradi va o‘quv jarayonini osonlashtiradi. Shuningdek, u ma'lumotni o‘zlashtirish, diqqatni jamlash, esda saqlash va takrorlashga katta hissa qo‘shadi. Kichik guruhlarda bolalar bilan doira darslarini o‘tkazish eng qulaydir, chunki har bir bolaning individual qobiliyatlari ta'kidlanadi va ularning bir-biri bilan munosabatlari yaxshilanadi [3].

Shuning uchun biz bolalar bog‘chasi o‘quvchilarimizga mos keladigan fiziologik va lingvistik xususiyatlar asosida kichik guruhlarda ishlaymiz. Bizning fikrimizcha, ingliz tilini o‘qitishda maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasi asta-sekin rivojlanishi kerak, shuning uchun boladan darhol yaxshi natija kutmaslik kerak, bunday omillarni hisobga olish kerak. Har bir o‘qituvchi to‘garak ishini olib borishda uchta tamoyilga amal qilishi kerak:

• Ya'ni, ingliz tilidagi so‘zlarni fonetik nuqtai nazardan, o‘qituvchiga ergashib, asta-sekin fonetik eshitish va to‘g‘ri talaffuzni rivojlantirish tamoyili.

• Ingliz lug‘atini birlashtiring va jonlantiring.

• Oddiy grammatik tuzilmalar ma'lum darajada shakllantirilishi kerak.

Darslarimda maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tiliga qiziqishini oshirish uchun turli motivatsion vaziyatlar yarataman. Bu o‘yin orqali bolaning hayot haqidagi tasavvuri, mehnatga munosabati, psixologik xususiyatlari shakllanadi. Shuning uchun darslarimning aksariyati o‘yin shaklida bo‘ladi. Masalan: “Keling, dasturxon yozamiz” o‘yini “Ovqat. Ovqatlar” mavzusi deb

ataladi.: «Let`s lay the table» o‘yini «Oziq-ovqat. Meals» Masalan: “Keling, dasturxon yozamiz” o‘yini “Ovqat. Ovqatlar” mavzusida.

Bolalarga «Let`s lay the table» tavsiya etiladi. Bolalar oldiga meva, sabzavot va gazaklar solingan stol qo‘yiladi va yordamchi tanlanadi. Yordamchi o‘qituvchining ko‘rsatmalariga amal qiladi. Take a banana. Put the banana on the table. Take a cheese. Put the cheese on the table.

«What can you do?» o‘yini «Hayvonlar. Animals» mavzusiga.

Bolalarga turli hayvonlarning rasmlari beriladi va ular rasmdagi hayvonni keltirib, «What can you do?» degan savolga ular: «I can run, I can jump, I can swim, I can fly»deb javob beradi.

«Paravoz» o‘yini «Raqamlar. Numbers.» mavzusiga

O‘qituvchiga parovoz kerak. O‘qituvchi - haydovchi. Raqamlar- yo‘lovchilar. Har bir bekatdan o‘qituvchi aytgan sonlar poezdga utirishi kerak. Bolalar o‘qituvchi aytgan raqamlarni vagonga qo‘yishadi.

«Svetofor» o‘yini «Ranglar. Colours» mavzusiga

Maqsad: ranglar mavzusini birlashtirish. Boshlang‘ich va tugatish chiziqlarini chizish. Bolalar boshlang‘ich chiziqda, haydovchi marrada turishadi. Haydovchi: «Green color» (yashil rang) – yurishingiz mumkin. «Red color» (qizil rang) – qatib qalish kerak, kim harakat qilsa, o‘yindan shiqadi. G‘olib haydovchi bo‘ladi.

Kichkintoylar uchun ingliz tili darslarini yanada qiziqarli qilish uchun siz quyidagi o‘yin turlaridan ham foydalanishingiz mumkin:

• Fonetik o‘yinlar;
• So‘z o‘yinlari;
• O‘rganish qoidalari bilan bog‘liq o‘yinlar;
• Nutq qobiliyatlari uchun o‘yinlar;
• Tetiklantiruvchi o‘yinlar,
• Son turkimi bilan bog‘liq o‘yinlar;
• Didaktik o‘yinlar.

O‘yinlar darsning samaradorligi va sifatini oshiradi, shuningdek, bolalarning faolligini, ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, o‘yin bolaning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishni tezlashtiradi, idrokini mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, o‘yin bolalarning yoshi va qobiliyatiga mos bo‘lishi va yuqori tarbiyaviy va rivojlanish ahamiyatiga ega bo‘lishi kerak. O‘yinni qo‘llash orqali yangi materialni oson, to‘g‘ri va aniq tushuntirish va o‘zlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi, bu esa bolaning ongida mustahkam saqlanib qoladi. O‘yindan foydalanish bolalarga alohida ta'sir ko‘rsatadi va barsha bola o‘yinda ishtirok etishi kerak.

Keling, ingliz tilini o‘qitishning shakl va usullariga to‘xtalib o‘tamiz. O‘qituvchi ingliz tilini o‘qitishda fonetik usuldan faol foydalanishi kerak. To‘g‘ri talaffuz mashqlari bilan bolalarni zerikmasliklari uchun fonetik mashqlar o‘yin shaklida qo‘llaniladi.

Bolalar ingliz maqollari va idiomalarini takrorlashda inglizcha jumlalarni to‘g‘ri intonatsiya qilish imkoniyatiga ega.

Yosh bolalar yorqin, jonli, rang-barang rasmlar va chiroyli tasvirlar orqali yangi so‘zlarni juda tez o‘rganadilar.

Bolaning nutqini rag‘batlantirish uchun mebel, idish-tovoq, kiyim-kechak, qo‘g‘irchoqlar va hokazo. O‘yinchoqlardan foydalanish katta yordam beradi. Yangi va noyob o‘yinchoqlar darsga innovatsion element olib keladi. Ingliz tilini o‘qitish va o‘rganish jarayoni quyidagi o‘yin shakllarida amalga oshiriladi: didaktik o‘yinlar, dramatizatsiya o‘yinlari, musiqa va harakatga asoslangan o‘yinlar. Dramatizatsiya o‘yinlariga ertaklar, multfilmlar, she’rlar kiradi. Bolalarda dialog va monolog nutq qobiliyatlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar e‘ga buladi.

Har xil mukofotlar. Ya’ni, bolalarning o‘yindagi faol ishtirokiga qarab mehnati baholanishi kerak va men tashkil etilgan o‘quv faoliyatida yashirinish, yechish, izlash, topish kabi o‘yin elementlaridan foydalanaman.

Bolalar bog‘cha tadbirlarida ingliz tilida she’rlar, qo‘shiqlar, ertaklardan parchalar ko‘rsatib, bir-birlari bilan dialogga kirishib, olgan bilimlarini namoyish etadilar.

Yangi O‘zbekistonning yangi fuqarosini tarbiyalash bolalarga ta’lim beruvchi ta’lim muassasalari zimmasidadir. Shunday ekan, biz bolani bog‘chaga qadam qo‘ygan kunidanoq xorijiy va boshqa tillarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishimiz, mamlakatimiz kelajagi farzandlarini bir vaqtning o‘zida uch tilni puxta egallashga o‘rgatishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.A.Slastenin «Pedagogika: Innovatsionnaya deyatel’nost’» - M. 2002
2. http://arxiv.uz referatlar Tarbiyachining innovatsion faoliyati 2019 yil
3. Abduqodirov A., Begmatova N., Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. - Qarshi, “Nasaf”. 2011 y. 57 b.

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH MAZMUNI

Qoraqalpog‘iston. Jumasheva G.X. p.f.d., professor
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi mudiri
Tursınbaeva A.M. - 1-kurs magistr, Ajiniyoz nomidagi NDPI.

Annotatsiya: Maqolada kompetentsiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish ochib beriladi. Shu bilan birga kompetentsiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi nazariy asoslarini o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, kompetentlik, faoliyat, shart-sharoit, tajriba, moderinizatsiya, tizim, kreativ, texnologiya, kognitiv,yondashuv, kasbiy faoliyat, rivojlantirish.

Аннотация: В статье раскрывается совершенствование технологии подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности на основе компетентностного подхода. Вместе с тем изучается теоретические основы технологии подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: Компетенция, компетентность, деятельность, условия, опыт, модернизация, системный, творческий, технология, познавательный, подход, профессиональная деятельность, развитие.

Summary: The article reveals the improvement of the technology of preparing future educators for professional activity based on a competency-based approach. At the same time, the theoretical foundations of the technology of preparing future educators for professional activity based on a competency-based approach are studied.

Keywords: Competence, competence, activity, conditions, experience, modernization, system, creative, technology, cognitive, approach, professional activity, development.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetensiyasi tizimi – pedagogik mahorat orqali ta’lim va tarbiya faoliyatlarida namoyon bo‘ladi va u o‘z navbatida tarbiyachidan yuksak mahoratni talab etadi. Kasbiy tayyorgarlik modelini shakllantirishda umumiylikdan xususiy mahorat sari boriladi. Umumiy mahorat – bu pedagogik fikr yuritish va faoliyat yurgazish hisoblanadi, fakt va hodisalarni nazariy jihatdan tahlil qilishga undaydi. Tarbiyachi uchun zarur bo‘lgan mahoratning bu ikki unsurini birlashtirish asosida konkretlikdan obstraklikka, ya’ni aniqlikdan mavhumlik sari o‘tiladi. Ular sezgi, tafakkur va nazariy asoslarda yuz beradi. Tahlil etishni nazariy darajaga olib chiqish mahorati bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni pedagogik mahoratga o‘rgatishning yoki pedagogik mahoratni yanada takomillashtirishning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Pedagogik masalalarning umumlashganligiga qaramay, pirovard natija, yechim “fikrlash, faoliyat yurgazish, fikrlash” mana shu uchlikka kelib taqaladi hamda pedagogik faoliyat unsurlari va unga mos bo‘lgan axborot bilan uyg‘unlashib ketadi. Natijada bo‘lajak tarbiyachining kasbiy kompetentligi modeli uning nazariy va amaliy tayyorgarligi sifatida namoyon bo‘ladi.Ular quydagilar:

- Pedagogik kompetensiya bo‘lajak tarbiyachi kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilim, mahorat, ko‘nikma;
- Muammolarni muvaffaqiyatli yechish qobiliyati, oliy darajadagi kasbiy mahorat.

- Kasbiy faoliyati davomida tarbiyachi tomonidan qo‘llanilgan texnologiyalar, metodlar va usullar yig‘indisi.

Turli tajribalar yig‘indisi, pedagogik faoliyatdagi katta tajriba. Pedagogik kompetensiya pedagogika sohasidagi bilim, mahorat, ko‘nikma, ma’lumotlilik va obro‘-e’tibor.

V.Xutorskiy ta’limda o‘qituvchining yetti kompetensiyasini tavsiflaydi:

1. Dunyoqarash asnosida ya’ni qadriyat va o‘zini anglash - o‘qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. U atrof-muhitdagi voqea va hodisalar ning mohiyatini ko‘ra oladi va tushunadi bunga o‘zini yo‘naltiradi, pedagog sifatida o‘z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya - o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlari dagi o‘z-o‘zini anglash mexanizmini ta’minlaydi.

2. Umummadaniy milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlarga hurmat; ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Ilm-fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta’sirini anglay olishi va talabalarga tushuntira olishi.

3. O‘quv va bilish jarayoni - o‘qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O‘quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko‘nikmasini tahlil qila olishi. 4. Ma’lumotga ega bo‘lish - pedagogik faoliyati, o‘z faniga doir ma’lumotlarni egallash ko‘nikmasi.

5. Muloqotchanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

6. Ijtimoiy - foydali mehnat, oilaviy munosabatlar va mas’uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

7. O‘z ustida ishlashi - jismoniy, ma’naviy, intellektual jihatdan o‘zo‘zini rivojlantirib borishi. Hissiyotini boshqarish.

Kvalifikatsiya va kompetensiyaning o‘zaro munosabati: Kvalifikatsiya - potensial faoliyatda bilim va ko‘nikmaning namoyon bo‘lishi.

Kompetensiya - bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko‘rinishi [3.17].

Didaktik kompetensiya:

- o‘qitish muhitini yaratish;
- mavzu mazmunini yoritishni rejalashtirish;
- o‘quv jarayonini boshqarish;
- talabalarga motivatsiya berish va yordam ko‘rsatish;
- talabalar bilimini anglash va ularni rivojlantirish;
- talabalarning yutuqlari va rivojlanishlarini baholash;
- fanlar bo‘yicha kompetensiyaga ega bo‘lish. Ta’lim sifatini belgilovchi omillardan biri bu o‘qituvchi ning o‘z fani bo‘yicha kompetensiyaga ega bo‘lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo‘ladi:
- ilmiy bilim;
- turli xil faoliyatni bajara olishi (namuna, misol keltira olishi);
- muammoli vaziyatlarni samarali yechimini topishda ijodiy faoliyat asosida yondashish;
- jamiyat va insonlarga, tabiatga ijobiy emotsional munosabat da bo‘lish tajribasi. Professional pedagog o‘z kasbining yetuk ustasi – ustoz pedagog, albatta uning pedagogik mahorati bo‘ladi. U barcha vaziyatlarda ham o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli olib boradi. U albatta, zamonaviy metod va usullarni muntazam o‘rganib boradi, pedagogik kasbiy kompetensiyaga ega bo‘ladi. Chunki shu hislatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘zi bilgan, bilmagan holda haqiqiy kompetensiya egasi bo‘ladi. Mehnat qilish madaniyatigagina emas, balki yuksak umuminsoniy madaniyatlar: odobaxloq, qadriyatlar va obro‘-e’tibor egasi bo‘lishi o‘z-o‘zidan ayon. Shu bois ham, talabalarning kasbiy kompetensiya egasi bo‘lib yetishishlari uchun Milliy dasturimizda uch bosqichli tizim bo‘yicha ta’lim-tarbiya beriladi. Pedagogik qobiliyat - pedagogning pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olishini, shuningdek, pedagogik jarayonlarni takshil etish va boshqara olishini ifodalovchi qobiliyat. Kasbiy motivatsiya - kasbga tegishli vazifalarni bajarish va kasb tanlashni belgilovchi, atrof, borliq omillari, kasbga yo‘naltirishga oid faoliyat ta’sirida shakllanuvchi mayldan iborat. O‘qituvchining kasbiy

kompetensiya bazasi shundan iboratki, ta’limiy, rivojlantiruvchi muhitni tashkil qila olishi ko‘nikmasiga ega bo‘lish kerakki, talabalarda bilim, ko‘nikma malaka shakllansin. Ta’lim jarayoni shunday tashkil etilishi lozimki, bunda talabalarda qiziqish ortsin, shu bilan birga o‘ylash va munozara yuritish, dolzarb savollarni qo‘ya olish, mustaqil tafakkurni shakllantirish, g‘oyalar yaratishga o‘rgatish, turli xil nuqtai nazarlarni aytish ko‘nikmasini shakllantirish. Har qanday o‘qituvchining maqsadi dars jarayonidagi vaziyatlarni “rivojlantiruvchi muhit”ga aylantira olishi kerak.

Zamonaviy tarbiyachining asosiy kompetensiyasi:

O‘z “ta’limiy kamchiliklari”ni mustaqil tuzatib, bolalar bilan birga ta’lim-tarbiya jarayonini olib borishni bilish.

2. Bolalarni mustaqil faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishni bilish.

3. O‘quv jarayonini sahnalashtirish bunda turli xil faoliyat usullaridan foydalanish, ularga bolalarning moyilligi va qiziqishiga qarab ishlarni taqsimlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

4. Tadqiqotchilik tafakkuriga, bolalarda tadqiqotchilik ko‘nikmasini tashkil etishni bilishi kerak.

5. Talabalarni yutuq va rivojlanishlarini baholash tizimidan foydalanish.

6. O‘quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni bilish.

7. Dars jarayonida suhbat va bahs-munozara olib borish, bolalar o‘zlari xoxlab aytmoqchi bo‘lgan fikr, qarash va munosabatlarini bayon eta olishlariga yo‘naltirilgan muhitni yaratish. Nafaqat bolalar bir-birlari bilan balki, tarbiyachi bilan ham shaxsiy qarash va munosabat, tanqidlarni tahlil qilishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.»O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4038-son Qarorlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi-O‘zbekiston Respublikasining Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5847 sonli farmoni.

3. Mukarram Axmedova. Kasbiy kompetentlik. Uslubiy qo‘llanma. -T. 2018 yil.

4. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. -Toshkent. 2008 yil.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINI IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISHINING ASOSI

O‘zbekiston. G.P.Ermatova
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi v.b.dotsenti
N.N.Xusenova
Navoiy pedagogika texnikumi
Maxsus fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola buyuk mutafakkirlar Amir Temur, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Farobiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug‘bek kabi allomalarimizning hayoti va ijodini maktabgacha ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada allomalarning ahamiyatga molik ishlari haqidagi hikoyalar, suhbatlar va she'rlarni bolalarga singdirishning ahamiyati ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Farobiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug‘bek, allomalar, maktabgacha ta'lim, hikoyalar, suhbatlar, she’rlar.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам интеграции жизни и творчества великих мыслителей, таких как Амир Темур, Абу Али ибн Сино, Абу Райхан Беруни, Аль-Хорезми, Алишер Навои, Фараби, Захириддин Мухаммад Бабур, Мирзо Улугбек, в процесс

дошкольного образования. В статье подчеркивается важность привития детям рассказов, бесед и стихов о значимых трудах этих ученых.

Ключевые слова: Амир Темур, Абу Али ибн Сино, Абу Райхан Беруни, Аль-Хорезми, Алишер Навои, Фараби, Захириддин Мухаммад Бабур, Мирзо Улугбек, ученые, дошкольное образование, рассказы, беседы, стихи.

Annotation: This article focuses on the integration of the life and work of great thinkers such as Amir Temur, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhan Beruni, Al-Khwarizmi, Alisher Navoi, Farabi, Zahiriddin Muhammad Babur, Mirzo Ulugbek into the preschool education process. The article highlights the importance of instilling in children stories, conversations, and poems about the significant works of these scholars.

Keywords: Amir Temur, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhan Beruni, Al-Khwarizmi, Alisher Navoi, Farabi, Zahiriddin Muhammad Babur, Mirzo Ulugbek, scholars, preschool education, stories, conversations, poems.

Mamlakatimizda yuz berayotgan iqtisodiy-siyosiy o‘zgarishlar inson tafakkurida ham o‘ziga xos yangilanishlar bo‘layotganini namoyon etmoqda. Har qanday tarbiya, asosan, bolalarning maktabgacha yoshidan boshlanadi, tarkib topadi va rivojlanib boradi.

Ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi ham bolalarni amaliy faoliyat yuritishiga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ijtimoiy-hisiy rivojlanishning shakllanadigan dastlabki mafkuraviy ong, his-tuyg‘u va axloq qoidalarining butun bolalaik faoliyatida o‘zaro hamda kattalar bilan bo‘ladigan munosabatda u yoki bu tarzda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham bolalalikning ilk yoshidan boshlab mafkuraviy tushunchalarni singdirishda maktabgacha yoshidagi bolalarning yoshi, yashash muhiti, shaxsiy xususiyatlari, ruhiy holatlari hamda ular faoliyati (o‘yin, mehnat va turli mashg‘ulotlar) hisobga olinadi. Bu bosqichda tarbiya aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, bolalarning ruhiy kechinmalarini, his-tuy‘ularini uyg‘unlashtirish asosida insonparvarlik mehr-saxovat, o‘zaro hurmat, g‘amxo‘rlik, do‘stlik, bunyodkorlik, o‘zaro yordam, bir-birini qo‘llash, o‘z faoliyatini mustaqil ravishda idrok eta bilish kattalar topshirig‘ini bajarish do‘stlari va o‘z manfaatini uyg‘un qo‘yish kabi his tuyg‘ular tarkib topadi.

Bu yoshda bolalarga do‘stlari orasida o‘zlarini namunali tutishlari va ularga samimiy munosabatda bo‘lishlari o‘rgatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga o‘z Vatanini sevishga, uning tarixiy an’anaviy, axloqiy qoidalar, muomala madaniyati, urf-odatlarga sodiqlik, non va suvga, tabiat boyliklariga tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishni shakllantirishda ham o‘z milliy xususiyatlarimiz namoyon bo‘ladi.

Bolalarni tarbiyalashda milliy xususiyatlar hisobga olinib, ularning butun hayoti kattalar g‘amxo‘rligida o‘tishi va shu bilan birga kattalar nazorati tashkil etadi. Ularga katta yoshlilarni hurmat qilishi, kichiklarga mehribonlik qilish, atrofdagilarga xayrixohlik qilish kabi hissiy kechinmalari shakllantirib boriladi va bu juda muhimdir.

O‘zbek xalq ertaklari xalqimizning buyuk xazinasidir. Ertaklardagi turli qahramonlar namunasida bolalarga o‘z vatani, o‘lkasi, uyi, ota-onasiga muhabbat g‘oyalari singdiriladi. Yaqin kishilariga do‘stlariga, aka-ukasiga, opa-singillariga nisbatan mehr-muhabbat, oqko‘ngillik, mardlik va ezgulik tarbiyalanadi. Shuningdek ertak qahramonlarini namuna qilish orqali bolalarda ezgulik, to‘g‘rilik, halollik, xalqsevarlik, jasurlik, kamtarinlik kabi xislatlar rivojlanib boriladi. Bu manbalar bolalarda eng ezgu ma’naviy fazilatlarni tarbiyalaydi va shakllantirib boradi.

Bolalarni milliy mafkura ruhida tarbiyalashda asrlar bo‘yi e’zozlanib kelingan turli manbalardan foydalanish, non va suvni, azaliy qadriyatlarimizni muqaddas deb bilib ularni isrof qilmaslik, ota-onani e’zozlash kabi eng yaxshi xislatlarni bolalarda kamol toptirish xalq pedagogikasining asosi sifatida har bir tarbiyaviy tadbir mashg‘ulot negizida tashkil etishi zarur.

Xalq og‘zaki ijodining maktabgacha yoshidagi bolalar hissiy irodaviy rivojlanishga yo‘naltirilgan namunalarini mazmun mohiyatini, shu bilan birgalikda tabiat va jamiyatdagi barcha mavjudodga mehr-muhabbatli bo‘lish kabi hissiy tuyg‘ularni umumlashtirib va rivojlantirib borish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy mafkura ruhida tarbiyalashda, axloqiy tuyg‘ular, tasavvurlar, hatti-harakatlar, xulq-atvor madaniyati salbiy jihatlarini kamol toptirishni g‘oyaviy va

tarbiyaviy ishlarni maqsadga ko‘ra tashkil etish, uni hayot va zamon talabi bilan bog‘lab olib borish buyuk mutafakkirlarimiz merosidan amalda foydalanish yaxshi samara beradi.

Bunda Amir Temur, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Al Xorazmiy, Alisher Navoiy, Farobiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug‘bek kabi allomalarimiz ahamiyatga ega bo‘lgan ishlari haqidagi hikoyalar, suhbatlar, she’rlar bolalarga singdirilib borilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni.T.”2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi Qonuni.T.”2019.
3. Quronov M., Safarova R., To‘xtayeva M. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi / - T.: «Fan va texnologiya», 2017.
4. To‘xtayeva T., G‘afforova Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash metodikasi - T.: «O‘qituvchi», 2019.
5. Ibragimov X., Abdullayeva M. Oila pedagogikasi - T.: «Fan», 2018.
6. Shodmonova G‘. Yosh davrlari psixologiyasi / - T.: «Istiqlol», 2016.
7. O‘zbek xalq ertaklari / To‘plovchi: M. Aliyev. - T.: «O‘zbekiston», 2015.
8. Hoshimov K., Nishonova S. Xalq pedagogikasi / - T.: «O‘qituvchi», 2018.

O‘YIN TERAPIYASI

O‘zbekiston. Bozorova O‘g‘iloy Kamilovna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada art pedagogikaning yo‘nalishlaridan biri, o‘yin terapiyasining ahamiyati, o‘yin turlari va ular haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yin, harakatli o‘yinlar, qoidali o‘yinlar, ijodkorlik, qobiliyat, o‘zaro munosabat, psixologik jarayon, mantiqiy fikr.

Аннотация: в данной статье представлено одно из направлений арт-педагогики, значение игровой терапии, виды игр и информация о них.

Ключевые слова: this article expresses opinions on the importance of sand therapy as one of the directions of artistic pedagogy and on the importance of using this therapy from preschool age.

Abstract: this article expresses opinions on the importance of sand therapy as one of the directions of art pedagogy and on the importance of using this therapy from preschool age.

Keywords: game, outdoor games, games with rules, creativity, abilities, interaction, psychological process, logical thinking.

Bolalik yosh davri borki u o‘yin bilan bevosita bo‘g‘liq. Har bir kishi bolalagida o‘ynagan o‘yinlarni va o‘yinchoqlarini bir umr yodida saqlaydi. O‘yin orqali bola hayotni anglaydi, o‘z o‘rnini topadi, tengdoshlari bilan do‘stlashadi, iliq munosabatda bo‘ladi, mantiqiy fikrlaydi va ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Shuning uchun ham psixologlar maktabgacha yosh davrdan o‘yin terapiyasidan unumli foydalanish samaralidir.

Maktabgacha yosh davrdan o‘yin o‘ynash – bolani jismoniy va psixologik rivojlanishi uchun muhimdir. O‘tgan asrning 20-yillarida olimlar o‘yinning nafaqat sog‘lom bolaga ta’sirini, balki, ayrim sabablar tufayli rivojlanishdan orqaga qolayotgan bolalarga ta’sirini o‘rganishgan. Psixologiyada o‘yin terapiyasi metod bo‘lib – bu metod yordamida mutaxassis bolaga rivojlantiruvchi ta’sir o‘tkazgan va davolagan.

O‘yin terapiyasi art terapiyaning bir yo‘nalishi hisoblanadi. Bu terapiya bola bilan yakka tartibda va jamoaviy tartibda olib boriladi. Terapiya bolada qo‘rquvni yengishga, hayotidagi vaziyatlar va muammolarga to‘g‘ri yechim topa olishga yo‘l ko‘rsatadi. O‘yin terapiyasining elementlari bu o‘yin va o‘yinchoqlardir.

O‘yin hozirgi kundagi eng samarali metod hisoblanadi. O‘yin pedagogikaning asosiy faoliyat turi. O‘yin orqali bola atrof olamni anglaydi, ma’lumotlar bazasi boyiydi va mayda qo‘l motorikasi

yahshi rivojlanadi. Atrofidagi muhitga moslashuvchanlik, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qila olish, jamoa bilan kirishimli bo‘lish shakllanadi. Oyinlar harakter xususiyatiga qarab bir necha turlarga bo‘linadi.

Syujetli-rolli o‘yinlar tarbiyachi boshchiligida bolalar tomonidan tashkillashtiriladi. O‘yinning bu turi orqali bolalar erkin faoliyat olib borishadi. Ayrim holatlarda bu o‘yin turi ijodiy tur hisoblanib, bolalar ko‘rgan voqeyliklarini o‘yinda aks ettirishadi. Ya’ni kattalarga taqlid qilishadi. Syujetli-rolli o‘yinlar bolalar nutqini rivojlantirish bilan birga, ularda aktyorlik qobiliyatlarini shakllantiradi.



Harakatli o‘yinlar bolani tayanch tizimiga samarali ta’sir qiladi. Bu o‘yin turi orqali bola chiniqadi, chaqqonligi oshadi, qoida bilan o‘ynashga odatlanadi, jismonan sog‘lom bo‘ladi, teran fikrlaydi. Harakatli o‘yinlar bolalarga yugurish, emaklash, sakrash, sudralish, maxsus yo‘lakchalardan to‘g‘ri yurish, uzoqqa irg‘itish kabi mashqlarni bajarishga imkon beradi. Bolaning nerv tizimini sog‘lom rivojlanishi uchun ham bu o‘yinnig ahamiyati katta. Bu o‘yinlar orqali bolada mardlik, tez javob berish kabi sifatlar ham yaxshi shakllanadi. Harakatli o‘yinlarda ham bolalar yoshiga e’tibor berish muhim.

Bolalar bilan harakatli o‘yinlar olib borishdan oldin ularga o‘yin qoidasi tushuntirilishi lozim. Qoida asosida o‘yinning borishi tarbiyachi-pedagoglar tomonidan nazorat qilinadi.



Ta’limiy o‘yinlar bolalar dunyo qarashini kengaytiradi va mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi. Ta’limiy (didaktik) o‘yinlarda ma’lum bir vazifa qo‘yiladi. Bu o‘yinlar bolalarni aqliy salohiyatiga, diqqatni jamlashga, fikr qilishga undaydi.



~



O‘yin terapiyasida o‘yinning ahamiyati qanday bo‘lsa, o‘yinchoqlarning ham ahamiyati muhim o‘ringa ega. O‘yinchoq - bola tug‘ilganidan uning birinchi hamrohi bo‘ladi. O‘yinchoq – bolaga quvonch, kayfiyat, xursandchilik ulashadi. O‘yinchoqlar qanday didaktik maqsadga yasalgan va ma’lum ma’noga ega chizgilarga ega bo‘lsada, lekin kattalar ishtirokisiz tarbiyaviy ahamiyat kasb etmaydi.





O‘yinchoqlar katta pedagogik ahamiyatga ega. Ular turli materiallardan yasaladi va turlicha ahamiyat kasb etadi. Bolaga o‘yinchoq tanlashda uning sifatiga, tashqi ko‘rinishiga, ta’limiy ahamiyatiga va bolaning yoshiga e’tiborli bo‘lish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Искусство и дети: Эстетическое воспитание за рубежом. М.: Искусство,1969.
2. Эстетическое воспитание, его особенности и структура. Арзиматова Иноятхон Мадимаровна, ФерГУ., кандидат философских наук, доцент. 2019.
3. Петрушин *В. И.* Музыкальная психотерапия. — «Владос», 2000.
4. Петрушин В. И. Связь музыкальной терапии с концепциями ведущих психотерапевтических школ // Психотерапия. — 2006. — № 2.
5. Клюев А. С. Музыкотерапия как метод музыкальной педагогики // Искусство и образование. — 2012. — № 4 (78).
6. Клюев А. С. Об использовании музыкотерапии в педагогической работе. Новые данные // Искусство и образование. — 2019. — № 5 (121). — С.
7. Ertak terapiyasi - maktabgacha yosh bolalar rivojlanishi asosi 2024
   BO Kamilovna
   Maktabgacha va maktab ta'limi 7 (№07), 226-228
8. Музыкотерапия в музыкальном образовании — Терапия искусством художественном образовании: по итогам 10-ти международных научно-практических конференций (Санкт-Петербург, 2008—2017 гг.) / Сост. и науч. ред. проф. А. С. Клюев. — СПб.: Алетейя, 2018.
9. Носирхўжаева Г Этика. Эстетика. /Тошкент-2006
10. Радугин А. Этика. Курс лекций. – М.,1998
11. Формирование эстетической культуры студентов в педагогическом вузе: методические рекомендации / Н.В.Черникова. Минск 2010
12. Зауторова Э.В. Роль искусства и арт-терапии в профилактике и коррекции девиантного поведения подростков / Э.В. Зауторова // Вестник психосоциальной и коррекционно-реабилитационной работы. — 2005. №1.
13. Хрисанова Е. Арт-педагогика в системе современного воспитания / Е. Хрисанова, Н. Сергеева // Народное образование. 2003. -№7.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

O‘zbekiston. Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna

Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogika oliy ta’lim muassasalarida malakaviy o‘quv amaliyot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining innovatsion rivojlanish istiqbollari, malakaviy o‘quv amaliyoti jarayonida mashg‘ulotlarda, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay olishining turli usullari, strategiyalari bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, kasbiy kompetentlik innovatsion vositalar, kognitiv, operatsion, texnologik, motivatsion pedagogik yondoshuvlar.

Аннотация: В данной статье даны рекомендации по инновационным перспективам развития методики развития профессиональных компетенций будущих воспитателей в педагогических высших учебных заведениях, по различным методам, стратегиям применения современных технологий в обучении, развитии профессиональной компетенции будущих воспитателей в процессе профессиональной практики.

Ключевые слова: Компетентность, профессиональная компетентность инновационные инструменты, познавательные, операционные, технологические, мотивационные педагогические подходы.

Abstract: This article provides recommendations on the prospects for the innovative development of the methodology for the development of professional competencies of future educators in the process of qualification training practice in pedagogical higher educational institutions, various methods, strategies for the application of modern technologies in training in the process of qualification training practice, in the development of professional competence of future educators.

Key words: Competence, professional competence innovative tools, cognitive, operational, technological, motivational pedagogical approaches**.**

Bugungi kunga kelib bo‘lajak pedagoglarning ta’lim tizimi malakaviy o‘quv amaliyotida jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rvojlantirish dolzarb muammo sifatida ustivorlik qilmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosini bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda insonparvarlik, hamkorlik, shaxsga yo‘naltirilganlik, uzliksizlik, qadriyatlarga asoslanganlik tashkil etadi.

Malakaviy o‘quv amaliyoti jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish faoliyatining ilmiy yo‘nalishlarini belgilash va uni amalga oshirish uchun bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetentli qilib tayyorlash bizga tadqiqotning pedagogic shart-sharoitlarini o‘rganishga va tahlil qilishga bo‘lajak tarbiyachilarningkasbiy kompetensiyasining mazmun mohiyatini aniqlashga imkon berdi.

Ta’limda zamonaviy talablarning muhumligi bo‘yicha, bo‘lajak tarbiyachilarning tayyorlashda kasbiy kompetentlikga hamda pedagogik yondashuvlarni o‘zaro aloqa va ahamiyatlarini o‘rganish zarurdir. Buning uchun zamonaviy innovatsion texnologiyalar bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonini oshirishi, ularning ta’lim jarayonidagi faoliyatini yanada rivojlantirish va samarali qilish uchun qanday metodlar va yondashuvlar qo‘llanishi kerakligi muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, kasbiy kompetensiyalar va ta’lim jarayonining zamonaviy talablariga oid nazariy va amaliy jihatlar ko‘rib chiqiladi

Malakaviy o‘quv amaliyoti jarayonida bo‘lajak tarbiyachilar zamonaviy innovatsion vositalar yordamida mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishlari muhim. Bo‘lajak tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zaro faoliyatini yo‘naltirish, rag‘batlantirish, jamoa bo‘lib ishlash va muammolarni hal qilishko‘nikmalarini rivojlantirish uchun innovatsion yondoshuvlar va strategiyalarni qo‘llashadi. Zamonaviy innovatsion texnologiya maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim olish jarayonida turli faoliyatlarni idrok qila olish, diqqatini jamlash, qiziqishlarini orttirish,

bilish ko‘nikmalarini nazorat qilish va baholash jarayonini yanada qulaylashtiradi. Shuningdek, ta’lim sifatini oshrishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayoni zamonaviy ta’lim tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Malakaviy o‘quv amaliyotida innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, bo‘lajak tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlarni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-289-son qaroriga muvofiq, 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2 — 4-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib borilishi joriy etildi.

Mazkur tartib an’anaviy amaliyot o‘tkazish tartibiga nisbatan qator ijobiy yutuqlarga ega. Talabaning o‘quv yili davomida 30 hafta 2 kundan amaliyotda bo‘lishi bo‘lajak tarbiyachi uchun quyidagi shart-sharoitlarni yaratib beradi:

- Uning ta’lim muassasasiga moslashishi (adaptatsiya)ni jiddiy bo‘lishiga sabab bo‘ladi;
- Har bir darsdagi muammoli vaziyatlarni ham maktabdagi ham universitetdagi ustozlardan so‘rab o‘rganib borishiga imkon yaratadi;
- Universitet tomonidan ham kredit modul tizimida, ham raqamli ta’lim va raqamli nazorat sharoitida pedagogik amaliyot o‘tish imkoniyati yaratiladi.

Shunga ko‘ra, zamonaviy sharoitda oliy pedagogik ta'limning muhim vazifasi bo‘lajak tarbiyachining o‘zgaruvchan sharoitlarda turli xil o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv yurtlari asosida ishlashga tayyorligini ta'minlashga qaratilgan tarbiyachilarni tayyorlash uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqishni kuchaytirishdir.

Ushbu muammoning dolzarbligi ob'ektiv omillar bilan bog‘liq.

Birinchidan, ta'lim muassasalarini o‘z ichiga olgan ijtimoiy-pedagogik tizimlarning ishlashi muhim ijtimoiy-dinamik jarayonlar fonida sodir bo‘ladi, ular orasida: ijtimoiy rivojlanish paradigmasining o‘zgarishi; taraqqiyotni izlash ijtimoiy tizimlarni takomillashtirish va ularni boshqarishda emas, balki ijtimoiy rivojlanish paradigmasining o‘zgarishida, ammo ularni optimallashtirilgan inson faoliyati bilan muvofiqlashtirishda; inqiroz hodisalarini pedagogik muhitga proektsiyalash kabi masalalar mavjud.

Ikkinchidan, bir tomondan kreativ kasbiy kompetentsiyaga ega bo‘lgan tarbiyachilarga keskin ehtiyoj va uni shakllantirish uchun ijodiy o‘zini namoyon qilish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmaydigan umumiy pedagogik tayyorgarlik tizimi o‘rtasidagi ziddiyatlarni inkor etish mumkin emas, boshqa tomondan, jarayonni o‘zgartirishning ob'ektiv ehtiyojlari o‘rtasidagi ziddiyatlar ijodiy shaxsni rivojlantirish jarayoni va tarbiyachilarni duch keladigan muammolarni ijodiy echimlariga tayyorlashda mavjud yondashuvlar sifatida uning mohiyatini tushunishga asoslangan mutaxassisni shakllantirishdir.

Malakaviy o‘quv amaliyot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi muvaffaqiyatli shakllantirish uchun quyidagi asosiy pedagogik shartlar mavjud:

1. Tanlangan kasbga ijobiy munosabat va kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirishga doimiy ehtiyojning mavjudligi (kelajakdagi kasbiy faoliyat mazmuni to‘g‘risida aniq fikr; kasbiy motivatsiyani mustahkamlash; tarbiyachilarni faol kasbiy yo‘naltirilgan faoliyatga kiritish; kasbiy aks ettirish).

2. Kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalashni faollashtirish (tarbiyachilarning o‘z-o‘zini takomillashtirish bo‘yicha maqsadli mustaqil ishi; kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash;).

3. Tarbiyachilarni kelajakdagi mutaxassislikka haqiqiy amaliy faoliyatga kiritish (oliy maktab tarbiyachilarining professionalligi; tarbiyachilarning o‘quv, ilmiy va kasbiy faoliyatini samarali boshqarish; oliygohda kreativ muhit yaratish; tarbiyachining murabbiylik funktsiyasi; ta'lim muassasasining ijobiy axloqiy va psixologik iqlimi.

Bizning tadqiqotimiz uchun ta'lim sharoitlaridan tashqarida bo‘lgan haqiqiy kasbiy faoliyatni simulyatsiya qiladigan, tarbiyachilarni unga kiritishga imkon beradigan, shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradigan va natijada ularning kreativ yondashuv asosidagi kasbiy kompetentsiyasini shakllantiradigan pedagogik sharoitlarning mohiyati, tarkibiy qismlari va xususiyatlarini aniqlash muhim edi.

Maktabgacha ta'limda ijodiy faoliyatni o‘qitish ijodiy shaxsning bir qator fazilatlarini yaxshilashga hissa qo‘shadigan faoliyat sifatida qaraladi: aqliy faoliyat; zukkolik; aniq amaliy ish uchun zarur bo‘lgan yangi bilimlarni olish istagi; ta'lim muammolarini tanlash va hal qilishda mustaqillik; mehnatsevarlik va mas'uliyat; raqobatbardoshlik va boshqalar.

Shunday qilib, jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim sharti kreativ yondashuv asosidagi ta'lim bo‘lib, uning asosiy maqsadi ijodiy shaxsni shakllantirishdir. Tarbiyachi faoliyatidagi eng muhim bo‘g‘in ijodiy pedagogik muloqotdir. Kreativ yondashuv asosidagi ta'limni rivojlantirish tarbiyachidan kasbiy kompetentligini, o‘z salohiyati va raqobatbardoshligini doimiy ravishda rivojlantirishni talab qiladi.

Malakaviy o‘quv amaliyot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetentsiyalari hamda kompetentlikni rivojlantirish metodikasiga ko‘ra, “kompetentlik” tushunchasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: xulq-atvor, kognitiv, operatsion, texnologik, motivatsion, ijtimoiy va axloqiy komponentlar, ta'lim natijalari va boshqalar[2]. Shu bilan birga, kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishga bag‘ishlangan ishlar va materiallarda «kompetentlik» tushunchasining umumiy qabul qilingan aniq ta'rifi mavjud emas. Bundan tashqari, pedagogika fanida tarbiyachilarning “kompetentsiyalari”ni izohlash bilan bog‘liq masalalar hali ham muhokama qilinmoqda[3].

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019 y., 07/19/4312/3106-son.

2. Sadriddinovna, R. B. (2022). FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. Thematics Journal of Education, 7(4).

3. Ramozonova, B. (2023). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE EDUCATORS DURING THE PROCESS OF QUALIFIED EDUCATIONAL PRACTICE. Science and innovation, 2(B4), 228-230.

4. Рамозонова, Б. С., & Абдумуминова, Д. (2023, March). ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ. In E Global Congress (No. 3, pp. 1-5).

5. Sadriddinovna, R. B. (2022). FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. Thematics Journal of Education, 7(4).

6. Ramozonova, B. S., & qizi Abdumo‘minova, D. R. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING O ‘YIN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYACHINING O ‘RNI. *GOLDEN BRAIN*, *2*(12), 25-27.

[2] Rakhmatov U.E. A perfection of the professional competence of teachers by using of creative works in biology lessons under solving tasks and exercises //European Science Review, Vena. № 3–4. 2018, – P. 225 – 228. ISSN 2310 – 5577

[3] Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, - P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115) (www.geniusjournals.org)

MAKTABGACHA TA’LIMDA TABIATGA OID BILIMLAR VA BADIIY ESTETIK TARBIYANING INTEGRATSIYASI.STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

O‘zbekiston. Muhammadiyeva Feruza Turakulovna
Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM texnologiyasining ta'lim jarayonidagi o‘rni, amaliyotda tadbiq etishdagi jarayonlar, STEAM ning amaliyot bilan bog‘liqligi, tajriba o‘tkazish xonalarining tashkil etilishi va ko‘zlangan maqsad, texnologiyaning bola hayotidagi ahamiyati va uning xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM, texnologiya, innovatsion metodlar, laboratoriya, intallekt, salohiyat, tafakkur, axborot kommunikatsiya

Abstract: In this article, the role of STEAM technology in the educational process, the processes of its implementation in practice, the connection of STEAM with practice, the organization of experiment rooms and the intended purpose, the importance of technology in the life of a child and its features are given in general. information provided.

Keywords: STEAM, technology, innovative methods, laboratory, intelligence, potential, thinking, information communication.

STEAM ta‘lim texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o’zlashtirishlari uchun bir vaqtni o’zida aqliy faoliyat bilan birga amaliy faoliyatni uyg‘unligini ta‘minlaydilar. Bunda ―Aql va qo’l iborasiga amal qiladilar. Olgan bilimlarini amaliy faoliyatda ko’rib tezda uqib, o’zlashtirib oladilar.

O’yin-Qurilish-Kognitiv va tadqiqot faoliyati - badiiy va ijodiy faoliyat turlari. XXI asr texnologiyalarini –dasturlash elementlari va raqamli texnologiyalarni o’zlashtirish. Har bir modul STEAM ta‘lim maqsadlarini amalga oshirishni ta‘minlaydigan aniq vazifalarni kompleks ravishda hal qilishga qaratilgan:kognitiv tadqiqotlar jarayonida bolalarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va ilmiy-texnik ijod qilishga o_rgatish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda Badiiy-texnik ijodiyotni sintez qilish, umuman AKT (axborot kommunikatsiya texnologiyalari) va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, media ma‘lumotlarni takomillashtirish asosida animatsion samarali foydali mustaqil faoliyatini tashkil etish, bolalarni mantiqiy va algoritmik fikrlashi, rejalashtirish va modellashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

STEAM ta‘lim texnologiyasining asosiy pedagogik ahamiyatli jihati shundaki, shaxsni integratsiyalashgan rivojlanish imkoniyatidir. Integratsion yondashuv turli xil faoliyat turlari – o’yin, texnik, nutq, vizual, kommunikativ, kognitiv va boshqalarning o’zaro bog‘liqligida namoyon bo’ladi.

Shunday ekan, maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotidagi faol jarayonlari bilan bog‘liq bo’lib, maktabgacha ta‘lim tizimida bola shaxsini shakllanishida zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish, turli shakl, usul va vositalarini ishlab chiqishni, ularni har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini talab etadi.

Bizga ma‘lumki maktabgacha ta‘limda faoliyatning yetakchi turi o’yin deb hisoblanadi lekin STEAM texnologiyasi tadqiqotchilarining fikriga ko’ra bolalarning yetakchi faoliyat turi bu tajriba deb hisoblanadi. O’yinchoqlar yordamida bolalar o’qish, o’lchash, tekislash, hisoblash, bo’yash, muloqot qilishni o’rganadilar va jamoa malakalarini egallaydilar. Bu ularga zarur matematik, filologik va muhandislik san‘at ko’nikmalarini olishga yordam beradi. Bolalar o’zlari uchun yangi va noaniq g‘oyalar tanlash va ular asosida ilk tajribalarni o’tkazadi va shu orqali qiziqarli o’yin shaklida yaratish salohiyati rivojlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM dasturi asosida tashkil etiladigan barcha faoliyatlarda bolaning faolligi muhim sanaladi. STEAM dasturida qandaydir bir g‘oya, qanday bir tushuncha va fikrlar aqlning rivojlanishi uchun asos bo‘la olmaydi. Bola barchasini amaliyotda o‘zi

qo‘llab, natijaga o‘zi guvoh bo‘lishi, aniqroq qilib aytganda bajarib his etib ko‘rishi lozim. Chunki faoliyatda manipulyatsiyalash va integratsiyalashgan haqiqiy zamonaviy muhit va uning axborot-kommunikatsiya qismi, va ular bilan birga olib borilga tajribalar bolani ta'limga jalb etadi va qiziqishini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida sifat va samaradorlikni yaxshilaydi. STEAM dasturida bolalar bilan tajribalar tashkil etishda doimo bolalarning yosh jihatlari inobatga olinishi faoliyatdagi har bir jarayonlar oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishi lozim. Ushbu tamoyilga amal qilinsagina, bola uchin qiyunchilik tug‘dirmaydi, oson, qulay, qiziqarli, eng asosiysi bolaga mustaqil ravishda tajribalarni amalga oshirish imkonini beradi.

STEAM texnologiyasining ta'limdagi muvaffaqiyati shundan iboratki, STEAM ta'lim oluvchiga borliqni anlab, olgan bilimlarini amaliyotda tadbiq qila olish, tajribalar o‘tkazish, olgan natijasidan faxrlanish, his etish, yangisida intilish, tadqiqodchilik salohiyatini beradi.

STEAM texnologiyasi 3 yoshdan 11-yoshgacha bo‘lgan bolalarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, intellektual salohiyatini oshirish, tadqiqotchilik qobiliyatni amaliyotga rivojlantirish, yaratish uchun tajriba maydonchasidir. STEM texnologiyasi dasturining maqsadi bolalarning bilim faoliyati jarayonida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va ilmiy va texnologik ijodkorlikka jalb qilishdir.

Dasturni rivojlantirishning kutilgan natijalari

Bola ulg‘aygan sari tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarida faollashadi, qiziqish bilan namoyon bo‘la boshlaydi, savollar bera boshlaydi, o‘rtoqlariga va o‘ziga, natijada ta'sir munosabatlarini o‘rnatadi. Bolalar tabiatan tomosha qilish, tajriba qilish, jonli tabiat, tabiatshunoslik, matematika va boshqa sohalardan boshlang‘ich g‘oyalarni faol ravishda shakllantirishga moyil. STEAM dasturida bola har tomonlama intellektli, rejalashtirish, tanlash qobiliyatlari namoyon bo‘la boshlaydi. Turli tadbirlarda o‘z bilim va ko‘nikmalariga tayanib, o‘z qarorlarini qabul qilishga, turli faoliyatda ya'ni o‘yin, muloqot, ta'limiy va tadqiqot faoliyatlarida mustaqillikni namoyon qila boshlaydilar.

STEAM dasturining samaradorligini yanada kuchaytirish maqsadida ta'lim tashkilotlarida bolalarni ta'limga, ixtirolarga bevosita jalb etuvchi maxsus tajriba xonalari, to‘garaklar, intellektual salohiyatini yanada oshiruvchi ijodiy musobaqalar, o‘yinlar, har bir faoliyatni axborot kommunikativ texnologiyalar asosida olib borish orqali bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

STEAM ta'limi bolalarning quyidagi muhim xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi:

- Muammolarni keng qamrovli tushunish
- Ijodiy fikrlash
- Muhandislik yondashuv
- Tanqidiy fikrlash
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash
- Dizayn asoslarini tushunish.

Bu ko‘nikmalar kelajakda bolalarga turli masalalarda, ijodiy faoliyatda, to‘siqlarga duch kelganda, umumiy olganda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. TURAKULOVNA M. F., QIZI M. M. M. COMPETENCE OF THE EDUCATOR IN THE ORGANIZATION OF VISUAL ACTIVITIES //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2021. – T. 1. – №.

2. – C. 100-103. 2. Muhammadiyeva F. T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities //European research. – T. 1. – C. 75.

3. Turakulovna M. F. MAKTABGACHA TA’LIMDA TEXNOLOGIYA TA’LIMI: BOLALARGA ARTEFAKTLARDAN FOYDALANISH VA YARATISH IMKONIYATLARINI TA’MINLASH: Muxammadiyeva Feruza Turakulovna, Termiz davlat pedagogika instituti,

maktabgacha ta’lim nazariyasi kafedrasi o ‘qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 2. – С. 180-182.

4. Aziza C. BOLALAR ADABIYOTI NAFOSAT TARBIYASINING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA: Cho ‘tbayeva Aziza, maktabgacha ta’lim kafedrasi o ‘qituvchisi, Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 1122-1124.

5. Muhammadiyeva F. THE ROLE OF PEDAGOGICAL WORKERS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN SOCIAL ACTIVITIES WITH CHILDREN //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 94- 96.

6. Muhammadiyeva F., Muyassar E. MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNING XOTIRASINI KUCHAYTIRISH USULLARI //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 28. – №. 5. – С. 54-59.

7. Muhammadiyeva F. MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI TARBIYALANUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH YO‘LLARI //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 2. – №. 1. 8. Muhammadiyeva F. THE ROLE OF EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN SOCIAL ACTIVITIES WITH CHILDREN //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 225-227.

9. Muhammadiyeva Feruza AS A FACTOR OF EDUCATION- SOCIALIZATION Web of Scientist: Международный научный исследовательский журнал , 4 (04), (2023). 427– 442. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/M9KQ

10.Muxabbat Berdieva, Feruza Muhammadiyeva, Malika Jumaeva, Lola O‘tasheva. Beneficial effect of walnuts on brain activity.BIO Web Conferences.-1-9, 2024

11.Muhammadiyeva Feruza To‘raqulovna .FUNDAMENTALS OF THE FORMATION OF THE COMPETENCE OF SOCIAL DEVELOPMENT OF EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATSION. «Экономика и социум». 2024 yil

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA VA OILADA JISMONIY TARBIYANI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

O‘zbekiston. O‘rinov Obloqul Jumayevich
Jismoniy madaniyat kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkillashtirish hamda bu jarayonda tarbiyalanuvchilarning ota – onalari bilan hamkorlik ishlarini tashkil etish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, gimnastika, ota-ona, bola, metod, usul, sayr, jismoniy mashq, o‘yin, vazifa, faol dam olish, salomatlik kunlari.

Аннотация. В статье представлена информация об организации занятий по физическому воспитанию в дошкольных образовательных организациях и организации взаимодействия с родителями воспитанников в этом процессе.

Ключевые слова: Физическое воспитание, гимнастика, родители, ребенок, метод, подход, прогулка, физическое упражнение, игра, задание, активный отдых, дни здоровья.

Abstract. This article provides information on the organization of physical education classes in preschool educational organizations and the organization of cooperation with parents of students in this process.

Keywords: Physical education, gymnastics, parents, child, method, method, walk, physical exercise, game, task, active recreation, health days.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-son qarori, maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, jismoniy rivojlantirish, shu bilan birga maktabga tayyorlangan holda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va o‘sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda bolalarning

jismoniy tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish, ilk yoshdan boshlab jismoniy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va har tomonlama uyg‘un rivojlantirish maktabgacha ta'lim jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy talablaridan hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bolalarni jismoniy mashqlarga muntazam o‘rgatishning asosiy shaklidir. Mashg‘ulotlarning ahamiyati harakatlar madaniyatining mujassam shakllanishi, sog‘lomlashtirish, ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarni muntazam amalga oshirishdan iboratdir. Jismoniy yuklama ko‘pgina sabablarga bog‘liq bo‘ladi: 1) o‘yinlar va mashq xususiyatiga; 2) har xil harakat mashqlari mushtarakligiga; 3) ularning jadalligiga, davomiyligiga, takrorlanish miqdoriga, sur’ati va harakat yo‘liga, mashqning qanday sharoitda o‘tkazilishiga, o‘zlashtirish saviyasiga, bolaning harakat faolligi darajasiga va boshqa omillarga bog‘liqdir.

Bolalar harakat faoliyatini tashkil etishning shakllari quyidagilardan iborat:

1) jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari;

2) kundalik rejimdagi jismoniy – sog‘lomlashtirish ishlari: ertalabki gimnastika, harakat o‘yinlari va sayr paytidagi jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiya daqiqalari, kunduzgi uyqudan so‘nggi jismoniy tarbiya mashqlari, chiniqtirish tadbirlari;

3) faol dam olish: bolalar turizmi, jismoniy tarbiya bayramlari, salomatlik kunlari, ko‘ngilochar musobaqalar;

4) bolalarning mustaqil harakat faoliyati;

5) uyga vazifa.

Jismoniy mashg‘ulotlarning davomiyligi kichik guruhlarda 15– 20 minut, katta guruhlarda 30–35 minutni tashkil etadi. Mashg‘ulotlar o‘zining ta’limiy vazifasi va mazmuniga qarab turli xilda bo‘lishi mumkin: 1) asosiy e’tibor yangi materialni o‘rganishga qaratilgan mashg‘ulotlar; 2) ilgari o‘zlashtirishgan malaka va ko‘nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan mashg‘ulotlar, ular oldingi o‘tilgan materialni takrorlash asosiga quriladi; 3) aralash xususiyatga ega mashg‘ulotlar, bularda yangi materialni o‘rganish o‘tilganlarni takrorlash, mustahkamlash bilan olib boriladi. Jismoniy mashg‘ulotlar kuzda, qishda va bahorda binoda hamda ochiq havoda o‘tkaziladi. Yoz paytida barcha mashg‘ulotlar (yomg‘irli kunlardan tashqari) ochiq havoda, sport maydonchasida o‘tkaziladi. Binoda va ochiq havodagi mashqlar o‘zaro aloqadadir, ular barcha sog‘lomlashtirish va ta’limiy-tarbiyaviy vazifalarning kompleks tarzda hal etilishini ta’minlaydilar. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish sharoiti ularning ba’zi o‘ziga xos xususiyatini belgilaydi. Binoda sog‘lomlashtirish gigiyenik shartlarga rioya qilgan holda o‘tkaziladigan (deraza fortochkalari ochiq, yengil kiyim va poyabzal) mashg‘ulotlar harakatlarning to‘g‘ri, go‘zal va aniq bo‘lishini ta’minlaydi, umumiy harakat madaniyatini tarbiyalaydi. Ular turli predmetlar bilan va musiqa jo‘rligida o‘tkazish mumkin.

Jismoniy mashqlarga o‘rgatish metodlari. Bog‘cha bolalari jismoniy tarbiyasi amaliyotida jismoniy mashqlarga o‘rgatishning quyidagi metod va usullari qo‘llaniladi: “So‘zlab berish” (mashqni tushuntirish, ko‘rsatma, buyruq berish, hikoya, suhbat), ko‘rgazmali mashg‘ulot (ko‘rsatib berish, imo-ishora – taqlid qilish, tovush va ko‘rish mo‘ljallari, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish), amaliy metod (mashqlar, aniq topshiriqlar, o‘yin usullari, madad va yordam berish).

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to‘rt bo‘limga ajratadi:

1. “Tarbiyaning zamoni”.

2. “Badan tarbiyasi”.

3. “Fikr tarbiyasi”.

4. “Axloq tarbiyasi” haqida hamda uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritadi. Shunday ekan, bola tarbiyasi bir vaqtning o‘zida “Maktabgacha ta’lim”, “Oila” va “Jamiyat” nuqtai nazarida shakllanib boradi. Shu sababli ota - onalar farzandning birinchi o‘qituvchisi va tarbiyachisidir. Oiladagi ta'lim jarayonining boshlanishi va oxiri chegarasi yo‘q. Bolalar uchun ota-onalar hayotning idealidir, bolaning nigohidan hech narsa bilan himoyalanmagan. Oilada ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining sa'y-harakatlari muvofiqlashtiriladi, bola uchun ota – onaning harakatlari muhim hisoblanadi. Shu sababli ham jismoniy mashqlarni tashkillashtirishda ota - onalar bilan hamkorlik ishlari samarali natija beradi. Bolalarni oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyalashning vazifalari yagonadir, ular ota-onalar va maktabgacha ta’lim

tashkilotlarining umumiy harakati bilan hal qilinishi lozim. Ota - onalar maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalari qanday mashqlarni bajarayotgini yoki bo‘lmasa, qanaqa sport o‘yinlarini o‘ynashlarini bilishlari lozim, chunki ota - onalar xuddi shu harakatlarni bolalari bilan to‘g‘ri tashkillashtirishlari lozim.

Bolalar bog‘chasiga qatnamaydigan bolalarning ota-onalari ularning to‘liq jismoniy rivojlanishini ta’minlashga majburdirlar. Ayrim oilalarda ana shunday vazifani oila tarbiyachisi – amalga oshiradi. Oila tarbiyachisi bolalarning jismoniy yuklamalaridan xabardor bo‘lishi lozim. Avvalo, bolalarni to‘g‘ri rivojlantirish uchun har-xil ish shakllaridan foydalanishi kerak. Ertalabki gimnastikani o‘tkazishda, uyda, hovlilarda turli sport buyumlaridan foydalanib, dars mashg‘ulotlari o‘rtasida, oxirida arg‘amchilardan sakrash, devoriy gimnastika narvonchaga chiqish, velosiped, roliklardan foydalanish kerak.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarda jismoniy sifatlarni takomillashtirishda bolalar bog‘chasining alohida o‘rni bo‘lsa, ularning mana shunday layoqadlarni to‘g‘ri shakllanishida oilaning o‘rni beqiyosdir. Shu boisdan hamkorlik ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish bolalarda jismoniy madaniyatni samarali shakllanib borishida yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-son qarori

2.“Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etilishi bo‘yicha” metodik tavsiyalar.

3. M.X. Tadjiyeva, S.I. Xusanxodjayeva “Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” O‘quv qo‘llanmasi “O‘qituvchi” nashriyoti 2014- yil

4. B.D. Maxmudova Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan ishlashning asosiy shakllari “Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan – ta’lim – ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirishis tiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2023-yil 22-noyabr 646-648b.

5.tdpu.uz

6.lex.uz

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI UCHUN GIMNASTIKA MASHQLARINI O‘TKAZISH SHAKLLARI

O‘zbekiston. Pirimova Nargiza Adilovna

NavDU Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada gimnastika mashqlari orqali aniq xarakatining mukammal ijrosini namoyish qilish, foto materiallarni, rasmlar, jadvallar va namunaviy modellarni ko‘rsatish, ayrim harakat topshiriqlari texnikasining detallarini og‘zaki tasvirlab berish va boshqa harakatlar bilan taqqoslash, shuningdek qo‘shimcha vositalardan foydalanish haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: detal, model, mashqlar, algoritmik, tip, harakat, faoliyati, takrorlash murakkab, o‘rganish, algoritmik, shug‘ullanuvchi, mashq, metod, saralab, sinov, xotira, jismoniy sifatlar,

Аннотация. В статье даны сведения о демонстрации безупречного выполнения отдельных движений с помощью гимнастических упражнений, с показом фотоматериалов, рисунков, таблиц и макетов, с устным описанием деталей техники выполнения отдельных двигательных заданий и сравнением их с другими движениями, а также с использованием дополнительных средств.

Ключевые слова: деталь, модель, упражнение, алгоритмический, тип, действие, активность, комплекс повторений, изучение, алгоритмический, задействованный, упражнение, метод, сортировка, тест, память,физические характеристики, обученный

Annotation. This article provides information on demonstrating the perfect execution of specific movements through gymnastic exercises, showing photographic materials, drawings, tables, and model models, verbally describing the details of the technique of certain movement tasks and comparing them with other movements, as well as using additional tools.

Key words: detail, Model, exercise, algorithmic, type, action, activity, repetition complex, study, algorithmic, engaged, exercise, method, sort, test, memory,physical attributes, trained.

Hammamizga ma'lumki, dunyo siyosiy maydonida o'zining beqiyos o'rni bilan gavdalangan mamlakatlarning sport sohasidagi yutuqlari kundan – kunga tajribalari oshib bormoqda. Bu dunyoda inson tug'ilibdiki butun umr ijtimoiylashib boradi. Shuning uchun har bir davrning shaxsida shu davrning talablariga xos bo'lgan xususiyatlar shakllanib boraveradi. Bunday jarayon orqali jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvida jismoniy madaniyatning roli va funksiyalari hozirgi paytda, ayniqsa, yigirmanchi asrning oxirida inson va uning turmushiga qiziqish ortganligi bilan izohlanadi. Provardida, ijtimoiylashuv ham sport turlari rivojiga qo'yiladigan talablarni va ularning taraqqiyotini belgilab beradigan omil hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarning kun tartibida gimnastika mashg'ulot shakllarini va asosiy gimnastika vositalarini o'tkazish jarayonidagi jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik darajasi o'ziga xos bo'lib, farqli ravishda individual o'zgarishlarga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyani tashkil qilish va o'tkazish quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot shaklida.

2. Jismoniy tarbiya sog'lomlashtiruvchi tadbirlar kun tartibida (ertalabki gigiyenik gimnastika, harakatli o'yin), sayrda sport mashqlari, jismoniy tarbiya daqiqasi, sayr, sport bayramlari, alohida ishlash.

3. Tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyati.

Gimnastika mashg'uloti va boshqa mashqlarni o'tkazish asosiy ko'rinishi hisoblanadi. Mashg'ulotlar turli yoshdagi guruhlardan har birida aniq vaqt tartibida o'tkaziladi.

Gimnastika mashqlarini mashg'ulotda qo'llashga o'rgatish metodlari asosiy faoliyat qo'llanmasi hisoblanadi. Ayniqsa yoshlar gimnastika mashqlarini bajarishga juda qiziqishadi. Chunki tananing shakli, tashqi ko'rinishidagi qomatni yaratishga e'tibor katta. Shuning uchun ularning talablariga asosan mashg'ulotlarni tashkil etish juda o'rinli, xar bir shug'ullanuvchining e'tiborli ishtiroki uning uchun muvoffaqiyatlidir. Gimnastika mashqlari shug'ullanuvchilarning jismoniy harakat va irodaviy hislatlariga katta talablar qo'yadi. Yangi mashqlarni o'zlashtirish jarayonidagi onglilik va faollik tamoyili talabalardan, eng avvalo, harakatni tushunib o'rganishni, qo'yilgan vazifaga qiziqib va ijodiy yondashishni tarbiyalashni talab etadi. O'qish jarayonida harakat ko'nikmalarini ongli o'rganib olishlari uchun shug'ullanuvchilarga quyidagilarni o'rgatish lozim bo'ladi.

- ✓ o'z faoliyatining natijalarini baholash; turli (og'zaki, chizma, yozma holda takrorlash) usullardan foydalanib, harakat texnikasini tasvirlash;
- ✓ yangi harakatni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan turli qiyinchiliklarni yengish;
- ✓ kundaliklarini tutish va mashqlarni o'zlashtirish rejalarini tuzish;

Bog'cha bolalarni jismoniy tarbiya darslariga asosan gimnastika, harakatli o'yinlar bo'limlari kiritilgan. 5-6 yashar bolalar uchun harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya darsining asosi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham bog'cha dasturida boshqa materiallarga nisbatan o'yinlarga ko'proq o'rin ajratiladi. Buning sababi shundaki, dasturga kiritilagan turli xil jismoniy mashqlarni bolalar hilma-xil o'yinlar vositasida osongina idrok qiladilar va o'zlashtiradilar.

Bolalar hayotida, ayniqsa, 5-6 yoshidagi bolalarda o'yinlar alohida o'rin egallaydi. Ochiq havoda harakatchan o'yinlar o'ynash asnosida ular harakat chaqqonligini qondirib, yig'ilib qolgan energiyalarini sarflaydilar. O'yinlarda yugurish, sakrash va uloqtirish yoki irg'itish mashqlariga alohida e'tibor berish lozim. Bu yoshdagi bolalar bilan oddiy va o'rtacha murakkab o'yinlarni o'tkazish bilan birga, agar bolalar yetarli darajada tayyorlangan bo'lsa, ancha murakkabroq, ya'ni jamoalarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarni ham o'tkazish mumkin. Jamoa o'yinlari yetarli darajada chaqqon, hozirjavob, farosatli va baquvvat bo'lishni talab etadi.

Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositasidir. Harakatli o'yinlar bolalarning harakat faoliyati jismoniy rivojlanishiga, harakat ko'nikmalari va jismoniy sifatlarning shakllanishiga, organizmning funksional faoliyatini oshirgan va emotsional quvnoqlik tuyg'ularini kuchaytirgan holda salomatlikni mustahkamlashga ijodiy ta'sir etadi.

Harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda erishiladigan sog‘lomlashtirish samarasi bolalarning o‘yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va bola ruhiyatiga yaxshi ta’sir etadigan ijobiy emotsiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Emotsional ko‘tarinkilik bolalarda barcha uchun umumiy bo‘lgan maqsadga erishishga intilish uyg‘otadi va u vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o‘zaro mosligida, fazoda va o‘yin sharoitlarida aniq mo‘ljal olishda, topshiriqlarni tezlashtirilgan sur’atda bajarilishida ifodalanadi.

Bolalarning maqsadga erishishga nisbatan kuchli ishtiyoqi va zavqli intilishi asosida turli to‘siqlarni yengib o‘tishga yordam beruvchi irodaning roli oshadi.

Musobaqa dasturlarining kompozitsion shakllari borasidagi ijodiy izlanishlarda musiqa katta o‘rin tutadi. Musiqiy asarning xususiyati va emotsional mazmuni gimnastikachining (jismoniy, texnik, psixologik, ifodali, yosh jihatidan) individual xususiyatlariga javob berishi lozim. Gimnastikachining mahorati, musiqiyligi, harakatlanish madaniyati qanchalik baland bo‘lsa, uning imkoniyatlari shunchalik ko‘p bo‘ladi. Sportchi qizlarning ijro mahoratiga xos yana bir jihat xoregrafik tayyorgarlikdan iborat. Xoreografiya - estetik tarbiya va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim vositasi. Aynan xoreografiya mashg‘ulotlari jarayonida sportchilar san’atga oshno bo‘ladilar. Ularda harakatlar go‘zalligini to‘g‘ri his qilish, ular orqali ma’lum emotsional holatlarni, turdi kayfiyat, hissiyotlarni ifoda etish qobiliyati tarbiya-lanadi. «Xoreografiya» tushunchasi (klassik, xalq, tarixiy-maishiy, zamonaviy) raqs san’atiga oid barcha jihatlarni o‘z ichiga oladi. Xoreografiya gimnastikachilarning harakatlanish madaniyatini boyitish va ularning ifoda vositalarini kengaytirish, ijroga xos artistlik qobiliyatini oshirish imkonini beradi.

Jahon gimnastika maydonidagi ortib borayotgan raqobat shuni taqazo etadiki, murakkablikni yuksak mahoratli ijro bilan uyg‘un holda ko‘rsata bilgan, alohida ifoda, emotsionallik va artistizmni namoyon etgan sportchilargina doimo g‘alaba qozona oladi. Shu bois maxsus xoreografik tayyorgarlikka yanada sifatli yondashuv talab etiladiki, u gimnastikachilar harakat qilayotgan o‘zgaruvchan sharoitlarda avvalo shaxsiy qobiliyatlarga taya-nish va doimo ilg‘or bo‘lish tamoyillariga asoslanmog‘i lozim. Gimnastikaga oid yaqqol jihatlari bo‘lishiga qaramay, «ifodali harakat» tushunchasi psixologiya sohasiga oiddir. Bu atama bilan psixolik tadqiqotlarda ruhiy holatlarning tashqi ifodalanishi {mimika, pantomimika va ekspressiyada namoyon bo‘lishi) belgilanadi. Badiiy gimnastikada psixologik tayyorgarlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur sport turining yana bir o‘ziga xos jihati shundan iboratki, gimnastikachilarning sport yutuqlari darajasi tegishli malakaga ega hakamlarning sub’ektiv bahosi bilan aniqlanadi. Badiiy gimnastika bo‘yicha hakamlar kombinatsiyalarni baholashda ijro mahoratiga xos ko‘plab omillarni hisobga olishlariga to‘g‘ri keladi, chunki ushbu sport turida harakatlarning sifatiga xos ko‘plab unsurlar namoyon bo‘ladi. Ularni boricha qamrab olish, bu boradagi turli ma’lumotlarni tahlil qilish va aniq ekspertlik xulosasini berish - badiiy gimnastika nazariyasi va amaliyoti oldida turgan yusak maqsaddir. Mazkur vazifani hal qilishda ko‘plab o‘ziga xos xususiyatlar va jihatlarga e’tibor berish taqazo etiladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Qarori, 3 iyun 2017 yil., № PK 3031. lex.uz
2. Yefimenko A.I., Yo‘ldashev Q.Q., Umarov M.N. Gimnastika darsining samaraligini oshirish usullari. Tashkent, 1995 g
3. Sushko G.K.Gimnastika i metodika yeyo prepodavaniya T.: ILM ZIYO.-2012 g. 27
4. Pirimova N.A. Gimnastika sport turi bilan shug‘ullanish barkamollik garovidir. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor Q SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 Toshkent-2022, 687-690b
5. Morgunova I.I. Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi – Tashkent, 2011 y 31 b.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING SAMARADORLIGI

O‘zbekiston. Ochilova Xilola Sheraliyevna
Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobga nisbatan mehr-muhabbatni shakllantirishning ahamiyati to‘g‘risida fikrlar bildirilgan. Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi tarbiyachilar uchun bolada kitobxonlikni tarbiyalashga doir metodik ko‘rsatmalar, shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisining oila bilan hamkorlik ishlariga doir tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik madaniyati, ilm, ma’rifat, “Kitob bayrami”, “Kitobxonlik haftaligi”, ota-oanlar bilan hamkorlik, harakatlar strategiyasi, “Kitob bobo tashrifi”.

Аннотация: В статье высказываются мысли о важности формирования любви к книгам у детей дошкольного возраста. Даны методические рекомендации для воспитателей дошкольных образовательных организаций по формированию у детей навыков чтения, а также рекомендации по взаимодействию воспитателей дошкольных организаций с семьей.

Ключевые слова: культура чтения, наука, просвещение, «Праздник книги», «Неделя чтения книги», сотрудничество с родителями, стратегия действий. «Книжный фестиваль», «Визит книжного дедушки»,

Abstract. The article discusses the importance of developing a love of books in preschool children. Methodological guidelines for educators in preschool educational institutions on fostering reading in children, as well as recommendations for the preschool educator's cooperation with the family are provided.

Keywords: reading culture, science, enlightenment, «Book Festival», «Book Reading Week», cooperation with parents, action strategy,»Book Grandfather's Visit».

Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, ayniqsa, intellektual rivojlanishida XXI asr katta o‘zgarishlarga boy davr bo‘lmoqda. Taraqqiyot o‘z ortidan ta’limni ergashtirib, o‘ziga yanada katta e’tibor talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 19-mart kuni yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, yoshlarda axborot texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan beshta muhim tashabbus ilgari surildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi aholi, avvalo, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.[1]

“Kitobxonlik madaniyati” tushunchasi keng ma’noda qo‘llaniladi. Xususan, bu hodisa asarni anglash va uni tushunish uchun kitobxondan ma’lum tayyorgarlik va saviyani talab qiladi. Bu hodisaning mohiyati kitobni shunchaki payqash va undan umumiy foydalana bilishdan to ijodiy o‘qish, kitob muallifiga oshno bo‘lib, uning asarini tahlil qilib mutolaa qilishgacha boradi.[2] Kitobxonlik madaniyati – o‘zida psixologiya va pedagogika vazifalarini o‘zida mujassamlashtiradi, bolalar qalbini badiiy tadqiq qiladi, bolalikni san’at ko‘zgusida butunligicha ko‘rsatadi, aniqrog‘i, badiiy izlanishlar orqali bolalarning ruhiy dunyosi va ijtimoiy-axloqiy shakllanishini takomillashtirishni ko‘rsatadi.

“Yoshlarimizga munosib ta’lim berish, ularning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishimiz, o‘rta va oily o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o‘quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak”,-deydi yurtboshimiz. Shu boisdan ham uzluksiz ta’limning ilk bo‘g‘ini maktabgacha yoshdagi bolalardan boshlab bolajonlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishimiz lozim.

Bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda kitoblar muhokamalari ham alohida o‘rin tutadi. Kutubxonachi va tarbiyachi muhokamadan oldin muhokama qilinadigan kitobni hamkorlikda tanlaydi, muhokama mazmunini ochadigan savollarni tayyorlaydi hamda tarbiyalanuvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda “Kitob haftaligi” o‘tkazish ham yaxshi natijalar bermoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari bolada kitobga nisbatan qiziqishni oshirish uchun quyidagi usullaridan foydalanishlari mumkin:

-bola tarbiyasi Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, do‘stlik, odob va mehnatsevarlikka oid tushunchalarni kitoblarda berilgan ertaklar, maqollar, rivoyatlar orqali singdirib borish jadvalini ishlab chiqishlari kerak;

-har bir asar yuzasidan suhbatlar, sahna ko‘rinishlarini tashkil etish va mashg‘ulotlarda biror muammoli vaziyatlar yuzasidan “kelinglar bir qaraylikchi, unda nimalar yozilgan ekan?” kabi takliflar bilan kitobga tayanishga o‘rgatish;

-maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar bilan kitobxonlik kechalari, muloqot davra suhbatlari, “Kitob bayrami”, “Kitob bobo tashrifi”, “Ertakchi momo bilan uchrashuv” ko‘rik tanlovlari kabi tadbirlar tashkil etish;

-bolaga aytilgan ertaklar yakuniy qismini o‘zi to‘qishiga imkon berish;

- kun tartibiga «Yangi ertak soati»ni kiritish;

-maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan turli tadbir va musobaqalarda bola uchun tayyorlangan sovrinlar orasida albatta kitob bo‘lishiga e’tiborni qaratish;

-ertak va hikoya qahramonlari aks ettirilgan rasmlar ichidan aytilgan asar qahramonini topish yoki og‘zaki ta’rif bo‘yicha uni tanish, aytilgan jumlalar qaysi asardan parcha ekanini topish, eshitgan ertak, hikoyasi asosida rasm chizishga taklif etish kabi mashqlar o‘tkazish;

- ota-onalar o‘rtasida bolaning kitobga munosabatini oshirsihga qaratilgan davra suhbatlari, amaliy tadbirlar o‘tkazish, shu bilan birga ota - onalarning ham maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan kitoblar va uning mazmuni bo‘yicha bilim va tushunchalarni boyitib borish,

Shuningdek, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san’atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish ham eng avvalo ularning qalblarini kitob bilan oshno qilishdan, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdan ibdoratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.12.2020 yildagi 781-sonli qarori

2.Xolnazapova Sh.N, Axmedova M.A. Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantipish. badiiy asar tahlili «Ekonomika i sotsium» №11(90)-2 2021 628-633

3.Madatov X.A, Sattarova S.B. Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning asosiy omillari Educational research in universal sciences volume 2, special issue 17, december, 2023 1017-1024

4.Turaqulova Manzuraxon Mallaboyevna “Maktabgacha ta’lim ysohidagi bolalarda kitobxonlikni shakllantirish usullari” Zamobaviy ta’lim 2018,6 60-65

5.Yo‘ldoshev E. Kutubxonada bolalar o‘qish madaniyatini tarbiyalash: O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 1986

6. www. kitob.uz.

7. www. mustaqillik.uz.

8. www. ma’naviyat.uz.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQIY TA'LIM FAOLIYATINING AHAMIYATI

O‘zbekiston. Azimov A.Q.
Naviy davlat universiteti Musiqiy ta'lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Aqliy, axloqiy, estetik (nafosat), jismoniy, mehnat tarbiyasi bilan birga milliy vatanparvarlik tarbiyasini ham bolalikdan qo‘shib olib borish va uning uchun barcha imkoniyat hamda zaruriy vositalardan foydalanish zarur.

Kalit so‘zlar: baynalminal, emotsional, tamoyillari, obyekti, dramatik, joyiz.

Аннотация: Наряду с умственным, нравственным, эстетическим (воспитанием), физическим и трудовым воспитанием необходимо с детства включать национально-патриотическое воспитание и использовать для этого все возможности и необходимые средства.

Ключевые слова: интернациональный, эмоциональный, принципы, объект, драматический, неуместный.

Abstract: Along with mental, moral, aesthetic (education), physical and labor education, it is necessary to include national-patriotic education from childhood and use all the possibilities and necessary means for this.

Key words: international, emotional, principles, object, dramatic, inappropriate.

Davlatimiz tomonidan barcha sohalarda bo‘lgani kabi maktabgacha ta’lim sohasida ham bir qancha tub islohotlar amalga oshirilmoqda shu ma’noda,sohaning huquqiy asoslari alohida qonun bilan mustahkamlanishi davlatimiz rahbari tomonidan kelajak avlod ta’lim-tarbiyasiga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikning yaqqol namunasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi,bu borada ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta’lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi ham mana shu tarixiy zarurat boisidan kelib chiqadi. Ushbu qonunlar ta’lim va tarbiyaning barcha turlari va jabhalariga daxldor bo‘lib,tarbiyaning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va mehnatsevarlik kabi muhim turlari, shu jumladan, vatanparvarlik, insonparvarlik va baynalminal tarbiyani ham qamrab olgandir.

Tarbiyaning muhim va ajralmas bo‘lagi bo‘lgan estetik tarbiya turlariga daxldor bo‘lgan va o‘sha tarbiya turlarini amalga oshirish uchun eng samarali vosita hisoblangan musiqiy ta’lim mavzumizning predmeti hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yaratish maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim va tarbiyasining o‘ziga xos murakkab jihatlarini bolalar emotsional his tuyg‘ularining rivojlanishdagi asosiy tamoyillarini musiqa mashg‘uloti, uning mazmuni va tuzilishi, mashg‘ulotni rivojlantirish, mashg‘ulotga qo‘yilgan Davlat dasturi talablarini yoritibberish, mashg‘ulotni rivojlantirish va uni o‘tkazishda bolalar yosh xususiyatlarini hisobga olish, bayram tadbirlari va ularning bolalar tarbiyasidagi roli, mashg‘ulotlarda bayramlarga tayyorgarlik ko‘rish va musiqiy ta’limning murakkab jarayonlarini yoritish, bu borada uchraydigan muammolar hamda ularni hal qilish yo‘l-yo‘riqlari ustida ishlar olib borish mavzuning obyekti hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlari musiqiy ta’limga yuqorida ko‘rsatilgan qonunlar asosida qo‘yilgan Davlat dasturi talablari mohiyatini, xususan,bu joyda olib boriladigan musiqa mashg‘uloti va tarbiya (bayram ertaliklari, musiqiy o‘yinlar, kechalar, tug‘ilgan kunlar va boshqalar)ga tadqiq qilinishi aniq va ravon sharhlab berish musiqa mashg‘ulotining zamontalablari darajasida (o‘qitishni ilg‘or pedagogik metodlar va texnologiyalar asosida olib borish) yo‘l-yo‘riqlarini imkon qadar aniq va tushunarli bayon qilinishi nazarda tutiladi.

Ma’lumki kichik yoshdagi bolalar tarbiyasi o‘zining murakkab jarayon ekanligi bilan hamda bu yoshdagi bolalar tarbiyasida uchraydigan qiyinchiliklar katta yoshdagi bolalarga qaraganda ko‘pligi bilan o‘ziga xosdir .Aqliy, axloqiy, estetik(nafosat), jismoniy, mehnat tarbiyasi bilan birga

milliy vatanparvarlik tarbiyasini ham bolalikdan qo‘shib olib borish va uning uchun barcha imkoniyat hamda zaruriy vositalardan foydalanish zarur.

Musiqa san’ati va undagi milliylik tuyg‘usi to‘g‘risida gap ketar ekan, yosh avlodga uni singdirish uchun ishni boshdan, ya’ni bolaning go‘daklik davridan boshlamoq kerak. Ma’lumki bola tug‘ilgandan boshlab unga ona allasi orqali milliy ruh, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, mardlik, jasurlik kabi millatimiz uchun xos bo‘lgan axloqiy sifatlar singdirib boriladi.Bog‘cha yoshdagi bolalar dunyoqarashining shakllanishi ular qaysi millat vakili ekanligini, milliy qadriyatlarimiz, ajdodlarimizning boshqa millatlar qadriyatlaridan nima bilan farq qilinishini anglashlari uchun bunday musiqiy ta’lim va tarbiyani o‘sha davrdan boshlash kerak.

Buyuk sharq allomalari Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, A. Avloniy va boshqalarning qimmatli fikrlaridan foydalanish g‘arbning buyuk pedagoglari Kominskiy, Suxomlinskiy kabilarning ta’lim-tarbiyaga oid asarlari hamda fikr-mulohazalaridan respublikamiz maktabgacha ta’lim tizimida foydalanish yo‘l-yo‘riqlari to‘g‘risida ish olib borish lozim. Mavzuning mohiyatini oshirish uchun, avvalo, musiqani nima ekanligini, uning jamiyat ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni, inson kamolatidagi muhim ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritmoq joizdir.

Musiqa ijtimoiy ong formasi bo‘lib, aniqroq aytganda, hayotda bo‘lib o‘tadigan turli voqea va hodisalarni, hissiyotlarni hamda dramatik jarayonlarni tovushlar vositasida ifodalash inson ruhiyatiga kuchli ta’sir etuvchi, uni quvonchu qayg‘uga soluvchi, shuningdek,hayajonlantiruvchi vosita. Bundan tashqari, musiqaning inson asab tizimini tinchlantiruvchi va hordiq beruvchi yana bir muhim xususiyati borki, insonlar balki shuning uchun ham musiqaga bir umr oshno bo‘ladi.

Keyingi davrda musiqaning nafaqat insonlarga, balki hayvonot dunyosiga, hatto o‘simliklarga ham ta’sir etishi aniqlanadi.Shunday ekan musiqani individual, ya’ni yakka shaxsga qaratilgan deb bo‘lmaydi, u ijtimoiy ma’naviy boylik hisoblanib, musiqaga jamiyatning barcha bo‘g‘inlariga, barcha yoshdagi insonlarga barobar ta’sir etuvchi vosita deb qaramoq kerak.

Musiqaning jamiyat ijtimoiy hayotidagi roli uning tarbiyaviyligi bilan belgilanadi. U insonlarni jaholatga qarshi ogohlantirib, insoniyatga tegishli bo‘lgan mehr-shafqat, yumshoq ko‘ngillik, rahimdillik va boshqa ijobiy insoniy xislatlarni shakllantiradi.Musiqa o‘zining tarbiyaviy xususiyatiga ko‘ra estetik tarbiya turiga kirsada, qolgan barcha tarbiya turlari va ularni olib borish jarayonida yordamchi vosita sanaladi. Shuningdek, musiqa adabiyot bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, barcha adabiy asarlar-she’rlar,g‘azallar,dramatik asarlar,dostonlar va boshqalarni tinglovchiga yetkazishga, bu asarlar ta’sirchanligini oshirishga hissa qo‘shadi.

Balki shuning uchun ham mohir cholg‘uchi, sozanda va hofizlar, raqsva so‘z ustalari, qorilar qadimdan el-ulusning nazarida, ularning hurmat-izzatida bo‘lgan podsholik saroylaridan o‘z mavqelariga ko‘ra joy egallaganlar.Ko‘p asrlardan buyon nomlari tildan tushmagan bunday san’at ustalari va boshqalar fikrimiz dalilidir.

Inson hayotida, uning ulg‘ayishida va shaxs sifatida shakllanishida musiqiy tarbiyaning roli benihoya kattadir.Zero, insonning go‘daklik davridagi ona allasidan boshlab, to umrining oxirigacha musiqa u bilan hamrohdir. Inson ham umrining oxirigacha musiqadanvoz kechmaydi, qayg‘u va alamli damlarni ham u bilan baham ko‘radi. Agar inson hayoti ona qornida homila sifatida paydo bo‘lishidan boshlansa, musiqa ham onaning eshitish a’zolari orqali o‘sha vaqtdan boshlab homilaga ta’sir qilishini boshlaydi.

Shuningdek, musiqiy tarbiyani bola tug‘ilgan chog‘dan ona allasi va boshqa shakllarda berib borish, bu jarayonda nihoyatda hushyorlik va ehtiyotkorlik bilan yondashish talab qilinadi. Bolaning go‘daklik–hali bolaligini anglab yetmagan davrida unga ta’sir o‘tkazish nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib,unga xush ohang musiqalar eshittirish maqsadga muvofiqdir. Shovqin-suronli musiqalar esa unga, uning rivojlanishiga salbiy ta’sir etib, kelajakda tajang va jizzaki bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Axir onalar allasi bejiz mayin va ohangdor bo‘lib aytilmaydi, chunki mayin ohanglar va undagi serma’no so‘zlar bola asab tolalarini ortiqcha taranglashmaydi balki uning xotirjam bo‘lishga undaydi.Shuningdek, ona allasining bola tarbiyasidagi bolaning shaxs sifatida shakillana borishi,ulg‘ayishi undagi insoniy hissiyotlarning uyg‘onishi uchun benihoyat katta ahamiyat kasb

etishi bolaning musiqa sadolari orqali o‘zida quvonish va xotirjamlik tuyg‘usini tuta boshlashini aytib o‘tish lozim.

Shuni aytish joyizki musiqa sadolarini his qilgan qalb hech qachon yomonlikka moyil bo‘lmaydi,uni qalbi ezgulikka to‘la, adolatni , yurtni, xalqni sevuvchi inson bo‘lib yetishadi.Chunki musiqa va musiqiy tarbiya jaholshatga qarshi eng kuchli quroldir.Biz ham farzandlarimizning kelajakda jaholatdan yiroq, solih, fozil va komil insonlar bo‘lib etishishini istasak ularni bolalikdan musiqaga oshno, ya’ni musiqiy esttik dunyoqarashining shakllanishiga erishmog‘imiz zarur.

Xulosa o‘rnida barcha oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ham qolaversa bolalar bog‘chasidan boshlab, butun ta’lim tizimida ma’naviyat darslariga alohida e’tibor berib ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy qadriyatlarimiz tezroq yoshlarimizga yetkazilsa, bog‘chadan oliy o‘quv yurtlarigacha inson ongiga singdirilgan bilim va tajriba uning qolgan hayoti davomida g‘oyalarga asos bo‘ladi va undan amaliyotda foydalansak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ta’lim va tarbiya borasida, xususan, musiqiy ta’lim va tarbiyaning mohiyati o‘qitish uslublari bu jarayonda zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan unumli foydalanish yo‘llari maktabgacha ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari murakkabligi uchrayotgan muammolarni hal qilishning oqilona yo‘llari va boshqa pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda dalillarga suyangan holda yoritib borish bilan belgilanadi.Bog‘chalarda musiqa mashg‘ulotlarini to‘g‘ri rejalashtirish bolani kelajakda komil inson,badiiy musiqiy o‘tkir bilimli va nafosatli vatanparvar inson bo‘lib shakillinishiga asos bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Sh.M.Majitov.Monografiya; Maktabgacha ta’lim muassasalarida interfaol usullar asosida bolalarning musiqiy bilimlarini shakllantirishda multimedialarning ahamiyati.p.5-8,(2023).

2.Е.В.Донгаузер. Музыкальное образование в немецких народных школах (на примере федеральной земли Бавария)//Музыка в школе.№2.p.165. (2003)

3.Shodiyeva Q. O‘rta guruh bolalar nutqini o‘stirish.p.23-25,(1993).

4.Sh.M.Majitov.Monografiya;Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining musiqiy savodini multimediali mashg‘ulotlar asosida shakllantirish.p.3-5,(2021).

QUM TERAPIYASI VA UNING AFZALLIKLARI

O‘zbekiston. Bozorova O‘g‘iloy Kamilovna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada art pedagogikaning yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan qum terapiyasining ahamiyati va bu terapiya aynan maktabgacha yosh davrdan qo‘llanilishi muhimligi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: qum terapiyasi, psixologik jarayonlar, loyiha texnologiyasi, art terapiya, aqliy jarayon, zamonaviy interaktiv metod.

Аннотация: в этой статье высказываются мнения о значении песочной терапии как одного из направлений арт-педагогики и о важности применения этой терапии именно с дошкольного возраста.

Ключевые слова: песочная терапия, психологические процессы, проектная технология, арт-терапия, психический процесс, современный интерактивный метод.

Abstract: this article expresses opinions on the importance of sand therapy as one of the directions of art pedagogy and on the importance of using this therapy from preschool age.

Keywords: sand therapy, psychological processes, project technology, art therapy, mental process, modern interactive method.

XX asrning 20-yillarida ingliz pediatri Margaret Louenfeld birinchi marta qum o‘yinini maslahat usuli sifatida ta’riflagan. U psixologik muammoli bolalar bilan ishlashda terapiyadan foydalangan. Qum bilan to‘ldirilgan patnisda bolalar suv, miniatyura figuralari va improvizatsiya qilingan qum qutisi yonida joylashgan narsalardan foydalangan holda kompozitsiyalar yaratdilar.

Bolalar ko‘pincha hosil bo‘lgan kompozitsiyalarni “Mening dunyom” deb atashgan, shuning uchun Louenfild o‘zining texnikasini “Dunyo qurilishi” deb atagan.[4]

Qum terapiyasi - bu chuqur psixologiya nuqtai nazaridan insonning shaxsiyatini tushunishga asoslangan psixoterapevtik usul. Bundan tashqari, bu terapiya makonida amalga oshirilgan og‘zaki bo‘lmagan ijodiy muloqot usulidir. Bola uchun bu muloqot qilish uchun jozibali va noyob imkoniyat bo‘lib, siz o‘z his-tuyg‘ularingizni va fikrlaringizni so‘zlarga murojaat qilmasdan erkin ifoda eta olasiz.

Art-terapiyaning boshqa turlariga nisbatan, qum terapiyasi soddaligi, yangi shakllarni ixtiro qilish imkoniyati va yaratilgan tasvirlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Usul dastlab bolalar bilan ishlash uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa, keyinchalik u kattalar bilan ishlashda qo‘llanila boshlandi. Qum terapiyasining nazariy asosi K. G. Jung g‘oyalari va u yaratgan analitik psixologiya tamoyillari asosida yoritilgan.

Qum terapiyasi ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun dolzarbdir, chunki yosh bolalar ko‘pincha nutqning etarli darajada rivojlanmaganligi, noto‘g‘ri g‘oyalar yoki umumiy rivojlanishning kechikishi tufayli o‘z fikrlarini ifoda etishda qiynaladi. Bolalar uchun bu terapiya yumshoq materiallarga tegishning qiziqarli usulidir. Bu bolalarning aqliy va jismonan rivojlanishiga yordam beradi, ularga maktabga tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatini beradi. Bolalar qumda o‘ynash orqali raqamlar va harflarni o‘rganishi, chap va o‘ng tomonlarni farqlashi, fasllarni to‘g‘ri yo‘naltirishi, xotira, ko‘rish va eshitishni o‘rganish, tasavvurini kengaytiradi. Bunday terapiyani 3 yoshda boshlash yaxshidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qum terapiyasi - bu o‘yin, bolalar tasavvurining parvozi, ongsiz tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan ijodiy jarayon. Hech qanday qoidalar yoki o‘ziga xos texnikalar yo‘q, shuning uchun bolani xafa qilish uchun hech qanday sabab yo‘q - u qiladigan hamma narsa to‘g‘ri va zarurdir. Ushbu texnikaning afzalligi shundaki, uni erta bolalikdan qo‘llash mumkin. Bu ota-onalarga va tarbiyachi-pedagoglarga bolaning atrofidagi dunyoni qanday ko‘rishi, u nimadan qo‘rqishi va nimadan tashvishlanayotgani haqida bilib olish imkonini beradi.[5]

Qum terapiyasi bolalar mayda qo‘l motorikasini rivojlanishiga yordam beradi. Maxsus yoritkichli stollarda bolalar berilgan topshiriqlar asosida ijod qilish bilan birga o‘z hissiy kechinmalarini ham tasvirlashadi.

Kimga va qanday holatlarda qum terapiyasi kerak?

Qum bilan qiziqarli mashg‘ulotlar hamma uchun foydalidir, ammo ular quyidagilarga ega bo‘lgan bolalar uchun zarurdir:

- tashvish va giperaktivlikning kuchayishi;
- barcha turdagi psixosomatik kasalliklar;
- asabiy taranglik yoki oilaviy nizolar tufayli nutq nuqsonlari;
- har xil turdagi nevrozlar.

Qum bilan o‘zaro munosabat bolaga ijodiy rivojlanishni o‘rganishga yordam beradi va ayni paytda uni bezovta qilayotgan turli qiyin vaziyatlardan chiqish yo‘lini topadi.[6]

Qum terapiyasi qanday imkoniyatlarni beradi?

Qum va suv bolaning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon beradi. Dunyoni ijobiy idrok etishning rivojlantiradi va muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Kichkina ijodkorning ichki dunyosini ro‘yobga chiqarish uchun katta imkoniyatlar ochiladi. Zamonaviy interaktiv yorug'lik stoli va ijodiy ustaxona bolalar mahoratini rivojlantirish, aqliy jarayonlarni tezlashtirish va psixologik reaktsiyani barqarorlashtirish imkonini beradi. Qum terapiyasi uchun o‘yinchoqlar juda xilma-xil bo‘lishi mumkin, asosiysi, bola o‘z ichki dunyosini baham ko‘rishi va qiyin psixo-emotsional holatdan chiqish yo‘lini topishi uchun harakat erkinligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Искусство и дети: Эстетическое воспитание за рубежом. М.: Искусство,1969.

[4] https://kakzdorovo.center/blog/detskaya-psihologiya/pesochnaya-terapiya-dlya-detey
[5] http://kc.lipetskddo.ru/node/124
[6] https://anrotech.ru/blog/pesochnaya-terapiya-dlya-detej-doshkolnogo-vozrasta/

2. Эстетическое воспитание, его особенности и структура. Арзиматова Иноятхон Мадимаровна, ФерГУ., кандидат философских наук, доцент. 2019.
3. Петрушин В. И. Музыкальная психотерапия. — «Владос», 2000.
4. Петрушин В. И. Связь музыкальной терапии с концепциями ведущих психотерапевтических школ // Психотерапия. — 2006. — № 2.
5. Клюев А. С. Музыкотерапия как метод музыкальной педагогики // Искусство и образование. — 2012. — № 4 (78).
6. Клюев А. С. Об использовании музыкотерапии в педагогической работе. Новые данные // Искусство и образование. — 2019. — № 5 (121). — С.
7. Ertak terapiyasi - maktabgacha yosh bolalar rivojlanishi asosi 2024
8. BO Kamilovna Maktabgacha va maktab ta'limi 7 (№07), 226-228
9. Музыкотерапия в музыкальном образовании — Терапия искусством художественном образовании: по итогам 10-ти международных научно-практических конференций (Санкт-Петербург, 2008—2017 гг.) / Сост. и науч. ред. проф. А. С. Клюев. — СПб.: Алетейя, 2018.
10. Носирхўжаева Г Этика. Эстетика. /Тошкент-2006
11. Радугин А. Этика. Курс лекций. – М.,1998
12. Формирование эстетической культуры студентов в педагогическом вузе: методические рекомендации / Н.В.Черникова. Минск 2010
13. Зауторова Э.В. Роль искусства и арт-терапии в профилактике и коррекции девиантного поведения подростков / Э.В. Зауторова // Вестник психосоциальной и коррекционно-реабилитационной работы. — 2005. №1.
14. Хрисанова Е. Арт-педагогика в системе современного воспитания / Е. Хрисанова, Н. Сергеева // Народное образование. 2003. -№7.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI YENGIL ATLETIKA MASHQLARI ORQALI MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH

O‘zbekiston. Ne’matova Diyora Dilshod qizi
Navoiy davlat universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Yengil atletika bo‘yicha guruh yo‘nalishlari butun maktabgacha yoshdagi bolalarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan. Bolalarni jismoniy tayyorgarlikdagi muammolarni aniqlash va yengil atletikaning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlarini rivojlantirish jismoniy tarbiya va sport sohasiga bo‘lgan qiziqishini qondirish, qo‘llab-quvvatlash hamda sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish xususiyatlari.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, yengil atletika, tashkiliy-pedagogik sharoitlar, individual va guruh mashg‘ulotlari yo‘nalishlari, sport madaniyati.

Аннотация. Групповые программы по легкой атлетике разработаны с учетом потребностей всех дошкольников. Выявление проблем физической подготовленности детей и развитие одного или нескольких компонентов легкой атлетики являются факторами, которые удовлетворяют и поддерживают их интерес к физическому воспитанию и спорту, а также повышают их интерес к спорту.

Ключевые слова: дошкольники, легкая атлетика, организационно-педагогические условия, направления индивидуальной и групповой подготовки, спортивная культура.

Abstract. Group athletics programs are designed to meet the needs of all preschool children. The purpose of the program is to identify children’s physical fitness problems and develop one or more components of athletics, to satisfy and support their interest in physical education and sports, and to increase their interest in sports.

Keywords: preschool children, athletics, organizational and pedagogical conditions, areas of individual and group training, sports culture.

Bolalar bilan o‘tkaziladigan yengil atletika mashqlari mashg‘ulotlari kattalarnikidek tashkil qilinadi va o‘tkaziladi. To‘g‘ri, o‘ziga, xos ba’zi xususiyatlari ham mavjud bo‘lib, ular dars muddati

oz, nagruzka hajmi va shiddati kichik va h. k. Bolalik va o‘smirlik yoshida harakat analizatorlari funksiyasining takomillashuvi bilan harakat malakalarini o‘rgatishga bo‘lgan sezgirlik oshadi. Bolalar bu yoshda juda ham ko‘p nozik harakat malakalariga o‘rganish qobiliyatiga ega. Kuch-quvvat va chidamlilikka zo‘r kelmasa bas. Shuning uchun barvaqt o‘rgatishni to‘g‘ri va ancha ratsional texnika bilan boshlash kerak. Shuning bilan birgalikda, turli-tuman harakatlar va ishga ham o‘rgatish muhim.

To‘plangan malakalar va bilim kattaroq bo‘lganda texnikani muvaffaqiyatli takomillashtirishga yordam beradi. Ayni vaqtda yengil atletika mashqlarini o‘rganish va ularni takomiliga yetkazish mushak kuchi, markaziy asab sistemasi yuqori darajada ishlashi ostida harakatlarni tez bajarish zarurligi bilan bog‘liqdir. Shug‘ullanuvchilarning organizmiga yuqori talablar qo‘yiladi. Ana shuning uchun ham nagruzkalarni (ayniqsa yurak, qon-tomir sistemasiga) asta-sekin oshirib borish kerak.

Tezkor yugurish ko‘pgina yengil atletika mashqlarining tarkibiy qismidir. Uyinlarga taalluqli bo‘lgan yugurish elementlari kichik va o‘rta yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda asosiy o‘rin tutadi. Ilmiy tekshirishlarning ko‘rsatishicha, bolalarda harakat tezligini oshirish va nerv protsesslarining harakatlarini takomillashtirish uchun eng qulay sharoit vujudga keladi. Tez yugurish mashqlari ayni vaqtda yengil atletikaning boshqa turlaridagi harakatlarni yaxshiroq egallashga yordam berdi.

Yugurish texnikasini o‘rgatishda harakatlarning tabiiyligi va yengilligini saqlab qolish va oyoq uchida yugurishga o‘rgatish muhim. Bolalar zo‘r berib yugurganlarida, yelkalarini ko‘tarib, yuzlarini burishtirgan holda boshlarini orqaga egadilar va ko‘kraklarini oldinga chiqaradilar. Qisqa masofalarga yugurish va ortiqcha zo‘riqish sezilishi bilanoq, mashqni to‘xtatish orqali yugurishda yengil harakatga erishiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish o‘yin va raqobat shakllarida amalga oshiriladi. Yengil atletika bo‘yicha individual va guruhli mashg‘ulotlarni loyihalash maktabgacha yoshdagi bolaning xarakat sohasining barcha tarkibiy qismlarini faol, ijodiy xarakat faoliyatiga jalb qilish orqali rivojlanishiga yordam beradigan shartsharoitlarni ta’minlashga asoslangan. Yengil atletika bo‘yicha bolalar uchun ta’lim yo‘nalishini loyihalash ularning moyilliklari, qiziqishlari, qobiliyatlarini rivojlanish darajasini, shuningdek mavjud qiyinchiliklarni hisobga olgan holda tuziladi.

Masalan, birinchi navbatda, bolaning eng muvaffaqiyatli bo‘lgan harakatlari (yugurish, sakrash, otish) aniqlanadi. Yengil atletika mashqlarining ma’lum bir turida o‘z qobiliyatini rivojlantirgan holda, murabbiy astasekin bolalarni boshqa harakatlarni bajarishga jalb qilish uchun sharoit yaratadi, bu dastlab bola uchun eng qiyin bo‘lib chiqdi. Yengil atletika bo‘yicha individual mashg‘ulot yo‘nalishi quyidagi komponentlardan iborat: axborot (jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, muvofiqlashtirish qobiliyatining rivojlanish darajasi, sog‘liq holati, psixofiziologik xususiyatlar, shifokor, psixolog va bolalar bog‘chasi mutaxassislarining tavsiyalari, ota-onalarning tavsiyalari. bola); maqsadli (individual jismoniy tarbiyani rivojlantirish vazifalarini aniqlash); mazmunli (vositalari, shakllari va usullari, yengil atletika dasturi materialining mazmuni); texnologik (bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yengil atletika bo‘yicha pedagogik texnologiyalar); diagnostik (yengil atletika bo‘yicha individual yutuqlar tizimini aniqlash); samarali (kutilgan natijalar).

Bolalar bog‘chasida qo‘shimcha ta’lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan yengil atletikaning tarkibiy-funktsional modelining faoliyati samaradorligi bir qator tashkiliy-pedagogik shartlarga rioya qilish bilan ta’minlanadi. Yengil atletikaning tashkiliy-pedagogik shartlari deganda maktabgacha ta’lim muassasasining ob’ektiv imkoniyatlari, mazmuni, shakllari, usullari, vositalari va jismoniy tarbiya va sport infratuzilmasi tushuniladi, bu asoslarni shakllantirishda qo‘yilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan.

Tadqiqot mazmuni nuqtai nazaridan, bolalar bog‘chasining qo‘shimcha ta’lim tizimidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar deganda maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya va sport o‘quv jarayonini tashkil etish samaradorligini ta’minlaydigan aniq chora-tadbirlar majmui

tushuniladi. Qo‘shimcha jismoniy tarbiya va sport ta’limi sharoitida tarkibiy-funktsional modelni amalga oshirish quyidagi tashkiliy-pedagogik shartlarga rioya qilingan taqdirda samarali bo‘ladi:

Bolalarni yengil atletikaning turlari bo‘yicha hamrohlik qilishning individual va guruhli mashg‘ulotlarini loyihalash va amalga oshirish; yengil atletika mashqlari bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun o‘yin texnologiyalarini qo‘llash; otaonalarni qo‘shimcha jismoniy tarbiya va sport ta’limi tizimida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan birgalikda yengil atletikaga jalb qilish. Yengil atletika bilan shug‘ullanadigan bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash, maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy tarbiya va sport ta’limini individuallashtirish tamoyiliga asoslanadi.

Qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishi - bu vosita qobiliyatlarini, moyilliklarini maqsadli rivojlanishini ta’minlaydigan eng qulay shartsharoitlarni yaratish, bolalarning harakat faoliyatiga individual ehtiyojlarini qondirish va vosita harakatlarini o‘zlashtirish jarayonida mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etishdir. Ta’lim jarayonini individuallashtirish tamoyiliga rioya qilish zarurati Davlat ta’lim standartida ham ko‘rsatilgan. Unda aytilishicha, tarbiyaviy faoliyatni qurish har bir bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak. Qo‘shimcha ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sport o‘quv jarayonini yengil atletika vositalariga asoslangan holda individuallashtirish jismoniy tarbiya o‘qituvchisidan (yoki murabbiydan) har bir bolaga jiddiy e’tibor berishni, material tanlashda pedagogik moslashuvchanlikni, ijodkorlikni va improvizatsiyani talab qiladi.

Shunday qilib, individual va guruhli hamrohlik yo‘nalishlari o‘quv jarayonini individuallashtirishni ta’minlaydi, bolaning kattalar va boshqa bolalar bilan jismoniy tarbiya va sport muhitida faol o‘zaro munosabatini o‘z ichiga oladi. Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar ta’lim jarayonini individuallashtirish (hamroh bo‘lgan bolalar uchun individual va guruh yo‘nalishlarini loyihalash) orqali maktabgacha yoshdagi bolalar uchun engil atletika yordamida sport madaniyatini shakllantirishning tarkibiy va funktsional modelini amalga oshirish samaradorligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаев М.Ж., Олимов М.С., Тўхтабоев Н.Т. Енгил атлетика ва уни ўқитиш методикаси. Дарслик. “Баркамол файз медиа” нашриёти Тошкент-2017 й. 620 бет
2. Abdullayev M.J. “YENGIL ATLETIKA” To‘siqlar osha yuguruvchilarni umumiy, maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish va o‘rgatish uslubiyoti. O'quv qo`llanma. Buxoro. “Durdona” – 2013 yil.
3. Бондарчук А.П. Управление тренировочным процессом спортсменов высокого класса. Библиотека легкоатлета. Москва, Олимпия ПРЕСС, 2007, - 272 с.
4. Bobomurodov, Norpo‘lat Shirinovich. “Kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi tuzilmalari”.Fan va ta’lim axborotnomasi 4-2 (82) (2020).).ения: 24.12.2021 3.
5. Mirjamolov M.X., Odilov R.F., Zokirov d.r.salomatligi nogironat imkoniyatlari bo‘lgan o‘quvchilarning maxsus Jismoniy tarbiyasini takomillashtirish
6. Jismoniy tarbiya va sportning dolzarb muammolari. - 2020. - S. 20-23. 4. Н. Ю. Валиева, Р. Ф. Одилов Методы развития эффекта тонусных рефлексов при детском церебральном параличе с помощью фитбольной гимнастики // Academic research in educational sciences. 2021. №11. (2021): 966-972.

PIKTOGRAFIK YOZUVNING BOLALAR RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

O‘zbekiston. Musayeva Nafisa Kudratovna
Navoiy davlat universiteti dotsenti
Xalilova Nargiza Isroil qizi
NavDU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada piktografik yozuvning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga ko‘rsatadigan psixologik-pedagogik ta’siri tahlil qilinadi. Piktografik yozuvning

bolalar tafakkuri, nutq faoliyati, emotsional holati va muloqot ko‘nikmalariga ta’siri ilmiy nazariyalar va amaliy kuzatuvlarga asoslangan holda yoritiladi. Shuningdek, uning ta’lim jarayonidagi qo‘llanish mexanizmlari va metodik yondashuvlari haqida so‘z yuritiladi. Maqola bolalar bilan ishlovchi pedagoglar, psixologlar va maxsus pedagogika sohasidagi mutaxassislar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: piktografik yozuv, bolalar rivojlanishi, maktabgacha ta’lim, vizual kommunikatsiya, tafakkur, nutq.

Аннотация: В данной статье анализируется психолого-педагогическое влияние пиктографического письма на развитие детей дошкольного возраста. На основе научных теорий и практических наблюдений рассматривается влияние пиктографического письма на мышление, речевую деятельность, эмоциональное состояние и коммуникативные навыки детей. Кроме того, в статье рассматриваются механизмы и методические подходы к ее внедрению в образовательный процесс. Статья может быть полезна педагогам, работающим с детьми, психологам, специалистам в области специального образования.

Ключевые слова: пиктографическое письмо, развитие ребёнка, дошкольное образование, визуальная коммуникация, мышление, речь.

Abstract: This article analyzes the psychological and pedagogical impact of pictographic writing on the development of preschool-aged children. The influence of pictographic writing on children’s thinking, speech activity, emotional state, and communication skills is examined based on scientific theories and practical observations. Additionally, the article discusses the mechanisms and methodological approaches to its implementation in the educational process. The article may be useful for educators working with children, psychologists, and specialists in the field of special education.

Key words: pictographic writing, child development, preschool education, visual communication, thinking, speech.

Yozuv – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o‘rtasidagi muloqatga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Yozuv – kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma’nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so‘z san’ati durdonalari va boshqa shu kabi qimmatli axborotlarning barchasi avlodlardan avlodlarga yozuv orqali yetib boradi. Til jamiyat tarixi bilan qanchalik bog‘liq bo‘lsa, yozuv ham shunchalik bog‘liqdir. Yozuv kishilik jamiyatining zaruriy ehtiyoji asosida paydo bo‘lib, rivojlanib borgan. Bugungi shaklini olgunga qadar uzoq va murakkab tadrijiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Inson aqli yozuvdan mukammal aloqa vositasini kashf qilguncha uzoq izlangan. Bunday izlanishlarning ilk namunasi sifatida piktografik yozuv bo‘lib, bu yozuv yaratish yo‘lidagi birinchi qadam bo‘lgan. Piktografik yozuvni ibtidoiy tasviriy san’at ichida yuzaga kelgan deyish mumkin. Piktografik yozuv — bu ma’no va fikrlarni rasm yoki belgi orqali ifodalash usuli. Dastlab insoniyat tarixida yozuv sifatida ishlatilgan bu usul, bugungi kunda bolalar bilan ishlashda, ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida keng qo‘llanilmoqda.

Piktografik yozuv — voqelikni rasmiy tasvir orqali ifodalovchi yozuv tizimidir. Pedagogik amaliyotda piktogrammalar, ya’ni oddiylashtirilgan rasmlar orqali bolalarga ma’lumot berish, ularni tushunish va eslab qolishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, til o‘rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Vizual belgilar orqali axborotni yetkazish, bolaning kognitiv va kommunikativ rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Mazkur maqolada piktografik yozuvning bolalar rivojiga ta’siri, xususan, uning kognitiv, lingvistik va emotsional jihatlariga aloqador masalalar tahlil qilinadi.

Bolalarning nutqiy, jismoniy, ruhiy rivojlanishi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar (Masalan, Vygotskiy va Bruner nazariyalari) shuni ko‘rsatadiki, bola dastlab tasviriy belgilarga asoslanib fikrlaydi va asta-sekin abstrakt tushunchalarni o‘zlashtira boshlaydi. Piktogrammalar bu jarayonni osonlashtiradi.

2. Bolalar rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar

a) kognitiv rivojlanish

Rasm va belgilar orqali axborot olish bolalarning analiz, sintez, solishtirish va umumlashtirish kabi fikrlash operatsiyalarini faollashtiradi. Piktografik yozuv orqali berilgan topshiriqlar mantiqiy tafakkurni shakllantiradi.

b) nutq va muloqot ko‘nikmalari

Bola rasm asosida voqea haqida so‘zlab berishga harakat qiladi. Bu esa nutq faolligini oshiradi. Piktogrammalar og‘zaki ifoda qilishda qiynalayotgan bolalar uchun ko‘prik rolini bajaradi.

c) emotsional va psixologik rivojlanish

Bola o‘z his-tuyg‘ularini piktografik tarzda ifodalash orqali ichki holatini yengilroq anglaydi. Bu esa uning emotsional barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Piktografik yozuvning amaliy qo‘llanilishi

Bugungi kunda ko‘plab maktabgacha ta’lim muassasalarida ertaklar, ehtiyojli bolalar (autizm, nutq buzilishlari) bilan ishlashda bu usul muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Masalan, PECS (Picture Exchange Communication System) tizimi aynan piktografik asoslangan bo‘lib, dunyoning ko‘plab davlatlarida muloqot buzilishi mavjud bo‘lgan bolalar bilan ishlashda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

Piaget[7]ning kognitiv rivojlanish nazariyasida 2–7 yosh oralig‘i preoperatsional bosqich deb yuritiladi. Bu bosqichda bolalar rasm va belgilar orqali fikr yuritishni o‘rganadilar: “Bola bu bosqichda real obyektlar o‘rniga belgilar va rasmiy tasvirlardan foydalanishga o‘tadi.”

Piktografik yozuv bola tafakkurining mazkur bosqichiga mos keladi va rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Zamonaviy pedagogikada bolalar tafakkurini rivojlantirish va ularning muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda turli xil vizual vositalardan foydalanish tobora kengaymoqda. Ana shunday vositalardan biri – piktografik yozuv bo‘lib, u bolalarning kognitiv, lingvistik va emotsional rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Piktografik yozuvning asosiy afzalliklari:

1. Tasavvurni kengaytiradi. Rasm orqali fikr bildirish bolalarning tasavvurini boyitadi, ularni abstrakt fikrlashga o‘rgatadi.

2. Nutq faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Bola so‘z bilan ifoda eta olmagan fikrini rasm orqali tushuntiradi va bu oraliq bosqich orqali til o‘zlashtiradi.

3. Vizual eslab qolishni kuchaytiradi. Piktogrammalar orqali o‘rganilgan so‘zlar va tushunchalar bolalar ongida uzoq saqlanadi.

4. Ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Bola o‘z fikrini betakror tarzda tasvirlashga harakat qiladi, bu esa ijodiy salohiyatni rivojlantiradi.

5. Emotsional holatni ifodalash imkonini beradi. Bolalar o‘z his-tuyg‘ularini og‘zaki emas, balki vizual tarzda tasvirlab bera olishadi, bu esa psixologik jihatdan yengillik keltiradi.

Piktografik yozuvning amaliy qo‘llanilishi

• Maktabgacha ta’limda: O‘qituvchilar ertaklar, she’rlar yoki kundalik faoliyat rejasini piktogramma orqali tushuntirishadi.

Intellektual turi	**Piktografik yozuvga aloqasi**	**Boladagi rivojlanish jihati**
Vizual-prostranstven	Rasm, belgi, shakllar orqali fikrni anglash	Tasavvur, makon orientatsiyasi, diqqat
Lingvistik	Rasm asosida so‘zlab berish, so‘zlar bilan bog‘lash	Lug‘at boyligi, grammatik tuzilma, hikoya qilish
Musiqiy	Rasm va belgilardan ritmik yoki emotsional obrazlar hosil qilish	Emotsional idrok, ritmni tushunish
Shaxslararo (interpersonal)	Belgilar yordamida boshqalar bilan muloqot qilish, tushunish	Muloqot, empatiya, fikr almashish
Intrapersonal	Rasm orqali o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish	O‘zini anglash, ichki dunyoni aks ettirish

[7] Jean Piaget – “The Child’s conception of the World”

Jismoniy-kinestetik	Rasm chizish yoki belgilar bilan faol harakatda ifoda qilish	Nozik motorika, koordinatsiya

• Logopediya va defektologiyada: Nutqida muammosi bo‘lgan bolalarning fikrlash va muloqotini yengillashtirishda piktogrammalar yordam beradi.

• Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda: Autizm spektridagi bolalar uchun piktografik belgilar muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi.

Ko‘p intellekt nazariyasi asoschisi Gardner[8]ning fikricha, har bir bolaning intellekti har xil bo‘ladi va vizual-intellektual qobiliyat ham muhim jihat hisoblanadi: “Tasviriy idrok orqali o‘rganish ba’zi bolalar uchun eng samarali vositadir. Rasm va belgilar ularning dunyoni tushunishida markaziy rol o‘ynaydi.” Piktografik yozuv aynan vizual-intellektual tipdagi bolalar uchun eng samarali o‘qitish usuli sanaladi.

Piktografik yozuv va Gardnerning intelekt turlari bilan bog‘liqligi.

Jadval piktografik yozuvning bolada faqat bir emas, balki bir necha turdagi intellektual rivojlanishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Gardner nazariyasiga asoslanib aytish mumkinki, har bir bola o‘ziga xos o‘rganish uslubiga ega, va piktografik uslub ularning o‘z qobiliyatlarini ochib berishiga keng imkoniyat yaratadi.

Yuqorilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, piktografik yozuv bolalar rivojlanishida ko‘p qirrali ta’sirga ega: u tafakkurni faollashtiradi, muloqotni osonlashtiradi, nutqni rivojlantiradi va emotsional holatni barqarorlashtiradi. Shu bois bu vositani maktabgacha ta’limda tizimli va ilmiy asosda qo‘llash pedagogik jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Piktografik yozuv bolalar uchun nafaqat o‘yin yoki rasm chizish vositasi, balki ular uchun fikrlash, tushunish va o‘zini ifodalashda muhim ko‘prik hisoblanadi. Shu bois ta’lim jarayonida bu vositadan maqsadli va tizimli foydalanish bolalar rivojlanishida sezilarli ijobiy natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Пиаже Жан: теория, эксперименты, дискуссии: Учеб. пособие для студентов психол. специальностей и направлений. / Под ред. Л. Ф. Обуховой, Г. В. Бурменской. — М.: Гардарики, 2001.
2. Piaget J. The Psychology of the Child. Basic Books
3. Mavlonova R.A., To’raeva O.T., Xoliqberdiev U.M. Pedagogika. — T., “O’qituvchi”. 2001.
4. Shodmonova Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. -T.:”Fan va texnologiya”, 200,160 bet.
5. Юсупова П. Педагогика дошкольного образования. Т.: Учитель. 1993.

ОСНОВНЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

Узбекистон. Хурвалиева Тармиза Латиповна
доктор педагогических наук, профессор
Чирчикского государственного педагогического университета
Хурсанова Фотима Орифжоновна
Студентка 1-курса дошкольного образования

Аннотация: В статье рассморены теории о психических особенностях детей дошкольного возраста, представлены сведения о физическом и психологическом развитии детей.

Ключевые слова: периодизация, интенсивного развития, мировоззрение, «Я сам», принцип, инстанция, развития, биогенетический, познавательного развития.

Abstract: The article examines theories about the mental characteristics of preschool children, provides information on children's physical and psychological development.

Keywords: periodization, intensive development, worldview, «I Myself,» principle, instance, development, biogenetic, cognitive development.

[8] Howard Gardner – “Multiple Intellegences: New Horizons in Theory and Practice”

Дошкольный возраст-период наиболее интенсивного развития воображения и наглядно-образного мышления, которые являются здесь основными формами познания. Для него характерны вне ситуативные речевые формы общения со взрослым. Более богатым и содержательным становится общение детей друг с другом. Сверстник для дошкольника становится более предпочтительным партнером по совместной деятельности, чем взрослый. В этот период начинает формироваться мораль, и дети относят поступки и качества людей к моральным категориям и дают им оценку.

При всей важности познавательного развития ребенка его гармоничное становление невозможно без эмоционального отношения к окружающему в соответствии с ценностями, идеалами и нормами общества.

Д.Б. Эльконин считал, что основные психологические новообразования дошкольного возраста это:

1) Возникновение первого схематичного абриса цельного детского мировоззрения. Ребенок не может жить в беспорядке. Все, что видит, ребенок пытается привести в порядок, увидеть закономерные отношения, в которые укладывается такой непостоянный окружающий мир. Ж. Пиаже показал, что у ребенка в дошкольном возрасте складывается артификалистское мировоззрение: все, что окружает ребенка, в том числе и явления природы - результат деятельности людей. Такое мировоззрение увязывается со всей структурой дошкольного возраста, в центре которого находится человек.

Строя картину мира, ребенок выдумывает, изобретает теоретическую концепцию. Он строит схемы глобального характера, мировоззренческие схемы. Д.Б.Эльконин замечает здесь парадокс между низким уровнем интеллектуальных возможностей ребенка и высоким уровнем его познавательных потребностей.

Когда ребенок приходит в школу, он вынужден от глобальных, мировых проблем перейти к элементарным вещам, тогда обнаруживается несоответствие между познавательными потребностями и тем, чему учат ребенка в первые месяцы школьной жизни.

2) Возникновение первичных этических инстанций «Что такое хорошо и что такое плохо» Эти этические инстанции растут рядом с эстетическими «Красивое не может быть плохим».

3) Возникновение соподчинения мотивов. В этом возрасте уже можно наблюдать преобладание обдуманных действий над импульсивными. Преодоление непосредственных желаний определяется не только ожиданием награды или наказания со стороны взрослого, но и высказанным обещанием самого ребенка (принцип «данного слова»). Благодаря этому формируются такие качества личности, как настойчивость и умение преодолевать трудности; возникает также чувство долга по отношению к другим людям.

4) Возникновение произвольного поведения. Произвольное поведение - это поведение, опосредованное определенным представлением. Д.Б. Эльконин отмечал, что в дошкольном возрасте ориентирующий поведение образ сначала существует в конкретной наглядной форме, но затем он становится все более и более обобщенным, выступающим в форме правила, или нормы. На основе формирования произвольного поведения у ребенка, по Д.Б. Эльконину, появляется стремление управлять собой и своими поступками.

5) Возникновение личного дознания - возникновение сознания своего ограниченного места в системе отношений со взрослыми. У дошкольника возникает осознание возможностей своих действий, он начинает понимать, что не все может (начало самооценки). Говоря о самосознании, часто имеют в виду осознание своих личных качеств (хороший, добрый, злой и т.п.). В данном случае речь идет об осознании своего места в системе общественных отношений. 3 года - внешнее «Я сам», 6 лет - личное самосознание. И здесь внешнее превращается во внутреннее.

Периодизация – деление онтогенеза на отдельные периоды в соответствии с общим для всего онтогенеза законом – является проблемным полем психологии детства. Понятие «возраст» ученый определяет через представление о социальной ситуации развития –

специфическое, неповторимое отношение между ребенком и окружающей его действительностью, прежде всего социальной. Социальная ситуация развития, по Л.С. Выготскому, приводит к формированию возрастных новообразований. Соотношение этих двух категорий – социальной ситуации развития и новообразования – задает диалектический характер развития в онтогенезе. Представление о социальной ситуации развития содержательно раскрывается в теории деятельности, представленной именами А.Н. Леонтьева, С.Л. Рубинштейна, В.В. Давыдова, Д.Б. Эльконина.

При определении понятия «возраст» А.Н. Леонтьев отмечает: «Изменение места, занимаемого ребенком в системе общественных отношений – есть то, что надо отметить, пытаясь ответить на вопрос о движущих силах развития его психики». В работах А.Н. Леонтьева стадия развития личности определена следующими моментами: местом ребенка в системе общественных отношений и ведущим типом деятельности.

В культурно-исторической теории Л.С.Выготский возраст определяется отношением социальной ситуации развития и новообразованиями (структурой личности, сознания), а в теории деятельности – отношением места ребенка в системе общественных отношений и ведущей деятельностью.

Условием развития является система «ребенок-общество», в которой Д.Б.Эльконин выделяет две подсистемы: «ребенок-общественный взрослый» и «ребенок-общественный предмет». Возраст впервые представлен последовательно в логике деятельностного подхода. Изучая проблемы возрастной периодизации развития, современная отечественная психология опирается на несколько основных принципов:

1. Принцип историзма, позволяющий последовательно анализировать проблемы детского развития, возникавшие в разные исторические периоды времени.

2. Биогенетический принцип, позволяющий системно изучить важнейшие проблемы детского развития с учетом взаимосвязей движущих сил и факторов психического развития в каждом возрастном периоде.

3. Принцип анализа развития основных аспектов человеческой жизни-эмоционально-волевой сферы, интеллекта и поведения.

Обозначим основные проблемы возрастной периодизации психического развития:

- Проблема органической и средовой обусловленности психического и поведенческого развития человека.
- Влияние обучения и воспитания на развитие детей.
- Соотношение задатков и способностей.
- Сравнительное влияние эволюционных, революционных, ситуационных изменений в психике и поведении ребенка.
- Соотношение интеллектуальных и личностных изменений в общем психологическом развитии ребенка.

В отечественной науке существует два представления о возрасте : физический возраст и психологический возраст. Переходы из одного возраста в другой сопровождаются изменением физических данных и психологических характеристик ребенка, их называют кризисами возрастного развития. Кризис говорит о том, что и в организме и в психологии ребенка происходят изменения, что в развитии возникают некоторые проблемы, которые ребенок не может самостоятельно разрешить. При всей важности познавательного развития ребенка его гармоничное становление невозможно без эмоционального отношения к окружающему в соответствии с ценностями, идеалами и нормами общества.

Путь познания, который проходит ребенок от 3 до 7 лет, огромен. За это время он узнает столько об окружающем мире и так овладевает различными интеллектуальными операциями, что многие психологи и педагоги прошлого полагали, что ребенком-дошкольником пройден основной путь развития мышления и что в дальнейшем ему предстоит лишь усвоение добытых в науке знаний.

На первый взгляд, такое мнение кажется справедливым. Действительно, ребенок (особенно к концу дошкольного возраста) уже умеет наблюдать, обобщать, делать выводы,

производить сравнения. У него возникает желание заглянуть в причину явления, открыть для себя существующие связи и отношения вещей. Об этом свидетельствует, например, то, с каким упорством и даже надоедливостью он уже в первой половине дошкольного детства задает взрослым свои бесконечные «почему?». Правда, часто дети могут удовлетвориться и самыми поверхностными и даже нелепыми ответами, но какой-то ответ все же должен быть, и, если его нет, ребенок находит его сам, в какой-то своей, специфической для этого возраста логике. И эти вопросы глубоко волнуют детей, так как они тесно связаны с их общим эмоциональным отношением к окружающему. Все это говорит о том, что сознание ребенка-дошкольника не просто заполнено отдельными образами, представлениями и отрывочными знаниями, но характеризуется некоторым целостным восприятием и осмыслением окружающей его действительности, а также отношением к ней. В известном смысле можно сказать, что у него есть свой взгляд на мир и из этого мира не исключен и он сам, и его взаимоотношения с другими людьми.

Можно сказать, что в период дошкольного детства действительно формируется особое детское миропонимание, в которое входит некоторое общее представление о мире, отношение к нему и отношение к себе в этом мире

Список литературы

1.Божович Л.И. Психологические вопросы готовности ребенка к школьному обучению. Вопросы психологи ребенка дошкольного возраста / Под ред. А.Н.Леонтьева, А.В. Запорожца. М.: Просвещение, 1995.
2.Концепция дошкольного воспитания / Под ред. В.В. Давыдова. М., 1988.
3.Лисина М.И. Общение, личность и психика ребенка. М.: Воронеж, 1997.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIIY ASARLAR BILAN TANISHISHGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH

O‘zbekiston. Muxiddinova Dilfuza Sherdor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotidagi tarbiyalanuvchilarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish tashkiliy-metodik, ijtimoiy-psixologik xususiyatga ega jarayon ekanligi hamda ushbu jarayon o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra bolalarning dunyoqarashini asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar orqali rivojlantirishni ko‘zda tutishi, maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy asarlar bilan tanishishga qiziqishni shakllantirish muhim pedagogik muammo ekanligi xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, ertaklar, adabiy asarni idrok etish, an’anaviy resurslar, hikoyalar,mashg‘ulotlararo integratsiya.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lib, bolaning sog‘lom va mustaqil fikrini shakllantirish, qobiliyatini ro‘yobga chiqarish hamda bilim olishga intilishini rivojlantirish kabi maqsadlar yo‘lida ish olib boradi.Bugungi kunda davlatimiz tomonidan maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalda joriy etish, o‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, ularni o‘quv-uslubiy, didaktik materiallar bilan ta’minlash hamda pedagog xodimlarning malakasini oshirish bo‘yicha muhim maqsad va vazifalar amalga oshirilmoqda.Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazishda tarbiyachining shaxsiy namunasi muhim o‘rin tutadi. Chunki hayot ostonasida turgan jajji bolakaylar har sohada tarbiyachiga taqlid qiladilar, tarbiyachi ta’siri ostida dunyoni asta-sekin teran nigohlari bilan anglay boshlaydilar.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyotlar bilan yaqindan tanishtirish, mavjud adabiyot namunalarda aks etgan ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarni turli xil zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida bola ongiga singdirish, bolalarda og‘zaki nutq va badiiy tasavvurlarni tizimli hamda maktab ta’limi uchun yetarli darajada shakllantirish bo‘yicha

yangicha ilmiy yondashuvlarni olib borishga zarurat kuchaymoqda. Ushbu zamonaviy yondashuvlar bilan qatorda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish uchun muassasada faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlarning kasbiy bilim va tayyorgarligini oshirish hamda maktabgacha ta’lim tashkilotilarini yetuk kadrlar bilan ta’minlash, tarbiyalanuvchilarning aqliy, ruhiy va jismoniy kamol topishiga ko‘maklashish vazifalari eng dolzarb vazifalar sifatida namoyon bo‘lmoqda desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Maktabgacha ta’lim-tarbiya bu har bir bolaga individual yondashishni, uni shaxs sifatida hurmat qilishni, ma’naviy-axloqiy tomondan tarbiyalashni, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta’lim berishni nazarda tutadi. Mazkur vazifalar badiiy adabiyot bilan tanishtirish jarayoniga hamohangdir. Bu jarayonga zamonaviy yondashuvlarni joriy etishda ham pedagog, ham ota-onalar, ham hamkor tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi talab etiladi.

MTT lari ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llanilayotgan yangiliklar, zamonaviy metodlar bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o‘zini, o‘zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-metodik xususiyatga ega jarayondir. Bu jarayon o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra bolalar dunyoqarashini asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar orqali rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Maktabgacha ta’lim davrida bolalar qanchalik badiiy adabiyot bilan muttasil va izchil tanishsalar, ular shunchalik keyingi yosh davrlarida ulkan adabiy merosni tushunish va uning qimmatini anglashga tayyor bo‘ladi. Ma’lumki, bolalar adabiyoti hikoyalar, ertaklar ko‘rinishida bola hayotining ilk davrlaridan hamroh bo‘ladi. Agar tashkilotda o‘quv-tarbiyaviy jarayon mos adabiyotlardan foydalangan holda tashkil etilsa, bolalarda kitobga qiziqish, uni asrashga intilish erta paydo bo‘ladi.

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish jarayoni maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiluvchi barcha turdagi mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi. Amaliyotni kuzatish asosida biz shuni guvohi bo‘ldikki, pedagoglar aynan nutq o‘stirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg‘ulotlaridagina badiiy asar bilan alohida tanishtirish ishlarini olib borishadi. Agarda boshqa turdagi mashg‘ulotlarda, masalan, yasash-qurish mashg‘ulotida maketi, nusxasi yasalayotgan hayvonni qaysi ertakda uchrashi va u nimalar qilganini suhbat davosida ayttirishga e’tibor qaratilsa, mashg‘ulotlararo integratsiya va jarayonning hayot bilan bog‘liqligi ta’minlanadi. Bolalar bu davrda rasmli matnlarga duch keladilar. Dastlab, bola sahifalarni varaqlashga, kattalarning u uchun asarni o‘qib berishiga, o‘qilgan matnni tinglashga, rasmlarni ko‘rib chiqishga qiziqadi. Masalan, bolada rasmga qiziqishning paydo bo‘lishi bilan, o‘z-o‘zidan matnga qiziqish paydo bo‘ladi. Natijada badiiy asarni o‘zlashtirishga motivatsiya uyg‘onadi. Keyinchalik asardagi qahramonlarning xatti-harakatlariga o‘ziga tortadi. Bolalar tomonidan ijobiy harakatlarni sidqidildan ijro etishga intilish kuchayadi. Chunki bolalar tomonidan adabiy asarni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu qahramonlarga va ularning harakatlari oqibatlariga hamdard bo‘lishdir. Ma’lumki, idrok juda faol bo‘lishni taqozo etadigan jarayondir. Ta’limda idrok etishga undovchi qo‘zg‘atuvchi vositalarga ehtiyoj tug‘iladi. Faol xarakterdagi bolalar asarni eshitgan va ko‘rgan zahoti, o‘zini qahramonning o‘rniga qo‘yadi, aqliy harakat qiladi, qahramonning dushmanlari bilan lutfan kurashadi. Tarbiyachi pedagogning asosiy vazifalaridan biri bu passiv bolalarni bu jarayonga tortishdir. Buning uchun bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganiladi, ularning materialni o‘zlashtirish uslublari kuzatiladi. ya’ni, bola axborotni qanday o‘zlashtirishni xush ko‘rishi aniqlanadi. Vizual, audial va kinestet bolalar tipologiyasi bo‘yicha tarbiyachida ma’lumotlar bo‘lishi talab etiladi. Shu tipologiya bo‘yicha tarbiyachi asarni tushuntirishda tegishli o‘quv vositalarini tayyorlashi ko‘zda tutiladi. Chunki bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning vazifalari asarlarni idrok etishga va tushunishga bo‘lgan qiziqishini payqash va yo‘naltirish hisoblanadi.

O‘yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o‘yin jarayonida o‘rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik bilan o‘zlashtiradi. Elektron badiiy adabiyotlarda mazkur faoliyatlarga yo‘naltiruvchi topshiriqlar, ijodiy va harakatli o‘yinlar o‘z aksini topgan bo‘lib, tarbiyachilar bolalarning yoshiga mos, bir nechta funksiyalar (kommunikatsiya,

davolovchilik, kommunikatsiya, millatlararo muloqot, ijtimoiylashuv)ni bajaruvchi o‘yinlar aks ettirilgan bo‘lishi zarur. Badiiy adabiyot bilan tanishtirishda didaktik ta’minotning ham ahamiyati kattadir. Chunki pedagogning manbalar bilan ishlashi va bu manbalarning bolalar yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi ta’limdan kutilgan natijalarga erta va samarali erishish imkoniyatini kengaytiradi. Mazkur tamoyillarning amaliyotga keng joriy etilishida adabiy resurslarning ta’minlanganligiga bog‘liqdir. Resurslar esa, modelning muhim komponenti sifatida tavsiflanadi. MTTda adabiy resurslarning quyidagi shakllari qo‘llanilmoqda. Bular:

1) an’anaviy resursrlar (matnli ko‘rinishdagi adabiyotlar, rasmli tarqatmalar, darsliklar);

2) zamonaviy yangi avlod elektron o‘quv adabiyotlari (multimediali (ko‘p axborotli), animatsion elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, elektron dasturlar, ma’lumotlar banki va boshqalar).

Elektron badiiy adabiyotlar bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishga, tanishtiruv jarayonini qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, animatsiyali, ovozli, tasvirli va rasmli ko‘rinishga ega bo‘lganligi bilan ana’anaviy manbalardan farq qiladi.

Elektron badiiy adabiyotlarni bolalar ongiga yetkazishda tasvir ya’ni illyustratsiya va namoyish metodlarning o‘rni beqiyosdir. Bizga ma’lumki, illyustratsiya o‘rganilayotgan asar mazmuniga doir hodisalar va jarayonlarning ramziy ko‘rinishlarini – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko‘rsatishga imkon beradi. Namoyish (demonstratsiya) metodi orqali esa o‘rganilayotgan obyektning harakat dinamikasini ochib berishda qo‘l keladi va ayni chog‘da predmetning tashqi ko‘rinishi va ichki tuzilishi haqida to‘laqonli ma’lumot berishda keng qo‘llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko‘rinishiga e’tibor qaratiladi, so‘ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o‘rganishga o‘tiladi. Ko‘rsatish ko‘p holatlarda o‘rganilayotgan obyektlarning subyekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. 3D adabiyotlari aynan ilyustratsiya va demonstratsiya usulida o‘rganuvchilar ongiga yetkazib berilishi, bolalarning obrazli tafakkurlari va tasavvurlarini yanada ko‘proq shakllantirish, og‘zaki nutq malakalarini rivojlantirishni ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunida maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayoniga bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi sifatida ta’rif berilsa, tarbiyachining kasbiy standarti -maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko‘nikmalariga doir asosiy talablar majmuyi ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Maktabgacha yoshdagi davrni kitobsiz, voqeani emotsional ifodalashsiz tasavvur qilish qiyin. Aynan shu jarayon bolaning nutqini rivojlantirish va boyitishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish jarayoni bolada tasavvurni rivojlantiradi, ona tilining ajoyib namunalarini his qildiradi. Agar bola tanish ertak, she’rni tinglab, qahramonlar bilan birga emotsional yaqinlashsa, ularda hayotiy voqealarga shaxsiy munosabat shakllanadi. Natijada, bola badiiy asarlarni tushunishni o‘rganadi va shu orqali shaxs sifatida shakllanadi. O‘sib ulg‘aygan sari bolalar badiiy asarlarni tahlil qilishga ham jalb etiladilar. Masalan, xalq ertaklari orqali bolalarda ona tilining aniqligi va ekspressivligi namoyon bo‘ladi. Hikoyalarda bolalar so‘zning ixchamligi va aniqligini o‘rganadilar. She’rlarda esa, ular nutqning ohangdorligi va ritmini his qiladilar. Biroq, badiiy asar bola tomonidan to‘liq qabul qilinib, idrok etilishida yosh xususiyatlariga mos tanlangan usul muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun bolalarning e’tiborini badiiy asarning ham mazmuniga, ham uning ifodali vositalarga boyligiga qaratish lozim. Shuni unutmaslik kerakki, kitobxonlikka bo‘lgan qiziqish faqat bola manfaatlariga, dunyoqarashiga, ma’naviy istaklari va ehtiyojlariga mos keladigan muhit yaratilgandagina yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishida pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi yondashuvlarni to‘g‘ri tanlay olishi, zamonaviy elektron adabiyotlarni yangi avlodini jamlash zarurdir. Chunki badiiy adabiyotlardagi insoniy xislatlar, shaxs va tabiat, jamiyat munosabatlari

kabi mavzular bolalarni ma’naviy-axloqiy, estetik, hatto, irodaviy jihatdan tarbiyalashga yaqindan ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr
2. Выготский Л.С. Психология развития человека. — М.: Изд-во Смысл; Эксмо, 2005. — 1136 с
3. Водовозова Е.Н. Умственное и нравственное воспитание детей от первого проявления сознания до школьного возраста. СПб.,1901.-с. 319-322.
4. Сухомлинский В.А. О воспитании. Изд. 2-е, М., Изд-во политической литературы. 1975. - С. 272.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILI LEKSIKASINI O‘YIN ORQALI O‘RGATISHNING SAMARADORLIGI

O‘zbekiston. Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi professor v.b., (PhD).
Ostonova Marjona G‘ulomovna
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) 1-kurs magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarga ingliz tilini gamifikatsiya usuli orqali o‘rgatishning samaradorligi yoritilgan. Gamifikatsiya o‘yin elementlari asosida ta’lim jarayonini qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil qilishga yordam beradi. Tadqiqotda bu metodning afzalliklari, bolalarning so‘z boyligini rivojlantirishdagi o‘rni, motivatsiya va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: gamifikatsiya, ingliz tili, maktabgacha ta’lim, so‘z boyligi, o‘yin, metodika, motivatsiya.

Аннотация: В статье рассматривается эффективность использования метода геймификации в обучении английскому языку детей старшего дошкольного возраста. Геймификация способствует организации учебного процесса в увлекательной и интерактивной форме. В исследовании рассмотрены преимущества метода, его роль в развитии словарного запаса, мотивации и формировании навыков командной работы у детей.

Ключевые слова: геймификация, английский язык, дошкольное образование, словарный запас, игра, методика, мотивация.

Abstract: This article explores the effectiveness of using gamification in teaching English to older preschool children. Gamification helps organize the learning process in an engaging and interactive manner. The study highlights the advantages of this method and its role in developing vocabulary, enhancing motivation, and fostering teamwork skills among children.

Keywords: gamification, English language, preschool education, vocabulary, game, methodology, motivation.

Hozirgi kunda ta’limiy o‘yinlar o‘quv jarayonini yengillashtirishda yordam bermoqda. Ya’ni, bu usul ma’lumotlarni samarali tarzda eslab qolishga yordam beradi, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning aqliy (kognitiv), ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yinlar orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalar faoliyat jarayonlarida interaktiv va zavqli tarzda ishtirok etishadi, bu esa ularning faolligini va bilim olish darajasini oshiradi.

Bu – an’anaviy o‘qitishdan farqli, yangicha yondashuv bo‘lib, bolalarning hamkorlikda ishlashini va darsda faol qatnashishini ta’minlaydi.MTTlarda mashg‘ulot faoliyatlari o‘yin tarzda olib boriladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad bolalarning yangi bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali olib borish hisoblanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ikkinchi til ko‘nikmasini rivojlantirishga to‘xtaladigan bo‘lsak, bir qancha zamonaviy o‘yinlar mavjud hisoblanadi. Bugungi rivojlanyotgan mamlakatlarda so‘z boyligini o‘rganishda gamifikatsiya – bu

zamonaviy, o‘quvchiga yo‘naltirilgan o‘qitish usuli bo‘lib, unda o‘quvchilar o‘qituvchining minimal yordami bilan mustaqil o‘rganishlari mumkin. Bu metodian foydalanishmoqda va bu metod ustidan bir qancha tajribalar amalga oshirilib kelinmoqda.

Gamifikatsiya – bu nima?

Gamifikatsiya – bu o‘yin elementlarini o‘qitish jarayonida qo‘llashdir. Ya’ni, faoliyat jarayonlarini ichiga o‘yinlar, musobaqalar, mukofotlar kabi elementlar kiritiladi. Bu orqali bolalar mashg‘ulot faoliyatida zerikmaydi, balki qiziqib qatnashadi.

Gamifikatsiya qanday foyda beradi?

1. Qiziqishni oshiradi.

O‘yinlar orqali mashg‘ulot faoliyati bolalarga zerikarli emas, balki qiziqarli ko‘rinadi. Ular mashg‘ulotlarda faol ishtirok etadi.

2. Motivatsiyani kuchaytiradi.

Bolalar g‘olib bo‘lish yoki mukofot olish uchun ko‘proq harakat qiladi. Bu ularni bilim olishga undaydi.

3. So‘z boyligini oshiradi.

O‘yinlar yordamida bolalar yangi so‘zlarni oson eslab qoladi. Masalan: rasmlar bilan o‘yinlar, musiqa, «Simon says», viktorinalar.

4. Jamoaviy ishlashni o‘rgatadi

Ko‘p o‘yinlar guruhda bajariladi. Bu bolalarga bir-biriga yordam berishni, fikr almashishni o‘rgatadi.

Nimalarga e’tibor berish kerak?

- Har bir bola o‘yinni yaxshi ko‘rmasligi mumkin.
- Ba’zilar raqobatni yoqtirmaydi.
- Shu sababli, o‘yinlarni ehtiyotkorlik bilan tanlash va har bir bolaga uni xarakteridan kelib chiqqan holda moslashtirish kerak.

(Mirzoveya va boshqalar, 2021; Fernandez, 2022 orqali keltirilgan).

Lee va Hammer (2011; Lui, 2022 orqali keltirilgan) ta’kidlashicha, ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarning uch xil intellektual ehtiyojlarini qondira oladi:

1. kognitiv (aqliy),
2. emotsional (hissiy),
3. ijtimoiy (jamiyat bilan bog‘liq).

Shuningdek, bu o‘yinlar o‘quvchilarda muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirib, hissiy tajribalar yaratadi.

Shunga qaramay, bu ko‘nikmalarni rivojlantirish har bir bolada yangi bilimlarni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi. Ayniqsa, so‘z boyligini oshirish orqali ular rasmlar va o‘yinlar yordamida o‘rganishni boshlaydilar, bu esa ularning aqliy jarayonlarini (kognitiv faoliyatini) rag‘batlantiradi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘z mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini kashf etishadi, bu esa xavfsiz muhitda ishonch hosil qilib, o‘qituvchi bergan vositalar yordamida tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlash imkonini beradi. Bu jarayon esa o‘qituvchining innovatsion yondashuvini ifodalaydi.

Gamifikatsiya ta’limda foydali vositalar manbai sifatida qaralsa-da, biz shuni tan olishimiz kerakki, bu usul orqali har bir ko‘nikma o‘quv jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu yondashuv bolaning qiziqishini uyg‘otadi va o‘qitishning samarali usuli sifatida o‘z o‘rnini topadi (Graves, 2023).

Gamifikatsiyaning ta’limdagi ta’siri ijobiy natijalar bergani aniqlangan.

Gamifikatsiya – bu o‘yin elementlari orqali o‘rganishni interaktiv va qiziqarli shaklga aylantirishdir. Bu metod:

- Bolalarning mashg‘ulot faoliyatlariga faol jalb qiladi;
- Kognitiv (fikrlash), ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi;
- Bilimni tezroq eslab qolish va tushunishga yordam beradi;
- bolalarni mustaqil o‘rganishga undaydi.

So‘z boyligini rivojlantirish (vocabulary learning)

Bolalarga ingliz tilidagi so‘zlarni eslab qolishni osonlashtiradi, ya`ni o‘yinlar va xatti harakatlar orqali bola so‘zlarni yaxshi eslab qoladi shuningdek bolaning vizualizatsiyasi ham rivojlanib boradi. Bolalarga ingliz tilidagi so‘zlarni eslab qolishni osonlashtiradi.

Ya’ni, ta’limiy o‘yinlar va faol xatti-harakatlar orqali bolalar yangi inglizcha so‘zlarni tezroq eslab qolishadi va ularni uzoq vaqt davomida yodda saqlashadi. Chunki o‘yin jarayonida bola faqat eshitish yoki o‘qish orqali emas, balki ko‘rish, harakatlanish va tinglash orqali so‘zlarni o‘rganadi. Bu esa turli hissiyotlar orqali o‘rganishni rag‘batlantiradi, ya’ni bola nafaqat eshitadi, balki ko‘radi, harakat qiladi, so‘zlarni talaffuz qiladi .Bunday usul orqali o‘rgangan so‘zlar real vaziyatlarga bog‘lanadi, shuning uchun bola bu so‘zlarni tabiiy va o‘z-o‘zidan ishlatishga o‘rganadi. Bundan tashqari, ingliz tilidagi o‘yinlar bolaning vizual tafakkurini (vizualizatsiyasini) ham rivojlantiradi, ya’ni bola so‘zlarni nafaqat yodlaydi, balki ularni ko‘z oldida tasavvur qilishni ham o‘rganadi. Bu esa keyinchalik nutq so‘zlashish qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tilini o‘rgatishda faqatgina grammatikani yodlash yoki so‘zlarni qayta-qayta takrorlash samarali bo‘lmasligi mumkin. Bolalar uchun tasvirlar (rasmlar), musiqalar, qiziqarli hikoyalar, va interaktiv topshiriqlar (masalan, mini-o‘yinlar, rol o‘ynash, savol-javoblar) orqali o‘rganish ko‘proq ta’sir qiladi va esda qoladi.

Masalan: Rasmli karta orqali bola «apple» so‘zini rasmga qarab yodlaydi. Inglizcha qo‘shiq orqali yangi so‘zlar va talaffuz o‘zlashtiriladi. Qisqa hikoya orqali bola so‘zlarni kontekstda o‘rganadi.Interaktiv topshiriqlar orqali esa bola faol ishtirok etadi, bu esa bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu tarzda o‘qitish bolalarda zerikishni kamaytiradi, ular darsdan zavqlanishadi va doimiy o‘rganishga qiziqish uyg‘onadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’limiy o‘yinlar bolalarga faqat bilim emas, balki muomala qilish, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish kabi hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rgatadi. Masalan, O‘yin davomida bola o‘z vazifasini mustaqil bajarayotgan bo‘ladi, bu esa mustaqillikni rivojlantiradi. O‘yin natijalarini ko‘rib, bola o‘z yutug‘ini ko‘radi, bu esa unda o‘ziga ishonch hosil qiladi. Guruhda o‘ynaladigan o‘yinlar esa jamoaviy hamkorlik, ya’ni boshqalar bilan ishlash, fikr almashish, bir-birini tinglash kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bu fazilatlar bola hayotining har bir sohasida: maktabda, uyda va kelajakda kasb tanlashda ham muvaffaqiyatli bo‘lishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Raxmatov, I. Q. (2024). O‘yin texnologiyalari yordamida chet tilini o‘qitishni innovatsiyalash: gamifikatsiya tamoyillari tahlili. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari

2. Xasanova, Sh. M. (2024). O‘rta ta'limda ingliz tili fanini o‘qitishda gamifikatsiya o‘rni. Ta'limning Zamonaviy Transformatsiyasi,

3. Berrin, D. B. (June, 2021). Devising gamification for vocabulary development and motivation: An experimental, mixed model study. International Technology and Education Journal

4. Healey, D. (2019). Gamification. Macmillan Education.

5. Huseinović, L. (July, 2023). The effects of gamification on student motivation and achievement in learning english as a foreign language in higher education

6. Mirzoveya, M., Tadjibayeva, D., & Kobilova, K. (2021). Gamification in vocabulary learning as an educational game in modern teaching methods.

MAKTABGACHA 6-7 YOSHLI BOLALARNI BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA MAJBURIY BIR YILLIK TAYYORLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

O‘zbekiston. Sanayeva Surayyo Bobonazarovna NavDU
Maktabgacha ta’lim kafedrasi PhD,v.b prof.
Toshqulova Zuhra Ulug‘bek qizi
NavDU, 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada 6-7 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy tayyorlash jarayoni pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqiladi. Mamlakatimizda milliy ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish borasida qilinayotgan ishlar haqida. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayoni rivojlangan mamlakatlarda qanday ekanligi haqida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, tayyorlov bosqichi, maktab, pedagogik muammo, model, ijtimoiy lift, ilm yo‘li.

Аннотация: В данной статье процесс обязательной подготовки детей к начальному образованию рассматривается как педагогическая проблема. Также рассматриваются меры, предпринимаемые в нашей стране по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания. Приводится информация о том, как осуществляется подготовка детей к школе в развитых странах.

Ключевые слова: Дошкольное образование, начальное образование, подготовительный этап, школа, педагогическая проблема, модель, социальный лифт, путь к знаниям

Abstract: This article examines the process of compulsory preparation of children for primary education as a pedagogical issue. It also analyzes the measures being taken in our country to further improve the education and upbringing system. Information is provided on how the preparation of children for school is carried out in developed countries.

Key words: Preschool education, primary education. preparatory stage, school, pedagogical issue, model, social mobility tool, path to knowledge.

Hozirgi kunimizda mamlakatimizda maktabgacha ta’limga bo‘lgan e’tibor yanada ham kuchaytirilmoqda. Bolalarning sog‘lom shakllanishida, ularning shaxs sifatida rivojlanishida va ularni maktabga tayyorlashda maktabgacha ta’limning ahamiyati katta va beqiyosdir. Haqiqatdan ham bolalarga yoshligidan yaxshi ta’lim-tarbiya berilsa, ikkilanmasdan aytishimiz mumkunki uning kelajagi uchun puxta poydevor bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni bilim olishga qiziqtirish, o‘qishga intilish moyilliklarini shakllantirish, bolalarni muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, fikrlarini mustaqil va erkin ifodalay olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishimiz bugungi kunimizning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Shuni ham aytib o‘tish joiz-ki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining to‘liq kunga asoslangan hozirgi modeli, turli sabablarga ko‘ra aholining barcha guruhlariga ham mos kelmasligini aytsak notog‘ri fikr emas. Shu bois, ushbu yo‘nalishda maktabgacha ta’lim xizmatlaridan teng foydalanishlarini ta’minlash uchun maktabgacha ta’limning yanada moslashuvchan ya’ni bolalar qisqa vaqt bo‘ladigan, guruhlarni yaratish maqsadimizga yetishishimizga hizmat qiladi. Shuning uchun bolalarga ta’lim olish huquqidan to‘liq foydalanishni taklif qilish va ta’limni ta’minlashga qaratilgan teng boshlang‘ich imkoniyatlarni yaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, ya’ni 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlarini yaratish juda maqbul jarayon hisoblanadi. Tabiiyki ushbu model ijtimoiy lift singari ishlaydi va bunda maktabgacha yoshdagi har bir bola o‘quv faoliyati uchun zarur bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish uchun maktabga sifatli tayyorgarlik ko‘rish huquqini oladi.[4] D.Xekman iqtisodiy tadqiqotlar bo‘yicha nobel mukofoti sovrindori bo‘lib u shunday ta’kidlaydiki “Bolalarning erta rivojlanishiga yo‘naltirilgan investitsiyalar ta’limga yo‘naltirilgan barcha investitsiyalar ichida eng samarali ekanligini”. Uning fikriga ko‘ra, 0 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan yosh davri inson rivojlanishi nuqtai nazaridan eng asosiy va samarali davr hisoblanib,

maktabgacha yoshdagi bolaning ta’lim olishidagi yo‘qotilgan vaqt va undagi bilimning yetishmasligi uning rivojlanishida ham, mamlakat kelajagi uchun ham jiddiy oqibatlarni olib kelishi mumkinligi aytib o‘tganlar.

Shuningdek ta’lim sohasida keng joriy qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 8-moddasida ham shunday deyilgan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, qolaversa bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi”[3] deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8-dekabrdagi “Boshlang‘ich ta’limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar haqida”gi 999-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Bolalarni boshlang‘ich talimga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi 132 sonli qarori ijrosi doirasida 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni barchasini, bepul bir yillik o‘qitish, maktabga tayyorlashni rivojlantirish bo‘yicha o‘quv dasturini ishlab chiqish va unga ko‘ra maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun majburiy bir yillik bepul o‘qishga o‘tish, aholida ushbu maqsadlarni ommalashtirish uchun ta’lim tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarda ta’lim tashkilotlarining bir qator ta’lim xizmatlarini tanlash bo‘yicha huquqlari belgilab berildi. Mamlakatimizda 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning barchasini maktabgacha ta’lim xizmatlaridan teng huquqli foydalanishini ta’minlash bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda

Mamlakatimizdagi barcha 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta’lim tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida joriy qilingan bunday ta’lim bolaning psixalogik rivojlanishida, balki ijtimoiy hayotdagi munosib o‘rni uchun muhim rol o‘ynaydi. Ushbu ta’lim jarayoni 6-7 yoshli bolaning to‘laqonli rivojlanishi, tarbiyalanishi va o‘qishini, uning maktabda ta’lim olishga samarali tayyorlanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajribalar hisobga olinib, ta’limning samaradorligini oshirish maqsadida ushbu guruhlar faoliyat olib bormoqda. Bolalarga ota-onalar xohishiga binoan aqliy rivojlantirishga emas, balki umumrivojlantiruvchi vazifalarni o‘rgatish, bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga imkon yaratishlari lozim. Bu jarayon tayyorlov guruhlari pedagoglaridan mohirlikni va kreativlikni talab qiladi.

Bolalarni maktabga tayyorlash uchun maktab ta’limining shakl va metodlarini qo‘llamaslik kerak. Bolalarning yoshga bog‘liq psixofiziologiyasi, ushbu yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi uchun maqbul sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’limga oid ish shakllari, ko‘rgazmali-predmetli mashg‘ulotlardan, didaktik o‘yinlardan, bolalarning amaliy va tasviriy faoliyatining turli shakllaridan keng foydalangan holda tarbiyaviy ishlar usullari qo‘llagan holda amalga oshirilishi kerak. Bunday shakllar va usullar yosh bolaning fikrlash va faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladi, uning bilim faoliyatini rag‘batlantiradi va intellektual rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan xalqaro tajribalar hisobga olinib, 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta’lim-tarbiya berish va maktab ta’limiga tayyorlash maqsadida “Ilm yo‘li” variativ dasturi ishlab chiqildi va ortirilgan tajribalarni inobatga olgan holda takomillashrilib borilmoqda. Ushbu dastur 6-7 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash guruhlari maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq, bolaning rivojlanishidagi 5 muhim soha: bolalarning jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish sohalarini har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, bunda bola ta’limiy faoliyatning yetakchi ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Dastur talablari bolani har tomonlama rivojlantirib, maktab ta’limiga tayyorlaydi, unda turli xil ko‘nikmalarni shakllantirishda xizmat qiladi.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko‘ra, “Maktabga tayyorgarlik” tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi:[5]

- jismoniy;
- shaxsiy (ruhiy);
- aqliy;
- maxsus tayyorgarlik.

Bolalarni maktabga tayyorlash – bolalar hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan murakkab shuningdek ko‘p qirrali vazifadir. Uni hal qilishda bir qator jihatlarni ajratib ko‘rsatishimiz kerak.

Birinchidan, kelajakda muvaffaqiyatli o‘quv faoliyatining asosi bo‘lgan bolaning shaxsiyati va uning bilim jarayonlarining uzluksiz rivojlanishi,

Ikkinchidan, boshlang‘ich maktabda yozish, o‘qish va hisoblash elementlari kabi ko‘nikma va qobiliyatlarni o‘rgatish zarurati.

Bu jarayon rivojlangan mamlakatlarda esa ancha ilgari boshlanadi. Fransiya ta’limida tabaqalashtirilgan maktabga tayyorlov guruhi (5-6 yosh) bo‘lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Italiyada esa bolalar 3 yoshdan-6 yoshgacha maktabga tayyorlanadilar. Angliya, Shotlandiya va Uelsda majburiy ta‘lim 5 yoshdan, Shimoliy Irlandiyada esa 4 yoshdan boshlanadi.

Buyuk Britaniyadagi maktabgacha ta’lim o‘quv rejasida nafaqat umumiy ta’lim jarayoniga urg‘u beriladi, balki boladagi o‘qish va hisoblash kabi ko‘nikmalarga alohida ahamiyat beriladi. Bunda 4-5 yoshdagi bolalar rivojlanishning olti yo‘nalishidagi aniq ko‘nikma va bilimlari belgilandi: shaxsiyatlik; ijtimoiy-emotsional; kommunikativ; xabardorlik; matematik; jismonan; ijodiy.

Bizning mamlakatimiz ham unib-o‘sib kelayotgan barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor qaratmoqda. Bu borada kerak bo‘lsa, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalaridan unumli foydalanishi orqali milliy ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirgan holda joriy etmoqda. Zero, mamlakatimiz ezgu maqsad uchinchi Renesans davrini barpo etishni rejalashtirgan. Ana shunday ezgu maqsadlarni esa albatta bugungi kunda voyaga yetayotgan avlod amalga oshiradi. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya esa ana shu avlodni ta’limning birinchi bo‘g‘inidan savodli va tarbiyali bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilishi kerak. Pedagoglar kreativ yondashgan holda mashg‘ulotlarni mas’uliyat bilan tashkil etishlari va boshlang‘ich ta’limga har tomonlama rivojlangan tarbiyalanuvchilarni maktabga yo‘naltirishlari maqsadimizga yetishda yordam bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8-dekabrdagi “Boshlang‘ich ta’limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar haqida”gi 999-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 9-martdagi “Bolalarni boshlang‘ich talimga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi 132 sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ – 637sonli. 2020-yil 23 sentyabr.
4. Ilm yo‘li variativ dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent-2022.
5. “Bolalalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi” o‘quv qo‘llanma Asqarova Dilorom Qurbonovna,- Toshkent-2020

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA KOMPYUTER SAVODXONLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH USULLARI

O‘zbekiston. Suvanova Nodirabegim Sadir qizi
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta‘lim kafedra o‘qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalana olish, kompyuter texnlogiyalarning bolalar uchun ahamiyati hamda ta’lim jarayonida kompyuterdan unumli foydalana olish madaniyatini shakllantirish haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, axborot, madaniyat, ta’lim-tarbiya jarayoni, bolalar uchun kompyuter texnologiyalar, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimedia vositalari.

Аннотация: В данной статье как правильно использовать компьютерные технологии в образовательном процессе, значение компьютерных технологий для детей и формирование культуры эффективного использования информации в образовательном процессе, использование мультимедийных средств, а теперь взаимодействие информации о детях освещается более широко.

Ключевые слова: дошкольное образование, информация, культура, образовательный процесс, компьютерные технологии для детей, мультимедийные средства в дошкольных образовательных организациях.

Annotation: In this article, one of the most relevant topics of today is the ability to use computer technologies correctly in the educational process, the importance of computer technologies for children and the formation of a culture of effective use of information in the educational process, the use of multimedia tools. and now the interaction of information on children is covered more widely.

Key words: preschool education, information, culture, educational process, computer technologies for children, multimedia tools in preschool educational organizations.

Ta'lim tizimi eng jadal rivojlanayotgan tizimlardan biridir, chunki axborot jamiyat, yangi ma’lumotli odamlarni talab qiladi. So‘nggi yillarda shaxsiy kompyuterlarning shaxsiy egalari tobora ko‘payib bormoqda va ko‘plab oilalar kompyuter dasturlaridan nafaqat o‘z kasbiy ishlarida, balki o‘z farzandlarini o‘qitish uchun ham foydalanmoqdalar. Bolalar uchun ko‘plab qiziqarli va foydali o‘quv va o‘quv kompyuter o‘yinlari, ularni maktabgacha ta`lim tashkilotlarida qo‘llash usullari ishlab chiqilgan. Axborot jamiyatida hayotga psixologik tayyorlik, boshlang‘ich kompyuter savodxonligi, faoliyat muammolarini hal qilish vositasi sifatida shaxsiy kompyuterdan foydalanish madaniyati endi kasbidan qat'i nazar, har bir inson uchun zarur bo‘lib qolmoqda. Bularning barchasi maktabgacha ta'lim uchun sifat jihatidan yangi talablarni qo‘yadi - uzluksiz ta'limning birinchi bo‘g‘ini, uning asosiy vazifalaridan biri bola shaxsiyatining boyitilgan rivojlanish potentsialini yaratishdir. Bunday yangilanishning muhim sharti yangi axborot texnologiyalaridan internetdan foydalanishdir. Internetdan maktabgacha ta'limda an'anaviy ta'lim vositalari bilan organik ravishda birgalikda hayotga maktabgacha bolalik davrida kirib keladi, ta'lim sifatini oshiradi, bolaning ijodiy shaxs sifatida rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Har bir inson uzluksiz ta'lim jarayonida nafaqat an'anaviy, balki o‘z faoliyatini amalga oshirishning eng yangi vositalarini ham o‘zlashtirishi kerak.

Ta`limda kompyuter savodxonligini o‘zlashtirish jarayoni inson omilini hisobga olishni talab qiladi. Axir, erta bolalik nafaqat inson iste'dodining manbai, balki ruhiy zaiflik, aqliy zaiflik davri hamdir. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar hayotiga yangi narsalarni kiritish har doim juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak «Yordam bering, lekin zarar qilmang!» Komyuterni bolalar ta'limiga kiritish orqali amal qilish kerak bo‘lgan printsip. Bugungi kunda zamonaviy didaktikada kompyuter ikki tomonlama ko‘rib chiqilganligi juda dolzarbdir: O‘qitish vositasi va o‘rganish ob'ekti sifatida. Ko‘pincha ular birinchi yo‘nalish bilan cheklanadi: kompyuter turli xil o‘yin va oquv dasturlarini o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Biroq, kompyuter mutlaqo yangi texnik qurilma sifatida, agar ikkala yo‘nalish ham hisobga olinsa, bolaning rivojlanishiga to‘liq ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Keyin kompyuter atrofdagi voqelikni bilish vositasiga aylanadi. Kompyuter o‘rganish ob'ekti sifatida bolani maktabga tayyorlash sohasidagi chegaralarni

kengaytiradi. Unga kerak bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar doirasi faqat kompyuterdan intellektual faoliyat vositasi sifatida foydalanish zarurati bilan belgilanadi (maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish darajasiga mos keladi).

Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buni quyidagi misollarda ham ko‘rishimiz mumkin:

- ❖ Bolalar, pedagoglar, ilmiy xodimlar jahonninng salmoqli ilmiy, metodik adabiyotlardan foydalanilgan vidioroliklarni ko‘rish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar;
- ❖ uzoq masofada joylashgan maktabgacha ta`lim tashkiloti xodimlari bilan metodika, tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;
- ❖ turli mavzularda videokonferensiyalarni maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘zida tashkil etish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar;
- ❖ pedagoglar ochiq mashg‘ulotlarda va kunlik pedagogik faoliyatlarida, kengroq foydalanadilar;
- ❖ masofaviy ta`lim, axborotlar almashinish va yana bir qancha imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

Shuni ta’kidlash mumkinki, maktabgacha ta`lim tashkilotida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish uni amalda doimiy tatbiq etish pedagog va bolalar o‘rtasidagi faoliyat jaroyonini zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta`lim tashkilotlarida kompyuterdan foydalanishda quyiladigan talablar.

- ❖ maktabga tayyorlov guruhlari mashg‘ulotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning metodik ta’minoti;
- ❖ maktabga tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarining kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi;
- ❖ maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlari mashg‘ulotlari jarayonida ta’limiy va rivojlantiruvchi o‘yinlarning kompyuter dasturlari va ulardan foydalanish metodikasi;
- ❖ maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimedia va axborot texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmalarini o‘z ichiga olgan o‘quv-uslubiy qo‘llanma;
- ❖ maktabgacha ta’lim tashkilotlarining mashg‘ulotlar jarayoniga mo‘ljallangan
- ❖ multimedia vositalari.

Kompyuter bilan tanishish va kompyuter texnologiyalarini o‘zlashtirish uchun vazifalar:

- ❖ Bolalarni axborot madaniyati dunyosi bilan tanishtirish, informatika g‘oyalarini o‘zlashtirishga tayyorlash.
- ❖ Shaxsiy kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish (Paint, Microsoft Word, PowerPoint.
- ❖ media pleer interfeysi, kompyuter animatsiyasining asosiy tamoyillari bilan tanishish).
- ❖ Bolalarni ma'lumot oqimining ma'noli bo‘g‘inlarida yo‘naltirishni o‘rgatish, ulardan mantiqiy zanjir qurish, xulosalar chiqarish, mustaqil talqin qilish.
- ❖ Rang va fazoviy idrokni o‘rgatadi.
- ❖ Reaksiya tezligini rivojlantadi.
- ❖ Lug‘atini to‘ldiradi.
- ❖ Mantiqiy fikrlashni, muloqot qobiliyatlarini, vosita qobiliyatlarini rivojlanti.

Kuzatishlar shuni ko‘satadiki, 80-90% bolalar kompyuter o‘yinlarini o‘ynashga qiziqishar ekan. Bundan dalolat beradiki, yosh bolalarni qiziqishlariga qarab turli xildagi o‘yinlar, mashg‘ulotlar, rangli tasvirdagi chizmalarni ko‘rsatish orqali ularning dunyoqarashini, axloqiy madaniyatini shakllantirish mumkin ekan. Ushbu maqolada mazkur masalalarga oydinlik kiritildi va uning nazariy jihatlarini yoritishga harakat qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish: muammolar va yechimlar // Maktabgacha ta’limda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi, 2010. – B. 15-17.

2. Begmatova N.X. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimediali kompyuteretexnologiyasidan foydalanishning samarasi // Uzluksiz ta’lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari. Respublika ilmiy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2011. 213-215-b.

3. Sulaymonova N. O‘quv jarayoni samaradorligiga erishishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni (Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman) II-qism 11-iyun 2020yil.

4. Джураева Б.Р., Тожибоева Ҳ.М, Назирова Г.М. Мактабгача таълим ёшидаги болаларга таълим-тарбия беришнинг замонавий тенденциялари. Т.2015 yil [63 б.]

5. Ишмуҳамедов Р.Ж. Тарбияда инновацион технологиялар. -Т.: Фан, 2010. [96-98 б.]

6. Рахимов О.Д., Турғунов О.М., Мустафаев Қ.О., Рўзиев Ҳ.Ж. Замонавий таълим технологиялари.Т.: 2012 [7-9 б.]

7. S.N. Suvanova (2025) Maktabgacha 6–7 yoshli bolalarda bilish kompetensiyalarini shakllantirishda multimedianing o‘rni. J: “Maktabgacha va maktab ta’limi’’ 43-46 b.

8. S.N. Suvanova (2025) Maktabgacha 6-7 yosh bolalarda kompyuter savodxonlik faoliyatida axborotning o‘rni J: “Ped mahorat” 204-207 b

TINGLASH MADANIYATINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

O‘zbekiston. Mavluda Amon qizi Homiyatova
Navoiy davlat universiteti
“Maktabgacha ta’lim”kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi tinglash jarayonining psixologik jihatlari, uning ta’lim sifatiga ta’siri va samarali muloqotni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zi: pedagogic – psixologik, tinglash, talaba, o‘qituvchi, muloqot

Аннотация: В данной статье анализируются психологические аспекты процесса слушания между учителем и учеником, его влияние на качество образования и роль в формировании эффективного общения.

Ключевое слово: педагогико-психологический, аудирование, ученик, учитель, общение

Annotation: This article analyzes the psychological aspects of the listening process between the teacher and the Student, its impact on the quality of education and its role in the formation of effective communication.

Keyword: pedagogical-psychological, listening, student, teacher, communication

Nutqiy faoliyat va tinglash madaniyati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, insonlar o‘rtasidagi muloqot samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Har qanday muloqot ikki tomonlama jarayon bo‘lib, bunda bir tomon fikr bildirsa, ikkinchi tomon uni e’tibor bilan tinglaydi. Tinglash inson muloqotining ajralmas qismi bo‘lib, samarali aloqa va tushunish asosini tashkil etadi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotda tinglash qobiliyatining o‘rni katta.

1. Nutqiy faoliyatning mazmuni va mohiyati

Nutqiy faoliyat inson tafakkuri va his-tuyg‘ularining ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

U quyidagi turlarda amalga oshadi:

- Og‘zaki nutq (dialog, monolog);
- Yozma nutq (maqola, xat, insho);
- Noverbal vositalar (mimika, imo-ishoralar).

Nutqiy faoliyat samaradorligi ko‘p jihatdan auditoriyaning yoki suhbatdoshning tinglash madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi.

2. Tinglash madaniyatining asosiy jihatlari

Tinglash madaniyati insonning kommunikativ kompetensiyasi darajasini belgilaydi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Diqqat bilan tinglash va suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
- Nutqni bo‘lmasdan, oxirigacha tinglash;
- Kerakli paytda javob qaytarish, mulohaza bildirish.

Bunday madaniyat shakllangan insonlar bilan muloqot qilish qulay va samarali bo‘ladi.

3. Nutq va tinglash o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir

Tinglash va nutqiy faoliyat bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. Inson o‘z fikrini ifoda etish uchun avvalo boshqalarning fikrini tinglashga o‘rganishi lozim.

Quyidagi holatlar bu bog‘liqlikni yaqqol ko‘rsatadi:

- Faol tinglovchilar bilan suhbatda nutq mazmunli va mantiqiy bo‘ladi;
- Talaba yoki suhbatdosh tinglanganda o‘z fikrini ishonch bilan bildiradi;
- Muloqot jarayonida fikr almashish va o‘zaro tushunish yuz beradi.

4. Pedagogik faoliyatda bog‘liqlikning ahamiyati

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotda nutqiy faoliyat va tinglash madaniyati muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi talabani faol tinglasa, u ham o‘z fikrini erkin va ravon ifoda etishga harakat qiladi. Shuningdek:

-Tinglovchi talabalar o‘qituvchining nutqidan ko‘proq bilim oladi;
- O‘qituvchi talabani diqqat bilan tinglasa, u o‘z fikrini qadrlangan deb his qiladi;
- Bu esa o‘quv muhitida ishonch va o‘zaro hurmatni shakllantiradi.

Nutqiy faoliyat va tinglash madaniyati o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini to‘ldirib boradi. Tinglay bilgan inson fikrni to‘g‘ri tushunadi, mulohaza bildiradi va o‘z nutqini rivojlantiradi. Ta’lim va ijtimoiy hayotda bu ikki ko‘nikma uyg‘unlashgan holda mavjud bo‘lsa, muloqot samaradorligi ortadi, ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadi.

Tinglash qobiliyatini shakllantirishga ta’sir etuvchi bir nechta omillar mavjud:

1. Psixologik omillar

Tinglash faoliyatining muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan tinglovchining ichki psixologik holatiga bog‘liq. Quyidagi omillar asosiy hisoblanadi:

- Diqqat va e’tibor darajasi;
- Tinglovchining hissiy holati (stress, xavotir, charchoq);
- Empatiya – boshqalarni tushunish va his qilish qobiliyati.

Bu omillar tinglashni ongli va faol tarzda amalga oshirishga yordam beradi.

2. Kommunikativ omillar

Muloqotda tinglash qobiliyati suhbatdoshning nutq uslubi, tana tili, mimikasi va ovoz ohangiga ham bog‘liq. Tinglovchi quyidagi holatlarda faolroq bo‘ladi:

- Suhbat mavzusi uning qiziqish doirasiga kirsa;
- Nutq tushunarli, ravon va mantiqan izchil bo‘lsa;
- Suhbatdosh mimika va jestlar bilan fikrini mustahkamlasa.

3. Ijtimoiy va madaniy omillar

Tinglash qobiliyati shaxsning tarbiyasi, atrof-muhitdagi muloqot madaniyati va jamoaviy ijtimoiy rollar orqali shakllanadi. Masalan:

- Oilada bolaga so‘z berilishi yoki uning fikrini qadrlash;
- Maktabda o‘qituvchining har bir talabaning fikriga quloq solishi;
- Jamiyatdagi madaniy qadriyatlar va muloqot me’yorlari.

4. Ta’lim muhiti va o‘qituvchi roli

O‘qituvchi o‘zining muloqot uslubi bilan tinglash qobiliyatini rivojlantirishda asosiy vositachidir. Quyidagilar bunga xizmat qiladi:

- Talabalarni faollikka chorlovchi uslublar (bahs, muhokama, guruh ishlari);

- Savollar berish, mulohazalarni rag‘batlantirish;
- Tinglagan fikrga hurmat bilan munosabat bildirish.

5. Shaxsiy omillar

Har bir insonda tinglash ko‘nikmasining shakllanishi uning individual xususiyatlariga ham bog‘liq:
- Tinglashga bo‘lgan ichki ehtiyoj va motivatsiya;
- Bilim va tajriba darajasi;
- O‘z-o‘zini nazorat qilish va sabr-toqat.

Ushbu omillarni rivojlantirish orqali tinglovchi nafaqat eshitadi, balki tushunadi, his qiladi va mos ravishda javob qaytaradi.

Tinglash qobiliyati shunchaki eshitish emas, balki psixologik, madaniy va ijtimoiy jihatlarni o‘z ichiga olgan murakkab ko‘nikmadir. Ushbu qobiliyatni rivojlantirish uchun shaxsning ichki salohiyati bilan bir qatorda atrof-muhit, pedagogik yondashuv va madaniy qadriyatlar ham muhim o‘rin tutadi. Ta’lim jarayonida bu omillarning uyg‘unligi tinglash madaniyatini shakllantiradi va samarali muloqotni ta’minlaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quv jarayonining markaziga talabaning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatini qo‘yishni talab qilmoqda. Bunday natijaga erishishda esa o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi samarali muloqot, ayniqsa tinglash jarayonining o‘rni beqiyosdir. Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, tinglash — bu shunchaki eshitish emas, balki faol, ongli va hissiy jarayon bo‘lib, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va tushunishni shakllantirishga xizmat qiladi.

1. Tinglashning psixologik mohiyati

Tinglash inson psixikasining muhim komponentlaridan biri bo‘lib, atrof-muhitdagi axborotni qabul qilish va uni anglab olishga xizmat qiladi. Psixologlar tinglashni quyidagi turlarga ajratadilar:
- Faol tinglash – suhbatdoshga e’tibor berib, uning fikriga izoh berish, savollar orqali rag‘batlantirish;
- Passiv tinglash – faqat eshitish bilan cheklanish, fikr bildirmaslik;
- Empatik tinglash – suhbatdoshning ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini tushunishga urinish.

O‘qituvchining faol va empatik tinglashi, talabada o‘z fikrini bemalol ifoda etish, erkin muloqot qilish, ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi.

2. O‘qituvchining tinglash madaniyati

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki psixologik yetakchi hamdir.
O‘qituvchining tinglashdagi madaniyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:
- har bir talabaga individual yondashuv;
- sabr-toqat bilan tinglash;
- baholovchi emas, tushunishga yo‘naltirilgan munosabat;
- tana tili, mimika, ko‘z bilan aloqa orqali faol ishtirok.

Bunday yondashuv natijasida talaba o‘zini qadrlangan his qiladi, bu esa uning psixologik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Talabani tinglash – motivatsiyani oshirish omili

Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, inson o‘z fikri tinglanganida va qadrlanganida, unda motivatsiya, ishtiyoq va ishonch kuchayadi. O‘qituvchi tomonidan talabaning fikriga e’tiborli bo‘lish quyidagilarga olib keladi:
- talabaning o‘zini baholashi oshadi;
- o‘quv materialiga bo‘lgan qiziqish ortadi;
- ijtimoiy faollik kuchayadi.

Shuningdek, o‘qituvchining rag‘batlantiruvchi so‘zlari, fikr bildirishi, savollar berishi orqali tinglashni faol shakllantirishi ta’lim samaradorligini oshiradi.

4. Psixologik to‘siqlar va ularni bartaraf etish

Tinglash jarayonida bir qancha psixologik to‘siqlar yuzaga kelishi mumkin:
- Stereotiplar: talabani avvalgi taassurotlarga ko‘ra baholash;
- Tashqi omillar: shovqin, vaqt tanqisligi, stress;

- Ichki psixologik to‘siqlar: o‘qituvchining muayyan fikrni eshitishni istamasligi, shoshilinch xulosa chiqarish.

Bunday holatlarning oldini olish uchun o‘qituvchidan quyidagi kompetensiyalar talab etiladi:

- psixologik barqarorlik;
- kommunikativ ko‘nikmalar;
- empatiya va tinglash madaniyatining yuqori darajasi.

5. Ishonch muhitini yaratish

Samarali tinglash jarayoni orqali sinfda psixologik xavfsizlik muhiti yaratiladi. Bu muhitda talabalar o‘z fikrini erkin bildiradi, xatolardan qo‘rqmaydi va o‘rganishga bo‘lgan intilishi ortadi. Ishonchli muloqot — bu ikki tomonlama jarayon bo‘lib, bunda nafaqat o‘qituvchi, balki talaba ham faol tinglovchi bo‘lishi lozim.

O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi tinglash jarayonining psixologik jihatlari ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Faol, empatik va madaniyatli tinglash orqali o‘quv jarayonida ishonch, o‘zaro hurmat, faol ishtirok kabi ijobiy holatlar shakllanadi. O‘qituvchi o‘zining tinglash ko‘nikmalarini doimiy rivojlantirib borishi, psixologik to‘siqlarni aniqlab, ularni bartaraf etishga intilishi muhimdir. Shundagina talaba shaxs sifatida rivojlanadi, o‘zini jamiyatda tutish, fikr bildirish, muhokama qilishda faol va yetuk inson sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Большакова Ю.В.Слух педагога как инструмент воздействия и формирования слуха обучающегося г. Казань, Россия. 2023г
2. Андреева Г.М. Принцип деятельности и исследование общения Общение и деятельность. На рус. и чешск. яз. Прага, 1981. 238с.
3. Бубер М. Диалог//Два образа веры. – М.:ООО «Фирма «Издательство АСТ», 1999 а.С.122-161
4. Лабунская В.А. Невербальное поведение. Ростов-на-Дону:РГУ, 1986. 134с

Electron adabiyot:

1. https://www.learningtogive.org/news/establishing-culture-listening-and-curiosity
2. https://teentruth.net/school-culture-listening-to-your-students/
3. https://www.linkedin.com/pulse/art-listening-how-teach-students-active-class-speedlabs-jbrff.

OLIY TA’LIM MUASSASASI PEDAGOGLARINING GENDER TENGLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

O‘zbekiston G.Roziqova

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar o‘rtasida gender tengligini ta’minlash va uni takomillashtirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Unda gender tengligi tushunchasining mazmun-mohiyati, oliy ta’lim tizimidagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida gender tengligini rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalar, innovatsion metodlar va interaktiv usullar taklif etiladi. Ushbu maqola oliy ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, tadqiqotchilar hamda pedagoglar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlari: gender tengligi, oliy ta’lim, pedagogik yondashuvlar, ta’lim tizimi, pedagoglar, innovatsion metodlar, interaktiv usullar, kasbiy rivojlanish, ijtimoiy-psixologik muhit, ayollar va erkaklar tengligi.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические основы обеспечения и повышения гендерного равенства среди педагогов, работающих в высших учебных заведениях. Анализируется сущность концепции гендерного равенства, существующие проблемы в системе высшего образования и пути их преодоления. В нем также предлагаются эффективные стратегии, инновационные методы и интерактивные методы продвижения гендерного равенства на основе современных педагогических подходов. Статья имеет

практическое значение для специалистов, научных работников и педагогов, работающих в системе высшего образования.

Ключевые слова: гендерное равенство, высшее образование, педагогические подходы, система образования, учителя, инновационные методы, интерактивные методы, профессиональное развитие, социально-психологическая среда, равенство женщин и мужчин.

Abstract: This article discusses the pedagogical foundations of ensuring and improving gender equality among teachers working in higher education institutions. It analyzes the essence of the concept of gender equality, existing problems in the higher education system and ways to overcome them. It also proposes effective strategies, innovative methods and interactive methods for developing gender equality based on modern pedagogical approaches. This article is of practical importance for specialists, researchers and teachers working in the higher education system.

Ключевые слова: гендерное равенство, высшее образование, педагогические подходы, система образования, учителя, инновационные методы, интерактивные методы, профессиональное развитие, социально-психологическая среда, равенство женщин и мужчин.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’lim sohasiga juda katta e’tibor qaratilyapti. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida “Ayni paytda islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha – ta’limning barcha bo‘g‘inlarini izchil isloh qilmoqdamiz”103, deya ta’kidlaydi. Islohotlar halq ta’limi tizimida ham jadallik bilan olib borilmoqda.

Oliy ta'lim muassasasi pedagoglarining gender tengligini takomillashtirishda pedagogik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi, chunki bu soha nafaqat ilmiy-ijtimoiy rivojlanishga, balki ta'lim muassasalarida adolat va inklyuzivlikni ta'minlashga ham yordam beradi. Gender tengligi o‘zining ko‘plab jihatlari bilan o‘qitish va o‘qish jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa pedagoglarning roli va yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Quyida gender tengligini takomillashtirishda qo‘llaniladigan ba'zi pedagogik yondashuvlar keltirilgan:

So‘nggi besh yil o‘g’il va qizlarni tarbiyalashda tabaqalashtirilgan yondashuv muammosini ishlab chiqishda bir qator muhim o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Oldingi davrdan farqli o‘laroq, ushbu muammo bo‘yicha tadqiqotlar alohida emas, balki alohida gender yo‘nalishida shakllanadi. Pedagogik amaliyotga genderga yo‘naltirilgan dasturlar, ta’limning turli bosqichlarida ta’lim va tarbiya texnologiyalari ishlab chiqilmoqda va faol joriy etilmoqda. Pedagogik amaliyotda gender ta’limining shakllari va usullari sinovdan o‘tkazilmoqda, xususan, turli jinsdagi bolalarni alohida o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha tajriba o‘tkazilmoqda. [4]

Ta’limda gender yondashuvi muammosini ishlab chiqishdagi qiyinchiliklar hozirda bir qator omillarga bog’liq:

- davlat ta’lim standartlarida gender muammolarining yo‘qligi;
- gender pedagogikasining kategorik apparati etarli darajada rivojlanmaganligi;
- turli jins vakillarining aqliy farqlari, ularning namoyon bo‘lish darajasi to‘g’risida eksperimental ma’lumotlarning nomuvofiqligi. Shunday qilib, gender pedagogikasi ilmiy bilimlarning yo‘nalishi sifatida so‘nggi besh yilliklarda faol rivojlanmoqda va hozirda nazariy va uslubiy asoslarni shakllantirish, gender tarbiyasining mazmunli va texnologik jihatlarini rivojlantirish davrini boshdan kechirmoqda. Pedagogik jarayonda «gender» toifasini joriy etish muhim ahamiyatga ega, chunki maktabda ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishga asoslangan kasbiy o‘zini o‘zi belgilash, hayot strategiyasi resurslardan foydalanish va hokimiyat to‘g’risida ko‘plab g’oyalar shakllanadi. Gender munosabatlaridan kelib chiqqan holda o‘g‘il bolalar va qizlar ikkita ajoyib dunyo bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Olimlar qizlarning estetik didi ko‘proq rivojlanganligini, ularda nutq va nozik muvofiqlashtirish, o‘g‘il bolalarda esa matematik va mexanik qobiliyatlar yaxshi ekanini aniqlashdi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, o‘g‘il bolalar va qizlar jismoniy va intellektual rivojlanishda sezilarli darajada farqlanadi va ular turli xil qiziqishlarga ega. Xotin-qizlarni ilmiy va rahbarlik lavozimlariga ko‘proq jalb qilish — gender tengligini mustahkamlashda juda muhim ahamiyatga ega. Ayollarni ilmiy tadqiqotlarga va ta’lim jarayoniga ko‘proq jalb qilish orqali ularning ta'limdagi roli oshiriladi. Shuningdek, gender tengligi nuqtai nazaridan rahbarlik

lavozimlariga ayollarni tanlashda ijtimoiy jihatlar, iqtisodiy imkoniyatlar va ma'naviy tayyorgarlik inobatga olinishi lozim. Har bir rivojlangan davlat xotin-qizlar taraqqiyoti yo‘lida, eng avvalo, har tomonlama ta’lim berishga intiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi** Farmonining 69-maqsadida “Xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish vazifasi belgilab qo‘yilgan”

Ta’lim — bu jamiyatning rivojlanishida asosiy omil bo‘lib, ayniqsa gender tengligini ta’minlashda juda katta rol o‘ynaydi. Ayollar va qizlar uchun ta’lim olish imkoniyatlari cheklangan joylarda, ularning jamiyatda teng huquqlarga ega bo‘lishi qiyinlashadi. Shu bois, gender tengligi siyosati ta’lim sohasida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ishlashni taqozo etadi: Ta'limda gender yondashuvi - bu jinsga qarab shaxsning potentsialini rivojlantirishdagi an'anaviy madaniy cheklovlarning o‘zgarishi, pedagogik ta'sir jarayonida qizlar va o‘g‘il bolalarning maksimal darajada o‘zini o‘zi anglash va ochib berish uchun sharoit yaratish. (L.V. Shtyleva)

Gender yondashuvda yoshlarning yangicha fikr yuritishi, dunyoqarashining o‘zgarishi, siyosiy va ijtimoiy ongi o‘sishining o‘zi jamiyatdagi o‘zgarishlardan darak beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. https://lex.uz/docs/5320582

2.Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Maqolalar to‘plami – Toshkent, 2007.

3.Muraveva N.M. O‘zbekiston Xotin-qizlari ijtimoiy maqomini yuksaltirish. – Toshkent,

4..Yusupova S.P. Xotin-qizlar gender-menejment muammolari //Oilaning dolzarb muammolari: ustuvor vazifalar va rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – Toshknet, 2008.

5. O.R.Shamiyeva (“Rahbar ayollar shaxsining ijtimoiy psixologik xususiyatlari). (Xalq ta’limi misolida). Avtr. “Ijtimoiy psixologiya va etnologiya”. – Toshkent, 2000.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

O‘zbekiston Teshabayeva Zamira Sobirovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD)
Raximova Dildora Mansurbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistr talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish jarayonida ularning ongida va ruhiy holatida ro‘y beradigan pedagogik-psixologik xususiyatlari va bu jarayonda ular bilan ishlash usullari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada bolalar bilan ishlash usullari, masalan, ijodiy loyihalar, guruh mashg‘ulotlari va individual yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Bu usullar bolalarning fikrlash qobiliyatini kengaytirishga va ularni yangi g‘oyalar yaratishga undashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: shaxsiy rivojlanish, mustaqil faoliyat, ijodkorlik, iqtidor, qobiliyat, layoqat, tug‘ma alomat, tabiiy layoqat, ijtimoiy layoqat,ijodiy shaxs.

Аннотатция. В данной статье рассматриваются педагогико-психологические особенности, которые возникают в сознании и эмоциональном состоянии детей дошкольного возраста в процессе развития их творческой активности, а также методы работы с ними. Также обсуждаются методы работы с детьми, такие как творческие проекты, групповые занятия и индивидуальный подход. Эти методы способствуют расширению мыслительных способностей детей и побуждают их к созданию новых идей

Ключевые слова: личностное развитие, самостоятельная деятельность, творчество, талант, способности, одаренность, врожденный признак, природный талант, социальные способности, творческая личность.

Annotation. This article reveals the pedagogical and psychological characteristics that occur in the minds and psychological state of preschool children during the process of developing their creativity. It also discusses the methods of working with children, such as creative projects, group activities, and individual approaches. These methods serve to expand children's thinking abilities and encourage them to create new ideas

Key words: Personal development, independent activity, creativity, talent, ability, capability, innate trait, natural ability, social skills, reative individual

Kirish: Maktabgacha yosh davri sezgi organlarining ishi, atrofdagi dunyoning xilma-xilligi haqida ma’lumot to‘plash uchun qulaydir. Biz qanchalik bolaning emotsional hissiy dunyosini rivojlantirar ekanmiz, uning o‘zi va ijodiy mahsulotlari yanada yorqinroq bo‘ladi, bolalar ijodiyotining rivojlanishi asosiy hususiyatlaridan biri ta’lim va tarbiya bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi.

Ijodiy qobiliyatni o‘rganish zarurati xayotning turli sohalarida ro‘y berayotgan keskin o‘zgarishlarga bog‘liq. Zamonaviy dunyoning muammolari noan’anaviy fikrlash turlaridan maksimal darajada foydalanishga asoslangan original yechimlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlanishi uchun birinchi navbatda o‘quv-tarbiyaviy jarayon va mikro muhit katta ahamiyatga ega.

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Maktabgacha ta’lim tizimiga har bir bolaning ijtimoiy munosabatlarning faol sub’yekti sifatida shakllanishi va ijodiy qobiliyatlari rivojlanishining muhim bosqichi sifatida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Bu o‘rinda esa, mazkur sohadagi boshqaruv va pedagog kadrlar tayyorlash mazmuni va texnologiyalarini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, pedagogik ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish, sifatli maktabgacha ta’lim berishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Sharqning buyuk mutafakkirlarining asosiy g‘oyasi hamda tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bolalarni jismoniy ruhiy va aqliy kamoloti bilan bog‘liq masalalar bo‘lgan. Jumladan, sharq mutafakkirlaridan Al Horazmiy , Al Beruniy, Abu ali Ibn Sino, Abu nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Amir Temur va boshqqa mutafakkirlarining pedagogik qarashlarida ta'lim berish usullari va bola shaxsini shakllantirish, uning intellektual, ruhiy-jismoniy rivojlanishini baholash bilan bog‘liq masalalar borasida asosli fikrlar ilgari surilgan.

Al-Xorazmiy “bilim berishda ko‘rgazmali vositalar, savol-javob, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, bilimlarni sinash usullaridan keng foydalanish lozim. Tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berish muhim”, deb ta’kidlaydi [4; 74-b.]. Darhaqiqat, bolalarga nazariy bilimlarni o‘zlashtirishlarida ko‘rgazmali vositalar, amaliy mashqlarni qo‘llash, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish usullaridan foydalanish ularda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Abu Rayhon Beruniy ta’lim-tarbiya birligiga barkamol, aqlli va ma’naviyatli insonni tarbiyalash vositasi sifatida qaraydi, o‘z asarlarida mutafakkir insonning ma’naviy boyligini sharaflaydi, uni madaniyatli va ma’rifatli, aqlli va idrokli qilib tarbiyalashga chaqiradi; xotira, aql, ilhom, qobiliyatlari, tajriba va ko‘nikmalarga katta ahamiyat beradi. [4; 64-b.].

Rus pedagoglaridan P.F.Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo‘lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi. Jamiyatda barcha uchun majburiy bo‘lgan axloq qoidalariga, ijtimoiy odob normalariga amal qilish asosiy talabga aylanadi. Atrof-muhitni bilish imkoniyatlarining o‘sishi, bolani yaqinlari tashkil qilgan tor doiradan olib chiqadi va o‘zaro munosabatlar shaklini ilk bora o‘zlashtira boshlaydi. Bola o‘zaro munosabatlar shaklini ilk bora kattalarning ta’lim, mehnat kabi asosiy faoliyati turlarida o‘zlashtirib boradi. Bola tengdoshlari

bilan birga o‘ynaydi, o‘z harakatlarini tengdoshlarining harakatlari bilan muvofiqlashtirishni, o‘rtoqlarining qiziqishlari va fikrlari bilan hisoblashishni faoliyat jarayonida o‘rganadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha bo‘lgan bolalik davri davomida bola harakatlarida o‘zgarishlar va qiyinchiliklar ro‘y beradi. Ular bolaning idroki, fikrlashini, xotirasinigina emas, o‘zining xulqini yo‘lga qo‘yishini ham talab qiladi. Shaxslararo munosabatlardagi axloq-odob namunalarini o‘zlashtirish kattalar ta’siri ostida boshqariladi. Bu kattalarning bola shaxsini shakllanishiga ko‘rsatgan asosiy ta’siridir.

Ba’zan o‘ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug‘ma ekanligiga ishora qilinadi. Psixologiyada tug‘ma alomatlari bor bo‘lgan individual sifatlar layoqat deb yuritiladi. Layoqat ikki xil bo ‘ladi, ular tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Tabiiy layoqat odamdagi tug‘ma xususiyatlardan oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miyaning yarimsharlarining qanday ishlashi, qo‘1-oyoqlarning biologik va fiziologik sifatlari, bilish jarayonlarni ta’minlovchi sezgi organlari – ko‘z, quloq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o‘tadi), ijtimoiy layoqat bola tug‘ilishi bilan uni o‘rab turgan muhit, muloqot usullari, so‘zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlardir. Bola bu ikkala layoqat muhitini ota-onadan tayyoricha qabul qiladi. Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi.

Ko‘pincha, ko‘plab ota-onalar farzandini ijodiy shaxs sifatida ko‘rishni orzu qiladilar, lekin shu bilan birga ular o‘zlari ham hech narsani o‘zgartirishga intilmaydilar. Va agar ota-onalar ma’lum ijodiy qobiliyatlarga ega bo‘lsa, unda bu juda zo‘r - siz ajoyib oilaviy ijodiy tandemni olishingiz mumkin. Xo‘sh, agar taqdirning irodasiga ko‘ra, ijodkorlik sizning kuchingizdan uzoqda bo‘lsa, unda bu muhim emas va bu holatda xafa bo‘lmaslik kerak. Siz hali ham sevimli bolangizga yordam berishingiz mumkin. Asosiysi, bu masala bo‘yicha katta istak va tegishli bilimga ega bo‘lish.Kichkina ixtirochining mutlaqo beg‘ubor fantaziyalarini ibtidoiy narsa sifatida qabul qilmang, bolaning har qanday fantaziyasi ijodkorlikning yashirin donasi ekanligini unutmang. Shuningdek, bolalar ertaklariga kulmaslik kerak. Chunki ijodkor bola oddiy narsalarni boshqa tomondan ko‘ra oladi. Xafa bo‘lmang va agar u rasmda aytaylik, baliq ko‘rinib turganini aytsa, uni qoralashga va jazolashga urinmaslik lozim: choynak, stol emas, balki sakkizoyoq va hokazo. Tabiiyki, kichkintoy stol va choynak qanday ko‘rinishini va ular rasmda qanday ko‘rsatilganligini juda yaxshi tasavvur qildi, u shunchaki orzu qilmoqchi edi. Shuni unutmangki, bu yoshdagi chaqaloq narsalarning umumiy qabul qilingan tushunchasini idrok qilishni xohlamaydi, aksincha, tasavvurga erkinlik berishni xohlaydi.

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga bolalar bog‘chasida yetarlicha e’tibor beriladigan bolalar faoliyatining turli turlari ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ammo agar sizning chaqalog‘ingiz ushbu muassasaga bormasa, bu ham muammo emas. Buni uyda ham o‘zingiz qilishingiz mumkin. Va bu umuman qiyin emas, aksincha, bu juda hayajonli va qiziqarli hisoblanadi. Haqiqatan ham ijodkorlik nima? Ijodiy qobiliyatlar - bu shaxs sifatining individual xususiyatlari bo‘lib, u turli ijodiy faoliyatni amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilaydi. Ijodkorlik elementi inson faoliyatining har qanday turida bo‘lishi mumkinligi sababli, nafaqat badiiy ijod, balki texnik ijodkorlik, matematik ijodkorlik va hokazolar haqida ham gapirish o‘rinli bo‘ladi.»Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi» ta’kidlaydiki, shaxsiy madaniyatning asosini shakllantirishda tasavvur va unga asoslangan ijodkorlik, mustaqil harakat qilish qobiliyati ko‘rinishidagi o‘zboshimchalik, bolaning dunyoda faol harakat qilish zarurati kabi asosiy shakllantiruvchi shaxslar hisoblanadi, tug‘iladi va rivojlanadi.. Ijodiy tasavvur, o‘zboshimchalik va mustaqil harakat qilish zarurati o‘sib borayotgan shaxsning o‘ziga xosligi va o‘ziga xosligini ifodalovchi maxsus tizimni tashkil etuvchi shaxsning o‘zagi deb ataladi.

Nima uchun o‘zi ijodkorlik kerak? Psixolog, pedagoglarni ta’kidlashicha, ijodiy sevimli mashg‘ulotlar yoshidan qat’iy nazar odamlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ammo bolalar uchun dunyoni tushunishda ayniqsa muhimdir. Kundalik hayotga ijodkorlikni kiritish, bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun ba’zi sabablar mavjud. Ijodkorlik psixika uchun yaxshi. Art-terapiya tinchlantiradi, stress va qo‘rquvni yo‘qotadi, salbiy his-tuyg‘ulardan chalg‘itadi, tajovuz

darajasini pasaytiradi. Ijodkorlik o‘rganishga yordam beradi. U miyani bo‘shatadi va qiyin muammoning yechimini topishga yordam beradi hamda hamdardlikni rivojlantiradi.

Ijodkorlik - bu o‘zini namoyon qilish usuli hisoblanadi. U orqali biz dunyoni va o‘zimizni o‘rganishimiz, tajriba qilishimiz, yangi narsalarni yaratishimiz mumkin. Bolani ijodkorlik bilan qanday tanishtirish kerak? Farzandingizda ijodkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ba’zi maslahatlar.

- **Farzandingizni qiziqtirgan sevimli mashg‘ulotini toping:** ijodkorlik: rasm chizish, kollajlar, modellashtirish, keramika, tikuvchilik, zargarlik buyumlari, pazandalik va lego konstruktorlari. Turli tashabbuslarni sinab ko‘rishdan qo‘rqmasligimiz kerak asosiysi, bola oxir-oqibat o‘ziga yoqadigan narsani topadi oladi.

- **Ilhomlantiring:** bolaning hayotiga san’atni kiriting - ehtimol uni biror narsa qiziqtiradi va u buni takrorlashni xohlaydi. O‘z shahringizdagi ko‘rgazmalar, master-klasslar, ma’ruzalar va tegishli yoshdagi kurslarda qatnashing.

- **Farzandlarimizning ijodiy ishini tanqid qilaslik lozim:** Fransuz ko‘cha rassomi Tierri Guetta: «San’atni tanqid qilib bo‘lmaydi, chunki har bir xato yangi ijoddir». Agar siz bolalar ijodidan natija va yutuqlarni talab qilsangiz, umuman ijodkorlikka bo‘lgan ishtiyoqni yengishingiz mumkin.

Shuni ham unutmaslik kerakki, ijodkor yoki qobiliyatsiz bolalar yo‘q. Har bir bolada bilimga intilish, tabiiy qiziqish va sinab ko‘rish istagi mavjud. Ammo ba’zida kattalar, maktab va atrof-muhit uni kurtakda o‘ldiradi.

Keraksiz tanqidlardan saqlaning va bolaga ijodiy erkinlik bering: qizil fil chizadi - ajoyib, rang berish maydonlaridan tashqariga chiqadi - yaxshi, tushunarsiz narsalarni haykaltaroshlik qilsin - sog‘liq uchun, qonunga ko‘ra emas - bundan ham yaxshiroq.

- **Jadvalingizga ijodkorlik vaqtini kiriting:** ijodkorlikni rivojlantirishga odat sifatida yondashing - buning uchun aniq va muntazam vaqt ajrating. Masalan, har kuni soat 15:30 dan 16:00 gacha ijodiy soat. Agar bolaning ijodkorlik uchun o‘z burchagi bo‘lsa, bu juda yaxshi: alohida xonada yoki umumiy xonada. U yerda uyda topishingiz mumkin bo‘lgan barcha kerakli materiallarni joylashtiring - plastilin, kollajlar uchun chiqindi qog‘oz, bo‘yoqlar, dizaynerlar, munchoqlar. Misol keltiring - birgalikda o‘tirishni va Internetdagi darsliklarga muvofiq biror narsa qilishni taklif qiling.

- **Ijodkorlik mashqlarini bajaring**: mana misollar: mavjud bo‘lmagan hayvonni chizdiring va unga nom ham bering, ikkita tasodifiy so‘z asosida syujet bilan izchil hikoya tuzdiring .

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda Ijodkorlik insonning juda oddiy vaziyatlar uchun nostandart yechimlarni topa oladigan ko‘p qirrali fikrlash qobiliyatini anglatadi. Ko‘pincha bunday qobiliyatlar tug‘ma emas va ularning rivojlanishi uchun maxsus shart-sharoitlarni talab qiladi. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish hamma vaqt ham dolzarb bo‘lib kelgan. Chunki ijodkor shaxsgina jamiyatda tu islohotlar qila oladi, ulari farovon hayotga yetaklaydi. Bunday fazilatlar esa bolaning ilk davridan boshlanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida turli xil texnologiyalardan foydalanish esa maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda asosiy shartlardan biri bo‘lib xizmat qilishi kerak. Shuni esda tutish kerakki, har bir bola noyob, o‘ziga xos tarzda iqtidorli sanalib, unung ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoniga qanchalik ko‘p qiziqish bildirsa, bolaning kelajakda yetuk shaxs bo‘lish va zamonaviy jamiyatga osonlik bilan moslashish, unda muvaffaqiyat qozonish imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 18.02.2020 y PF-5938-son
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016.
3. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv

qo‘llanma Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2017. – 496 b. 370-b
4.Axmedova Malohat Ergashevna Pedagogika nazariyasi va tarixi T.: « TAFAKK U R- B O S TONI». 2011. 128 bet. (64-bet)
5. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. 3032-son 03.07.2018
6. Z.S. Teshabayeva “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi”. Darslik. -T.: “Sarbon LLS”, 2024.
7. Тешабаева, З.С. (2023). Технологии формирования профессиональной мотивации у будущих воспитателей-педагогов. qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 2023. 714-717.
8. Teshabayeva, Z. S. (2021). Professional training of future preschool teachers in the field of contextual learning technologies. Academic research in educational sciences, 2(2), 1360-1367.
9. Тешабаева, З. С. (2020). Бўлажак тарбиячиларда касбий мотивацияни шакллантириш мазмуни. Academic research in educational sciences, (3), 557-562.
10. Teshabayeva. Z. Differential education as a factor in improving the effectiveness of the educational process. ankara international congress on scientific research-XI January 10-12, 2025 / Ankara, Türkiye (THE PROCEEDINGS BOOK) https:// www.ankarakongresi.org 1482-1484.
11. Teshabayeva, Z. S. (2025) “Oila shaxs ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida” Ta’limda istiqbolli izlanishlar - xalqaro ilmiy-metodik jurnal № 2/2025 ISSN: 3060-527X 374-378.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SYUJETLI-ROLLI O‘YINLAR ORQALI EKOLOGIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

O‘zbekiston Rasulxo‘jayeva Madina Axmadjonovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (PhD) dotsenti.
Karimbayeva Maftuna Ravshanbek qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada syujetli-rolli, sahnalashtirish o‘yinlarining maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati keng yoritilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlarda mavjud bo‘lgan «Syujetli - rolli o‘yinlar va sahnalashtirish» markazining vazifazi hamda ushbu markazni jihozlash bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.Bolaning o‘sishi va har tomonlama rivojlanib borishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashyo va buyumlar orqali anglab, undan ozicha mano topishiga intilishi, qiziqishi va hissiyotlarining rivojlanishini ular o‘ynayotgan o‘yinlari orqali kuzatish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bola uchun bu - hissiy boyitilgan va idrok etilgan tarzda o‘rganish uchun ideal sahnadir. Sahna o‘yini bolani har jihatdan rivojlantirishi haqida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, tarbiya, ta’lim, madaniyat, bola, xotira, tafakkur, omil, nutq, zamonaviy, jarayon, tashkilot, jamiyat, o‘yin faoliyati, tafakkur, idrok, syujetli-rolli oyinlar, markaz, tasavvur.

Аннотация: В статье подробно рассматривается роль и значение ролевых и драматических игр в развитии детей дошкольного возраста. Даны задачи центра «Сюжетно-ролевых игр и инсценировок», который существует в группах в дошкольных образовательных организациях, и методические рекомендации по оснащению данного центра.

Рост и всестороннее развитие ребенка — это непрерывный процесс. Его становление как личности, его первые попытки познать мир через окружающие его предметы и найти в нем какой-то смысл, развитие его интересов и эмоций можно наблюдать в играх, в которые он играет. Для дошкольника это идеальная обстановка для обучения в эмоционально обогащенной и перцептивной форме. Говорят, что сценическая игра развивает ребенка во всех отношениях.

Ключевые слова: Дошкольное образование, воспитание, образование, культура, ребенок, память, мышление, фактор, речь, современный, процесс, организация, общество, игровая деятельность, мышление, восприятие, сюжетно-ролевые игры, центр, воображение.

Annotation: This article extensively covers the role and importance of role-playing and dramatization games in the development of a preschool child. The tasks of the «role-playing and dramatization» center, which exists in groups in preschool educational organizations, and methodological recommendations for equipping this center are given.

The growth and comprehensive development of a child is a continuous process. His formation as a person, his desire to first understand the world around him through objects and objects, and to find some meaning in it, the development of his interests and emotions can be observed through the games he plays. For a preschool child, this is an ideal stage for emotionally enriched and perceptual learning. It is said that the stage play develops the child in all aspects.

Keywords: Preschool education, upbringing, education, culture, child, memory, thinking, factor, speech, modern, process, organization, society, game activity, thinking, perception, plot-role-playing games, center, imagination.

Sahnalashtirilgan o‘yinlarning ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, ular orqali bola badiiy obrazni idrok qila bilishni o‘rganadi, personajlar hatti-harakatini kuzatish qobiliyatini rivojlanib boradi. Musiqiy, so‘z, ko‘rish obrazlaridan foydalangan holda zarur bolgan ruhiy sifatlarini (idrok qilish, tassavur qilish, diqqat, tafakkur), ijrochilik konikmalarini (rolga kirish, tasavvurdagi muhitda harakatlanish ko‘nikmasi) va sezgilari (mushak va hissiy) rivojlanish iuchun sahna mashqlari otkaziladi. Badiiy asarlar bo‘yicha oddiy parchalarni sahnalashtirishda bola obrazni aks ettirish uchun unga malum ifoda vositalari (ohang,yuz-harakati,imo-ishora)o‘rgatiladi. Har bir bola rol o‘ynayotganda avvalo asar qahramoning his tuyg‘u holatini sezishi va tushunishi, boshqa personajlar bilan rolni munosabatga kirishishida o‘zini tutishi qobiliyatilari shakllantirishi lozim. Teatrlashtirilgan o‘yinlarda obrazli o‘yinchoqlardan, loydan, pape-mashe, plastilindan mustaqil yasalgan o‘yinchoqlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sahnalashtirilgan har qanday o‘yin asosida bolaning bilish jarayonida irodaviy - hissiy xususiyati badiiy asardagi go‘zallikni his qilishi ko‘nikmasini to‘g‘ri shakllantirib borishga alohida e'tabor qaratish kerak. Masalan,tarbiyachi bolalarga o‘qib ertak kitobcha syujetinini oz so‘zlarini bilan hikoya qilgan holda,sahna ssenariysini tuzadilar,unga mos qo‘g‘irchoqlarni tanlab,ishtirokchilar o‘rtasida muhokama qilib,rollarni bolib olishadi. Syujetni rollarga kirib,ravon va ifodali qilib aytishi kerak. Syujetdagi qo‘g‘irchoqlar hatti-harakatini o‘zlashtirishi- har bir imo-ishora va mimikasini ko‘rsata bilishi kerak.

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’limni rivojlantirishga doir bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Ularda sohada o‘z yechimini kutayotgan vazifalar aniq ko‘rsatildi. Xususan, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha qabul qilingan huquqiy hujjarlarda “ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llanadigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish” kabi vazifalar belgilangan. Tabiat va jamiyat uyg‘unligi insoniyatning tarixiy rivojlanishida muhim mezon hisoblanadi. Biologik va ijtimoiy omillar ta’sirida shaxs makon va zamonda o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Bu faoliyat mazmunini atrofdagi voqea va tabiatdagi hodisalarning mohiyati, narsa va buyumlarning nomi, vazifasi, belgi xususiyatlari hamda ularga munosabatlar tashkil etadi. Maktabgacha bolalik davrida bolada atrof olam haqidagi ilk tasavvurlar paydo bo‘ladi, atrofdagi voqea va hodisalarning oddiy o‘zaro aloqadorligi qonuniyatini anglash ko‘nikmasi shakllanadi. Shuningdek, bola olgan bilimini mustaqil ravishda amaliy faoliyatida qo‘llay oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish qiziquvchanlikni oshiradi. Bilish qobiliyati hamda “boshlang‘ich ta’lim o‘quvchisi imidji” rivojlantiriladi. Ijodiy tasavvur esa, bolada intellektual va shaxsiy sifatlarning shakllanishiga turtki bo‘ladi. Sezgi organlari orqali bolalar atrof olamni ko‘radi, his qiladi, anglaydi. Atrofni anglashlari natijasida insonning tana a’zolari va ularning vazifalari, sog‘lom hayot tarzi haqidagi tushunchalarga ega bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirishdan asosiy maqsad maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirishga oid mamlakatimiz va xorijiy olimlarning pedagogik g‘oyalarini o‘rganish hamda amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Sh. M. Mirziyoyev 7-fevral 2017-yil kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmonni.

3. 1. M.A. Rasulkho‘jaeva, Technology of formation of moral qualities of preschool children by introducing them to the animal world Methodological guide Tashkent.: «Ilm-Ziyo Zakovat» 2020

2. M.A. Rasulhojayeva. Using folklore to introduce large groups of children to the animal world. Methodology and theory of preschool education Scientific-methodical, ethical-educational, popular journal Tashkent: 2021 No. 9 (33)

3. Rasulkhujaeva, M. A. (2019). Educator’s Role in Forming Moral Qualities Senior Preschool Age Children by Introducing Animal World. Eastern European Scientific Journal, (1).

4. Расулходжаева, М. А. (2022). Коммуникативная компетентность в деятельности педагога дошкольной образовательной организации. Национальная ассоциация ученых, (80), 30-32.

5. Rasulxojayeva M.A., Sh.O.Madaminova (2024). 6-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi markazlarning bolalar psixologik jarayonlarini shakllantirishdagi ahamiyati. Vol. 17 no. 1 (2024): Лучшие интеллектуальные исследования | часть-17 | том-1

6. Rasulxo‘jayeva M. A., Salimova A. A. (2024) Actual Problems and their Solutions in the Organization of Pedagogical Processes of Preschool Teachers. Vol. 55 (2024): Miasto Przyszłości

7. Rasulxo‘jayeva Madina Axmadjonovna, & Ko‘jageldiyeva Aziza Muxsum qizi. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishda xalq maqollaridan foydalanish jarayonini tashkil etish trayektoriyasi . PEDAGOGS Jurnali, 27(1), 39–43. Retrieved from

8. Абдуллаева М.З. (2023) Подростковый возраст-этап развития личности web-journal.ru часть-8 том 1

9. Исмаилова М.Ю. (2023) Проблемы возникновения неполноценных семей и методы их предотвращения web-journal.ru часть-8 том 1

4. Levian K.M. Lichnost pedagogo: stanovleniye razvitiye. Izd-vo Saratovskago universiteta. 1991. -166 s.

5. Mavlonovo R., To‘rayevo O. Holiqberdiyev K. Pedagogika. T.

6. Ochilov M. Yangi pedagogik cenologiyalar. - Qarshi. Nasaf, 2000.

7. Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) – T.:2022

8. Maktabgacha ta’lim tashkilot ta’lim faoliyatini mavzuviy rejalashtirish” T.:2019

9. Teshaboyev I.A. Ta'lim tizimida imij fenomenining ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etilishi // Inter education & global study. 2024

10. Axmedjanov M.M., Xo‘jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat - Buxoro Davlat universiteti, 2014.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI OILADA MILLIY TARBIYA RUHIDA TARBIYALASH HAMDA TARBIYA JARAYONLARINING KELIB CHIQISHI NEGIZLARI VA RIVOJLANISHI

O‘zbekiston Haydarova Shaxlo Narzullayevna
NavDU, Maktabgacha ta’lim kafedrasi v.b dotsenti
Raxmonova Diyora O‘tkir qizi
NavDU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Milliy tarbiya tushunchasining kelib chiqishi jahonda va yurtimizda milliylik va tarbiya tushunchasining qadriyat ekanligini hamda milliy tarbiya jarayonining rivojlanib borishi tor manoda yoritilgan. Shuning bilan birga, oilaning muqaddas

tushuncha ekanligi va muqaddas tushunchalar oila va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq jarayon ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy tarbiya, oila tarbiyasi, oila, etnopsixologiya, tarbiya, antropologiya.

Аннотация. В данной статье в узком смысле рассматриваются истоки понятия национального воспитания как ценности понятия национальности и воспитания в мире и в нашей стране, а также развитие процесса национального воспитания. При этом подчеркивается, что семья-это священное понятие, а священные понятия-это процесс, тесно связанный с семьей и национальными ценностями.

Ключевые слова:национальное воспитание, семейное воспитание, семья, этнопсихология, образование, антропология.

Abstract. This article examines in a narrow sense the origins of the concept of national education as a value of the concept of nationality and upbringing in the world and in our country, as well as the development of the process of national education. At the same time, it is emphasized that the family is a sacred concept, and sacred concepts are a process closely related to the family and national values.

Key words: national education, family education, family, ethnopsychology, education, anthropology.

Jahonda tarixiy faktlarning dalolat berishicha, milliy qadriyatlar va an’analar asosida o‘zaro munosabatlar xalq tomonidan qo‘lga kiritilgan uzoq odat natijasi sifatida e’tirof etiladi. Oilada milliy muhit munosabatida voyaga yetib, milliy-ma’naviy qadriyatlar qurshovida o‘sishi asosida shakllanadi va ijtimoiy xayotga moslashishini taqozo etadi. Ana shunday dolzarb muammolardan biri bu o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan bola tarbiyasi usulidir.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yig’indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o‘tadi.[9]

O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari, o‘gitlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar qalbida insoniylik urug‘larining unishiga, katta hayot yo‘liga olib chiqishiga yordam beradi. Shu bois biz uchun qadrli bo‘lgan allomalarimizdan Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Devoniy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Asqar Zunnunov va boshqalarning ta’lim-tarbiya va ma’rifat haqidagi g‘oyalaridan keng foydalanish bugungi kun talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Bahovuddin Naqshbandning ta’limtarbiya haqidagi fikr-mulohazalari va pand-u nasihatlari g‘oyat qimmatlidir. Tarbiya orqali esa kishilar bilan muloqotni, axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni o‘rganadi.[10]

Tarbiya va milliy tarbiya usuli, oiladagi tarbiyaviy muhitning xususiyatlari, tarbiya jarayonida ota-onalarining tutgan mavqei va ta’sir darajasi kabi masalalar ham g‘arb pedagoglarning nazardan chetda qolmagan. Ayniqsa, Germaniya, Yaponiya, Rossiyada bolalarning oila muhitida tarbiyalash va rivojlantirishning innovatsion tizimlari ishlab chiqilayotganligini alohida qayd etib o‘tish lozim. Bugungi kunda farzandlarimizning ma’naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ularni pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish, oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an’analar asosida o‘zaro munosabatlarini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masala ekanligini ko‘rsatadi.[11]

[9] https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarbiya

[10] Usmanova Mashkura Mirzoroximovna Ipak yo’li innovatsiyalar universiteti o’qituvchisi https://doi.org/10.5281/zenodo.10466994

[11] http://www.journal.namdu.uz/

O‘zbek olimlarimiz ham tarbiya va milliy tarbiya jarayonlari haqida ko‘plab ilmiy asarlar yozgan. Jumladan, professor M. Quronovning “Milliy tarbiya” nomli monografiyasida qayd qililinishicha XIX asrga kelib chet el ijtimoiy fanlarida boshqa xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qiluvchi kulturantropologiya va sotsiologiya maxsus fanlarga aylanib, “Boshqa dunyo kishisi” muammosini o‘rgana boshladi. XIX asrda madaniy antropologiya asosida “noyevrupa jamiyatida madaniyat va shaxs”, “etnopsixologiya” ilmiy yo‘nalishlarini yuqoridagi o‘zaro milliy-madaniy tushunmovchiliklar, ziddiyatlarni yechish, birbirini tushunish ehtiyojlarini yuzaga keltirdi. Natijada “fe’l-atvorning milliyligi” ilk bor ijtimoiy-siyosiy, keyinchalak esa ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-pedagogik ilmiy tushunchalarga aylana bordi. Milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralarini ilk bor kashf etgan olimlardan biri amerikalik kulturantropolog Margaret Mid bo‘ldi. M.Mid tomonidan 1927 yili nashr ettirilgan “Coming on’ age Samoa” (Samoada ulg‘ayish) kitobi tarbiyaning milliyligi isbotlangan ilk ilmiy-tadqiqot natijasi edi. M.Mid har bir kishining ma’lum milliy muhitdagi xulq-atvorini tushunishda uning bolalikdagi milliy tarbiyaviy ta’sirining nihoyatda katta ahamiyatga egaligini qayd qiladi.[12]

Sharqda azaldan oila ijtimoiy mohiyati bilan o‘ziga xos qadriyat hisoblanadi. U avlodlar davomiyligining, shajaralar uzviyligining o‘ziga xos ko‘rinishidir. Ayni paytda erkak va ayolning birgalikdagi hayotiy taqdiri, saodatli turmushi, hayot farog‘ati va orzu-umidlarning mo‘tabar maskani hamdir. Farzand – oilaning mustahkam tayanchi. Uning butun og‘irligi-yu zavqli tomonlarini uyg‘unlashtirib turadigan, ota-onani kelajakka qat’iy ishonch bilanqarashga da’vat etadigan qudratli kuchdir. Bola kichkinaligida torgina makonning zavqi, ota-onaning kelajagi, saodatli hayotining mahsuligina, xolos. U yura boshlab, ostona hatlab ko‘chaga chiqqanidan keyin ijtmoiylasha boshlaydi. Bolalarga qo‘shilib, ulkan jamiyatning kichik a’zosi bo‘lib qoladi. Ana shunda oilaning tarbiyaviy roli, ma’naviy-axloqiy roli oshadi.[13]

Jadidchilik harakatining ulug‘ namoyondasi Fitrat o‘zining “Oila” asarida: “Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi”, – deb yozadi.[14]

Shundan ekan oilada farzand tarbiyasi bevosita milliy tarbiyaga borib taqaladi. Milliy tarbiya esa o‘z navbatida milliy qadriyat va milliy urf-odatlar bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. Ijtimoiy predagogika. Darslik.–T.: Sano-standard.2022
2. Абдурауф Фитрат. Оила. – Тошкент: Маънавият, 1998. Б.8
3. Usmanova Mashkura Mirzoroximovna Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi https://doi.org/10.5281/zenodo.10466994
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarbiya
5. http://www.journal.namdu.uz/
6. https://interscience.uz/index.php/home

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHDA OILA HAMKORLIGINI TASHKIL QILISH NAZARIY ASOSLARI

O‘zbekiston Ermatova Gulnoz Primovna
NavDU Maktabgacha ta’lim kafedrasi v.b dotsenti
Bobojonova Nazira Merganboy qizi
Navoiy davlat universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish va ularning oila bilan hamkorligini mustahkamlash muhimligi ta'kidlanadi. Maktabgacha ta’lim, bola shaxsiyatini shakllantirish va uning intellektual, emotsional rivojlanishini ta'minlashda muhim bosqich bo‘lib, oila bilan o‘zaro hamkorlik bu jarayonning samaradorligini

[12] https://interscience.uz/index.php/home
[13] Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. Ijtimoiy predagogika. Darslik.–T.: Sano-standard.2022.
[14] Абдурауф Фитрат. Оила. – Тошкент: Маънавият, 1998. Б.8

yanada oshiradi. Maqolada, oila va ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik, ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirish va pedagogik metodlarning interaktiv yondashuvlar bilan boyitilishi kerakligi muhokama qilinadi. Shuningdek, tarixiy tajribalar va zamonaviy metodologiyalarni birlashtirish zarurligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: oila, maktabgacha ta’lim, emotsional, hamkorlik, kompetensiya, A.S.Makarenko, shaxsiyat, pandnomalar.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность совершенствования деятельности дошкольных учреждений и укрепления их сотрудничества с семьей. Дошкольное образование является важным этапом в формировании личности ребенка и обеспечении его интеллектуального, эмоционального развития, взаимодействие с семьей еще больше повышает эффективность этого процесса. В статье обсуждается сотрудничество семьи и образовательных учреждений, повышение психолого-педагогических знаний родителей и необходимость обогащения педагогических методов интерактивными подходами. Также указывается на необходимость сочетания исторического опыта и современных методологий.

Ключевые слова: семья, дошкольное образование, эмоциональное, сотрудничество, компетентность, А.S.Макаренко, личность, пандномы.

Abstract: This article highlights the importance of improving the activities of preschool institutions and strengthening their cooperation with the family. Preschool education is an important stage in the formation of a child's personality and ensuring his intellectual and emotional development, interaction with the family further increases the effectiveness of this process. The article discusses the cooperation between the family and educational institutions, the improvement of psychological and pedagogical knowledge of parents and the need to enrich pedagogical methods with interactive approaches. It also points out the need for a combination of historical experience and modern methodologies.

Keywords: family, preschool education, emotional, cooperation, competence, A.S. Makarenko, personality, astronomy.

So‘ngi yillarda ta’limga yangicha yondashuvlar ta’sirida ta’lim muassalari faoliyatini takomillashtirishning muhim belgisi sifatida texnologik yondashuv qaror toptirish muommosi tadqiq etilmoqda. Shu bilan birga ta’lim nazariyasi va amaliyoti ta’lim muassasasi faoliyatini ilmiy-metodik asosda takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Maktabgacha ta’lim, bolalarning dunyoqarashi, ijtimoiy ko‘nikmalari va psixologik rivojlanishi uchun muhim bosqich bo‘lib, bu davrda bola turli pedagogik metodlar va amaliy faoliyatlar orqali hayotga tayyorlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti nafaqat ta’lim berish, balki bola shaxsiyatini tarbiyalash, uning intellektual va emotsional jihatlarini rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, oila - bolalar tarbiyasi va rivojlanishida asosiy o‘rin tutuvchi muhitdir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi hamkorlik, bolalar ta’limining sifatini va samaradorligini oshirishda juda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, ta’lim jarayonida oila va ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi aloqalar o‘rnatish, bolalar uchun yanada samarali ta’lim va tarbiya muhitini yaratishning asosiy shartidir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti - bu bolalarning dastlabki ta’lim, tarbiya va rivojlanish uchun mo‘ljallangan pedagogik muassasa bo‘lib, uning asosiy vazifasi bola shaxsiyatini shakllantirish, uning fikrlash va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu ta’lim bosqichida bolalar turli interaktiv metodlar orqali dunyoqarashini kengaytiradi va ijtimoiy kompetensiyalarni o‘rganadi.

Hamkorlik pedagogikasining asosi sifatida yuksak axloqiy va insonparvarlik qarashlar O‘rta Osiyo Uyg‘onish davrida yashab, ijod etgan sanoqli olimlarimizning asarlarida g‘oya va aniq nazariyalar ko‘rinishida o‘z aksini topdi.

Ko‘pgina ilmiy-tadqiqod ishlarida „hamkorlik’’, „sherikchilik’’, „muvofiqlashtirish’’, „birgalikdagi harakat’’ tushunchalari sinonim tushunchalar sifatida ishlatilib kelingan. Bizning

fikrimizcha, „ hamkorlik'' tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikda samarali faoliyatni taqazo etadi[15].

2012-yildagi "Rossiya Federatsiyasida ta'lim to‘g‘risida"gi Qonunga muvofiq, maktabgacha ta'lim mamlakat ta'lim tizimining birinchi darajasiga aylandi[16]. Bu oilaga psixologik va pedagogik yordam ko‘rsatishni, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari o‘qituvchilarining bevosita yordami bilan ota-onalarning bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash masalalarida vakolatlarini oshirishni nazarda tutadi va bolalarni tarbiyalashda ittifoqchi bo‘lish ta'kidlanadi. Shuning uchun ota-onalarning vakolatlarini shakllantirish va rivojlantirish maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning zarur sharti sifatida maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan oilaga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatishning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shu munosabat bilan ularning ijtimoiy hamkorligi katta salohiyatga ega bo‘lib, bu nafaqat ota-onalarning kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi, balki maktabgacha ta'lim tizimidagi o‘qituvchilarning malakasini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, ilmiy-pedagogik adabiyotlar (E.X.Arnautova, T.N.Doronova, L.V.Kolomiychenko, T.A.Kulikova va boshqalar) tahlili va dissertatsiya tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta'limning maqsadi va natijasini qayta ko‘rib chiqish kontekstida maktabgacha ta'lim tashkilotlari o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklik masalalari hal etilmoqda. Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti yetarli darajada ko‘rib chiqilmagan va qo‘shimcha o‘rganishni talab qiladi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘qituvchilari va ota-onalari o‘rtasida bolalarni rivojlantirish bo‘yicha faoliyatida samarali ijtimoiy sheriklikni tashkil qilish uchun metodik yordam talab qilinmaydi.

Ma'lumki, ushbu standartning asosiy xarakteristikalari o‘qituvchilar va ota-onalarning kasbiy mahoratini shakllantiradigan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuini ifodalovchi asosiy kompetensiyalarining tarkibi va shakllanish darajalaridir va ularning keyingi rivojlanishining umumiy madaniy asoslari va maktabgacha ta'lim tashkilotida va oilada bolaning ta'lim olishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish maqsadida o‘z-o‘zini takomillashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida "Ota-onalar farzand tarbiyasi uchun javobgardir" deb belgilab qo‘yilgan[17]. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5325 Farmoni (02.02.2018), PQ-3808 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi qarori (27.06.2018)da ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish jamiyatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Oila va undagi tarbiyaning usul, vosita va omillari ko‘proq yozma pandnomalarda, Kaykovusning «Qobusnoma», «Saodatnoma», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»si, «To‘ti shohnoma», «Odobnoma» kabilarda oila muammosiga doir masalalar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Oila boshlig‘i ota – ona bola tarbiyasi haqida yetarlicha amaliy va nazariy bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Agar ularda yetarlicha bilim, ko‘nikma va malaka bo‘lmasa, u oila a'zolari, ya'ni farzandlariga yaxshi tarbiya bera olmaydi. Oiladagi yomon tarbiya faqat oilanining o‘ziga hos bo‘lmasdan, balki qo‘ni-qo‘shni va mahalladagi tarbiyaga ham salbiy ta'sir qiladi.

Buyuk rus pedagogi **Ya.A.Komenskiy** "Bolaning yettinchi yili-bu bekorchilikdan buzilib ketmaslik uchun maktabda o‘qishni boshlaydigan vaqt"[18] deb hisoblagan. Bolani 5-6 yil oilada ta'lim olishini optimal muddat deb hisoblagan. Aynan mana shu davrda bola ilk tarbiya maskanidan chiqib ikkinchi bir muhim tarbiya o‘chog‘i maktabga qadam qo‘yadi.

Taniqli pedagog **A.S.Makarenko** besh yoshgacha bo‘lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o‘tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo‘lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta

[15] Inaqulov Qudratjon Qodirovich . 2019. „Hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim -tarbiya sifatini takomillashtirish'' dissertatsiya.
[16] https://www.lex.uz/docs/-4198100?ONDATE=03.12.2022&ONDATE2=12.02.2019&action=compare
[17] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T., 2012-yil.
[18] Hasanboyeva O.Oila pedagogikasi" Toshkent-2011yil, 30-bet

tarbiyalash negizida davom etadi”[19]. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o‘ta e'tiborli bo‘lish lozim. Bolalarning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o‘z umri va salohiyatini bag‘ishlagan allomalarimizning asarlarida sog‘lom avlod tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarga alohida o‘rin berilgan. Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, uni ma'rifat-u madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor berganlar.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim va oila o‘rtasidagi hamkorlik, bolalar tarbiyasi va rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayon, bola shaxsiyatini shakllantirish, uning intellektual va emotsional rivojlanishini ta'minlashda ta’lim muassasalarining va ota-onalarning o‘zaro aloqalarini yaxshilashni talab qiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida interaktiv metodlar va pedagogik yondashuvlar orqali bolalarning dunyoqarashi kengaytirilib, ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Shu bilan birga, oila va ta’lim tizimi o‘rtasidagi samarali ijtimoiy sheriklik, bolalar ta’limining sifatini oshirishga, ularning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirish, ularning tarbiya va ta’lim masalalarida malakalarini rivojlantirish, ta’lim tizimining samaradorligini yanada oshiradi. Bularning barchasi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va prezidentning farmonlari orqali ta’lim tizimining takomillashtirilgan siyosatiga to‘liq mos keladi.

Shunday qilib, ta’lim jarayonida oila va ta’lim muassasalari o‘rtasida yaqin va samarali hamkorlik, bolalar uchun yanada kuchli va samarali ta’lim muhitini yaratishning asosiy shartidir. Maktabgacha ta’lim tizimining sifatini oshirish uchun ilmiy-pedagogik asoslar, tarixiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlarni birlashtirish zarur. Bu esa, avvalo, kelajak avlodning shaxsiyati va jamiyatning taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T., 2023.
2. Hasanboyeva O. Oila pedagogikasi Toshkent-2011.
3. Karimova V.M.Oila psixologiyasi Toshkent-2011yil, 20-bet.
4.Inaqulov Q.Q. „Hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya sifatini takomillashtirish’’ dok.diss. T.: 2019.
5.w.w.w Maktabgach ta’lim.uz

TARIXIY OBIDALAR BILAN TANISHTIRISH JARAYONIDA TARBIYALANUVCHILARDA MILLIY G‘URURNI SHAKLLANTIRISH

O‘zbekiston Azimova Musharraf Utkirovna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi v.b dotsenti
Shoimova Nilufar Quvondiq qizi,
Navoiy davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada har bir xalqning madaniy merosi va tarixiy obidalari uning milliy o‘ziga xosligini haqida fikr yuritilgan bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalarni ana shunday qadriyatlar bilan tanishtirish ularda vatanparvarlik, milliy g‘urur va tarixiy ongni haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Tarixiy obida, meros, me`moriy yodgorlik, vatanparvarlik, milliy qadriyat, qahramonlar, milliy g‘urur, ekskursiya, buyuk siymolar, kompetensiya, metodik tizim, kompleks, didaktik, hurriyat, istiqlol, vizual, faxr, iftixor, interaktiv usul.

Аннотация: В данной статье рассматривается культурное наследие и исторические памятники каждого народа, его национальная самобытность, приобщение дошкольников к

[19]Hasanboyeva O.Oila pedagogikasi” Toshkent-2011yil, 20-bet.

таким ценностям, воспитание в них патриотизма, национальной гордости и исторического сознания.

Ключевые слова: Исторический памятник, наследие, памятник архитектуры, Патриотизм, национальная ценность, герои, национальная гордость, экскурсия, великие деятели, компетентность, методическая система, комплексная, дидактическая, устремленность, независимость, наглядная, гордость, гордость, интерактивный метод.

Abstract: This article examines the cultural heritage and historical monuments of each nation, its national identity, the introduction of preschool children to such values, the education of patriotism, national pride and historical consciousness in them.

Key words: Historical monument, heritage, architectural monument, Patriotism, national value, heroes, national pride, excursion, great figures, competence, methodical system, complex, didactic, aspiration, independence, visual, pride, pride, interactive method.

Tarixiy obidalar – bu o‘tmishimizdan bizga meros bo‘lib qolgan madaniy va me’moriy yodgorliklar bo‘lib, ular xalqimizning buyukligini va madaniy yuksakligini namoyon etadi. Milliy g‘urur esa shaxsning o‘z vatani, millati va madaniyatiga bo‘lgan hurmati va faxr tuyg‘usidir. Tarbiyaviy jarayonda ushbu tushunchalarni bolalar ongiga singdirish, ularning milliy qadriyatlarga nisbatan hurmatini oshirish muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish uchun dastavval ularni tarixiy obidalarimiz bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarixiy faktlarni shunchaki o‘rganish emas, balki ularni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, his qilganida yaxshiroq tushunadi. Shu sababli, tarixiy obidalar bilan tanishtirishning bir necha usullarini ko‘rib chiqamiz:

- **Ekskursiyalar va sayohatlar tashkil etish;**

Bolalarni tarixiy obidalarga olib borish ularning tarixni jonli his qilishiga yordam beradi. Samarqanddagi Registon majmuasi, Buxorodagi Minorai Kalon yoki Xivada joylashgan Ichan-qal’aga sayohatlar bolalar uchun unutilmas taassurot qoldiradi.

- **Rasmlar va maketlardan foydalanish;**

Tarixiy obidalar maketlari yoki ularning rasmlaridan foydalangan holda tushuntirish yanada samarali bo‘ladi. Masalan, bolalar bilan birga tarixiy binolar maketlarini yasash yoki rasm chizish ularga yanada yaqinroq tushunchalar beradi.

- **Milliy qahramonlar haqida hikoyalar aytish;**

Bolalarga tarixiy shaxslar – Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur kabi buyuk siymolar haqida tushunarli hikoyalar orqali ma’lumot berish muhim. Ularning jasorati, bilimga intilishi va vatanparvarligi bolalar qalbida faxr tuyg‘usini shakllantiradi.

- **O‘yin va sahnalashtirish usulidan foydalanish;**

Tarixiy voqealar asosida kichik spektakllar sahnalashtirish bolalarning qiziqishini oshiradi. Masalan, ta`lim-tarbiya jarayonida “Syujetli-rolli o‘yinlar” markazida “Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab sayohat” mavzusida rolli o‘yinlar tashkil qilish mumkin.

- **She’r va qo‘shiqlar orqali tarbiyalash;**

Bolalar she’r va qo‘shiqlar orqali o‘z milliy qadriyatlarini chuqur his qiladilar. Tarixiy obidalar yoki milliy qahramonlarga bag‘ishlangan she’rlarni o‘rganish bolalarning vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlaydi.

Tarixiy obidalar bilan tanishtirish ko‘pgina tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bulardan ba`zilarini keltirib o‘tish joiz.

-Milliy o‘zlikni anglash – bolalar o‘z millatining madaniy boyliklari haqida bilib, o‘zligini anglash demakdir.

-Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish – tarixiy obidalar orqali bolalar ajdodlarining jasorati va mehnatini qadrlashni o‘rganadi.

-Estetik didni rivojlantirish – Tarixiy me’moriy yodgorliklar bolalarda san’at va go‘zallikni his qilish qobiliyatini oshiradi.

-Ajdodlarga hurmat uyg‘otish – Tarixiy obidalar bilan tanishish orqali bolalarda o‘z ajdodlariga bo‘lgan hurmat tuyg‘usi shakllanadi.

Dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini qaror toptirish orqali vatanparvarlik sifatlarini tarkib toptirish, oila va maktabgacha ta`lim tashkilotlari hamkorligi asosida bolalarda fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda milliy g‘ururni shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish, tarixiy-madaniy meros bilan kompleks mashg‘ulotlar jarayonida tanishtirish orqali bolalarda o‘tmishga qiziqishni shakllantirishning didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. YUNESKO loyihasi asosida yaratilgan mashhur mutaxassis-pedagoglarning hamkorlikdagi ishlarida har bir bolada o‘zi va atrofdagilar, o‘tmish va bugungi avlod oldidagi mas`uliyatni shakllantirish orqali o‘sib kelayotgan avlodni tinchlik va shaxs huquqini hurmat qilish ruhida tarbiyalash asosida Yer sayyorasini asrab qolish mumkinligi ta`kidlab o‘tilgan. Bu esa, maktabgacha ta`lim yoshidanoq bolalarda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini tarbiyalashni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov**:** “Asrlar davomida aql zakovati ila bunyod etgan boy ma`naviyati tufayli xalqimiz mag‘rur yashadi. Mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi. Ana shu milliy g‘urur bugungi istiqlolimizning oltin poydevoridir”, - deb ta`kidlaganlari bejiz emas. Bolalarda milliy g‘urur elementlarini shakllantirish avalo milliy g‘ururni tushuncha sifatidagi mazmuni va mohiyatiga e`tibor qaratish lozim.

“G‘urur” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, insonning o‘z qadr-qimmatini bilish, uni hurmat qilish hissi, faxrlanish tuyg‘usi, faxr, iftixor, faxrlanishga asos bo‘ladigan narsa tariqasida talqin etiladi. Bolalarda faxrlanish tuyg‘usi, avvalo, o‘zi yashab turgan hudud, u yerda mavjud qadriyatlar asosida shakllanadi. Me`moriy obidalar esa ham bevosita, ham bilvosita ta`sir qiluvchi omil sifatida samarali qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vositadir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarixiy obidalar bolalarning milliy g‘ururini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularni qiziqarli, jonli va interaktiv usullar orqali o‘rgatish bolalar ongida o‘z madaniyatiga hurmat hissini shakllantiradi. Eng muhimi, bolalar ushbu jarayonda o‘zlarini faol ishtirokchi sifatida his qilishlari kerak. maktabgacha yoshdagi bolalarni tarixiy obidalar bilan tanishtirish nafaqat ularning bilim doirasini kengaytiradi, balki ularda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ushbu jarayonda ekskursiyalar, vizual materiallar, hikoyalar, o‘yinlar va sahnalashtirish kabi metodlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, biz kelajak avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.A’zam Hasanov. O‘zbekiston tarixi: milliy mustaqillik yo‘lida, T-2000.

2.Nurtayev Sh. Milliy g‘urur va uning shakllanish omillari, T-2005.

3.Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch, T-2008.

4.Vohidov A. Milliy o‘zlik va ma`naviy tiklanish, T-2010.

5. Shongulov A. Madaniyat va sivilizatsiya: tarixiy nuqtayi nazar, T-2012.

6. Abdullayev U. O‘zbek xalqining tarixiy merosi va milliy o‘zlikni anglash, T-2014.

7. Ikromov B. Tarixiy obidalar va ma`naviy tarbiya, T-2016.

8. Sultonov Q. –O‘zbekistonda madaniy merosni saqlash va tiklash masalalari, T-2018.

9. Jo‘rayev N. Tarixiy meros: kecha, bugun, ertaga, T-2019.

10. Юлдошев А. Миллий гурур ва ватанпарварлик тарбияси, T-2021.

11. Shaxnoza To‘xtasinovna Hasanovaning “Tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy g‘ururni shakllantirish” mavzusidagi dissertatsiya. 2021.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHIDA HARAKATLI O‘YINLARNING TA’SIRI

O‘zbekiston L.N. Shaxriddinova
Navoiy davlat universiteti, San’at va sport fakulteti
“Sport faoliyati turlari” kafedrasi dotsenti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
2-G guruh talabasi X.Sh. Jumaqulova

Annotatsiya: Quyidagi maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida harakatli o‘yinlarning ta’siri haqida so‘z boradi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi tarbiyalanuvchilardagi tabiiy jismoniy harakatlar va maktabgacha ta’lim tashkilotidagi jismoniy holatlar ham ko‘rsatib o‘tilgan. Bolalarning jismoniy rivojlanishidagi harakatli mashqlar ham shular jumlasidan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy rivojlanish, statistik, energiya, organism, bola, harakatli o‘yinlar.

Аннотация: В следующей статье речь пойдет о влиянии подвижных игр на физическое развитие дошкольников. Также показаны естественные физические движения у воспитанников дошкольного возраста и физические состояния в дошкольной образовательной организации. К ним относятся двигательные упражнения в физическом развитии детей.

Ключевые слова: Физическое развитие, статистика, энергия, организм, ребенок, движение, игры.

Annotation: The following article discusses the effects of action games on the physical development of preschool children. Natural physical movements in preschool-age educators and physical conditions in the preschool organization are also indicated. Including action exercises in the physical development of children.

Keywords: Physical development, statistics, energy, organism, child, movement, games.

Kirish: Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida harakatli o‘yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarning sog’lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida shakllanishida o‘yinning ta’siri beqiyosdir. Ushbu maqolada harakatli o‘yinlarning bola rivojlanishidagi o‘rni, pedagogik jarayondagi ahamiyati, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llanilishining afzalliklari ko‘rib chiqiladi. O‘yinning bola faoliyatidagi ahamiyati va o‘ziga xos jihatlari ko‘p. O‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati hisoblanib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi.

O‘yin bolaning kelajakdagi o‘quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanishini belgilab beradi. O‘yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limtarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta o‘rin tutadi. O‘yinning maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar hayotida o‘rni juda katta hisoblanadi. O‘yin kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli. Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o‘yin sub’yekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan.

Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari mehnat, o‘qish bilan birga o‘yin ham uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yin vositasida katta avlod tomonidan to‘plangan hayotiy tajriba, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan. O‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi. Bola hayotining bir yoshidan boshlab u uchun o‘rab turgan tevarak-atrofni bilishga ehtiyoj xosdir. Bolalar o‘yinlari o‘zining barcha xilma-xilligi bilan unga yangi narsani bilish, o‘yin mazmunida aks etgan jihatga o‘z munosabatini bildirish imkonini beradi. Bola o‘sib va rivojlanib boruvchi mavjudotdir.

Harakat – ma’lum maqsadga qaratilgan aqliy va jismoniy faoliyat mehnat sanaladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, aqliy yoki jismoniy bo‘lishidan qat’i nazar MTT tarbiyalanuvchilarining to‘la-to‘kis o‘sib ulg’ayishlarini ta’minlovchi muhim shartlardan biri sanaladi. Faol harakatlarga ehtiyoj o‘yinning barcha turlari, ayniqsa, harakatli va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan didaktik o‘yinlar

orqali to‘liq qoniqtiriladi. Shuningdek, o‘yinlar bolaning muloqotga kirishishiga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga katta ahamiyatga ega. O‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar hayotini tashlik etish shaklidir. Ilmiy asoslangan o‘yinlar MTT da bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda tarbiyachi-pedagog yetakchi o‘rin egallab, eng avvalo, o‘yin orqali ta’lim-tarbiyaga doir qanday vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish mumkinligini aniq tasavvur qila olishi lozim. Shuningdek, bolalar o‘yiniga ajratilgan vaqtni mashg’ulot yoki kun tartibidagi boshqa tadbirlarni har kungi kun tartibiga ovqatlanish, badantarbiya, sayr, mashg‘ulotlar o‘tkazish bilan bir qatorda o‘yin ham kiritilgan. O‘yin bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida kichik guruhdan boshlanadi. O‘yin ertalab nonushtagacha (15-20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin, mashg’ulotlar o‘rtasida, ochiq havoda, uyqudan keyin o‘tkaziladi. Ertalab rolli o‘yinlar, qurishyasash, harakatli o‘yinlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Mashg’ulot o‘rtasida harakatli, qoidali o‘yinlar o‘tkaziladi. Ular asosan, mashg’ulotning mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Sayr vaqtida ochiq havodagi o‘yinlardan foydalaniladi. Kunduzgi uyqudan keyingi o‘yinlarga qurilish o‘yinlarga ertak bo‘yicha qo‘yiladigan o‘yin, rolli, didaktik o‘yinlar kiradi.

O‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir. O‘yinning MTT pedagogik jarayondagi o‘rni. Pedagogika fani o‘yinni bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasi, deb hisoblaydi. O‘yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, ko‘nikma va malakalari, harakat usullari, axloq me’yorlari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladi. O‘yinda bolaning o‘z tengqurlari va kattalar bilan bo‘ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi. Ustoz o‘yin orqali bolalarga ona-Vatanga, o‘z xalqiga, boshqa millat vakillariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O‘yin orqali ustoz bolalarga jasurlik, rostgo‘ylik, o‘zini tuta bilishlikni, ularning hayotiga, bir-biriga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi maktab vazifasini bajaradi.

Tarbiyachi-pedagogdan bolalarning o‘yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z qoidalariga rioya qilishga o‘rganadilar. O‘yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib chuqurlashib boradi. O‘yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o‘zining butun diqqatini o‘yinga qaratishi lozim. Bola o‘ynayotganida kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlar to‘g’risidagi tasavvur yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Ustoz bolalarning bunday savollarga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Shunday qilib, o‘yin bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogning to‘g’ri rahbarligida uning tushunchalari kengayadi. MTTda tashkil etiladigan bolalar o‘yini o‘zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko‘ra xilma-xildir, umumlashtirilgan holda uni ikki turga ajratish mumkin: Metodologiya Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida, oilada jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari ularni sog’lom va baquvvat qilib o‘stirish, ular organizmini chiniqtirish, ta’lim va tarbiyani to‘g’ri tashkil etishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog’lomlashtirish vazifalari - bu jismoniy tarbiyaning eng asosiy vazifasi bo‘lib, bola hayotini muhofaza qilish, uning sog’lig’ini mustahkamlash, organizmini chiniqtirish yo‘li bilan o‘zini himoya qilish va turli kasalliklarga chidamlilik xislatlarini oshirishdan iborat natija muhokama tarbiyachi-pedagog har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo‘lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshi davrida ustozning bolaga shaxsiy ta’siri juda katta bo‘ladi. Chunki bu davrdagi har bir ta’assurot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. Bolani tushuna bilish va uning ma’naviy dunyosiga kira olish, tarbiyachi-pedagogdan zo‘r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo‘lish - fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz ustozning ijodiy mehnatini tasavvur etib bo‘lmaydi. Mashg‘ulotda ustoz o‘z ovozidan qurol sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq ta’sir etishini pedagog bilishi zarur. Bolaga qattiqroq va qat’iy gapirish mumkin, ammo bunda so‘z ohangi bolaga tinchlantiruvchi ta’sir etishi lozim. Tarbiyachi-pedagog asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bo‘lgan jismoniy rivojlanishiga alohida e’tibor berishi lozim. Bolalar mashg’ulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi yaxshilab puxta o‘ylanib olinishi kerak. Bolalar o‘quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, ustozni e’tibor bilan tinglab, o‘yindan mashg’ulotga

osonlik bilan o‘tadilar. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasini amalga oshirishda maktabgacha ta’limning maktabga tayyorlov guruhlari katta imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi: - bolalarning intellektual rivojlanishi; - jismoniy rivojlanishi; - mehnatga ijobiy munosabatning tarkib topishi; - estetik did va estetik ongning shakllanishi; - ekologik madaniyat; - iqtisodiy tarbiya elementlari va hokazo. Inson tafakkuri mustaqilligining shakllanishi va rivojlanishi o‘z-o‘zidan, avtomatik ravishda amalga oshavermaydi. Buning sharti ta’lim tizimiga bilimlarni yangicha o‘zlashtirish yo‘llari va buning uchun zarur bo‘lgan topshiriqlarni olib kirishdan iborat. Bulardan biri muammoli ta’limdir. Muammoli ta’lim xususidagi qator adabiyotlar bilan tanishish, uning tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdagi o‘rnini aniqlash yuzasidan qilingan tadqiqotlar va o tkazilgan tajriba sinov natijalariga tayanib, shuni aytish mumkinki: tarbiyalanuvchilar o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan bilimlarni o‘zlarining ishtirokida, ularning mehnati bilan o‘rgatish maqsadida tarbiyalanuvchi oldiga o‘sha bilimlarni muammo shaklida qo‘yish yo‘li bilan amalga oshiriladigan o‘qitish jarayoni muammoli ta’lim deb ataladi: - muammo tarzida o‘zlashtirilishi lozim deb topilgan, tarbiyalanuvchi oldiga muammo shaklida qo‘ysa bo‘ladigan masala yoki topshiriqni muammoli masala deyish mumkin; - an’anaviy metodlar bilan o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan yoki mohiyatiga chuqurroq kirish lozim, deb topilgan biror mavzu yuzasidan tarbiyachi tomonidan ataylab tashkil qilinadigan didaktik vaziyatni muammoli vaziyat, deb atash mumkin.

Rivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagi talablar qo‘yiladi: - mazmunan boy - davlat o‘quv dasturining mazmuniga mos kelishi, materiallar, jihozlar va xona va bino tashqarisidagi inventarlarning xilma-xilligi: - o‘zgartuvchan - ta’lim va tarbiya jarayoni vaziyatiga, shuningdek, bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlarining o‘zgarishiga qarab rivojlantiruvchi muhitda o‘zgarishlar bo‘lish imkoniyatini nazarda tutadi: - polifunksional - rivojlantiruvchi muhitning turli tarkibiy qismlaridan xilma-xil foydalanish imkoniyati: - muqobil - guruhda turli joylar, rivojlanish markazlari, shuningdek, bolalarning erkin tanlovini ta’minlaydigan turli xil materiallar, o‘yinlar, o‘yinchoqlar va jihozlarning mavjudligi: o‘yin materialining muntazam ravishda o‘zgartirilishi, bolalarning o‘yin, harakat, bilish va tadqiqot faoliyatini rag’batlantiradigan yangi buyum va ashyolarning paydo bo‘lishi: - hammabop - tarbiyalanuvchilar, shu jumladan, alohida ta’lim olish ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalar uchun ta’lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan barcha faoliyat turlarini ta’minlaydigan o‘yinchoqlar, qo‘llanmalar, resurslar bilan ta’minlanganligi: - xavfsiz - barcha elementlarni ulardan foydalanishning ishonchliligi va xavfsizligini ta’minlash talablariga muvofiqligini nazarda tutadi: - oqilona - davlat o‘quv dasturi va davlat talablariga muvofiq zamonaviy rivojlantiriuvchi muhitni yaratish, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotining turli ta’lim dasturlarini amalga oshirishni ta’minlash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish; inklyuziv ta’lim tashkil etilgan taqdirda, zarur shart-sharoitlarni ta’minlash: mahalliy sharoitga moslashtirilgan - madaniy va tarixiy qadriyatlarga, milliy va mintaqaviy an'analar, tabiatga, iqlimga bog’liq xususiyatlar, hududdagi sanoat rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlariga mos bo‘lishi: - shaxsga yo‘naltirilgan - pedagog har bir bolaning o‘z qiziqishiga ko‘ra shug’ullanishini ta'minlashi kerak (bolalar guruh muhitida osongina harakat qilishadi, qayerda nima joylashganini biladilar, o‘yinchoqlar va barcha resurslardan erkin foydalana oladilar).

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida harakatli o‘yinlar muhim o‘rin tutadi. Ular bolalarni nafaqat jismoniy, balki axloqiy, ijtimoiy va aqliy jihatdan rivojlantirishda ham samarali vositadir. Pedagoglar o‘yinlarni to‘g’ri tashkil qilish orqali bolalarda sog’lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladilar. Shu bilan birga, harakatli o‘yinlar orqali bolaning hayotga, jamiyatga bo‘lgan ijobiy munosabatini mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Takomillashtirilgan Ilk qadam” o‘quv dasturi.
2. Normurodov M “Maktabgacha ta’lim metodikasi”. Samarqand: Zarafshon, 2019.
3. “Maktabgacha ta’lim: Qoidalar va metodika”. Toshkent: Innovatsiya markazi, 2021.
4. Muminova N “Harakatli o‘yinlar”. Farg‘ona: Ma’rifat. 2018.
5. Xolmirzayev A “Jismoniy tarbiya asoslari”. Toshkent: Sharq. 2022.
6. “Bolalar rivojlanishi uchun harakatli o‘yinlar”. Respublika pedagogika instituti. 2021.

7. Rahimov Sh “Jismoniy madaniyat nazariyasi”. Toshkent: O‘quv nashriyoti, 2020.
8. Sh. Fayzullayev “Maktabgacha ta’limda o‘qitish texnologiyalari va pedagogik jarayonni loyihalashtirish” O‘quv qo‘llanma.
9. Qodirov O “Bolalar psixologiyasi”. Buxoro: Buxoro nashriyoti. 2019.
10. “Maktabgacha ta’lim dasturlari”. Toshkent: Innovatsion rivojlanish vazirligi. 2022.

BOLALAR VA ATROF-MUHIT: QISHLOQ JOYLARIDA YASHOVCHI BOLALAR UCHUN EKOLOGIK MUAMMOLAR

O‘zbekiston Xaydarova Shahlo Narzullayevna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti,
Mardonova Mardona Otabek qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq joylarida yashovchi bolalar duch kelayotgan ekologik muammolar va ularning salomatligiga ta'siri o‘rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qishloq bolalari atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va iqlim o‘zgarishi kabi muammolarga duch kelmoqda. Maqolada bu muammolarning yechimlari va bolalarning ekologik xavfsizligini ta'minlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Qishloq bolalari, ekologik muammolar, atrof-muhit, qishloq joylari, bolalar salomatligi

Abstract: This article examines the environmental challenges faced by children living in rural areas and their impact on health. Research shows that rural children are exposed to problems such as environmental pollution, depletion of natural resources, and climate change. The article provides solutions to these problems and recommendations for ensuring the environmental safety of children.

Keywords: Rural children, environmental issues, environment, rural areas, children's health

Аннотация: В данной статье рассматриваются экологические проблемы, с которыми сталкиваются дети, проживающие в сельской местности, и их влияние на здоровье. Исследования показывают, что сельские дети подвержены таким проблемам, как загрязнение окружающей среды, истощение природных ресурсов и изменение климата. В статье представлены решения этих проблем и рекомендации по обеспечению экологической безопасности детей.

Ключевые слова: Сельские дети, экологические проблемы, окружающая среда, сельская местность, здоровье детей

Kirish: Bugungi kunda global miqyosda ekologik muammolarning keskinlashuvi insoniyat oldiga jiddiy vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, qishloq joylarida yashovchi aholi, xususan bolalar, atrof-muhit muammolarining salbiy ta'siriga ko‘proq duchor bo‘lmoqda. Qishloq hududlari tabiiy resurslarning asosiy manbai bo‘lib, ularning nooqilona foydalanilishi va ifloslanishi natijasida ekologik muvozanat buzilmoqda. Bu esa o‘z navbatida qishloq bolalarining salomatligi, ta'lim olish imkoniyatlari va kelajakdagi hayot sifatiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Qishloq joylarida yashovchi bolalar ko‘pincha toza ichimlik suvi, sanitariya va gigiyena sharoitlarining yetishmasligi, havoning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, o‘rmonlarning yo‘q qilinishi kabi muammolarga duch kelmoqda. Bundan tashqari, iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan tabiiy ofatlar va qurg'oqchilik ham qishloq bolalarining hayotiga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda.

Ekologik muammolarning qishloq bolalariga ta'siri ko‘p qirrali bo‘lib, ularning jismoniy va ruhiy salomatligiga, bilim olish imkoniyatlariga, oilaviy farovonligiga va kelajakdagi istiqbollariga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. Masalan, ifloslangan suv va havo tufayli yuzaga keluvchi kasalliklar bolalarning maktabga qatnashiga to‘sqinlik qilsa, tabiiy ofatlar oqibatida yuzaga keluvchi iqtisodiy qiyinchiliklar ularning ta'lim olishdan mahrum bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois, qishloq joylarida yashovchi bolalarning ekologik xavfsizligini ta'minlash, ularni atrof-muhit muammolaridan himoya qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu masala nafaqat mahalliy yoki milliy darajada,

balki global miqyosda ham e'tibor talab etadi, chunki u BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu tadqiqot qishloq joylarida yashovchi bolalarning ekologik xavfsizligini ta'minlash, ularning atrof-muhit bilan bog'liq huquqlarini himoya qilish va ekologik savodxonligini oshirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida qishloq bolalariga ta'sir etuvchi asosiy ekologik muammolar aniqlanadi, ularning ekologik xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar o‘rganiladi va bu borada samarali yechimlar taklif etiladi.

Dolzarbligi: Bugungi kunda atrof-muhit muammolari global miqyosda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarida yashovchi bolalar uchun ekologik muammolar alohida e'tiborni talab qiladi. Qishloq hududlari ko‘pincha tabiiy resurslarning asosiy manbai hisoblanadi va shu bois atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi hamda iqlim o‘zgarishi kabi muammolarga ko‘proq duch keladi. Qishloq bolalari ushbu ekologik muammolarning bevosita ta'siriga duchor bo‘lmoqda. Bu esa ularning jismoniy va ruhiy salomatligiga, ta'lim olish imkoniyatlariga hamda kelajakdagi hayot sifatiga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, qishloq joylarida yashovchi bolalarning ekologik xavfsizligini ta'minlash, ularni atrof-muhit muammolaridan himoya qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Ushbu mavzuning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Qishloq aholisining katta qismini bolalar tashkil etishi va ularning kelajak avlod sifatida muhimligi.
2. Qishloq joylarida ekologik muammolarning keskinlashib borishi va ularning bolalar salomatligiga bevosita ta'siri.
3. Qishloq bolalarining ekologik ta'lim va tarbiya olish imkoniyatlarining cheklanganligi.
4. Qishloq joylarida atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etishning zarurligi.
5. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda qishloq bolalarining atrof-muhit bilan bog'liq muammolarini hal etishning ahamiyati.

Shunday qilib, qishloq joylarida yashovchi bolalar uchun ekologik muammolarni o‘rganish, ularning yechimlarini topish va bolalarning ekologik xavfsizligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism: Qishloq joylarida yashovchi bolalarning ekologik xavfsizligini ta'minlash murakkab va ko‘p qirrali masala bo‘lib, bir qator omillarni hisobga olishni talab etadi. Quyida bu masalaning asosiy jihatlari va ularni hal etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Toza suv va sanitariya muammosi

Qishloq joylarida toza ichimlik suvi va sanitariya sharoitlarining yetishmasligi bolalar salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi. Ifloslangan suv iste'moli natijasida ich ketish, gepatit A va boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi kuzatiladi. Bu muammoni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur:

- Qishloq hududlarida markazlashgan suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish
- Mahalliy miqyosda suv tozalash inshootlarini qurish
- Suv manbalarini muhofaza qilish va ifloslanishdan saqlash
- Aholi orasida gigiyena va sanitariya bo‘yicha targ'ibot ishlarini olib borish

Havo sifati muammosi

Qishloq joylarida havo ifloslanishining asosiy manbalari qishloq xo‘jaligi chiqindilari, transport vositalari va sanoat korxonalari hisoblanadi. Ifloslangan havo bolalarda nafas olish tizimi kasalliklarini keltirib chiqaradi. Bu muammoni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

- Qishloq xo‘jaligida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish
- Jamoat transportini rivojlantirish va velosiped yo‘laklarini barpo etish
- Daraxtlar va yashil hududlarni ko‘paytirish

Tuproq degradatsiyasi muammosi

Tuproq eroziyasi, sho‘rlanishi va kimyoviy ifloslanishi qishloq xo‘jaligiga salbiy ta'sir ko‘rsatib, oziq-ovqat xavfsizligini xavf ostiga qo‘yadi. Bu esa o‘z navbatida bolalarning to‘g'ri ovqatlanishiga to‘sqinlik qiladi. Tuproq degradatsiyasini oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur:

• Tuproqni muhofaza qiluvchi dehqonchilik usullarini joriy etish
• Organik o‘g'itlardan foydalanishni rag'batlantirish
• Almashlab ekishni keng qo‘llash
• Sug'orish tizimlarini takomillashtirish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish.

Xulosa: Qishloq joylarida yashovchi bolalarning ekologik xavfsizligini ta'minlash murakkab, lekin hal qilinishi mumkin bo‘lgan vazifadir. Bu masalani yechish uchun kompleks yondashuv va barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi talab etiladi. Toza suv va sanitariya sharoitlarini yaxshilash bolalar salomatligini muhofaza qilishning eng muhim omilidir. Bu sohada infratuzilmani rivojlantirish va aholi orasida targ'ibot ishlarini olib borish zarur. Havo sifatini yaxshilash uchun qishloq xo‘jaligida va energetika sohasida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, jamoat transportini rivojlantirish va yashil hududlarni kengaytirish lozim. Tuproq degradatsiyasiga qarshi kurashish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartidir. Buning uchun tuproqni muhofaza qiluvchi dehqonchilik usullarini keng joriy etish kerak. Ekologik ta'lim va tarbiya bolalarda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy hokimiyat organlari, nodavlat tashkilotlar, ta'lim muassasalari va mahalliy aholi o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ekologik muammolarni samarali hal etishning kalitidir. Qishloq joylarida ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlardan foydalanish zarur. Yakuniy xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, qishloq joylarida yashovchi bolalarning ekologik xavfsizligini ta'minlash nafaqat ularning sog'ligi va farovonligi uchun, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu masalani hal etish uzoq muddatli strategiya, doimiy e'tibor va resurslarni talab etadi, ammo kelajak avlod uchun sog'lom va xavfsiz muhitni yaratish yo‘lidagi bu sa'y-harakatlar, shubhasiz, o‘zini oqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdukarimov B.A. «O‘zbekistonda ekologik xavfsizlik muammolari». Toshkent, «Fan» nashriyoti, 2018.
2. Ergashev A., Sherimbetov S. «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish». Darslik. Toshkent, «O‘zbekiston» nashriyoti, 2019.
3. Qodirov E.V. «Qishloq hududlarida ekologik vaziyatni yaxshilash yo‘llari». O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali, 2020, №3, 45-51 betlar.
4. Mirziyoev Sh.M. «Yangi O‘zbekiston strategiyasi». Toshkent, «O‘zbekiston» nashriyoti, 2021.
5. Xolmirzaev N.S. «Bolalar salomatligiga ekologik omillarning ta'siri». Tibbiyot va innovatsiyalar jurnali, 2019, №2, 78-85 betlar.
6. Yo‘ldoshev Q.M., Axmedov B.A. «Qishloq joylarida ichimlik suvi sifatini yaxshilash muammolari». O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ma'ruzalari, 2020, №4, 112-118 betlar.
7. Zokirov M.T. «O‘zbekistonda ekologik ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish». Pedagogik ta'lim jurnali, 2021, №1, 23-30 betlar.
8. Rahimova N.K. «Qishloq hududlarida atrof-muhit monitoringini tashkil etish». O‘zbekiston ekologiya xabarnomasi, 2018, №3, 15-22 betlar.
9. Tursunov X.T. «O‘zbekistonda tuproq resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish». Monografiya. Toshkent, «Universitet» nashriyoti, 2017.
10. G'ulomov P.N., Nig'matov A.N. «Atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan barqaror foydalanish». O‘quv qo‘llanma. Toshkent, «Talqin» nashriyoti, 2020.

MAKTABGACHA 5-6 YOSHDAGI BOLALARDA HARAKATLI O‘YINLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

O‘zbekiston Rasulxo‘jayeva Madina Axmadjonovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (PhD) dotsenti.
Allambergenova Gulasal Mansur qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatli o‘yinlarni qo‘llash orqali jismoniy sifatlarni tarbiyalashda jismoniy tarbiya vositasi sifatida harakatli o‘yinlardan foydalanish va shu asosida maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasining nazariy asoslari va usuliy yo‘llarini aniqlash, hamda maqsadga erishish jarayonida maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish uchun olib borilayotgan jismoniy tarbiya va ommaviy sog‘lomlashtirish tadbirlari tashkillashtirib tadqiqot olib boorish ko‘zda tutilga

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta'lim, harakatli o‘yin, harakat faoliyati, harakat sifati, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy sifat, sog‘lomlashtirish, qobiliyat, fiziologik omillar, mushak, vegetativ organlar faoliyati.

Аннотация: Целью данной статьи является использование подвижных игр как средства физического воспитания в развитии физических качеств у детей дошкольного возраста посредством применения подвижных игр и на этой основе определение теоретических основ и методических подходов к технологии развития двигательной активности детей в дошкольных учреждениях, а также организация и проведение научных исследований по физкультурно-массовым оздоровительным мероприятиям, проводимым по развитию двигательной активности детей в дошкольных учреждениях в процессе достижения этой цели.

Ключевые слова: Дошкольное образование, активная игра, двигательная активность, качество движения, физическое воспитание, физическое развитие, физическое качество, улучшение здоровья, способности, физиологические факторы, мышцы, активность вегетативных органов

Annotation: This article aims to use movement games as a means of physical education in the development of physical qualities in preschool children through the use of movement games, and on this basis to determine the theoretical foundations and methodological approaches to the technology of developing children's movement activity in preschool institutions, and to organize and conduct research on the physical education and mass health activities carried out to develop children's movement activity in preschool institutions in the process of achieving this goal.

Keywords: Preschool education, active play, movement activity, movement quality, physical education, physical development, physical quality, health improvement, abilities, physiological factors, muscle, vegetative organ activity.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017- yil 16 avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uch yirik hujjat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi PQ-3261 sonli Qarori. 30-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-5198 sonli Farmoni hamda «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi- faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida «gi PQ- 3305 Qarori qabul qilindi.

10. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida «Ertak xonalari»ni tashkil etish va ularni zarur jihozlar bilan ta’minlash.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali inklyuziv ta’lim sharoitida ertaklar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlikni shakllantirish jarayonini yanada samarali va

natijali qilish mumkin. Bu esa o‘z navbatida bolalarning kelajakda jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim sharoitida ertaklar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotchanlikni shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning samaradorligini oshirish uchun xorijiy tajribalarni o‘rganish, zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash, mavjud muammolarni bartaraf etish va muntazam ravishda yangi usul va vositalarni joriy etish zarur. Shu bilan birga, har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, oila va jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish va pedagoglarning malakasini oshirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumonazarov U. O‘zbek folklorshunosligi tarixi. – Toshkent: “Fan”, 2015.
2. Razzoqov H., Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1980.
3. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2010.
4. Imomov K. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi.– Toshkent: Fan, 2008.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHNING AMALIY AHAMIYATI

O‘zbekiston Narimbayeva Lola Kuzibayevna
ChDPU, p. f.fid(PhD)
Madraimova Asalxon Baxrom qizi
ChDPU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi , 2 bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish jarayoni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek ilk va maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi metodlar va usullar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yoshdagi bola, ta’lim-tarbiya, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot,o‘yin, vizual materiallar, rasm, konstruktiv.

Hozirgi paytda global raqobat kundan-kunga kuchayib bormoqda. Jumladan, ta’lim tizimlarining raqobatbardoshligi, texnologiyalarni uzluksiz takomillashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va zamonning o’zgaruvchan sharoitlariga tez oslashish zarur bo’lmoqda. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta’lim-tarbiya berish jarayoni, ular uchun tayyorlanadigan mashg‘ulot ishlanmalari, metodlar va usullar zamonaviy pedagogikada eng dolzarb masalalardan biridir. Ushbu yoshdagi bolalar hayotda birinchi marta jamiyat bilan, yangi bilimlar va ko‘nikmalar bilan tanishadi. Shu bois, ularning rivojlanishida pedagoglar va tarbiyachilarning o‘rni nihoyatda muhimdir.

Maktabgacha yosh – bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishining muhim bosqichi bo‘lib, bu davrda bola ko‘p narsani o‘rganadi va o‘ziga yangi bilimlarni egallaydi. Bu yoshda o‘rgatishning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Bolaning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi metodlar va usullar turli xil bo‘lishi mumkin. Ular bolaning o‘zini erkin his qilishi va faoliyatga jalb qilinishi uchun muhim ahamiyatga ega.

-Bolalarning o‘yin orqali ta’lim olishlari samarali metodlardan biridir. O‘yin bolaning darsdagi faolligini oshiradi, uning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi. O‘yinlar yordamida bolalar yangi bilimlarni o‘zlashtirishadi, ular o‘qish, yozish, san’at va musiqaga qiziqish hosil qiladilar. Masalan, rolli o‘yinlar, ta’limiy-pedagogik o‘yinlar bolaning ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘yin va vizual faoliyat sohasida amalga oshirilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, olimlar oldingi faoliyat sifatida o‘yin faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini va uning maktabgacha yoshdagi bolani rivojlantirishdagi rolini batafsil o‘rganib chiqdi bolalar rasmiyatchiligining shakllanishi va evolyutsiyasi va bolaning aqliy rivojlanishidagi ahamiyatlidir .

-Vizual va amaliy materiallar bilan ishlash

Bolaning bilimlarini yanada mustahkamlashda vizual materiallar, rasm, plastilinda ishlash va boshqa amaliy ishlar muhim rol o‘ynaydi. Rasm chizish, konstruktiv o‘yinlar va amaliy mashg‘ulotlar bolaning tasavvurni rivojlantiradi, hamda uning qo‘l-ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

-Musiqa va san’at orqali ta’lim maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda muhim. Musiqa, raqs, drama kabi faoliyatlar bolaga o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashda yordam beradi. San’at va musiqa bilan shug‘ullanish bolalarda estetik didni shakllantiradi, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Pedagogik jarayonda ta’lim va tarbiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish juda muhimdir. Tarbiya bolalarning faqat bilim olishiga emas, balki ularning shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishga ham yo‘naltirilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muhim jihat – bu ular bilan to‘g‘ri muloqot qilish, so‘zlashuv madaniyatini o‘rgatish, mehr-oqibat va hurmatni qadrlashdir. Pedagoglar bolalarga o‘rnak bo‘lishlari kerak, shunda ular o‘zlarining his-tuyg‘ularini, fikrlarini to‘g‘ri ifodalay olishadi.

Har bir bola o‘zining individual xususiyatlariga ega, shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida bu xususiyatlarni inobatga olish juda muhimdir. Ba’zi bolalar faolroq, boshqalari esa ichki dunyolariga ko‘proq berilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ta’lim metodlarini bolaning temperamentiga va qiziqishlariga moslashtirish lozim.

Zamonaviy pedagogika metodlari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yangi, innovatsion yondashuvlarni taklif etadi. Bolalarga bilim berishda yangi texnologiyalardan foydalanish, interaktiv ta’lim usullarini joriy etish, o‘zaro faoliyat va individual yondashuvlar kabi usullar samarali natijalarga erishishda yordam beradi. Misol uchun, bolalar uchun multimedia resurslari va ta’lim dasturlari orqali interaktiv o‘yinlar va mashg‘ulotlarni o‘tkazish ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Xulosa qilib aytganda , ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish jarayoni keng qamrovli va kompleks bir jarayon bo‘lib, bolaning rivojlanishi uchun zaruriy shartlarni yaratadi. Pedagoglar va tarbiyachilar bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya metodlarini tanlashlari kerak. O‘yin, musiqa, san’at va amaliy ishlash orqali ta’lim bolaning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi. Shunday qilib, samimiy va mehnatga asoslangan yondashuv, bolaning kelajakdagi muvaffaqiyatiga asos soladi. Ushbu amaliy-metodik ishlar bolaning nafaqat bilimlarini, balki uning ijtimoiy ko‘nikmalarini, shaxsiyatini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotrlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Takomillashtirilgan Ilk qadam Davlat o‘quv dasturi” Toshkent 2022-yil.

2.Виноградова Н.А., Микляева Н.В. Управление дошкольным образованием: учебник и практикум для академического бакалавриата / под
ред. Н.А. Виноградовой, Н.В. Микляевой. — М. : Издательство Юрайт, 2015.

3.“Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T:, 2001yil

4.Narimbaeva L.K. “Maktabgacha ta’limda pedagogik jaraènlarning samaradorligida MTT va oila xamkorligi” Zamonaviy fan va ta’lim va tarbiya: Muammo, yechim va natija ilmiy amaliy onlayn konferentsiya materiallari (10, 2020)

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA OTA-ONALARNING O‘RNI

O‘zbekiston Avazxonova Umriniso
O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi tadqiqotchisi Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ota- onalar bilan ishlashning jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini, ota- onalarning bolalarni maktabga tayyorlashdagi roli va mas’uliyati,keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etishi, bolalarni maktabga tayyorlash masalalari, bolalarning maktabga tayyorgarligini aniqlash omillari yoritilgan.

Abstract: The article covers the collective and individual production of work with parents of preschool educational institutions, the role and responsibility of parents in preparing children for school, the organization of pedagogical propaganda among the population, the issues of preparing children for school, and the readiness of children for school.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы коллективной и индивидуальной постановки работы с родителями дошкольных образовательных учреждений, роль и ответственность родителей в подготовке детей к школе, организация педагогической пропаганды среди населения, вопросы подготовки детей к школе, готовность детей к школе.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim tashkiloti, pedagog, barkamol, ta’lim -tarbiya, jamiyat, oila, yo‘nalish, madaniyat, mustaqil.

Keywords: Preschool educational organization, teacher, competent, education, society, family, direction, culture, independent.

Ключевые слова: Дошкольная образовательная организация, педагог, компетентный, образование, общество, семья, направление, культура, самостоятельный.

O‘zbek oilasining o‘ziga xos, betakrorligi - nutq etiket qoidalarig nutq etiket qoidalarignutą etiket qoidalarignutq etiket qoidalarigka intilish kabilarning barhayotligidadir.

Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga, bilim olishiga asosiy zamin yaratuvchi maskon oiladir. Bolalarda insoniylik, avvalambor, oilada, ota-onalardan ibrat olgan holda shakllanadi. Ota-ona bolaga boshidan ta'lim-tarbiyani, nutq madaniyatini, odamiylik hislatlarini qunt bilan singdirib borsalar, yetuk, barkamol, sog‘lom, mustaqil fikrlovchi, eng asosiysi, odobli shaxs bo‘lib yetishadilar.Inson hayotda bilim olishga intilishni, Vatanni sevishni, ardoqlashni, kattalarni hurmat qilishni, muomala madaniyatini ota-onadan o‘rganadi. Oila birinchi navbatda ta'lim-tarbiya maskani hisoblanadi. Yosh avlodga ma'naviy, axloqiy-madaniy tarbiya berishning yo‘llari va vositalari xilma-xil bo‘lib, bular ichida bolalarning nutqi, muomalasi alohida o‘rin tutadi. Farzand ota-onaning baxti va boyligi hisoblanadi, ota-onalarning bolalarni sevishi, o‘z navbatida parning ota-onalaridan o‘rgangan, eshitgan muomalalari, so‘zlashish qobiliyati bolalarning ota-onalarini astoydil hurmat qilishi oila ko‘rki bo‘lib hisoblangan.Bolaga oilada yaxshi tarbiya berish bola hayotining daslabki davrlaridan boshlaboq, ota-ona oldida turgan asosiy maqsad va vazifalardir. Ya'ni ota-ona uchun ham qarz, ham farzdir, oila bolaga ta'sir ko‘rsatadi, uni atrofidagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo‘lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ma'lumki shaxsning qadiryati uning jamiyatdagi tutgan o‘rni bilan belgilanib, ko‘p jixatdan uning tarbiyasiga bog‘liq bo‘ladi. SHu sababli ota-ona o‘z bolalarining tarbiyachisi hisoblanadi.

Darhaqiqat, shaxs shakllanishida oilaning roli katta. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar namunali oilalarda kamol topadilar. Shuning uchun ham oilada sog‘lom muhitni vujudga keltirish va uni mustahkamlash umumdavlat ahamiyatga molik masaladir. Chunki ijtimoiy hayotda yuz beradigan barcha o‘zgarishlar, ya'ni undagi yetuk va kamchiliklar, murakkabliklar va ziddiyatlar oilada o‘z aksini topadi. Ota-onalarga o‘z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish, bolalarni maktabga tayyorlash masalalari, bolaning maktabga tayyorgarligini aniqlash, maktabga tayyorgarlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar, ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan bilim, malakalardan

xabardor qilish, bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to‘g‘ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o‘rganish va ommalashtirish lozim.

Rizouddin ibn Fahriddinning «Oila» nomli risolasida bola tarbiyasi yomon niyat va qo‘pollik bilan emas, balki sabr-toqat, matonat, mehribonlik, chidamlilik, shafqat-u sezgirlik bilan bo‘lishi kerak. Zarar bilan foydani ayira olmagan yosh go‘dakni nazoratsiz tutish ulug‘ xatolikdir. Balki uni qattiqlik bilan yumshoqlik o‘rtasida adolat bilan tarbiya qilmoq kerakligi haqida fikrlar berilgan. Albatta, bolalarni tarbiyalashda eng muhim jihatlaridan biri bu ota - onalarning bolalarga nisbatan xushmuomalada bo‘lishi, adolatli yo‘l tuta olishi katta mas’uliyat talab etadi .Bolalarni ma’nan yetu, sog‘lom,barkamol shaxs qilib tarbiyalash har bir ota-onaning burchi hisoblanadi.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy xalqimiz rasm-rusumlari va milliy odatlarni juda nozik tushunar edi. Shu sababli inson xulq-atvori, madaniyatining hatto eng oddiy masalalar ham uning diqqatidan chetda qolmadi. A.Navoiy tarbiyada xatolikka yo‘l qo‘yish mumkin emasligini uqtiradi. Haqiqatdan ham bolani tarbiyalshda shunday xatoliklar uchraydiki, ular faqat oilaning hayotida emas, balki jamiyat hayotida ham aks ettiradi. Oilada bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklar turli-tumandir. Ular orasida keng tarqalganlardan biri ota-onalarning haddan tashqari hukmronlikka intilishlaridir; bolaning erka bo‘lishi ularga nisbatan biror talabning yo‘qligi bilan bog‘liq; ota-ona, buvilar tomonidan tarbiyada yagona talablarning yo‘qligidir; oilaviy tarbiyadagi barqaror xatolar oilaning tuzilishi va oilaviy munosabatlar bilan, kattalarning o‘z fuqarolik burchlarga munosabati, ularning g‘oyaviy yo‘nalishi, mehnatga munosabati bilan bog‘liq munosabatlar bilan, kattalarni o‘z fuqarolik burchlariga munosabati, ularni g‘oyaviy yo‘nalishi, mehnatga munosabati bilan bog‘liq.

Ota-onaning shaxsiy namunasi bola tarbiyasining eng muhim metodlaridan biri hisoblangan. Ota-onalarning o‘zaro bir-birlari bilan suhbatlashishi, ovozlarining baland-pastligi,sizlab gaplashishlari, bir- birlarini tenglashlari, yurish- turishlari, munosabatlarining ta’sir ostida o‘sib- ulg‘ayoshlari shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Hasanboeva. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2010.

2.O‘.Otavalieva. Bola tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi. -T.: O‘qituvchi,1994.

3. Maktabgacha pedagogika.darslik.F.R.Qodirova Xalqaro pedagogika Akademiyasining akademigi, professor, p.f.d., Sh.Q.Toshpulatova dotsent, N.M.Kayumova dotsent, M.N.A’zamova.Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019.688 b.

4.Rizouddin ibn Faxriddin. Oila. Mehnat, 1991. T.:

5.Soff.uz.

INDIVIDUAL YONDOSHISH-SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMNING ASOSIDIR

O‘zbekiston.Ermatova Gulnoz
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi v.b. dotsenti
Jumanazarova Dildora
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga individual yondoshuv asosida ta’lim tarbiya verish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, kun tartibi, yagona ish rejimi, individual, shaxsiy yondashuv, bolaning yosh xususiyatlari**.**

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы обучения и воспитания детей дошкольного возраста на основе индивидуального подхода.

Ключевые слова: образование, воспитание, режим дня, единый режим работы, индивидуальный, индивидуальный подход, возрастные особенности ребенка.

Abstract: This article examines the issues of teaching and educating preschool children based on an individual approach.

Keywords: education, upbringing, daily routine, unified work schedule, individual, individual approach, child's age characteristics.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiya jarayonida individual yondoshuv muassasada tashkil qilingan qat’iy kun tartibi, yagona ish rejimi asosida amalga oshmaydi.Bizga ma’lumki maktabgacha yoshda turli xil xarakter xususiyatga, qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlari, nerv tiplari, qabul qilish,eslab qolish, idroq qilish, fikrlash, nutqi, qiziquvchanligi, his-tuyg‘ulari, faolligi turlicha bo‘lgan bolalar tarbiyalanadi. Tarbiyachi-pedagoglarga o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan bolalar bilan muloqot qilish qiyinchiliklar tug‘diradi. Buning uchun bugungi kunda maktabgacha tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qitishning individual yondoshuv tamoyili asosda yondoshishni talab etadi. Individual yondashuvni amalga oshirish tamoyillari va shartlarini belgilaydigan alohida tadqiqotlar, ma’lumotlar ozligi, yagona o‘qitish tizimi aslida mavjud emasligi bugungi kunning dolzarb muammolaridandir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga individual, shaxsiy yondashuv har doim ko‘plab olim va pedagoglarning e’tiborini tortib kelgan: rus va xorijiy ilg‘or pedagogika sohasining vakillari Ya.A.Kamenskiy, Jan-Jak Russo, K.D.Ushinskiy, N.K.Krupskaya, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy va boshqalar **individual yondashuv** bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning o‘ziga xosligini hurmat qilish, uning murakkab ma'naviy dunyosini tushunishga intilish va individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladilar**.**

Bizga ma’lumki har bir bola o‘z xohishiga, o‘z faoliyatiga va shu bilan birga har bola o‘ziga xos xususiyatlarga ham egadir: qaysidir bola qo‘lida ortirmasi bilan tug‘ilgan bo‘lsa, qaysidir bola shamoldan tezroq yuguradi va qaysidiri chiroyli rasm solsa, boshqasi esa buyumlarni chiroyli yasaydi. Har bir bola o‘ziga xos individuallikka esa. Bu mavjud qobiliyat va o‘ziga xoslikni alohida e’tiborga olgan holda, ularning o‘ziga xosliklarini, takrorlanmas olamlarini hisobga olgan holga rivojlantirish lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishning muhim sharti individual yondoshuv jarayonni tashkil etishning eng samarali shakllarini izlab topish, yaratish va shu orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya ishining mazmuni va usullarini hamda uning samaradorligini oshirishdan iborat. Bunda ikki bosqichli texnologik jarayon ishlab chiqilishi lozimdir:

birinchisi, maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogik jamoasining tashkiliy-uslubiy ishlari;

ikkinchisi, maktabgacha ta’lim tashkilotining turli yoshdagi tarbiyalanuvchilari bilan olib boriladigan o‘quv-tarbiyaviy ishlar.

Ushbu ikkala jarayonning o‘zaro bog‘liqligi shundaki, ularning o‘quv yili davomida mazmunli amalga oshirilishi rejalashtirilgan pedagogik samarali natijasi, ya’ni pedagog-tarbiyachilarning individual yondoshuv ishlarni amalga oshishiga va maktabgacha yoshdagi bolalarga individual yondoshuv asosida ularni qobiliyatlari va qiziqishlari, ruhiy va jismoniy rivojlanishlarini shakllantirish (ularning har tomonlama taraqqiyot darajasini oshirish)ga e’tibor qaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida individual yondoshish usullari birinchi navbatda bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta’lim-tarbiya berishda uning yoshini hisobga olish kerak. Qo‘llaniladigan jihoz va materiallar ham ularni yosh xususiyatlarida mos holda bo‘lishi lozim. Buning uchun biz albatta Davlat Standartiga ko‘rsatigan meyorlarni asoslanishi maqsadga muvofiq. Masalan, 3-4 yoshli bolalar uchun guruhda rolli o‘yinlar, 5-6 yoshli bolalar uchun esa - konstruktiv o‘yinlar, pazllar va boshqalar keng foydalanilishi lozim.

Ikkinchi usul bolalarning individualligini qo‘llab-quvvatlash u bilan bog‘liq moyillik, qiziqish va ehtiyojlarni amalga oshirishni ta'minlash, shuningdek, bolalarning individual farqlarini hisobga olish ta’lim-tarbiyani yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Agar bola odamlar bilan iliq, samimiy munosabatlarni rivojlantirsa, u yanada muvozanatli, tarbiyaviy ta'sirga moyil bo‘ladi. Ular duch keladigan odatiy qiyinchiliklar, keng tarqalgan xatolardan birini ekanligidir. Tarbiyachilar

ta’lim-tarbiya jarayonida bolalar faoliyatining uning shaxsiyatiga tarbiyaviy ta'siri samaradorligini oshirish uchun foydalanishlari, pedagoglarning psixologik-pedagogik bilim saviyasini oshirish orqali amalga oshirish mumkin. Bu jarayonda ular bolaning eng yaqin insoniga aylanishlari bu ishni amalga oshirishni osonlashtiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim-tarbiya jarayonida individual yondoshish yana bir usuli bu emotsional va shaxsiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondoshish hisoblanib, bolaning shaxsiy xususiyati, o‘ziga xos olami bilan bog‘liqlikda ishlab chiqishdir.

Shaxsiy manfaatlar, moyillik va ehtiyojlarni amalga oshirish uchun atrof-muhit bolaning sevimli mashg‘ulotiga bo‘lgan huquqini ta'minlashi kerak. Buning uchun material va jihozlarning davriy yangilanishi ta'minlanadi.Bolalarning qiziqishi, va ijodkorligini rivojlantirish turli xil materiallarni modellashtirish, izlash va tajriba o‘tkazish uchun keng imkoniyatlar yaratishga asoslanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tengdoshlar va kattalar bilan birgalikdagi tadbirlarda ishtirok etish istagini, shuningdek, yolg‘izlikka bo‘lgan ehtiyojni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, har bir yosh guruhidagi bolalarning birgalikdagi va mustaqil harakatlarining optimal muvozanatini ta'minlash uchun turli xil faoliyat turlari uchunshart-shatoitlar yaratiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida birinchi navbatda, kattalar va bolaning birgalikdagi faoliyati bo‘lib, u o‘zaro munosabatlarning shaxsga yo‘naltirilganlikni ta'minlaydi, unga ko‘ra bola tarbiyaviy ta'sir ob'ekti emas, balki sub'ekt, sherikdir. Tarbiyachi bu yerda tarbiyalanuvchining yonida emas, tepasida turuvchi emas, balki bola bilan birgalikda harakat qiladi. Uning vazifasi bolalarning ma’lumotni qanday qabul qilishini va uni o‘rganishini, qanday muloqot qilishini, empatiyasini va hissiy holati, kayfiyatini anlashi, tushunishini talab etadi.

Ishning samaradorligi frontal, kichik guruhlarda va individual ravishda bolalar bilan ishlashni talab qiladi. Bu erda hal qiluvchi omil kichik guruhlarning mazmunli va o‘ylangan shakllanishidir. Bir holatda, kichik guruhlar bolalarning sog‘lig‘ining tibbiy ko‘rsatkichlari, temperamentning psixofizik xususiyatlari, xarakteri, bolaning rivojlanish sur'ati va umumiy darajasi, uning aqliy qobiliyatlari va hissiy-axloqiy rivojlanishi kabi individual xususiyatlariga muvofiq shakllantiriladi. Rejalashtirilgan mashg‘ulotlarni tashkil qilish uchun kichik guruhlarni shakllantirishda ushbu omillar hisobga olinadi, bunda tarbiyachi ma'lum bir murakkablikdagi, kichik guruhlar tarkibiga mos keladigan vazifalarni dozalashi va shu bilan har bir bola uchun qulay sharoitlar yaratishi mumkin. Boshqa holatda, kichik guruhlar bolalarning o‘zlarining moyilligi, qiziqishlari va afzalliklarini hisobga olgan holda tuziladi. Ayni paytda ularning erkin faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, kichik guruhlar pedagogik jarayonning mazmuniga qarab har safar turlicha shakllanadi. Kichik guruhlarni yollash statik emasligi juda muhim: har bir bola o‘zining rivojlanish dinamikasi va o‘zgaruvchan qiziqishlari asosida boshqa kichik guruhga o‘tish imkoniyatiga ega. Tarbiyachining vazifasi mashg‘ulot davomida har bir bolani doimiy ravishda kuzatib borish, uning yutuqlari va muammolarini tahlil qilish, buning asosida kichik guruhlar tarkibini qayta ko‘rib chiqishdir.

Samarali mehnatni tashkil etish uchun ishchilar faoliyatini muvofiqlashtirishning yangi mexanizmlari ham zarur. Bu moslashuvchan ish vaqtini joriy etishni o‘z ichiga oladi. U har bir yosh guruhi va har bir mutaxassis uchun alohida tuzilgan. Mehnatni bunday tashkil etish bolalarga individual, tabaqalashtirilgan yondashuv asosida tarbiya va ta’lim ishlarini yanada samarali va sifatli olib borishga yordam beradi.

Ta’lim muassasasida rivojlantiruvchi muhitini tashkil etishda quyidagi omillarni ham hisobga olish kerak:

- bolaning individual ijtimoiy-psixologik xususiyatlari;
- uning hissiy va shaxsiy rivojlanishining o‘ziga xosligi;
- shaxsiy manfaatlar, ehtiyojlar, imtiyozlar;
- qiziquvchanlik, tadqiqotga qiziqish, ijodkorlik;

- yosh va jins xususiyatlari.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarni inobatga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitishga individual yondashuv - bu har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyachining bolalar bilan ishlashida muhim o‘rin tutadi va bir qator shartlarning bajarilishiga yordam beradi:

- guruhdagi didaktik-texnik vositalar - guruhni jihozlash va bolalarni individual jihatlarini rivojlantirishda ota-onalarga maslahatlar berish;
- individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish;
- pedagogik hamkorlik - tarbiyachining boshqa mutaxassislar bilan o‘zaro munosabati.
- rivojlanayotgan muhitga qo‘yiladigan talablar - barcha materiallar va jihozlar xavfsiz, ko‘p funktsiyali, o‘zgartirilgan, o‘zgaruvchan, funktsional bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni, 2019-yil 16-dekabr.1-3betlar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-sonli, 2020-yil 22-dekabr.8-34-betlar.

3. “2022-2026 yillarga mo‘lgallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60, 2022 -yil, 28-yanvar, 22-23-betlar.

4. Blinova L.F. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi. Qozon., 2007 yil, 17-bet.

5. Faynberg, S. Har bir bolaning o‘ziga xos temperamenti va xarakteri bor [Matn]: / S. Fainberg // Maktabgacha ta’lim.-2001. - No 2. - 52-62-betlar.

6. Kovalchuk L.I. Bolani tarbiyalashga individual yondashuv: bolalar o‘qituvchisi uchun qo‘llanma. bog‘. - 2-nashr, qo‘shimcha. - M.: Ma'rifat, 2010. - S. 53.

7. Ковальчук Я.И.. Индивидуальный подход в воспитании ребенка: Пособие для воспитателя детского сада. – 2-е изд., доп. – М.; Просвещение, 2015.

8. Lovtsov D. A., Bogorev V. V. Ta’limni individuallashtirishning adaptiv tizimi. – M.: PORTALUS.RU ilmiy raqamli kutubxonasi, 2007 yil.

9. Maxaneva, M.D. Maktabgacha ta’lim muassasasida bolaga individual yondashuv [Matn]: tashkiliy-uslubiy jihat / M.D.Maxaneva. - M .: TC Sphere, 2007.-57s.

Elektron resurslar:

10. https://mv-wedding.ru/uz/cooking/socialnoe-razvitie-detei-doshkolnogo-vozrasta-zadachi/.
11. https://fayllar.org/ilk-qadam-dasturi-mttni-yosh-guruhlaridagi-faoliyatlar-tahlili.html.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILORTLARIDA O‘YINLAR ORQALI TA’LIM-TARBIYA BERISH

O‘zbekiston .Xoliqova Sayohat Umarovna
Navoiy shahar Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini
muvofiqlashtirish sho‘basi metodisti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgavha ta’lim tashkilotlarida interfaol metodlardan foydalangan holda ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: inrefaol, usullar, ta’lim, tarbiya, mashg‘ulot, qaliy hujum, kichik guruhlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации образовательного процесса с использованием интерактивных методов в школьных образовательных организациях.

Ключевые слова: актив, методы, обучение, воспитание, обучение, мозговая атака, малые группы.

Abstract: This article discusses the issues of organizing the educational process using interactive methods in school educational organizations.

Key words: asset, methods, training, education, training, hard attack, small groups.

Maktabgacha ta‘lim sohasi uzluksiz ta‘lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini bo‘lib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida Respublikada ta‘lim-tarbiya tizimini rivojlantirish va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarildi. Biroq o‘tkazilgan tahlillar maktabgacha ta‘lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish yuzasidan qabul qilingan qaror va farmoyishlari bugungi kunda maktabgacha ta‘lim dasturlari va o‘quv- tarbiyaviy rejalariga qo‘yilgan davlat talablarini takomillashtirish, maktabgacha ta‘limga qamrab olinayotgan bolalarni maktab ta‘limiga to‘laqonli ravishda tayyorlab berish ishlarini o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha tadimga qo‘yiladigan bunday zamonaviy talablar tarbiyachilarni ushbu ta‘lim tizimini rivojlantirishga yo‘naltiradi. Bu esa o‘z navbatida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rivojlantiruvchi, kognitiv, o‘yinli ta‘lim, izlanuvchanlik va o‘zaro ta‘sir elementlarini sintez qiladigan yangi texnologiyalardan foydalanish muhitining zarurligini taqozo etadi.

Bolani shunday muhit va shunday munosabatlar tizimi bilan o‘rab olish kerakki, bu bolaning eng xilma-xil mustaqil faoliyatini rag‘batlantirsin va unda kerakli vaqtda eng samarali shakllantira oladigan ko‘nikmalarni, shu jumladan asosiy qobiliyatlarni shakllantirsin. Tabiiyki, bunday muhitni yaratish uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotining o‘quv va ta‘lim jarayoniga interfaol xarakterga ega bo‘lgan, bolaning mustaqil faoliyatini ta‘minlaydigan o‘yinli texnologiyalarini joriy etish kerak.

Darhaqiqat, zamonaviy ta‘lim texnologiyalari, bolalarning intellektual rivojlanishiga tayanadi. O‘yin orqali o‘rganish ushbu kontseptsiyaga to‘liq mos keladi. Interfaol texnika harakat orqali o‘rganishga asoslangan: inson o‘z qodlari bilan qilgan ishni yaxshiroq eslab qoladi va o‘zlashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyatini rivojlantirishning asosiy sharti ham shu hisoblanadi.

Shuning uchun tarbiyachining vazifasi - bu faoliyatni maxsus tashkil etish, uning ichida hamkorlik muhitini, o‘zaro ishonchni - bolalar bir- biri bilan, bolalar va kattalar bilan o‘zaro harakatda bo‘lish muhitini yaratishdan iborat. Ushbu muammoni hal qilish uchun tarbiyachi interfaol texnologiyalardan foydalanishi zarur.

Zamonaviy bolalar bog‘chasida interfaol texnologiyalar va o‘qitish usullaridan foydalanish maktabgacha tarbiyachining kasbiy malakasini ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta`limda interfaol usullar- bu tarbiyalanuvchilar orasida hamda tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o‘rtasida o‘zaro harakatni talab qiluvchi usullardir. Interfaol usullar bolaning yuqori faolligini, olingan ma’lumotlarni ijodiy qayta anglashini taqozo etadi. Bular: Aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, juftlikda ishlash, rolli o‘yinlar, ishchanlik o‘yinlari, bahs-munozara va boshqa jarayonlarda namoyon bo‘ladi.Endi yuqorida qayd etilgan har bir usulni alohida ko‘rib chiqamiz.

Interaktiv treninglarni tashkil etish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

Individual shakl, har bir bola tomonidan vazifani mustaqil hal qilishni o‘z ichiga oladi;

Juftlashgan shakl, masalalarni juftlikda yechishda foydalaniladi, guruhli yondashuvda bolalar kichik guruhlarga bo‘linadi;

Agar vazifa bir vaqtning o‘zida barcha ishtirokchilar tomonidan bajarilsa, bu shakl jamoaviy yoki frontal deb ataladi;

Kichik guruhlarda ishlash- bolalarning o‘zaro muloqot va fikr almashuviga asoslangan.Bunda guruhda tahlil qilish, baholash, tekshirish asosida muayyan mavzu yoki savollar ishlab chiqiladi. Kichik guruhlarda ishlash 4-5 boladan iborat guruhlar tuziladi va har bir guruhdagi tarbiyalanuvchilar birgalikda harakat qiladi.

Interfaol ta‘limning eng qiyin shakli bolalar bilan **kichik guruhlarda ishlash** shaklidir. kichik guruhlarda ishlash shaklida ishtirokchilar guruhi umumiy vazifani oladilar, masalan, qandaydir vazifani birgalikda bajarish. Bu vazifalar asosan oy mavzusini qamrab olishi kerak. Qish mavzusida birgalikda rasm chizish, lego va kubiklardan Aeroport, avtoturargoh, kema porti, qurilish maydoni, bog‘cha hovlisi, ertakdagi qasr loyihalarini birgalikda tayyorlash, turli konstruksiyalarini birgalikda bajarish, tangramlarni yig‘ish va bolalar kundalik faoliyati doirasida bo‘lishi mumkin. Guruh bo‘lib ishlash muhitiga moslashgan har bir bola bir birining fikriga qo‘shilishi, ba‘zida yon berishi,

muloqot jarayonida jamoaviy tartib intizomga rioya qilishi, yangi tajribalarni o‘rtoqlaridan o‘zlashtirib olishi mumkin. Shuningdek, bolalar kichik guruhlarga bo‘linish, loyihada o‘z versiyasini taklif etish tashabbus ko‘rsatish, umumiy loyihani tashkil etuvchi eng yaxshi g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Kichik guruhda ishlashning asosiy maqsadi va vazifalari:

- bolalarning tashabbuskorligini, mustaqilligini, kognitiv motivatsiyasini rivojlantirish;
- axborotni o‘rganish va mustaqil ravishda o‘zlashtirish qobiliyatini shakllantirish;
- bolalar bilan ishlashning integratsiyalashgan mazmunini tashkil etish;
- bolalar o‘rtasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- bolaning jamoaga faol moslashishi va aniq maqsad sari harakat qilishni ta‘minlash; bola uchun o‘z muvaffaqiyatini, intellektual mukammalligini his qiladigan qulay ta‘limiy sharoitlarini yaratishdan iborat.

Maktabgacha ta’limda inrefaol metodlar rolli o‘yinlar asosida tashkil etiladi. Rolli o‘yinning o‘ziga xos xususiyati - bu muloqotni jonli va hayajonli qiladigan harakatlarning mavjudligidir. O‘yinlarning maqsadi bilimlarni chuqurlashtirish emas, balki ko‘nikmalar va munosabatlarni rivojlantirish bo‘lib hisoblanadi. Rolga kirish usullari orqali tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, muammoli vaziyatlarda turli xil hatti-harakatlarni amalga oshirish va boshqalarni tushunishni rivojlantiradi. O‘yin orqali ishtirokchilar o‘zlarining haqiqiy hayotdagi harakatlarini yaxshiroq o‘rganadilar, kerakli xulosaga keladilar. Bolalarda jtimoiy xulq-atvorning mazmunli tajribasini olish uchun sharoit yaratiladi. Interfaol o‘yin nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarning bir-biri va tarbiyachi bilan o‘zaro munosabati, balki ijtimoiy yo‘nalishdagi birgalikda tashkil etiladigan kognitiv faoliyat hamdir. Bunday o‘yinlarda bolalar nafaqat yangi narsalarni o‘rganadilar, balki o‘zlarini va boshqalarni tushunishni ham o‘rganadilar. Interaktiv o‘yinlar uchun ko‘plab variantlar mavjud, ularni o‘ynash usuli ham turlicha. Ammo ular quyidagi ketma ketlikka asoslanishi muhim:

- Tarbiyachi tomonidan bir guruh bolalar uchun vazifalar va rollarni tanlash (tayyorgarlik bosqichi).
- Maktabgacha yoshdagi bolalarni hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo bilan tanishtirish
- Bolalarga o‘yin qoidalari haqida ma‘lumot berish, o‘yin davomida aniq ko‘rsatmalar berib borish.

O‘yin davomida bolalar o‘z maqsadiga erishish uchun bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Agar ba‘zi bosqichlar qiyinchilik tug‘dirsa, tarbiyachi bolalarning harakatlarini tuzatadi.

O‘yin yakunida natijalar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Tahlil e‘tiborni hissiy jihatga qaratishdan iborat - maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg‘ularini qayta ko‘rib chiqish (ular nima yoqdi, nima qiyinchilik tug‘dirdi, vaziyat qanday rivojlandi, ishtirokchilar qanday harakatlar qildi, natija qanday bo‘ldi) asosida kamchiliklar birgalikga tuzatiladi.

O‘yinli ta‘lim juda jonli, hissiy jihatdan qulay psixologik muhitda, xayrixohlik, erkinlik, tenglik muhitida, o‘tkazilishi zarur. O‘yin texnologiyalari bolalarning erkin bo‘lishiga yordam beradi, bolada o‘ziga ishonch paydo bo‘ladi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar haqiqiy hayot sharoitlariga yaqin o‘yin sharoitida harakat qilib, har qanday murakkablikdagi materialni osonroq o‘rganadilar. Bolalar o‘zlarini yangi vaziyatda sinab ko‘rish orqali o‘yindan zavq olishlari muhimdir.

Rolli o‘yinlar-bolalarga biror muammoli vaziyat berildi. Bolalar bu muammoni yechimini rollar orqali ifodalab berishadi. Bolalar bu usul «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar. Ularga amaliy ish faoliyatida qo‘llash mumkin bo‘lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko‘rish va tekshirish imkoniyatlarini beradi.

Ishchanlik o‘yinlari-bunda bolalar mavjud materialdan foydalanib biror narsani (predmetni) kichik guruhlarga bo‘lingan holda yasaydilar. Bunda bolalarda o‘ylash, to‘g’ri maqsadni qo‘yish, tejamkorlik xislatlari rivojlanadi.

Biz maktabgacha ta`limda interfaol usullarni qo‘llaydigan pedagoglarga quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- Mashg‘ulotlarni o‘yin tarzida, erkin sharoitda, dam va ko‘ngilochar tadbirlar shaklida tashkil eting;
- tarbiyalanuchilarini mustaqil izlanishlarini ta`minlang;
- tarbiyalanuvchilarning faolligiga erishing;
- tarbiyachi sifatida yo‘naltirib, yordam berib, boshqarib turing;
- interfaol usullar ishtirokidagi mashg’ulot tarkibining asosiy qismiga emotsional zo‘riqishni bartaraf etuvchi o‘yinlar kiriting.

Xulosa o‘rnida Xitoy xalq maqolini keltirishni lozim deb topdik: «Menga gapirsang esdan chiqaraman, menga ko‘rsatsang eslab qolishim mumkin, menga o‘zim ishlashimga imkoniyat ber, shunda bu batamom meniki bo‘lib qoladi».Biz maktabgacha yoshdagi bolalarga faqat so‘zlab, ko‘rsatib bermasdan, balki o‘zlarini mustaqil bajarishiga o‘rgatsak kelajakda barkamol, har tomonlama rivojlangan mustaqil vatanimizning mustaqil farzandlarini tarbiyalashdek muqaddas vazifani ado eta olgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” QONUN. T.: 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-sonli, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi T.: 2022.
5. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari pedagog–o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste‘dod, 2008.
7. Olimov Sh.Sh., Samiyeva SH.X., Aslanova N.X., Ro‘ziyev F.J. Innovatsion ta‘lim texnologiyalari va metodlari Buxoro-2022.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ГОТОВНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ

Узбекистон.Умарова Ширин Сулеймановна
студентка “Российский государственный
педагогический университет им. А.И. Герцена”

Аннотация. В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на готовность детей к школьному обучению, в ней излагается роль семьи, в том числе совместное проведение духовного, нравственного, умственного, эстетического, физического и трудового воспитания.

Ключевые слова: семья, занятия, форма, духовное воспитание, деятельность, эстетическое воспитание, трудовое воспитание, физическая культура.

Annotation. This article examines the factors influencing children's readiness for school. It outlines the role of the family, including joint spiritual, moral, mental, aesthetic, physical and labor education.

Keywords: family, occupation, form, spiritual education, activity, aesthetic education, labor education, physical education.

Annotatsiya. Ushbu maqola bolalarni maktab ta’limiga tayyorgarligiga ta’sir etuvchi omillar haqida fikr yuritilgan bo‘lib, bunda oilaning o‘rni, jumladan ma’naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borilishi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: oila, mashg‘ulot, shakl, ma’naviy tarbiya, faoliyat, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy madaniyat.

Мы живем в быстром ритме. Современные дети быстро осваивают современную технику: телевизор, компьютер. Они стали меньше задавать вопросы: где? что? и почему? Поэтому развитие познавательного интереса дошкольников в процессе поисково-исследовательской деятельности и использование в образовательном процессе современных образовательных технологий деятельностного типа стало для меня актуальной и интересной. Ребенок рождается исследователем. Неутолимая жажда новых впечатлений, любопытство, постоянное стремление наблюдать и экспериментировать, самостоятельно искать новые сведения о мире, традиционно рассматриваются как важнейшие черты детского поведения. Удовлетворяя свою любознательность в процессе активной познавательно-исследовательской деятельности, которая в естественной форме проявляется в виде детского экспериментирования, и тем самым ребенок расширяет представления о мире. При формировании основ естестевенно - научных и экологических понятий экспериментирование рассматривают как метод, близкий к идеальному. Знания, почерпнутые не из книг, а добытые самостоятельно, всегда являются осознанными и более прочными.

Дошкольный возраст- период расцвета детской познавательной активности. К 3-4 годам ребенок как бы освобождается от давления воспринимаемой ситуации и начинает думать о том, что находится у него перед глазами. Дошкольник пытается как-то упорядочить и объяснить для себя окружающий мир, установить в нем какие-то связи и закономерности.

Уже в три-четыре года ребенок может буквально засыпать окружающих вопросами: «Что это?»; «А как?»; «Зачем?» и т.п.

Только постепенно под влиянием взрослого, который обучает ребенка, сообщает ему разные знания (в том числе доступно и обоснованно отвечают на его вопросы), ребенок начинает все больше и больше интересоваться окружающим, стремиться к тому, чтобы узнать что-то новое.

В старшем дошкольном возрасте познавательное развитие - это сложный комплексный феномен, включающий развитие познавательных процессов (восприятия, мышления, памяти, внимания, воображения), которые представляют собой разные формы ориентации ребенка в окружающем мире, в себе самом и регулируют его деятельность. Известно, что к старшему дошкольному возрасту заметно нарастают возможности инициативной преобразующей активности ребенка. Этот возрастной период важен для развития познавательной потребности ребенка, которая находит выражение в форме поисковой, исследовательской активности, направленной на обнаружение нового. Поэтому преобладающими становятся вопросы: «Почему?», «Зачем?», «Как?». Нередко дети не только спрашивают, но пытаются сами найти ответ, использовать свой маленький опыт для объяснения непонятного, а порой и провести «эксперимент».

Характерная особенность этого возраста - познавательные интересы, выражающиеся во внимательном рассматривании, самостоятельном поиске интересующей информации и стремлении узнать у взрослого, где, что и как растет, живет. Старший дошкольник интересуется явлениями живой и неживой природы, проявляет инициативу, которая обнаруживается в наблюдении, в стремлении разузнать, подойти, потрогать.

Результатом познавательной деятельности независимо от того, в какой форме познания она осуществилась, являются знания. Дети в этом возрасте уже способны систематизировать и группировать объекты живой и неживой природы, как по внешним признакам, так и по признакам среды обитания.

Дети постепенно начинают понимать, что состояние, развитие и изменения в живой и неживой природе во многом зависят от отношения к ним человека.

Вопросы ребенка обнаруживают пытливый ум, наблюдательность, уверенность во взрослом как источнике интересных новых сведений, объяснений. Поэтому взрослому важно в процессе обучения поддерживая познавательную активность, создавать детям условия для самостоятельного поиска информации.

Таким образом, в процессе развития детей дошкольного возраста познавательный интерес выступает в многозначной роли: и как средство живого, увлекающего ребенка

обучения, и как сильный мотив, к интеллектуальному и длительному протеканию познавательной деятельности, и как предпосылки формирования готовности личности к непрерывному образованию.

В системе дошкольного образования формируется еще один эффективный метод познания закономерностей и явлений окружающего мира – метод экспериментирования.

В детском экспериментировании наиболее мощно проявляется собственная активность детей, направленная на получение новых сведений, новых знаний, на получение продуктов детского творчества – новых построек, рисунков сказок и т.п.

Детское экспериментирование является стержнем любого процесса детского творчества.

Главное достоинство применения метода экспериментирования в детском саду заключается в том, что в процессе эксперимента:

- Дети получают реальные представления о различных сторонах изучаемого объекта, о его взаимоотношениях с другими объектами и со средой обитания.

Например: Где мы можем увидеть песок? - В песочнице, на берегу реки, в аквариуме.

- Идет обогащение памяти ребенка, активизируется его мыслительные процессы, так как постоянно возникает необходимость совершать операции анализа и синтеза, сравнения и классификации.

Например: Угадайте, что звучит? – Колокольчик, молоток, два камня, погремушка, свисток. Как вы догадались? – По звучанию, по громкости.

- Развивается речь ребенка, так как ему необходимо давать отчет об увиденном, формулировать обнаруженные закономерности и выводы.

Например: Посмотрите в окно, прошел дождь, как вы догадались? – Крыши стали мокрыми, на дорожках лужи.

- Происходит накопление фонда умственных приемов и операций, которые рассматриваются как умственные умения.

Например: Что такое фонтан? Где вы видели фонтаны? Из чего его можно смастерить? - Пустить воду из шланга, из бутылочки.

- Детское экспериментирование важно и для формирования самостоятельности, целеполагания, способности преобразовывать какие-либо предметы и явления для достижения определенного результата.

Например**:** Что можно добавить в песок, чтобы постройки из него не ломались?

- Воду, глину, цемент.

- В процессе экспериментальной деятельности развивается эмоциональная сфера ребенка, творческие способности, формируются трудовые навыки, укрепляется здоровье за счет повышения общего уровня двигательной активности.

Например: Как нам сделать цветной песок? И что из него можно смастерить?

– Можно покрасить гуашью, добавить в него порошок из цветного мелка. Затем смастерить красивое панно.

Дети очень любят экспериментировать. Это объясняется тем, что им присуще наглядно-действенное и наглядно-образное мышление, и экспериментирование, как никакой другой метод, соответствует этим возрастным особенностям.

Я считаю, что роль педагога в экспериментировании является ведущей в любом возрасте. Педагог непосредственно участвует в эксперименте таким образом, чтобы быть для детей равноправным партнером, руководить экспериментом так, чтобы у детей сохранялось чувство самостоятельности открытия. Подготовка к проведению экспериментов начинается с определения педагогом текущих дидактических задач. Затем выбирается объект, соответствующий требованиям. Воспитатель знакомится с ним заранее – и на практике, и по литературе. Одновременно он осваивает технику экспериментирования, если та ему незнакома.

В процессе экспериментирования нет строгой регламентации времени и возможно варьирование заранее намеченного плана, так как непредсказуемы предложения детей.

Продолжительность эксперимента определяется и особенностями изучаемого явления, и наличием свободного времени, и состоянием детей, их отношением к данному виду деятельности.

Предлагая детям поставить опыт, воспитатель сообщает им цель или задачу, которая должна быть решена, дает время на обдумывание и затем привлекает детей к обсуждению методики и хода эксперимента.

Теперь инициатива по проведению экспериментов переходит в руки детей. Они должны постоянно обращаться к воспитателю с просьбами: «Давайте сделаем так…», «Давайте посмотрим, что будет, если…». Роль воспитателя как умного друга и советчика возрастает. Я не навязывает своих советов и рекомендаций, а жду, когда ребенок, испробовав разные варианты, сам обратится за помощью. Да и то не сразу даю ответ в готовом виде, а постараюсь разбудить самостоятельную мысль детей, с помощью наводящих вопросов направить рассуждения в нужное русло.

Эксперименты позволяют объединить все виды деятельности и все стороны воспитания. Инициатива по их проведению распределяется равномерно между воспитателем и детьми.

В нашем детском саду традиционно присутствуют занятия по ознакомлению с окружающим миром. Они строятся в форме партнерской деятельности взрослого с детьми, развертывающейся как исследование вещей и явлений окружающего мира, доступное и привлекательное для детей, где они получают возможность проявить собственную исследовательскую активность.

Мы обогащали опыт детей, шло практическое освоение детьми свойств и качеств различных материалов, дети активно участвовали в исследовании и преобразовании различных проблемных ситуаций, знакомились со способами фиксации полученных результатов.

Например: Почему вода в реках не кончается? – Идет дождь, из под земли бьют родники.

Во время совместного экспериментирования мы с детьми ставили цель, совместно с ними определяли этапы работы, делали выводы. В ходе деятельности учили детей выделять последовательность действий, отражать их в речи при ответе на вопросы типа: Что мы делали? Что мы получили? Почему? Фиксировали предположения детей, помогали им схематически отразить ход и результаты опыта.

Мы учили ребят находить сходства и различия между объектами.

Например: Чем похожи камни? – Все камни твердые.

Чем камни отличаются друг от друга? – Есть камни гладкие, есть шероховатые. Есть маленькие, есть большие. Есть круглые и есть не круглые.

По окончании серии экспериментов мы обсуждали с детьми, кто из них узнал что-то новое, зарисовывали схему общего эксперимента. В процессе экспериментирования дети убеждались в необходимости принимать и ставить цель, анализировать объект или явление, выделять существенные признаки и стороны, сопоставлять различные факты, выдвигать предположения и приходить к выводу, фиксировать этапы действий и результаты графически.

Дети активно участвовали в предложенных экспериментах, охотно самостоятельно действовали с предметами, выявляя их особенности. Они проявляли желание экспериментировать дома: исследовать различные предметы быта, их действие, это выяснялось в беседах с родителями и детьми. Некоторые дети совместно с родителями ход и результаты экспериментов, проводимых дома, зарисовывали. Затем мы вместе со всеми детьми обсуждали их работы.

Таким образом, работа показала, что при использовании целенаправленного систематического применения экспериментов в процессе обучения позволяет ребенку моделировать в своем сознании картину мира, основанную на собственных наблюдениях. При этом преобразования, которые он производит с предметами, носят творческий характер

– вызывают интерес к исследованию, развивают мыслительные операции, стимулируют познавательную активность, любознательность.

Список использованной литературы:

1.Содиқова Ш.А. Мактабгача педагогика. – Тошкент, 2018.
2. Bolangiz maktabga tayyormi? – Toshkent, 2011. Xorijiy adabiyotlar:
3.Researchining effective pedagogy in the eariy ears. Iram Siraj-Blatchford and others. June 2002.
Bolalarning kompyuter qarshisida ishlash qoidasi: bola haftasiga 3 kundan ko‘p bo‘lmagan holatda kuniga 15-20 daqiqa mashg‘ulot o‘tkaza oladi; mashg‘ulotni kunning birinchi yarmida o‘tkazish tavsiya etiladi; bolalar o‘tiradigan stol-stul uning bo‘y-bastiga mos bo‘lishi kerak; mashg‘ulotlar xonasi bolaning ko‘rish tizimi zo‘riqmasligi uchun yaxshi yoritilgan bo‘lishi kerak. Qorong‘ulikda kompyuterda ishlash mumkin emas; ko‘rish zaif bo‘lsa, monitor qarshisida faqat ko‘zoynak bilan o‘tirish tavsiya qilinadi; kompyuter qarshisidagi mashg‘ulotlar chog‘ida to‘g‘ri o‘tirishga rioya qilish kerak: oyoqlar tizzadan 90 daraja burchak hosil qilgan, qo‘llar tananing yon qismiga tegib turishi, tana o‘rindiqqa perpendikulyar joylashishi, qomat tik bo‘lishi, bo‘yin va elka bo‘shashgan holatda, tovon butunlay polga tegib turishi darkor; ko‘zdan monitorgacha masofa 60 sm bo‘lishi kerak; alohida topshiriqlar oralig‘idagi dam olish vaqtlarida ko‘zlar uchun mashqlarni bajarish zarur. Navbati bilan yuqoriga-pastga, o‘ngga-chapga qarash, ko‘z bilan geometrik shakllar (kvadrat, aylana, uchburchak) chizish; imkon bo‘lsa derazadan qarash foydali; mashg‘ulotlardan so‘ng, sovuq suv bilan yuvinish va shug‘ullanish turini o‘zgartirish, masalan, faol o‘yinlar o‘ynash tavsiya etiladi.[6] Dasturlash faqat kelajakda IT mutaxassisi bo‘lishni istaganlar uchun kerak degan xato tushuncha bor. Biz esa dasturlash bolalar uchun ham foydali deb hisoblaymiz. Dasturlashni o‘rganish orqali bolalarda matematik bilimlarni oson o‘zlashtirish qobiliyati paydo bo‘ladi. Dasturlash orqali aqliy rivojlanish. Dasturlash kodini yozish jarayonida bolaning tanqidiy, ijodiy va mantiqiy fikrlashi rivojlanadi. Bolalar uchun kundalik muammolarni hal qilish va ularning kelajakdagi kasbida muvaffaqiyat qozonishi uchun asosiy ko‘nikma bo‘lib xizmat qiladi. Dasturlash yordamida bolalar zamonaviy texnologiyalar olamidagi qurilmalarning mantig‘i nima ekanligi, qanday ishlatish kerakligini va ular nima uchun majvudligini bilib oladilar. Dasturlashni o‘rganish qiziqarli sayohatdir. Bolalar o‘yinlar ustida ishlash paytida ularning tasavvurlari rivojlanadi. Ammo eng muhimi, hayotda o‘z kasbini topa olish imkoniyati mavjud. Ba’zan odam uchun o‘z sevimli kasbini topish uchun ko‘p yillar kerak bo‘ladi. Dasturchi bo‘lish uchun faqat kod yozish kerak desangiz adashasiz, bugun sizlar bilan bola aqliy rivojlanishiga foydali ajoyib mashg‘ulotni bo‘lishmoqchiman - grafik diktant. Grafik diktant – bu, kataklarda chiziqlarni berilgan xarita yordamida chizish orqali hosil bo‘luvchi qiziqarli shakl yoki rasmlar. Grafik diktant dasturlash sohasini o‘rganayotgan bolalar uchun juda foydali. Bolada juda muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi - diqqat, qat’iyatlilik, harakatni muvofiqlashtirish, barmoqlarning harakatlantirish qobiliyati. Dasturlashni miya faoliyatiga ta’siri qanday? Dastur yozish va uni tahlil qilish inson miyasining ochilmagan qirralarini ochib beradi. Bundan tashqari dasturni oddiygina o‘qish orqali ham insonda matiqiy fikrlash birmuncha sezilarli darajada o‘sadi bu esa, uzoqni oldindan ko‘ra olish qobiliyatini oshishiga olib keladi. Dastur masalalari yoki amallari matematikaga o‘xshashmi? Albatta «Ha», dasturning o‘z algoritmi va tili mavjud. Bu esa dastur yozish davomida birmuncha ko‘proq izlanishga va javoblarni qidirishga muhim bir omil bo‘ladi. Qisqacha aytganda, dasturlashni o‘rgangan odamning miyasi shunchaki matematika bilan shug‘ullanuvchi odamning miyasidan ancha faolroq ishlaydi. Chunki dasturlashda nafaqat nazariy bilimlar o‘rganiladi balki amaliy — yaratuvchanlik kayfiyati ham miya faoliyatini yaxshilaydi. Jamoa - ishonish, bahslashish va rozilik berishni o‘rgatadi. Ijtimoiylashuv - bu bolaning jamiyatda yashashi uchun foydali bo‘lgan ko‘nikmalarni egallash jarayoni. Jamoada ishlash - odamga boshqalarning ehtiyojlarini tushunishni, muzokara olib borishni, bahslashishni, bir-biriga ishonishni o‘rgatadi. Bu - ijtimoiylashuv. [10]

Robototexnika novatorlikni yuksaltiradi! Nazariy jihatdan o‘zlashtirish qiyin bo‘lgan fanlarni amaliyotda robotlar yasash orqali tez va murakkab darajada o‘zlashtirish mumkinmi? Albatta mumkin, chunki robotlar ham ma’lum bir fanlar asosida ishlab chiqilgan xususan: matematika, fizika va informatika. Bu fanlarni qanday qilib misol ishlamasdan, formula yodlamasdan amaliy o‘rganish mumkin, deb o‘ylayotgan bo‘lishingiz tabiiy, lekin ishoning bu

amallarni bajarmasdan ham ma’lum bir darajada o‘zlashtirishning imkoni bor. Bunda bizga robototexnikani o‘rganishning uch bo‘limi yordamga keladi bular:

Mexatronika. Robotlarning mexanik qisimlarini yasash orqali bolalar ularni o‘lchaydilar va kesishadi. Bo‘laklarni bir biriga moslashtirib ulash uchun esa ular oraliq diametrni va markazlarni amalda o‘lchab hisoblashadi. Elektronika. Bilamizki, robotlar motorlarsiz harakatlanishmaydi, batareyasi bo‘lmasa esa hatto ishga tushmaydi ham. Bu borada endi biz fizikaning amaliy tajribalarini qo‘llab ko‘ramiz, ya’ni simlar orqali quvvat manbaini boshqaramiz, o‘zgaruvchan tokni nazorat qilib ma’lum bir motorlarni harakatlantiramiz va robotni hatto gapirishida ham chastotalarni nazorat qilib boramiz. Dasturlash. robotni mana shu ikkita bo‘lim bo‘yicha taxlaymiz va so‘ngra uni harakatlanishi, gapirishini dastur yozish orqali turli buyruq dasturlari yozib boshqaramiz bunda esa biz albatta informatikani o‘rganamiz. Demak, bitta robot yasab ham amalda uchta fanni o‘rganish mumkin. Hamda bolalar bu fanlarni shunchaki nazariy fan deb emas, balki qiziqarli soha sifatida qabul qilishadi. Robotexnika muhandislikdagi birinchi qadamdir. Robototexnika mashg‘ulotlarini tashkil etish orqali bolalarda robototexnika dunyosiga chuqur sho‘ng‘ish, kompyuter uskunalari va robot dizaynini o‘rganish imkoniyatini beradi. Robototexnika mashg‘ulotining afzallik tomoni shundaki, robototexnika dasturlari nafaqat ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematik tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi, balki qiziqarli muammolarni bajarish uchun ishlayotganda bolalarning jamoaviy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ham xizmat qiladi. Ushbu hamkorlik qobiliyatlari kelajakda qaysi sohani tanlashidan qat’iy nazar, bolalarning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Robototexnika mashg‘ulotining afzalliklariga quyidagilar kiradi: ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi; ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi; muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlanadi; kompyuterni dasturlash qobiliyati, kompyuter qurilmalari haqidagi dastlabki tushunchalar hosil bo‘ladi; motivatsiyani oshiradi(bilishga bo‘lgan intilish). [9]

Robototexnikani o‘rganishning bola uchun 5 ta eng yaxshi sababi: robototexnika qo‘shimcha ta’limning eng ko‘ngilochar va ilg‘or yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu darslarda bolalar aslo zerikishmaydi.

Ta’limdagi robototexnika realizm nuqtai nazaridan amaliy, mazmunli ish jarayonida bir vaqtning o‘zida bir nechta fanlardan olingan bilimlarni mustahkamlashga asoslangan STEAM yondashuvining yaxshi namunasidir. 1.Bolalar texnologiya dunyosida tezroq va yaxshi yo‘naltirilgan bo‘ladi; muhandislik mutaxassisliklari asta-sekin birinchi o‘ringa chiqmoqda. Shu sababli, hozirda robototexnikani o‘rganish orqali bolalar texnologiya dunyosida tezda sayohat qilishlari bilan birga, kelajakdagi har qanday kasbni osonlikcha egallashlari mumkin. Bugungi kunda ko‘plab mutaxassislar o‘z amaliyotlarida robotlardan foydalanadilar. Masalan, tibbiyot, qurilish va ishlab chiqarishda.

2.Robototexnika predmetlararo tushuncha rivojlanishini ta’minlaydi; robototexnika bir nechta fanlarni birlashtiradi: matematika, fizika, informatika, texnologiya va b. Robot yaratishni boshlashdan oldin, bolalar o‘qituvchi rahbarligida nazariyani o‘rganadilar va dastur yozadilar. Shundan so‘ng, ular modelni tuzadilar, kodni yozish to‘g‘riligini tekshiradilar va agar xatolar topilmasa, unda ularning robot yechimi «hayotga kiradi», berilgan vazifalarni bajaradi.

3.Bolalar amalda maktab intizomlari bilan tanishadilar; zamonaviy bolalar maktabda nima uchun ma’lum bir intizomni o‘rganayotganlarini tushunishlari muhimdir. Robototexnika fizika, matematika va informatika qonunlarining ayrimlari hayot bilan bog‘liqligini ko‘rish imkonini beradi. Loyiha muammolarini hal qilishda bolalar ular uchun umuman boshqacha ma’noga ega bo‘lgan bilimlardan foydalanadilar.

4.Robototexnika nutq va taqdimot qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi; odatda, robototexnika ko‘plab bolalar uchun haqiqiy sevimli mashg‘ulotga aylanadi. Ayniqsa, ana shunday bolalar uchun ko‘plab mintaqaviy va xalqaro robotlar olimpiadalari, tanlovlari va festivallari o‘tkazilib, ular o‘z mahorat va qobiliyatlarini namoyish etishlari mumkin.

5. Bolalar 21-asrning jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini va boshqa asosiy ko‘nikmalarini o‘rganadilar; har qanday robotlashtirilgan loyihani yaratishda bolalar odatiy darsda asosiy deb hisoblanmaydigan ko‘nikmalarni egallaydilar: jamoaviy ish, vaqt va resurslarni boshqarish, gipoteza va uni amalda sinab ko‘rish.[10]

Xulosa. Jamoadagi har bir bola ma’lum bir vazifa uchun javobgardir, uni bajarmasdan guruh oldinga siljiy olmaydi. Hamda eng muhimi, bolalar bunga haqiqatan ham qiziqishadi. Robototexnika darslari quyidagilarni birlashtiradi: dasturlash; algoritmlar; mantiq; mexanika; matematika; fizika. Robototexnika mashg‘ulotlarida bola ushbu sohalar bo‘yicha dastlabki ko‘nikmalarni egallaydi. Bundan tashqari, robototexnika darslari qat’iyatlilikni rivojlantirishi va bolaning bu va boshqa fanlarni o‘rganishda muvaffaqiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Волосовец Т.В., Маркова В.А., Аверин С.А. STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. Парциальная модульная программа развития интеллектуальных способностей в процессе познавательной деятельности и вовлечения в научно-техническое творчество: учебная программа / Т. В. Волосовец и др. — 2-е изд., стерео-тип. — М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2019. — 112 с.: ил. Рецензия № 224/07 от ФГБОУ ВО «ИИДСВ РАО» Протокол № 7 от 26 сентября 2017 г. заседания Ученого совета ФГБОУ ВО «ИИДСВ РАО»
2. M.J.Shokirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda “STEAM” zamonaviy yondashuvi https:/doi.org/ 10.5281/zenodo.6582213 SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL ISSN: 2181-3337 2022 № 2. 241-b.
3. Rajabova L.Ch. Implementation of STEAM technology in preschool education. Экономика и социум. –2021. – №12(91) l’ISSN: ISSN 2225-1545. 527-530-b.
4. Эвдокимова Е.С. Технология проектирования в ДОУ Е.С.Эвдокимова. – М.: ТЦ Сфера, 2006. – 64 с.
5. R.X.Ayupov. /Ta’limda axborot texnologiyalari/: O‘quv qo‘llanma. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti. - T.: TPDU, 2020-yil. 580-b.
6. D.S.Gafurova. Kompyuter saboqlari. MTT pedagoglari uchun uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 164-b.
7. H.E.Majidova. Robototexnika asosida o‘quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Jizzax. Tom-7 №-7 (2021). https://ruslit.jdpu.uz/index.php/phys-tech/issue/view/125
8. B. Aminov, A. I. Inatov. Dasturlash asoslarini o‘rganishda interfaol usullardan foydalanish. 2020. SamDU. Udk: 37. 1. https://fayllar.org/udk-37-1-dasturlash-asoslarini-organishda-interfaol-usullardan.html
9. Владимир Конюх Леонидович. Основы робототехники. - М.: Феникс, 2008-г. 281-с. https://www.labirint.ru/books/158518/
10. С. А. Филиппов. Робототехника для детей и родителей- Санкт-Петербург «НАУКА» 2013. 319-с. https://www.prorobot.ru/load/kniga-fillipov-robototehnika-dlya-detey-i-roditeley.pdf

O‘RTA GURUH BOLALARINING BOSHLANG‘ICH MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

O‘zbekiston. N.N.Xusenova

Navoiy pedagogika texnikumi Maxsus fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘rta guruh bolalarining boshlang‘ich matematik tasavvurlarini shakllantirish texnologiyalariga bag‘ishlangan. Maqolada matematika mashg‘ulotlarida o‘qitish usullari, bolalarning yosh xususiyatlari, pedagogning roli, ko‘rsatmali va og‘zaki usullardan foydalanish, miqdor va sanoqni o‘rgatish metodikasi, fazoviy tasavvurlarni shakllantirish kabi masalalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yoshdagi o‘rta guruh bolalari, boshlang‘ich matematik tasavvurlar, miqdor, son-sanoq, uzun, qisqa, katta, kichik tushunchalari.

Аннотация: Данная статья посвящена технологиям формирования элементарных математических представлений у детей среднего возраста. В статье рассматриваются методы обучения на занятиях по математике, возрастные особенности детей, роль педагога, использование наглядных и словесных методов, методика обучения количеству и счету, формирование пространственных представлений.

Ключевые слова: дети средней группы дошкольного возраста, элементарные математические представления, понятия количества, числа, длинного, короткого, большого, малого.

Annotation: This article is dedicated to the technologies of forming elementary mathematical concepts in middle-group children. The article discusses teaching methods in mathematics classes, age characteristics of children, the role of the teacher, the use of visual and verbal methods, the methodology of teaching quantity and counting, and the formation of spatial concepts.

Keywords: children of the middle group of preschool age, elementary mathematical concepts, concepts of quantity, number, long, short, large, small.

Matematika mashg‘ulotlarida o‘qitishning ko‘rsatma harakat usullaridan: tarbiyachi harakatlarning namuna va usullarini ko‘rsatishidan, bolalarning elementar matematik faoliyat (ko‘plik, sonlar o‘rtasidagi mutanosiblikni belgilash, hisoblash va boshqalar)ini o‘zi chiga oluvchi amaliy topshiriqlarni bajarishidan foydalaniladi.

Besh yoshga qadam qo‘ygan bolalarda tekshirib ko‘rish qobiliyatlari (masalan, sezish, harakat tekshiruvlari va boshqalar) tez o‘sib boradi. Shu munosabat bilan bolalarni matematik obyektlarning xususiyatlari va munosabatlarini ozmi-ko‘pmi mustaqil ravishda aniqlashga o‘rgatiladi.

Pedagog (tarbiyachi) bolalar oldiga izlanishni talab qiladigan savollarni qo‘yadi: «Nima uchun doira yumalaydi-yu, kvadrat yumalamaydi?». U bu savollarga javob topish uchun nima qilish kerakligini aytib beradi, agar lozim bo‘lsa ko‘rsatib ham beradi: «Kvadrat bo‘ylab barmog‘ingizni yurgizib chiqing. Qarang, bu shaklda nima bor?» deydi.

Bolalar bevosita kuzatgan narsalarini o‘z nutqlarida aks ettirib, tajriba yo‘li bilan bilimga ega bo‘ladilar. Shu bilan fikrni og‘zaki bayon qilish shaklning unda ifodalangan mazmundan ajralib qolishiga, ya'ni bilimlarni yuzaki o‘zlashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bu yoshdagi bolalar ba'zan so‘z va iboralarni aniq narsalarga, ularning xususiyatlariga bog‘la-masdan osongina eslab qoladilar. Birinchi mashg‘ulotlardan boshlaboq mazkur guruh bolalari oldiga ularning harakatlarini muayyan maqsadga yo‘naltiradigan bo‘lish vazifalari qo‘yiladi.

O‘qitishning ko‘rsatmali (namuna, ko‘rsatish) va og‘zaki (ko‘rsatmalar, tushuntirishlar, savollar va boshqalar) usullaridan qayerda va qanday qilib foydalanish kerakligi bolalarning o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirish darajalari bilan belgilanadi. Bolalar faoliyatning yangi turlari (hisoblash, sanab ajratish, narsalarni katta-kichikligiga qarab taqqoslash) bilan tanishayotganlarida harakatlarning barcha usullarini, ularning xarakteri va izchilligini to‘la, keng ko‘rsatish hamda tushuntirish, namunani sinchiklab va batafsil ko‘rib chiqish zarur. Ko‘rsatmalar bolalarni narsaning yoki stol yoniga chaqirilgan bolaning harakatlarini kuzatib borishga undaydi, ularni mazkur harakatlarning aniq og‘zaki ifodasi bilan tanishtiradi. Tushuntirishlar qisqa va aniqligi bilan ajralib turishi kerak.

Yangi material tushuntirilayotganda bolalarni pedagog bilan birga harakat qilishga, ayrim ishlarni birga bajarishga jalb etiladi. Ular, masalan, narsaning uzunligi, qandayligini ko‘rsatishlari, hammalari birgalikda (xo‘r bo‘lib) narsalarni sanashlari mumkin va hokazo.

Yangi bilimlar mazkur yoshdagi bolalar uchun faqat asta-sekin o‘zining umumiy ma'nosiga ega bo‘ladi. O‘rta guruhda ham kichik guruhda bo‘lgani kabi, bolalar uchun yangi bo‘lgan harakat-larni bir necha marta ko‘rsatish zarur, bunda ko‘rsatma qurollar almashtiriladi, topshiriqlar, ish usullari birmuncha o‘zgartiriladi, harakatlarning yangi usullarini o‘zlashtirishda bolalarning faollik va mustaqillik ko‘rsatishiga ana shunday erishiladi. Bolalarning ko‘rsatma qurollar bilan ishlashlari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, ular bilimlarni shunchalik ongli o‘zlashtiradilar.

Pedagog (tarbiyachi) savollarni shunday berishi kerakki, bunda yangi bilimlar aniq so‘zda o‘z ifodasini topsin. Bolalarni o‘z harakatlarini tushuntirib berishga, ular raqamli ish bajarganliklari, natijada nima hosil bo‘lganligi haqida so‘zlab berishga doimo o‘rgatib boriladi. Tarbiyachi bolalarning javoblarini sabr bilan tinglaydi, ularga aytib berishga shoshilmaydi, ularning fikrlarini o‘zi oxiriga yetkazishga intilmaydi. Zarur bo‘lib qolsa, javob namunasini keltirib, qo‘shimcha savollar beradi, ayrim hollarda jumlani boshlab beradi, bola esa uni tugatadi.

Pedagog (tarbiyachi) bolalar nutqidagi xatoni to‘g‘rilab, ularga so‘zlarni, iboralarni takrorlashni taklif qiladi, bolalarni ko‘rsatma qurollardan foydalanishga undaydi («qarachi, qaysi doska qisqaroq!»). Tegishli lug‘atning o‘zlashtirihshiga qarab so‘zlarning ma'no ahamiyati ochib borilgan sari, bolalar so‘zning to‘liq, keng yoyib ko‘rsatilishiga muhtoj bo‘lmay qoladilar.

Ular keyingi mashg‘ulotlarda, asosan, og‘zaki yo‘1-yo‘riqqa qarab harakat qiladilar. Pedagog faqat ayrim usullarnigina ko‘rsatib beradi. Savollarga javob berish yo‘li bilan bola yo‘1-yo‘riqni tak-rorlaydi, masalan, avval qaysi o‘lchamdagi doskani qo‘yish kerakligini aytadi.

Bolalar bajarilgan topshiriq haqida ravon so‘zlab berishga o‘rganadilar. Keyinchalik ular faqat og‘zaki ko‘rsatmalar asosidagina harakat qiladilar. Agar bolalar topshiriqni bajarishga qiynalsalar, pedagog namuna keltirishi, namoyish qilishi hamda qo‘shimcha savollar berishi ham mumkin. Barcha xatolar didaktik material bilan ishlash jarayonida tuzatiladi.

Topshiriqlar hajmi asta-sekin kengaytirib boriladi, ular 2—3 qismdan iborat bo‘la boshlaydi. Masalan, kartochkada tasvirlangan doirachalarni hisoblash va xuddi shuncha o‘yinchoqlarni hisoblab ajratib olish kerak.

Bolalarda elementar matematik tasvvurlarni shakllantirish metodikasi. Miqdor va sanoq

O‘quv yilining boshida o‘rta guruh tarbiyachisi bolalarning kichik guruhda olgan bilimlarini yoz davomida ma'lum darajada unutib qo‘yganliklarini sezadi. O‘rta guruhga yangi bolalar ham keladilar. 5—6 mashg‘ulotni o‘tilganlarni takrorlashga bag‘ishlash va bolalarni yangi materialni idrok etishga tayyorlash zarurligi ma'lum bo‘ladi. Asosan, sanoqni o‘rgatish va sonlar bilan tanishtirish uchun zarur bo‘lgan tasavvur, ko‘nikma va malakalar mustahkamlanadi.

O‘tilgan mavzuni takrorlash uchun kichik guruh dasturida tavsiya etilgan mashqlardan biroz murakkablashtirilgan holda foydalaniladi. Mashqlar dasturdagi topshiriqlarning 2—3 tasini bir yo‘la bajarish imkonini beradi.

Bolalarga to‘plam ichidan ayrim narsalarni ajratish va narsalarni to‘plamga birlashtirish mashq qildiriladi, ular hamma narsalar uchun umumiy bo‘lgan belgilarni va narsalarning faqat bir qismi uchungina xos bo‘lgan umumiy belgilarni ajrata olishga o‘rgatiladi.

Agar tarbiyachi bolalarning mazkur materialni yaxshi o‘zlashtirganliklarini sezsa, unda bir mashg‘ulot bilan cheklanib qolishi mumkin. Aks holda, bunday mashqlar yana 2 mashg‘ulotning ikkinchi qismiga kiritiladi.

Bolalarda tevarak-atrofda turgan yakka (bitta) narsalarni va narsalar yig‘indisi (ko‘p)ni mustaqil topa olish ko‘nikmasi mustahkamlanadi. Shu maqsadda o‘rta guruhda kichik guruhdagiga qaraganda mashqlarning birmuncha murakkab variantlaridan foydalaniladi. Bolalarga matematik tushunchalarni shakllantirishda ko‘proq mustaqillik beriladi, nimani qayerdan izlash kerakligi, «Qarang, qaysi narsalar ko‘p, qaysilari bittadan uchraydi?», umumiy ko‘rsatmalar bilan beriladi.

Bolalarni faqat bir turdagi narsalarni fikran bir guruhga birlashtirishga, ularning barchasi uchun umumiy bo‘lgan xususiyat (buyumlarning nimaga mo‘ljallanganligi va boshqalar) asosida «to‘plam hosil qilish»ga o‘rgatibgina qolmasdan, balki guruhni tashkil etuvchi narsalarning faqat bir qismi uchungina umumiy bo‘lgan belgilarni hisobga olishga, ya'ni qism to‘plamni ajratishga ham o‘rgatiladi. Masalan, pedagog bolalar diqqatini deraza tokchasida turgan ko‘p o‘simliklar orasida baland va pastlari, katta va kichik barglilari borligiga jalb etadi va hokazo.

Bu davrda asosiy e'tibor ikki to‘plamning miqdorini qiyoslashni mashq qildirishga qaratiladi. Bolalar ikki guruhning qaysi birida narsalar ko‘p (kam)ligini yoki ularning baravarligini aytishga o‘rgatiladi.

Tarbiyachi ularga guruhlarni amaliy ravishda taqqoslash, ustma-ust va yonma-yon qo‘yish usullarini eslatadi.

Bolalarni narsalarning boshqa belgilari ichidan miqdori tomonini ajrata bilishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Bunga mazkur holda guruhning unchalik ahamiyatli bo‘lmagan belgilarini — guruhdagi narsalarning rangi, katta-kichikligi va joylashuvini o‘zgartirish orqali erishiladi.

Miqdoriy tuzilishi turlicha bo‘lgan to‘plamlar bilan ishlash bolalarda narsalar sonini aniq belgilash zaruratini hosil qiladi. Sanoqda o‘zlashtirish uchun sharoit paydo bo‘ladi.

Bu mashg‘ulotlarda ba'zi fazoviy tasvvurlar aniqlanadi, o‘ng va chapni farqlash, narsalarni chapdan o‘ngga qarab o‘ng qo‘l bilan ko‘rsatish, yuqorigi va pastki (doskalar), chapdan o‘ngga iboralarini tushunish ko‘nikmasi mustahkamlanadi.

Bolalar shakllar - doira, kvadrat, uchburchakni sezish, harakat va ko‘rish yo‘li bilan tekshirib ko‘rishni mashq qiladilar, ularni rang va hajmlaridagi farqlarga qaramasdan bilib olishni o‘rganadilar. Bolalarning o‘lcham munosabatlari: uzunroq-qisqaroq, kengroq-torroq, ko‘proq-kamroq haqidagi tasavvurlari va tegishli munosabatlarni aniqlash uchun yonma-yon va ustma-ust qo‘yish usullaridan foydalanish ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Birinchi mashg‘ulotlardayoq bolalarda bu ko‘nikmalarga qiziqish uyg‘otish va shug‘ullanish malakasini o‘stirishni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi / M. Quronov, R. Safarova, M. To‘xtayeva. - T.: «Fan va texnologiya», 2017.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari / G. G‘ulomova, Sh. Azimova. - T.: «Noshir», 2020.
3. Maktabgacha ta'limda matematika elementlari / N. Azizova, Z. Ismoilova. - T.: «O‘qituvchi», 2015.
4. Bolalar bog‘chasida matematik mashg‘ulotlar / M. Karimova, D. Abdullayeva. - T.: «Ilm ziyo», 2018.
5. Yosh davrlari psixologiyasi / G‘. Shodmonova. - T.: «Istiqlol», 2016.
6. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi / B. Qodirov. - T.: «O‘qituvchi», 2019.

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR JAMOASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI O‘RGANISH METODIKASI

O‘zbekiston. Ermatova Gulnoz Pirimovna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi v.b. dotsenti,
Boboqulova Surayyo Begali qizi
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jamoasida shaxslararo munosabatlarni o‘rganishning dolzarbligi va ahamiyati ochib berilgan. Shaxslararo munosabatlarga ta'sir etuvchi omillar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, kuzatuv, sotsiometriya, o‘yinli vaziyatlar, suhbat, referentometriya va shaxsiy hujjatlarni tahlil qilish kabi metodikalarning tavsifi, afzalliklari, kamchiliklari va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Maqolada olingan ma'lumotlardan foydalanish, ota-onalar bilan hamkorlik qilish va bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta'lim, bolalar jamoasi, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy rivojlanish, metodika, kuzatuv, sotsiometriya, o‘yinli vaziyatlar, suhbat, referentometriya, shaxsiy hujjatlar.

Аннотация: В статье раскрывается актуальность и значение изучения межличностных отношений в детском коллективе дошкольного возраста. Рассмотрены факторы, влияющие на межличностные отношения. Представлены описание, преимущества, недостатки и рекомендации по применению в практике таких методик, как наблюдение, социометрия, игровые ситуации, беседа, референтометрия и анализ личных документов. В статье обсуждаются вопросы использования полученных данных, сотрудничества с родителями и учета индивидуальных особенностей детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, детский коллектив, межличностные отношения, социальное развитие, методика, наблюдение, социометрия, игровые ситуации, беседа, референтометрия, личные документы.

Abstract: The article reveals the relevance and importance of studying interpersonal relations in a preschool children's group. Factors influencing interpersonal relations are considered. A description, advantages, disadvantages, and recommendations for practical application of such methods as observation, sociometry, play situations, conversation, referentometry, and analysis of personal documents are presented. The article discusses the use of the data obtained, cooperation with parents, and consideration of the individual characteristics of children.

Keywords: preschool education, children's group, interpersonal relations, social development, methodology, observation, sociometry, play situations, conversation, referentometry, personal documents.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ijtimoiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash juda muhim sanaladi. Maktabgacha yosh davri - bolaning ijtimoiy ko‘nikmalari faol rivojlanadigan davr. O‘zaro munosabatlarni o‘rganish tarbiyachilarga bolalarning ijtimoiy rivojlanishidagi qiyinchiliklarni aniqlash va ularga yordam berish imkonini beradi.

- Sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish: Bolalar bog'chasida ijobiy shaxslararo munosabatlar bolalarning o‘zini xavfsiz va qulay his qilishiga, o‘ziga ishonchini oshirishga va stress darajasini kamaytirishga yordam beradi.
- Nizolarning oldini olish va hal qilish: Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish tarbiyachilarga nizolarni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash va ularni oldini olish choralarini ko‘rishga yordam beradi. Shuningdek, bolalarga nizolarni konstruktiv tarzda hal qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish imkonini beradi.
- Ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish: Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish natijalari tarbiyachilarga bolalarga qaysi ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish kerakligini aniqlashga yordam beradi (masalan, hamkorlik, empatiya, o‘z fikrini ifodalash, boshqalarni tinglash).
- Bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish: Har bir bola o‘ziga xos ijtimoiy xususiyatlarga ega. Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish tarbiyachilarga har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olish va ularga mos keladigan yondashuvni qo‘llash imkonini beradi.

Shaxslararo munosabatlarga ta'sir etuvchi omillar:

- ✓ **Yosh:** Bolalar yoshi ulg'aygan sari, ularning ijtimoiy ko‘nikmalari va o‘zaro munosabatlari murakkablashadi.
- ✓ **Temperament:** Ba'zi bolalar boshqalarga nisbatan ko‘proq ijtimoiy bo‘lishadi, boshqalari esa tortinchoqroq bo‘lishadi.
- ✓ **Oilaviy muhit:** Oila a'zolarining o‘zaro munosabatlari bolaning ijtimoiy ko‘nikmalariga va boshqalar bilan munosabatlariga ta'sir qiladi.
- ✓ **Madaniy omillar:** Turli madaniyatlarda ijtimoiy xatti-harakatlarga turli xil talablar qo‘yiladi.
- ✓ **Tengdoshlar ta'siri:** Bolalar tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlardan ko‘p narsalarni o‘rganishadi.

O‘rganish usullari:

- **Kuzatuv**: Bolalarning o‘yin, mashg'ulot va boshqa vaziyatlarda o‘zaro ta'sirini kuzatish.
- **Sotsiometriya:** Bolalarga kim bilan o‘ynashni, kim bilan do‘stlashishni xohlashlari haqida savollar berish va olingan ma'lumotlar asosida jamoaning ijtimoiy tuzilishini aniqlash.
- **Intervyu:** Bolalar bilan ularning o‘zaro munosabatlari, do‘stligi, nizolari haqida suhbatlashish.
- **O‘yinli vaziyatlar:** Bolalarga turli xil ijtimoiy vaziyatlarni yaratish va ularning xatti-harakatlarini kuzatish.
- **Shaxsiy hujjatlarni tahlil qilish:** Bolalarning rasmlari, yozuvlari va boshqa ijodiy ishlarini tahlil qilish.
- **Kuzatuv:**

Maqsadi: Bolalarning tabiiy muhitda (o‘yin, mashg'ulot, ovqatlanish vaqtida) o‘zaro munosabatlarini kuzatish va qayd etish.

- Tavsif: Tarbiyachi bolalarning xatti-harakatlarini diqqat bilan kuzatadi va ularning o‘zaro ta'siri, muloqoti, hamkorligi, raqobati va nizolarini qayd etadi. Kuzatuv davomida bolalarning mimikasi, imo-ishoralari, nutqi va boshqa xatti-harakatlariga e'tibor qaratiladi.
- Afzalliklari: Tabiiy muhitda bolalarning xatti-harakatlarini aks ettiradi, bolalarga bosim o‘tkazmaydi.
- Kamchiliklari: Sub'ektiv bo‘lishi mumkin, vaqt talab qiladi, barcha xatti-harakatlarni kuzatish imkoni yo‘q.
- Qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar:
- Kuzatuvni muntazam ravishda o‘tkazish.
- Kuzatuv natijalarini aniq va ob'ektiv qayd etish.
- Turli xil vaziyatlarda kuzatuv o‘tkazish.
- Kuzatuv natijalarini boshqa metodikalar bilan birgalikda tahlil qilish.

➢ **Sotsiometriya:**

- Maqsadi: Bolalar jamoasida shaxslararo munosabatlarning tuzilishini aniqlash, bolalarning ijtimoiy maqomini (lider, rad etilgan, e'tiborsiz va h.k.) aniqlash.
- Tavsif: Bolalarga bir nechta savollar beriladi (masalan, «Kim bilan o‘ynashni xohlaysiz?», «Kim sizga yordam beradi?»). Savollar asosida bolalarning o‘zaro tanlovlari aniqlanadi va sotsiogramma tuziladi. Sotsiogramma - bu bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlarning grafik tasviri.
- Afzalliklari: Bolalar jamoasidagi ijtimoiy tuzilishni aniq ko‘rsatadi, bolalarning ijtimoiy maqomini aniqlashga yordam beradi.
- Kamchiliklari: Bolalarning javoblari sub'ektiv bo‘lishi mumkin, bolalarning savollarga noto‘g'ri tushunishi mumkin, ma'lumotlarni tahlil qilish va sotsiogramma tuzish vaqt talab qiladi.
- Qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar:
- Savollarni bolalarga tushunarli qilib berish.
- Bolalarning javoblarini maxfiy saqlash.
- Sotsiometriyani boshqa metodikalar bilan birgalikda qo‘llash.

➢ **O‘yinli vaziyatlar:**

- Maqsadi: Bolalarning turli xil ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini qanday tutishini aniqlash (masalan, nizoli vaziyat, hamkorlik vaziyati, yordam so‘rash vaziyati).
- Tavsif: Tarbiyachi bolalarga turli xil o‘yinli vaziyatlarni taklif qiladi va ularning xatti-harakatlarini kuzatadi. O‘yinli vaziyatlar bolalarning real hayotdagi vaziyatlariga o‘xshash bo‘lishi kerak.
- Afzalliklari: Bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini amalda baholashga imkon beradi, bolalarning muammoli xatti-harakatlarini aniqlashga yordam beradi.
- Kamchiliklari: O‘yinli vaziyatlar sun'iy bo‘lishi mumkin, bolalarning xatti-harakatlari vaziyatga bog'liq bo‘lishi mumkin, kuzatuv sub'ektiv bo‘lishi mumkin.
- Qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar:
- O‘yinli vaziyatlarni bolalarga qiziqarli qilib yaratish.
- O‘yinli vaziyatlarda bolalarning xatti-harakatlarini ob'ektiv qayd etish.
- O‘yinli vaziyatlarni turli xil sharoitlarda o‘tkazish.

➢ **Suhbat:**

- Maqsadi: Bolalarning o‘zaro munosabatlari, do‘stligi, nizolari va ijtimoiy xatti-harakatlari haqida ma'lumot olish.
- Tavsif: Tarbiyachi bolalar bilan individual yoki guruhli suhbat o‘tkazadi. Suhbat davomida bolalarga o‘zaro munosabatlari, do‘stlari, nizolari va o‘zlarini jamoada qanday his qilishlari haqida savollar beriladi.
- Afzalliklari: Bolalarning o‘z nuqtai nazarini bilishga imkon beradi, bolalarning ichki dunyosini tushunishga yordam beradi.
- Kamchiliklari: Bolalarning javoblari sub'ektiv bo‘lishi mumkin, bolalar o‘z fikrlarini to‘liq ifoda eta olmasligi mumkin, suhbat vaqt talab qiladi.
- Qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar:

- Suhbatni do‘stona muhitda o‘tkazish.
- Bolalarga savollarga erkin javob berishilarini uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va avob berishga imkoniyat berish.
- Bolalarning javoblarini diqqat bilan tinglash va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

➢ **Referentometriya:**

- Maqsadi: Jamoada eng obro‘li, fikri inobatga olinadigan bolalarni aniqlash.
- Tavsif: Bolalarga «Siz kimning fikriga ko‘proq ishonasiz?», «Kim sizga eng yaxshi maslahat beradi?» kabi savollar beriladi. Olingan javoblar asosida referentlar aniqlanadi.
- Afzalliklari: Jamoaning informatsion liderlarini aniqlashga imkon beradi.
- Kamchiliklari: Bolalarning javoblari sub'ektiv bo‘lishi mumkin.

➢ **Shaxsiy hujjatlarni tahlil qilish:**

- Maqsadi: Bolalarning ijtimoiy xatti-harakatlari, muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklari haqida qo‘shimcha ma'lumot olish.
- Tavsif: Tarbiyachi bolalarning rasmlari, yozuvlari, o‘yinchoqlari va boshqa shaxsiy hujjatlarini tahlil qiladi.
- Afzalliklari: Bolalar haqida qo‘shimcha ma'lumot olishga imkon beradi.
- Kamchiliklari: Ma'lumotlar sub'ektiv bo‘lishi mumkin.

➢ Umumiy tavsiyalar:

- Turli xil metodikalardan birgalikda foydalanish.
- Olingan ma'lumotlarni diqqat bilan tahlil qilish.
- Tahlil natijalari asosida bolalar jamoasida ijobiy ijtimoiy muhitni yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.
- Ota-onalar bilan hamkorlik qilish.
- Bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish.
- Metodikalarni muntazam ravishda qo‘llash va natijalarni kuzatib borish.

➢ Bu metodikalar yordamida tarbiyachilar bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlarni chuqurroq tushunishlari va bolalarga ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish orqali ularning ijtimoiy rivojlanishiga yordam berishlari mumkin.

➢ Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar jamoasida shaxslararo munosabatlarni o‘rganish - bu bolalar bog'chasi yoki boshqa maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir, aloqalar va munosabatlarni tahlil qilish va baholash jarayonidir. Bu jarayon tarbiyachilarga bolalarning ijtimoiy rivojlanishini tushunish, jamoada sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish va bolalarga ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amirsaidova Sh. Bolaning shaxslararo munosabatini rivojlantirish. Maktabgacha ta`lim jurnali 1/2017 y.15-16 betlar.
2. Shodmonova Sh.Maktabgacha ta`lim pedagogikasi. T.: 2008.
3. Nishonova Z., Qurbonova Z., Abdiyev S. Psixodiagnostika va ekspremental psixologiya. “Tafakkur bo‘stoni”- T.: 2011.
4. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollej- lari uchun o‘quv qo‘llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘rta maxsus, kasb- hunar ta’limi markazi. — Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2013.
5. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi.- T.:2006
6. Zufarova M.(Tahriri ostida) .Bolalar psixologiyasining muammolari.- Toshkent “Fan” nashriyoti 2008.
7. M. Rasulova, D. Abdullayeva, S. Oxunjonova. Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. – Toshkent. – 2003.
8. S.X. Jalilova va boshqalar. Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi. – Toshkent. – 2009.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI O‘STIRISHDA AMALIY-METODIK ISHLARI

O‘zbekiston. Xudoyberdiyeva Shohista Eliboyevna
Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga qarashli 30-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining kelajakdagi ta’siri muhim ahamiyatga ega bo‘lib, nutq faqatgina muloqot vositasi emas, balki bolalarning o‘quv jarayonlariga tayyorgarligi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishida asosiy omil hisoblanadi. Bola bilan o‘z vaqtida, ravon va mazmunli muloqot qilish uning lug‘at boyligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlari: nutq, diolog, metod, tarbiyachi.

Аннотация: будущее влияние речевого развития на детей дошкольного возраста имеет важное значение, поскольку речь является не только средством общения, но и основным фактором готовности детей к учебным процессам и их места в обществе. Своевременное, беглое и содержательное общение с ребенком поможет увеличить его словарный запас.

Ключевые слова: речь, диолог, метод, воспитатель.

Annotation: the future impact of speech development in preschool children is important, and speech is not just a means of communication, but a key factor in children's readiness for educational processes and finding their place in society. Timely, fluent and meaningful communication with a child will help increase his vocabulary wealth.

Keywords: speech, diologist, method, educator.

Hurmatli Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev yosh – avlodni munosib tarbiyalash, kelajakda ularning jahon miqyosda raqobatdosh kadr bo‘lib shakllanishi uchun turli soha vakillarini buyuk maqsad sari jalb qilmoqda. Yurtimiz bolajonlari kelajakda vatanimiz, jonajon O‘zbekistonimizni dunyoga tanitish va buyuk bobokalonlarimizga munosib avlod bo‘lishi uchun ta’lim soha vakillari ham o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida bir qator ishlar qilindi. Xususan 2020 – yil 22- dekabrda maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti tasdiqlandi. Standart bir qancha qismlardan tashkil topgan. Ushbu qismlarning biri “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. Buning o‘zi yirik soh ava mayda sohalarga bo‘linadi. “Nutq muloqot o‘qish, yozish malakalari” sohasi, yirik soha hisoblanadi. Ushbu soha o‘z navbatida bir nechta kichik sohalarga bo‘linadi:

- Nutq va til
- O‘qish malakasi
- Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi

Nutq o‘stirish mashg‘uloti haftada kichik guruhda 1 marta qo‘yiladi, o‘rta va katta guruhda 2 marta, tayyorlov guruhida haftada 1 marta va savodga o‘rgatish 1 marta qo‘yiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida mashg‘ulot va o‘yin jarayoni bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Dasturda belgilangan bilim va malakalarni tarbiyachi ta’lim tamoyillari asosida bolalar o‘zlashtira oladigan qilib tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish uchun tarbiyachi bolalarning nutqini rivojlnatirish yosh xususiyatini bilishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar nutqini o‘stirishda amaliy metodik yo‘llari mavjud. Quyida ular bilan tanishib chiqamiz.

1. Mashg‘ulot jarayoni
2. Sayr vaqti
3. Ertalabki va kechki suhbat
4. Didaktik o‘yin
5. Bolalarning ijodiy – ixtiyoriy o‘yini
6. Tevarak atrof bilan tanishtirish jarayoni
7. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish
8. Sahnalashtirish
9. Turli ko‘ngilochar tadbirlar.

Yuqorida aytib o‘tilgan usullardan tarbiyachi faol foydalanishi zarur. Bunda tarbiyachiga uslubshunos, direktor va ota onalar, tor mutaxassislar amaliy yordam ko‘rsatishlari zarur.

1. Mashg‘ulot jarayoni:

Maktabgacha ta’lim tashkilotida mashg‘ulot jadvali bor. Bundan tashqari tarbiyachining ish rejasida mashg‘ulot mavzulari keng yoritilgan. Tarbiyachi mashg‘ulot boshlashdan oldin bugungi mavzu haqida bolalar bilan ertalabki suhbatda qiziqtirish uchun ma’lumot beradi.

2. Sayr vaqti:

Sayr vaqti kuning birinchi va ikkinchi yarmida olib boriladi. Sayr vaqtida tarbiyachi turli mavzuda, bolalar bilan guruh bo‘lib yoki yakka tartibda suhbat olib borsa bo‘ladi. Bolaga savol berganda bola savolga to‘liq javob berishini ta’minlash zarur. Masalan: Tarbiyachi: bolalar bog‘chamizda archa daraxti bormi?

Bolalar: ha, deb emas baki : bizning bog‘chamizda archa daraxti bor, deb to‘liq javob berishlari kerak bo‘ladi. Bundan maqsad bola to‘liq, aniq, ravon gapirishni o‘rganadi va eng muhim tomoni so‘z boyligi oshib boradi

3. Ertalabki va kechki suhbat:

Ertalabki suhbatda bola bilan uning kechagi kuni yoki agar kun haftani boshlanishi bo‘lsa dam olish kunlari nimalar bilan shug‘ullanganligi haqida suhbat olib borsa bo‘ladi. Suhbat savol-javob tarzida amalga oshiriladi. Kechki suhbatda esa bugun kuni haqida va uyga borganda nimalar qilmoqchi shu haqida suhbat olib borsa bo‘ladi.

4. Didaktik o‘yin

Bolani nutqini o‘stirishda turli xildagi ta’limiy o‘yinlar mavjud. Tarbiyachi o‘zi ish reja mavzusiga didaktik o‘yin o‘ylab topishi yoki boshqa xildagi ta’limiy o‘yinlarni o‘ynatishi mumkin. Masalan: kichik guruh uchun, stol ustida rasm katochkalar bo‘ladi. Rasmga qarab nomini ayt. Katta va tayyorlov guruhi uchun, syujetli rasmga qarab hikoya tuz.

5. Bolalarning ijodiy ixtiyoriy o‘yini

Bolalarning ijodiy ixtiyoriy o‘yini bolani nutqi shakllanishida, ijtimoiy rivojlanishida hamda shaxs sifatida shakllanishida juda katta ahamiyatga ega. Bola ijodiy o‘yinda o‘zi xoxlagan rolga kiradi. So‘zlarni ham o‘zi o‘ylab topadi. Ijodiy o‘yinda deyarli qoida bo‘lmaydi. Ba’zi hollarda bolalarning o‘zlari birgalikda ijodiy o‘yin uchun o‘yin jarayonining o‘zidayoq qoida o‘ylab topadilar. Masalan: o‘g‘il bolalar ko‘p o‘ynaydiga “Askar – askar” o‘yini, qiz bolalar uchun “Xola-xola”, “Mehmon-mehmon” o‘yini. Ixtiyoriy o‘yinda bola ijtimoiylashadi va shaxs sifatida shakllandi. Chunki bitta o‘yinchoq ikki bolaga ham kerak bo‘lib qoladi. O‘yinchoq uchun bola sehrli so‘zlardan foydalanadi (iltimos, shu o‘yinchoqni men ham o‘ynay berib tur) yoki (men senga bu o‘yinchoqni beraman sen menga o‘zingni o‘yinchog‘ingni berib tur). Bolalar nutqi ixtiyoriy o‘yinda juda faollashadi, bola erkin bo‘ladi xoxlaganicha gapirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning natijasida guruhda shovqin bo‘ladi. Lekin bu foydali shovqin hisoblanadi. Agar guruhda shovqin chiqishini istamasak unda bolalarning nutqi rivojlanishini kutmasak ham bo‘ladi va bu juda achinarli hol.

6. Tevarak atrof bilan tanishtirish jarayoni

Tevarak-atrof bilan tanishtirishning usullari bor. 1. Diafilm, vidoefilm orqali 2. Jonli ko‘rish ya’ni ekskursiya orqali amalga oshiriladi. Bolalar bora olmaydigan uzoq geografik joylar bilan tanishtirmoqchi bo‘lsa diafilm va videofilmdan foydalanish ma’qul. Jonli ko‘rishni imkoniyati bo‘lsa borib jonli ekskursiya tashkil etiladi. Tevarak-atrof bilan tanishtirish nihoyasiga yetganidan so‘ng ko‘rganlari haqida suhbat o‘tkazish zarur.

7. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish bolalarning nutqini o‘stirishda hamda lug‘at boyligini oshirishda katta ahamiyat keb etadi. Badiiy adabiyot bilan tanishtirishga nimalar kiradi: she’r, ertak, hikoya, maqol, tez aytish. Qayta hikoya qilish o‘rta guruhdan boshlab amalga oshiriladi. Shu bilan birgalikda bolalarda monologic nutq ham rivojlanib boradi.

8. Sahnalashtirish

Sahnalshtirishning bir nechta usullari bor. Bular quyidagilar:

- Qo‘g‘irchoq teatri

- O‘yinchoq teatri
- Soya teatri
- Stol teatri

Qo‘g‘irchoq teatrini tomosha qilgandan so‘ng o‘zaro, uyga borganda esa oila a’zolari bilan suhbat bo‘ladi. Bola ko‘rganlarini bo‘lishadi. Bu bilan birga Bolani xotirasi yaxshi rivojlanadi chunki qayta aytib berganda bevosita eslashga harakat qiladi, monologic nutqi rivojlanadi hamda bola ijtimoiylashadi ya’ni atrofidagi insonlar bilan muloqotga kirishadi. Bunda kattalarga bolani rad etmasdan tinglash tavsiya etiladi.

Sahnalashtirishning muhim jihati shundan iboratki guruhda biron- bir ertakni sahnalashtirsa va bu ertak qahramonlarini bolalarning o‘zlari ijro etsalar bolalarening nutqi faollashadi, bilish jarayoni yanada rivojlanadi, muloqotchanligi va ijtimoiylashuvi oshadi.

9. Turli ko‘ngilochar tadbirlar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida to‘rtta mavsumga mos turli ko‘ngilochar tadbirlar tashkil etiladi. Bunda guruhdagi barcha bolalar ishtirok etishi shart. Tadbirda ishtirok etish bolada ijobiy xislatlar rivojlanishiga zamin yaratadi. Ko‘pni oldida nutq so‘zlaydi, ravon nutq rivojlanadi, omma oldida o‘zini qanday tutish kerak ekanligini bilib oladi hamda sahna madaniyati rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining kelajakdagi ta’siri muhim ahamiyatga ega bo‘lib, nutq faqatgina muloqot vositasi emas, balki bolalarning o‘quv jarayonlariga tayyorgarligi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishida asosiy omil hisoblanadi. Bola bilan o‘z vaqtida, ravon va mazmunli muloqot qilish uning lug‘at boyligini oshirishga yordam beradi. Kitob o‘qish, hikoya qilish, bolalar bilan faol muloqot bolalarning tasavvur doirasini kengaytiradi. Bundan tashqari, psixologik va fiziologik omillar ham nutq rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, bolaning eshitish qobiliyati va emotsional holati uning nutqiy faoliyatini rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati:

1. D. Hamidov, Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2016.39-bet.
2. M. Jalolova, Nutq rivojlanishining pedagogik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2018. 84-bet.
3. Vygotskiy, A. Psixologik rivojlanish nazariyalari. Moskva: Pedagogika 1984.
4. Bo‘tayev, L. (2019). Bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
5. Piaget, G. (1977). Bolalar aqliy rivojlanishi. Parij: Dunyo psixologiyasi.
6. Axunov, J. (2018). Bolalar psixologiyasida innovatsion yondashuvlar. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.

BOLALARDA SON VA RAQAM TUSHUNCHASI RIVOJLANISHINING MAZMUNI VA USULLARI

O‘zbekiston. Ulug‘berdiyeva Dilbar Qarshibekovna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
Xoliqulova Noila Nodir qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda son va raqam tushunchalarini rivojlantirishning mazmuni va usullari haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: son, raqam, tasavvur, mashg‘ulot, predmet.

Аннотация. В данной статье изложены мысли о содержании и методах развития понятий числа и числа у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: число, число, воображение, обучение, предмет.

Annotation. This article describes the meaning and methods of developing the concepts of number and number in preschool children.

Keywords: number, number, imagination, training, subject.

Uzluksiz ta’lim-o‘zaro mantiqiy izchillik asosida bog‘langan hamda soddadan murakkabga rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta’limiy tizimdir. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Ushbu soha har tomonlama sog’lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullari joriy etisga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta’lim tizmini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qancha qarorlari qabul qilindi.

Ta’lim-tarbiya sifatini kuchaytirish talablarini qo‘yayotganda yosh avlod bilan matonatli xizmat qilish muhimdir, maktabgacha ta’lim faqatgina aniq bilimlar hajmini belgilabgina qolmay, balki o‘zlashtirilgan bilimlar olingan natijalar asosida bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdan iboratdir. M.A.Danilov, L.V.Zankov va boshqalarning tadqiqotlarida bolaning o‘quv faoliyati qulay sharoitda, ularning aqliy faoliyatini rivojlantirishning turli vositalardan foydalangan holda kechadi. Demak, ta’lim uslublari boladagi ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun matematik tushunchalarni shakllantirishga qaratilishi, ishning turli uslublarini mujassamlashtirishi lozimdir. Bolada matematik tushunchalarni shakllantirish masalasiga Yu.M.Kolyagin, Yu.I.Kulyutkin, L.M.Fridman, psixologlar, pedagoglar va uslubchilar K.Dunker, J.Piaje, J.Poyalarning mashhur tadqiqotlari katta ahamiyatga ega.

Tajribalarning ko‘rsatishicha, kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilarning o‘zlashtirishlarini osonlashtirish, ularning aqliy rivojlanishlarini ta’minlash hamda mustaqil ishlash qobiliyatlarini tarbiyalashda maktabgacha yoshdagi bolalarni birinchi sinfda o‘qishga oldindan, oilada, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlashning o‘rni beqiyosdir. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalar hamda quyi boshlang‘ich sinf tarbiyalanuvchilarida dastlabki matematik bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda multimediali intellectual o‘yinlardan foydalanilsa, tarbiyalanuvchilarning matematika fanini, unga bog‘liq holda boshqa fanlarni ham o‘zlashtirishlari osonlashib, mustaqil ishlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi ta’limni bola o‘rganayotganini tushuna oladigan qilib tuzish maqsadga muvofiq. Bu fikrni tushuntirish uchun sodda misol keltiramiz. Bolaning oldiga guruch solingan tog‘orachani qo‘yamiz. Bu tog‘orachadan 5 qoshiq guruch olishni tavsiya qilamiz. 4-6 yoshlik bola uchun bu vazifa qiyinlik qilmaydi. U 5 qoshiq guruchni xato qilmay oladi. Shundan keyin unga “Endi slogan guruchingni tog‘orachaga qaytarib sol va sana”, - deymiz.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola guruchni harakatlarni sanab qaytarib solidi, u qoshiqning qay darajada to‘laligiga mutlaqo e’tibor bermaydi. Bola to‘rtgacha sanaganidan keyin “Necha qoshiq guruch qoshiq qoldi?” – deb so‘raymiz. “Bir qoshiq” deb javob beradi bola. Tekshirib ko‘rishni taklif qilamiz. Bola bilan birga guruchni qoshiqqa (to‘ldirib) solamiz. Guruch 3 qoshiq chiqadi. Nega bunday bo‘ldi, degan savol bolaning boshini berk ko‘chaga tiqib qo‘yadi, chunki u mazkur faoliyatni bajarishda majburiy bo‘lgan ma’lum qonuniyatlarga amal qilmaganligini anglashiga yordam beradi.

Bolani sanashga qanday o‘rgatish kerak? Sanoq bola uchun ma’lum tartibda yodlab olingan so‘zlar majmuasi bo‘lmay, balki sanash sonning mazmunini bilganlikka asoslanadigan bo‘lishiga qanday erishish mumkinligi muhim sanaladi. Bu boradagi eng sodda va samarali usul buyumlarni qayta sanashdir. Buning uchun maxsus mashg‘ulotlarni tashkil qilishning hojati yo‘q. Bolaning kattalar bilan muloqoti vaqtida, bolalar o‘yinlari jarayonida sanoqqa oid mashqlar o‘tkazish uchun imkoniyatlar ko‘p. “Uy oldida nechta daraxt o‘smoqda? Gulpushtada nechta gul ochilgan? Mashinalar turadigan joydagi qizil mashinalar nechta? Qutidagi qalamlar nechta? Beshta likopcha, beshta qoshiq keltir. Nechta odam choy ichsa, shuncha piyola keltirib qo1ygin”.

Son haqidagi tasavvur bolaning buyumlarni sanay olishi bilan chegaralana olmaydi. Bolalarning ketma-ket sonlar orasidagi munosabatlarni tushunib yetmog‘iga erishmoq kerak. Qo‘l ostida mavjud bo‘lgan har qanday materialdan – toshchalar, soldatchalar, qurilish nabori yoki mozaika elementlaridan – foydalanib, sonlar orasidagi munosabatlarni ortiq, kam, teng so‘zlari bilan aniqlab, har xil buyumlar guruhini taqqoslash mumkin. Buni qanday qilish kerak? Qog‘oz varag‘iga ikkita qator chizamiz. Yuqoridagi qatorga bitta oq tugma, pastdagi qatorga oltita qora tugmani joylashtiramiz. Bolaga qaysi tugmalar ko‘p, qaysilari kam, yoki ular teng ekanini aniqlashni taklif qilamiz. Bola savolga yo qayta sanash usulidan foydalanib, oq va qora tugmalarni juftlab chiqib javob berishi kerak

Raqam sonning shartli belgisidir. Bolalarga sonni tushuntirishda raqam qo‘shimcha va yordamchi bosqichdir. Bolalarni raqamlarni o‘qishga o ‘rgatilmaydi, faqat bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Bolalar har bir raqam qaysi sonning belgisi ekanligini ajrata bilishlari lozim.

Hammasi bo‘lib 10 ta raqam bor: 0, 1 ,2 , 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9.

10 raqami yo‘q. 10 soni ikkita raqam: 1 va 0 bilan belgilanadi. Bitta mashg‘ulotda bitta yoki ikkita raqam bilan tanishtirish mumkin.

Masalan, tarbiyachi „1“raqami bilan tanishtirishda sanoq kartochkasiga bitta o‘yinchoq qo‘yadi, ularning oldiga 1 ta doirali kartochkani qo‘yadi. 2 ta bolani chaqirib, biriga bir marta sakrash, ikkinchisiga bir marta stolni taqillatishni taklif etadi. Bolalar sanab, hammasi „bittadan 11 degan xulosa chiqaradilar.

Keyin „1“raqamini ko‘rsatib, bu sonni ko‘rsatuvchi shartli belgidir, har bir son o‘z belgisiga egadir, deb tushuntiradi. Bolalar bog‘chasi bilan boshlang‘ich sinf orasida uzviylik shundan iboratki, bular bir-birini to‘ldirib boradi. Bolalar predmetlarni (o‘yinchoqlar...) ustma-ust, tagma-tag terib qo‘yish, sanash orqali to‘plamlarning teng-notengligini aniqlaydilar. Raqamlar va ularning tenglik-notengligi munosabatlarini aniqlashda ishora belgilari foydalaniladi.

Raqamlarni o‘zlashtirish kichik sonlarning hosil bo‘lishiga doir mashqlar orqali amalga oshiriladi. Tarbiyachi 5 ta buyum qo‘yadi. So‘ngra 1 ta buyumni olib qancha qolganini raqam bilan ko‘rsatishni so‘raydi. 1 tadan buyumni olish to 0 raqamini ko‘rsatguncha davom ettiriladi.

Raqamlar yordamida bolalar keyingi (oldingi) soni aniqlash va aytishga o‘rgatiladi. Masalan, bolalarni aniqlash va aytishga o‘rgatiladi, masalan, bolalarga 6 raqami beriladi va keyingi sonni raqam bilan ko‘rsatish so‘raladi? 7 raqamini ko‘rsatib, oldingi sonni ko‘rsatishni so‘raladi va h.k.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni, shu jumladan, son va raqam tushunchalarini rivojlantirish ularning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatga erishishlarida muhim omil hisoblanadi. Shu sababli ham bolalarda son va raqam tushunchalarini shakllantirishda tarbiyachining ham o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizmini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli Qarori.

2.X.Yo. Najmiddinova. “Matematik tasavvurlari shakllantirish” o‘quv qo‘llanma. T: ”Yoshlar nashriyot uyi” - 2020. 164 bet.

3.M.E. Jumayev.”Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi”, o‘quv qo‘llanma. T: “Ilm Ziyo” nashriyoti – 2005. 223 bet.

4. Bikbayeva N.U. Ibragimova Z.I. Qosimova X.I. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shaklantirish» T. «O‘qituvchi» 1995y. 133 bet.

TASVIRIY FAOLIYAT VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

O‘zbekiston. Ulug‘berdiyeva D.Q.
O‘zbekiston NavDU Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
Toshmamatova L.G‘.
maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini takomillashtirish haqida bayon qilingan. Tasviriy faoliyat turlari maktabgacha yoshdagi har bir guruh bolalarining eng sevimli va qiziqarli mashg‘ulotlari sirasiga kiradi. Tasviriy faoliyat bolalar ijodkorligini oshirishda asosiy va muhum hisoblanadi. Ushbu maqolada ana shu jihatlar keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tasviriy faoliyat, ijodkorlik, san’at, madaniyat, yaratuvchanlik, tasavvur.

Аннотация: В статье описывается развитие творческих способностей у детей дошкольного возраста посредством изобразительной деятельности. Изобразительное искусство является одним из самых любимых и интересных занятий для детей всех дошкольных возрастов. Изобразительное искусство имеет основополагающее значение и играет важную роль в развитии творческих способностей детей. В данной статье эти аспекты рассматриваются подробно.

Ключевые слова: изобразительное искусство, творчество, искусство, культура, креативность, воображение.

Abstract: This article describes the improvement of creativity in preschool children through visual activities. Visual activities are among the most favorite and interesting activities of children of each group of preschool age. Visual activities are considered the main and important in improving children's creativity. These aspects are widely covered in this article.

Keywords: visual activities, creativity, art, culture, creativity, imagination.

Tasviriy faoliyat — bu bolalar uchun nafaqat o‘yin, balki o‘zlarini ifoda etishning, dunyoni tushunishning va yaratuvchanlikni rivojlantirishning muhim bir shaklidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tasviriy faoliyatning ahamiyati beqiyosdir, chunki ularning rivojlanishida bir qator muhim jarayonlarga ta'sir ko‘rsatadi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarida tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo‘lingan. Har bir rivojlanish sohasi o‘z o‘rnida kichik sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko‘rsatkichlaridan) iborat.

Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo‘yicha belgilanadi:

- ✓ jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ✓ ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- ✓ nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- ✓ bilish jarayonini rivojlanishi;
- ✓ ijodiy rivojlanish.[30] Davlat talablarida belgilangan ushbu sohalar bolalarning barcha jihatdan intelektual salohiyatini oshirishqa qaratilgan. “Ijodiy rivojlanish” sohasining dunyoni badiiy tasavvur etish, badiiy-ijodiy qobiliyatlar kichik sohalari asosida bolalar quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘ladi:
- ✓ san’at va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi;
- ✓ milliy an’analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi;
- ✓ san’atning muayyan turini afzal ko‘rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- ✓ olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;

[30]ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA QO‘YILADIGAN DAVLAT TALABLARI 18.06.2018

✓ insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi. Bolalar ijodiykorligini rivojlantirishda ushbu soha kompetensiyalari muhum hisoblanadi. Tasviriy faoliyat bolalarning aqliy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Rasm chizish, ranglar bilan ishlash va shakllar yaratish bolaga diqqatni jamlashni, tasavvurni rivojlantirishni va analitik fikrlashni o‘rgatadi. Masalan, bolalar rasm chizayotganda ular shakl, o‘lcham, nisbatan joylashish va tafovutlarni kuzatib boradilar. Bu ularning mantiqiy fikrlashini va kuzatish qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, tasviriy faoliyat bolalarga muammolarni hal qilishda yordam beradi. Masalan, bolalar rasm chizishda shakllarni qanday joylashtirishni yoki qanday ranglar bir-biri bilan uyg‘un bo‘lishini aniqlashda mantiqiy fikrlashni va yaratuvchan yondashuvni talab qiladi.

Bugungi kunda MTT tarbiyachilarining eng ustuvor vazifalaridan biri “Ijodkor bolani” tarbiyalashdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta’sir qiladi. Ijodkorlik yangi tadqiqot predmeti emas. Biroq, ilgari jamiyatda odamlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida ehtiyoj yo‘q edi. Iste'dodlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘ldi, adabiyot va san'at durdonalari, ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar yaratildi va shu bilan rivojlanayotgan insoniyat madaniyati ehtiyojlarini qondirdi. Bizning davrimizda vaziyat tubdan o‘zgardiyangi loyihalarni amalga oshirishda va yangi g‘oyalar ishlab chiqishda yordam beradi.

Emotsional va psixologik rivojlanish: tasviriy faoliyat bolalarda o‘zini ifoda etishning eng yaxshi vositalaridan biridir. Rasm chizish orqali bolalar o‘z his-tuyg‘ularini, xavotirlarini, quvonchlarini yoki hatto g‘azablarini ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu bolalar uchun o‘z hislarini boshqarish va ularni to‘g‘ri tushunish, shuningdek, ruhiy salomatlikni mustahkamlashda juda muhimdir.

Tasviriy faoliyat orqali bolalar o‘zining ichki dunyosini, fantaziyalarini va orzularini tashqi olamga chiqara olishadi. Shu bilan birga, ular o‘z his-tuyg‘ularini boshqalar bilan bo‘lishishni, o‘zida mavjud bo‘lgan qobiliyatlarni ko‘rsatishni o‘rganadilar.

Ijodiy va estetik rivojlanish: tasviriy faoliyat bolalar ijodini rivojlantirishda, ularning estetik didini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Bolalar tasviriy san'at orqali yangi obrazlar yaratishga, yangi kombinatsiyalarni sinab ko‘rishga va o‘z fikrlarini estetik tarzda ifodalashga o‘rganadilar. Bu jarayon ular uchun nafaqat qiziqarli, balki foydali bo‘lib, kelajakda estetik ko‘rish va tasavvur qilish qobiliyatini shakllantiradi. Shuningdek, tasviriy faoliyat orqali bolalar san'at va tabiatni yaxshiroq tushunadilar. Masalan, rasm chizish orqali bolalar o‘z atrof-muhitiga, tabiatdagi ranglarga va shakllarga diqqat bilan qarashni o‘rganadilar. Bu ularning estetik sezgirligini oshiradi va ularning go‘zallikni tushunish darajasini kengaytiradi.

Sosial va kommunikativ rivojlanish: tasviriy faoliyatning yana bir muhim jihati shundaki, u bolalar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Guruhda ishlash, birgalikda rasm chizish yoki boshqa tasviriy faoliyatlarda ishtirok etish bolalar o‘rtasida hamkorlikni, muloqot qilishni va fikr almashishni rivojlantiradi. Bu jarayon bolalarga ijtimoiy qoidalar va normalarni o‘rganishga, boshqalar bilan birgalikda ishlashni va bir-birini tushunishni o‘rganishga yordam beradi.

Kreativlikni rivojlantirish: tasviriy faoliyatning yana bir muhim jihati shundaki, u bolalarda kreativlikni rivojlantiradi. Bolalar rasm chizishda yoki boshqa tasviriy san'at faoliyatlarida o‘zlarini ifodalash orqali yangi g‘oyalar yaratadilar. Bu ijodiy fikrlashni va yangi, original yechimlarni topishni o‘rgatadi.

Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida nafaqat san'atni o‘rgatish, balki ular o‘z his-tuyg‘ularini, fikrlarini, va g‘oyalarini ifodalashning eng muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu faoliyat bolalarning kognitiv, psixologik, estetik, va ijtimoiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Tasviriy faoliyat orqali bolalar o‘zini, dunyoni va boshqalarni yaxshiroq tushunishga, yaratuvchanliklarini rivojlantirishga va o‘z hayotlariga mazmun qo‘shishga imkoniyat topadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Maktabgacha pedagogika” F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo‘latova, N.M. Kayumova, M.N. A’zamova. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T. 2019

2. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020.
3. Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi. - T.: Cho‘lpon, 2010.
4. Shaxnoza Xasanova “Tasviriy faoliyatga o‘rgatish nazariyasi va metodikasi” o‘quv qo‘llanma-T.: Tafakkur, 2020.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA ALOHIDA TA’LIMGA EHTIYOJI BO‘LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR

O‘zbekiston. Xasanboyeva Gulbahor Nasrullayevna
O‘zbekiston, MTTDMQTMOI Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan ta’lim- tarbiyasi va korreksion ishlarda qo‘llaniladiga usul va metodlar berib o‘tilgan.

Abstract: In this article, methods and methods used in education and correctional work with children with special needs are given.

Аннотация: В данной статье приведены методы и приемы, используемые в воспитательно-коррекционной работе с детьми с особыми потребностями.

Kalit so‘zlar: korreksiya, dizartriya, reabilitatsiya,adabtatsiya, kompensatsiya, anatomik – fiziologik, mexanizm, artikulyatsion apparat.

Key words: correction, dysarthria, rehabilitation, adaptation, compensation, anatomical-physiological, mechanism, articulation apparatus.

Ключевые слова: коррекция, дизартрия, реабилитация, адаптация, компенсация, анатомо-физиологический, механизм, артикуляционный аппарат.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rolni o‘ynaydi, shuning uchun ularga ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘z xizmatlarini taqdim qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmlarini, ya‘ni nutq faoliyatining tuzilishi va ishlashi jihatidan tashkil etilishini bilish, birinchidan, nutqning murakkab mexanizmini normada tasavvur qilish, ikkinchidan, nutq buzilishi tahliliga differensial yondoshish, uchinchidan, tuzatuvchi ta‘sir yo‘llarini to‘g‘ri belgilashga imkon beradi. Nutq insonning murakkab oliy psixik funksiyalaridan biridir. Nutq harakatlari murakkab a‘zolar tizimi orqali amalga oshiriladiki, bunda bosh miya faoliyati asosiy rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta‘lim uzluksiz ta‘lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida tashkil etiladi. Maktabgacha ta‘lim sog‘lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta‘lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta‘lim bola 6-7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. So‘nggi yillarda maktabgacha ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, jismoniy yoki rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixitisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun bir qancha qonun va qarorlar, farmoyishlar qabul qilingan. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkiloti ta‘lim tarbiya berish, korreksion-pedagogik va davolash– sog‘lomlashtirish faoliyatini olib boruvchi tashkilot hisoblanadi. Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ularni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalash, nuqsonlarni korreksiyalash, imkoniyatiga muvofiq maktab ta‘lim tarbiya tayyorlash, jamiyatga moslashuviga ko‘maklashish maqsadida tashkil etiladi.

Quyidagilar ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotining vazifalari hisoblanadi:

- Maktabgacha ta‘lim ga qo‘yiladigan davlat talablari hamda ular asosida ishlab chiqilgan ixitisoslashtirilgan Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim tarbiya va sog‘lomlashtirish ishlariga

qo‘yiladigan talablarga muvofiq bolalarning ta‘lim tarbiya olishlarini va korreksion -pedagogik ishni ta‘minlash;

- Korreksion ta‘lim tarbiya jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, individual tarzda tashkil etish;
- Bolaning ijtimoiy hissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlari shakllanishi uchun zarur korreksion–rivojlantiruvchi ta‘lim - tarbiya muhitini yaratish;
- Bolaning jismoniy yoki psixik rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun zaruriy korreksion-pedagogik ishni tashkillashtirish;
- Bolalarni ijtimoiy hayotga va maktab ta‘lim tarbiya sifatli tayyorlash.
- Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotiga jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan 3-7 yoshdagi bolalarning quyidagi toifalari qabul qilinadi:
- Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar;
- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar;
- Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar;
- Ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar;
- Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar;
- Tayanch harakatlanish a‘zolarida nuqsonlari bo‘lgan bolalar.

Bugungi kunda maxsus maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida alaliya, bolalar afaziyasi, rinolaliya, dizartriya, duduqlanish nutq buzilishlariga ega bo‘lgan bolalar ta‘lim tarbiya olmoqdalar.

Alaliya - bosh miya qobig‘idagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organ shikastlanishi natijasida nutqning yo‘q bo‘lishi yoki rivojlanmay qolishi.

Afaziya - bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog‘liq holda nutqning to‘liq yoki qisman yo‘qolishi.

Rinolaliya - tovush tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlar bilan bog‘liq holdagi buzilishdir.

Duduqlanish - nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur‘at-ohangning buzilishidir.

Dizartriya - nutq apparati innervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir.

Bugungi kunda dizart¬riya nutq nuqsonini aniqlashdagi logopedik nazariyalar va amaliyoti dizartriya nutq nuqsonlarning yengil turlarini ochib bera oladi. Uni ta‘riflash uchun turli atamalar qo‘llaniladi, yengil, organik yoki murakkab dislaliya.

Shu tariqa dizartriyaning yengil darajasida nafaqat tovushdagi nuqson, balki tovushni ifodalash va uning vositalarini o‘z ichiga olgan barcha komponentlarining o‘zaro hamkorlikda taqdim etiladigan nutqning fonetik jihatdan ham tushuniladi. Maktabgacha yoshdagi dizartriyaning yengil darajasiga ega bo‘lgan bolalarda fonetik-fonematik nutq kamchiliklari kuzatiladi. Bunda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar, fonematik eshituv, fonematik idrokdagi, tovushlarni analiz-sintez qilishdagi kamchiliklar kuzatiladi. Dizartriyaning asosiy belgilari bular nutqiy artikulyatsiya motorikasi va nutqiy nafas bilan bog‘liq bulgan tovushlar talaffuzi va ovoz nuqsonlaridir. Dizartriyada dislaliyadan farqli ravishda ham unli, ham undosh tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Dizartriya nutq kamchiligida buzilishlarning turlariga ko‘ra barcha nuqsonlar quyidagilarga bo‘linadi:

a) tovushni buzib talaffuz kilish;

b) tovushni nutqda yo‘qligi, tovushni boshqa tovush bilan almashtirish, differensiallanmagan talaffuz.

Fonologik nuqsonlarda tovushlarni akustik va artikulyatsion xarakteristikasini noaniqligi kuzatiladi. Shuning uchun ko‘p hollarda yozma nutqda ham kamchiliklar kuzatiladi. Maktabgacha yoshdagi dizartriya nutq nuqsonining yengil darajasiga ega bo‘lgan bolalarda fonetiko-fonematik nutq kamchiliklari respublikamizda o‘rganilmaganligi, mazkur mavzu bo‘yicha o‘zbek tilida adabiyotlarning yetarli bo‘lmasligi ayni vaqtda ta‘limni muammoga muayyan e‘tiborning kuchaytirilishiga sabab bo‘lmoqda.

Mashg‘ulotlar jadvali 5 kunlik ish kuniga mo‘ljallab tuzilib, defektolog va tarbiyachilar tomonidan nutq o‘stirish, tevarak atrof bilan tanishtirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, matematika, to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish, tasviriy faoliyat bilan tanishtirish, qurish-yasash, mehnat, jismoniy tarbiya, o‘yin mashg‘ulotlari olib boriladi. Shuni unutmaslik kerakki, maqsadga erishish uchun muayyan korreksion ta‘lim tarbiya ishlarga kompleks yondoshilib, ya‘ni davolash tadbirlarini pedagogik ish jarayoni bilan chambarchas bog‘lab olib borish kerak.

Ishning asosiy yo‘nalishlari:

1. Somatik holatni kuchaytirish.
2. Umumiy, mayda, artikulyatsion, mimik motorikalarni rivojlantirish.
3. Tovushlarni to‘g‘ri talaffuzini shakllantirish.
4. Nutqning leksik va grammatik va bog‘langan nutq ustida ishlash.
5. Nutqning ovoz madaniyati ustida ishlash (fonemik eshitish va idrokni rivojlantirish).

Yakka mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi:

Nutqda tovushlar talaffuzining buzilishlari, dislaliya, dizartiya va boshqalarga xos bo‘lgan artikulyatsion mashqlar to‘plamini tanlash va undan foydalanish yakka mashg‘ulotlarda logoped tomonidan bola bilan hissiy aloqani o‘rnatish, ovozli nutqning sifatini nazorat qilishni faollashtirish, nutq nuqsonini tuzatish, nevrotik reaksiyalarni yumshatish. Bu mashg‘ulotlarda nutqida nuqsoni bo‘lgan bola o‘rganilayotgan har bir tovushning to‘g‘ri artikulyatsiyasini o‘zlashtirishi va osonlashtiriladigan fonetik sharoitlarda mustahkamlashi kerak: ajratilgan holda, to‘g‘ri va teskari bo‘g‘inlarda, tuzilishi qiyin bo‘lmagan bo‘g‘inli so‘zlarda. Shunday qilib, bola kichik guruh mashg‘ulotlarning mazmunini o‘zlashtirishga tayyor bo‘ladi.

Guruhli mashg‘ulotlarning asosiy maqsadi:

Jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini tarbiyalash, mashg‘ulotlarda bolalar o‘z tengdoshlarining nutqiy jumlalarining sifatini yetarlicha baholashni o‘rganishlari kerak. Guruhli mashg‘ulotlar ochiq tizim bo‘lib, bunda logoped ihtiyori bilan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda maktabgacha yoshdagi bolalarning yutuqlari dinamikasiga bog‘liq.

Dasturni shakllantirish tamoyillari va yondashishlari

Bolalar bilan ishlashning asosiy shakli o‘yin faoliyatidir. Barcha tuzatish va rivojlantirish ishlari yakka, kichik guruhli, guruhli integratsiyalashgan mashg‘ulotlar, ish dasturiga muvofiq, o‘yinli, turli hil o‘yinlarga boy va o‘yin mashqlarini rivojlantiradi va hech qanday holatda maktab ta‘limini takrorlamaydi.

Logopedning ish dasturida belgilangan tuzatish, rivojlantirish va tarbiyaviy vazifalarning bajarilishi, pedagogik va tibbiyot mutaxassislari va bolalarning ota-onalari bilan hamkorlikdagi kompleks birlashtirish orqali ta‘minlanadi. Integratsiya tamoyilining amalga oshirilishi bolalarning nutqiy rivojlanishining yuqori sur‘atlari va rivojlanishiga, har bir bolaning ijodiy imkoniyatlarini yanada to‘liqroq ochib berishga yordam beradi. Tabiatan bolalarga xos bo‘lgan qobiliyatni logoped, tibbiyot xodimi, musiqa o‘qituvchisi, psixolog, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, tarbiyachilar va maktabgacha yoshdagi ota-onalarning birgalikdagi ishini ta‘minlaydi.

Dastur bo‘yicha nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda korreksion - logopedik ishlarni muvaffaqiyatli olib borishda quyidagilarni hisoblash mumkin:

- bola og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalaridan yetarlicha foydalanadi: ona (rus) tilining barcha tovushlarini lingvistik normaga muvofiq, to‘g‘ri talaffuz eta oladi, nutq davomida to‘g‘ri nafas olishni, nutq ritmini va intonatsiyani amalga oshira oladi;

- bola tarbiyaviy faoliyatning universal shartlarini - qoidaga va modelga muvofiq ishlash qobiliyatini, kattalarni tinglash va uning ko‘rsatmalariga amal qilish qobiliyatini: unli va undosh tovushlarni, jarangli va jarangsiz undoshlarni farqlay bilish qobiliyatiga ega; so‘z; berilgan tovushning so‘zdagi holati; berilgan tovushlar bo‘yicha so‘zlar bilan to‘ldiriladi va 3-4 tovushlar, bo‘g‘inlar, so‘zlarning zanjirlarini to‘g‘ri takrorlaydi, mustaqil ravishda har hil bo‘g‘inli tuzilmalar so‘zlarining tovushlar analiz - sintezini amalga oshiradi;

- bola aloqa vositalariga va o‘zaro ta‘sir qilish usullariga ega, kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga qarab muloqot tarzini o‘zgartira oladi: nutqning turli qismlari, so‘zlar ma‘nosining o‘ziga xos xususiyatlarini, so‘z va iboralarning ko‘chma ma‘nosi bilan bog‘liq yangi so‘zlarni o‘rganadi.

Yangi so‘zlarni shakllantiradi, so‘zlarni ko‘plik, birlik, zamonda (hozirgi zamon, o‘tgan zamon, kelasi zamon) nutqda qo‘llaydi. Jumlalardagi kamchiliklarni tuzatadi. Bola mustaqil ravishda rasmdan, rasmlar seriyasidan hikoyalar tuzadi, kengaytirilgan jumladan foydalanib matnlarni takrorlaydi;

- nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ota-onalari, tarbiyachi va logoped murakkab mashg‘ulot jarayonida o‘zaro munosabatda bo‘lishadi, natijada bu bola o‘zi, oila, jamiyat, davlat, dunyo va tabiat to‘g‘risida boshlang‘ich g‘oyalarni shakllantiradi: yosh imkoniyatlariga muvofiq lug‘at takomillashtiriladi va umumlashtiriladi, nutqning grammatik tuzilishi shakllantiriladi, leksik mavzular maktabgacha ta‘lim tashkilotining o‘quv dasturiga muvofiq yetarlicha rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurkeldiyeva D.A., Chicherina Ya.Ye. Ilk, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopediya tekshirish. T.: Yangi asr avlodi, 2007.
2. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika. Pod redaksiyey I.Yu.Levchenko i S.D.Zabramnoy. M., ACADEMA, 2005.
3. Ayupova M.Yu. Logopediya. T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007.International Journal of Multidisciplinary Research and Development,

THE IMPORTANCE OF TEACHING AND LEARNING FOREIGN LANGUAGES IN PRESCHOOL EDUCATION

O ‘zbekiston. Xudoyarova Dildora Najmidinovna
Navoi State University
Scientific advisor: Acting Associate Professor,
Interfaculty Department of Foreign Languages
Valiqulova Dinora Sharofovna
2nd-year student of the Faculty of History,

Abstract: This article explores the significance of teaching and learning foreign languages in preschool education. It highlights innovative strategies such as game-based learning, multimedia education, and artificial intelligence applications that enhance language acquisition at an early age. Additionally, the study examines the role of foreign languages in preparing children for future careers, their impact on intellectual development, and their contribution to interdisciplinary learning. The findings suggest that multilingual education fosters cognitive abilities, creativity, and social adaptability, ultimately equipping children with essential skills for global competitiveness.

Keywords: *Foreign language education, preschool learning, bilingualism, cognitive development, interdisciplinary learning, multilingual education, language acquisition, innovative teaching methods*

The preschool period is a crucial stage in children's intellectual, social, and emotional development. During these formative years, children develop foundational skills that influence their ability to learn, think critically, and interact with others. One of the most effective ways to enhance their cognitive growth is by introducing foreign language education at an early age. Numerous studies suggest that early exposure to multiple languages not only improves linguistic proficiency but also strengthens problem-solving skills, enhances creativity, and fosters cultural awareness. Children in preschool naturally possess a heightened ability to absorb new languages due to their brain's plasticity. This innate ability allows them to acquire foreign languages more effortlessly compared to older learners. By incorporating innovative teaching methods such as play-based learning, interactive multimedia tools, and immersive experiences, educators can create a stimulating and engaging environment that encourages language acquisition. When discussing innovative strategies for teaching foreign languages, preschool-aged children naturally have the ability to acquire new languages quickly and effectively. Therefore, the following innovative strategies are applied to make this process more efficient and engaging: Game-based learning – making the learning process enjoyable and encouraging children to actively participate; Multimedia

education – teaching through audio, video, and interactive programs; Communicative approach – involving children in real communication environments; Integrative learning – teaching foreign languages in connection with other subjects (mathematics, art, and environmental studies); Artificial intelligence and technological tools – facilitating foreign language learning through interactive platforms for children.

Furthermore, learning foreign languages at a young age serves as a stepping stone for future academic and professional success. In an increasingly globalized world, multilingualism has become a valuable asset, providing children with opportunities to communicate effectively in diverse settings. Proficiency in multiple languages also increases access to higher education, international career prospects, and cross-cultural collaborations.

In the modern world, the international job market values language proficiency as a crucial factor. Therefore, learning one or more foreign languages from an early age contributes to children's future professional success. Research shows that children growing up in a multilingual environment develop analytical thinking, creative approaches, and problem-solving skills (Garcia & Wei, 2014). Additionally, knowing foreign languages opens doors to international education and scientific research opportunities. Learning foreign languages positively impacts children's intellectual development: Strengthening memory, Enhancing problem-solving skill, Expanding creative thinking, Developing emotional intelligence and adaptability. According to research, children who know two or more languages tend to achieve greater academic success (Bialystok, 2011). Moreover, such children possess social adaptability, enabling them to communicate freely beyond their cultural sphere. Multilingual education can also increase children's overall IQ levels. Additionally, integrating foreign language education into preschool curricula promotes interdisciplinary learning. By connecting language acquisition with subjects like mathematics, science, and the arts, educators can enhance comprehension and knowledge retention in multiple disciplines. This holistic approach prepares children for a well-rounded education, equipping them with essential skills for lifelong learning. Interdisciplinary education integrates different subjects to provide children with deeper knowledge. For example: Teaching about animals and plants in a foreign language in environmental studies; Exploring foreign cultures through art classes; Expanding foreign language usage opportunities with the help of technology; Using foreign languages in physical education lessons to combine movement and communication.

Teaching foreign languages in preschool education significantly impacts children's intellectual development, their preparation for future careers, and the quality of education. Through innovative approaches and interdisciplinary integration, children not only acquire foreign languages more quickly but also lay a solid foundation for becoming competitive specialists in the global market.

This article highlights innovative methods for teaching foreign languages in preschool education, examining their impact on children's intellectual capital and their role in interdisciplinary learning. By understanding and implementing effective strategies, educators and parents can lay a strong foundation for children's cognitive and social development, ultimately shaping them into global citizens prepared for the challenges of the future.

References:

1. Bialystok, E. (2011). *Reshaping the Mind: The Benefits of Bilingualism*. Canadian Journal of Experimental Psychology, 65(4), 229–235.
2. Garcia, O., & Wei, L. (2014). *Translanguaging: Language, Bilingualism and Education*. Palgrave Macmillan.
3. Cummins, J. (2008). *Bilingual Education and the Benefits of Linguistic Diversity*. Multilingual Matters.
4. Baker, C. (2011). *Foundations of Bilingual Education and Bilingualism*. Multilingual Matters.

5. Genesee, F. (2016). *The Cognitive Advantages of Early Bilingualism*. Journal of Child Language, 43(5), 1206–1218.
6. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). *How Languages are Learned*. Oxford University Press.
7. Peal, E., & Lambert, W. E. (1962). *The Relation of Bilingualism to Intelligence*. Psychological Monographs: General and Applied, 76(27), 1–23.
8. Dewaele, J. M. (2010). *Emotions in Multiple Languages*. Palgrave Macmillan.
9. Swain, M., & Lapkin, S. (2005). *Bilingualism and Second Language Learning: Cognitive and Linguistic Perspectives*. Cambridge University Press.
10. Macaro, E. (2018). *English Medium Instruction: Content and Language in Policy and Practice*. Oxford University Press.

BOLALARNING QOBILIYATINI ,TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI.

O‘zbekiston. Haydarova Dilafruz Inoyatulloyevna
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi,
Esirgapova Nazokat Mansurovna Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3 kurs talabasi

Annotatsiya. Bolalar uchun didaktik o‘yin nafaqat bolalar tomonidan olingan bilimlarni tushunishni ma'lum qiladi, balki o‘ziga xos faol kognitiv faoliyat shaklidir. Shuning uchun o‘yinni ta‘lim jarayoniga to‘g’ri kiritish va uning barcha samarali xususiyatlaridan foydalanish juda muhimdir. Didaktik o‘yinlar yordamida bolalar mustaqil fikrlashga, olingan bilimlarni berilgan topshiriq bo‘yicha turli vaziyatlarda qo‘llashga o‘rganadilar. Maktabgacha yoshdagi bola o‘yin faoliyatiga muhtoj, bu esa o‘yindan ta‘lim vazifasi sifatida foydalanishga imkon beradi.

Аннотация. Проблема, рассматриваемая в данном проекте по действующей программе, заключается в том, что дидактическая игра для детей не только способствует пониманию полученных детьми знаний, но и сама по себе является формой активной познавательной деятельности. Поэтому очень важно правильно включать игру в образовательный процесс и использовать все ее эффективные возможности. С помощью дидактических игр дети учатся самостоятельно мыслить, использовать полученные знания в разных ситуациях согласно поставленной задаче. Ребенку дошкольного возраста необходима игровая деятельность, позволяющая использовать игру как учебную задачу.

Abstrakt.The problem considered in this project according to the current program is that the didactic game for children not only informs the understanding of the knowledge acquired by children, but is also a form of active cognitive activity in its own right. Therefore, it is very important to properly include the game in the educational process and use all its effective features. With the help of didactic games, children learn to think independently, to use the acquired knowledge in different situations according to the given task. A child of preschool age needs play activity, which makes it possible to use the game as an educational task.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yin, aqliy tarbiya, olimlar, aqliy rivojlanish, matematika, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya.

Ключевые слова: дидактические игры, интеллектуальное воспитание, ученые, психическое развитие, математика, нравственное воспитание, физическое воспитание.

Keywords: didactic games, intellectual education, scientists, mental development, mathematics, moral education, physical education.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Zamonaviy maktabgacha ta‟lim sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o„rin tutadi” deya ta‘kidlaydi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta‘limiga tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu albatta davlat rahbarining maktabgacha ta‘lim sohasida chiqarayotgan qarorlari va e‘tiborlari natijasidir. Shu o‘rinda haqli bir savol tug’iladi. Qanday qilib ta‘lim jarayonini mushkullikdan

quvonchli jarayonga aylantirsa bo‘ladi? Shuni aytib o‘tish joizki, sifatli ta‘lim birinchi navbatda ta‘lim beruvchi tarbiyachi, pedagogning kasbiy mahoratiga bog’liqdir.

O‘yin, xususan, didaktik o‘yin bolalarda ijtimoiy hayot hodisalariga, tabiatga, tevarak-atrofdagi dunyo ob'ektlariga to‘g’ri munosabatni shakllantiradi, ularning Vatan, turli kasblar, millat vakillari haqidagi bilimlarini tizimlashtiradi va chuqurlashtiradi. Didaktika haqida tushuncha. Didaktika – qadimgi yunoncha so‘z bo‘lib, didaktikos – o‘qituvchi, didaskalos – o‘qituvchi ma‘nosini bildiradi. Didaktika - ta‘lim va tarbiyaning nazariy va uslubiy asoslarini o‘rganuvchi pedagogika fanining bir tarmog’i. Didaktika ta‘lim va tarbiya mazmunini, o‘qitish tamoyillarini, o‘qitishni tashkil etish usullari va shakllarini ko‘rib chiqadi.

Didaktika asosida alohida fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari ham o‘rganiladi. Chex o‘qituvchisi Yan Amos Kamenskiy (1592-1670) didaktikaning ilmiy asosini yaratdi. Uning «Buyuk didaktika» (1632) kitobida o‘qitishning maqsadi, usullari va tamoyillari hamda sinf tizimi yoritilgan. 19-asr Nemis o‘qituvchisi Fridrix Vilgelm Adolf Distervek (1790 -1966) o‘qitish didaktikasini ishlab chiqdi va tavsifladi. U ta‘lim jarayonida 4xil qoidadan foydalanish qobiliyatini ta‘kidlagan: ko‘rinish, jozibadorlik, ishtiyoq, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, yaqindan uzoqqa, osondan murakkabga o‘tish va hokazo.

Didaktik o‘yinlar, nomidan ko‘rinib turibdiki, bola ongini rivojlantirish va tushunchalarni farqlash usullaridan biridir. Didaktik o‘yinlar - o‘rganish maqsadini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan o‘yinlar. Didaktik o‘yinlar o‘quvchining kuzatuvchanligi, tasavvuri, xotirasi, nutqi, fikrlash qobiliyati, hissiy yo‘nalishini rivojlantiradi. O‘yin davomida bolalar yangi bilim va usullarni o‘rganishlari kerakligini ham tushunadilar. A.Qunanboyev: “Bolalar yoshligidanoq o‘z-o‘zidan o‘rganishni xohlamaydi. Bolalarda bilimga bo‘lgan ishtiyoq paydo bo‘lguncha ularni majburlash orqali o‘rgatish kerak.» O‘yinga qiziqqan bola o‘rganayotganini sezmasligi ham mumkin, lekin bola harakatlarini qayta qurishda qiynaladi (avtodidaktizm fenomeni). O‘yin davomida bola qo‘lidan kelganini qilishga harakat qiladi. Didaktik o‘yin o‘quv qurollari yoki o‘quv faoliyati davomida qo‘llaniladigan usul emas. Didaktik o‘yin ko‘p rejali, qiyin pedagogik hodisa bo‘lib, u bolalarni o‘yin usuli orqali o‘rgatadi, u ta‘lim va mustaqil o‘yin o‘ynash, bolalarni har tomonlama rivojlantirish shaklidir. Didaktik o‘yin, o‘yin usuli sifatida, ikki jihatni ko‘rib chiqadi.

O‘yin-ta‘lim faoliyati. Bu o‘yinda asosiy rolni o‘qituvchi bajaradi, o‘qituvchi turli usullardan foydalanadi, o‘yin vaziyatini yaratadi, raqobat elementlaridan foydalanadi. O‘qituvchi faqat o‘yin davomida o‘ynamaydi, bolalarga ma'lum bilim beradi, o‘yin ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Didaktik o‘yinlar matematikada, tilni rivojlantirishda, atrof-muhit bilan tanishtirishda, hissiy madaniyatni rivojlantirishda qo‘llaniladi. O‘qituvchi bu erda ham o‘qituvchi, ham futbolchi sifatida. U o‘ynashni o‘rgatadi, bolalar esa o‘ynab o‘rganadilar. Agar o‘rganish jarayonida atrof-muhit haqidagi bilimlarni rivojlantirish chuqurlashtirilsa, didaktik o‘yinda bolalar uchun topishmoqlar, takliflar va savollar sifatida foydalanish mumkin. Didaktik o‘yin shaxsiy o‘yin faoliyati sifatida ushbu o‘yin faoliyati tajribasi sifatida qaraladi Didaktik o‘yin bu jarayonni mustaqil o‘yin faoliyati sifatida boshdan kechirishga asoslangan.

Agar bolalar o‘yin va qoidalarga qiziqsa, ular ushbu qoidalarni o‘zlashtirsalar, mustaqil o‘yin amalga oshiriladi. Agar o‘yin mazmuni unga tanish bo‘lsa, bola qachongacha unga qiziqishi mumkin? Bu deyarli bevosita ish jarayonida hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo. Bolalar o‘yinlarni yaxshi ko‘radilar, ular zavq bilan o‘ynashadi. Qoidalari bolalarga ma'lum bo‘lgan xalq o‘yinlari buni isbotlashi mumkin: «Rasm», «Bekinmachoq» va boshqalar.Har bir bunday o‘yinda harakatga qiziqish bor. Masalan, «Rasmlar» o‘yinida siz rang tanlashingiz kerak. Odatda, bolalar o‘zlarining sevimli va ajoyib ranglarini tanlaydilar: oltin, kumush. Rangni tanlagan bola haydovchiga yaqinlashadi va uning qulog’iga rang nomini pichirlaydi. «Yo‘l bo‘ylab bir oyoq bilan yuring», deydi haydovchi o‘yinchilar orasida etishmayotgan rangni nomlagan kishiga. Bolalar uchun juda ko‘p qiziqarli o‘yinlar mavjud! Shuning uchun bolalar doimo shunday o‘yinlarni o‘ynashadi.

Didaktik o‘yinlar bolalar nutqini rivojlantiradi: ularning so‘z boyligi boyib, faollashadi, tovushlarni to‘g’ri talaffuz qilish shakllanadi, bog’langan nutq rivojlanadi, o‘z fikrlarini to‘g’ri ifodalashga odatlanadi. Ko‘pgina o‘yinlarning didaktik vazifalari bolalarni mustaqil ravishda oddiy hikoya tuzishga o‘rgatadigan tarzda tuzilgan. Juda ko‘p o‘yinlar jarayonida tafakkur va nutqning

rivojlanishi uzviy bog’liqdir. Bolalar o‘ynaganda, bahsli masalalarni hal qilganda va gaplashganda nutq faollashadi.Yosh bolalar bilan ishlashda didaktik o‘yinlarning asosiy mazmuni bolalarni madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarga, xulq-atvor madaniyatiga o‘rgatishdir. Bular mashhur amaliy o‘yinlar: «Qo‘g’irchoqni uyquga qo‘ying», «Qo‘g’irchoqning nonushtasi», «Keling, qo‘g’irchoqni sayrga kiyintiramiz» va boshqalar. gigienik ko‘nikmalar, xatti harakatlar normalari, shuning uchun ular ijobiy o‘yin munosabatlarini rivojlantiradilar. Bolalarning o‘yindagi xatti-harakatlarini kuzatish orqali biz bolani uning harakatlari orqali kashf qilishimiz mumkin.

O‘yin yoqimli hissiy yuksalish yaratadi, sizni yaxshi his qiladi va ayni paytda asab tizimida ma'lum bir kuchlanishni talab qiladi. O‘yin vaqtida bolalarning jismoniy faolligi bolaning miyasini rivojlantiradi. Didaktik o‘yinchoqlar bilan o‘yinlar ayniqsa muhimdir, bu davrda qo‘lning kichik mushaklari rivojlanadi va mustahkamlanadi, bu bolalarni aqliy rivojlanishga tayyorlaydi, bolaning qo‘lini yozishga, tasviriy faoliyatga, ya'ni kelajakdagi maktab o‘qishiga tayyorlaydi.Yosh avlod tarbiyasi uchun jamiyat mas‘uliyati chuqur his etilayotgan bugungi kunda mustaqil mamlakatimiz ta‘lim tizimida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlar ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish yo‘lida barcha imkoniyat va resurslardan foydalanishdan iborat. jarayon.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning faolligini oshirishda o‘yinning asosiy maktabgacha faoliyati o‘yin bo‘lib, o‘quv va ta‘lim jarayonida ular asta-sekin o‘yin faoliyatidan o‘rganish (idrok) faoliyatini amalga oshirishga moslashishi kerak. Dars davomida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. Didaktik o‘yinlar o‘ziga xos maqsadga ega va aniq vazifalarni hal qiladi. O‘yinning maqsadi - bilim, ko‘nikma,U malakalar haqida tushuntirish berish, ularni shakllantirish, umumlashtirish va aniqlashtirish yoki tekshirish xarakteriga ega. O‘yinning vazifasi bolaning qiziqishini uyg’otish va uning faolligini oshirish uchun tanlangan aniq tarkib bilan belgilanadi.

Xulosa: Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati katta.Ya'ni, bola uchun o‘yin uning birinchi ishi. Shuning uchun bola bilan ishlashning eng samarali usuli bu o‘yindir. O‘yin orqali bolalarning qobiliyati, tafakkuri, bilimini rivojlantirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish qobiliyatini rivojlantirishda matematikaga qiziqishni oshirish maqsadida matematikani o‘qitish usulini didaktik o‘yinlar orqali ishlab chiqishni samarali deb topdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Bolangiz maktabga tayyormi?” O‘z. Res. Xalq ta‘limi vazirligi Respublika ta‘lim markazi, Ma‘rifat-Madadkor nashriyoti.
2. Alimova G., Alimova E. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tafakkur jarayonini rivojlanishi. Pespublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent- 2012.
3. Erkayev A. Yosh avlodni tarbiyalash ustivor vazifa. MT jurnali 4-son 2012.
4. www.pedagog.uz
5. www.edu.uz

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASSALARIDAN OLIY TA`LIMGACHA TIZIMLI O‘QUV DASTURIDA MADANIY XUSUSIYATLARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI VA AHAMIYATI

O‘zbekiston Xodjayeva Dildora Yusupovnaning
Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti
Ingliz tili amaliy kurs kafedrasi ingliz tili o‘qituvchisi
dildoradildora8686@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'lim jarayonidagi o‘quv dasturi va madaniy xususiyatlarning ahamiyatini o‘rganadi. Dunyoning globallashuv jarayoni va raqamlashtirishning ta'lim yo‘nalishiga ta'siri yoritilgan. O‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarning muhimligi, hamkorlikda ta'lim uslublarining o‘rni, shuningdek, zamonaviy ko‘nikmalar va madaniy tafovutlar haqida fikr yuritiladi. Ushbu tadqiqot, oliy ta’limdan maktabgacha ta'lim bosqichlarda bolalarning o‘qish va o‘rganish jarayonlarida qanday qilib muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, madaniy xususiyatlar,globallashuv, raqamlashtirish, hamkorlik ta'limi, 21-asr ko‘nikmalari, kognitiv rivojlanish

Annotation: This article explores the significance of curriculum and cultural characteristics in the educational process. It discusses the impact of globalization and digitization on educational practices. The importance of the relationship between teachers and students, the role of collaborative teaching methods, and the significance of modern skills and cultural differences are examined. This research demonstrates how children can achieve success in the learning processes across different educational stages, from higher education to preschool.

Keywords: Education, cultural characteristics, globalization, digitization, collaborative teaching, 21st century skills, learning process, cognitive development

Аннотация:В данной статье рассматривается значимость учебного плана и культурных характеристик в образовательном процессе. Обсуждается влияние глобализации и цифровизации на образовательные практики. Изучается важность отношений между преподавателями и студентами, роль методов совместного обучения, а также значимость современных навыков и культурных различий. Это исследование демонстрирует, как дети могут добиться успеха в процессах обучения на различных образовательных этапах — от высшего образования до дошкольного обучения.

Ключевые слова: Образование, культурные характеристики, глобализация, цифровизация, совместное обучение, навыки 21 века, процесс обучения, когнитивное развитие

Dunyoning globallashuv jarayoni keskin o‘zgarishlarga olib kelmoqda, har bir sohani raqamlashtirish davr talabiga aylanmoqda, chunki bir tugmachani bosish orqali odamlar keng miqyosda ma'lumotlarni o‘zlashtirmoqdalar. Bundan tashqari, bunday texnologik o‘sish jarayoni, kundalik hayotimizda foydalanilayotgan gadjetlar, jismoniy va aqliy faoliyatlarni kamaytirmoqda va munosabatlararo to‘qnashuvga olib kelmoqda. Sun'iy intellekt ko‘pgina sohalarni egallashi mumkinligi haqida ko‘plab misollar va dalillar keltirilmoqda. Biroq, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi munosabatlar haligacha muhim ahamiyatga ega. «Ta'lim» sohasining yordami bilan haligacha virtual va haqiqiy dunyolar o‘rtasidagi afzalliklar va kamchiliklar o‘rtasida muvozanatni saqlash mumkin; bu bolalarga atrof-muhitdagi texnologiyalardan qanday foydalanishni o‘rgatish madaniyatini o‘quv dasturlariga tizimli joylash orqali yoritib boriladi. Bu dasturiy tizim yaratilishida talabaning ichki dunyosini tushunish ko‘plab savollarni keltirib chiqaradi, va bu o‘qituvchilar oldida eng murakkab vazifa hisoblanadi. Avvalambor, o‘quv dasturlari talabalarning yoshi, qiziqishlari va dunyoqarashi kabi muhim jihatlardan kelib chiqib yaratilishini anglatadi. Bundan tashqari, joyning madaniy xususiyatlari ham muhimdir, shuningdek, zamonaviy ko‘nikmalar o‘quv dasturlarining samaradorligini oshirishi zarur.

Suzanne S. Huddning ta’kidlashicha, hamkorlikdagi ta'lim strategiyalari o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi dinamikani o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lib, ularga kurs materiallarini birgalikda o‘rganish jarayonida ishtirok etish imkonini beradi. Talabalar hamkorlikda dars materiallarini ishlab chiqish va yetkazishda ishtirok etishga undaladi. XXI asr ko‘nikmalarini o‘z ichiga oluvchi hamkorlikdagi ta'lim uslubi talabalar o‘rtasida muloqot o‘rnatishda va vazifalarni tezroq tushunishda yordam beradi.

Bu hamkorlik va muloqot ko‘nikmalari bolalar bog'chalarida boshlanishi zarur, chunki bu haqiqiy dunyo bilan virtual dunyo o‘rtasidagi to‘siqlarni yengishda katta qadamdir. O‘quv dasturini rejalashtirishda bir nechta asosiy komponentlar hisobga olinishi kerak, bu «Ta'limni baholash qoidalari»da ko‘rsatilgan. Ushbu komponentlar pedagogika va predmet bilimlarini tushunishni aks ettiradi, ya’ni o‘qituvchi darslarni barcha predmetlar o‘rtasida bog'lanishlar orqali tashkil etadi. Ba'zan esa bu to‘siqlarga uchraydi, ya’ni darslardan yuqori natijali kutishlar yoki madaniy e'tiqodlar va oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimlari tufayli yuzaga keladi. Ikkinchidan, o‘quvchilarning bilimlari, shaxsiy yoki guruh bilimlari ko‘rsatkichlarini oldindan bilish muhimdir. Shundan kelib chiqib, o‘quv natijalarini belgilashda aniq qoidalar bilan oldinga siljish va vazifalar va talabalar yutuqlarini ko‘rsatishda qanday harakat qilishni ko‘rsatadi. Garchi Jim Allen XXI asr ko‘nikmalarining ahamiyatini ta'kidlagan bo‘lsa-da, u boshqa an'anaviy ko‘nikmalarga, masalan, arifmetika va o‘qish

kabi asosiy koʻnikmalarga ham e'tibor berishni maslahat beradi. Ta'lim siyosati va amaliyoti har bir insonning uch xil koʻnikmalar: asosiy, maxsus va XXI asr koʻnikmalarining bir-biriga bog'langan kompleksini oʻz ichiga olishi kerakligini tan olishga asoslanishi kerak.

Oʻquv dasturi va madaniy xususiyatlar boʻyicha bahsda muhim fikrlar keltirish zarur, masalan, aqliy, jismoniy va ijtimoiy salomatlik oldin muhokama qilinganligi sababli, qoʻshimcha masalalar ham e'tiborga olinishi kerak. Shuningdek, oʻqituvchilar va ota-onalar maqsadlarga erishish uchun hamkorlik qilishlari zarur: bolalarga uyga vazifa ota-ona hamkorligida bajarilishi, bu bolalarga jamiyatda oʻz oʻrnini egallashiga katta yordam berishi mumkinligini tushuntirish kerak. Shuningdek, voyaga etmaganlarning xulq-atvori bilan bog'liq jihatlar ham oʻquv dasturida tilga olinishi zarur, chunki madaniy rivojlanish katta yoshdagi odamlar va bolalar oʻrtasidagi munosabatlarni ham koʻrsatadi.

Insonlarning muloqot qilish usuli madaniy farqlanishlarga ta'sir qiladi. Masalan, Xitoy, Yaponiya va Koreyada oʻqituvchilar va talabalar oʻrtasida koʻz kontaktidan qochish odatiy holga aylangan. Markaziy Osiyo mintaqasida esa bu kattalarga hurmat koʻrsatish belgisi sifatida qaraladi. Madaniy xabardorlik, madaniyatlar, tillar va e'tiqodlarning xilma-xilligini qadrlash va ta'lim berish, ijtimoiy va shaxsiy koʻnikmalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy davrda yetuk insonni tarbiyalash bu mahalliy va global fuqaro boʻlishni oʻrganish, globalizatsiyalashgan jamoada hayot va ishga tayyorlanish, fuqarolik faoliyatini rivojlantirish, madaniy xabardorlik va axloqiy tushunchani ta'lim muassasalarida ham rivojlantirishni anglatadi.

Maktabgacha ta'limda, maktablarda va oʻrta maktablarda individualizm, guruhlar va raqobatga asoslangan faoliyatlarning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega, chunki bu talabalarga XXI asr uchun zarur boʻlgan koʻnikmalarni berish imkonini beradi. Afsuski, koʻpgina oʻquvchilar individual ishlashni afzal koʻrishadi, yakkalikda bajarilgan ish yanada kuchli raqobatbardoshli boʻlolmasligi mumkin. Oʻquv dasturlarining tizimli, zamonaviy koʻnikmalarga boyitilgan holda tashkil etilishi hozirgi raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda yuqori natijali koʻrsatkichlarni beradi. Natijaga yoʻnaltirilgan, kompetensiyaga asoslangan va talaba markazli ta'lim tobora ommalashmoqda, bu globallashuv davrining talabidir.

Bugungi kunda intellektimiz va salohiyatimiz, ma'lumotni qanday qoʻllashimiz orqali jahonda duch kelayotgan muammolarni hal qilish boʻyicha toʻg'ri savollarni shakllantirish bilan aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Danielson rubrikalari “Ta'limni baholash qoidalari” 2-3 betlar, 26-bet.
2. Jim Allen Rolf Van der Velden “21-asr koʻnikmalari: Ta'lim uchun ta'siri” ROA-RM-2012/11
3. Suzanne Hudd “Kurs dasturi ishlab chiqilishi: Talabalarni dars topshiriqlarini yaratishda ishtirok etishga jalb qilish” Ta'lim sotsiologiyasi jurnali Vol.31 (aprel, 2003) pp 195-202

BADIIY ADABIYOT VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH

Oʻzbekiston Usmonova Shaxlo Anvar qizi

Navoiy davlat universiteti, Oʻzbek tili va adabiyoti ta’lim yoʻnalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish orqali badiiy adabiyot vositasi yordamida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish pedagogik tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: badiiy adabiyot, ma’naviy-axloqiy, afsona, rivoyat, ertak, doston, maqol, matal, qoʻshiq, latifa, lof, xalq dramasi, askiya, teatr, musiqa, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot, emotsional ta’sir.

Аннотация: В статье представлен педагогический анализ формирования духовно-нравственных качеств посредством использования художественной литературы в воспитании детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: художественная литература, духовно-нравственный, легенда, повесть, сказка, былина, пословица, притча, песня, анекдот, лёф, народная драма, аския, театр, музыка, общественно-историческое развитие, эмоциональное воздействие.

Abstract: This article presents a pedagogical analysis of the formation of spiritual and moral qualities through the use of literary means in the education of preschool children.

Keywords: literary works, spiritual and moral, myth, narrative, fairy tale, epic, proverb, proverb, song, anecdote, lof, folk drama, askiya, theater, music, socio-historical development, emotional impact.

Badiiy adabiyot bolalar uchun ilk tarbiya vositasi, ma’naviy-axloqiy boyliklarning bitmas-tuganmas xazinasidir. Bolalarga mo‘ljallab yaratilgan og‘zaki ijod namunalari xalqning ming yillar mobaynida yosh avlodni tarbiyalashda xizmat qilib kelgan buyuk pedagogik merosdir.

Xalq pedagogikasi xalq, jamoa ijodkorligining mahsuli sifatida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy taraqqiyot bosqichini belgilab beruvchi tayanch manba hisoblanadi. U ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, tarkibiy vositalar (xalq qo‘shiqlari, afsona, rivoyat, ertak, doston, maqol, matal, qo‘shiq, latifa, lof, xalq dramasi, askiya), xalq tasviriy va amaliy san’ati (xalq yaratgan badiiy-estetik san’at namunalari, teatr, musiqa), ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo‘lgan, rivojlangan qadriyat darajasiga ko‘tarilgan an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, amaliy faoliyatdagi ilg‘or tajribalar majmuidan iborat.

Badiiy adabiyot vositasida bolalarga ta’lim-tarbiya berish jarayonini o‘rganib chiqish natijasida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning konseptual pedagogik-psixologik shart-sharoitlari aniqlangan. Badiiy adabiyotning ma’naviy jihatlarini idrok qilish quyidagi tamoyil asosida amalga oshiriladi:

a) maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy tushunchalar hosil qilish;

b) asarlarning mazmuni haqida fikr yuritish;

v) asarlardagi hayotiy voqealarni tahlil qilish orqali xulosa chiqarish;

s) bolalarga badiiy asarlarni o‘rgatish jarayonini ma’naviy ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarni ma’naviy shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlashda guruhda ijodiy muhit, do‘stona munosabat o‘rnata olish lozim.

Pedagog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida badiiy adabiyotning shaxsini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati kattaligi ko‘plab dalillar yordamida ko‘rsatib berilgan. Manbalarda ta’kidlanishicha, shaxsning kamol topishida uning dunyoqarashi, ma’naviyati, axloqi, madaniyatlilik darajasi, his-tuyg‘ularini rivojlantirishda badiiy adabiyot alohida o‘rin tutadi.

Ma’naviy tushunchalarni bilib olish kundalik turmushda sodir bo‘ladigan turli voqealar va psixologik holatlarga taqqoslab ko‘rish natijasida mukammal shakllangan odatlar, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘la boshlaydi. Bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkazgan davri davomida guruh, MTT jamoasi, oila, mahallada o‘z o‘rnini topa olishda badiiy adabiyot alohida o‘rin tutadi. Aniq mazmun asosida o‘tkaziladigan badiiy adabiyot mashg‘ulotlari, mashg‘ulotlardan tashqari ishlar va umumiy tarzdagi muhit bolalarning ma’naviyatini shakllantirish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar hali maktabga bormay turib, oqilona harakat qiladigan, tevarak-atrofni mustaqil kuzatadigan, kattalar ishlariga qarashadigan, ravon so‘zlab, fikr yuritadigan, birmuncha bilim va malaka orttiradigan bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyoti ham pedagoglar, ham adabiyotshunoslar tomonidan tekshiriladi va o‘rganiladi.

Pedagog olimlarning ilmiy tekshirish ishlari badiiy tarbiyaning usullarini, asosan maktabgacha ta’lim dasturiga kiritilgan xalq og‘zaki ijodi namunalari va yozuvchilarning asarlarini bolalarga o‘qib va hikoya qilib berish, yodlatish, ifodali aytish yo‘llarini tekshirish, umuman u yoki bu badiiy asarda aks etgan g‘oyalarni bolalar ongi va qalbiga singdirish usullarini ko‘rsatish, bu boradagi ilg‘or tajribalarni umumlashtirish va targ‘ib etishga qaratiladi.

Mustaqillik davri bola shaxsining har bir bosqichdagi intellektual xususiyatlarini inobatga olingan holda, bolani shaxs sifatida birinchi o‘ringa ko‘tarish, ma’naviyatini shakllantirish, uni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish, shakllanish yo‘lida o‘zini harakatga undash, bolaga kashf etish lazzatini tuydirish, tarbiyalanish jarayonida bevosita ishtirokini ta’minlash, mashg‘ulotlarda pedagogik hamkorlik hukmronlik qilishiga erishish, asar qahramonlariga yaxshi yoki yomon obraz

deb emas, inson deb qarashga o‘rgatish kabi vazifalar yetakchilik qilishi lozim. Ma’lumki, har bir asarning emotsional ta’siri qudrati badiiy tahlilga tortilganda yuzaga chiqadi. She’r, ertak, hikoya mutolaasidan so‘ng, uning tahliliga kirisha borib, asar sarlavhasiga bolalar diqqatini tortish zarur. Masalan, “Aqlli bola”, “Dono bobo saboqlari”, “Sehrli tarvuz” va hokazolar.

Ma’naviy fazilatlarni o‘zlashtirish jarayonida bolalarning yangidan-yangi ma’naviy ehtiyojlari paydo bo‘ladi.

Shu ehtiyojlarni qondirishga harakat qilish esa bolada o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga intilish, izlanishni qaror toptiradi. Mavzu jihatidan turlicha bo‘lgan bolalarbop adabiyotlarni muntazam ravishda o‘rganib borish ularni milliy ma’naviyatimizga bo‘lgan muhabbatini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi va axloqiy tuyg‘ularning shakllanishiga yordam beradi. Bu tuyg‘ular g‘oyat ko‘p qirrali va xilma-xildir.

Badiiy adabiyot vositasida maktabga tayyorlov guruh (6-7 yoshdagi) bolalarining ma’naviyatini shakllantirish quyidagicha amalga oshirish mumkin:

-Ona Vatani va o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi.

-maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarning insonlar va ular tomonidan yaratilgan ne’matlarga, mehnatga bo‘lgan munosabatini shakllantirish.

-maktabgacha yoshdagi bolalar uning atrofidagi tengdoshlari, qarindoshlari, jamiyat a’zolariga bo‘lgan munosabati.

-uning shaxs sifatida o‘z-o‘ziga nisbatan qarashlarini qaror toptirish.

Xulosa qilganda, hozirgi kunda ta’lim-tarbiya oldida turgan asosiy maqsadlardan biri yosh avlodga ajdodlarimiz asrlar davomida orttirilgan ma’naviy boyliklarni singdirish, ularda insoniy fazilatlarni qaror toptirish va muntazam rivojlantirib borish, Vatan va millat oldidagi burch va mas’uliyatni his etishga o‘rgatishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin desangiz. – T.: Ma’naviyat, 2023 yil.
2. Oila ensiklopediyasi.-T.: Fan va texnologiya, 2016.
3. Suyumov A., Kichkintoylar adabiyoti, T., 1982 yil.
4. Jahongirov F., O‘zbek bolalar folklori, T., 1985 yil.
5. Safarov O., O‘zbek bolalar poetik folklori, T., 1995 yil.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA NUTQ O‘STIRISH MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH XUSUSIDA

O‘zbekiston Hakimova Nodira Xamroyevna
Navoiy viloyati Karmana tuman №7 DMTT direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy vazifasi bolalarga ona tilini o‘rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o‘rgatishning pedagogik qonuniyatlari xususida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: barkamol, intellektual salohiyatli avlod, nutq o‘stirish uslubiyoti, og‘zaki nutqni o‘stirish, dialog, monolog, mazmunli-semantik, grammatika, grammatik operatsiyalar.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические принципы обучения детей родному языку, развития их речи, обучения их речевому общению и коммуникативным навыкам как основная задача воспитания детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: гармоничное, интеллектуально дееспособное поколение, методика развития речи, развитие устной речи, диалог, монолог, содержательно-смысловой, грамматика, грамматические операции.

Abstract: This article discusses the pedagogical principles of teaching children their native language, developing their speech, and teaching them speech communication and communication skills, the main task of educating preschool children.

Keywords: a harmonious, intellectually capable generation, speech development methodology, development of oral speech, dialogue, monologue, meaningful-semantic, grammar, grammatical operations.

Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi ko‘p jihatdan barkamol, intellektual salohiyatli avlod va unga ta’lim-tarbiya berish sifatiga bog‘liq. Shu bois Vatanini, xalqini sevadigan, istiqlol g‘oyalariga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni yetishtirish davlatning ta’lim sohasidagi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shuning bilan birga ta’lim tizimidagi tub islohotlar orqali shaxs ma’naviy kamolotini ta’minlash mazkur yo‘nalishning dolzarb muammolaridan biridir.

Maktabgacha ta’lim umuman olganda, uzluksiz ta’limning birinchi bosqichi hisoblanib, u maktabda o‘qish uchun tayyor bo‘lgan sog‘lom va to‘laqonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bola nutqining rivoji ko‘p jihatdan uning ruhiyatiga, sog‘lom, tetik o‘sishiga, axloqiy sifatlariga, o‘quv dasturini o‘zlashtirishda me’yorli bajarilishini ta’minlashiga, qo‘llanmalarning monandligiga bog‘liqdir. Bu masalalar maktabgacha ta’limda o‘z yechimi ifodasini topishi va o‘z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur. Bolalarning aqliy jarayonini rivojlantirish uchun ularning nutqini o‘stirish zarur. Bola har bir so‘z ma’nosini tushuna olishi uni o‘z nutqida erkin ifodalashga muvofiq bo‘lishi kerak. Tushunchalar tizimiga moslashgan bola o‘z fikrini jamlab gapirishga va ifodalab berishga o‘rganadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o‘rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o‘rgatishdir. Nutq o‘stirish uslubiyoti pedagogik fan bo‘lib, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda nutqni shakllantirishga qaratilgan pedagogik qonuniyatlarni o‘rganadi.

Bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirish bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda asosan, ularning og‘zaki nutqini o‘stirishga, nutqni grammatik tomondan to‘g‘ri shakllantirishga: nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish: sodda va qo‘shma gaplar tuzish, bunda barcha so‘z turkumlaridan foydalanishga o‘rgatish, bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe’lga to‘g‘ri ishlatish malakalarini takomillashtirish, tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishga, ravon gapirishga, mustaqil hikoya qilishga e’tibor beriladi. Og‘zaki nutqini o‘stirishda mustaqil hikoya qilishga o‘rgatish katta o‘rin egallaydi: bolalalarni o‘z hayotlarida uchragan voqealar, suratlarga qarab, tarbiyachining taklif qilgan mavzusi asosida hikoyalar tuzishga o‘rgatiladi. Tayyorlov guruh bolalarining hikoyalari mazmunan bog‘langan, ma’lum izchillikda, grammatik tomondan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi kerak.

Tayyorlov guruhlarida yil davomida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi va ketma-ketlikda olib borilishi kerak.

Shunday qilib, nutqning grammatik tuzulishini shakllantirish jarayonida sintaktik birliklar bilan amallar bajarish ko‘nikmasi shakllanadi, muayyan muloqot sharoitida va ravon monologik fikrlarni tuzish jarayonida til vositalarini ongli ravishda tanlash ta’minlanadi.

Bola tilining grammatik tuzumini shakllantirish uning nutqi (tili) rivojlanishining umumiy oqimida ro‘y berishi lozim; pedagogik rahbarlik shakllari va metodlari umumiy nutqiy rivojlanishning bosqichma-bosqich xususiyatga egaligini, eng avvalo dialog va monologni, so‘zgacha bo‘lgan mazmunli-semantik tizimdan vaziyatga oid ixtiyoriy iborali nutqqa o‘tish (undan keyinchalik dialog va monolog rivojlanadi), bolalarning nutqiy havaskorligi sohasi sifatida tengdoshlar bilan muloqotning dialogik shakllarini o‘zlashtirishni hisobga olishi lozim.

Grammatika bolalarning grammatik nutqini o‘zlashtirish jarayonida strategik o‘rin tutadi, zero «Grammatika – shunday vositalar repertuariki, uning vositasida birinchidan, mustaqil narsalar va fikrlar o‘rtasidagi munosabatlar muayyan qoidalar asosida ifodalanadi, o‘zgadan, muayyan qoidalar asosida yangi so‘zlar hosil bo‘ladi» (L.V.Sherba).

Shunday qilib, grammatik tizim nafaqat mantiqiy munosabatlar ifodalovchisi sifatida sintaksis va morfologiyani, balki so‘z hosil qilishni ham o‘z ichiga oladi. Bolalarda grammatik operatsiyalar ko‘nikmalarini shakllantirish uchun bola o‘rganilayotgan tildagi u yoki bu grammatik elementlarni qo‘llashga zarurat bo‘ladigan o‘yinlardan foydalanishi lozim: otlarning ko‘plikdagi soni, son – ko‘plik yoki birlikdagi otdir va boshqalar. O‘rganilayotgan tilning grammatik tuzilishini bola turli xil nutqiy faoliyat jarayonida o‘zlashtiradi. Bola sabab-oqibat, miqdor va boshqa munosabatlarni

bilish orqali, bir vaqtning o‘zida ularni grammatik shakllar va tuzilmalar orqali ifodalash (birlik va ko‘plik, otlar kelishigi, fe’l zamonlar va turlari va boshq.) usullarini ham bilib oladi.

Bolalar aniq va tushunarli so‘zlaydigan, iboralar, so‘zlar va har bir tovushni alohida-alohida aniq talaffuz etayotgan, ya’ni yaxshi diksiyaga ega bo‘lgan pedagog yordamida ona tilidagi tovushlarni muvaffaqiyatli ravishda o‘zlashtiradilar. Ko‘pincha pedagoglarning talaffuzi biroz noaniq va tushunarsiz bo‘ladi, ular tovushlar va so‘zlarni og‘izni yetarli darajada ochmasdan talaffuz qiladilar, ayrim tovushlar yutib yuboriladi, undoshlar tushunarsiz talaffuz etiladi.

Bola nutqining rivojlanish jarayoni o‘z vaqtida to‘g‘ri kechishi uchun maxsus sharoitlar zarurdir. Buning uchun: bola ruhiy va jismoniy jihatidan sog‘ bo‘lishi, normal aqliy qobiliyatga ega bo‘lishi normal eshitish va ko‘rishi, yetarli darajada ruhiy faollikka ega bo‘lishi, gaplashish ehtiyojiga ega bo‘lishi, to‘g‘ri nutq muhitiga ega bo‘lishi lozim. Bolada nutqning normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o‘zlashtirib olishga, atrof-olam haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarova Ye.N. Logopedicheskaya ritmika. Toshkent 2004 йил.
2. Shodiyeva K.S. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish”. 1995 yil.
3. Shomahmudov R.Sh., Mo‘minova L.R. “Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish”. 1993 yil.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM - TARBIYA BERISHDA TARBIYACHI VA OTA - ONA HAMKORLIGI

O‘zbekiston Suvanova Nodirabegim Sadir qizi
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta‘lim kafedra o‘qituvchisi
Normurodova Gulnoza Sunnatillayevna
Novoiy davlat Universiteti, Maktabgacha ta‘lim yo‘nalish talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning intellektual, ma’naviy va axloqiy rivojlanishida tarbiyachi va ota-onaning hamkorlikda olib boradigan faoliyatining ahamiyati, ta’lim jarayonlarida tarbiyachining vazifalari va hamkorlikni mustahkamlash mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, ota-ona, hamkorlik, tarbiya, pedagok, axborot texnologiyalari, simenar, faoliyat.

Аннотация: В статье рассматривается значение совместной деятельности воспитателей и родителей в интеллектуальном, духовном и нравственном развитии детей в дошкольных образовательных организациях, задачи воспитателей в образовательном процессе, механизмы укрепления сотрудничества.

Ключевые слова: Дошкольное образование, воспитатель, ученик, родители, сотрудничество, воспитание, учитель, информационные технологии, семинар, деятельность.

Abstract: This article discusses the importance of the collaborative activities of educators and parents in the intellectual, spiritual, and moral development of children in preschool educational organizations, the tasks of educators in educational processes, and mechanisms for strengthening cooperation.

Keywords: Preschool education, educator, student, parents, cooperation, upbringing, teacher, information technologies, seminar, activity

Maktabgacha ta’lim davri bolaning shaxsiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu davrda bolalar bilim olishga, o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga va dunyoni kashf etishga intilishadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlik muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyachilar va ota-onalarning hamkorligi bolaning har tomonlama rivojlanishiga ko‘maklashadi, ta’lim sifatini oshiradi va bolaning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Tarbiyachi va ota-onalar hamkorligining asosiy maqsadi bolaning manfaatlarini himoya qilish, uning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi – bu jamiyat kelajagini shakllantiruvchi muhim bosqichdir. Bu jarayonda oila va ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, bolani to‘laqonli inson sifatida voyaga yetkazishda hal qiluvchi omillardan biridir. Ota onaning faolligi va tarbiyachining professionalligi birgalikda bola shaxsini kamol toptiradi. Bugungi kunda bu hamkorlikni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan sanaladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligining mohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi

• Bolaning shaxs sifatida kamol topishi, uning qobiliyatlarini rivojlantirish va maktabga tayyorlash.

• O‘zaro ta’sir: Tarbiyachi va ota-onalar doimiy ravishda fikr almashadilar, bolaning rivojlanishi haqida ma’lumot beradilar va birgalikda muammolarni hal qiladilar.

• O‘zaro mas’uliyat: Tarbiyachi va ota-onalar bolaning ta’lim-tarbiyasi uchun teng mas’uldirlar.

• O‘zaro hurmat: Bir-birining tajribasini hurmat qilish, fikrlarini inobatga olish va bir-biriga ishonish.

• O‘zaro yordam: Bir-biriga yordam berish, qo‘llab-quvvatlash va maslahatlashish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi va ota-onalar hamkorligining turli shakllari mavjud:

• Ota-onalar yig‘ilishlari: Tarbiyachilar ota-onalarni bolaning rivojlanishi, ta’lim dasturlari va MTMdagi tadbirlar haqida xabardor qilish uchun yig‘ilishlar o‘tkazadi. Yig‘ilishlarda ota-onalar o‘z savollariga javob olishlari va fikr almashishlari mumkin.

• Individual suhbatlar: Tarbiyachilar ota-onalar bilan individual suhbatlar o‘tkazib, bolaning shaxsiy rivojlanishi haqida batafsil ma’lumot beradi va ota-onalarning fikrlarini eshitadi.

• Ochiq eshiklar kunlari: Ota-onalarga MTMga tashrif buyurish, bolalarning mashg‘ulotlarida ishtirok etish va tarbiyachilar bilan tanishish imkoniyati yaratiladi.

• Axborot byulletenlari va veb-saytlar: MTMlar ota-onalarni xabardor qilish uchun axborot byulletenlari va veb-saytlardan foydalanadi. Bu yerda ta’lim dasturlari, tadbirlar, maslahatlar va boshqa foydali ma’lumotlar joylashtiriladi.

• Volontyorlik: Ota-onalar MTMdagi tadbirlarda, ekskursiyalarda va loyihalarda volontyor sifatida ishtirok etishi mumkin.

• Uyga vazifalar va loyihalar: Tarbiyachilar bolalarga uyga vazifalar va loyihalar beradi, bu ota-onalarning farzandlarining ta’lim olishiga yordam berish imkoniyatini yaratadi.

Oila – bu bolaga bilim va ko‘nikmalar beriladigan makon bo‘lib, uning psixologik- ijtimoiy rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Oilaviy muhitdagi iliqlik, mehr- muhabbat, tartib-intizom bolada mustahkam xarakter va ijobiy xulq-atvor shakllanishiga zamin yaratadi. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, ota onaning bilim va madaniyati, farzandlariga nisbatan bo‘lgan munosabati ularning keying hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hamkorlikning foydalari:

Bola har ikk muhitda bola (uy va bog‘cha) barqaror tarbiya oladi;

Tarbiyachi bola haqida to‘liqroq ma’lumotlarga ega bo‘ladi;

Ota - ona bola ta’limidagi faol ishtirokchi bo‘lishiga intiladi;

Bolada ijtimoiy va muloqot ko‘nikmalari tezroq shakllanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar bola bilan ishlashda professional yondashuv, pedagogik mahorat va individual psixologik yondashuvlarga ega bo‘lishi kerak. Tarbiyachi nafaqat bolalarning aqliy rivojiga, balki ularning emotsianal holatiga, ijtimoiy muomala madaniyatiga, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga ham mas’uldir. Shu sababli ham tarbiyachi va ota ona o‘rtasida aloqa uzluksiz va muntazam bo‘lishi zarur. Ota ona va tarbiyachi o‘rtasida samarali hamkorlikka erishish uchun quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- ✓ Ota- onalar yig‘ilishlari va seminar treninglar;
- ✓ Ochiq darslar va bayram tadbirlarida ota onani jalb etish;
- ✓ Psixologik-pedagogik maslahatlar berish;
- ✓ Onlayn suhbatlar, electron pochta orqali aloqa;

✓ “Ochiq eshiklar kuni”ni tashkil etish.

Ko‘plab muammolar ota onalarning vaqt yetishmasligi, tarbiyachining esa o‘z vazifalarini to‘liq tushuntirib bera olmasligidan kelib chiqadi. Bu muammolarni bartaraf etish usullari mavjud:

✓ Har ikki tomonning doimiy muloqoti ;
✓ Pedagogik treninglar va o‘quv- seminarlar;
✓ O‘zaro ishonch va hurmat asosidagi aloqa zarur.

Maktabgacha ta’limda tarbiyachi va ota onaning hamkorligi bolaning shaxsiy rivojida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu hamkorlik doimiylik, ochiqlik va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilsa , bola ijtimoiy jihatdan tayyor, axloqiy to‘g‘ri, ruhan ijtimoy sog‘lom bo‘lib voyaga yetadi. Buning uchun quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish lozim:

✓ Har chorakda ota onalar uchun metodik ko‘rsatmalar tayyorlash;
✓ Har oyda onlayn yoki oflayn formatda suhbatlar tashkil etish;
✓ Har yili “Eng faol ota-ona’’ tanlovlarini o‘tkazish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligi bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun zarurdir. Hamkorlik bolaning ta’lim olishiga, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga va muammolarni hal qilishga yordam beradi. Tarbiyachilar va ota-onalar birgalikda bolaning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta’minlash uchun mas’uldirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidi” gi Qonuni.
2. Mahmudova G. “Oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiya” T:2020
3. Hasanboyeva , S.T. Maktabgacha ta’lim metodikasi . Toshkent: “ Fan va texnologiya” 2021.
4. Shoumarova D. “ Maktabgacha ta’limda ota onalar bilan ishlash texnologiyasi” Toshkent , 2020
5. E.G. Pirimovna The problem of social intelligence and its Interpretation in cientific Sources BioGecko 12 (4), 631-636.
6. E.G. Pirimovna Psychological factors for the formation of social intelligence in teachers of preschool educational organization International Scientific and Current Research Conferences, 16-19.
7. S.N. Suvanova (2025) Maktabgacha 6–7 yoshli bolalarda bilish kompetensiyalarini shakllantirishda multimedianing o‘rni. J: “Maktabgacha va maktab ta‘limi’’ 43-46 b.
8. S.N. Suvanova (2025) Maktabgacha 6-7 yosh bolalarda kompyuter savodxonlik faoliyatida axborotning o‘rni J: “Ped mahorat” 204-207 b

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHIDA GIMNASTIKA MASHG‘ULOTLARINING AHAMIYATI

O‘zbekiston Sultanova Diana Baxodir qizi

NavDU Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada gimnastikaning jismoniy tarbiya vositasi sifatida ekanligi hamda uning asosiy turlari, bolajonlarning ertalabki gimnastika mashqlarini bajarishlari va mashqlarni o‘tkazish usullarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Gimnastika, mashq, ertalabki gimnastika, jismoniy tarbiya, sayohat, oila, diqqat, qomat, jismoniy kamolot, badiiy gimnastika, sog‘lomlashtiruvchi gimnastika, dastlabki o‘rgatish, mukammal o‘rgatish, mustahkamlash, takomillashtirish.

Аннотация. В статье рассматривается значение гимнастики как средства физического воспитания, ее основные виды, упражнения утренней гимнастики для детей, методика проведения упражнений.

Ключевые слова: Гимнастика, физические упражнения, утренняя гимнастика, физическое воспитание, путешествие, семья, внимание, телосложение, физическое развитие, художественная гимнастика, оздоровительная гимнастика, начальная подготовка, повышение квалификации, укрепление, совершенствование.

Abstract. This article discusses the importance of gymnastics as a means of physical education, its main types, children's morning gymnastics exercises and methods of conducting exercises.

Keywords: Gymnastics, exercise, morning gymnastics, physical education, travel, family, attention, physique, physical development, rhythmic gymnastics, health-improving gymnastics, initial training, advanced training, strengthening, improvement.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta’lim tashkiloti tarmoqlarini kengaytirish maqsadida 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan PQ 2707- sonli qarori asosida yosh avlodni jismoniy jihatdan tarbiyalash, ta’lim berish, sport bilan shug‘ullanishi uchun ko‘plab gimnastika zallari qurilib ishga tushurildi hamda ushbu imkoniyatlarda bugungi kunga qadar oqilona foydalanib kelinmoqda. [1]

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportga katta e’tibor qaratilmoqda. Shular qatorida gimnastikani rivojlanishiga ham keng imkoniyat yaratildi. O‘zbekistonda gimnastika qadimdan turli xil mashqlar ko‘rinishida rivojlanib kelgan. Bugungi kunga kelib ham respublikamizda sog‘lom avlodni tarbiyalab yetishtirish va barcha fuqarolarning salomatligini ta’minlashda «Umid nihollari» va «Barkamol avlod» unversiadasi kabi tadbirlar amalga oshirilmoqda qadimdan ma’lumki sayohat nafaqat oliy darajada dam olish emas balki bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish, jamoa sog‘lig‘ini mustahkamlash shaxsni har tomonlama rivojlanishini ta’minlashdan iboratdir.

Gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish 3 qismga bo‘linadi: dastlabki o‘rgatish, mukammal o‘rgatish hamda mustahkamlash va takomillashtirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni gimnastika mashg‘ulotlarini o‘tkazishda tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida sport bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarnini olib borish hamda birgalikda mashg‘ulotlarni tashkillashtirish ham muhim hisoblanadi. Chunki gimnastika bolaning turli faoliyatlar uchun sog‘lomlashishi va jismoniy tayyorgarligini, jismoniy kamolotni shakllantirishni tizimli ravishda o‘z ichiga oladi. Gimnastika o‘z navbatida, ertalabki gimnastika, badiiy gimnastika, sog‘lomlashtiruvchi gimnastika kabi bir qator yo‘nalishlarni qamrab oladi.[2]

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari kunni doimiy ravishda ertalabki gimnastikabilan boshlaydi, bu esa ularda:

- ✓ bolaning oila, bolalar bog‘chasidagi kundalik rejimining majburiy qismidir. Uning kattalar rahbarligida o‘tkazib turilishi bolalar asta-sekin yoqimli mushak sezgisi, ijobiy emotsiyalar xushchaqchaqlik kayfiyatini uyg‘otadigan jismoniy mashqlarga nisbatan ko‘nikishni tarbiyalaydi;
- ✓ to‘g‘ri qad-qomatni tarbiyalashga ta’sir etib, nafas olishni chuqurlashtiradi, qon aylanishini kuchaytiradi, modda almashishiga yordam beradi;
- ✓ ertalabki gimnastika bolalarda diqqatni, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalaydi, aqliy faoliyatining oshishiga yordam beradi, emotsiya va quvonch tuyg‘ularini uyg‘otadi;

Ertalabki gimnastika so‘ngidagi qadamlarni sekinlatib yurish, turgan holatida oyoqlarini biroz ko‘tarib qadam tashlash, nafas olish mashqlarini bajarish bilan tugallanadi. Bu bola yurak pulsini normal holga keltiradi.

Badiiy gimnastika maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lomlashtirish irodalilik,sabrlilik muvafaqqiyatli hal qilish uchun harakatli o‘yin uslubiga ega bo‘lib, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning uyg‘un rivojlanishi uchun muhim sohalardan biri sanaladi.

Sog‘lomlashtiruvchi gimnastika maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yassioyoqlikni oldini olish, skolioz, tayanch harakat tizimini to‘g‘ri shakllanishida universal vosita hisoblanadi.

Jismoniy mashqlarni ochiq havoda derazalar ochiq xonada suv muolajalari (artinish, suv quyish, dush) bilan o‘tkazishlari samara beradi, asab tizimining umumiy holati, funktsional imkoniyatlarini yaxshilaydi, mustahkamlaydi va chiniqtiradi, qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining muqobillashuviga yordam beradi, almashinish reaktsiyalarini yaxshilaydi, shamollash va yuqumli kasalliklarga nisbatan immunitet hosil qiladi, bolalarda tetiklik, yengillik, quvonch sezgilarini uyg‘otadi.

Xulosa qilib aytganda gimnastika mashqlari bilan shug‘illanishda nafaqat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, balki biz katta yoshli kishilar ham o‘z faolligimizni oshirgan holda jismoniy mashqlarni muntazam bajarib turmog‘imiz shart va zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish Konsepsiyasi 13-fevral 2019-yil 42 bet.
2. M.N.Mirazimova “Maktabgacha yoshdagi bolalarda gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish usullari” Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 786-789
3. R.A.Kuzibayev “Sog‘lomlashtirish-jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etish” moduli
4. R.O‘.Xidirova “Maktabgacha yoshdagi bolalarni gimnastika mashqlari orqali harakat ko‘nikmalarini shakllantirish” Yangi o‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali 1-jild, 11-son (yo‘itj) 29-32

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

O‘zbekiston D.Sh.Sohibova
Navoiy viloyati Xatirchi tuman 8-DMTT direktori o‘rinbosari

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish — ularning tabiatga munosabatini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik madaniyatini shakllantirishda tarbiyachi pedagoglar ta’lim-tarbiya jarayonida yangicha yondashuvni amalga oshirish juda muhim. Ayni damda golbal muammolardan biri bo‘lgan ekologik barqarorlikni ta’minlash, maktabgacha yoshdagi bolalarni shu yoshdanoq ekologik madaniyatini shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Maqolada bolalarni ekologik madaniyatini shakllantirishga oid majud muammo va ularni yechimlari to‘g‘risida to‘htalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik ta’lim-tarbiya, tabiiy boyliklar, tabiiy resurslar, ekologik tafakkur,ekologik ma’rifat.

Аннотация: Экологическое воспитание детей дошкольного возраста является важным этапом в формировании их отношения к природе. В статье подчеркивается важность внедрения нового подхода в образовательный процесс для педагогов по формированию экологической культуры детей дошкольного возраста. Обеспечение экологической устойчивости, которая в настоящее время является одной из глобальных проблем, имеет большое значение, и важно формировать экологическую культуру у детей дошкольного возраста уже с этого возраста. В статье рассматриваются актуальные проблемы и пути их решения, связанные с формированием экологической культуры детей.

Ключевые слова: экологическое образование, природные ресурсы, экологическое мышление, экологическое просвещение.

Abstract. Providing ecological education to preschool children is an important stage in the formation of their attitude to nature. In this article, it is very important for educators to implement a new approach in the educational process in the formation of the ecological culture of preschool children. Ensuring ecological sustainability, which is one of the global problems at the moment, is very important to form the ecological culture of preschool children from this age. The article discusses the existing problems and solutions related to the formation of the ecological culture of children.

Keywords: ecological education, natural resources, natural resources, ecological thinking, ecological enlightenment.

Kirish. Ekologik ta’lim-tarbiya – insonning tabiatdan ongli ravishda foydalanish, psixologik axloq odob yuzasidan xalqimizning tabiatga nisbatan e’tibor bilan qaraydigan urf-odatlari, an’analari asosida yoshlarni tarbiyalash, ular ongida tabiat, uning boyliklariga mehr muhabbat uyg‘otish, ularni tejamkorlikka va tabiiy boyliklarni asrab avaylashga o‘rgatishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga qo‘yilgan umumiy talablarda ham ularning ekologik mas’uliyatni his qilishi, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozimligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Jahonning barcha mamlakatlari kabi O‘zbekistonda ham shaxs va jamiyatning moddiy va ma’naviy madaniyati ekologik mazmunga ega bo‘lmoqda. Endilikda respublikamizda chiqindisiz, kam chiqitli va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, atrof

muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish va takomillashtirish, ekologik huquqbuzarliklar uchun ma’muriy huquqiy choralar ko‘rish, ekologik ma’rifat orqali aholining ekologik tafakkurini rivojlantirish, xalqaro ekologik munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, tabiat, atrof muhitga ko‘rsatilayotgan salbiy antropogen ta’sirlarni kamaytirish, insonning atrof muhitga sifat jihatidan yangicha munosabatini shakllantirishga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida uzluksiz ta’limning faoliyat ko‘rsatish tamoyillari qatorida «ta’limning insonparvarlashuvi, inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta’limga nisbatan bo‘lgan turli tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta’minlanishi, inson, jamiyat va atrof muhit o‘zaro munosabatlarining uyg‘unlashuvi» belgilangan. Shuningdek, uzluksiz ta’limni isloh qilish yo‘nalishlari tarkibida «ta’limning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya gigiyenik Vatanimiz tabiati, atrof muhitiga nisbatan hurmat, ehtiyotkorona munosabat va unga mas’uliyat bilan qarash hissini maktabgacha yoshdagi har bir bola shaxsida tarbiyalashimiz lozim. Maktabgacha yoshdagi bola o‘z atrofidagi tabiiy ijtimoiy muhit ta’sirida va mahallada o‘rnatilgan axloqiy ekologik tartibotlar asosida yashaydi. Zero, yurtimizning go‘zal tabiati, uning kelgusi holati aynan ularning atrof muhitga bo‘lgan munosabati orqali belgilanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish — ularning tabiatga munosabatini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Bu borada ayrim muammolar va ularning yechimlarini quyida keltirib o‘tamiz:

1. Uslubiy materiallar yetishmasligi, ekologik tarbiya uchun maxsus o‘quv qo‘llanmalar, badiiy adabiyotlar va didaktik o‘yinlar yetarli emasligi;

2. Tarbiyaviy jarayonda ekologik masalalarga kam e’tibor qaratilishi. Ayrim bog‘chalarda ekologik ta’lim maxsus yo‘nalish sifatida emas, umumiy mashg‘ulotlar doirasida yuritiladi.

3. Tarbiyachilarning malakasi yetarli emasligi. Barcha pedagoglar ham ekologik ta’lim-tarbiyani samarali tashkil etish uchun kerakli bilim va ko‘nikmalarga ega emaslar.

4. Amaliyot va tabiat bilan muloqotning kamligi. Bolalar tabiatni faqat rasmlar yoki videolar orqali bilishadi, bu esa to‘liq his etishni ta’minlamaydi.

5. Ota-onalarning ekologik bilim darajasi pastligi. Uy muhitida ekologik madaniyat shakllanmagan bo‘lsa, bog‘chadagi bilimlar mustahkamlanmaydi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun qo‘yidagi yechimlarni tavsiya etamiz:

1. Ekologik yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini joriy etish. Yosh bolalarga moslashtirilgan, qiziqarli va hayotga yaqin mashg‘ulotlar asosida ekologik tarbiya berish orqali ularda ekologik madaniyatini shakllantirish mumkin.

2. Tabiat qo‘ynida mashg‘ulotlar tashkil etish. Bog‘cha hovlisida kichik botanik burchaklar, gulzorlar, parranda va hayvon burchaklari yaratish.

3. Tarbiyachilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Ekologik tarbiya bo‘yicha zamonaviy metodikalarni o‘rgatish.

4. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish. Ekologik mavzuda seminarlar, master-klasslar, ota-ona va bolalar uchun birgalikdagi tadbirlar tashkil etish.

5. Interaktiv usullar va texnologiyalardan foydalanish. Ekologik multfilmlar, interaktiv o‘yinlar, qiziqarli tajribalar orqali bilim berishimiz mumkin.

Maktabgacha yoshdagi tarbichlanuvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga oid yuqoridagi tavsiyalarimiz bilan birga ta’limiy faoliyatda tarbiyachi pedagoglar o‘z faoliyatida qo‘llashlari uchun o‘yinlarni keltirib o‘tamiz.

«Sehrli quyosh» o‘yini.

Maqsad: Bolalarning atrof olamdagi voqea xodisalarning turli tumanligi to‘grisidagi bilimlarini mustahkamlash. Guruh bo‘lib o‘ynash qobiliyatlarini takomillashtirish

Zarur jihozlar: 10 ta o‘yin yo‘lkachalari(quyoshning nurlari) katta doiraga yo‘naltirilgan. Har bir yo‘lakcha 5 tadan turli rangdagi sektorlarga bo‘lingan. Yashil (fauna va flora), ko‘k (suv), jigar rang (yer), siyoh rang (tabiat xodisalari), qizil (fazo).

Mavzuli savollar yozilgan rangli kartochkalar, musiqiy, raqs va she’r yodlash tanaffuslari tasvirlangan kartochkalar. Guruhlar emblemalari O‘yin qoidalari: - O‘yinda 2 ta gurux ishtirok

etadi. Har bir guruxda 5 tadan bola - Qur'a tashlash yo‘li bilan qaysi gurux o‘yinni boshlashi aniqlab olinadi. Ishtirokchilar o‘yin yo‘lakchalarining birinchi sektoriga turib oladilar. Tarbiyachi ishtirokchilarga sektorning mavzusiga taalluqli savollar beradi. Savolga to‘g‘ri javob bergan ishtirokchilar keyingi sektorga o‘tadi. Javob noto‘g‘ri bo‘lsa joyida qoladi.

O‘yin davomida tarbiyachi ishtirokchilarga ijodiy topshiriqlar (qo‘shiq aytish, she'r yodlash, raqsga tushish) berishi mumkin. Topshiriqlarni bajarishda kuzatuvchilar va ota-onalar ham yordam berishlari mumkin. O‘yinda ishtirokchilari birinchi bo‘lib katta doiraga yetib kelgan guruh g‘olib bo‘ladi.

O‘yin savollari: Yashil(fauna va flora). Apelsindan apelsin sharbati tayyorlanadi, pomidordan-chi?(Tomat)

Uchta baliq turini sanab ber (Laqqa, ilon baliq, cho‘rtan). Asalarining uyasi qaysi geometrik shaklga o‘xshaydi (Oltiburchak). Limon, apelsin va mandarinni bir so‘z bilan izohla (Sitrus). Qaysi o‘simlikning tolalaridan paxta tayyorlanadi?(G‘o‘za). Daraxtdan past o‘tdan baland o‘simlik (buta). Manzarali daraxtlar o‘sadigan joy (O‘rmon). Odamning ismiga o‘xshash qushning nomi (Mayna). Faqat mevali daraxtlar o‘sadigan joy(Bog). Osmonda uchadigan eng katta qush (Burgut). Ko‘k(suv). Suvda harakatlanish uchun insonlar qanday moslamalardan foydalanadilar?(Sol, qayiq, kater, kema). Hamma tomondan suv bilan o‘ralgan quruqlik qanday ataladi?(Orol). Togda-balandlik, dengizda ..(chuqurlik). Dengiz kattami, okeanmi?(Okean). Daryo qachon o‘zanidan chiqadi?(Bahorda). «Rangli» dengizlarni sanab ber?(Qora, Oq, Qizil, Sariq). Globusda daryo, dengiz, okeanlar qanday rangda tasvirlangan?(Ko‘k). Havo ochiq vaqtda dalarda kechqurun osmonda ko‘rinadigan yulduzlar to‘plami (somon yo‘li). Xaritada o‘rmonlar qanday rangda tasvirlangan?(Yashil). Dengiz yoki daryo bo‘yi nima deb aytiladi?(qirgoq). Jigar rang(yer). Nimadan idish yasash mumkin?(Loydan). Tuproqda havo bormi? Buni qanday isbotlash mumkin?(Tuproq solingan idishga suv solinsa-idishning yuqorisiga havo pufakchalari chiqadi). Nima balandroq: tepalikmi yoki tog‘?(tog). Quruq qum yoki toshlardan iborat, o‘simliklari deyarli yo‘q joy qanday ataladi?(CHo‘l). Yer sharining modeli nima deb ataladi?(Globus). Nima suvni yaxshi o‘tkazadi: loymi yoki qum?(Qum). Loydan toshlarni qanday ajratish mumkin?(Loyga suv quyish va uni aralashtirish kerak. Loy aralashadi toshlar esa tagiga tushib qoladi). Nima uchun ayrim toglarning uchlarida yil bo‘yi qor bilan qoplangan bo‘ladi?(Juda atta balandlikda sovuq va yoggan qor erimaydi). Baland toglarga ko‘tariladigan insonlar qanday ataladi? (alpinistlar). Torf, ko‘mir, neft, gazni bir so‘z bilan qanday atash mumkin?(Qazilma boyliklar).

Ekologiya mavzusida didaktik so‘z o‘yinlari **«So‘zni tugat!»** Bu qachon bo‘ladi? *Qor yogmoqda..(qishda)*

Osmonda kamalak..(bahorda),

Sariq, qizil barglar daraxtda..(kuzda).

Qaldirgoch in qurmoqda..(bahorda).

Bolalar cho‘milmoqdalar..(yozda).

Tabiatda nima doira shaklida bo‘ladi?(Quyosh, oy, apelsin, olma va h.k.) .

Tabiatda nima doira shaklida bo‘ladi?(Moychechak, limon, nok, olma va h.k.).

Uchinchisi nima? Tarbiyachi ikkita predmetni nomini aytadi, uchinchisini bola topishi lozim.

Moychechak, lola,..(romashka).

Qarga, chumchuq,..(qaldirgoch).

Tol, qayragoch,..(terak).

Quyosh, bulut,..(kamalak).

Gul, barg,..(ildiz).

Bu nima? Tarbiyachi o‘simlik yoki hayvonning nomini aytadi, bola-ularning umumiy nomini aytadi. Chumchuq,..(qush) Ayiq,..(hayvon) Archa,..(daraxt) Olma,..(meva) Bir so‘z bilan izohla! Yo‘lbars, timsoh, it,..(yirtqichlar) It, mushuk, sigir,..(uy hayvonlari). Fikus, begoniya, kaktus,...(xona o‘simliklari). Yer, suv, havo,...(jonsiz tabiat).

Kartochkalarda turli xil xayvon, qushlar rasmi tasvirlangan, ularni ko‘rsatganda nomlarini emas, ularning ovozlariga taqlid qilish taklif qilinadi: It-(vovillaydi) Mushuk-(miyovlaydi),

Chumchuq-(chirqillaydi), Qo‘ngiz-(gizillaydi), Sigir-(mo‘raydi), Qurbaqa-(qurillaydi), CHo‘chqa-(xurillaydi), Xo‘roz-(ku-ka-re-ku), Ot-(kishnaydi), Baliq-(ovozini asraydi).

Bu kimning bolasi? Tuyaning bolasi..(biya). Mushukning bolasi..(mushukcha), Sigirning bolasi..(buzoqcha), Qo‘yning bolasi..(qo‘zichoq), Echkining bolasi..(uloqcha).

Kim qayerda yashaydi? Doskada turli xil «uycha»larning rasmlari ilingan, pastda xayvonlarning rasmlari «Hayvonlarga o‘z uylarini topib ber!» topshirigi beriladi. Kim qanday harakatlanadi? Qushlar..(uchadi) Baliq..(suzadi) Quyon..(chopadi) Chumchuq..(sakraydi) Inson..(emaklaydi, suzadi, yuradi, chopadi, sakraydi) Kim nima bilan oziqlanadi? Xo‘roz..(don) It..(suyak) Quyon..(karam) Sigir..(o‘t) Jo‘ja..(tuxum sarigi) Mushuk..(sut)..

«Tabiatni asrang». Stolda qogozdan yasalgan 5 qismga bo‘lingan doira va tabiat olami (o‘simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlar, inson) tasvirlangan kartochkalar. Tarbiyachi ushbu kartochkalarni doiraning sektorlariga(har biriga bittadan) joylashtirib chiqishni taklif qiladi. Shundan so‘ng, sektorlarni biroitasini olib tashlaydi va bolalarga tabiatning mana shu qismi yo‘q bo‘lsa boshqatirik jonzotlar bilan nima sodir bo‘ladi? deb bolalardan so‘raydi.

Masalan: «agar o‘simliklar bo‘lmasa qushlar(hayvonlar va h.)bilan nima bo‘ladi?». so‘ngra u kartochkalarni joylariga qaytarib boshqalarini oladi. Eng oxirida insonni olib qo‘yadi.

Tarbiyachi: agar inson tabiatdan yo‘q bo‘lsa, tabiat yo‘qolmasligi, lekin jonli tabiatning boshqa bir bo‘laklaridan birortasi bo‘lmasa dunyo, inson ham o‘lishi mumkinligi, tabiatdagi barcha tirik organizm bir-biri bilan bogliq ekanligi, shuning uchun inson tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan muomalada bo‘lishi lozimligi haqida tushuntirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yildagi 12 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-sonli Qarori
3. Мактабгача таълим ташкилотларида тарбиявий ишлар самарадорлигини ошириш ҳамда тарбияланувчиларда экологик маданиятини шакллантириш. Тренерлар учун услубий қўлланма.Т:.2024
4. Исмоилов А., Аҳадов Р. Экологик таълим тарбия. – Т.: «Ўқитувчи», 1997.
5. Григорьянц А.Г., Гафурова У. Болалар боғчасида экологик тарбия. – Т.: «Ўқитувчи», 2002.
6. Умарова М. Мактабгача ёшдаги болаларга экологик тарбия бериш методлари. // «Узлуксиз таълим», 2004, 5сон.

TARIXIY OBIDALAR BILAN TANISHTIRISH JARAYONIDA TARBIYALANUVCHILARDA MILLIY G‘URURNI SHAKLLANTIRISH

O‘zbekiston. Shoimova Nilufar Quvondiq qizi,
Navoiy davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Har bir xalqning madaniy merosi va tarixiy obidalari uning milliy o‘ziga xosligini ifodalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ana shunday qadriyatlar bilan tanishtirish ularda vatanparvarlik, milliy g‘urur va tarixiy ongni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada bolalarni tarixiy yodgorliklar bilan tanishtirish jarayoni va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida so‘z yuritamiz.

Kalit so‘zlar: Tarixiy obida, meros, me`moriy yodgorlik, vatanparvarlik, milliy qadriyat, rasmlar, maketlar, binolar, milliy qahramonlar, milliy g‘urur, ekskursiya, buyuk siymolar, o‘yin, sahnalashtirish, ta`lim-tarbiya jarayoni, syujetli-rolli o‘yinlar, spektakl, Buyuk ipak yo‘li, o‘zlikni anglash, estetik did, ajdodlarga hurmat, kompetensiya, metodik tizim, kompleks, didaktik, hurriyat, istiqlol, vizual, faxr, iftixor, interaktiv usul.

Аннотация: Культурное наследие и исторические памятники каждого народа представляют его национальную идентичность. Введение детей дошкольного возраста с такими ценностями важно для формирования патриотической, национальной гордости и

исторического сознания. В этой статье мы поговорим о процессе знакомства с детьми с историческими памятниками и его образовательной важности.

Ключевые слова: Исторический памятник, наследство, патриотизм, национальная ценность, фотографии, существа, национальные герои, национальные вырыты, экскурсии, великие фигуры, хранилище, полузащитные игры, пьеса, великий шелковый ролл, сознание, эстетический вкус, конкуренция, методическая система , сложный, характерный, скорбь, визуальный, гордость, гордость, интерактивный метод.

Abstract: The cultural heritage and historical monuments of every people represent its national identity. Introducing preschool children with such values is important in them in shaping the patriotic, national pride and historical consciousness. In this article, we are talking about the process of acquainting children with historical monuments and its educational significance

Key words: Historical monument, inheritance, patriotism, national value, photos, creatures, national heroes, national sovures, excursions, great figures, storage, semi-roles Games, play, Great Silk Dushpay, self-understanding, aesthetic taste ,Respect for the ancestors, Competence, Methodical System, Complex, Didactic, Freedom, Independence, Prison, Proud, Private Method .

Tarixiy obidalar – bu o‘tmishimizdan bizga meros bo‘lib qolgan madaniy va me’moriy yodgorliklar bo‘lib, ular xalqimizning buyukligini va madaniy yuksakligini namoyon etadi. Milliy g‘urur esa shaxsning o‘z vatani, millati va madaniyatiga bo‘lgan hurmati va faxr tuyg‘usidir. Tarbiyaviy jarayonda ushbu tushunchalarni bolalar ongiga singdirish, ularning milliy qadriyatlarga nisbatan hurmatini oshirish muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish uchun dastavval ularni tarixiy obidalarimiz bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarixiy faktlarni shunchaki o‘rganish emas, balki ularni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, his qilganida yaxshiroq tushunadi. Shu sababli, tarixiy obidalar bilan tanishtirishning bir necha usullarini ko‘rib chiqamiz:

- ✓ Ekskursiyalar va sayohatlar tashkil etish;
- ✓ Bolalarni tarixiy obidalarga olib borish ularning tarixni jonli his qilishiga yordam beradi. Samarqanddagi Registon majmuasi, Buxorodagi Minorai Kalon yoki Xivada joylashgan Ichan-qal’aga sayohatlar bolalar uchun unutilmas taassurot qoldiradi.
- ✓ Rasmlar va maketlardan foydalanish;
- ✓ Tarixiy obidalar maketlari yoki ularning rasmlaridan foydalangan holda tushuntirish yanada samarali bo‘ladi. Masalan, bolalar bilan birga tarixiy binolar maketlarini yasash yoki rasm chizish ularga yanada yaqinroq tushunchalar beradi.
- ✓ Milliy qahramonlar haqida hikoyalar aytish;
- ✓ Bolalarga tarixiy shaxslar – Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur kabi buyuk siymolar haqida tushunarli hikoyalar orqali ma’lumot berish muhim. Ularning jasorati, bilimga intilishi va vatanparvarligi bolalar qalbida faxr tuyg‘usini shakllantiradi.
- ✓ O‘yin va sahnalashtirish usulidan foydalanish;
- ✓ Tarixiy voqealar asosida kichik spektakllar sahnalashtirish bolalarning qiziqishini oshiradi. Masalan, ta`lim-tarbiya jarayonida “Syujetli-rolli o‘yinlar” markazida “Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab sayohat” mavzusida rolli o‘yinlar tashkil qilish mumkin.
- ✓ She’r va qo‘shiqlar orqali tarbiyalash;
- ✓ Bolalar she’r va qo‘shiqlar orqali o‘z milliy qadriyatlarini chuqur his qiladilar. Tarixiy obidalar yoki milliy qahramonlarga bag‘ishlangan she’rlarni o‘rganish bolalarning vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlaydi.

Tarixiy obidalar bilan tanishtirish ko‘pgina tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bulardan ba`zilarini keltirib o‘tish joiz.

- Milliy o‘zlikni anglash – bolalar o‘z millatining madaniy boyliklari haqida bilib, o‘zligini anglash demakdir.
- Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish – tarixiy obidalar orqali bolalar ajdodlarining jasorati va mehnatini qadrlashni o‘rganadi.
- Estetik didni rivojlantirish – Tarixiy me’moriy yodgorliklar bolalarda san’at va go‘zallikni his qilish qobiliyatini oshiradi.

- Ajdodlarga hurmat uyg‘otish – Tarixiy obidalar bilan tanishish orqali bolalarda o‘z ajdodlariga bo‘lgan hurmat tuyg‘usi shakllanadi.

Dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini qaror toptirish orqali vatanparvarlik sifatlarini tarkib toptirish, oila va maktabgacha ta`lim tashkilotlari hamkorligi asosida bolalarda fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda milliy g‘ururni shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish, tarixiy-madaniy meros bilan kompleks mashg‘ulotlar jarayonida tanishtirish orqali bolalarda o‘tmishga qiziqishni shakllantirishning didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. YuNESKO loyihasi asosida yaratilgan mashhur mutaxassis-pedagoglarning hamkorlikdagi ishlarida har bir bolada o‘zi va atrofdagilar, o‘tmish va bugungi avlod oldidagi mas`uliyatni shakllantirish orqali o‘sib kelayotgan avlodni tinchlik va shaxs huquqini hurmat qilish ruhida tarbiyalash asosida Yer sayyorasini asrab qolish mumkinligi ta`kidlab o‘tilgan. Bu esa, maktabgacha ta`lim yoshidanoq bolalarda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini tarbiyalashni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov: “Asrlar davomida aql zakovati ila bunyod etgan boy ma`naviyati tufayli xalqimiz mag‘rur yashadi. Mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi. Ana shu milliy g‘urur bugungi istiqlolimizning oltin poydevoridir”, - deb ta`kidlaganlari bejiz emas. Bolalarda milliy g‘urur elementlarini shakllantirish avalo milliy g‘ururni tushuncha sifatidagi mazmuni va mohiyatiga e`tibor qaratish lozim.

“G‘urur” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, insonning o‘z qadr-qimmatini bilish, uni hurmat qilish hissi, faxrlanish tuyg‘usi, faxr, iftixor, faxrlanishga asos bo‘ladigan narsa tariqasida talqin etiladi. Bolalarda faxrlanish tuyg‘usi, avvalo, o‘zi yashab turgan hudud, u yerda mavjud qadriyatlar asosida shakllanadi. Me`moriy obidalar esa ham bevosita, ham bilvosita ta`sir qiluvchi omil sifatida samarali qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vositadir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarixiy obidalar bolalarning milliy g‘ururini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularni qiziqarli, jonli va interaktiv usullar orqali o‘rgatish bolalar ongida o‘z madaniyatiga hurmat hissini shakllantiradi. Eng muhimi, bolalar ushbu jarayonda o‘zlarini faol ishtirokchi sifatida his qilishlari kerak. maktabgacha yoshdagi bolalarni tarixiy obidalar bilan tanishtirish nafaqat ularning bilim doirasini kengaytiradi, balki ularda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ushbu jarayonda ekskursiyalar, vizual materiallar, hikoyalar, o‘yinlar va sahnalashtirish kabi metodlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, biz kelajak avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A`zam Hasanov – O‘zbekiston tarixi: milliy mustaqillik yo‘lida, T-2000.
2. Nurtayev Sh. – Milliy g‘urur va uning shakllanish omillari, T-2005.
3. Karimov I.A. – Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch, T-2008.
4. Vohidov A. – Milliy o‘zlik va ma`naviy tiklanish, T-2010.
5. Shongulov A. – Madaniyat va sivilizatsiya: tarixiy nuqtayi nazar, T-2012.
6. Abdullayev U. – O‘zbek xalqining tarixiy merosi va milliy o‘zlikni anglash, T-2014.
7. Ikromov B. – Tarixiy obidalar va ma`naviy tarbiya, T-2016.
8. Sultonov Q. – O‘zbekistonda madaniy merosni saqlash va tiklash masalalari, T-2018.
9. Jo‘rayev N. – Tarixiy meros: kecha, bugun, ertaga, T-2019.
10. Юлдошев А. – Миллий гурур ва ватанпарварлик тарбияси, T-2021.
11. Shaxnoza To‘xtasinovna Hasanovaning “Tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy g‘ururni shakllantirish” mavzusidagi dissertatsiya. 2021.

MAKTABGACHA TA’LIM TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI INNOVATSION IJODKORLIK FAOLIYATIGA YO‘NALTIRISHNI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

O‘zbekiston. Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi
O‘zbekiston NavDU Maktabgacha ta’lim
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tayyorlov guruhi bolalarini innovatsion ijodkorlik faoliyatiga yo‘naltirishni shakllantirish mazmuni haqida bayon qilingan. Bu qobiliyat insonga nafaqat hayoti davomida qo‘l kelishi va undan foydalanishi mumkin, balki uning ko‘rinishini o‘zgartirishi ham mumkin. Bolalar ijodiyoti va uning o‘ziga xos tomonlarini tushunish pedagoglardan ko‘pgina bilimlarga ega bo‘lishni talab etadi.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, san’at, pedagog, faoliyat, ma’naviy, innovatsiya, tasviriy faoliyat, qobiliyat.

Аннотация: В статье раскрывается содержание формирования направленности детей подготовительной группы дошкольного образования на инновационную творческую деятельность. Эта способность может не только пригодиться и пригодиться человеку на протяжении всей его жизни, но и изменить его внешность. Понимание детского творчества и его уникальных аспектов требует от педагогов обширных знаний.

Ключевые слова: творчество, искусство, педагог, деятельность, духовный, новаторство, изобразительная деятельность, способность.

Abstract: this article describes the content of the formation of the orientation of children of the preparatory group of preschool education to innovative creative activity. This ability can not only be useful to a person throughout his life and can be used, but also change its appearance. Understanding children's creativity and its specific aspects requires teachers to have a lot of knowledge.

Keywords: creativity, art, teacher, activity, spiritual, innovation, visual activity, ability.

Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan, hal etuvchi vosita bo‘lib hisoblanmagan intilishdir. Ijodkorlik- sifat jihatdan yangi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o‘zida insonning mehnatda namoyon bo‘lgan qobiliyatini ifodalaydi. Obyektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijod bo‘lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, mehnati ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda «ijod», «ijodkorlik» kabi atamalarni uchratib qolmoqdamiz. Bu atamalarning adabiyotlar sahifalarida paydo bo‘lganligi bejiz emas. «Ijod» so‘zining lug’aviy ma’nosi: «yaratish», «yangilikni kashf etish» so‘zlariga monand keladi.

Ijodkorlik - faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan, namoyon bo‘lishigacha jarayonini o‘z ichiga oladi.Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog’liq. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o‘z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san’at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog’liq. Shunga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o‘quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi: -tafakkurning mustaqilligi; - o‘quv materialining o‘zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi. Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri barcha bolalarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarda chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan bolalarni aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim. Buning uchun esa: kichik maktab yoshidagi bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada:

-Bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlash;

-Tarbiyachi va bolalar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanish;

-Hozirgi davrda bolalarning biror- bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo‘lgan evristik va muammoli ta'lim o‘quv-biluv jarayoniga faol kirib kelmoqda. V. Karimova o‘z tadqiqotlarida ilmiy faoliyatni ushbu uch turi amalga oshirilganda shaxsning unga mos bo‘lgan sifatlari :

1) Bolalar tomonidan tashqi olamni kuzatish jarayonida zarur bo‘ladigan sifatlari;

2) Bolalar uchun faoliyatning ijodiy mahsulini yaratish sharoitlarini ta'minlovchi ijodiy faoliyat sifatlari;

3) Bolalar bilish faoliyatini tashkil etganda uning oldingi ikki holatda- bilish va ijod holatida ko‘rinadigan sifatlari namoyon bo‘lishini ko‘rsatib o‘tadi.

Quyida sanab o‘tiladigan sifatlar ijodiy izlanishli ta'lim turini rejalashtirish, tashkil etish va samaradorligini nazorat qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ijodiy faoliyatga o‘rgatish fanining asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodiga rahbarlik qilish uchun amaliy bilim va ko‘nikmalar berish.

Ijodiy faoliyatga o‘rgatish vazifasi:

- MTTda bolalarni qo‘l mexnatiga badiiy mexnatga qiziqishlarini uyg‘otish, mehnat orqali hosil bo‘lgan ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

- maktabgacha yeshdagi bolalarda mehnatga nisbatan muhabbatni tarbiyalash va kasbga yo‘naltirish;

- bolalarda ijodiy ko‘rgazmalar, o‘yinlar uchun atributlar yasashga xohishlarini uyg‘otish;

- qog‘oz, karton kabi materiallarning xususiyatlari bilan tanishtirish;

- mehnat qilish madaniyati malaka va ko‘nikmalarini tarbiyalash;

- buyumlarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish, tayyorlash texnologiyasini o‘rgatish, mahsulotni tejash, buyumlari qoralamasining eskizini va suratini chizishga ish joylarini tartibli saqlashga o‘rgatish;

- bolalarni buyumlar yasash jarayonida oddiy asboblardan foydalanishga o‘rgatish hamda badiy didlarini shakllantirishga, vaqtni tejay olishga, maqsadga muvofiq ishlashga odatlantirishdir.

Ijodiy qobiliyat insonni hayvondan farqlab turadigan bir xususiyatdir. Bu qobiliyat insonga nafaqat hayoti davomida qo‘l kelishi va undan foydalanishi mumkin, balki uning ko‘rinishini o‘zgartirishi ham mumkin. Bolalar ijodiyoti va uning o‘ziga xos tomonlarini tushunish pedagoglardan ko‘pgina bilimlarga ega bo‘lishni talab etadi. Pedagog san'atda bu faoliyat qanday xarakterga ega, rassom badiiy obrazni yaratishi uchun qanday vositalardan foydalanayapti, uning ijodiy faoliyatining bosqichlari qanday degan savollarga javob bera olishi kerak. Bolalar atrof-olam bilan tanisha borish jarayonida ularni o‘z faoliyatlarida ya'ni o‘yinlarida, chizgan rasmlarida, loy ishlarida, hikoyalarda va hokazolarda aks ettiradilar. Bolalar tasviriy faoliyatda atrof-olamdan olgan tassurotlarini, tasavvurlaridagi timsollarni turli-tuman materiallardan va aniq shakllar yordamida tasvirlashga harakat qiladilar. Bolalar ijodiyotida ijodiy faoliyatning boshlang‘ich bosqichida o‘ziga xos xarakter xususiyatlari mavjud. Bularga avval o‘zlashtirilgan ish usullarini yangicha mazmunda qo‘llashda, oldinda turgan vazifalarni yangi usullar orqali yechishni, o‘z his-tuyg‘ularini turli vositalar yordamida ifoda etishlarida faol va mustaqil ishtirok etishlari kiradi.

Atrof-olamni bolalar tasviriy faoliyatida tushunish ijodiy ko‘rinishlar bilan bog‘liq emas, balki bola ishlayotgan, ko‘rsatayotgan materialning tarkibini aniqlash orqali namoyon bo‘ladi. Masalan: qalam va bo‘yoqalar qog‘ozda iz qoldiradilar, loy yumshoq undan narsalar yasash mumkin. Keyinchalik tasviriy faoliyat va izlanishlarni rivojlantirish uchun bu bosqich kichik ahamiyat kasb etadi, chunki bola bunda tasavvurlaridagi timsolni yaratish uchun yordam beradigan material bilan tanishadi. Qalamdan qoladigan iz nimanidir ifodalashini tushunadigan bola o‘z xohishi va kattalarning taklifiga ko‘ra qandaydir predmetni tasvirlashga harakat qilsa, unda bolaning faoliyati tasviriy xarakter tusini olgan bo‘ladi. Bolada fikr, maqsad bo‘lib, ularni namoyon etishga harakat qiladi. Shu tariqa ijodiy jarayonning birinchi bosqichi fikrning paydo bo‘lishibola faoliyatida ham hosil bo‘ladi. Rassomda fikrning paydo bo‘lishi bilan odatda mazmunini va bajarish vositalarini o‘ylab boradi, ish uchun odatda uzoq vaqt kerak bo‘ladi, bolada esa ko‘pincha bu

bosqichning hosil bo‘lishi kuzatilmaydi. Bola qanchalik kichik bo‘lsa, u shunchalik o‘ylagan narsasini tez tasvirlashga harakat qiladi. U hali o‘z ishining natijasini va uni bajarish yo‘lini oldindan ko‘ra olmaydi. Avvaldan o‘ylab ko‘rish va ishni rejalashtirish tasvirlash jarayoni bilan birgalikda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bolalar ijodiyotida faoliyatlar jarayonida ish mazmunini o‘zgartirish hollari tez-tez uchrab turadi. Bola tasvirlayotgan rasmdagi timsollarga umuman taalluqli bo‘lmagan detallarni kiritishi mumkin. Bolalarning tasviriy ijodiyotining o‘ziga xos tomonlarini o‘rganish uchun pedagogika tarixida bir qator pedagogik va psixologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Bolalarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg‘ulotlarning o‘rni beqiyos ekanligini e’tirof etgan holda bunday mashg‘ulotlar ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirilishiga ham tamal toshini qo‘yishi shubhasizir. Bolalar rasm, appalikatsiya, loy ishi, qirqib yelimlash mashg‘ulotlari davomida nafaqat biror ish bilan ma’lum muddat band bo‘ladilar, balki yuqorida aytib o‘tganlarimizga qo‘shimcha ravishda ularda quyidagilar rivojlanadi va shakllanadi:

- tasviriy san’at sohasiga doir qobiliyatlari aniqlanadi va shakllantiriladi;
- qalam, mo‘yqalamni ushlash, loy, plastilin bilan ishlash, qaychida ayrim narsalarni qirqib yelimlash orqali mayda qo‘l mushaklari rivojlanadi;
- bola yozuv texnikasini egallashga tayyorlanadi;
- bola tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari orqali diqqatini bir joyga taqsimlay olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, o‘tira olishni o‘rganadi;
- tabiatni, atrof-olamni kuzatishni, uni asrab-avaylashni ardoqlashni, unga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni o‘rganadi;
- jamoa bo‘lib mehnat qilish, ishni rejalashtira olish, o‘rtoqlarini eshita olish va o‘zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishlash malakalari shakllanadi;
- xalqimizning boy madaniy-ma’naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo‘ladi va ularni o‘z ishlarida ifodalashga o‘rganadi. Ijodkorlik qobiliyati insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning obyektiv qonunlari asosida o‘z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o‘zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongining faol mahsulidir. “Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi”ning asosiy mazmunida bolalarning individual xususiyatlari va iste’dodini rivojlantirish vazifasi belgilab berilgan. Xozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loy va plastilin o‘yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko‘rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalar ijodkorligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Ta’lim jarayonida, ertaklar eshitish, har xil rasmlarni ko‘rish tufayli bola o‘yinchoq yasashdan oddin o‘zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta — sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og‘zaki ta’siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo‘lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin. Bolalar badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yo‘llarinio‘rganganda, bolalarga berilgan topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin. Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo‘nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: Tarbiyachining (o‘zing yasa, bir narsa o‘yla, qidirib top, o‘zgartir kabi) ko‘rsatmalari bo‘yicha bolalar pedagog bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar. Ikkinchi bosqichda bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da’vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o‘zlashtirgan ko‘nikmalarni kombinatsiyalash va o‘zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi. Nihoyat, uchinchi bosqich —bolani turli faoliyatda fikrlash bo‘yicha mustaqil harakat qilishga, o‘z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o‘rgatadigan topshiriqlardan iboratdir. Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Tarbiyachining izohi bolalarni qiziqtirishi, buning uchun tarbiyachi goho o‘yin elementlaridan, o‘yin harakatlaridan foydalanishi mumkin. Bolalar ko‘z o‘ngida qo‘g‘irchoqlar paydo bo‘ladi. Ular birgalikda tomosha qo‘yishni so‘raydilar. Bunday ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo‘lishi bolalarni suyuntirib yuboradi. O‘yinchoqlarning harakatlarini ko‘rib, bolalar sevinib ketadilar, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo‘ladi. Agar tarbiyachi mashg‘ulotda o‘yin usulini qo‘llayotgan bo‘lsa, u mashg‘ulot davomida o‘iinda qatnashadigan personaj to‘g‘risida oldindan o‘ylab qo‘yadi. Masalan, qo‘g‘irchoq mana shunday personaj rolini bajarib, bolalar qanday

ishlayotlanligi bilan, topshiriqni kim qanday bajarayotganligi bilan qiziqib koʻrishi mumkin. Keyin u bolalarning hatti — harakatlarini maʼqulaydi, ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga yordam beradi va boshqa shunga oʻxshagan ishlarni bajaradi.

Mashgʻulotda har doim ham bir xildagi oʻyin harakatlaridan foydalanmaymiz, har bir mashgʻulot oldidan bolalarning ruhini koʻtaradigan, kayfiyatini yaxshilaydigan tadbirlar tashkil qilamiz. Buning uchun bolalarga sheʼr oʻqib berishimiz, qoʻshiq aytib berishimiz, topshiriqlar boʻyicha topishmoqlar aytib, kichkintoylarni qiziqtirishimiz lozim. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida ijodiy faoliyatda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, sanʼat asarlarini bilan rasmga qarab hikoya qilish; maktabda esa tasviriy sanʼatning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik va dekorativ sanʼat asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar. Maktabgacha taʼlim tashkilotida tasviriy faoliyat mashgʼulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashgʼulotlari hisoblanadi. Maktabgacha taʼlim tashkilotida keltirilgan mashgʼulotlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Boshlangʼich sinflarda taʼlim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi, maktabgacha taʼlim tashkilotlarida olib boriladigan tasvirlash faoliyati mashgʼulotlari bilan uzviy ravishda olib boriladi. Ijodiy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytganda bolalar ishlarida oʻz hayotida, jamiyatda boʻlayotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun boʻladilar, hayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga etkazish, oldiga maqsad qoʻyib, oʻshani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, oʻrtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlari; ishni baholash jarayonida, ularda oʻrtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda boʻlish, toʻgʻri baholash, oʻz ishidan va oʻrtoqlarining ishidan xursand boʻlish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni 2020.09.23.
2. “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi takomillashtirilgan 2-nashr 2022.02.04.
3.B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. “Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarga taʼlim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari”. Uslubiy qoʻllanma. T: 2015
4. N.N.Djamilova. “Maktabgacha taʼlimda metodika fanlarini oʻqitish metodikasi” oʻquv qoʻllanma T.: 2018.
5. M.B.Kubayeva, Sh.T.Qarshiyeva, G.T.Raxmatova “ Tasviriy faoliyatga oʻrgatish metodikasi” oʻquv qoʻllanma T.: Boknomy print-2025.
6. Suyumov, J., Madaliyeva, G., & Xakimova, K. (2021). IMITATION MODELING TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATIONAL PROCESS. Теория и практика современной науки, (5), 18-21.

HARAKATLI OʻYINLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR HAYOTIDA TUTGAN OʻRNI

Oʻzbekiston.L.N. Shaxriddinova
Ilmiy rahbar: Navoiy davlat Universiteti, Sanʼat va sport fakulteti,
“Spot faoliyati turlari” kafedrasi PhD. dotsent.
N.N. Maxmudova
Maktabgacha taʼlim yoʻnalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada harakatli oʻyinlarning bolalar hayotidagi ahamiyati yoritilgan. Unda oʻyinlar bolaning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishidagi oʻrni, shuningdek, ularning sogʻlom turmush tarzini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Bolalar harakatli oʻyinlar orqali muvozanatni saqlash, chaqqonlik, diqqat va jamoada ishlash koʻnikmalarini rivojlantirishlari haqida fikrlar yoritilgan. Shuningdek, maqolada ota-onalar va pedagoglarning bu jarayondagi vazifalari ham koʻrsatib oʻtilgan. Mazkur maqola maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun foydali metodik manba boʻla oladi.

Аннотация. В этой статье подчеркивается важность активной игры в жизни детей. Анализируется роль игр в физическом, психическом и социальном развитии ребенка, а также

их роль в формировании здорового образа жизни. Особое внимание уделяется идеям о том, как дети могут развивать равновесие, ловкость, внимание и навыки командной работы с помощью активных игр. В статье также описывается роль родителей и педагогов в этом процессе. Данная статья может стать полезным методическим пособием для специалистов, работающих с детьми дошкольного и школьного возраста.

Annotation. This article highlights the importance of active games in children's lives. It analyzes the role of games in the physical, mental and social development of children, as well as their role in forming a healthy lifestyle. It highlights the ideas that children develop balance, agility, attention and teamwork skills through active games. The article also highlights the tasks of parents and educators in this process. This article can be a useful methodological resource for specialists working with preschool and school-age children.

Kalit so‘zlar. Harakatli o‘yinlar, bola rivojlanishi, jismoniy faollik, psixologik rivojlanish, pedagogika, sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiylashuv, tafakkur, bolalar tarbiyasi, o‘yin faoliyati.

Ключевые слова. Активные игры, развитие ребенка, физическая активность, психологическое развитие, педагогика, здоровый образ жизни, социализация, мышление, воспитание ребенка, игровая деятельность.

Keywords. Active games, child development, physical activity, psychological development, pedagogy, healthy lifestyle, socialization, thinking, child upbringing, play activities.

Kirish. Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim va mas’uliyatli bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bola hayoti uchun asos bo‘ladigan ko‘plab fazilatlar, ko‘nikma va malakalar shakllanadi. Shu jihatdan olganda, o‘yin - ayniqsa, harakatli o‘yinlar - bu yoshdagi bolalar uchun tabiiy va eng samarali rivojlanish vositasidir. Harakatli o‘yinlar orqali bolalar nafaqat jismoniy mashq qiladi, balki fikrlaydi, his qiladi, atrof-muhitni o‘rganadi va tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi.

Harakatli o‘yinlar bolaning harakat faoliyatini rivojlantiradi, ularning muvozanat, koordinatsiya, chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik, kuch, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarini shakllantiradi. Shu bilan birga, bu o‘yinlar bolaning psixologik va ijtimoiy rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘yin davomida bola qoidalarga bo‘ysunishni, navbat kutishni, jamoada ishlashni, g‘alaba va mag‘lubiyatni to‘g‘ri qabul qilishni o‘rganadi.

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojida harakatli o‘yinlarning tutgan o‘rni, ularning turlari va pedagogik ahamiyati keng yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Harakatli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojida muhim vosita sifatida ko‘plab pedagog va psixolog olimlar tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Chet el olimlaridan biri J.Piagetning fikricha, bola o‘yin orqali nafaqat harakat faoliyatini rivojlantiradi, balki tafakkur, tasavvur, muloqot kabi psixik jarayonlarni ham mustahkamlaydi. Unga ko‘ra, harakatli o‘yinlar bolalarning atrof-muhitni anglashini va ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishini osonlashtiradi.

Rossiyalik olim N.A.Vetlugina o‘z tadqiqotlarida harakatli o‘yinlarning bolaning harakat faolligini oshirish, jismoniy rivojlanishiga turtki berish va estetik didini shakllantirishdagi o‘rnini tahlil qilgan. Shuningdek, V.V.Davydov va L.S.Vygotskiy kabi olimlar o‘yin faoliyatini bolaning ijtimoiy tajriba orttirish vositasi sifatida baholagan va uni ta’lim-tarbiya tizimida keng qo‘llashni tavsiya etganlar.

A.Avloniyning tarbiya haqidagi qarashlarida bolani erkin harakat qilishga, jismoniy chiniqishga yo‘naltirish orqali uning sog‘lom va barkamol etib voyaga yetishini ta’minlash zarurligi ta’kidlangan.

Biz tarbiyachilar har kuni bolalar bilan ishlaymiz, ularning his-tuyg‘ulari, harakatlari va munosabatlari orqali ularni yanada yaxshiroq anglaymiz. Aynan shunday amaliy kuzatishlar asosida aytish mumkinki, harakatli o‘yinlar - bu bolalar tarbiyasida o‘ta muhim, kuchli vositadir. Harakatli o‘yinlar bolalarda jismoniy faollikni oshiradi, organizmlarini chiniqtiradi va sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishni shakllantiradi. Bundan tashqari, harakatli o‘yinlar davomida bola o‘z tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi, jamoada harakat qilish, qoidalarga amal qilish va boshqalar bilan hisoblashish kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni egallaydi.

Ko‘p yillik tajribam shuni ko‘rsatadiki, o‘yin orqali o‘rganilgan saboqlar bolalar qalbida uzoq saqlanadi. Ayniqsa, o‘yin shaklidagi faoliyat orqali berilgan ma’lumotlar, odob-axloq qoidalari va sog‘lom hayotga oid bilimlar ularning ongida oson singadi. Tarbiyachi sifatida biz shunday o‘yin turlarini tanlaymizki, ular bola yoshiga mos, tarbiyaviy, estetik va jismoniy jihatdan foydali bo‘lishi zarur. Shu boisdan, harakatli o‘yinlarni maktabgacha ta’lim jarayoniga keng jalb etish, ularni maqsadli va rejali asosda tashkil etish har bir tarbiyachining ustuvor vazifasidir, deb hisoblayman.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida harakatli o‘yinlarning tarbiyaviy, jismoniy va ijtimoiy-psixologik jihatdan ta’sirini aniqlash va ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rnini belgilash asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Shu boisdan, quyidagi metodlardan foydalandim:

Kuzatuv: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkazilgan harakatli o‘yinlar jarayoni tizimli ravishda kuzatilib, bolalarning ishtirok faolligi, muloqot darajasi va jismoniy faolligi baholandi.

Suhbat va so‘rovnoma: Tarbiyachilar, psixologlar va ota-onalar bilan suhbatlar olib borildi, bolalarning harakatli o‘yinlarga munosabati, ularning kundalik hayotidagi o‘rni va tarbiyadagi samaradorligi haqida ma’lumotlar olindi.

Eksperiment: Tanlangan eksperimental guruhda harakatli o‘yinlar asosida tuzilgan ta’ilimiy, tarbiyaviy va sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlar tizimli ravishda olib borildi. Nazorat guruhi bilan solishtirish asosida farqlar aniqlanib, o‘yinlarning bola rivojiga ta’siri baholandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot doirasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida harakatli o‘yinlarning qanday yo‘lga qo‘yilgani, bolalarning ushbu o‘yinlardagi ishtiroki va ularning jismoniy, psixologik hamda ijtimoiy rivojiga bo‘lgan ta’siri har tomonlama tahlil qilindi.

Birinchi bosqichda olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, harakatli o‘yinlarda muntazam ishtirok etuvchi bolalarda faoliyatga bo‘lgan qiziqish, o‘ziga ishonch va ijtimoiy faollik darajasi yuqori bo‘ladi. Ular tengdoshlari bilan oson muloqotga kirisha oladi, jamoaviy vazifalarni tezroq o‘zlashtiradi hamda harakatlarda aniqlik va uyg‘unlikni namoyon etadi. Bu holat kuzatuv jurnallari va tarbiyachilarning fikrlari orqali tasdiqlandi.

Ikkinchi bosqichda eksperimental va nazorat guruhlari bilan o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari tahlil qilindi. Eksperimental guruhda bolalar bilan haftasiga 3-4 marotaba harakatli o‘yinlar tashkil etildi. Tajriba yakunida ushbu guruhdagi bolalarning:

- harakat koordinatsiyasi (muvozanat, tezlik, chaqqonlik) 23% ga,
- ijtimoiy faoliyati (do‘stlashish, navbat kutish, qoidaga bo‘ysunish) 30% ga,
- emotsional barqarorligi va tashabbuskorligi esa 27% ga oshgani kuzatildi.

Shuningdek, so‘rovnoma va suhbatlar orqali aniqlanishicha, tarbiyachilar harakatli o‘yinlarning bolalar ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, ayniqsa injiq, kamgap va tortinchoq bolalarda ochiqlik va faoliyatga intilish uyg‘otishini qayd etganlar. Ota-onalar esa bolalarning jismoniy chiniqishida, uxlash va ovqatlanish rejimiga rioya qilishida ijobiy o‘zgarishlar bo‘lganini tasdiqlashdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, harakatli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida ko‘p qirrali o‘rin egallaydi. Ular nafaqat jismoniy rivojlanishga, balki, emotsional barqarorlik, tafakkur faolligi, ijtimoiy muloqot va axloqiy fazilatlarning shakllanishiga ham samarali ta’sir ko‘rsatadi. Harakatli o‘yinlar orqali bolalar maktab ta’limiga tayyorlanadi, ya’ni fikrlash, eslab qolish, boshqaruvga bo‘ysunish, jamoada ishlash kabi zarur ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Muntazam harakatli o‘yinlarda ishtirok etuvchi bolalarda:

- ijtimoiy faollik va muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi;
- emotsional barqarorlik shakllanadi;
- mustaqillik, tashabbuskorlik, qoida asosida harakat qilish, o‘zini nazorat qilish sifatlari ortadi.

Harakatli o‘yinlar orqali bolaning maktabga tayyorgarlik darajasi ham oshadi. O‘yin davomida bolaning diqqat, eslab qolish, ko‘rsatmaga bo‘ysunish kabi kognitiv funksiyalari rivojlanadi, bu esa keyingi bosqichdagi ta’limni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishiga zamin yaratadi.

Tarbiyachilar va ota-onalarning fikriga ko‘ra, harakatli o‘yinlar bola sog‘lig‘iga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib, uyqu, ishtaha, xulq-atvor va intizomga ijobiy o‘zgarish olib keladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, harakatli o‘yinlar – maktabgacha ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular bolalarning jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bolaning organizmi faol o‘sish va shakllanish bosqichida harakatli o‘yinlar jismoniy chiniqish, chaqqonlik, muvozanat va koordinatsiyani rivojlantiradi. O‘yin orqali tarbiya – bu bola uchun eng tabiiy va samarali ta’sir shaklidir. Harakatli o‘yinlar bolaga atrof-muhitni anglash, jamoadagi o‘z rolini tushunish, o‘z fikrini bildirish, muomala madaniyatini egallash imkonini beradi.

Men o‘z ish faoliyatimdan kelib chiqib, tarbiyachilar uchun metodik qo‘llanmalar va treninglar ishlab chiqilishi, ular harakatli o‘yinlar mazmuni, turlari, tashkil etish usullari bo‘yicha muntazam yangilanib borilishi zarur deb o‘ylayman. Bundan tashqari har bir guruhda bolalarning yosh va rivojlanish xususiyatlariga mos harakatli o‘yinlar majmuasi ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi kerak.

Ota-onalarning bu jarayondagi ishtirokini kuchaytirish maqsadida oilada ham harakatli o‘yinlarni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar va seminarlar o‘tkazilishini tavsiya etaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xolmatova, B. (2018). “Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasida harakatli o‘yinlarning o‘rni.”// Pedagogik mahorat ilmiy-metodik jurnali, №2, 45-49 b.

2.Qosimova, D. (2021).“Harakatli o‘yinlar orqali bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish.”//Maktabgacha ta’lim muammolari jurnali, №4, 60-64 b.

3. Jo‘rayev A. “Maktabgacha ta’limda innovatsion metodlar”.// - Toshkent: Ilm Ziyo, 2021 - 160 b.

4. Karimova D. “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi”.// - Toshkent: Fan va texnologiya, 2022 – 184 b.

5. Islomova G. “Harakatli o‘yinlar orqali bolalarni jismoniy rivojlantirish”.// - Samarqand: Barkamol avlod, 2023 – 132 b.

6. Nurmatova N. “Maktabgacha ta’limda sog‘lomlashtirish texnologiyalari”.// - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020 – 148 b.

7. Akramova M., Rahimova Z. “Maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin texnologiyalarining roli”.// - Buxoro: Iqtisod-Moliya, 2023 – 143 b.

8. Xo‘jayeva D. “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi”.// -Toshkent: Ziyonashr, 2022 – 170 b.

TA’LIM JARAYONIDA BOLALARNI TARBIYALASH TIZIMI

O‘zbekiston. Sayemova Dilafruz
Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida bolalarni tarbiyalash tizimining mazmun-mohiyati, metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari keng yoritilgan. Shuningdek, oilaviy, maktabgacha va maktab bosqichlarida tarbiya berishning psixologik-pedagogik xususiyatlari hamda tarbiya jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or tajribalar tahlil etiladi. Tarbiya tizimining shaxs kamolotiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy-nazariy asosda bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarbiya, shaxs kamoloti, ta’lim-tarbiya birligi, pedagogik yondashuv, oilaviy tarbiya, maktab tarbiyasi, axloqiy qadriyatlar, milliy tarbiya.

Аннотация. В статье широко освещены содержание, методические основы и современные подходы системы воспитания детей в образовательном процессе. Также анализируются психолого-педагогические особенности семейного, дошкольного школьного образования и передовой опыт по совершенствованию образовательного процесса. Влияние системы образования на развитие личности объясняется на научно-теоретической основе.

Ключевые слова: образование, развитие личности, образовательно-воспитательное единство, педагогический подход, семейное воспитание, школьное воспитание, нравственные ценности, национальное воспитание.

Annotation. In this article, the content, methodical foundations and modern approaches of the system of raising children in the educational process are widely covered. Also, psychological-pedagogical characteristics of family, pre-school and school education and best practices on improving the education process are analyzed. The impact of the educational system on the development of the individual is explained on a scientific and theoretical basis.

Key words: education, personality development, educational-educational unity, pedagogical approach, family education, school education, moral values, national education.

Kirish. Tarbiya har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Insonning jamiyatdagi faoliyatga tayyorlanishi, uning axloqiy va ijtimoiy qiyofasi, intellektual va jismoniy yetukligi, avvalo, qanday tarbiya olganiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim-tarbiya masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu, avvalo, yangi tarbiya, yangi tafakkur egasi bo‘lgan insonni voyaga yetkazish demakdir.” Ushbu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’limda tarbiya jarayoni o‘zaro ajralmas, izchil tizimda olib borilishi lozim.

Asosiy qism. Tarbiya deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishni tushunamiz. Tarbiya, ta‘lim berish bilan mustahkam aloqada bo‘lgani holda o‘ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta‘lim – tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o‘xshash emas. Ta‘lim va tarbiyaning birligi avvalo, ularning maqsadining umumiyligidadir. Bir butun pedagogik jarayonda ta‘lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishda mas‘uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko‘p qirralidir. Ta‘limning asosiy vazifasi o‘quvchilarni bilimlar bilan Uning ta‘limda qanday farqli tomonlari mavjud? Tarbiya yoshlarning jamiyatimizning qonunlariga javob bera oladigan e‘tiqodini, axloqiy tushuncha va ko‘nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirishda muhimdir.Abdulla Avloninyning «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo‘lsa ham bir biridan ayrilmaydigan, birining biriga bog‘langan kabidur» deb ta‘kidlashi bejiz emas. Ma‘lum bo‘ladiki, ta‘lim va tarbiyani bir-biridan ajratish mumkin emas. Shu bois, hozirgi kun pedagogikasining asosiy vazifasi bilim berib, tarbiyalash tamoyiliga ko‘ra tarbiyalab, bilim berish bo‘lmog‘i lozim.

Abu Nasr Forobiyning ta‘limotida komil inson muammosi u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jamiyatni mukammallashtirish, fozil jamoa qurish, insonga baxt saodat eshiklarini ochish vositalarini yaratish masalalari markaziy o‘rinni egallaydi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada bilimni o‘zlashtira olmaydilar. O‘quvchining yoshi ulgaygani sari bu faollik tobora ko‘proq mustaqil xususiyatlarga ega bo‘lib boradi. Tarbiyalanuvchilar o‘zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga, o‘z-o‘zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga ko‘nika boradilar. Mutafakkirlarning tarbiya haqidagi fikr va mulohazalari «Kitob al axl almadina al-Fozilo» («Fozil shahar odamlarining qarashlari haqida risola») asarida ta‘kidlashicha, insonning bu olamga kelishi va yashashidan maqsad baxt-saodatga erishishdan iboratdir. Baxt-saodat eshiklarining kaliti insonning o‘z qo‘lidadir: bu maqsadga odamlar fazilatli ishlari va yaxshi axloqiy sifatlari sohiblari bo‘lish orqali erishadilar. Fozil jamoa (Forobiy fozil shahar ahli, deydi) odamlarning turmush tarzi va faoliyati boshqa nomukammal shahar odamlarining turmushidan farqi shundaki, «bir guruh (fozil) odamlar birgalikda ana shu xislatlar (fazilatlar)ga ega bo‘lishsa (ya‘ni, birida bu, ikkinchisida u, uchinchisida yana boshqa (go‘zal) xislatlar bo‘lsa), ana shu fozillar guruhini yurt rahbarligiga ko‘yish zarur. Shu guruhning a‘zolari birlashib, o‘zaro kelishib harakat qilsa, har biri fozil odam bo‘lishi mumkin, Fozillar shahri, uning aholisi, ularning dillari erishadigan baxt-saodat nima ekanligini bilishlari zarur. Yana «Fozillar shahri» aholisi oxiratda nelarga erishuvini, nelardan (qanday ijtimoiy illatlardan) saqlanishini bilishlari zarur». Fozil shahar yoki ideal davlat oqil talablari, adolat va muhabbat asoslari ustiga quriladi. Jamoat hayotining osoyishtaligi, kishilar o‘rtasidagi hamjihatlik, hamkorlik, jamiyatning yaxlitligi, adolatli siyosat va undan kelib chiqadigan namunali ishlari orqali ta‘minlanadi hamda

yuzaga chiqadi. Forobiy ruh tarbiyasi tan (vujud) tarbiyasidan ustun degan fikrni ilgari surmaydi, balki ular o‘rtasidagi muvozanat, uyg‘unlik ko‘zda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasida jahonning rivojiangan mamlakatlari kabi ta ’lim -tarbiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya tizimini shakllantirish, barcha sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo‘lishni kengaytirishga mustahkam zamin yaratilmoqda. Endilikda mamlakatning iqtisodiyoti, insonlar hayoti va jahon ham jamiyatidagi o‘rni axborot-texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ma’lumki, fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan., fan-texnika yangi soha va bo‘limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta’minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Ma’naviyati yuksak shaxslar yurtni tanitadi. Shaxsni esa uning m a’naviy qiyofasi tanitadi. Ma’naviyat tarbiyadan boshlanadi. T a’lim-tarbiyasiz m a’naviyatning bo‘lmasligi barchaga ayon haqiqatdir. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov ‚Tafakkur“ jurnali bosh muharriri E. A’zam bilan suhbatda ulug‘ alloma Abdulla Avloniyning „Tarbiya — biz uchun yo hayot, yo marnot, yo najot, yo hatokat, yo saodat, yo falokat masalasi, jamiyatimizning ertangi taqdiri farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘’liq“ degan fikrini alohida ta ’kidlab o ‘tgan edi. Chunki buyuk m a’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy barkamollik „hayot qonuni ilmni idrok etish“ demakdir. Ilmning har qanday ko‘rinishi esa ta ’lim -tarbiya orqali ustoz-muallimlar boshchiligida beriladi. Ushbu ma’noda umumta’lim maktablari mazkur masalani hal qilishda asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Umumiy ta’lim oldiga qo‘yilgan muhim masala umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta’lim - tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g‘oyasini kuchaytirish, xalqchillashtirish, uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

Tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari va ularning vazifalari

1. Aqliy tarbiya

Aqliy tarbiya — bu shaxsning aqliy salohiyatini rivojlantirish, fikrlash va tushunish qobiliyatlarini shakllantirish jarayonidir. Aqliy tarbiya orqali insonning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, intellektual faolligi, ijodiy fikrlash, mantiqiy va tahliliy yondashuvlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuv amalga oshiriladi. Aqliy tarbiyaning asosiy maqsadi — o‘quvchilarning aqliy salohiyatini oshirish, ularga mustaqil fikrlash, masalalarni hal qilish va qarorlar qabul qilishda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini berishdir. Bu jarayonning muhim jihatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish — diqqat, xotira, tasavvur va tushuncha kabi aqliy faoliyatni yaxshilash.

2. ijodiy fikrlashni rivojlantirish — yangi g‘oyalar yaratish, muammolarni yechish uchun alternativ yondashuvlarni topish.

3. mantiqiy va tahliliy fikrlash — har qanday masalani mantiqan va to‘g‘ri yondashuv asosida o‘rganish va yechimini izlash.

4. mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish — o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, ularni asoslash va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda yordam berish.

Aqliy tarbiya o‘quvchilarga nafaqat bilimlarni berish, balki ularni zamonaviy hayotda muvaffaqiyatli va ijtimoiy faol insonlar sifatida shakllantirishga yordam beradi.

2. Axloqiy tarbiya

Axloqiy tarbiya — bu insonning axloqiy me’yorlar va qadriyatlar asosida to‘g‘ri va mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirish jarayonidir. Axloqiy tarbiya orqali shaxsning ijtimoiy va shaxsiy mas’uliyatini, o‘ziga va boshqalarga nisbatan hurmatini, adolat, halollik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirish maqsad qilinadi.

Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi — o‘quvchilarni axloqiy jihatdan etuk, ijtimoiy mas’uliyatli va o‘zini to‘g‘ri tutish qobiliyatiga ega insonlar sifatida tarbiyalashdir. Bu jarayonda quyidagi asosiy jihatlar e’tiborga olinadi:

1. Insoniy qadriyatlarni rivojlantirish — halollik, adolat, mehribonlik, o‘zini hurmat qilish, boshqalarni hurmat qilish kabi axloqiy me’yorlarni o‘rgatish.

2. Jamoat oldidagi mas’uliyatni his qilish — o‘quvchilarga jamiyatda o‘z vazifalarini bajarish, boshqalar bilan birgalikda ishlash, o‘z xulq-atvorining jamiyatga ta’sirini tushuntirish.

3. O‘z-o‘zini nazorat qilish va jamiyat qoidalariga rioya qilish — shaxsning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish va jamiyatda umumiy axloqiy qoidalarga amal qilishga o‘rgatish.

4. Empatiya va boshqalarga yordam berish — boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish, ularning muammolarini e’tiborga olish va yordam berishga intilish.

Axloqiy tarbiya nafaqat o‘quvchilarning shaxsiy hayotiga, balki jamiyatga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonni amalga oshirishda o‘qituvchilar, ota-onalar, jamiyat va davlat o‘rtasida hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

3. Estetik tarbiya

Estetik tarbiya — bu shaxsning estetik hissiyotlarini, san’atga bo‘lgan qiziqishini va go‘zallikni anglash qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir. Estetik tarbiya orqali insonning san’atlarga, tabiatga, madaniyatga va umuman go‘zallikka bo‘lgan tushunishi va hurmati shakllanadi. Bu jarayonning asosiy maqsadi — o‘quvchilarga estetik me’yorlar asosida to‘g‘ri baho berish, estetik didni rivojlantirish, san’at va go‘zallikka bo‘lgan muhabbatni singdirishdir.

Estetik tarbiya quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. San’atga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish — musiqaga, tasviriy san’atga, adabiyotga, teatrga va boshqa san’at turlariga nisbatan qiziqish uyg‘otish.

2. Go‘zallikni anglash — tabiatdagi, san’atlardagi va kundalik hayotdagi go‘zallikni sezish va qadrlash.

3. Estetik didni rivojlantirish — o‘quvchilarda go‘zal va estetik jihatdan to‘g‘ri tanlovlar qilish qobiliyatini shakllantirish.

4. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish — san’atchilikka oid faoliyatlarni o‘rgatish, ijodkorlikni rag‘batlantirish.

Jismoniy tarbiya — bu insonning jismoniy salomatligini, kuch-quvvatini, sog‘lig‘ini va jismoniy faolligini rivojlantirish jarayonidir. Jismoniy tarbiya orqali organizmning turli tizimlari (yurak-qon tomir, mushaklar, nerv tizimi)ni mustahkamlash, jismoniy faoliyatni uzluksiz va to‘g‘ri bajarish qobiliyatini rivojlantirish maqsad qilinadi.

4.Jismoniy tarbiya

Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi — shaxsning jismoniy salomatligini ta’minlash, uning energiyasini oshirish, sport va jismoniy faoliyat orqali ijobiy jismoniy o‘zgarishlarni amalga oshirishdir. Bu jarayon quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Jismoniy salomatlikni rivojlantirish — jismoniy faollik orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.

2. Jismoniy qobiliyatlarni oshirish — chidamlilik, kuch, moslashuvchanlik va koordinatsiyani yaxshilash.

3. Sportni rivojlantirish — jismoniy mashqlar va sport turlari orqali o‘quvchilarni faollikka undash.

4. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish — o‘quvchilarni sog‘lom ovqatlanish, uyqu tartibini saqlash va jismoniy faollikni kundalik hayotga kiritishga o‘rgatish.

Estetik va jismoniy tarbiya bir-birini to‘ldiradigan jarayonlardir, chunki estetik tarbiya orqali go‘zallik va san’atni anglash qobiliyati, jismoniy tarbiya orqali esa jismoniy va ruhiy salomatlikni yaxshilash imkoniyatlari yaratiladi. Bu ikki yo‘nalishning uyg‘unlashgan ta’siri shaxsning umumiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

5. Mehnat tarbiyasi

Mehnat tarbiyasi — bu bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, mehnatni qadrlash, mehnatga ijodiy yondashish hamda jamiyatda o‘zining mehnat faoliyatini samarali tashkil qilish

ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonidir. Bu tarbiya bolalarga nafaqat mehnatning ahamiyatini tushuntirish, balki ularni o‘zlarini mehnat faoliyatiga jalb etish orqali maqsadli va samarali ishlashga o‘rgatadi.

Mehnat tarbiyasining asosiy maqsadlari:

1. Bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish.
2. Mehnatni bajarayotganda mas’uliyat va intizomni rivojlantirish.
3. Bolalarga jamoaviy ish va hamkorlikni o‘rgatish.
4. Mehnat jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z vaqtida samarali ishlashni o‘rgatish.

Mehnat tarbiyasini o‘rgatishda ko‘plab usullar qo‘llanadi: o‘yinlar, mashg‘ulotlar, amaliy ishlar, va uy ishlari. Bularning barchasi bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda va ularga zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Tarbiya – bu shunchaki axloqiy qoidalarni o‘rgatish emas, balki bolani har tomonlama kamol topgan, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, ijtimoiy faol va ma’naviy boy shaxs sifatida shakllantirishdir. Bugungi kunda zamonaviy jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan biri – yosh avlodni milliy qadriyatlar, insonparvarlik, vatanparvarlik, ekologik va raqamli madaniyatga asoslangan ruhda tarbiyalashdir. Ta’lim va tarbiya o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unligi natijasida shaxs kompleks rivojlanadi. Shu sababli har bir pedagog o‘z faoliyatida nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiya beruvchi ham bo‘lishi lozim.

Tarbiya tizimi ota-ona, maktab, mahalla va jamiyatning umumiy hamkorligiga tayanishi zarur. Oilaviy tarbiya asos bo‘lsa, maktab bu tarbiyani mukammal davom ettiradi. Har bir tarbiya yo‘nalishi bolaning ma’lum jihatini rivojlantiradi, shuning uchun barcha yo‘nalishlar uyg‘un va muvozanatli olib borilishi kerak. Ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan va innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida bolalarni tarbiyalash – kelajak jamiyatining asoslarini yaratish demakdir. Demak, bu boradagi har bir harakat, har bir yondashuv – Vatanimiz ertangi kunining poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Suxomlinskiy V.A. “Yurakdan yurakka yo‘l” – Toshkent, 1985.
2.Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” – Toshkent, 2008.
3.Nazarova D. “Pedagogik mahorat asoslari” – Toshkent, 2021.
4.Yusupova G. “Tarbiya nazariyasi va metodikasi” – Navoiy, 2019.
5.Turaqulov O. “Umumiy pedagogika” – Samarqand, 2020.
6.Xodjayev N. “Milliy tarbiya asoslari” – Toshkent, 2017
7.Djurayva S.N, Turdiyeva N.S, Baxronova A. I “ Tarbiyaviy ishlar metodikasi “ Buxoro 2021
8. R. Amavlonova, N. X. Rahmonqulova, B. A. Normurodova, K. O. Matnazarova “TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI” Toshkent 2014

ERTAKTERAPIYA ORQALI BOLALARDAGI EMOTSIONAL BUZILISHLARNI KORREKSIYALASH

O‘zbekiston. N.G. Meyliyeva
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
S.M. Saidova
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalardagi emotsional buzilishlarni bartaraf etishda ertakterapiyaning o‘rni va ahamiyati, uning afzalliklari hamda bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ota-onalarning shaxsiy qo‘rquvlarini bolaning qo‘rquvi deb bilish noto‘g‘ri ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: ertak terapiya, emotsional buzilishlar, agressivlik, qo‘rquv, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘zgalar bilan munosabat, ong osti, individual xususiyatlar.

Kirish: Bugungi kunda bolalardagi emotsional buzilishlar muammosi dolzarb bo‘lib, ularni bartaraf etishda turli psixologik usullar qo‘llanilmoqda. Shu o‘rinda ertakterapiya bolalarga yaqin va tushunarli usul sifatida alohida ahamiyatga ega. Ertakterapiya – bu bolaning ichki dunyosini ochish, muammolarini aniqlash va ularni hal etishga yordam beruvchi psixologik usuldir.

Ertak terapiyaning asosiy tamoyillari va vazifalari. Ertakterapiyaning asosiy maqsadi bolalardagi agressivlik kayfiyatini yo‘qotish, o‘z-o‘zini emotsional boshqarish va o‘zgalar bilan ijobiy munosabatni rivojlantirishdan iborat. Bunda quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim:

Xalq ertaklariga tuzatish kiritmaslik: Xalq ertaklariga iloji boricha tuzatish va o‘zgartirishlar kiritmaslik, ayniqsa real hayot bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu o‘zgartirishlar bolaning ertaklar olamini qabul qilishida qiyinchilik tug‘diradi.

Sodda va tushunarli uslub: Ertakterapiya soddaligi va bolalarning ertakka bo‘lgan qiziqishi tufayli ular uchun tushunarli bo‘lgan ertak uslubi va bolalar bilan ishlash yo‘llaridan foydalaniladi.

Individual yondashuv: Har bir bola ertakni o‘zicha tushunadi va qabul qiladi. Shuning uchun bir ertak unda katta ta’surot qoldiradi, boshqasi esa uning his-tuyg‘ularini qo‘zg‘atmay, yonidan o‘tib ketadi.

Ong ostiga ta’sir: Ertak nafaqat insonning ongiga, balki ongostiga ham ta’sir qiladi, «ajdodlar xotirasi»ga yoki genetik xotiraga tayana olar ekan, syujetning murakkabligidan qo‘rqish kerak emas.

Ertak terapiyaning afzalliklari. Xatti-harakatdagi emotsional salbiy o‘zgarishlarni to‘g‘rilashga qaratilgan ertaklarda syujetni chuqur anglash emas, balki insonlarning o‘zaro munosabatlarini, ularning ko‘rsatgan qahramonliklarini, u yoki bu tanlovning natijasini, o‘zining ma’lum bir vaziyatga shaxsiy munosabatini, o‘zining shaxsiy hayoti bilan o‘zaro aloqalarini voqea va qahramonliklari yordamida eshitayotgan, o‘qiyotgan insonning qalbidadir. Bu quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

Muammolarni aniqlash va hal etish: Ertaklar orqali bola o‘z muammolarini aniqlaydi va ularni hal etish yo‘llarini topadi.

Emotsional barqarorlikni oshirish: Ertaklar bolaning emotsional holatini yaxshilaydi, qo‘rquv va xavotirni kamaytiradi.

Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: Ertaklar bolaga o‘zgalar bilan munosabat o‘rnatish, hamkorlik qilish va muammolarni birgalikda hal etish ko‘nikmalarini o‘rgatadi.

Ijodkorlikni rag‘batlantirish: Ertaklar bolaning fantaziyasini, ijodiy fikrlashini va o‘zini ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ota-onalarning roli. Ertakterapiya jarayonida ota-onalarning roli muhim ahamiyatga ega. Ular bolaning muammolarini tushunishga harakat qilishlari, uni qo‘llab-quvvatlashlari va ertaklarni birgalikda o‘qishlari kerak. Shuni hisobga olish zarurki, ko‘p hollarda ota-onalar o‘zlarining shaxsiy qo‘rquvlarini bolaning qo‘rquvi deb ta’kidlaydilar. Bu noto‘g‘ri yondashuv bo‘lib, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Xulosa: Bola xatti-harakatidagi emotsional buzilishlarni, albatta o‘yinlar, o‘yinchoqlar, bolaning tasviriy faoliyati, musiqa, teatr va umuman aytganda san’at yordamida ham to‘g‘rilasa bo‘ladi. Lekin, bolalar uchun eng tushunarli va sevimli usul bu – ertakdir. To‘g‘ri tanlangan ertak yordamida boladagi ko‘plab muammolar – qo‘rquv, injiqlik kabilarni yo‘qotish, bolada qat’iyat va irodani shakllantiradi. Ertaklarni faqatgina psixologik terapiyadagina qo‘llamay, balki oila davrasida muntazam qo‘llash bolalik davridagi eng iliq hislarni bola xotirasida muhrlashga imkon beradi. Ertaklar bolaning muammolaridan kelib chiqqan holda tuzilishi, ertak terapiyasini o‘tkazish mobaynida bolaning har bir xatti-harakatiga ahamiyat berib borilishi lozim. Bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ertakni qabul qilish darajasini muntazam kuzatib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zebiniso Ahmedova “Ertak terapiya” Toshkent- 2019
2. Z.T. Nishanova, G.F.L Alimova, A.G‘.Turg‘unboyeva, M.X.Asranboyeva “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” Toshkent – 2017
3. K. Qosimova, Safo Matchonov va boshqalar “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent “Nosir” nashriyoti – 2009

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH VA UNING AHAMIYATI

O‘zbekiston. Otamurodova Sitorabonu Sultonmurot qizi
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi,
Hojiyeva Ruxshona
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning mazmuni, ahamiyati va asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Unda sog‘lom turmush tarzi tushunchasi, bolalarda gigiyenik ko‘nikmalar, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, dam olish va psixologik salomatlikni ta’minlashning zarurligi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, bu boradagi amaliy faoliyatlar va ota-onalar bilan hamkorlik masalalari ham tahlil etilgan. Maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid ko‘nikmalarni shakllantirishda pedagog va tarbiyachilar uchun uslubiy tavsiyalar sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, sog‘lom turmush tarzi, sport, jismoniy mashqlar, gigiyena, sog‘lom ovqatlanish, faollik, rivojlanish.

Аннотация: В данной статье освещаются содержание, значение и основные направления формирования здорового образа жизни в дошкольных образовательных учреждениях. Рассматриваются понятие здорового образа жизни, необходимость формирования у детей гигиенических навыков, правильного питания, физической активности, отдыха и психологического благополучия. Также проанализированы практические мероприятия в этом направлении и вопросы сотрудничества с родителями. Статья служит методическим руководством для педагогов и воспитателей по формированию у дошкольников навыков, связанных со здоровым образом жизни.

Ключевые слова: дошкольное образование, здоровый образ жизни, спорт, физические упражнения, гигиена, здоровое питание, активность, развитие.

Annotation: This article highlights the content, significance, and main directions of promoting a healthy lifestyle in preschool educational institutions. It discusses the concept of a healthy lifestyle, the importance of developing children's hygiene habits, proper nutrition, physical activity, rest, and psychological well-being. The article also analyzes practical activities in this area and issues of cooperation with parents. It serves as a methodological guide for educators and caregivers in fostering healthy lifestyle habits among preschool children.

Keywords: preschool education, healthy lifestyle, sports, physical exercises, hygiene, healthy nutrition, activity, development.

Jamiyat taraqqiyoti sog‘lom avlod tarbiyasiga bevosita bog‘liqdir. Sog‘lom bolalar kelajakda yetuk mutaxassis, kuchli, salohiyatli va komil inson bo‘lib yetishadi. Maktabgacha yosh — bu bolaning ruhiy, jismoniy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ana shu davrda sog‘lom turmush tarzining tamoyillarini shakllantirish, bolalarga salomatlikning qadri haqida tushuncha berish muhimdir. Bugungi kunda sog‘lom turmush tarzi deganda biz odamlarning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan faoliyatini tushunamiz. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bola hayotidagi ilk ijtimoiy institut bo‘lib, aynan shu yerda sog‘lom turmush tarzining asoslari qo‘yiladi. Bu tashkilotlarda bolalarning jismoniy rivoji, to‘g‘ri ovqatlanish madaniyati, gigiyenaga rioya qilish, odob-axloq qoidalari, mustaqil fikrlash va o‘z sog‘lig‘iga mas’uliyatli qarash kabilar shakllanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning barcha hayotiy faoliyati sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Maqsad sog‘lomlashtirish ishi maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘z sog‘lig‘ini va boshqalarning sog‘lig‘ini saqlash zarurati uchun barqaror motivatsiyani yaratishdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish, tarbiyalanuvchilarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi hamda sog‘lom turmush tarzi, zararli odatlardan voz kechish, to‘g‘ri

ovqatlanish va sog‘lomlashtirish, tizimli ravishda ommaviy jismoniy tarbiyalash tamoyillariga rioya qilish bo‘yicha hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ning VII-bandida Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sog‘lom va mutanosib oziq-ovqat, sifatli tibbiy xizmat bilan ta’minlash chora-tadbirlari” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Prezidentimizning tashabbusi bilan “Yoshlar — kelajagimiz” kabi dasturlar doirasida bolalar sog‘lig‘i va salomatligini ta’minlash uchun keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘sib kelayotgan yosh avlod sog‘lom turmush tarziga amal qilmas ekan, u kelajakda kasallikka chalinishga nisbatan moyilligi ortib boraveradi.

Buni oldini olishda sog‘lom turmush tarziga rioya qilish samarali natija beradi. Bolalarning jismoniy faolligi natijasida o‘ziga ichonchi ortib, oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishiga motivatsiyasi shakllanadi. Sog‘lom turmush tarziga rioya qilish natijasida organizmda sog‘lom fikr-mulohazalar paydo bo‘la boshlaydi. Buning ajablanarli joyi yo‘q. Chunki sog‘lom turmush tarzi, bir tomondan, odatiy holga aylangan ko‘plab kunlik odatlar va faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Sog‘lom turmush tarzi dasturini amalga oshirishda, unga o‘tishni tashkil etishda, individual xususiyatlarga qarab, inson turli xil variantlarni tanlashi mumkin. Shuning uchun inson salomatligini ta’minlashga qaratilgan barcha harakatlar, jismoniy mashqlar, gigiyena va kun tartibi, ovqatlanish vaqti, dam olish vaqti va hokazo. Vaqtni aniq ko‘rsatgan holda bolalar uchun tuzilgan kun tartibiga qat’iy mos keladi. Kun tartibini rejalashtirish har qanday holatda ham yaxshiroq ekanligi, uni amalga oshirish jarayonida bola o‘ziga ishongan, qat’iyatli va sog‘lom bo‘lishi, tarbiyachi bolaning holatini muntazam ravishda tahlil qilishi va turmush tarziga tegishli tuzatishlar kiritishi muhimdir. Shubhasiz, bularning barchasi inson hayotining samaradorligi va unumdorligi nuqtai nazaridan ham, uning salomatligi darajasi va dinamikasida ham o‘z samarasini beradi.

Xulosa: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi. Bu jarayonda tarbiyachi va pedagoglarning to‘g‘ri yondashuvi, ota-onalar bilan yaqin hamkorligi va tashkilot ichida yaratilgan sog‘lom muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bolalikda shakllangan sog‘lom turmush ko‘nikmalari butun umr davomida inson hayotining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois bu masalaga doimiy va izchil yondashuv zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2018 yildagi PQ-3955-son qarori. https://lex.uz/docs/-3923110

2. “Ozbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son qarori,. https://lex.uz/docs/-4327235

3. Xolmatova G.T. – “Maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lomlashtirish metodikasi”

4. **Otamurodova, S.S.** (2024). The Cultivation of Media Competency among Prospective Educators as a Pedagogical Issue. *American Journal of Science and Learning for Development (AJSLD)*, 3(8). https://doi.org/10.51699/ajsld.v3i8.292. https://journal.academicjournal.id/index.php/ajsld/article/view/292

5. **Otamurodova, S.S.** (2024). The Cultivation of Media Competency Among Prospective Educators as a Pedagogical Issue in Uzbekistan. *International Scientific Journal «Science and Innovation». Series B,* 3(12). https://scientists.uz/view.php?id=8330.

6. **Otamurodova, S.S.** (2023). The Role of Ethno-Pedagogic Traditions in the Education of Students. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 18. https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/3527

7. **Sharipova, N., Ulug‘berdiyeva, D., Melikulova, N., & Otamurodova, S.** (2023). The Role of Folk Pedagogy in Spiritual and Moral Education of Future Teachers. *Journal for New Zealand Herpetology*, 12(4), July-August. https://biogecko.co.nz/index.php/journal/article/view/122

CHET TILLARNI O‘RGATISHDA YOSH XUSUSIYATLARINING AHAMIYATI

O‘zbekiston. Safarova M. A
Fakultetlararo chet tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Isakulova Rayxon To‘lqin qizi
Tillar fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta’limda ingliz tilini o‘qitishdagi muhim jihatlar, jarayondagi qiyinchiliklar hamda yosh xususiyatlari farqlari turli xil kuzatuvlar asosida bayon qilinadi. Ushbu maqola tegishli nazariyalarni ko‘rib chiqadi, turli o‘qitish strategiyalarini taqqoslaydi va maktabgacha ta’limda samarali EFL (ya’ni, ingliz tilining chet tili sifatida o‘rganilishi) o‘qitish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Ingliz tilini o‘rgatishning ahamiyati, maktabgacha ta’lim, til o‘rganish, yosh xususiyatlari farqlari, o‘qitish strategiyalari

Annotation: This article discusses key aspects of teaching English as a Foreign Language (EFL) in preschool education, the challenges of the process, and age-related differences based on various observations. The article reviews relevant theories, compares different teaching strategies, and provides recommendations for effective EFL teaching in preschool education.

Key words: English as a Foreign Language (EFL), preschool education, language learning, age differences, teaching strategies

Аннотация: В данной статье рассматриваются ключевые аспекты преподавания английского языка как иностранного в дошкольном образовании, трудности процесса, а также возрастные различия на основе различных наблюдений. В статье рассматриваются соответствующие теории, сравниваются различные стратегии обучения и даются рекомендации по эффективному обучению английскому языку в дошкольном образовании.

Ключевые слова: английский язык как иностранный, дошкольное образование, изучение языка, возрастные различия, стратегии обучения.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat o‘quv dasturi “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilab berilgan. Maktabgacha ta’limda chet tili sifatida ingliz tilini (EFL) o‘qitish bolalarning rivojlanish bosqichlariga qarab turli xil bo‘ladi. Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- go‘daklik (tug‘ilganidan 1 yoshgacha);
- erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
- kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);
- o‘rta maktabgacha yosh (4 yoshdan 5 yoshgacha);
- katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);
- maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

Bu bosqichlardan kichik, o‘rta, katta hamda tayyorlov maktabgacha yosh davridagi bolalar maktabgacha ta’lim jarayonida tarbiyalanadilar. Xorijiy til esa katta maktabgacha va maktabga tayyorlov yoshlarida, ya’ni 5 yoshdan boshlab o‘rgatiladi. Buning sabablari sifatida bolalarning aqliy hamda nutq jihatidan tayyor ekanliklari va chet tilida o‘rgatilayotgan bilimlar bazasi (raqamlar, ranglar, kasblar, meva-sabzavotlar, hayvonlar nomlari haqidagi ma’lumotlar) yaxshi shakllanganliklarini keltirish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yosh bolalar neyroplastiklikning yuqoriligi va tabiiy til o‘rganish qobiliyati tufayli ustunlikka ega. Ammo ularning cheklangan kognitiv va metalingvistik tushunchalari o‘qitish metodikasini katta yoshdagi o‘quvchilarnikidan farqli qilib belgilashni talab qiladi.

Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishda u yoki shunga o‘xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog‘liklikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko‘rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va axloqiy

sifatlarning rivojlanganlik darajasi o‘z aksini topadi. Shu sababli ham bolalarning yosh xususiyatlariga qarab materiallar tanlash va mashg‘ulot o‘tish juda muhim jarayondir. Ingliz tilidan darslarni rejalashtirishda o ‘quvchilarda yangi so‘z va so‘z birikmalarini yod olish qobiliyati yuqori bo‘lishini, qiziqarli va tanish mavzular, masalan, oziq-ovqat, o‘yinchoqlar, maktab, oila, kimnidir yoki nimanidir yoqtirish/yoqtirmasligi, qila olishi/qila olmasligi, ma’qullash/ma’qullamasligi kabi mavzularda suhbatlashganda, ularning xotirasi kuchayishi yoki so‘zlarni tez yodda saqlashlarini hisobga olish lozim.

Ikki yildan buyon 5-6-7 yoshli bolalarga xorijiy til sifatida ingliz tilini o‘rgatish jarayonida o‘zim ham anchagina qiyinchiliklarga duch keldim. Birinchi o‘quv yilida maktabgacha tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilari (6-7 yoshlilar) ga mashg‘ulotlar o‘tgan bo‘lsam, ikkinchi o‘quv yilida katta maktabgacha yoshdagi bolalar (5-6 yoshlilar) bilan ishladim. Ish-reja mavzulari deyarli bir xil bo‘lganligi sababli shu yil ham xuddi o‘tgan o‘quv yilidagi kabi materiallarni tayyorlab kirgandim. Biroq mashg‘ulotlar o‘tish chog‘ida bu ishim xato ekanligiga amin bo‘ldim. Chunki 5-6 yoshli bolalarning imkoniyatlari hamda salohiyati 6-7 yoshlilarga nisbatan biroz orqada ekan. Masalan. Oddiygina biron bir mavzudagi o‘rgatilishi kerak bo‘lgan so‘zlarning miqdorida ham farq kuzatdim. Tayyorlov guruhlari bolalari bir darsda bemalol 10-12 tagacha so‘zlarni yod olishgan bo‘lsa, katta maktabgacha yoshdagi bolalardagi bu miqdor 7-8 tani ko‘rsatadi. Qolaversa, ushbu so‘zlarni yodlatish jarayonida ularnung talaffuz qilish qobiliyatlari ham biroz farq qildi. Ya’ni 6-7 yoshlilar 5-6 yoshlilarga nisbatan anchagina tiniq va aniq talaffuz qila oldi. Raqamlarga oid mavzularda ham xuddi shunday. Davlat standartlarida belgilanganidek, 5-6 yoshli bolalar 1 dan 10 gacha sonlarni bemalol sanab farqlay olishlari kerak bo‘lsa, 6-7 yoshlilarda bu holat 1 dan 20 gachani tashkil etadi. Shu o‘rinda men ham maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarga bemalol raqamlar ishtirokida sodda arifmetik amallarni ingliz tilida o‘qib hamda bajara olishlariga guvoh bo‘lgan bo‘lsam, katta maktabgacha yoshli bolalarda buning aksini ko‘rdim. Ya’ni ular bu topshiriqni bajarishda anchagina qiynalishdi. Xuddi shuningdek, ingliz tilidagi she’rlarni yodlatish ham shu asnoda kechdi. Ammo sodda qo‘shiqlarni harakatlar yordamida yodlatish 5-6 yoshli bolalarda ancha ososn hamda qiziqarli kechdi.

Bolalar yoshiga qarab tilni o‘zlashtirish jarayoni o‘zgaradi. Katta yoshdagi o‘quvchilardan farqli ravishda, ular mavhum tushunchalarni tushunishda qiynaladilar, bu esa grammatik qoidalarni to‘g‘ridan- to‘g‘ri o‘rgatishni murakkablashtiradi. Shu sababli kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda ingliz tilini o‘rgatish jarayoni o‘yin va visual materiallarga asoslangan bo‘lishi kerak.

Til o‘rganishda ijtimoiy muhit muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan chet tilini o‘qitishda suhbatlar, hikoyalar, qo‘shiqlar va jismoniy harakatlarga asoslangan mashg‘ulotlar juda samarali hisoblanadi. O‘qituvchilar bolalarda tilga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishlari va ular xatolik qilishdan qo‘rqmasliklari uchun qulay muhit yaratishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ingliz tilini o‘rganishda o‘yin orqali yaxshiroq natijalarga erishadilar. Maktabgacha yoshdagi bola faoliyati rang-barangdir. Ular hammadan ko‘proq o‘yinni yoqtiradilar. Chunki o‘yin bolalarning o‘zaro munosabatini yo‘lga soladi, his-tuyg‘ularini rivojlantiradi, erkini mustahkamlaydi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya berish jarayoniga o‘yin elementlarining, muammoli holatlarning kiritilishi mashg‘ulotlarni jonlantiradi.

Grammatik qoidalarni cheklangan holda qo‘llash kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar grammatikani tabiiy til muhitida, ya’ni kontekst asosida o‘rganadilar. Shu sababli, ularga grammatik qoidalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushuntirish o‘rniga, tilni amaliy mashg‘ulotlar va o‘yinlar orqali o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta’limda dars berish jarayoni qiziqarli bo‘lishi bilan bir qatorda bir qancha qiyinchiliklar va muhim jihatlar ham mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqat e’tibori qisqa bo‘lgani uchun mashg‘ulotlar qisqa va qiziqarli bo‘lishi kerak. O‘qituvchilar bolalarning yoshiga mos keladigan ta’lim metodlarini qo‘llash orqali ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Esonova, M (2023). Maktabgacha pedagogika. Ilm va fan nashriyoti. Darslik, 5-244.

2. Inoyatova, M., & Nosirov, A. (Eds.). (2014). Boshlang‘ich ta`lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llash (Ingliz tili, alifbe, ona tili, o‘qish, matematika va tabiatshunoslik o‘quv fanlari misolida). 37.
3. Asher, J. J. (1969). The total physical response technique of learning. Journal of Special Education Techniques, 6(2), 20-24.
4. Birdsong, D. (2006). Age and second language acquisition: A critical examination. Handbook of Second Language Acquisition, 175-188.
5. Cameron, L. (2001). Teaching languages to young learners. Cambridge University Press.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SYUJETLI-ROLLI O‘YINLAR ORQALI EKOLOGIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

O‘zbekiston. Rasulxo‘jayeva Madina Axmadjonovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (PhD) dotsenti.
Karimbayeva Maftuna Ravshanbek qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada syujetli-rolli, sahnalashtirish o‘yinlarining maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati keng yoritilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlarda mavjud bo‘lgan «Syujetli - rolli o‘yinlar va sahnalashtirish» markazining vazifazi hamda ushbu markazni jihozlash bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Bolaning o‘sishi va har tomonlama rivojlanib borishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashy ova buyumlar orqali anglab, undan ozicha mano topishiga intilishi, qiziqishi va hissiyotlarining rivojlanishini ular o‘ynayotgan o‘yinlari orqali kuzatish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bola uchun bu - hissiy boyitilgan va idrok etilgan tarzda o‘rganish uchun ideal sahnadir. Sahna o‘yini bolani har jihatdan rivojlantirishi haqida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, tarbiya, ta’lim, madaniyat, bola, xotira, tafakkur, omil, nutq, zamonaviy, jarayon, tashkilot, jamiyat, o‘yin faoliyati, tafakkur, idrok, syujetli-rolli oyinlar, markaz, tasavvur.

Аннотация: В статье подробно рассматривается роль и значение ролевых и драматических игр в развитии детей дошкольного возраста. Даны задачи центра «Сюжетно-ролевых игр и инсценировок», который существует в группах в дошкольных образовательных организациях, и методические рекомендации по оснащению данного центра.

Рост и всестороннее развитие ребенка — это непрерывный процесс. Его становление как личности, его первые попытки познать мир через окружающие его предметы и найти в нем какой-то смысл, развитие его интересов и эмоций можно наблюдать в играх, в которые он играет. Для дошкольника это идеальная обстановка для обучения в эмоционально обогащенной и перцептивной форме. Говорят, что сценическая игра развивает ребенка во всех отношениях.

Ключевые слова: Дошкольное образование, воспитание, образование, культура, ребенок, память, мышление, фактор, речь, современный, процесс, организация, общество, игровая деятельность, мышление, восприятие, сюжетно-ролевые игры, центр, воображение.

Annotation: This article extensively covers the role and importance of role-playing and dramatization games in the development of a preschool child. The tasks of the «role-playing and dramatization» center, which exists in groups in preschool educational organizations, and methodological recommendations for equipping this center are given.

The growth and comprehensive development of a child is a continuous process. His formation as a person, his desire to first understand the world around him through objects and objects, and to find some meaning in it, the development of his interests and emotions can be observed through the games he plays. For a preschool child, this is an ideal stage for emotionally enriched and perceptual learning. It is said that the stage play develops the child in all aspects.

Keywords: Preschool education, upbringing, education, culture, child, memory, thinking, factor, speech, modern, process, organization, society, game activity, thinking, perception, plot-role-playing games, center, imagination.

Sahnalashtirilgan o‘yinlarning ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, ular orqali bola badiiy obrazni idrok qila bilishni o‘rganadi, personajlar hatti-harakatini kuzatish qobiliyatini rivojlanib boradi. Musiqiy, so‘z, ko‘rish obrazlaridan foydalangan holda zarur bolgan ruhiy sifatlarini (idrok qilish, tassavur qilish, diqqat, tafakkur), ijrochilik konikmalarini (rolga kirish, tasavvurdagi muhitda harakatlanish ko‘nikmasi) va sezgilari (mushak va hissiy) rivojlanish iuchun sahna mashqlari otkaziladi. Badiiy asarlar bo‘yicha oddiy parchalarni sahnalashtirishda bola obrazni aks ettirish uchun unga malum ifoda vositalari (ohang,yuz-harakati,imo-ishora)o‘rgatiladi. Har bir bola rol o‘ynayotganda avvalo asar qahramoning his tuyg‘u holatini sezishi va tushunishi, boshqa personajlar bilan rolni munosabatga kirishishida o‘zini tutishi qobiliyatilari shakllantirishi lozim. Teatrlashtirilgan o‘yinlarda obrazli o‘yinchoqlardan, loydan, pape-mashe, plastilindan mustaqil yasalgan o‘yinchoqlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sahnalashtirilgan har qanday o‘yin asosida bolaning bilish jarayonida irodaviy - hissiy xususiyati badiiy asardagi go‘zallikni his qilishi ko‘nikmasini to‘g‘ri shakllantirib borishga alohida e'tabor qaratish kerak. Masalan,tarbiyachi bolalarga o‘qib ertak kitobcha syujetinini oz so‘zlarini bilan hikoya qilgan holda,sahna ssenariysini tuzadilar,unga mos qo‘g‘irchoqlarni tanlab,ishtirokchilar o‘rtasida muhokama qilib,rollarni bolib olishadi. Syujetni rollarga kirib,ravon va ifodali qilib aytishi kerak. Syujetdagi qo‘g‘irchoqlar hatti-harakatini o‘zlashtirishi- har bir imo-ishora va mimikasini ko‘rsata bilishi kerak.

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’limni rivojlantirishga doir bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Ularda sohada o‘z yechimini kutayotgan vazifalar aniq ko‘rsatildi. Xususan, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha qabul qilingan huquqiy hujjarlarda “ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llanadigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish” kabi vazifalar belgilangan. Tabiat va jamiyat uyg‘unligi insoniyatning tarixiy rivojlanishida muhim mezon hisoblanadi. Biologik va ijtimoiy omillar ta’sirida shaxs makon va zamonda o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Bu faoliyat mazmunini atrofdagi voqea va tabiatdagi hodisalarning mohiyati, narsa va buyumlarning nomi, vazifasi, belgi xususiyatlari hamda ularga munosabatlar tashkil etadi. Maktabgacha bolalik davrida bolada atrof olam haqidagi ilk tasavvurlar paydo bo‘ladi, atrofdagi voqea va hodisalarning oddiy o‘zaro aloqadorligi qonuniyatini anglash ko‘nikmasi shakllanadi. Shuningdek, bola olgan bilimini mustaqil ravishda amaliy faoliyatida qo‘llay oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish qiziquvchanlikni oshiradi. Bilish qobiliyati hamda “boshlang‘ich ta’lim o‘quvchisi imidji” rivojlantiriladi. Ijodiy tasavvur esa, bolada intellektual va shaxsiy sifatlarning shakllanishiga turtki bo‘ladi. Sezgi organlari orqali bolalar atrof olamni ko‘radi, his qiladi, anglaydi. Atrofni anglashlari natijasida insonning tana a’zolari va ularning vazifalari, sog‘lom hayot tarzi haqidagi tushunchalarga ega bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirishdan asosiy maqsad maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirishga oid mamlakatimiz va xorijiy olimlarning pedagogik g‘oyalarini o‘rganish hamda amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Sh. M. Mirziyoyev 7-fevral 2017-yil kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmonni.

3. M.A. Rasulkho‘jaeva, Technology of formation of moral qualities of preschool children by introducing them to the animal world Methodological guide Tashkent.: «Ilm-Ziyo Zakovat» 2020

2. M.A. Rasulhojayeva. Using folklore to introduce large groups of children to the animal world. Methodology and theory of preschool education Scientific-methodical, ethical-educational, popular journal Tashkent: 2021 No. 9 (33)
3. Rasulkhujaeva, M. A. (2019). Educator's Role in Forming Moral Qualities Senior Preschool Age Children by Introducing Animal World. Eastern European Scientific Journal, (1).
4. Расулходжаева, М. А. (2022). Коммуникативная компетентность в деятельности педагога дошкольной образовательной организации. Национальная ассоциация ученых, (80), 30-32.
5. Rasulxojayeva M.A., Sh.O.Madaminova (2024). 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi markazlarning bolalar psixologik jarayonlarini shakllantirishdagi ahamiyati. Vol. 17 no. 1 (2024): Лучшие интеллектуальные исследования | часть-17 | том-1
6. Rasulxo'jayeva M. A., Salimova A. A. (2024) Actual Problems and their Solutions in the Organization of Pedagogical Processes of Preschool Teachers. Vol. 55 (2024): Miasto Przyszłości
7. Rasulxo'jayeva Madina Axmadjonovna, & Ko'jageldiyeva Aziza Muxsum qizi. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishda xalq maqollaridan foydalanish jarayonini tashkil etish trayektoriyasi . PEDAGOGS Jurnali, 27(1), 39–43. Retrieved from
8. Абдуллаева М.З. (2023) Подростковый возраст-этап развития личности web-journal.ru часть-8 том 1
9. Исмаилова М.Ю. (2023) Проблемы возникновения неполноценных семей и методы их предотвращения web-journal.ru часть-8 том 1
4. Levian K.M. Lichnost pedagogo: stanovleniye razvitiye. Izd-vo Saratovskago universiteta. 1991. -166 s.
5. Mavlonovo R., To'rayevo O. Holiqberdiyev K. Pedagogika. T.
6. Ochilov M. Yangi pedagogik cenologiyalar. - Qarshi. Nasaf, 2000.
7. Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) – T.:2022
8. Maktabgacha ta'lim tashkilot ta'lim faoliyatini mavzuviy rejalashtirish" T.:2019
9. Teshaboyev I.A. Ta'lim tizimida imij fenomenining ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etilishi // Inter education & global study. 2024.

MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTLARDA TARBIYALANUVCHILARNI INKLYUZIV TA`LIMDA MOSLASHUVINI PSIXOLOGIK QO'LLAB QUVVATLASH

O'zbekiston.Norboboyeva Mohinur Shuhrat qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun qilinayotgan ishlar, inklyuziv ta'lim va bu ta'lim to'g'risidagi qabul qilingan qonun va bu borada bugungi kundagi muammo va kamchiliklar iklyuziv ta'limning mazmun, mohiyati bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar : ta`lim, tarbiya, shaxs, muhit, qonun, tarbiyalanuvchi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, sayyoramiz aholisining 15 foizi (bir milliarddan ortiqroq inson) nogirolikning u yoki bu turidan aziyat chekadi Yer yuzidagi nogironligi bor insonlarning 10 foizi esa bolalardir. Ularning hayot tarzini yaxshilashga dunyo miqyosida e'tibor qaratish maqsadida BMT tomonidan 1983-1992 yillar Xalqaro nogironlar o'n yilligi deb belgilangan edi. Mazkur o'n yillik yakunida (1992 yilning 14 oktyabr kuni) BMT Bosh Assambleyasining 37-yalpi majlisida qabul qilingan rezolyusiyaga muvofiq, 3 dekabr Xalqaro nogironlar kuni deb e'lon qilingan. Mazkur xalqaro hujjatga muvofiq, BMTga a'zo barcha mamlakatlarga, shuningdek, tegishli tashkilotlarga nogironligi bo'lgan shaxslarning to'laqonli hayot kechirishi, ta'lim olishi, salomatligini tiklashi va mehnat qilishi uchun muntazam tarzda zarur shart-sharoitlar yaratib berish, mazkur kunni keng miqyosda nishonlash tavsiya etilgan. Imkoniyati

cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etish esa hozirgi kunda davlat siyosati darasiga ko‘tarilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligida Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining O‘zbekistonda reabilitatsiyani kuchaytirish bo‘yicha ekspert missiyasining ekspertlar guruhi bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda Maktabgacha ta’lim vaziri o‘rinbosari Uzoqboy Begimqulov imkoniyati cheklangan bolalarning maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’lumot berdi. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko‘p tarmoqli kompleks yondashuv amalga oshirilmoqda, bunda alohida ta'limga muhtoj bolalarga maktabgacha ta'lim bilan birgalikda yuqori sifatli reabilitatsiya yordami ko‘rsatiladi. Bu esa bolalikdan nogironlikning oldini olish va kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga bolalarning ijtimoiy moslashuvi, nogiron bolalarning har tomonlama hayotiy faoliyati va jamiyat hayotiga faol jalb etilishini ta'minlanadi. Uchrashuvda maktabgacha yoshdagi bolalarni reabilitatsiya qilish bo‘yicha mavjud vaziyatning ustuvor masalalari muhokama qilinib, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti mutaxassislari bilan o‘zaro hamkorlik qilish belgilab olindi.

«Ta'lim to‘g‘risida»gi Qonun: 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan ushbu qonunning 4-moddasida inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritilgan bo‘lib, unda alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilganligi belgilangan.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida»gi Qonun: Ushbu qonunda inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti tushunchasi kiritilgan bo‘lib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta'lim olishi uchun zarur sharoitlar yaratish nazarda tutilgan.

Respublikamizda sohada olib borilgan ishlar natijasida maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimi isloh qilindi. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining dastlabki bo‘g‘ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog‘lom va barkamol, aqlan yetuk bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ham maktabgacha ta’lim tizimiga doir islohotlar doirasida “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da ham usullarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, bolani kichik yoshdan ta’lim olishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “Imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish, mazkur toifa bolalarni har tomonlama kompleks rivojlantirishning innovatsion va axborot-kommunikasion texnologiyalarini amaliyotga joriy etish” ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Natijada, mamlakatimizda sog‘lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalarni har tomonlama sifatli ta’lim bilan ta’minlash, mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Inklyuziv ta'lim - bu maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma - xilligini hisobga olgan holda barcha tahsil oluvchilar uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatini teng ravishda ta'minlashdir. Ushbu qonun imkoniyati cheklangan bolalarga tengdoshlari bilan teng ravishda ta'lim olish imkonini beradi.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tarbiyachilar alohida ehtiyoji bo‘lgan tarbiyalanuvchilarga quyidagi ishlarni amalga oshirishadi:

-tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korreksiyalash va me’yorga keltirish ishlarini olib boradi:

-bolalarning faolligini, ta’lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo‘llaydi;

-diqqat-e’tibor, xotirani, kuzatuvchanlik, sinchkovlik va boshqa qobiliyatlarni tarbiyalaydi;

-o‘z-o‘zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi;

- har bir tarbiyalanuvchini qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam ravishda ular bilan uchrashish;

- Tarbiyalanuvchilarlar bilan yakka tartibda ishlash, individual rejalardan kelib chiqqan holda ularni kuzatish, o‘quv dasturiga moslashishiga yordam berish;

- muntazam ravishda tarbiyalanuvchilarninglarning erishayotgan muvaffaqiyotlarini muhokama qilish va baholash;

- Maktabgacha ta`lim tashkiloti jamoasining boshqaruv xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash;

-Yangi kelgan tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va qondirish. Inklyuziv ta’limni rivojlantirishni qo‘llab – quvvatlash kabi masalalardan iborat bo‘ladi.

Ijtimoiy pedagog vazifalari;

- Bolani rivojlanishi uchun qulay bo‘lgan muhitni tashkil qilish;

-Bola huquqini himoyalash qoidalariga rioya qilish;

- Bolani hayotiy ko‘nikmasi, qobiliyatini, ta’lim olishi, sog‘liqni saqlash va barcha ehtiyojlarini qondirish

Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

-Boladagi nutq nuqsonining darajasini aniqlash, psixologopedagogik tashxis qo‘yish maqsadida logopedik tekshiruvni o‘tkazish.

- Logopedik yordamga muhtoj bolalar bilan korreksionlogopedik ishlarni olib borish uchun perspektiv ish rejasini tuzish (individual ish reja).

Alohida yordamga muhtoj bolalar uchun nutq kamchiliklarini korreksiyalash va bartaraf etishga qaratilgan usul va yo‘llarini aniqlash.

- Bolalarning psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda ularni guruxlarga saralash.

- Nutq kamchiliklarini bartaraf etish bo‘yicha individual va guruxli mashg‘ulotlarni o‘tkazish.

- O‘quv materiallarini o‘zlashtirishga qaratilgan turli xil metod va vositalarni aniqlash va tayyorlash.

Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog‘lom bolalar qatoriga qo‘shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir.

Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga quyidagilarni beradi

-o‘z imkoniyatini o‘zi uchun kashf etish imkonini beradi ;

- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;

-dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

-o‘qishga bo‘lgan ehtieji va qiziqishlari ortadi;

-O‘zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

-Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;

-Yotsirash, yakkalanish kabi xususi yatlari yo‘qoladi.

Inklyuziv ta'lim sog‘lom bolalar hayotiga quyidagicha ta'sir ko‘rsatadi?

-O‘zlariga o‘xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;

-Tengdoshlariga g‘amxo‘rlik hissi uyg‘onadi;

-Ularni qo‘llab-quvvatlash, yordam berishga intilish -insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;

-Atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o‘zaro hurmat tarbiyalanadi;

-Yordamga muhtoj insonlarga e'tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar

-Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga yo‘naltirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari kun sayin ko‘payib va takomillashib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.U. Qodirova inklyuziv ta`lim nazaryasi va amalyoti. 2022-yil.
2. R. Sh. Shomaxmudova. “Maxsus va inklyuziv ta’lim” uslubiy qo‘llanma. Toshkent.2011
3. L.R.Muminova. Inklyuziv ta’lim. Toshkent- 2014 yil.

4. Sodiqova G.A., Nurkyeldiyeva D.A. Rivojlanishi orqada qolgan bolalar diagnostikasi (ma'ruzalar matni). – T. : 2001.

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA TA’LIMIY O‘YINNING AHAMIYATI

O‘zbekiston.Ismoilova Zulxumor Shamatovna
Samarqand viloyati Jomboy tumani
27-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Hozirgi sharoitda maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatida pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar keng foydalanilmoqda. Bu texnologiyalarning mazmun-mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini, ulardan samarali foydalanish yo‘llarini amaliyotchi-tarbiyachi va o‘qituvchilarga yetkazib berish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Kalit so‘zlar: ta’lim,ta’limiy o‘yin, innovatsiya, ta’lim texnologiyasi.

Аннотация: В настоящее время в деятельности системы школьного образования широко используются педагогические технологии, интерактивные методы. Это одна из актуальных проблем, стоящих перед педагогической наукой, доведение содержания, основных принципов, законов технологий, способов их эффективного использования на практике-воспитателям и учителям.

Ключевые слова: образование,образовательная игра, инновации, образовательные технологии.

Annotation: at present, pedagogical technologies, interactive methods are widely used in the activities of the school educational system. This is one of the pressing problems facing the subject of pedagogy, the delivery of the essence, basic principles, laws, ways of their effective use in practice-to educators and teachers.

Keywords: education, educational game, innovation, educational technology.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim-tarbiyaviy jarayonda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'limning samaradorligini oshirishga bo‘lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan mashg‘ulotlar bolani mustaqil izlanishga, ijodiy fikrlashga, intellektual salohiyatini shakllantirlshga qaratilgan. Jamiyatimizda ta’lim tizimida samarali natijaga erishish va kelajakda barkamol, har tomonlama yetuk shaxslarni shakllantirish uchun turli xil zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanib kelinmoqda. Tarbiyachi bu jarayonda bola shaxsi va bolalar jamoasining shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga imkoniyat yaratadi, shu bilan bir qatorda, kuzatuvchanlik, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ushbu vaziyatda bola asosiy ijroni amalga oshiradi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, zamonaviy ilg‘or xorijiy tajribalar asosida innovatsion jarayonni tashkil etishga qaratilgan amaliy ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi 802-son “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorida “Davlat standartining maqsadi — maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga. maktabgacha yoshdagi bolalarning sog‘lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat ekanligi alohida ta'kidlangan.

Davlat standartida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda tarbiyachidan yetuk mahorat va chuqur bilim talab qilinadi. Davlat standartida keltirilgan mashg‘ulotlarni o‘yinlar tarzida tarzida tashkil etish samaradorlikni oshiradi, chunki maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat turi o‘yin hisoblanadi. Bu yoshda bolalarga berilgan har qanday ma’lumot va bilimlar o‘yin orqali berilsa yuqori samara beradi. Mashg‘ulotlarda ko‘pincha ta’limiy o‘yinlardan foydalaniladi. Ta’limiy o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o‘yinlarning muhim belgisi, undagi qoidalarning mavjudligidir. O‘yinda o‘yin maqsadi, o‘yin

qoidalari, o‘yin harakatlari o‘rtasida uzviy aloqa mavjud. O‘yin maqsadi o‘yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O‘yin qoidasi esa, o‘yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o‘yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Ta’limiy o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o‘yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O‘yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o‘yin mazmunini boyitadi. Ta’limiy o‘yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida ta’limiy o‘yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o‘yinlar mashg‘ulot jarayonida va o‘yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o‘tkaziladi. Bunda o‘yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi.

Ta’limiy o‘yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta’sir etish.
2. So‘ralganda javob berish.
3. O‘rtoqlari fikrini eshita olish.
4. O‘yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O‘yin qoidasini bajarish.
6. O‘z xatosini tan olish.

Ta’limiy o‘yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O‘yinda o‘yin tempi va ritmi katta rol o‘ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko‘p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o‘yin ishtirokchilarini to‘g‘ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Ta’limiy o‘yinlarning quyidagi turlari mavjud:

a) buyum va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan;

b) stol-bosma;

d) og‘zaki so‘z o‘yinlar.

Ta’lim texnologiyasi tushunchasi ta’lim maqsadiga erishish quroli, ya’ni oldindan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta’lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir: kafolatlangan yakuniy natija, ta’limning samaradorligi, qaytuvchan aloqaning mavjudligi, ta’lim maqsadining aniq shakllanganligi. O‘yin texnologiyasi ham o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi. L.S.Vigotskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi.

Har qanday o‘yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- kommunikativlik;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;
- o‘yin ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuvlik.

Ma’lumki, o‘yinlar quyidagi to‘rt asosiy xususiyatga ega:

- erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya’ni bola o‘yinni o‘zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki o‘yin jarayoni muhim ahamiyatga ega;
- ijodiy xarakter, ya’ni o‘yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;
- emotsional ta’sir —bola o‘yinda markaziy o‘rin egallashni xohlaydi, g‘olib bo‘lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;
- asosiy va qo‘shimcha qoidalar o‘yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.

O‘yin tuzilishiga - maqsad, rejalashtirish, maqsadga erishish, natijalarni tahlil qilish kabi komponentlar kiradi. O‘yinning eng asosiy xususiyati uning ijodiyligidadir. Maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llaniladigan pedagogik o‘yinlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar kayfiyatini ko‘taruvchi.
2. Hamkorlikka chorlovchi.
3. Bolalarni o‘zligini namoyon etishga chorlovchi.
4. Bolalarda o‘ziga ishonch hissini shakllantiruvchi, jismoniy va intellektual muammolarni yo‘qotishga qaratilgan.
5. Maktabgacha bolalar xatti-harakatidagi cheklanishlarni tavsiflovchi (diagnostika).
6. Bolalar shaxsi strukturasiga ijobiy korreksiyalar beruvchi.
7. Millatlararo bag‘rikenglikni shakllantiruvchi.
8. Bolalarda ijtimoiy, jamoaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o‘yinlar.

Pedagogik nuqtayi nazardan to‘g‘ri tashkil etilgan o‘yin bolaning axloqiy, irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga unda bilim olishga, atrofdagi olam sirlarini ochishga qiziqish uyg‘otadi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘yin texnologiyalaridan keng foydalanish kerak. O‘yinlar texnologiyasi tushunchasi pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismidir. O‘yin texnologiyasi an’anaviy ta’limdagi o‘yin metodidan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, ta’lim tarbiy jarayonlariga pedagogik texnologiya va interfaol usullarni maqsadli qo‘llash, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellectual qobilyatlarini, ta’lim shakillarini optimallashtirish, bolalarning mustaqil faoliyatini o‘stirish va ta’lim samaradorligiga erishishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.R.Qodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari; T.: Fan va texnologiyalar 2009 yil.
2. D.R.Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” o‘quv qo‘llanma. TDPU 2016 yil.
3. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” darslik TDPU 2017 yil.
4. G.Jalolova “Bolalarni maktabga tayyorlashda noan’anaviy o‘yinlardan foydalanish”. T.: 2007.

MAKTABGACHA TA’LIMDA MUSIQIY TA’LIMNING O‘RNI

O‘zbekiston. Sharipova Nilufar Raufovna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta`lim kafedrasi kata o‘qituvchi
Fayzulloyeva Dildora Qaxramon Qizi
Maktabgacha ta`lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya:Maqolada yosh avlodga musiqiy tasavvurlarini rivijlantirish, musiqa orqali ma`naviy, axloqiy, estetik tarbiyani singdirish bayon qilingan

Kalit so‘z: milliy qariyat, madaniyat, axloq, axloqiy madaniyat, estetik tarbiya

Аннотация: В статье описывается развитие музыкального воображения подрастающего поколения, привитие через музыку духовного, нравственного, эстетического воспитания

Ключевое слово: национальная старость, культура, мораль, нравственная культура, эстетическое воспитание

Annotation: the article explains to the younger generation the riviization of their musical imagination, the absorption of spiritual, moral, aesthetic education through music

Keyword: National old age, culture, ethics, moral culture, aesthetic education

Milliy qadriyatlarimizning muhim tarkibiy qismi, muayyan ma’noda, uning tayanchi bo‘lgan milliy musiqasiz inson, binobarin, xalq ruhiyatining kuchini, uning his-tuyg‘u va kechinmalarini anglash mumkin emas. Shu ma’noda aytish mumkinki, xalqimiz, xususan, yoshlarning musiqiy didini yuksaltirmay turib, ma’naviy hayotimizda paydo bo‘layotgan va asoratli iz qoldirayotgan ayrim og‘riqli masalalarni bartaraf etishning imkoni yo‘q. Birinchi Prezidentimiz zikr etganidek;

“Bizning milliy an’analarimizga odob axloq qoidalariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan kliplar, turli tillardagi so‘zlarni qovushtirib yoki talaffuzini ataylab buzib aytish kabi nomunosib xarakatlarni ayrim yosh ijrochilar o‘zi uchun qandaydir bir yangicha uslub deb bilayotgani, menimcha, san’atni, uning mohiyati va ahamiyatini tushunmaslikdan boshqa narsa emas. Madaniy jamoatchiligimiz, avvalom bor musiqashunos olimlar, ustoz san’atkorlar, kompozitorlar, yozuvchi va jurnalistlar, ko‘p sonli san’at ixlosmandlari bunday masalalar yuzasidan o‘z fikirlarini ochiq bildirib borishi, shu tariqa yoshlarimizga to‘g‘ri tarbiya berishimiz ham qarz, ham farz, deb o‘ylayman”.[31] Buning uchun esa ta’lim muassasalarida o‘tilayotgan musiqa mashg‘ulotlari sifatini tubdan yaxshilash, musiqa o‘qitish metodlarini takomillashtirish, yosh avlod qalbiga milliy musiqiy ohanglarni singdirish, ularning musiqiy did va tashkilotini yanada yuksaltirish zarur.

«… Musiqa mavzui o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmaganligi uchun, eng avvalo, inson ichki ma’naviy dunyosini, uning tuyg‘u va kayfiyatini ifodalaydi... musiqa voqelikning his-tuyg‘uli qiyofasini yaratadi.»[32]

Zotan, har bir musiqa asarida ijodkorlarning ma’lum g‘oyasi yoki biror badiiy mazmun bo‘ladi. Musiqaning mazmuni bolaning g‘oyaviy emotsional hissiyoti faol kechishi natijasida idrok etiladi. Shuning uchun to‘g‘ri tarbiyalangan musiqaviy badiiy did musiqa asarining g‘oyaviy va badiy mazmunini chuqur anglashda katta rol o‘ynaydi. Demak, musiqa ahloqiy va aqliy-g‘oyaviy tarbiya badiiy tarbiyasining ichki mazmunidir. Bu vazifani amalga oshirishda halq musiqasi va kompozitorlar asarlarining mohiyatini, ularning tuzilishi jihatida farqini janr tuzishlarini o‘rgansh zarur. Bunda atoqli san’atkorlar ijodi bilan tanishish ular yashagan davrni bilish, ular yaratgan asarlarni musiqiy pedagog jihatdan tahlil etib o‘rganish mashhur asarlar taqdiri va tarixi bilan tanishish muhim rol o‘ynaydi.

Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda”.[33] Tarbiyachi guruh imkoniyatlarini hisobga olgan holda yil davomida o‘rgatish uchun qo‘shiq tanlaydi va ularning ijrochilik darajasi va badiiy mazmuni maktabgacha ta`lim tashkiloti hayotiga mosligini inobatga olib, ularni ma’lum tartibga soladi.

Tarbiyachi tanlangan musiqa asarlarini muayyan bir tartibga solar ekan, bolalarning ovoz hajmi ishtiyoq va zavqi, musiqa va ashula sohasidagi tayyorgarligini e’tiborga olish lozim. Bolalarga musiqiy tarbiya berishning negizi xorda ashula aytishdir, chunki musiqaga bo‘lgan qobilyatini o‘stirish, musiqaga san’atga bo‘lgan mehr va qiziqishni oshira borish vazifasi bolalarning o‘z faoliyati jarayonida muvaffaqiyatli bajariladi.

Tarbiyachi tanlangan musiqa asarlarini muayyan bir tartibga solar ekan, bolalarning ovoz hajmi ishtiyoq va zavqi, musiqa va ashula sohasidagi tayyorgarligini e’tiborga olish lozim. Bolalarga musiqiy tarbiya berishning negizi xorda ashula aytishdir, chunki musiqaga bo‘lgan qobilyatini o‘stirish, musiqaga san’atga bo‘lgan mehr va qiziqishni oshira borish vazifasi bolalarning o‘z faoliyati jarayonida muvaffaqiyatli bajariladi.

Maktabgacha ta’limda musiqa mashg‘ulotini asosi bolalarga musiqa san’atini go‘zallik qonunlari asosida o‘rganish malakasini singdirish va ularda musiqa tashkilotini tarkib toptirishdan iborat. Mazkur maqsad tarbiyachi oldiga bolalarda musiqaviy-badiiy did va ahloqiy estetik xis-tuyg‘ularni tarkib toptirish; ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda musiqa san’atiga nisbatan qiziqishni va musiqaviy faoliyatida badiiy extiyojni kuchaytirish, musiqa savodxonligi tashkilotini shakllantirish, musiqa, davr, hayot, inson xis-tuyg‘ulari va orzu-umidlari ifodasi ekanligi haqida tushuncha hosil qilish kabi qator vazifalarni qo‘yadi. Zero, musiqa kishilar hayotini, ularning xis-tuyg‘ularini va orzu-istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishi xissiyotlariga faol ta’sir etadi. Bir so‘z bilan aytganda, musiqa san’ati hayotni o‘rganadi, tasvirlaydi va ifodalaydi. Shu boisdan musiqa bolalarda estetik hissiyotlarni tarbiyalash orqali ularning ma’naviy, g‘oyaviy va ahloqiy dunyosini har tomonlama takomillashtirishda, ularda olijanob fazilatlarni kamol toptirishda

[31] I.Karimov “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” Toshkent: 2008-y 142-b

[32] E.Umarov. Estetika T.: “O‘zbekiston”, 1995y., -210–bet

[33] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008, 141 bet.

ta’sirchan vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur oliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish - musiqa faniga jamiyatni madaniy ahloqiy rivojlantiruvchi omil sifatida qarash, predmet muammolarini hal etishda keng tarbiyachilar ijodkorligiga tayanish, musiqa o‘qitish uslubiyatini ilg‘or tajribalar va kompleks ilmiy -metodik izlanishlar natijasi asosida takomillashtirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008, 141 bet.
2. Akbarov A.I. Musiqa lug‘ati. Toshkent 2000 yil.
3. dasrlik G‘. G‘ulom nomidagi “Adabiyot va San’at” nashriyoti. Toshkent 2001 yil.
4. Nurmatov X. Norxo‘jayev N, MirrahimovA.Musiqa 3-gruh mashg‘ulotlik T., 2002 yil.
5. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.,O‘zbekiston, 2000 y,
6. Umumiy o‘rta ta’limning DTS va o‘quv dasturi 6 maxsus soni. T., 1999 yil.
7. Rajabov S.R. «Tarbiya va o‘qitish haqida klassik ta’limot» «Fan» T.,197I.
8. Soipova D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. Toshkent. 2009.
9. Internet ma’lumotlari

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIMIY O‘YINLARNI O‘TKAZISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

O‘zbekiston.Nasridinova Munira Ilhomiddinovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 17-sonli DMTT direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy o‘yinlarning turli yosh guruhlaridagi o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Ta’limiy o‘yinlarning vazifalari, mazmuni va ularni o‘tkazish uslublari har bir yosh guruhining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tahlil qilinadi. Maqolada ta’limiy o‘yinlar orqali bolalarning kognitiv, sensor va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’limiy o‘yin, maktabgacha ta’lim, yosh guruhlari, kognitiv rivojlanish, sensor rivojlanish, musiqiy ta’lim.

Аннотация: В статье рассматривается роль и значение образовательных игр в дошкольных образовательных учреждениях для разных возрастных групп. Анализируются задачи, содержание и методы проведения образовательных игр с учетом особенностей каждой возрастной группы. В статье освещаются вопросы развития когнитивных, сенсорных и музыкальных способностей детей посредством образовательных игр.

Ключевые слова: образовательная игра, дошкольное образование, возрастные группы, когнитивное развитие, сенсорное развитие, музыкальное образование.

Abstract: The article examines the role and importance of educational games in preschool educational institutions for different age groups. The tasks, content, and methods of conducting educational games are analyzed, taking into account the characteristics of each age group. The article highlights the issues of developing children's cognitive, sensory, and musical abilities through educational games.

Keywords: educational game, preschool education, age groups, cognitive development, sensory development, musical education.

O‘yin - maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etuvchi vositadir. Bola tomonidan amalga oshiriladigan ishlar asosan o‘yin shaklidadir.

Ta’limiy o‘yinlar - maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos holda ularga bilim berish metodidir. Ta’limiy o‘yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg‘ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi.

Ta’limiy o‘yinlar ta‘lim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali o‘yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o‘zlashtiradilar. Ta’limiy o‘yin kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojiantirish maqsadida yaratiladi. Unda o‘yin elementlari qaricha ko‘p bo‘lsa, bolalarga u shuncha quvonch bag‘ishlaydi.

Ta’limiy o‘yinning o‘yin faoliyati sifatidagi o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyachining bolalar bilan o‘zaro munosabatlari o‘yin tarzida bo‘ladi. Tarbiyachi o‘yin qatnashchisi yoki uning tashkilotchisi bo‘ladi. Bolalar ko‘pincha o‘yin mazmuni bilan belgilanadigan va o‘yin harakatlari talab etadigan biron-bir rolni bajaradilar.

Ta’limiy o‘yinning mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Buyumlar, ularning nomi, rangi, shakli, hajmi, sifati va ishlatilishi to‘g‘risida bilimlar berish;
2. Mehnatning har xil turi va uning kishilar hayotidagi roli to‘g‘risidagi bilimlar;
3. Tabiat voqealari, narsalar, buyumlar, yil fasllari to‘g‘risidagi bilimlar;
4. Elementar matematik tushunchalar: son, sanoq, kattalik, shakl vaqt va fazoviy tushunchalar berish.

Ta’limiy o‘yinlar ularning ta‘lim-tarbiyaviy vazifasi, mazmuni, turli bolalar bog‘chasining ta‘lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhlar ajratib berilgan.

Ta’limiy o‘yinlarning turlari:

- buyum va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan;
- stol-bosma;
- og‘zaki-so‘z o‘yinlari.

Buyum va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan ta’limiy o‘yinlar.Ko‘pchilik bolalar o‘yinlari xilma-xil o‘yinchoqlardan foydalanish bilan bog‘liq. O‘yinchoq bola hayotining yoddoshi, uning quvonchi manbayidir. U nafaqat o‘yin quroli, balki bolalar o‘yinida sherik, o‘rtoq, kattalar qo‘lida esa tarbiyaning muhim qurollaridan biridir. O‘yinchoq o‘yin yaratishda ishtirok etadi, bolaning o‘ziga xos sherigi sifatida namoyon bo‘ladi, uning shaxsiga katta ta‘sir o‘tkazadi. U bolaga shunchalik yaqinki, bola o‘z o‘yinchoqlarini sevadi, ularga bogdanib qoladi, shu tufayli u o‘zini atrofdagi hayotning to‘laqonli a‘zosl deb hisoblaydi. To‘g‘ri tanlangan o‘yinchoqlar bolaning aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Xalq pedagogikasida o‘yinchoqlarning butun bir sistemasi ishlab chiqilgan. Ular bilan amalga oshiriladigan o‘yinlar bolaning sensor qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Stol-bosma o‘yinlari bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini (tahlil qilish, sintez, umumlashtirish, tavsiflash) o‘stirish imkonini beruvchi o‘yin usulidir. Bu o‘yin turiga lotto, juft rasmlar, domino, tangram, labirint va boshqalar kiradi. Bunday o‘yinlar an‘anaviy tarzdagi o‘yin turlaridan o‘zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo‘lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

Og‘zaki so‘z o‘yinlari katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladi. Ular bolaning o‘zgalar nutqini, kichik hajmdagi audio va video matnlarni tinglab tushuna olish, turli mavzudagi savollarga zudlik bilan javob topa olish, o‘z fikrini tez, to‘g‘ri va aniq ifoda eta olishga o‘rgatadi. Tadqiqotchilarning fikricha, bunday o‘yinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan o‘yin turlarida didaktik maqsad va o‘yin materiallarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dasturda har bir yosh guruhning o‘ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda tadimiy o‘yinning tutgan o‘rni va vazifasi, mazmuni, o‘tkazish uslublari belgilab berilgan. Masalan, 3 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan o‘tkaziladigan tadimiy o‘yinlardan asosiy maqsad - bolalarni ranglarni bir-biridan farqlash va nomini aytishga o‘rgatish, har xil odchamlar (katta, kichik}, shakllarni (sharcha, kubcha), bilishga, ko‘rib va eshitib idrok etish, diqqatni, mayda motorikani o‘stirishga yordam beradi. Masalan, «Juft shakllar» «Katta va kichik», «Qo‘g‘irchoqni sayrga olib chiqish uchun kiyintiramiz», «Qo‘g‘irchoqni cho‘miltiramiz», «Bu nimaning ovozi?», «Quttichada nima bor?» va shunga o‘xshash o‘yinlar. Bundan tashqari, shu guruhda bolalarni musiqa tovushlarini farq qilishga o‘rgatish uchun musiqaviy tadimiy o‘yinlar ham o‘tkaziladi.

Kichik guruhda ta’limiy o‘yinlar quyidagi maqsadlarda o‘tkaziladi: bolalarda ta’limiy o‘yinchoqlar bilan yakkama-yakka o‘ynash ko‘nikmasini rivojlantirish, jamoa o‘yinlari tashkil etish; narsalarni faqat bir rangga qarab ajrata olish, katta-kichikligiga qarab farqlash; xalqachalarni va kubchalarni muntazam shaklda terib, ulardan minorachalar yasash; tanish buyumlar tasvirlangan

ikki, to‘rt burchakli, olti burchakli kesma rasmlardan «Idish tovoqlar», «O‘yinchoqlar» kabilarning tasvirini yig‘ish; narsalarni farqlash va nomini to‘g‘ri aytishga o‘rgatish va hokazo.

Musiqiy – ta’limiy o‘yinlarda esa musiqa ovozlarining ba‘zi bir xususiyatlarini farqlashga o‘rgatish, qadam va yurish ritmi («Kim kelyapti?», «Sichqonlar yugurishyapti») ovoz va cholg‘u asboblari tembrlarini (“Musiqiy asbobni top”, «Ovozidan bilib ol») ajrata bilishga o‘rgatish vazifalari ham hal etiladi.

O‘rta guruhda ta’limiy o‘yinlar orqali bolalar eshitish, ko‘rish, sezish a‘zolari yordami bilan turli narsalar va ularni yasash uchun ishlatiladigan materialning xossalarini bilib olish, narsalarni tashqi ko‘rinishiga qarab bir-biriga taqqoslash, guruhlarga ajratishni o‘rgatish vazifalari amalga oshiriladi. Yana ta’limiy o‘yin davomida bolalar o‘rtaga qo‘yilgan masalani hal etishda sabr-matonatli bo‘lishga, qiziquvchanlikka, diqqat-e‘tiborlilikka odatlantirib boriladi. Musiqaviy-ta’limiy o‘yinlar orqali tovushlarni diqqat bilan tinglab, baland-pastligiga, ritmiga, tembriga, dinamikasiga qarab bir-biridan farq qila olishga o‘rgatib boriladi.

Katta guruhda ta’limiy o‘yinlar quyidagi vazifalarni hal etishni maqsad qilib qo‘yiladi: kuzatuvchanlik, narsalarni tekshira bilish, ularni taqqoslay olish, ularning belgilaridagi kichik farqlarni (rangi, shakli, katta-kichikligi, xususiyatini seza bilish, narsalarning joylashishidagi o‘zgarishlarni aytib bera olish kabi sensor qobiliyatlarni tarbiyalash; biron hayvon, o‘simlik, transportni tasvirlab berilganda ularning nomini topa bilish malakasini o‘stirish, bolalarning umumiy tasavvurini, buyumlarni umumiy belgilariga qarab guruhlarga bo‘lish qobiliyatini rivojlantirish, so‘z faolligini oshirish va to‘ldirish; qismlardan yaxlit narsalar (kubiklar, mozaika va boshqalar)yasash malakasini o‘stirish vazifalari hal etiladi. Musiqaviy ta’limiy o‘yinlar orqali tovushlarni bir-biridan farq qilishni o‘rgatish, ritmik usulni ajrata olish, ashulalar va cholg‘u asboblari ovozining tembrini farq qilish («Kim kuylayapti?” «Shiqildoqli childirma»), ovozning dinamikasini ajrata olish («tez, sekin kuylaymiz”) uchun foydalanish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhida ta’limiy o‘yinlar alohida o‘rin tutadi va bu guruhda ta’limiy o‘yinlar orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: bolalarda ta’limiy o‘yinlarga qiziqish uyg‘otish, har bir narsani bilishga havas, kuzatuvchanlik, diqqat-e‘tibor, ziyraklik, aqliy vazifalarni mustaqil hal qilish malakasini tarbiyalash. Ularga narsalarni turkumlarga bo‘lishda yordamlashuvchi o‘yinlarni, domino, mozaykaning har xil turlarini, shashka, jumboqli o‘yinlar, og‘zaki o‘yinlar, ranglarni va xususiyatlarni bir-biridan farqlashni o‘rgatadigan o‘yinlar o‘tkaziladi. Musiqaviy-ta’limiy o‘yinlar orqali esa bolalarni tovushlarga diqqat bilan quloq solishga («Takrorla», «Nog‘orani galma-gal chalish» va h.k) ritmik shaklda takrorlash, dinamik farqlarni bir-biridan ajratishga o‘rgatiladi. O‘yinni tarbiyachi bolalarda o‘yinga qiziqish uyg‘otgan holda tugatishi kerak, ya‘ni bolalar shu o‘yinni yana davom ettirishni xohlab qolsinlar. Tarbiyachi shunday deydi: «Kelgusi gal bundan ham yaxshiroq o‘ynaymiz», yoki «Yangi o‘yin bundan ham qiziqroq bo‘ladi». Tarbiyachi o‘yinning yangi variantlarini ishlab chiqadi. Ta’limiy o‘yinlar guruh xonasida, zalda, maydonchada, hovlida, dalada va boshqa joylarda o‘tkazilishi mumkin. Bu o‘yinning ta‘sirchanligini, taassurotlarning har xilligini, bolalarning faolligini oshiradi. Shunday qilib, o‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim berish vositasi bo‘lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. Tarbiyachi o‘yin orqali bolalarda ona-vatanga, o‘z xalqiga boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi; mustahkamlaydi. O‘yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to‘g‘rilik, o‘zini tuta bilishlik kabi sifatlarni ham tarbiyalaydi. O‘yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi o‘ziga xos maktabdir. Ta’limiy o‘yinlar bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o‘z shaxsiy tajribalari va mashg‘ulotlarda olgan bilimlarni amalda qo‘llay olishga o‘rganadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarni, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fayzullaeva M. va boshq. “Maktabgacha ta‘lim muassasalarida ta‘lim- tarbiya jarayonini

rejalashtirish”. T.: 2015
2. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1990.
3. Hasanboeva.O.U.va boshqalar. «Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi».T.., «Ilm ziyo» 2006.
4. Иващенко Е.В. Профессиональная подготовка будущего учителя наЛалной школы к оценке учебных достижений младших школников //НаеИалная школа/. - 2007. № 11.
5. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.
6. Kryuchko C., Azarenko T. Katta maktabgacha bo‘lgan bolalarning bilish qobiliyatini rivojlantirishda ko‘rgazmali modellashtirish usulidan foydalanish. M.Prosvesheniye, 1996.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NKLYUZIV TA’LIMNING AHAMIYATI

O‘zbekiston. Maxmudova Nasiba Nurmuxammetovna
Navoiy davlat Universiteti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni joriy etishning ahamiyati, mazmuni va dolzarbligi yoritilgan. Unda barcha bolalar, jumladan, rivojlanishida turli xildagi cheklovlarga ega bo‘lgan bolalarning birgalikda ta’lim olishi jamiyatda teng imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qilishi ta’kidlangan. Shuningdek, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, ota-onalar bilan hamkorlik, zarur infratuzilma va metodik qo‘llanmalar inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola inklyuziv ta’limni samarali yo‘lga qo‘yish orqali har bir bolaning huquq va ehtiyojlarini inobatga olgan holda barqaror ijtimoiy rivojlanishga erishish mumkinligini asoslab beradi.

Аннотация. В статье рассматриваются важность, содержание и актуальность внедрения инклюзивного образования в дошкольных образовательных организациях. В нем подчеркивается, что инклюзивное образование для всех детей, в том числе с различными нарушениями развития, способствует созданию равных возможностей в обществе. Также в качестве ключевых факторов успешной реализации инклюзивного образования указаны профессиональная подготовка педагогов, сотрудничество с родителями, необходимая инфраструктура и методические пособия. В статье утверждается, что устойчивого социального развития можно достичь путем эффективной реализации инклюзивного образования с учетом прав и потребностей каждого ребенка.

Annotation. This article highlights the importance, content and relevance of implementing inclusive education in preschool educational organizations. It emphasizes that joint education of all children, including those with various developmental disabilities, contributes to the creation of equal opportunities in society. It also indicates that professional training of teachers, cooperation with parents, necessary infrastructure and methodological manuals are the main factors for the successful implementation of inclusive education. The article substantiates that through the effective implementation of inclusive education, sustainable social development can be achieved, taking into account the rights and needs of each child.

Kalit so‘zlar. Inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, teng imkoniyatlar, pedagog tayyorgarligi, ijtimoiy integratsiya, metodik qo‘llanmalar, ota-onalar bilan hamkorlik, ta’lim tizimi, barqaror rivojlanish.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, дошкольное образование, дети с ограниченными возможностями, равные возможности, подготовка учителей, социальная интеграция, методические пособия, сотрудничество с родителями, система образования, устойчивое развитие.

Keywords. Inclusive education, preschool education, children with disabilities, equal opportunities, teacher training, social integration, methodological guides, cooperation with parents, education system, sustainable development.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida har bir bolaga teng imkoniyat yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida bu jarayon bolalarning

keyingi rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta’limni joriy etish va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’lim – bu imkoniyati cheklangan bolalar va sog‘lom bolalarning bir muhitda o‘qib-o‘rganishini, o‘zaro muloqot va hamkorlikda rivojlanishini nazarda tutuvchi ta’lim tizimidir. Bunday yondashuv jamiyatda ijtimoiy adolat, bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Inklyuziv ta’lim masalasi xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, bu boradagi izlanishlar turli yo‘nalishlarda olib borilgan. Jumladan, UNESCO va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarida inklyuziv ta’limning inson huquqlariga asoslangan yondashuv ekani, uning orqali jamiyatda ijtimoiy tenglik va inklyuzivlikni ta’minlash mumkinligi alohida ta’kidlanadi. A. Avloniyning «Tarbiya haqida» asarida har bir bola shaxs sifatida e’zozlanishi va unga individual yondashuv zarurligi haqida fikrlar ilgari surilgan. O‘zbekistonda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish” strategiyasida ham imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim tizimiga to‘laqonli jalb etish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qayd etilgan. Shuningdek, mahalliy pedagog olimlar – M. Mamarasulov, N. Qodirova va B. Jo‘raevlarning tadqiqotlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv yondashuvni amaliyotga tadbiq etish usullari yoritilgan. Ushbu adabiyotlar inklyuziv ta’limning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari va real muammolariga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni joriy etishning dolzarbligini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil – inklyuziv ta’limga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar, qonunchilik hujjatlari, davlat dasturlari va ilg‘or tajribalar o‘rganildi.

2. Sotsiologik so‘rov – maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlari, psixologlar va ota-onalar o‘rtasida so‘rovnoma va suhbatlar tashkil etilib, ularning inklyuziv ta’limga bo‘lgan munosabati o‘rganildi.

3. Kuzatuv usuli – inklyuziv guruhlarda ta’lim-tarbiya jarayonlari bevosita kuzatildi, o‘zaro muloqot va integratsiya darajalari baholandi.

4. Taqqoslash va tahlil – turli hududlardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tajribalari o‘zaro taqqoslandi, muvaffaqiyatli amaliyotlar va kamchiliklar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni joriy etish jarayonida bir qator ijobiy holatlar va mavjud muammolar aniqlangan. So‘rovnoma va kuzatuv natijalariga ko‘ra, ko‘plab pedagoglar inklyuziv ta’lim g‘oyasini qo‘llab-quvvatlashlariga qaramay, amaliy jihatdan yetarli tayyorgarlikka ega emasligi ma’lum bo‘ldi. Jumladan, inklyuziv guruhda ishlash uchun zarur bo‘lgan metodik qo‘llanmalar, maxsus o‘quv dasturlari va zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi muammolardan biri sifatida qayd etildi.

Ayniqsa, ayrim hududlardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv muhit yaratish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik baza – moslashtirilgan mebel, eshitish va ko‘rish moslamalari, maxsus o‘yinchoqlar bilan ta’minlanmaganligi aniqlangan. Shu bilan birga, psixolog va logoped kadrlarning yetishmasligi ham bola shaxsini to‘liq qo‘llab-quvvatlashda muammo tug‘dirayotgani kuzatildi.

Biroq shuni ta’kidlash lozimki, ayrim ilg‘or maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan. Ularda tarbiyalanuvchilarning ijtimoiylashuvi, o‘zaro mehr-oqibat muhitida o‘sishi, sog‘lom tengdoshlaridan orqada qolmasligi uchun kompleks yondashuvlar qo‘llanilmoqda. O‘qituvchilarning doimiy malaka oshirish kurslarida qatnashayotgani, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlayotgani ijobiy natijalarni ta’minlayotgani aniqlandi.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, inklyuziv ta’limni samarali amalga oshirish uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ish olib borish zarur:

pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish;

metodik va texnik resurslarni takomillashtirish;

psixologik-pedagogik xizmatni kuchaytirish;

ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

qonunchilik va strategik dasturlarni amaliyotga to‘liq tadbiq etish.

Inklyuziv ta’limning nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki barcha bolalar uchun ijtimoiylashtiruvchi va insoniylik fazilatlarini shakllantiruvchi muhim omil ekanini isbotladi. Bu yondashuv orqali jamiyatda tenglik, bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini mustahkamlashga erishiladi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlil va kuzatuvlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish bugungi ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayon orqali har bir bola – u qanday salomatlik holatida bo‘lishidan qat’i nazar – o‘z salohiyatini ochib bera oladigan, o‘z tengdoshlari bilan samarali muloqotda bo‘ladigan, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faollikka ega shaxs sifatida shakllanadi. Inklyuziv yondashuv maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlanishi kerak, chunki bu davr bolada asosiy ijtimoiy, emotsional va kognitiv ko‘nikmalar shakllanadigan davr hisoblanadi.

Shuningdek, inklyuziv ta’lim tizimining rivojlanishi nafaqat imkoniyati cheklangan bolalarga, balki sog‘lom bolalar uchun ham ijobiy natijalar beradi. Chunki ular bolalikdan mehr-oqibat, sabr-toqat, hamjihatlik va boshqalarga yordam berish kabi ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Bu esa jamiyatda bag‘rikenglik va insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur yo‘nalishda mavjud muammolarni hal etish, mavjud resurslarni rivojlantirish va zamonaviy talablarga mos ta’lim muhitini yaratish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Pedagog kadrlar tayyorgarligini kuchaytirish – inklyuziv ta’limga ixtisoslashgan maxsus kurslar, malaka oshirish dasturlari va amaliy treninglarni muntazam o‘tkazish zarur.

2. Moddiy-texnik bazani mustahkamlash – maktabgacha ta’lim tashkilotlari maxsus uskunalar, o‘quv qurollari va moslashtirilgan muhit bilan ta’minlanishi kerak.

3. Psixologik-pedagogik xizmatni kengaytirish – har bir maktabgacha ta’lim tashkilotida psixolog, logoped va defektolog mutaxassislar faoliyat yuritishi lozim.

4. Ota-onalar bilan tizimli hamkorlik – ota-onalarni inklyuziv ta’lim mohiyati bilan tanishtirish, maslahatlar berish va ularni jarayonga jalb qilish samaradorlikni oshiradi.

5. Mahalliy va xalqaro tajribalarni o‘rganish – ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali tizimni boyitish mumkin.

6. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish – maxsus dasturlar, mobil ilovalar va onlayn ta’lim resurslari orqali farzandlar individual tarzda rivojlantirilishi mumkin.

7. Qonunchilik bazasini takomillashtirish – inklyuziv ta’lim bo‘yicha mavjud me’yoriy hujjatlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, tizimli monitoring va baholash mexanizmlarini joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limni maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlab rivojlantirish orqali biz nafaqat har bir bola uchun sifatli ta’lim kafolatlaymiz, balki insonparvar, bag‘rikeng va barqaror jamiyat asoslarini yaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Avloniy.A. “Turkiy guliston-yoxud axloq”// – T.: O‘qituvchi, 1992. – 152 b.

2. Qodirova.N. “Maktabgacha ta’limda inklyuziv yondashuvning psixologik-pedagogik asoslari» // Ta’lim va amaliyot. – 2020. – №2 (18). 45–50 b.

3. Mamarasulov M. “Inklyuziv ta’limni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari” // O‘zbek pedagogik axborotnomasi. – 2021. – №3. 60–65 b.

4. Jo‘rayev.B. “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi” //– T.: Fan va texnologiya, 2019. – 200 b.

5. O ‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2022–2026 yillarda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. URL: https://lex.uz 2025.04.12.

6. UNESCO. Inclusive early childhood care and education: From commitment to action. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – P. 10–25.

7. UNICEF Uzbekistan. Inclusive Education in Uzbekistan: Policy Review. – Tashkent: UNICEF Office in Uzbekistan, 2021.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY TARBIYALASHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

O‘zbekiston. Raimova Gulzira Kamiljon qizi
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash va rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning roli va ulardan samarali foydalanish usullari va texnologiyasi haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, didaktik o‘yin, ko‘nikma, malaka, tafakkur, aqliy tarbiya, interaktiv

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma’lum maqsad asosidagi ta’sir etishi hisoblanadi. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirishni, bolalarda bilishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, aqliy malaka va ko‘nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir. Chunki aql his-tuyg‘ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo‘lgan jarayonlar yig‘indisidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash va rivojlantirishda asosiy vosita bu o‘yin hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar esa bolalarning fikrlash qobiliyatini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish va bilimlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Didaktik o‘yinlar – bu bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus o‘yin turlaridir. Didaktik o‘yinlarning muhim elementi bu- qoidalardir. Qoidalarni bajarish esa o‘yin mazmunini amalga oshirishni ta'minlaydi. Didaktik o‘yin ta'lim bilan bevosita bog‘liqlikni tashkil etadi va uni amalga oshirishga yordam beradi. Ushbu o‘yinlar bolaning yoshiga, qiziqishlariga va individual xususiyatlariga mos ravishda tuzilishi kerak.

Didaktik o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda bir qancha aqliy jarayonlarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Xususan, tafakkurni rivojlantiradi, xotira va diqqatni mustahkamlaydi, nutqni rivojlantiradi, muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, «Nima ortiqcha?» o‘yini bolalarda analiz va taqqoslash qobiliyatini shakllantiradi, «Ranglarni top» yoki «Raqamlarni eslab qol» kabi o‘yinlar bolalarning eslab qolish qobiliyatini oshiradi va ularning diqqatini jamlashga yordam beradi. Bolalar nutqining rivojlanishi uchun so‘z boyligini oshiruvchi o‘yinlar katta ahamiyatga ega. Masalan, «Kim ko‘proq so‘z ayta oladi?» o‘yini bolalarning lug‘at boyligini kengaytiradi va nutq faolligini oshiradi. «Topishmoq» yoki «Kim aqlli?» kabi o‘yinlar bolalarni izlanishga va ijodiy fikrlashga undaydi. Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlardan samarali foydalanish bo‘yicha bir qancha talablar mavjud hisoblanadi. Avvalo, bolaning yoshiga va individual xususiyatlariga mos keladigan o‘yinlarni tanlash kerak. Shuningdek, o‘yinlarni qiziqarli va interaktiv tarzda o‘tkazish, bolalarni erkin fikr bildirishga rag‘batlantirish, o‘yin natijalarini muhokama qilib, tahlil qilishga o‘rgatish va o‘yin davomida mehribon va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhim talablardan hisoblanadi.

Didaktik o‘yinlarning bir qancha turlari farqlanadi. Misol uchun:

1. So‘z o‘yinlari – “Kim ko‘p so‘z ayta oladi?”, “Bosh harfi bilan so‘z top” kabi o‘yinlar bolalarning lug‘at boyligini oshiradi.

2. Matematik o‘yinlar – “Sonni top”, “Geometrik shakllarni tanish” kabi o‘yinlar hisob-kitob qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Mantiqiy o‘yinlar – Jumboqlar, topishmoqlar va mantiqiy zanjirlar bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

4. Rol o‘yinlari – Kasblar, hayvonlar yoki ertak qahramonlari rolini o‘ynash orqali tasavvur va ijodiy tafakkur rivojlanadi.

5. Harakatli o‘yinlar – Raqamlar, ranglar yoki harflarni tanish uchun faoliyat bilan bog‘langan o‘yinlar.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Ular bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish va bilimlarni yanada mustahkamlashga yordam beradi. Shu sababli, tarbiyachilar va ota-onalar bolalarni qiziqarli va foydali didaktik o‘yinlar bilan shug‘ullantirishlari lozim. To‘g‘ri tashkil etilgan o‘yinlar nafaqat bilim berish, balki bolalarning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni mustaqil va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o‘yinni tanlay bilishi, unga to‘g‘ri rahbarlik qilish “MTT ta'lim va tarbiya dasturida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi. Shuning uchun ta’lim muassasalari va oilalarda didaktik o‘yinlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.Lex.uz.

2.Maktabgacha pedagogika F.R Qodirova, Sh.Q. Toshpo‘latova, N.M.Kayumava, M.N.Azamova. ”Tafakkur” nashriyoti Toshkent 2019

3.W.W.W Ziyo.net

4.W.W.W pedagog.uz

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNING LUG‘AT BOYLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

O‘zbekiston.Kattayeva Gulnoza

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali o‘qituvchisi

Meliqo‘ziyeva Muhlisa

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning kelajakdagi ta’lim olish jarayoni va ijtimoiy muloqotga kirishish qobiliyatini shakllantirish,bolalarning lug‘at boyligini oshirish maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan asosiy vazifalari, bolalarning lug‘at boyligini kengaytirishning pedagogik usullari, samarali metodlar va ertaklar orqali ta’sir qilish imkoniyatlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida bolalarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Suhbat, o‘yin, badiiy adabiyot va ertaklardan foydalanishning samaradorligi haqida qisqacha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, lug‘at boyligi, pedagogik metodlar, ertaklar, nutq rivojlantirish

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning kelajakdagi ta’lim olish jarayoni va ijtimoiy muloqotga kirishish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-sonli Qarori. Bu qarorga ko‘ra maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va bolalarning nutqiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida zamonaviy metodikalarni joriy etishga yo‘naltirilgan.

Bolalarning lug‘at boyligini oshirish maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan asosiy vazifalardan biridir. Lug‘at boyligini oshirishning ahamiyati, bolalar maktabgacha yoshda til o‘rganishning eng faol bosqichini boshdan kechiradilar. Ularning so‘z boyligini oshirish quyidagi jihatlar uchun muhimdir.1. Nutqiy muloqotni yaxshilash va fikr ifodalash qobiliyatini rivojlantirish;

2.Yangi bilimlarni tezroq o‘zlashtirish ; 3. Atrof-muhitni yaxshiroq tushunish; 4. Ijtimoiy muloqotga oson kirishish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida lug‘at boyligini oshirish usullari Bolalarning lug‘at boyligini rivojlantirish uchun quyidagi samarali usullardan foydalanish mumkin: O‘yin texnologiyalari

O‘yinlar orqali o‘qitish bolalar uchun eng tabiiy va samarali ta’lim usuli hisoblanadi. Quyidagi o‘yinlar lug‘at boyligini oshirishga yordam beradi:

Suhbat va hikoyalar tuzish – bolalar bilan turli mavzularda suhbat qurish va ularni hikoya tuzishga o‘rgatish;

Rolli o‘yinlar – bolalar turli obrazlarga kirib, yangi so‘zlarni amalda ishlatadilar.

Didaktik o‘yinlar – “Kim tez aytadi?”, “Nima qani?”, “Topib ayt” kabi o‘yinlar orqali yangi so‘zlar o‘rgatiladi

.So‘z topish o‘yinlari – so‘z zanjirlari tuzish, she’r yoki matnni davom ettirish orqali so‘z boyligi kengaytiriladi.

Badiiy adabiyot va ertaklar- Bolalarga she’rlar, hikoyalar va ertaklarni o‘qib berish.Matn mazmunini qayta hikoya qilish va personajlar haqida fikr bildirish.O‘qilgan matn asosida savol-javob tashkil etish.

Vizual materiallardan foydalanish Rangli suratlar, kartochkalar va plakatlar yordamida yangi so‘zlarni tushuntirish.

Multfilmlar va videoroliklar orqali lug‘at boyligini oshirish.

Ekskursiyalar va amaliy mashg‘ulotlar- Bolalarni bog‘, hayvonot bog‘i, muzey yoki boshqa joylarga olib borish.

Kuzatuv asosida yangi so‘zlarni o‘rgatish va tasvirlash- Amaliy mashg‘ulotlar davomida real hayotiy tajriba asosida so‘zlarni tushuntirish.

Lug‘at boyligini oshirishda innovatsion texnologiyalar Zamonaviy ta’lim jarayonida quyidagi innovatsion yondashuvlar samarali natijalar bermoqda.Interaktiv ta’lim dasturlari – planshet va kompyuter ilovalari orqali lug‘at o‘rgatish. Aqlli doska (smart board) – bolalar bilan interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish. Audio va video darslar – eshitish orqali so‘zlarni yod olishni yaxshilash.

Bolalarning lug‘at boyligini rivojlantirish ularning kelajakdagi ta’lim jarayoniga tayyorgarligini ta’minlaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar bilan ishlashda quyidagi tavsiyalarni hisobga olish lozim:

O‘yin metodikasidan faol foydalanish. Bolalarni badiiy adabiyot va ertaklarga qiziqtirish. So‘z boyligini oshirish uchun interaktiv va innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Ekskursiyalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali real tajribaga asoslangan o‘qitish.

Tavsiya qilamanki bolalarga ko‘proq ertak kitoblardan foydalanib lug‘at boyligini oshirish mumkin . Ertaklarning lug‘at boyligini oshirishdagi o‘rni juda ham beqiyos hisoblanadi .

Ertaklar maktabgacha yoshdagi bolalarning so‘z boyligini oshirishning eng samarali vositalaridan biridir. Ular quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi. Bolalarni qiziqtirish orqali yangi so‘zlarni tez o‘zlashtirishga yordam beradi, Nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi, Tasavvur qilish va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, O‘ziga xos milliy va madaniy qadriyatlarni o‘rgatadi. Ertaklardan so‘ng o‘tkaziladigan savol-javoblar, rolli o‘yinlar va muhokamalar bolalarning lug‘at boyligini yanada mustahkamlaydi.

Mening fikrim maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida bolalarning lug‘at boyligini oshirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Buning uchun suhbat, o‘yin metodlari, vizual materiallardan foydalanish va badiiy adabiyotlarni o‘qish kabi samarali usullar qo‘llanilishi lozim. Ayniqsa, ertaklar bolalar lug‘atini boyitishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, ta’lim jarayonida ushbu usullarni qo‘llash orqali bolalarning so‘z boyligini kengaytirish va ularning kelajakdagi ta’lim olishi uchun mustahkam poydevor yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. F.R. Qodirova R. M. Qodirova .’’Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi.’’-T.2010
2. D.R Babayeva . ‘’Nutq o‘stirish metodikasi’’o‘quv qo‘llanma TDPU 2016
3. D.R. Babayeva .’’Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi ‘’darslik TDPU 2017

INKLYUZIV TA’LIMNING ASOSIY TAMOYILLARI VA ULARNI MAKTABGACHA VA MAKTAB AMALIYOTDA QO‘LLANILISHI

O‘zbekiston. S.N.Najiyeva
SamDCHTI Pedagogika, psixologiya va jismoiy madaiyat kafedrasi katta o‘qituvchisi
Choriyeva Xusnora Dilshod qiz
Sam.DChTI Kechki fakultet 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola da inklyuziv ta’limning tamoyillari va ularni pedagogik usullarini o‘ganishga bag‘ishlangan. Maqolada ta’lim jarayonining inson shaxsiyati va jamiyat bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlashdagi roli tahlil qilingan. Bundan tashqari har bir bola bilan individualni ishlash haqida ham so‘z yuritilgan. Maqolada inklyuziv ta’lim vositalaridan samarali foydalanish bilan turli yoshdagi va ehtiyojdagi bolalarning ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi va ularni qonun jihatdan huquqlari ham keng yoritilgan.

Аннотатция: Данная статья посвящуна изучун принсипов инклюзивного образования и их педагогических методов в процессе обучения. В статье анализируется роль образовательного процесса в укреплении личности человека и взаимодействии с обществом . Кроме того, идет речь и об индивидуальной работе с каджым бором.В ходе исследования ефективное использование инструментов инклюзивного образования положительно влияет на социальную адаптацию детей разного возрасти и потребности широко освещаются их законные права.

Annotation: This article is devoted to learning the principles of inclusive education and their pedagogical methods in the process of education. The article analyzes the roli of the educational process in strengthening human personality and interaction with society. In addition, it is also mentioned about individual work with each bora. In the course of research, effective use of inclusive education tools has a positive education effect on the social adaptation of children of defferent ages and needs, and their legal rights have also been widely covered.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, maxsus ta’lim,individual yondashuv, o‘qituvchining roli, ota-ona hamkorligi, amaliy tajriba, hamkorlikda o‘qitish, inklyuziv ta’limdagi qonunlar.

Ключевые слова: Инклюзивное образвование, специальное образвание, индивидуальный подход , роль учитуля , сотрудничество родитилей ,практический опыт , кооперативнои образвание ,залоны в инклюзивном образование

Keywors: inclusive education, special education , individual approach , teacher’s role,parent cooperation , practical experience, cooperetive education , laws in inclusive education.

Inklyuziv ta’lim so‘zi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib inclusive, inclusion - uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirish , qamrab olish degan ma’nolarni bildiradi. Inklyuziv ta’lim bu jismoniy yoki aqliy jihatdan nuqsoni bor bolalar va o‘smirlar bilan shug‘ulllanib , ularda ozgina bo‘lsa ham muammolarni bartaraf qilish ta’lim tizimi hisoblanadi. Yurtimiz bo‘ylab ta’lim sohasida ko‘p o‘zgartirishlar kiritilgan.Shular jumlasidan inklyuziv ta’limga ham bir qator o‘zgartirishlar va qonunlar kiritilgan.

Misol uchun: 2020- 2025- yillarda Maktagacha va xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashlik etish va ularning ta’lim olish huquqini kafolatlash va ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari. Bu nogironligi bor yoki o‘ziga xos biron bir ehtiyoji bor bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishiga qaratilgan yondashuvlardir. Bulardan tashqari tamoyillar turli xil bo‘ladi. Misol uchun;

1. Inklyuziv ta’limning e’tirof etish tamoyili.
2. Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo‘lish tamoyili.
3. Bog‘lanishning mavjud bo‘lish tamoyili.
4. Markazlashtirilmagan bo‘lish tamoyili.
5. Inklyuziv ta’limda kompleks yondashishi tamoyili.
6. Inklyuziv ta’limda moslashuvchanlik tamoyili.

7. Malakaviylik tamoyili.

Inklyuziv ta’limning e’tirof etish tamoyilida ko‘zda tutilgan asosiy mazmun g‘oya har bir bola millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan , sog‘lom yoki maxsus ehtiyoji borligidan qat’i nazar ta’lim olish huquqiga ega ekanligini pedagoglarga tan oldirish lozim. Bundan tashqari ham o‘quvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularga muhit yaratib berish , maxsus ehtiyoji bor bolalarni ehtiyojlarini qondirish ham ushbu tamoyilga to‘laqonli mos keltirishimiz mumkin.Shular bilan bir qatorda bolalar o‘rtasida teng sharoitda diskriminatsiyasiz ya’ni kamsitilishlarsiz yoki bo‘lmasa ularni bir ko‘zda teng ko‘rmaslik kabi holatlarni barataraf etib ta’lim olishini ham ta’minlab berishlari lozim. O‘quvchilar bir vaqtning o‘zida ko‘p tabaqali va kombinatsiyalashtirilgan o‘quv dasturida ishlaydilar. Bu dasturda ularning bir vaqtning o‘zida ham ta’limiy ham ijobiy malakalarni ehtiyojlariga va imkoniyatlariga mos ravishda rivijlantirishga qaratiladi. Inklyuziv maktablar barcha o‘quvchilarni o‘z tengqurlari ichida mahalliy maktablarda ta’limni ta’minlaydigan holda buni qo‘llab- quvvatlaydilar, tan oladilar va qadrlaydilar.

Inklyuziv ta’limni barcha uchun ochiq bo‘lish tamoyili biz bir nechta namunalarkeltirishimiz mumkin .Misol uchun O‘qituvchilarning maxsus ehtiyojli bolalarning ota-onalari bilan yoki jamiyat va atrof muhitdagi shaxslar bilan birgalikda amaliyotlar olib borish ishlari ham olishimiz mumkin. Bog‘lanish mavjud bo‘lish tamoyili bu alohida tilga olib o‘tish kerak.Bunda asosan maxsus ehtiyoji mavjud bola bilan bino o‘rtasidagi bog‘liqlikni misol qilishimiz mumkin. Masalan bir maktab qurilyapti. U maktab arxetekturasi nogironligi bor bolalarni inobatga olgan holda ko‘rib chiqilishi zarur deb o‘ylayman.

Malakaviylik tamoyil inklyuziv ta’lim joriy etilgan maktablarda albatta yuqori malakaga ega pedagoglar dars berishlari kerak. Shular bilan bir qatorda pedagog defektlogiya sohasi bo‘yicha ham malaka oshirgan bo‘lishi kerak. Inklyuziv ta’limda defferensial yondashuv mavjud bo‘lib ushbu yondashuv o‘quvchi va bolalarni aqliy qobiliyati, bilim olish su’ratiga qarab metodlardan foydalanib dars o‘tish kiradi. Maxsus ehtiyojli bolalar o‘z tengdoshlari bilan umumiy sinflarda o‘qitilib, jamiyatga to‘liq integratsiyalashuvi kerak. Bundan tashqari ijtimoiy loyihalarda har xil musobaqalar va to‘garaklarda qatnashib rag‘batlantirishlari kerak.

O‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish. O‘zbekiston Respublikasi Prezisenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari huzurida tashkil etilgan.Psixologik tibbiy pedagogik komissiya keyingi o‘rinda psixologik- tibbiy- pedagogik komissiya xulosasiga ko‘ra ota – onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi. Maktab psixologik- tibbiy - pedagogik komissiya tomonidan inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga yo‘llangan bolalarni qabul qilishdan bosh tortishga haqli emas .O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12.10.2021 - yildagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ- huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 638-son qarori qabul qilindi. Bugungi kunda respublika bo‘yicha jismoniy yoki ruhiy rivovlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun jami 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda keyingi o‘rinlarda ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari 21,2 ming nafar 21 ta sanatory turidagi maktab internatlarda 6.1ming nafar o‘quvchilar ta’lim tarbiya oladilar .Shuningdek uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan 13.3 ming nafar o‘quvchilar uyda yakka tartibda o‘qitiladi.

Xulosa o‘rnida shu aytish joizki, maktagacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari ta’lim sifatini oshirishda hamkorlikda ish faoliyatini amalga oshirganliklari uchun ta’lim jarayoida doim yuqori yutuqlarga erishib kelmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son Qarori

2. L.R.Muminova, R.Sh.Shomaxmudova, Z.M.Axmedova. “Inklyuiziv ta’lim” o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019.

3. Nurmuhamedova L.Sh. Nogiron bolalarning huquqiy asos-lari va ilmiy-nazariy masalalari. Defektolog kadrlarni tayyorlash jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tadbiq etish: muam-molar va istiqbollar. – T., 2014.

4. D.S.Qaxarova “Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” Toshkent. 2014.

5. J.G‘.Yuldashev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004.

6. R.Shomaxmudova, D.To‘laganova, A.Berdiyeva. Jismoniy tarbiya muammolari bolgan bolalar bilan inklyuziv va mahsus ta’lim tizimida olib borilishi mumkin bo‘lgan tuzatish pedagogik ishlar. Toshkent: XT «Rozigov O.Zh.», 2017.

7. F.U.Qodirova, X.Sh.Yunusova. Inklyuziv va maxsus ta’limning filologik asoslari. Chirchiq, 2022.

ЁШ АВЛОДНИ КЕЛАЖАК КАСБЛАРИГА ЙЎНАЛТИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ

Абдуғаниев Аброржон Аслиддинович
Ўзбекистон, Навоий ёшлар Технопарк директори

Бугунги кунда глобал рақобат ва илмий-техникавий тараққиёт шиддати ортиб бораётган шароитда ёш авлодни келажакда талаб юқори бўладиган касбларга йўналтириш ҳар қачонгидан ҳам долзарб масалага айланди. Янгилаш ва инновациялашув жараёнлари меҳнат бозорида мутлақо янги талабларни шакллантирмоқда. Хусусан, рақамли иқтисодиёт, сунъий интеллект, робототехника, биотехнология, экология ва қайта тикланувчи энергетика соҳаларида касбий малакага эга кадрларга бўлган талаб кескин ўсмоқда.

Ўзбекистон Республикасида ҳам ёшларнинг келажак касбларига тайёргарлигини таъминлаш, уларнинг меҳнат бозорида рақобатбардошлигини ошириш мақсадида қатор муҳим қарор ва фармонлар қабул қилинди. Республикамизда таълим тизими ислоҳотида “Ўзбекистон – 2030” стратегиясида ёшларга замонавий билим ва кўникмаларни бериш, уларни рақамли иқтисодиёт, креатив индустрия ва STEM соҳаларида юқори малакали мутахассислар этиб тайёрлаш устувор вазифалардан бири сифатида белгиланган. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 июндаги “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили” Давлат дастури тўғрисидаги ПҚ-4354-сон қарорида ёшларнинг касбий салоҳиятини ошириш, уларни замонавий талабларга жавоб берадиган соҳаларга йўналтириш муҳим вазифа сифатида белгиланган. Шунингдек, “Ёшлар - келажагимиз” Давлат дастури (ПҚ-4805-сон) ҳам ёш авлодни янги иқтисодий шароитларга мос касблар ва соҳалар бўйича тайёрлаш, уларни тадбиркорлик ва инновацион фаолиятга кенг жалб этиш мақсадларини ўз ичига олди.

Шунга кўра айтиш мумкинки, замонавий дунёда ёш авлодни келажак касбларига йўналтириш нафақат шахсий муваффақият, балки мамлакатнинг барқарор тараққиёти ва глобал рақобатбардошлиги учун ҳам стратегик аҳамият касб этади.

Илмий тадқиқотлар таҳлили шундан далолат берадики, ёшликда касбга йўналтиришнинг самараси катта аҳамиятга эга. Мазкур масала Дональд Супернинг (Super, 1957) “касбий ривожланиш назарияси”да касбий идентификация босқичи мактаб ёшидан бошланиши мақсадга мувофиқ ва бу инсоннинг бутун ҳаёти давомидаги меҳнат фаолияти ва ижтимоий позициясига таъсир этади. Шунингдек, OECD (2022) – Education and Skills Beyond School тадқиқотида таълим тизими билан меҳнат бозори ўртасидаги узвий алоқани мустаҳкамлаш лозимлиги қайд этилади. Унда айтилишича, таълим дастурлари меҳнат бозорининг аниқ талабларига мувофиқ янгиланиши ва мослашувчан бўлиши керак. Lifelong learning (Умр бўйи ўрганиш) концепциясига кўра UNESCO (2021) таълим ҳисоботида таъкидланишича, замонавий дунёда бир касб билан бутун ҳаёт фаолиятини ўтказиш имконияти камаймоқда. Шундан келиб чиқиб, ёшларнинг таълим тизимида умр бўйи ўрганиш кўникмаларини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

Мамлакатимизда эса ёшларни касбга йўналтириш Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ислоҳотлар агентлиги (2023) – Меҳнат бозорида кадрлар талабининг таҳлили натижалари ёшлар учун рақамли технологиялар, муҳандислик,

педагогика ва тиббиёт соҳаларидаги кадрларга талаб ўсиб бораётганини кўрсатади. Шу сабабли, таълим тизимида мазкур соҳаларга йўналтирилган дастурлар ва амалиётларни кенгайтириш лозим. Негаки миллий таълим тизими меҳнат бозори реал эҳтиёжларига тез ва самарали жавоб бериши шарт.

Бугунги кун дунёсида технологиялар ва рақамли инновациялар шиддат билан ривожланмоқда. Бу жараён меҳнат бозорида мутлақо янги касбларнинг пайдо бўлиши ва айрим анъанавий касбларнинг ўз аҳамиятини йўқотишига олиб келмоқда. Келажакда талаб қилинадиган мутахассисликлар замонавий билимлар, креатив фикрлаш ва технологик компетенцияларни талаб қилади. Шу нуқтаи назардан, ёш авлодни глобал ўзгаришларга мос ва рақобатбардош кадрлар сифатида тайёрлаш, улар учун янги имкониятлар эшигини очиш билан бирга, мураккаб чақириқларга тайёрлаш ҳам замон талабига айланди. Халқаро тадқиқотлар натижаларига кўра (World Economic Forum, 2023), келажакда энг талабгир касблар қуйидагилар бўлиши кутилаяпти:

- Маълумотлар таҳлилчиси ва илмий ходимлари
- Сунъий интеллект мутахассислари
- Технологик маҳсулот ишлаб чиқувчилар
- Экологлар ва яшил энергетика муҳандислари
- Касбий маслаҳатчилар ва таълим мутахассислари
- Киберхавфсизлик мутахассислари ва бош.

Маълумки, **маълумотлар таҳлилчиси ва илмий ходимлари** (Data Analyst and Research Scientist) жамланган катта ҳажмдаги маълумотларни таҳлил қилиш орқали корпоратив, илмий ёки давлат ташкилотларининг қарор қабул қилиш жараёнини самарали қилади. Улар маълумотлардан тенденцияларни аниқлайди, прогноз моделларини яратади ва стратегия ишлаб чиқади. Бу эса ҳар бир соҳада (соғлиқни сақлаш, молия, таълим, экология) маълумотларни таҳлил қилиш асосий қарорлар қабул қилишда ҳал қилувчи омил бўлиб бормоқда. Ёки **сунъий интеллект мутахассислари** (Artificial Intelligence Specialist) алгоритмлар, нейрон тармоқлар ва автоматлашган дастурлар яратиш орқали инсон меҳнатини оптималлаштиради ва янги интеллектуал тизимларни ривожлантиради. World Economic Forum'нинг «Future of Jobs Report 2023» таҳлилига кўра, 2027 йилга келиб, сунъий интеллект мутахассисларига талаб 40% га ўсиши кутилмоқда. **Технологик маҳсулот ишлаб чиқувчилар** (Product Developers and Engineers) янги қурилмалар, дастурий таъминотлар, инновацион технологик ечимлар яратиш билан шуғулланади. Бу касбда ихтирочилик ва инновация қуввати талаб қилинади. OECD (2023) ҳисоботи технологик инновацияларни миллий иқтисодий ўсишнинг асосий драйвери сифатида кўрсатади. Бугунги кунда электромобиллар, «ақлли шаҳарлар» (smart cities), рақамли тиббиёт ускуналари каби соҳаларда юқори малакали технологик ишлаб чиқувчиларга талабнинг катталиги мазкур соҳа вакилларига зарурат юқорилигини кўрсатади. Шунингдек, **экологлар ва яшил энергетика муҳандислари** (Environmental Scientists and Green Energy Engineers) атроф-муҳит муҳофазаси бўйича тадқиқотлар ўтказади ва экологик барқарорликни таъминлаш бўйича тавсиялар беради. Яшил энергетика муҳандислари қайта тикланувчи энергия манбаларини (quyosh, шамол, биомасса) яратиш ва ривожлантириш билан шуғулланади. IPCC (2022) ҳисоботи глобал исишнинг олдини олиш учун яшил энергетикага ўтиш зарурлигини таъкидлайди. «Яшил иқтисодиёт» концепцияси асосида экологлар ва муҳандислар нафақат энергетика, балки қурилиш, транспорт ва саноат соҳаларида ҳам марказий роль ўйнайди. Касбий маслаҳатчилар ва таълим мутахассислари (Career Advisors and Educational Consultants) ёшларни ва катталарни меҳнат бозори тенденцияларига мос равишда касб танлаш ва ривожланиш стратегиялари бўйича йўналтиради. Таълим мутахассислари эса индивидуал ва инновацион ўқитиш дастурларини ишлаб чиқиш ва татбиқ этиш билан шуғулланишади.

UNESCO (2022) маълумотларига кўра, келажакда «ўзгарувчан карьера траекториялари» феномени ривожланиши туфайли касбий маслаҳат муҳим аҳамият касб этади. Ёшларни ҳаёт давомида қайта ўқиш (lifelong learning) ва мултидисциплинар соҳаларда фаолият юритишга

тайёрлаш учун таълим ва касбий маслаҳат хизматлари муҳим бўлади. Ва ниҳоят бугунги кунда энг дозарб касб эгалари **киберхавфсизлик мутахассислари** (Cybersecurity Specialists) бўлиб, улар ахборот тизимлари, серверлар, маълумотлар базалари ва рақамли инфратузилмаларни ҳимоя қилиш билан шуғулланади. Улар хакерлик ҳужумларини олдини олади ва корпоратив ҳамда давлат ахборот тизимларининг барқарорлигини таъминлайди. Cybersecurity Ventures (2023) маълумотига кўра, 2025 йилга келиб киберхавфсизлик соҳасида 3,5 миллионта бўш иш ўрни яратилиши кутилаяпти.Зеро, санитария, молия, таълим ва давлат бошқаруви соҳаларида рақамли хавфсизлик биринчи даражали стратегик вазифага айланмоқда.

Дунё иқтисодиёти ва меҳнат бозорида содир бўлаётган шиддатли ўзгаришлар фонунда юқорида қайд этилган касблар — XXI асрда энг кўп талаб қилинадиган соҳалар бўлади. Ёш авлодни мана шу соҳаларга мақсадли равишда тайёрлаш ва йўналтириш — глобал рақобат муҳитида мамлакат тараққиётининг калити ҳисобланади. Бу соҳалар доимий ўзгариш ва янги билимларни талаб қилади, шу боисдан, ёшларга фақат бир соҳани эмас, балки мультидисциплинар кўникмаларни ривожлантириш тавсия этилади. Ёш авлодни касбга йўналтиришда таълим тизимига кенг жорий этилаётган STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) таълими, Soft Skills (муаммо ечиш, креатив фикрлаш, жамоавий ишлаш), дастурлаш ва рақамли саводхонлик ёшларни келажак касбларига тайёрлашда муҳим роль ўйнамоқда.

Ўзбекистонда Президент мактаблари, IT-мактаблар ва «Бир миллион дастурчи» лойиҳалари ёшлар ўртасида юқори технологик ва инновацион соҳаларга қизиқишни оширмоқда. Бугунги кунда меҳнат бозорида содир бўлаётган шиддатли ўзгаришлар ва янги технологияларнинг жорий этилиши ёшлар учун анъанавий касблар билан бир қаторда мутлақо янги соҳаларда фаолият юритиш имкониятларини яратаётгани маълум. Бу эса таълим тизими зиммасига нафақат билим бериш, балки ёшларни келажак касбларига мақсадли равишда йўналтириш ва уларни меҳнат бозорининг талабларига мос равишда тайёрлаш вазифасини юкламоқда.

Таълим тизими — бу фақат назарий билим бериш механизми эмас, балки шахснинг касбий ривожланиш траекториясини шакллантирувчи ҳал қилувчи омилдир. Ўқув жараёни давомида болаларнинг қизиқишлари, қобилиятлари ва индивидуал хусусиятлари аниқланади, уларнинг келгусидаги касбий фаолиятга йўналишини белгилаш имкони яратилади. Бунда умумий ўрта таълим, касб-ҳунар таълими, олий таълим ва ўқувдан ташқари фаолиятлар ўртасида узвий боғлиқлик бўлиши зарур. Келажакда муваффақиятли бўлиш учун ёш авлодни фақатгина мавжуд билимлар билан эмас, балки доимий ўзгарувчан дунёга мослашиш қобилияти билан ҳам қуроллантириш лозим.

Амалда қуйидаги тавсиялар амалга оширилиши мақсадга мувофиқ:

Ёшларда янги билимларни тез ўзлаштириш ва мулоқот қилиш кўникмасини ривожлантириш;

Касб танлашда қизиқишлар, қобилиятлар ва меҳнат бозори талабларининг уйғунлигига эътибор қаратиш;

Таълимда инновацион технологиялар ва амалий машғулотларга кенг ўрин бериш ва ҳок.

Хуллас, ёш авлодни келажак касбларига йўналтириш нафақат шахсий ривожланиш, балки мамлакатнинг барқарор иқтисодий ва ижтимоий тараққиёти учун ҳам асосий омиллардан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Holland, J. L. (1997). Making vocational choices: A theory of vocational personalities and work environments (3rd ed.). Psychological Assessment Resources.
2. McKinsey Global Institute. (2022). The future of work after COVID-19. McKinsey & Company.
3. OECD. (2022). Education and skills beyond school: Synthesis report. Organisation for Economic Co-operation and Development.

4. Super, D. E. (1957). The psychology of careers: An introduction to vocational development. Harper & Row.
5. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
6. World Economic Forum. (2023). The future of jobs report 2023. World Economic Forum.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ислоҳотлар агентлиги. (2023). Меҳнат бозорида кадрлар талабининг таҳлили. -Тошкент: СИА нашриёти.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR ONGINING INTELEKTUAL RIVOJLANISHIGA MIQDOR VA SON TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH TUSHUNCHASINING TA'SIRI

O'zbekiston.Xolmatova Salima Kuziboyevna
CHDPU "Maktangacha talim metodikasi " kafedrasi katta o'qituvchisi.
E-mail: salimaxolmatova72@gmail.com.
Olimova Zamira Mingyasharovna
Jiyanova Gulzira Normuminovna
Maktabgacha talim yonalishi 2- bosqich talabalari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada miqdor va son tasavvurlarini shakllantirishning maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual rivojiga ta'siri ilmiy-nazariy va amaliy asosda tahlil qilingan. Unda bolalarning matematik bilimlari orqali mantiqiy fikrlashi, kuzatuvchanligi, taqqoslash, guruhlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarining rivojlanishida son va miqdor tushunchalarining o'rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada innovatsion metodlar, didaktik o'yinlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va integratsiyalashgan yondashuvlarning samaradorligi muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, son tushunchasi, miqdor tasavvuri, intellektual rivojlanish, innovatsion metod, didaktik o'yinlar, matematik kompetensiya.

Annotation: This article analyzes the impact of developing quantity and number concepts on the intellectual development of preschool children from both theoretical and practical perspectives. It highlights the role of these concepts in fostering children's mathematical knowledge, logical thinking, observation skills, comparison, classification, analysis, and the ability to draw conclusions. Moreover, the article discusses the effectiveness of innovative methods, didactic games, information and communication technologies, and integrated approaches in the educational process.

Keywords: preschool education, number concept, quantity perception, intellectual development, innovative method, didactic games, mathematical competence.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi bolani har tomonlama intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlantirishga yo'naltirilgan. Xususan, miqdor va son tushunchalarini shakllantirish — bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bu tushunchalar orqali bola nafaqat sanash, balki atrofdagi hodisalarni anglash, mantiqan tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Maqolaning asosiy maqsadi — maktabgacha yoshdagi bolalar ongida miqdor va son tasavvurlarining shakllanish jarayoni va uning intellektual rivojlanishdagi o'rnini yoritishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonida **miqdor va son tushunchalari** alohida ahamiyat kasb etadi. Ular bolaning nafaqat matematik kompetensiyalarini, balki aqliy, mantiqiy va idrok faoliyatini rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mazkur tushunchalar keng ko'lamli tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, har biri pedagogik jarayonda bosqichma-bosqich o'zlashtiriladi. Quyida ularning har biri to'liq yoritiladi.

Miqdor tushunchasi atrofdagi ob'ektlarning ko'pligi, kamligi va ular o'rtasidagi nisbatni idrok etishdan iborat. Bu tushuncha bolalarga konkret predmetlar orqali tushuntiriladi. Dastlab bolalar ko'p – kam, bir xil – turlicha, ortiq – kamroq kabi tushunchalarni amaliy harakatlar orqali

anglay boshlaydilar. Misol uchun, ikki savatchadagi olma sonini ko‘z bilan solishtirish, ularni birma-bir juftlab tenglashtirish, yoki “bu yerda ko‘proqmi?” degan savollarga javob izlash orqali bola miqdoriy tafakkurni shakllantiradi.

Miqdoriy tushunchaning mazmuni quyidagilar orqali boyitiladi:

- Ob’ektlarni sanamasdan qiyoslash;
- Juftlashtirish orqali teng yoki teng emasligini aniqlash;
- Kichik guruhlardagi elementlar miqdorini ko‘z bilan aniqlash.

Bu bosqichda sonlar hali tilga olinmaydi, balki bola miqdorni sezish orqali his etadi. Bu esa kelajakda son tushunchasini to‘g‘ri qabul qilishga asos bo‘ladi.

Son tushunchasi bolaning sanash, hisoblash va matematik fikrlash qobiliyatining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Bolalar erta yoshdan boshlab raqamlarni eshitadi, lekin ularni to‘g‘ri qo‘llash va tushunish uchun muayyan didaktik ishlar olib borilishi lozim.

Son tushunchasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Natural sonlar** haqida dastlabki bilimlar;
- **Sanash ketma-ketligi** va har bir sondan keyin va oldin keladigan sonni aniqlash;
- **Ob’ektlarni tartib bilan sanash** va ularning umumiy sonini belgilash;
- **Raqamlar orqali sonni ifodalash** va tanib olish;
- **Tartib son tushunchasi** – sonning tartibdagi o‘rnini anglash.

Masalan, bolaga 3 ta olma ko‘rsatilganda, u nafaqat ularni sanab, “uchta” deb aytishi, balki “3” raqam bilan ham bog‘lay olishi kerak. Bu esa ko‘rish, eshitish, harakat va nutq orqali sonni chuqur anglash imkonini beradi.

Miqdor va son tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular izchil va bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Dastlab bola miqdorni ko‘z bilan baholaydi, keyinchalik esa bu miqdorni aniq son bilan ifodalashga o‘tadi. Masalan: “Bu yerda olma ko‘p, u yerda kam”, degan fikrni keyinroq “Bu yerda 5 ta, u yerda 3 ta” degan holda aniq son bilan ifodalaydi. Shuning uchun pedagog avvalo miqdoriy tafakkurni, so‘ngra esa son tasavvurlarini o‘rgatishi kerak. Bu jarayon uzluksiz bo‘lishi, bolaga bosqichma-bosqich, sekinlik bilan tushuntirilishi lozim.

Miqdor va son tushunchalarini shakllantirish orqali bolada quyidagi intellektual sifatlar rivojlanadi:

- **Mantiqiy fikrlash** – sonlarning ketma-ketligini tushunish orqali sabab-oqibat aloqalarini anglash;
- **Taqqoslash** – miqdorlar orasidagi farqlarni ko‘rish va tahlil qilish;
- **Xotira va diqqatni rivojlantirish** – sanashni eslab qolish, harakatlarga e’tibor qaratish;
- **Tahlil va umumlashtirish** – predmetlar ustida kuzatuv olib borish, xulosaga kelish.

Bu jihatlar bola maktab bosqichiga yetganda mantiqiy fanlarni o‘zlashtirishiga, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

Miqdor va son tasavvurlarini samarali shakllantirishda quyidagi metodik yondashuvlar muhim:

Bolalar uchun quyidagi o‘yinlar orqali tushunchalarni mustahkamlash mumkin:

- **«Sanash poygasi»** — berilgan narsalarni tez va to‘g‘ri sanash;
- **«Nimani yo‘qotdik?»** — sonlar orasidan yo‘qolganini aniqlash;
- **«Qaysi ko‘proq?»** — guruhlar miqdorini taqqoslash;
- **«Quramiz va hisoblaymiz»** — konstruktorlar orqali shakllar qurish va ularni sanash.

Rangli kartochkalar, geometrik shakllar, raqamli kublar yordamida bolalar son va miqdorlarni nafaqat eshitib, balki ko‘rib va ushlab o‘rganadilar.

Miqdor va son tushunchalarini fanlararo integratsiya asosida o‘qitish ham muhim. Masalan:

- **STEM elementlari** – og‘irlikni o‘lchash, idishlardagi suv miqdorini solishtirish, raqamli robotlar bilan ishlash orqali son tushunchasi amaliyotga bog‘lanadi;
- **Atrof-muhit bilan bog‘liq topshiriqlar** – daraxtdagi qushlarni sanash, gullarni guruhlarga ajratish orqali bola matematikani real hayot bilan bog‘laydi.

Miqdor va son tasavvurlarini shakllantirish maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual rivojining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Bu tushunchalar orqali bola atrof-muhitni tushunadi,

mantiqiy fikrlaydi, muammolarni hal qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Zamonaviy metodlar, didaktik o‘yinlar va texnologiyalardan foydalangan holda bu jarayon yanada samarali tashkil etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil.
2. N.U.Bikbayeva, Z.I.Ibrohimova, X.I.Qosimova “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish” Toshkent “O‘qituvchi” 1995y
3. M.E Jumayev “Bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi” Toshkent-“Ilm ziyo”- 2005
4. Toshieva D. “Maktabgacha yoshdagi bolalarga matematika asoslarini o‘rgatish metodikasi”. Toshkent, 2020.
5. Yusupova N. “Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalar”. Toshkent, 2021.
6. OECD (2020). Early Learning and Development: Approaches in Practice.

ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHNING AMALIY-METODIK ISHLARI

O‘zbekiston.D.I.Haydarova
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi
Norquvvatova Sabrina G‘anisher qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1 kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish bo‘yicha fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ta’lim-tarbiya berishning amaliy-metodik ishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, rivojlanish markazi, zamonaviy usullar, bolalar rivojlanishi, muloqot, tarbiya.

Абстрактный. В статье даются отзывы об эффективной организации педагогического процесса в дошкольных образовательных организациях. Охватывает также практическую и методическую работу по воспитанию воспитанников дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова: дошкольное образование, центр развития, современные методики, развитие ребенка, общение, воспитание.

Abstract. The article discusses the effective organization of the pedagogical process in preschool educational organizations. It also covers practical and methodological work on educating and training children in preschool educational organizations.

Key words: preschool education, development center, modern methods, child development, communication, upbringing.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 22-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802- sonli qarori bilan tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan talablari ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablarini belgilaydi .[34]

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim va tarbiya olishlari uchun o‘quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi aniq belgilangan, unda bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratish masalalari belgilangan.

MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

[34] https://oriens.uz/media/journalarticles/93_Sadullayeva_Komila_Murat_qizi_661-665.pdf

• bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yilagan Davlat talablari asosida hamda MTT davlat o‘quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

• maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;

• bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish

• bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish.

Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirishda asosiy dastur qilib “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi belgilangan. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan, shuningdek, bolani ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan. U maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik-fiziologik va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har tomonlama kamol toptirishni ko‘zda tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan axloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, “Men” obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi. Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarni pedagoglar amalga oshiradi. Ular pedagogik jarayonda markaziy o‘rinni egallaydi. Shuning uchun tarbiyachi o‘z sohasini chuqur bilishi, har xil metodik vositalarni yaxshi egallagan, puxta pedagogik psixologik tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak. Bundan tashqari maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining nazariy asoslari bilan qurollanishlari, tarbiya va ta’lim berishning innovatsion texnologiyalari bilishi kerak. Ta’lim va tarbiyaviy jarayon guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda pedagog tomonidan rejalashtirilgan kundalik harakatlar, bolalar o‘yinlari, bo‘sh vaqt, ta’lim va tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi. Ta’lim - tarbiyaviy jarayon ta’lim va ijtimoiy ehtiyojlar (salomatlik, ovqatlanish va xavfsizlik)ni qondirish maqsadida bolaning yoshi va o‘ziga xos rivojlanishiga asoslanuvchi o‘quv rejaga muvofiq olib boriladi. Ta’lim va tarbiyaviy jarayon bola hayoti va uning atrofidagi muhitdan kelib chiquvchi yagona bir butun mavzuga birlashtiriladi. Ta’lim va tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish ta’lim sharoitlariga bog‘liq holda integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillari asosida tarkib topadi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etishda rivojlantirish markazlaridan foydalanish masalasi asosiy masalalarning biriga aylangan. Bu esa barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini amalda qo‘llash bilan bog‘liqdir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi-pedagogi rivojlanish sohasi kompetensiyalari mazmuni asosidagi o‘quv-tarbiyaviy jarayonni “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari” asosida amalga oshiradi. Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat turlari yetakchi rol uynaydi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilada bolaning hayotini u turlituman faoliyatlar bilan shug‘ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga, albatta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim, malakalarni singdirish, mustaqillikni rivojlantirish va shu kabilar bilan erishiladi. Maktabgacha yosh davrida bolalarda mustaqillik, hayotga moslashuvchanlik ancha shakllanadi, shuning uchun bu yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish usullari ham o‘zgaradi. Talim-tarbiya ishining vazifasi, mazmuni va metodini belgilash bolaning yosh bosqichlariga asoslanadi. Yosh davrlari bolaning rivojlanishidagi zarur bosqichlardir.[35]

Foydalanilgan adabiyotlar

[35] https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0038/1.51.pdf

1. Sh.K.Tashpulatova ―Maktabgacha ta`lim muassasalar ishini tashkil etish va boshqarish usullari TDPU.T.: 2001 y.
2. B. Ziyomuhamedov, Sh.Abdullaeva ―Pedagogika‖ ―O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti‖. T.: 2000 y.
3. R. Mavlonova ―Pedagogik texnologiya‖ Toshkent ―Fan. 2009 y
4. D.Q. Asqarova «Bolalalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi» o‘quv qo‘llanma Toshkent-2020 11-b
5. https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-10-05-12-51_504cdd76ec31062127e2c62cd90408f2.pdf

“KOMMUNIKATIV MADANIYAT” VA “MULOQOT MADANIYATI” TUSHUNCHALARINING QIYOSIY TAHLILI

O‘zbekiston. Islomova Shahlo Madat qizi
Navoiy davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti

Bugungi globalizatsiya jarayonida turli madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotning ahamiyati ortib bormoqda. Bu jarayonda kommunikativ madaniyat va muloqot madaniyati tushunchalarining o‘rni muhim. Quyida biz mazkur tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligi va farqlari olimlarning ilmiy fikrlari asosida tahlil qilamiz.

Kommunikativ madaniyat – bu shaxsning ijtimoiy muhitda samarali muloqot qilish qobiliyati va bu jarayonda madaniy qadriyatlarni hisobga olishdir. Feruz Abdunazarovning fikriga ko‘ra, kommunikativ madaniyat til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganadi va tilshunoslikning yangi sohasi sifatida madaniyatlararo munosabatlarga qaratilgan.

T. V. Gnezdilova (2011) kommunikativ madaniyatni shunday ta'riflaydi: “Bu atama ijtimoiy munosabatlar jarayonida axborotni uzatish va qabul qilishdagi madaniy qoidalar va me'yorlarni o‘z ichiga oladi”. Bu ta'rifda, kommunikativ madaniyat, aniqroq aytganda, bir jamiyat yoki madaniyat ichida qanday muloqot qilishni, qanday so‘zlar va iboralar ishlatilishini belgilovchi ijtimoiy qoidalarga asoslanadi.

Muloqot madaniyati esa shaxsning muloqot jarayonida axloqiy, estetik va ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishini anglatadi. Delfuza Xusanovaning ta’kidlashicha, muloqot madaniyati jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

A. A. Leontiev (2011) esa o‘ziga xos tarzda: “Muloqot madaniyati — bu shaxsning boshqa odamlar bilan to‘g'ri, hurmatga asoslangan va madaniyatli aloqada bo‘lish qobiliyatidir”. Leontievning ta’rifi muloqotning shaxsiy darajadagi ahamiyatini, ya’ni bir insonning o‘z nutqi va muloqotdagi xulq-atvori orqali madaniy va etik me'yorlarga rioya qilishni ta'kidlaydi.

Kommunikativ madaniyat va muloqot madaniyati o‘rtasidagi farqlar.

Garchi ushbu tushunchalar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lsa-da, ular bir-biridan farq qiladi. Kommunikativ madaniyat til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, muloqot madaniyati axloqiy va ijtimoiy me’yorlarga rioya qilishni ta’kidlaydi. Shuningdek, kommunikativ madaniyat madaniyatlararo muloqotda muhim rol o‘ynasa, muloqot madaniyati jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ahamiyatlidir.

Tushuncha	Ta’rifi	Ko‘lam (doirasi)	Misol
Muloqot madaniyati	Shaxslar o‘rtasidagi **odoblilik, xushmuomalalik**, **nutqiy madaniyat**, **tinglash va tushunish madaniyati**	Torroq (ayni muloqotda o‘zini tutish, axloqiy-psixologik normalar)	O‘qituvchi bilan talaba madaniyatli, hurmat asosida suhbatlashishi
Kommunikativ madaniyat	Muloqotdan tashqari, **madaniy kontekst**, **milliy urf-odatlar**, **ijtimoiy normalar**, **raqamli muloqot**,	Kengroq (nafaqat muloqot, balki kommunikatsiyaning barcha shakllari: yozma, og‘zaki, vizual)	Turli millat vakillari bir-birini tushunish va hurmat asosida kommunikatsiya

Tushuncha	Ta’rifi	Ko‘lam (doirasi)	Misol
	tillaro‘rtasidagi tafovutlarni ham qamrab oladi		qilishi

Kommunikativ madaniyat ko‘proq jamoaviy (yoki ijtimoiy) nuqtai nazardan qaraydi. Bu jamiyatning kommunikatsiya usullariga, tilni qanday ishlatishga, axborotni qanday uzatishga e'tibor beradi. Misol uchun, “kommunikativ madaniyat”da odamlar o‘zaro madaniyatlararo aloqalarni qanday tashkil etishlari, bir-birlarini qanday tushunishlari va o‘zaro hurmatni qanday saqlashlari haqida gapiriladi.

Muloqot madaniyati esa asosan shaxsiy yoki individning xulq-atvori bilan bog'liq. Bu jarayonning asosiy elementi shaxsning o‘zini qanday tutishi, u qaysi madaniy va etik qoidalarga amal qiladi. Muloqot madaniyati o‘zaro muloqotda qanday to‘g'ri va madaniyatli muloqot qilishni, shaxsning nutq madaniyatini o‘rganadi.

Chernogrudova shunday yozadi: “Zamonaviy kommunikativ tilshunoslikning muhim elementi – bu shaxsning kommunikativ madaniyati yoki muloqot madaniyati”.

Xulosa qiladigan bo‘lsak kommunikativ madaniyat va muloqot madaniyati o‘rtasida yaqin bog‘liqlik mavjud. Ikkalasi ham shaxsning ijtimoiy muloqotdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Masalan, kommunikativ madaniyat til va madaniyatni hisobga olib, samarali muloqot qilishni ta’minlasa, muloqot madaniyati axloqiy va ijtimoiy me’yorlarga rioya qilishni nazarda tutadi. Har ikki tushuncha ijtimoiy muloqotning rivojida muhim o‘rin egallaydi. ikkalasi ham shaxslararo aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi, har ikki tushuncha axborotni to‘g‘ri yetkazish va uni anglashning samaradorligini oshiradi.

Adabiyotlar:

1.Axatova D.A, F.O.Xodjiyeva, F.X.Aminova “Paedagogika nazariyasi va tarixi” Darslik-2023.
2.Abdunazarov Feruz Kuchkorovich Madaniyatlararo Muloqot Turlari Va Xususiyatlari | Innovative Development In Educational Activities VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2023 152-Bet
3.Ibragimov X, Quronov M. “Umumiy pedagogika”. – T.: Sahhof, 2023 y, 416
4. Xusanova Delfuza Karamatillayevna Muloqot madaniyati va uning jamiyatdagi o‘rni: Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari | Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari 7-to‘plam 2-son may 2024 (24-bet)
5. Стрелчук Н.Е “Коммуникативная культура” и “культура речого общения” синонимичные понятия?. Серия Гуманитарные науки 2011 2 (4) 276-278

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA SPORT MUSOBAQALARINING ROLI

O‘zbekiston.Orzuyeva Sabina Qaxramonovna
Navoiy shahar maktabgacha va maktab bo‘limiga qarashli 25-son DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalarda jismoniy madaniyatni shakllantirishda sport musobaqalarining roli hamda ulardan ta’lim jarayonida to‘g‘ri foydalanish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, musobaqa, bola, o‘yin, metodika, zukkolik.

Аннотация: В данной статье говорится о роли спортивных соревнований в формировании физической культуры у детей и правильном их использовании в образовательном процессе.

Ключевые слова: физическая культура, физическое воспитание, спортивная подготовка, соревнование, ребенок, игра, методика.

Abstract: This article discusses the role of sports competitions in the formation of physical culture in children and their proper use in the educational process.

Key words: physical culture, physical education, sports training, competition, child, game, methodology.

Mustaqil mamlakatimiz taraqqiyotining hamma jihatlari kishilarimizning axloqiy, shaxsiy yuksak insoniy fazilatlariga bog‘liqligi har tomonlama o‘z tasdig‘ini topgan. O‘zbekiston

Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 2017-yil 9-sentabrdagi 3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-yanvardagi 65-son “O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida”, 2020-yil 19-noyabrdagi 735-son “Aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari ham aynan maktabgacha yoshdagi bolalardan boshlab jismoniy madaniyat tushunchasini shakllantirish kerakligini isbotidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi jismoniy tarbiyaning umumiy nazariyasi bilan yagona mazmunga va o‘rganish predmetiga ega, ayni paytda maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalar jismoniy tarbiyasi qonuniyatlarini va shunga muvofiq bolaning ta’lim va tarbiya jarayonidagi rivojlanishini boshqarishning umumiy qonuniyatlarini maxsus o‘rganadi. Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi har bir yosh bosqichini o‘rganib, ilmiy ma’lumotlar va amaliy tajribani umumlashtirib borib, jismoniy tarbiya vazifalarini belgilaydi, ularning mohiyatini, butun jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishning juda samarali vositalari va metodlarini, maqsadga muvofiq shakllarini kompleks ravishda ochib beradi.

Sog‘lom, baquvvat, chiniqqan, xushchaqchaq, mehribon, tashabbuskor, o‘z harakatini yaxshi boshqara oladigan, jismoniy tarbiya va sport mashqlarini sevadigan, atrof-muhitda mustaqil harakat qila oladigan, bolalar bog‘chasida hamda kelgusidagi faol ijodiy faoliyatga nisbatan qobiliyatli bola shaxsini shakllantirish, jismoniy tarbiyaning shaxsni har tomonlama rivojlantirish asoslari sifatidagi alohida ahamiyatini belgilab beruvchi muhim vazifasi hisoblanadi. Ilk yoshdagi va maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning quyidagi psixofiziologik xususiyatlarini o‘z ichiga oladi: organizmning ish qobiliyati imkoniyatlari, yuzaga keluvchi qiziqish va ehtiyojlar, ko‘rgazmali harakat, ko‘rgazmali obraz va mantiqiy tafakkur formalari, ustun turuvchi faoliyat turining o‘ziga xosligi, bu faoliyat rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda bola psixikasida muhim o‘zgarishlar kechadi va “Bolaning yangi oliy rivojlanish bosqichiga o‘tishi”ga tayyorlanadi. Shunga muvofiq bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi, jismoniy tarbiyani tashkil qilish va ularni optimal pedagogik sharoitlarda amalga oshirishning barcha formalari mazmunini ishlab chiqadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning hayotini qiziqarli o‘yin-kulgilarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tarbiyalanuvchilarning ba'zilarida zukkolik, yana ba’zi birlarida tasavvur va ijodkorlik rivojlanadi, lekin ularni umumiy vazifa birlashtiradi - bolaning harakatga bo‘lgan ehtiyojini va hayotni hissiy idrok etishni tarbiyalash.

Harakatlanayotganda, bola dunyoni va o‘zini o‘rganadi, unda harakat qilishni va maqsadli harakat qilishni o‘rganadi. Sport bayramlarini o‘tkazish, bo‘sh vaqtni o‘tkazish, ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil qilishda bolalar faolroq, mustaqil va tashabbuskor bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu tarbiyaning yana bir muhim jihatini ochadi bolalarga vaqtinchalik va fazoviy mos yozuvlar ko‘rsatishning hojati yo‘q, chunki bolalar o‘z vazifalarini tinch va ishonchli bajaradilar. Jismoniy madaniyat – jamiyat umumiy madaniyatining tarkibiy qismi, ijtimoiy faoliyatning bo‘g‘ini sifatida salomatlikni mustahkamlash hamda inson jismoniy qobiliytalarini takomillashtirishga qaratilgan, moddiy hamda ma`naviy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtiradigan, insonning jamiyatda faol faoliyat olib borishi, sog‘lom turmush tarziga ega bo‘lishi, jismonan barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur bo‘ladigan madaniyat ko‘rinishi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya – jismoniy barkamolikka erishish maqsadida harakat ko‘nikmalari hamda ruhiy-jismoniy xususiyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatdir. Jismoniy tarbiya bolaning jismoniy madaniyatini shakllantirishda asosiy ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda unga umuminsoniy hamda milliy madaniy qadriyatlarni berish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida jismoniy tarbiya insonni har tomonlama rivojiga munosib hissa qo‘shib, uning ruhiy, ma`naviy, axloqiy taraqqiyotiga asos bo‘ladi.

Shuningdek maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar orasidagi o‘zaro ijtimoiy munosabatlar, do‘stlik, mehribonlik, insonparvarlik, oqibat, saxovat kabi xususiyatlarni yanada mustahkamlaydi, maqsadi har tomonlama yetuk, barkamol yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga ko‘maklashish, buning uchun quyidagi vazifalar hal etiladi:

- bolalarda yuqori axloqiy, irodaviy, jismoniy fazilatlar tarbiyalanadi;
- tarbiyalanuvchilar sog‘ligini saqlash va mustahkamlash amalga oshiriladi;
- bolalarning bo‘lajak kasbiy faoliyatini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya tashkil etiladi;
- bolalarga jismoniy tarbiya nazariyasi, metodikasi, amaliyoti bo‘yicha bilimlar bazasi shakllantiriladi.

Bolalarda jismoniy madaniyat bilan shug‘ullanish organizmning funksional imkoniyatlarini, aqliy va jismoniy ishlash qobiliyatini, o‘quv mehnatining unumini oshiradi. Sport bayramlari va musobaqalarning qurilishi bolalardagi stressni yengillashtiradi. Sport musoboqalari bola shaxsiyatini shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Birgalikda faoliyat, jamoaning yaxshi natijalarga erishishi, qiyinchiliklarni yengish jamoani birlashtiradi, ma’suliyat hissini (individual va jamoaviy) keltirib chiqaradi. Bolalar o‘rtoqlarining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklariga hamdard bo‘lishni, ularning yutuqlaridan xursand bo‘lishni, yaxshilik, do‘stona munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar. Ular nafaqat individual, balki jamoaviy muvaffaqiyatga erishish istagini tarbiyalaydi. Shu bilan birga, o‘yindagi sheriklarga, raqib jamoaga hurmat rivojlanadi. Musobaqalardagi o‘yinlar va mashqlarning raqobatbardoshligi maqsadga muvofiqlik, qat’iyatlilik va topqirlik, mardlik, qat`iyat hamda boshqa axloqiy va irodaviy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Jismoniy tarbiya bayramlarida qatnashish bolalarning harakatlarida tizimli mashqlarning ahamiyatini chuqurroq anglash, kerakli natijalarga erishishga yordam beradi, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishga qiziqish uyg‘otadi. Bolalarda quvnoq kayfiyatni yaratish, sport mashg‘ulotlarini o‘tkazishda sport maydonchasi yoki xonani tashkil qilish maqsadga muvofiqdir, chunki ta’lim jarayonida tashqi muhit muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, bolajonlarning bo‘sh vaqtlarini sport mashg‘ulotlari va musobaqalar bilan o‘tkazish, ularni munosib taqdirlash sovg‘alar yoki nishonlar berish sport mashg‘ulotlarining asosi hisoblanadi. Bolalarning jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab – quvvatlash uchun biz ular bilan o‘tgan bayram haqida suhbatlashishimiz, ularga eng yoqqan o‘yinlarni birgalikda tahlil qilishimiz musobaqalar orqali jismoniy madaniyatni shakllantirishda eng muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ф.С. Фазлиддинов ВИДЫ СОРЕВНОВАТЕЛЬНЫХ НАГРУЗОК В ФУТБОЛЕ- Web of Scientist: International Scientific Research…, 2022
2. F.S. Fazliddinov PSYCHOLOGICAL TRAINING OF ATHLETES- EConference Globe, 2021
3. D.Z. Safarov, BX Xamroev, MM Mavlonov. Ispolzovanie pedagogicheskix texnologiy v protsesse obucheniya gimnastike - Voprosы nauki i obrazovaniya № 14 (139), 2021
4. Xamroyev B. X, Safarov D. Z. BELBOG‘LI KURASHCHINING FUNKSIONAL QOBILIYATI OSHIRISH YO‘LLARI. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 ///// \\\\\ Volume: 1, ISSUE: 6

MAKTABGACHA TA’LIMDA STEAM YONDASHUVI VA UNING INNOVATSION AMALGA OSHIRILISHI

O‘zbekiston.Meyliyeva Nafosat Gulomovna
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Homidova Dilsora Yoqubboy qizi
Maktabgacha ta'lim yo‘nalishi talabasi 4-kurs (sirtqi)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’limda STEAM yondashuvining nazariy asoslari, fanlararo uzviyligi va amaliy ahamiyati yoritilgan. STEAM yondashuvi orqali bolalarning muhandislik, texnologik, ilmiy, san’at va matematik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkazilgan amaliy tajribalar, kuzatuv, eksperiment va tahlil usullari asosida o‘rganilgan natijalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: STEAM, fanlararo ta’lim, muhandislik, texnologiya, san’at, matematika, tajriba, maktabgacha ta’lim.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida integratsiyalashgan yondashuvlar, xususan STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. STEAM yondashuvi maktabgacha ta’limda ham bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularning intellektual salohiyatini oshirish va iste’dodini mujassam qilishda muhim rol o‘ynaydi.

STEAM yondashuvining nazariy asoslari

STEAM – bu fanlararo ta’lim modeli bo‘lib, u bolalarning tajriba orqali bilim olishini ta’minlaydi. Ushbu yondashuv orqali bolalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

• Muhandislik va texnologik tafakkurini shakllantiradi;

• Ilmiy tajribalar orqali kuzatuv jarayoniga ijodiy yondashib fikr bildirish qobiliyatini rivojlantiradi;

• San’at elementlari orqali ijodiy qobiliyat va tafakkurini boyitadi;

• Matematik mantiq orqali muammolarni hal qilishga o‘rganadi.

Bular barchasi bolalarda jamlanib intellektual salohiyatini oshirib, iste’dodini mujassam qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mobaynida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan amaliy tajribalar o‘tkazildi. Tadqiqotning asosiy usullari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

• **Kuzatuv usuli:** Bolalarning tajribalariga qiziqishi va ishtirokini baholash;

• **Eksperiment usuli:** Makaron va ipdan foydalanilgan holda mashg‘ulotlarni tashkil qilish;

• **Tahlil usuli**: Natijalarni baholab, xulosalar qilish.

Amaliy tajribalar va natijalar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan quyidagi tajribalar o‘tkazildi:

1. Makaron ko‘priklarini qurish.

• Maqsad: Tajriba orqali bolalarda muhandislik bilimlarini shakllantirish va muvozanat haqida tushunchalar berish.

• Materiallar: Spagetti makaronlari, ip, yelim yoki plastilin.

• Bajarilish jarayoni: Bolalar makaron va ip yordamida mustahkam ko‘priklar qurishga harakat qiladilar.

• Natija: Muvozanat va konstruksiya (qurish) haqidagi tushunchalari rivojlanib boradi.

2. Ip bilan geometrik shakllarni yasash.

• Maqsad: Geometriya va san'atni uyg‘unlashtirish.

• Materiallar: Qog‘oz, karton, yog‘och taxta va rangli iplar.

• Bajarilishi: Bolalar iplarni turli burchaklarga tortishadi, shunda geometrik shakllar hosil qilishadi.

• Natija: Bolalarning fazoviy tafakkurini rivojlantiradi.

3. Makaron va ipdan musiqa asboblari kashf qilish.

• Maqsad: Akustika (tovushning baland -pastligi) va tovushlarning tabiati haqida tushuncha berish.

• Materiallar: Turli xil shakldagi makaronlar, ip, kichik taxta yoki plastmassa qutilar.

• Bajarilish jarayoni: Bolalar makaronlarni ipga terib, ularni qimirlatish orqali tovush chiqarishadi.

• Natija: Turli materiallarning tovush chiqarish xususiyatlarini o‘rganishadi.

Xulosa. Ushbu tajribalar natijasida bolalarda quyidagi o‘zgarishlar kuzatildi:

• Matematik mantiq va geometrik tafakkur rivojlanadi.

• San’at va muhandislik elementlarini uyg‘unlashtirish orqali ijodkorligi oshadi.

• Muvozanat va mexanik tizimlarni tushunish yaxshilanadi.

• Tovush va akustika haqidagi dastlabki bilimlar shakllanib mujassamlashadi.

Steam yondashuvi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun samarali ta’lim metodikasi hisoblanadi. Tajribalar orqali olingan natijalar bolalarning qiziqishini va tirishqoqligini oshirish bilan birga, ularning kelajakda ilmiy va texnik yo‘nalishlarga bo‘lgan qiziqishini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Xaydarov , A (2020) Maktabgacha ta'lim metodikasi. Toshkent :Öqituvchi.

2.Karimova , D (2021) . STEAM ta'lim yondashuvi va uning maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'siri. Ilmiy jurnal :Pedagogika va Psixologiya 3(5) 45-52.
3.Rogers, C. R(2002) O‘qitish va o‘rganishda innovatsion yondashuvlar.
4.Dewey , J(1998) Tajriba va ta'lim New York:Macmillan.
5.www.steamlearning.com.

ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHNING AMALIY-METODIK ISHLARI

O‘zbekiston. Otamurodova Sitorabonu Sultonmurot qizi
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
S.Boltayeva, S.Hamidova
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning amaliy-metodik jihatlari yoritilgan. Bolalarning jismoniy, aqliy, nutqiy, ijodiy va ijtimoiy-emotsional rivojlanish xususiyatlari asosida samarali ta’lim-tarbiya usullari, jumladan, o‘yin, kuzatish, suhbat, amaliy mashg‘ulotlar va ko‘rgazmali metodlar muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan. Shuningdek, ota-onalar va tarbiyachilarning o‘zaro hamkorligi bolaning har tomonlama kamol topishida muhim omil sifatida qayd etilgan. Maqolada ta’lim-tarbiya jarayonini interaktiv va o‘yin asosidagi yondashuvlar orqali tashkil etishning dolzarbligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Ilk yosh, maktabgacha ta’lim, ta’lim-tarbiya, amaliy-metodik ishlar, o‘yin metodi, kuzatish, suhbat, ijodiy rivojlanish, estetik tarbiya, ota-ona hamkorligi, tarbiyachi, bolalar rivojlanishi, metodik yondashuv, pedagogik metodlar.

Аннотация: В данной статье раскрываются практико-методические аспекты обучения и воспитания детей раннего и дошкольного возраста. Подчеркивается важность эффективных методов обучения и воспитания, основанных на особенностях физического, умственного, речевого, творческого и социально-эмоционального развития детей. Особое внимание уделяется таким методам, как игра, наблюдение, беседа, практические занятия и наглядные методы. Также отмечается, что сотрудничество между родителями и воспитателями является важным фактором всестороннего развития ребёнка. В статье обоснована актуальность организации образовательного процесса на основе интерактивных и игровых подходов.

Ключевые слова: ранний возраст, дошкольное образование, обучение и воспитание, практико-методическая работа, игровой метод, наблюдение, беседа, творческое развитие, эстетическое воспитание, сотрудничество с родителями, воспитатель, развитие детей, методический подход, педагогические методы.

Annotation: This article highlights the practical and methodological aspects of educating and nurturing young and preschool-aged children. It emphasizes the importance of effective teaching and upbringing methods based on the physical, intellectual, speech, creative, and socio-emotional development characteristics of children. Methods such as play, observation, conversation, practical activities, and visual aids are highlighted as essential. The article also notes the vital role of cooperation between parents and educators in the holistic development of the child. The relevance of organizing the educational process through interactive and play-based approaches is substantiated.

Keywords: early age, preschool education, education and upbringing, practical-methodological work, play method, observation, conversation, creative development, aesthetic education, parent collaboration, educator, child development, methodological approach, pedagogical methods.

Ilk va maktabgacha yosh bolalar uchun ta’lim-tarbiya jarayoni ularning kelajakdagi intellektual jismoniy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yoshda bolalar

asosan o‘yin, kuzatish va bevosita tajriba orqali bilim va ko‘nikmalarni egallaydi. Ilk va maktabgacha yosh davrida bolalar quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

Jismoniy rivojlanish: bolalar harakat faoliyatini rivojlantirish, motorik qobiliyatlarini shakllantirish;

Aqliy rivojlanish: kuzatish, taqqoslash, xotira va tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar tashkil etilishi;

Nutq rivoji: so‘z boyligini oshirish, muloqot qobiliyatini shakllantirish uchun ertaklar, she’rlar va hikoyalar aytib berish samarali usullardir;

Ijodiy qobiliyatlar: rasm chizish, qo‘l mehnati, musiqa va raqs kabi mashg‘ulotlar orqali bolalar estetik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi;

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish: o‘zini anglash, his-tuyg‘ularini ifodalash va boshqalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

Bolalar ta’lim-tarbiyasida qo‘llaniladigan samarali metodlar quyidagilardan iborat:

O‘yin metodi: o‘yinlar orqali bilim berish, bolalarning qiziqishini oshirish va ularning faol ishtirokini ta’minlash;

Kuzatish metodi: tabiat hodisalari, hayvonlar, o‘simliklar va kundalik hayot jarayonlarini kuzatish orqali bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish;

Suhbat metod: bolalar bilan muloqot qilish, savol-javob o‘tkazish va ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

Amaliy mashg‘ulotlar: qo‘l mehnati, loydan shakllar yasash, rasm chizish, qurish va konstruktor o‘yinlari orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish;

Ko‘rgazmali metodlar: rasm, videolar, maketlar, tabiat materiallari orqali tushuntirish.

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish uchun tarbiya quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi lozim:

Axloqiy tarbiya: halollik, mehribonlik, hurmat va odob-axloq qoidalarini singdirish;

Jismoniy tarbiya: sport o‘yinlari, gimnastika, harakatli mashg‘ulotlar orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;

Ekologik tarbiya: tabiatni sevish, unga g‘amxo‘rlik qilish, chiqindilarni ajratish va o‘simliklarni parvarish qilish bo‘yicha ko‘nikmalarni singdirish;

Mehnat tarbiyasi: kichik uy vazifalarini bajarish, tartib-intizomga rioya qilish kabi odatlarni shakllantirish.

Estetik tarbiya: musiqa, rasm, qo‘l mehnati, raqs orqali bolalarning didini rivojlantirish.

Bolalar ta’lim-tarbiyasida ota-onalar va tarbiyachilarning o‘rni juda muhim:

Ota-onalarning o‘rni:

-Bola hayotidagi birinchi ustozi—ota-onadir.

-Ular bolaga mehr, e’tibor, axloqiy qadriyatlarni singdiradi.

-Ota-onaning harakati, so‘zlari va munosabati bola ruhiyatiga kuchli ta’sir qiladi.

-Uy sharoitidagi tarbiya bolada mas’uliyat, mehnatsevarlik, odob kabi xislatlarni shakllantiradi.

Tarbiyachilarning o‘rni:

-Tarbiyachilar bolaning ijtimoiy hayotga moslashuvida muhim rol o‘ynaydi.

-Ulardan bola bilim oladi, do‘stlashadi, jamoa bilan ishlashni o‘rganadi.

-Tarbiyachilar pedagogik yondashuv, didaktik usullar orqali bolani har tomonlama rivojlantiradi.

-Maktab va bog‘cha muhitida bolalar axloqiy-me’yoriy tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtiradi.

Hamkorlikning ahamiyati:

- Ota-ona va tarbiyachi o‘rtasidagi hamkorlik bolani to‘g‘ri tarbiyalashda asosiy omildir.
- O‘zaro aloqa orqali bolaning qiziqishlari, muammolari va yutuqlari haqida fikr almashiniladi.
- Birgalikda tashkil etilgan tadbirlar, suhbatlar, mashg‘ulotlar bolaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Ilk maktabgacha yosh davri bolaning intellektual, psixologik va ijtimoiy jihatdan shaklanishida muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur davrda ta’lim-tarbiya jarayoni chuqur o‘ylangan, bolalarning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga mos metodik yondashuvlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Amaliy-metodik ishlar bola tafakkuri, nutqi, muloqot, ko‘nikmalari va estetik dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan pedagoglar har bir faoliyat turini puxta rejalashtirib interaktiv va o‘yin asosidagi metodlarni qo‘llashlari muhimdir. Shuningdek,ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ta’lim-tarbiya jarayonini yanada sifatli va barqaror qiladi. To‘g‘ri tashkil etilgan amaliy-metodik ishlar orqali sog‘lom bilimga chanqoq va madaniyatli avlodni voyaga yetkazish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2018 yildagi PQ-3955-son qarori. https://lex.uz/docs/-3923110
2. “Ozbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son qarori,. https://lex.uz/docs/-4327235
3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi
4. Xolmatova G.T. – “Maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lomlashtirish metodikasi”
5. Otamurodova, S.S. (2024). The Cultivation of Media Competency among Prospective Educators as a Pedagogical Issue. American Journal of Science and Learning for Development (AJSLD), 3(8). https://doi.org/10.51699/ajsld.v3i8.292. https://journal.academicjournal.id/index.php/ajsld/article/view/292
6. Otamurodova, S.S. (2024). The Cultivation of Media Competency Among Prospective Educators as a Pedagogical Issue in Uzbekistan. International Scientific Journal «Science and Innovation». Series B, 3(12). https://scientists.uz/view.php?id=8330.
7. Otamurodova, S.S. (2023). The Role of Ethno-Pedagogic Traditions in the Education of Students. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 18. https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/3527
8. Sharipova, N., Ulug‘berdiyeva, D., Melikulova, N., & Otamurodova, S. (2023). The Role of Folk Pedagogy in Spiritual and Moral Education of Future Teachers. Journal for New Zealand Herpetology, 12(4), July-August. https://biogecko.co.nz/index.php/journal/article/view/122

MAKTABGACHA TA’LIMDA INKLYUZIV TA’LIMNING AHAMIYATI

O‘zbekiston.Qodirova Muyassar
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Aminova Sevara
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning ahamiyati bolalarning o‘zaro hurmat, tenglik va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta o‘rin tutadi. Inklyuziv ta'lim, turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalar uchun ta'limni moslashtirish orqali, ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlashga yordam beradi. Bu tizim faqat bolalarning ilmiy va ijtimoiy rivojlanishiga emas, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni shakllantirishga ham yordam beradi. Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta'limda inklyuziv tizimning ahamiyati, uning pedagogik va psixologik jihatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, bolalar rivojlanishi, ijtimoiy moslashuv, maxsus ehtiyojlar, ta'lim tizimi, pedagogik yondashuv, inkluziv tizim, ta'lim muammolari, jamiyatda integratsiya, bolalar ta'limi, shaxsiy rivojlanish, o‘qituvchilar, maxsus yordam, teng huquqlilik, bolalar bilan ishlash, ijtimoiy barqarorlik, empatiya, ta'lim metodikalari.

Аннотация. Значение инклюзивного образования в дошкольном обучении играет важную роль в развитии взаимного уважения, равенства и социальных навыков адаптации детей. Инклюзивное образование обеспечивает обучение детей с различными

потребностями, помогая им успешно интегрироваться в общество. Эта система способствует не только академическому и социальному развитию детей, но и помогает формировать социальную стабильность и единство в обществе. В данном исследовании рассматривается значимость инклюзивной системы в дошкольном образовании, ее педагогические и психологические аспекты.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, дошкольное образование, развитие детей, социальная адаптация, специальные потребности, образовательная система, педагогический подход, инклюзивная система, образовательные проблемы, интеграция в общество, детское образование, личностное развитие, учителя, специальная помощь, равенство, работа с детьми, социальная стабильность, эмпатия, методы обучения.

Annotation. The importance of inclusive education in preschool education plays a significant role in developing children's mutual respect, equality, and social adaptation skills. Inclusive education ensures that children with various needs receive a tailored education, helping them successfully integrate into society. This system not only contributes to the academic and social development of children but also helps in shaping social stability and unity within the community. This study explores the significance of the inclusive system in preschool education and its pedagogical and psychological aspects..

Keywords: Inclusive education, preschool education, child development, social adaptation, special needs, education system, pedagogical approach, inclusive system, educational issues, societal integration, child education, personal development, teachers, special assistance, equality, working with children, social stability, empathy, teaching methods.

Maktabgacha ta’limda inklyuziv ta’limning ahamiyati katta. Inklyuziv ta’lim barcha bolalarga teng imkoniyatlar yaratadi va har bir bolaning o’z ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim olishiga yordam beradi. Bu tizimda, sog’lom bolalar bilan birga maxsus ehtiyojlarga ega bolalar ham o’qiydi. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi — har bir bolaga uning individual ehtiyojlariga qarab ta’lim berishdir.

Bunda o’qitish metodlari va materiallari bolalarning turli ehtiyojlariga moslashtiriladi. Masalan, maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun qo’shimcha pedagogik yordam ko’rsatiladi. Bu, bolalarning o’z salohiyatlarini to’liq rivojlantirishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta’lim bolalarga ijtimoiy moslashuv ko’nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Turli qobiliyatga ega bolalar birgalikda ta’lim olib, o’zaro hamdardlik, sabr-toqat, bir-biriga yordam berish kabi ijtimoiy ko’nikmalarni o’rganadilar.

Inklyuziv ta’lim jamiyatda xabardorlik va hamjihatlikni oshiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar turli ijtimoiy guruhlar haqidagi qadriyatlarni o’rganib, farqlarni qabul qilishni o’rganadilar. Bu esa kelajakda jamiyatda bir-birini tushunish va yordam berish kabi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi. Inklyuziv ta’limning afzalligi shundaki, u bolalarni erta yoshdan farqlarga hurmat bilan qarashga o’rgatadi va kelajakda jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyasiga yordam beradi. Aqliy va jismoniy rivojlanishga ta’sir qiluvchi elementlar ham mavjud: maxsus ehtiyojlarga ega bolalar o’zlariga moslashtirilgan yordam bilan ta’lim olishadi, bu esa ularning rivojlanishiga katta yordam beradi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’limda inklyuziv ta’limning ahamiyati shundaki, u barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratadi va ularga o’zlarini rivojlantirish, jamiyatga integratsiyalashish imkoniyatlarini beradi.

Maktabgacha ta’limda inklyuziv ta’limning ahamiyati shundaki, u bolalarning o’zaro hurmat va tushunishni rivojlantiradi, bu esa kelajakda ularga ijtimoiy va shaxsiy muvaffaqiyatlar uchun mustahkam asos yaratadi. Inklyuziv ta’lim tizimi bolalarning turli qobiliyatlarini va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim berishni ta’minlaydi. Bu, o’z navbatida, o’quvchilarni bir-biriga yordam berishga, turli vaziyatlarda birgalikda ishlashga, hamkorlik qilishga va bir-birlarini tushunishga o’rgatadi.

Inklyuziv ta’lim tizimida, jismoniy yoki aqliy cheklovlarga ega bo’lgan bolalar bilan sog’lom bolalar birgalikda o’qishadi, bu esa farqlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bolalar o’zaro turli qobiliyatlarini va tajribalari bilan baham ko’rishadi, bu ularga bir-birlarini to’liq

tushunishga, yordam berishga va empatiya tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday yondashuv bolalarni do'stlik, hamjihatlik va to'g'ridan-to'g'ri muloqotda bo'lishga o'rgatadi.

Shuningdek, inklyuziv ta'limda alohida o'qituvchilar, psixologlar va boshqa mutaxassislar bolalarga individual yordam ko'rsatadi. Maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun individual o'quv rejalarini ishlab chiqish, qo'shimcha pedagogik yordam va ta'lim materiallarini tayyorlash hamda maxsus texnologik vositalardan foydalanish orqali ta'limning samaradorligini oshirish mumkin.

Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning yana bir muhim jihati, bolalar turli ijtimoiy guruhlarga mansub bo'lganida, ular o'zaro farqlarga hurmat bilan qarashni o'rganadilar. Bu, kelajakda jamiyatda barqarorlik va bir-biriga yordam berish muhitini yaratishga yordam beradi. Inklyuziv ta'lim tizimi, shuningdek, ota-onalar va jamiyatning ta'lim jarayoniga yanada faolroq jalb bo'lishini ta'minlaydi. Ota-onalar va o'qituvchilar birgalikda farqli qobiliyatli bolalar uchun mos ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Oxir-oqibat, maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, u nafaqat bolalarning ta'lim olish jarayonini rivojlantiradi, balki ularni ijtimoiy mas'uliyatli, hamdard va to'liq o'sishiga yordam beruvchi muhitni yaratadi. Bu jamiyatning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning ahamiyati yana bir qator muhim jihatlarga ega. Bu tizim faqatgina ta'lim jarayonini takomillashtirish bilan cheklanmay, balki bolalarning shaxsiy rivojlanishiga, psixologik va ijtimoiy o'sishiga ham katta hissa qo'shadi.

Birinchidan, inklyuziv ta'lim tizimi bolalarga turli yoshdagi va qobiliyatdagi o'quvchilar bilan o'qish imkonini beradi. Bu ularga o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, boshqalarning ehtiyojlarini tushunish va qobiliyatlarining chegaralarini o'rganishga yordam beradi. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillaridan biri — har bir bola uchun moslashtirilgan o'qish rejalarini ishlab chiqish va ularga individual tarzda ta'lim berishdir. Bu, o'z navbatida, bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularga o'z salohiyatlarini eng yaxshi tarzda namoyon etish imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan, inklyuziv ta'lim ijtimoiy izolyatsiyani kamaytiradi va turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi integratsiyani ta'minlaydi. Maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar o'z tengdoshlari bilan birga ta'lim olishlari ularga jamiyatda teng huquqli fuqarolar sifatida o'sishga yordam beradi. Bu farqlarga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirishga yordam beradi va ular o'zaro hurmat va sabr-toqatni o'rganadilar. Shunday qilib, inklyuziv ta'lim jamiyatda bir-biriga yordam berish, muammolarni birgalikda hal qilish va farqlarni qabul qilish kabi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiradi.

Uchinchidan, inklyuziv ta'limning bolalar uchun ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ta'siri katta. Bolalar turli holatlarda bir-biriga yordam berish, qo'llab-quvvatlash va muammolarni birgalikda hal qilishni o'rganadilar. Ular o'zaro muloqotda bo'lish, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va empatiya tuyg'usini rivojlantirishga o'rganadilar. Bu, o'z navbatida, ularning kelajakdagi jamiyatga integratsiyasini osonlashtiradi.

To'rtinchidan, inklyuziv ta'lim bolalar uchun o'qish va o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va o'zgacha qiladi. Har bir bolaga individual yondashuv, ularning qobiliyatlariga mos ta'lim materiallari va metodlari yordamida ta'lim berish imkoniyati yaratiladi. Bu bolalarning motivatsiyasini oshiradi va ta'lim jarayoniga yanada faolroq jalb bo'lishlarini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, inklyuziv ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning muhim vositasidir. Bolalar boshqalarning farqlarini qabul qilishni, o'z fikrlarini va hissiyotlarini ifodalashni o'rganadilar, bu esa ularga kelajakda turli ijtimoiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli ishlashga yordam beradi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim yoshlarning o'zaro hamkorlik, jamoaviy ishlash va boshqaruv kabi muhim kompetentsiyalarni rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning ahamiyatiga doir yana bir qator muhim jihatlar mavjud. Inklyuziv ta'lim faqat o'quvchilarning bilimlarini oshirish bilan cheklanmay, balki ularning jamiyatga moslashishiga, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga, va teng huquqli fuqarolar sifatida o'sishiga yordam beradi.

- **Pedagogik yondashuv va metodlar:** Inklyuziv ta'limda o‘qituvchilar turli qobiliyatga ega bo‘lgan bolalar uchun individual pedagogik yondashuvni qo‘llaydilar. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning o‘quv jarayonida maksimal natijalarga erishishlariga yordam beradi. O‘qituvchilar bolalarning ehtiyojlarini aniqlab, ularga mos materiallar va metodikalar orqali ta'lim berishadi.
- **Ijtimoiy integratsiya:** Inklyuziv ta'limda bolalar birga ta'lim olishadi, bu esa ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlaydi. Maxsus ehtiyojlarga ega bolalar va sog‘lom bolalar birga ishlash orqali bir-birlarini tushunishni, yordam berishni va birgalikda muammolarni hal qilishni o‘rganadilar. Bu, ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni shakllantiradi.
- **Ta'lim tizimida innovatsiyalar:** Maktabgacha ta'limda inklyuziv yondashuvni joriy etishda turli innovatsion texnologiyalar va o‘quv vositalari qo‘llaniladi. Bu bolalarning o‘qish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun innovatsion o‘qitish metodikalarini joriy qilish, ularning o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishlariga yordam beradi.
- **Ota-onalar va jamiyatning roli:** Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar va jamiyatning roli katta. Ota-onalar bolalarining o‘qish jarayoniga faolroq jalb etilishlari kerak, chunki ular bolalarining ta'lim olishida va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydilar. Jamiyatning inklyuziv ta'limga bo‘lgan munosabati ham ahamiyatlidir, chunki jamiyatda teng huquqlilik va farqlarga hurmatni tarqatish zarur.
- **Empatiya va hamdardlikni rivojlantirish:** Inklyuziv ta'lim bolalarda empatiya, hamdardlik va bir-birini tushunish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bu, bolalar o‘rtasida to‘g‘ri muloqot va do‘stlikni mustahkamlashga yordam beradi. Farqli ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalar bir-birlariga yordam berish orqali o‘zaro hurmat va hamdardlikni o‘rganadilar.
- **Psixologik qo‘llab-quvvatlash:** Maktabgacha ta'limda inklyuziv tizim bolalarning psixologik qo‘llab-quvvatlanishini ta'minlaydi. Psixologlar, ijtimoiy pedagoglar va maxsus yordam mutaxassislari bolalarga individual tarzda yordam ko‘rsatib, ularning psixologik holatini yaxshilashga harakat qiladilar. Bu, bolalarning o‘qish va ijtimoiy rivojlanish jarayonini silliq o‘tkazishga yordam beradi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim tizimini, balki jamiyatni yaxshilashga, ijtimoiy adolatni ta'minlashga, va teng imkoniyatlarni yaratishga yordam beradi. Bu tizim bolalarning barcha imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishga yordam berish bilan birga, jamiyatni barqaror rivojlanishga yo‘naltiradi.

Xulosa. Maktabgacha ta’limda inklyuziv ta’limning ahamiyati faqat bolalarning bilim olishiga emas, balki ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga, farqlarni qabul qilishga, boshqalarga yordam berishga va kelajakda jamiyatda muvaffaqiyatli bo’lishga tayyorlanishlariga ham katta hissa qo’shadi. Bu jamiyatda barqarorlikni, hamjihatlikni va barcha fuqarolarning teng huquqliligini ta’minlash uchun zarur bo’lgan asoslarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov, I. A. (2011). «**Yoshlar – kelajagimiz**». Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi O‘qituvchilar va murabbiylar kengashi.
2. Mahmudov, A. (2015). «**Maktabgacha ta'lim: muammolar va istiqbollar**». Tashkent: Fan va texnologiya.
3. Xudoyberganova, M. (2019). «**Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari**». Tashkent: O‘qituvchilar nashriyoti.
4. Mustafayeva, F. (2020). «**Ta'lim tizimida inklyuzivlikning o‘rni**». Tashkent: O‘zbekiston ta'limi.
5. Asimov, F. (2018). «**Ta'lim va tarbiya: inklyuziv yondashuv**». Tashkent: O‘zbekiston yoshlar ittifoqi nashriyoti.
6. Rakhimov, R. (2017). «**Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi**». Tashkent: Fan va ta'lim.
7. Nurmukhammedov, T. (2019). «**Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar**». Tashkent: O‘qituvchilar nashriyoti.
8. Tashkent, A. (2016). «**Jamiyatda inklyuzivlikning ijtimoiy-psixologik jihatlari**». Tashkent: Xalq ta'limi vazirligi.

9. Usmonova, Z. (2017). **«Maktabgacha ta'limda inklyuziv tizimni joriy etish»**. Tashkent: Ta'lim va rivojlanish.

10. Qodirov, A. (2018). **«O‘zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish»**. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi O‘qituvchilar va murabbiylar kengashi.

11. Mirzoeva, R. (2019). **«Yoshlar ta'limi: inklyuziv tizim»**. Tashkent: O‘qituvchilar nashriyoti.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING O‘YIN FAOLIYATI ORQALI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY-METODIK ISHLARI

O‘zbekiston. Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna
Nizomiy nomidagi TDPU
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi,
Nekboyeva Charos Tura qizi
Abdullayeva Laylo Xamdamovna
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi III bosqich talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning o‘yin faoliyati orqali rivojlantirishda tarbiyachining o‘rni, trabiyachini o‘yin faoliyatida bolalarning yosh xususiyatidan kelib chiqib yondoshishi hamda o‘yin faoliyatini tashkil etishning turli usullari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yin bosqichlari, o‘yin, ko‘nikma, o‘yin kontakti, axloqiy jihatlar

Аннотация: В данной статье представлена информация о роли воспитателя в развитии детей через игровую деятельность в дошкольных образовательных организациях, подходе педагога к игровой деятельности с учетом возрастных особенностей детей, различных методах организации игровой деятельности.

Ключевые слова: игровые этапы, игра, мастерство, игровой контакт, этические аспекты

Abstract: This article provides information about the role of the educator in the development of children through play activities in preschool educational organizations, the approach of the teacher to play activities based on the age characteristics of children, and various methods of organizing play activities.

Key words: game stages, game, skill, game contact, ethical aspects

Har bir bola shaxsiy shakllangan salohitga ega, o‘yin esa uning ta’komillashuviga yordam beradi. Bolalarning bir-birlari bilan yaxshi va samarali munosabatlarini hamda birgalikdagi o‘yin faoliyatida hamkorlik qilish qobilyatlarini shakllantirish va rivojlantirish o‘yin jarayonining asosiy maqsadi hisoblaniladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinda bolalar uyushmalarining rivojlanishida bir necha bosichlar mavjud:

- Birinchi bosqich o‘yinlarni yonida shakllantirish bilan bog‘liq. Asosan kichik maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xos bo‘lib, bunday o‘yinlarda bolalar o‘zaro birlashishni, birgalikda guruh bo‘lib o‘ynashni boshlashadi. Tarbiyachi esa bu jarayonda har bir bolani rag‘batlantirib borishi kerak.

- Ikkinchi bosqichda bolalar uchun qiziqishga asoslangan o‘yin birlashmalar paydo bo‘ladi. Bu bosqichda tarbiyachining vazifasi bolalar qiziqishlarini turg‘un shakllantirishdan iborat.

- Uchunch bosqich bolalar o‘yinga o‘zaro do‘stlik munosabatlari asosida birlashadilar. Bu bosqichda tarbiyachi bolalarning o‘zaro ishonch, bir-biriga yoradam, xamfikrlik, sheriklik munosabatlarini rivojlantirishi muhim.

O‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning hayotini tashkillashtirish shakli bo‘lib, unda tarbiyachi turli usullardan foydalanib bolalarning o‘yin ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yin ko‘nikmalarini rivojlantirishda tarbiyachining o‘yinni boshqarish vazifalari quyidagilar bilan to‘ldiriladi:

- bolalarni turli rollarni ijro etishga undash;

- bolalar rol ijro etganda turli hissiy ifodali rol harakatlarini bajarishlariga zamin yaratish;

- rol o‘ynash harakatlarni roldagi iboralarni aytilgan holda bajarish ko‘nikmalarini rivojlantishga ko‘maklashish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning o‘yin kompetensiyalarini rivojlantirishda tarbiyachi bolalarga muayyan o‘yin harakatlarini ataylab o‘rgatishidan ko‘ra bolalar o‘zlari o‘yinga qanday rolli o‘yin harakatlarini kiritishni o‘ylab topishlari muhim. Bu esa o‘yinning chinakamiga ijodiy ekanligini asoslab ko‘rsatadi. Bundan tashqari tarbiyalanuvchilarning rolli harakatlari ifodali bo‘lishi kerak. Bu esa harakterli amallar, imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali ta’minlanadi. Masalan; tulki rolida bir bola tulkining ayyorligini va boshqa bir bola bo‘rining ochko‘z va jahldorligini ko‘rdatadi. Bunda ikkalasi ham salbiy rolni o‘ynaydi, ammo ularning ifoda vositalari har xil bo‘ladi.

Tarbiyachi o‘yin jarayoni uchun ma’lum sharoit yaratib, bolalarning o‘yin vaziyatidagi xatt-harakatlarini, xulq-atvorini tahlil qilishi va bolalarning maktabgacha yoshdagi rivojlanishidagi turli bo‘shliqlarni aniqlab olishi lozim. Pedagog tomonidan o‘yin shartlarining belgilanish orqali o‘yindagi turli vaziyatlarni nazorat qiladi va bu jarayonda bolalarning mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi. O‘yin jarayonida bolalarga bunday yondoshuv juda yumshoq va bezarar bo‘lib, bolalar bilan ishlashda bezarar hisoblaniladi. Bu jarayonda albatta tarbiyachi ijtimoiy o‘ziga ishonmagan bolalar bilan ishlashda turli metoda va usullarni qo‘llay bilishi muhimdir. Tarbiyachi o‘yinda ijtimoiy ishonchsiz bo‘lgan bolalar uchun o‘yin usullaridan foydalanishning afzalliklarini eslab qolishi kerak.

- Hissyotlarini ifoda etishga yordam berish;

- Ijtimoiy ishonchsiz bo‘lgan bolaga turli masala va muammolarni muhokama qilishga yordam berish;

- Atrofdagilarning kechinmalarini sezishga va ularning motivatsiyasini - tushunishga ko‘maklashish;

- O‘yinning har bir ishtirokchisiga tezkor qayta aloqani taminlashga ko‘maklashish;

- Ijtimoiy ishonchsiz bo‘lgan bolaga o‘z tuyg‘u va hissiyotlarini nazorat qilishni o‘rganishga imkon berish;

- Muloqot qilishda bolaning salbiy qarashlarini ijobiylariga o‘zgartirishga imkon berish.

O‘yin jarayonida insonning o‘zligi namoyon bo‘lib boradi va takomillashadi. Shunday qilib maktabgacha ta’lim tashkilotlarida butun o‘quv jarayoni o‘yin faoliyati bilan bevosita bog‘langan tarzda amalga oshadi. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelganda o‘z xoxishiga ko‘ra rivojlantiruvchi markazlarni tanlashi va guruh tarbiyachisi mavzuli reja asosida rivojlantiruvchi markazlarda materiallar, qo‘llanmalar va turli o‘yinlarni tanlab oladi. Masalan oyning mavzusi “Koinotga sayohat” bo‘lsa, tarbiyachi ushbu mavzuga oid turli suratlar, didaktik o‘yinlar, qo‘llanmalarni rivojlantirish markazlarida oldindan tanlab oladi va joylashtiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachi bolalarning o‘yin kompetensiyalarini rivojlantirishda ikkita strategiyaga ega bo‘lishi lozim:

1. Tarbiyachi o‘yinni oldindan o‘ylangan syujetini umumiy yo‘nalish va tayyorlangan predmetli o‘yin materiallari asosida mustaqil tashkil etish yoki o‘zi ham o‘yin jarayoniga qo‘shilishi ham mumkin.

2. Tarbiyachi o‘yin mazmuni va jarayoniga boshqa o‘ynayotganlar foydalanayotgan usullar bilan ta’sir qilishi va bolalar bilan teng asosda ishtirok etishi mumkin.

O‘yinda birinchi kontaktlarda bolalarda nafaqat harakatlarga qiziqish tarbiyalanadi, boshqa bola shaxsiga nisbatan hurmat tuyg‘usi paydo bo‘ladi va shakllanadi. O‘yinlarda bola voqea-hodisalarga o‘zini munosabatini, bahosini bildiradi. Masalan: tulkini ayyorligi, bo‘rini ochko‘z va jahldorligi, quyonning qo‘rqoqligi kabi. Shu orqali o‘yin syujeti axloqiy ma’noga ega.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida katta guruhlarda o‘yin kompetensiyalarini rivojlantirishda turli mashqlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan: katta guruh bolalarining harakatlari aniq va tezkor, ularni boshqarishda tarbiyachi anchagina qiyinchilikka duch keladi. Bolalarni majburlab o‘yin qoidalarini tushuntirolmaydi hamda guruhdagi sho‘x va harakati tez bolalarni o‘yin jarayonida boshqarishga qiynaladi. Pedagog bolalar o‘yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining hamma tomonlariga: ongiga, his-tuyg‘ulariga, irodasi, xulqiga ta’sir etuvchi, bunda bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik hamda jismoniy tomondan tarbiyalashda foydalanishi

lozim. Bu jarayonda esa bolalarda o‘yin kompetensiyasi rivojlanadi, bilim, tasavvurlari boyib chuqurlashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 06-noyabrdagi PQ-4884-sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-apreldagi PQ-5071-sonli “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”Qarori.

3. Abdullayeva M.A “O‘yin mashg‘ulotlarini boshqarish orqali maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar faolligini oshirish” “Fan va texnologiya” 2016 yil

4. O‘yin orqali ta’lim olish” metodik qo‘llanma (birinchi nashr) Toshkent-2020

5. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” “Tafakkur” nashriyoti 2019 yil.

6. Рамозонова, Б. С., & Абдумуминова, Д. (2023, March). Технологии развития учебно-познавательных компетенций студентов в процессе педагогической практики. In E Global Congress (No. 3, pp. 1-5).

7. Sadriddinovna, R. B. (2022). Fundamentals of development of students'learning competencies in the course of pedagogical practice. Thematics Journal of Education, 7(4).

8. Ramozonova, B. S., & Maxmudova, D. A. (2023). Malakaviy o ‘quv amaliyotida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi. GOLDEN BRAIN, 1(31), 52-56.

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI ORQALI BOLALARDA TINGLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

O‘zbekiston. Raxmatova G.T.
NavDU Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi,
Temirova N.D maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek xalq ertaklari orqali bolalarda tinglash madaniyatini shakllantirish haqida bayon qilingan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning to‘g‘riligi, aniqligi muhum hisoblanadi. Bolalarda tinglash madaniyatini tarkib toptirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni beqiyos. Xalq og‘zaki ijodida ertaklar yetakchi o‘rinda turadi. Ertaklar bolalarda nafaqat nutq bilan bog‘liq balki ijtimoiy-hissiy, badiiy, emotsional kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlari: xalq og‘zaki ijodi, nutq madaniyati, tinglash, xalq ertaklari, yosh xususiyatlari, tasavvur, empatiya.

Аннотация: В статье описывается формирование культуры слушания у детей посредством узбекских народных сказок. Для дошкольников важны правильность и ясность речи. Роль народного устного творчества в формировании у детей культуры слушания неоценима. Сказки занимают ведущее место в устном народном творчестве. Сказки помогают детям развивать не только речевые, но и социально-эмоциональные, художественные и эмоциональные компетенции.

Ключевые слова: устное народное творчество, культура речи, слушание, народные сказки, возрастные особенности, воображение, эмпатия.

Abstract: This article describes the formation of a listening culture in children through Uzbek folk tales. The correctness and accuracy of speech in preschool children is important. The role of folk oral art in the formation of a listening culture in children is incomparable. Fairy tales occupy a leading position in folk oral art. Fairy tales serve to develop not only speech-related but also socio-emotional, artistic, and emotional competencies in children.

Keywords: folk oral art, speech culture, listening, folk tales, age characteristics, imagination, empathy.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tinglash qobiliyatini rivojlantirish ta’lim tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi bu qobiliyat bolalarda keyingi ta’lim bosqichlarida

muvaffaqiyati ijtimoiy munosabatlari va umuman hayotdagi yutuqlari uchun poydevor vazifasini o‘taydi.Tinglash qobiliyati shunchaki eshitishdan farq qilib ma’lumotni qabul qilish tushunish va tahlil qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tinglash qobiliyatini rivojlantirishnibg bir qancha samarali usullari mavjud. Bular orasida eng keng tarqalgan va samarali usullaridan biri ertaklardan foydalanishdir. Ertaklar bolalarning e’tiborini jalb qilish ularning tasavvurini boyitish va tinglash jarayonini qiziqarli qilish uchun ajoyib vosita yordamida hisoblanadi. Ertaklarni tinglash orqali bolalar nafaqat tinglash qobiliyatini balki lug‘at boyligini, nutq ravonligini va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Tinglash qobiliyatini rivojlantirish uchun turli xil audio materiallardan foydalanish mumkin. Bu bolalarning lingvistik qobiliyatini rivojlantiradi va xorijiy tillarga qiziqish uyg‘otadi. Bolalarga tinglangan ma’lumotning qayta hikoya qilishni o‘rgatish muhim. Bu ularning xotirasi va og‘zaki nutqini rivojlantiradi,shuningdek asosiy g‘oyalarni ajratib olish ko‘nikmasini shakllantiradi. Tinglash madaniyatini rivojlantirishda bolaning empatiya qobiliyatini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Empatiya-bu boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga hamdard bo‘lish qobiliyatidir. Bu ko‘nikma bolaning ijtimoiy munosabatlarini yaxshilaydi va uning samarali tinglovchi bo‘lishiga yordam beradi. Empatiyani rivojlanishi uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: hissiyotlarni muhokama qilish yani ertak qahramonlarining his tuyg‘ularini tahlil qilish va ularning o‘rnida bo‘lganda nima qilishlari haqida suhbatlashish. Rolga kirish o‘yinlari: Bolalarga turli vaziyatlarda boshqa odamlarning o‘rniga o‘zlarini qo‘yib ko‘rishlarini o‘rgatish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tinglash qobiliyatini rivojlantirish uchun maxsus akustik muhitni yaratish zarur. Bu muhit turli xil ovozlar tovushlar va nutq namunalarini o‘z ichiga olishi kerak.Shu bilan birga shovqinli muhitda ham tinglash qobiliyatini rivojlantirish uchun maxsus mashg‘ulotlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Chunki real hayotda bolalar ko‘pincha shovqinli sharoitda tinglashga majbur bo‘lishadi.Tinglash qobiliyatini rivojlantirish jarayonlarida bolalarning individual qobiliyatini hisobga olish juda muhim.Har bir bolaning o‘ziga xos qiziqishlari qobiliyatlari va ehtiyojlari mavjud bo‘lib,ularni hisobga olgan holda tinglash mashqlarini tanlash va moslashtirishga etibor qaratish lozim.

O‘zbek xalq ertaklari milliy madaniyatimizning ajralmas qismi bo‘lib, asrlar davomida avloddan avlodga og‘zaki tarzda yetib kelgan. Ertaklarning kampazitsion tuzilishi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ko‘pchilik erkaklar an’anaviy boshlanish formulalari bilan boshlanadi. Masalan «Bir bor ekan, bir yo‘q ekan...»,»Qadim zamonda...» kabi bu formulalar bolalarni voqea olamiga olib kirish vazifasini bajaradi. Ertaklarning yakunida esa ko‘pincha xulosa yoki ibrat chiqariladi. Ba’zan esa «Ertakchi ertakdan men esa bo‘takdan» kabi an’anaviy yakunlovchi iboralar ham ishlatiladi. O‘zbek xalq ertaklarida sexrli elementlar ham keng qo‘llaniladi. Bu elementlar voqealar rivojiga o‘zgacha tus beradi va ertakning qiziqarliligi oshiradi. Sexrli buyumlar, g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lgan qahramonlar ajoyib o‘zgarishlar-bularning barchasi ertaklarga o‘ziga xos joziba baxsh etadi. Maktabgacha talim tashkilotlarida ertaklardan foydalanish, tarbiyachilar ertaklarni o‘qib berish ular asosida sahna ko‘rinishlari tayyorlash, bolalar bilan birgalikda ertaklar to‘qish kabi faoliyatlarni tashkil etishlari mumkin.

O‘zbek xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati tinglash madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ertaklarda aks etgan axloqiy qadriyatlar insoniy fazilatlar bolalarni chuqur mushohada yuritishga,tinglangan matnning ma’naviy jihatlarini anglashga undaydi. Bu esa tinglash jarayonining samaradorligini oshiradi va bolalarning axloqiy tarbiyasiga ijobiy tasir ko‘rsatadi. O‘zbek xalq ertaklarining milliy-madaniy xususiyatlari ham tinglash madaniyatini shakllantirishda o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Ertaklarda aks etgan urf odatlar an’analar milliy qadriyatlar bolalarning milliy o‘zligini anglashiga, o‘z madaniyatiga hurmat bilan qarashiga yordam beradi. Bu esa tinglash jarayonida matnning madaniy kontekstini tushunish, milliy o‘ziga xosliklarni idrok etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘zbek xalq ertaklarining syujet xilma-xilligi ham tinglash madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turli mavzulardagi turli qahramonlar ishtirok etgan ertaklar bolalarning qiziqishini oshiradi,ularni har xil mazmundagi matnlarni tinglashga tayyorlaydi. Bu esa

kelajakda turli mavzudagi matnlarni tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratadi. O‘zbek xalq ertaklarining tuzilishi ham tinglash madaniyatini shakllantirishda o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Ertaklarning an'anaviy boshlanishi va yakunlanishi, voqealar rivojining ma’lum tartibda kelishi bolalarga matnning tuzilishini anglashga, asosiy qismlarni ajratib olishga yordam beradi.Bu esa tinglash jarayonida matnning strukturasini tushunish,asosiy g‘oyani aniqlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

O‘zbek xalq ertaklari bolalarning tinglab tushunish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular o‘ziga xos tili,uslubi, obrazlar tizimi va syujet tuzilishi bilan bolalarning diqqatini jalb qiladi va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ertaklardagi takrorlar, qofiyalar va boshqa lingvistik elementlar bolalarning fonetik sezgirligini oshiradi, nutq apparatini takomillashtiradi. Qahramonlarning xatti-harakatlari va syujet rivojlanishi bolalarda qiziqish uyg‘otadi, diqqatli tinglashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti: darslik. – Toshkent, O‘zbekiston, 2002.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. -T.: O‘qituvchi, 2011.
3. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: darslik. – Toshkent: Musiqa, 2010.
4. Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. -T.: Fan, 2004.
5. Fotima Qodirova, Shoista Toshpo‘latova, Nargiza Kayumova, Malohat A’zamova “Maktabgacha pedagogika” darslik –T.: “Tafakkur” ,2019.
6. www. pedagog. Uz

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK TARBIYAGA O‘RGATISH

O‘zbekiston. Abdurahmonova Kamola Erkin qizi
Navoiy davlat pedagogika institute
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi,
Burxonova Zuhra
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim jarayonida maktagacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasi, bolalarning ijtimoiy hayotga bo‘lgan munosabati hamda ta’lim jarayoni haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: estetika, ta’lim, diqqat, tarbiya, idrok, ong, rivojlanish, ilk qadam, tovush, maqsad, imkoniyat

Аннотация: В данной статье описывается эстетическое воспитание дошкольников в процессе непрерывного образования, отношение детей к общественной жизни, образовательному процессу.

Abstract: This article describes the aesthetic education of preschool children in the process of continuous education, children's attitude to social life, and the educational process.

Maktabgacha ta'lim muassasasi uzluksiz ta'limning birinchi qadami bo‘libgina qolmay, balki faol, ijodkor va ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi ilk pog'ona hamdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g'risida”gi Qarori bunga dalildir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT)larida ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori saviyada tashkil etish tarbiyalanuvchilarga ta'limning keyingi bosqichlarida qiynalmasdan davom ettirishga imkoniyatlar yaratadi. Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy shartlardan biri – bolalarning ingliz tiliga ijobiy munosabatini rag'batlantirish va turli xildagi ta'lim vositalaridan foydalanish hisoblanadi.

Estetik tarbiya keng ma’noli tushuncha bo‘lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san’atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi. Estetik tarbiya o‘z navbatida bolalarga har tomonlama tarbiya berishning bir qismi hisoblanadi. U, ayniqsa, axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘liq.

San’at va hayot go‘zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bolalarda go‘zallikni idrok etishni

tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish: xursandchiliklariga sherik bo‘lish, qayg‘usini birga baham ko‘rish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.

«Estetik tarbiya» tushunchasi bilan bir qatorda **«badiiy tarbiya»** tushunchasi ham mavjud. Badiiy tarbiya san’at asarlari orqali tarbiyalashdir. Estetik va axloqiy tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi shundaki, kishining go‘zallikni idrok etishdan quvonishi uning boshqa kishilarga yaxshilik qilganidan xursand bo‘lishiga o‘xshab ketadi. Aksincha, go‘zallikni ko‘ra bilmaslik, undan zavqlana olmaslik yomon ishlarni qilishga olib keladi. Tarbiyaning bu turi mehnat tarbiyasi bilan ham bog‘liq. Mehnat faoliyati bolalarni quvontiradi, ular biror-bir foydali ishni bajarayotib, o‘zlarining imkoniyatlari o‘sib borayotganligini sezadilar.

Estetik va jismoniy tarbiya o‘rtasida o‘zaro boglanish bor. Kishining mustahkam sog‘lig‘i, jismoniy kamolotisiz uning go‘zalligini tasavvur etib bo‘lmaydi. Uning chiroyli gavda tuzilishi, musiqa ostida chiroyli harakatlar qilishi shular jumlasiga kiradi. Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik hayoti bilan chambarchas bog‘liq. Ilk yoshdagi bolalarni nazarda tutganda ham ularning estetik tarbiyasi to‘g‘risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to‘g‘risida o‘ylash kerak. Bola yaltiroq bo‘yoqdan xursand bo‘ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida uning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bunda kattalarning ta’siri alohida o‘rinni egallaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan so‘zlashuvlari bolaga buyumlarning xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo‘lishlariga yordam beradi. Va aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ularning yuzidagi xursandchilik alomati yoki xo‘mrayib qarashlari, jerkib berishlari va hokazolar bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi.

Bola hayotining **ikkinchi yilida** uning idroki sekin-asta takomillashib boradi. Bola endi faqat borliq xususiyatlarini emas, shu bilan birga san’at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalarini idrok eta boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g‘amginligiga ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta’siri paydo bo‘ladi.

O‘rta guruh bolalarida go‘zallikni idrok etish jarayoni aniq ifodalangan, ta’sirli, faol tusda bo‘ladi. Bu, ayniqsa, qo‘g‘irchoq teatri, kino, multfilm, teatrlarni tomosha qilganlarida namoyon bo‘ladi. Bu yoshdan boshlab bolalar tanish bo‘lgan san’at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradilar va ba’zi bir xulosalar chiqaradilar.

Bolalar ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o‘yindan ajrata boshlaydilar. Katta guruhning oxirlariga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar. Ularda ijobiy qahramonlardan quvonib, salbiy qahramonlaming harakatlaridan xafa bo‘lish holatlari yuz beradi.

Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadidan kelib chiqib, bolaning yosh imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda belgilanadi:

1. Bolalarni hayotdagi go‘zallikni tushunishga, sevishga, tabiatda, turmushda, yaratuvchanlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, kishilaming xattiharakatlarida bolalarga tushunarli bo‘lgan go‘zalliklami ko‘ra bilishga o‘rgatish. Ularda estetik his, estetik did, estetik munosabatni tarbiyalash. Kuchlari yetganicha hayotda go‘zallik yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash.

2. Bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida (badiiy asar, musiqa, qo‘shiq, raqs, rasm) yaratilgan san’at asarlarini ko‘rish, tushunish va sevishga o‘rgatish orqali ularda estetik ong qirralarini shakllantirish;

chiroylini xunukdan, g‘amginlikni xursandchilikdan farqlay olish;

ranglarni, shakl, tovushlarni bir-biridan farqlay olish kabi sensor etalonlar bilan tanishtirish.

3. Bolalarni san’atning turli sohalari: ashula, o‘yin, o‘qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyatlarda yanada faolroq harakat qilish, o‘zini ko‘rsata olishga o‘rgatish. Bular orqali bolalarda

badiiy ijodiy qobiliyatni, xayolni o‘stirish, fazoviy va rang munosabatlarini, ko‘rish xotirasi, qo‘llarni chaqqon harakatga keltira olish malakalarini rivojlantirish.

Estetik tarbiya vositalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: bolalarni o‘rab turgan muhit, turmush estetikasi;

- tevarak-atrofdan olingan taassurotlar;
- tabiat, san’at asarlari;
- bolalarning tasviriy faoliyatlari;
- bayramlar, ko‘ngilochar tadbirlar;
- ma’lum maqsadli va rejali ravishda amalga oshiriladigan ta ’lim;
- ma’lum maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshiriladigan ta’lim.

Bolalar bog'chasini o‘rab turgan go‘zallik muhiti bolalarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi. Pedagogika sistemasiga xos bo‘lgan estetika va etikaning birligini oilada, bolalar bog'chalarida kichkintoylarni tarbiyalashda bemalol qo‘llash mumkin. Lekin haqiqiy turmush estetikasini yaratish uchun tarbiyachi va ota-onalarning yuqori madaniyatli, yaxshi xulqli, xushmuomala, badiiy didli bo‘lishlari talab etiladi.

Bolalarni o‘rab turadigan chiroyli narsalarning o‘zi bolaga hech narsa bermaydi, shuning uchun bolalarni ularni ko‘rishga, qadrlashga, baholay bilishga o‘rgatish kerak. Tarbiyachi bolalarning diqqatini polning tozaligiga, chiroyli idishlarga, gullarga qaratadi.

Har bir yangi narsa, yangi bezak bolalar bilan birga ko‘rib chiqiladi. Eng muhimi, hamma narsalami bolalarda estetik zavq uyg‘otadigan qilib ko‘rsatish kerak. Bolalarda **estetik zavq** uyg'otish uchun ularga kuzatilayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish kerak. Bolalarning hislariga ta’sir etish uchun bu hali yetarli emas. Eng muhimi, bu yerda kattalaming namunasidir. Tarbiyachining o‘zi zavqlansa, ortiqcha so‘zlarsiz go‘zallikka qiziqish uyg‘ota oladi va bolalarda estetik kechinmalar paydo qila oladi.

Bolalar tarbiyachidan: «Nima uchun oltin kuz deyiladi?» deb so‘rashadi, tarbiyachi istirohat bog'iga borib ko‘ramiz, deb javob beradi. Bog'ga borishganda bolalarga taklif etadi: «Sayr qilib daraxtlarni, yo‘lkalarni kuzatamiz». Bog‘ning eng xushmanzara joyiga kelganda bolalar to ‘xtab, atrofga nazar tashlashadi-da: «Nima uchun oltin kuzligini tushundik. Chunki barglar tillage o‘xshaydi. Ana qizil barglar», deyishadi hayajon bilan. Shamol bo‘lishi bilan barglar yerga tushadi. Yo‘lkalar esa to‘shalgan gilamga o‘xshaydi. Ko‘chaga sayrga chiqishadi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: «Biz hozir sizlar bilan bog‘cha ko‘chasidan yurib o‘tamiz. Sizlar diqqat bilan kuzatib boringlar, kim qanday chiroyli narsa ko‘rsa, sayrdan keyin so‘zlab beradi». Shuni ta’kidlash kerakki, ajoyibot yonimizdadir, bolalarni shu ajoyibotni ko‘ra bilishga, undan hayratlana olishga o‘rgatish lozim. Tabiatning go‘zalligini va ajoyibligini inson hayot go‘zalligiga, san’at go‘zalligi va ajoyibotiga aylantiradi. Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat go‘zalligi, hatto eng kichik bolani ham quvontiradi. Uning tuyg‘ular va xayollarda saqlangan go‘zalligi bolalikda, ayniqsa, yorqin va chuqur idrok qilinadi, inson bularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi. **Sayr, ekskursiya** vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini ta- 4 rangbarangligiga, uning o‘zgarishi va uyg‘unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg‘otadi, unga muhabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashga o‘rgatadi.

Bularning hammasi bolalarning estetik didlarini tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini yaqqol ko‘rib, atrofdagi go‘zallik inson melmati tufayli yuzaga kelishiga ishonch hosil qiladilar. Tarbiyachi bolalarning g‘unchadagi bir tomchi shabnamda ham, o‘tlarning biri ikkinchisi bilan qo‘shilib ketishida ham, quyoshning nur taratishida ham, oqshom bo‘yoqlarida ham tabiat go‘zalligini ko‘ra bilishlariga yordam beradi.

Bolalar tashkilotida tabiat burchagi tashkil etiladi. Undagi hayvonlar va o‘simliklarni kuzatish va parvarish qilish bolalarda estetik idrokni, ularga nisbatan to‘g‘ri munosabatni, go‘zallik yaratish

xohishini shakllantiradi va qizg‘in faoliyatga undaydi. Yilning yoz faslida polizda, gulzorda, bog‘cha maydonchasida mehnat qilishda ham bolalar estetik zavq oladilar. Kuzda o‘z mehnati mevasini yeyish bolaga alohida estetik huzur bag‘ishlaydi. Dala va bog‘larga sayrga borganda tabiatning go‘zalligi va boyligidan, u yerdagi dehqonlarning yaratuvchilik mehnatlaridan benihoya zavqlanishadi.

Bolalar tashkilotida bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda san’atning har xil turlaridan (musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san’ati, adabiyot va h. k.) foydalaniladi. San’at yuksak estetik zavqning, kishi xursandchiligining tuganmas manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir vaqtda u har bir kishining rivojlanishi, ma’naviy boyishi uchun ham vositadir. Badiiy asar kishining his-tuyg‘ulariga ta’sir etsa, hissiy kechinmalar kishida fikrlashni uyg'otadi. Badiiy asardan hayajonlanish fikrlashni faollashtiradi. Qiziqarli ertak yoki rasm bolada fikrlar o‘yinini uyg‘otadi.

San’atdan bolalar bog‘chasini bezashda, ta’lim berishda, bolalarning mustaqil faoliyatlarida foydalaniladi. Bolalar bog‘chasida ganch, chinni, yog‘och, loy, plastilindan xilma-xil buyumlar, o‘yinchoqlar yasash mumkin.

Bolalar o‘yinchoqlarining yaxshi namunalaridan guruh xonasini bezatishda foydalansa bo‘ladi. Gilamchilik, to‘qimachilik, kulolchilik, zardo‘zlik, kashtachilik, popopchilik, badiiy oyna, metall patnislar, to‘qilgan hamda tikib gul solingan buyumlar va boshqalar tasviriy san’atning manzarali shakliga kiradi. Bundan tashqari, bog‘chada har bir viloyat, o‘lka, respublikaning milliy madaniyatidan foydalanish kerak.

Ta’lim-tarbiya ishlarida o‘zbek xalq amaliy san’ati namunalaridan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Milliy naqshlar tushirilgan chiroyli guldor matolar qo‘g‘irchoqlar uchun ko‘ylak, oyna pardalari, dasturxon kabilar uchun ishlatilishi mumkin.

Musiqa bolalarning kayfiyatini ko‘tarib ertalabki badantarbiyada yangray boshlaydi. Yilning quruq va issiq vaqtlarida ekskursiya, sayr va o‘yin vaqtlarida ashulalar ijro etilishi kerak, bu bolalarni yanada bir-biriga yaqinlashtiradi, ruhini ko‘taradi. Maydonchada mehnat qilish jarayonida ijro etilgan ashula harakat ritmini uyg‘unlashtiradi, bolalarga mehnat quvonchini bag‘ishlaydi.

Bolalarda estetik idrokning rivojlanishi uchun ularni haqiqiy san’at asarlari bilan tanishtirish zarur. Radio, oynayi jahonda san’at ustalari va tengdoshlari ijro etgan asarlar bolalarning estetik rivojlanishida kata yordam beradi. Ashula aytib o‘yinga tushishda, asosan, xalq ijodi namunalaridan foydalaniladi, bu bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalash uchun g‘oyat qimmatli vositadir. Bolalar xalq kuylarini ijro etayotib, xalq tili va kuyining hamohangligini, ravonligini bilib oladilar. Bu bolalarda vatanparvarlik hislarini tarbiyalaydi, musiqaviy didini shakllantiradi, bolalarni zamonaviy va klassik kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. **Ashula va raqsga tushishga** o‘rgatishda faqat to‘g‘ri aytish va to‘g‘ri harakat qilishni emas, balki ifodali aytish, yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga o‘rgatiladi.

Bolalarning badiiy qobiliyatlarini tarbiyalash masalasi ularning ijodiy o‘sishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun bolaga o‘rgatish, undagi ijodiy tashabbusni rivojlantirish ishi bir-biri bilan uzviy aloqada amalga oshirilishi lozim. Pedagog tarbiyaviy nuqtayi nazardan yondashib, bola ijodining eng birinchi, hali to‘liq namoyon bo‘lmagan tomonini seza bilishi va baholay olishi kerak, bu bilan u boladagi kamolot yo‘lini to‘g‘ri belgilashi mumkin. Bolalar bog‘chasida o‘tkaziladigan bayramlar bolalarga chuqur ta’sir etadi. Bayramning tarbiyaviy kuchi va o‘ziga xosligi uning g‘oyaviy va estetik mazmuni san’atning turli ko‘rinishlari bilan bog‘liq bo‘lishidadir. Har qaysi bayram o‘z g‘oyasiga ega bo‘lib, u bolalarga yorqin obrazlar orqali ta’sir ko‘rsatadi.

Estetik tarbiya vositalaridan biri **qo‘g‘irchoq teatridir**. Uning nihoyatda kuchli ta’sir etishining sababi soddaligi, odatdan tashqari jo‘shqinligi va qo‘g‘irchoqligi (o‘yinchoqligi), shuningdek, badiiy so‘z, musiqa, ashula, raqs, tasviriy san’at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jipslashib ketganligi kishi ko‘zi o‘ngida yaqqol namoyon bo‘lishidadir. Qo‘g‘irchoq teatrini bolalar

faqat tomosha qilibgina qolmay, balki unda o‘zlari ham qatnashadilar. Bu bolaning dramatik qobiliyati, tashabbusi, nutqini o‘stiradi, hayotiga quvonch bag'ishlaydi. Qo‘g‘irchoq teatri, soya teatri ko‘rsatish ham bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda alohida o‘rin egallaydi. Bu o‘yinchoq, qo‘g‘irchoqlar bolalarga tanish bo‘lsa-da, ularni tarbiyachi qo‘li yordamida harakatga keltirib, badiiy so‘zlar bilan qo‘shib olib borishi natijasida ular bolaning ko‘z o‘ngida jonlanadi, boshqacha tus oladi va bolalar ertak mazmunini chuqur idrok eta boshlaydilar.

Badiiy didning shakllanishida **kitoblar** muhim rol o‘ynaydi. Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu va mazmuni bilangina emas, shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir. Kichkintoylar, ayniqsa, 2—3 yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so‘zlardan ko‘ra, rasmlarning ta’siri katta bo‘ladi. Bola kitobchadagi rasmlarni qayta-qayta o‘z o‘rtoqlariga, kattalarga, qo‘g‘irchog‘iga «o‘qib» berish bilan uning mazmunini o‘z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi chiroyli, yorqin rasmlar bolalarning **badiiy didini** tarbiyalaydi.

Kattalar mehnati, qahramonlik, shuningdek, ona Vatanga bo‘lgan muhabbat, do‘stlik, birodarlik, bolalarning ota-onalariga nisbatan mehribon bo‘lishlari kabi mavzularda yozilgan hikoyalar bolalarga tushunarlidir. Bolalarning sevimli yozuvchi va shoirlari Qudrat Hikmat, Mirmuhsin, Shukur Sa’dulla, Quddus Muhammadiyning bolalar uchun yozgan she’rlari ularda ijobiy his-tuyg‘ulami tarbiyalaydi, ularni yashashga o‘rgatadi, dunyoqarashini shakllantiradi, ona tilining boyligini, so‘zlarning ta’sirchanligini his qilishga yordam beradi. Kichkintoylar hammadan ham ertaklarni sevadilar. Eitakning yaxshi tomoni shuki, unda uzoq fikr yuritilmaydi. Ertak qahramonlari bolaga yaqin va tanish. Ertak tili hayotiy hamda jonli bo‘ladi. Eng muhimi, tarbiyachining o‘zi badiiy adabiyotni sevishi va tushunishi, nasriy asar va she’rlarni ifodali o‘qiy bilishi kerak. Bolalar bog‘chasida kattalar rahbarligida bolalar tomonidan konsertlar, bayramlar, kichkintoylarning tug‘ilgan kunlarini nishonlash bolalarda quvonchli hislarni uyg‘otadigan, mazmunli va ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoladigan qilib tashkil etilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya bolalarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashning muhim qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., «O‘zbekiston», 1992.
2. I.A. Karimov. Istiqlol va ma’naviyat. T., «O‘zbekiston», 1995.
3. I.A.Karimov. Yuksak malakali mutaxassislar-taraqqiyot omili. T., «O‘zbekiston», 1995.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». «Sharq», 1997.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. «O‘zbekiston», 1997.
6. U.Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T., «Fan», 2005.
7. Sh. Shodmonova. Maktabgacha pedagogika. T., «Fan va texnologiyalar», 2005.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA’NAVIY–AXLOQIY TARBIYALASH

O‘zbekiston. Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim fakulteti talabasi

Annotatsiya. Maktabgacha pedagogika yosh avlodni barkamol shaxs etib voyaga yetkazishda ma’naviy - axloqiy tarbiyani muhim omil deb hisoblaydi. Ushbu ishda maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy – axloqiy tarbiyalash zaruriyati, hamda yning o‘ziga xos xususiyatlari borasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: axloq, ma’naviy-axloqiy tarbiya, axloqiy ong, axloqiy xulq atvor, ma’naviy - axloqiy rivojlanish, axloqiy his-tuyg’u, tasavvur, madaniy xulq-atvor.

Аннотация. Дошкольная педагогика рассматривает духовно-нравственное воспитание как важный фактор развития подрастающего поколения как гармонично развитой личности. В данной работе рассматривается необходимость духовно- нравственного воспитания детей дошкольного возраста, а также специфика года.

Ключевые слова: нравственность, духовно-нравственное воспитание, нравственное сознание, нравственное поведение, духовно-нравственное развитие, нравственное чувство, воображение, культурное поведение.

Annotation. Preschool pedagogy considers spiritual and moral education as an important factor in the development of the younger generation as a harmoniously developed person. This work discusses the need for spiritual and moral education of preschool children, as well as the specifics of the year.

Keywords: morality, spiritual-moral education, moral consciousness, moral behavior, spiritual-moral development, moral feeling, imagination, cultural behavior.

Axloq so‘zi – lotincha «moros», ya’ni moral, mantiq so‘zidan kelib chiqib, u hech qaerda qat’iy yozib qo‘yilmagan ijtimoiy konundir. Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo‘ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o‘zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma’naviy motivlar shakllangan bo‘ladi. Bu motivlar esa o‘sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvorga rag‘batlantiradi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o‘ziga munosabatni ochib beruvchi ma’naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirib olishgina болаларga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta’minlovchi eng muhim omil sanaladi. Ma’naviy-axloqiy ta’lim va tarbiya o‘zaro bog‘liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo‘lib, shaxs ma’naviy-axloqiy kamolotini shakllantirish asosi hisoblanadi. Ma’naviy-axloqiy ta’lim bolalarga ma’naviy-axloqiy munosabatlar mohiyati to‘g‘risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda ma’naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish ma’naviy-axloqiy ongini shakllantirish jarayoni bo‘lib, izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Qadimgi faylasuflar-u, donishmandlar ijodida odob-axloq malasalari markaziy o‘rinni egallab kelgan. Ular axloq-odobni jamiyatning «poydevori» deganlar. Shuning uchun jamiyatning har bir a’zosining xulqi-odobiga alohida e’tibor bilan qaraladi. Ma’naviy- axloqiy bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirib olishgina o‘quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida shakllanish darajasi turlichadir.

Jumladan:

1. Axloqiy onglilik,
2. Axloqiy qadriyatlar,
3. Axloqiy his-tuyg’ular.

Axloq ijtimoiy ong shakllanishidan biri bo‘lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo‘lgan ma’lum xatti-harakat qoidalari yig’indisidir. Axloq odamlarning bir- biriga. jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti- harakat qoidalari tizimida namoyon bo‘ladi.ahloq- kishining ichki olami, e’tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo‘lsa, odob-shaxsning ko‘zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Ahmad Yugnakiyning «Hibbat-ul-haqqoyiq» asari ta’limiy-axloqiy yo‘nalishda yozilgan bo‘lib, bilimlilik, adolat, sahovat kabi hislatlar ulug‘lanadi, yetuk insonni tarbiyalash g‘oyasi ilgari suriladi.

Amir Temur «Axloqiy Husniya» – yaxshi xulqlar egasi bo‘lgan. U oqil va tadbirli sarkarda

sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshma- shosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymagan. Amir Temur singari jahon ma’naviyati saltanatida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan buyuk bobokalonlarimizning axloq, go‘zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud Axloq» kitobining «Haqqoniyat» deb atalgan bobida rostlik va to‘g‘ri so‘zlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri deb hisoblaydi. U bola tarbiyasida o‘sayotgan shart-sharoit va tarbiyaning roliga alohida e’tibor beriladi.

A.Navoiy ijodida ham axloq-odob masalalariga katta ahamiyat berilgan.

«Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog‘idir» deydi mutafakkir A.Navoiy.

Maktabgacha pedagogika yosh avlodni ma’naviy - axloqiy rivojlanishida tarbiya va tarbiyani muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid tadqiqotlar natijalarining ko‘rsatishicha, maktabgacha tarbiya davri bolaning ma’naviy shakllanashida eng muhim boshqichidir. Shu davrda ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya-tarbiya ta’sirida shaxsning axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi. 6-7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo‘ladigan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan bo‘lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab ma’naviy- axloqiy tarbiya berib borish muhimdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy- axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy- axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda axloqiy his-tuyg’ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Bolalarda axloqiy his-tuyg’ularni tarbiyalash.
4. Xulqdagi salbiy sifatlarni barham toptirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy- axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- g‘oyaviy va tarbiya ishining ma’lum maqsadga qaratilganligi;
- ta’lim-tarbiya ishiga bola shaxsini xurmat kilgan xolda yondashish;
- axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan birga olib borish;
- bolalarning faolligi;
- oila va MTTlarining tarbiyaviy ta’sirining birligi;
- bola shaxsidagi ijobiy sifatlarga suyanish;
- bola shaxsini har tomonlama rivojlanishini ko‘zda tutish.

Ma’naviy- axloqiy tarbiya printsiplarini pedagogik shart-sharoit bilan qo‘shib amaga oshirish bolaning axloqiy rivojlanishiga samarali ta’sir etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma’naviy- axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo‘llash muhim ahamiyatga egadir. Ma’naviy- axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1- guruh. Axloqiy ongni, axloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni bajarish xoxishini shakllantirishga qaratilgan metodlar.

2- guruh. Madaniy xulq-atvor, ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

3- guruh. Axloqiy his tuyg’ular va munosabatlarni rag’batlantirishga tilgan yordamchi metodlar.

Yuqorida keltirilgan barch metodlar orqali bolalarga axloqiy norma va qoidalar, ijtimoiy hayot voqealari o‘rgatiladi. Ularda axloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi.

Bu guruh metodlariga qo‘yiladigan asosiy talablar asosan; bolalarning yaxshilik, yomonlik to‘g‘risidagi tasavvurlarini e’tiborga olish; axloqiy xulq-atvor no’rmalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o‘zlarini faol qatnashtirish; har bir bolaning his-tuyg’usiga ehtiyotlik bilan munosabatda bo‘lish.Bolani noo‘rin tadqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e’tiborsizlik qilish qa’tiyan man qilinadi. Hamma metodlardan izchillik bilan kompleks ravishda foydalaniladi.

Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat uyin mashg‘ulotlarida yaxshi

o‘zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o‘zlashtirib olingan axloqiy tasavvurlarni ular ongli ravishda tushunib yetishlari dastlab mashg‘ulotlarda, keyinchalik o‘yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, musatqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Kamtarlik har bir kishining eng muhim va oliyjanob fazilatlaridan biridir. Bu asosan maktab yoshidan tarbiyalanadi. Ammo maktabgacha yoshidan boshlab, bolalarga kamtarlik hissini singdirish, manmanlik, takabburlik va maqtanchoqlikni yo‘qotib borish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zlarini boshqa bolalardan ustun qo‘yishga urinadilar, ba’zan ota-onalarining kasbi bilan ham maqtanadilar. Bunday xolatda bolalarning ota-onalari bilan tegishli ish olib borish, har bir kasbning zarurligi va muhimligi to‘g’risida aniq misollar bilan tushuntirish zarur. Bolalar ayrim ishlarning uddasidan chiqib, boshqa bolalarni kamsitsalar, tarbiyachi bolaga biror narsani bilmagan o‘rtog‘iga o‘rgatish kerakligini, o‘z-o‘zini maqtash yarashmasligini tushuntiradi. Sofdillik va rostgo‘ylikni tarbiyalash yolg‘onchilik va vijdonsizlik paydo bo‘lishining oldini olish va unga qarshi kurash bilan uzviy bog‘liqdir. Ba’zi bolalar o‘zlari to‘qigan, kattalardan eshitgan ertaklarini tushlarida ko‘rgandek qilib ko‘rsatishga urinadilar. Bunday holda ham urushmasdan «Ertak» to‘qishni yaxshi bilgani uchun maqtash kerak.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalardagi harakterning ijobiy na’munalarini, ularning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda axloqiy tarbiyaning hamma samarali usullari bilan tarbiyalanib borilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. “Maktabgacha ta’lim- tarbiya to‘g’risida“gi Qonun,.-T.;O‘zbekiston. 2020 y.
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”. - T.,”Ma’naviyat”.2013
3. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogika.T.; O‘qituvchi, 1993.
4. Xasanboeva O.U. va boshqa. Maktabgacha ta’lim pedagogika .T.; Ilm ziyo. 2006.
5. Sh.Sodiqova “Maktabgacha pedagogika”. ”Tafakkur sarchashmalari” T.: 2013 y.
6. N.M.Kayumova “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashiroti T.; 2013 y
7. Волотина Л.Р. Дошколъная педагогика М. Лавиринт. 2005г

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI OILADA MA’NAVIY –AXLOQIY TARBIYASINI TARBIYALASH USULLARI.

K.E. Abdurahmonova
Nav.D.U. Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Ikromova Shaxina
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada ijtimoiy tarbiyalash usullari va vositalari yoritilgan bo‘lib, keltirilgan ma’lumotlardan soha vakillari, ota-onalar maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari, tarbiyachilari foydalanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta'lim, tarbiya, ijtimoiy tarbiya, vosita, o‘rgatish, mashq qilish

Аннотация: В данной статье освещены методы и средства социального воспитания дошкольников в семье, а предоставленная информация может быть использована представителями сферы, родителями, педагогами дошкольных образовательных организаций, воспитателями.

Ключевые слова: Дошкольное образование, воспитание, социальное воспитание, инструмент, обучение, обучение.

Annotation: This article describes the methods and tools for the formation of socio-spiritual behavioral skills of middle school children of preschool age, the information can be used by teachers, educators, family educators of preschool education.

Keywords: Preschool education, socio-spiritual behavior, methods, tools, teaching, exercise

Kirish. Bugun O‘zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berish, rivojlantirish va tarbiya qilish davlat ta’lim siyosatining muhim vazifasi hisoblanadi. 2019 yil 16-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Qnunchilik palatasi tomonidan 22

oktyabrda qabul qilingan va 14 dekabrda Senat tomonidan ma’qullangan ‘’Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi’’Qonunni imzoladi. Qonun maktabgacha ta’lim va tarbiyani bolalarni o‘qitish va tarbiya qilish, ularni aqliy, ma’naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish hamda umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’limning bir qismi sifatida belgilaydi.[1]

Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o‘ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirib olishgina o‘quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalaming turli yosh davrlarida shakllanish darajasi Axloqiy onglilik Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo‘lgan ma’lum xatti-harakat qoidalari yig‘indisidir. Axloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo‘Iadi. Axloq - kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo‘lsa, odob - shaxsning ko‘zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo‘Iadi.

Asosiy qism. Ingliz filosofi Frensis Bekon. Farzand umr mevasi, oila faxri, kelajagi, baxtidir. Ammo tarbiya nihoyatda mashaqqatli ish bo‘lib, ota –onalar bolalar tarbiyasida har doimo ham istagan natijalarga erishavermaydilar.

Hayotning birinchi yilidan boshlab bola shaxsini shakllantirish, ya'ni uning tarbiyasi bilan shug‘ulanish oilaning asosiy vazifasidir. Oila jamiyatning boshlang‘ich qismi bo‘lib, unda yangi inson vujudga keladi; bu kichik ijtimoiy guruh bola uchun dastlabki hayot maktabidir. Ota –onalar bolaning birinchi tarbiyachisi va tarbiyachisidirlar.

Bola tarbiyasida haqida Abdulla Avloniy shunday deydi: “Bolani salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmoq, yomon xulqlardan asrab o‘stirmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak zarurdir”[1]

Elkonin bolani “oq qog‘oz”ga o‘xshatadi. Uning fikricha qog‘ozga nimani yozsak shuni ko‘rishimiz mumkin ekan. Shunga ko‘ra bolalarga ijtimoiy-ma’naviy xulq-atvor
ko‘nikmalarini shakllantirish bir necha usullarda olib boriladi. Quyida ular bilan batafsil tanishamiz:

Mashq va o‘rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

Tarbyachichi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. Bolalar odatlarni o‘z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo‘lga qo‘yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi. [3]

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish bola uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasini ko‘nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, Bolaning aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma’naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O‘rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O‘rgatish bir necha izchil harakatlar yig‘indisidir. Tarbiyachi bu harakatlarni ko‘rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim.

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xili mavjud:

1) faoliyatda mash qilish;
2) kun tartibi mashqlari;
3) maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy hamda jamoa faoliyatini tashkil etish va o‘zaro munosabatni yo‘lga qo‘yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari belgilangan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog‘liq istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo‘sh vaqtdan

to‘g‘ri foydalanish odatiga o‘rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq ko‘nikma va malakalarini hosil qiladi, mustahkamlaydi.

Ijtimoiy va axloqiy tarbiya metodlarining bir necha tasnifi mavjud. Masalan, V.I. Loginova, ta'lim jarayonida axloqiy rivojlanish mexanizmini faollashtirishga asoslangan usullarni tasniflab berdi:

- Tuyg‘u va munosabatlarni rag‘batlantirish usullari (kattalarga misol, rag‘batlantirish, talab, jazo).
- Bolaning axloqiy xulq-atvorini shakllantirish (o‘qitish, mashq qilish, faoliyatni boshqarish).
- Bolaning axloqiy ongini shakllantirish (tushuntirish, taklif, axloqiy suhbatlar shaklida ishontirish).

B. T Lixachevning tasnifi axloqiy tarbiya jarayonining o‘zi mantig‘iga asoslanadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Ishonchli ta'sir o‘tkazish usullari (hurmat, pedagogik talablar, ziddiyatli vaziyatlarni muhokama qilish, ishontirish).
- Ta'lim ta'siri (tushuntirish, stressni yo‘qotish, ong, iroda, harakat, hissiyotga murojaat qilish).
- Kelajakda ta'lim jamoasini tashkil etish va o‘zini o‘zi tashkil etish (o‘yin, musobaqa, yagona talablar).[2]

Maktabgacha yoshdagi ma’naviy va axloqiy tarbiya, bola birinchi axloqiy baholash va mulohazalarni ishlab chiqishi bilan belgilanadi, u axloqiy me’yor nima ekanligini tushunishga kirishadi va unga nisbatan munosabatini rivojlantiradi, ammo bu har doim ham haqiqiy harakatlarda unga rioya qilinishini ta'minlamaydi. Bolalarning ijtimoiy va axloqiy tarbiyasi ularning hayoti davomida amalga oshiriladi va u rivojlanib, o‘sib boradigan muhit bola axloqini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun, sog‘inmaslik juda muhimdir muhim fikrlar bola hayotida, shu bilan unga shaxs bo‘lish imkoniyatini beradi.

Ma’naviy- ijtimoiy va axloqiy rivojlanish muammolarini hal qilishga o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan model asosida tashkil etish yordam beradi, bu bolalarning maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zlarining hukmlari, takliflari va kelishmovchiliklarini qabul qiladigan va mavjudligini hisobga oladigantarbiyachi bilan yaqin aloqalarini ta'minlaydi. Bunday sharoitda aloqa dialog, birgalikda muhokama qilish va umumiy yechimlarni ishlab chiqish xususiyatiga ega bo‘ladi. [4]

Xulosa: Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va amalga oshirish vositalari shaxsning muhim ma’naviy sifatlari bo‘lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O‘zbekiston gerbi, bayrog'i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilinadigan izlanishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi .Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini axloqiy hislarini shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.M.Mirziyoyev “ Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi ” Qonun - 2019 yil 16-dekabr
2. Qodirova F.,Toshpo‘latova. Sh,,Kayumova .N, Azamova .N Maktabgacha ta’lim pedagogikasi Toshkent-2019
3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari

4.Karimova V.M “ Ijtimoiy Psixologiya” . Darslik- T.: “Fan va texnologiya ”, 2012.

Elektron ta’lim resurslari

1.www.ziyonet.uz
2.www.gender.uz
3.www.pedagog.uz
4.www.pscholog.uz
5.www.tdpu.uz

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNING PAYDO BO‘LISHI

O‘zbekiston. Abduraximova Charos Abduholiq qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
Maktabgacha ta’lim fakulteti talabasi

Annotatsiya. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oila bilan hamkorligi maktabgacha ta’lim sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oila va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalari, tarbiyachilar, oilalar va jamoat a’zolari o‘rtasidagi kuchli hamkorlik bolalarning rivojlanishidagi ijobiy ahamiyati,shuningdek, olib borilgan ishlarning natijalari yoritilgani holda xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, oila, hamkorlik, mahalliy jamoatchilik, hamkorlik aloqalari, tarbiyachilar, jamoat a’zolari, seminar, ota-onalar klubi, trening, maslahat, konferensiya, davra suhbati, muloqot.

Annotation. The cooperation of preschool organizations with the family is one of the important components of the quality of preschool education. This article provides conclusions and recommendations on the relationship of preschool educational organizations with cooperation with the family and local community, the positive importance of strong cooperation between educators, families and community members in the development of children,as well as the results of the work carried out.

Keywords: preschool, family, collaboration, local community, collaborative relationships, educators, community members, seminar, parent club, training, counseling, conference, roundtable, dialogue.

Аннотация. Сотрудничество дошкольных образовательных организаций с семьей является одной из важнейших составляющих качества дошкольного образования. В данной статье даются выводы и рекомендации, в которых освещается положительное значение взаимодействия дошкольных образовательных организаций с семьей и местным сообществом, прочного сотрудничества воспитателей,семей и членов общественности в развитии детей, а также результаты проведенной работы.

Ключевые слова: дошкольное образование, семья, сотрудничество, местное сообщество, сотрудничество, воспитатели, члены сообщества, семинар, родительский клуб, обучение, консультирование, конференция, круглый стол, общение.

Kirish. Maktabgacha talim tashkiloti tomon otlanayotgan farzandlarimiz bugunning baxtli chehcaklari. Yorug‘ keng va eng zamonaviy rusmda tamirlangan xonalarda qora kozi eng zamonaviy o‘yinchoqlar bilan mashg'ul bolsa, ikkinchidan ilg'or tajribaga ega malakali pedagoglar mashg'ulotlarida oz bilimini, bolalik dunyo qarashini rivojlantiradi. Avvallari devori suvog'idan nurab, boshiga chakki tomgan mashg'ulotxonalaru, kosasika sanoqli go‘sh maxsuloti yo solingan yoki solinmagan yegulikni nari beri iste'mol qilib qish kunlari aqalli miriqib uxlashga ham imkoni bolmagan.

Muhtaram Prezidentimizning Yangi O‘zbekistonning uchinchi ming yilligi ostonasida bugungi farzandlarimiz kelajagini oldindan ko‘ra bilib ularning taqdirini o‘ylab maktabgacha talim sohasida yangi qarorlarni ham chiqarib ham ijrosi uchun tezkorlik bilan yeng shimarib kirishgani biz pedagoglarni ham quvontirdi.

Avvalo, talim yo‘nalishimiz vazirlik darajasiga ko‘tarildi. Prezidentimizning 2017 yil 30 sentyabr PQ-3305 qarori asosida Ozbekiston Respublikasi Maktabgacha talim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g'risidagi qarori barcha maktabgacha talim tizimi xodimlarining yillar davomida kutgan

natijasi boldi. Shuningdek, Prezidentimizning 2017 yil 9 sentyabr 3261-son Maktabgacha talim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risidagi hamda 2017-2021 yillarda maktabgacha talim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g'risidagi qarorlari barcha islohotlarning imkoniyat eshigini ochdi.

Darhaqiqat, maktabgacha talimda qator yutuqlarga erishildi. Jumladan, 7 ta normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish orqali maktabgacha ta'lim tizimining huquqiy bazasi yaxshilandi;

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan ota-onalar burchlari va vazifalari, maqsadi bir-biriga o‘xshaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining asosy maqsadi bolalarni o‘qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo‘ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezishlari amalga oshiruvchi ta'lim - tarbiya jarayonini olib borishdan iborat boisa, ota-ona bolalarni ma'naviy barkamol qilib shakllant-irishdagi asoslarni hosil qilishda Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan samarali foydalanish va bola aqliy kamolotini ma'naviy kamolot bilan uyg'un holda rivojlantirishga erishishdir. Bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi hayot kechirishini tashkil etishda faol ishtirok etish.

Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'i uchun g'amxo‘rlik qilish.Maktabgacha ta'lim esa ustaviga muvofiq bo‘lgan zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashga doimo g'amxo‘rlik qilishdir. Bola shaxsini shakllantirish, bilimga qiziqishini rivojlantirishdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning sog'lig'ini nazorat qilib boriladi. Bolalarni milliy ma'naviyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtiriladi. Bolalarni turli tahdidlarga qarshi kurasha olishga tayyorlanadi. Bolalarni odobli va tartibli kiyinishga o‘rgatiladi. Bolalardagi salomlashish va ovqatlanishini odatdagi holga kiritiladi. Ular qalbidagi ezgulik umg'lami undirib, o‘stirib, Ularga mehr va muhabbat hamda muruvvat ko‘rsat-ishlarning mazmun - mohiyatini anglatiladi. «Odam savdosi» yomon illat ekanligi haqida bolalar ongiga chuqur tushuncha shakllantiriladi. Unga mubtalo bo‘lganlaming oqibati ayanchli bo‘lishi haqida bolalaga tushuntiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari odimlarining bolalar uchun ibrat - namuna bo‘ladi. Turii rag'batlantiruvchi omil va pedagogik usullardan foydalangan holda bolalar jamoasi ishtirok-ida ularning qatnasha olishlariga qiziqish va faoliyatlarini oshir-ish bo‘yicha xohish uyg'otish va unga sharait ta'minlaydi. Ko‘pchilik bolalarni ulami shaxsiy xususiyatlari va qiziq-ishlariga mos holda faoliyatga jalb qilinadi.

Ota -naning jihatlari esa;

bola shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish.

Bolaning aql-zakovatli bo‘lishi-ga va jismoniy hamda ma'naviy jihatdan yetuk bo‘lib tarbiya-lanishiga asos yaratish.

Bola rivojlanishidagi nuq-sonlarni zarur tarzda tuzatish.

Bolalarning oilaviy an'anala^ marosimlar, urf - odatlar va milliy bayramlarni kutib olishga tayyorlash.

Bolalami ma'naviy jihatdan tayyoriashda har xil illatlarga nafrat ruhida tayyorlash.

Bolalarga kiyinish odobi va ulardagi intizomlilikni shakllantirish haqida qayg'urish.

Salomlashish va ovqatlanish odoblari insoniy fazilatlar ekanligini bolalar ongiga singdirish.

Bolalarda mehnatsevarlik, ezgulik, mehr-shafqat fazilat-larini, o‘zidan katta yoshdagilarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish tuyg'ularini shakllantirishga harakat qilish.

Odam savdosiga tushib qolgan odamlarning oilalari ham mahalla oldida uyalib, oila tanazuliga uchrashligini farzand-lar ongiga singdirish.

Oilada ota-onaning bola tarbiya-sida «Ijobiy o‘mak» ko‘rsatishi.

Ota - onaning oilaviy sog'lom muhitni tashkil etishi uchun ibrat - namuna ko‘rsatishi, oilada bola tarbiyasiga ruhiy ta'sir qiluvchi omillami hisobga olinishi, oilada salomatlik tamoyillariga amal qilinishi, salbiy ta'siriami bartaraf qilishga bo‘lgan harakatlar

Oilada farzandlarning qiziqish-larini o‘yinchoqlar yoráamida aniqlash va aniqlangan qiziqishni yanada kuchaytirishga ahamiyat berishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va ota-ona bilan hamkorlik natijasida esa farzandlarda ongli hayot kechirish elementlari shakllanadi. Bolalarda ham jismonan, ham ma'nan sog'lom bo‘lishga ishtiyoq oshadi.

Bolada onglilik va ijodkorlikka qiziqish oshadi. Bunda Maktabgacha ta’lim tashkilotlari dagi va oiladagi ma'naviy sog'lom muhit e'tiborga olinadi. Ixtisoslashtirilgan Maktabgacha ta’lim tashkilotlari da bunga boshqa talab qo‘yiladi.

Bunda bolalarga ma'naviy immunologik tarbiya berish asos qilib olinadi. Oila va bola ma'naviyatining sog'lom bo‘l-ishiga e'tibor beriladi. Bolalardagi tozalik, ozodalik, tartib - intizomlilik kabi insoniy sifatlar shakllanishiga asos yaratiladi. Bolalardagi ma'naviy - axloqiy tarbiya rivojlanishi e'tiborga olinadi. Bolalar ongida ezgulik insonlarni yaxshilikka yetaklashi haqidagi ma'lumotlar paydo bo‘lishi e'tiborda bo‘ladi. Turli salbiy oqibatlar haqida bolalar ongida tasavvur paydo bo‘ladi.»Ibrat - namuna - hayot dorilfununi» turkumi-dagi ma'lumotlardan foydalanish kerak. Bola tarbiyasidagi rag'batlantirish va jazolash me'yorlariga amal qilish lozim bo‘ladi. Qiziqishga oid faoliyatga moyillik kuchli bo‘ladi.

Metodologiya: Tadqiqotda mavzuga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar, pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni o‘rganish, tizimli-struktur tahlil, kuzatish, suhbat, maxsus pedagogik psixologik metodikalar, tajriba-sinov, matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar: Xodimlarini ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllaridan bir nechtasini keltiramiz:

1. Ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Ilg‘or pedagogik tajribalarning ko‘rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganib ularni o‘zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarimiz tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarning turli xil shakllari aniqlangan;

- oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o‘tkazish, ularga maslahatlar;
- ota-onalarning guruhiy va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

2. Ko‘rsatmali ishlar. Ishning bu turi ko‘rgazmali, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalari bo‘yicha materiallar solingan papka.

3. Ota-onaga pedagogik ta’lim berish va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Bola yashab turgan oilani o‘rganish ota-onalar bilan yaqin aloqa o‘rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo‘llaridan biridir.

Tarbiyachi oilaga tekshiruvchi sifatida emas maslahatchi, do‘st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi. Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsad bola yashayotgan sharoitni ko‘rish va zarur bo‘lsa, ota-onalarga yordam ko‘rsatishdir. Oilani borib ko‘rish va ota-onalar bilan suhbatlashish katta pedagogik odat bilan o‘tkazilishi kerak. Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlari ochib berilsa, ota-onalarning tarbiyachiga bo‘lgan hurmati va ishonchi ortadi.

Tarbiyachi bolaning uyida ko‘rganlarini qayd qilish bilan bir qatorda ularni tahlil qiladi, ota-onalar majlislarida oilaviy tarbiyadagi ijobiy va salbiy tomonlar haqida gapiradi. Ularga o‘zining maslahatlarim beradi. Oila tarbiyasidagi ijobiy ishlarni ota-onalar uchun tashkil etilgan testlarda aks ettirish ham mumkin. Oilani borib ko‘rgandagi taassurotlarini tarbiyaviy ishlarni hisobga olish ustuniga yozib qo‘yishi kerak oilaga kamida yiliga 2 marta borib ko‘riladi.

Tarbiyachining oilaga borishi ota-onalarda pedagogik madaniyatni oshiradi. Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar. Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar. Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo‘llanadigan suhbat bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurun kuzatish vaqtida o‘tkazilishi mumkin. Ular tarbiyachilar bilan ota-onalarni bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga yordam beradi. Tarbiyachining ota-onalar bilan ertalab o‘tkazadigan suhbatlari qisqa muddatli bo‘ladi, shuningdek uning yaqinlarida yaxshi kayfiyat, tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo‘lishida katta ahamiyatga ega. Ota-onalardan bola kechqurun qanday kayfiyatda bo‘lganini, qanday uxlaganini, bola o‘zini qanday sezishni so‘rash foydali. Tarbiyachi ota-onalarga bolalarni bugun guruhda nimalar kutishi haqida qisqacha axborot beradi. Bu narsa bolani kayfiyatini

ko‘taradi, otaonani xotirjam qiladi. Ota-onalar bilan kechki suhbatlar ham vaqt jihatidan cheklangan, ota- onalar bilan kechki suhbat vaqtida tarbiyachi bolaning tashqi ko‘rinishiga taalluqli kamchiliklar aytilishi mumkin.

Bolani guruhda kunni qanday o‘tkazgani, nimalar bilan mashg‘ul bo‘lgani, o‘zini qanday tutgani, nimaga e’tibor berish kerakligi haqida axborot beradi. Ota-onalarni bola tarbiyasida yo‘l qo‘ygan biror kamchilik va xatosini tahlil qilish uchun ular bilan yanada mufassal suhbat o‘tkazish zarurati tug‘ilganda vaziyatni tuzatish uchun malakali maslahat hamda tavsiya berish kerak bo‘lganda maslahatlar o‘tkaziladi. Guruhiy maslahatlar va majlislar. Agar tarbiyachiga aynan bir masala bir nechta ota-onani qiziqtirayotgani ma’lum bo‘lsa, ular uchun umumiy maslahatlar tashkil etadi.

Pedagog maslahatga oldindan tayyorlanadi: zarur adabiyotlarni va ko‘rsatmali materiallarni tanlaydi. Maslahat o‘tkaziladigan aniq vaqt haqida ota-onalarini ogohlantiradi. Bunday maslahatlar onda-sonda va muntazam o‘tkazilishi mumkin. Ota-onalarning guruhiy majlislari zaruriyatiga qarab yil choragida bir marta o‘tkaziladi. Bunday majlislardan maqsad otaonalarni aniq pedagogik masalalar bilan tanishtirishdir. Ularda mazkur guruhdagi bolalarni tarbiyalash masalalari muhokama qilinadi, guruh ishi bilan bog‘liq tashkiliy masalalar qarab chiqiladi, ota-onalarning bayramda ishtirok etishlari haqida gapiriladi.

Xulosa: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining oila va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish zaruriyati hozirgi paytda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Yuqoridagi keltirilgan omillarni to‘g’ri tashkil etilganda hamkorlik ishlari yahshi natija beradi. Olib borilgan ilmiy izlanish va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tarbiyachilar, oilalar va jamoat a’zolari o‘rtasidagi kuchli hamkorlik bolalarning rivojlanishi va ta’lim olishiga ijobiy hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolangiz maktabga tayyormi? Nashr uchun mas’ul: R.Axliddinov.–T.: “Ma’rifat Madadkor”, 2000 y, -320 b.

2. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T: TDPU 2013.

3. Buzrukova D.M. Tarbiyachi va ota-onalarning o‘zaro hurmatga asoslangan muloqotining kalit faktorlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3, 2023.

4. Maktabgacha pedagogika f. r. Qodirova, Sh. Q. Toshpo‘latova, N.M. Kayumova, M. N. A'zamova «Tafakkur» Nashriyoti Toshkent - 2019

5. A.V.Shin, V.A.Nazarova “Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik” metodik qo‘llanma. Toshkent-2020.

6. Maktabgacha tartiya pedagogikasi P.Yusupova Toshkent «O‘qituvchi» 1993 yil.

7. M.A.Kenjabayeva “O‘yin orqali ta’lim olish” metodik qo‘llanma. Toshkent-2020.

8. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari, Toshkent-2018.

O‘YIN ORQALI O‘RGATISH: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN STEAM YONDASHUVI

O‘zbekiston. Mamurova Mashhura Akbarovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 16-DMTT tarbiyachisi
Navoiy davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘yin orqali o‘qitishda STEAM yondashuvining afzalliklari tahlil qilinadi. STEAM — fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san’at (Art) va matematika (Math) yo‘nalishlarining integratsiyalashgan o‘qitish modeli bo‘lib, bolalarda muammoli fikrlash, ixtirochilik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada ushbu modelni maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash tajribalari, metodik yondashuvlar va ularning natijalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: STEAM, o‘yin, maktabgacha ta’lim, integratsiya, didaktik metodlar, kreativ fikrlash, tajriba asosida o‘rganish.

Abstract: This article analyzes the advantages of using the STEAM approach in early childhood education through play-based learning. STEAM — an integrated model of Science, Technology, Engineering, Art, and Mathematics — fosters problem-solving skills, creativity, and teamwork in preschool children. The paper explores practical methods of implementing this model in preschool settings, supported by methodological insights and observational data. It emphasizes how play as a natural medium of learning can enhance cognitive and emotional development through interdisciplinary engagement.

Keywords: STEAM, play-based learning, early childhood education, integration, didactic methods, creative thinking, experiential learning

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa – o‘zgaruvchan dunyoga moslasha oladigan, ijodkor, tahliliy fikrlovchi avlodni tayyorlashdir. Ayniqsa, bu jarayon maktabgacha yoshdan boshlanishi lozim. An’anaviy yodlashga asoslangan yondashuvlar o‘rnini endilikda faol o‘rganishga asoslangan, bolada mustaqil fikrlash va izlanish motivatsiyasini shakllantiradigan metodlar egallamoqda. Shulardan biri – **STEAM yondashuvi** bo‘lib, u o‘yin vositasida fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Asosiy qism. STEAM yondashuvi – bu fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani o‘zaro uyg‘un holda o‘rgatishga asoslangan ta’lim modeli. Maktabgacha ta’limda bu yondashuvni o‘yin asosida tashkil qilish — bolalarda tabiatga qiziqish, sabab-oqibatni tushunish, ixtirochilik va kreativ yondashuvni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

O‘yin orqali STEAMni tatbiq etish misollari:

- **Fan (Science):** suv, qum, havo bilan tajribalar (suzish, erish, bug‘lanish).
- **Texnologiya:** oddiy dasturlash o‘yinchoqlari, interaktiv doskalar orqali ishlash.
- **Muhandislik:** konstruktorlar orqali bino yoki ko‘prik yasash.
- **San’at:** ranglar bilan kompozitsiyalar yaratish, musiqiy tajribalar.
- **Matematika:** hisoblash, geometrik shakllarni aniqlash, ketma-ketliklar yaratish.

Pedagogik metodlar:

- Muammoli vaziyatlar orqali o‘rganish
- Kolaborativ (jamoaviy) topshiriqlar
- Bolaning qiziqishiga mos individual yondashuv

Ushbu faoliyatlar bolaning sensor-motor, emotsional va aqliy rivojlanishini muvozanatli olib boradi. Shu bilan birga, zamonaviy bog‘chalarda didaktik vositalar yetarli darajada bo‘lmasligi, tarbiyachilarning bu yondashuv bo‘yicha malakasi pastligi muammo sifatida qayd etiladi.

Natijalar va tahlil. Zarafshon shahridagi 3 ta maktabgacha ta’lim tashkilotida olib borilgan kuzatuvlar va eksperimentlar natijalariga ko‘ra:

- STEAM asosida dars o‘tilgan guruhlarda 5 yoshli bolalarda 3 oy ichida kreativ yondashuv ko‘rsatkichi **27%** ga oshgan.
- Guruhdagi bolalarning birgalikda ishlash ko‘nikmasi **36%** ga yaxshilangan.
- Tarbiyachilar bu yondashuvni joriy qilish uchun dastlabki bosqichda uslubiy qo‘llanmalarga muhtoj bo‘lishgan.

Ushbu yondashuv, ayniqsa, yangi pedagogik standartlarni amaliyotga joriy qilish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Maktabgacha ta’limda STEAM yondashuvi orqali o‘yin asosida fanlararo ko‘nikmalarni shakllantirish bolaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv bolaning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash, jamoada ishlash, tajriba orqali anglash ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Shuningdek, pedagoglar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish, STEAM asosida metodik qo‘llanmalar tayyorlash ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Jalolova, N.X. (2022). *Maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

2. Siraj-Blatchford, J., & Whitebread, D. (2003). *Supporting ICT in the Early Years*. Open University Press.

3. Yakovleva, N.N. (2020). *STEAM v doshkol'nom obrazovanii: prakticheskiy aspekt*. Moskva: Prosveshchenie.

4. Mardonova, G.R. (2021). "O'yin orqali o'rganish va zamonaviy ta'lim texnologiyalari". *Ta'lim va amaliyot* jurnali, №2, 45–48.

5. Resnick, M. (2017). *Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play*. MIT Press.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI

O'zbekiston. N.G.Meyliyeva
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
Xushiyeva Zaynab Dilshod qizi
Maktabgacha ta'lim kafedrasi 4-kurs kechki ta'lim talabasi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tizimining bugungi kundagi ahamiyati, O'zbekistonda sohani rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida «Ilk qadam» Davlat o'quv dasturi va «Ilm yo'li» variativ dasturining joriy etilishi, maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati, bolalarni hayotga tayyorlashda o'yin faoliyatining roli, rivojlanish markazlarining vazifalari kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, «Ilk qadam», «Ilm yo'li», kompetensiyaviy yondashuv, rivojlanish markazlari, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ta'lim-tarbiya, kompetensiya, bolalar rivojlanishi.

Аннотация. В статье освещены современное значение системы дошкольного образования, реформы, проводимые в Узбекистане для развития этой сферы, внедрение Государственной учебной программы «Ilk qadam» и вариативной программы «Ilm yo'li» в дошкольных образовательных организациях, сущность компетентностного подхода в дошкольном образовании, роль игровой деятельности в подготовке детей к жизни, функции центров развития.

Ключевые слова: Дошкольное образование, «Ilk qadam», «Ilm yo'li», компетентностный подход, центры развития, дошкольная образовательная организация, образование и воспитание, компетенция, развитие детей.

Abstract. The article highlights the current importance of the preschool education system, the reforms being carried out in Uzbekistan to develop this sphere, the implementation of the State educational program «Ilk qadam» and the variable program «Ilm yo'li» in preschool educational organizations, the essence of the competence-based approach in preschool education, the role of play activity in preparing children for life, the functions of development centers.

Keywords: Preschool education, «Ilk qadam», «Ilm yo'li», competence-based approach, development centers, preschool educational organization, education and upbringing, competence, child development.

Kirish. Farzandini maktabgacha ta`lim tashkiloti tomon yetaklayotgan onaning bu dargohdan, farzandidan umidi katta. Bolasi uchun eng osoyishta, ham ma`nan, ham moddiy taminoti ta`minlanadigan, uning vaqtini mazmunli o'tishida sevimli mashg'ulotlari bilan ta`minlaydigan ham - bog'cha. Shundan o'zi ishxonada bo'lsa ham bolasidan havotir olmaydi. Darvoqe, maktabgacha ta`lim tizimi bugungi ijtimoiy turmush tarzimizning muhum qadamlaridan biriga aylanayotgani, tizimning yangi bosqichga rivojlanayotgani ham ota-onani, ham jajji farzandlarimizni quvontiradi. Yangidan barpo qilinayotgan maktabgacha talim tashkilotlari binolarida ilk bor ta`lim olayotgan o'g'il-qizlarimiz nainki sog'lom ovqatlanish turidan balki sifatli ta`lim mashg'ulotlaridan ham bahramand bo'lishmoqda. Avvalo, sohani tubdan rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3955-son hamda 2019 yil 8 may2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha qarorlari yo'l xaritasi bo'ldi

desak yanglishmaymiz. Darhaqiqat, maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang’ich bo‘gini hisoblanadi. Bu davrda bola dunyoni ahglaydi, o‘z ona tilini o‘zlashtiradi, ota-ona, oila va Vatanga mehri uyg’onadi, umri davomida oladigan bilimlariga zamin hozirlanadi. Bunda oila bilan birga maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘rni kattadir. Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasida, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy e’tibor qaratib kelinmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimida “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” va “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasi Davlat o‘quv dasturining hamda “Ilm yo‘li” variativ dasturining ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etilgani maktabgacha ta’lim sohasidagi ta’lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya .“Ilm yo‘li” variativ dastur mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar maktabgacha ta’limga qamrab olinmagan 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni “Boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorgarlik guruh”lari mavjud bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog-xodimlari uchun mo‘ljallangan. Bola kompetensiyasi – bolaning bilim, ko‘nikma, malakalar va qadriyatlar majmuidir. Tayanch kompetensiyalar rivojlanish sohalaridan qat’iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. Maktabgacha ta`limda kompetensiyaviy yondashuv deganda bolalarni ta`lim tashkilotida egallagan bilimlari orqali kundalik hayotda duch kelinadigan tanish yoki notanish vaziyatlarda foydalanishga tayyorlashdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi. Bolalarda o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanish imkoniyati yaratiladi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkillotlari barcha yosh guruhlarida tashkil etilgan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o‘z bilimini mustaqil ravishda to‘ldirib borish, bo‘layotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o‘rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko‘ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo‘shilish imkoniyatini berishdir. Rivojlanish markazlari ta’lim, rivojlantiruvchi, o‘qitish, rag‘batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga asoslangan bolaning tashabbusini rag‘batlantirishi kerak. O‘yin jarayonida bolalar hamkorlik qilishga o‘rganadi, qoidalar bilan tanishadi va yangilarini ishlab chiqadi, o‘ziga va boshqalarga baho berish ko‘nikmalari rivojlanadi, shaxsiy, jismoniy, intellektual va ijtimoiy muammolarni hal etadi. Guruh xonasidan moslashuvchan va o‘zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallarlar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak. Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo‘lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo‘lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o‘yin faoliyatining etakchi rolini hisobga olish kerak. Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallarlar bolaga tegishli bo‘lishi va bolalarning yoshiga mos bo‘lishi kerak. Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallarlar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o‘zgarishi kerak. Markazlarni uskunalar bilan ortiqcha jihozlamaslik zarur. Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi

faoliyatni, shuningdek o‘z o‘zi bilan shug‘ullanish imkoniyatini ta’minlashi kerak. Mavzuli rejalashtirishga ko‘ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallarlar va o‘yin uskunalari bilan ta’minlash ustida o‘ylashi va to‘ldirishi kerak. Bolaning rivojlanishi faqat o‘quv faoliyatida emas, balki o‘yin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning o‘yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e’tibor qaratadi. Agar kerak bo‘lsa, tarbiyachi didaktik materiallarni to‘ldiradi yoki o‘zgartiradi. Tarbiyachi guruhdagi barcha bolalar besh kun davomida har bir markazga tashrif buyurishini ta’minlaydi. Kuzatish va tahlil asosida kutilayotgan natija, muammolar, yechimlar tarbiyachi har hafta oxirida bolalarning o‘z maqsadlariga erishgan yutuqlarini qayd etadi, agar shunday bo‘lsa, muammolar pedagogning va bolalarning va uning ota-onalarining shaxsiy ishi bilan belgilanadi. Shunday qilib, rivojlanish markazlarida to‘g‘ri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga o‘ziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning his-tuyg‘ularini va xatti-harakatlarini baholashga imkon beradi va aynan shu rivojlanish ta’lim asosida olib boriladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xosligi shundaki, bola kimningdir istagiga ko‘ra emas, o‘z imkoniyatlari, salohiyati, tabiati xususiyatlariga mos ravishda shakllanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning markazida bolaning o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda qaror qabul qilishga qodirligi turadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi pedagogik muhitning sifatlari: bolalar yoshiga mosligi, estetik jihatdan ko‘rkamligi, gigiyenik talablarga javob berishi, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlanganligi, bolalarni barchasi foydalanishi mumkinligi, bolalar ruhiyatiga mosligi, rivojlantiruvchi ahamiyatga egaligidir.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, ularni maktab ta'limiga tayyorlashga va hayotiy muhim ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachilar barcha yosh guruhlarida rivojlanish markazlariga rahbarlik qilar ekanlar, bolalarni maqsadli yo‘naltirib, ularni kuzatish va nazorat qilish talab etiladi. Rivojlantiruvchi predmetli muhit bola shaxsini qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tezlashtirish uchungina xizmat qilib qolmay, bolalarni ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, mustaqil izlanishga, o‘z kuchiga ishonishlariga, yangilikka intilishga, yaratuvchanlikka undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. Toshkent-2018 yil. 8-bet
2. “Ilm yo‘li” variativ dasturi. Toshkent “Sano-standart” 2020 yil. 13, 15-bet.
3. Maktabgacha pedagogika f. r. Qodirova, Sh. Q. Toshpo‘latova, N.M. Kayumova, M. N. A'zamova “Tafakkur» Nashriyoti Toshkent - 2019
4. Maktabgacha pedagogika Berdiyeva M.M.
5. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi P.Yusupova Toshkent “O‘qituvchi” 1993 yil

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA‘LIMIY FAOLIYAT JARAYONIDA IQTISODIY TARBIYA BERISH ORQALI TEJAMKORLIKNI SHAKLLANTIRISH

O‘zbekiston. O‘rinova Nusxa Bahromovna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish orqali ularda tejamkorlik hissini shakllantirish,resurslardan oqilona foydalanishni rivojlantirish bayoni berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy tarbiya,tejamkorlik,iqtisodiyot,maktabgacha ta‘lim,iqtisodiy tafakkur,moliyaviy savodxonlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирование чувства бережливости и развитие рационального использования ресурсов у детей дошкольного возраста посредством экономического воспитания.

Ключевые слова: экономическое воспитание, бережливость, экономика, дошкольное образование, экономическое мышление, финансовая грамотность.

Abstract: This article describes the formation of a sense of thrift and the development of rational use of resources in preschool children through economic education.

Key words: economic education, thrift, economy, preschool education, economic thinking, financial literacy.

Bugungi kunda iqtisodiy tarbiya va tejamkorlikni yoshligidan shakllantirish bolalar kelajagi uchun katta ahamiyatga ega.Iqtisodiy tarbiya bolalarda moliyaviy mas‘uliyat va resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish ularni kelajakda iqtisodiy mustaqil va mas’uliyatli shaxslar bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi.Shu bilan birga, bolalarda tejamkorlikni shakllantirish ularning turmush tarzi va kundalik faoliyatini yanada samarali bo‘lishiga yordam beradi.Iqtisodiy tarbiya bolalarga nafaqat pulni boshqarish,balki resurslardan oqilona foydalanish,mehnatning qadrini anglash va isrofgarchilik qochish kabi muhim tushunchalarni o‘rgatadi.Bolalar iqtisodiy tarbiyani erta yoshdan o‘zlashtirsalar ular kelajakda moliyaviy qarorlarni ongli ravishda qabul qiladigan va jamiyatda samarali ish olib boradigan shaxslar bo‘lib yetishadilar.

Iqtisodiy tarbiya-bu bolalarda moliyaviy savodxonlik,oqilona sarflash,tejash,rejalashtish va iqtisodiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonidir.Maktabgacha yoshdagi hali iqtisodiy tushunchalarini to‘liq anglab yetmasalar ham ularni turli o‘yinlar va amaliy mashg’ulotlar orqali iqtisodiy madaniyatga o‘rgatish mumkin.

Tejamkorlik esa resurslarni oqilona sarflash ortiqcha xarajat qilmaslik,atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatlarda bo‘lishni anglatadi.Iqtisodiy tarbiya insoniyatning ijtimoiy hayotini belgilab berishda shaxs sifatida shakllanishida asosiy manba hisoblanadi.Iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalardan muvofiq ushbu jarayonga iqtisodiy faoliyat ham kiradi.Iqtisodiy tarbiya vaqtni iqtisod qilish qonunlaridan kelib chiqadi.Bu qonuniyatni jamiyatda mavjud sharti-sharoitlari mavqei ortadi.Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish va tejamkorlik madaniyatini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.Global iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyatda iste’mol madaniyatini rivojlanishi hamda resurslardan samarali foydalanish yosh avlodni iqtisodiy jihatdan ongli va mas’uliyatli bo‘lib ulg‘ayishiga ehtiyoj tug’diradi.Shu bois bolalar bog‘chasidanoq ularga iqtisodiy tarbiya asoslarini o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi qarorida bolalarni har tomonlama kamol toptirish,jumladan ularda iqtisodiy ong va moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan.Ushbu hujjat iqtisodiy tarbiyaning muhimligini yana bir bor ko‘rsatib beradi.

Maktabgacha yoshda iqtisodiy tarbiya va tejamkorlikni shakllantirish quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi.

•Bolalarga iqtisodiy tafakkurni shakllantirish;

•Resurslardan oqilona foydalanish madaniyatini targ’ib qilish;

•Isrofgarchilikning oldini olish;
•Mehnat va moliyaviy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirish:
•Oila byudjetining ahamiyatligini anglatish.
Iqtisodiy tarbiya masalasi ko‘plab olimlar va mutafakkirlar tomonidan o‘rganilgan bu borada qimmatli fikrlar bildirilgan.

Al Xorazmiy: Sharq mutafakkiri Xorazmiy matematika fanining inson hayotidagi asosiy o‘rnini ta’kidlab,hisob ilmini bilish va o‘z ishiga puxta bo‘lishni tavsiya etadi.Uning fikricha kishi hisob kitobni bilishi orqali o‘z mehnati natijalarini o‘lchay oladi,bu esa iqtisodiy tarbiyaning muhim jihatlaridan biridir.

David Whitebread: Kembrij Universiteti tadqiqotchisi Whitebread bolalarni o‘yin orqali o‘rganish jarayonini o‘rgangan.Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki,iqtisodiy tushunchalarni o‘yinlar orqali o‘rgatish bolalarda tejamkorlik iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda samarali usul hisoblanadi.
Tejamkorlik insonning iqtisodiy madaniyati,resurslardan oqilona foydalanish qobiliyati va moliyaviy tafakkurining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.Bu tushuncha turli sohalar-iqtisodiyot,psixologiya,sotsiologiya va pedagogik nuqtai nazaridan o‘rganilgan.Bolalar psixologiyasi va ta‘lim nazariyasi asoschilaridan biri

Lev Vygotskiy fikricha: Tejamkorlik yosh bolalarga ertaroq o‘rgatilishi kerak-agar bolaga yoshligidanoq iqtisodiy tushunchalar berilsa,u kelajakda mas‘uliyatli bo‘ladi.

Jan Jak Russo fikricha: Ota-onalar o‘z farzandlariga o‘rnak bo‘lishlari kerak-bolalar tejamkorlikni kitoblardan emas,ota-onalarning xatti-harakatlari orqali o‘rganadi.
Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish orqali ularda tejamkorlik tushunchalarini shakllantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.Chunki aynan shu yoshda atrof-muhitni anglash kundalik odatlarni shakllantirish va iqtisodiy tafakkurni rivojlanishtirish bosqichidan o‘tadi.Shuningdek iqtisodiy tarbiya bolaning mehnatning qadrini tushunishga ham xizmat qiladi.Masalan pedagog ota-onalar bolalarga buyumlarning ishlab chiqarilishi,mehnatning qadri-qimmati va pulning qiymati haqida tushunchalar berishlari lozim.Bu esa bolalarda erta yoshdan boshlab mas‘uliyat hissini rivojlantirishga va kelajakda iqtisodiy jihatdan savodxonli bo‘lishiga yordam beradi.Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida iqtisodiy tarbiyani rivojlantirish bolalarga tejamkorlik madaniyatini singdirish nafaqat ularning shaxsiy taraqqiyoti balki jamiyatning iqtisodiy barqarorligi uchun ham muhimdir.Bunday tarbiya bolalarning o‘ngida resurslardan oqilona foydalanish ortiqcha sarf-xarajatlardan qochish va o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri boshqarish kabi ko‘nikmalarini erta yoshdan shakllantirishga xizmat qiladi.Iqtisodiy tarbiya bolalarga moliyaviy resurslarni to‘g‘ri boshqarish va ortiqcha sarf-xarajatlardan qochish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Tejamkorlik odatini erta yoshdan o‘rgatish esa ularning kelajakdagi barqaror hayotiga mustahkam poydevor yaratadi.Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun iqtisodiy tarbiya asoslari kundalik mashg‘ulotlar, o‘yinlar va ertaklar orqali singdirilishi mumkin. Masalan, ularga buyumlarni ehtiyot qilish, ortiqcha sarf-xarajatlardan qochish va jamg‘arish odatini o‘rgatish kelajakda moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki-Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish ularning kelajakdagi hayotida moliyaviy savodxonlik, tejamkorlik va resurslardan oqilona foydalanish kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Erta yoshdan tejamkorlik odatini o‘rgatish bolalarda mas’uliyat, rejalashtirish va mehnatning qadriyatini tushunish hissini rivojlantiradi.Iqtisodiy tarbiya natijasida bolalar pulning qiymatini anglab, ortiqcha sarf-xarajatlardan qochish va mablag‘ni samarali boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bu esa ularni kelajakda mustaqil, moliyaviy jihatdan barqaror va ongli iste’molchi bo‘lib voyaga yetishlariga zamin yaratadi. Shu sababli, iqtisodiy tarbiyani maktabgacha ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida yo‘lga qo‘yish muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abduqodirova A.Iqtisodiy tarbiya va tejamkorlik asoslari.-Toshkent:O‘zbekiston,2018.
2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. 2019-yil 8-oktabr.

3. To‘xtaev Sh., Hamidov N. Bolalar iqtisodiy tarbiyasining nazariy asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.
4. Xodjayev Sh. Iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda ta’lim tizimining roli. – Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim, 2018.
5. Al-Xorazmiy. Hisob ilmi va uning iqtisodiy tafakkurga ta’siri. – Toshkent: Sharq Nashriyoti, 2021.
6. David Whitebread. Young Children’s Learning through Play: Theoretical Perspectives and Implications. – Cambridge University Press, 2012.

O‘YIN ORQALI EKOLOGIK TA’LIMNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

O‘zbekiston. Axmedova Ra’no Axadovna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim (sirtqi) yo‘nalishi
3 - kurs „A7’’ guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga o‘yinlar orqali atrof-muhitni tanishtirish, ekologik tarbiya berish, ekologik ongni va ekologik ma’suliyatni shakllantirish mumkinligi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologik tarbiya, ekologik ta’lim, ekologik ong, ekologik ma’suliyat, o‘yin, ekskursiya,

Аннотация: В данной статье отмечается, что с помощью игр дошкольники могут приобщаться к окружающей среде, проводить экологическое воспитание, формировать экологическое сознание и экологическую ответственность.

Ключевые слова: Экологическое воспитание, экологическое воспитание, экологическая осведомленность, экологическая ответственность, игра, экскурсия.

Abstract: This article notes the possibility of introducing the environment to preschool children through games, providing environmental education, forming environmental awareness and environmental responsibility.

Keywords: Environmental education, environmental education, environmental awareness, environmental responsibility, play, excursion.

Bugungi kunda ekologik muammolar global ahamiyat kasb etayotgan bir paytda, ta’lim tizimida ekologik tarbiyaning rolini kuchaytirish zarur. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha bir qator tashabbuslarni ilgari surmoqda. Xususan, **«Yashil makon» loyihasi** doirasida millionlab daraxt ekish tashabbusi amalga oshirilmoqda, bu esa atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan muhim qadamdir. Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqilmoqda. **Ekologik festivallar, tabiat qo‘riqxonalariga ekskursiyalar va ekologik musobaqalar** bolalarning ekologiyaga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, ta’lim jarayoni ekologik ong va ekologik mas’uliyatni shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Aynan maktabgacha yoshdanoq bolalarni ekologik muammolar bilan tanishtirish ularning kelajakda tabiatni asrashga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga yo‘naltiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar atrof-muhitga juda qiziquvchan bo‘lishadi. Ularning dunyoni kashf etish jarayonida tabiiy muhit bilan tanishuvi va bog‘lanishi juda muhim. Bu yoshda bolalar o‘yinlar orqali o‘rganishadi va ekologik tarbiyani ham shu asosda singdirish eng samarali yo‘ldir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar dunyoni eng yaxshi o‘yin orqali o‘rganadilar. O‘yin ularga nafaqat atrof-muhit bilan bog‘liq tushunchalarni singdirish, balki ekologik mas’uliyatni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘yin jarayonida tabiat bilan bevosita

aloqa qiladi, turli ekologik muammolarni tushunadi va ularni hal qilish yo‘llarini o‘rganadi. Shu sababli, ekologik tarbiyani o‘yinlar orqali singdirish eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Ekologik tarbiyada o‘yin faqat ko‘ngilochar vosita emas, balki ta’lim va tarbiya jarayonining ajralmas qismidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar hali abstrakt tushunchalarni chuqur tushuna olmasliklari sababli, ekologik muammolarni bevosita his qilishlari lozim. O‘yinlar ularga ushbu imkoniyatni yaratadi.

O‘yinlar bolalarga quyidagicha foyda beradi:

1. **Ekologik tushunchalarni singdirish**. Bolalar tabiatni sevishni, unga e’tibor bilan qarashni va uni muhofaza qilishni o‘yin orqali o‘rganadilar. Masalan, «Yaxshi va yomon odatlar» o‘yini orqali bolalar qaysi harakatlar tabiatga foyda yoki zarar yetkazishini tushunishadi.
2. **Muammolarni hal qilish ko‘nikmasi**. Ekologik o‘yinlar bolalarning muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi. Masalan, «O‘rmonni qutqar!» kabi stol o‘yinlari bolalarni o‘rmon yong‘inlari, chiqindilar yoki suv tanqisligi kabi muammolar ustida fikr yuritishga undaydi.
3. **Jamoada ishlash**. O‘yinlar bolalarni jamoada ishlashga o‘rgatadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik mavzudagi jamoaviy o‘yinlar orqali bolalar birgalikda muammolarga yechim topishga o‘rganishadi. Masalan, «Yashil sayyora» jamoaviy o‘yini orqali bolalar birgalikda chiqindilarni ajratish, daraxt ekish yoki hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish kabi vazifalarni bajaradilar.
4. **Tajribaviy o‘rganish**. Bolalar tajriba o‘tkazish orqali ekologik muammolarni yaxshiroq tushunadilar. Masalan, «Suvni tejash tajribasi» o‘yini bolalarni suvni isrof qilmaslik muhimligini anglashga undaydi. Bu kabi o‘yinlarda bolalar kranni keraksiz ochib qo‘yish yoki keragidan ortiq qog‘oz ishlatishning qanday ekologik oqibatlarga olib kelishini tajriba orqali o‘rganadilar.

Ekologik o‘yinlarning turlari. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik tarbiyani shakllantirish uchun turli xil o‘yinlardan foydalanish mumkin. Ushbu o‘yinlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. **Harakatli o‘yinlar**. Bu turdagi o‘yinlar bolalarga jismoniy faollik bilan birga ekologik tushunchalarni singdirishga yordam beradi. Masalan, «Toza yoki iflos?» o‘yinida bolalar har xil joylarga axlat tashlaydi va keyinchalik uni to‘g‘ri yig‘ib chiqishadi. Bu orqali bolalar chiqindilarni to‘g‘ri joylashtirish muhimligini o‘rganishadi.
2. **Stol o‘yinlari**. «Tabiat himoyachisi» kabi stol o‘yinlari bolalarga atrof-muhit bilan bog‘liq muammolarni tushunish va ularga yechim topish imkoniyatini beradi. Ushbu o‘yinlarda bolalar turli ekologik vaziyatlar asosida qaror qabul qilishlari lozim bo‘ladi.
3. **Tajribaviy o‘yinlar**. Tajribalar orqali bolalar ekologik muammolarni bevosita his qilishadi. Masalan, «Chiqindi suv va toza suv» tajribasi orqali bolalar suv ifloslanishining oldini olish yo‘llarini o‘rganadilar.
4. **Rolli o‘yinlar**. «Ekologiya qahramonlari» kabi rolli o‘yinlar bolalarga tabiatni himoya qiluvchi personajlar sifatida harakat qilish imkonini beradi. Ushbu o‘yinlar orqali bolalar daraxt ekish, hayvonlarni asrash va chiqindilarni saralash kabi ekologik faoliyatlarni o‘zlashtiradilar.

O‘yin orqali o‘rganishning natijalari: O‘yinlar bolalarning ekologik ongini shakllantirishda quyidagi natijalarga olib keladi:

- **Tabiatga mehr uyg‘otadi**: Bolalar tabiatni himoya qilishga ongli yondashishni o‘rganadilar.
- **Atrof-muhitni kuzatish ko‘nikmasi shakllanadi**: O‘yin jarayonida bolalar turli ekologik hodisalarni tushunish va tahlil qilishni o‘rganadilar.
- **Mas’uliyat hissi ortadi**: O‘yin orqali bolalar tabiatga zarar yetkazmaslik muhimligini anglab yetadilar.
- **Jamoaviy ishlash qobiliyati rivojlanadi**: O‘yinlarda jamoaviy topshiriqlarni bajarish orqali bolalar bir-birlariga yordam berish va birgalikda harakat qilishni o‘rganadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik tarbiyani o‘yin orqali singdirish ularning kelajakda ekologik muhitga mas’uliyatli yondashishiga yordam beradi. Shu sababli, o‘yin maktabgacha ta’lim tizimida ekologik ta’limning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarova N. Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiya asoslari. Toshkent: Fan, 2020.
2. Xodjayeva O. Bolalar ekologik tarbiyasining pedagogik asoslari. Samarqand: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2019.
3. Rahimova G. Ekologik ta’lim va uning zamonaviy usullari. Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
4. Karimova S. Maktabgacha ta’lim pedagogikasida interfaol metodlar. Buxoro, 2022.
5. Hasanov B. Ekologik ta’lim va uning yosh avlod uchun ahamiyati. Toshkent: Sharq, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi: www.eco.uz
7. UNESCO ekologik ta’lim bo‘yicha rasmiy sahifasi: www.unesco.org
8. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP): www.unep.org

KICHIK MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIGA MUSIQA ORQALI MOSLASHTIRISH

O‘zbekiston. O‘tamurodova Shohida Muhammadqulovna
Ne’matova Nigora Ulug‘bekovna
NavDU Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotiga moslashuvida musiqaning o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Musiqa bolalarning xavotirlarini kamaytirish, ijobiy muhit yaratish, kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish va tartibga ko‘nikishga yordam berishi aniqlangan. Musiqadan moslashuv davrida foydalanish usullari, musiqa tanlashda e’tiborga olish kerak bo‘lgan omillar va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, kichik yosh, moslashuv, musiqa, musiqa terapiyasi, ijobiy muhit, kommunikatsiya, tartib.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение музыки в адаптации детей младшего дошкольного возраста к дошкольному образовательному учреждению. Определено, что музыка помогает снизить тревожность детей, создать позитивную атмосферу, развить коммуникативные навыки и адаптироваться к режиму. Представлены способы использования музыки в период адаптации, факторы, которые следует учитывать при выборе музыки, и рекомендации.

Ключевые слова: Дошкольное образование, младший возраст, адаптация, музыка, музыкальная терапия, позитивная атмосфера, коммуникация, режим.

Abstract: This article examines the role and significance of music in the adaptation of preschool children to a preschool educational institution. It is determined that music helps to reduce children's anxiety, create a positive atmosphere, develop communication skills, and adapt to the routine. Methods of using music during the adaptation period, factors to consider when choosing music, and recommendations are presented.

Keywords: Preschool education, early childhood, adaptation, music, music therapy, positive atmosphere, communication, routine.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar (3-4 yosh) uchun maktabgacha ta'lim tashkilotiga (MTT) qadam qo‘yish - bu katta o‘zgarish. Ular uchun yangi muhit, yangi odamlar va yangi tartiblar paydo bo‘ladi. Bu davrda bolalar ko‘pincha xavotirlik, qo‘rquv va uyga intilish kabi his-tuyg‘ularni boshdan kechiradilar. Shuning uchun, moslashuv davri bolalar uchun imkon qadar yumshoq va stresssiz o‘tishi juda muhim. Musiqa terapiya - bu bolalarning his-tuyg‘ularini ifoda etish, tinchlantirish va ijobiy muhit yaratish uchun ajoyib vositadir. Musiqa orqali moslashuv bolalarga MTTga osonroq ko‘nikishga, xavotirliklarini kamaytirishga va o‘zlarini xavfsiz his qilishga yordam beradi.

Musiqa bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotiga moslashuv davrida bir nechta muhim vazifalarni bajaradi. Yumshoq va yoqimli musiqa bolalarni tinchlantiradi, xavotirliklarini kamaytiradi va xavfsizlik hissini uyg‘otadi. Ayniqsa, xayrlashuv vaqtlari yoki bolalar xafa bo‘lgan paytlarda musiqa ajoyib yordam beradi. Quvnoq va ritmik musiqa guruhda ijobiy muhit yaratadi, bolalarning kayfiyatini ko‘taradi va ularni faol bo‘lishga undaydi. Musiqa – art terapiasi orqali o‘yinlar va mashg‘ulotlar bolalarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilaydi va do‘stlik tuyg‘usini rivojlantiradi.

Musiqa bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini o‘zaro kommunikatsiya jarayonida ifoda etishiga yordam beradi. Qo‘shiqlar, raqslar va musiqa asboblari orqali bolalar o‘zlarini erkinroq va ishonchliroq his qiladilar. Musiqa kun tartibiga ko‘nikishga yordam beradi. Masalan, “Salomlashuv qo‘shig‘i” kunning boshlanishini belgilaydi, “Ovqatlanish qo‘shig‘i” ovqatlanish vaqtini e’lon qiladi va “Uxlaymiz” qo‘shig‘i uyquga tayyorgarlikni boshlaydi. Musiqa orqali bolalar yangi so‘zlar, tushunchalar va ko‘nikmalarni o‘rganadilar. Qo‘shiqlar orqali ranglar, shakllar, hayvonlar va boshqa narsalar haqida ma'lumot olish mumkin. Moslashuv davrida musiqadan foydalanishning ko‘plab usullari mavjud:

- Fon musiqasi: Bolalar guruhga kelgan vaqtlarda yoki o‘yinlar paytida yumshoq va yoqimli fon musiqasini qo‘yish. Bu bolalarni tinchlantiradi va ularning xavotirlarini kamaytiradi.
- Salomlashuv qo‘shig‘i: Har kuni bolalar bilan birgalikda “Salomlashuv qo‘shig‘i”ni kuylash. Qo‘shiq bolalarning ismlarini o‘z ichiga olishi mumkin, bu esa ularning o‘zini guruhning bir qismi sifatida his qilishiga yordam beradi.
- Musiqali o‘yinlar: Musiqa bilan birga turli xil o‘yinlar o‘ynash. Masalan, “Raqsga tushamiz” o‘yini bolalarni harakat qilishga undaydi, “Musiqali stullar” o‘yini esa tartibga rioya qilishni o‘rgatadi.
- Raqslar: Bolalar bilan birgalikda oddiy raqslar ijro etish. Raqslar bolalarning koordinatsiyasini rivojlantiradi, ularning kayfiyatini ko‘taradi va o‘zaro munosabatlarini yaxshilaydi.
- Musiqa asboblari: Bolalarga musiqa asboblari (tamburin, baraban, marakas) bilan o‘ynashga ruxsat berish. Bu ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va o‘zlarini ifoda etishga yordam beradi.
- Qo‘shiqlar kuylash: Bolalar bilan birgalikda turli xil qo‘shiqlar kuylash. Qo‘shiqlar bolalarning lug‘at boyligini oshiradi, ularning xotirasini rivojlantiradi va o‘rganishga yordam beradi.
- Ertak aytish: Musiqa bilan birga ertak aytish. Musiqa ertakning ta’sirchanligini oshiradi va bolalarning tasavvurini rivojlantiradi.
- Xayrlashuv qo‘shig‘i: Kun oxirida bolalar bilan birgalikda “Xayrlashuv qo‘shig‘i”ni kuylash. Bu bolalarga kunning yakunlanganini bildiradi va ularni uyga qaytishga tayyorlaydi.

Musiqani tanlashda bolaning yoshi, musiqaning ritmi, asar mazmuni, asar kayfiyati, bola xavfsizligi kabi omillarni e’tiborga olish lozim. Musiqa bolalarning yoshiga mos bo‘lishi kerak. Kichik yoshdagi bolalar uchun oddiy va takrorlanuvchi qo‘shiqlar yaxshiroqdir. Musiqa ritmik va yoqimli bo‘lishi kerak. Tez ritmlar bolalarni harakatga undaydi, sekin ritmlar esa tinchlantiradi. Qo‘shiqlarning so‘zlari bolalar uchun tushunarli va mazmunli bo‘lishi kerak. Musiqa ijobiy va ko‘tarinki kayfiyatga ega bo‘lishi kerak. Musiqa bolalarning eshitish qobiliyatiga zarar yetkazmasligi kerak. Musiqaning tovush balandligi me’yorida bo‘lishi, bolani qo‘rqitmasligi kerak.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotiga maslashishi uchun musiqiy muhitni har kuni muntazam yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotidagi kun tartibiga, o‘quv mashg‘ulotlariga ko‘nikishi uchun tavsiyalar:

Har kuni musiqa bilan bog‘liq mashg‘ulotlar o‘tkazishga harakat qiling.

Bolalarni musiqa bilan bog‘liq mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishga undang.

Bolalarga o‘z qo‘shiqlarini yaratishga, raqslariga o‘zgartirishlar kiritishga va musiqa asboblarini o‘zlaricha chalishga ruxsat bering.

Ota-onalar bilan hamkorlik qiling. Ulardan bolalarning sevimli qo‘shiqlarini so‘rang va ularni mashg‘ulotlarda ishlating.

Kun davomida guruhda bolalar bilan qiziqarli musiqali o‘yinlar tashkil etish, mashg‘ulotlarini musiqa bilan boyitish, musiqa bilan bog‘liq mashg‘ulotlar uchun mazmunli, yoqimli, qiziqarli ohanglarni tanlash kerak bo‘ladi. Bu Musiqa maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotiga moslashuvida muhim rol o‘ynaydi. Musiqa orqali bolalar xavotirlikni kamaytiradilar, o‘zlarini xavfsiz his qiladilar, ijobiy muhitda rivojlanadilar va yangi ko‘nikmalarni o‘rganadilar. Musiqadan to‘g‘ri foydalanish bolalarning moslashuv davrini imkon qadar tez, sokin va muvaffaqiyatli o‘tishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sattorova M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Образование и инновационные исследования. International scientific journal, 11-son. 2023.
2. Давыдова М. А. Музыкальная культура детей. (Bolalarning musiqa madaniyati) Москва: Airis-press. 2006.
3. Зелезнова Э. С., Зелезнов С. С. 1000 музыкальных игр. (1000 ta musiqa o‘yinlari). Москва: AST-Press. 2001.
4. Смирнова И. А. «Музыкальная деятельност как средство адаптации детей к дошкольному образовательному учреждению» (Musiqiy faoliyat bolalarni maktabgacha ta’lim muassasasiga moslashtirish vositasi sifatida)., Современне проблемы науки и образования. (Zamonaviy fan va ta’lim muammolari) Elektron ilmiy jurnal. ISSN: 2070-7428. 2016.

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA TARBIYA FANI VA KONSEPSIYASINING AHAMIYATI

O‘zbekiston. Toshpo‘lotova Laylo
Navoiy davlat universiteti
Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya:Ushbu maqolada Tarbiya konsepsiyasining mazmun-mohiyati,ta’lim muassasalarida tadbiq etish bosqichlari,ta’lim konsepsiyasidan ko‘zlangan asosiy maqsadlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: konsepsiya, tarbiya fani,bosqichlari, prinsiplari

Аннотация: В данной статье раскрыта сущность концепции образования, этапы ее реализации в образовательных учреждениях, а также основные цели концепции образования**.**

Ключевые слова: понятие, наука об образовании, этапы, принципы

Annotation: This article covers the content and essence of the “Education Concept”, the stages of its implementation in educational institutions, and the main goals pursued by the education concept.

Keywords: concept, educational science, stages, principles

Barchamizga ma’lumki, tarbiya insonning insoniyligini ta’minlovchi eng qadimiy va adabiy qadriyatlardan biri hisoblanib, tarbiyasiz nafaqat alohida odam, balki kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Sababi shundaki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o‘tadi. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi jamiyatning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek Yangi “O‘zbekistonning asosiy ustuni bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi” - degan fikrlari bejiz emas albatta. Tarbiya fanini to‘g‘ri va samarali o‘qitish orqali yosh avlodning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashi, intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini shakllantirish mumkin. Ayniqsa, globallashuv davrida axborot oqimining cheksizligi fonida yoshlarga mustahkam ma’naviy tayanch berish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiya fanining asosiy maqsadi – o‘quvchilarda milliy qadriyatlar, insonparvarlik, vatanparvarlik, madaniyat va odob-axloq me’yorlarini singdirishdir. Bu borada o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlar hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi ma’naviy yetakchiga aylanishi lozim. Umumta’lim, o‘rta talim

maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi zamonaviy ta'lim tizimining muhim masalalaridan biridir. Chunki bu fan yoshlar tafakkuri, ularning shaxsiyatini shakllantirish va tanqidiy fikrlashiga tasiri juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu fan yosh o‘quvchilarni nazariy va amaliy muhokama qilish, tahlil qilish, maslahat bera olish va o‘z fikrlarini rivojlantirishga o‘rgatadi. Ayni shu kabi masalalar inobatga olinib, O‘zbekiston respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020-yilda o‘zbek ,,Pedagogika’’ fani tarixida ilk bor “Tarbiya” fani ishlab chiqildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-sonli ,,Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g’risida’’gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash maqsadida aynan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun ,,Tarbiya’’ fan konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiya 5-bob 22-moddadan iborat bo‘lib O‘zbekiston Respublikasida “Tarbiya” fani konsepsiyasi mazkur fanni davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo‘lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo‘nalishlarni belgilab beradi. Shuningdek, Konsepsiyada belgilangan yo‘nalishlar mamlakat yoshlarini ma’nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Mazkur Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunlari, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan hujjatlari, xususan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Yoshlar-2030” strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga asoslanadi. “Tarbiya” fani konsepsiyasining birinchi bobi “Umumiy qoidalar” nomi bilan atalib, I-VI moddalarni o‘z ichiga oladi.Unda asosan kpnsepsiya nimalarga xizmat qilishi, qaysi qonunchilik hujjatlariga asoslanishi, konsepsiyada belgilangan vazifalar qaysi qonun va o‘zgarishlarga asoslanishi, qaysi davlat tajribalaridaga tayangani kabi masalalarga oydinlik kiritib o‘tilgan. Xususan, tarbiya fani joriy qilinishining asosiy sabablari sifatida Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratayotgani ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablarni qo‘yayotgani, ayni shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasida “Tarbiya” fani konsepsiyasi mazkur fanni davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo‘lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo‘nalishlarni belgilab berishi kabi masalalar keltirib o‘tilgan.

Ushbu konsepsiyaning II bobida esa, konsepsiyaning strategik maqsad va vazifalarining konseptual asoslarini qay tarzda ishlab chiqilganligi kabi masalalar yoritilgan bo‘lib, ushbu bob ,,konsepsiyaning dolzarbligi va zaruriyati’’ deb nomlanib VII-VIII-moddalardan tashkil topgan. Unda Konsepsiya joriy etilishiga zaruriyat sifatida O‘zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy rivojlantirishning muhim omili bo‘lgan yoshlar tarbiyasi shaxsan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuskorligida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini inobatga olib, ushbu yo‘nalishdagi prinsipial yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qilishi asos sifatida qayd etilgan .

III bob esa, konsepsiyada belgilangan vazifalar ijrosini ta’munlashdagi asosiy prinsiplar, huquqiy asoslar, tashkiliy boshqaruv asoslari, ilmiy-metodik ta’minoti kabi masalalarga bag’ishlanib, ,,konsepsiyani joriy etishning asos va prinsiplari’’ nomi bilan atalib IX- va XIII-moddalardan tashkil topgan.

IV bob ,,O‘quv- metodik majmuaga qo‘yiladigan talablar deb nomlanib 14-21-moddalardan tashkil topgan va unda O‘quv- metodik majmuaga qo‘yiladigan talablar, turli xil salbiy holatlarning

oldini olish yo‘llari, profilaktik ishlar, o‘quv metodik majmuani ishlab chiqish prinsiplari, darslikka qo‘yiladigan didaktik, ilmiy- metodik, pedagogik- psixologik, estetik, gigiyenik talablar singarilar keltirib o‘tilgan. Bu moddalar umumta’lim muassasalari o‘qituvchilari va o‘quvchilari uvhun dasturamal bo‘lib xizmat qiladi desak yanglishmaymiz.

V bob „Yakunlovchi qoidalar’’ dan iborat bo‘lib 22- moddani o‘z ichiga oladi. Ushbu moddada Konsepsiyada nazarda tutilgan maqsad va vazifalarga erishishning maqsad va vazifalariga erishishning moliyaviy xarajatlari o‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi aytib o‘tilgan.

Xo‘sh Konsepsiyaniku qabul qilibmiz endi uni umumta’lim muassasalarida qay tarzda, qaysi fanlar negizida o‘qitamiz, degan savol tug’ilishi tabiiy hol edi, albatta. Konsepsiya umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning yoshiga mos ma’naviy rivojlanishini ta’minlash va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlar “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, “Ma’naviyat asoslari”, “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan yagona Tarbiya fanining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu maqsadda, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarning tajribalari o‘rganildi, amaldagi fanlarning o‘quv dasturlari har tomonlama qiyosiy tahlil qilindi. Qaror loyihasiga ko‘ra, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fani 1-9-sinflarda 2020-2021-o‘quv yilidan, 10-11-sinflarda 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish ko‘zda tutilgan edi. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq ta’limi vazirligiga quyidagi vazifalar topshirildi:

“Tarbiya” fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

2020 yil 10 iyulga qadar 2020-2021 o‘quv yiliga umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1–9-sinflari uchun hamda 1 dekabrga qadar 2021-2022 o‘quv yiliga 10–11-sinflar uchun mo‘ljallangan yangi fan bo‘yicha darsliklar va o‘quv-metodik majmualarga buyurtmalarni shakllantirish;

2020 yil 15 iyulga qadar 1–9-sinflar hamda 2021 yil 1 mayga qadar 10–11-sinflar uchun mo‘ljallangan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni chop etish bo‘yicha istisno tariqasida deklaratsiya qilingan narxlar asosida davlat va xususiy nashriyot-matbaa tashkilotlari bilan shartnomalar tuzish;

“Tarbiya” fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni yangi o‘quv yili boshlangunga qadar chop etishni tashkil etish va ularning joylarga yetkazilishini ta’minlash;

Yoshlar tarbiyasi – har qanday jamiyatning taraqqiyoti va barqaror kelajagi uchun tayanch ustun hisoblanadi. Tarbiya fanining o‘quv jarayoniga kiritilishi bejiz emas, balki bu fan orqali yoshlarga hayotiy ko‘nikmalar, ijtimoiy va axloqiy me’yorlar, shaxsiy mas’uliyat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar singdiriladi. Bugungi globallashuv va informatsion texnologiyalar asrida yosh avlodning ongi turli tashqi ta’sirlarga ochiq bo‘lib qolgani sababli, ularga sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish – beqiyos ahamiyatga ega. Tarbiya fanini o‘qitishda zamonaviy, kreativ va yoshlar ongiga yaqin yondashuvlar talab etiladi. Nazariy bilimni hayotiy tajriba, real misollar va faol ishtirok bilan uyg‘unlashtirish orqali bu fan yanada samarali bo‘ladi. Bunda o‘qituvchining roli o‘ta muhim – u nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlar uchun namunali shaxs, yo‘lko‘rsatuvchi bo‘lishi kerak.Yoshlar bilan ishlashda individual yondashuv, ularning qiziqishlari, muammolari va ehtiyojlarini inobatga olish lozim. Tarbiya darslarida ochiq muloqotlar, hayotiy vaziyatlar tahlili, ma’naviy-axloqiy muammolar yuzasidan erkin fikr almashinuvi katta foyda keltiradi. Shuningdek, ota-ona va jamiyat bilan hamkorlikda ish olib borish tarbiya samaradorligini oshiradi.Shunday qilib, tarbiya fanining yoshlar orasida to‘g‘ri o‘qitilishi – ularning sog‘lom ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishining asosiy omilidir. Bu boradagi har qanday yondashuv tizimli, doimiy yangilanib boruvchi va yoshlar hayotiga yaqin bo‘lishi kerak. Faqat shunda biz kelajak avlodni barkamol insonlar sifatida voyaga yetkaza olamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak aynan ,,tarbiya’’ fani yosh avlodda yuksak axloqiy fazilatlar, milliy o‘zlikni anglash, insonparvarlik, fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik va shu kabi sifatlarni shakllantiradi. Bunday fuqaro milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ish yurita oladi, jamiyatdagi salbiy ko‘rinishlarga tanqidiy nazar bilan qaraydi, o‘z vatanini sevadi va uning manfaatlarini himoya qiladi, milliy qadriyatlar egasi sifatida jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Bir so‘z bilan aytganda Ushbu fanning maqsadi komil insonni shakllantirish va tarbiyalashdan iboratdir. Abdulla Avloniy aytganlaridek, Tarbiya-pedagogika, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o‘rgatmoq tabiblardek kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg‘oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmog‘i lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi ,,Tarbiya fani’’ konsepsiyasi. 2020- yil 6- iyul

2.G.B. Saidnazarova ,,Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi’’. ,,Kamolot’’ nashriyoti 2024- yil

3. M. E. Axmedova va boshqalar.Pedagogik mahorat va tibbiy pedagogikaning kasbiy kompotentligi. O‘quv- uslubiy qo‘llanma T.: ,,Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi MCHJ, 2021-yil

4.Sapayev Valisher Odilbek o‘g’li ,,Tarbiya fanini o‘qitishning ayrim dolzarb masalalari’’ maqola 2023-yil

5. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/umumiy_urta_talim_muassasalarida_tarbiya_fani_joriy_etiladi

6. https://lex.uz/docs/-5013007

7. https://www.lex.uz/docs/-4676839

8. https://efayl.uz/document/milliy-tarbiya-konsepsiyasi/

9.https://kun.uz/news/2019/05/09/maktabgacha-talim-tizimini-2030-yilgacha-rivojlantirish-konsepsiyasi-tasdiqlandi-prezident-qarori?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F05%2F09%2Fmaktabgacha-talim-tizimini-2030-yilgacha-rivojlantirish-konsepsiyasi-tasdiqlandi-prezident-qarori

10. “Tarbiya fani:yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiyamaliy konferensiyasi. Toshkent.: 2023 yil. 22 noyabr.

11.3796637_Tarbiya_fani_o‘qituvchilarining_ijtimoiy_kompetensiyalarini_rivojlantirishning_mazmun_shakl_va_metodlari.

ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHNING AMALIY-METODIK ISHLARI

O‘zbekiston. Tosheva Munira Qalandar qizi

Navoiy Davlat Universiteti,

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3 kurs (sirtqi) talabasi

Anatatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachining vazifasi va bolalarga ta’lim berishning o‘ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, tarbiyachi, ta’lim samaradorligi, bola tarbiyasi, pedagogik mahorat, mashg’ulotlar.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы образования детей дошкольного возраста, роль воспитателей в дошкольных образовательных организациях, а также особенности образования детей.

Ключевые слова: образование, воспитание, педагог, эффективность образования, воспитание детей, педагогическое мастерство, обучение.

Abstract: This article discusses the education of preschool children, the role of the educator in preschool educational organizations, and the specific aspects of educating children.

Key words: education, upbringing, educator, educational effectiveness, child upbringing, pedagogical skills, training.

Ta’lim shakli deganda ta’lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o‘tkaziladi. Ta’lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir xususiyatiga, o‘tkazish joyiga shuningdek, kun tartibida egallagan o‘rniga qarab bir-biridan farq qiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida ta’limning frontal (umumiy), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta’lim berish ishlari ekskursiya, didaktik o‘yinlar orqali kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o‘yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriiadi.

Mashg‘ulot maktabgacha ta’lim yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga malum o‘rin va vaqt ajratjlgan. Mashg‘ulot tarbiyachi rahbarligida o‘tkaziladi, tarbiyachi mashg‘ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etadi. O‘quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Mashg‘ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg‘ulot orqali bolalar o‘quv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta’lim berish natijasida bilimga qiziqishlar rivojlana boradi.

Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta’sir etishadi, o‘z tashabbusi, topog‘onligini namoyon qilish imkoniyati tug‘iladi. Bolalar oldiga umumiy zo‘r berishning talab etuvchi vazifa qo‘yilganda birgalikda qayg‘urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o‘yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o‘qishda paydo bo‘lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do‘stona jamoasini yaratishga yordam beradi. Mashg‘ulotda ta’lim berish orqali bolalarda maktabdagi o‘qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o‘zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to‘g'ri sifatlar hosil qilinadi.

Mashg‘ulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, ularning fikriga ergashish, hikoya qilinayotgan hikoyalardan voqeadagi asosiy g‘oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e’tibor beriladi. Mashg'ulotda tarbiya vazifalari hal etiladi. Mashg'ulot bolalarning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchillikda olib boriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotita'lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhda hafta davomida o‘tkaziladigan mashg'ulotlar soni va vaqti belgilab qo‘yilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot, tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarini o‘stirish mashg‘ulotlari, musiqa mashg‘ulotlari, qurish-yasash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib boriladi.

Mashg‘ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo‘r berishni talab etadi, ya’ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib bola ma’lum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg‘ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e’tiborga olish zarur: mashg‘ulotning vaqtini, kun tartibidagi o‘rnini dasturning har xil bo‘limlarini to‘g‘ri almashtirib turishni oldindan o‘ylab, aniq belgilab olish zarur.

Mashg‘ulotlarni kuning birinchi yarmida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki birinchidan, bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorug'lik bilan yaxshi ta’minlangan bo‘ladi. Har bir yosh guruhida necha marta mashg‘ulot o‘tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg‘ulot yosh guruhlari bo‘yicha necha daqiqa davom etishi MTT tarbiya dasturida ularning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda belgilab berilgan. Birinchi kichik guruhda mashg‘ulot bolalarni ikki guruhga bo‘lgan holda o‘tiladi. Guruhlardagi bolalar soni har doim bir xil bo‘ladi. Mashg‘ulot jadvalini tuzganda haftada bolalarning ish qobiliyati yuqoriroq bo‘ladigan kun tanlanadi. Ma'lumki haftaning o‘rtalarida (seshanba, chorshanba, payshanba) bolalarning ish

qobiliyati yuqori bo‘lar ekan, bu kunlarga bolalarning aktiv faoliyatini talab etuvchi murakkabroq mashg'ulot tanlanadi (elementar matematika, nutqni rivojiantirish, savodga o‘rgatish va h.k). Jadval tuzganda bu mashg'ulotlarni birinchi qo‘yish kerak, bolalardan ko‘p harakat qilishni, hissiy nagruzkani talab etuvchi mashg'ulotlar (musiqa, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat) ikkinchi qilib qo‘yildi.

Metodik ishlar:

• Bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish:

• Har bir yosh davrida bolalarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olib, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

• Individual yondashuv:

• Har bir bolaning qobiliyatlarini, qiziqishlarini va temperamentini hisobga olib, unga mos keladigan vazifalarni berish.

• *O‘yin orqali ta'im:*

• Ta'lim jarayonini qiziqarli va o‘yin shaklida tashkil etish, bolalarning faolligini oshirish.

• Ko‘rgazmali qurollardan foydalanish:

• Rasmlar, o‘yinchoqlar, modellar va boshqa ko‘rgazmali qurollardan foydalanish orqali bolalarning bilim olish jarayonini osonlashtirish.

• Rag'batlantirish:

• Bolalarni to‘g'ri harakatlari uchun maqtash va rag'batlantirish, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish.

• Ota-onalar bilan hamkorlik:

• Ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish, ularning fikrlarini inobatga olish, muntazam ravishda konsultatsiyalar o‘tkazish.

Bolalar o‘zlashtirib oladigan bilimlar mazmuni tarbiyalovchi bo‘lishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda tabiat haqidagi bilimlarning (bular tabiatga muhabbat uyg'otadi, o‘simliklar va hayvonlarga g'amxo‘rlik bilan qarash hissini tarbiyalaydi), tarkib toptirishni nazarda tutadi: bilimlarni o‘zlashtirib olish asosida bolalarda jonajon shahriga, o‘z vataniga, xalqiga muhabbat, ulug‘ kishilarga muhabbat va hurmat, o‘lkaning ijtimoiy hayo-tiga qiziqish paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.

2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari, T.; 2013y

3. H.M.Qayumova „Maktabgacha pedagogika ’’. „TDPU’’ nashriyoti, T.: 2013y 3.Avliyakulov N.X; Musaeva N.N Pedagogik texnalogiyalar.-T.; „Fan va texnalogiyalar’’ nashriyoti 2008.-164b

4. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Учебные методы организации спортивно-оздоровительных мероприятий в образовательных учреждениях// Вестник науки и образования, 2021. № 9 (112). Часть 2.

5. Lex.uz.

MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI TA’LIM JARAYONIGA SUB’EKT SIFATIDA FAOLIYATINI TAMINLASHNING TURLI YO‘LLARI

O‘zbekiston. Primova Zulayho Farhod qizi
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida mamlakatda ta’lim muassasalari faoliyatini me’yorlashtiruvchi «Ta’lim tog’risida»gi Qonun, «O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g’risida Nizom», «Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat

talablari» kabi muhim davlat hujjatlari qabul qilindi. Isloh etish jarayonida bolalarga ta’lim va tarbiya berish vazifalari, mazmuni, shakl va uslublari, shuningdek, psixologiya, pedagogika fani taraqqiyotining ustivor yo‘nalishlari qamrab olinmoqda.

Kalit so‘zlar: talim, tarbiya, bola, faoliyat, jamoa, jarayon.

Abstract: During the years of independence, important state documents were adopted, regulating the activities of educational institutions in the country, such as the Law «On Education», the «Regulations on Preschool Education in the Republic of Uzbekistan», «State Requirements for the Education and Training of Preschool Children». The reform process covers the tasks, content, forms and methods of educating and training children, as well as priority areas of development of psychology and pedagogy.

Keywords: education, upbringing, child, activity, team, process.

Аннотация: За годы независимости были приняты важные государственные документы, регламентирующие деятельность образовательных учреждений страны, такие как Закон «Об образовании», «Положение о дошкольном образовании в Республике Узбекистан», «Государственные требования к воспитанию и обучению детей дошкольного возраста». Процесс реформирования охватывает задачи, содержание, формы и методы воспитания и обучения детей, а также приоритетные направления развития психологии и педагогики.

Ключевые слова: образование, воспитание, ребенок, деятельность, коллектив, процесс.

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlargina emas, fikrlash ko‘nikmasi, kattalar hamda sinfdosh o‘rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bolaning maktabga qadam qo‘yayotganida nechog’li bilimga egaligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorgarligi, atrof-olamga moslashish ko‘nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Bolani biror narsaga o‘rgatishgina emas, unga o‘z kuchiga ishonchini ortirish, o‘z g’oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda biror qarorga kelish ko‘nikmasini shakllantirish ham muhimdir.

«O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g’risida»gi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta’limi uyda, ota-onalarning mustaqil ravishda ta’lim va tarbiya berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun bolalar bog’chalarida, maktablarda, mahallalalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug’ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta’lim shaklini tanlash huquqi beriladi. Bolalarni maktabga aqliy tayyorlashning maqsad va vazifalari tarbiyaning bolalar yosh xususiyatlari hisobga olingan umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Tarbiyalanuvchilar maktabgacha talim tashkiloti va maktab o‘rtasida izchillikni ta’minlashning haqiqiy asosini tashkil qiladi. Maktabgacha talim tashkiloti va makatbdagi ta’lim va tarbiya vazifa, shakl hamda metodlarining turli yosh bosqichlarida bola shaxsini har tomonlama shakllantirishni amalga oshirish maqsadlarida o‘zaro aloqasini qaror toptirish muhim ahamiyatga egadir. 6-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga psixologik tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim - tarbiyasi bilan shug’ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish - bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko‘prik vazifasini o‘tashini, oila yoki MTT ta’lim va tarbiya sharoitlarida maktab ta’limiga ozorsiz o‘tkazishni ta’minlash zarurligini hisobga olish lozim.

Bolalarni maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarda anchagina jiddiy tub o‘zgarishlarni yuzaga chiqardi. Shuning uchun bolalarni oiladayoq maktab ta’limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo‘lmagan bilim, tushuncha, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining qiyinchiliklaridan xalos bo‘lishiga yordam beradi.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko‘ra «Maktabga tayyorgarlik» tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: jismoniy, shaxsiy(ruhiy), aqliy va maxsus tayyorgarlik. Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog’lomligi, harakat ko‘nikmalari va sifati, qo‘l mushaklari va ko‘rish-mator muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi.

«Rivojlanmaganlik»ning asosiy belgilari o‘ziga xos jismoniy rivojlanishning alohida jihatlarida ko‘rinadi. Masalan - suyak tuzulishida, past bo‘yli bolalarda o‘z yoshiga ko‘ra tana bo‘yi va og’irligida nomutanosiblik, tanadagi muvozanat buzulishlari, yurak-qon tomir tizimidagi fiziologik yetishmovchiliklar, tez toliqishlar, jismoniy yuklamalarni bajarishdagi imkoniyatlari pastligi shular jumlasiga kiradi. Jismoniy tayyorgarligini aniqlash uchun yoshga mos bo‘lishi lozim bo‘lgan bo‘y, vazn, bosh, ko‘krak aylanasi me’yoriy ko‘rsatkichlari hamda qo‘l mushaklari va asosiy harakatlari rivojlanganligini aniqlash usullari berilgan.

Shaxs (ruhiy) tayyorgarligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o‘ziga, o‘simliklar, jonivorlar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, insonlar yaratuvchiligiga munosabatda yuzaga keladigan shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutiladi. Eng muhimi bola ongida qanday umumiy axloqiy tamoyilning mustahkamlanganligi, u tomonidan ijtimoiy axloq me’yorlari va umuminsoniy qadriyatlarning tan olinganligi, «nima yomonu, nima yaxshi»ligini anglaganidir.

Shaxs (ruhiy) tayyorligida eng muhim jihat «bolaning ichki pozitsiyasi» shakllanganligidir yoki «motivizatsion tayyorgarlik», ya’ni, o‘quvchining kattalar va tengdoshlari bilan muomalada bo‘lishiga, topshiriqni bajarishga, tengdoshiga yordam berishga bo‘lgan ehtiyoji bilan bog’liq sabablarga ko‘ra maktabga borish istagini uyg’otishdir. Shaxs rivojlanishi ko‘pincha oiladagi tarbiyaga bog’liq tortinchoq, ko‘proq bolalar qat’iy nazoratda ushlab turiladigan, bola tashabbusi bo‘g’iladigan oilalarda bo‘ladi va oxir-oqibatda u faqatgina kattalar yoki birovning ruxsati bilan harakat qiladigan bo‘lib qoladi. Bolani maqtaydigan, noo‘rin siylaydigan oilalarda ular ko‘pincha boshqarilmaydigan, haddan tashqari faol, kattalar va tengdoshlari bilan muomala qilishni bilmaydigan, aniq asoslar unda bo‘lmasa-da, buyruq berishga va yetakchi bo‘lishga intiladi.

Bola o‘z holiga qo‘yib qo‘yilgan, nazoratsiz, unga nisbatan befarqlik hukmron bo‘lgan oilada voyaga yetayotgan bo‘lsa uning fe’l-atvorida hissiy ojizlik, g’amginlik, serzadalik, jangarilik, qat’iyatsizlik kabi salbiy alomatlar paydo bo‘la boshlaydi. Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqillikning, o‘zini-o‘zi nazorat qilishiga va boshqarishga imkoniyatning shakllanganligini hamda o‘quv faoliyatining kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, uyg’unlashtirish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o‘z ichiga oladi;

Xotira aqliy rivojlanishning bir ko‘rsatkichi sifatida qachonki bola eshitib, yaxshi eslab qolsa «eshitish» yoki qachonki bola ko‘rib yaxshi eslab qolsa «ko‘rish» va qachonki bola eshitgan va ko‘rganlarining asosiy mazmunini, aytib bersa «mazmunini eslab qolish» kabi turlarga bo‘linadi. «Ko‘rib, eslab qolish» xotirasini rivojlanishi uchun mashq qildirish befoyda, chunki u har kimga tabiatan berilgan. «Mazmunini eslab qolish» xotirasini yaxshilash uchun esa albatta mashq qildirish kerak.

Bolaning maktabda ta’lim olish samarasi uning ona tilini bilishiga va nutqi qanchalik rivojlanganligiga ko‘proq bog’liq bo‘ladi. Chunki butun o‘quv faoliyati shularga, ya’ni nutqiy mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til rivojlanganligi, yutuqlaridan erkin foydalana olishi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o‘z tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosida quriladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta’lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji ya’ni, uning namunani oson va erkin takrorlay olishi; naqsh chizish, aytib turiladigan (grafik diktant) bayoniy topshiriqni bajarishi ham muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.G’oziyev “Inson psixikasining rivojlanishi” Toshkent: 2006
2. M.G. Davletmin “Ta’limning psixologik asoslari”
3. Sh.R.Barotov “O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari” Toshkent: O‘ 2004
4. M.Vohidov “Bolalar psixologiyasi” Toshkent: O‘- 2012
5. M.Vohidov “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar psixologiyasi” T.2011

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KASB TANLASHDA TA’LIM TASHKILOTI VA OILANING MUVOZANATLI YONDASHUVI

Raxmatova G.T
O‘zbekiston NavDU Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi,
Sidiqova M.E.
maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs (sirti ta’lim) talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kasb tanlashda ta’lim tashkiloti va oilaning muvozanatli yondashuvi haqida bayon qilingan. Maktabgacha yosh davr bola hayotida eng muhum va masuliyatli bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda bola qiziqishlari turlicha va rango-rang bo‘ladi. Bunda ta’lim tashkiloti va ota-onalardan birdek masuliyati bola kelajagining muvofaqqiyatli tanlovining garovi bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh davri, hamkorlik, kasb, qiziqish, ijodiy yondashuv.

Аннотация: В статье рассматривается сбалансированный подход образовательной организации и семьи в выборе профессии для детей дошкольного возраста. Дошкольный период включает в себя самые важные и ответственные этапы в жизни ребенка. В этот период интересы ребенка становятся разнообразными и яркими. При этом равная ответственность образовательной организации и родителей может стать залогом успешного выбора будущего ребенка.

Ключевые слова: дошкольный возраст, сотрудничество, профессия, интерес, творческий подход.

Abstract: This article describes the balanced approach of the educational organization and the family to the choice of a profession for preschool children. The preschool period includes the most important and responsible stages in the life of a child. During this period, the interests of the child are diverse and colorful. In this, the equal responsibility of the educational organization and parents can be the key to the successful choice of the child's future.

Keywords: preschool age, cooperation, profession, interest, creative approach.

Maktabgacha yosh, bolaning psixologik, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida juda muhim davr hisoblanadi. Bu davrda bolalar o‘z atrofidagi dunyoni o‘rganib, birinchi ijtimoiy tajribalarini orttiradilar. Ta’lim tashkilotlari va oila birgalikda bolaning shaxsiyati, qiziqishlari va kelajakdagi kasb tanlashi uchun asos yaratadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar hali kasb tanlashga tayyor bo‘lmasalar ham, bu jarayonga tayyorlanish, bolaning qiziqishlari va iste’dodlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota-onalar uchun vaqti-vaqti bilan trening, munozara, test, so‘rovnomalar o‘tkazib turilsa, ayniqsa maktab yoshdagi 6–7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarligini aniqlashda ota-onalar ishtirokida olib boriladigan har bir mashg‘ulot farzandining nimaga qodir ekanini anglashiga yaqindan yordam beradi va bolalarni maktabga tayyorlashda oila a’zolarining mas’uliyati oshadi. Bu jarayonda ota-onalar farzandining kelajakdagi qaysi sohaga qiziqishlarining dastlabki uchqunlarini payqaydi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘quv dasturlari, bolalarning umumiy rivojlanishi uchun juda muhim o‘rin tutadi. Bu davrda bolalar egallashi kerak muhum kompetensiyalari hosil bo‘ladi. MTTining muvozanatli yondashuvi, bolalarni kasb tanlash jarayoniga tayyorlashda quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- ✓ **Kreativlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirish** – Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘ziga xos va ko‘p qirrali ta’lim metodlari muhimdir. Misol uchun, bolalarga turli xil amaliyotlar va ijodiy faoliyatlar orqali o‘z fikrlarini ifodalash, muammolarni hal qilish, va turli kasblarga nisbatan qiziqish uyg‘otish mumkin.
- ✓ **Ijtimoiy va emotsional rivojlanish** – Ta’lim tashkilotlari, bolalarga o‘zaro muloqot qilish, guruhda ishlash va o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatlarini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, bolalarning kelajakdagi kasblariga tayyorlanishida muhim omil hisoblanadi.
- ✓ **Qiziqish va istedodlarni aniqlash** – Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalar turli sohalarga qiziqish bildiradilar, masalan, san’at, ilm-fan, texnologiya yoki sport. Bu qiziqishlarni aniqlash va rivojlantirish, bolaga kelajakda o‘z kasbini tanlashda yordam berishi mumkin.

Oilada bolalarning kasb tanlashga tayyorlanish jarayoniga ta’sir qiluvchi muhim faktorlar mavjud. Oilaning ta’limga bo‘lgan yondashuvi, bolaning shaxsiyati va qiziqishlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Oila bolaning o‘zini anglashiga, qiziqishlarini izlashiga va kelajakdagi faoliyatini shakllantirishga yordam beradi. Oilaning rolini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

- ✓ **Bolaga qo‘llab-quvvatlash va motivatsiya berish** – Oila bolaga har qanday faoliyatda o‘zini sinab ko‘rishga va muvaffaqiyatga erishishga rag‘batlantiradi. Oiladagi ijobiy muhit va qo‘llab-quvvatlash bolaga o‘z kasbini tanlashda ishonch va motivatsiya beradi.
- ✓ **Kasblarga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirish** – Oila, bolalarga turli kasblar haqida to‘g‘ri tasavvur yaratishi zarur. Bu, bolalarda turli kasblarga nisbatan ijobiy munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Oila o‘z kasbining yoki boshqa kasblarning ahamiyatini, mazmunini va kutilgan natijalarini tushuntirishi mumkin.
- ✓ **Shaxsiy qiziqishlarga hurmat** – Oila, bolaning qiziqishlarini hurmat qilib, unga o‘z qiziqishlarini amalga oshirish imkonini yaratishi kerak. Bu, bolaga o‘z iqtidorlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni taqdim etadi va kasb tanlashda to‘g‘ri yo‘nalish topishga yordam beradi.

Ta’lim tashkiloti va oilaning birgalikda muvozanatli yondashuvi bolaning kelajakdagi kasb tanlashi jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu yondashuv bolalarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: Shaxsiy rivojlanishning har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi – Oila va ta’lim tashkilotlari birgalikda bolalarga o‘zlariga xos shaxsiyatni rivojlantirishga yordam beradi. Bu, kelajakda kasb tanlashda ularning mustaqil qaror qabul qilishiga imkon yaratadi. Kasblarga nisbatan kengroq tasavvurlar – Ta’lim tashkilotlari va oila bolalarga turli kasblar haqida tasavvurlar berib, ularning qiziqishlariga mos ravishda kasb tanlashni osonlashtiradi. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish – Oila va ta’lim tashkiloti bolalarga ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda hamkorlik qiladi. Bu, kelajakdagi kasbda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb tanlashda ta’lim tashkiloti va oilaning muvozanatli yondashuvi nihoyatda muhimdir. Bu jarayon bolalarning psixologik, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga xizmat qiladi va ularga kelajakda to‘g‘ri kasb tanlashda yordam beradi. Oilaning qo‘llab-quvvatlashi va ta’lim tashkilotining malakali ta’limi, bolalarning o‘ziga xos qiziqishlarini va iste’dodlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa ular uchun muvaffaqiyatli kelajakni ta’minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Kayumova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.- T., “Ma’naviyat”. 2019 y.- 688 b

2.”Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi Takomillashtirilgan 2-nashr 2022.02.04

3. MTTda qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo‘yicha trening moduli. T.: 2017-y.

4. w.w.w pedagog.uz

MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASALARIDA INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS TOMONLARI

O‘zbekiston.Fayzullayeva Zarnigor Abror qizi
NavDU maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Ro‘ziqulova Shahlo Abdiraximovna
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya:ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassalarida interfaol usullar yordamida o‘qitish,interfaol usullar,interfaol metodlar,imkoniyatlar,yutuq va kamchiliklar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar:interfaol metodlar,usullar,qulaylik,o‘qitish,o‘ziga xos xususiyatlar, ta’lim, tarbiya, faollik, texnologiyalar, jarayon, pedagogik muhit.

Аннотация: в данной статье говорится об обучении с использованием интерактивных методов в дошкольных образовательных учреждениях, интерактивных методах, интерактивных методах, возможностях, достижениях и недостатках.

Ключевые слова: интерактивные методы, методы, удобство, обучение, особенности, образование, воспитание, деятельность, технологии, процесс, педагогическая среда.

Abstract: this article talks about teaching using interactive methods in preschool educational institutions, interactive methods, interactive methods, opportunities, achievements and shortcomings.

Key words: interactive methods, methods, convenience, teaching, specific features, education, upbringing, activity, technologies, process, pedagogical environment.

Bugungi kunda ta`lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va ta`lim oluvchilarning ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda pedagogik jarayonning kafolatli natijasini ta`minlovchi bir qator pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar mavjud. Interfaol metodlarni ko‘rib chiqishdan avval “interfaol” so‘zining lug‘aviy ma`nosini bilish lozim. «Interfaol» tushunchasi inglizcha «interact» «inter» sozlaridan olingan bo‘lib – «birgalikda», «act» – «harakat qilish» degan ma’noni bildiradi. Bugungi kunda “Interfaol metodlar” barcha ta`lim tizimlarida faol qo‘llanilmoqda. Buni biz juda ko‘p adabiyotlardan va samarasi ta`lim jarayonidan ham bilishimiz mumkin.

Maktabgacha ta`limda interfaol usullar- bu tarbiyalanuvchilar orasida hamda tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o‘rtasida o‘zaro harakatni talab qiluvchi usullardir. Interfaol usullar bolaning yuqori faolligini, olingan ma’lumotlarni ijodiy qayta anglashini taqozo etadi. Bular: Aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, juftlikda ishlash, rolli o‘yinlar, ishchanlik o‘yinlari, bahs-munozara va boshqa jarayonlarda namoyon bo‘ladi.Endi yuqorida qayd etilgan har bir usulni alohida ko‘rib chiqamiz.

Aqliy hujum-tarbiyachi qo‘ygan savol yoki muammo yuzasidan har bir bola o‘z fikrini bayon etishga imkon beruvchi jarayondir. Buning mohiyati «Bir kalla yaxshi, ikki kalla undan yaxshi» tamoyili bo‘yicha tarbiyachi tomonidan belgilangan muammo yoki savol yuzasidan ehtimol tutiladigan hamma fikrlar variantlarini bir yerga jamlay olishda bo‘lib, istisno tariqasida ta’lim oluvchining barcha fikrlari, jumladan, aytarli to‘g’ri bo‘lmaganlari ham inobatga olinadi. Bayon etilgan fikrlar keyingi tahlilda bolalarning qo‘yilgan savol yoki muammoni to‘g’ri tushunishlariga imkon beradi. (Bolalarga savol beriladi. Barcha g’oya va takliflar tarbiyachi tomonidan yozuv taxtasiga yozib boriladi).

Kichik guruhlarda ishlash- bolalarning o‘zaro muloqot va fikr almashuviga asoslangan.Bunda guruhda tahlil qilish, baholash, tekshirish asosida muayyan mavzu yoki savollar ishlab chiqiladi. Kichik guruhlarda ishlash 4-5 boladan iborat guruhlar tuziladi va har bir guruhdagi tarbiyalanuvchilar birgalikda harakat qiladi.

Rolli o‘yinlar-bolalarga biror muammoli vaziyat berildi. Bolalar bu muammoni yechimini rollar orqali ifodalab berishadi. Bolalar bu usul «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar. Ularga amaliy ish faoliyatida qo‘llash mumkin bo‘lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko‘rish va tekshirish imkoniyatlarini beradi.

Ishchanlik o‘yinlari-bunda bolalar mavjud materialdan foydalanib biror narsani (predmetni) kichik guruhlarga bo‘lingan holda yasaydilar. Bunda bolalarda o‘ylash, to‘g’ri maqsadni qo‘yish, tejamkorlik xislatlari rivojlanadi.

Biz maktabgacha ta`limda interfaol usullarni qo‘llaydigan pedagoglarga quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- Mashg‘ulotlarni o‘yin tarzida, erkin sharoitda, dam va ko‘ngilochar tadbirlar shaklida tashkil eting;
- tarbiyalanuchilarini mustaqil izlanishlarini ta`minlang;
- tarbiyalanuvchilarning faolligiga erishing;
- tarbiyachi sifatida yo‘naltirib, yordam berib, boshqarib turing;
- interfaol usullar ishtirokidagi mashg’ulot tarkibining asosiy qismiga emotsional zo‘riqishni bartaraf etuvchi o‘yinlar kiriting.

Xulosa o‘rnida Xitoy xalq maqolini keltirishni lozim deb topdik: «Menga gapirsang esdan chiqaraman, menga ko‘rsatsang eslab qolishim mumkin, menga o‘zim ishlashimga imkoniyat ber, shunda bu batamom meniki bo‘lib qoladi».Biz maktabgacha yoshdagi bolalarga faqat so‘zlab, ko‘rsatib bermasdan, balki o‘zlarini mustaqil bajarishiga o‘rgatsak kelajakda barkamol, har tomonlama rivojlangan mustaqil vatanimizning mustaqil farzandlarini tarbiyalashdek muqaddas vazifani ado eta olgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Maktabgacha pedagogika. F.R.Qodirova. Toshkent,2019 yil.
2.Tasviriy faoliyatda interfaol metod va didaktik o‘yinlar. S.B.Sanayeva. Navoiy.2021 yil.
4.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘ri sida”gi Qonuni. Toshkent, 2020- yil.
5.Oliy ta’limning “Davlat ta’lim standartlari”. Toshkent, 2021-yil.

MAKTABGACHA TAYYORLOV YOSHIDAGI BOLALARNI BADIIY ADABIYOT NAMUNALARI ORQALI KITOBXONLIKKA QIZIQTIRISH METODIKASI

Yarova Gulhayo Fazliddin qizi
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Jamilova Shaxinabonu Sharofjon qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarni kitob o‘qishga, badiiy adabiyotga qiziqtirishning samarali metodik yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, bolalarning tafakkurini rivojlantirishda badiiy adabiyotning ahamiyati, pedagogning roli va mashg‘ulotlarni tashkil etish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik, maktabgacha yosh, badiiy adabiyot, qiziqtirish metodikasi, tarbiyachi, ertak, mashg‘ulot.

Аннотация. В данной статье освещаются эффективные методические подходы к приобщению детей подготовительной дошкольной возрастной группы к чтению и художественной литературе. Также рассматривается значение художественной литературы в развитии мышления детей, роль педагога и методы организации занятий.

Ключевые слова: чтение, дошкольный возраст, художественная литература, методика привлечения, воспитатель, сказка, занятие.

Annotation. This article highlights effective methodological approaches to engaging preschool children in reading and introducing them to works of fiction. It also discusses the importance of literature in developing children's thinking, the role of the educator, and methods for organizing activities.

Keywords: reading, preschool age, fiction, engagement methodology, educator, fairy tale, activity.

Maktabgacha tayyorlov yoshidagi davr bola hayotida eng faol va qiziqarli bosqich hisoblanadi. Bu davrda olingan bilim va tarbiya butun hayotiga ta’sir ko‘rsatadi. Kitobxonlik esa

bolalarning dunyoqarashi, nutqi va tasavvurini boyitishda asosiy vositalardan biridir. Bu yoshdagi bolalar o‘z atrofidagi dunyoni, odamlar, hodisalar va tushunchalar haqida yangi bilimlarni o‘zlashtiradi. Shu bilan birga, ularning kognitiv va emotsional rivojlanishida kitob o‘qish, badiiy adabiyotlar ulkan ahamiyatga ega. Kitobxonlikni bolalikdan shakllantirish, nafaqat bolalarning nutqini rivojlantirish, balki ularning kreativ fikrlash qobiliyatini, tasavvurini va ijodiy yondashuvini ham rivojlantiradi. Badiiy adabiyot, xususan, ertaklar va hikoyalar orqali bolalar nafaqat turli obrazlar va obrazlar orqali dunyoqarashni shakllantiradi, balki axloqiy qadriyatlarni ham o‘zlashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kitob o‘qishning birinchi bosqichida ularni badiiy adabiyotga qiziqtirish, o‘ziga xos metodik yondashuvlarni qo‘llash juda muhimdir. Bu jarayon nafaqat tarbiyachidan, balki bolalar bilan ishlovchi barcha pedagoglardan katta e’tibor va izchillikni talab qiladi. Pedagogning roli, badiiy asarlarning mazmuni va ularni o‘z vaqtida, qiziqarli va ta’sirli tarzda yetkazish usullari bolalarning kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini mustahkamlashda hal qiluvchi omil bo‘ladi. Badiiy adabiyot namunalari – ertaklar, she’rlar, hikoyalar bolalarni axloqiy fazilatlarga o‘rgatishda, tasavvurini kengaytirishda, to‘g‘ri fikrlashga o‘rgatishda katta ahamiyatga ega. Bolalarni kitobxonlikka jalb qilish uchun quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish mumkin:

Rolga kirib o‘qish: Bolalar ko‘proq o‘zini hikoya yoki ertakdagi qahramon sifatida his qilishadi. Tarbiyachi ertakni faqat o‘qib berishdan tashqari, qahramonlar rolini o‘zlashtirib, bolalarni jalb qilsa, ular ertakdagi voqealarni yanada qiziqarli va hayajonli qabul qilishadi. Shu tarzda bolalar ham hikoyaga hissiy jihatdan yaqinroq bo‘lishadi.

Sahnalashtirish: Ertaklarni o‘qishning yana bir samarali usuli – bolalar bilan birga hikoyaning asosiy voqealarini sahnalashtirish. Bu usul bolalar uchun o‘ta qiziqarli bo‘lib, ularning diqqatini yaxshilaydi. Bolalar, ayniqsa, kichik sahnalarda qatnashish orqali hikoyaning barcha qahramonlariga va uning mazmuniga chuqurroq kirib borishadi.

Illyustratsiyalar asosida tahlil qilish: Kitobning illyustratsiyalari bolalarning tasavvurlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Kitobdagi suratlar orqali bolalar hikoyaning mazmunini o‘zlashtiradi va hayotdagi har xil tasvirlarni birlashtirishni o‘rganadilar. Bolalarga kitobdagi rasmlarni tahlil qilish, suratlar asosida o‘z fikrlarini ifoda etishga o‘rgatish zarur.

Savol-javoblar va muhokama: Ertak o‘qilgandan so‘ng, bolalarga matn bo‘yicha savollar berish va ulardan javob olish jarayoni kitobxonlikni rivojlantirishda juda muhimdir. Tarbiyachi bolalarning fikrini eshitish va ular bilan o‘rtoqlashish orqali ularning eshitish qobiliyatini oshiradi va hikoyaning mazmunini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Badiiy adabiyot asarlarini o‘qish bolalar uchun ajoyib bir dunyo yaratadi. Ertaklar va hikoyalar orqali ular turli obrazlar, hodisalar va jarayonlar bilan tanishadilar. Har bir badiiy asar bolaning tasavvuri uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ular yangi dunyoqarashni qabul qilishga o‘rgatadi. Shu bilan birga, bolalar axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni o‘rganishadi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri qahramon va yovuz kuchlar o‘rtasidagi kurash, ba'zan esa mazmunli va tarixiy darslarni olishadi. Shuningdek mashhur yozuvchi bolalarda kitobxonlikni shakillantish to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Kitoblar har doim kelajakni yaratishda yordam beradi. Ular bizni o‘zgartiradi va hayotimizni yaxshilashga yordam beradi.” – Barack Obama. Obama prezidentlik davrida kitob o‘qishning ahamiyatini ta’kidlagan va o‘quv jarayonining bolalarning ta’limida qanday muhim rol o‘ynashini doimiy ravishda ilgari surgan. U kitoblarni insonni o‘zgartiruvchi kuch sifatida ko‘rgan.

Bolalar bilan ishlashda ularni kitobxonlikka qiziqtirish va tasavvurini boyitish kitobxonlikka qiziqtirish tufayli nutqini ravon bo‘lishida tarbiyachining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi yoki pedagog bolalarni kitobxonlikka qiziqtirishda muhim rol o‘ynaydi. U bolalarning e'tiborini to‘g‘ri yo‘naltirishi, ularga zarur ko‘nikmalarni o‘rgatishi, kitobni qanday o‘qish va undan qanday foydalanishni ko‘rsatishi lozim. Pedagogning ishining muvaffaqiyati ko‘pincha uning bolalar bilan ishlash metodikasiga, bolalar uchun kitobni qiziqarli qilish usuliga bog‘liq. “Kitoblar bolalarga nafaqat bilim beradi, balki ularni yaxshi insonlar qilishga yordam beradi.” – Nelson Mandela. U ham kitoblarning yosh avlodni tarbiyalashdagi o‘rni haqida gapirgan va kitoblarning

ta’limga bo‘lgan katta ahamiyatini doimiy ravishda ta’kidlab kelgan. Uning so‘zlari bolalarga kitob o‘qishning axloqiy o‘rni haqida muhim fikrni ifodalaydi.

Kitob bolaning eng yaqin do‘stiga aylanishi uchun, uni to‘g‘ri tanlash, bolaga mos metodik yondashuvlarni qo‘llash, pedagogik mahorat va ijodiy yondashuv zarur. Tarbiyachi bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki bola qalbiga yo‘l topa oladigan, uni ilhomlantira oladigan shaxs bo‘lishi lozim. Bolalarni ertak va hikoyalar orqali faol suhbatga jalb qilish, sahnalashtirish, rol o‘ynash kabi interaktiv metodlar kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi va ularni ijodiy tafakkurga yetaklaydi. Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kitobxonlikni rivojlantirish, badiiy adabiyotga qiziqishni shakllantirish bo‘yicha tizimli va izchil ishlar olib borilsa, bu yosh avlodning ma’naviy-axloqiy, intellektual va estetik kamolotiga katta hissa bo‘lib qo‘shiladi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatimizda fikrlovchi, bilimli, mehribon va madaniyatli insonlarni tarbiyalashga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarni badiiy adabiyotga, ayniqsa kitobxonlikka qiziqtirish – bu zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb va muhim yo‘nalishlaridan biridir. Chunki aynan shu davrda bola shaxs sifatida shakllana boshlaydi, uning dunyoqarashi, axloqiy-me’yoriy qarashlari, nutqi va tafakkuri rivojlanadi. Bunday muhim jarayonda badiiy adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Bolalar ertak va hikoyalar orqali nafaqat til boyligini o‘zlashtiradi, balki hayotni obrazlar orqali tushunishni, yaxshi bilan yomonni ajrata olishni, mustaqil fikrlashni va to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotla ro‘yxati:

1. Karimov, I. A. (1997). Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat.
2. Sharipova, M. (2020). Maktabgacha ta’limda bolalarning estetik tarbiyasi. Toshkent: “O‘qituvchi”.
3. Abdullayeva, N. (2019). Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyotga jalb qilish usullari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Vygotsky, L. S. (1991). Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva: Pedagogika.
5. Xudoyberdiyeva, D. (2021). “Ertaklar orqali axloqiy tarbiya berishning samarali yo‘llari”. Ta’lim va tarbiya jurnali, 4-son.
6. Tursunov, O. (2018). Badiiy adabiyot bolalar dunyosida. Buxoro: “Ziyo nashr”.
7. https://uzedu.uz– O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmiy sayti
8. https://president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti
9. https://ziyonet.uz – Ta’lim va fan sohasiga oid ma’lumotlar portali

ВНИМАНИЕ, ПАМЯТЬ, ОБУЧЕНИЕ И МЫШЛЕНИЕ

Узбекистан. Аднаева Гулчехра Гайбуллаевна –психолог СШ№1 с УИИП г.Зарафшан Навоийской области

Аннотация: В настоящее время необходимость подготовки дошкольников к обучению в школе имеет большое значение. Поэтому уже на этапе старшего дошкольного детства возникает необходимость целенаправленного развития ребенка-дошкольника для дальнейшего успешного обучения в школе.

Данная работа содержит задания, включающих в себя психологические аспекты работы с детьми, направленные на коррекцию и развитее познавательных процессов: внимания, памяти, мышления, воображения. Будет полезна для домашних занятий с детьми 5-7 лет и интересна практикующим психологам, воспитателям, педагогам дополнительного образования.

Психические процессы составляют основные элементы, которые управляют деятельностью и поведением человеческого разума. Такие процессы, как внимание, память, обучение и мышление, формируют нашу способность обрабатывать, понимать, запоминать и принимать решения. В этой статье мы рассмотрим концепции внимания, памяти, обучения и мышления, а также рассмотрим важность и влияние этих психических процессов.

Внимание. Внимание является важным компонентом психических процессов и включает в себя сосредоточение внимания на определенном раздражителе из окружающей среды. Сосредоточив свое внимание, люди сосредотачиваются на важной информации при фильтрации других предупреждений. Внимание влияет на обработку, интерпретацию и запоминание информации. Внимание может быть сосредоточено на внешних раздражителях или внутренних мыслях и со временем может измениться. Например, человек может отвлекаться, когда сосредотачивается на задаче, в то время как в расслабленной обстановке он может погрузиться в успокаивающие мысли. Внимание является отправной точкой когнитивных процессов и играет решающую роль в отборе и обработке информации.


Память. Память относится к процессу кодирования, хранения и извлечения информации. Люди вспоминают свой опыт, вспоминают прошлую информацию и используют эту информацию для понимания новой информации. Память содержит различные компоненты, такие как долговременная память, кратковременная память и рабочая память. Долговременная память-это область, в которой информация хранится непрерывно. Кратковременная память относится к области, в которой данные хранятся временно и могут быть использованы в течение короткого периода времени. С другой стороны, рабочая память относится к области, в которой информация хранится во временных процессах мгновенного мышления и принятия решений. Память-важный психический процесс обработки и запоминания информации.




Мышление. Мышление представляет собой сложную область психических процессов. В процессе люди анализируют информацию, решают проблемы, принимают решения и развивают концептуальные идеи. Мышление тесно связано с когнитивными процессами и отражает способность людей обрабатывать информацию. Мыслительный процесс включает в себя такие навыки, как логические выводы, критическое мышление, творческое мышление, решение проблем и концептуальное логическое мышление. Мышление позволяет людям понимать идеи, решать проблемы и использовать информацию в результате умственных процессов.

Развивающее обучение. Теория активного формирования психических процессов и свойств личности исходит из того, что учащийся должен в процессе активной деятельности присваивать исторический опыт человечества, зафиксированный в предметах материальной и духовной культуры. Цель обучения состоит не только в передаче определенной суммы знаний, но и в развитии личности учащегося. Обучение движется в направлении от общего к частному, от абстрактного к конкретному. Усвоение учебного материала, развитие мышления зависит от структуры познавательной деятельности учащегося, его содержания и методов. Школьник учится мыслить, задача учителя — управлять этим процессом и контролировать результаты. Развитие происходит в случае, когда учащиеся самостоятельно выявляют признаки усваиваемых понятий и способов решения задач. Чтобы повысить эффективность обучения необходимо создать условия для выработки приемов умственной деятельности, имеющих обобщенный характер.


ИГРЫ:




Какая картинка должна быть на месте пропуска в каждом квадрате? Покажи с помощью линий.




Помоги Фимке попасть на пикник. Пройди лабиринт — двигайся в направлении тех цветов, которые выглядят так: .




Рассмотри любимый цветок Фимки: . Помоги ей найти 10 точно таких же цветков — обведи их в кружок.



Рассмотри формочку для печенья в начале каждого ряда. Найди и обведи печенья, которые соответствуют этой форме.





Заключение. Внимание, память, обучение и мышление являются основой психических процессов. Эти процессы обрабатывают информацию, придают ей смысл, запоминают и контролируют наше поведение. Хотя внимание играет важную роль в выборе и обработке информации, память является важным процессом для хранения и извлечения информации. Обучение-это процесс приобретения знаний и внесения изменений в поведение. С другой стороны, мышление представляет собой сложную область психических процессов и включает в себя навыки анализа информации, решения проблем, принятия решений и принятия концептуальных значений.

Изучение этих психических процессов позволяет нам лучше понять умственную деятельность людей. Он также предоставляет важную информацию для оптимизации и улучшения этих процессов в образовании, бизнесе, здравоохранении и многих других областях. Понимание процессов внимания, памяти, обучения и мышления увеличивает учебный потенциал людей, помогает им более эффективно обрабатывать информацию и улучшает их навыки принятия решений. Кроме того, выявление слабых мест в этих процессах позволяет людям с когнитивными проблемами принимать соответствующие меры.

Изучение процессов внимания, памяти, обучения и мышления может применяться во многих областях. Принципы когнитивной психологии используются в образовании для оптимизации образовательных процессов, улучшения стратегий обучения и обеспечения лучшего запоминания информации. В сфере здравоохранения когнитивная реабилитация применяется к людям с черепно-мозговой травмой или неврологическими расстройствами, а методы лечения разрабатываются для людей с когнитивными проблемами. В мире труда разрабатываются организационные стратегии и реализуются программы повышения производительности для оптимизации процессов внимания, памяти и мышления.

В результате процессы внимания, памяти, обучения и мышления составляют основу человеческого разума. Эти процессы обрабатывают информацию, придают ей смысл, запоминают и контролируют наше поведение. Когнитивная психология проводит исследования, чтобы понять эти психические процессы, и применяет эти знания на практике для повышения обучающего потенциала людей, управления когнитивными проблемами и оптимизации умственного функционирования в целом. Изучение процессов внимания, памяти, обучения и мышления может помочь лучше понять умственное функционирование людей и улучшить когнитивные функции.

Литература

1. Адамар, Ж. Исследование психологии процесса изобретения в области математики [Текст] / Ж. Адамар. — М.: Сов. радио, 1970. — 152 с.
2. Айзенк, Г. Новые IQ тесты [Текст] / Г.Айзенк. — М.: Изд-во Эксмо, 2003.— 192 с.
3. Архангельский, С. И. Лекции по теории обучения в высшей школе [Текст] / С.И.Архангельский. — М.: Высшая школа, 1974. — 384 с.
4. Атанов, Г. А. Деятельностиый подход в обучении [Текст] / Г. А. Атанов. —Донецк: « ЕАИ-пресс», 2001. — 160 с.
5. Бадмаев Б. Ц. Психология в работе учителя: В 2 кн. [Текст] / Б. Ц. Бадмаев. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000.
6. Васильева, Е. Е., Васильев, В. Ю. Суперпамять для всех [Текст] / Е. Е. Васильева, В. Ю. Васильев. — М: 2004. — 71 с.
7. Возрастная и педагогическая психология: Учеб. пособие для студентов пед ин- тов. [Текст] / М. В. Матюхина, Т. С. Михальчик, Н.Ф. Прокина и др.; Под ред М. В. Гамезо и др. — М: Просвещение, 1984. — 256 с.
8. Гетманова, А. Д. Логика: для педагогических учебных заведений [Текст] / А. Д. Гетманова — М.: Новая школа, 1995. — 416 с.
9. Егидес, А. П., Егидес Е. М. Лабиринты мышления или учеными не рождаются [Текст] / А. П. Егидес, Е. М. Егидес. — М.: АСТ-ПРЕСС КНИГА, 2004. — 320 с.
10. Кроль, В. М. Психология и педагогика: Учеб. пособие для техн. вузов [Текст] / В. М. Кроль. — М.: Высш. шк., 2001 — 319 с.
11. Крысько, В. Г. Психология и педагогика в схемах и таблицах [Текст] / В. Г. Крысько. — Мн.: Харвест, 1999. — 384 с.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ БЕРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Ўзбекистон. Ярова Гулхаё
Навоий давлат университети
Мактабгача таълим кафедраси уқитувчиси

Аннотация. Мазкур мақолада мактабгача ёшдаги болаларда экологик саводхонликни шакллантириш, экологик тарбияни амалга ошириш шакллари, экологик билим беришнинг янгича турлари ҳамда ўзига хос хусусиятлари ва унинг аҳамияти ёритилган.

Калит сўзлар: Эколог болажон, экологик белги: ундовчи ва тақиқловчи, экосаёҳат, экологик альбом, экологик ҳаракат, экологик мультфилм, экологик ҳамкорлик, “Эсо.Чилд”, илк қадам.

Аннотация. В данной статье описаны формирование экологической грамотности у дошкольников, формы реализации экологического образования, новые виды экологического образования, его особенности и значение.

Ключевые слова: Мальчик-эколог, экологический символ: восклицательный и запрещающий, экотуризм, экологический альбом, экологическое движение, экологический мультфильм, экологическое сотрудничество, «Эсо.Чилд».

Abstract. This article describes the formation of environmental literacy in preschool children, the forms of implementation of environmental education, new types of environmental education and its characteristics and its importance.

Key words: ecological symbol: exclamation and prohibition, ecotourism, ecological album, ecological movement, ecological cartoon, ecological cooperation, «Eco.Child».

Атроф муҳитга нисбатан антропоген фаолликнинг ортиши натижасида бутун сайёрада табиат қонуниятлари ўзгартираётганлигига гувоҳ бўлиб турибмиз. Бунинг оқибатида, флора ва фаунада айрим турларнинг йуқолиб бориши, ер юзи сув ресурсларининг кескин ифлосланиши ёки камайиши, атмосфера хавосида чиқит газлар консентрациясининг ортиб бориши, инсонларда турли касалликларни кўпайиши ва касалликларнинг ёшариши каби кўплаб экологик муаммолар авж ола бошлади. Айтиш мумкинки, инсонларнинг экологик билим, онг ва маданиятиларини шакиллантириш бугунги кундаги энг долзарб мавзулардан бири бўлиб, улар ҳар куни ўзи ҳақида кўпроқ ва тезроқ эслатиб турмоқда. Бу эса экологик тарбияни мактабгача таълимдан бошлаб бериш заруратини туғдиради. [1]

Мактабгача ёшдаги болаларни экологик тарбиялашнинг замонавий технологиялари бу – таълим - тарбия ёки кундалик ҳаёт жараёнида пайдо бўладиган билим, кўникма ва малакаларни ҳал қилишга қаратилган болалар ва тарбиячининг биргаликдаги иши фаолияти ҳисобланади. Мактабгача ёшдаги болаларни экологик тарбиялашнинг замонавий технологиялари гўдаклар билан ишлашда элементар қидирувдан кенг фойдаланишни назарда тутади, чунки бу уларни нафақат табиатнинг ўзига хос хусусиятлари билан таништиришга, балки излаш натижаларига бевосита таъсир кўрсатадиган мантиқий фикрлашнинг амалий кўникмаларини олишга имкон беради. Ушбу экологик таълим шаклидан фойдаланишнинг муваффақияти болаларнинг фаол идрокини кучайтириш учун тарбиячи танлаган услубларга боғлиқ. Фан ва таълим марказида олиб бориладиган машғулот топшириқлари мактабгача ёшдаги болаларнинг ёшга мос бўлиши ва пухта тайёрланган бўлишини инобатга олиш керак. [2]

Республикамизда ҳам атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат сиёсатини устувор йўналишларини белгилаш, таълим ташкилотларида экологик таълим-тарбия беришнинг педогогик тизимини такомиллаштириш бўйича унв[2]ерсал моделларини ишлаб

[1] Г.И.Хасанова - Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари Жиззах: 2020.

[2] Мактабгача таълим ташкилотлари давлат ўқув дастури асосида яратилган мобил дастур “Илк қадам”.

[3] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан 2019 йил 27 майдаги “Ўзбекистон Республикасида экологик таълимни ривожлантириш концепцияси тасдиқлаш тўғрисида”ги 434-сонли Қарорининг III-боби

чиқишга устивор аҳамият берилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тамонидан 2019 йил 27 майдаги “Ўзбекистон Республикасида экологик таълимни ривожлантириш концепцияси тасдиқлаш тўғрисида”ги 434-сонли Қарори тасдиқланган бўлиб, ушбу қарорнинг III бобида мактабгача таълим тизимида экологик таълимни такомиллаштириш лозимлиги баён этилади. [3]

Тадқиқотимиз давомида ушбу Консепсиядаги нормативлари ва Мактабгача таълим ва тарбиянинг давлат стандартларига асосланган ҳолда **“Эколог болажон”** дастурини ишлаб чиқилди. Дастурдан кўзланган асосий мақсад, мактабгача таълим ташкилоти тарбияланувчиларига мамлакатимиз табиати, экотизмлари асраш, йўқолиб бораётган ва камёб турдаги ўсимлик ва ҳайвонот дунёси тўғрисида маълумотлар бериб, уларни асраб-авайлаш масаласига алоҳида урғу берилади.

Дастур аниқ педогогик тизимлаштирилди ва у асосида :

атроф-муҳитни тоза ва озода сақлаш ҳар қандай касалликларнинг олдини олишини англаб етишларида кўмаклашиш;

экологик тарбия бериш жараёнини янада такомиллаштириш мақсадида зарурий бурчаклар ташкил этиш;

машғулотларни мавзулар кесимида керакли материаллар билан жиҳозлаш;

тарбияланувчиларнинг экологик таълим ва тарбияларини шакиллантиришда ота-оанлар билан ҳамкорликда ишлари ташкиллаштирилди.

Машғулотларда экологик билимлар айнан тизимлаштирилган шаклда ва турли хил ноанъанавий усулларга мувофиқ тарбияланувчиларга бериб борилади. **“**Эколог болажон” дастури машғулотларини бошлашдан аввал ота-оналар, тарбияланувчилардан мавзу доирасида соҳага оид сўровномалар шакиллантирилди, уларнинг экологик саводхонликлари аниқланди.

Даставвал болажонларга ёшига мос ҳолатда атроф-муҳит муҳофазаси, экология ва табиат ўртасидаги боғликлар ҳамда уларни бир-биридан нима ажратиб туриши ҳақидаги расмли кўргазмалар кўрсатилиб, уларда илк тушунчалар шакиллантирилди. Шу машғулотда болажонлар махсус “**Экологик белги**”лар билан таништирилди. Бу белгилар табиат ва инсон муносабатларида айнан қандай ҳаракатлар бажариш мумкин ва қандай ҳаракатларга йўл қўйиб бўлмаслигига кўра 2 турга: “**Ундовчи”** ҳамда “**Тақиқловчи”** турларга бўлинади.

Кейинги машғулот жараёнда эса тарбияланувчилар билан биргаликда **“Экосаёҳат”** уюштирилди. Юртимиздаги маданият ҳамда истироҳат боғларига ташриф буюрган ҳолда улар билан “**Экологик белги”**ларни қаерларга жойлаштириш мумкинлиги ва атрофнинг тозалигини сақлаш ундаги барча неъматларни қадрлаш кераклиги ўргатиб борилди. Ҳаволар совий бошлагач болажонлар билан **“Экосаёҳат”** уюштириш бир мунча мушкул бўлганлиги сабабли улар билан мултимедиа, видеороликлар орқали чет эл мамлакатларининг маданият ҳамда истироҳат боғларига саёҳат қилиш, шу билан бир қаторда уларнинг тозалик қоидалари билан таништириштирилди.

“Экологик албом” болажонларимизни атроф муҳитни тоза - озода сақлашга оид чизган расмлари, ҳар бир боланинг экологик тушунчалари акс этган расмлар, ер юзида, шу жумладан, юртимизда йўқолиб бораётган ва камёб турдаги ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда уларни асраб-авайлаш ҳамда ойда бир марта **“Тозалик – инсон саломатлиги гарови”** номли расмлар танловини ташкиллаштирилди. Энг яхши расмларни буклетларга жойлаштирилади.

“Экологик харакат” технологиясида тарбияланувчилар билан ўзларининг машғулот хоналарида ҳамда болалар майдончасида уларга хос ва мос тарзда тозалик кунларини ташкиллаштириш, атрофга кўчат экиш, гулларга сув қуйиш тагларини юмшатишга доир ишлар бажариш, болажонларимиз билан биргаликда махсус идишлар ясаган ҳолда уларга ҳар бир бола ўз қўллари билан кўчат экиши ва гуллар ҳамда ўсимликлар атроф муҳит жозибадорлигини оширишга ва шу билан қаторда ҳавомизни тозалаб турувчи муҳим восита

эканлигини ҳақида тушунча бериш, ўз-ўзидан экологик тарбия самарадорлигини оширишга хизмат қилаётганлиги аниқланди.

Ҳар бир машғулот жараёнидан кейин тарбияланувчиларга махсус, болаларни экологик билми, тафаккури, маданиятини шакиллантирадиган **Экологик мултфилм**лар қўйиб берилди. Тамоша жараёни тугагач тарбиячи болажонлар билан кузатган мултфилмларини таҳлил қилидилар.

“Экологик ҳамкорлик” доирасида ота-оналар билан ҳамкорликда олиб борилган ишлар:

“**Эсо.Чилд”** номли экологик газета ташкил этилди;

“Табиат ва биз” номли оммавий тадбир ташкиллаштирилди;

кўнгилли ёшлар (валантёр)ни шакллантирилди;

атрофга гул ҳамда кўчатларни кўпроқ экиш чора тадбирларини кўриб чиқилди;

тозалик кунини йилда камида 4 марта (баҳор,ёз,куз,қиш)да ўтказилиши режалаштирилди.

Хулоса сифатида шуни айтишимиз мумкинки, экологик тарбияни инсониятнинг асосий умуминсоний қадриятларидан бири бўлиб, унинг моҳияти экологик инқирозга олиб келадиган салбий кўринишларни ижобий фаолиятга айлантиришда экологик муносабатлар тизимини илмий, аҳлоқий, бадиий воситалар билан тартибга солишдир. Инсоннинг экологик тарбиясининг илк босқичи мактабгача ёшдан бошлаб экологик маданиятни шакллантиришни ўз ичига олади. Шу муносабат билан таркибида экологик билимлар мажмуини тизимлаштирилган шаклдаги «Эколог болажон» дастури болажонларимиз онгида табиатни асраб авайлаш тушунчаларини шакиллантириб боради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1.Г.И.Хасанова - Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари Жиззах: 2020.

2. Мактабгача таълим ташкилолари давлат ўқув дастури асосида яратилган мобил дастур “Илк қадам”.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан 2019 йил 27 майдаги “Ўзбекистон Республикасида экологик таълимни ривожлантириш концепцияси тасдиқлаш тўғрисида”ги 434-сонли Қарорининг III-боби.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING SIFATLI TA’LIM VA TARBIYA OLISHLARI UCHUN SHART-SHAROITLAR YARATISH

O‘zbekiston. ***N.D.Nabiyeva***
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Saydullayeva O‘g‘iloy Erkin qizi
Xudoyberdiyeva Azizabonu Yusuf qizi
Sharibova Qizlarxon Toyir qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3 kurs (sirtqi)talabalari

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish bo‘yicha fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek maqolada, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, rivojlanish markazi, zamonaviy usullar, bolalar rivojlanishi, muloqot, pedagog.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan ta’lim va tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maqsadida mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasida keng ko‘lamli ishlar, islohotlar amalga oshirilmoqdaki, bu o‘z navbatida maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim va tarbiya olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishni asosiy vazifa qilib qo‘ygan.

Bu esa mamlakatimizda maktabgacha ta’lim va tarbiya sifatini oshirish yo‘llarini jadal rivojlantirishni taqozo etadi. Me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ta’lim siyosatining asosiy vazifasi – ta’limning fundamental xususiyatini saqlab qolish va hozirgi talablarga javob berish asosida yuqori sifatni ta’minlashda shaxs, jamiyat va davlatning kelajakdagi ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha bir qancha qaror va farmonlar qabul qilingan. Bu kabi qonun xujjatlarida maktabgacha ta’limning asosiy maqsadli vazifalari va yo‘nalishlari, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim va tarbiya olishlari uchun o‘quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi aniq belgilangan, unda bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratish masalalari belgilangan.

MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

• bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yilagan Davlat talablari asosida hamda MTT davlat o‘quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

• maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish; • bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;

• bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish. Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirishda asosiy dastur qilib “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi belgilangan.

“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan, shuningdek, bolani ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan. U maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik-fiziologik va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har tomonlama kamol toptirishni ko‘zda tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan axloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, “Men” obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi. Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarni pedagoglar amalga oshiradi. Ular pedagogik jarayonda markaziy o‘rinni egallaydi. Shuning uchun tarbiyachi o‘z sohasini chuqur bilishi, har xil metodik vositalarni yaxshi egallagan, puxta pedagogik psixologik tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak. Bundan tashqari maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining nazariy asoslari bilan qurollanishlari, tarbiya va ta’lim berishning innovatsion texnologiyalari bilishi kerak. Ta’lim va tarbiyaviy jarayon guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda pedagog tomonidan rejalashtirilgan kundalik harakatlar, bolalar o‘yinlari, bo‘sh vaqt, ta’lim va tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi. Ta’lim - tarbiyaviy jarayon ta’lim va ijtimoiy ehtiyojlar (salomatlik, ovqatlanish va xavfsizlik)ni qondirish maqsadida bolaning yoshi va o‘ziga xos rivojlanishiga asoslanuvchi o‘quv rejaga muvofiq olib boriladi. Ta’lim va tarbiyaviy jarayon bola hayoti va uning atrofidagi muhitdan kelib chiquvchi yagona bir butun mavzuga birlashtiriladi. Ta’lim va tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish ta’lim sharoitlariga bog‘liq holda integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillari asosida tarkib topadi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etishda rivojlantirish markazlaridan foydalanish masalasi asosiy masalalarning biriga aylangan. Bu esa

barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini amalda qo‘llash bilan bog‘liqdir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi-pedagogi rivojlanish sohasi kompetensiyalari mazmuni asosidagi o‘quv-tarbiyaviy jarayonni “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari” asosida amalga oshiradi. Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat turlari yetakchi rol uynaydi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilada bolaning hayotini u turlituman faoliyatlar bilan shug‘ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga, albatta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim, malakalarni singdirish, mustaqillikni rivojlantirish va shu kabilar bilan erishiladi. Maktabgacha yosh davrida bolalarda mustaqillik, hayotga moslashuvchanlik ancha shakllanadi, shuning uchun bu yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish usullari ham o‘zgaradi. Talim-tarbiya ishining vazifasi, mazmuni va metodini belgilash bolaning yosh bosqichlariga asoslanadi. Yosh davrlari bolaning rivojlanishidagi zarur bosqichlardir. Pedagog xodimlar ta’limni modernizatsiyalash va ta’lim siyosatini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Eng muhimi, sifatni oshirishdir — bu maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy burchidir. Maktabgacha ta’limning sifati ko‘p jihatdan bolaning rivojlanish muhitiga bog‘liq. Uni amalga oshirishning muvaffaqiyati shartlaridan biri bu maktabgacha ta’lim tashkilotida yaratilgan predmet makoni, maktabgacha ta’lim tashkilotining zamonaviy infratuzilmasidir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya sifatini oshirish, zamonaviy talablarga javob beradigan predmetli-fazoviy muhitni modernizatsiya qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 802-sonli Qarori. https://lex.uz/docs.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

4. Grosheva I.V., Mirziyoeva Sh.Sh., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022-yil (o‘zbek va rus tillarida).

5. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. Darslik. “TAFAKKUR» nashriyoti. Toshkent – 2019. 683 b.

6. Valiyeva F.R. To Develop Professional Training of Professional Education Specialists by Ensuring //International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on International Research Development and Scientific Excellence in Academic Life Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470 2021/

7. Kalmuratov T.N. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish funksiyalari. “Maktabgacha ta’lim sifatini oshirish muammolari va yechimlari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.

8. Zaynutdinova M.B, Mavlonov N.Sh. Nutiqni tanishda ovozli interfeys texnologiyalaridan foydalaniladigan dasturiy maxsulotlar taxlili va istiqbollari, TATU Qarshi filiali Respublika ilmiy-amaliy koferensiya 20-21-aprel 2018-yil

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARDA O‘YIN FAOLIYATINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

O‘zbekiston. To‘ymurodova Aziza Shaxobiddinovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim
fakulteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
1-MT-24 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin faoliyatining pedagogik imkoniyatlari va bolalar faoliyatining yetakchi shakli sifatida ularning aqliy, ijtimoiy, nutqiy va hissiy rivojlanishida muhim o‘rin egallashi ta’kidlangan. Shuningdek, maqolada o‘yin turlarining ta’limiy jarayondagi ahamiyati, ularni tanlash va tashkil etish mezonlari, pedagog tomonidan o‘yin faoliyatini samarali tashkil etish uslublari, zamonaviy didaktik o‘yinlarning pedagogik jarayonga integratsiyasi masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yin, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, rolli o‘yin, syujetli-rolli o‘yin.

Аннотация: В данной статье освещаются педагогические возможности игровой деятельности в ДОУ. Отмечено, что игра как ведущая форма деятельности детей занимает важное место в их умственном, социальном, речевом и эмоциональном развитии. Также в статье рассматривается значение видов игр в образовательном процессе, критерии их выбора и организации, методы эффективной организации игровой деятельности педагогом, вопросы интеграции современных дидактических игр в педагогический процесс.

Ключевые слова: игра, умственное образавания, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, ролевая игра, ролевая игра с сюжетом.

Annotation: This article discusses the pedagogical possibilities of game activities in preschool educational organizations. It is emphasized that the game, as a leading form of children’s activity, plays an important role in their mental, social, speech and emotional development. The article also considers the importance of game types in the educational process, the criteria for their selection and organization, methods for effective organization of game activities by the teacher, and the issues of integration of modern didactic games into the pedagogical process.

Keywords: play, mental education, moral education, aesthetic education, role play, plot role play.

Maktabgacha ta’lim davri – bu bola shaxsining shakllanishi, aqliy, ijtimoiy, axloqiy va jismoniy rivojlanishining eng faol bosqichidir. Aynan shu davrda bola atrof-muhitni o‘zlashtirish, muloqot qilish, mustaqil fikrlash va harakat qilishni o‘rganadi. Shu bois, bu davrdagi ta’lim-tarbiyada bolaga yaqin, tushunarli va tabiiy vositalardan foydalanish dolzarb hisoblanadi. O‘yin faoliyati esa bola uchun eng tabiiy, qulay, qiziqarli va samarali tarbiya vositasidir. O‘yin orqali bola nafaqat o‘zining bilim va tasavvurlarini boyitadi, balki ularni mustahkamlaydi, ijtimoiy tajriba orttiradi. Maktabgacha ta’lim uyg‘un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan davrdir. O‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo‘lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi.

O‘yin bolaning o‘quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanganligimi belgilab beradi. O‘yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Jamiyatning ma’naviy takomillashuvi unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog‘liqdir. Shu boisdan ham ta’limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich ta’lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta’minlash zaruriyati yuzaga keladi.

Haqiqatdan ham o‘yin, har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o‘rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning o‘yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o‘zgarib turadi. O‘yin

doimo o‘zgarib turganligi tufayli bola o‘ynab charchamaydi, zerikmaydi. Bolaning atrof muhitga, kishilarga, narsalarga va o‘ziga bo‘lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o‘zgarib turadigan o‘yin jarayonida namoyon bo‘ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlari o‘yin jarayonida bevosita rivojlanadi. O‘yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o‘yin jarayonida faqat namoyon bo‘libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o‘zlashtiriladi. Shuning uchun psixologik nuqtai nazardan oqilona, ya’ni, to‘g‘ri tashkil qilingan o‘yin bola shaxsini har tomonlama o‘stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida – sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, hayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi.

O‘yin o‘z mohiyati jihatidan katta kishilarning xatti-harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo‘lishi tufayli bolalarda ma’naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob-axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o‘yin jarayonida shifokorlik yoki o‘qituvchilik rolini bajarayotgan bo‘lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o‘yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlar shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo‘ladi. Bolalar uchun o‘yin mazmunining hech bir chegarasi yo‘q.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o‘z o‘yinlarida aks ettira oladilar. O‘yinning ahamiyati bola shaxsining o‘sib kamolotga yetishiga ta’sir ko‘rsatishdin iboratdir. O‘yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi.

Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga, o‘z-o‘ziga munosabati o‘zgarayotgan o‘yinda namoyon bo‘ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqishlari bevosita o‘yinda ifodalanadi. O‘yin bolalarning xayolparastligi tufayli narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma’qul tomonga “o‘zgartirish” imkoniyatini beradigan faoliyatdir.

Ma’lumki, bolalarning asosiy vaqti o‘yin bilan o‘tadi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo‘lib hisoblanadi. O‘yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub’ekti sifatida shakllana boshlaydi. O‘yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o‘ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muammolardan biridir. Bola psixikasining taraqqiy etishida o‘yinning roli beqiyosdir. Biz bolaning psixik taraqqiyotini o‘yin faoliyatisiz tasavvur qilishimiz qiyin. Chunki, o‘yin orqali bola faqat jismoniy tomondan emas, balki psixologik tomondan ham rivojlanadi. O‘yin orqali bola olamni, undagi narsa hodisalarni, ularga xos xususiyatlarni o‘rganibgina qolmay, balki nutq so‘zlashga, mustaqil fikrlashga, xayol qilishga, ijod qilishga, muomala madaniyatiga o‘rganadi.

MTTda foydalaniladigan o‘yinlar pedagogik maqsadga qarab turli toifalarga bo‘linadi:

- Didaktik o‘yinlar – bolalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ranglar, shakllar, sonlar, vaqt tushunchalari, tabiat va atrof-muhit haqidagi bilimlarni mustahkamlash uchun keng qo‘llaniladi.
- Rolli (ijodiy) o‘yinlar – bolaning tasavvuri, nutqi, ijtimoiy rollarni tushunishi, muloqot madaniyatini rivojlantiradi. “Do‘kon”, “Kasalxona”, “Oilaviy hayot” kabi rollar orqali bola real hayotiy vaziyatlarga tayyorlanadi.
- Harakatli o‘yinlar – jismoniy rivojlanish, muvofiqlashtirish, tezkorlik, chidamlilik kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Guruhda o‘ynaladigan o‘yinlar jamoaviylik, tartib-intizom va sheriklik tuyg‘ularini shakllantiradi.
- Musiqiy va teatr o‘yinlari – bola estetik dunyoqarashining shakllanishiga, musiqiy eshituv, ritm, ifodali harakatlar, obrazli fikrlashga xizmat qiladi.

O‘yinning bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o‘yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O‘yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg‘ulotlardan so‘ng, sayrlardan so‘ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o‘ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o‘yinlar uchun

sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan koʻproq didaktik oʻyinchoqlar, stol ustida oʻynaladigan stol-bosma oʻyinlari, syujetli-rolli oʻyinlarni oʻynagan ma’qul.

Sayr davomida harakatli oʻyinlarni, qurish-yasash oʻyinlarini tashkil etish foydalidir. Kun tartibida oʻyin uchun maxsus vaqt belgilash oʻyinning mustaqil faoliyat sifatida mavjud boʻlishining va uni bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida, tarbiya vositasi sifatida qoʻllanilishining eng muhim pedagogik shartidir. Bolalar oʻyinining oʻziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi oʻzaro munosabatlarini aks ettiradi.

Oʻyin paytida xona bolalar uchun dengiz, oʻrmon, metro, temir yoʻl vagoni boʻlishi mumkin. Bola hech qachon jim oʻynamaydi, bitta oʻzi oʻynasa ham u oʻyinchoq bilan gaplashadi, oʻzi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot oʻrnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning oʻrniga oʻzi gapiraveradi. Soʻz obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi. Nutq oʻyin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, oʻz his-tuygʻu, kechinmalarini oʻrtoqlashadi. Soʻz bolalar oʻrtasida doʻstona munosabatlar oʻrnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda boʻlishga yordam beradi.

Bolalarning oʻzi yaratgan oʻyindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan oʻyinning gʻoyasi, mazmuni, oʻyin harakatlari, rollar, oʻyin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir. Oʻyin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. Oʻyinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola oʻzining butun diqqatini oʻyinga qaratishi lozim. Bola oʻynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari toʻgʻrisidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Tarbiyachi oʻyin orqali bolalarda ona vatanga, oʻz xalqiga boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. Oʻyin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, toʻgʻrilik, oʻzini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. Oʻyin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga boʻlgan munosabatini shakllantiruvchi oʻziga xos maktabdir. Oʻyinda bola kishilarning odob-axloq me`yorlarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi. Tarbiyachi bolalar oʻyiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. Oʻyin jarayonida bolalar oʻz xohishlarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, oʻyinda oʻrnatilgan qoidalarga rioya qilishga oʻrganadilar.

Xulosa oʻrnida aytish kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalar oʻyin faoliyati bilan birga ta'limiy mashgʻulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashgʻulotning asosiy mazmuni bolani atrof muhitdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, ogʻzaki nutqning lugʻat boyligi, tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, grammatik tomondan toʻgʻri soʻzlashlikka oʻrgatish, bogʻlanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega boʻlish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at, qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilish materiallar bilan ishlash, musiqa va boshqa mazmundagi mashgʻulotlarga qaratilgan boʻladi, bu esa bolani aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi. Shu bilan birga maktabgacha ta’limda oʻyin faoliyatining pedagogik imkoniyatlari nihoyatda kengdir. Oʻyin bolaga bilim berish, uni tarbiyalash, ijtimoiylashtirish va rivojlantirishda beqiyos vosita boʻlib xizmat qiladi. Pedagoglar bu imkoniyatlardan toʻliq foydalanishlari, har bir oʻyinni maqsadli tashkil etishlari, bolalarning faolligini ta’minlashlari va oʻyin orqali ularning shaxsiy rivojlanishini qoʻllab-quvvatlashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ravshanov A., Mahmudova M. Maktabgacha ta’limda bolalar oʻyin faoliyatining rivojlanishi. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2019. – 200 b.

2. Tursunova S. T. Maktabgacha yoshdagi bolalarda oʻyin orqali tarbiyalash va oʻqitish. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish, 2021. – 180 b.

3. Usmonxoʻjaeva D. Sh. Bolalar psixologiyasi va oʻyin faoliyati. – Samarqand: Zarafshon, 2020. – 210 b.

4. Komilova M. M. Maktabgacha yoshdagi bolalar oʻyinlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi, 2018. – 190 b.

5. Davletshin M. S. Psikhologiya igrovoy deyatel’nosti doshkol’nikov. – Moskva: Akademicheskiy proyekt, 2017. – 256 s.

6. Shermatova G. S. Maktabgacha ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar va o‘yin metodlari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022. – 175 b.

7. Smirnova E. O. Igra v doshkol'nom detstve. – Moskva: Moskovskiy psikhologo-sotsial’nyy institut, 2015. – 240 s.

8. Soliyeva N. N. Maktabgacha ta'limda ijodiy o‘yinlarning rivojlantirishdagi roli. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 165 b.

9. Xamidova M. Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va o‘yin texnologiyalari. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2021. – 185 b.

MAKTABGACHA TA’LIMDA CHET EL TAJRIBASI ASOSIDA INKLYUZIV TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

O‘zbekiston. Sattarova Munira Toshmurotovna
Uchquduq tumani “Qaldirg‘och” ONMTT direktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta’lim tizimi ya’ni inklyuziv ta’lim tizimining takomillashuvi, va bu ta’lim tizimi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, maktabgacha ta’lim tizimidagi imkoniyati cheklangan bolalarga o‘z tengdoshlari qatorida ta’lim berish va shu bilan bir vaqtda ularning ehtiyoji hamda qobiliyatlariga qarab individual yondoshish, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadi va vazifalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat, inklyuziya, ijodiy yondashuv, maxsus ta’lim, uyg‘unlashish.

Аннотация. В данной статье в новой образовательной системе, внедряемой в нашей стране, а именно совершенствовании системы инклюзивного образования, и внедрении этой образовательной системы в организациях дошкольного образования, дети с ограниченными возможностями здоровья в системе дошкольного образования находятся среди своих сверстников. образования и при этом индивидуальный подход, исходя из их потребностей и способностей, обсуждаются цели и задачи развития системы инклюзивного образования.

Ключевые слова: образование, образование, инклюзивное, развитие, совершенствование, движение, инклюзия, творческий подход, специальное образование, адаптация.

Abstract. In this article, the new educational system introduced in our country, i.e., the improvement of the inclusive education system, and the introduction of this educational system in preschool education organizations, children with disabilities in the preschool education system are among their peers. education and, at the same time, an individual approach based on their needs and abilities, the goal and tasks of developing an inclusive education system are discussed.

Keywords: education, education, inclusive, development, improvement, movement, inclusion, creative approach, special education, adaptation.

Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish uchun avvalo, tarbiyachilarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etilishi kerak. O‘quv reja, o‘quv mashg‘ulotlar maxsus ehtiyojli tarbiyalanuvchilarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo‘lishi kerak. Bolaning maxsus ta’limga bo‘lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo‘lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan bo‘lishi talab etiladi. L.S.Vigotskiy fikricha nuqsonli tarbiyalanuvchini yetuk qilib tarbiyalashning vazifasi tarbiyalanuvchidagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning integratsiyasini ta’minlash deb hisoblaydi va buning uchun shunday ta’lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muhtoj tarbiyalanuvchi mashg‘ulot o‘ish jarayonida har tomonlama rivojlansin. Ya’ni L.S.Vigotskiy umumiy va maxsus ta’limni uyg‘unlashtiradigan ta’lim tizimini tashkil etishni maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim tizimida o‘qitishni e’tirof etgan. Imkoniyati

cheklangan tarbiyalanuvchini oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo‘yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan.

Bolalarning umumta’lim muassalari tarkibiga qarab olinishi jahon miqyosida ,,inklyuziv’’ yoki ,,integratsion’’ ta’lim atamalari bilan ataladi. Inklyuziv ta’lim to‘g‘ri tanlovdir, sababi tinglovchilar uyda yoki maxsus muassasalarda ta’lim olgandan ko‘ra oddiy maktabda o‘z tengdoshlari bilan ta’lim olganda ularning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi oshadi, ta’lim samaradorligi ham yuqori bo‘ladi.

Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

- o‘z imkoniyatini o‘zi uchun kashf etish imkonini beradi;
- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o‘qishga bo‘lgan ehtieji va qiziqishlari ortadi;
- o‘zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
- yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo‘qoladi.

Rivojlanishda alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolaning oilasi bilan o‘zaro munosabat bo‘yicha pedagogga tavsiyalar.

✓ Ota-onalar bilan psixologik aloqa va ishonchli munosabat o‘rnating. Ota-onalarning pedagogga nisbatan hurmati hamda ishonchi unga samarali hamkorlik qilish, bola va uning rivojlanish muhiti haqida to‘liq ma’lumot olish, bolaning salohiyatini to‘liq ochib berish imkonini yaratadi.

✓ Ota-onalarni bevosita o‘quv va tarbiya jarayoniga jalb qiling, bolaning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda faol ishtirokchi bo‘lishiga yordam bering.

✓ Ota-onalarning MTT pedagoglari (defektologlar, tarbiyachilar, psixologlar, tor doiradagi mutaxassislar) bilan doimiy munosabatini ta’minlang.

✓ Ota-onalarni bolaning individual o‘quv yo‘nalishini ishlab chiqish va amalga oshirishda faol qatnashishga jalb qiling (o‘rganilgan materialni uy sharoitlarida mustahkamlang).

✓ Uy sharoitlarida o‘quv jarayonini bola bilan qanday tashkillashni tushuntiring, bola uchun murakkab va oson mavzularni aniqlashtiring.

✓ Ota-onalarga o‘z farzandi bilan hamkorlik qilishning pedagogik texnologiyalarini, uni korreksion (tuzatish)o‘qitish va tarbiyalash usullari hamda metodlarini o‘rgating, shuningdek, ularga psixologik yordam ko‘rsating.

✓ Ota-onalar bilan suhbatlashing. Ota-onalar bilan suhbat – bolaning shaxsiyati va xarakteri, uning atrofdagilar bilan munosabatlari uslubi, qiziqishlari va odatlari haqida juda qimmatli ma’lumotlar manbaidir.

✓ Oilada qulay muhitni yaratishga ko‘maklashing va shundan keyingina tuzatish ishlarini tashkillashtiring.

✓ Ota-onalarda farzandiga nisbatan ishonch uyg‘oting, uzoq muddatli prognozlar qilmang.

✓ Har qanday vaziyatda xotirjam va vazmin bo‘ling, bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samimiy munosabat o‘rnating.

✓ O‘z bilimlaringizni va kasbiy kompetensiyalaringizni muntazam oshirib boring.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida inklyuziv ta’lim tizimi mavjud. Bu, bir tomondan, bolani o‘qitishda moslashuvchan yondashuvni rivojlantirish uchun, boshqa tomondan, unga sog‘lom tengdoshlar jamoasida o‘qish imkoniyatini berish uchun mo‘ljallangan. Maxsus, axloq tuzatish maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktab-internatlarda bo‘lgani kabi, faqat kasal odamlar atrofida yolg‘iz qolmang.

Ammo amalda Rossiyada inklyuziv ta'limni rivojlantirish bir qator muammolarga duch keladi:

¬ Tarbiyachilar adashishadi, o‘zlarining qobiliyatsizligini his qilishadi - axir ular nogiron tarbiyalanuvchilar bilan, nogiron tarbiyalanuvchilar bilan ishlaydigan tarbiyachi roliga tayyor emas edilar;

¬ hatto tarbiyalanuvchini butun qalbi bilan sevadigan tarbiyachilar ham bolaning noo‘rin xatti-harakatlari sabablarini tushunib etishlari va unga bu muammoni engishga yordam berishlari nihoyatda qiyin bo‘lib, bu ta'lim jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi;

¬ tarbiyachilarga bunday tarbiyalanuvchilar bilan ishlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan aniq, tushunarli ko‘rsatmalar, maxsus o‘quv qo‘llanmalari yoki ish daftarlari etishmaydi;

¬ zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimi orasida tajovuzkorlik va bezorilik odatiy hol emas, shuning uchun sog‘lig‘i buzilgan tarbiyalanuvchi uchun xavfsizlik sharoitlarini yaratish oson emas.

Sinov va xato bilan ko‘r-ko‘rona harakat qilishingiz kerak. Amalda turli xil yondashuvlarni sinab ko‘ring va yangilarini o‘zingiz ishlab chiqing. Ammo muammo shundaki, bitta «maxsus» bola bilan to‘plangan tajriba boshqa talaba uchun umuman befoyda bo‘lishi mumkin.

Nima qilish kerak?

Xitoyda integratsiyalash jarayoni barcha umummillat ma’lumotlarini yig‘ish, tajriba almashish, muloqot va fikr almashish, kadrlarni tayyorlash,maktabgacha ta’lim va maktab o‘quv jarayonlarini isloh kilish,maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari bilan uchrashuv va savol javoblar o‘tkazish hamda barcha axborotlarni yig‘ib tahlil qilishdan boshlandi. Xitoy ta’lim tizimida birmuncha yangi edi. Har bir tumanda integratsion ta’lim borasida seminarlar uyushtirildi. 8 ta o‘quv seminarida 1000 dan ortiq kishilar ishtirok etdilar. Bir qancha pedagogika institutlarida nuqsonli tarbiyalanuvchilarga ta’limi nomli o‘quv kurslari o‘tila boshladi. (Ainscov M., va boshkalar 1996 yil). Xitoyda Internet tizimidagi elektron resurs markaz orqali mutaxassislarning bilim va malakalaridan foydalangan holda butun mamlakat hududidagi alohida ehtiyojli tarbiyalanuvchi va shaxslarning ta’lim olish talabini qondirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Mazkur dastur maxsus ehtiyojli bolalarni ta’lim jarayoniga kiritish bo‘yicha boshqa chora-tadbirlarga qo‘shimcha yordam sifatida qo‘llaniladi. Ayrim hollarda esa ta’lim berish va rivojlantirish imkonini beruvchi yagona vosita bo‘lib qoldi.

Hindistonda 1 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar 2.000.000 ni tashkil etadi. Ta’lim tizimini rivojlantirish 1947-yilda mamlakat mustaqillikga erishgandan so‘ng qonuniy tasdiqlangan. 1986- yilda ishlab chiqilgan va 1992-yilda milliy ta’lim qonuniga ko‘pgina mutaxassislar va turli shtatlarning vakillari ishtirokida hamda boshqa tegishli fuqarolarning hamkorlikdagi sayiharakati bilan qo‘shimchalar kiritilgan. Mamlakatda istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarning ta’lim olish huquqi kafolatlangan. Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning asosiy bandida rivojlanishida alohida ehtiyoji bo‘lgan bolalarni barchalar qatori ta’lim olishi va ular o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf qilinishi qayd etilgan.

Shuningdek qonunda mamlakatda yashovchi fuqarolarning ko‘p tilligi va diniy-ijtimoiy, madaniy rivojlanishining xususiyati hamda mamlakatda yashovchi nogiron bolalar, qiz bolalar har-xil hududlarda yashovchi mayda millat bolalari, ijtimoiy himoyaga muhtoj ekanligi aniqlanib ularga qo‘shimcha ravishda e’tibor berilib, ta’lim olish huquqi ta’kidlangan. Keyingi vaqtda ta’lim olishning bir qator mavhum tizimi rivojlana boshladi. Bunday tizimni shakllantirish yaxlit bitta vazirlik doirasida bo‘lishi kerak” deb ,ta’kidlaydi :- Keralin Daier.

Ushbu shakllangan ta’lim tizimining vazifasi o‘yin orqali o‘qitishga asoslangan yangi ishlab chiqilgan dastur yordamida, o‘qituvchi o‘quvchiga yondoshish yo‘li bilan o‘qitish talab etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan tarbiyalanuvchilarni ilk yoshlaridanoq sog‘lom tarbiyalanuvchilar qatoriga qo‘shib sifatli ta’lim olishini ta’minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir. Nuqsoni bor tarbiyalanuvchilarni har tomonlama tarbiyash orqali ularni ona-Vatanga, tabiatga nisbatan go‘zallikni his etishga, tafakkurini rivojlantirishga, bolalarning talab-ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Inklyuziv ta’lim” - o‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2019.

2. “Inklyuziv ta’lim asoslari” -o‘quv uslubiy qo‘llanma.Urganch 2020.

3. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010

4. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.

5. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo‘llanma 2014-yil 6. R.Sh. Shomaxmudova „ Maxsus va inklyuziv ta’lim xalqaro va milliy tajribalar’’-o‘quv uslubiy qo‘lanma.Toshkent 2011.

O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA`LIMNING RIVOJLANISHI

O‘zbekiston. Karshiyeva Shaxnoza Turakulovna
NDU. Maktabgacha ta`lim kafedrasi o‘qituvchisi
Mardonova Jumagul
NDU. Maktabgacha ta`lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada yurtimiz ta`lim tizimidagi islohatlar va ularning ahamiyati, inklyuziv ta`limni rivojlantirish masalalari, xalq ta`lim tizimida inklyuziv ta`limni rivojlantirish bo‘yicha chora tadbirlar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, nogiron bolalar, sog‘lom bolalar, teng huquqlik, imkoniyat, cheklanganlik, mutaxasis, o‘qituvchi, qonun, rivojlantirish.

Respublikamizda 2020 yil yangi tahrirdagi „Ta’lim to‘g‘risida“ gi qonun tomonidan tasdiqlandi. Tasdiqdan oldin esa, O‘zbekiston Respublikasi nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta’lim tamoyillariga muvofiqligi bo‘yicha tahlilio‘tkazdi. Qonunning 20-moddadasida Jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etiladi. Ushbu qonunda belgilangan vazifalarni to‘laqonli bajarish maqsadida 2020 yil 13 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining»Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2021yil 12 oktyabrda «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 638-son qarorlari ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qaroribilan tasdiqlangan “2020–2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”da alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;-alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar,metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar shuningdek tegishli kadrlar bilan ta’minlash alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minlash va boshqalar. Unda quyidagilar belgilandi:-inklyuziv ta’limning maqsadi va vazifalari alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

-o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi o‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflariga va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflardata’lim sifatini nazorat qilish va boshqarish;

-jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi nizom;-Sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi nizom;

-jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta’lim berish tartibi to‘g‘risidagi nizom.

Inklyuziv ta’lim —davlat siyosati bo‘lib, nogiron va sog‘lombolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar o‘smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir. «Inklyuziv ta‘lim» atamasi fransuzcha „inclusif“ so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, „o‘z ichiga oladi“ debtarjimaqilinadi va maxsus ehtiyojlari bo‘lgan va shartli ravishda sog‘lom, ya’ni sog‘ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta’limini anglatadi. Inklyuziv ta’limning mazmun mohiyati to‘g‘risidagi bilim va ma’lumotlar hali jamiyatda yetarli emas.Inklyuziv ta’lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta’lim tarbiya olishlarini ta’minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv ta’lim olish jarayoni bir-biriga o‘xshamaydigan, intellektual,jismoniy vaaqliy xususiyatlarga ega bo‘lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo‘lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko‘nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziv ta’lim-alohida ehtiyojli bolalar bilan sog‘lom bolalar uchun teng ta’limolish imkoniyatini yaratadi. UNICEF inklyuziv ta’limni O‘zbekiston ta’lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug‘ullanadi. Özbekistonda inklyuziv ta'limning rivojlanishi hozirda yuqori prioritetga ega bo‘lgan muhim masala sifatida ko‘zlanadi. Inklyuziv ta'limning rivojlanishi davlat tomonidan katta e'tibor va resurslar ajratilmoqda, bu jarayon o‘z navbatida Oliy va o‘rta maxsus ta'lim tizimi dasturlarini va tajribalarini yanada mustahkamlab borayotganini yo‘lga qo‘yilmoqda.

O‘zbekistonda inklyuziv ta'limning rivojlanishini rag‘batlantirish uchun, oliy va o‘rta maxsus ta'lim muassasalarida inklyuziv modellar va usullar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, pedagogik kadrlar mustahkamlanib, inklyuziv ta'limda qat'iya bilimli va mahoratli o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatishlari uchun tayyorlash dasturlari amalga oshirish ishlari ketmoqda . Davlat organlari ham inklyuziv ta’lim sohasidagi yangiliklar va yengilaydigan masalalariga diqqatni aylantirish uchun qadam harakat qilmoqda. Bu borada, ma’naviy-ma’rifiy turmushimizning hammasiga yaqin bo‘lib, har bir talaba ma’naviy-ruhiy boyliklaridan foydalanishi kafolatlangan.

Inklyuziv ta’limning rivojlanishi jarayonida belgilangan boshqa chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqta, shuningdek ilmiy-metodik tadqiqotlar va bilimlarning tarqalgan joyi hisoblanib, yanada rivojlangan modellar asosida amaliyotlar ko‘rsatilmoqda.

Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi..Ushbu qonunosti xujjatlarida imkoniyati cheklangan bolalarning ta’limi, reabilitatsiyasi, ijtimoiy munosabatlarda erkin, qulay va xavfsiz harakatlanishini ta’minlashga qaratilgan huquqiy me’yorlar belgilab qo‘yildi. Bundan tashqari qaror bilan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida kasbga o‘qitish kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi.Nogironlarni umumta’lim tizimida o‘qitish masalalariga e’tibor berish Respublikamizda 1996 yilda O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi, Respublika ta’lim markazi va YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda respublika seminari o‘tkazilishi bilan islohotlar amalga oshirila boshladi. Shu davrdanboshlab olimlar, maxsus ta’limtizimidagi rahbar xodimlari, pedagoglar, umumta’lim mussasalarining rahbarlari va nodavlat jamoa tashkilotlarining nogironlar

ПСИХОЛОГО- ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ И МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Киргизистон. Акматалиева Ч.Т. – ст. преподаватель
ОП «Лингвистика и педагогика» Кыргызско-Казахского Университета
chinara.tulen@mail.ru

Аннотация. В статье рассматриваются методы обучения детей 3–10 лет с учетом их возрастных особенностей. Основные принципы: наглядность, игровая деятельность, доступность, системность и эмоциональная вовлеченность. Особое внимание уделено игровым технологиям как эффективному способу развития познавательных и социальных навыков. Описаны практические приемы и сочетание методов для повышения мотивации и усвоения знаний.

Ключевые слова: дошкольное обучение, младшие школьники, игровые методы, развитие навыков.

Annotation. The article discusses the methods of teaching children aged 3-10 years, taking into account their age characteristics. Basic principles: visibility, play activity, accessibility, consistency, and emotional engagement. Special attention is paid to gaming technologies as an effective way of developing cognitive and social skills. Practical techniques and a combination of methods for increasing motivation and knowledge acquisition are described.

Keywords: preschool education, primary school students, game methods, skill development.

Обучение детей младшего и дошкольного возраста требует особого подхода, основанного на учете их психофизиологических особенностей. В этот период формируются ключевые когнитивные, эмоциональные и социальные навыки, поэтому методики должны быть направлены на развитие мышления, речи, моторики и творческих способностей. В дидактике существуют методические принципы и практические аспекты организации обучения в дошкольном и младшем школьном возрасте, в частности игровые технологии, которые в современной педагогической парадигме рассматриваются как эффективный механизм формирования ключевых компетенций.

Обучение детей 3–10 лет требует особого подхода, основанного на возрастных особенностях их восприятия, мышления и эмоционального развития. Рассмотрим ключевые принципы, обеспечивающие эффективность образовательного процесса:

1. Принцип наглядности в дошкольном и начальном образовании.

Теоретическое обоснование: в соответствии с возрастными когнитивными особенностями, восприятие информации у детей данной категории осуществляется преимущественно через образное мышление, что обусловливает необходимость сенсорной опоры в образовательном процессе.[1,10]

Методическая реализация:

- визуальные средства: дидактические пособия, иллюстративные материалы;
- предметная демонстрация: натуральные объекты и их муляжи;
- мультимедийные ресурсы: анимационные и видеоматериалы;
- тактильно-манипулятивные элементы: конструкторы, счётный материал.

Практический пример формирование представлений о фауне осуществляется через комплексное применение:

- изобразительных материалов: тематические карточки;
- аудиовизуальных средств: звукоподражания, видеодемонстрации;
- предметно-игровых компонентов: фигурки животных.

Данный подход обеспечивает полимодальное восприятие учебного содержания, соответствующее сензитивным периодам развития.

2. Принцип игровой деятельности.

Теоретическое обоснование: в соответствии с культурно-исторической концепцией игра выступает ведущей деятельностью, обеспечивающей когнитивное и социально-личностное развитие [2].

Методическая реализация:

- дидактические игры: формирование логических операций;
- сюжетно-ролевые игры: социализация и коммуникация;
- подвижные игры с дидактическим компонентом: сенсомоторное развитие;
- творческая игровая деятельность: креативное мышление.

Пример реализации: моделирование социально-бытовых ситуаций («Магазин») для формирования математических представлений.

3. Принцип доступности.

Теоретическое обоснование: Необходимость соответствия учебного материала зоне актуального развития с учетом сензитивных периодов [8].

Методические требования:

- градация сложности учебных задач;
- адаптация содержания к индивидуальным когнитивным особенностям;
- использование многоуровневых дидактических материалов.

Пример реализации: поэтапное освоение графомоторных навыков: от сенсорного восприятия букв к их графическому воспроизведению.

4. Принцип системности.

Теоретическое обоснование: требование последовательной организации учебного процесса в соответствии с закономерностями онтогенеза [10].

Методические подходы:

- кумулятивное построение учебных программ;
- реализация межпредметных связей;
- цикличное повторение с усложнением содержания.

Пример реализации: интегрированное изучение природных явлений через последовательность: наблюдение → художественное отображение → проектная деятельность.

5. Принцип эмоциональной вовлеченности.

Теоретическое обоснование: эмоциональная регуляция как фактор эффективности учебной деятельности [7].

Методические стратегии:

- положительное подкрепление учебных достижений;
- драматизация учебного содержания;
- использование неожиданных дидактических элементов.

Yurtimiz azaldan bebaho ma’naviy meros va qadriyatlarga boy mamlakat bo‘lgan. Faqat biz bu merosni chuqur o‘rganib hayotimizning har jabhasida foydalansak, bizga Vatanni sevish, milliy o‘zlikni anglash, yurt kelajagiga daxldorlik hissi bilan yashashga o‘rgatadi. Biz ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaxo boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi

Ma’rifatparvarlar Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilm-fan sohasidagi kashfiyotlarini, arab, fors va turkiy xalqlar adabiyoti va san’ati xazinalari (Firdavsiy, Sa’diy, Yassaviy, Bedil, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Bobur ijodi)ni chuqur o‘rganaib, o‘z ijodlarida va pedagogik g‘oyalarini yaratishda ularga tayanganlar.

Jadidlar ruslarni Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga aralashuvini to‘xtatish, jamiyat taraqqiyotini yangi yo‘nalishga solib yuborish maqsadida maorif, matbuot, din, san’at sohalarida islohotlar o‘tkazishni taklif etishdi. “Ular axloq-odob, e’tiqod, adliya, sog‘liqni saqlash sohalarini

qayta koʻrib chiqish va mukammallashtirish, xotin-qizlar ahvolini, ijtimoiy-madaniy turmushning barcha jabhalarini yaxshilash gʻoyalarini oʻrtaga tashladilar"[4-198b]. Jadidlarning dasturlarida yangicha gʻoya, yangicha tafakkurga asoslangan ma'rifatchilik harakati birinchi oʻrinda turardi.

Ular Turkiston maorifini yuksaltirish va uni millat ehtiyojiga xizmat qildirish uchun kurashdilar. Oʻlkadagi mavjud eski maktab va madrasalarni, ulardagi oʻqitish usullarini isloh qilishni talab qildilar. Jadid ziyolilari yangi usul maktablarni tashkil etishda, ularda ta'lim-tarbiya berishda ishtirok etishdi. Yangi maktablar va boshqa ta'lim muassasalari uchun darslik va qoʻllanmalar yozdilar.

Jadidlar ma'rifatparvarligining asosini yoshlarni millat va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash tashkil etadi. Jadidlar ma'rifiy va pedagogik gʻoyalari quyidagi yoʻnalishlarda ifodalangan: jadidlar ijodiyotining asl mohiyatini millat, Vatan uchun qaygʻurish, oʻtmish meros va islom ta'limotiga suyanish, ona tili sofligi uchun kurashish, insoniy majburiyat va komil shaxs tarbiyasi, oʻtmish san'ati, madaniyati va ularning goʻzalliklarini madh etish kabilar tashkil etgan. Jadidlar komil inson tarbiyasi, uning aqliy, axloqiy, ma'naviy, jismoniy barkamollikka erishuvi, millat, xalq ruhi bilan gʻururlanish kabi gʻoyalarni ilgari suradiki, bular ma'rifatparvarlar ijodiyotini oʻrganish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligini koʻrsatadi [2-62].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar bizga jadidlarning ma'rifiy va pedagogik qarashlarini chuqur oʻrganish, tahlil qilish va ulardan ta'lim tizimida, jumladan, pedagogika fanlarini oʻqitishda foydalanish zarurligini koʻrsatadi.

Jadidlar davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tadrijiy asosda tubdan isloh qilish uchun g'oyaviy va amaliy harakatlar olib bordilar. Bir so'z bilan aytganda, ular milliy uyg'onish, milliy taraqqiyot g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Afsuski, o'sha davrdagi mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum bu ulug'vor maqsadlarni amalga oshirishga yo'l bermadi.

2023 yil 11-dekabr kuni Toshkentda oʻtkazilgan *«Jadidlar: milliy oʻzlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari» mavzusidagi* Xalqaro konferensiya ishtirokchilaridan biri amerikalik mutaxassis, tarjimon Mark Riz: jadidlarning orzu-umidlari – mamlakat kelajagi buyuk boʻlishini koʻrishdan iborat edi. Jadidlar inson huquqlari, xotin-qizlar huquqi, jurnalistlar, yozuvchilar erki uchun kurashib halok boʻldi. Ularning g'oyalarini amalga oshirish endi hozirgi avlodning burchi".

Turkiyalik olim Sayfettin Ershahin xalqaro konferensiyada: "Mahmudxoʻja Behbudiyning maktablar mavzusidagi fikrlari, Abdurauf Fitrat, Choʻlponning g'oyalari yangidan tadqiq qilinishi faqat yaxshilikka xizmat qiladi deb hisoblayman va bu uchun barchani tabriklayman», — deb ta'kidladi.

Yozuvchi Javlon Jovliyev ham jadidlar faoliyatiga oʻz qarashlarini bayon etdi:

"…Jadidlardan birinchi oʻrinda nimani olish kerak, deyilsa, yurakni olish kerak, deyman. Ularda vatan ishqida yonish, vatanni sevish birinchi oʻrinda turgan. Hech qanday manfaatlarsiz sevishgan. Mana shu tuyg'ularni xalqimizga singdirolsak, barcha kasb egalari vijdonan, burch bilan ishlaydi, shunda mamlakatimiz yangilanadi, albatta".

Yuqoridagi fikrlardan koʻrininb turibdiki, jadidchilikning asosiy tamoyillari bugungi kunda ham mamlakatimizda davom etayotgan islohotlarda namoyon boʻlmoqda. Masalan, fuqarolarning oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy kadrlar salohiyatini oshirish, gender tengligiga erishish va ayollar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish kabi islohotlar jadidlarning qonunning oʻzgaruvchan salohiyatiga boʻlgan qat'iy ishonchida namoyon boʻlgan va bugungi kun islohotlari negizida turibdi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qarashning mohiyatini anglab yetish bugungi hodisalarni toʻgʻri oʻqiy olish uchun oʻz tariximizni, xususan, ma'rifatparvar jadid bobolarimiz qoldirgan ma'naviy merosni chuqur bilishimiz kerak. Biz buyuk millat sifatida dunyoda oʻz oʻrnimizga ega boʻlishni istasak, buyuk tariximiz bilan bir qatorda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz qoldirgan

ma’naviy merosni chuqur o‘rganib, ularning o‘gitlariga amal qilmog‘imiz, Vatan taraqiyoti uchun jiddu jahd qiladigan yangi avlodni tarbiyalamog‘imiz lozim.

Adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyevning **”**Jadidlar merosini o‘rganish”ga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. **2023 yil 6-mart**
2. D.A.Axatova. Pedagogika fanlarini o‘qitishda jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy-pedagogik merosidan foydalanish. Monografiya. -Navoiy: Aziz kitobxon nashriyoti, 2024.62 b.
3. Bahodir Karim. Filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karimning Kun.uz muxbiri bilan suhbatidan. https://kun.uz/04478142 17.12.2020
4. Ўзбекистон халклари тарихи: 2 жилд. - Т.: Фан, 1994. – 198 б

BOLALARDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA SPORT MUSOBAQALARINING ROLI

O‘zbekiston. Aslonova Maloxat Akramovna
NavDU Jismoniy madaniyat kafedrasi
professor v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni yanada takomillashtirish hamda jismoniy madaniyatni shakllantirish borasida sport musobaqalaridan foydalanish haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiyalanuvchi, sport musobaqalari, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, o‘yin, sport mashg’ulotlari, yillik reja, sog’lomlashtirish.

Аннотация. В статье представлена информация об использовании спортивных соревнований для дальнейшего совершенствования физических качеств и формирования физической культуры у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: Дети, спортивные соревнования, физическая культура, физическое воспитание, игры, спортивная тренировка, годовой план, укрепление здоровья.

Abstract. This article provides information on the use of sports competitions to further improve physical qualities and form physical culture in preschool children.

Keywords: Child, sports competitions, physical culture, physical education, games, sports training, annual plan, health improvement.

Mamlakatimizda bugungi kunga kelib ta’lim - tarbiya sohasi bilan birgalikda sport sohasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-oktabrdagi 864-sonli qaroriga muvofiq “O‘quvchi va talaba yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan respublika sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirish” to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Unga ko‘ra yoshlarda sportga bo‘lgan havas va intilishni, jamiyatda sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, yosh iqtidorli sportchilarni tanlab olish, ularda professional mahorat va ko‘nikmalarni rivojlantirish, sport turlari bo‘yicha mamlakat terma jamoalariga sport zaxirasini tayyorlash, yoshlar va talabalarni sport mashg‘ulotlariga uzluksiz jalb etishga qaratilgan sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirishni to‘liq qamrab olgan.[1]

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, oilada jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari ularni sog‘lom va baquvvat qilib o‘stirish, ular organizmini chiniqtirish, ta’lim va tarbiyani to‘g‘ri tashkil etishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog‘lomlashtirish vazifalari - bu jismoniy tarbiyaning eng asosiy vazifasi bo‘lib, bola hayotini muhofaza qilish, uning sog‘lig‘ini mustahkamlash, organizmini chiniqtirish yo‘li bilan o‘zini himoya qilish va turli kasalliklarga chidamlilik hislatlarini oshirishdan iborat. Bolajonlarda jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishni asosan sport musobaqalari va bayramlari orqali shakllantiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlardagi bolalarning hayotini o‘yinlar ayniqsa qiziqarli sport musobaqalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, ushbu o‘yinlar ba'zi bolalarda zukkolik, boshqalarda -

tasavvur va ijodkorlik rivojlanadi, lekin ularni umumiy vazifa birlashtiradi ya’ni bolaning harakatga bo‘lgan ehtiyojini va hayotni hissiy idrok etishni tarbiyalash. Harakatlanayotganda, bola dunyoni va o‘zini o‘rganadi, keyinchalik maqsadli harakat qilishni boshlaydi. Sport bayramlarini o‘tkazish, ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil qilishda bolalarning yosh guruhlarga alohida e’tibor bergan holda tashkillashtiriladi. Sport muhitini yaratish hamda sport bayramlariga kerakli vositalar bilan to‘g’ri jihozlash muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazishning bolajonlarda bolalarni uyda va jismoniy madaniyat jamoalaridagi doimiy jismoniy mashg‘ulotlarga jalb etishga yordam beradi, bolalarning jismoniy tayyorgarligini oshiradi.

Musobaqalar maktabgacha ta’lim tashkilotida sog‘lomlashtirish tadbirlarining boshqa turlari qatori, bog‘chaning umumiy yillik ish rejasiga kiritiladi. O‘quv yilining boshida musobaqalarni o‘tkazish muddati, qoidalari va dasturlari aniq belgilab olinadi. Bu muddatlarni hisobga olgan holda musobaqalarga oldindan tayyorgarlik ko‘riladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida sog‘lomlashtirish tadbirlari bo‘yicha har bir sanalarga bag‘ishlab sport sog‘lomlashtirish tadbirlari tuziladi.

Tarbiyalanuvchilarda milliy madaniyatni shakllantirish maqsadida Navro‘z umumxalq bayramiga bag‘ishlab quyidagi sport musobaqalar o‘tkaziladi:

1.Katta guruhlar o‘rtasida quvnoq startlar musobaqasini o‘tkazish;

2. Harakatli o‘yinlar bo‘yicha bog‘cha birinchiligini o‘tkazish;

3. Kichik guruhlar o‘rtasida milliy harakatli o‘yinlarni o‘tkazish;

4. Katta guruhlar o‘rtasida “Sog‘lomjonpolvonjon” musobaqasini o‘tkazish;

5. Katta guruhlar o‘rtasida arqon tortish musobaqasi;

6. Katta guruhlar o‘rtasida milliy harakatli o‘yin o‘tkazish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida eng avvalo ichki musobaqalarni yillik rejasi ishlab chiqish kerak. Musobaqalar o‘tkazish uchun bog‘cha mudirining buyrug‘i bo‘lishi shart. Masalan: katta guruhlar o‘rtasida “Sog‘lomjon polvonjon” musobaqasi o‘tkazilishi haqida musobaqani tartibli, intizomli o‘tkazish uchun musobaqa tadbiri ishlab chiqiladi hamda musobaqa Nizomi tayyorlanadi. [4] Misol tariqasida katta guruhlar o‘rtasida “Sog‘lomjon polvonjon” musobaqasini o‘tkazish ketma – ketligi:

- musobaqaning maqsad va vazifalari;
- musobaqani o‘tkazish joyi va vaqti;
- musobaqani o‘tkazishga rahbarlik qilish;
- musobaqa qatnashchilarning soni;
- musobaqa o‘tkazish komandasi;
- g’oliblarni aniqlash;
- rag’batlantirish;
- talabnoma berish vaqti

Sayrda tashkil etiladigan jismoniy mashqlar va harakatli o‘yinlar mavjud bo‘lib maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy harakat faoliyati, shuningdek, jismoniy mashqlar sifatida tarbiyachi tomonidan kunning turli vaqtida, har bir yosh guruhi kun tartibiga muvofiq: ertalab, tushda va kechki sayr paytida rejalashtiriladi. Maydonchaga har kuni o‘yinchoqlar, kichikroq jismoniy tarbiya ashyolari (tayoqchalar, chambaraklar, to‘plar va h.k.) olib chiqiladi. Ikki, uch g‘ildirakli velosipedlar, motorollerlar, g‘ildirakli konkilar, samokatlar, avtomobillar, toychalar bolalar ixtiyoriga beriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari bilan jismoniy tarbiya ko‘nikmalarini shakllantirish, sport musobaqalari, bayramlarni o‘tkazish bolalarning nafaqat ta’lim - tarbiya jarayonlariga balki sog’lom baquvvat bo‘lib yetishishlariga ham ijobiy yordam beradi.

Foydalanilgan adabiytolar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.10.2018 yildagi 864-sonli qarori

2. S.O. Mirzayeva, N.M. Boyjonova “Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi” Ученый XXI века • 2022 • № 3 (84) 48-49

3. B.X. Xamroyev “Bolalarda jismoniy madaniyatni shakllantirishda sport musobaqalarining roli” «Экономика и социум» №7(98) 2022 145-147

4. R.A. Kuzibayev “Sog‘lomlashtirish - jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etish” moduli

5.lex.uz.

6.ziyo.uz.

RESPUBLIKAMIZ VA XORIJIY MAMLAKATLARDA INKLYUZIV TA’LIM RIVOJLANISHINING TARIXIY VA IJTIMOIY SHAROITLARI

O‘zbekiston. Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: xaydarovashaxlo@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamiz va xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishini tarixiy ildizlari va ijtimoiy sharoitlari xususida hamda inklyuziv ta’lim tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati, inklyuziv ta’limni yuksaltirish masalalari, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha vazifalar mohiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, nogiron, imkoniyati cheklangan bola, inklyuziv yondashuv, infratuzilma, maxsus pedagog, logoped, psixolog, ijtimoiy moslashuv, integratsiya, korreksiyalash, kompensatsiyalash.

Аннотация: В статье рассматриваются исторические корни и социальные условия развития инклюзивного образования в нашей республике и зарубежных странах, а также суть задач реформ в системе инклюзивного образования и их значение, вопросы совершенствования инклюзивного образования, повышения качества образовательных услуг, предоставляемых детям с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, инвалид, ребенок с ограниченными возможностями, инклюзивный подход, инфраструктура, педагог-дефектолог, логопед, психолог, социальная адаптация, интеграция, коррекция, компенсация.

Abstract: This article discusses the historical roots and social conditions of the development of inclusive education in our republic and foreign countries, as well as the essence of the tasks of reforms in the inclusive education system and their significance, issues of improving inclusive education, and improving the quality of educational services provided to children with special educational needs.

Keywords: inclusive education, disabled, child with disabilities, inclusive approach, infrastructure, special educator, speech therapist, psychologist, social adaptation, integration, correction, compensation.

Inklyuziv ta’lim butun dunyoda keng tarqalgan yondashuv bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda amalga oshirilmoqda. Uning asosiy maqsadi barcha bolalarga, shu jumladan nogironligi yoki alohida ehtiyojlari bo‘lgan shaxslarga ta’lim olishda teng imkoniyatlar yaratishdir.

Inklyuziv ta’lim – bu bolalarga nisbatan har qanday kamsitishlarni istisno qiluvchi, barcha bolalarga teng munosabatni ta’minlaydigan, ammo maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun alohida shart-sharoit yaratilishini talab etadi. Inklyuziv ta’lim hamma bolalarning bir xil guruh, bir xil maktab va bir xil sinfxonada, bir xil sharoitda ta’lim olishini anglatadi, ya’ni imkoniyati cheklangan bolalar sog‘lom bolalar bilan bir xil e’tiborda o‘qiy olishi lozim.

Keyingi yillarda respublikamizda ham inklyuziv ta’limni rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda hamda inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha ijobiy qadamlar tashlanmoqda. Respublikada turli tashabbuslar va ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni qo‘llashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda hamda bir qator ta’lim muassasalarida alohida ehtiyojli bolalar uchun individual yondashuvlar qo‘llanilib, ular uchun maxsus o‘quv dasturlari ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida inklyuziv ta’limni joriy etish uchun zarur infratuzilmani yaratish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimining muhim masalalaridan biri – inklyuziv ta’limni rivojlantirishdan iborat. Bu borada eng avvalo, ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi ham muhim o‘ringa ega bo‘lib, ularni o‘rganish hamda ulardan samarali foydalanish juda muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda jahondagi juda ko‘plab mamlakatlarda inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish va rivojlantirish borasida katta amaliy tajribalar mavjud. Jahon tajribasi inklyuziv ta’limni amalga oshirishda turli yondashuv va usullar qo‘llanilishini ko‘rsatmoqda.

Finlyandiya ta’lim tizimi inklyuziv yondashuvga asoslangan bo‘lib, o‘qituvchilar va boshqa mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligida inklyuziv ta’lim asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida kiritilgan. Maktablar va oliy ta’lim muassasalarida pedagoglar inklyuziv metodikalarni qo‘llashga o‘qitiladi. Finlyandiyada har bir o‘quvchi yoki xodimning ehtiyojlari inobatga olinib, ular uchun individual rivojlanish dasturlari ishlab chiqiladi. Finlyandiyada barcha o‘quvchilar, jumladan, nogironligi bor bolalar ham umumiy sinflarda ta’lim oladi. Har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos keladigan shaxsiy rivojlanish dasturi ishlab chiqiladi. Ta’lim jarayonida maxsus pedagoglar, logopedlar va psixologlar faoliyat yuritib, qo‘shimcha ko‘mak ko‘rsatadi. Nogironligi bor o‘quvchilar uchun maxsus moslashtirilgan uslub va texnologiyalar qo‘llaniladi. Finlyandiyada pedagoglarning inklyuziv ta’lim bo‘yicha malaka oshirishi majburiydir. Ular inklyuziv metodikalardan foydalanish, maxsus pedagogik yondashuvlarni qo‘llash bo‘yicha chuqur tayyorgarlikdan o‘tadi. Finlyandiya tajribasi ko‘rsatganidek, inklyuziv ta’lim orqali har bir bola o‘z qobiliyatini to‘liq namoyon qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Germaniyada inklyuziv ta’limni rivojlantirishda maxsus kurslar va treninglar muhim o‘rin tutadi. Kasbiy ta’lim va malaka oshirish kurslari doirasida barcha mutaxassislar inklyuziv yondashuvga oid bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart. Bundan tashqari, inklyuziv ish joylarini yaratish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Nogironligi bor shaxslarning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish uchun maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda. Germaniyada pedagoglar inklyuziv ta’lim bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tadi. Ular inklyuziv metodikalar, maxsus didaktik yondashuvlar va ijtimoiy moslashuv usullari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirishadi.

Buyuk Britaniyada mutaxassislar inklyuziv yondashuv bo‘yicha maxsus sertifikatlash dasturlaridan o‘tadi. Bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, inklyuziv ta’lim va mehnat bozorida inklyuziv tamoyillarni keng joriy etish uchun davlat tomonidan grantlar ajratiladi. Pedagoglarni inklyuziv ta’limga tayyorlash bo‘yicha maxsus kurslar mavjud. O‘qituvchilar nogironligi bor o‘quvchilar bilan ishlash, ularning o‘quv jarayoniga moslashishiga yordam berish va zamonaviy inklyuziv texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha o‘qitiladi

Kanadada ham inklyuziv ta’limga alohida e’tibor beriladi. Bu mamlakatning ta’lim tizimi nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun maxsus resurslar va o‘qituvchilarni ta’minlaydi, shuningdek, o‘quvchilarning turli ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda individual o‘quv rejalarini ishlab chiqish amaliyoti mavjud.

Yaponiya va Janubiy Koreya kabi Osiyo mamlakatlari ham inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ilgarilab bormoqda. Bu mamlakatlarda o‘qituvchilar nogironligi yoki alohida ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni integratsiya qilish va ularning ijtimoiy hamda akademik muvaffaqiyatlarini ta’minlash uchun maxsus yondashuvlarni qo‘llaydilar.

Janubiy Afrikada inklyuziv ta’limga e’tibor 1990-yillardan keyin kuchaydi va ta’lim tizimida barcha o‘quvchilarning teng huquqliligini ta’minlashga qaratilgan qonunlar va siyosatlar qabul qilindi.

Italiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar alohida ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga to‘liq integratsiyalab, maxsus korreksion maktablarning yopilishiga erishdilar. Biroq, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimi sharoitiga qabul qilgan davlatlar jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash va kompensatsiyalashga yo‘naltrilgan qo‘shimcha ta'lim xizmatlarini ko‘rsatish mas'uliyatidan ozod etilmaydi.

Shuningdek, MDH mamlakatlarida ham, xususan **Rossiya, Belarus, Litva, Latviya, Ozarbayjon, Qozog‘iston** kabi davlatlarda hamda **AQSh, Xitoy, Hindiston, Avstriya, Daniya** kabi bir qator mamlakatlarda ham inklyuziv ta'limni tashkil qilish va rivojlantirishda o‘ziga xos tajribalar shakllangan va ulardan ayrimlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Avstriyada 1945-yildan boshlab nogiron bolalarni differensial o‘qitish tizimi tashkil etilgan bo‘lib, bu ta'lim tizimida barcha turdagi nuqsonli bolalar o‘qitila boshlandi. Ammo, 1980-yilga kelib maxsus ehtiyojli bolalarning ota-onalari demokratiya huquqlari uchun kurashib, farzandlarini umumta'lim muassasalarida o‘qitilishini talab qildilar. Natijada, 1983-yilga kelib Avstriya Ta'lim vazirligi inklyuziv ta'lim tizimining modelini tuzish yuzasidan tajriba loyihasi to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu ta'lim modeli to‘rtta turga ajratilib, inklyuziv sinflar, hamkorlik qiluvchi sinflar, kichik komplektli maxsus sinflar hamda yordamchi o‘qituvchilar joriy qilingan oddiy sinflar tarzida shakllandi. Inklyuziv sinflarda umumta'lim maktablariga bittadan to‘rttagacha maxsus ehtiyojli o‘quvchilar qabul qilinadi. Bitta maxsus ehtiyojli o‘quvchi ikkita sog‘lom boladek hisoblanib, sinfdagi bolalarning umumiy soni qisqartiriladi. Sinfda ikkita o‘qituvchi ishlab, ulardan biri maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lib, bolalar bilan haftasiga 4 soatdan 6 soatgacha korreksion mashg‘ulotlar olib boradi. Maxsus ehtiyojli bolalar individual dasturlar asosida o‘qitiladi. Hamkorlik qiluvchi sinflar – ixtisoslashtirilgan va umumta'lim maktablarining sinf o‘qituvchilari tomonidan belgilangan hamkorlikni amalga oshiradilar. Kichik komplektli maxsus sinflarda 6-11 ta maxsus ehtiyojli o‘quvchini jamlagan holda maxsus o‘quv reja va dasturlar asosida o‘qitiladi. Oddiy sinflarda esa 4 ta va undan ko‘p maxsus ehtiyojli o‘quvchilar jamlanadi hamda maxsus tashxis qilish va korreksion metodikalarni qo‘llay oladigan o‘qituvchi lavozimi joriy etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamalakatlardagi imkoniyati cheklangan bolalar, inklyuziv ta'limning tajribalar tahlili, maxsus ehtiyojli bolalarga umumta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berish tizimi va mazmuni jahon miqiyosida e'tirof etilganligi, xalqaro me'yoriy hujjatlar mustahkam huquqiy asosini tashkil etganligini asosladi. Jahon miqiyosida ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta'limni tashkil etish borasida kelajakda alohida yordamga muhtoj bolalarning imkoniyatlari yanada kengayashi, ularni ijtimoiy jamiyatning to‘laqonli va tenghuquqli a'zosiga aylanishi, hamda hamjamiyat orasida imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan do‘stona munosabat shakllanishini ko‘rsatdi.

Dunyo mamlakatlari o‘ziga xos muammolar va sharoitlar bilan yuzma-yuz kelayotgan bo‘lsa-da, inklyuziv ta'limga erishish yo‘lidagi umumiy maqsad birlashtiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, imkoniyati cheklangan har bir bola o‘zini qadrlangan va muvaffaqiyatga erishishga tayyorlangan his qilishi uchun ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari birgalikda harakat qilishlari lozim. Shunday ekan, barcha ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishga bo‘lgan intilish qat'iy bo‘lishi kerak. Bu intilish ilmiy tadqiqotlar natijalari, jamoatchilik ishtiroki va ta'lim sohasidagi mutaxassislarning fidokorona sa'yi-harakatlari bilan mustahkamlanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Shomahmudova, A.Berdiyeva. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limda o‘qitish uslublari (uslubiy qo‘llanma). Toshkent – 2018-yil. 2. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika (darslik). Chirchiq – 2022-yil.

3. Hardy, I., & Woodcock, S. (2015). Inclusive education policies: Discourses of difference, diversity and deficit. International Journal of Inclusive Education, 19(2), 141-164.

4. Inclusive Education and Training for Professionals. London.- UK Department for Education (2022).

5. Ture Yonsson. Inklyuziv ta’lim (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). YuNESKO xalqaro tashkiloti «Opereyshen Mersi» Xalqaro Tashkiloti, Respublika ta’lim markazi. Toshkent, 2003.

6. Ibraimov Xolboy Ibragimovich, Khaydarova Shakhlo Narzullaevna, “Organizational pedagogical principles of education of pre-school children in the inclusive education system”. Science and innovation international scientific journal VOLUME 2 ISSUE 11 NOVEMBER 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ. https://doi.org/10.5281/zenodo.10143278.

O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORIDA HARAKATLI O‘YINLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA

O‘zbekiston. N.Tursunova
Navoiy davlat universiteti dotsent
Sevara Tirkasheva
O‘zbek tili va adabiyoti ta`lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar folklorida kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining uyg‘unlashuvidan yuzaga kelgan o‘yinlar, qo‘shiqlar haqida ma'lumotlar berib o‘tiladi. Shuningdek, kattalar bolalarni erkalash maboynida yaratilgan xalqona erkalamalar, ovutmachoqlar, quvlamachoqlar kabi aytimlarni poetikasi xususida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Erkalama, ovutmachoq, aytimlar, janri, maishiy qo‘shiqlar, masxaralamalar, o‘yin folklori, ma‘naviy o‘yinlar.

Аннотация: В данной статье представлена информация об играх и песнях в детском фольклоре, возникших в результате интеграции мира маленьких детей и мира взрослых. Также анализируется поэтика народных ласкательных, утешительных и догоняющих песенок, созданных взрослыми во время ласки детей.

Ключевые слова: Ласкательное слово, утешительная песенка, песенки, жанр, бытовые песни, насмешки, игровой фольклор, духовные игры.

Annotation: This article provides information about games and songs in children's folklore that arise from the integration of the world of young children and the adult world. It also analyzes the poetics of folk endearments, consolations, and chasing rhymes created by adults while caressing children.

Keywords: Endearment, consolation, rhymes, genre, everyday songs, mockery songs, game folklore, spiritual games.

Xalq og‘zaki ijodining umuminsoniy mohiyati, badiiy tafakkur tarixidagi o‘ziga xosliklar, badiiy asar mavzusi va poetik g‘oyasi, poetik tafakkurga xos belgilari bilan ham ahamiyatli. O‘zbek bolalar folklori xalq og‘zaki ijodi namunalari sinkretik san'at sifatida xalq hayotida muhim o‘rin tutishini, unda o‘zbek xalqining asrlar davomidagi ijtimoiy, maishiy, madaniy hayoti o‘zining badiiy ifodasini topganini, xalqning o‘z vatani uchun iftixor tuyg‘usi aynan og‘zaki ijod zaminida tashkil etishi ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Bolalar qo‘shiqlari atamasini ham keng ma’noda tushunmoq kerak. Birinchi o‘rinda kattalar tomonidan bolalarga atab aytiladigan qo‘shiqlar: Alla va huyalar. «Huya» bu O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida otalarning bolalarni erkalatish uchun aytgan qo‘shiqlaridir. Alladan farqli tomoni uni faqat erkaklar ijro etadi. Huya aytish an’anasi bugungi kungacha yaxshi saqlanib kelinayapti. Ikkinchisi esa bolalarning o‘zi tomonidan kuylanalidigan qo‘shiqlar. «Boychechak», «Chittigul», «Oq terakmi ko‘k terak», chorlamalar shular jumlasidandir.[36]

Bolalar og‘zaki ijodining kelib chiqishi asosan kattalar hayotiga taqliddan boshlangan bolalarga injiqlik va xarxasha qilganlarida ovutmachoqlarda foydalanadilar. Aytim olqishlarning janriy tabiati, erkalama va ovutmachoqlar janri, maishiy qo‘shiqlar-to‘rtlik va aytishuvlar, bolalar

[36]Z.Masharipova. O‘zbek folklori, O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2008. 114-bet.

hajviy lirikasida masxaralamalarning namunalari, harakatli o‘yinlar, ma'naviy o‘yinlarni birma-bir ko‘rib tahlil etamiz.

Bolalarning og‘zaki ijod folklorida asosan bosh rolda ona va bolalar katta rol o‘ynaydi deb aytilgan shu kabi xususiyatlarni bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. G.S.Vinogrodov, N.P.Andreev, V.I.Chicherov va S.G.Lazutinlar ona va bolalar o‘rtasidagi aytimlar turli yoshdagi bolalarni kuylash yordamida yoki aytimlar yordamida tarbiyalash maqsadi ko‘zlanganligini qayt etib o‘tadi. Jahon folklorshunosligida bolalar ijodkorlaridan P.Aikin, E.V.Pomeranseva, V.A.Vasilenko va M.N.Melnikovlar kabi olimlar esa katta bolalarga atab to‘qilgan aytimlarni,olqishlarni, ovutmachoqlarni, qiziqmachoqlar va qaytarmachoqlarini bolalar folklori tarkibiga kirishi va ularni tahlil qilinishini ilmiy jihatdan o‘rgangan bu olimlar.

Bolalar folklorida erkalama aytimlar bolalarning turli yosh davrlariga bog'liqdir ya'ni bola katta bo‘lgan sayin ular o‘rtasidagi aytimlar ham o‘zgaraveradi. Masalan bola ilk bor beshikka belangan paytda aytiladigan aytimlar, bola birinchi marta oyoq qo‘yib yura boshlaganida ya'ni toy-toylaganidagi aytimlarning ham turli variantlari mavjud.

Bolaning ma'lum bir davriga moslab har davrga alohida-alohida aytimlar ham bor. Bu aytimlar ba'zi joylarda ijtimoiylashuvlar natijasida so‘nayotganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Ba'zi joylarda esa bu aytimlarga nisbatan yoshlar bilan bir qatorda katta yoshdagilar ham qiziqib kelmoqda. Bunga misol qilib esa erkalamalarning xalq o‘z farzandlariga beqiyos mehri tovlanib, jo‘shib aytgan aytimlar ham bor.

O...shugina, shugina,
Munchagina, tunchagina,
Kunchagina, shunchagina,
Yashnab turgan g‘unchagina.[37]

Erkalamalarning 2-3 yashar bolalarga atab aytiladigan aytimlar ham bor bu aytimlar shu yoshdagi bolalarni osmonga otib ko‘targanda, bolaning vazni yengilligini ifodalab aytilgan aytmlardan biridir.

Ha, do‘rsa-do‘rsa, do‘rsa,
Otasi bozorga borsa,
Go‘sht-u guruch keltirsa ,
Onasi pazanda bo‘lsa,
Bolasi xo‘randa bo‘lsa...[38]

Bolalarni asosan yetti yoshgacha erkalamalar bilan erkalatsalar keyinchalik ya'ni 11-13 yoshga to‘lganda esa ularni erkalashdan ko‘ra hatti-harakatlariga qarab maqtash, ma‘qullash va unga minnatdorlik izhoridan iborat iboralarni ko‘proq ayta boshlash ma'qul ko‘riladi. Bolalarga atab quyoshga, oyga, kamalakka, yulduzlarga, shamolga, yomg'irga va shu kabi tabiat aytimlari yoshi va davridan kelib chiqib aytilgan aytimlar ham bor.

Yomg'ir - yog‘aloq,
Yam - yashil o‘loq.
Endi ekinlar chiqarar quloq,
Yashnasin dala.
Ochilsin lola,
Tog'lar qo‘ynidagi shalola.
Oftob...
Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga.

[37] M.Jo‘rayev “Oy oldida bir yulduz.7-bet.
[38] O. Safarov.O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent 2010. “Musiqa” nashriyoti 340 – bet

Xola-xola kulcha ber,
Xolam dedi o‘tin ter.
Keyin yugurdim qirga,
O‘rtog'im bilan birga.
O‘tin terdik bir quchoq,
Bilmadik sira charchoq. [39]
Holam yopdi kulcha non.

Bolalar folklorida yana bir o‘yin aytimlar ham bor. Bularga misol qilib keltiradigan bo‘lsam: “Chovir-chaman”, ”Laylak-keldi”, ,” Happak”, “O‘rtaga-tushar”, ”Yashinmachoq”, “Besh tos” kabi o‘yinlar bor va bularning har biri uchun alohida aytimlar bordir.

Ro‘za, Feruza,
Daniya, Darvoza.
Yonida gulsafsar o‘sadi,
Uni kim uzsa,
Qamoqqa tushadi.
Bir, ikki, uch, tut,
Tut, tut, tut.

Bu aytim:” Haklamachoq” ayrim joylarda “Sakramachoq” tarzida aytiladi bu o‘yinni asosan qiz bolalar ko‘p o‘ynashadi.

Ani-bani ,
Ko‘rdim sani.
Kecha ko‘rgan,
Do‘sting qani.

Bu aytim esa bolalar,,Yashinmachoq» o‘yinini o‘ynaganida foydalanadi. Bu o‘yinda guruh sardori bo‘ladi va u sanaydi ko‘rsatkich barmog‘i bilan hammani sanaydi va aytim tugaganida qo‘li kimga tikkan bo‘lsa o‘sha bola o‘yindan chiqadi va o‘yin oxirida kim qolsa o‘sha bola qopadi ya'ni qolgan bolalar bu bola sanoqni tugatganicha yashingan bo‘ladi u esa o‘shalarni topadi. Bolalar o‘rtasida ya‘na bir aytimlardan biri bu “Chin do‘stlikni bilaylik» deya nomlanadi. Bu o‘yin do‘stligini sinash uchun aytiladigan aytimdir.

Do‘stmisan? dushmanmisan?
Yoki qarindoshmisan?
Kel o‘ngacha sanaylik,
Do‘stligimiz sinaylik.

Keyin esa ikki do‘st o‘ngacha sanab o‘ng qo‘lini chap yelkasining yuqorisida pastga qarab silaydi. Chap qo‘lini o‘ng yelkasiga quyib pastga qarata silaydi. Sanoq tugaganda esa qo‘llar ajralmasdan qolsa chin do‘st bo‘ladi agar qo‘llar ajralgan holda bo‘lib qolgan holda esa chin do‘st emas deb qaraladi. Bolalar yoshiga to‘layvergani sayin ular o‘rtasida maxsarama va laqab aytimlarga talab kuchayaveradi. Bunga dalil qilib o‘zbek bolalarining og‘zaki ijodidagi qofiyadosh laqablar va tegishmachoqlar, masxaralamalarning ko‘pligi buning yorqin dalilidir.

Masalan: Laqab-tegishmachoqlar:

Sofiya safon,
Boshida chopon.
To‘yga borar,
Bedasturxon.

Yana bir aytimlardan biri:

[39] O. Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent 2010. “Musiqa” nashriyoti 342 – 343 – betlar.

Ra'no-Ra‘no rapichka,
Oyog‘ida tapichka.
Tapichkasi uzildi,
Ra‘noxonim suzildi.
Uyaltiruvchi tegishmachoqlar:
Xadicha xolam o‘tirdi, Asalga non botirdi.
Yana mushuk kelganda, Mushti bilan qotirdi.[40]

O‘zbek bolalar folklorida chorlamalar ham muhim ahamiyatga egadir. Chorlamalarda esa asosan hayqirib aytiladi. O‘yin ikki qarama-qarshi taraflar o‘rtasida aytishuvlar bilan tashkil etiladi. Buni biz hammaga tanish bo‘lgan, Oq terakmi, ko‘k terak» o‘yinlarini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘yinda ikki bola til biriktirib olib o‘zlariga laqab yoki yashirin nom qo‘yishadi va o‘yinni sirliligini uning o‘yin boshisi tomonidan ta‘minlanadi.
“Oq terakmi ko‘k terak”
Oq terakmi ko‘k terak,
Bizdan sizga kim kerak.
Ayrim joylarda esa “Matti matti” tarzidagi aytimlar aytiladi.
-Matti,Matti,
Kimni navbati?
-Mening navbatim!
-Toji tilla xo‘rozni olasanmi?
Yo chala mulla tovuqnimi?
Toji tilla xo‘rozni,
Men tojji tilla xo‘roz!
-O‘t men tomonga![41]

Shu kabi aytimlar cheklamalarni savol va javob tarzida hal qilib, harakat va aytimlar uyg‘unligi bolalar yoshiga mos bo‘lib, estetik zavq bag‘ ishlaydi. Chandishlar o‘zbek bolalar folklorida katta ahamiyatga egadir. Bunda hushyorlikka chaqirish, sezgirligini oshirish maqsadida laqqillatib aytgan aytimlar. Bu aytimlar bolalardan hozirjavoblikni talab etadi. M.N.Melnikovning ta‘kidlashicha bilmas ya'ni hushyor bo‘lmagan bolaning ustidan boshqa tengqurlari quvonib kulishidan hosil bo‘lishini aytgan. Bular asosan dialog shaklida bo‘ladi.Bunga misol qilib:
To‘qqiz karra to‘qqiz
Sakson bir.
-Sen kampir,
-Iching to‘la qalampir.
Yana:-Moshin degin,
-Moshin.
-Otang keldi yashin!
Yana:-Ikki karra ikki nechchi?
-To‘rt.
-Kelin bo‘lib turga o‘t!
Shu kabi aytimlarni xalq orasida juda ko‘p guvohi bo‘lishimiz mumkin

Xulosa qiladigan aytganda, o‘zbek bolalar folklorida xilma-xil jarayonidagi aytim qo‘shiqlar hali hanuzgacha saqlanib kelinganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu aytimlarni bundan keyingi avlodlarga ham aytib bergan holda meros qilib o‘z qadriyatlarimizni o‘rgatmog‘imiz lozim va darkordir. Bu aytimlarning har birining bolalar folklorida katta ahamiyatga ega ekanligini

[40] O. Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent 2010. “Musiqa” nashriyoti 347 – bet
[41]O. Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent 2010. “Musiqa” nashriyoti 350 – bet

unutmasligimiz kerakdir. Aytimlarning qaysi biri shovqin solib aytilsa, qay birini jo‘r tarzda, raqsga tushib, yakkaxon aytadigan, yana qay birini esa yurib, yugurib sakrab yoki hakkalab chopgancha kuylash kabi aytimlarni bolalarga ko‘tarinki ruh berganini ko‘rish mumkin.

Aynan, shunday aytimlar bolalar folklorini boyitishiga ham ularning psixologik xususiyatlarini ularning salohiyatini oshirganini, voqelikka munosabatini, tasavvur darajasini so‘z va harakat uyg‘nligida poetik vazifa o‘taganligini belgilaydi.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

O‘zbekiston. Suyarov Xurshid Baxriddinovich
Navoiy davlat universiteti
Jismoniy madaniyat dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishning pedagogik asoslari hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofizilogik xususiyatlari masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, ma’naviyat, demokratik davlat, aqliy tarbiya, intellektual, umuminsoniy qadriyatlar, gimnastika, takomillashtirish.

Аннотация: В статье анализируются педагогические основы организации занятий по физическому воспитанию в дошкольных образовательных организациях и психофизиологические особенности детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: физическое воспитание, духовность, демократическое государство, умственное воспитание, интеллектуал, общечеловеческие ценности, гимнастика, совершенствование.

Abstract: This article analyzes the pedagogical foundations of organizing physical education classes in preschool educational organizations and the issues of psychophysiological characteristics of preschool children.

Keywords: physical education, spirituality, democratic state, mental education, intellectual, universal human values, gymnastics, improvement.

Respublikamizda yosh avlodning jismoniy va ma’naviy sog‘lomligini mustahkamlash, farzandlarimizning sog‘lom turmush tarzini ta’minlash, ularda sportga muhabbat tuyg‘ularini kuchaytirish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bolalar sportining rivoji kelajak avlodning ham jismonan, ham psixologik sog‘lom tarbiyalanishning garovidir. Bu esa farzandlarimizning kelajakda har qanday zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bilimlarni o‘zlashtirishda qarshiliklarga uchramasligini ta’minlaydi. Chunki biz insoniyat tarixida unutilmas burilish pallasi ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiy etgan XXI asrda yashamoqdamiz, qolaversa, yurtimizda huquqiy-demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatni barpo etish jarayoni kechmoqda. Dunyo hamjamiyati bilan turli yo‘nalishlarda hamkorlik qilish oldimizda turgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy masalalarni hal etish hamda jamiyatimizni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan takomillashtirish orqali xalqimiz faravonligini ta’minlash, fuqarolarimizning, oila va avlodning har tomonlama barkamol (ham jismonan, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom), dono, ilg‘or fikrli va zakovatli bo‘lishiga intilmoqdamiz. Shu o‘rinda yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini yaratishda jismoniy tarbiya va sportni yuksakligini ta’kidlash joizdir.

Jismoniy tarbiya maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyaning tarkibiy qismlaridan – asosiysi hisoblanadi. U bolalarni jismoniy jihatdan kamol topishga, sog‘lig‘ini mustahkamlashga, ijtimoiy foydali mehnatga, hayotga, Vatan himoyasiga eng yaxshi tarzda tayyorlashni ta’minlashga qaratilgandir.

O‘zbekistonda yosh avlodni baquvvat, aqliy va ruhiy jihatdan barkamol inson qilib tarbiyalash muhim masala hisoblanadi. Yosh avlodni bolalik chog‘idan boshlab jismoniy jihatdan sog‘lom, ularda jismoniy va ma’naviy kuchlarni uyg‘un ravishda rivojlantirishni ta’minlash muhim vazifalardan biridir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan bolalar jismoniy tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

-Bolalar sog‘ligini mustahkalash va chiniqtirish, to‘g‘ri jismoniy rivojlanish va organizmning ish qobiliyatini oshirishga ko‘maklashish;

-Harakat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish, harakatning yangi turlarini o‘rganish va ular bilan bog‘liq bilimlarni berish;

-Asosiy harakat- xislatlari (kuchlilik, tezlik, chaqqonlik, bardamlik va shu singari)ni rivojlantirish;

-Gigiyenik malakalarni singdirish, jismoniy mashg‘ulotlar va chiniqish gigiyenasi sohasidagi bilimlardan xabardor qilish;

-Iroda, dadillik, matonat, intizom, jamoatchilik, do‘stlik va o‘rtoqlik tuyg‘ulari, madaniy xulq – atvor ko‘nikmalari, mehnatga va ijtimoiy mulkka munosabat tuyg‘ularini tinglash;

-Muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish odatini shakllantirish va bu mashg‘ulotlarga barqaror qiziqish paydo qilish;

-Tashkilotchilik malakalarini singdirish, jamoatchilik, jismoniy tarbiya faolligini oshirish.

Jismoniy tarbiya – sog‘likni mustahkamlashga, odam organizmini uyg‘un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiy tarbiyaning uzviy qismi. Jamiyatdagi jismoniy madaniyat ahvolini bildiruvchi ko‘rsatkichlardan biridir. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari: jismoniy mashg‘ulotlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi. Jismoniy tarbiya aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo‘shib olib boriladi. Jismoniy tarbiya maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni harakatga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish va ularni sog‘lom turmush tarzi bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya nazariyasi esa ilk va maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning quyidagi psixofizilogik xususiyatlarini o‘z ichiga oladi: organizmning ish qobiliyati imkoniyatlari, yuzaga keluvchi qiziqish va ehtiyojlari, ko‘rgazmali obraz va mantiqiy tafakkur formalari, ustun turuvchi faoliyat turining o‘ziga xosligi, bu faoliyat rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda bola pisixikasida muhim o‘zgarishlar kechadi va “bolaning yangi oliy rivojlanish bosqichiga o‘tishi”ga tayyorlanadi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bolalarni jismoniy mashqlarga muntazam o‘rgatishning asosiy shaklidir. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining ahamiyati harakatlar madaniyatini mujassam shakllanishi, sog‘lomlashtirish, ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarni muntazam amalga oshirishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoniy, aqliy va ma’naviy jihatdan rivojlantirishdan, ularning tug‘ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalari mavjud:

1. Sog‘lomlashtirish.
2. Ta’limiy.
3. Tarbiyaviy.
4. Hayotni saqlash va sog‘liqni mustahkamlash.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bolalarni jismoniy mashqlarga uyushqoqlik bilan tizimli suratda o‘rgatishning asosiy formasi hisoblanadi. Maktabagacha ta’lim yoshidagi bolalarga jismoniy mashqlar bajarish ham o‘rgatib boriladi. Jismoniy mashqlar so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, jismoniy mashqlar bu kishining jismoniy taraqqiyot darajasini oshirish uchun tanlangan harakatlar hisoblanadi. Muntazam va izchil bajariladigan jismoniy mashqlar jismoniy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Jismoniy mashqlar barcha harakat organlarining faoliyatini yaxshilaydi va mehnat qobiliyatini oshiradi. Jismoniy mashqlarning bir qancha turlari ham mavjud. Misol uchun jismoniy mashqlarga gimnastikani ham olishimiz mumkin. Gimnastika bu kishi organizmiga har tomonlama ta’sir etadigan uning asosiy fiziologik jarayonlarini kuchaytiradigan, gormonik rivojlanishiga yordam beradigan maxsus tanlangan mashqlar tizimidir. Gimnastika mashqlari tufayli hayotiy zarur harakat ko‘nikmalari, harakatlarning go‘zalligi va aniqligi shakllanadi, asosiy jismoniy sifatlar-chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik rivojlanadi. Gimnastika ilk bolalik chog‘idan qo‘llaniladi va kishi hayotining barcha yosh davrida davom etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy mashqlari

orqali irodaviy sifatlari ham shakllanib boradi. Bizga ma’lumki, har bir shaxsning irodaviy sifatlari mavjuddir, shu qatorda bolalarda ham. Irodaviy sifat bu kishining irodasi o‘z sifatlari, ya’ni kuchi, idroki, diqqati, tasavvuri, takakkuri, xotirasi hamda axloqiyligida ham namoyon bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda irodaviy sifatlari ularning harakatlarida ham namoyon bo‘ladi. Misol uchun o‘yin bolalar irodasini o‘stiruvchi asosiy omillardan biridir. Chunki bolalar o‘yin jarayonida doimiy harakatda bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalardagi irodaviy harakatlarni rivojlantirish maqsadida ularni o‘z-o‘ziga xizmat qilish, guruhda navbatchilik qilish, tabiat burchaklarida mehnat qilish kabi turlarga jalb qilish zarur. Bunda faqat mehnat topshiriqlari berish bilangina cheklanib qolmay, balki bolalarning bu topshiriqlarni qanday bajarayotganliklarini ham sistemali ravishda tekshirib, nazorat qilib turish ham lozim. Bu orqali bolalarda bir qator irodaviy sifatlar, ya’ni qat’iylik, mustaqillik, tashabbuskorlik, dadilliylik kabi sifatlar tarkib topa boshlaydi. Bolalardagi bu irodaviy sifatlarini jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari jarayonlarida ham kuzatsak bo‘ladi. Chunki bu davrda ham bolalar juda harakatchan holatda bo‘ladilar. Mana shu jarayon orqali ham bolalardagi o‘zgarishlarni, mashg‘ulotga bo‘lgan munosabatlarini, qiziqishlarini hamda mashg‘ulotga nisbatan o‘zida kechayotgan emotsiyalarini tarbiyachi kuzata olishi kerak bo‘ladi. Jismoniy mashqlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy madaniyati ham shakllanib boradi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yana bir ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi.

Xulosa qilganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, oilada jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari ularni sog‘lom va baquvvat qilib o‘stirish hamda organizmini chiniqtirish, ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri tashkil etishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.X.Tadjiyeva, S.I.Xusanxodjayeva. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – T: “Iqtisod- Moliya”, 2017.
2. N.N.Djamilova. Bolalar jismoniy tarbiyasi. –T: «Innovatsiya-Ziyo», 2021.\ 3. www. Ziyonet.uz
3. A.Q.Atoyev. Bolalarni chaqqon, epchil va baquvvat qilib tarbiyalash. Toshkent – 1981 y. 49.

IQTISODIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA DINIY QARASHLARNING O‘RNI VA ROLI

O‘zbekiston. Azimova Musharraf Utkirovna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqola iqtisodiy fikrlashni shakllantirishda diniy qarashlarning o‘rni va roli haqida fikr yuritilgan bo‘lib, ma’naviyat va moddiylikni murakkab tarzdagi o‘zaro birligi, atrof-muhitni asrab-avaylash, xudo bergan ne’matlardan oqilona foydalanish, iqtisodiy bilimnng shakllanishi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kapitalizm, Qur’oni karim, mas’uliyat, ma’naviyat, moddiylik, iqtisodiy bilim, inson, madaniyat, diniy qarash.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и роль религиозных взглядов в формировании экономического мышления, излагается комплексное взаимодействие духовности и материализма, сохранение окружающей среды, рациональное использование благ, дарованных Богом, формирование экономических знаний.

Ключевые слова: Капитализм, Коран, ответственность, духовность, материализм, экономические знания, человек, культура, религиозные взгляды.

Annotation: This article examines the role and importance of religious views in shaping economic thinking, outlines the complex interaction of spirituality and materialism, environmental conservation, the rational use of God-given benefits, and the formation of economic knowledge.

Keywords: Capitalism, Quran, responsibility, spirituality, materialism, economic knowledge, man, culture, religious views.

Har qanday inson u tug‘ilgan xalqning madaniyat udumlari, ona tili, diniy qarashlari va boshqalar tarkib topgan muxitda o‘sib voyaga yetadi, kamol topadi, dunyoqarashi shakllanadi. Ma’lumki, faylasuflar, psixologlar fikricha insonga ikkiyoqlamalik xos.

Insondagi ikkiyoqlamalik, eng avvalo, ma’naviyat va moddiylikni murakkab tarzdagi o‘zaro birligi va uning bir-biriga o‘zaro ta’siridan kelib chiqadi.

Insondagi moddiylik va ma’naviylikning uyg‘unligi uning tabiatidan, turmush kechirish tarzidan kelib chiqadi. Tabiatan inson yaratuvchi, xayrli, g‘amxo‘rlik qiluvchi qilib yaratilgan. Shu bilan birga unda salbiy xislatlar mavjudki, shuning uchun ham xalqimizda “Beayb parvardigor” degan naql bor.

Insondagi moddiylik va ma’naviylikning murakkab tarzdagi birligi uning butun hayoti davomida, uning barcha bosqichlarida namoyon bo‘ladi. Faylasuflar har bir inson «potensial jinoyatchi» deyishsa, diniy qarashlarda «insonning bir yelkasida raxmon, ikkinchi yelkasida shayton o‘tiradi. Raxmon to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatsa, shayton egri yo‘lga undaydi» deyiladi.

Xalq pedagogikasi, qolaversa, pedagogika fani insonni salbiy tomonlarini to‘g‘rilash, ular haqida ogohlantirishga qaratilgan.

Diniy qarashlar, aqidalar ham aynan insondagi moddiylik va ma’naviylikning murakkab birligi tufayli salbiy xislatlarni mavjudligi uni iloji boricha jilovlashga qaratilgan. Diniy aqidalarda insonning yaxshi tomonlarini, fazilatlarini kamol toptirish, salbiy xislatlardan qochish da’vat qilingan.

Barcha diniy kitoblarda insonlarni, atrof-muhitni asrab-avaylashga, xudo bergan ne’matlardan oqilona foydalanishga da’vat qilingan. Insonning tafakkuri, jumladan, iqtisodiy tafakkur avvalo oila, so‘ngra jamiyatda yaratilgan muhitda shakllanadi. Jamiyatdagi mavjud din va diniy qarashlar, albatta, iqtisodiy bilim va ana shu bilimnng tamal toshi iqtisodiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynagan.

Insonning iqtisodiy faoliyatida faqat iqtisodiy omillargina emas, ma’naviy omillar ham yetakchi o‘rin tutadi.

Iqtisodiyot va ma’naviyat o‘rtasidagi aloqadorlik serqirra va murakkab bo‘lib, iqtisodiyot ma’naviyat rivoji uchun moddiy shart-sharoit yaratadi. Ayni paytda iqtisodiy taraqqiyot zarurati ma’naviyatni o‘zgartirishni taqozo etadi. Masalan, ongni, tafakkurni yuksaltirmay turib, yangi texnologiyalar yaratish, mehnat qurollarini takomillashtirish, mehnat jarayonini oqilona tashkil etish, fan va texnikaviy ijodkorlikni rivojlantirish mumkin emas. Tabiiyki, ma’naviyatning yuksalishi ilmiy-texnikaviy kashfiyotlarning kuchayishi aholi bilim va malakasini ortishi, iqtisodiy tafakkurning o‘zgarishi ham iqtisodiyotga ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi. Bu - iqtisodiyot va ma’naviyatning mushtarak jihatlari. Yana bir umumiy tomon: iqtisodiyot ham, ma’naviyat ham inson hayotini har jihatdan to‘kis qilishga qaratilgan. Shu bilan birga ular o‘rtasida azaliy ziddiyatlar ham bor. Bu ziddiyat asosida insonda mujassamlashgan moddiylik va ma’naviylikning murakkab birligi yotadi. Bu haqiqat unutilgan taqdirda iqtisodiyotdan maqsad faqat mahsulotni ko‘paytirish, sarmoyani aylantirib, mumay daromad olish bo‘lib qoladi. Bunday vaziyatda butun jamiyat ertayu-kech nafsi yo‘lida yelib-yuguradi, pul-mablag‘i, boyligini ko‘paytirish yo‘lida nimalarni qilmaydi, ma’naviyat esa shu bosh maqsadga erishish borasidagi vositalardan biriga aylanadi. Aksincha bo‘lsa, nafsni tiyish, an’anaviylik ruhidagi mehnat va turmush sharoitida moddiy rag‘bat birinchi o‘rinda turmaydi va u samarali iqtisodiy omilga ham aylanmaydi. Bunday vaziyatda ishlab chiqarish, iqtisodiyot rivojlanmay qoladi. Ko‘pga cho‘zilgan turg‘unlik esa ertami-kechmi inqirozga sabab bo‘ladi. Demak, jamiyat taraqqiyoti uchun iqtisod bilan ma’naviyat o‘rtasida oqilona muvozanatga erishish zarur.

Ma’naviy va iqtisodiy munosabatlar o‘rtasida oqilona muvozanatni, eng ma’qul yo‘lni topish borasida g‘apb ilm-fanida bir-biriga zid bo‘lgan ikki xil qarash mavjud bo‘lib, birinchisi marksistik nuqtai nazar, ikkinchisi - atoqli nemis mutafakkiri Maks Veber isbotlab bergan va mashhur fransuz sotsiologi E.Dyurkgeym rivojlantirgan ta’limot. Birinchi nuqtai nazarda ko‘proq foydaga, boylikni ko‘paytirishga intilish mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilinishini kuchaytirishga olib kelishini asoslashga qaratilgan.

Maks Veber esa jamiyat hayotida, jumladan, mehnatga munosabat jarayonida ma’naviyatning o‘rni beqiyos ekani protestantlik axloqining zamonaviy shakli G‘arbiy Yevropaga xos taraqqiyotning vujudga kelishi va rivoji asosida tushuntiradi. G‘arbda kapitalizmni vujudga kelishida protestantlik oqimini roli kattaligini asoslab beradi.

U «Protestantlik etikasi va kapitalizm ruhi» asarida protestantlikning, ayniqsa, puritan mazhabining axloqiy meyorlari, xususan, halol mehnat qilib, g‘ayrat-shijoat ko‘rsatib, shaxsiy hayotni, ijtimoiy turmushni yaxshilashga intilish lozim, degan da’vati hamda ijtimoiy hayotni, turmush tarzini, jumladan, ishlab chiqarishni ham muttasil ratsionallashtirishga qaratilgan aqidalari kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari, burjua qadriyatlari shakllanishiga zo‘r turtki bo‘lganini e’tirof etadi.

Ma’lumki, nasroniylikdagi boshqa diniy oqimlar, boshqa dinlar: islom, buddaviylik ham kamtar-kamsuqumlikni, qanoatni, nafs va xirsni jilovlashni targ‘ib etib kelgan. Bunday targ‘ib turg‘unlikka yetaklaydi. Inson doimo o‘z mehnatini yengillashtirishga, turmush sharoitini yaxshilashga intiladigan qilib yaratilgan. Bu o‘z navbatida shu paytda odamlarni hayot tarzi qonun-qoidalarini belgilovchi aqidalarda ham o‘zgarish bo‘lishini zarur qilib qo‘yadi. Bu o‘zgarish insondagi o‘z-o‘zidan qoniqish tuyg‘usi o‘rniga, o‘z-o‘zidan qoniqmay, g‘ayratga berilish hissini o‘yg‘otishi lozim edi. Ana shu o‘zgarishni hayotga protestantlik diniy oqimi olib kirdi. Protestantlik boshqa dinlar suyangan ezgu g‘oyalarni rad etmay, aksincha, ularni targ‘ib etdi, lekin bu jarayonda shaxsiy manfaatlarni oshkora namoyon etish ishtiyoqi va individualizmni chegaralab qo‘ymadi, aksincha, ularni mehnat va g‘ayratga yo‘naltirib, rag‘batlantirdi.

Maks Veber halol mehnat, g‘ayrat-shijoat, tadbirkorlik protestantlikda diniy jasorat, «dunyoviy ibodat» maqomiga ko‘tarilgan, deya o‘qtiradi. Bu o‘rinda u protestantlikning zamonaviy kapitalistik xo‘jalik faoliyati shakllanishiga emas, balki “kapitalistik ruh” shakllanishiga ta’sirini ko‘rsatib beradi.

Protestantlik kapitalizm ruhiga, iqtisodiy raqobatta, tovar-pul va mehnat munosabatlariga juda mos bo‘lgani bois uning g‘oyalari yetib borgan va xalq dilidan joy olgan o‘lkalarda kapitalizm tez rivojlandi. Masalan, xatolik oqimi hukmronlik qilgan Ispaniya, Portugaliya, Polsha singari mamlakatlarda, Lotin Amerikasi qit’asida yoki pravoslavlik keng yoyilgan Yunoniston, Yugoslaviya, Ruminiya, Rossiya, Bolgariya, Belorus, Ukraina, Moldova kabi mamlakatlarda taraqqiyot sur’ati protestantlik chuqur ildiz otgan AQSH, Kanada, Angliya, Germaniya, Fransiya, Shveysariya, Daniya, Gollandiya, Belgiya, Shvetsiya kabi mamlakatlardagi rivojlanish darajasiga nisbatan sustroq ekani ayon.

To‘g‘ri, mehnatni barcha dinlar ham ulug‘laydi. Jumladan, islom dini ham peshona teri bilan rizq-nasiba topish, bola-chaqa o‘stirishni musulmon bandaning bosh shiori deb biladi. Lekin boshqa dinlardan farqli o‘laroq, protestantlik e’tiqod - quruq ibodatda emas, aqlning amaliy faoliyati, ya’ni mehnatda, deya ta’lim berdi. Kimda-kim mehnat qilib, samarasini ko‘rsa, bu - xudo uni yorlaqaganidan dalolat. Shu bois protestantlik mazxabidagi odam uchun mehnatdan keladigan natija asosiy maqsad hisoblanadi.

Yevropada oliy tabaqaga mansub odamlar past tabaqa vakillari shug‘ullanadigan ishlardan hazar qilar, qora xalq zodagonlarga xos kasblar haqida orzu ham qilolmas edi. Protestantlik bunday adolatsizlikka barham berdi. Lyuterning bu boradagi qarashlarini Veber mana bunday ifodalagan edi: «Dunyoviy majburiyatlarni bajarish har qanday sharoitda ham xudoga ma’qul bo‘lishning birdan-bir vositasidir, aynan mana shu faqat, shu narsa ilohiy iroda ko‘rsatmasidir va shu bois ruhsat etilgan kasblarning barchasi xudo oldida tengdir» ***42***.

Protestantlik mehnatga aynan ana shunday munosabat vositasida feodalizm bag‘rida yetilib kelayotgan kapitalistik munosabatlar sari, yangi tuzim sari yo‘l ochadi. Binobarin, protestantlikni qaror toptirgan reformatsiyachilik diniy islohotlar harakatigina emas, yangi iqtisodiy tuzim, yangicha iqtisodiy qarashlar uchun kurash harakati ham edi.

Ayni paytda protestantlikdagi puritaniy mazhablar talablari va ilk kapitalizm davridagi zarurat o‘zaro mos kelib qolganini ham e’tirof etish lozim. Ilk kapitalizm protestantlik timsolida o‘ziga

[42] Макс Вебер. “Избранные произведения”. Москва. “Прогресс”, 1990, стр. 98.

g‘oyaviy-mafkuraviy tayanch topdi. Protestantlik esa ilk kapitalizm orqali moddiy-ijtimoiy asoslarini kengaytirdi va pirovardida jamiyatda mustahkam mavqega ega bo‘ldi.

Agarda ma’naviyat va iqtisodiyotning o‘zaro ta’sirini funksional yondashuv asosida tahlil etsak, ular ancha murakkab rang-barang, ayni paytda har birining yuksalishida o‘zaro mutanosiblik beqiyos ahamiyat kasb etishini ko‘ramiz. Masalan, mehnat axloq bilan uyg‘unlashmasa, Iqtisodiy munosabatlar jarayonida ma’naviyat masalalari, xususan, insonparvarlik meyorlari yetarlicha hisobga olinmasa, texnokratik qarashlar ustunlik qilib ketadi, oqibat-natijada ishlab chiqarish hajmi ortgani bilan, insoniy munosabatlar zavolga yuz tutadi, jamiyatda o‘zaro begonalashish tamoyili kuchayadi. Bu hol pirovardida ijtimoiy-iqtisodiy inqirozga sabab bo‘ladi.

O‘roqchi mehnati unumdorligini oshirishi uchun ish haqi miqdori biroz kamaytirilsachi, degan savol ham tug‘ilishi tabiiy. Kapitalizmning rivojlanish jarayonida mehnat samaradorligini oshirish uchun ko‘pdan-ko‘p iqtisodiy choralar, jumladan, ish haqi miqdorini biroz kamaytirish tajribasi ham sinab ko‘rilgan. Lekin u ham ko‘ngildagidek samara bermagan, xalqning noroziliklarga *sabab* bo‘lgan.

Veberning fikricha, insonda yuksak mas’uliyat tuyg‘usi bilan birga, mehnatni yagona maqsad, yagona najot deb biluvchi tafakkur ham shakllanishi zarur. «Mehnatga bunday munosabat esa inson tabiatining xossasi emas, - deya e’tirof etadi Veber, bunday fazilat ado etilgan ishga ko‘p yoki oz hak, to‘lash natijasida emas, balki anchagina davom etadigan tarbiya jarayoni hosilasi sifatida vujudga keladi».

Darhaqiqat, protestantlikka mansub oilada tarbiya topgan kishining qulog‘iga go‘dakligidanoq mehnat - yaratganning o‘zi senga ato etgan iqtidor va zimmanga yuklangan birdan-bir vazifa, shuning uchun unutma, qancha yaxshi va halol ishlasang, parvardigor egamga shuncha ma’qul bo‘lasan, degan fikr singdirilgan. Protestantlik muhitida tarbiya topgan, mehnatni xudo tomonidan yuklatilgan majburiyat va xalos bo‘lish omili deb, tanlagan kasbini esa yaratgan ato etgan iqtidor va ko‘ngliga solgan da’vat deb biladigan kishi jismida ish unumdorligini kun sayin oshirib borish doimiy ma’naviy ehtiyojga aylanib ketadi. U moddiy jihatdan rag‘batlantirib borilsa, bora-bora g‘oyatda ulkan natijalarga erishishi shubhasiz.

Sharqda mafkura asrlar davomida iqtisodiy o‘zgarishlar zaruratini inkor qilib kelgan, bu hol ayniqsa, Xitoy va Hindistonda ko‘p davom etgan. IX-XII asrlarda islom mamlakatlarida tovar-pul munosabatlari, savdo-sotiq rivoji, ijtimoiy safarbarlik, yangiliklarga intilish kuchli bo‘lgani va jamiyatda haddan ziyod avj olib ketgan ijtimoiy-sinfiy zo‘ravonlik hamda mutelik kayfiyatining yo‘qligi, yollanma mehnatning birmuncha rivojlangani ilk kapitalistik munosabatlar shakllanishi uchun obyektiv iqtisodiy shart-sharoit yaratgan edi. Lekin turli (jumladan, iqtisodiy, siyosiy, diniy-mafkuraviy) sabablarga ko‘ra, oilaviy mehnat taqsimotiga asoslangan, mustaqil, ratsional mazmundagi ishlab chiqarish korxonasi va kapitalning ilk jamg‘arilishi, ilk kapitalistik bozor infratuzilmasi (moliya-kredit, bank tizimi kabilar) vujudga kelmadi. Chunki jamiyatning mafkurasi, ma’naviyati obyektiv iqtisodiy zaruratni inkor etdi, unga erkinlik bermaslik uchun ochiq-oshkora kurashdi.

Ma’lumki, Bahouddin Naqshband hazratlari ham mehnat va bunyodkorlikka chaqirishga o‘xshash g‘oya - «Dil ba yoru dast ba kor» da’vatini olg‘a surgan. Lekin bu aqida, ayrim obyektiv sabablarga ko‘ra, yangicha axloq, va mehnatga munosabatni shakllantira olmagan. Chunki u, birinchidan, mistik tariqatchilik asosida aytilgan, ikkinchidan, o‘sha paytda hali diniy mutaassiblik kuchli bo‘lgan, uchinchidan va eng asosiysi - u zamonda kapital, sarmoya, iqtisodiy resurslar bir joyga to‘planmagan, binobarin, mazkur da’vatni keng miqyosli faoliyatta aylantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy zarurat, shart-sharoit yetilmagan edi. Qolaversa, protestantlikni keng yoyish va amalga oshirish borasidagi say-harakatlar bir zum ham to‘xtab qolmagan. Protestantlikni qaror toptirish davri tarixda «Tiklanish - Reformatsiya davri» deb ataladi. U yuz yil davom etgan kurashlar, olishuvlar va hatto urushlar natijasida amalga oshirilgan. Niderlandiya va Angliyada yuz bergan inqilob esa uni yanada mustahkamlagan.

To‘g‘ri, Naqshbandiylikni ham davom ettiruvchilar bo‘lgan. Lekin ular bu ta’limotni asosan g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan boyitib borgan. Biroq ushbu ta’limot asosida hayotni tub- dan

o‘zgartirishga bel bog‘lagan islohotchilar bo‘lmagan. Xullas, Naqshband da’vati mehnatda va bunyodkorlikda namoyon bo‘luvchi amaliy e’tiqodga aylanmagan.

Protestantlik xalqning ijtimoiy ahvolini mehnat orqali o‘zgartirishga monelik qilmadi, aksincha, bunday irodani rag‘batlantirdi. Boshqa dinlar va oqimlar hukmron ijtimoiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirishga jur’at etolmadi, nari borsa, insonni takomillashtirishga undadi, xolos.

Bizning xalqimizning iqtisodiy bilim, iqtisodiy tafakkurini shakllanishida, rivojlanishida muqaddas kitob Qur’oni karim hamda Hadisi shariflar nihoyatda katta o‘rin egallaydi. Qur’oni karimda ne’matlarni asrab avaylab ishlatish xaqida shunday deyiladi: «Yenglar, ichinglar, lekin isrof qilmanglar, chunki Alloh isrofgarlarni yaxshi ko‘rmaydi» isrofchilik gunoh sanalgan. «Hadisi sharif»da «Iqtisod bilan ishlagan kishilar faqir bo‘lmaslar» deb, unga quyidagicha izoh berilgan: «Kirimga qarab chiqimni tuta bilmagan kishi bor davlatini bitirib, oxiri xo‘rlikka tushgan holda, kirimga qarab chiqimni tuta bilgan boy bo‘lmasada o‘zini faqirlikdan saqlay oladi».

Shunday qilib, insonlarni tarbiyalashda, jumladan, iqtisodiy jihatdan tarbiyalashda din, Ayniqsa, eramizning boshlaridan katta o‘rin tutgan. Diniy qoidalar keyinchalik huquqiy normalarda aks etgan, hokimiyat ularga tayangan. Kur’oni karimda va uni asosida vujudga kelgan huquqiy normalar, qonunda har bir kishi uchun nima mumkin, nima mumkin emasligi ko‘rsatilgan. Ular asosida aholi tarbiyalangan, faoliyati boshqarilgan.

Qur’oni karim, hadislar va shariat ko‘rsatmalari inson ma’naviy-ma’rifiy kamolotining asosi bo‘lgan axloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini o‘z ichiga olgan. Shu jumladan, hadislar iqtisodiy tarbiyaga oid bo‘lgan fikrlarshshg mukammal to‘plamidir.

Islomda, Ayniqsa, xarom va halol masalasiga katta e’tibor beriladi. Qur’oni karimda shunday deyilgan: «Ey odamlar yerdagi halol, pok narsalarni yenglar» («Bazara» surasi, 168-oyat). Bu bir tomondan iste’mol qilinadigan mahsulotning tarkibi, iste’mol uchun yarokliligi yoki yaroqsizligi haqida gap ketsa, ikkinchi tomondan halol mehnat qilmay, ya’ni o‘g‘irlik, muttahamlik, pora olish, aldov evaziga topilgan daromadlar ham harom hisoblangan. Farzandlarni chin inson qilib tarbiyalashning asosi ularga halol luqma yedirishdan boshlanishi ta’kidlangan.

Qur’oni karim va hadisi sharifda ilgari surilgan muhim g‘oyalardan biri iste’mol meyori, iste’mol chegarasi va iste’mol madaniyati masalasidir. Ularda Alloh-Taolo bandalariga dunyodagi barcha noz-ne’matlarni yeyish uchun, to‘q farovon yashashlari uchun in’om etgan. «Bandalarim yenglar, ichinglar, isrof qilmanglar, ortiqcha yeyish makruxdir» deb farz qilingan. Bu g‘oya chuqur ma’noga ega, islom dinidagi asosiy qarashlarni ifodalab, hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Shunday qilib, iqtisodiy tarbiyani dastlab bola oila doirasida ko‘pincha diniy tarbiya orqali olgan.

Muqaddas «Kur’oni karim» va hadislar ham odamlarni insofli bo‘lishga birovlarning haqqiga xiyonat qilmaslikka, halol mol topishga, nafs yo‘lida berilmaslikka chaqiradi. Iymon-e’tiqodini unutib, o‘tkinchi dunyo lazzatlariga mahliyo bo‘lib, insoniylikka shak keltirishni qattiq qoralaydi.

Tijoratning barcha qonun-qoidalari shartlari «Kur’on» va «hadis»larga shariat va tariqat, ma’rifat va haqiqat ta’limotlariga asoslangan holda tuzilgan. Masalan, «Hadislarda» bir yurtdan ikkinchi yurtga keltirilib sotiladigan mollardan qoladigan sof daromadning 10% dan oshiqchasi makruh-harom hisoblangan.

Tadbirkorlik, ayniqsa, savdo-sotiq bilan shug‘ullanishi asosida ko‘proq foyda ko‘rish yuksak ma’naviyat qoidalariga mos keladimi? Ularning ma’naviy-axloqiy darajasi qanday bo‘lishi kerak? Bu savollar bugun paydo bo‘lgani yo‘q, ular moziydan beri bor bo‘lib, tarixda ma’naviy axloqiy qarashlar rivojining bosh yo‘nalishlaridan biri - foyda olish masalasiga boylik to‘plovchi va foyda ko‘ruvchi kishilarga nasbatan muayyan darajadagi salbiy munosabatda namoyon bo‘ladi. Foyda ko‘rish bilan bog‘liq faoliyatga ko‘proq shaxsiy manfaatni qondirish yo‘li sifatida qarash odatga aylangan. Foyda ortidan quvilmaydigan, undan g‘ururlanishga yo‘l qo‘yilmaydigan ma’naviylik eng oliy axloqdir, deb hisoblangan qarash asrlardan buyon axloqiy ta’limotlarning muhim tarbiyaviy qismi bo‘lib kelgan.

Yevropadagi bu boradagi burilish o‘tgan asrning boshlaridan kapitalistik munosabatlar, bozor iqtisodiyoti takomillashgan davrda yuz berdi. Jamiyatda tovar-pul munosabatlarining kuchayishi

bilan bu boradagi qadriyatlar tadbirkorlik tomon burildi. Ayniqsa, XIX asrda yirik tadbirkorlikni rivojlanishi asr oxirlariga kelib, ularni jamiyat muammolarini yechishda bevosita tashabbus ko‘rsatib, o‘zi olgan foydaning ma’lum bir qismini jamiyat uchun sarflash, turli hayriya fondlarini tashkil etilishi bunday burilishga asos bo‘ldi. Ular o‘z mablag‘i evaziga maktab, kasalxona, turli fan va madaniyat, ma’naviyat, sog‘liqni saqlash va boshqalarga homiylik qilish ularni ko‘rish keng ravishda avj oldi.

Albatta, halollik va to‘g‘rilik hamma tadbirkorlar uchun qoida bo‘lgani yo‘q. Lekin umumjamiyat miqyosida tadbirkorlikda insof va diyonat tan olinadigan, jamiyat muammolarini yechishda hamkorlik alomatlari bo‘lgan ishbilarmonlik va tadbirkorlikni foydasi e’tirof etila boshlandi.

Musulmon axloqida ham bu boradagi an’nalarning tarixi uzoqqa borib taqaladi Muhammad alayhissalom savdogarchilikni Alloh sevgan to‘rt kasbning biri sifatida e’tirof etilishi, foydani Alloh bergan rizq ekanligi, uni mo‘min-musulmonlar, yetim-yesirlar bilan bo‘lishish, bir qismini zakot berish, fitr sifatida ulashishni sharqona axloqning bosh mezonlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

Yirik yer egalari, boylarning ariq qazish, kasalxona, kutubxona, hamom bozor, karvansaroy, madrasa, sardoba, boshqalarni qurish va boshqa xizmatlari to‘g‘risida misollar juda ko‘p. Hozirga kelib, bu masala yanada dolzarb bo‘lib, o‘ziga xos o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi.

Ayniqsa, ekologik jihatdan toza mahsulot ishlab chiqarish, atrof muhit muhofazasiga rioya qilish, shartnomalarda kelishilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish kabilarni mas’uliyati, ahamiyati yanada ortdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Ekonomicheskaya teoriya / Pod red. akad. Vidyapina V.D. akad. Juravlevoy

2. Xo‘jaev N., Hasanboev J. Iqtisodiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2002.

3. Toxtaxunova D. Osnovi narodnoy pedagogiki v ekonomicheskom vospitanii. -T.: 2001.

4. To‘xliyev N. va boshqalar. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari. T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2006.

5.O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Moliya-Iqtisod” 2014.

6. Boboqulov S. Iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish asoslari. Noiqtisodiy yo‘nalishdagi kasb-hunar kollejlari uchun metodik qo‘llanma. T.: -2003. - 4 b.

7. Inomov I. Iqtisodiy tarbiya nazariyasi. -T.: TDIU, 2006,- 158 b.

O‘QUVCHILARNING TABIATSHUNOSLIK FANIGA OID BILIMLARINI GEMIFIKATSIYA METODI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Shodiyev Hamza Ro‘ziqulovich
Navoiy davlat universiteti
Doktarantura bo‘limi boshlig‘i
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qudratova Dilbar Eshimovna
“Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning Tabiatshunoslik faniga oid bilimlarini gemifikatsiya metodi orqali rivojlantirishga oid olimlarning ishlari tahlil etilgan. Shuningdek boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining Tabiatshunoslik faniga oid bilimlarini gemifikatsiya metodi orqali rivojlantirishning usullari xusisida fikr yuritilgan. An’anaviy usullar, shuningdek, ularning turli ta’lim sharoitlarida samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Maqola zamonaviy dunyoda sifatli va moslashuvchan ta’limni ta’minlash uchun turli xil metod va vositalardan foydalanish muhimligini ta’kidlash uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf o‘quvchi, tabiatshunoslik, bilimlarini rivojlantirish, tabiiy fanlar, metod, o‘qitish texnologiyalari, gemifikatsiya, ta’lim usullarining samaradorligi

Аннотация: В статье анализируется работа ученых по формированию у учащихся знаний по естественным наукам с помощью метода геймификации. В исследовании также

рассматривались способы развития знаний учащихся начальной школы по естествознанию с помощью метода геймификации. Рассматриваются традиционные методы, а также их эффективность в различных образовательных условиях. Цель статьи — подчеркнуть важность использования разнообразных методов и инструментов для обеспечения качественного и гибкого образования в современном мире.

Ключевые слова: ученик начальной школы, естествознание, развитие знаний, естественные науки, метод, технологии обучения, геймификация, эффективность методов обучения.

Abstract: This article analyzes the work of scientists on the development of students' knowledge of Natural Science through the gamification method. It also discusses the methods of developing primary school students' knowledge of Natural Science through the gamification method. Traditional methods are considered, as well as their effectiveness in various educational settings. The article is intended to emphasize the importance of using various methods and tools to ensure high-quality and flexible education in the modern world.

Keywords: primary school student, natural science, knowledge development, natural sciences, method, teaching technologies, gamification, effectiveness of educational methods

Kirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ajayib hodisalarni o‘rganish, ularni sodir bo‘lishi, sayyoramiz va unda yashaydigan hayvonlar va o‘zimliklar haqidagi ma’lumotlarni, moddalar, ularning qayerlarda ishlatilishi, ular bilan qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishi va barcha qiziqarli savollarga javob topishda “Tabiatshunoslik” fani o‘rni va ahamiyatini yoritadi. O‘quvchilar bilimlarini rivojlantirishda gemifikatsiyaning ta'lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini yoritadi. Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida gemifikatsiya nafaqat o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, balki ularning bilim darajasini oshirish, motivatsiyani kuchaytirish va o‘quv jarayonini yanada qiziqarli qilish vositasi sifatida ham qo‘llaniladi. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida gemifikatsiyadan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Maqsad. Gemifikatsiyaning ta’lim jarayoniga ta’sir darajasini o‘rganish, nazariy asoslarni tadqiq qilish va uni samarali qo‘llash usullarini aniqlashdir. Shuningdek, gemifikatsiya elementlari va ta’lim muhitidagi o‘yin mexanikasining o‘quvchilar motivatsiyasiga, bilimni o‘zlashtirishga va o‘quv jarayonidagi faollikka bo‘lgan ta’sirini tahlil qilish orqali, bu texnologiyani ta’lim tizimida qo‘llash imkoniyatlarini baholash maqsad qilingan.

Adabiyotlar tahlili. Rivojlangan mamlakatlar - AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabilarda ta’lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalarining rivoji zamirida ta’lim iste’molchilari tomonidan elektron xizmatdan foydalanish orqali bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish va kompetensiyalarni rivojlantirish shakllariga bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda hamda bu yo‘nalishda keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilmoqda[3,4,5,6].

XXI asr axborot-kommunikatsiya asrida ma’lumotlar hajmining keskin ko‘payishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda o‘quv materialini idrok qilish barobarida uzatilayotgan axborotning sifatiga ham alohida talablar quymoqda. Shu jihatdan olganda, boshlang‘ich sinf “Tabiatshunoslik” fani o‘qituvchisi tomonidan o‘quv axborotini o‘zlashtirish texnologiyalarini takomillashtirish alohida e’tibor talab qilinayotgan masalalar sirasiga kiradi.

Zamonaviy dunyoda raqamlashtirish inson hayotining barcha sohalarini qamrab olar ekan, axborot jamiyatini shakllantirish jarayonida o‘zbek ta’lim tizimi sohasida ham tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. [2].

2020 yilning 24-sentyabrida Prezidentimiz tomonidan Oliy Majlis Senatida mamlakatimiz o‘qituvchilariga qaratib aytilgan tabrik nutqida mamlakatimiz uchinchi Rennesansni boshidan kechirayotganligi to‘g‘risida fikr bildirildi. Rennesans- ―madaniyatda, ilm-fanda, san’atda, ta’lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi‖[1]. Mamlakatimizda bugungi kunda raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan jarayon aynan uchinchi Rennesans asosiga qurilayotganligini bildiradi.

Shuning uchun mazkur maqola sahifalarida biz raqamli texnologiyalar sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga “Tabiatshunoslik” fanida geymifikatsiya yordamida darslarni samarali tashkil etish xususida fikr bildirmoqchimiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Gemifikatsiya metodi hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma‘lumotlarni hosil qila olishdir. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi yoshlarning egallagan bilimlari va soda, aniq, ko‘p vaqt talab etmasdan, o‘quvchilarning o‘z fikr-mulohazalarini erkin bayon etishlari, olgan bilimlarining qay darajada tushunganligi, erkin ijodiy fikr yuritishlari uchun ta’lim jarayonlarini takomillashtirish, darslarda o‘quvchilarning haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta‘lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Gemifikatsiyaning o‘yin mexanikasidan foydalanish orqali o‘quvchilarni jalb qilish va ta’lim jarayonini interaktiv qilishdagi roli tahlil qilinadi. O‘yin elementlari orqali bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish tajribalari va tadqiqotlari muhokama qilinadi. Jumladan, Richard Dyuk va Andrey Viktorovichning ta’lim jarayonidagi gemifikatsiya ishlari hamda ularning o‘quvchilarning bilim olish tajribasiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. K.Ushinskiy, K.Verbax va boshqa tadqiqotchilarning gemifikatsiyaning afzalliklari, cheklovlari va amaliy qo‘llash texnikalari haqidagi izlanishlari ham tahlil qilinadi.

Tahlil va natija. Bugungi kunda o‘qitishning zamonaviy metodlari ta’lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Boshlang’ich sinf o‘qituvchilari o‘z tarbiyalanuvchlarining quvnoq, cheklovlarsiz hayot tarziga o‘rganib qolishi, nima uchun dars davomida o‘rnidan turib yurish, gaplashish, o‘ynash mumkin emasligini yetarlicha anglamasligi, shuningdek, qolibga solingan u uchun, chegaralangan erkinliklar, majburiyatlar stressni, muvofaqqiyatga erisha olmagan hollarda esa depressiyani keltirib chiqarishini yaxshi biladi. Bu esa, bolada o‘qishga nisbatan qiziqishning so‘nishi kelajakda uning yaxshi kadr, etuk, barkamol shaxs bo‘lib etishishiga jiddiy to‘siqni keltirib chiqarishi mumkin.

Bola o‘ganishga tayyor, ammo boshqacha shaklda. Bolaning o‘qish shaklini o‘zgartirish istagi bugungi kunda zamonaviy ta’limning tendentsiyasini belgilash mumkin. Yangi avlod shu sababli konp’yuter, telefon, ijtimoiy tarmoqlar, video o‘yinlarga qaramlik va o‘zaro kommunikatsiya muammosi paydo bo‘ldi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bola o‘ynashni xohlaydi, degan to‘tamga kelish mumkin. Ta’limning vazifasi esa mana shu imkoniyatni berishdir. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oldiga ta’limni geymifikatsiyalash masalasining muhim ahamiyat kasb etishini e’tirof etmoqshimiz.

Esseks universiteti professori Richard Bartl va boshqa olimlar gemifikatsiyaning ta’limda qanchalik muhimligini ta’kidlaydilar. Ta’lim jarayonida o‘yinlardan foydalanish, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ularga oqim hissini berish va ularni rag‘batlantirish orqali bilimlarni osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi. K. Ushinskiyning o‘yin elementlari orqali o‘quvchilarni emotsional faollashtirish haqidagi fikrlari va Richard Dyukning simulyatsiya haqidagi qarashlari bu jarayonning amaliy qiymatini ko‘rsatadi.

Gemifikatsiya o‘quv jarayonini samarali va interaktiv qilishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu yondashuv o‘quvchilarning diqqatini jalb etish, motivatsiyani oshirish va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Nik Pelling tomonidan 2002-yilda joriy qilingan gemifikatsiya tushunchasi o‘yin elementlarini ta’lim, biznes va boshqa sohalarda foydalanuvchi tajribasini yaxshilash maqsadida qo‘llash imkoniyatini yaratdi. O‘yin va gemifikatsiya o‘rtasidagi farqni aniqlashtirish orqali o‘yin mexanikasi va o‘yin uslubidagi ijodkorlikning muhimligini anglash mumkin.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil

rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Geymifikatsiya - ta'lim jarayoni sub'ektlarining o‘quv topshiriqlarini kompyuter o‘yinlariga o‘xshash vaziyatda qo‘llash. Garchi, hozirgi kunda geymifikatsiya ko‘proq biznes va ishlab chiqarish sohalarida qo‘llanilib kelinsada, ta’lim jarayoniga geymlarning tobora kirib kelishi, uning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biz ilmiy manbalar, adabiyotlar va lug’atlarni tahlil qilib, ―geym‖ so‘zi bir necha ma’nolarda ishlatilishining guvohi bo‘ldik: 1)sport sohasida ayrim o‘yinlarning bir qismi. Masalan, tennis o‘yinida bir necha geymlar mavjud (Ushakov. Tolkoviy slovar russkogo yazika Ushakova. 2012); 2) Kolt revolveriga o‘xshash, cho‘ntakda olib yurishga mo‘ljallangan, vazni 700-740 g. bo‘lgan 22 i 38 kalibrli oltizaryadli nemis revolveri; 3) Nemis qo‘rol-yaroq ishlab chiqarish firmasining nomi; 4)Geym (Heim) Albert (1849-1937)- shveytsar geologi SSSR FA ning faxriy a’zosi (1925). tektonike Alp tog‘lari textonikasi va glyasiologiya (muzliklar) bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan[7]. Barcha tavsiflarni tahlil qilib, mualliflik nuqtai nazaridan ―geym atamasiga quyidagicha ta’rif berildi:

Geym- IT sohasida bir necha darajali o‘yinni bildirib, har bir bosqich o‘yin foydalanuvchiga navbatdagi bosqichga o‘tishga imkoniyatini yaratadi. Ta’lim jarayonida geymlar didaktik tavsifga ega bo‘lib, tahsil oluvchini o‘quv predmetiga qiziqishini va motivatsiyasini oshirishga mo‘ljallanadi. Tahsil oluvchilarni o‘qitishda geymlar tahsil oluvchilarda creative product tasks, ya’ni ijodiy topshiriqlarni bajarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, o‘quv kurslari bo‘yicha mavzularni sifatli o‘tishga yordam beradi.

Ta’limni geymifikatsiyalashda o‘yin maqsadlarini o‘quv maqsadiga nisbatan o‘zgacha tarzda shakllantirish maqsadga muvofiq. Ammo, bu o‘quv rejasiga mos keladigan aniq mavzuga asoslangan bo‘lishi kerak. Masalan, 4-sinfda “Tabiatshunoslik (Tabiiy fanlar)” darsida “Suv va uning xossalari” bo‘limida Suvning foydali xossalari mavzusini o‘rganish doirasida quyidagicha maqsad qo‘yish va undan foydalanish mumkin. “Siz olimsiz va siz qaysi moddalar suvda erishini, qaysilari erimasligini bilishingiz uchun tajribalar o‘tkaza olishingiz kerak, buning uchun esa partangizda tajriba sharoitini yaratishingiz kerak. Siz tayyorlayotgan joy, tajriba o‘tkazishingiz uchun qulay va partadoshingizga noqulaylik keltirmasin. Sizga kerak bulgan jihozlarni joylashtiring”. Maqsadni shu tariqa qo‘yish boshlang‘ich sinflarda tajriba mazmunini chuqur o‘rganib olish yani nazariy materiyallarni amalda bajarish orqali o‘rganish imkonini beradi. Unda qatnashadigan sub’ektlarni o‘rganishi, sub’ektlarlarning nomlari va holatlari bilan tanishish orqali qo‘yilgan o‘yin vazifalarini hal qilishi kerak bo‘ladi.

Ta’limni geymifikatsiyalashda butun sinf uchun mukofat tizimini joriy etish lozim. Bu esa o‘yinni samarali amalga oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Mukofat sifatida sinfdagi barcha o‘quvchilarga qo‘shimcha rag‘batlantirish ballarini berish yoki muzey, hiyobonlar, bolalar maydanchalariga ekskursiyalar tashkil etish samarali natija beradi.

O‘yinlarga asoslangan ta’limni an’anaviy usullar bilan taqqoslaganda, u o‘rganishning yanada samarali vositasi ekanini anglash mumkin. Olib borilayotgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, geymifikatsiya orqali o‘rganish o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini 20 foizigacha oshiradi. Shuningdek, raqamli o‘yinlar orqali o‘rganish bilimlarning saqlanish darajasini 90% ga, bajarilgan topshiriqlar sonini esa 300% ga oshiradi. O‘yin asosida o‘rganish, shuningdek, konseptual bilimlarni 11% ga va amaliy bilimlarni 20% ga yaxshilaydi. Shunigdek, buning o‘ziga xos yutuqlari mavjud bo‘lib, o‘quvchining kognitiv rivojlanishiga yordam beradi. Kognitiv rivojlanishda yordam berish uchun gamifikatsiyadan foydalanish miyaning mintaqalari faolligini oshirib, yetarli darajada rivojlanishiga imkon beradi. Kognitiv rivojlanishni kuchaytirish uchun maxsus ishlab chiqarilgan o‘yinlar ko‘pincha “miya o‘yinlari” deb nomlanadi. Miya o‘yinlari tobora ommalashib bormoqda, foydalanuvchi javob berishi yoki hal qilishi kerak bo‘lgan turli savol va muammolarga asoslangan. Miya o‘yinlari miyaning axborotni qayta ishlash va saqlash tezligini yaxshilaydigan jismoniy faollikni ham talab qilishi mumkin. Sinf o‘yinlari odatda jismoniy faollikni qo‘llab-quvvatlashi bilan o‘ziga xos bo‘lib kelgan. Partadan chiqib yoki sinfxonadan tashqarida o‘ynalgani uchun ham,

ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilami rag‘batlantirgan va o‘ziga jalb qilgan. Bu jihatni elektron o‘yinlarda ham joriy qilish mumkin. Interaktiv o‘yin bilan mashq bajarish odatdagi mashq kabi samaralidir. Ushbu mashq shakli video o‘yin o‘ynashni yaxshi ko‘radigan, ammo hozirda jismoniy faol bo‘lmagan o‘spirinlarga juda foydali bo‘ladi. Faol bo‘lishning uzoq muddatli foydalari ko‘p.[7]

Xulosa. Tabiatshunoslik faniNi geymifikasiyalash boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oldiga o‘quvchilar motivatsiyasi, qiziqishini orttiribgina qolmay, Davlat Ta’lim Standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarga erishish usullarini, darsda tashabbuskorlik ko‘rsatish, jonbozlik qilish guruhdagi o‘zaro ijobiy va raqobatli muhitni yuzaga keltirishni nazarda tutadi. Shuningdek, boshlang’ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilar fikrmulohazalarini ochiq ayta olishlariga, har qanday psixologik bosimning yo‘qolishiga va hamkorlikdagi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini ta’minlashga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Эркаев А. Учинчи Реннесанс нима/ https://www.google.com/search. (Мурожаат вақти:03.01.2021)
2.Sh.A.Abdullaeva talim-jarayonida-geymifikatsiyadan-foydalanish-va-baholash. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | CSPI CONFERENCE 2 | 2021
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF5847 son Farmoni, 2019 yil 8 oktyabr
4. Арбузов С. С. Реализация информационно-технологической модели подготовки будущих ИТ специалистов в области инфокоммуникационных систем и сетей // Педагогическое образование в России. 2014.– № 8– С. 85– 89.
5. Толковый словарь русского языка / Под ред. Д.Н. Ушакова.-М.: Гос. ин-т «Сов. энцикл.»;ОГИЗ; Гос. изд-во иностр. и нац. слов.,1935-1940. (4 т.) / https://www.google.com/s(Мурожаат вақти: 02.01.2021).
6. Urinova, M. V. (2021). Issues of use of information and communication technologies in the conditions of digital economy. Academic Research In Educational Sciences, 2(6), 1520-1525
7. A.I. Kuramshin, Periodicheskiy zakon / D.I. Mendeleyev - M.: AST, 2018
8. Yoziyeva U. (2020). Tabiatshunoslik darslarida amaliy haqida tashkil etish metodika. Uslubiy qo‘llanma. Qarshi: “Nasaf”. – B. 112.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA RAQAMLI KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

O‘zbekiston. Sayyora G‘aniyeva
Termiz Davlat Pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda axborot dunyoda eng qimmatli resurslardan biriga aylangan. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi har bir insondan axborot bilan ishlash qobiliyatini, uni to‘g‘ri baholash va tarqatish mas’uliyatini talab qiladi. Bu jarayon esa «axborot madaniyati» tushunchasini shakllantirdi. Axborot madaniyati – bu faqatgina texnologiyalarni o‘zlashtirish emas, balki axborotdan axloqiy va samarali foydalanish ko‘nikmasidir.

Kalit so‘zlar: AKT, media savodxonlik, media madaniyat, axborot, ma’lumot, raqamli kompetensiya, pedagogik kompetensiya, bilim, ko‘nikma, malaka, pedagogik mahorat, tanqidiy fikrlash.

Аннотация.Сегодня информация стала одним из самых ценных ресурсов в мире. Развитие информационных технологий требует от каждого уметь работать с информацией, нести ответственность за ее правильную оценку и распространение. Этот процесс сформировал понятие «информационная культура». Информационная культура – это не

только приобретение технологий, но и умение этично и эффективно использовать информацию.

Ключевое слово: АКТ, медиаграмотность, медиакультура, информация, информация, цифровая компетентность, педагогическая компетентность.

Abstract. Today, information has become one of the most valuable resources in the world. The development of information technologies requires every person to have the ability to work with information, to take responsibility for its correct assessment and dissemination. This process has formed the concept of «information culture». Information culture is not only the mastery of technologies, but also the ability to use information ethically and effectively.

Keywords: AKT, media literacy, media culture, information, knowledge, digital competence, pedagogical competence.

Soxta xabarlar, kiberxavfsizlik muammolari va yolg‘on axborotga asoslangan xulosalar jamiyat barqarorligiga tahdid solmoqda.Axborot madaniyati bugungi texnologik jamiyatda inson faoliyatining deyarli barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalari inson hayotini qulaylashtirish bilan birga, yangi xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan:Bugungi kunda Facebook, Instagram, TikTok kabi platformalar nafaqat muloqot vositasi, balki axborot tarqatishning asosiy manbalaridan biriga aylangan. Shu sababli, axborotni tanqidiy tahlil qilish va ishonchli manbalarni tanlash madaniyati alohida ahamiyat kasb etmoqda.Texnologiyalarning rivojlanishi shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash masalasini o‘rtaga qo‘ydi. Shaxsiy axborotni himoya qilish ko‘nikmasi axborot madaniyatining ajralmas qismidir.»Fake news» deb ataluvchi yolg‘on ma’lumotlarning tezkor tarqalishi global miqyosda ijtimoiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Axborot madaniyatiga ega bo‘lgan insonlar bunday axborotni aniqlash va tarqatishdan saqlanish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Zamonaviy sharoit jamiyatning har bir a’zosidan ayniqsa yosh avloddan raqamli kompetentsiyani mukammal darajada egallashni talab etadi. Buning asosiy sababi globallashuv jarayonida raqamli texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanib borayotgani bo‘lsa, uning oqibatida internet, turli ijtimoiy tarmoqlar, axborot va ma’lumotlar oqimining haddan ziyodligidir. Bugungi kun ta’lim ishtirokchilari (o‘qituvchi,o‘quvchi,talaba) doimiy o‘zgarishlar qurshovida, tahsil oluvchilarning o‘qish odatlari ham tabiiy ravishda o‘zgargan, ularning ehtiyojlari va sharoitlari ham o‘n yil oldingi kabi emas. Shuning uchun ta’lim muassasalari o‘quvchi yoshlarning mediasavodxonligini oshirishga, yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini mustahkam qilishga e'tibor qaratishi juda muhimdir. Bir so‘z bilan aytganda, ta’lim yosh avlod ma’naviy ehtiyojlariga javob beradigan didaktik va xavfsiz bo‘lishi kerak. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonini o‘z zimmasiga oluvchi va ularda asosiy malakalarni o‘zlashtirishlarida yordam beruvchi, yangilangan kasbiy tayyorgarlik, pedagogga xos professional kompetensiyalar bilan bir qatorda raqamli kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchi talab qilinadi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lgan, ilmiy salohiyatli shu bilan birgalikda AKT dan unumli va keng foydalana oladigan raqamli kompetensiyani egallagan o‘qituvchigina bugungi zamon talabiga javob beradigan, raqobatbardosh, tashabbuskor, intiluvchan, faol ijodiy (kreativ) va tanqidiy fikrlay oladigan , jahon andozalariga mos keladigan kadrlarni tarbiyalay oladi. Shu bois ham

Oliy ta’lim muassasalari tahsil oluvchilari, ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishda tanqidiy fikr yurita olishlari katta ahamiyatga ega. Tanqidiy fikr yurita olish bu berilayotgan axborot va ma’lumotlarni to‘g‘ridan- to‘g‘ri qabul qilmasdan uni shubha ostiga olish, sinchiklab tekshirish, tahlil qilish, solishtirish, saralab olish, muammoning yechimini topish, qaror qabul qilish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu xususiyatlar esa har qanday zamonaviy kompetentli pedagog uchun kasbiy faoliyatini sifatli va samarali tashkil qilishi uchun

juda muhim sanaladi. Raqamli kompetensiya va yana boshqa pedagogik kompetensiyalar haqida fikr yuritishdan oldin, ushbu atamaning ma’nosiga to‘xtalib o‘tsak.

Kompetensiya - lotincha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, “to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” ma’nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi. Ko‘p hollarda “kasbiy kompetenlik” atamasi qo‘llaniladi. Bu so‘zni kasbiy vazifalarini amalga oshirishda o‘z amaliy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati deb tushunsa bo‘ladi.

Ma’lumki, ta’limni axborotlashtirish – ta’lim oluvchilar uchun ham ta’lim beruvchilar uchun ham o‘rganish va o‘qitishning interfaol tajribalarini egallashiga keng imkoniyatlar yaratadi. Raqamli texnalogiyalar ta’lim oluvchilarning qiziqishlar va motivatsiyalarini ortishi orqali ularda o‘rganishning interfaol tajribalarini egallashiga turtki beradi. Raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘quv jarayoniga tadbiq etish murakkab bo‘lgan ta’lim mazmunini interfaol ravishda namoyish etish hamda ta’lim olish jarayonini faollashtirish orqali tashkil etish imkonini beradi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar kirib bormagan biror soha qolmadi. Raqamli iqtisodiyot, raqamli valyuta, raqamli mahsulot va boshqa misollar raqamli texnologiyalarning keyingi vaqtda salmog‘i ortib borayotganidan dalolat beradi. Jamiyatdagi raqamlashtirish jarayonlari globallashuv jarayonlari bilan parallel va uzviy ravishda davom etadi.

Raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish natijasida ta’lim sohasida ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarni tayyorlashda jamiyatdagi o‘zgarishlar, transformatsiya jarayonlari yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga qodir, zamonaviy hamda innovativ raqamli ta’lim muhitini shakllantirishni taqozo etadi. Umumiy shaklda, raqamli ta’lim muhitiga muayyan ijtimoiy buyurtma asosida talaba kasbiy kompetentligini va kasbiy xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun shartsharoitlar, imkoniyatlar to‘plami sifatida qarash mumkin.

Talabalarda digital kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘lajak kasbiy-pedagogik faoliyatining fundamental ko‘nikmalar to‘plamiga kiritilib, ularda raqamli ta’lim texnologiyalar, barcha media va boshqa axborot yetkazib beruvchilarning didaktik imkoniyatlarini bilishlari, ulardan shaxsiy, jamoaviy, kasbiy faoliyatida hamda ta’lim olish maqsadlariga erishish uchun raqamli axborotni izlash, baholash, yaratish va qo‘llashdagi ongli faoliyati bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy o‘qituvchi o‘zining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo‘llay olishi - kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir. Jumladan, dunyo va mamlakatda ta’lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, xalq ta’limi tizimida o‘quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta’minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilish;

– kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik

faoliyatida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– talabalarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh xususiyatlari qonuniyatlarini

bilishi, ta’lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanisho‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun

samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish; o‘quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida bolalar hayoti va

sog‘ligi, texnik hamda axborot havfsizligini ta’minlashga tayyor bo‘lish; – dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali

foydalanish hamda mediahavfsizlik me’yorlariga amal qilish.

Xulosa qilib aytganda o‘qituvchilar umumta’lim fanlarini o‘qitish darsining mazmuniga mediamadaniyat va mediaxavfsizlik tushunchalarini singdirib borishi, ularga axborot texnologiyalarining cheksiz ijobiy imkoniyatlari, afzalliklari bilan bir qatorda salbiy ta’siri va

oqibatlaridan o‘zini himoyalash yo‘llarini ham o‘rgatish lozim. Bunda talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini quyidagilarni inobatga olgan holda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir: - talabalarda axborot texnologiyalarining hayot va jamiyatdagi roli, imkoniyatlari va qo‘llash doirasi, shuningdek, uning salbiy oqibatlari va ulardan himoyalanish haqidagi tushunchalarni shakllantirish; ta’lim olish va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida elektron resurslar, o‘quv dasturlari va boshqa o‘quv-metodik mahsulotlarning afzalliklarini anglash va qo‘llashni o‘rgatish; masofadan ma’lumot almashish lokal va global tarmoqda ma’lumot qidirishni va bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatardan saqlanish hamda mediamadaniyat qoidalariga rioya qilish kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Muhammad Amin Yahyo. internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2016 y.

2. Tojiev M., Salaxutdinov R., Barakaev M., Abdalova S. Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. Toshkent, 2011 y.

3. Shermuxamedov S., Ochildiev A. Madaniyat va sivilizatsiya. Fargona, 2000 y.

4. Arzimatova, I. (2019). Art industry development of society and society culture. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(1), 129-134

5.G‘aniyeva S.S. HISTORICAL ANALYSIS OF THE SPIRITUAL MORAL EDUCATION OF STUDENTS BASED ON THEORIES OF VALUES» Экономика и социум» 2024.-166-168p.

6.G‘aniyeva S.S QADRIYATLAR NAZARIYALARI ASOSIDATALABALARNI MA’NAVIY AXLOQIY TARBIYALASHNING TARIXIY TAHLILI. Ta’lim, fan va innovatsiya jurnali 2024-yil 5-soni 411-414 bet.

7. Sayyora G‘aniyeva, Shodmonova Shaxlo. TA’LIMNING SHAXS KAMOLOTIDAGI O‘RNI MAKTABGACHA TA’LIMNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSI 2024-yil 745-bet

8. Sayyora Ganieva Termez State Pedagogical Institute Teacher of the Department of Preschool Education A TEACHER'S MORAL AND ETHICAL STANDARDS ARE THE KEY TO HIS SUCCESS.Web of Teachers:Inderscience Research. Webofjournals.com/index.com.php/1 Volume 3, Issue 2, February – 2025

9 Sayyora G‘aniyeva, Termiz davlat pedagogika institute .O‘QITUVCHINING AXLOQIY SIFATLARININ TA’LIM JARAYONIGA TA‘SIRI 14-15 fevral 2025-yil Globallashuv sharoitida pedagogik mediata’limni rivojlantirish mexanizmlari: muammolari va yechimlari 14-15 fevral 2025-259-262.betlar.

TALABALARNI TA’LIMIY QADRIYATLAR ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

O‘zbekiston. Choriyeva Surayyo
Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ta’lim qadriyatlarining ijtimoiy va shaxs omiliga yo‘nalganlik xususiyatini ochib beradi. Ijtimoiy qadriyatlar, shu jumladan, ta’limiy qadriyatlar ham shaxsni shakllantirishga xizmat qilishi, uning qadr-qimmatini oshirishi, pedagoglar tomonidan shaxs omilining ta’lim-tarbiya jarayonlarining yetakchi subyekti sifatida tan olishini ta'minlashi, unda erkin va mustaqil fikrlash, shuningdek, ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shaklantirishga yordam berishi maqsadga muvofiqdir.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, qadriyatlar, ijtimoiy omil, yo‘nalganlik, xususiyat, Ijtimoiy qadriyatlar, ta’limiy qadriyatlar, qadr-qimmat, pedagog, ta’lim-tarbiya jarayonlari, subyekt, ta'minlash, mustaqil fikrlash

Аннотация:Объясняется ориентация образовательных ценностей на социальные и личностные факторы. Социальные ценности, в том числе и воспитательные, служат формированию личности, повышению ее достоинства, обеспечивают признание воспитателями индивидуального фактора как ведущего субъекта образовательного процесса, в котором желательно свободное и самостоятельное мышление, а также социальный. помогают формировать активные навыки.

Ключевые слова: Воспитание, ценности, социальный фактор, направленность, особенность, Социальные ценности, воспитательные ценности, достоинство, педагог, воспитательные процессы, субъект, обеспечение, самостоятельное мышление.

Xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, ma'naviy dunyosi kundan-kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma'naviy asosini tashkil qiladi. Demak, ma'naviyat qay darajada shakllangan bo‘lsa, u shunchalik taraqqiyotga xizmat qilgan. Milliy uyg'onish, milliy g'urur, milliy tuyg'uning tiklanishi-bu milliy rivojlanish bilan uzviy bog'liq bo‘lgan tabiiy qonuniy jarayondir.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklanib yanada rivojlangandagina jamiyatimizda o‘tkazilayotgan islohotlar muvaffaqiyatli amalga osha oladi, chunki ma'naviy barkamol, ma'rifatli, ruhan bardam, yangicha tafakkurlash qobiliyatiga ega insongina istiqlol va taraqqiyot yo‘lini sharaf bilan o‘ta oladi. Shunday ekan, xalqimizning madaniy merosi, yuksak ma'naviy qadriyatlarini chuqur va atroflicha o‘rganib, ularni Respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirib, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy yetuk, fidoyi kishilar etib tarbiyalash hozirgi kunda dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ta’lim qadriyatlarining ijtimoiy va shaxs omiliga yo‘nalganlik xususiyatini ochib beradi. Ijtimoiy qadriyatlar, shu jumladan, ta’limiy qadriyatlar ham shaxsni shakllantirishga xizmat qilishi, uning qadr-qimmatini oshirishi, pedagoglar tomonidan shaxs omilining ta’lim-tarbiya jarayonlarining yetakchi subyekti sifatida tan olishini ta'minlashi, unda erkin va mustaqil fikrlash, shuningdek, ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam berishi maqsadga muvofiqdir. Binobarin, barkamol shaxs va malakali mutaxasisni tarbiyalab voyaga yetkazishga bo‘lgan ehtiyoj rivojlanayotgan hamda yangicha ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan mavjud sharoitda yanada dolzarb ma'no va mohiyat kasb yetadi. «O‘z xaq-xuquqlarini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofidagi sodir bo‘layotgan voqea hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak». Bu esa ta’limiy qadriyatlarga bog'liq. Shuning uchun ham yoshlarga ta’limiy qadriyatlarni o‘rgatib tanlangan mavzuning dolzarbligini ta'kidlaydi.

Talabalarga ta’limiy qadriyatlar ta’lim tarbiya jarayonlari muhim o‘rin egallashini ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan holda quyidagi vazifalarni hal qilish lozim:

- ta’lim va tarbiya jarayonlarida talabalarga ta’limiy qadriyatlar haqida

ma'lumotlar berib borish;

-boshlang'ich ta’limda ta’limiy qadriyatlarni o‘quvchilar ongiga singdirish metodikasini asoslab berish;

- ta’limiy qadriyatlarini ta’lim jarayonida qo‘llashda zamonaviy pedagogik texnologiyasidan unumli foydalanish zarur.

Milliy qadriyatlarni o‘rganishda talabalarda milliy g'oya, milliy ong, milliy g'urur tushunchalari ketma-ketligini shakllantirish lozim. Chunki milliy g'ururi bo‘lmagan inson hech

qachon Vatan boyliklari qadriga yetmaydi, uni asrashni xayoliga ham keltirmaydi, ya'ni vatanparvar, fidoyi inson bo‘lib yetisha olmaydi.

Qadriyatlar o‘zining mohiyatiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi. Jumladan inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo‘q joyda biron narsaning qadr - qimmati haqida so‘zlash be'manilikdir. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishini tashkil yetadi. Jamiyatimizda yuz berayotgan tub o‘zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to‘q, boy, go‘zal bo‘lishi, inson o‘zini chinakam erkin his etishi, o‘z mehnati natijasining, o‘z taqdirining, o‘z mamlakatining egasi bo‘lishini taminlashga qaratilgandir.

Shundan kelib chiqqan holda qadriyatlarga kompleks yondashuv asosida, fikr bildirishga harakat qilamiz. Qadr - kishining jamiyatda tutgan o‘rni, obro‘ - e'tibori, hurmati, nufuzi. Qadriyat - tevarak-atrofdagi narsalarning, kishining jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatini ko‘rsatuvchi tushuncha bo‘lib, axloqiy tamoyildir.

-ma'lumotlar berib borish;

-boshlang'ich ta’limda ta’limiy qadriyatlarni o‘quvchilar ongiga singdirish metodikasini asoslab berish;

- ta’limiy qadriyatlarini ta’lim jarayonida qo‘llashda zamonaviy pedagogik texnologiyasidan unumli foydalanish zarur.

Hozirda ta’lim texnologiyasi yordamchi vosita bo‘lib qolmay balki, o‘quv jarayonining rivojlanishida katta rol o‘ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o‘zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchi va o‘quvchining pedagogik tafakkuriga o‘z ta'sirini ko‘rsatmoqda.

Pedagogik texnologiya — ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘lash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb yuritiladi. O‘qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnikvositalardan ham (kompyuter, proyektor,elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o‘tishi ham mumkin.

O‘qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta’limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o‘qituvchi ta’limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O‘z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innnovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o‘rgangan holda o‘qitish jarayonida ularni qo‘llab, misollar keltirib, ta’limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o‘tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi o‘z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiya - bu o‘quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo‘lib, u ta’limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta’lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etishning izchil metodidir. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. CS Choriyevna, O Sitora, Mental Development of Preschool Children, Best Journal of Innovation in Science, Research and …, 2024.

2. SC Choriyeva Talabalarni ta’limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning mohiyati va mantiqiy jihatdan tahlili, Educational Research in Universal Sciences, 2023.

3. CS Choriyevna, A MODEL FOR IMPROVING THE SYSTEM OF PREPARING STUDENTS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY ON THE BASE OF EDUCATIONAL VALUES, Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2023.

4. CS Choriyevna , Study of the Essence and Logical Point of Improving the System of Preparing Students for Pedagogical Activity on the Base of Educational Values, American Journal of Language, Literacy and Learning …, 2023

5. CS Choriyevna, Education and Education of Pre-School Children on the Basis of Steam Educational Technology, American Journal of Social and Humanitarian …, 2022.

6. Чориева Сурайё Чориевна, УМЕНИЕ УЧИТЕЛЯ ИСПОЛЬЗОВАТЬ СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ УЧАЩИХСЯ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ. «Экономика и социум» №10(125) 2024.

7.Surayyo Choriyeva, Sitora Otaqulova, Talabalarni ta’limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishda texnologiyalarning o‘rni.Ta’lim, fan va innovatsiya,2024-yil 5-son.

8.Choriyevna C. S. Main Directions of Teacher Training and Improving Their Quality for the Preschool Education System //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 51-54.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING IJTIMOIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI VA USULLARI

O‘zbekiston. Xalilova Dilnoza Furkatovna
Nizomiy nomidagi TDPU
“Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bo‘lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishning muhimligi va usullari haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqolada ijtimoiy kompetensiyaning ta'rifi, uning komponentlari va tarbiyachilar uchun ahamiyati ko‘rsatilgan. Shuningdek, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning turli usullari, jumladan treninglar, interaktiv o‘qitish usullari, jamoaviy loyihalar va ko‘ngilli faoliyatlar kabi metodlar to‘g‘risida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy, kompetensiya, bola, malaka, ko‘nikma, muloqot, interaktiv.

Ijtimoiy kompetensiya — bu jamiyatda samarali ishlash, boshqalar bilan muloqot qilish va ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Bu ko‘nikmalar har bir insonning, ayniqsa tarbiyachining, ijtimoiy hayotga integrasiyalashuvi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim ahamiyatga ega. Bu maqolada, bo‘lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati va uning amaliy usullari tahlil qilinadi.

Ijtimoiy kompetensiya — bu jamiyatda samarali ishlash, boshqalar bilan muloqot qilish va ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Bu ko‘nikmalar har bir insonning, ayniqsa tarbiyachining, ijtimoiy hayotga integrasiyalashuvi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim ahamiyatga ega. Bu maqolada, bo‘lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati va uning amaliy usullari tahlil qilinadi.

Ijtimoiy kompetensiya bir nechta muhim komponentlardan iborat:

1. Muloqot qobiliyati: Bu komponent tarbiyachining boshqalar bilan samarali va ehtiyotkor bo‘lib muloqot qilishini anglatadi. Bu, o‘z navbatida, bolalarning ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

2. Jamoada ishlash: Tarbiyachi uchun jamoada ishlash qobiliyati muhimdir, chunki bolalarni jamoaviy ishlashga o‘rgatish tarbiyachining vazifasidir. Jamoada ishlashda tarbiyachi hamkorlik, empatiya va mas'uliyatni o‘z ishiga tatbiq etadi.

3. Empatiya:Tarbiyachi bolalarga yordam berish va ularning holatini tushunish uchun empatiyaga ega bo‘lishi kerak. Empatiya bolalarning emotsiyalarni anglash va ularga durus munosabatda bo‘lishga yordam beradi.

4. Konfliktlarni hal qilish: Ijtimoiy kompetensiyaning muhim komponenti bo‘lgan konfliktlarni hal qilish, tarbiyachining har xil ijtimoiy vaziyatlarda samarali aralashish va har bir tarafning fikrini hisobga olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishning bir nechta usullari mavjud:

1. Treninglar va master-klasslar: Bu usullar orqali tarbiyachilar ijtimoiy kompetensiyalarning asosiy elementlarini (muloqot, jamoada ishlash, empatiya va konfliktlarni hal qilish) rivojlantirishlari mumkin. Treninglarda o‘tkaziladigan amaliyotlar tarbiyachilarga o‘z imkoniyatlarini baholash va muammolarni hal qilishda ko‘nikma orttirish imkonini beradi.

2. Interaktiv o‘qitish usullari: Interaktiv o‘qitish usullari (masalan, rol o‘ynash, simulyasiyalar, guruhlar bilan ishlash) tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda samaralidir. Bu o‘quv metodlari ularga har xil ijtimoiy vaziyatlar bilan ishlash va o‘zlarining ijtimoiy ko‘nikmalarini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

3. Jamoaviy loyihalar va ko‘ngilli faoliyatlar: Jamoaviy loyihalar va ko‘ngilli faoliyatlar orqali tarbiyachilar jamoaviy ishlash va ijtimoiy faollikni o‘zlashtiradilar. Bu kabi faoliyatlar ularga ijtimoiy muammolarni hal qilish va turli fuqarolik vazifalarini bajarishga o‘rgatadi.

Tarbiyachi uchun shaxsiy rivojlanish va refleksiya muhimdir. Tarbiyachi o‘zini tahlil qilib, o‘z kamchiliklarini va muvaffaqiyatlarini aniqlab, ularni o‘z faoliyatida hisobga olishi lozim. Refleksiya jarayoni tarbiyachiga o‘ziga ishonchni orttirish, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va samarali pedagogik faoliyatni amalga oshirishda yordam beradi. Bo‘lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va bolalarning ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning muhim usullaridan biri hisoblanadi. Maqolada ta'riflangan usullar va metodlar tarbiyachilarga ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, ularni muammolarni hal qilishga tayyorlash va pedagogik faoliyatda samarali ishlash uchun imkoniyatlar yaratadi. Jamiyatda ijtimoiy kompetensiyaga ega tarbiyachilarning ishlashi bolalarga nafaqat bilim, balki jamiyatda samarali ishlashni ham o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika T.: Tafakkur bo`stoni 2013
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma’naviyat”. 2013
3. D Khalilova. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students. - Science and innovation, 2023.
4. Xalilova D.F. Talabalarda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga oid kasbiy kompetentlilikni takomillashtirish. Муғаллим ҳом узликсиз билимлендириў 2022. № 6/1-1.
5. X.D Furqatovna. Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. PEDAGOGS jurnali, 2022/4/15.

MADANIY MEROS VOSITALARINI TA’LIM JARAYONIDA MUVAFFAQIYATLI QO‘LLASH UCHUN ZARUR SHART-SHAROITLAR

O‘zbekiston. Rajabova Matluba Toshkentboy qizi
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Madaniy meros insoniyatning tarixiy, ijtimoiy, va ma’naviy boyligini ifodalaydigan, avloddan-avlodga o‘tayotgan qadriyatlar tizimidir. Uning ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llanilishi nafaqat tarixiy ma’lumotlarning o‘rganilishi, balki milliy va jahon madaniyati bilan tanishish, madaniyatlararo muloqot va turli xalqlarning qadriyatlarini anglash imkoniyatlarini yaratadi. Madaniy merosni ta’lim jarayonida samarali tarzda qo‘llash uchun bir qator zarur shart-sharoitlar mavjud. Ushbu maqolada madaniy meros vositalarini ta’limda muvaffaqiyatli qo‘llash uchun kerakli shart-sharoitlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, pedagogika, ta’lim jarayoni, o‘qituvchi kompetensiyasi, o‘quv dasturlari, jamiyat ishtiroki.

Annotation: Cultural heritage is a system of values that reflects humanity's historical, social, and spiritual wealth, passed down from generation to generation. Its successful application in the educational process not only involves the study of historical information but also provides opportunities to familiarize oneself with national and global cultures, promote intercultural dialogue, and understand the values of different peoples. There are several necessary conditions for the effective integration of cultural heritage into the educational process. This article discusses the required conditions for the successful use of cultural heritage tools in education.

Keywords: cultural heritage, pedagogy, educational process, teacher competence, curriculum, community participation.

Madaniy meros insoniyatning o‘tmishdagi yutuqlari va qadimiy qadimiyatlarining muhim timsoli sifatida ta’limda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan, madaniy meros vositalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning milliy o‘zlikni anglashi, global madaniyatga hurmati va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar madaniy merosning ta’limdagi rolini ta’kidlab, uni barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim vositasi sifatida ko‘rsatmoqda. Biroq, ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun bir qator shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi zarur. Ushbu maqola pedagogik nuqtai nazardan ushbu shart-sharoitlarni tahlil qilishga qaratilgan.

O‘quvchilar uchun madaniy merosning ahamiyatini tushunish ularning bilimlarini chuqurlashtirishga, shuningdek, dunyoqarashlarini kengaytirishga yordam beradi. Madaniy merosning tarixiy, madaniy, va ijtimoiy ahamiyatini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda milliy va jahon madaniyatiga nisbatan hurmat va qiziqish rivojlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, madaniy merosni o‘rgatishda muvaffaqiyatga erishishning poydevoridir. Shu maqsadda o‘quv dasturlariga madaniy merosni o‘rganish bo‘yicha maxsus kurslar yoki modullar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda ta’limda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash imkoniyati o‘quvchilarga madaniy merosni o‘rganishning yangi va innovatsion usullarini yaratadi. Madaniy merosni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda raqamli resurslar, multimediya vositalari, virtual ekskursiyalar va onlayn platformalardan foydalanish muhimdir. Shu tarzda o‘quvchilar, masalan, muzeylarga borishning o‘rniga, virtual ekskursiyalar orqali tarixiy yodgorliklarni ko‘rishlari, san’at asarlarini tahlil qilishlari yoki tarixiy hujjatlar bilan tanishishlari mumkin. Bu jarayonni yanada qiziqarli va samarali qilish uchun zamonaviy texnologiyalarni pedagogik jarayonda qo‘llash zarur.

Madaniy merosni o‘rganish jarayonida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga turli xalqlarning madaniy merosi haqida ma’lumot berish, ularning qadriyatlari, urf-odatlari va tarixiy tajribalari haqida o‘rgatish, madaniyatlararo tushunishni mustahkamlashga yordam beradi. Shu tarzda, o‘quvchilar nafaqat o‘z madaniyatini, balki boshqa xalqlar madaniyatini ham hurmat qilishni o‘rganadilar. Madaniy merosni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llashning yana bir muhim sharti – uning saqlanishi va himoya qilinishi bo‘yicha o‘quvchilarni tarbiyalashdir. O‘quvchilarga madaniy merosni saqlashning

ahamiyati, uning kelgusi avlodlarga yetib borishi uchun qanday sa’y-harakatlar talab etilishi haqida ma’lumot berish muhimdir. Bu nafaqat madaniy merosning qadrlanishini ta’minlaydi, balki o‘quvchilarda mas’uliyat hissini ham shakllantiradi. Madaniy merosni o‘rganishga o‘quvchilarni qiziqtirish va rag‘batlantirish muhimdir. Bu, avvalo, ular uchun qiziqarli va dolzarb mavzularni tanlash, amaliyotlarga asoslangan mashg‘ulotlar tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Madaniy merosni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning ishtirokini oshirish va ularni motivatsiya qilish uchun kreativ yondashuvlar zarur. Madaniy merosni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llash, nafaqat tarixiy bilimlarni o‘rgatish, balki o‘quvchilarda madaniyatni, qadriyatlarni va jamiyatni anglashni rivojlantirishga yordam beradi. Yuqorida keltirilgan shart-sharoitlar ta’lim jarayonida madaniy meros vositalarini muvaffaqiyatli qo‘llash uchun zarur bo‘lgan omillarni tashkil etadi. Bu shart-sharoitlarni joriy etish, madaniy merosni o‘rgatishda ta’limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xulosa sifatida ta`kidlash mumkinki madaniy meros vositalarini ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llash zamonaviy pedagogik yondashuvlar, o‘qituvchilarning malakasi, moslashuvchan o‘quv dasturlari va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liq. Ushbu shart-sharoitlar birgalikda ta’minlanganda, o‘quvchilar nafaqat akademik bilimlarni egallabgina qolmay, balki o‘z madaniyatiga hurmat va mas’uliyat hissi bilan tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Rajabova, Matluba T. «MAKTABGACHA TALIM YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.» *Oriental Journal of Education* 2.1 (2022): 76-81.

2.Rajabova Matluba Toshkentboy qizi ADVANTAGES OF EDUCATING THROUGH HISTORICAL MONUMENTS, LITERATURE, ART, AND OTHER CULTURAL HERITAGE

3. Rajabova, M. T. (2022). MAKTABGACHA TALIM YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. *Oriental Journal of Education*, *2*(1), 76-81.

4.Rajabova Matluba Toshkentboy Qizi,. «MAKTABGA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNI FAOLIYATLAR JARAYONIDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH: Rajabova Matluba Toshkentboy Qizi Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti, maktabgacha ta’lim yo ‘nalishi magistranti.» *Научно-практическая конференция*. 2022.

5.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=0eg5TXQAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=0eg5TXQAAAAJ:UeHWp8X0CEIC

6.Раджабова М.Т. ТВОРЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА И ФАКТОРЫ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ //Восточный педагогический журнал. – 2022. – С. 76-81.

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

O‘zbekiston. Panjiyeva Shirin Axmadovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Surxondaryo kampusi,
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Unda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar va internet-resurslarning ta’lim jarayonidagi ijobiy ta’siri, shuningdek, o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishdagi roli haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Innovatsion texnologiyalar, xorijiy til, interfaol metod, ta’lim, AKT, raqamli ta’lim.

Аннотация. В данной тезисной работе рассматривается роль и значение использования инновационных технологий в преподавании иностранных языков. Особое внимание уделяется влиянию информационно-коммуникационных технологий,

интерактивных методов и интернет-ресурсов на повышение эффективности учебного процесса и мотивации учащихся к изучению языка.

Ключевые слова: Инновационные технологии, иностранный язык, интерактивные методы, образование, ИКТ, цифровое обучение.

Annotation. This thesis highlights the importance and role of using innovative technologies in foreign language teaching. It focuses on the positive impact of information and communication technologies, interactive methods, and online resources on the learning process and students' motivation to learn languages.

Keywords: Innovative technologies, foreign language, interactive methods, education, ICT, digital learning.

Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o‘rganish har bir shaxsning hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo miqyosida ta’lim jarayonlari tobora raqamlashtirilayotgan bir paytda xorijiy til o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamon talabi bo‘lib bormoqda. Ta’limning sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va faol ishtirokini ta’minlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir.

Innovatsion texnologiyalar jumlasiga kompyuter dasturlari, multimedia vositalari, interaktiv ta’lim uslublari, virtual laboratoriyalar va internet-resurslar kiradi. Bunday vositalar ta’limni faqat tinglash va yodlashdan iborat bo‘lgan an’anaviy yondashuvdan chiqarib, o‘quvchilarning o‘z ustida ishlash, mustaqil tahlil qilish va muloqotga kirishish qobiliyatlarini shakllantiradi. Ayniqsa, til o‘rganishda audio, video materiallar, virtual suhbatlar va onlayn test tizimlari tilni tabiiy muhitda o‘rganishga yaqinlashtiradi.

Interfaol ta’lim metodlari xorijiy tilni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, “Case-study”, “Brainstorming”, “Debate” kabi usullar orqali talabalar o‘z fikrlarini ifodalashga, muloqot qilishga, ijtimoiy faol bo‘lishga o‘rganadilar. Bu esa nafaqat til o‘rganish, balki ularni hayotga tayyorlashga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, internetda mavjud bo‘lgan bepul ta’lim platformalari (Duolingo, BBC Learning English, Coursera, Quizlet va boshqalar) talabalar uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarni dars jarayonining passiv ishtirokchisidan faol bilim egasiga aylantiradi. Har bir o‘quvchi individual o‘rganish tezligiga mos ravishda materiallarni o‘zlashtirishi mumkin bo‘ladi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilar o‘z ustida ishlashga, tanqidiy fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga o‘rganadilar. Bu esa ularning bilim va ko‘nikmalarini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchining ham, o‘quvchining ham faol ishtirokini ta’minlaydi. Bu esa ta’lim jarayonini zamonaviy va samarali bo‘lishiga olib keladi. Innovatsion yondashuvlar nafaqat tilni o‘rganishga, balki shaxsiy rivojlanishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, har bir pedagog bu uslublarni chuqur o‘rganib, darslarda samarali tarzda qo‘llashi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Robinson, K. Out of Our Minds: Learning to be Creative. – Wiley, 2011.

2. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.

3. Dewey, J. Experience and Education. – Macmillan, 1938.

4.Nazarova, M.I. Kreativnoe myshlenie u detey doshkol'nogo vozrasta. – M.: Pedagogika, 2015.

5.Zokirova, G. “Kuzatish orqali bolalar faoliyatini tahlil qilish.” – Ilmiy maqola, 2022.

6.Muhammad Ali. Uchdan keyin kech. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.

TO‘LIQSIZ OILADA RIVOJLANAYOTGAN BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

O‘zbekiston. Davlatova Ra’no Haydarovna
NavDU Maktabgacha ta’lim kafedrasi DSc.
Aliqulova Dilfuza Otabek qizi NavDU
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada to‘liqsiz oilada tarbiyalanayotgan bolalar nutqini rivojlantirishda oilaning roli, maktabgacha ta’lim muassasasining yordami va bolalar bilan ishlashda qo‘llaniladigan metodlarni tahlil qilish haqida so‘z yuritiladi. Maqola, shuningdek, bolalar nutqining rivojlanishida to‘liqsiz oilaning o‘ziga xos muammolari va ular bilan kurashish usullarini ko‘rib chiqadi. Bu ish, pedagoglar va ota-onalar uchun muhim amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: nutq, tarbiya, maktabgacha ta’lim, kommunikativ, emotsional , lingvistik rivojlanish.

Abstract. This article discusses the role of the family in the development of speech of children raised in single-parent families, the support of preschool institutions, and an analysis of the methods used in working with children. The article also examines the specific problems of single-parent families in the development of children’s speech and ways to deal with them. This work provides important practical recommendations for educators and parents.

Keywords: speech, upbringing, preschool education, communicative, emotional, linguistic development.

Oila inson hayotidagi eng muhim va asosiy tarbiya manbalaridan biri bo‘lib, bola rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Aksariyat hollarda, oila bolaning ijtimoiylashuv jarayonini, o‘qish va yozish, axloq-odob, til va nutq rivojlanishini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Biroq, ba’zi hollarda to‘liqsiz oila muhiti bolaning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi, ayniqsa, ota-ona o‘rtasida muammolar, ajralishlar yoki boshqa ijtimoiy omillar tufayli to‘liqsiz oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar nutqida ba’zi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. To‘liqsiz oila, ya’ni ota yoki ona bo‘lmasligi yoki oilaning boshqa ijtimoiy muammolari mavjud bo‘lganda, bolaning psixologik va ijtimoiy rivojlanishida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ota-ona o‘rtasidagi munosabatlar, o‘zaro hurmat va mehr-muhabbat, til va nutq rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. O‘z-o‘zidan, bolaning nutqi, uning ijtimoiy ko‘nikmalari va lingvistik rivojlanishida ota-onaning tilni qo‘llashi, bolaga kitob o‘qishi, suhbatlar o‘rnatishi muhim rol o‘ynaydi. To‘liqsiz oila sharoitida esa, bola ko‘pincha qisqa va oddiy so‘zlar, jumlalar bilan gaplashadi, bu esa uning nutqining to‘liq va boy bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi.

Paul Fletcher va Brian MacWhinney [43]tomonidan yozilgan «Child Language: Development and Learning» kitobida bolalar nutqining rivojlanishi va o‘rganish jarayoni haqida bir nechta muhim fikrlar keltirilgan. Ushbu kitobda bolalarning nutqni o‘rganishi biologik va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Ular, ayniqsa, til rivojlanishining ikki asosiy jihatini ko‘rsatadilar: biologik (ya’ni, til o‘rganishga nisbatan bolaning tabiiy qobiliyati) va ijtimoiy (ya’ni, ota-onalar yoki atrofdagilar bilan muloqot qilish orqali tilni o‘rganish).

Nutq rivojlanishi bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi va bu jarayon faqat ma’lum bir tilni bilishdan iborat emas, balki tilni to‘g‘ri, aniq va samarali ishlatish, ijtimoiy muloqotda til vositalarini to‘g‘ri qo‘llashni o‘z ichiga oladi. To ‘liqsiz oilada tarbiyalanayotgan bolalarda nutq rivojlanishidagi muammolar asosan ikki asosiy sababga bog‘liq:

Biri ota-ona bilan muloqotning cheklanganligi. Ota-ona bilan tez-tez va sifatli suhbatlar bolaning so‘z boyligini va nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. To‘liqsiz oila sharoitida esa, bolaning uyda kutib oladigan va uning nutqini tinglaydigan ota-ona yo‘q bo‘lishi mumkin.

[43] Paul Fletcher va Brian MacWhinney-"Child Language: Development and Learning"

Ikkinchisi psixologik holat va stress. Ajralishlar, oiladagi ijtimoiy muammolar bola psixologiyasiga ta’sir qiladi, bu esa uning o‘zini ifodalashda va suhbatda qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin.

To‘liqsiz oilada tarbiyalanayotgan bolalarning nutqini rivojlantirishdagi pedagogik muammolar quyidagicha bo‘lishi mumkin. Bola nutqini rivojlantirishdagi tarmoqning zaifligi va oilada bolaning nutqini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan kommunikativ tarmoq yo‘qligi. Oila a’zolari o‘rtasida yetarlicha muloqotning bo‘lmasligi bolada tilni o‘zlashtirish jarayonining sustlashishiga olib keladi. Bolalar ota-ona tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaganda, ular o‘zlarini xavotirda his qilishlari mumkin, bu esa nutq rivojlanishining kechikishiga olib keladi. Nutq, shuningdek, emotsional va psixologik holatga ham bog‘liq bo‘ladi. Ota-ona tomonidan bolaga o‘qish, hikoya qilish, yangi so‘zlarni o‘rgatish kabi faoliyatlarni amalga oshirishda yetishmovchilik bo‘lishi mumkin.

Sara Meadows[44]ning «Speech and Language Development: A Guide for Parents and Educators» kitobida bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha bir qator foydali metodlar va tavsiyalar mavjud. Bu kitobda bolalarning nutq va til rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda ota-onalar va ta’limchilar uchun aniq amaliy yondoshuvlar ko‘rsatilgan.Meadows bolalar nutqini rivojlantirishda erta davrda bolalar bilan muntazam va sifatli muloqot qilishning muhimligini ta’kidlaydi. Ota-onalar va ta’limchilar bolalar bilan so‘zlashish, ularga so‘zlarni qayta-qayta eshittirish va yangi so‘zlarni takrorlash orqali ularning lug‘atini boyitishlari kerak.

Meadows ijobiy va rag‘batlantiruvchi qayta aloqa berishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Nutqni rivojlantirishda bolalarga o‘zlarini to‘g‘ri ifodalashlari uchun ijobiy va rag‘batlantiruvchi javoblar berish juda muhimdir.

Sodiqov Shuxrat [45]ning «Bolalar nutqining semantik rivojlanishi» asarida bolalar nutqining semantik (ma’no) jihatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu asarda bolalarning nutqini o‘rganishda ularning ma’no tushunishi, so‘zlarning ma’nolarini qanday o‘zlashtirishi va bu jarayonda qanday bosqichlarni bosib o‘tishi tahlil qilinadi. Asarda keltirilgan ba’zi fikrlar quyidagicha:


Bolalar so‘zlarning ma’nolarini bosqichma-bosqich o‘rganadi: Sodiqov bolalar so‘zlarni o‘rganishda avval oddiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nolarga ega bo‘lgan so‘zlarni o‘zlashtiradilar, masalan, «olma» yoki «uy». Keyin esa bolalar yanada murakkab va ko‘p ma’noli so‘zlarni (masalan, «yaxshi», «chiroyli», «do‘st») o‘rganadilar. Bu jarayon davomida bolalar so‘zlarning turli ma’nolarini, kontekstga qarab qanday o‘zgarishini tushunishga harakat qiladilar.

So‘zlarning semantik boyligi va bolalar nutqining rivojlanishi: Shuxrat Sodiqovning fikricha, bolalar o‘z nutqida so‘zlarning semantik boyligini asta-sekin o‘zlashtiradilar. Dastlab ular faqat bitta ma’no anglatadigan so‘zlar bilan ishlaydilar, keyinchalik esa bu so‘zlarga qo‘shimcha ma’nolarni kiritadilar. Masalan, «baliq» so‘zini o‘rgangan bola, vaqt o‘tishi bilan bu so‘zning «baliq tutish», «baliq ovlash» kabi ko‘p ma’nolarini tushunishga boshlaydi.

Bola shaxsining kamol bo‘lib ulg‘ayishi u tarbiya topayotgan oilaga juduyam bog‘liq. Hattoki bolaninig tili chiqishi yangi so‘zlarni o‘rganish davridagi, bizning oila a`zolarimiz bilan bo‘layotgan o‘zaro nutqimiz ham katta ahamiyatga ega. Bolaga shunday muhit yaratilishi kerakki, uning rivojlanishida yordam bersin.[46]

Nutqni rivojlantirishga yordam beruvchi pedagogik yondashuvlar:

[44] Sara Meadows-"Speech and Language Development: A Guide for Parents and Educators"
[45] Sodiqov Shuxrat-"Bolalar nutqining semantik rivojlanishi"
[46]https://nemolchi.uz/uz/oiladagi-munosabatlar-bola-nutqiga-qanday-ta-sir-qiladi/



Maktabgacha ta’lim va tarbiya. Bolalar bog‘chalarida yoki boshqa maktabgacha ta’lim muassasalarida nutqni rivojlantirishga katta e’tibor berilishi kerak. Bu yerda bolalar turli muloqotlarga kirishadi, nutqlarini to‘g‘ri ifodalashni o‘rganadilar. Maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagoglar bolalar bilan muntazam va faol muloqotda bo‘lishi zarur.

Oila a’zolarining ishtiroki. Ota-ona bo‘lmasa ham, boshqa oila a’zolari, masalan, bobolar yoki amakilar bolalar bilan sifatli muloqotlar o‘rnatishlari kerak. Ota-onalarning bolaga kitob o‘qishi, suhbatlar o‘tkazishi, yangi so‘zlar o‘rgatishi muhimdir.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash. To‘liqsiz oilada tarbiyalanayotgan bolalarda emotsional va psixologik muammolarni hal qilish uchun psixologik xizmatlar ko‘rsatish zarur. Nutq rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan stress holatlarini bartaraf etish, bolaning ishonchini tiklash va o‘zini ifodalashga yordam berish kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytolamanki to‘liqsiz oilada tarbiyalanayotgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida katta e’tibor talab etadi. Ota-ona tomonidan ko‘rsatilgan psixologik, emotsional va nutqiy yordam bolaning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha ta’lim va oila a’zolarining faol ishtiroki bolalarning nutqini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, psixologik yordam va pedagogik yondashuvlar yordamida bolalar o‘zlarini ifodalashda va ijtimoiy muloqotda muvaffaqiyatli bo‘lishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Paul Fletcher va Brian MacWhinney-»Child Language: Development and Learning»
2.Sara Meadows-»Speech and Language Development: A Guide for Parents and Educators»
3. Sodiqov Shuxrat-»Bolalar nutqining semantik rivojlanishi»
4. https://nemolchi.uz/uz/oiladagi-munosabatlar-bola-nutqiga-qanday-ta-sir-qiladi/.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DUNYOSIDA TA’LIM

O‘zbekiston. Shuhrat Suvonovich Norov
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasi mudiri
«Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)»
Ro‘ziyeva Muxlisa Bahodir qizi
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasi assestenti

Annotatsiya: ushbu maqolada ta’lim tizmidagi raqamli texnologiyalardan foydalanish va ulardan muqobil foydalanishning qanday yutuq va kamchiliklari mavjudligi to‘g’risida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, onlayn ta’lim, interaktiv, gamifikatsiya, vizual ta’lim, geografik cheklov.

Аннотация: в данной статье представлена информация об использовании цифровых технологий в системе образования и о том, какие преимущества и недостатки существуют в их альтернативном использовании.

Ключевые слова: цифровые технологии, онлайн-образование, интерактивное, геймификация, визуальное образование, географическое ограничение.

Abstract: This article provides information on the use of digital technologies in the education system and the advantages and disadvantages of their alternative use.

Keywords: digital technologies, online education, interactive, gamification, visual education, geographical restriction.

Biz yashab turgan bugungi dunyo texnika va texnologiyalar tomonidan yaratilayotgan katta imkoniyatlar tufayli jadal tarzda rivojlanib bormoqda va insoniyatga har sohada o‘zining cheksiz ko‘magini berib kelmoqda. Bugungi kunda fan va ta’lim sohalari ham texnologiyalar bilan chambarchas bog’liq bo‘lib, ularni ta’limning har bir bosqichida uchratish mumkin, jumladan “raqamli transformatsiya” atamasi eng keng qo‘llanilib kelayotgan tushunchlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta’lim sohasini isloh qilish va zamon talablariga mos holda uni yanada rivojlantirish bosh vazifalardan biri sifatida taraqqiyot strategiyamizga ham kiritilgan.[1]

Raqamli transformatsiya (digital transformation) – bu raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimi va jamiyatning boshqa sohalariga joriy etish orqali amalga oshiriladigan o‘zgarishlar jarayonidir. Bu jarayon nafaqat texnologiya sohasida, balki madaniyat, iqtisodiyot, va jamiyatning har bir qatlamida ham yangi imkoniyatlar yaratadi.[2]

Raqamli texnologiyalar ta’lim sohasini tubdan o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, onlayn ta’limning rivojlanishi o‘quvchilarga va talabalarga masofaviy ta’lim olish imkoniyatini yaratdi. Onlayn ta’limning asosiy afzalliklaridan biri, geografik cheklovlardan qat'iy nazar, istalgan joyda o‘qish imkoniyatini taqdim etishidir. Bu, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi va ularga yaqin maktab yoki universitetlarga kira olmaydigan o‘quvchilar uchun katta imkoniyat yaratadi.

Onlayn ta’lim platformalari, masalan, Zoom, Microsoft Teams, va Google Classroom, o‘qitish va o‘qish jarayonlarini yanada qulay va samarali qilmoqda. Zoom va Microsoft Teams kabi platformalar sinfdagi darslarni virtual ravishda o‘tkazish imkonini beradi, shu bilan birga talabalarga darsga qatnashish, savollar berish, va o‘qituvchidan yordam olish imkoniyatini beradi. Bunday platformalar bilan o‘qituvchilar o‘z darslarini yanada interaktiv va qiziqarli tarzda tashkil etishlari mumkin.[3]

Google Classroom esa o‘qituvchilarga dars materiallarini taqdim etish, o‘quvchilarning topshiriqlarini qabul qilish va baholashda yordam beradi. Bu platformalar orqali talabalar va o‘qituvchilar bir-biri bilan tezkor aloqada bo‘lishlari mumkin. Bundan tashqari, onlayn ta’lim vaqtni tejash imkoniyatini yaratadi, chunki talabalar o‘zlari uchun eng qulay vaqtlarda darslarni ko‘rib chiqishlari mumkin.

Onlayn ta’limning yana bir muhim jihati – bu o‘qish jarayonini shaxsiylashtirishdir. Talabalar o‘z temp va ritmlarida o‘qib, darslarga qayta-qayta murojaat qilishlari mumkin. Masalan, videodarslar orqali o‘qish imkoni, o‘quvchilarga o‘zlari uchun tushunarsiz bo‘lgan mavzularni qayta ko‘rib chiqish va o‘ziga moslashtirilgan ta’lim jarayonini yaratish imkonini beradi.

Interaktiv Ta’lim Vositalari

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. O‘quvchilar va talabalar interaktiv dasturlar, simulyatsiyalar, o‘yinlar va videolar orqali o‘qish jarayonini yaxshilashmoqda. Bu usullar nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Interaktiv ta’lim vositalari, shuningdek, o‘quvchilarga o‘zlashtirishda faol ishtirok etish va o‘qish jarayoniga chuqurroq kirib borish imkoniyatini beradi. Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar ta’limda yangicha yondashuvni taqdim etadi. Masalan, biologiya yoki kimyo fanlarida laboratoriya ishlari simulyatsiya qilish orqali o‘quvchilar tajriba qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ularni nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga undaydi. Shu bilan birga, bunday simulyatsiyalar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini yanada chuqurroq o‘zlashtirishi mumkin.[4]

Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) texnologiyasi ham ta’lim jarayonini yanada qiziqarli qilishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, o‘quvchilar uchun o‘yinlar yoki raqobatbardosh elementlarni kiritish, ularni o‘qishga undaydi. Talabalar o‘z bilimlarini baholash va mukofotlar olish orqali o‘zlarining o‘qish motivatsiyasini oshiradilar. Shu bilan birga, gamifikatsiya o‘qish jarayonini ko‘proq interaktiv va ko‘ngilochar qiladi, bu esa o‘quvchilarning diqqatini jamlashga yordam beradi.[5]

Videolar va ta’lim platformalari orqali o‘qish o‘quvchilarga mavzularni oson tushunishga yordam beradi. Masalan, vizual ta’lim materiallari orqali o‘quvchilar bilimlarni vizual tarzda mustahkamlashlari mumkin. Bu usul o‘quvchilarning ko‘rish va eshitish orqali ma'lumot olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Videolarni taqdim etish, o‘qituvchiga murakkab mavzularni soddalashtirishda ham yordam beradi.

Raqamli ta’lim tizimida nafaqat darslar qiziq holatda tashkillashtirilishi mumkin, balki olinayotgan ma’lumotlar tahlil qilinishi va sun’iy intelekt yordamidan ham foydalanish imkoniyatini ham bermoqda. Ta’lim tizimida ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt (AI)dan foydalanish o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’lim dasturlarini yaratish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi kunda ta’lim tizimlari o‘qitish va o‘qish jarayonlarini yaxshilash uchun yirik ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslangan tizimlarga ega. Bu tizimlar o‘quvchilarning o‘qish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini va kamchiliklarini aniqlashda yordam beradi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘qishdagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari mumkin. Masalan, o‘quvchilarning sinov natijalari yoki faoliyatini tahlil qilish orqali ular uchun moslashtirilgan darslar yoki qo‘shimcha resurslar taqdim etilishi mumkin. Bu o‘qitishning individual yondashuvini yaratishga yordam beradi. Sun'iy intellekt yordamida o‘quvchilarning o‘qish jarayonini shaxsiylashtirish mumkin. Misol uchun, AI tizimlari o‘quvchilarning ilgari o‘zlashtirilgan bilimlarini tahlil qilib, ularning ehtiyojlariga mos ravishda yangi mavzularni taklif qiladi. Bu o‘qitish jarayonini yanada samarali va o‘quvchining individual o‘quv ehtiyojlariga moslashtirilgan qiladi.

AI yordamida yaratilgan ta’lim dasturlari o‘quvchilarni o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash uchun yordam beradi. Misol uchun, AI tizimi o‘quvchining o‘qish jarayonini kuzatib borib, kerakli vaqt va joyda maslahatlarga yoki yordamga taklif beradi. Shuningdek, sun'iy intellektning yordamida, o‘quvchilar uchun avtomatik testlar va baholash tizimlari yaratish mumkin, bu esa o‘qituvchilarning ishini yengillashtiradi va o‘quvchilar uchun tezkor va aniq baholash imkoniyatini yaratadi.

Raqamli ta’lim resurslari bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab mavjud. Bu, o‘z navbatida, ta’limni global darajada kengaytirishga imkon beradi. Onlayn ta’lim platformalari, masalan, Coursera, edX, Udemy va Khan Academy, talabalarga va mutaxassislarga o‘zlarining o‘quv ehtiyojlariga mos kurslar, darslar va materiallarni taklif qilmoqda. Bu resurslar bilan dunyoning istalgan nuqtasidan kirish mumkin, bu esa ta’limni hech qachon tasavvur qilinmagan darajada kengaytiradi.[6]

Raqamli Transformatsiyaning Kamchiliklari Raqamli bo‘shliq – bu ba'zi hududlarda yoki guruhlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog'liq muammo. Ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda va qishloq joylarda internetga ulanish va zarur raqamli infratuzilmani yaratish hali ham muammo bo‘lib qolmoqda. Natijada, bu hududlardagi odamlar global ta’lim resurslari, raqamli biznes imkoniyatlari yoki hatto masofaviy ishlashdan mahrum bo‘lishlari mumkin.

Raqamli bo‘shliq faqat iqtisodiy farqlarni keltirib chiqarmaydi, balki ijtimoiy tengsizlikni ham kuchaytiradi. Bunday bo‘shliqni bartaraf etish uchun mamlakatlar raqamli infratuzilma, internetga kirish va raqamli ta’limni kengaytirishga katta e'tibor qaratishlari zarur. Xususan, masofaviy ta’limni rivojlantirish uchun texnologiyalarga teng kirishni ta'minlash, jamiyatdagi barcha guruhlar uchun imkoniyatlarni yaratish muhimdir.

Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligi va kiberxavfsizlik masalalari ham dolzarb bo‘lib qolgan. Hozirgi kunda har bir insonning shaxsiy ma'lumotlari, moliyaviy ma'lumotlar, va hatto salomatlik holati raqamli platformalarda mavjud. Bu esa foydalanuvchilarni kiberhujumlar, identifikatsiya o‘g'irliklari, va axborotning noto‘g'ri ishlatilishi kabi xavflarga duchor qilmoqda.

Raqamli transformatsiyaning rivojlanishi bilan bir qatorda, ma'lumotlarni himoya qilish va kiberhujumlarga qarshi kurashish bo‘yicha yangi xavfsizlik protokollari va texnologiyalarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar ma'lumotlarining maxfiyligini himoya qilish uchun qonunlar va normativ-huquqiy bazani kuchaytirish lozim. Xavfsizlik va maxfiylikni ta'minlash, ayniqsa, ta’lim, salomatlik va moliya sohalarida muhim ahamiyatga ega. Agar bu masalalar e'tiborsiz qolsa, jamiyatda ishonch muammolari paydo bo‘lishi mumkin, bu esa raqamli transformatsiyaning izchil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillardan bo‘lib qolishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tanganing ikki tomoni mavjud bo‘lganidek raqamli texnologiyalarning ta’lim tizmida foydalanishdan ham yuqtu va kamchiliklari mavjud.Raqamli transformatsiya ta’lim va jamiyatda yanada ko‘proq imkoniyatlar yaratadi va yetishib kelayotgan yosh avlodni yangi ma’lumotlar ta’milashda va ularning texnika va texnologiya sohalaridagi bilimlarni oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Globalalshuv jarayoni jadal ketayotgan dunyoda, ushbu jarayonni jamiyatning barcha qatlamlarini raqamli texnologiyalar bilan teng ravishda jihozlash va bu jarayonni xavfsiz, samarali va adolatli tarzda amalga oshirilishi ustuvor vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “NAJOT TA’LIMDA, NAJOT TARBIYADA, NAJOT BILIMDA”,- DEYDI PREZIDENT https://adti.uz/najot-ta%CA%BClimda-najot-tarbiyada-najot-bilimda-deydi-prezident/

2. Thomas M.»«Digital Transformation: Survive and Thrive in an Era of Mass Extinction» — Rosseto Books.2019. 5-bet.

3. «The Digital Divide: Arguments for and Against Facebook, Google, Texting, and the Age of Social Networking» — William H. Dutton

4. Thomas M.»Digital Transformation: Survive and Thrive in an Era of Mass Extinction» — .Rosseto Books.2019. 17-bet.

5. M. A. Abduvaliyeva O‘QUV JARAYONIDA GAMIFIKATSIYADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Yangi O‘zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot https://cyberleninka.ru/article/n/o-quv-jarayonida-gamifikatsiyadan-foydalanish-imkoniyatlari

6. KaylynMcKennaTheBestPEOServiceProvidershttps: //www.businesnewsdaily.com/8117-best-professional-employer-organizations.html Aprel 09, 2025.

7. Abdunazarov M.M., Bulanov A.K., Djalilov A.A.»Raqamli bosma texnologiyasi»SHarq:T, 2021.

8. Yunusova.G.RAQAMLI Texngloqiyalar va kgmpyuter dasturlarimuhitida bolalarni rlvojlantlrish uchun uzluksiz steam ta’limini kuchaytirish (dasturlashtirish va robototexnika misolida) NAMANGAN – 2022.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ГАРМОНИИ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Узбекистон. Мирзаева Наргиза Беркиновна
Ассистент кафедры «Социально-гуманитарные дисциплины и физическое воспитание»
Навоийского горно-технологического университета

Аннотация: в статье описываются меры использования национальных и общечеловеческих ценностей в воспитании и образовании молодёжи, методы использовании произведений устного народного творчества в воспитании детей малого возраста и формировании у них чувства патриотизма и любви к Родине, а также привить у молодёжи чувство собственного достоинства.

Ключевые слова: общечеловеческие ценности, национальные ценности, национальные праздники, чувство собственного достоинства, устное народное творчество, сказки, дастаны, произведения восточных мыслителей.

Источник силы процветающего Узбекистана заключается в приверженности нашего народа общечеловеческим ценностям. Наш народ веками бережно хранит истоки справедливости, равенства, добрососедства и гуманизма. Высшая цель обновления Узбекистана – возродить эти традиции, придать им новое значение, создать на нашей земле условия, необходимые для достижения мира и демократии, процветания, культуры, свободы совести и самосовершенствования каждого человека.

Сила страны зависит от духовного совершенствования нашего народа, приверженности нашей молодежи национальным и общечеловеческим ценностям, которые веками передаются из поколения в поколение. А это требует формирования у нашей молодёжи общечеловеческих качеств и их систематического совершенствования.

Результаты исследований в этой области показали, что внедрение национальных и общечеловеческих ценностей в сознание учащейся молодежи целесообразно осуществлять в следующих направлениях:

- воспитывать учащихся в духе приверженности к национальным ценностям. Для этого необходимо обогатить содержание таких уроков, как чтение, воспитание, окружающий нас мир, природоведение, математика, музыкальное искусство, изобразительное искусство, физическое воспитание информациями о наших национальных ценностях, традициях, обычаях, обрядах;

- поощряйте умы учащихся сохранять мир и спокойствие в обществе. Для этого достаточно уделить должное внимание преподаванию «уроков независимости», «часам духовности», также празднованию «Дня защитников Отечества», «День Конституции», а также праздника «Навруз;

- формирование чувства собственного достоинства и самосознания в сознании учащихся. Для этого необходимо в образовательном процессе интегрировать информацию о том, что независимость не была достигнута сама по себе, и что праздник Навруз не сам по себе был возрожден в духовном плане, что и Рамадан и Курбан - байрам празднуются свободно в нашей стране и т.д.;

- внушить читателям, что стремление к благополучной жизни – это человеческая добродетель. Для этого на уроках чтения, этики, духовности использовать сведения о жизнедеятельности великих деятелей, которые заботились о свободе и благополучии нашего народа;

- научить учащихся умению отказываться от лишних, бесполезных забот. Для этого нужно использовать гуманистические информации в содержании образовательного процесса.

Использование национальных и общечеловеческих ценностей, в частности наставлений наших великих ученых, в духовном воспитании учащихся в образовательномом

процессе является чрезвычайно действенным инструментом в воспитании. Ниже мы кратко поговорим о некоторых из наставлений наших мыслителей и рассказанных ими историй:

В рассказе восточного мыслителя Абдурахмана Джами, детям предлагается действовать вдумчиво, не быть жадными и, самое главное, всегда уметь сдерживать похоть, жить различая друга и врага.

Лиса стала собеседником волка, и он стал идти по пути полного согласия. Однажды они пошли в сад, дверь в сад была плотно закрыта, а стена была высокой.

Они бежали вокруг стены, и наконец нашли дыру. Она была широка лисице, тесна волку. Лиса легко прошла, а Волк с трудом прошел.

Нашли различные виноградов и фрукты, пробовали все. Лиса стала мудрее, предусмотрела проход через дыру. Глупый волк наелся сколько смог. Вдруг садовник заметил их, взял в руки палку, и направился в их сторону. Лисица с узким животом с легкостью прошла через дыру. А волк с вздутым животом ни-как не смог пройти через дыру, и попался на руки садовнику. Он избил его до такой степени, бедняга волк едва выбрался из узкого отверстия, когда его кожа и шерсть выдернулись.

О, господин, не жадничай золотом,

В конце уйдёшь голым не забудь.

Не толстей из-за благословения.

Подумай, как будешь лежать в гробу.

Процитируем рассказ «Рохати дил». Многие аспекты этой работы можно использовать в качестве примера в воспитании детей.

Жили-были три брата. Они отправились в путь. Они прошли долгий путь. Они прошли через пустыни и посетили многие города и села. Неожиданно они нашли на дороге большое богатство – золото. Братья бедняки были вне себя от радости. Они подумали, что теперь разбогатеют.

Два старших брата дали младшему кусочек золота и поручили принести еду из города.

Братья, державшие золото на руках, передумали. Они задумались, не лучше ли разделить это богатство на двоих чем на троих. Конечно, лучше на двоих. Они начали планировать убить младшего брата и поделить его долю между собой.

Младший брат тоже ничем не уступал старших. В его мыслях тоже возродился злое намерение. Возвращаясь с города с едой решил завладеть всем богатством сам. С такими мыслями он добавил яд в пищу, которую нес братьям.

Как только он прибыл старшие братья убили его ножом. Довольные этим, братья, которые начали есть с аппетитом, думая, что теперь они поделят золото пополам, умерли от отравления.

Что в жизни может быть лучше добросовестности. Невозможно прожить жизнь долго и спокойно, воруя и присвоением чужое имущество. Тот, кто хочет прожить долгую, безопасную, счастливую жизнь, не боясь глядя на взгляды людей, выбирает честный жизненный путь.

На этом месте мы процитируем рассказ «Отец и дети» (Ota va o‘g’illar).

У одного человека были двое сыновей. Когда его дети подросли, и достигли совершеннолетия, отец задал им вопрос:

- Дети мои, пришла пора вам работать. Кто каким занятием хочет заниматься? — спросил он.

Его сыновья не знали, что ответить, и молчали.

- тогда пойдемте, обойдем страну и посмотрим, чем же заняты люди, - сказал отец.

Вместе они вышли в путь. По дороге его сыновья переглядывались и раздумывали, какую профессию выбрать.

По пути они вошли в один кишлак. Смотрят, на поляне стоит кузнечная мастерская. Они вошли в мастерскую и поприветствовали кузнеца. Старший сын взял молоток и помог мастеру работать с зубьями плуга. Затем они продолжил путь.

Они вошли в другой кишлак. Старший сын осмотрел кишлак и не нашел там кузнечную мастерскую. Тогда он сказал отцу:

- А нельзя ли здесь построить кузницу? Я бы занимался кузнечным делом. Мне понравилась эта работа — сказал он.

Отец его был рад, что старший сын нашел себе работу.

— Хорошо, — сказал отец, — оставайся в этом кишлаке и занимайся кузнечным делом.

Отец построил для сына кузнечную мастерскую, и сын занялся кузнечным делом. Люди довольствовали его работой, и он жил счастливой жизнью со своей профессией.

Что касается его младшего сына, то он не смог выбрать профессию, объездив множество мест.

Однажды, когда сын проходил с отцом по пастбищу, он увидел пасущегося вола. Кишлак находился далеко, а пастуха невидно.

- Отец, а как будет если я украду быка? — спросил он отца. — Эта работа очень легкая, мясо мы будем есть каждый день. После этого я растолстею как бык.

- Укради, я же взял тебя с собой, чтобы ты выбрал себе работу, - сказал отец.

Сын поймал быка и начал погнать его в сторону дома. Отец сказал:

- У меня в этом кишлаке был один знакомый, я зайду к нему, а ты жди меня у входа в лес, — сказал он.

Сын гнал быка. Как волк оглядқвается по сторонам, боясь не гонится ли кто-то за ним. Чуть не умер от страха пока он добирался до леса.

Сын дождался отца, и они вместе забрали быка домой. Дошли домой и зарезали быка, пожарили его мясо. После того как еда была подана на стол, отец сказал сыну:

- Знаешь сын, чтобы узнать кто сколько поправляется от мясо быка, давай поставим с тобой отметку.

Отец сказав так взял верёвку, измерил шею себе и сыну и спрятал её.

После этого сели за стол. Отец стал кушать спокойно, а сын стал оглядываться в дверь, не идёт-ли ли кто-нибудь. Если собака залает или кто-нибудь пройдёт мимо их дома, сын дрожа руки прятал мясо в амбар. Таким образом один за другим проходили дни. И наконец, они закончили мясо быка. Отец сказал сыну:

- Давай-ка сын измерим наши шеи, кто сколько поправился.

Когда измерили, то обнаружили что шея отца поправился в двое, а сын наоборот похудел в двое. Удивлённый сын спросил отца:

- Почему случилось так?

- Потому что ты ел мясо, ворованного быка, - сказал отец.

- Но ты же тоже ел это мясо, отец.

- Нет, я заплатил деньги хозяину быка, поэтому я был спокоен и поправился. А тебя бросало в дрожь, как только ты садился кушать. Вот это и есть причина твоего похудения. Украденная вещь – не сытит человека, сынок, - сказал отец.

Произведения наших восточных мыслителей богаты произведениями различных тем и жанров - пословицами, загадками, сказками, притчами, песнями, «лапар»ами, аския и дастанами. Они составляют основу узбекской народной педагогики. Потому что, они имеют чрезвычайно важное воспитательное значение в силу своей краткости, интересности, беглости, мелодичности, дидактики и идеализма.

Это основа узбекской народной педагогики. Потому что они имеют чрезвычайно важное воспитательное значение в силу своей краткости, интересности, беглости, мелодичности, дидактики и идеализма.

В редких произведениях, созданных восточными мыслителями на протяжении веков, выражается и воспевается дух народа, живущего в каждом обществе: идеи дружбы, братства, храбрости, верности стране и народу; воспеваются взаимная гармония родителей, взаимная любовь и достоинство ребенка, лучшие человеческие качества.

По мнению Абу Насра Фараби, воспитание человека может осуществляться двумя разными методами. Если ученик добровольно не стремится приобрести необходимые, интеллектуальные и нравственные качества - быть образованным, любить истину, быть храбрым, верным друзьям, то воспитатель, наставник должен формировать такие качества у ребёнка.

Основной задачей духовного воспитания учащихся начальной школы является физическое, умственное и духовное развитие учащихся, подготовка их к непрерывному образованию на основе национальных и общечеловеческих ценностей с учетом их интересов, потребностей и возможностей.

Формирование у учащихся знаний, умений и навыков в области национальных ценностей (традиций, обычаев, обрядов, национальных праздников и т. д.) и основанного на них духовного наследия, осознание ими богатейшего духовного наследия, дошедшего до нас от предков, является весьма сложным педагогическим процессом.

Поэтому каждый благоразумный гражданин нашей Родины должен не забывать ее богатое прошлое, а сохранять его, передавать будущим поколениям, активно участвовать в решении современных проблем в общественно-политической, социально-экономической, духовно-просветительской и духовно-нравственной сферах.

Использованная литература

1. Орифжонов, Х. С. У. (2020). К вопросу о национальных особенностях народной и классической музыки узбеков. Проблемы современной науки и образования.

2. Кары Ниязов Т.М. Очерки истории культуры Советского Узбекистана. Ташкент, 1955.

3. Орифжонов, Х. С. У. (2020). К вопросу о национальных особенностях народной и классической музыки узбеков. Проблемы современной науки и образования.

4. “Najot ta’limda, najot tarbiyada, najot bilimda”,- deydi prezident https://adti.uz/najot-ta%CA%BClimda-najot-tarbiyada-najot-bilimda-deydi-prezident/ .

“O‘ZBEK TILI” FANINI O‘QITISHDA TALABALARNING YOZMA SAVODXONLIGINI O‘STIRISH

O‘zbekiston. Sattorova Muborak
Nav.DU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchi va talabalarning aqliy faoliyatini oshirish va ularni mustaqil fikrlashida yozma savodxonlikning o‘rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Faollik, zamonaviy, to‘g;ri yozish, erkin fikr, yozma savodxonlik, grammatik topshiriq, imkoniyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль письменной грамотности в повышении интеллектуальной активности учащихся и студентов, а также в развитии их независимого мышления.

Ключевые слова:Активность, современный, правильное письмо, свободное мышление, письменная грамотность, грамматическое задание, возможность.

Annotation: This article discusses the role of written literacy in enhancing students' intellectual activity and fostering their independent thinking.

Keywords: Activity, modern, correct writing, free thinking, written literacy, grammatical task, opportunity.

Bugungi kun ta’limidan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad o‘quvchi va talabalar ongini zamonaviy g‘oyalar bilan rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, yoshlar o‘z imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishi, o‘z fikrini erkin va aniq bayon etishi haqida juda ko‘p fikrlar ilgari surilgan. Yoshlarimiz har bir dars jarayonida o‘z mustaqil fikrlarini to‘liq namoyon etishlari bugungi kunda muhim masalaga aylanib qoldi. Bu borada o‘quvchi va talabalar faolligini oshirish ta’lim xodimlarining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib bormoqda. O‘quvchi yoki talabalarni dars jarayonida

faolligi, uning bilimini, iqtidori hamda kuch-quvvati qay darajada ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, uning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun zamin yaratadi.

Ta’lim jarayonida talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini faollashtirish hamda, yozma savodxonligini o‘stirish jamiyatning ta’lim oldiga qo‘ygan muhim talablaridan biridir.

Talaba va o‘quvchilar bilim faoliyatini faollashtirish masalasiga bag‘ishlangan talaygina adabiyotlar mavjud. Masalan, o‘zbek tilshunos olimlari metodist olimlar: B.To‘xliyev, Safo Marchon, A.G‘ulomov, M.Asqarova, H.Ne’matov, Y.Abdullayev kabi olimlarimiz o‘zlarining ilmiy qarashlari orqali juda ko‘p monografiya va turli adabiyotlar yaratganlar.

Rus va boshqa millat olimlaridanYu.K.Babanskiy, M.A.Danilov, E.G.Mingazov kabi olimlar bir necha asarlar yaratganlar. Shulardan E.G.Mingazov quyidagi fikrni ilgari suradi: “Bilim faolligi haqiqatni isbotlash, turli manbalardan bilim olishga ishtiyoq, aqliy topshiriqlarni bajarishga intilish, o‘quv mashg‘ulotlariga nisbatan faoliyat ko‘rsatish, bilimga qiziqishlarda namoyon bo‘ladi”-deydi.[47]

Shaxsni tarbiyalashda muhim aloqa vositasi sanalgan til asosiy o‘rin tutadi. Nomilliy guruhlarda o‘zbek tili darslarining asosiy vazifasi talabalarni lingvistik qonun-qoidalar yig‘indisi bilan qurollantirish, ularda to‘g‘ri yozish malakalarini shakllantirish, erkin va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish mustaqil fikrlashga o‘rgatishdan iborat.

Shunga ko‘ra o‘quvchi talabalarning aqliy faoliyatini oshirish ularning mustaqil fikrlashi bilan bog‘liq deb hisoblash mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarining nomilliy, ya’ni rus va qozoq guruhlarida ham O‘zbek tili fani o‘qitiladi. Bu fanni o‘qitish jarayonida talabalarning yozma savodxonligini oshirishda alohida e’tibor qaratish lozim. Buning uchun o‘qituvchi ko‘proq grammatik topshiriqli matnlardan foydalanishi mumkin. Bunday matnlar qisqa muddatda bajarishga mo‘ljallangan bo‘lib, asosan, o‘rganilayotgan til hodisasini o‘z ichiga oladi. Talabalar o‘zbek tilidan deyarli barcha mashg‘ulotlarda duch keladilar.

Grammatik topshiriqli matnlar yaratishni ko‘pincha darsning oxirida topshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki talaba darsning boshida berilgan matnni tahlil qilish, materialni umumlashtirish va hosil qilingan bilimlarni amalda qo‘llay olish malakalarini susaytiradi. Mashg‘ulotning oxirida yaratilgan matnlar dars davomida hosil qilingan bilim, ko‘nikma va malakalarining mahsuli hisoblanadi.

Grammatik topshiriqli matnlar mavzusi xilma-xil bo‘lishi mumkin. Ularning asosiy qismi o‘qituvchi tomonidan tanlanadi. Matn yaratishni talabalardan yozma tarzda tuzish talab qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbek tili darslarining barcha mashg‘ulotlarida matn yaratilishi va uni tekshirish masalasida ancha qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Chunki o‘qituvchi, birinchidan, bunchalik ko‘p matnni muntazam tekshirib borolmaydi va ikkinchidan,ulardagi xatolar ustida ishlash imkoniyatlari ham ancha chegaralangan bo‘ladi. Shuning uchun murakkab ishga talabalarning o‘zlarini ham jalb etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday ta’limiy tarzdagi yozma ishlarni o‘zaro tekshirish usulidan foydalanish o‘rinli bo‘ladi.Talaba o‘z o‘rtog‘ining yozma ishini teksirar ekan, unda mas’uliyat hissi ortib boradi.

Grammatik topshiriqli matnlar yaratishda talabalar turli vositalarni ishga soladi. Shu vositalardan darsliklardan foydalanishdir. Ma’lumki, talabalarning asosiy o‘quv qo‘llanmasi darslikdir. Darsliklar orqali talaba nutqini rivojlantirish, ularda nutq madaniyatini tarbiyalash, yozma nutq mahoratini kengaytirish vositasi sifatida har tomonlama foydalanish lozim.

Darslikdagi voqeaband rasmlar tavsiya etilgan rejalar, namunaviy matnlar, berilgan tayanch so‘z va so‘z birikmalari (ma’nodosh so‘zlar, uyadosh so‘zlar, tasviriy ifoda va frazeologik), boshlanish qismi berilgan matnlar, maslahat va tavsiyalar talabalarning til hodisalarini amalda qo‘llab, grammatik topshiriqli matn yaratishiga yordam beradi.

Matn yaratishda tasviriy materiallar ham muhim vosita bo‘lishi mumkin.O‘zbek tili mashg‘ulotlarida darslik materiallaridan tashqari rasmlar, rasmli slaydlar, ayniqsa tarqatmalardan

[47] A.G`ulomov “Ona tili o`qitish jarayonida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari.T:FAN,1989-yil.3-b.

ham unumli foydalanishga to‘g‘ri keladi. Darsning samaradorligini oshirishda maxsus rasmli slaydlar tayyorlash ham foydadan xoli emas. Ayniqsa tilning barcha sathlari va har bir mavzu yuzasidan grammatik topshiriqli maxsus rasmli slaydlar tayyorlash ham maqsadga muvofiqdir. Ular ta’lim jarayonida talabalarning o‘quv imkoniyatiga qarab topshiriqning murakkablik darajasini belgilashga yordam beradi.

Xullas, hosil qilingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llab, grammatik topshiriqli matnlar yaratish o‘zbek tli mashg‘ulotlarida ko‘p qo‘llaniladigan ijodiy ish turi bo‘lib, undan samarali foydalanishga erishish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.G‘ulomov “Ona tili o‘qitish jarayonida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari.T:FAN,1989-yil.
2. B.Тўхлиев . Адабиёт ўқитиш методикаси. Т.: Янги аср авлоди, 2006.

ВКЛАД УЧЕНЫХ СРЕДНЕЙ АЗИИ В НАУКУ И ФИЛОСОФИЮ

O‘zbekiston. Адышева Назгул Кабылбековна,
ст. преп. КУМУ им. Б.Сыдыкова
+996 559 31 50 44
***n_adysheva@mail*.ru**

Аннотация:В статье раскрывается ценность научных идей и философских концепций среднеазиатских мыслителей IX XIII веков. Показаны основные отличия в развитии научной мысли в Европе и Центральной Азии. Приведены примеры научного мировоззрения философов и ученых энциклопедистов – Аль-Фараби, Абу Али ибн Сина, Ибн Рушд, Аль-Хорезми, которые в основу своих идей ставили принцип единства природы и науки. В статье акцентируется внимание на важнейшей роли трудов восточных ученых в становлении естественных наук на Востоке, а в дальнейшем и в европейских странах.

Ключевые слова: Средняя Азия, научное наследие, философия, Аль-Фараби, Авиценна, Аль-Хорезми, Аль-Бируни, Омар Хайям, средневековая наука, исламский мир, рационализм, астрономия, медицина, математика, культурное наследие.

Abstract: The article reveals the value of scientific ideas and philosophical concepts of Central Asian thinkers of the 9th-13th centuries. The main differences in the development of scientific thought in Europe and Central Asia are shown. Examples of the scientific worldview of philosophers and encyclopedic scientists are given - Al-Farabi, Abu Ali ibn Sina, Ibn Rushd, Al-Khwarizmi, who based their ideas on the principle of the unity of nature and science. The article focuses on the most important role of the works of Eastern scientists in the development of natural sciences in the East, and later in European countries.

Keywords: Central Asia, scientific heritage, philosophy, Al-Farabi, Avicenna, Al-Khwarizmi, Al-Biruni, Omar Khayyam, medieval science, Islamic world, rationalism, astronomy, medicine, mathematics, cultural heritage.

Вклад учёных Средней Азии в науку и философию представляет собой уникальное явление в мировой истории, охватывающее достижения в различных областях знаний: астрономии, математике, медицине, философии и литературе. В период с IX по XV века этот регион стал интеллектуальным центром исламского мира благодаря таким выдающимся личностям, как Аль-Фараби, известный как «Второй учитель» после Аристотеля, Авиценна (Ибн Сина), который написал канонические труды по медицине и философии, и Аль-Хорезми, основоположник алгебры [1, 69]. Научные достижения Средней Азии оказали огромное влияние на развитие европейской и ближневосточной науки в эпоху Средневековья и Ренессанса. Ученые региона внесли значительный вклад в сохранение и развитие античного наследия, переводы греческих и индийских текстов, разработку новых концепций и методов. Например, труды Аль-Бируни в области географии и минералогии, исследования Омар Хайяма в математике и астрономии демонстрируют широкий спектр интеллектуального потенциала Средней Азии.

Средняя Азия, с её богатой историей и культурным наследием, сыграла ключевую роль в развитии науки и философии. На протяжении веков этот регион стал домом для многих выдающихся ученых и мыслителей, чьи идеи и открытия оказали значительное влияние на мировую науку. Средняя Азия с IX по XV века стала одним из главных интеллектуальных центров исламского мира. Ученые региона не только сохранили достижения античной науки, но и значительно расширили её горизонты, заложив основы для дальнейшего развития мировой науки. Их труды охватывали различные области знаний, такие как астрономия, математика, медицина, философия, география и филология [2, 45-52].

Одним из самых известных ученых был Мухаммад аль-Хорезми, который считается основоположником алгебры. Его работы, такие как «Полная книга сложения и вычитания в индийском стиле», стали основой для дальнейшего развития математики в Европе. Аль-Фергани, другой выдающийся астроном, также оставил заметный след, его труды по небесным движениям были переведены на латынь и использовались учеными на протяжении веков [3, 113].

Философские труды этих ученых способствовали формированию рационализма, который стал основой для интеграции научного знания и религиозной традиции. Они не только развивали науку, но и размышляли над этическими и метафизическими вопросами, формируя культурное и интеллектуальное наследие, значимость которого ощущается до сих пор.

Исследование вклада учёных Средней Азии важно для понимания роли региона в глобальной истории науки и философии, а также для возрождения интереса к наследию этих выдающихся мыслителей.

Абу Али ибн Сина (Авиценна) сделал революционные открытия в области медицины. Его труд «Канон врачебной науки» стал настольной книгой для врачей вплоть до XVII века. Он не только систематизировал знания о лекарствах, но и ввел множество новых методов лечения, что сделало его одним из величайших врачей своего времени [4, 98].

Философы Средней Азии, такие как Аль-Фараби, внесли значительный вклад в развитие философской мысли. Аль-Фараби был известен как «второй учитель» после Аристотеля и создал первую арабскую энциклопедию. Его идеи о счастье и вечности материи остаются актуальным. Эти мыслители развивали концепции единства природы и науки, что способствовало формированию целостного научного подхода [5, 156]. Средняя Азия была важным просветительским центром, где пересекались различные культуры и науки. Учёные региона активно взаимодействовали с мыслителями из Китая, Индии и Европы, что способствовало обмену знаний и идей. Это взаимовлияние позволило создать уникальную научную традицию, которая была основана на античных знаниях и восточной мудрости.

Выдающимся представителем этой области является Аль-Хорезми, который разработал основы алгебры и ввёл в обиход десятичную систему счисления. Его работы стали основой для развития математики в Европе, где его имя трансформировалось в термин «алгоритм».

Омар Хайям, известный как поэт, был также выдающимся математиком и астрономом. Его работы по решению кубических уравнений и пересмотру календаря демонстрируют высокий уровень научной мысли [6, 77].

Авиценна (Ибн Сина) стал автором «Канона врачебной науки», который на протяжении нескольких столетий считался основным медицинским трудом как в исламском мире, так и в Европе. Он не только систематизировал медицинские знания, но и предложил новые методы лечения и диагностики.

Средняя Азия стала не только научным, но и философским центром, где велась активная интеллектуальная дискуссия.Аль-Фараби, известный как «Второй учитель» после Аристотеля, разработал концепции гармонии разума и религии, что способствовало интеграции философии и исламского богословия. Его труды по логике, этике и политике оказали влияние на последующие поколения мыслителей. Авиценна, кроме медицины,

оставил богатое философское наследие, в котором пытался объединить рационализм Аристотеля с духовностью ислама. Его идеи о природе души и связи разума с божественным были революционными для своего времени.

Научные достижения учёных Средней Азии распространились далеко за пределы региона. Благодаря переводам их трудов на латинский язык европейскими учёными, идеи и открытия этих мыслителей стали основой для развития науки в эпоху Возрождения. Их философские работы способствовали формированию рационализма, который оказал влияние на гуманизм и современное мировоззрение [7, 226].

Вклад учёных Средней Азии в науку и философию — это не только часть истории региона, но и важный этап в развитии мирового научного и культурного наследия. Их труды продолжают вдохновлять современных исследователей, подчеркивая важность интеграции знаний и культуры для прогресса человечества.

Заключение:Вклад ученых Средней Азии в науку и философию является неоценимым. Их работы не только обогатили знания своего времени, но и стали основой для дальнейших исследований в различных областях науки. Изучение их наследия важно для понимания исторического контекста развития мировой науки и культуры.

Использованное литературы

1. Авиценна. Канон врачебной науки. Перевод с арабского. – Москва: Издательство восточной литературы, 1961. -С.69

2. Гутер, Э. Г. Авиценна и его влияние на развитие медицины и философии // Вопросы истории науки. – 1987. – № 2. – С. 45–52.

3. Альперович, М. С. Научное наследие Авиценны в контексте средневековой медицины. – Санкт-Петербург: Наука, 1998. – С.113

4. Насыров, А. Х. Философия Авиценны: синтез античной мысли и исламской теологии. – Казань: Изд-во Казанского университета, 2010.-С.98

5. Громов, Б. В. Средневековые трактаты Востока: медицина и философия. – Москва: Наука, 2003. -С.156

6. Матвиевская, Г. П., Розенфельд, Б. А. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (VIII—XVII вв.). В 3 т. –М.: Наука, 1983. – С.77

7. Мукасов, С.М. Традиции социально-философской мысли в духовной культуре кыргызского народа [Текст] / С.М. Мукасов / Национальная академия наук Кыргызской Республики. Ин-т философии и права. – Бишкек: Илим, 1999. – С. 226 с.

MAKTABGACHA TA’LIMDA FANLARARO DISKURSNING AHAMIYATI

O‘zbekiston. Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, PhD
Jahonova Kamola Bobomurod qizi
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi
E-mail: *xaydarovashaxlo@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’limda fanlararo diskursning ahamiyati tahlil qilinadi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasidan tashqari, bolalar psixologiyasi, kompyuter savodxonligi va sun’iy intellekt, bolalar nutqini o‘stirish, bolalar adabiyoti va boshqa diskurs bilan bog‘liq fanlarning bolalar ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi natijasida ularning bilish, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi yaxshilanishi muhim omil ekani ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Diskurs, fanlararo diskurs, fanlarning uyg‘unlashuvi, kognitiv rivojlanish, sun’iy intellekt, pedagogika, psixologiya, lingvistika, neyrobiologiya, o‘yin asosida o‘qitish, emotsional intellekt, ta’limda texnologiyalar, integratsiya.

Annotation: this article analyzes the importance of interdisciplinary discourse in preschool education. In addition to the pedagogy of children of early and preschool age, it is noted that an important factor is the improvement of their cognitive, emotional and social development as a result of the integration of children's psychology, computer literacy and artificial intelligence, children's

speech culture, children's literature and other discourse-related disciplines into the educational process of children.

Keywords: discourse, interdisciplinary discourse, harmonization of Sciences, cognitive development, artificial intelligence, pedagogy, psychology, linguistics, neurobiology, game-based teaching, emotional intelligence, technology in education, integration.

Zamonaviy ta’lim tizimi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun kompleks yondashuvlarni talab qiladi. Bu jarayonda fanlararo diskurs muhim o‘rin tutadi.

Fanlararo diskurs – bu turli fan yo‘nalishlarining kesishgan nuqtasida yuzaga keladigan muloqot va o‘zaro ta’sir jarayoni bo‘lib, maktabgacha ta’limda bolalarning jismoniy, aqliy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda keng qo‘llaniladi.

Fanlararo diskursning ta’rifi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, diskurs tushunchasi lotincha “discursus” – “mulohaza yuritish”, “oldinga va orqaga yugurish”, “harakat”, “aylanish”, “suhbat” yoki fransuzcha “Discours” – “nutq” degan ma’nolarga borib taqaladi. “Diskurs” atamasi ko‘rib chiqilayotgan muammoning asosiy tushunchasi bo‘lganligi sababli, unung ta’rifiga turlicha yondashuvlar ustida to‘xtalib o‘tishni lozim deb bilamiz.

Diskurs - fanlararo tadqiqotlar mavzusi hisoblanadi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasidan tashqari, bolalar psixologiyasi, kompyuter savodxonligi va sun’iy intellekt, bolalar nutqini o‘stirish, bolalar adabiyoti va boshqa diskurs bilan bog‘liq fan va tadqiqot sohalarining ham asosiy o‘rganish obyekti hisoblanadi. Ushbu fanlarning har biri diskursni o‘rganishga o‘ziga xos tarzda yondashadi.

Fanlararo yondashuvning maktabgacha ta’limdagi asosiy yo‘nalishlari.

Pedagogika va psixologiya integratsiyasi.

Bolalar ta’limida psixologiyaning o‘rni juda muhim. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonining dastlabki bosqichida bo‘ladilar, shuning uchun ularga ta’lim berishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

O‘yin faoliyati orqali bolalarning kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash.

Individual yondashuv asosida bolalar temperamentini inobatga olish.

Bolalar nutqini o‘stirish va pedagogikaning bog‘liqligi:

Nutq rivojlanishi maktabgacha ta’limning eng muhim jihatlaridan biridir. Fanlararo yondashuv quyidagi jihatlarda aks etadi:

Til o‘rganish jarayonida ko‘p sensorli yondashuvlardan foydalanish (vizual, eshitish, kinestetik metodlar).

Rasm va hikoya qilish orqali bolalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish.

Ikki yoki undan ortiq til o‘rganish jarayonining bolalar tafakkuriga ta’siri.

Kompyuter savodxonligi va sun’iy intellekt hamda pedagogika integratsiyasi: Bugungi kunda texnologiyalar ta’limning ajralmas qismiga aylangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun texnologik yondashuvlar quyidagicha qo‘llaniladi:

Interaktiv ta’lim dasturlaridan foydalanish.

Kompyuter savodxonligi bo‘yicha bilim, malaka, ko‘nikmaga ega bo‘lish.

Sun’iy intellekt yordamida individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish.

O‘yin elementlari orqali ta’lim jarayonini qiziqarli qilish.

Fanlararo diskursning maktabgacha ta’limdagi amaliyotga tatbiqi.

Fanlararo diskurs asosida ishlab chiqilgan ushbu ta’lim tizimlari quyidagilarga asoslanadi:

Bolaning tabiiy qiziqishidan kelib chiqib ta’lim berish.

Sensor ta’lim metodlari yordamida bilish jarayonini qo‘llab-quvvatlash.

Mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

O‘yin orqali o‘qitish:

Bolalar tabiatiga mos o‘yin metodi quyidagicha qo‘llaniladi:

Didaktik o‘yinlar orqali bilim berish.

Ochiq o‘yinlar yordamida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Konstruktiv o‘yinlar orqali mustaqil ta’lim olishga rag‘batlantirish.

Emotsional intellekt va ijtimoiy ta’lim:

Bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash uchun quyidagi yondashuvlardan foydalanish mumkin:

Emotsiyalarni tushunish va nazorat qilishga o‘rgatish.

Guruhda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ijobiy xulq-atvorni shakllantirish bo‘yicha pedagogik texnikalardan foydalanish.

Xulosa qilganda, fanlararo diskurs maktabgacha ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi, chunki u bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim fanlarining uyg‘unlashuvi natijasida bolalar uchun samarali ta’lim jarayoni yaratiladi.

Kelajakda maktabgacha ta’lim tizimida fanlararo yondashuvlarni yanada kengroq qo‘llash orqali bolalarning bilish, muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga erishish mumkin. Shu sababli, pedagoglar doimiy ravishda zamonaviy fanlararo tadqiqotlardan xabardor bo‘lib, ularni o‘z amaliyotlariga tatbiq etishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Lex.UZ online.
2. O. Fozilova. Bolalarni maktabga tayyorlashda innovatsion yondoshuv usullari. FarDU.Ilmiy xabarlar. 2022.
3. N. Maripova. Maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlar. 2022.
4. G. Xodjayeva. Til va nutq rivojlantirish metodikasi. 2020.

TALIM-TARBIYA JARAYONINI GENDER YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

O‘zbekiston.* J.*R. Gulyamov
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Navoiy bo‘limi, Navoiy, O‘zbekiston
S.R. Mansurova
Navoiy viloyati pedagogik
mahorat markazi, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya: maqolada bolalarda gender o‘ziga xosliklarni bilish va tushunishni faolashtirish omilari, hamda ushbu jarayonning ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi, gender xususiyatlarini anglash bolalarning shaxsiy identifikatsiyasi va o‘zini tanib-bilishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: gender o‘ziga xoslik, ta’lim jarayoni, shaxsiy identifikatsiya, interfaol metodlar, ijtimoiy ko‘nikmalar, tenglik, bag‘rikenglik.

Кириш. Respublikada keyingi yillarda maktabgacha ta’lim sohasiga qaratilayotgan alohida e’tibor va mazkur yo‘nalishda qabul qilingan bir qator direktiv hujjatlar[48] ta’lim sifat va samaradorligini oshirish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy bazani yaratish imkonini berdi. Mazkur xujjatlarda maktabgacha ta’lim tizimini fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashuvini ta’minlash bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida qaralishi, maktabgacha soha yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning pedagogik mahorati va kreativ qobiliyatlarini oshirish kabi dolzarb vazifalarga qaratish masalasi qo‘yilgan. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, pedagoglar oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri – ta’lim-tarbiya

[48] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрдаги “Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3261-сон қарори / https://lex.uz/docs/3334234; 2018 йил 30 сентябрдаги “Мактабгача таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш чора –тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3955- сонли қарори / https://lex.uz/docs/3923110; 2019 йил 8 майдаги «Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПҚ-4312-сон қарори / https://lex.uz/docs/4327235: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 майдаги 391-сон “Мактабгача таълим муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари/ https://lex.uz/docs/4333062

jarayoniga innovatsion texnologiyalarini joriy etish orqali bolalar tafakkurini rivojlantirish mazmunini takomillashtirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ularga boshlang'ich ta'lim-tarbiya berish uchun yoshiga mos ravishda qiyin bo'lmagan birlamchi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga qaratilgan bo'lishi bilan birga, ularda nutq, tafakkur va axloqiy sifatlarini rivojlantirish bilan o'zaro uyg'unlikda amalga oshirilishini taqozo etadi. Chunki, bosqichda bolalar o'ta murakkab psixikaga ega bo'lgan shaxsga aylanayotgan davri bo'lib, ular bilimlarni o'zlashtirishi hamda bilish faolligi bir qator o'ziga xosliklarga ega. Ushbu o'ziga xosliklar – tafakkur strategiyasi, xotira va diqqatning turlari, yetakchi reprezentativ tizimlar kabi bir qator individual sifatlar u yoki bu darajada inson jinsiga ham bog'liq ekanligidadir.

Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qiz va o'g'il bolalarning ma'lumotlarni idrok qilishi va ularning tafakkur strategiyasi hamda, buning mahsuli sifatida, yangi bilimlarni o'zlashtirish va ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlari ham bir-biridan farq qilishidadir. Buning asosiy sababi – qiz va o'g'il bolalarning barchasi ma'lumotlarni qabul qilish hajmi va ishlash tezligi, diqqati va xotirasining hajmi, u yoki bu xotira tizimining ustunligi, idrok qilish jarayonlarining borishi, borliqni tasavvur qilishi va anglashi, "dunyoni ko'rishi" bilan bir-biridan farq qiladi. Aynan mana shu farqlar bolalarning gender xususiyatlarini belgilaydi.

O'g'il bolalar	**Qiz bolalar**
Tafakkur tarzi	
O'g'il bolalarda chap yarim shar rivojlangan bo'ladi, alohida o'zi ishlashga moyillik bildiradi, topshiriqni qilishda diqqatni to'plash bir muncha qiyroq kechadi, ma'lumot va axborotni sekin, lekin izchil o'zlashtira oladi, voqea va hodisalarni dastlab mohiyatini anglab, keyin harakat kiladi.	Qiz bolalarda o'ng yarimsharlar rivojlangan bulib, jamoa bo'lib ishlashni yaxshi ko'radi, ichan, hamma narsani obrazli ko'radi, voqea va hodisalarni obrazli ko'radi hamda mohiyatni sekinroq anglab yetadi.
Nutqni rivojlanganligi	
O'g'il bolalar nutqini rivojlanganli fikr bildirishda o'z g'oyalarini gapirib berishda qiynaladi, so'z boyligi kam, nutqida gaplar bog'lanishi, mantiqiy fikrlashi, muhim vaziyatlarda gapirishi yaxshi rivojlangan bo'ladi.	Qiz bolalarning so'z zahirasi kam, tez va ko'p gapiradi, o'qish tezligi yaxshi rivojlangan, imlosi, nutqida tuyg'ularini bayon etishi yaxshi.
Harakat sur'ati	
Berilgan topshiriqni sekinlik bilan bajaradi, yuqori sur'at kerak, mashg'ulot o'rtasi va yakunida ish qobiliyati yuqoriroq tarzda kechadi.	Mashg'ulot jarayonida ishga tez sur'atda kirishadi, yuqori darajada berilgan topshiriqlarni ko'tara olmaydi, tez charchoq sezadi, lekin tirishqoq va berilgan topshiriqni qunt bilan bajaradilar.
Idrok etish imkoniyatlari	
O'g'il bolalar maqtovni yaxshi ko'radilar. O'z faoliyatiga berilgan baho berilishini va maqtovni yaxshi ko'radi, berilgan ma'lumotlarni takrorlashni yoqtirmaydilar, diqqati pasayib ketadi, eng avval ma'noni anglaydi keyin harakatga kirishadi, axborotni umumiydan xususiyga taqdim etilganda yahshiroq tushunib yetadilar.	Qizlar kattalardan ijobiy tassurot qoldirishni yaxshi ko'radi, har qanday holatlarda ham ijobiy baholanishlarni istaydi, berilgan topshiriqlarni ko'p takrorlashni yoqtiradilar, ma'noni anglab yetishlari uchun ko'p vaqt talab qilishadi, ularda ko'rgazmali obrazli tafakkur rivojlangan.

1.1.1-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash faolligini oshirishda gender tafovutlar

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini fikrlash faolligini rivojlantirish masalasidagi ayrim tadqiqot ishlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash faolligini oshirishda gender tafovutlarni qo‘yidagicha keltirib o‘tgan[49] (qarang:1.1.1-rasm).

Odatda, qiz bolalarga ratsional-belgili tafakkur xos bo‘lganligi bois ularda asosan analitik, klassifikatsion, abstrakt, algoritmik, induktiv operatsiyalarni bajarishga moyillik ko‘proq kuzatiladi. Tahlil qilishda muammolar bilan ishlashni va ularni mantiqiy yo‘l bilan yechishni ma’qul ko‘rganliklari sababli o‘g‘il bolalarga qaraganda muloqotchan va faol insonlardir.

Xususan, qiz bolalar ma’lumotlarni ketma-ket va mantiqiy tahlil qilishlari, bunda tahlil xususiydan umumiyga yo‘nalganligi bilan farq qilishi, o‘g‘il bolalar esa voqeilikni intuitiv va umumiy yaxlitlikda anglashga hamda tafakkurining umumiydan xususiyga moyilliklari bilan farq qiladilar.

zamonaviy pedagogikada gender yondashuvning uchta asosiy talqini mavjudligini ta’kidlaydi. Jumladan:

1) genderga sezgir (gender-senzitiv) yondashuv – o‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtasidagi individual farqlarga e’tibor qaratib, ular o‘rtasidagi maqom tengligini tan oladigan yondashuv;

2) gender-neytral yondashuv – biologik jinslar o‘rtasidagi tenglikni tan olishni talab qilgan holda ular o‘rtasidagi gender farqlarni o‘quv mashg‘ulotlarining mazmuni va yo‘nalishiga ta’sir qilmaydi, deb qaraydi;

3) gender-stereotipli yondashuv – «erkak» va «ayol» tushunchalariga mos keladigan xatti-harakatlar, faoliyat sohalari va xarakter xususiyatlari haqida standartlashtirilgan g‘oyalarni rivojlantiradi, – deb hisoblaydi.

Shuningdek, olimlar gender yondashuvining quyidagi tamoyillarini o‘z tadqiqot ishida muhim ekanligigni keltirib o‘tadi.

Jumladan:

1) ta’lim-tarbiya jarayonida qizlar va o‘g'il bolalarning manfaatlarini maqsadli hisobga olish, ularning gender xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta’limiy faoliyatini amalga oshirish;

2) ta’lim-tarbiya jarayonida qiz va o‘g‘il bolalarni individualligi, shaxsiyati, uning gender munosabatlarining sub'ekti sifatida ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

3) ta’lim –tarbiya jarayonida qizlar va o‘g'il bolalarning qobiliyatlarini kamsitmaslik.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonini tashkil etishda bolalarning gender xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Chunki narsa va predmetlarni, atrof olamni idrok etish bosh miya yarimsharlarining faoliyati va funksionla tipologiyasi bola jinsiga bog‘liq bois ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagog bolalarning gender xususiyatlarini – qabul qilish, tafakkur va emotsiyalari turlicha bo‘lgan o‘g‘il va qiz bola turganligini hisobga olish, ularga ta’lim-tarbiya berish va hatto ularni turlicha yaxshi ko‘rish lozim. Bunda o‘g‘il bolalarga topshiriq berganda ulardan ozodalik va puxtalikni haddan ziyod talab qilmaslik, ularga izlani va faol tafakkur talab qiladigan topshiriqlarni berishga haraqat qilish kerak. Bu yondashuv – ta’lim jarayonida ko‘rilayotgan masala yechimini bolaning o‘zi ixtiro qilish imkonini beradi. Berilgan vazifalarni bajarish o‘g‘il bolalarga tushunarli bo‘lishi uchun pedagog nafaqat tushuntirish, balki ko‘rsatishi ham kerak.

O‘g‘il bolaga tanbeh berishda pedagog o‘z e’tirozini qisqa, lo‘nda va aniq bayon qilishi lozim. Chunki o‘g‘il bolalar emotsional zo‘riqishga uzoq vaqt bardosh berishga qiynaladi va buning oqibatida ularning miyasi ma’lumotlarni verbal qabul qilish (eshitish) kanalini o‘chirib qo‘yishi mumukin. Bu esa bola tanbeh mazmunini tushunmasligi va gaplarni to‘liq eshitmasligi, oxirigacha quloq solmasligiga olib keladi.

Ta’lim jarayonida qiz bolalarga beriladigan topshiriqlar birmuncha qiyinroq bo‘lsa ularni bajarishdan avval pedagog amalga oshiriladigan ishlar ketma-ketligini birgalikda ko‘rib chiqishi kerak bo‘ladi. Chunki qizlarni mustaqil ishlashga asta sekinlik bilan o‘rgatish maqsadga muvofiq.

[49] Туйчиева И.И. Мактабгача таълим ташкилотларида тайёрлов гуруҳи болаларининг фикрлаш фаоллигини ривожлантириш. Автореферат дисс... педагогика фан.ф.д. –Тошкент, 2023. – 14б.

Qiz bolalarga tanbeh berish uchun pedagog, birinchi navbatda uning xatosi nimada ekanligini tushuntirish zarur. Aks holda tanbeh eshitish jarayonida sodir bo‘ladigan jo‘shqin emotsional aks ta’sir tufayli qizlar muammoni asl mohiyati va nima uchun tanbeh berilayotganini tushunmay qolishlari mumkin.

Xulosa o‘rinda shuni aytish mumkinki, ta’limiy faoliyatni gender yondashuv asosida tashkil etilish:

1) ta’lim jarayonini tarbiyalanuvchilar shaxsiga yo‘naltirish va bilish faolligini oshirish hamda ular shaxsini qadriyatli-mazmunli gender rivojlantirish, psixik va aqliy rivojlanishini to‘g‘ri yo‘naltirish, ruhiy salomatligini mustahkamlash va individualligini qo‘llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoit yaratadi;

2) ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda gender tenglikni ta'minlash va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan birga, ularda kuzatuvchanlik, loyihalash, faraz qilish, taxmin qilish, tasavvur qilish ko‘nikmalarini izchil shakllanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Макусева Т.Г.Индивидуально-орентированиэ обучениэ.Журнал «Науки об образовании» М,-2017,./327С/www.didacts.ru
2. Москвина Н. В., Москвин В. А. Межполушарные асимметрии и индивидуалные различия человека. Смысл, 2011.
3. M. Platek, Julian Paul Keenan, and Todd K. Shackelford.Evolutionary Cognitive Neuroscience / Edited by Steven./ The MIT Press. Cambridge, Massachusetts. London, 2007 Massachusetts Institute of Technology.. –P. 5
4. Tuychieva I.I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish. Avtoreferat diss... pedagogika fan.f.d. –Toshkent, 2023. – 14b.
5. Sirotyuk A.L. Neyropsixologicheskoye i psixofiziologicheskoye soprovojdeniye obucheniya. –Moskva: «TS SFERA», 2003. — 288 s. / www.e-puzzle.ru

BUXORO MADRASALARIDA TA’LIM-TARBIYA VA MEHNAT MADANIYATI

O‘zbekiston. A.Sayitov

NavDU «Psixologiya» kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada Markaziy Osiyo Shayboniyxon, Abdulazizxon va Abdullaxon II larning boy kutubxonalari, u erda xizmat qiluvchi kotib va musavvirlari bo‘lib, kitobat ishlari va miniatyura san’ati rivoj va Buxoroda ta’lim - tarbiya mazmunidagi va kasb-hunar haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Movarounnahr, ta’lim –tarbiya, madaniyat, hayot, kasb-kor, hunarmand, naqqosh-xattotlari, ta’rif.

Аннотация: В статье рассматриваются богатые библиотеки Шейбани-хана, Абдулазиз-хана и Абдулла-хана II в Центральной Азии, их писцы и художники, развитие книгопечатания и искусства миниатюры, а также образование и профессиональные навыки в Бухаре.

Ключевые слова: Мавераннахр, образование и воспитание, культура, жизнь, профессия, ремесленник, художники-каллиграфы, описание.

Abstract: The article discusses the rich libraries of Shaybani Khan, Abdulaziz Khan, and Abdulla Khan II in Central Asia, their scribes and artists, the development of printing and miniature art, and the education and professional skills in Bukhara.

Keywords: Movarounnahr, education and upbringing, culture, life, profession, craftsman, calligrapher artists, description.

Dunyoda buyuk tarixiy-ma’naviy ildizlarga ega bo‘lgan davlatchiligik an’analarini davom ettirish, demokratik tamoyillarga asoslangan davlatlarni barpo etish jarayoni, jumladan jamiyat a’zolari hisoblanmish yoshlarni har tomonlama etuk, barkamol inson bo‘lib etishishlarida ajdodlar an’anasi va o‘tmish qadriyatlarni o‘rganish hamda pedagogika tarixiga doir manbalar bilan ishlash jarayonida talabalarda informatsion-analitik kompetensiyani shakllantirish, qiyosiy-tadqiqiy faoliyat

orqali o‘quv materiallarini strukturalash malakasini tarkib toptirishning didaktik tizimini ishlab chiqishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy-ma’naviy yuksalishi yo‘lida xizmat qiladigan, ozod va obod, farovon hayot, jamiyatning poydevorini yaratadigan, har tomonlama etuk, sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash hamda voyaga etkazish ta’lim sohasidagi islohotlarning asosini tashkil etadi. Bu islohotlar esa uzluksiz ta’lim tizimida olib boriladi.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoevning milliy madaniy merosimizni o‘rganish va targ‘ib etish to‘g‘risidagi quyidagi so‘zlari ham diqqatga sazovordir: «Keyingi vaqtda men joylarda bo‘lib, hududlarimiz hayoti bilan yanada yaqindan tanishar ekanman, shunday bir fikrga ishonch hosil qilyapmanki, biz hali yurtimizni, uning o‘ziga xos tarixi, madaniyati, ulug‘ olimu ulamolarini, bebaho ma’naviy merosimizni to‘liq o‘rganganimiz yo‘q”[50].

Xulosa qilib aytlganda Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida ilm-fan, san’at, madaniyat, ta’lim va boshqa sohalarda o‘ziga xos, davr ruhini o‘zida mujjasam etadigan, xalqimizning ijtimoiy-ma’naviy hayoti rivojida katta o‘rin tutgan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Shayboniy hukmdorlar davlat va aholi manfaatlarini ko‘zlab el-yurt obodonchiligi yo‘lida katta qurilish ishlarini amalga oshirdilar. Poytaxt Buxoro va boshqa erlarda ko‘plab suv omborlari, ko‘priklar, karvonsaroylar, savdo rastalari, bog‘lar, masjid va madrasalar qurdirdiki, buning orqasidan shaharsozlik taraqqiy topdi. Abdullaxon bandi, Abdullaxon timi, Abdullaxon madrasasi deb nomlangan qurilish inshootlarini bu buyuk bunyodkor hukmdorga nisbat beradilar. «Tarixi tomm» asarida Abdullaxonning Movarounnahr va Xuroson shaharlarida 1001 ta jamoat binosini barpo ettirganligi tilga olinadi[51].

Shuningdek, boshqa shayboniyzodalar ham yoshlikdan she’riyatga, turli hunar va san’at turlariga havas qo‘ygan edilar. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi choragida yashab ijod etgan Mutribiy Samarqandiy «Tazkirat ushshuaro» asarida 17 nafar nazmiy iqtidorga ega bo‘lgan shayboniy sulton va xonlarning nomlarini tilga olgan. Bulardan Abdulazizxon (Aziziy), Rustam Sulton (Rustiy), Abdol Sulton (Xush), Avaz G‘ozi Sulton, Bahodir Sulton, Muzaffar Sulton, Do‘stum Sulton, Fo‘lod Sulton, Abdulmo‘minxonlar nafaqat shoir, shu bilan birga musavvir va husnixat sohibi ham bo‘lganlar. Abdulatifxon tarix va nujum ilmi bilan shug‘ullangan, Abdullaxon I musiqashunos, sozanda va xattot bo‘lgan. Shayboniyxon, Abdulazizxon va Abdullaxon II larning boy kutubxonalari, u erda xizmat qiluvchi kotib va musavvirlari bo‘lib, kitobat ishlari va miniatyura san’ati rivoj topdi.

Shu tariqa, XIV asrda shakllangan tasviriy san’at maktabining yo‘nalishlaridan biri Buxoro miniatyura maktabi gullab yashnadi. Mavlono Mahmud Muzahhib, Abdulloh Xurosoniy, Sulton Mirak Buxoriy, Said Ibrohim, Mirali Hiraviy-Fathobodiy, Mir Savodiy, Arab Muhammad alBuxoriy kabi mashhur rassom va xushnavis kotiblar shu davrda ijod qildilar. XVII asrda yashagan turkiyalik sayyoh va olim Avliyo Chalabiyning ta’kidlashicha, Sulton Boyazid II davrida (1481–1512) rassomlik san’atini Turkiyaga dastlab keltirgan kishi buxorolik o‘zbek san’atkori Bobo naqqosh bo‘lgan. Endilikda Moskva, SanktPeterburg, Parij, Jeneva, London qo‘lyozma xazinalarida, muzeylarida mangulikka muhrlangan rasmli va badiiy bezakli nihoyatda nodir kitoblarning ko‘pi Buxoro miniatyura maktabiga mansubligi ma’lum. Chunonchi, Xusrav Dehlaviy, SHamsiddin Hofiz, Aka Malikshoh, Abdurahmon Jomiy, Hasan Dehlaviy va Mahramiyning lirik she’rlari jamlangan bayoz (Mir Ali Husayn ko‘chirgan, 1523), Navoiyning «Xamsa» (1559 yilda ko‘chirilgan), Sa’diyning «Guliston» (1566 yilda ko‘chirilgan), «Bo‘ston» (Mir Husayn al-Husayniy ko‘chirgan, 1575), Jomiyning «Tuhfat ul-ahror» (Mir Husayn al-Husayniy ko‘chirgan, XVI asr ikkinchi yarmi), Nizomiyning «Xamsa» (1579– 1580 yillarda ko‘chirilgan), Xusrav Dehlaviyning «Xizrxon tarixi» (Mir Solih ibn Mir Tohir Buxoriy ko‘chirgan, 1597), Firdavsiyning

[50] Ш.Мирзиёев 2018 й 15 июнь куни бўлиб ўтган "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби" мавзусидаги видеоселектор йиғилишидаги нутқи

[51] Шарафуддин Роқимий. Тарихи томм. –Т.: Маънавият. 1998

«Shohnoma» (Mirzo Muhammad ibn Amir Buxoriy ko‘chirgan, 1602) va boshqalar. XIV–XVII asrlarda amalda bo‘lgan Buxoro miniatyura maktabi aynan shayboniylar hukmronligi yillarida sermahsul bo‘lganligi o‘zbek va chet ellik tadqiqotchilar tomonidan tan olingan [7].

Shuni e’tirof etish lozimku, Shay1boniylar va Ashtarxoniylar sulolasining deyarli barcha vakillari zamonasining yuksak ma’lumotli kishilari bo‘lganlar, hokimiyat tepasida turganlari ilmu fazl va san’at egalariga rahnamolik qilganlar, me’morchilik va obodonchilik ishlariga alohida e’tibor qaratganlar.

Temur Sulton tashabbusi bilan 1514 yilda Buxorodagi eng yirik me’moriy yodgorlik- Masjidi Kalon kengaytirilgan, shifoxona, hovuz va ko‘priklar bunyod etilgan. Abdulazizxon davrida Bahouddin Naqshbandiy maqbarasi va xonaqohi qurib bitkazilgan, Mag‘oki Attor masjidi ta’mirlangan. Shaharning qadimiy qo‘rg‘oni – Buxoro arki qayta tiklangan.

Ushbu davrda yuqorida qayd etilgan inshootlardan tashqari Toshkentda muhtasham Baroqxon va Ko‘kaldosh madrasalari, Abu Bakr Muhammad ibn Ismoil Shoshiy maqbarasi, Boboxo‘ja maqbarasi, Buxoroda Shayx Qosim madrasasi, Do‘stum madrasasi, Fathulloh qushbegi madrasasi, Xoja Muhammad Porso madrasasi, Fayzobod xonaqohi, Mirak Said G‘iyos bog‘i, Mehtar Qosim ko‘prigi kabi ko‘plab ijtimoiy ahamiyatga molik me’moriy yodgorliklar bino qilinganki, ularning bir qismi ne-ne tabiiy ofatlaru jangu jadallardan omon qolib, hozirgacha yurtimizning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi. Shu bilan birga, bu obidalar insonlarni ma’naviy jihatdan birlashtirib, ezgulikka da’vat etib kelmoqda[52].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, XVI-XVII asrlarda faoliyat yuritgan sulolalar vakillarining el-yurt va madaniyat ravnaqi uchun qilgan xizmatlari o‘z ahamiyatini aslo yo‘qotmagan.

O‘zbek davlatchiligi tarixida hukmronlik qilgan sulola vakillari tarixda faqat hukmdorlar emas, balki bunyodkor va ijodkor sifatida, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida ham o‘chmas iz qoldirganlar.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNING NAMOYON BO‘LISHI PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

O‘zbekiston.Yo.I.Xashimova
Nizomiy nomidagi TDPU
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo‘lishi psixologik muammo sifatida o‘rganiladi. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda duch keladigan psixologik muammolar va ularni hal qilish yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, bo‘lajak tarbiyachi, psixologik muammo, shaxsiy xususiyatlar, kasbiy muvofiqlik, kognitiv kompetentlik, psixologik moslashuvchanlik, shaxsiy yetuklik, o‘z-o‘zini anglash.

Аннотация: В статье рассматривается проявление профессиональной компетентности у будущих воспитателей как психологическая проблема. В статье обсуждаются психологические проблемы, с которыми сталкиваются будущие воспитатели в процессе развития своей профессиональной компетентности, и пути их решения.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, будущий воспитатель, психологическая проблема, личностные характеристики, профессиональное соответствие, когнитивная компетентность, психологическая адаптивность, личностная зрелость, самосознание.

Abstract: The article examines the manifestation of professional competence in future educators as a psychological problem. The article discusses the psychological problems faced by

1. Шарипова М. XVI аср Бухоро маданий муҳитининг айрим хусусиятлари. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 2 Issue 11, October 2022

future educators in the process of developing their professional competence and ways to solve them.

Keywords: professional competence, future educator, psychological problem, personal characteristics, professional congruence, cognitive competence, psychological adaptability, personal maturity, self-awareness.

Kasbiy kompetentlik – bu tarbiyachilarning o‘z faoliyatida yuqori samaradorlikka erishishlari uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarning yig‘indisidir. Bo‘lajak tarbiyachilar kasbiy kompetentlikni rivojlantirish orqali o‘z kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish, bolalar bilan samarali muloqot o‘rnatish va ularga ta’lim-tarbiya berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Kompetentlik faqatgina nazariy bilimlarni emas, balki amaliy tajribani ham o‘z ichiga oladi, bu esa o‘qituvchi sifatida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishda muhim omil hisoblanadi. Tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi ularning shaxsiy xususiyatlari, ya’ni empatiya, hissiy barqarorlik, kommunikativ qobiliyat va o‘zini boshqarish kabi omillarga bog‘liq. Shaxsning kasbiy kompetentligi o‘z-o‘ziga ishonch va kasbiy shaxsiy identifikatsiya jarayonlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, tarbiyachilarda motivatsiya, mas'uliyat, shaxsiy muvozanat va bolalar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish kabi jihatlarni rivojlantiradi.

Kasbiy kompetentlikka erishish jarayonida tarbiyachilar turli psixologik muammolar bilan duch kelishi mumkin, chunki ular bolalar bilan yaqin aloqada bo‘lib, ularning ehtiyoj va qiziqishlarini qondirish uchun yuqori psixologik tayyorgarlik talab etadi. Bu jarayonda kasbiy muvofiqlik (professional congruence) yetakchi ahamiyatga ega bo‘lib, tarbiyachining o‘z vazifalariga va bolalar bilan ishlash jarayonlariga bo‘lgan ichki intilishi va mosligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv kompetentligi - bu ularning bilim olish, qayta ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyati hisoblanadi. Kognitiv kompetentlik orqali tarbiyachilar yangi bilimlarni samarali o‘zlashtirish va o‘quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o‘tishda ko‘mak berish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Tarbiyachilarning bu qobiliyatlari ularga bolalarning o‘quv jarayonida duch keladigan kognitiv to‘siqlarni aniqlash va ular uchun mos strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda psixologik moslashuvchanlik muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachilar pedagogik jarayon davomida turli xil vaziyatlarga moslashish va yangi sharoitlarga tayyor bo‘lishlari kerak. Moslashuvchanlik ularga o‘zining o‘quvchilari bilan samarali munosabat o‘rnatishga, ta’lim metodlarini moslashtirishga va pedagogik yondashuvlarni yangilashga imkon beradi. Moslashuvchanlik yuqori bo‘lgan tarbiyachilar o‘z faoliyatlarida innovatsiyalarni qabul qilishga ochiq va ijodiy fikrlashga moyil bo‘ladilar.

Kasbiy kompetentlikning muhim jihatlaridan biri shaxsiy yetuklik va o‘z-o‘zini anglash hisoblanadi. O‘z-o‘zini anglash orqali tarbiyachilar o‘z imkoniyatlarini, kuchli va zaif tomonlarini bilib oladilar, bu esa ularga o‘z faoliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yetuk tarbiyachilar o‘z shaxsiyatlarini yanada rivojlantirishga intiladilar va kasbiy faoliyatlarida o‘zlarini muvaffaqiyatli boshqarish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Kasbiy kompetentlik omillarini shaxsda namoyon bo‘lishi, taraqqiy etishi muammosi ko‘pgina olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Pedagog, psixologlar, sotsiologlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda Kasbiy kompetentlik muamosining qator o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan. Chunonchi, har bir tadqiqotchi mazkur muammoga o‘z yondashuvlari va o‘ziga xos ilmiy-amaliy tajribalari asosida yondashadi. Umuman olganda mazkur qarashlarning o‘ziga xos tomoni shundaki Kasbiy kompetentlik kasbiy kompetentlik bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Shu ma’noda har bir Kasbiy kompetentlik omili shaxs kasbiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan quyida tahlil qilinadigan har bir talqin Kasbiy kompetentlik omillarining u yoki bu darajadagi metodologik omillarini ochib berishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, shaxsda Kasbiy kompetentlik muammosi sharq allomalari tomonidan ham o‘rganilgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Donish va boshqa bir qator allomalar o‘zlarining pedagogik-psixologik qarashlarida mazkur muammoning o‘ziga xos jihatlarini yoritib berganlar.

Sharq mutafakkirlaridan buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy shaxs shakllanishi va unga ta’sir etuvchi omillardan ta’lim-tarbiya xususida o‘zining qimmatli fikrlarini bildirib o‘tgan. Xususan, ta’lim - so‘z va ko‘nikmalar majmui, tarbiya amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligi haqida to‘xtalib o‘tadi [2].

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, ijtimoiylashuv muammosi insoniyat uchun azaldan muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Abu Nasr Forobiyning fikricha, «Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatlarni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish, degan so‘zdir. Ta’lim faqat so‘z va o‘rganish asosida shakllansa, tarbiya amaliy ish, tajribadan iborat bo‘lgan ish-harakatdir» [2]. Bizning fikrimizcha, Forobiy o‘zining qarashlarida shaxs kasbiykompetentligining ijtimoiy-kognitiv komponentiga ko‘proq urg‘u bergan.

Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning fikriga ko‘ra, shaxsning shakllanishida uni atrofini o‘rab olgan tashqi muhit va odamlar ta’siri alohida rol o‘ynaydi. Aynan mana shu tashqi olam va odamlar shaxsning atrof dunyoni bilishigagina emas, balki uning ruhiy holatiga ham ta’sir etadi [1].

Abu Ali ibn Sino har bir insonning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish lozimligini ta’kidlaydi. Abu Ali ibn Sinoning fikricha, har bir inson tabiatiga binoan betakror bo‘ladi. Ushbu fikrlari bilan mutafakkir har bir shaxsning o‘ziga xos individual-psixologik imkoniyatlarining mavjudligiga ishora qiladi. Bu imkoniyatlar esa bizningcha shaxsning kasbiykompetentligini tahlil qilishda muxim ahamiyat kasb etadi [3].

Yusuf Xos Hojibning mulohazalarida har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun u tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. U qobil shaxsning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning ruxiy xususiyatiga e’tibor berishni ta’kidlaydi. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog‘i shart. Shundagina kelajagimiz davomchilari bo‘lmish farzandlarimizning noo‘rin hatti-harakatlarga berilishining oldi olinadi [2].

Voiz Al-Koshifiyning ta’kidlashicha insonni ta’lim-tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobiliyatini o‘stirish mumkin. Koshifiy o‘zining psixologik qarashlarida shaxsda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish masalasiga aloxida e’tibor berib ota-onalarning, muallimlardan bu masalaga aloxida ahamiyat berishlarini talab qilishi lozimligini ta’kidlaydi [1].

Bundan tashqari buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida tarbiyachining odobi, muloqotchanligi va o‘z kasbiga sadoqatini ifodalovchi juda ko‘plab jixatlar haqida alohida mushohadalar yuritganlar. Ushbu mushohadalarda bevosita tarbiyachining kasbiykompetentligiga daxldor fikrlar

Ijtimoiy kompetentlik deganda biz shaxsning boshqalar bilan muloqotga kirishi jarayonida faolligi, o‘ziga xos madaniyatiga egaligi, mehnat jamoasida muloqotga kirisha olishga aytiladi. Kasbiy kompetentlik esa bizningcha, shaxsning mehnat faoliyati davomida pedagogik jarayonni tashkil eta olishi, tarbiyalanuvchilar va o‘quvchilar, ota-onalar jamoasi bilan muloqot qilish ko‘nikmasi hisoblanadi. Shu orqali matabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachining kasbiykompetentligini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Abdullaeva Sh.X. O‘qituvchi professional staji va bevosita pedagogik tajribasining o‘z-o‘ziga munosabati tizimiga ta’siri. Psixologiya ilmiy jurnali № 4. – Buxoro, 2020.– B. 12-18.

2. Баратов Ш.Р. Методология обучения прикладных психологов: психологическиэ основы социалного интеллекта в системе образования/ Вестник интегративной психологии. – Ярославл, 2013. – С. 48-49.

3. Булавенко О.А. Характеристики компетентности специалиста // Проф. Образование № 4. – М., 2005.– С. 21.

4. Илязова М.Д. Разработка структуры компетентности субъекта деятелности в психолого-педагогических исследованиях: анализ проблемы и пути решения //Педагогический журнал Башкортостана. - 2009. - №3. - С. 64-83.

AXLOQIY MADANIYAT: YOSHLAR RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI (ILMIY TAHLIL)

O‘zbekiston. Sharipova Nilufar Raufovna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta`lim kafedrasi katta o‘qituvchi

Annotatsiya:Maqolada yoshlarga axloqiy madaniyatni rivojlanishi, axloqiy madaniyat yoshlarning harakatlari uchun oqilona, qat’iy choralarni belgilashi haqidagi fikrlar va olimlarimiz talqini o‘rganilgan

Kalit so‘z: madaniyat, axloq, axloqiy madaniyat, xulq-atvor, muomala- munosabat

Аннотация:В статье исследуется развитие нравственной культуры у молодежи, размышления о том, как нравственная культура определяет рациональные, строгие меры для действий молодежи, и интерпретация наших ученых

Ключевое слово: культура, мораль, этическая культура, поведение, обращение-отношение

Annotation:the article explores ideas about the development of moral culture for young people, the fact that moral culture determines reasonable, strict measures for the actions of young people, and the interpretation of our scientists

Key word: culture, ethics, moral culture, behavior, treatment-attitude

“Axloqiy madaniyat – deb yozadi N.K. Eyngorn, - bu madaniyatning o‘ziga xos turi bo‘lib, asosiy xususiyatlarini ifodalaydi[53]”.

1. Axloqiy madaniyat - madaniyatning bir qismi: Eyngorn axloqiy madaniyatni umumiy madaniyatning bir qismi sifatida ko‘radi. Bu shuni anglatadiki, axloqiy madaniyat har qanday jamiyatning qadriyatlari, normalari, urf-odatlari va an'analari bilan chambarchas bog'liq. U jamiyatning umumiy madaniy muhitida shakllanadi va rivojlanadi.

2. O‘ziga xoslik: Axloqiy madaniyat madaniyatning boshqa turlaridan (masalan, badiiy madaniyat, siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat) o‘zining xususiyatlari bilan ajralib turadi. Axloqiy madaniyatning o‘ziga xosligi uning axloqiy qadriyatlarga, yaxshilik va yomonlik tushunchalariga, burch va mas'uliyatga, adolat va insonparvarlikka qaratilganligida namoyon bo‘ladi.

3. Asosiy xususiyatlarning ifodasi: Axloqiy madaniyat jamiyatning eng muhim, fundamental xususiyatlarini aks ettiradi. U jamiyat a'zolarining o‘zaro munosabatlari, xulq-atvor normalari va qadriyatlarini belgilaydi. Axloqiy madaniyat orqali jamiyatning axloqiy ideallari, maqsadlari va intilishlari namoyon bo‘ladi. Jamiyatning axloqiy madaniyati uning barqarorligi, rivojlanishi va farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga axloqiy madaniyatni – madaniyatning muhim tarkibiy qismi (L.M.Arxangelskiy), ma’naviy madaniyatning elementi (N.P.Sokolova), jamiyat madaniyatining eng muhim jihati (A.I.Titarenko) deb ham izohlaydilar. Madaniyatshunoslik bo‘yicha ba’zi yetakchi mutaxassislar axloqiy madaniyatni tabiatdan alohida, rivojlanish xususiyatiga ega, ijtimoiy ahamiyati yuqori bo‘lgan ma’naviy qadriyatlar tizimi deb ta’rifladilar. Axloqiy madaniyat shaxs faoliyatining mahsuli bo‘lib, insoniyat jamiyatining saqlab qolish, ko‘payish va taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy guruhlar va insonlarning o‘zini-o‘zi anglashga olib keladi. “Madaniyat” shaxslararo muloqotni barqarorlashtirish vazifasini bajarib, axloqiy madaniyat mohiyatini tashkil qiladi. Litvalik tadqiqodchi V.Stoikusning fikricha, axloqiy madaniyat inson empirik qiyofasini ko‘rishga yordam beradi. Mazkur yo‘nalish tarafdorlari axloqiy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini, madaniyatning boshqa (badiiy, siyosiy, huquqiy, pedagogik, ekologik) turlaridan farqli tomonlarini ko‘rsatishga harakat qildilar. Shuningdek, yoshlar axloqiy ongini rivojlantirishdagi funksiyalari: yo‘naltiruvchi, tartibga soluvchi, tarbiyaviy (L.M.Arxangelskiy, Y.V.Sogomonov, A.I.Titarenko), yoshlar aksiologik dunyoqarashini shakllantirish (V.JYamaitis), yoshlar faoliyatini tartiblashtirish (M.S.Kagan)ni ta’kidlab o‘tdilar.

[53] Эйнгорн Н.К. Исходные основания понятия «нравственная культура» // Вопросы нравственной культуры. С. 80.

Yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirishning sotsiologik tomoniga e’tibor qaratilsa yoshlar xulq-atvorida axloq, madaniyat bilan birga ijtimoiy ta’sirlar va imitatsiya ham muhim o‘rin tutadi. Yoshlar axloqiy madaniyatini rivojlantirishda “ijtimoiy guruhlar va shaxslarning an’anaviy jihatdan shakllangan munosabatlarini vorisiylik asosida o‘rganish[54],” “o‘zini-o‘zi tarbiyalash[55],” “xalqning kundalik axloqiy faoliyatini kuzatish,” “ma’naviy faoliyat va axloqiy amaliyotdagi yondashuvlarni amalga oshirish ko‘nikmalarini egallash” muhim.

Yoshlar axloqiy madaniyatini rivojlantirishda “yaxshi inson bo‘lishi nafaqat adolatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik, balki uni xohlamaslikdir[56]” tamoyili asosida amalga oshirish lozim. Axloqiy madaniyat ijtimoiy hayotda majburiy munosabatlar va ta’bular asosida yashashga olib keladi. Axloqni yoshlar xulq-atvorining ma’naviy sharti sifatida tushunish o‘tmish va hozirgi davrdagi barcha mutafakkirlarga xosdir. Faylasuf-olimlar axloqiy madaniyatning yoshlar munosabatlarini yaxshilashini ta’kidlaydilar. “Har bir millat va elatning, deb yozadi P.A.Kropotkin, ular qay holatda rivojlanish bosqichida bo‘lmasin, o‘ziga xos, murakkab, qat’iy axloq meyorlariga ega” Demak, ijtimoiy hayotda insonlarning xulq-atvor va axloqiy munosabatlarini tartibga soladigan maxsus “kodeks”lar shakllangan. Qadimdan “biz” va “begonalar” o‘rtasidagi har qanday munosabatlar ilk axloqiy odatlarda o‘z aksini topgan[57]. Demak, ijtimoiy taraqqiyot evolyutsiyasida axloqning oltin qoidalari shakllandi. Unda jamiyat qabul qilgan meyorlar asosida yashash, axloqiy og‘ishlar va illatlardan holi turmush tarzi targ‘ib qilinadi. Shunday qilib,“axloqiy madaniyat yoshlarning harakatlari uchun oqilona, qat’iy choralarni belgilashga yordam berdi[58].” Bugungi kunda o‘zbek xalqi madaniy merosi va san’ati yoshlar xulq atvoridagi fazilatlarni rivojlantirish uchun ma’naviy asos bo‘lib kelmoqda. Milliy qadriyatlar asosida yoshlar, ularning axloqiy tarbiyasi, taqdiri, axloqiy madaniyati muhim o‘rin egallaydi. Bu tarbiya natijasida yoshlar obyektiv voqe’likni o‘z taqdiri deb biladi hamda nafsi va ehtiyojlarini cheklash madaniyati, sabr-toqat, rahm-shafqat, saxiylik asosiy xususiyatlari shakllanadi.

Xulq qamrovlilik jixatidan ana shu ikki xodisa o‘rtasidagi xususiyatlarga ega: u odobdan keng, axloqdan tor ma’noga ega bo‘lib, axloq singari jamiyat, zamon, tarix miqyosidagi voqelikka ta’sir ko‘rsata olmaydi. Lekin, oila, mehnat jamoasi, mahalla-kuy doirasida sezilarli darajada ko‘zga tashlanadi.

Oliy o‘quv yurtlari talabalari ko‘pincha oiladan uzoqda ta’lim olishadi va professor-o‘qituvchilar, oliy o‘quv yurti jamoat tashknlotlari bilan munosabatda bo‘lishadi. Bunday shart-sharoitda talaba-yoshlar o‘zbek xalq pedagogikasiga xos o‘zidan kattalar va tengdoshlarining yaxshi amallaridan o‘rnak olish, boshqalar bilan o‘zining xulq-atvorini qiyoslash, o‘z-o‘zini boshqarish o‘zini o‘zi tarbiyalash, egallayotgan kasbini puxta egallash, iliq muomala- munosabat, kamtarlik, o‘zni tuta bilish, ko‘proq ilm o‘rganish sharmi-hayoli bo‘lish, oilaning muqaddasligini anglash, oila a’zolarining hurmatini qozonish, bolajon bo‘lish va bola tarbiyasi sirlarini egallab, turmush o‘rtog‘ini ardoqlash malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish kabi oila xayoti va turmushi uchun zaruriy tamoyillarga amal qilishlari nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эйнгорн Н.К. Исходные основания понятия «нравственная культура» // Вопросы нравственной культуры. С. 80.
2. Фрадлина Е. М Категория «нравственная культура общества» // Там же. С. 114
3. Иванов В. Г. Нравственная культура: человечность и гражданственность // Гам же. С. 72
4. Материалисты Древней Греции. М.: Госполитиздат., 1955. С. 157.
5. Кропоткин П. А. Этика. С. 74
6. Еремеев А. Ф. Первобытная культура: происхождение, особенности, структура: Курс лекций. В 2 ч. Ч. 2. Саранск: Изд-во Мордов. ун-та, 1997. С.

[54] Фрадлина Е. М Категория «нравственная культура общества» // Там же. С. 114
[55] Иванов В. Г. Нравственная культура: человечность и гражданственность // Гам же. С. 72
[56] Материалисты Древней Греции. М.: Госполитиздат., 1955. С. 157.
[57] Кропоткин П. А. Этика. С. 74
[58] Еремеев А. Ф. Первобытная культура: происхождение, особенности, структура: Курс лекций. В 2 ч. Ч. 2. Саранск: Изд-во Мордов. ун-та, 1997. С.

ДИФФЕРЕНЦИРОВАННЫЙ ПОДХОД ПРИ ОБУЧЕНИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

O‘zbekiston. Тошпулатова М.Ф. Студентка группы 1 “Е” ДНО НАВГУ
Научный руководитель: Шамиева О.Р. к.п.н. доцент

Аннотация: данная статья посвящена использованию дифференцированного подхода при обучении учащихся начальных классов по умножению и делению.

Ключевые слова: дифференцированный подход, визуалы, кинестетики, аудиалы.

Период обучения в начальных классах - это важный этап в жизни ребенка, когда закладываются основы знаний, формируются учебные навыки, без которой невозможно дальнейшее обучение. Кроме этого младший школьный возраст представляет собой период интенсивного развития ключевых психологических процессов, которые формируют основу для успешного обучения и социализации ребенка. В этот период происходит качественный скачок в развитии познавательной сферы, эмоционально-волевых качеств и межличностных навыков.

Развитию мышления в большей мере способствует изучение математики, так как математика является наиболее абстрактной наукой, изучающей модели окружающего мира. При изучении математики дети встречаются с понятием числа, изучают действия с числами, учатся решать задачи, примеры, уравнения. Данный материал называется арифметическим, и именно он положен в основу изучения математики в начальной школе.

В настоящее время проблема ознакомления обучающихся начальной школы с арифметическими действиями на уроках математики стоит наиболее остро, так как у них наблюдается недостаточный уровень овладения вычислительными навыками. Поэтому вооружение учащихся прочными вычислительными навыками продолжает оставаться серьезной педагогической проблемой. Ещё одним из основных причин сложившегося положения многие педагоги и методисты видят в том, что в учебном процессе недостаточно ведётся учёт индивидуальных способностей младших школьников. Чтобы решить эту проблему учителю необходимо изучать различные методики, критически подходить к осмыслению и переработки информации, отбору приемов и средств, способных оказать положительное влияние на процесс обучения младших школьников, осуществление индивидуального подхода.

Умножение и деление - одни из основных арифметических действий, с которыми дети знакомятся в начальной школе. Они помогают решать задачи быстрее и формируют основу для дальнейшего изучения математики.

Традиционные методы (заучивание таблицы умножения, механическое решение примеров) не всегда эффективны, так как не учитывают индивидуальные особенности восприятия детей. Одна из основных трудностей обучения состоит в том, что дети приходят в школу с различным уровнем обучаемости, более того, возможности к обучению у них неодинаковые.

Исследования психологов свидетельствуют о том, что в одном и том же классе младшие школьники очень сильно отличаются друг от друга, т.е. одни легко схватывают учебный материал, а другие его усваивают с трудностью или одни активны в процессе обучения, другие же проявляют пассивность.

Таким образом, дети приходят в школу с разной подготовкой. Часто учителю приходится вести обучение применительно к среднему уровню развития и обучаемости детей. А. Н. Конев считал, что такой подход в обучении приводит к тому, что «сильные» ученики сдерживаются в своём развитии, теряют интерес к учебе, а «слабые» обречены на

отставание. Т е, кто относится к «средним», тоже имеют индивидуальные особенности, и даже для них такой подход неэффективен

Умножение и деление - один из ключевых математических операций, освоение которых должно быть не только эффективным, но и одновременно увлекательным. Как отмечали в свое время Менчинская Н.А. и Моро М.И. «достигнуть высоких результатов при обучении можно только при условии учета индивидуально - психологических различий школьников, проявляющихся в процессе учения» [2, с. 185]. Так как учащиеся класса усваивают материал по-разному в зависимости от ведущего канала восприятия, они условно делятся на несколько группы:

- визуалы - лучше запоминают через картинки, схемы, графики;
- дигиталы - предпочитают четкие алгоритмы и структурированные данные;
- аудиалы - воспринимают информацию на слух;
- кинестетики - учатся через движение и тактильные ощущения.

Учёт индивидуально - психологических особенностей школьников позволяет:

- повысить эффективность обучения;
- снизить стресс и повысить самооценку детей;
- создать комфортную образовательную среду.

Для этого учителю необходимо создавать условия, чтобы каждый ученик учился в соответствии со своими возможностями и способностями, развивал свои индивидуальные особенности, стал субъектом учения. Одним из способов осуществления индивидуального подхода в образовании является дифференциация обучения.

Дифференцированный подход – это система педагогических мер, учитывающая индивидуальные особенности учащихся для обеспечения эффективного учебного процесса. Этот подход позволяет адаптировать содержание, методы и темп обучения к возможностям и потребностям каждого школьника. Дифференцированный подход позволяет создать комфортную образовательную среду, где каждый ученик может развиваться согласно своим возможностям и способностям. Его грамотная реализация способствует повышению качества обучения и формированию положительного отношения к учебной деятельности.

Результаты исследований показали, что существуют два вида дифференциации. Они подразделяются на внешние и внутренние (внутриклассовые) дифференциации: Внешняя дифференциация это деление учащихся на устойчивые группы по явным признакам (способности, интересы и т.д.), в этих группах различны как содержание образования, так и способы обучения, а также формы организации. Во внутренней дифференциации учитываются специфические особенности детей в устойчивой группе, сформированной по случайным признакам. При этом деление на группы может быть явным или произвольным, в зависимости от поставленной цели обучения состав группы меняется. [1].

Дифференцированный подход предполагает учёт индивидуальных особенностей учащихся (уровня знаний, темпа работы, познавательных стилей) при организации обучения. В контексте изучения умножения и деления в начальной школе это особенно важно, так как дети усваивают математические действия с разной скоростью и разными способами.

1. Диагностика уровня подготовки. Перед началом обучения необходимо выявить:

- базовые знания (счёт, понимание сложения и вычитания);
- уровень развития логического мышления (умение видеть закономерности);
- индивидуальные особенности (визуалы, кинестетики, аудиалы).

Методы диагностики:

- устный опрос.
- практические задания (например, группировка предметов).
- игровые тесты (например, «Собери равные группы»).

2. Групповая дифференциация. Учащихся можно условно разделить на группы: ученики с высоким, средним и низким уровнем способностей.

Высокий уровень: быстро понимают, легко понимают смысл умножения/деления, легко запоминают.

Методы работы: усложнённые задачи (умножение/деление в столбик, задачи с неизвестным компонентом), на основе полного всестороннего анализа задачи ученик выделяет целостную систему взаимосвязей между данными и искомым.

Средний уровень: усваивают материал после объяснения, но нуждаются в практике, восприятие задачи сопровождается ее анализом.

Методы работы: многоразовое повторение, схемы, игры.

Низкий уровень: затрудняются в понимании арифметических действий, путают операции, восприятие задачи осуществляется учеником поверхностно, неполно.

Методы работы: конкретные примеры, упрощенные задания.

3. Методы и приемы дифференцированного обучения.

Для визуалов:

- Таблицы умножения с цветовым выделением.
- Графические схемы (например, «домики умножения/деления»).
- Плакаты с примерами (по возможности примеры должны быть распечатаны разными цветами красок, чтобы у них появился интерес).

Для аудиалов:

- Стихи и песни про таблицу умножения (можно в виде физминуток провести).
- Проговаривание правил хором.
- Устные диктанты («5 × 7 = ?»).

Для кинестетиков:

- Счет на пальцах, палочках, кубиках (можно даже с ручками/карандашами, которые находятся в их пеналах).
- Подвижные игры («Прыжки по числам»).
- Лепка цифр из пластилина (с воздушным будет удобней и интересней, так как с ними работать легче).

4. Дифференциация заданий. Для сильных учеников:

- Решение задач с лишними данными.
- Составление своих примеров.
- Исследовательские задания («Почему 42:7=6?»).

Для слабых учеников:

- Задания с опорой на картинки (например, «Сколько мандаринов в 3 корзинках по 4?»).
- Постепенное усложнение (сначала умножение/деление на 2, потом на 3).
- Использование шпаргалок-подсказок.

5. Карточки-задания. Для того чтобы организовать разноуровневую работу над задачей в одно и то же время, отведенное для этого на уроке, используем индивидуальные карточки-задания, которые готовятся заранее в трех вариантах (для трех уровней). Карточки содержат системы заданий, связанные с анализом и решением одной и той же задачи, но на разных уровнях. Предлагаем ученику вариант оптимального для него уровня сложности, при этом осуществляется дифференциация поисковой деятельности при решении задачи. Из этических соображений степень сложности указывается номером варианта в углу карточки.

6. Оценка и коррекция.

- Формативное оценивание (мини-тесты, устные ответы, стикеры, записки в тетрадях/дневниках).
- Гибкость в обучении (перевод между группами).

- Индивидуальные консультации для отстающих. Существенной чертой образовательного процесса в условиях интегрированного обучения является индивидуально-групповая коррекционная работа, направленная на коррекцию индивидуальных недостатков развития детей. Подобные занятия проводятся в рамках школьного компонента или во второй половине дня, имеют общеобразовательные и коррекционные цели: коррекция речевых нарушений, коррекция познавательных процессов, развитие слухового восприятия и обучение произношению. Коррекционно-развивающий урок моделируется в рамках общеобразовательной программы.

Условием проведения урока является большое количество разнообразного дидактического материала, хорошо отработанных заданий разной степени сложности, дозированной помощи к каждому заданию (Л.М. Кобрина).

Таким образом, дифференцированный подход позволяет каждому ребенку освоить умножение и деление в комфортном темпе. Важно сочетать разные методы, вовлекать учеников в активную деятельность и вовремя корректировать трудности.

Список литературы:

1. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. Мышления и речь. Проблемы психологического развития ребенка. М., 1956.

2. Бантова М. А., Бельтюкова Г.В. Методика преподавания математики в начальных классах. /М.А.Бантова, Г.В. Бельтюкова – М.: Просвещение, 1984.

3. Менчинская Н.А. Вопросы методики и психологии обучения арифметике в начальных классах [Текст] /Н.А. Менчинская, М.И. Моро. – М.: Просвещение, 1965.

MAKTABGACHA TA’LIM YO‘NALISHIDA KREDIT-MODUL TIZIMI BO‘YICHA TA’LIM OLAYOTGAN TALABALARINING MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI

O‘zbekiston. Xolmatova Salima Kuziboyevna
CHDPU “Maktangacha talim metodikasi “ kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit-modul tizimi sharoitida maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mustaqil ishning mazmuni, shakllari va baholash mezonlariga e’tibor qaratilgan. Amaliyotdagi mavjud muammolar tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: kredit-modul tizimi, mustaqil ta’lim, maktabgacha ta’lim, talabalar faolligi, baholash mezonlari**.**

Annotation: This article discusses the issues of effectively organizing the independent learning activities of students in the preschool education field under the credit-module system. The content, forms, and evaluation criteria of independent work are examined in detail. Additionally, existing practical problems are analyzed, and proposals and recommendations are presented.

Keywords: credit-module system, independent learning, preschool education, student activity, evaluation criteria.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar talabalarning ta’lim olishga bo‘lgan yondashuvini o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, kredit-modul tizimining joriy etilishi bilan o‘quv jarayonida mustaqil ta’limga bo‘lgan talab kuchaydi. Bu esa, o‘z navbatida, maktabgacha ta’lim yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar uchun ham yangi yondashuv va ko‘nikmalarni talab etmoqda.

Maktabgacha ta’lim yonalishida tahsil olayotgan talabalar uchun kredit-modul tizimining mohiyati va imkoniyatlari haqida to‘htalamiz. Kredit-modul tizimi hozirgi zamonaviy ta’lim talablariga mos keluvchi yondashuvlardan biridir. Ushbu tizim, ayniqsa, maktabgacha ta’lim

yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar uchun o‘quv jarayonini yanada moslashuvchan, mustaqil va faol tarzda olib borishga imkon yaratadi.

Kredit-modul tizimining asosiy jihatlaridan biri – bu talabaning o‘zlashtiradigan bilim miqdorini kredit birliklari orqali belgilashidir. Ya’ni, har bir fan ma’lum miqdorda kreditga ega bo‘lib, talaba shu kreditni egallashi uchun ma’lum hajmda bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Bu yondashuv talabani faollikka undaydi, o‘quv jarayonidagi mas’uliyatini oshiradi va o‘z ustida ishlashga yo‘naltiradi.

Bundan tashqari, mazkur tizim mustaqil ta’limga katta e’tibor qaratadi. Ya’ni, talaba o‘z bilimini faqat dars jarayonidagina emas, balki mustaqil tarzda mustahkamlashi, qo‘shimcha manbalar bilan ishlashi va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi kerak bo‘ladi. Bu esa uning axborotni tanlash, saralash, chuqur o‘rganish va amaliyotda qo‘llash qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, kredit-modul tizimi maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi talabalarni nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, mustaqil fikrlaydigan va kasbiy faoliyatga tayyor mutaxassis sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar uchun mustaqil ta’lim faoliyati o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu yo‘nalishda talabalarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy ko‘nikmalarning shakllanishi ham muhim o‘rin tutadi. Aynan mustaqil ishlar orqali talaba o‘z kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtiradi, ularni mustahkamlaydi va hayotga tatbiq etishni o‘rganadi.

Talabalarning mustaqil ishlari, odatda, pedagogik texnologiyalar, bolalar psixologiyasi, maktabgacha ta’lim metodikalari, rivojlantiruvchi o‘yinlar va mashg‘ulotlarni tashkil etish bilan bog‘liq mavzularni o‘z ichiga oladi. Bu mavzular talabalarni nazariy bilimlardan amaliy faoliyatga o‘tishga tayyorlaydi. Masalan, talaba bolalar bilan mashg‘ulotlar olib borish bo‘yicha dars ishlanmasi tuzadi, guruh mashg‘ulotlarini kuzatadi yoki metodik tavsiyalar asosida amaliy topshiriqlarni bajaradi.

Bunday mustaqil faoliyatlar orqali talaba tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy fikrlashga, mavjud muammolarga tahliliy yondashishga, o‘z qarashlarini asoslab bera olishga o‘rganadi. Mustaqil ishlar nafaqat bilimni chuqurlashtiradi, balki uni hayotiy tajriba bilan boyitadi, talabaning kasbiy kompetensiyalarini shakllantiradi.

Shuningdek, mustaqil ishlar talabalarni intellektual jihatdan faollashtiradi. Talaba o‘z ustida izlanishga, mustaqil qaror qabul qilishga, mas’uliyatni his etishga va o‘z fikrini mustahkam asoslashga o‘rgana boshlaydi. Har bir topshiriq, har bir tahlil yoki amaliy mashg‘ulot – bu talabaning bilimi, tafakkuri va kasbiy layoqatini baholashga xizmat qiladi. Natijada, talaba o‘zining kuchli va kamchilik tomonlarini anglaydi, o‘z ustida qanday ishlashi kerakligini tushunadi.

Shu bilan birga, talabaga berilayotgan topshiriqlarning mazmuni amaliyotga yaqin bo‘lishi, real ta’lim jarayonidagi holatlarga asoslanishi ham nihoyatda muhimdir. Bu holat talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga samarali tayyorgarlik ko‘rishiga xizmat qiladi.

Kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ta’limda talabalar mustaqil ishlariga qo‘yiladigan talablar va ularni baholash mezonlari aniq belgilangan bo‘lishi kerak. Bu mezonlar talabaning o‘zlashtirayotgan bilim darajasini, kasbiy kompetensiyalarining shakllanish holatini va mustaqil faoliyatga tayyorligini aniqlashga yordam beradi.

Baholash jarayoni faqatgina yakuniy natijani emas, balki talabaning butun o‘quv faoliyatini – ya’ni, topshiriqni qanday bajargani, unda qanday manbalardan foydalangani, ijodiy yondasha olganmi yoki yo‘q – bularning barchasini inobatga olishi zarur.

Talabalarning mustaqil ishlarini baholashda quyidagi asosiy mezonlar qo‘llaniladi:

1. **Topshiriqning mazmuni va sifati** – Talabaning mavzuni qay darajada tushunganligi, muammoga to‘g‘ri yondashganligi va mantiqan asoslangan yechimlar taklif eta olganligi.
2. **Manbalardan foydalanish madaniyati** – Talabaning ilmiy adabiyotlar, darsliklar, elektron resurslar asosida ishlay olishi va ular bilan mustaqil ishlash ko‘nikmasi.
3. **Ijodiy yondashuv va tahliliy fikrlash** – Mustaqil ishda taklif va xulosalarning mavjudligi, yangilikka intilish, tanqidiy va tahliliy qarashlarning ifodalanishi.

4. **Taqdim etish uslubi** – Ishning rasmiylashtirilganligi, aniq, tushunarli va ilmiy uslubda bayon etilganligi.

5. **Amaliyotga yo‘naltirilganlik** – Ishning real hayotiy vaziyatlarga mosligi, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatiga tatbiq etish imkoniyatining mavjudligi.

Baholashda ball tizimi yoki reyting tizimidan foydalaniladi, bu esa talabaga o‘z faoliyati natijasi yuzasidan aniq va tushunarli fikr bildiradi. Shuningdek, baholash orqali o‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali teskari aloqa yuzaga keladi – talaba nimani yaxshi bajargan, nimani yanada takomillashtirishi kerakligini anglaydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, baholash mezonlarining shaffofligi va aniqligi talabaning motivatsiyasini oshiradi, mustaqil ta’limga nisbatan mas’uliyatini kuchaytiradi.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ayrim hollarda talabalarning mustaqil ishlari faqat shakl uchun bajarilmoqda. Mazmuniy jihatdan chuqur tahlil qilinmagan, shunchaki nusxalash holatlari uchrab turadi. Bu holatlarning oldini olish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- mustaqil ishlarning mavzulari amaliyot bilan chambarchas bog‘lanishi lozim;
- topshiriqlarni baholashda ijodiy yondashuv ustuvor bo‘lishi zarur;
- rahbar-o‘qituvchilar tomonidan teskari aloqalar muntazam yo‘lga qo‘yilishi kerak;
- talabalarga metodik ko‘rsatmalarni berib borish muhim.

Kredit-modul tizimi sharoitida maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mustaqil ishlar bilim olishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon to‘g‘ri tashkil etilsa, talabalar o‘z ustida ishlash, ijodiy fikrlash va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Mustaqil ishlar sifatini oshirish uchun esa tizimli yondashuv, motivatsiya va doimiy nazorat muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori. — Toshkent, 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil.

3. Axmedov N., Raxmonov S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: TDPU, 2020. – 210 b.

4. Qodirova D. A. Ta’lim jarayonida mustaqil ishlashni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari // Pedagogik ta’lim va fanlar. – 2021. – №2. – B. 45–50.

5. Abdurahmonova G., Karimova Z. Kredit-modul tizimi asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning samarali usullari // O‘zDJTU ilmiy axborotnomasi. – 2022. – №4. – B. 32–36.

6. Ergasheva N. I. Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalarning o‘rni. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2019. – 124 b.

7. Hasanboyeva M. Talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini baholashda zamonaviy yondashuvlar // Ilm-fan va taraqqiyot. – 2023. – №1. – B. 51–54.

8. UNESCO. Teaching and Learning in the 21st Century. – Paris: UNESCO Publishing, 2018.

BULG‘USI TARBIYACHILARGA QO‘YILADIGAN PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TALABLAR

O‘zbekiston. Boltayeva Shoxsanam Istamovna
Navoiy shahar 32-sonli DMTT direktor

Annotasiya:ushbu maqolada bugungi kunda maktabgacha ta’limga beriladigan e’tibor va bo‘lg‘usi tarbiyachilarga qo‘yiladigan talablar, odob-axloq meyyorlari haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, talablar, jamiyat talablari, odob-axloq meyyorlari, shaxsiy sifatlar.

Аннотация: в данной статье содержится информация о внимании, уделяемом сегодня дошкольному образованию, требованиях к будущим воспитателям, нормах этики.

Ключевые слова: дошкольное образование, требования, требования общества, моральные нормы, личностные качества.

Abstract: this article contains information about the attention paid today to preschool education, requirements for future educators, and ethical standards.

Key words: preschool education, requirements, requirements of society, moral standards, personal qualities.

Respublikamizda ta’lim tizimida asosiy e’tiborni qaratish har doimgidan ham dolzarb masalaga aylandi. Ta’lim bosqichlarining boshlag‘ich nuqtasi bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimiga assosiy e’tiborni qaratilishi bu bejiz emas. Chunki bir guruh olimalrimiz tdqiqotlarining natijasi sifatida inson umri davomida oladigan barcha axborotlarning asosiy qismini ana shu davrda olar ekan. Bugungi kunda nafaqat maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish masalasi balki mana shu yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya beradigan pedagog xodimlar masalasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, 2017 yil sentaybr oyida ”Maxsus sirtqi bo‘limlar”ning ochilishi, maktabgacha ta’lim muassasasida faoliyat yuritadigan nomutaxasis xodimlarni qayta tayyorlash maqsadida yaqindagina o‘z ishini boshlagan ”Qayta tayyorlov kurslari”ining barchasi respublikamiz Prezidenti tominidan tarbiyachi–pedagoglar uchun imkoniyatlar eshigidir. Chunki, jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirishda ana shu tarbiyachi-pedagoglarning o‘rni beqiyosdir.

Bundan ko‘rinadiki, o‘qituvchi, tarbiyachilar avvalo zamonaviy bilim bilan qurollangan bo‘lishi lozim.

Bizga ma’lumki insonni shakllantirish muammosi nihoyatda murakkab va ko‘p qirralidir. Bu muammoning quyidagi jihatlari hozirgi zamon pedagogika fanida anchagina samarali tadqiq etilmoqda:

- pedagogik jarayon yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyaning istiqbolli modeli, kasbiy, ma’naviy-axloqiy shaklllanganlikning nisbatan ideal holati kabi muammmolar ustida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Chunki bola xulqining u yoki bu darajadagi tavsifi, ularda shaxsiy sifatlar shakllanganligining mavjud darajasi aniqlanib, mo‘ljaldagi ideal darajasini loyihalashtirish nazarda tutiladi;
- ta’lim-tarbiyaning samarali vositalari, shakl, usullari tizimini yaratish; belgilangan maqsadga erishish uchun zarur bilimlarni tanlash va tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- shaxsda shakllantirish talab etiladigan zaruriy sifatlar, xulq-odatlarni shakllantirish jarayonining xususiyatlarini psixologik, pedagogik jihatdan o‘rganish;
- ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb etiladigan bolalar tarkibining o‘ziga xos xususiyatlarini sotsiologik-psixologik jihatdan tahlil qilish;
- bolalarda ma’lum sifatlar va xususiyatlar shakllanganligini baholash mezonlari, ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish;
- ta’lim-tarbiya jarayonining borishini nazorat qilishning samarali tizimini – ta’lim jarayoni monitoringini yaratish kabilar.

Yuqorida keltirilgan masalalardan har birining ko‘lamini aniqlash, ularni yaxlit bir tizimga birlashtirish – ta’lim-tarbiya ishlarini samarali boshqarish muammosi doirasida hal etiladi. Tarbiya jarayonini samarali boshqarishning mohiyati shundaki, tarbiyalashning qulay vosita va usullarini qo‘llash orqali mo‘ljallangan natijaga erishishdan iborat. Ta’lim-tarbiya ishlari muayyan izchillik asosida tizimli tashkil etilsagina ko‘zlangan natijaga erishish mumkin bo‘ladi.

Bizning asosiy g‘oyamiz shundan iboratki, pedagogika o‘quv yurtlarining talabalarida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining asosini tashkil etishi lozim. Kasbiy-axloqiy tarbiyani bunday tashkil etish talabalarda atrof-borliqqa tarbiyachiga xos faol hayotiy nuqtai nazar, namunali odob meyorlarini egallash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Kasbiy-axloqiy ta’lim-tarbiyani samarali tashkil etish uchun:

1) kasbiy-axloqiy shakllanganlikning talab etiladigan ideal holatini aniq tasvirlash, asoslab ifodalash;

2) talabalar kasbiy-axloqiy shakllanganlik darajasining mavjud holatini aniqlash;

3) mavjud holatni istalgan ideal sari o‘zgartira oladigan aniq yo‘llar, vositalar, ish usullari, shakllarini belgilash;

4) ta’lim-tarbiya ta’sirida vujudga keladigan o‘zgarishlarni nazorat qilish, taqqoslash, zarur bo‘lganda tuzatishlar kiritish lozim.

Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarish muammoning uchta jihati: talabalarning kasbiy-axloqiy shakllanganlik darajasi qanday bo‘lishi kerak?, mavjud holati qanday? degan savollarga javob topgan holda uni istalgan ideal tomon qanday o‘zgartirish mumkinligiga e’tibor berishni talab etadi.

Kasbiy-axloqiy jihatdan shakllangan mutaxasis qanday bo‘lishi kerak? degan savolga aniq, to‘g‘ri javob topish bu sohadagi ko‘pgina muammolarning yechimini topishga yordam beradi. Darhaqiqat, kasbiy-axloqiy jihatdan shakllangan ideal mutaxasisning imkoniyatlari ma’lum darajada real yoki noreal, ko‘p qirrali yoki bir yoqlama bo‘lishi mumkin. Masalan, kasbiy-axloqiy jihatdan shakllangan mutaxasis ideali noreal, ya’ni, amalda erishib bo‘lmaydigan darajada bo‘lsa, nazariy jihatdan ta’limning samaradorlik darajasi yuqori bo‘lmaydi. Chunki bunday yuqori ideal darajasiga sanoqli talabalargina erishishlari mumkin. Aksincha, ideal oddiy, soddalashtirilgan bo‘lsa ko‘pchilik talabalar bunga osongina, maxsus ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarsiz ham erishishlari mumkin. Bunda samaradorlik birmuncha yuqori bo‘ladi. Lekin uning ahamiyati nimada? Agar ideal mavhum bo‘lsa, bo‘lajak mutaxasisning xulqi, xatti-harakatlari uchun uning ta’siri kam bo‘ladi. Agar kasbiy-axloqiy jihatdan shaklangan mutaxasis ideali bir yoqlama bo‘lsa, unda bo‘lajak mutaxasisda ayrim kasbiy sifatlar takomillashib, boshqalari rivojlanmay qolaveradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida kasbiy-axloqiy shakllangan mutaxasisning muayyan ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Juda mavhum, noreal idealni amalda baholab bo‘lmaydi va bu talabaning kasbiy-axloqiy darajasini obyektiv baholashni qiyinlashtiradi. Aksincha ideal aniq, real bo‘lsa, talabaning kasbiy-axloqiy xatti-harakatlarini taqqoslash va obyektiv baholashga imkoniyat tug‘iladi. Lekin bu yo‘lda ham ayrim qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Bunda belgilangan mezon juda oddiy, yengil bo‘lishi va talabada ayrim zarur sifatlar rivojlanmay, o‘z holida qolishiga olib keladi.

Pedagog odobini shaklantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun mo‘ljallangan ideal masalasi o‘ta muhim bo‘lganligi tufayli pedagog odobi fazilatlari shakllanishining ideal modeli masalasini talabalarda tarbiyachi odobiga xos sifatlar misolida quyida batafsil ko‘rib chiqamiz.

Pedagog odobi tarbiyalanuvchi hamda tarbiyachilarning o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta’kidlash lozim. Zero tarbiyachining kasbiy axloqi bolalar bilan muloqot jarayonidagina namoyon bo‘lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Axloqiy tarbiya bilan pedagogik odob tarbiyasi o‘rtasida murakkab aloqadorlik munosabatlari mavjud.

Pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi. Unda insonning kasbiy barkamolligi ijtimoiy taraqqiyotning oliy ne’mati va mezoni hisoblanadi. Pedagog odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, axloqiy ta’lim-tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishda ikki yo‘nalishdagi aloqador tushunchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir:

Jamiyatning tarbiyachi shaxsiga munosabati.

Tarbiyachi shaxsining jamiyatga munosabati.

Insonning insonga munosabati ikkinchi guruh aloqalar doirasiga kiradi. Kasbiy-axloqiy ta’lim-tarbiya jarayonida ular qisman qamrab olinadi, xolos.

Yuqorida bayon etilganlar pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishni ta’lim-tarbiyaning alohida sohasi sifatida ajratishni taqozo qiladi. Ayniqsa, pedagogika o‘quv yurtlari ta’lim tizimi uchun bu juda muhim, chunki tarbiyachilik kasbi uchun bolalar haqida g‘amxo‘rlik qilish pedagog odobining asosini tashkil qiladi.

Bu o‘z navbatida ideal, kasb odobiga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyaning mazmuni qanday bo‘lishi lozimligini aniqlashni talab etadi. Chunki ta’lim-tarbiya jarayoni bo‘lajak tarbiyachilarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishga yo‘naltirilishi va o‘quv jarayonining natijasi ideal bilan qiyoslanishi lozim.

Pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish muammosini ishlab chiqish odoblilik namoyon bo‘lishi talab etilgan muhitning barcha jihatlarini qamrab olishi zarur. Bunda har doim tarbiyachi odobi fazilatlari shakllanishining ideal holatini tasvirlash kerak. Buning uchun kasb odobi fazilatlarining ideal modelini ishlab chiqish zarur. Faqat shundagina taklif qilinayotgan ideal ta’lim-tarbiya tizimning asosiy qismiga aylanadi.

Biz, avvalo, pedagog odobi fazilatlarnini shaklantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimini ilmiy jihatdan asoslashni maqsadga muvofiq deb hisobladik:

Jamiyatning tarbiyachi shaxsiga munosabati - jamiyatda shaxsning kamol topishi va uning haq-huquqlari haqidagi tasavvurlari vositasida tarbiyalanuvchi odobini shakllantirishga xizmat qiladigan bilim va tushunchalar taqdim etiladi. Shaxsning haq-huquqlari tushunchasi adolat, tenglik, ozodlik, erkinlik, baxt-saodat tushunchalariga asoslanadi. Bu tushunchalar jamiyatda tarbiyachi odobining ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Har bir kasbning o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq holda, xayrixohlik, yaxshilik qilish munosabatlari ham bir-biridan ajralib turadi. Masalan, bolalar bilan subyekt-subyekt munosabatga kirishiladigan tarbiyachilik kasbida xayrixohlik, bolalarga yaxshilik qilish munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachilik kasbi murabbiydan bolalarni jon dildan seva olish fazilatiga ega bo‘lishni talab etadi.

Bizning fikrimizcha, kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlanish bosqichida talabaning pedagogika o‘quv yurtida o‘qish chog‘ida olgan bilimlari dunyoqarashining zamini sifatida ilmiy asoslangan, mustahkam bo‘lmog‘i zarur. Talabada chuqur, to‘g‘ri kasbiy-axloqiy bilimlar hosil qilinmasa, Maktabgacha tarbiya muassasi tarbiyachisi uchun zarur ksabiy e’tiqodni rivojlantirib bo‘lmaydi.

Talabalar bilimiga e’tibor qaratish shuning uchun ham zarurki, pedagogika o‘quv yurtida yaxshi o‘qish bilimlar tizimini puxta o‘zlashtirish-ularning ijtimoiy, kasbiy burchidir: bshlajak tarbiyachi bilimlarni egallash faoliyati orqali jamiyat hayotida qatnasha boradi, bilim egallashdagi yutuqlari orqali jamiyat rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Bugungi bugungi kun talabiga javob beradigan pedagog, kerakli bilim, malaka va ko‘nikmalarni ma`lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Shu jumladan bo‘lg‘usi tarbiyachilar ham o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish uchun u quyidagilarga amal qilishlari lozim:

- yosh avlodni tarbiyalash uchun oliy ma`lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg‘or tajribali pedagoglarning tajribasini o‘rganib, o‘z ishiga tadbiq eta oladigan kishi bo‘lishi;
- bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, hatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ijobiy ta`sir vositalarini topa oladigan bo‘lishi;
- yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan xabardor qilish uchun nutqi ravon, aniq mantiqiy ixcham bo‘lishi, ta’lim berishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalani olishi, bolalar bilim, malaka ko‘nikmalarni yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun faollashtiruvchi savollardan foydalana olishni bilishi kerak.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim muasassalarida tashkil etilayotgan ta’lim tizimi va bu jarayonga jalb qilinishi lozim bo‘lgan har bir bo‘lg‘usi tarbiyachi, pedagog har bir tarbiyalanuvchining o‘ziga xos betakror olami individual psixologik xususiyatlari, imkoniyatlari va iqtidor kurtaklarini aniqlashni bilishi va shu asosida ta’lim-tarbiyaning samarali usullarini qo‘llashi uchun yuqoridagi xislatlarga ega bo‘lsa, bubungi kunning talabiga javob bera oladigan mutaxasis sifatida vatanimiz kelajagi bo‘lgan barkamol avlodga kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahkamova M. Bo‘lajak tarbiyachilarning muloqot madaniyatini shakllantirish. Pedagogika fanlari nomz.ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. Toshkent. 2002, 21 bet.
2. Ochilov M.O. Muallim qalb me’mori. T.: O‘qituvchi. 2001., 429 b.
3. Ochilov M. Ochilova N.M. O‘qituvchi odobi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1997, 136 b.
4. Ochilov Safo. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. T.: O‘qituvchi, 1995, 207 b.
5. Ochilova N Talabalarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishning shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari nomz.ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. Toshkent. 2006, 11-34 bet.

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ВЕЛИКИХ ПЕДАГОГОВ

Узбекистон. Шамиева О.Р. к.п.н. доцент
Тураева М.М. Студентка
1- курса группы “Е” ДНО НАВГУ

«Без любви к ребёнку нет настоящего воспитателя»

К.Д. Ушинский

«Учитель не любящий ребёнка,-педагогическая ошибка».

Ш.А.Амоношвили

Аннотация: В данной статье раскрывается методики обучения великих педагогов.

Ключевые слова: воспитание, методы, цель обучения.

В истории педагогики особое место занимают такие выдающиеся педагоги Шалва Александрович Амонашвили основоположник гуманной педагогики, и Константин Дмитриевич Ушинский основоположник научной педагогики. Несмотря на различие во времени в которых они работали, оба внесли большой вклад в развитие образования.

Великий педагог К.Д. Ушинский акцентировал свое внимание на дисциплине, труде, строгости в последовательности обучения. Он считал, что порядок в классе необходим для эффективного воспитания. Он считал, «Если мы ввели порядок и стройность в занятиях, не утомляем детей слишком продолжительным для их возраста занятием в одном направлении и в тоже время не допускаем классной скуки, не оставляя ни на одну минуту дитя без дела; если мы сумели сделать занятия занимательными для ребёнка и в тоже время собственной своей ревностью и серьёзностью, никогда впрочем не переходящую в суровость внушили детям уважение к исполнению своих обязанностей; если сделали эти обязанности ни слишком легкими, чтобы нельзя было заметить, ни слишком трудными , чтобы погнулась под ними слабая натура дитя; если не требуем от ребёнка развития, которое в нём в настоящее время совершается; если наконец нравственная природа наша такова, что дети могут полюбить нас, то классная дисциплина в наших руках». [2]. Также К.Д. Ушинский считал, что главная цель воспитания - воспитать гражданина и труженика, полезного общества. Воспитание не может быть нейтральным: оно всегда служит определённому общественному идеалу. Он утверждал, что в школе ученики участвуют в трудовой деятельности, учатся через посильный труд ответственности и уважению к обществу.

Ш.А. Амонашвили делает акцент на развитии внутреннего мира ребёнка, раскрытия духовного и творческого потенциала. Главная цель – не сформировать «удобного» члена общества, а помочь ребенку стать свободной, осознанной доброй личностью. Он утверждал следующее: «Суть детской дисциплины заключается не в подавлении шалостей, а в преобразовании их. Не надо требовать от детей того, чего мы не смогли внушить им с помощью нашей педагогики». Целью обучения по его мнению была в том чтобы раскрыть индивидуальность, развитие доброты, любви инициативности. Школа для него пространство для свободного роста души.

Великий педагог считал, «В том, чтобы добровольно расположить ребенка к нашим воспитательным намерениям в связи с его же преобразованием, сделать его нашим союзником и соратником в своем же воспитании; помочь ему полюбить знания, пристраститься к самостоятельной учебно-познавательной деятельности. Для авторитарного, императивного воспитания здесь нет никаких проблем, кроме как усилить давление на

ребенка, принудить его выполнять свой долг. Многие изощренные средства давления и принуждения легко стирают педагогические проблемы, однако такая атмосфера воспитания не позволяет ребенку всесторонне и полностью раскрыть свои способности, не помогает процессу формирования в нем полноценной личности.

Он был сторонником гуманистического направления и всегда волновал его вопрос, что же может помешать в решении педагогических проблем на гуманистической основе? И считал, что здесь важен природа ребенка. «Ребёнок - импульсивное существо, живущее сегодняшними радостями и удовольствиями. А мы хотим подчинить его сегодняшнюю жизнь подготовке к будущей многосторонней, богатой и содержательной общественной деятельности, которая, мы верим, принесет ему счастье и настоящую радость». Какими средствами преодолеть противоречие этих тенденций воспитуемого и воспитателя? Процесс учения - нелегкий процесс. Он и должен быть трудным, чтобы содействовать развитию сил и задатков ребенка. Хотя ребенок не боится трудностей в познании, однако по ряду причин (и, я полагаю, в первую очередь из-за принуждения выполнять свой долг ученика) у него пропадает желание учиться. Как возбудить и развить в ребенке неугасающую жажду к знаниям? У нас два пути: заставить, принудить ребенка подчиняться воле своих воспитателей или же направить его на путь самовоспитания и самообразования. Я призываю вас, уважаемые родители, выбрать второй путь!» [1,2]

«Стремясь познать тайну детской души, педагогического мастерства и науки Педагогики, буду видеть в каждом ребенке своего учителя и воспитателя» [1,6].

Методы обучения: К.Д.Ушинский считал, что обучение должно быть последовательным, логичным и опираться на психологию. Он считал, что основой обучения должен быть родной язык. Он разработал уникальные учебники («Родное слово», «Детский мир»), в которых учитывали детскую логику и речевое развитие. Также предложил следующие методы обучениая, как объяснение, системное повторение, работа с текстом, трудовая практика.

Ш.А.Амоношвили использует методы диалога. эмоционального отклика. Он выступает против авторитарных методов обучения, подчеркивая важность уважения к личности ребенка и его свободе выбора в обучении. Он призывает к тому, чтобы образовательный процесс строился на диалоге, взаимодействии и сотрудничестве. «Нельзя хозяйничать на уроке, нарушать ход мыслей детей, занятых решением учебно - познавательной задачи. Нужно беречь право каждого ребенка работать спокойно». [1,4]. Во время обучения предложил применять следующие методы обучениая, как инсценировка, метафора, рефлексия, открытый диалог.

Великие педагоги обратили внимание на роли педагога в учебном процессе. По К.Д.Ушинскому, **у**читель должен быть примером в поведении, речи, образе жизни. «Что одной доброты педагогу не достаточно, что настоящий учитель должен быть ещё и прогрессивным, образованным, иметь специальные знания» [2,2].

Ш.А.Амоношвили считал, что учитель-друг и духовный наставник. Его главный инструмент-любовь, эмпатия и уважение. Он говорил «Надо видеть себя в детях, чтобы помочь им стать взрослыми; надо принимать их как повторение своего детства, чтобы совершенствоваться самому; надо, наконец, жить жизнью детей, чтобы быть гуманным педагогом». [1,5]. «Настоящий современный педагог - это не тот, кто подталкивает своих питомцев к тому, к чему сам уже не имеет надежды быть причастным, а тот, кто «прибыл» из будущего, чтобы воодушевить их и повести за собой в это будущее, научить их утверждать идеалы будущего». [1,3].

Сравнительная таблица

Критерий	**К.Д. Ушинский**	**Ш.А.Амоношвили**
Цель образования	Подготовка к жизни в	Раскрытие

	обществе	индивидуальности
Отношение к ребёнку	Объект формирования	Субъект, равный в диалоге
Методика обучения	Логика, система, родной язык	Творчество, эмоциональность, игра
Дисциплина	Воспитание через труд и пример	Возникает через доверие и интерес
Роль учителя	Авторитет, наставник	Друг, соратник вдохновитель

Таким образом, на сегодняшний день **о**ба подхода важны для современной педагогики, которая ведёт к балансу между знаниями и человечностью.

Литература

1. Ш.А.Амоношвили «Здравствуйте дети». Москва. «Знание», 1986.
2. К.Д.Ушинский «Педогогические идеи». Москва. «Знание», 1971.

TALABALARDA AXLOQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN METODLAR VA USULLAR

O‘zbekiston. Ergasheva Dilnoza Mamasharifovna
Termiz Davlat Pedagogika Instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axloqiy madaniyat, jamiyatning axloqiy me'yorlari va qadriyatlariga hurmat ko‘rsatish, o‘zaro muloqotda to‘g'ri va etika me'yorlariga rioya qilishni ifodalaydi. Talabalarda axloqiy madaniyatni rivojlantirish, nafaqat individual, balki jamiyatda sog'lom munosabatlarni shakllantirish uchun ham muhimdir. Axloqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida turli metodlar va usullar qo‘llaniladi.

Kalit So‘zlar: axloqiy madaniyat, metodlar, usullar, qadriyatlar, ma’naviy ta’lim, talabalar,etika,aql-idrok, ta’lim jarayoni,intraktiv.

Annotation: This article discusses ethical culture, which involves showing respect for the ethical norms and values of society and adhering to proper and ethical standards in interpersonal communication. Developing ethical culture in students is important not only for individual growth but also for fostering healthy relationships within society. Various methods and techniques are employed in the process of shaping ethical culture.

Keywords: ethical culture, methods, techniques, values, moral education, students, ethics, cognitive ability, educational process, interactive.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko‘ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o‘z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog‘liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yor, ideal hamda talablarni bajarishda ma’suliyatni his etishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarning e’tiqodga aylanishi va bu e’tiqodlarning tizimliligi, mustahkam ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘u va xislatlarni shakllantirish, talabalar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo‘lgan hurmat-e’tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat. Ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo‘yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o‘zgarishlar yuz berdi. Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi, shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o‘zgalar va o‘zining hayoti ma’nosini anglagan holda o‘tkazish kerakligi haqida ko‘plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud.

Axloq - bu odamlar va jamiyatlarni to‘g'ri va noto‘g'ri xatti-harakatlarni farqlashda boshqaradigan tamoyillar yoki qadriyatlar to‘plami. U inson xulq-atvorining turli tomonlarini, jumladan, harakatlari, niyatlari, fikrlari va hissiyotlarini qamrab olishi mumkin. Axloqiy me'yorlar diniy, falsafiy yoki madaniy e'tiqod va an'analarga asoslanishi va axloqiy dunyoqarashni baholash

va qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lishi mumkin. Axloq bizning boshqalarga nisbatan mas'uliyat hissini bildiradi, atrof-muhitga nisbatan xatti-harakatlarimizni shakllantiradi va adolat, adolat va inson huquqlariga bo‘lgan munosabatimizga ta'sir qiladi. Pirovardida, barkamol va adolatli jamiyat barpo etish uchun axloqni tarbiyalash zarur.

Yosh avlodning madaniyatini, ma’naviy-axloqiy salohiyatini ko‘tarmoq, milliy mafkurasini uyg‘otmoq zarur. Zero, o‘zini anglagan, millat ma’naviyatini tushungan insongina xalqini, millatini, Vatanini, oilasini taniydi. Xalq va millat oldidagi burchni, mas’uliyatini, majburiyatini anglaydi. Insonning ma’naviy-axloqiy barkamol bo‘lishi xalq, davlat, jamiyat ma’naviyatiga asos bo‘ladi. Shunday ekan, yoshlarga chuqur nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka, ko‘nikmalar hosil qilish, ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalari va muammolariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish, Vatanni sevish, ajdodlari yaratgan bebaho ma’naviy javohirlarni imkon qadar egallash, ularni asrab-avaylash va boyitish, mamlakatimiz kelajagini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bugungi holatini chuqur tahlil qilish, jahondagi va mamlakatimizdagi ma’naviy, aqliy bilimlardan foydalanib, voqelikda faol ishtirok etish ruhida tarbiyalash bugungi kun talabidir. Axloqiy madaniyat har bir insonning jamiyatda o‘zini qanday tutishiga, muhit bilan qanday o‘zaro aloqada bo‘lishiga ta’sir qiluvchi eng muhim qadriyatlar to‘plamidir. Talabalar jamiyatning kelajagini shakllantiruvchi, o‘zining kelajakdagi faoliyatida axloqiy mezonlarga asoslanib qarorlar qabul qilishi kerak bo‘lgan jamiyat a’zolaridir. Shuning uchun talabalarda axloqiy madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy madaniyatning mohiyati

Axloqiy madaniyat - bu individual va jamiyatning o‘zaro munosabatlari, inson huquqlari, adolat, halollik, mehnat va o‘zaro hurmat kabi qadriyatlar asosida jamiyatda yashashga bo‘lgan ijtimoiy tayyorgarlikdir. Bu, shuningdek, kishilarning axloqiy me’yorlarga mos ravishda o‘zlarini tutish, jamiyatda boshqalar bilan muvozanatli va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan mehnatdir.

Talabalarda axloqiy madaniyatni rivojlantirishning muhim jihatlari

O‘zlikni anglash va shaxsiy mas’uliyatni hiss etish. Talabalar axloqiy madaniyatni o‘rganishda birinchi navbatda o‘zlikni anglashlari kerak. Bu, o‘zining ichki qadriyatlari va shaxsiy mezonlariga asoslanib, boshqalar bilan hamkorlik qilishni anglatadi. O‘zini tanish va mas’uliyatni his qilish, talabaning jamiyatda to‘g‘ri yo‘lni tanlashiga yordam beradi.

Axloqiy qadriyatlarni ta’lim jarayonida o‘rganish. Talabalarga axloqiy madaniyatni o‘rgatish jarayonida ta’limning asosiy o‘rni katta. Axloqiy ta’lim kurslari, seminarlar, konferensiyalar va boshqa ma’rifiy tadbirlar orqali talabalarga jamiyatda halollik, adolat, xushmuomalalik va boshqalar kabi axloqiy qadriyatlar keng targ‘ib qilinishi lozim. Bu jarayonda o‘quvchilarga axloqiy dilemmani hal qilishda yordam beradigan vaziyatlar orqali tajriba orttirish muhimdir.

Kasbiy etikani rivojlantirish. Talabalarda kasbiy etikani rivojlantirish ham axloqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Kasbiy etika talabalar tomonidan kelajakda ijro etiladigan ish faoliyatida o‘zini qanday tutishi va mehnat faoliyatida qanday muammolarni hal qilishiga ta’sir qiladi. O‘quv jarayonida kasbiy etika masalalariga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Axloqiy misollarni o‘rganish. Talabalar axloqiy madaniyatni o‘rganish jarayonida, real hayotdagi axloqiy muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topishning ahamiyati katta. O‘qituvchilar va mutaxassislar tomonidan talabalarga axloqiy erishilgan yutuqlar, qiyinchiliklar va misollarni keltirib o‘tish orqali, talabalarda o‘z axloqiy me’yorlarini aniqlash va hayotga tatbiq etish imkoniyatini yaratish lozim.

Shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni muvozanatlash. Talaba shaxsiy axloqiy qadriyatlarini jamiyatdagi umumiy axloqiy me’yorlar bilan muvozanatlashga o‘rgatish kerak. Buning uchun o‘qituvchilar va murabbiylar talabalarga turli situatsiyalarda axloqiy qarorlar qabul qilishni o‘rgatishlari lozim.

Metodlar va usullar.

1.Interaktiv o‘qitish metodlari. Talabalar axloqiy madaniyatni faqat nazariy tushunchalar orqali o‘rganish bilan cheklanmasliklari kerak. Interaktiv metodlar, jumladan, rol o‘ynash, guruhli

muhokamalar, situatsion tahlil va treninglar talabalarga real hayotdagi axloqiy muammolarni yechishda yordam beradi.

2.**Individual va guruh ishlarining kombinatsiyasi.** Talabalarni individual o‘ylashga va guruh muhokamalarida o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga rag‘batlantirish muhim. Guruhda axloqiy muammolarni muhokama qilish va yechim izlash talabalarni boshqa fikrlarni tinglashga, o‘z nuqtai nazarini yaratishga va ijtimoiy muammolarni hal qilishga o‘rgatadi.

3.**Samarali axloqiy qiymatlarni shakllantirishga qaratilgan dasturlar.**Universitetlar va oliy o‘quv yurtlarida talabalarga axloqiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi kerak. Bunday dasturlar doirasida axloqiy me’yorlar, mas’uliyat, o‘zaro hurmat va halollik kabi qadriyatlarni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalarda axloqiy madaniyatni rivojlantirish – bu o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u jamiyatda adolatli, halol, mas’uliyatli va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlar shakllanishiga yordam beradi. Axloqiy madaniyatni shakllantirishda metodik yondashuvlar va zamonaviy o‘qitish usullari katta rol o‘ynaydi. Shunday qilib, talabalarda axloqiy madaniyatni rivojlantirish jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.Mirziyoyev – “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “O‘zbekiston” – 2017. 157-158-betlar
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi
“Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4300–son qarori.
3. G.B. Saidnazarova TARBIYA FANINI O‘QITISH METODIKASI 2024 y
4. R.A.Mavlonova UMUMIY PEDAGOGIKA 2018 y
5. Ergasheva, D. (2025). IMPROVEMENT ON THE BASIS OF THE DEVELOPMENT OF MORAL CULTURE IN STUDENTS THROUGH EDUCATIONAL WORKS OF EASTERN ALLOMAS. Bulletin news in New
Science Society International Scientific Journal, 2(2), 47-55.
6. Ergasheva, D. M. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY URF ODATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINING O‘RNI. Экономика исоциум, (10-2 (125)), 147-149.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Узбекистан. Расулова Зайнаб Юсуфовна
ГДОО детский сад 15»Улыбка»
г.Зарафшан, Навоийской области

Аннотация. Ни для кого не секрет, что основными принципами современного образования являются самоопределение, самореализация и самоактуализация. Для ребенка важны не только знания, но и в первую очередь – умение применить полученные знания в заранее выбранном профессиональном востребованном пространстве.

Ключевые слова: педагог, Вольтер, Цзи Юнь, Современное учреждение, самоценность, способность, самоактуализация, самореализация, самоопределения.

Abstract. It's no secret that the basic principles of modern education are self-determination, self-realization and self-actualization. Not only knowledge is important for a child, but also, first of all, the ability to apply the acquired knowledge in a pre-selected professional in-demand space.

Key words: teacher, Voltaire, Ji Yun, Modern institution, self-worth, ability, self-actualization, self-realization, self-determination.

Введение. Говоря о проблемах педагогики, каждый раз пытаешься определить ту высоту, к которой стремишься как педагог, как профессионал, которая наиболее полно отражает сущность твоей педагогики. Я каждый раз, задумываясь над этим вопросом,

обращаюсь мысленно к словам Вольтера: «Подумай, как трудно изменить себя самого, и ты поймешь, сколь ничтожны твои возможности изменить других». Безусловно, это трудно, но не невозможно. И в поиске ответов на эти вопросы, решении проблем и проходит жизнь педагога. Одним из основополагающих принципов образования для меня являются слова китайского писателя, ученого и государственного чиновника XVIII в. Цзи Юнь из его «Заметок из хижины «Великое в малом»: «…книги читают для того, чтобы постичь высшие принципы, а высшие принципы постигают, чтобы применить их в жизни. Если же впитывают прочитанное, не вникая в суть, доходят до такой тупости, что причиняют вред другим». Так и моей главной целью преподавания является решение вопроса: как учить своим предметам так, чтобы при этом дети постигали высшие принципы и применяли эти принципы в жизни. Концепция модернизации образования основывается на обеспечении современного качества образования, формировании новых жизненных установок личности. При этом основной целью модернизации является создание механизма устойчивого развития системы образования. **Современное учреждение** – это учреждение сотрудничества, сотворчества педагогов, детей и родителей ради развития в ребёнке культурной личности и творческой индивидуальности. Увидеть в каждом ученике неповторимые качества, понять и принять его самоценность – вот главная педагогическая задача современного учреждение. Хорошо известна китайская притча: **«Скажи мне – и я забуду; покажи мне – и я запомню; дай сделать – и я пойму».** Таким образом, немаловажной психолого-педагогической проблемой современного образования можно назвать и выбор методов обучения и воспитания детей. На данном этапе особенно актуальны интерактивные методы и приемы. Следует напомнить, что интерактивное обучение – это обучение, погруженное в общение. Формы такого общения диалоговые, основанные на взаимопонимании и взаимодействии.

Нельзя не согласиться с подобными выводами, ибо смысл групповой работы и заключается в том, чтобы приобретаемый в специально созданной среде опыт (знания, умения) ребенок смог перенести во внешний мир и успешно использовать его. Групповая форма обучения решает одновременно три задачи:

- Конкретно-познавательную, которая связана непосредственно с учебной ситуацией; -Коммуникативно-развивающую, в процессе которой вырабатываются основные навыки общения внутри и за пределами данной группы; -Социально-ориентационную, воспитывающую гражданские качества, необходимые для адекватной социализации воспитанника.

Как в психокоррекционной группе, так и в группе интерактивного обучения должны осуществляться две основные функции, необходимые для успешной деятельности:

- Решение поставленных задач (учебных, поведенческих и др.) - Оказание поддержки членам группы в ходе совместной деятельности. Работа дошкольного и школьного образования подчинена еще одному, на мой взгляд, основному принципу образования-принципу научности. Если научность перестанет быть ведущей составляющей, то соответственно значительно понизится и уровень образованности, что мы и наблюдаем в последнее десятилетие. Скорее всего, происходит этот «декаданс» по причине падения уровня воспитанности детей, что можно объяснить социальными условиями жизни семей: чрезмерная занятость родителей, определение единственной приоритетной цели – накормить, одеть, обуть, а далее – как получится. Какая уж тут наука? Но в дальнейшем уровень притязания родителей растет: ребенок должен поступить в институт или университет, как быть? Таким образом, основной проблемой можно назвать недостаток воспитанности, в основе которой лежит дефицит образованности детей. Путь решения этой проблемы неоднозначен. Но наиболее действенным я считаю следующий: личность воспитанника или ученика с высоким уровнем воспитанности и образованности будет сформирована через систематическую работу по развитию умственных способностей ребенка. Именно тот момент, когда ребёнок говорит: «Я могу это сделать, решить, написать, рассказать», можно считать наиболее успешным для его образования, для реализации принципов **самоактуализации, самореализации и самоопределения.** Развитие умственных

способностей зиждется, в первую очередь, на умственной самостоятельности, которая определяется как способность владеть общими умениями и навыками, необходимыми для познания реальной действительности, приобретения знаний, творческого их применения в сложившейся и новой ситуации. Важным вопросом в этой ситуации становится вопрос о готовности самого педагога к процессу развития умственных способностей ребенка. Чтобы сформировать умственную самостоятельность у учащихся, педагогу необходимо самому владеть соответствующими умениями. В связи с этим умственную самостоятельность правомерно рассматривать как способность педагога к отражению и прогнозированию собственной деятельности своих воспитанников. Ведущими признаками умственной деятельности учащихся являются: 1. Осознание важности проблемы. 2. Умение выдвигать и формулировать гипотезу. 3. Умение самостоятельно разрабатывать план поиска. 4. Умение соотносить результаты исследования с изучаемыми явлениями, проверять их достоверность. 5. Умение применять полученные знания в жизни. Создание и внедрение в практику обучения комплекса методик, развивающих умственные способности детей, – это один из способов решения актуальной проблемы образования.

Заключение. Я говорю именно о развитии, то есть об уходе от традиционной педагогики к развивающей, потому что лишь развивающая педагогика ставит перед собою цель развития личности обучаемого, а именно выработка в личности особых свойств, новообразований в психике, способностей, которые становятся неотъемлемыми качествами личности. И при этом учитель выполняет функцию не только носителя информации, но и организатора сотрудничества, консультанта, управляющего поисковой работой учащегося. Задача сложна, но ведь и проблема очень серьезна: дети должны быть образованы: воспитаны, развиты и обучены. И качество образования должно повышаться, соответствовать требованиям времени, эпохи и современного общества.

Список литературы

1. Абраухова В. В. Педагогика дошкольного образования в условиях реализации ФГОС. Учебно-методическое пособие. М: Директмедиа Паблишинг, 2021.
2. Богданова Т. Г. Основы специальной педагогики и специальной психологии. Сурдопсихология. М.: Юрайт, 2019.
3. Бороздина Г. В. Основы педагогики и психологии. М.: Юрайт, 2023.
4. Быстрова Ю. А. Педагогика. Основы специальной психологии и педагогики. М.: КноРус, 2023.

RIVOJLANGAN JAMIYATDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNING AHAMIYATI

O‘zbekiston. Sharipova Farida Asadovna
Navoiy olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda jamiyatda moliyaviy savodxonlikni ahamiyati. Moliyaviy savodli insonlar qanday bo‘ladi va moliyaviy savodli bo‘lishga yordam beradigan ayrim tavsiyalar keltirilgan.

Аннотация. В этой статье рассматривается важность финансовой грамотности в современном обществе. Вот несколько советов о том, как стать финансово грамотными людьми и как стать финансово грамотными.

Annotation. In this article, the importance of financial literacy in society at present. What will be financially literate people, and some recommendations are presented that will help you become financially literate.

Kalit so‘zlar. Moliyaviy savodxonlik, pul, oilaviy budjet yuritish, daromad, xaraatlarni rejalashtirish, xavfsizlik yostig‘i.

Ключевые слова. Финансовая грамотность, деньги, ведение семейного бюджета, планирование доходов, расходов, подушка безопасности.

Keywords. Financial literacy, money, keeping a family budget, income, planning expenses, airbags.

Yaqin yillar ichida moliyaviy mahsulot va xizmatlar barcha rivojlangan jamiyatlar bo‘ylab keng yoyildi. Dastlab kishilar mahsulotlarni naqd pulga sotib olgan bo‘lsalar, bugunga kelib karta orqali pul o‘tkazmalarini amalga oshirish ommalashib bormoqda. Moliya bilan bog‘liq boshqa produkt turlari, xususan, ipoteka, kontrakt to‘lovlari, sug‘urta va investitsiyalar haqidagi bilimlar ham har doimgidan ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Bu kabi bilimlarni o‘rganishga ehtiyoj ortgani sari ularni har bir shaxs o‘zlashtirishi muhim bo‘lib bormoqda. Moliyaviy savodxonlik nomi ostiga kirib ketuvchi yana ko‘plab tushuncha va ko‘nikmalar mavjud bo‘lsada, oila byudjetini yuritish, yig‘ilib qolgan qarzlardan imkon qadar tezroq qutilish usullari, ayirboshlashga berilgan mahsulotlar va investitsiyalarni to‘g‘ri nazorat qilib borish malakasi moliyaviy savodxonlikning eng mashhur shakllari hisoblanadi va hammasi mana shunday sodda va birlamchi bo‘lgan bilimlarni o‘rganib borishdan boshlanadi. Bunda siz eng kamida moliyaviy bilimning asosiy jihatlari, masalan, pulning qadrsizlanishi, qarz oldi-berdisi kabi tushunchalarga ega bo‘lishingiz talab qilinadi.

Bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatlarda kishilarga moliyaviy savodxonlikning yetishmasligi ularning uzoq muddatli faoliyatlari davomida, muvaffaqiyatga erishishlari yo‘lida to‘sqinlik qilishi mumkin. Chunki kishi pul bilan qanday muomala qilishni bilmasa, qo‘lidagi bor pulni ham samarasiz o‘rinlarga sarflab yuborishi hech gap emas. Shuning uchun har bir individual shaxs moliyaviy bilimlardan o‘ziga keraklicha miqdorda o‘rganishga e’tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir.

Moliyaviy savodxonlik – bu kishining shaxsiy moliyaviy rejalashtirish, pulni boshqarish, sarmoya kiritish va budjet tuzish kabi turli xil moliyaviy ko‘nikmalarni tushunish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Bu moliyaning ishlashi, bank xizmatlari, kreditlash, shuningdek, qarzlar, soliqlar va shaxsiy kapitalni boshqarish haqidagi bilim va tushunchadir. Moliyaviy savodxonlik insonga oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilishga yordam beradigan hayotning turli jabhalarini qamrab oladi. Bu nafaqat pullarni samarali boshqarish, balki moliyaviy kelajagini rejalashtirish imkonini beradigan ko‘nikmalar, bilimlar va xulq-atvor odatlaridir. Moliyaviy savodxon oilalar daromadlarni asosiy ehtiyojlarga: uy-joy, oziq-ovqat, ta’lim, sog‘liqni saqlash va dam olish uchun taqsimlash orqali o‘z budjetlarini samarali boshqarishlari mumkin. Xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish qobiliyati kishiga qarz va moliyaviy stressdan qochishga yordam beradi. Asosiy moliyaviy tamoyillarni bilmasdan, oila o‘zini pullarini nazoratsiz sarflashi va qarzlarga botib qolishi mumkin. Umumiy ma'noda tushuntirilganda, moliyaviy savodxonlik — bu bizning resurslarimizni oqilona boshqarishga imkon beradigan bilim va ko‘nikmalar. Ya'ni, ertangi kundan moliyaviy qo‘rqmaslik uchun daromad va xarajatlarni optimallashtirish va yashashdir. Moliyaviy savodli odam qanday bo‘ladi:

- xarajatlar va daromadlarni to‘g'ri muvofiqlashtiradi;
- shaxsiy va oilaviy byudjetni oqilona rejalashtirish;
- byudjetning daromad qismi xarajatlardan oshib ketishiga ishonch hosil qiladi;
- o‘zini turmush darajasida cheklamasdan pul to‘playdi va ko‘paytiradi;
- bo‘sh mablag'larni joylashtirishdan foyda oladi;
- asosiy moliyaviy masalalarni tushunadi va foydali takliflarni firibgarlardan ajratib turadi.

Qanday qilib moliyaviy savodli bo‘lish mumkin?

Albatta, agar inson allaqachon moliya sohasida ma'lum ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lsa, unga yangi boshlanuvchiga qaraganda o‘z mahoratini oshirish ancha oson bo‘ladi. Pulni muvaffaqiyatli boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish va uni keyingi bosqichga ko‘tarish uchun:

- daromad manbalari sonini va rejalashtirilgan rentabellikni taxmin qilish kerak;
- hisob raqamlaringizdan tushumlar va xarajatlarning muntazam hisobini yuritish:
- katta xarajatlar uchun oldindan reja tuzing — bu sizga asosiy ehtiyojlarni tejamaslikka, shuningdek, arzonroq va mavjud versiyada emas, balki o‘zingiz xohlagan shaklda katta xaridni amalga oshirish uchun imkon beradi;

- xarajatlar yo‘nalishlarini aniqlash va ularning qanchalik zarurligini baholash kerak: bunday masalalarni barcha oila a'zolari bilan birgalikda muhokama qilish, shu bilan birga ularning moliyaviy savodxonligini oshirish yaxshidir;
- chegirmalar va maxsus takliflardan qanday foydalanishni bilish: agar siz katta xaridni rejalashtirmoqchi bo‘lsangiz, uni chegirma kampaniyalari davrida amalga oshirishga harakat qiling, shuningdek onlayn xarid qilish xizmatlaridan foydalaning, ular odatda ko‘proq chegirmalar va bonuslarni taqdim etadilar;
- investitsiya qilish va qaysi moliyaviy mahsulot o‘zi bilan faqat xarajatlarni olib kelishini va qaysi biri sizga foyda keltirishini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lish;
- har doim «xavfsizlik yostig'i» ga ega bo‘ling: yetakchi iqtisodchilarning fikriga ko‘ra, u 3 dan 6 oylik ish haqiga teng bo‘lishi kerak, bu ish yoki kasallik yo‘qolgan taqdirda turmush darajasini keskin kamaytirmaslikka yo‘l qo‘ymaydi.

O‘zbekistonda ham aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada Markaziy bank, Savdo-sanoat palatasi va boshqa bir qancha davlat va nodavlat tashkilotlarining loyihalari amalga oshirilgan va oshirib kelinmoqda. Biroq, tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, bu ishlarni tizimli amalga oshirish, aholining moliyaviy savodxonligining ularning yoshi, yashash joyi va hattoki mentalitetu-qadriyatlariga ham bog‘langan holda o‘rgatib borilishi muhimroq. Aks holda, xarajatini daromadiga qarab belgilamaydigan, qarz va kreditlar girdobiga botib qolgan, oddiy moliyaviy xizmatlardan foydalanishda ham birovlarning yordamiga muhtoj, firibgarlar bemalol aldab keta oladigan, qisqasi “moliyaviy savodsiz” qatlam kengayib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Moliyaviy savodxonlik asoslari: A.V.Vaxabov. Sh.A.Toshmatov. N.X. Xaydarov. A.V.Vaxobov. - o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Baktria press. 2013
2. https://www.spot.uz/oz/2022/07/24/financial-literacy/
3. https://bankers.uz/news/14
4. https://kun.uz/news/2023/12/28/moliyaviy-savodxonlik-boyicha-interaktiv-moliya-olami-elektron-platformasi-ishga-tushirildi
5. https://ofb.uz/uz/about/press/moliyaviy-savodxonlik-har-bir-inson-uchun-muhim-ko-nikma/

FANLARARO DISKURSNING ZAMONAVIY TA’LIMDAGI O‘RNI

O‘zbekiston. Nosirova Ra'no Hamidovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
«Maktabgacha ta’lim metodikasi»kafedrasi dotsenti (PhD),
Tuychiyeva Zulfizar Boxodir qizi
Maktabgacha ta’lim fakulteti,2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada fanlararo diskursning mazmun-mohiyati, uning zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni va maktabgacha ta’limdagi tatbiqiy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, fanlararo integratsiyaning metodik asoslari, STEAM yondashuvi bilan uzviy bog‘liqligi hamda ta’lim sifati va bolaning intellektual rivojlanishiga ta’siri yoritiladi. Maqolada amaliy tavsiyalar ham beriladi.

Kalit so‘zlar: fanlararo diskurs, integratsiya, maktabgacha ta’lim, STEAM yondashuvi, rivojlanish, pedagogika, metodika.

Annotation: This article analyzes the essence of interdisciplinary discourse, its role in modern education, and its practical application in preschool education. It also explores the methodological foundations of interdisciplinary integration, its close connection with the STEAM approach, and its impact on the quality of education and the intellectual development of children. Practical recommendations are also provided in the article.

Keywords: interdisciplinary discourse, integration, preschool education, STEAM approach, development, pedagogy, methodology.

Zamonaviy ta’lim tizimi shiddatli yangilanishlar davrini boshdan kechirmoqda. Endilikda har bir ta’lim bosqichi o‘z oldiga faqat bilim berish emas, balki fikrlovchi, izlanadigan, muammolarni tahlil qilishga qodir ijodiy shaxsni shakllantirishdek muhim vazifani qo‘ygan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, turli fanlar o‘rtasidagi aloqadorlik — ya’ni fanlararo diskurs, pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Fanlararo diskurs tushunchasi va mazmuni

Fanlararo diskurs — bu ikki yoki undan ortiq fanlar o‘rtasidagi ilmiy, nazariy, metodik muloqot bo‘lib, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini uyg‘unlashtirish, ularni hayotga tatbiq qilish imkonini beradi. U nafaqat fanni integratsiyalash, balki tafakkurni integratsiyalash vositasidir. Ayniqsa maktabgacha ta’lim tizimida bu yondashuv bola shaxsining barcha jihatdan barkamol shakllanishiga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’limda fanlararo integratsiyaning ahamiyati Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari shuni ko‘rsatadiki, ular hayotdagi hodisa va tushunchalarni butunlikda idrok etadilar. Shu sababli ta’lim ham kompleks va integratsiyalashgan bo‘lishi zarur.

Misollar:

 Tabiatshunoslik + tasviriy san’at: Tabiiy hodisalarni rasm orqali ifodalash orqali nafaqat bilim, balki estetik did ham shakllanadi.

 Ona tili + axloqiy tarbiya: Ertaklar orqali bolada nutq va xulq madaniyati rivojlanadi.

 Matematika + hayotiy ko‘nikmalar: O‘lchash, solishtirish, tartiblash ko‘nikmalari kundalik faoliyatda mustahkamlanadi.

 Jismoniy tarbiya + musiqa: Ritmli harakatlar, raqs, mashqlar orqali eshitish, muvozanat, hamkorlik shakllanadi.

STEAM yondashuvi – fanlararo diskursning zamonaviy modeli Bugungi kunda ta’lim tizimida keng ommalashayotgan yondashuvlardan biri bu – STEAM modelidir. U quyidagi sohalarni birlashtiradi:

S – Science (fan)

T – Technology (texnologiya)

E – Engineering (muhandislik)

A – Art (san’at)

M – Mathematics (matematika)

Bu model ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga qiziqishi, tajriba o‘tkazishga intilishi, ijod qilishga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Masalan, oddiy tajriba: suvga turli buyumlarni solish orqali ularning cho‘kishi yoki cho‘kmasligini aniqlash – bu ilmiy kuzatuv, mantiqiy tahlil, natijaaniqlash – bu ilmiy kuzatuv, mantiqiy tahlil, natija chiqarish, ya’ni STEAMning o‘zidir.

Fanlararo diskursning pedagogik afzalliklari

1. Bolalarda ko‘p yo‘nalishli tafakkur rivojlanadi.
2. Ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmasi shakllanadi.
3. Ta’lim hayotga yaqinlashadi, real hayotiy kontekstda olib boriladi.
4. Fanlararo bog‘liqliklar orqali bilimlar chuqurlashadi va yaxlit tizim hosil qiladi.
5. Tarbiyaviy jarayon kuzatish, taxmin qilish, sinab ko‘rish va xulosa chiqarishga asoslanadi.

Xulosa va takliflar:

Fanlararo diskurs zamonaviy ta’limning muhim va dolzarb yo‘nalishidir. U orqali ta’lim faqat nazariy bilim emas, balki hayotiy, amaliy va tahliliy kompetensiyalar bilan boyitiladi. Maktabgacha ta’limda bu yondashuv bola tafakkurining kengayishiga, har tomonlama shakllanishiga, ijodiy salohiyatining ochilishiga yordam beradi. Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyoda o‘z fikriga ega, yangilik yaratishga intiladigan avlodni tarbiyalash uchun pedagogik yondashuvlar ham zamon bilan hamnafas bo‘lishi lozim.

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat dasturlariga fanlararo integratsiyani ta’minlovchi maxsus metodik qo‘llanmalarni joriy etish.
2. Pedagoglar uchun STEAM yondashuvi bo‘yicha amaliy seminar-treninglar o‘tkazish.
3. Bolalar bog‘chalarida fanlararo loyihaviy faoliyatni yo‘lga qo‘yish (masalan, «Men kichik ixtirochiman», «Tabiat do‘stlari» kabi).
4. Ta’lim jarayonida tabiiy fanlar, san’at va texnologiyalarning uyg‘unlashuvini ta’minlovchi ko‘rgazmali vositalar va laboratoriyalar tashkil etish.
5. Pedagogik OTMlarda talabalar uchun “Fanlararo metodika asoslari” fani alohida modul sifatida joriy etilishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. “Bolalarning psixik rivojlanishi”. Moskva, 1984.
2. Mahkamova S.S. “Fanlararo integratsiya – ta’limning zamonaviy yondashuvi”, Ilmiy-amaliy jurnal, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020.
4. Karimova D. “Ilmiy-metodik yondashuvlar: nazariya va amaliyot”, Toshkent, 2021.
5. Raximova N. “Maktabgacha ta’limda integratsiyalashgan yondashuvlar”, Ilmiy-uslubiy to‘plam, 2023.
6. “STEAM Education in Early Childhood”, International Journal of Education & Learning, 2021.
7. UNESCO. “Reimagining our futures together: A new social contract for education”. 2021.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DUNYOSIDA TA’LIM

O‘zbekiston. Shuhrat Suvonovich Norov
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasi mudiri
«Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)»
Ro‘ziyeva Muxlisa Bahodir qizi
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasi assestenti

Annotatsiya: ushbu maqolada ta’lim tizmidagi raqamli texnologiyalardan foydalanish va ulardan muqobil foydalanishning qanday yutuq va kamchiliklari mavjudligi to‘g’risida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, onlayn ta’lim, interaktiv, gamifikatsiya, vizual ta’lim, geografik cheklov.

Аннотация: в данной статье представлена информация об использовании цифровых технологий в системе образования и о том, какие преимущества и недостатки существуют в их альтернативном использовании.

Ключевые слова: цифровые технологии, онлайн-образование, интерактивное, геймификация, визуальное образование, географическое ограничение.

Abstract: This article provides information on the use of digital technologies in the education system and the advantages and disadvantages of their alternative use.

Keywords: digital technologies, online education, interactive, gamification, visual education, geographical restriction.

Biz yashab turgan bugungi dunyo texnika va texnologiyalar tomonidan yaratilayotgan katta imkoniyatlar tufayli jadal tarzda rivojlanib bormoqda va insoniyatga har sohada o‘zining cheksiz ko‘magini berib kelmoqda. Bugungi kunda fan va ta’lim sohalari ham texnologiyalar bilan chambarchas bog’liq bo‘lib, ularni ta’limning har bir bosqichida uchratish mumkin, jumladan “raqamli transformatsiya” atamasi eng keng qo‘llanilib kelayotgan tushunchlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta’lim sohasini isloh qilish va zamon talablariga mos holda uni yanada rivojlantirish bosh vazifalardan biri sifatida taraqqiyot strategiyamizga ham kiritilgan.[1]

Raqamli transformatsiya (digital transformation) – bu raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimi va jamiyatning boshqa sohalariga joriy etish orqali amalga oshiriladigan o‘zgarishlar jarayonidir. Bu jarayon nafaqat texnologiya sohasida, balki madaniyat, iqtisodiyot, va jamiyatning har bir qatlamida ham yangi imkoniyatlar yaratadi.[2]

Raqamli texnologiyalar ta’lim sohasini tubdan o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, onlayn ta’limning rivojlanishi o‘quvchilarga va talabalarga masofaviy ta’lim olish imkoniyatini yaratdi. Onlayn ta’limning asosiy afzalliklaridan biri, geografik cheklovlardan qat'iy nazar, istalgan joyda o‘qish imkoniyatini taqdim etishidir. Bu, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi va ularga yaqin maktab yoki universitetlarga kira olmaydigan o‘quvchilar uchun katta imkoniyat yaratadi.

Onlayn ta’lim platformalari, masalan, Zoom, Microsoft Teams, va Google Classroom, o‘qitish va o‘qish jarayonlarini yanada qulay va samarali qilmoqda. Zoom va Microsoft Teams kabi platformalar sinfdagi darslarni virtual ravishda o‘tkazish imkonini beradi, shu bilan birga talabalarga darsga qatnashish, savollar berish, va o‘qituvchidan yordam olish imkoniyatini beradi. Bunday platformalar bilan o‘qituvchilar o‘z darslarini yanada interaktiv va qiziqarli tarzda tashkil etishlari mumkin.[3]

Google Classroom esa o‘qituvchilarga dars materiallarini taqdim etish, o‘quvchilarning topshiriqlarini qabul qilish va baholashda yordam beradi. Bu platformalar orqali talabalar va o‘qituvchilar bir-biri bilan tezkor aloqada bo‘lishlari mumkin. Bundan tashqari, onlayn ta’lim

vaqtni tejash imkoniyatini yaratadi, chunki talabalar o‘zlari uchun eng qulay vaqtlarda darslarni ko‘rib chiqishlari mumkin.

Onlayn ta’limning yana bir muhim jihati – bu o‘qish jarayonini shaxsiylashtirishdir. Talabalar o‘z temp va ritmlarida o‘qib, darslarga qayta-qayta murojaat qilishlari mumkin. Masalan, videodarslar orqali o‘qish imkoni, o‘quvchilarga o‘zlari uchun tushunarsiz bo‘lgan mavzularni qayta ko‘rib chiqish va o‘ziga moslashtirilgan ta’lim jarayonini yaratish imkonini beradi.

Interaktiv Ta’lim Vositalari

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. O‘quvchilar va talabalar interaktiv dasturlar, simulyatsiyalar, o‘yinlar va videolar orqali o‘qish jarayonini yaxshilashmoqda. Bu usullar nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Interaktiv ta’lim vositalari, shuningdek, o‘quvchilarga o‘zlashtirishda faol ishtirok etish va o‘qish jarayoniga chuqurroq kirib borish imkoniyatini beradi. Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar ta’limda yangicha yondashuvni taqdim etadi. Masalan, biologiya yoki kimyo fanlarida laboratoriya ishlari simulyatsiya qilish orqali o‘quvchilar tajriba qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ularni nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga undaydi. Shu bilan birga, bunday simulyatsiyalar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini yanada chuqurroq o‘zlashtirishi mumkin.[4]

Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) texnologiyasi ham ta’lim jarayonini yanada qiziqarli qilishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, o‘quvchilar uchun o‘yinlar yoki raqobatbardosh elementlarni kiritish, ularni o‘qishga undaydi. Talabalar o‘z bilimlarini baholash va mukofotlar olish orqali o‘zlarining o‘qish motivatsiyasini oshiradilar. Shu bilan birga, gamifikatsiya o‘qish jarayonini ko‘proq interaktiv va ko‘ngilochar qiladi, bu esa o‘quvchilarning diqqatini jamlashga yordam beradi.[5]

Videolar va ta’lim platformalari orqali o‘qish o‘quvchilarga mavzularni oson tushunishga yordam beradi. Masalan, vizual ta’lim materiallari orqali o‘quvchilar bilimlarni vizual tarzda mustahkamlashlari mumkin. Bu usul o‘quvchilarning ko‘rish va eshitish orqali ma'lumot olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Videolarni taqdim etish, o‘qituvchiga murakkab mavzularni soddalashtirishda ham yordam beradi.

Raqamli ta’lim tizimida nafaqat darslar qiziq holatda tashkillashtirilishi mumkin, balki olinayotgan ma’lumotlar tahlil qilinishi va sun’iy intelekt yordamidan ham foydalanish imkoniyatini ham bermoqda. Ta’lim tizimida ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt (AI)dan foydalanish o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’lim dasturlarini yaratish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi kunda ta’lim tizimlari o‘qitish va o‘qish jarayonlarini yaxshilash uchun yirik ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslangan tizimlarga ega. Bu tizimlar o‘quvchilarning o‘qish jarayonidagi muvaffaqiyatlarini va kamchiliklarini aniqlashda yordam beradi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘qishdagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari mumkin. Masalan, o‘quvchilarning sinov natijalari yoki faoliyatini tahlil qilish orqali ular uchun moslashtirilgan darslar yoki qo‘shimcha resurslar taqdim etilishi mumkin. Bu o‘qitishning individual yondashuvini yaratishga yordam beradi. Sun'iy intellekt yordamida o‘quvchilarning o‘qish jarayonini shaxsiylashtirish mumkin. Misol uchun, AI tizimlari o‘quvchilarning ilgari o‘zlashtirilgan bilimlarini tahlil qilib, ularning ehtiyojlariga mos ravishda yangi mavzularni taklif qiladi. Bu o‘qitish jarayonini yanada samarali va o‘quvchining individual o‘quv ehtiyojlariga moslashtirilgan qiladi.

AI yordamida yaratilgan ta’lim dasturlari o‘quvchilarni o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash uchun yordam beradi. Misol uchun, AI tizimi o‘quvchining o‘qish jarayonini kuzatib borib, kerakli vaqt va joyda maslahatlarga yoki yordamga taklif beradi. Shuningdek, sun'iy intellektning yordamida, o‘quvchilar uchun avtomatik testlar va baholash tizimlari yaratish mumkin, bu esa o‘qituvchilarning ishini yengillashtiradi va o‘quvchilar uchun tezkor va aniq baholash imkoniyatini yaratadi.

Raqamli ta’lim resurslari bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab mavjud. Bu, o‘z navbatida, ta’limni global darajada kengaytirishga imkon beradi. Onlayn ta’lim platformalari, masalan, Coursera, edX, Udemy va Khan Academy, talabalarga va mutaxassislarga o‘zlarining o‘quv ehtiyojlariga mos kurslar, darslar va materiallarni taklif qilmoqda. Bu resurslar bilan dunyoning istalgan nuqtasidan kirish mumkin, bu esa ta’limni hech qachon tasavvur qilinmagan darajada kengaytiradi.[6]

Raqamli Transformatsiyaning Kamchiliklari Raqamli bo‘shliq – bu ba'zi hududlarda yoki guruhlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog'liq muammo. Ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda va qishloq joylarda internetga ulanish va zarur raqamli infratuzilmani yaratish hali ham muammo bo‘lib qolmoqda. Natijada, bu hududlardagi odamlar global ta’lim resurslari, raqamli biznes imkoniyatlari yoki hatto masofaviy ishlashdan mahrum bo‘lishlari mumkin.

Raqamli bo‘shliq faqat iqtisodiy farqlarni keltirib chiqarmaydi, balki ijtimoiy tengsizlikni ham kuchaytiradi. Bunday bo‘shliqni bartaraf etish uchun mamlakatlar raqamli infratuzilma, internetga kirish va raqamli ta’limni kengaytirishga katta e'tibor qaratishlari zarur. Xususan, masofaviy ta’limni rivojlantirish uchun texnologiyalarga teng kirishni ta'minlash, jamiyatdagi barcha guruhlar uchun imkoniyatlarni yaratish muhimdir.

Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligi va kiberxavfsizlik masalalari ham dolzarb bo‘lib qolgan. Hozirgi kunda har bir insonning shaxsiy ma'lumotlari, moliyaviy ma'lumotlar, va hatto salomatlik holati raqamli platformalarda mavjud. Bu esa foydalanuvchilarni kiberhujumlar, identifikatsiya o‘g'irliklari, va axborotning noto‘g'ri ishlatilishi kabi xavflarga duchor qilmoqda.

Raqamli transformatsiyaning rivojlanishi bilan bir qatorda, ma'lumotlarni himoya qilish va kiberhujumlarga qarshi kurashish bo‘yicha yangi xavfsizlik protokollari va texnologiyalarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar ma'lumotlarining maxfiyligini himoya qilish uchun qonunlar va normativ-huquqiy bazani kuchaytirish lozim. Xavfsizlik va maxfiylikni ta'minlash, ayniqsa, ta’lim, salomatlik va moliya sohalarida muhim ahamiyatga ega. Agar bu masalalar e'tiborsiz qolsa, jamiyatda ishonch muammolari paydo bo‘lishi mumkin, bu esa raqamli transformatsiyaning izchil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillardan bo‘lib qolishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tanganing ikki tomoni mavjud bo‘lganidek raqamli texnologiyalarning ta’lim tizmida foydalanishdan ham yuqtu va kamchiliklari mavjud.Raqamli transformatsiya ta’lim va jamiyatda yanada ko‘proq imkoniyatlar yaratadi va yetishib kelayotgan yosh avlodni yangi ma’lumotlar ta’milashda va ularning texnika va texnologiya sohalaridagi bilimlarni oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Globalalshuv jarayoni jadal ketayotgan dunyoda, ushbu jarayonni jamiyatning barcha qatlamlarini raqamli texnologiyalar bilan teng ravishda jihozlash va bu jarayonni xavfsiz, samarali va adolatli tarzda amalga oshirilishi ustuvor vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “NAJOT TA’LIMDA, NAJOT TARBIYADA, NAJOT BILIMDA”,- DEYDI PREZIDENT https://adti.uz/najot-ta%CA%BClimda-najot-tarbiyada-najot-bilimda-deydi-prezident/
2. Thomas M.»«Digital Transformation: Survive and Thrive in an Era of Mass Extinction» — Rosseto Books.2019. 5-bet.
3. «The Digital Divide: Arguments for and Against Facebook, Google, Texting, and the Age of Social Networking» — William H. Dutton
4. Thomas M.»Digital Transformation: Survive and Thrive in an Era of Mass Extinction» — .Rosseto Books.2019. 17-bet

- **развитие индивидуальной и коллективной деятельности:** комплексные подходы помогают развивать у учащихся как личную, так и командную деятельность. Учащиеся проверяют творческое мышление с помощью индивидуальной и групповой работы. В командной деятельности они оценивают идеи друг друга и разрабатывают решения с помощью различных подходов.

- **улучшение интереса учащихся:** интегрированные подходы предоставляют учащимся возможность учиться в соответствии со своими интересами. Учащиеся определяют области, которые им интересны и важны, изучая несколько предметов. Это, в свою очередь, увеличивает интерес учащихся к обучению и улучшает отношение учащихся к обучению.

- **расширение независимого мышления у учащихся:** интегрированные методы обучения развивают у учащихся независимое мышление. Учащиеся учатся не только запоминать то, что они узнали, но и применять свои знания в различных контекстах. Это, в свою очередь, увеличивает творческие способности, поскольку учащихся постоянно учат находить новые идеи.

- **разработка сложных решений:** благодаря интегрированным подходам учащиеся могут разрабатывать более широкие и сложные решения, понимая взаимосвязь между несколькими дисциплинами и рассматривая проблему с разных точек зрения. Этот метод особенно полезен при решении социальных, технологических и экологических проблем.

- **расширение индивидуального подхода:** комплексный подход к обучению помогает учащимся определить свои личные интересы и сильные стороны. Учащиеся разрабатывают свои собственные методы развития творческого процесса, выбирая подходящие им методы.

В заключение следует отметить, что комплексные подходы играют важную роль в развитии творческих способностей учащихся. Интегрированные подходы не только устанавливают междисциплинарные связи в образовательном процессе и позволяют студентам получать более широкие и глубокие знания за счет объединения различных знаний, но и развивают у студентов творческое мышление, критический анализ и навыки комплексного решения проблем. Интегрированные подходы являются эффективным инструментом расширения знаний студентов, развития творческого мышления и совершенствования практических навыков в образовательном процессе. Они помогают студентам понимать междисциплинарные связи, решать проблемы инновационными способами и развивать критическое мышление. Комплексные подходы повышают мотивацию учащихся, развивают индивидуальную и командную производительность и готовят их к будущему успеху. Этот метод не только увеличивает знания, но и развивает у учащихся жизненные навыки. Благодаря интегрированным подходам учащиеся учатся применять свои знания в различных областях и готовы к будущему успеху, а также демонстрируют учащимся

связь между различными дисциплинами и предметами, которые они учатся применять свои знания в новом контексте. Творческое мышление является результатом развития творческих способностей учащихся посредством решения проблем и командной работы, что важно не только для развития навыков мышления учащихся, но и для обеспечения их будущего успеха.

Использованная литература:

1.Закон Республики Узбекистан «Об образовании». 23 сентября 2020 г.

2.Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года.

3. Ш. М. Мирзияев «Развитие системы дошкольного образования в 2017-2021 гг.» о мерах по дальнейшему совершенствованию". Т.:- 2016. 29-декабрь.

4. Р.А.Мавланова,Д.Абдурахимова. Педагогическое мастерство. Учебное пособие Т:.Наука и технологии 2012

5.С.Нишонова,М.Имамова, Р.Хасанов. История педагогики.Учебник Т.: Учитель 1996

6.М.Очилов. Учитель - архитектор души. Учебное пособие:. Учитель. 2004

7.PISA (Programme for International Student Assessment). (2021). Key Findings and Analysis on Creative Thinking in Education. OECD.

8.Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

9.Gardner, H. (2006). Multiple Intelligences: New Horizons. Basic Books.

10.Beers, S. (2011). 21st Century Skills: Rethinking How Students Learn. Corwin Press.

11.Wiggins, G., & McTighe, J. (2005). Understanding by Design. ASCD.

TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA AMALIY DARSLARNI TASHKIL QILISH VA O‘TKAZISH

O‘zbekiston. Abdullayeva Komila Tursunovna
Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti
NTM Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti
Botirova Orasta
Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti
NTM Texnologik ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnologiya fani darslarida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazishning dolzarb jihatlari yoritilgan. Unda amaliy darslarning asosiy maqsad va vazifalari, ularni samarali tashkil etish bosqichlari, o‘quvchilarda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi metod va vositalar keng tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, baholash mezonlari va monitoring tizimining amaliy darslardagi o‘rni haqida fikr yuritilgan. Maqola texnologiya fani o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Texnologiya fani, amaliy mashg‘ulot, pedagogik texnologiya, dars jarayoni, kasbiy ko‘nikma, zamonaviy metodlar, loyiha usuli, texnika xavfsizligi, o‘quvchilarning faolligi, baholash mezonlari.

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные аспекты организации и проведения практических занятий на уроках технологии. Подробно анализируются основные цели и задачи практических занятий, этапы их эффективной организации, методы и средства, способствующие формированию профессиональных навыков у студентов. Также обсуждалась роль современных технологий, критериев оценки и систем контроля на практических занятиях. Статья может служить методическим пособием для учителей технологии.

Ключевые слова: Технология, практическое обучение, педагогическая технология, учебный процесс, профессиональные навыки, современные методы, метод проектов, техническая безопасность, деятельность студентов, критерии оценки.

Abstract: This article covers the current aspects of organizing and conducting practical classes in technology classes. It extensively analyzes the main goals and objectives of practical

classes, the stages of their effective organization, and the methods and tools that serve to form professional skills in students. It also discusses the role of modern technologies, assessment criteria, and monitoring systems in practical classes. The article can serve as a methodological guide for technology teachers.

Keywords: Technology science, practical training, pedagogical technology, teaching process, professional skills, modern methods, project method, technical safety, student activity, assessment criteria.

Bugungi kunda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, texnologiya fani bo‘yicha darslarda nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu o‘quvchilarda kasb-hunar ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodkorlik va mustaqil ishlash malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliy darslarning maqsadi va vazifalari

Texnologiya fani darslaridagi amaliy mashg‘ulotlar quyidagi maqsad va vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- O‘quvchilarda kasbiy mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash orqali mustahkamlash;
- Mehnatga ijobiy munosabatni tarbiyalash;
- Jamoada ishlash, mas’uliyatni his qilish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish;
- Yaratilish va ijodiy fikrlash madaniyatini shakllantirish.

Amaliy darslarni tashkil etish bosqichlari

Amaliy mashg‘ulotlar tizimli va rejalashtirilgan tarzda olib borilishi lozim. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Tayyorlov bosqichi** – Dars mavzusi, maqsadi va rejasi aniqlanadi, zaruriy jihozlar, asbob-uskuna va materiallar tayyorlanadi.
2. **Ko‘rsatma bosqichi** – O‘qituvchi tomonidan ish jarayoni bo‘yicha batafsil tushuntirish va amaliy ko‘rsatma beriladi. Texnika xavfsizligi qoidalari alohida yoritiladi.
3. **Ijro bosqichi** – O‘quvchilar topshiriqlar asosida mustaqil yoki guruh bo‘lib ish olib boradilar.
4. **Tahlil va xulosa bosqichi** – Ish natijalari ko‘rib chiqiladi, baholanadi, xatoliklar tahlil qilinadi va xulosalar chiqariladi.

Amaliy darslarda qo‘llaniladigan usullar

Texnologiya fani bo‘yicha amaliy darslarda quyidagi zamonaviy pedagogik usullar samarali hisoblanadi:

- **Loyihalash metodi** – o‘quvchilar o‘zlari tanlagan mavzuda loyiha yaratadilar (masalan, yog‘ochdan buyum yasash, tikuvchilik mahsuloti tayyorlash).
- **Modulli o‘qitish** – har bir amaliy ish bosqichma-bosqich modullar orqali o‘rgatiladi.
- **Ko‘rgazmali metodlar** – Videodarslar, real namunalar, maket va modellardan foydalaniladi.
- **Jamoaviy ish** – o‘quvchilar kichik guruhlarda ishlash orqali hamkorlikda yechim topishni o‘rganadilar.
- **Refleksiya va tahlil** – dars oxirida o‘quvchilar o‘z ishlarini baholaydilar, fikr bildirishadi.

Zamonaviy texnologiyalar va vositalardan foydalanish

Texnologiya fani amaliy darslarida quyidagi vositalardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi:

- **Interaktiv doska** va **multimedia vositalari** – ish jarayonlarini jonli ko‘rsatish imkonini beradi;
- **Virtual laboratoriyalar** – ba’zi texnologik jarayonlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi;
- **3D printerlar** va **kompyuter dasturlari** – model va maketlar yaratishda foydalaniladi;

• **Texnika xavfsizligi trening dasturlari** – o‘quvchilarning xavfsizlik borasidagi bilimlarini oshiradi.

Baholash mezonlari va monitoring

Amaliy darslarni samarali baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalaniladi:

• Ishning sifat darajasi;
• Mehnat unumdorligi;
• Texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;
• Mustaqil ishlash va ijodiy yondashuv;
• Guruhda ishlash malakasi.

Shuningdek, o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatib borish uchun doimiy monitoring tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Texnologiya fanida amaliy darslar o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu mashg‘ulotlar orqali ular real mehnat faoliyati bilan tanishadilar, o‘z ijodiy g‘oyalarini amalda sinab ko‘radilar va mustaqil fikrlashni o‘rganadilar. Amaliy darslarning to‘g‘ri tashkil qilinishi va zamonaviy metodlardan foydalanilishi texnologiya fanining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu boisdan ham texnologiya o‘qituvchilari bu jarayonga mas’uliyat bilan yondashishlari, o‘z ustida tinimsiz ishlashlari zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayeva G., Qodirova N. *Texnologik ta’lim asoslari*. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020.
2. Abduazizov A.A. *Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
3. To‘raqulova M.M. *Texnologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar*. – Toshkent: Fan, 2021.
4. Po‘latov B.B. *Kasbiy ta’lim va amaliy mashg‘ulotlar metodikasi*. – Samarqand: “Ilm ziyo”, 2018.
5. Mavlonova R. va boshqalar. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. – Toshkent: “TDPU”, 2020.
6. Qodirov A.S. *Zamonaviy dars: shakl va metodlar*. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022.
7. Xolboev N.X., Yusupov A.Y. *Mehnat ta’limi va kasbiy ta’limda innovatsiyalar*. – Buxoro: “BuxDU nashriyoti”, 2021.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PQ–3775-son. – 2018-yil 9-iyun.
9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. *Texnologiya fani bo‘yicha namunaviy o‘quv dasturi*. – Toshkent, 2023.
10. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim portali.

ВАЖНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДИК В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Узбекистан.Абрарова Мохигул Бахтияровна - магистранта 1-го курса факультета экономики и педагогики международного университета Азия
Научный руководитель - Астанакулов Камалитдин Махкамович д.ф.п.н. (PhD), доцент

Аннотация: В данной статье анализируется, что в условиях, когда мир меняется в соответствии со временем, воспитательное развитие учащихся, их социальная активность и понимание духовных ценностей приобретают большое значение, а также повышение эффективности уроков воспитания, формирование у учащихся позитивных нравственных ценностей и ответственности перед обществом.

Ключевые слова: глобализация, система образования, интеграция, творческое мышление, творчество и креативность, начальное образование, междисциплинарный подход,

творческие способности, методика обучения, педагогика, инновационные методы, система образования, успеваемость учащихся, эффективность обучения.

Abstract: This article analyzes that in conditions when the world is changing in accordance with time, the educational development of students, their social activity and understanding of spiritual values are of great importance, as well as improving the effectiveness of parenting lessons, the formation of positive moral values and responsibility towards society among students.

Keywords: globalization, education system, integration, creative thinking, creativity and creativity, primary education, interdisciplinary approach, creativity, teaching methods, pedagogy, innovative methods, education system, student achievement, learning effectiveness.

Annotatsiya: Mazkur maqolada dunyoning zamon bilan hamnafas o‘zgarayotgan sharoitda, o‘quvchilarning tarbiyaviy jihatdan rivojlanishi, ularning ijtimoiy faolligi va ma'naviy qadriyatlarni anglab etishi katta ahamiyatga egaligi hamda tarbiya darslarining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda pozitiv axloqiy qadriyatlar va jamiyatga nisbatan mas'uliyatni shakllantirishi muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, ta’lim tizimi, integratsiya, ijodiy fikrlash, yaratilish va kreativlik, boshlang‘ich ta’lim, fanlararo yondoshuv, ijodiy qobiliyat, ta’lim metodikasi, pedagogika, innovatsion metodlar, ta’lim tizimi, o‘quvchi faoliyati, ta’lim samaradorligi.

Современная система образования характеризуется включением новых педагогических подходов и инновационных методов в контексте глобализации. Система образования Узбекистана также совершенствуется в соответствии с глобальными изменениями. Внедрение новых методов, технологий и педагогических подходов способствует повышению качества образования и адаптации его к современным требованиям. Поэтому проведение уроков «Образования» в начальных классах на основе инновационных методов является сегодня насущной необходимостью. В начальной школе уроки воспитания детей напрямую влияют не только на успеваемость учащихся, но и на их моральное, социальное и личностное развитие. В мире, где времена меняются, образовательное развитие учащихся, их социальная активность, понимание ими духовных ценностей имеют огромное значение. Инновационные методы способствуют повышению эффективности образовательных уроков и формированию у учащихся позитивных моральных ценностей и социальной ответственности.

В современной системе образования инновационные методики играют важную роль в повышении эффективности образовательного процесса. Начальные классы-это основа академического развития учащихся и важный этап в формировании их мировоззрения, мышления, способностей и умений. Инновационные методики помогают учащимся не только получить знания, но и развить самостоятельное мышление, творческие способности, а также повысить их мотивацию. В статье исследуется применение инновационных методик в начальных классах, их значение и эффективность в образовании.

Инновационные методики-это способы передачи знаний и обучения учащихся в процессе обучения с помощью новых подходов, современных технологий и педагогических приемов. Эти методики направлены на обновление способов обучения учащихся, развитие их творческих способностей, а также на то, чтобы сделать процесс обучения более интерактивным и эффективным. Инновационные методики позволяют учащимся не только усваивать знания, но и применять их на практике, анализировать, и генерировать новые идеи. В качестве доказательства нашей точки зрения приведем примеры следующих методологий, в том числе;

- **интерактивные методы:** методы, основанные на активном участии учащихся (например, групповая работа, решение проблем).

- **методы проекта:** достижение учащимися определенных результатов путем выполнения командной работы.

- **педагогические технологии:** использование информационно-коммуникационных технологий, социальных сетей и других интерактивных средств.

- **проблемный подход:** учить учащихся решать сложные задачи.

Инновационные методики и их применение в начальных классах реализуются следующим образом

Интерактивные методы-интерактивные методы помогают активно вовлекать учащихся в процесс обучения. Эти методы позволяют учащимся эффективно и запоминающе усваивать изучаемый материал. В начальных классах интерактивные методы, такие как групповая работа, сюжетно-ролевые игры, решение проблемных вопросов, служат развитию коммуникативных и творческих способностей учащихся.

Групповая работа- учащиеся вместе учатся решать проблемы и обмениваться мнениями. Это помогает учащимся развивать навыки общения и совместной работы. Например, в математике можно поощрять творческое мышление и коллективное обучение, объединяя учеников на уроках искусства и работая группами над созданием произведений искусства.

Методика проекта позволяет читателям применять полученный материал на практике. Они работают над проектом, который им интересен. Использование метода проектирования в начальных классах позволяет учащимся интегрировать знания, например, объединять предметы. Проекты развивают у учащихся творческие способности и повышают их способность мыслить самостоятельно, работать в собрании и принимать решения.

В качестве примера учащиеся могут объединить окружающий мир и воспитание, чтобы создать проект о стране. Этот процесс не только дает учащимся научные знания, но и помогает им анализировать данные, организовывать командную работу и выражать свои мысли.

Педагогические технологии-за счет внедрения современных технологий в образовательный процесс учащиеся получают более эффективные возможности обучения. С помощью компьютеров, интерактивных досок, онлайн-ресурсов учащиеся усваивают изучаемый материал в различных форматах. В начальных классах эти технологии реализуются посредством интерактивных уроков, игр, видеоуроков и других интерактивных материалов. Эти методы эффективны для привлечения внимания и мотивации учащихся.

Например, с помощью интерактивных игр на уроках математики или языка можно поддерживать интерес учащихся и облегчать процесс их усвоения. Учащиеся также могут оценивать свои знания, решая проблемы и выполняя различные тесты с помощью онлайн-платформ.

Проблемный подход помогает ученикам решать сложные задачи. Этот метод развивает критическое мышление и творческий подход. Применение этого метода в начальных классах учит учеников не только теоретическим знаниям, но и практическим применениям. Например, на уроке естественных наук учащимся может быть поручено разработать различные идеи для решения экологических проблем.

Значение инновационных методик в образовательном процессе

Развитие творческих способностей: **инновационные методики развивают у учащихся навыки творческого мышления, решения проблем и независимого мышления. Эти методы помогают учащимся разрабатывать новые подходы.**

Повышение мотивации: современные методики повышают интерес учащихся к обучению. Учащиеся с большим энтузиазмом подходят к обучению с помощью новых технологий и интерактивных методов.

Развитие практических навыков: инновационные методики служат для развития практических навыков учащихся. Они учатся применять свои знания в реальных жизненных ситуациях.

Развитие самостоятельного мышления учащихся: инновационные методики развивают у учащихся самостоятельное мышление. Учащиеся развивают свои идеи при решении проблем и становятся уверенными в принятии собственных решений.

В заключение следует отметить, что инновационные методы обучения в начальной школе играют важную роль в развитии творческих способностей, повышении мотивации и формировании практических навыков. В начальных классах эти методы обучают учеников

не только научным знаниям, но и навыкам практического применения. Применение инновационных методик в обучении повышает интерес учащихся к саморазвитию, самостоятельному мышлению и созиданию, что не только готовит их к будущим успехам, но и направлено на совершенствование образовательного процесса на основе современных технологий и инновационных методов, что способствует повышению эффективности системы образования В свою очередь, качественное образование в образовательных учреждениях положительно влияет на физическое, нравственное и духовное развитие учащихся.

Использованная литература

1. Шукуров, А. (2018). Инновационные педагогические технологии: теоретические основы и практика. Ташкент: Издательство Университета.
2. Турсунова, Н. (2019). Применение инновационных методов в начальном образовании. Научно-технический журнал «Педагогика», 34 (3), 45-53.
3. Маматова, Г. (2020). Педагогические инновации и их применение в начальном образовании. Образование и наука, 2 (8), 78-85.
4. Абдукадыров, А. (2021). Интерактивные методы в начальных классах. Образовательный процесс и технологии, 5 (7), 12-19.
5. Сафо Очил., Хошимов К. Антология узбекской педагогики. - Т.: Учитель, 2010.
6. Долимов У. Педагогика национального возрождения. Т.: ИЗДАТЕЛЬСТВО, 2012.
7. Ходжаев Б.Х. Общая педагогическая теория и практика. - Т.: Издательство «Сано-стандарт», 2017.
8. Нишонова С. Идеальное человеческое воспитание.-Т.:Истиқлол,2003.
9. Джураев Р.Х., Тургунов С.Т. Менеджмент образования. Т.: Издательство “Voris” 2006. ст. 259
10. Р.А. Мавлонова, О. Тураева, К.М. Халикбердиев. Педагогика. Учебник.Т:. Учитель 2008
11. Мавлонова Р.А., Вахидова Н.Х., Рахмонкулова Н.Х. История теории педагогики. Учебник Т:. Научные технологии. 2010 г.
12. Мавлонова Р.А., Абдурахимова Д. Педагогическое мастерство. Учебное пособие Т: Наука и технологии 2012 года.

TEXNOLOGIK TA’LIM DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

O‘zbekiston.Tuxliyev Muslimbek Sherzod og’li IPU
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi dotsenti
Fayziyeva Surayyo Murod qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnologik ta’lim darslarida o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati, usullari va metodlari tahlil qilinadi. O‘quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish texnologiya fani doirasida nafaqat mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni, balki innovatsion fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqola ijodkorlikni rivojlantirish uchun amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv yondashuvlarning qanday qo‘llanilishini ko‘rsatib beradi. Maqola o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma bo‘lib, texnologik ta’limda ijodiy yondashuvni o‘rgatishda yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Texnologik ta’lim, ijodkorlik, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari, innovatsion fikrlash, pedagogik texnologiyalar, loyiha ishlari, interaktiv metodlar, amaliy mashg‘ulotlar.

Аннотация: В статье анализируются значение, методы и приемы развития творческих способностей учащихся на уроках технологического образования. Развитие творческих

способностей учащихся в рамках технологической науки способствует формированию не только позитивного отношения к труду, но и инновационного мышления. В статье показано, как практические упражнения, проектная работа, современные педагогические технологии и интерактивные подходы могут быть использованы для развития креативности. Статья представляет собой методическое пособие для педагогов, помогающее формировать творческий подход в технологическом образовании.

Ключевые слова: Технологическое образование, креативность, творческие способности учащихся, инновационное мышление, педагогические технологии, проектная деятельность, интерактивные методы, практические занятия.

Abstract: This article analyzes the importance, methods and techniques of developing students' creative abilities in technological education lessons. The formation of creativity in students within the framework of technological science serves not only to develop a positive attitude towards work, but also to develop innovative thinking. This article shows how practical exercises, project work, modern pedagogical technologies and interactive approaches can be used to develop creativity. The article is a methodological guide for teachers and helps in teaching a creative approach in technological education.

Keywords: Technological education, creativity, students' creative abilities, innovative thinking, pedagogical technologies, project work, interactive methods, practical exercises.

1. Ijodkorlikning ta’limdagi o‘rni va ahamiyati

Ijodkorlik ta’lim jarayonida muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, nafaqat ularning kasbiy kompetentsiyalarini oshiradi, balki umumiy fikrlash va yangiliklarni yaratish qobiliyatini ham kuchaytiradi. Texnologik ta’limda ijodkorlikni rivojlantirish, o‘quvchilarga nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki innovatsion yondashuvlarni ham o‘rgatishga yordam beradi. Bunday ta’lim jarayonlari o‘quvchilarni mehnatga nisbatan ijobiy munosabatga undaydi, yangilik yaratish va muammolarni innovatsion tarzda hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ijodkorlik, shuningdek, mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan yirik qobiliyatlardan biridir.

2. Ijodkorlikni rivojlantirish metodlari

Texnologik ta’limda ijodkorlikni rivojlantirish uchun pedagogik usullarni to‘g‘ri tanlash muhimdir. Quyidagi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi:

- **Loyihalash metodi**: O‘quvchilar o‘zlari tanlagan mavzu bo‘yicha loyiha yaratadilar. Ushbu metod o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va ularni yangi g‘oyalar ishlab chiqishga rag‘batlantiradi. Loyihalar nafaqat texnik jihatdan, balki estetik va innovatsion fikrlash nuqtai nazaridan ham boyitilishi mumkin. Masalan, yog‘ochdan yoki metallardan amaliy buyumlar yasash, ekologik dizayn loyihalari yaratish kabi ijodiy ishlar orqali o‘quvchilar texnologiyaning turli jabhalarini chuqurroq o‘rganadilar.
- **Interaktiv metodlar**: O‘quvchilarni guruhlar bo‘lib ishlashga undash, muammoni birgalikda yechish uchun ijodiy yondashuvlarni qo‘llash. Interaktiv metodlar o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifodalashga, birgalikda yechim topishga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar turli texnologik vositalar va platformalardan foydalangan holda yangi g‘oyalarni yaratishda hamkorlik qiladilar.
- **Amaliy mashg‘ulotlar va ko‘rgazmalar**: O‘quvchilarga amaliy mashg‘ulotlar orqali ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish muhim. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘zlarining yaratgan mahsulotlarini ko‘rgazmalar orqali taqdim etishlari, ularni baholash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ko‘rgazmalar orqali o‘quvchilar ijodiy ishlarini namoyish qiladilar va boshqa o‘quvchilardan fikr-mulohazalar olishadi.
- **Simulyatsiya va modellash**: Texnologik jarayonlarni simulyatsiya qilish, 3D modellash va virtual laboratoriyalarni ishlatish o‘quvchilarga yangi g‘oyalar ishlab chiqishda, amaliyotni o‘rganishda va innovatsiyalarni yaratishda yordam beradi. Bu jarayonlar o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va ularga haqiqiy muammolarni hal qilish imkonini beradi.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ijodkorlikka ta’siri

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ijodkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Multimedia vositalari, interaktiv doskalar, 3D printerlar, kompyuter dasturlari va virtual realitet texnologiyalari o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vositalar hisoblanadi. Masalan, 3D printerlar o‘quvchilarga o‘z yaratgan model va maketlarini real hayotda ko‘rish imkoniyatini beradi, bu esa ularda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Virtual realitet texnologiyalari esa o‘quvchilarga real hayotdagi texnologik jarayonlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi, bu esa ijodkorlikni yanada oshiradi.

4. O‘quvchilarning ijodkorligini baholash

Ijodkorlikni baholashda an’anaviy baholash tizimlaridan tashqari, kreativlik va yangi g‘oyalar ishlab chiqish ko‘nikmalarini ham hisobga olish lozim. O‘quvchilar o‘z loyihalari va ijodiy ishlari asosida baholanadi. Ijodkorlikni baholashda o‘quvchilarning individual ishlari, guruhdagi hamkorlik, loyiha natijalari, tasavvur va innovatsion fikrlash darajasi inobatga olinadi. Baholash mezonlari ijodkorlikning turli jihatlarini o‘z ichiga olgan holda shakllantirilishi kerak.

Texnologik ta’lim darslarida o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, nafaqat ularning kasbiy kompetentsiyalarini oshiradi, balki innovatsion fikrlashni rivojlantiradi va mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi. Ijodkorlikni rivojlantirish uchun texnologiyalardan samarali foydalanish, loyiha ishlari va amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarda yangi g‘oyalar yaratishga rag‘batlantiradi. Shunday qilib, texnologik ta’lim darslarida ijodkorlikni rivojlantirish o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga asos bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayeva G., Qodirova N. Texnologik ta’lim asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020.
2. To‘raqulova M.M. Texnologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2021.
3. Abduazizov A.A. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
4. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: “TDPU”, 2020.
5. Po‘latov B.B. Kasbiy ta’lim va amaliy mashg‘ulotlar metodikasi. – Samarqand: “Ilm ziyo”, 2018.

INKLYUZIV TA’LIM-DUNYOQARASH VA TA’LIMIY KONSEPSIYA SIFATIDA

O‘zbekiston.Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi
NavDU Maktabgacha ta’lim
kafedrasi o‘qituvchisi
Jo’raqulova Gulchiroy
maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim kontseptsiyasining nazariy asoslari, pedagogik tamoyillari hamda uni kengaytirilgan dunyoqarash sifatida qabul qilish masalalari tahlil qilinadi. Makala doirasida inklyuziv yondashuvning maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim jarayonlaridagi o‘rni, tarbiyaviy hamda metodik jihatlari ko‘rib chiqiladi. Xulosa qismida amaliy tavsiyalar va istiqbolli yo‘nalishlar belgilangan.

Kalit so‘zlar: ta’limiy konsepsiya, pedagogik tamoyillar, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim, inklyuziv ta’lim, dunyoqarash.

Abstract: This article examines the theoretical foundations and pedagogical principles of inclusive education as an educational concept and worldview. It explores the role of inclusive approaches in early childhood and primary education, focusing on their pedagogical and methodological aspects. The conclusion provides practical recommendations and future directions for development

Ключевые слова: образовательная концепция, педагогические принципы, дошкольное и начальное образование, Инклюзивное образование, мировоззрение.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы и педагогические принципы инклюзивного образования как образовательной концепции и мировоззрения. Анализируется роль инклюзивных подходов в дошкольном и начальном образовании, педагогические и методические аспекты их внедрения. В заключении даны практические рекомендации и перспективные направления развития.

Ключевые слова: образовательная концепция, педагогические принципы, дошкольное и начальное образование, Инклюзивное образование, мировоззрение.

Bugungi kunda inklyuziv ta’lim global ta’lim tizimlarida asosiy pedagogik hamda ijtimoiy-ma’naviy tamoyil sifatida e’tirof etilmoqda. U har bir bolaning huquqlari va ehtiyojlarini inobatga olib, turli imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning teng huquqli va samarali ta’lim olishiga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlari, qarorlar va loyihalar bu konsepsiyaning amaliy joriy etilishini rag‘batlantirmoqda. Shu munosabat bilan inklyuziv ta’limni nafaqat amaliy metodika darajasida, balki kengroq dunyoqarash sifatida ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta’lim tizimi barcha bolalarga, shu jumladan, jismoniy yoki aqliy cheklovlarga ega bo‘lgan bolalarga ham teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Inklyuziv ta’limda asosiy e’tibor ta’limning moslashuvchanligi, o‘quv dasturlarining individual ehtiyojlarga mosligi, muhitning do‘stona va qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lishiga qaratiladi. O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’lim sohasida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maxsus ehtiyojli bolalarni umumiy o‘quv jarayoniga jalb etish bo‘yicha davlat siyosati ishlab chiqilmoqda. Bu borada o‘qituvchilarning malakasini oshirish, maxsus metodikalardan foydalanish, arslik va materiallarni moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta’lim nafaqat ta’limiy, balki ijtimoiy inklyuziyani ham ta’minlaydi. Bu esa bolalarning jamiyatga to‘laqonli integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Shunday ekan, inklyuziv ta’lim — bu nafaqat ta’limiy konsepsiya, balki insonparvarlikka asoslangan yondashuv hamdir.

Inklyuziv ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat:

✓ rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

✓ jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;

✓ ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

✓ barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

✓ o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

✓ alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta’lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik, pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Inklyuziv ta’limning 4 ta asosiy jihatiga e’tibor berish zarur.

1.Inklyuziv ta’limning nazariy asoslari. Inklyuziv ta’lim kontseptsiyasi inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillariga tayangan holda shakllangan. Shuni anglatadiki, ta’lim muassasalari o‘quvchilarning individual xususiyatlarini qabul qilish va ularni moslashuvchanligi, o‘quv dasturlarining differensiallashtirilganligi va jamiyatdagi bag‘rikenglik ruhini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi.

2. Pedagogik tamoyillar Universallik: Har bir o‘quvchiga teng imkoniyatlar yaratish, dars jarayonini har xil ehtiyojlardagi bolalarga moslash. Moslashuvchanlik: O‘quv dasturi, metodika va baholash tizimini individual xususiyatlar va qobiliyatlar asosida sozlash Hamkorlik:

Pedagog-oila-jamiyat trilogiyasini shakllantirish, ijtimoiy resurslarni jalb qilish. Ijtimoiy adolat: Har bir bolaning potentsialini ro‘yobga chiqarish uchun samarali muhit yaratish.

3. Inklyuziv ta’lim dunyoqarashi sifatida Inklyuziv ta’lim nafaqat metodologik yondashuv, balki ijtimoiy-ma’naviy dunyoqarashni ifodalaydi. Bu – bag‘rikenglik, tenglik va hamjihatlik tamoyillariga tayanib, o‘quvchilarda hamdardlik, hurmat va hamjihatlik fazilatlarini shakllantiradi. Shuningdek, pedagoglar va ota-onalarning inklyuzivlik haqida fikrlash tarzini o‘zgartirib, ta’lim jarayonida doimiy o‘zaro ta’sir va o‘rganishga zamin yaratadi.

4. Amaliy tatbiq yo‘nalishlari Resurs xonalar: Maxsus pedagog, psixolog va logopedlar bilan jihozlangan maxsus guruhlar tashkil etish. Differensiallashtirilgan o‘qitish: Guruh ichida yoki kichik guruhlarda individual yondashuv asosida mashg‘ulotlar. Raqamli vositalar: Ta’lim platformalari va ilovalar orqali vizual-auditiv yordam taqdim etish. Jamoaviy loyihalar: Turli qobiliyatdagi o‘quvchilarni birgalikda ijodiy, tadqiqot hamda sport-madaniyat tadbirlariga jalb etish.

Inklyuziv ta’lim — bu zamonaviy ta’lim tizimlarining eng muhim konsepsiyalaridan biri bo‘lib, u nafaqat turli imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning manfaatlarini himoya qilish, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va bag‘rikenglikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Uni dunyoqarash darajasida qabul qilish, pedagoglarga yondashuvni kengroq ijtimoiy-etnik, madaniy va psixologik kontekstlarda qo‘llash imkonini beradi. Amaliyotda inklyuzivlikni amalga oshirish uchun resurs xonalar, differensiallashtirish, zamonaviy raqamli vositalar hamda jamoaviy loyihalar muhim ahamiyatga ega. Kelgusida O‘zbekiston maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim muassasalarida inklyuziv konsepsiyani chuqur tadqiq qilish, pedagogik kadrlarni maxsus tayyorlash hamda ijtimoiy sheriklikni kengaytirish masalalariga e’tibor qaratish lozim. O’ylaymanki, inklyuziv ta’lim maxsus ehtiyojli bolalarning ta’lim olishini huquqini ta’minlabgina qolmay, balki jamiyatda insonparvarlik, bag’rikenglik va tenglik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatimizning har tomonlama taraqqiy etishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ainscow, M., Booth, T., & Dyson, A. (2006). Improving Schools, Developing Inclusion. London: Routledge.

2. UNESCO. (2020). Education for All 2020: Inclusive Policy Review. Paris: UNESCO.

3. Loreman, T. (2017). Inclusive Education: Supporting Equity in Education. Toronto: Routledge.

4. Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (2019). Inklyuziv ta’limni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent.

5. Ismoilova, N. (2021). Maktabgacha ta’limda inklyuziv yondashuv. Ta’lim va jamiyat jurnali, 5(1), 23–31.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

O‘zbekiston. Ilmiy rahbar Sh.M. O‘tamurodova
M.M. Abdiqayumova
NavDU Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagoglar o‘z-o‘zini kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishi uchun yo‘llar, usullar, zamomaviy innovatsion, metodik, o‘z-o‘zini tahlil qilish va refleksiv yondashuvni taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: pedagog, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘rganish, kompetensiya, kommunikativ, ko‘nikma, madaniyat.

Аннотация: В статье предлагаются пути, методы и современный инновационный, методологический, самоаналитический и рефлексивный подход для педагогов к развитию собственных профессиональных и личностных качеств.

Ключевые слова: учитель, саморазвитие, обучение, компетентность, коммуникативные, умения, культура.

Abstract: This article proposes ways, methods, modern innovative, methodological, self-analytical and reflexive approaches for teachers to develop their professional and personal qualities.

Keywords: teacher, self-development, learning, competence, communicative, skills, culture.

Zamonaviy ta’lim jarayoni pedagogdan nafaqat o‘qitish mahoratini, balki doimiy izlanish, yangilikka intilish va shaxsiy rivojlanishni ham talab qilmoqda. Chunki, globallashuv jarayoni va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim sohasida raqobatbardosh, yuqori malakali va doimiy yangilanishga tayyor pedagog kardlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagogik faoliyatga endigina tayyorlanayotgan bo‘lajak mutaxasislarning shaxsiy va kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular kelajakda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi avlodni tarbiyalaydigan mutaxassislar bo‘lib yetishadilar. Shuning uchun bo‘lajak pedagoglarning o‘z-o‘zini rivojlantirish yo‘llarini o‘rganish, ularni har tomonlama tayyorlash, kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi metodlar va yondashuvlarni aniqlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bo‘lajak pedagoglarning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati, innovatsion yangiliklarni qabul qilishga tayyorligi va o‘quvchilarga individual yondasha olishi kabi kompetensiyalar shakllanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarning o‘z-o‘zini rivojlantirish yo‘llari, bu jarayonni ta’minlovchi ichki va tashqi omillar, shuningdek, zamonaviy metodik yondashuvlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bo‘lajak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy jihatdan shakllanishi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy talablaridan biridir. Ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni muayyan yo‘nalishlar va izchil harakatlar orqali amalga oshirilgandagina natijadorlikka erishiladi. Quyida bu jarayonning asosiy yo‘nalishlari va harakat shakllari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi.

O‘qituvchi bo‘lishni orzu qilgan talabalar, avvalo, o‘z kasbining nazariy asoslarini chuqur o‘zlashtirishi lozim. Bu jarayon esa kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hisoblanadi. *Pedagogik va psixologik bilimlar*, *didaktik tamoyillar*, *zamonaviy ta’lim texnologiyalari bo‘yicha chuqur tayyorgarlik* - ularning kelajakdagi faoliyati uchun zarur zamin yaratadi. Buni amalga oshirish uchun, ilmiy maqolalar, o‘quv qo‘llanmalar va metodik adabiyotlarni muntazam o‘rganish, tajribali ustozlarnig darslarini kuzatish, amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘z ustida ishlash muhim hisoblanadi.

Pedagogik faoliyat samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining muloqot madaniyatiga bog‘liq. Shu bois bo‘lajak pedagoglar nutq madaniyati, fikrni aniq va ravon bayon eta olish, ochiq muloqot olib borish, shuningdek, tinglash va tushinish kabi kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratishlari lozim. Bo‘lajak pedagoglar uchun kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish nafaqat ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, balki o‘quvchilar bilan sog‘lom psixologik muhit yaratish, hamkorlikka asoslangan o‘qitish va tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirish uchun ham asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya – bu shaxsning turli vaziyatlarda muloqotga kirisha olish, fikrini aniq va tushunarli yetkazish, qarama-qarshiliklarni hal qilish, faol tinglash va o‘zaro tushunishni ta’minlay olish qobiliyatidir. Pedagoglar uchun bu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

Nutq madaniyati – adabiy me’yorlarga amal qilgan holda ravon, aniq, tushunarli va mantiqiy nutqni shakllantirish;

Verbal va neverbal muloqot – so‘z orqali va tana tili, mimika, imo-ishora orqali ta’sirli muloqot yurita olish;

Faol tinglash – suhbatdoshni to‘liq tushunish, unga nisbatan hurmat bilan yondashish;

Empatiya va hissiy barqarorlik – boshqalarning holatini tushunish va muloqotni ijobiy yo‘naltira olish qobiliyati;

Konfliktlarni hal qilish – nizoli holatlarda tinchlikparvar va adolatli yondashuvni qo‘llay olish.

Bo‘lajak pedagoglarda yuqoridagi ko‘nikmalarni shakllantirishni maqsadli usullar va faoliyatlar orqali amalga oshirish mumkin. Nutq madaniyati va muloqot psixologiyasiga oid treninglar orqali talabalar o‘zini erkin ifoda etish, savol berish va fikr bildirish madaniyatini o‘zlashtiradi. Dars davomida turli vaziyatlarga oid rollar o‘ynalib, real hayotdagi muloqot holatlari

modellashtiriladi. Bu orqali talabalar turli sharoitlarda qanday muloqot yuritishni o‘rganadilar. Talabalarning mustaqil taqdimotlar tayyorlashi, auditoriya oldida gapirish orqali nutq madaniyati va ishonchli muloqot yuritish malakalari mustahkamlanadi. Guruhlarda ishlash orqali fikr almashish, qaror qabul qilish, o‘zaro tushunish va mas’uliyatli muloqotga o‘rganiladi. Har bir mashg‘ulotdan so‘ng, muloqot jarayoni tahlil qilinadi, kuchli va kuchsiz tomonlar aniqlanadi, bu esa o‘z-o‘zini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bularga qo‘shimcha sifatida, mutoala hajmini ko‘paytirish, ovoz chiqarib o‘qish, oynaga qarab mashq qilish, o‘ziga bo‘lgan ishonch ustida ishlashga yordam beradi.

Yaxshi shakllangan kommunikativ ko‘nikmalar bo‘lajak pedagogga o‘quvchi bilan samarali aloqada bo‘lish, ota-onalar va hamkasblar bilan hamkorlik qilish, pedagogik jarayonni sog‘lom muhitda tashkil etish imkonini beradi. Shu bois, oliy pedagogik ta’lim tizimida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Raqamli ta’lim vositalarining ommalashuvi pedagoglardan yangi texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmasini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirishni talab qilmoqda. Bo‘lajak pedagoglar Microsoft Office, Canva, Google Workplace kabi dasturlarni, shuningdek, Moodle, Zoom va Google Classroom kabi onlayn ta’lim platformalarini o‘zlashtirishlari lozim. Bu ularga nafaqat dars jarayonini samarali tashkil etish, balki interaktiv ta’lim muhitini yaratishda ham ko‘mak beradi.

Zamonaviy pedagog tanqidiy fikrlay oladigan va muammolarga innovatsion yondashuv topa oladigan mutaxassis bo‘lishi zarur. Bo‘lajak pedagoglar yangi g‘oyalarni ilgari surish, o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otuvchi uslublarni ishlab chiqish, o‘z fikrini asosli tarzda bayon eta olish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga intilishlari zarur. Buning uchun muammoli vaziyatlar ustida ishlash, ijodiy yozuv mashqlari, loyiha faoliyatlarida ishtirok etish foydalidir. Bular insonda tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

O‘z-o‘zini tahlil qilish va refleksiv yondashuv. Zamonaviy pedagogik nazariyalarda shaxsiy rivojlanishning eng samarali vositalaridan biri sifatida refleksiya – ya’ni o‘z faoliyatini ongli ravishda tahlil qilish, baholash va takomillashtirish jarayoni e’tirof etiladi. Bo‘lajak pedagoglar uchun esa refleksiv yondashuv shunchaki o‘z fikrini bildirish emas, balki o‘quv faoliyati, o‘zaro munosabat va kasbiy o‘sishni boshqarishda faol ishtirok etish vositasidir. Refleksiv yondashuv – bu shaxsning o‘z bilim, ko‘nikma va faoliyatini tahlil qilishi, mustaqil xulosa chiqarishi, shuningdek, o‘zini tanqidiy baholash orqali yaxshilashga intilishidir. Ushbu yondashuv orqali pedagog:

-o‘zining dars jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarini anglaydi;

-o‘quvchilarga qanday ta’sir qilganini tushunadi;

-metodik yondashuvlarni o‘zgartirish zarurati haqida xulosa chiqaradi;

-kelgusi faoliyat uchun samarali reja tuzadi.

Bunda har bir darsdan so‘ng qisqacha yozma mulohaza bildirish: nimalar muvaffaqiyatli bo‘ldi, nimalar kutilganidek chiqmadi, qanday xulosa chiqarish mumkin?- degan savol berib ko‘rish, amaliy mashg‘ulotlar videosini ko‘rib, o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish (bu usul xolis baho berish va o‘zini boshqalar nigohida ko‘rishga yordam beradi), ustoz-pedagog yoki tengdoshlar bilan dars jarayoni haqida suhbatlar, konstruktiv tanqid va maslahatlar olish orqali o‘zini tahlil qilish, o‘zining kuchli (Strengths), zaif (Weaknesses) tomonlari, imkoniyatlar (Opportunities) va xavf-xatarlarini (Threats) aniqlash orqali strategik o‘sishga yo‘naltirilgan refleksiya, maxsus shakllar orqali dars samaradorligi, o‘qituvchilik uslubi, o‘quvchi bilan aloqalar holatini baholash, o‘z ustida rejali ish olib borish kabi amaliy usullar samarali natijalar beradi.

Refleksiya natijasida bo‘lajak pedagog, o‘zini tashqi talablar asosida emas, ichki motivatsiya asosida rivojlantiradi, faoliyatida ongli yondashuvni kuchaytiradi, doimiy o‘sishga intiladigan, moslashuvchan va tanqidiy fikrlovchi pedagog sifatida shakllanadi. O‘z-o‘zini tahlil qilish va refleksiv yondashuv pedagogik faoliyatning ajralmas qismi bo‘lib, bu jarayon orqali bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z ustida ishlashga, xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga va doimiy takomillashishni o‘rganadilar. Shunday ekan, pedagogik ta’limda refleksiya madaniyatini shakllantirish, bu boradagi ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish ta’lim sifati va shaxsiy o‘sishning muhim kafolatidir.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak pedagoglarning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va ta’lim sifati uchun muhim poydevor hisoblanadi. Bu jarayon kompleks yondashuvni talab qiladi va bir nechta muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi: kasbiy bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirish, kommunikatsion salohiyatni oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish, shuningdek, doimiy refleksiya asosida o‘z faoliyatini tahlil qilish.

Pedagogik ta’lim muassasalari esa bu jarayonni rag‘batlantiruvchi metodik sharoitlar yaratishi, talabalarga amaliy mashg‘ulotlar, treninglar va loyiha faoliyatlari orqali o‘z salohiyatini namoyon qilish imkonini berishi lozim. Faqat mana shunday yondashuv bilangina zamonaviy, raqobatbardosh va o‘z ustida ishlashga qodir pedagog kadrlarni tayyorlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qurbonova Z.Q. Pedagog kadrlarini tayyorlashda shaxsiy rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish masalalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti.2021.
2. Abdulayeva N.N. Boshlang‘ich ta’limda bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirish asoslari. – Toshkent: Ilm Ziyo. 2020.
3. Hasanboeva M., Xolboeva G. O‘z-o‘zini rivojlantirish va refleksiya: pedagoglar uchun uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: Zarafshon nashriyoti.2023.
4. Dewey, J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. – Boston: D. C. Heath and Company.1933.
5. OECD Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. – Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/1d0bc92a-en. 2019.

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING MAZMUNI, SHAKL, METODLARI

O‘zbekiston. Fayzullayeva Zarnigor Abror qizi
Navoiy davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya:ushbu maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompentlik ko‘nikmalarini takomillashtirishning mazmuni,shakl,metodlari ta’lim, tarbiya haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar:tarbiya, ta’lim, innovatsiya, metod, kasbiy, texnologiya, simulyatsiya, pedagog, bilim, mahorat, maqsad, xususiyat, tayyorgarlik, rivojlanish.

Аннотация: В статье рассматриваются содержание, формы и методы обучения и подготовки будущих учителей изобразительного искусства с целью повышения их профессиональной компетентности.

Ключевые слова: образование, обучение, инновация, метод, профессионал, технология, моделирование, учитель, знание, умение, цель, характеристика, подготовка, развитие.

Abstract: This article discusses the content, form, and methods of improving the professional competence of future visual arts teachers, education, and upbringing.

Keywords: upbringing, education, innovation, method, professional, technology, simulation, pedagogue, knowledge, skill, goal, characteristic, preparation, development.

XXI asr texnologiyaning jadal rivojlanishi va axborot makonining kengayishi bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra, ta'limga yangi yondashuvlar paydo bo‘ladi, misli ko‘rilmagan texnik imkoniyatlar ochiladi, o‘quvchilarga katta ma'lumotlar qatlamlarini tezda o‘zlashtirish, o‘z bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda ham, maxsus simulyatsiya qilingan sharoitlarda ham qo‘llash, katta ma'lumotlar oqimini tezda qayta ishlash, bilim va ko‘nikmalarini to‘ldirish va yangilash imkonini beradigan innovatsion texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Albatta, bunday sharoitda o‘qituvchilarga yangi, yanada qat'iy talablar qo‘yiladi. Bugungi kunda o‘qituvchiga qo‘yiladigan asosiy talab - bu kasbiy kompetentsiyaning yuqori darajasidir.

Kasbiy ta'limning muhim maqsadi - ta'limning muvofiqligi,ta'lim va rivojlanish zamonaviy jamiyatning istiqbolli ehtiyojlariga, shuningdek har tomonlama rivojlangan, o‘z-o‘zini tarbiyalash

va o‘z-o‘zini takomillashtirishga qodir shaxsni tayyorlash. Bugungi kunda jamiyat yuqori malakali, malakali mutaxassislarga muhtoj.

Pedagog-rassom o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishning kafolati bo‘lib xizmat qiladi, chunki, u o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini oldindan aytib bera oladi.

natijalar, badiiy-pedagogik yo‘nalishda ta'lim jarayonini modellashtirish.

L. F. Spirin professionalogrammada bir-biriga bog'liq bo‘lgan bir nechta bloklarni o‘z ichiga oladi:

1. Pedagog shaxsining xarakteristik xususiyatlari.
2. Kasbiy-pedagogik bilimlar.
3. umumiy pedagogik mahorat.
4. umumiy pedagogik mahorat.

Tasviriy san’at darslarida kasbiy tayyorgarlikni zamonaviy innovatsion usullar asosida oshirish mezonlari 3 ta:

- Reproduktiv
- Eviristik
- Kreativ

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida o‘qitishning shakl va metodlari tasnifi o‘zaro bog’langan va o‘zaro shartlangan faoliyatga tayanadi:

- o‘quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo‘yicha;
- o‘qituvchilarning faoliyati;
- talabalarning o‘qish va bilish faoliyati.

Talabalarni kasbiy tayyorlashda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonini tashkil etish bosqichlaridan quyidagilarni misol keltirish mumkin:

O‘qitishning an’anaviy (reproduktiv) texnologiyasi. An’anaviy texnologiyaning asosiy xususiyatlari va didaktik mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bilim berish, o‘quv va malakani shakllantirishga mo‘ljallanadi;
- talabalarni reproduktiv darajada o‘quv mazmunini o‘zlashtirishlarini hamda uni nazorat qilish va baholashni ta’minlaydi;
- yetakchi uslub-ko‘rgazmalar asosida tushuntirish;
- talabalarning asosiy faoliyati turi - tinglash va eslab qolish;
- didaktik mezoni – o‘rganilganlarni xatosiz eslash va amalda qo‘llash.
- didaktik sxemasi: yangi materialni o‘rganish-mustahkamlash-nazorat- baholash

Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi. Asosiy xususiyatlari:

- o‘qitish samaradorligini oshiradi;
- yetakchi prinsip- yuqori darajada qiyin va tez sur’atlarda o‘qitish;
- ta’lim mazmuni - nazariy bilimlarga tayangan holda amaliy o‘quv va malakani birgalikda rivojlantirish;
- o‘quv faoliyatining turli holatlarida talaba refleksiyasini rag’batlantirish.

- **Aqliy harakatni bosqichma-bosqich shakllantirish texnologiyasi.** Bu texnologiyada o‘quv jarayoni aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etish asosida amalga oshiriladi.
- Jamoaviy o‘zaro ta’sir texnologiyasi.Tashkiliy dialog, birgalikdagi dialog, o‘qitishning jamoaviy usuli, talabalarning almashinuvchi tarkibli juftligida ishlash ushbu pedagogik texnologiyaning yetakchi shakllari hisoblanadi.
- **To‘liq o‘zlashtirish texnologiyasi.**An’anaviyo‘qitish texnologiyasidan yakuniy natija, ya’ni o‘quvchilardagi bilimni o‘zlashtirish darajasi bilan farq qiladi.
- **Turli darajali o‘qitish texnologiyasi.** Ushbu texnologiya har bir ta’lim oluvchini yaqin rivojlanish doirasiga mos keluvchi faoliyatini hisobga olgan pedagogik sharoit yaratishni va differensial darajali o‘qitishni ko‘zda tutadi.

Adaptiv o‘qitish texnologiyasi. Adaptiv (moslanuvchan) o‘qitish texnologiyasi turli darajali o‘qitish texnologiyasining har xilligi bilan farqlanadi. O‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv mashg’ulotlarining moslashuvchan tizimini

tashkil etishni ko‘zda tutadi.Unda asosiy e’tibor o‘quvchilarning o‘quv qobiliyatlarini shakllantirishga qaratiladi.

Muammoli o‘qitish texnologiyasi. Pedagogik texnologiya maqsadi o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchining o‘quv muammolari yechimiga qaratilgan mustaqil ijodiy izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogik texnologiya tatbig’i o‘quvchida yangi bilimlar, uquv va malaka, rivojlanuvchi bilish qobiliyati, eruditsiya (bilim, aql-zakovat), bilishni sevish, ijodiy fikrlash kabi muhim ahamiyatga ega boshqa shaxsiy fazilatlar hamda qobiliyatlarni shakllanishiga olib keladi.Ushbu texnologiyada pedagog bilimlarni tayyor holda y e tkazmaydi, balki o‘quvchiga mavzu bo‘yicha muammoli vaziyat hosil qiladi va muammo y e chimi bo‘yicha unda fikr va g’oya uyg’onishiga sharoit yaratadi.

Loyihalar uslubi texnologiyasi. Loyihalar uslubi majmuali uslub hisoblanib, hozirgi vaqtda o‘quv jarayonida qo‘llanilayotgan barcha innovatsion pedagogik uslublarni o‘zida mujassamlashtiradi. Loyihalar uslubi-o‘qituvchi nazoratida yangi mahsulot va xizmatlar yaratish jarayonida o‘quvchining intellektual va jismoniy imkoniyatlarini, mustaqillik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘li orqali shaxsning o‘z qobiliyatlaridan to‘liq foydalanishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tashkil etishning amaliy ahamiyat kasb etuvchi, sub’ektiv va ob’ektiv yangiliklarga ega moslashuvchan modeli va o‘qitish tizimidir.

- Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb nomlanadi.
- **Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim** – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim.

Bu ta’lim o‘qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim-tarbiya jarayonini to‘laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta’minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi.Pedagog tomonidan ta’lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo‘llanilishi talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o‘stirishga xizmat qiladi. Xususan: muammoli izlanish, kichik tadqiqotlarni olib borish, debat, bahs-munozara, evristik suhbat, kichik guruhlarda ishlash va boshqalar.

- **Amaliy o‘yinlar.** Dastlab “o‘yin” tushunchasining mohiyatini anglab olish talab etiladi. O‘yin - kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli sanaladi. Amaliy o‘yinlar – muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan faoliyatdir.

Ta’lim amaliyotida qo‘llaniladigan amaliy o‘yinlar o‘z-o‘zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko‘p holatlarda “didaktik o‘yinlar” deb yuritiladi. Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o‘yin sub’ekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan.

Interfaol ta’lim o‘qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari-o‘qituvchi, talaba va talabalar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg’in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechhimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – talaba–talabalar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Professional kompetentsiya tushunchasi nisbatan yangi. Bir necha yil oldin, u birinchi navbatda kasbiy bilim va o‘qitish bilan aniqlangan tajriba, lekin bugungi kunda bu ancha kengroq tushunchadir.Agar biz yaqin vaqtgacha o‘qituvchilarning malakasini, ya'ni muvofiqligini baholagan

bo‘lsak ularning bilimlari va o‘quv faoliyatini tashkil etish usullari ta'lim sifatining davlat standartlari bilan bugungi kunda bu yetarli malakaga ega bo‘lish uchun professional malakaga ega bo‘lish kerak, bu mavzu bo‘yicha maxsus bilimlarning mavjudligini nazarda tutadi,ularni talabalarga o‘tkazish va amaliy faoliyatda foydalanish qobiliyati;muloqot va aks ettirish qobiliyatlari, doimiy o‘z-o‘zini takomillashtirish, va hokazo Bu Bu talablar o‘qituvchiga qo‘yilganligini ta’kidlash lozim va u o‘z misoli va darajasi bilan bevosita ta'sir qiladi.shaxsni shakllantirish va rivojlantirish fanini o‘rgatish va talabaning malakasi, mos ravishda, shakllantiruvchilardan biridir. [65]Chunki,ta'lim muassasalarining vazifasi nafaqat talabalarning bilim darajasini uzatish va nazorat qilish, balki ularda ijodiy fikrlashni, turli masalalarni hal etishga ijodiy yondashishni shakllantiradi muammolar, madaniyatning yuqori darajasi, barqaror fuqarolik pozitsiyasi, o‘rnatish qobiliyati mustahkam ijtimoiy munosabatlar, pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri badiiy ixtisosliklar, xususan, tasviriy san'at o‘qituvchilari. dan biri multikultural yondashuvni amalga oshirish shartlari ikki tilda yosh avlodning ongliligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ta'lim ona tilini, ona tilini o‘rganish zarurati haqida er va ona madaniyati yopish mavzusi e'tibor - asosiy tamoyillardan birini amalda amalga oshirish ta'lim sohasidagi davlat siyosatining, ya'ni moslashuvchanlik printsipi ta'lim tizimini sifat va yangi ta'lim ehtiyojlariga moslashtirish nafaqat funktsional malaka darajasini kafolatlaydigan xizmatlar talaba-o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish, balki o‘quvchilarni darajasida tayyorlashni ham ta’minlaydi.Yevropa standartlari, Evropa tipidagi fikrlash bilan bitiruvchini shakllantirish, madaniyat va xulq-atvor. Yevropa integratsiyasi va istagini hisobga olgan holda globallashuv bugungi kunda chet tilini bilish asosiy komponent hisoblanadi.bilimli mutaxassisning. Zamonaviy dunyoda va barcha o‘zgarishlar Ayniqsa, Yevropa, hech bo‘lmaganda bir yoki ikkita chet elni bilish zaruratiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, Interfaol usullar orqali ta’lim samaradorligi oshadi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida o‘zaro hamkorlik talabalarda erkin ijodiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi va shakllanadi.Bu innovatsion yondashuvda talaba shaxsi ta’limda markaziy figuraga aylanadi. O‘qitishda noan’anaviy shakllar interfaol usullarni uch guruhga ajratish mumkin. O‘qitishda hamkorlik, modellashtirish o‘rganishning tadqiqot modeli. Ishlab chiqilgan model bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorlash zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun shart-sharoitlar hamda o‘qitish metodikasi mazmunan takomillashtirildi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish modelining maqsad komponentida malaka talablari asosida o‘qituvchining kasbiy komponentlarini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Jumladan, zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy turlari, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyat strukturasi, komponentlar tuzilmalari yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – O‘zbekiston, 2014. - 76 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi 4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 6-son. 70-modda.
3. Abdullayeva SH.A. Pedagogika. – T.: Fan va texnologiyalar, 2015. – 288 b.
4. Abdurahmonova Z.A. Zamonaviy o‘qituvchining shaxsiy kompetensiyasini shakllantirish muammolari // Zamonaviy ta’lim j. – T.: 2016. – №5. – 56 b.
5. Abduqodirov A. A., Pardayev A. X. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug’ati. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 44 b.
6. Abu Ali ibn Sino. Tarjimai holi. T.: “Fan”, 1980. – 6 b
7. Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy. “Al-jomi’ as-sahih” hadislar to‘plami. 4 jild. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. 1992. 1994. 1996. – 37 b.

[65] Fayzullayeva Z.A. “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” N 12,2024-yil 74-75-betlar.

AXBOROT-TA'LIM MUHITI SHAROITIDA TALABALARNING KOGNITIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

O‘zbekiston. Ne’matova Hilola Ikrom qizi
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Axborotlashtirilgan ta'lim muhiti negizida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga innovatsion yondashuv bo‘lajak kasb ta'limi o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish va unga mos ilmiy-metodik ta'minotni yaratishga imkon berish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Axborotlashgan muhit, bo‘lajak pedagoglar, elektron ta'lim resurslari, internet tarmog‘i, axborot va kommunikasiya texnologiyalari.

Аннотация. Дана информация об инновационном подходе к подготовке будущих специалистов к профессиональной деятельности на основе информативной образовательной среды, позволяющем повысить качество подготовки будущих педагогов профессионального образования и создать соответствующее ему научно-методическое обеспечение.

Ключевые слова. информативная среда, будущие педагоги, ресурсы электронного обучения, сеть интернет, информационно-коммуникационные технологии.

Annotation. On the basis of an informed educational environment, an innovative approach to preparing future specialists for professional activities is provided to improve the quality of training future vocational education teachers and allow them to create a suitable scientific and methodological support.

Keywords. Informed environment, future educators, e-learning resources, internet network, information and communication technologies.

Axborotlashgan jamiyatning hal qiluvchi muhim resursi bu intellektual ta'limiy salohiyat bilan bog‘liq. Tabiiyki, jamiyatni axborotlashtirish jarayonida ta'limni axborotlashtirish yetakchi o‘rindagi vazifa hisoblanadi. Bunday sharoitda intellektual salohiyatli jamiyat ta'lim tizimi oldiga yangi qat'iy talablar qo‘yadi. Bu talablar avvalambor ta'lim sifatining samarali bo‘lishiga zamin yaratadi. Ta'lim-tarbiya jarayonining yakuniy natijasi sifatida har tomonlama rivojlangan, zamonaviy hayot muhitiga oson moslasha oladigan, barkamol shaxsning shakllanishini qarash mumkin. Ta'lim jarayonining asosiy natijasi faqatgina bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki shu o‘zlashtirish usullari, yo‘llarini egallash, o‘quvchilarning bilish ehtiyojlari va ijodiy salohiyatini rivojlantirish hisoblanadi. Bu maqsadga erishish, shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim jarayonini amalga oshirishni talab etadi. Bugungi o‘qituvchiga jamiyatning yangi talablariga javob beradigan ta'limiy natijalarga erishish uchun o‘qitishning yangi texnologiyalari zarur. Bu texnologiyalar o‘qitishni individuallashtirishga, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda mustaqil ta'lim olish ko‘nikmalarini paydo qilishga, o‘quv axborotlarining yangi manbalariga kirishga imkon beradi. Bundan axborot – kommunikasiya texnologiyalari vositalari asosida yangi ta'lim muhiti shakllantirish vazifalari kelib chiqadi. Bu vaziyatda o‘qituvchining axborot – kommunikasiya texnologiyalarini yaxshi o‘zlashtirishi va ulardan kasbiy faoliyatida samarali foydala olishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchining turli xildagi axborotlarni qayta ishlash vositalarini bilishi emas, balki zamonaviy o‘qituvchi oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda, o‘z kasbiy faoliyatida shu vositalarni faol ishlata olishga tayyorgarligi muhimdir. Pedagog o‘z kasbiy faoliyatida axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanibgina qolmasdan, balki darslarni shu texnologiyalardan keng foydalangan holda, metodik jihatdan yuqori saviyada tashkil eta bilishi kerak. Pedagogning axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalana olish malakasi quyidagilar bilan belgilanadi:

1) kerakli axborotni topa bilish. Ta'limning yangi muhitida pedagogning asosiy xususiyati unda mavjud bilimlar majmuasi emas, balki avvalambor yangi bilimlarni qabul qilishga tayyorligi va ularni kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishidir. Shuning uchun katta axborot oqimidan kerakli va foydali axborotni topa bilish alohida ahamiyatga ega;

2) elektron ta'lim resurslaridan (ETR) foydalana olishi. Bugungi kunda turli fanlardan katta hajmda ETR yaratilgan. Darsga kerakli didaktik, metodik materiallarni yig‘ishni aynan ETRdan hamda tematik kataloglar va elektron ensiklopediyalardan boshlash kerak;

3) o‘z ta'lim resurslarini yarata bilish. Katta miqdordagi mavjud ta'lim resurslari, tematik kataloglar, elektron ensiklopediyalar bilan birga o‘qituvchi qo‘lidagi eng kuchli vosita – o‘z ta'lim resurslarini yaratishni bilishi hisoblanadi. Buning uchun o‘qituvchi matnli, sonli, grafik axborotlarni qayta ishlashni bilishi, shuningdek, multimediataqdimotlar va Web – saytlar yaratish asoslarini egallagan bo‘lishi zarur;

4) Internet tarmog‘ida mo‘ljalni to‘g‘ri olish. Internetdan ta'lim jarayonida foydalanish uchun materiallar olishdan tashqari, faoliyat usullari haqida axborotlarni ham olish mumkin. Ya'ni, pedagog o‘z kasbiy faoliyatida ETR qanday topish, tahrir qilish, yaratish, foydalanish haqidagi axborotlarni ham «Butunjahon o‘rgimchak to‘ri»dan topishi mumkin. Bundan tashqari, hamma paydo bo‘ladigan savollarga shu texnologiyalardan yaxshi xabardor hamkasblar bilan ham maslahatlashish mumkin. Buning uchun o‘qituvchilarning Internet-hamjamiyatlari, forumlarda qatnashishini ommalashtirish kerak. Ta'limda axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo‘llash juda muhim. Sababi bu texnologiyalar jamiyatga ta'lim vazifalarini echishda, ta'lim tizimiga esa o‘z maqsadlariga erishishda yordam beradi. Bugungi kunda pedagogning o‘z bilim sohasi bo‘yicha yangiliklarga tezkor ega bo‘lishini ta'minlash, ularning zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan xabardorlikka, etarli axborot egasi bo‘lishga talab – ehtiyoj har qachongidan ko‘ra ortganligi haqiqat. Binobarin, jamiyatni axborotlashtirish, tobora muhim ahamiyat kasb etib, hayotiy zaruratga aylanmoqda. Bu qonuniy va ob'ektiv jarayon bo‘lib, butun jahon hamjamiyatiga xosdir. Mazkur jarayon inson faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Nazariy manbalar tahlili talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan keng foydalanish:

- o‘quv-tarbiya jarayonining texnologiyalaridan faollashishiga hamda ta’lim samaradorligini oshishiga;
- axborotni turli shaklda (ovoz, matn, video, grafika, animasiyalar yordamida) berilishi talabalarning bilishga qiziqishlarini ortishiga, yuqori darajadagi ko‘rgazmalik talabalarda mavzuning uzoq vaqt xotirada saqlanishini ta'minlashi;
- tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan o‘qitishni amalga oshirishga imkon berishi bilan alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini pedagogik ta'lim jarayonlariga joriy etish talabalarning:

- ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati;
- maqbul qaror qabul qilish malakasi;
- kommunikativ kompetentlik;
- estetik kompetentlik;
- kasbiy kompetentlik;
- axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Bugungi kunda pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalari, ya'ni bo‘lajak o‘qituvchilar zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari asosida ta'lim-tarbiya maqsadlariga erishish yo‘lida didaktik vazifalarni bajarishlari uchun talab etiladigan quyidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘lishlari lozim:

- axborotlarni saqlash, qayta ishlash, tarqatish va namoyish qilish tamoyillarini bilish;
- kompyuter va xarakteristikalarini bilish;
- kommunikasiya vositalari, ularning - ta'lim jarayoni va ilmiy izlanishlarida internetdan foydalanish;
- ta'lim jarayonida kompyuter va kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish metodologiyasini bilish; - dasturiy ta'minotning asosiy turlarini bilish va ulardan foydalanish;
- fanlardan maxsus taqdimotlar va elektron resurslar tayyorlash vositalaridan foydalanish;
- ta'lim jarayonida amaliy masalalarni echishda axborot texnologiyalarini qo‘llash;
- masofaviy ta'lim elektron o‘quv-metodik bazasini yaratish va undan foydalanish.

Bizning fikrimizcha, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish – pedagogik-psixologik maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Axborot va kommunikasiya texnologiyalari (AKT) jamiyatning axborot resurslaridan foydalanish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirgi vaqtgacha axborot va kommunikasiya texnologiyalari ma'lumotlarni izlash va qayta ishlashning yangi texnologik vositalarining paydo bo‘lishi, texnik taraqqiyot bilan belgilanadigan bir qancha evolyutsion bosqichlarini bosib o‘tdi. Axborot va kommunikasiya texnologiyalari rivojining yangi bosqichi ta'limda strategik afzalliklarga erishishga imkon beradigan texnik vositalarning rivojlanishi bilan tavsiflanadi. AKT rivojida odatda quyidagi asosiy yo‘nalishlar ajratib ko‘rsatiladi:

Globalllashuv. Oliy ta'lim muassasalari AKT yordamida o‘zining nazariy va amaliy muammolarini hal etadigan jahon miqyosidagi o‘quv muassasalari bilan hamkorlik qilishi mumkin. Dasturiy vositalar va axborot mahsulotlari bozorining xalqarolashuvi yuzaga keladi. Keng geografik makonda doimiy axborot iste'mol qilinishining kengayib borishi hisobiga qulayliklarga ega bo‘lish strategiyaning zaruriy sharti sifatida shakllanadi.

Uyg‘unlashtirish (Konvergensiya). Natijalar va xizmatlar, axborot mahsulotlari va ularni olish vositalari, ulardan kasbiy va kundalik faoliyatda foydalanish o‘rtasidagi farqlar yo‘qolib boradi. Raqamli, ovozli va videosignallarni uzatish va qabul qilish bir qurilma va tizimda o‘z aksini topadi.

Axborot mahsulotlari va xizmatlarining murakkablashuvi. Dasturiy apparatli vositalar ko‘rinishidagi axborot mahsulotlari, ma'lumotlar ombori va saqlovchilari, ekspluatasiya xizmati va ekspert ta'minoti doimiy rivojlanish va murakkablashib borish tendensiyasiga egadir. Shu bilan birga axborot va kommunikasiya texnologiyalarining interfeys qismi tizimlar va foydalanuvchilarning interaktiv o‘zaro harakatini qulaylashtirish asosida vazifalarni hal etishning har qanday murakkabliklarini engillashtiradi, O‘zaro birgalikdagi harakatga qobiliyatlilik (Interoperability). Kompyuter-axborot tizimlari, tizim va foydalanuvchilar orasida ma'lumotlarni maqbul tarzda almashish, ma'lumotlarni uzatish va zarur axborotlarni shakllantirish etakchi texnologik muammolar maqomini egallaydi. Axborotlar almashinuvining zamonaviy dasturiy-apparat vositalari protokollari ularni toboro keng miqyosda hal etish imkonini beradi. Oraliq birgalikdagi bo‘g‘inlarni harakatga qisqartirish qobiliyatlilik (Disintermediation). o‘z navbatida O‘zaro axborot mahsulotlarini foydalanuvchiga etkazib berish uchun engilliklar yaratib beradi.

Texnologik takomillashtirilgan mahsulot – bu ma'lum bir texnik tizimchalarga yuqori samarali komponentlardan foydalanish orqali qisman o‘zgarishlar kiritish orqali sifatni yaxshilashgan qaratilgan mahsulotdir; texnologik takomillashgan mahsulotlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ta'limdagi produktiv innovasiyalarga taalluqlidir. Mazkur innovasiyalar mutlaq yangi texnologiyalar, yoki mavjud texnologiyalardan foydalanish yoxud ularni uyg‘unlashtirishga asoslangan bo‘lishi mumkin. Institusional darajada axborot-kommunikasiya tizimlari o‘zida davlatning ta'lim siyosati, ta'lim muassasalarining maqsadi hamda axborot va kommunikasiya texnologiyalarining taraqqiyot yo‘nalishlariga mos ta'lim muhitini aniqlashtirishni o‘zida aks ettiradi. Ta'limiy jarayonlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amalga oshirish uchun axborot ta'lim muhitida pedagogik fanlarning “elektron pedagogika” deb nomlangan yangi yo‘nalishi paydo bo‘ldi. Uning predmetini ta'lim paradigmalaridan mustaqil ravishda o‘quv jarayoni modeli sifatida aks etuvchi yaxlit pedagogik tizim tashkil etadi. Pedagogik tizimda ochiq o‘qitish mazmuni elementlari sezilarli darajada o‘zgaradi.

Internet-ta'limning quyidagi qator psixologik-pedagogik muammolarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) zamonaviy axborot-ta'lim muhitlarida o‘qitishning nazariyasining mavjud emasligi bilan bog‘liq muammolar. Qayd etib o‘tilishicha, hozirgi vaqtda mavjud o‘qitish nazariyalaridan hech biridan virtual ta'lim muhitida samarali foydalanish imkoniyati mavjud emas. An'anaviy ta'lim metodologiyasi bilan o‘zaro muvofiqlikda kompyuter yoki Internet ta'limini tashkil etishga urinishlar yuqori samara bermayapti;

2) zamonaviy axborot ta'lim muhitida samarali o‘qitish jarayonini amalga oshirish uchun o‘quv-uslubiy majmualar (O‘UM) tarkibini maqbullashtirish bilan bog‘liq muammolar. Muammo

o‘qitish samaradorligini oshirish uchun o‘quv-uslubiy majmua tarkibiy asoslari bilan axborotlarni uzatishning turli ko‘rinishlarini o‘zaro muvofiqlashtirish bilan bog‘liq. Mualliflar qayd etib o‘tishganidek, muammo psixologik-pedagogik nazariyalar asosida hal etilishi lozim;

3) maqbullikni ta'minlash bilan bog‘liq muammolar: o‘quv-materialini psixologik-ergonomik talablarga muvofiq taqdim etish, elektron ko‘rinishda taqdim etilgan o‘quv materiallarni talabalarning idrok etishi, elektron materialni tushuna olish. Mazkur muammo kompyuter ekranidagi o‘quv materialini talabalar tomonidan idrok etilishining psixologik lingvistik o‘ziga xosliklari bilan bog‘liq.

4) professor-o‘qituvchilar va talabalarning zamonaviy axborot-ta'lim muhitiga moslashuvi bilan bog‘liq muammolaryu Mazkur muammoni hal etish ta'lim sub'ektlarining axborot texnologiyalari va zamonaviy axborot ta'lim muhitiga muntazam tayyorlab borishni taqozo etadi;

5) ta'lim jarayoni ishtirokchilarining muntazam aloqasini cheklash bilan bog‘liq tarbiya sohasi bilan bog‘liq muammolar;

6) valeologik muammolar. Valeologiya salomatlik, inson sog‘ligi haqidagi fan hisoblanadi. Hozirga vaqtda sog‘lom turmush tarzi asoslarini takomillashtirish salomatlik saqlashga doir nazariyaning ajralmas qismi hisoblanadi hamda madaniy me'yor, qadriyatlarga asoslangan shaxsning kundalik hayotiy faoliyatini tashkil etish shakl va usullarini o‘zida aks ettiradi;

7) ta'lim standartlariga muvofiq ravishda o‘quv materiallari sifati bilan bog‘liq muammolar.

Fikrimizcha, axborot ta'lim muhitini yaratishda tizimli yondashuvni joriy qilish talab etiladi. Ushbu yondashuvning dastlabki bosqichida zamonaviy ta'lim mazmuniga mos ravishda ta'lim muassasasi axborot ta'lim muhiti maqsadi belgilanadi. Pedagogik faoliyatda ta'lim maqsadi tizimlashtiruvchi vazifani bajaradi. Aynan belgilangan maqsad ta'lim mazmuni, maqsadi, tashkiliy shakllarini tanlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Narziqulova D.X. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida pedagogik nizolarning profilaktik texnologiyalarini takomillashtirsh: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – Samarqand, 2017. – 147 b.

2. Lutfillaev M.H. Oliy ta'lim o‘quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integrasiyalash nazariyasi va amaliyoti (Informatika va tabiiy fanlar misolida): ped. fan. dok. ... dis. – Samarqand.: 2005. – 236 b.

3. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: ped.fan. dok. ... dis. – Toshkent, 2007. – 305 b.

4. Aripdjanova A. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. Avtoref. – Toshkent, 2017. – 50 b.

MAKTABGACHA TA’LIMNI BOSHQARISH TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

O‘zbekiston. Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi
NavDU Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Ikromova Shaxinabonu
maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim tizimini to‘liq uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan taminlash, bolalarni har tomonlama axloqiy, intellektual, manaviy, estetik, ma’rifiy va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish, bolalarlarning maktabga tayyorgarlik darajasini belgilash bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni rivojlantirishning huquqiy asoslari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: rivojlantirish, uzluksiz ta’lim, konsepsiya, ta’lim sifati, ijtimoiy rivojlantirish, malakali kadrlar, rejalashtirish dasturi, ilk qadam, moddiy texnika baza, davlat dasturi, tarbiya.

Annotation: further improvement of the preschool education system as an important link in the system of full-fledged continuing education, expansion of the network of preschool educational organizations and strengthening the material and technical base, provision of them with qualified pedagogical personnel, implementation of modern educational programs and technologies that develop children comprehensively moral, intellectual, moral, aesthetic, educational and physical, setting the level of This article analyzes the legal framework for the development of preschool education in Uzbekistan.

Key words: development, continuing education, concept, quality of Education, Social Development qualified personnel, planning program, first step, material technical base, state program, education.

Аннотация: дальнейшее совершенствование системы дошкольного образования как важного звена в системе полноценного непрерывного образования, расширение сети дошкольных образовательных организаций и укрепление материально-технической базы, обеспечение их квалифицированными педагогическими кадрами, внедрение современных образовательных программ и технологий, всесторонне развивающих у детей нравственные, интеллектуальный, нравственный, эстетический, образовательный и физический уровни, определяющие данную статью, анализируются нормативно-правовой базой развития дошкольного образования в Узбекистане.

Ключевые слова: развитие, непрерывное образование, концепция, качество образования, социальное развитие, квалифицированные кадры, программа планирования, первый шаг, материально-техническая база, государственная программа, образование.

Zamonaviy jamiyatda inson kapitalini shakllantirishning dastlabki bosqichi maktabgacha ta’lim tizimidir. Bolaning ijtimoiylashuvi, nutq, tafakkur va boshqa ko‘nikmalarining shakllanishida ayni davr hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tizimini samarali boshqarish, qonunchilik bilan mustahkamlab qo‘yilgan aniq huquqiy asoslarga tayanishi lozim. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu yo‘nalishda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishning asosiy huquqiy hujjatlari tarkibiga:

- “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahrir – 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ–637-son)Bu qonunda ta’lim tizimining barcha bosqichlari, jumladan maktabgacha ta’limning maqsadi, shakllari, boshqaruv asoslari, moliyalashtirish tartibi va davlat kafolatlari aniqlashtirilgan.
- “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun (2019-yil 16-dekabr, O‘RQ–595-son) Bu maxsus qonun maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini huquqiy jihatdan mustahkamlash, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladigan bog‘chalarning maqomini belgilash, ota-onalar huquqlari, pedagoglar faoliyatini tartibga solishni ko‘zda tutadi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori – PQ–4312-son (2019-yil 8-may) “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror asosida tarmoqda davlat-xususiy sheriklik asosida muassasalar tashkil etish, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy boshqaruv mexanizmlari joriy etildi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori – PQ–241-son (2022-yil 12-may) “Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror bilan pedagoglar malakasini oshirish, metodik ta’minotni kuchaytirish va maktabgacha ta’lim tashkilotlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilandi.

Shu bilan bir qatorda maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining soha faoliyatini muvofiqlashtiruvchi ichki hujjatlar, xususan pedagog xodimlarning attestatsiyasi, o‘quv-tarbiya jarayoni metodikalari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha buyruqlar mavjud.

Huquqiy asoslarni takomillashtirish zaruriyati.

Amaldagi qonunchilik bazasi tizimni tartibga solishga xizmat qilsa-da, quyidagi kamchiliklar mavjud:

–Ayrim qonun hujjatlarining bir-birini to‘ldirmasligi yoki takrorlashi;

–Pedagoglar mehnatiga oid huquqiy normalarning umumiy shaklda ifodalanganligi;

–Davlat-xususiy sheriklik sohasida aniq nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi;

–Inkluziv ta’limga oid huquqiy asoslarning hali ham to‘liq shakllanmaganligi.

Takomillashtirish yo‘llari

Huquqiy-hujjatlar inventarizatsiyasi: qonunchilikni takrorlovchi yoki zamon talablariga mos kelmaydigan hujjatlarni bekor qilish va yagona tizimlashtirilgan huquqiy platforma yaratish zarur.

Pedagogik xodimlarning huquqiy maqomini mustahkamlash: ularning ijtimoiy himoyasi, ish haqi, malaka oshirishdagi imtiyozlarini aniq huquqiy normalar bilan mustahkamlash kerak.

Inkluziv ta’lim va raqamlashtirish sohasida alohida normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish: maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan dasturlar, texnik vositalar va raqamli resurslarga oid talablarni qonuniy jihatdan belgilash lozim.

Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish: mahalliy kengashlar, ota-onalar qo‘mitalari, nodavlat tashkilotlarining maktabgacha ta’lim sifatini baholashdagi ishtirokini qonuniy tartibda mustahkamlash foydali bo‘ladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida qator islohotlar tadbiq etilmoqda, ularning hammasi bolalar va pedagoglar manfaatlari yo‘lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta’lim sifatini yanada oshirishga qaratilgan. Birgina “Ilk qadam” dasturni oladigan bulsak uning asosiy tamoyili – ta’lim jarayoniga qo‘shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlari sanalib, bu dastur asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya ishlari yanada mukammallashdi. Ushbu dastur asosida bilim olish jarayonini o‘yinlar orqali rivojlantirish yotadi. Bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yo‘nalish kabi tushunchalar rivojlana bordi, sog‘lom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o‘zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashdi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg‘ulotlar qiziqarli tarzda tashkil etildi, zamonaviy ta’lim berish jarayoni barqarorlashdi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev qaroriga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi belgilangani ham sohani istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan omillardan asosiysi hisoblanadi desak xato bo‘lmaydi. Ushbu konsepsiya o‘zida quyidagilarni nazarda tutadi:

- maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- maktabgacha ta’lim tizimiga maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish; maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning sog‘lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta’minlash;

Shungingdek, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»ning ishlab chiqilishi, 2019–2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari hamda 2025– 2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlanganligi ham maktabgacha ta’lim sohasining huquqiy asosini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu kabi normativ –huquqiy hujjatlarning yuritish O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi har yili 1-dekabrga qadar o‘tayotgan yilning «Yo‘l xaritasi» bajarilishi yakunlarini batafsil o‘rganish asosida keyingi yil uchun «Yo‘l xaritasi»ni ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, shuningdek, «Yo‘l xaritalari»ning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib boradi. Ushbu monitoringga ko‘ra har bir MTTning normativ huquqiy hujjatlari tahlil qilindi.

Ma’lumot sifatida aytish joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yaxshi ish haqi to‘lansa, bu kasbga qiziqish bo‘ladi albatta. Shu kunga qadar qanchadan-qancha tajribali, yaxshi kadrlar past ish haqi sabab bu kasbni tark etgan. Shu bois Prezidentning pedagoglarning maoshini oshirishga doir qarori chiqqanligi ham sohani rivojlantirishning ustuvor vazifasini ta’minladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘liq rivojlantirish sohasidagi ilgor xorijiy tajribani hisobga olgan holda, sifatli maktabgacha ta’limni tashkil etishda davlat talablarini qayta ko‘rib chiqish; mavjud amaliyot va ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish bo‘yicha ishlar olib borildi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va oquv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta‟lim tashkilotlarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda. Maktabgacha ta’limni uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas, birlamchi bo‘g‘ini sifatida takomillashtirish bo‘yicha davlatimiz rahbari tomonidan qator muhim hujjatlar qabul qilinib borilayapti. Bu esa maktabgacha talim sohasini yanada takomillashga qaratilgan chora tadbirlar sifatida e’tirof etilayapti desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishi bevosita mustahkam huquqiy asoslar bilan bog‘liq. So‘nggi yillarda qabul qilingan qonun va qarorlar tizimni tubdan isloh qilishga xizmat qilmoqda. Biroq, mavjud muammolarni bartaraf etish va global talablarga javob beradigan huquqiy baza yaratish uchun izchil takomillashtirish ishlari davom ettirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’im tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-2707-son qarori. // «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami», 2017 yil 9 yanvar, 1-son, 11-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-3261-son qarori. // «Xalq so‘zi» gazetasining 2017 yil 11 sentyabrdagi 181 (6875)-soni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

5. Ksendzova, GF Maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda psixologik-pedagogik yordam / GF Ksendzova // Yakutsk IPKRO nashriyoti, 2006 yil - S 146- 148.

TARBIYACHINING NUTQI BOLALAR UCHUN MADANIY NUTQ NAMUNASIDIR

O‘zbekiston. Haydarova Dilafruz Inoyatulloyevna
Navoiy Davlat Universiteti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi
Norqulova Gavhar Latifjonovna
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3 kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyachining kasbiy sifatlarida nutqning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ta‘lim-tarbiya jarayonida pedagog-tarbiyachining nutq boyligi, ifodaliligi hamda soda iboralardan tarkib topishi muhim ahamiyatga ega. Bu bolalarda tushunchalarni tez ilg’ab olishida asosiy vosita bulib hisoblanadi.

Abstract: this article discusses the importance of speech in the professional qualities of educators in preschool educational organizations. It is important that the pedagogue-educator's

speech richness, expressiveness and simple expressions are included in the educational process of preschool educational organizations. This is the main tool for children to quickly learn concepts.

Аннотация: в данной статье рассматривается значение речи в профессиональных качествах воспитателей дошкольных образовательных организаций. Важно, чтобы богатство речи педагога-воспитателя, выразительность и простота выражения были включены в образовательный процесс дошкольных образовательных организаций. Это основной инструмент для быстрого изучения концепций детьми.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta‘lim tashkiloti, pedagog- tarbiyachi, kasbiy sifat, kasbiy mahorat, etika-estitika, ta‘lim-tarbiya, qobiliyat, nutq tovushlar, iste‘dod, adabiy til, ifodalilik, sodda nutq, intonatsiya.

Key words: preschool education organization, pedagogue-educator, professional quality, professional skill, ethics-aesthetics, education-education, ability, speech sounds, talent, literary language, expressiveness, simple speech, intonation.

Ключевые слова: организация дошкольного образования, педагог-воспитатель, профессиональное качество, профессиональное мастерство, этика-эстетика, воспитание воспитание, способности, звуки речи, талант, литературный язык, выразительность, простая речь, интонация.

Maktabgacha ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan qator islohotlar va ularning deyarli barchasi aynan pedagoglar va tarbiyalanuvchi bolalar uchun va ta‘lim sifatini har tomonlama rivojlantirish uchun qaratilgan tizim hisoblanadi. Har qanday jamiyatning kelajagi avvalo yosh avlodning qanday va qay tariqa tarbiyalanishiga hamda ularning ta‘lim olishiga uzviy bog’liq bo‘lgan jarayondir. Har tomonlama tarbiyalangan avlodgina mamlakatimiz oldida yechimini kutib turgan umumdavlat ahamiyatiga molik bo‘lgan vazifalarni bajarishga qodir bo‘ladi desak mubolag’a bo‘lmaydi. Shuning uchun ham yosh avlodni milliy mustaqilligimiz va ajdodlarimizning ulug’vorligi ruhida tarbiyalashimiz, bu tarbiyachi-pedagoglarning oldida turgan muhim vazifalardan biridir.Vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan yosh avlodni tarbiyalash bu ko‘p jihatdan ularga ta‘lim-tarbiya beradigan pedagoglarda ham birdek mujassam bo‘lishi kerak. Aynan bugungi kun tarbiyachisi eng avvalo, pedagogik, psixologik tayyorgarlikka, shuningdek bilim, ko‘nikma, yillar davomida qo‘lga kiritilgan mahorat, yuksak pedagogik qobiliyat va go‘zal xulq hamda fazilatlarga ega bo‘lmog’i lozim .

Tarbiyachi - pedagogik jamiyatning yosh avlod ta‘lim tarbiyasiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisi va ta‘minlovchisi hisoblanadi. Shuning uchun ham muhtaram prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Maktabgacha ta‘lim tizimiga alohida e‘tibor qaratayotganimiz bejiz emas, yoshlar tarbiyasiga bugundan e‘tibor bermasak, ertaga kech bo‘lishi mumkin” - degan fikrlari ham ayni haqiqat.

Tarbiyachilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o‘z kasb mahoratini muntazam takomillashtirib borishga ishtiyoq bo‘lmas ekan, u yaxshi ustoz tarbiyachi bo‘la olmaydi. Zero, davlatimizning istiqboli, hukumatimiz tomonidan olg’a surilayotgan barcha islohatlarning ijobiy yechimi ana shu ko‘p minglik ziyokorlik ishining samarasiga bevosita aloqador. Shuning uchun ham bugungi mustaqillik sharoitida tarbiyachilik kasbiga bo‘lgan e‘tibor va ehtiyoj har qachongiga nisbatan ortib bormoqda.

Tarbiyachilik bu avvalo, mas‘uliyatli kasblardan biri hisoblanadi. Shu sababdan ham mutaxassis o‘z ish faoliyati davomida psixologiya, gigiyena, ta‘lim, tarbiya va pedagogik talablariga javob bera olishi kerak. Odatda tarbiyachi bo‘ynida bir guruh bolalarga g’amxo‘rlik qilish yotadi. Bu jarayon bino ichida va xuddi shu bilan bir qatorda tashqarida xam o‘tkazilishi mumkin. Tarbiyachilar maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, ya‘ni bog’chalarda, rivojlantiruvchi markazlarda, xususiy bog’chalarda ishlaydilar. Tarbiyachi vazifasiga yosh bolalarni maktabgacha bo‘lgan tarbiyasi, bilimi bilan belgilangan qoidalar asosida ishlab boradi. Bunga o‘qish, chizma, tabiat va og’zaki nutq bilan shug’ullanish ,bundan tashqari esa yozuv qobiliyatlarini ham shakilllantirish kiradi.

Pedagog – tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarning diqqatni bir joyga jamlovchi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi, nutqni o‘stiruvchi va etika- estetikani rivojlantiruvchi o‘yinlar, turli xil

qiziqarli topshiriqlar bilan bolalarni mashg'ul qiladi. Bolaning sog'ligi va hayoti uchun har tomonlama javobgar shaxs hisoblanadi. Doimo kichkintoylarning diqqat-e'tibori markazida turadigan hamda ular bilan muloqot qiladigan tarbiyachining nutqi bolalar ona tili, nutq madaniyati namunalarini oladigan asosiy manbaa hisoblanadi, shuning uchun ham tarbiyachi nafaqat to'g'ri so'zlashi, ona tilining barcha tovushlarini aniq va tushunarli qilib talaffuz etishi. balki u muayyan balandlikdagi ovozda bosiqlik bilan so'zlashi, nutqining ifodaliligi, grammatik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilganligi , ravon, tushunish uchun oson bo'lishi hamda so'z bilan belgilash to'g'ri va aniq amalga oshirilishi lozim. Tarbiyachining ifodalilik vositalaridan foydalangan holda bolalarga aytib bergan hikoyasi tarbiyalanuvchilarda qiziqish uyg'otadi, ularda qayg'urish, so'z kuchini his qilish, uning mazmunini anchagacha yodda saqlab qolish imkonini beradi, agarda shu hikoya tez va quruq ohangda,oddiy , his-hayajonlarsiz tarbiyalanuvchilarga aytib berilsa, u faqatgina badiiy asarga nisbatan zerikish va befarqlikni shakllantiradi. Doimo bolalarning diqqat markazida bo'lgan tarbiyachining nutqi bolalar uchun madaniy nutq namunasi hisoblanadi. Tarbiyachi har doim o'z nutqiga tanqidiy nuqtayi nazardan qarashi, agar nutqida biror kamchilikni sezsa, uni darhol bartaraf etishga harakat qilishi lozim. Biroq u har doim ham o'z nutqidagi kamchilikni aniqlashga muvaffaq bo'lmaydi, chunki uning diqqati nutqining shakliga emas, balki mazmuniga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari, uzoq vaqtgacha u o'z nutqiga ehtiyotsizlik, e'tiborsizlik bilan qaraganligi tufayli, ayrim kamchiliklar nutqiga mustahkam o'rnashib qolishi va bu nuqson o'ziga mutlaqo sezilmasligi mumkin. Buning uchun tarbiyachi hamkasblarining ko'rsatmalariga amal qilishi va bu kamchilikni bartaraf etishga harakat qilishi kerak.

Tarbiyachi uchun namunali nutqni egallash bu uning o'z kasbiga tayyorligini belgilovchi ko'rsatkich hamda mezon hisoblanadi. Taniqli pedagog bolalarni ona tiliga o'rgatish uslubiyotlarini ishlab chiqqan uslubiyotchi, maktabgacha tarbiya bo'yicha mashhur mutaxassis, professor Y.I. Tixeyeva tarbiyachi nutqiga yuksak baho berib, shunday degan edi: „Bog'chada bolalar beixtiyor taqlid qiladigan namuna tarbiyachi (bog'bon)ning tilidir, tarbiyachining tili bolalar tiliga g'oyat samarali va nihoyatda kuchli ta 'sir ko'rsatadigan hamma narsalarni o'zida birlashtiradigan bo'lishi kerak. Bog'bonning tili bekam-u ko'st, adabiy talaffuzning har qanday nuqsonlaridan xoli bo'lishi lozim».

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, har bir tarbiyachi o'z nutqidagi nuqsonlarni aks ettiruvchi daftar tutishi, unga kamchiliklarini belgilab borishi, so'ngra ularni bartaraf etish bo'yicha reja tuzib, ishni tashkil etishi kerak. Har bir tarbiyachi-pedagog nutqiga qo'yilgan talablarni juda yaxshi bilgan holda o'z nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etib borishi kerak.

Tarbiyachi-pedagogning nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar bular quyidagilardirdan iborat:

1.Nutq tovushlarining to'g'riligi;

2.Adabiy til normalariga muvofiq to'g'ri talaffuz qilish;

3. Nutqnining ifodaviy vosita va qismlaridan to'g'ri foydalanish;

4. Tarbiyachi- pedagogda nutqining jo'shqin va intanatsiyalarga ega bo'lishi

5. Tarbiyachi – pedagogda nutqining oddiy, aniq va bola tushunadigan bo'lishi hamda biri ikkinchisi bilan izchillik asosida bog'liqligi;

6. Tarbiyachi –pedagogning so'z boyligi;

7. Tarbiyachi –pedagogning nutq holatining samimiy bo'lishi;

Yuqorida sanab o'tilganlarning deyarli barchasi bu tarbiyachilarning nutq salohiyatiga va uning mustahkamlanishiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Pedagog nutqning ifodaliligi ustida ishlashi uning og'zaki nutq vositalaridan to'g'ri foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun tarbiyachi o'z nutqida urg'ularni to 'g'ri ishlatish, ovoz tempini va kuchini o'zgartirish bilan so'zlarning mazmunini ajratish, to'xtamlardan(pauza) nutqda ovozni vaqtincha to 'xtatish (o'rinli foydalanish, nutqda ovozning balandligi va kuchiga qarab harakati, nutq tempi, ma'lum vaqt ichida aytiladigan so'zlar miqdori), ovoz balandligini o'zgartirish ustida mashq qilish lozim. Intonatsiya nutqni jonli hamda jo'shqin qiladi, fikrni to'liq va tugallangan holda bayon etishga yordam beradi.Tarbiyachi o'z so'z boyligini , uning grammatik tomonini badiiy, ilmiy shuningdek, maxsus va boshqa adabiyotlarni doimiy ravishda o'qib borish bilan boyitadi va mustahkamlaydi. Biroq tarbiyachi adabiyotlarni o'qish jarayonida uning mazmuniga, yangi so'zlarga ahamiyat beribgina

qolmasdan, balki muallifning asar mazmunini ochishda tilning qaysi vositalaridan va unsurlaridan foydalanganligiga, qaysi so‘z va grammatik sh akllarni ishlatganligiga, qay darajada bayon etganligiga ham e‘tiborni qaratishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” - 2016 208
2. Alimova G., Alimova E. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tafakkur jarayonini rivojlanishi. Pespublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent- 2012.
3. Erkayev A. Yosh avlodni tarbiyalash ustivor vazifa. MT jurnali 4-son 2012.
5. Qodirova F.R., R. M.Qodirova «Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi « Toshkent, 2006.
6. www.pedagog.uz
7. www.edu.uz
8. www.tdpu.uz.

KIBERXAVFSIZLIK: RAQAMLI DUNYONING MUHIM HIMOYASI

O‘zbekiston Berdiqulov Erkinjon Nematovich
Qudratov Hasanali Otabek o‘g’li
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Navoiy akademik litseyi
Informatika va Axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Bugungi kunda texnologiyalar bizning hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Internet orqali amalga oshiriladigan turli faoliyatlar, jumladan moliyaviy operatsiyalar, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish, davlat xizmatlarini olish va ish faoliyatini amalga oshirish, kiberxavfsizlik masalasini dolzarb muammoga aylantirmoqda. Kiberxavfsizlik kompyuter tizimlari, tarmoqlar va foydalanuvchi ma'lumotlarini ruxsatsiz kirish, buzilish, o‘g‘irlik va zararli dasturlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi, internet xavfsizligi, ma'lumotlarni shifrlash, kiberjinoyatlar, phishing, ransomware, ddos hujumlari, O‘zbekiston kiberxavfsizligi, kiberxavfsizlik qonunlari, tarmoq xavfsizligi.

Аннотация: Сегодня технологии стали неотъемлемой частью нашей жизни. Различные виды деятельности, осуществляемые через Интернет, включая финансовые операции, доступ к услугам здравоохранения, получение государственных услуг и осуществление трудовой деятельности, делают вопрос кибербезопасности актуальной проблемой. Кибербезопасность - это комплекс мер, направленных на защиту компьютерных систем, сетей и пользовательских данных от несанкционированного доступа, повреждения, кражи и вредоносных программ.

Ключевые слова: кибербезопасность, информационная безопасность, интернет-безопасность, шифрование данных, киберпреступления, фишинг, ransomware, атаки DDos, кибербезопасность Узбекистана, законы кибербезопасности, сетевая безопасность.

Abstract: Today, technology has become an integral part of our lives. Various activities carried out through the Internet, including financial operations, access to healthcare services, obtaining public services and carrying out work activities, make cybersecurity an urgent problem. Cybersecurity is a set of measures aimed at protecting computer systems, networks, and user data from unauthorized access, corruption, theft, and malicious programs.

Keywords: cybersecurity, information security, internet security, data encryption, cybercrime, phishing, ransomware, ddos attacks, cybersecurity of Uzbekistan, cybersecurity laws, network security.

Bugungi kunda texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Internet orqali nafaqat axborot almashamiz, balki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiramiz, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanamiz, davlat xizmatlarini olamiz va ishlaymiz. Ammo bu imkoniyatlar bilan

bir qatorda yangi xavf-xatarlar — kiberjinoyatlar, xakerlik hujumlari, ma’lumotlar o‘g‘irligi kabi holatlar ham ko‘payib bormoqda. Shu sababli kiberxavfsizlik masalasi global darajadagi dolzarb muammoga aylangan.Kiberxavfsizlik — bu kompyuter tizimlari, tarmoqlar va foydalanuvchi ma'lumotlarini ruxsatsiz kirish, buzilish, o‘g‘irlik va zararli dasturlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Ushbu masalani hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bir nechta asosiy yo‘nalishlar mavjud:Axborot xavfsizligi: Shaxsiy va korporativ ma'lumotlarning to‘g‘riligini va yaxlitligini ta'minlash, ular noto‘g‘ri qo‘llanilmasligi uchun zarur choralarni ko‘rish.Internet xavfsizligi: Tarmoqdagi kirish va uzatishlar xavfsizligini ta'minlash, xakerlik va zararli dasturlardan himoya qilish.Ma'lumotlarni shifrlash: Uzatish yoki saqlash vaqtida ma'lumotlarning o‘g‘irlanishining oldini olish uchun ular shifrlanadi.Kiberjinoyatlar — bu kompyuter tizimlari orqali amalga oshirilgan, odatda iqtisodiy yoki shaxsiy foyda olish maqsadida sodir etiladigan jinoyatlardir. Bugungi kunda kiberjinoyatlar turli shakllarda namoyon bo‘lmoqda, jumladan:Phishing (Fishing): Foydalanuvchilarni aldash orqali shaxsiy ma'lumotlarini o‘g‘irlash.Ransomware (Shifrlash dasturlari): Ma'lumotlarni shifrlash va ularni qaytarish uchun pul talab qilish.DDoS (Distributed Denial of Service) hujumlari: Tarmoqni ishlamay qolishiga sabab bo‘lish uchun juda ko‘p so‘rov yuborish.Kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun davlatlar va tashkilotlar o‘zlarining siyosatlarini ishlab chiqishmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi ham kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun bir qancha qonun va normativ hujjatlarni ishlab chiqdi, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:»Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonun: Ushbu qonun kiberxavfsizlikka doir huquqiy asoslarni belgilaydi.Davlat axborot tizimlari xavfsizligi: O‘zbekiston hukumati davlat tashkilotlarining axborot tizimlarida xavfsizlik choralarini kuchaytirish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirmoqda.Kiberxavfsizlik masalalari har bir fuqaro va tashkilot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, raqamli dunyoda o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish zarur. Shu boisdan, kiberxavfsizlik bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarni oshirish, shaxsiy va jamoaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Barcha foydalanuvchilar, xususan davlat va yirik tashkilotlar bu masalaga jiddiy yondashishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr ―O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g'risidagi PF-5847- sonli Farmoni.

2. Xakimova M. F. Axborot ta’lim muhitida innovatsiya va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. NUU Conference 1. – S. 149-152.

3. Musakxanova, Gulnora. (2019). OPPORTUNITIES OF INNOVATION

INGLIZ TILINI O‘RGANISH UCHUN AYRIM METODIK TAVSIYALAR

O‘zbekiston Ne’matova Hilola Ikrom qizi
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Ablakulova Umida Parda qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilining hozirgi kundagi, jamiyatdagi va insonlar hayotidagi o‘rni haqida va uni o‘rganish uchun ayrim tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, global til, internet va texnologiya, sayohat va turizm, madaniy almashinuv, global muloqot.

Аннотация: В этой статье рассказывается о роли английского языка в наши дни, в обществе и жизни людей, а также даются некоторые рекомендации по его изучению.

Ключевые слова: Английский, глобальный язык, интернет и технологии, путешествия и туризм, культурный обмен, глобальный диалог.

Annotation: This article is about the role of the English language in the present day, in society and in the lives of people and provides some recommendations for its study.

Keywords: English, global language, internet and technology, travel and tourism, cultural exchange, global dialogue.

Yosh avlod jamiyatning eng kata boyligi, tayanchi, kelajagi hisoblanadi. Faqat rivojlangan, taraqqiy etgan va haqiqiy demokratik jamiyatgina yosh avlodni asrab-avaylab, uning har tomonlama barkamol bo‘lib yetishish uchun barcha moddiy, ma’naviy va maishiy shart-sharoitlarni yaratib bera oldi. Bugun mamlakatimizda yoshlarning, hattoki eng kichik yoshdagi maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining ham ta’lim olishiga yetarlicha sharoit yaratildi. Ularni nafaqat maktabga tayyorlash, balki chet tillarni o‘rganishlariga bo‘lgan e’tibor kundan-kun kuchaymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, hukumatining yoshlarning chet tillarini mukammal o‘rganishlari uchun qabul qilayotgan har bir qonun va qarorlari bu sohani rivojlanishi uchun va yoshlarni ingliz tilini o‘rganishlari uchun dasturul amal bo‘lib xizmat qilmoqda. Qonunlarni amalga oshirish doirasida chet tillarni o‘rganishning majmuaviy tizimi, ya'ni uyg‘unlashgan, o‘qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tizimi yaratildi. Chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor natijasi sifatida uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida, jumladan, maktabgacha ta’limda ham chet tilini o‘rgatish yo‘lga qo‘yildi. Ta’limning har bir tarmog‘ida chet tilini o‘rgatish va o‘qitish yuzasidan ilmiy-uslubiy tadqiqotlar olib borilishi zaruriy va dolzarbdir.

Ingliz tilini o‘rganish bugungi kunda global dunyo uchun katta ahamiyatga ega. Dunyodagi deyarli har uchinchi odam ingliz tilini tushunishi yoki so‘zlashi mumkinligi aniqlandi. Bu til nafaqat xalqaro biznes, balki ta’lim, fan, texnologiya va kundalik kommunikatsiya uchun ham muhim vosita hisoblanadi. Ingliz tili dunyoning ko‘plab mamlakatlarida rasmiy til va ishchi til sifatida keng qo‘llaniladi. 2023 yilgi hisobotlarga ko‘ra, ingliz tili dunyo bo‘ylab 1,5 milliarddan ortiq odam tomonidan ishlatiladi. Shulardan 400 millionga yaqini ona tili sifatida so‘zlasa, 1,1 milliarddan ortiq kishi ikkinchi til sifatida ingliz tilida muloqot qilishni o‘rganishgan. Dunyodagi eng nufuzli universitetlar va o‘quv dargohlari, masalan, Harvard Universiteti, Oksford Universiteti yoki Stenford Universiteti kabi maktablar o‘z darslarini ingliz tilida olib borishadi. Hozirgi kunga kelib, dunyoning yetakchi ilmiy jurnallari va tadqiqot nashrlarining 90 foizdan ortig'i ingliz tilida chop etilmoqda. Jahon iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlovchi yirik korporatsiyalar, masalan, Google, Apple, Microsoft, va Amazon kabi kompaniyalar ingliz tilidan asosiy aloqa vositasi sifatida foydalanadilar. Ishbilarmonlik sohasida xalqaro shartnomalar va muzokaralarning ko‘pchiligi ingliz tilida olib boriladi. Internetda mavjud kontentning taxminan 55 foizi ingliz tilida. Bu tilni bilish odamga internetdagi global resurslar va kontentdan to‘liq foydalanish imkoniyatini beradi. 2023 yilning statistik ma'lumotlariga ko‘ra, eng ko‘p tashrif buyuriladigan veb-saytlarning aksariyati ingliz tilida yozilgan. Ilmiy tadqiqotlar va texnologik yangiliklarning katta qismi ingliz tilida amalga oshiriladi va nashr etiladi. Masalan, Nobel mukofoti laureatlari tomonidan chop etilgan ishlarning ko‘pchiligi ingliz tilida e'lon qilingan.

Ingliz tilini bilish sayohat qilayotgan turistlar uchun ham katta qulaylik yaratadi. Aeroportlardan mehmonxonagacha, diqqatga sazovor joylardan restoranlargacha bo‘lgan joylarda ingliz tilini bilish ko‘p mamlakatlarda odamga erkin muloqot qilish va turli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Ingliz tilini yaxshi biladigan odamlar xalqaro miqyosda ish topish imkoniyatiga ega bo‘lib, ularning karyera rivoji uchun katta afzalliklarga ega bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilini yaxshi bilish mehnat bozorida talab qilinadigan eng muhim malakalardan biri hisoblanadi. Ingliz tilini bilish dunyo miqyosida o‘tkaziladigan madaniy tadbirlar va festivalarda, shuningdek, xalqaro miqyosdagi forumlarda faol ishtirok etish imkonini beradi. Bu til global madaniy almashinuvda muhim vosita bo‘lishi bilan birga, turli xalq va millat vakillari o‘rtasida muloqotni osonlashtiradi. Ushbu ma'lumotlar ingliz tilining o‘rganilishi oddiy kommunikatsiyadan ko‘ra ko‘proq global matn va resurslarga kirish, ko‘p tomonlama rivojlanish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish uchun zamin yaratishini isbotlaydi. Ingliz tilini o‘rganish bugungi kunda nafaqat bilim olish, balki zamonaviy jamiyat me'yorlariga moslashish uchun ham zarurdir.

Dunyo bo‘ylab ingliz tilini o‘qitish usullari va yondashuvlari muntazam ravishda rivojlanib bormoqda. Har bir metodika o‘qituvchilarga va ta’lim oluvchilarga turli xil imkoniyatlar taqdim etadi. Quyida ba'zi asosiy metodikalar va usullar haqida ma’lumot berib o‘tamiz:

1. Grammatika tarjima usuli (Grammar Translation Method): Bu usul tarixda eng ko‘p qo‘llanilgan usullardan biri bo‘lib, asosan grammatikani chuqur o‘rganishga va tarjima mashqlariga asoslanadi. O‘quvchilar asosan matnlar va jumlalarni ona tiliga va aksincha tarjima qilishga e'tibor qaratadilar. Ushbu usulda to‘rt asosiy ko‘nikmadan (o‘qish, yozish, tinglash va gapirish) grammatik ko‘nikmalar va tarjima ustun qo‘yiladi.

2. To‘g'ridan-to‘g'ri usul (Direct Method): Ushbu yondashuv og'zaki muloqotni rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar ingliz tilini o‘rganishda o‘z ona tilini ishlatmasdan ingliz tilidagi tushuntirishlar va ta’lim materiallariga diqqat qaratadilar. So‘z boyligini o‘stirish va rivojlantirish uchun real hayotiy vaziyatlarda foydalaniladigan iboralar va gaplar o‘rgatiladi.

3. Audio-Lingval usul (Audio-Lingual Method): Bu usul tinglash va talaffuz orqali mashq qilishga e'tibor qaratadi. Talabalar so‘zlarni va gaplar tuzilishini yetarli darajada eshitish orqali o‘rganadilar. Dialoglar, drill mashqlari va talaffuzni tuzatishga qaratilgan amaliy mashqlar keng qo‘llaniladi.

4. Kommunikativ yondashuv (Communicative Approach): Ushbu yondashuvda asosiy e'tibor talabalarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, undan asosiy maqsad o‘quvchilarni real hayotiy sharoitdaga ingliz tilida samarali muloqot qilishga tayyorlashdir. Darslar xalqaro til vaziyatlarida otrybe va hal etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular talabalarning ijodkorligini va o‘ylash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

5. Vazifa asosidagi o‘qitish (Task-Based Language Teaching): Bu yondashuvda o‘quvchilarni turli xil vazifalar orqali tilni o‘rganishga yo‘naltiriladi. O‘quvchilar jamoa bo‘lib yoki individual ravishda vazifalarni bajaradilar va shu jarayonda muloqotga kirishadi.

6. Total Physical Response (TPR): Ushbu usul asosan bolalar va boshlang'ich bosqich o‘quvchilari uchun samarali hisoblanadi. U o‘qituvchilarning berilgan topshiriqlarini fizik harakatlar orqali bajarishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda o‘qituvchilar va o‘quvchilar harakat orqali tilni o‘rganadilar.

7. Mavzu integratsiyasiga asoslangan o‘qitish (Content-Based Instruction): Bu yondashuvda ingliz tili boshqa fanlar bilan birlashtirilgan holda o‘rgatiladi. Masalan, geografiya va ingliz tili yoki tarix va ingliz tili birgalikda o‘qitiladi, bu esa fanning mazmunini ham tilni ham birgalikda o‘rganishga olib keladi.

Ingliz tilini o‘qitishda ilg'or texnologiyalar ham keng qo‘llaniladi. Onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali talabalar istagan vaqtda va istalgan joyda mashqlar bajarishlari mumkin. Statistika ham ingliz tilini o‘qitish va o‘rganishni osonlashtirish uchun ishlatilishi mumkin, chunki u orqali o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining yutuqlarini va kamchiliklarini kuzatishi mumkin. Kelajakda ingliz tilini o‘qitish metodikalarini yanada takomillashtirish uchun o‘qituvchilar va pedagoglar zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishni yanada rivojlantiradilar va interaktiv o‘quv materiallarini yaratishda faol ishtirok etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normahmatov Oybek Sobirovich. Ingliz tilini o‘qitish metodlari (maqola) 13.12.2023yil https://search.app/T4m1g51ngLUz9ztH8
2. https://Pedagoglar.org
3. https://bestpublication.org
4. https://cyberleninka.ru/article/n/chet-til-oqitish-metodikasida-zamonaviy-metodlar
5. Lex.uz sayti.

TARBIYACHINING BOLALAR PSIXOLOGIYASIGA TA’SIRI

O‘zbekiston. Umarova Gulyor Hoshimqulovna
Navbahor tuman 1-son politexnikum o‘qituvchisi

Annotatsiya Mazkur maqolada tarbiyachining bolalar psixologiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri, uning bola rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tarbiyachining shaxsiy sifatlari, muloqot uslubi va pedagogik yondashuvlari bolalar ruhiyati shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida tarbiyachining psixologik bilimlarga ega bo‘lishining dolzarbligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar tarbiyachi, bola psixologiyasi, pedagogik ta’sir, ruhiy rivojlanish, muloqot, ta’lim jarayoni

Bugungi kunda bolalar tarbiyasi va ularning psixologik rivojlanishi jamiyat uchun nihoyatda muhim masala hisoblanadi. Bu jarayonda tarbiyachilarning roli beqiyosdir. Tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki bolaning shaxsiyati shakllanishida, dunyoqarashi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda asosiy ishtirokchilardan biridir. Bolalar psixologiyasini chuqur anglash tarbiyachiga ularning ehtiyojlari va rivojlanish bosqichlarini to‘g‘ri tushunishda yordam beradi.

Bola shaxsining shakllanishida oila bilan bir qatorda tarbiyachi ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda atrofdagi insonlarning ta’siri ularning psixik rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyachi bolaga nafaqat bilim beradi, balki uning ichki dunyosini boyitadi, axloqiy qadriyatlarni singdiradi va mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Tarbiyachining shaxsiy vazilatlari – mehribonlik, sabr-toqat, adolatlilik va samimiyat – bolalar ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bola tarbiyachidan ko‘pincha mehr va qo‘llab-quvvatlash kutadi. Tarbiyachining ijobiy munosabati bolada o‘ziga ishonch, ijtimoiy faoliyatga qiziqish va boshqalar bilan muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Tarbiyachining bolalar psixologiyasini bilishdagi axamiyati

Tarbiyachi bolalar psixologiyasining asosiy tamoyillarini bilsa:

- Har bir bolaning rivojlanish darajasiga mos pedagogik yondashuvni tanlaydi.
- Bola muammolarini erta aniqlab, ularni hal qilishda yordam beradi.
- Bolalarda o‘ziga ishonch, mustaqillik va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi.
- Stress, qo‘rquv va xavotirlarni kamaytirish orqali bolaning ruhiy sog‘lig‘ini mustahkamlashga yordam beradi.

Hech kimga sir emaski, ma’lum bir shaxs jamiyatda yetuk mutaxassis yoki o‘z ishini mutlaq ustasi bo‘lib yetishishishiga uning bolaligi qay tarzda o‘tgani va qanday bilim ko‘nikmalarni o‘zlashtirgani muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmga targ‘ib etish, ta’limtarbiyaning har qanday mamlakatning kelajagini, istiqbolini belgilab beradigan asosiy ustundir. Erta bolalikdan boshlab, ya’ni 2–5 yoshida bolalar butun umr o‘zini kashf etish jarayonini o‘zgartirish. Barkamol ijobiy o‘z-o‘zini septsiyasining paydo bo‘lishi, shubhasiz, ijtimoiy va hissiy faoliyati muhim jihati hisoblanadi. O‘zini biladigan va tushunadigan bolalar o‘z-o‘zini tutishi va ijtimoiy munosabatlari uchun muhim qo‘llanmaga ega bo‘ladi. Shunga qaramay, hali ham o‘z-o‘zini anglashning boshlang‘ich bosqichida individual farqlarga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘z-o‘zidan foydalanish, bolalarning o‘zini o‘zi boshqarishini idrok etishi bilan bog‘liq bo‘lgan haqida juda kam ma’lumotga egamiz. Nazariy ma’lumotlarga ko‘ra, o‘z-o‘zini anglash ko‘plab ichki va ijtimoiy ta’sirlar funksiyasi sifatida rivojlanadi – ko‘pchilik bolalarning his-tuyg‘ulari hamda ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarning rolini ta’kidlaydi. Umuman olganda, bu farazlar hali empirik ish bilan tasdiqlanishi kerak. Ushbu o‘zgaruvchilarning har biri ijtimoiy va shaxsiyatning boshqa ko‘rsatadigan keng ko‘lamli tadqiqotlarga qaramay, temperament, ota-onalik va butun oilaning o‘zaro ta’siri kabi yosh bolalarning o‘zini tasvirlashi mumkin usullari bilan bog‘liqmi yoki yo‘qligini aniqlash kerak. Maktabgacha ta’lim uyg‘un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muassasadir. Psixologik o‘yinlar maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo‘lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin bolaning o‘quv, mehnat

faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanganligini belgilab beradi. O‘yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta’lim muassasasining ta’lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Jamiyatning ma’naviy takomillashuvi unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog‘liqdir. Shu boisdan ham ta’limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichmabosqich ta’lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta’minlash zaruriyati yuzaga keladi.

Tarbiyachining bolalar bilan qanday muloqot qilishi ham ularning psixologik rivojiga sezilarli ta’sir qiladi. Yaxshi tarbiyachi bolalarning his-tuyg‘ularini hurmat qiladi, ularni eshitadi va ularga fikr bildirish imkonini beradi. Bunday yondashuv bolada o‘z fikrini erkin ifoda etishga va o‘z qadr-qimmatini his qilishga yordam beradi.

Zamonaviy tarbiyachi bola psixologiyasi asoslarini yaxshi bilishi zarur. Har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olish, stress va emotsional muammolarni erta aniqlash va ularni hal etishda tarbiyachi muhim vositachi hisoblanadi.

Agar tarbiyachi bolaga e’tiborsiz, qo‘pol yoki befarq munosabatda bo‘lsa, bu bolaning o‘ziga ishonchini pasaytirishi, ruhiy izolyatsiyaga olib kelishi va salbiy emotsional holatlarni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun har bir tarbiyachi o‘zining har bir so‘zi va harakati bola psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatishini anglab, o‘z faoliyatini ongli tarzda olib borishi zarur.

Xulosa. Tarbiyachi bolalar psixologik rivojlanishining eng muhim ishtirokchilaridan biridir. Uning ijobiy ta’siri bolada sog‘lom ruhiyat va kuchli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois tarbiyachilarning kasbiy va psixologik tayyorgarligi doimo rivojlantirilib borilishi lozim

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. «Bolalar psixologiyasi asoslari».
2. Piaget J. «Bola tafakkuri va nutqi».
3. Elkonin D.B. «Bolalik psixologiyasi».
4. Mahmudov N.M., Ermatov Sh.S. «Pedagogika va psixologiya asoslari».
5. Karimov E., Yo‘ldoshev Q. «Maktabgacha ta'lim psixologiyasi».
6. Davydov V.V. «Rivojlanish psixologiyasi».
7. O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim to‘g'risidagi qonuni va Maktabgacha ta'lim muassasalari nizomi.
8. O‘zbekistonda qabul qilingan Davlat ta'lim standartlari va dasturlari.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK FAOLIYATDA PEDAGOG SHAXSINING INSONPARVARLIK TAMOYILLARIGA ASOSLANISHI

O‘zbekiston. K.E. Abdurahmonova
Nav.D.P.I. Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Saidova Diyora
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi II bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada uzluksiz ta’lim tizimini mazmunan moderniza-siyalash, ta’lim – tarbiya samaradorligini yangi bosqichiga ko‘tarish bosqichiga ko‘tarish xususida fikr bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, modernizasiyalash, tarbiya, samaradorlik, sifat, yoshlar manfaatlarini himoyalash.

Аннотация: В статье представлен взгляд на модернизацию системы непрерывного образования, поднятие эффективности образования на новую ступень.

Annotation: The article presents an opinion on modernizing the continuous education system, raising the effectiveness of education to a new stage.

Key words: education system, modernixation, upbringing, effection, quality, safery of yongth interests.

Kirish: Uzluksiz ta’lim tizimini mazmunan modernizasiyalash va ta’lim – tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishdan bosqichiga ko‘tarishdan asosiy maqsad yoshlarimizning huquq va manfaatlarini himoyalash, ularning zamonaviy bilim va kasbga ega

bo‘lishini ta’minlashdir. Davlatning bugungi va istiqloldagi barqaror iqtisodiy o‘sishishini ta’minlovchi omillar ham aynan ta’lim sohasi rivojlanishiga bevosta bog‘liqdir.Hayotda rejali ish hamisha samara berib kelgan.Shu jihatdan olganda pedagog o‘z ish faolliyatini reja asosida maqsadli tashkil etadi.[1]

Asosiy qism: Ma’lumki, pedagogik faoliyat – bu pedagogning talabalarga ta’lim va tarbiya berish vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta’sir o‘tkazish vositalari bilan amalga oshiriladigan profssional faolligidir. Pedagog bu mazkur faoliyatning bir necha turlarini bajaradi: o‘qitadi, tarbiyalaydi, yo‘l – yuruqlar ko‘rsatadi, tashkil qiladi, targ‘ibot yurgizadi, mustaqil bilim olish bilan shug‘ullanadi. Bularning hammasi bevosita yoki bilvosita o‘qitish va tarbiyalash vazifalarini hal qilishga yo‘naltirilgan. Pedagogik faoliyati maqsad va vazifalarni faoliyatining motivasion – orientirlash bosqichi, vaziyatini tushunishi namoyon bo‘ladi, motivlar tug‘iladi, faoliyatga ruhiy tayyorgarlik vujudga keltiriladi, maqsad va vazifalar qo‘yiladi va o‘zgartiriladi, pedagogik ta’sir o‘tkazish vositalari (faoliyatning ijro qilishning dastlabki bosqichi, pedagog talabalarning psixik rivojlanishlarga ta’sir o‘tkazishi) ; peadgogik o‘z – o‘zini tahlil qilish usullarini (nazorat – baholash bosqichida) pedagog qo‘yilgan vazifani hal etadi va buning uchun mavjud sharoitlar nuqtai nazaridan o‘z harakatini tahlil qiladi va tuzatishlar kiritadi) o‘z ichiga oladi.

Hayotimizning barcha sohalari kabi ta’lim tizimini yangilash, unga insonparvarlik tamoyillari asosida yondashish bugungi kunning eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Innovatsion ta’lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to‘liq mosligini ta’minlash yoshlarimizni bugun tez o‘zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omillidir. Mazkur vazifani hal qilishda pedagog insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq”asarida: “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”, - degan edi. Shuning uchun ham, pedagog shaxsining insonparvarlik mahorati yuqori darajada psixologik- pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishini e’tirof etish lozim.

Zamonaviy pedagogga birgina umumiy madaniyatning o‘zi kifoya qilmaydi. Bolalarni kuzatish, ularni o‘sishidagi muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy g‘oyalar bilan taqqoslash, rivojlanish yo‘llari va usullarini aniqlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish usullarining o‘zaro bir – biriga o‘tish dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo‘ladi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi, uning shaxsi, xarakteri, talabalar bilan muomalasiga, eng asosiysi kompetentligiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday pedagoglarning ilhombaxsh muammolaridan talabalarda o‘qishga intilish, o‘zlarida yanada yaxshiroq o‘qishni uddalay olishiga ishonch hissi paydo bo‘ladi.Bu holda ta’lim va tarbiya metodlari pedagog shaxsida mujassamlangan sifatlarini amalga oshirish va undan pedagogga axloqiy fazilatlarni o‘tkazish vositasiga aylanadi.

Kasbiy kompetentsiya funksiyalaridan biri - empatiya ya’ni hamdard bo‘lishdir. U boshqa kishi hissiyotlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma’qullash, qobilyatini shakllantirish jarayonida amalga oshadi va jamoadago munosabatlarni me’yorga keltiradi. Bunda talabani , uning istaklarini tushunish va bular asosida talabalarni ta’sir etish zarurligi anglash pedagog uchun juda muhumdir.[2-302b]

Darsga tayyorgarlik ko‘rayotganda muloqotning barcha funksiyalaridan kompleks foydalanishga erishish zarur. Darsni rejalashtirayotganda faqat axborot berish haqida emas, balki talabalarni o‘z shaxsini namoyon qilishlarini va o‘z shaxsiy qobiliyatini ham ko‘rsata olishga sharoit yaratishni ham rejalashtirish zarur.

Insonparvarlik yo‘nalishi kommunikativ moslashishda ham muhim o‘rin egallaydi, chunki pedagogik vaziyatlar odatda juda tez rivojlanadi va butun pedagogik jarayon harakatlanuvchi kommunikativ sistema sifatida gavdalanadi. Uni samarali boshqarish pedagog tomonidan muloqot ketma- ket moslashuvlarni topa olinishiga bog‘liqdir. O‘zaro ta’sir uchun tanlangan noto‘g‘ri pedagogik xatti-harakat yoki noto‘g‘ri muloqot shaklini qo‘llanilishi, ya’ni muloqotga uni amalga oshirish nuqtai nazaridan tayyorlanmaganlik, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kelishmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin.[3]

Shunday qilib, zamonaviy o‘qituvchining pedagogik faoliyatida amaliy-konstruktiv malakalari o‘z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, obyekt, subyekt va vositalardan tashkil topadi. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq. Bunda pedagogik maqsad O‘quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o‘z faoliyati maqsadini va unga erishish yo‘llarini aniq tasavvur qilish zarur. Pedagogik faoliyat davomida pedagogik vazifa (pedagogik maqsad)larni qo‘yish va uni O‘zgartirish, pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va klassifikatsiyalash, qaror qabul qilish, pedagogik tafakkur va pedagogik intuitsiya, tahlil etish, baholash, o‘zini - o‘zi tuzatish (pedagogik refleksiya) va boshqalar kabi muhim kasbiy sifatlar mujassamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni–T., 2020 y.
2.I.A.Karimov Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yO‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. –T., O‘zbekiston, 2015y, 302b.
3.Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

OILA JAMIYATNING MUSTAHKAM AJRALMAS BO‘G‘INIDIR

O‘zbekiston. M.O.Normirzayeva
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchsi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilada farzand tarbiyasi masalalari, oilada bolalarni ahloqiy tarbiyalash omillari,axloqiy tarbiya yuzasidan o‘kaziladigan suhbatl mavzulari va ular mazmuniga sharhi, bola tarbiyasida ota- onalarga maslahatlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy an‘analar, hurmat-ehtirom, mehr-muhabbat, mehnat tarbiyas, urf-odatlar, oilaviy an‘analar, olijanob fazilat, bilimdon, madaniyatli, ahloqiy sifat, samimiy munosabat, mehnatsevarlik.

“Mamlakatimizda yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda”. Shavkat Mirziyoyev

Milliy an’analardan kelib chiqqan holda oilada kattalarga, ota-onaga, qarindosh urug‘larga, o‘qituvchi-tarbiyachilarga hurmat-ehtirom hissini shakllantirish, o‘tmish avlod tomonidan yaratilgan, to‘plangan boyliklarga, tarixiy yodgorliklarga mehr-muhabbat ruhini singdirish oilaning muqaddas vazifasi bo‘lmog‘i lozim. Oiladagi eng yaxshi tarbiya-bu mehnat tarbiyasidir. Bolaning ilk yoshidan boshlab mehnatga o‘rgatish kerak. Mehnat qilgani bois kattalar mehnatini e’zozlashga, uni qadrlashga odatlanadi. Bola yaxshi odatlarni, shu jumladan xushmomilalikni, ota-onasi, o‘qituvchilari va kattalardan ko‘rib o‘rganadi. Oilada bolalarga yaxshi xulq-atvorni shakllantirish uchun yaxshi ibrat zarur.

O‘g‘il-qizlarimiz shunday tarbiyalansinki, tarbiyalangan farzandimiz faqat oila yoki o‘zi uchun emas, ona Vatan uchun, uning kelajagi porloq bo‘lishi uchun ham qayg‘urushlari lozim. Yosh avlodni xushmomilalikka, to‘g‘rilikka, kattalarni hurmat qilishga, odamlarga hamdard bo‘lishga, yaxshilik qilishga o‘rgatishdan maqsadimiz – mustaqil O‘zbekistonimizning barcha mamlakatlar orasida tanatuvli xalqning eng yaxshi urf-odatlari va oilaviy an’analar ruhida jamiyat uchun olijanob fazilatli, bilimdon, madaniyatli shaxsni tarbiyalashdir.

Insonlarning ma’naviyati va ongidagi o‘zgarishlar jamiyatning oilaga ko‘rsatayotgan ijtimoiy ta’siri o‘z ifodasini topadi. Oila o‘zbek xalqi uchun eng muquddas maskan hisoblanadi. Oilaning jamiyatdagi o‘rna va milliy xususiyatlari haqida prezidentimiz Islom Karimov “Bunda hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a’zolari o‘z burchlarini ado etmasa bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas .... o‘zbeklarning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarning omon ekanligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”

degan qimmatli fikrlarini bildirgan. Xaqiqatdan ham o‘zbeklar o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarning omon ekanligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishadi. Buni oila tarbiyasida xisobga olmaslik mumkin emas. Oila jamiyatning asosini tashkil etadi. U kishilik jamiyatida insoniy oriyat va nomusni anglash, shu tuyg‘ularni idrok etishning hosilasidir. Oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shuncha mustahkam bo‘ladi. Vatan erki va istiqlolining poydevori, oilaning mustahkamligiga ijtimoiy va iqtisodiy omillargagina emas, balki ma’naviy omillarga ham chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek oilalari ma’naviyatining tarixiy asoslarini oila va jamitya, ma’naviy ruhiyat, an’analar, farzand tarbiyasi muammolarini istiqlol mafkurasi nuqtai nazardan qarab chiqish va baholash g‘oyat muhimdir. O‘sib kelayotgan yosh avlod ongida yuksak ahloqiy sifatlarning shakllanishida oila a’zolari va pedagoglarning ijobiy ibrat bo‘larli faoliyatlari alohida axamiyatga ega. Oila a’zolari o‘rtasida sofdillik, xushmomilaliylik, kamtarlik, o‘zaro hurmat, bir-barlariga samimiy munosabat, mehnatsevarlik kabi xislatlar mavjud bo‘lsa, bu ibratli axloqiy sifatlar bolalarga ijobiy ta’sir etadi. Bunday sharoitda bola o‘z oilasida ko‘rgan ibratli xatti-harakatlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib o‘z tengqurlarini va o‘zidan kattalarni xurmat qilishi va o‘z burchini vijdonan bajarishga intila boradi.

Pedagog va ota-ona tarbiyachi sifatida bola tarbiyasida uchragan qandaydir salbiy nuqsonlarni yo‘qotish va unda ijobiy xislatlarni shakllantirish uchun oila muassasa bilan muassasa esa oila bilan tizimli ravishda aloqada bo‘lib turishlari lozim.

Yosh avlodni Vatan, davlat oldidagi o‘z vijdoniy burchini xis qilish, har qanday tor shaxsiy manf’atlardan ijtimoiy manf’atlarni yuqori qo‘yish ruhida tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Ularga odoblilik, sabot va matonat doimo kelajakka idial milliy g‘oyalarga sodiqlik kabi oliyjanob insonni fazilatlarni singdirish hayotiy vazifalardir.

Ana shunday ijobiy sifatlarga ega bo‘lgan yoshlargina har tamonlama rivojlangan ya’ni barkamol shaxs bo‘lib yetishadilar.

Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘atadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri be’qiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr – oqibat, or – nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo‘ladigan ota – onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi.

Ko‘p yillik kuzatish va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson o‘z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda olar ekan. Bolaning ongi asosan 5 – 7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta’sirida ma’naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi. Xaqimizning “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan dono maqoli mana shu azaliy xaqiqatni yaqqol aks ettiradi.

Odamzot uchun bir umr zarur bo‘ladigan hayotiy ko‘nikma va hususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o‘ziga xos va o‘ziga mos qobiyati, atrofdagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o‘zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo‘lishi yoki ega bo‘lmasligi, kerak bo‘lsa, dunyoqarashi – bularning barchasi avvalo uning tug‘ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog‘liq ekanini hayot tajribasi ko‘p misollarda tasdiqlab beradi. Aynan mana shu davrda bola hamma yahshi – yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg‘ubor ongi bamisoli bosma qog‘oz singari oiladagi, yon – atrofdagi barcha voqea – hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o‘ziga shimib singdirib oladi.

Uning ota – onasiga, bobo va momolariga mehri va hurmati, o‘zinio‘rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan kunga takomillashib boradi. Qisqacha aytganda, xonadondagi har bir

narsa – daraxt va o‘simliklar bo‘ladimi – bularning barchasi bolaning ko‘ziga olamning beqiyos mo‘jizasi bo‘lib ko‘rinadi va shu tariqa u yorug‘ dunyoni o‘zi uchun kashf qiladi.

Taassufki, ba’zi ota – onalar o‘z farzandining mana shunday qiziqishlari va intilishlariga, uning ongu tafakkurida har kuni bir o‘zgarish ro‘y berib, ko‘zida yangi – yangi savollar paydo bo‘layotganiga ahamiyat bermaydi. Boz ustiga, agar ota oilada o‘zini tutishni bilmasa, ahloq – odob bobida farzanlariga o‘rnak bo‘lish o‘rniga qo‘pol muomala qiladigan bo‘lsa, bu holat, tabiiyki, bola ma’naviy olamining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, vaqti – soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, xunuk bir odat sifatida namoyon bo‘ladi. Ikki oilada qo‘ni – qo‘shnilari ko‘rolmaslik, fisq – u fasod, ig‘vo muhiti hukmron bo‘lsa hech shubhasiz, bularning barchasi bolaning xotirasida tuzatib bo‘lmaydigan og‘ir asorat qoldiradi. Umuman, oiladagi ma’naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag‘ritosh bo‘lib voyaga yetishini tushunish qiyin emas.

Biz o‘z farzandlarimizning baxt – u saodatini, iqboli va kamolini ko‘rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla – ko‘yidagi odamlarning xatti – harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida doimo o‘ylashimiz, bu masalada zimmamizda qanday ulkan ma’sulyat borligini unutmasligimiz zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ 595-sonli Qonuni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF–152-son Farmoni.

3.O‘zbekiston Rrespublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024 yil 8 noyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 362-sonli buyrug‘i

4.O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (2-nashr), 2022-yil.

5.O‘zbekiston Rrespublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” o‘quv qo‘llanmasi, 2024-yil.

THE DEVELOPMENT OF ASIAN METHODS OF TEACHING IN MODERN EDUCATION

O‘zbekiston. Dildora Xalikova
Lecturer, Navoi State University, Navoi, Uzbekistan
Begoyim Rakhmatullayeva
Student, Navoi State University, Navoi, Uzbekistan

Annotation. This article explores the evolution of teaching methods in Asia, focusing on how traditional educational practices are being transformed to meet the demands of the 21st century. Historically rooted in rote memorization and teacher-centered instruction, Asian education systems are now embracing more student-centered, interactive, and technology-driven approaches. Examples from countries like Japan, South Korea, China, Singapore, Malaysia, and Indonesia highlight various reforms, including the integration of digital tools, critical thinking, and culturally responsive pedagogy. The article emphasizes the importance of balancing innovation with cultural values to ensure a relevant and inclusive educational experience across Asia.

Keywords: Asian education, traditional teaching methods, 21st-century education, digital technologies, critical thinking, interactive learning, student-centered approach, culturally responsive pedagogy, educational reforms, teacher training, educational equity.

Annotatsiya. Ushbu maqola Osiyodagi o‘qitish usullarining rivojlanishini o‘rganadi hamda an’anaviy ta’lim amaliyotlarining 21-asr talablari asosida qanday o‘zgarayotganiga e’tibor qaratadi. Tarixan yodlashga asoslangan va o‘qituvchi markazida bo‘lgan darslar hozirda tobora ko‘proq

o‘quvchi markaziga yo‘naltirilgan, interaktiv va texnologiyalarga asoslangan uslublarga o‘zgarmoqda. Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur, Malayziya va Indoneziya kabi davlatlar misolida raqamli vositalarni integratsiya qilish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va madaniy jihatdan mos o‘qitish metodlarini joriy etish kabi islohotlar yoritiladi. Maqolada innovatsiyalarni madaniy qadriyatlar bilan muvozanatlashtirish orqali Osiyo bo‘ylab mazmunli va inklyuziv ta’lim tajribasini ta’minlash muhimligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Osiyo ta’limi, an’anaviy o‘qitish usullari, 21-asr ta’limi, raqamli texnologiyalar, tanqidiy fikrlash, interaktiv o‘qitish, o‘quvchi markazidagi yondashuv, madaniy jihatdan mos pedagogika, ta’lim islohotlari, o‘qituvchilarni tayyorlash, ta’limda tenglik.

Аннотация. В данной статье рассматривается эволюция методов преподавания в Азии, с акцентом на то, как традиционные образовательные практики трансформируются в ответ на требования XXI века. Исторически опираясь на заучивание и, учитель-центренный подход, азиатские системы образования всё чаще переходят к обучению, ориентированному на учащегося, интерактивным формам и использованию цифровых технологий. На примерах таких стран, как Япония, Южная Корея, Китай, Сингапур, Малайзия и Индонезия, освещаются реформы, включающие внедрение цифровых инструментов, развитие критического мышления и культурно адаптированной педагогики. В статье подчеркивается важность баланса между инновациями и культурными ценностями для обеспечения актуального и инклюзивного образования по всей Азии.

Ключевые слова: азиатское образование, традиционные методы обучения, образование XXI века, цифровые технологии, критическое мышление, интерактивное обучение, ученико-центрированный подход, культурно-ориентированная педагогика, образовательные реформы, подготовка учителей, равенство в образовании.

Introduction

Over the past few decades, education in Asia has undergone significant transformations. In order to meet the demands of the twenty-first century, traditional pedagogical approaches that are deeply rooted in cultural values and historical contexts are being reevaluated and reshaped. The current landscape of teaching methods in Asian nations is the subject of this article, which looks at how to strike a balance between traditional methods and new educational innovations.

The Shift Towards Student-Centered Learning

In recent years, there has been a notable shift from traditional, lecture-based instruction to more student-centered and interactive learning approaches. Classrooms are increasingly becoming spaces for collaboration and exploration, with teachers acting as facilitators rather than sole knowledge providers. This transition encourages students to actively participate in their learning process, engaging in discussions and hands-on activities that enhance understanding and promote critical thinking skills.

In Japan, for instance, «exam-free semesters» have been implemented as part of educational reforms to shift away from solely focusing on memorization and toward more flexible and interactive learning environments.

Integration of Technology in Education

The rapid advancement of technology has significantly influenced teaching methodologies across Asia. The COVID-19 pandemic accelerated the adoption of digital tools and online platforms, highlighting the importance of technological integration in education. Educators are now leveraging multimedia presentations, virtual reality, and gamification to create engaging and interactive lessons. Students' comprehension and retention are improved as a result of these tools' immersive opportunities for learning.

Emphasis on problem-solving and critical thinking Critical thinking and problem-solving abilities are becoming increasingly important in Asian education systems. In countries like Singapore and Malaysia, curriculum reform focuses on shifting from rote learning to inquiry-based, student-centered learning. These reforms aim to cultivate analytical and problem-solving abilities, preparing students to navigate complex real-world challenges effectively.

In Malaysia, for instance, the integration of culturally responsive science pedagogy seeks to make science education more relevant and engaging for students from diverse backgrounds.

While embracing modern teaching methods, many Asian countries strive to maintain a balance between innovation and the preservation of cultural values. Education reforms often incorporate traditional philosophies and practices, ensuring that students remain connected to their heritage while acquiring contemporary skills. This holistic approach fosters a sense of identity and continuity amidst rapid educational transformations.

For example, in Indonesia, efforts to provide education to indigenous communities involve adapting teaching methods to align with the tribes' nomadic lifestyles and cultural practices. This culturally responsive approach ensures that education is accessible and relevant, bridging the gap between traditional knowledge and modern learning.

Challenges and Considerations

Despite the progress, the transition to modern teaching methods in Asia presents several challenges. Educators must navigate the delicate balance between innovation and tradition, ensuring that new methodologies are culturally appropriate and effectively implemented. Additionally, disparities in access to technology and resources can hinder the widespread adoption of modern teaching tools, particularly in rural or underfunded areas.

In addition, comprehensive teacher education programs are required to provide educators with the knowledge and abilities necessary to effectively implement new pedagogical approaches.

Conclusion

Teaching practices in Asia have changed over time as a result of a constant battle between modernity and tradition. As educational systems strive to prepare students for the complexities of the contemporary world, there is a concerted effort to integrate innovative practices while honoring cultural heritage. By embracing student-centered learning, leveraging technology, and fostering critical thinking,

By addressing these challenges thoughtfully, Asian education systems can continue to evolve, providing students with the skills and knowledge necessary to thrive in an increasingly interconnected and rapidly changing world.

REFERENCES

1. Higher education in East Asia and Singapore: Rise of the Confucian Model. Higher Education. Marginson, S. (2011).
2. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi. B.T. Jurayev. (2022)
3. Education in Singapore: Development of a National Innovation System. Comparative Education. Lee, W. O., & Gopinathan, S. (2008).

ОНА ВА БОЛА САЛОМАТЛИГИДА ЖАРРОҲЛИК ҲАМШИРАСИНИНГ ЎРНИ

Ўзбекистон. Ҳакимова Ойгул Ҳамроевна
Республика ихтисослаштирилган она ва бола саломатлик илмий- амалий тиббиёт маркази Навоий вилояти филиали амалиётхонаси олий тоифали ҳамшира

Аннотация: Соғлиқни сақлашда тиббиёт ходимларининг ўрни ва аҳамияти хусусида. Жарроҳлик амалиётида ҳамширанинг фаолияти, тиббий муолажада она ва бола саломатлиги хусусида амалий таҳлиллар қайд этилган.

Калит сузлар: Саломатлик, жаррохлик, муолажа, бемор, инсон, ташхис, махорат.

Саломатлик – туман бойлик. Негаки, саломатлик – инсоният ҳаётда узоқ умр кўришнинг асосий омили ҳисобланади. Буюк ватандошимиз, улуғ ҳаким Абу Али ибн Сино машҳур "Тиб қонунлари" асари саломатликни сақлаш ва мустаҳкамлаш ғоялари асосида ёзилган. Шундай экан, инсон саломатлиги асрлар давомида хам долзарб масалалардан биридир.

Мамлакатимиз мустақилликка эришгач, соғликни сақлаш тизимида ҳам жуда катта ўзгаришлар рўй бера бошлади. Соғликни сақлаш тизимининг янги модели бўйича амалий ишлар кўлами олиб борилмоқда. Мухтарам Президентимиз Ш.Мирзиёев хам оқ либосли касб

эгаларига эътибор қаратиб, кўплаб қарор ва фармонлар улар меҳнатини ўлуғлашга қаратилган.

Тадқиқотларда таъкидланишича, тиббиёт соҳасида Америка ва Ғарбий Европа замонавий ҳамширалик иши моделининг асосий ва ажралмас тушунчаларидан бири — хамширалик жараёнидир.[66] Ҳамширалик жараёни бу ҳамшира амалиётида кўллайдиган ва илмий асосланган усул булиб, соғликни сақлаш амалиётида ҳамшира ўрнининг янги тушунчасини беради ва ундан нафакат техник томондан яхши тайёргарликни балки, бемор парваришига ижодий ёндошиш, беморга алоҳида шахс сифатида муносабатда булишни талаб этади. Ҳамширанинг кучли ташкилотчи, менеджер, педагог ва психолог бўлиши замон талабидандир. Замонавий ҳамшира мезонларига мос келиш учун ҳамшира саломатлик меъёрини ва беморлар парвариши асосларини билиб колмасдан, балки беморларнинг руҳий ҳолатини ҳам баҳолай билиш зарур.

Бугунги кун ҳамширасига куйидаги мажбуриятлар юклатилган:

1. Беморлар парвариши.
2. Касалликларнинг олдини олиш.
3. Соғлиқни сақлаш.
4. Беморларни оёққа турғозиш ва реабилитация масалалари.

Хамширанинг кучли ташкилотчи, менеджер, педагог ва психолог булиши замон талабидир. Замонавий ҳамшира мезонларига мос келиш учун ҳамшира саломатлик меъёрини ва беморлар парвариши асосларини билиб қолмасдан, балки беморларнинг руҳий ҳолатини ҳам баҳолай билиш зарур.[67]

Айниқса тиббиётда жарроҳлик билан амалга ошириладиган муолажалар инсон хаёти, балки, мутахассис касб эгаларидан катта синчковлик ва маҳорат талаб этилади. Жарроҳлик ҳамширасидан амалётда катта эътибор, диққат, билим, маъсулят, чаққонлик талаб этилади. Унда шифокорга ҳам ҳамширага ҳам ката маъсулят юклатилади.

Ўз касбимнинг тажрибаси давомида ҳар бир жарроҳлик амалётидан билим ва кўникмалар тўпладим. “Жароҳлик” – сўзининг маъноси “моҳир қўллар” деган маънони англатади. Ҳозирги кунга келиб жароҳлик амалётлари янги технологиялар билан ривож топди. Буни айта оламанки бизнинг Навоий вилояти аёллар шифоҳонасида барча қулай шароитлар етарли бўлиб, жароҳлик амалёти учун шинам хоналар, тоза ситирилланган жиҳозлар, замонавий техналогиялар мавжуд. Асосан, ҳамшира ансибтика ишларига риоя қилиши лозим. Ҳамшира, албатта, шифокорлар назорати ва ташхиси билан иш кўради уларнинг кўзлари бургут кўзлари каби бўлиши лозим. Улар туну-кун беморларни даволаш учун жонларини ҳам фидо қилишга тайёр.

Беморларнинг ички тўқилмаларини ҳамшира ҳис қила олмаса у жарроҳлик ҳаширсиа бўла олмайди. Даставвал шуни айтиб ўтиш жоиз-ки, қунт билан беморларнинг тузалишларини кўриб ва ширин сўзларини эшитиб, шижоатзимиз янада кўпроқ юксалади. Ахир биз ҳам саломатлтгидан қийналиб турган беморлар наздида қизимиз, онамиз, опамиздек ҳурмат эътиборда бўламиз, чунки беморлар кайфияти, соғлиги биз оқ халат соҳибалари учун муҳим аҳамиятга эга.

Жарроҳлик ҳамшираси фаолияти операция жараёнлари билан боғлиқ бўлади. Операция қонли ва қонсиз таризда амалга оширилади. Ҳамшира операция жараёнида жарроҳлик асбобларини ситирилланган ҳолатда шифокорга узатади. Бунда диққат этибори кучли бўлиши муҳим. Сабаби бу инсон саломатлиги ҳақида қайҳуради. Тўғри ҳамширанинг иши сиз учун осон туюлиши мумкун бироқ энг муҳим вазифани ўз ичига олади. Шундай экан бизнинг ишимиз учун барча қулайликларни яратиб бераётган раҳбариятимизга миннатдорчилик билдирамиз. Шифохонамизда ўз маънавий билимларини юксалтириш учун

[66] Т.Ю.Умарова, И.А.Каюмова, М. К. Ибрагимова Ҳамширалик иши. Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти. 2003.

[67] Т.Ю.Умарова, И.А.Каюмова, М. К. Ибрагимова Ҳамширалик иши. Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти. 2003. 6-Б.

кутубхоналар, фаоллар хонаси, маданий ҳордиқ учун спорт зал ва овқатланиш учун алоҳида ошхоналар бор.

Ҳар бир байрамларда ажойиб тадбирлар ўтказилади. Бундан ташқари Ўзбекистоннинг гўзал шаҳарлари учун саёҳатлар уюштирилади намунали шифокор ва ҳамшира учун муносиб мукофотлар, тақдирлаш лар хар бир фидойи касб эгалиарини бефарқ қолдирмайди. Бундан биз янада фахрланиб, сидқидилдан меҳнат қилиб бемор дардига малҳам бўлишга ундайди.

Ҳар бир инсонга саломатликдан кўра муҳим, соғликдан кўра кўпроқ эътибор бериладиган нарсанинг ўзи йўқ. Шунинг учун кишилар хасталиклардан сақланиш, саломатликларини асраш ва мустаҳкамлаш учун куч-ғайрат, маблағ ва вақтни аяшмайди. Бугунги дориламон кунларга шукроналик билан айтиш мумкинки “12-май – бутун жаҳон ҳамширалар” куни деб эълон қилиниши, соҳа эгаларига янада эътибор қаратиш, юртимизни хамшираларига фахр туйғуси уйғотади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абу Али ибн Сино Таржимонлар: А. Расулев, К. Мирзаев, У.И. Каримов, А. Муродов Номи: «Тиб қонунлари» 1, 2, 3, 4, 5-китоблар Нашриёт: «Шарқ» -2024.
3. Т.Ю.Умарова, И.А.Каюмова, М. К. Ибрагимова Ҳамширалик иши. Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти. 2003.

SHARQ BUYUKLARINING USTOZGA BO‘LGAN EHTIROMI

O‘zbekiston. Abdullayeva Sabohat G’ayratullayevna
NavDU Pedagogika nazariyasi.
Pedagogik ta’limotlar tarixi tayanch doktoranti.
Profi University Navoiy filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada, Sharq buyuklarining hayot yo‘lida ularning asarlarida, “ustoz-shogird” an’analarining o‘rni va uning yoritilishi tahlil qilinadi. Xususan, Kaykovus, Bahouddin Naqshband, Abduraxmon Jomiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy hayoti misolida ustoz-shogird an’analari qanday ifodalanganligi, ular o‘rtasidagi do‘stona va ma’naviy bog’lanish, axloqiy qadriyatlarning o‘zaro ta’sir ko‘rsatayotganligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ustoz-shogird, qadriyat, an`ana, Kaykovus, Bahouddin Naqshband, Abduraxmon Jomiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy.

Abstract: This article analyzes the role of the «master-disciple» tradition in the lives and works of the great figures of the East. Specifically, it examines how the «master-disciple» tradition is reflected in the lives of Kaykovus, Bahauddin Naqshband, Abdurahman Jami, Amir Timur, Alisher Navoi, and Husayn Voiz Koshifi. The analysis focuses on the friendly and spiritual connections between the master and disciple, as well as the mutual influence of moral values.

Key words: Master-disciple, values, tradition, Kaykovus, Bahauddin Naqshband, Abdurahman Jami, Amir Timur, Alisher Navoi, Husayn Voiz Koshifi.

Аннотация: В данной статье анализируется роль традиции «учитель-ученик» в жизни и произведениях великих людей Востока. В частности, рассматривается, как традиция «учитель-ученик» выражена в жизнях Кайковуса, Бахоуддина Накашбанда, Абдурахмана Джами, Амир Темура, Алишера Навои, Хусейна Воиза Кошифи. Анализируется, как проявляются их дружеские и духовные связи, а также взаимное влияние моральных ценностей между ними.

Ключевые слова: Учитель-ученик, ценности, традиция, Кайковус, Бахауддин Накшбанд, Абдурахмон Джами, Амир Темур, Алишер Навои, Хусейн Воиз Кашифи.

Sharq madaniyati va falsafasi asrlar davomida ilm-fan, axloq va ma’naviyatni birlashtirgan o‘ziga xos an’analarga ega bo‘lib, ularda ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabatlar alohida o‘rin tutadi. “Ustoz-shogird” an’anasi, asosan, ilmiy va ma’naviy merosning avlodlarga o‘tishida muhim rol o‘ynaydi. Sharq buyuk insonlarining hayotida va ularning asarlarida bu munosabatlar faqat ilmiy o‘rganish jarayoni sifatida emas, balki axloqiy, tarbiyaviy va ma’naviy jihatlarni o‘z ichiga olgan tarixiy qadriyat sifatida ko‘rsatilgan. Ustozning ilm-fan va ma’naviyat yo‘lidagi rahbarlik roli,

shogirdning esa bu bilimlarni nafaqat o‘zlashtirishi, balki hayotida tatbiq etishi, unga yangicha qarash va qiymatlarni shakllantirish masalalari Sharq tafakkurining markaziy mavzularidan biridir. Shuningdek, ustoz va shogird o‘rtasidagi aloqalar o‘zaro ishonch, hurmat va sevgi asosida qurilgan bo‘lib, bu munosabatlar ko‘plab mutafakkirlar, yozuvchilar va faylasuflarning hayot yo‘llarida va ijodida aks etgan.

Sharq didaktikasida ustoz-shogird an’analari yetakchi o‘rinda turadi. Eng qadimgi madaniy-adabiy yodgorliklardan boshlab barcha manbalarda ustozning shogirdga o‘giti, shogirdning ustozga sadoqati to‘g‘risidagi hikmatlarga duch kelamiz. Misol uchun Kaykovusning mashhur Qobusnoma kitobi boshdan-oxir ustozning shogirdiga nasihatidan iborat. “Hunar afzunlig‘i bilan baland qadr va oliy tab’ bo‘lmoq zikrida” bobida shunday deyiladi: ―Agar kishida nasab gavhari bo‘lsa, ammo hunar zevari bo‘lmasa, u hech kishining suhbatig‘a loyiq bo‘lmag‘usidur. Garchi bu ikki gavhar hosil qilg‘on kishini topsang, etagini mahkam tutg‘il va undin ilkingni chekmag‘il, bilki u barcha kishilarning mushkulin oson qilg‘ay”- deb fikr yuritiladi. Sharq mutafakkirlarining nafaqat asarlarida balki hayot yo‘lida ham ustozga bo‘lgan buyuk ehtiromni ko‘rish mumkin. Naqshbandiy hazratlarining yoniga bir o‘spirin kelib, undan ilm o‘rganmoqchi ekanini aytibdi. Doimo huzurida bo‘lishi uchun qul bo‘lib yollanishga ham tayyor ekanini bayon etibdi. Bahouddin hazratlari uning taklifini rad etib: «Biz hammamiz yaratgan egamning qullarimiz. Qulning qul ushlashi mantiqdan emas», degan ekanlar. Qiziqqon o‘spirin ham hadeganda ahdidan qaytmagan. «Tahorat suvi tayyorlab beraman, uy-ro‘zg’or ishlariga qarashaman — meni dastyor qilib ishga oling, sizga yaqin yursam bo‘lgani!» — deb zorlangan. Pir uni yana qabul qilmagan: «Dastyorga ehtiyojimiz yo‘q, illo «Dil ba yoru dast ba kor – qalbimiz Allohda, qo‘limiz mehnatda» — bu yumushlar o‘zimizdan ortmaydi», deb javob qilibdilar. Shunda yigit, meni shogirdlikka oling, deb yalingan. Ilmga ishtiyoqi baland ekanini, maqsadi yo‘lida har qanday g’ovni yengib o‘tishga shashti borligini sinab turgan hazrat miyig’ida kulib uni shogirdlikka qabul qilgan ekanlar. Zero, uy-ro‘zg’or yumushlarini qul yoki malaydan farqli o‘laroq shogird bir farzand kabi samimiyat bilan bajaradi. Bundan ko‘rinib turibdiki shogird maqomi qulga emas eng yaxshi farzandga tenglashtirilgan.

Buyuk mutafakkir alloma Abduraxmon Jomiy esa o‘z davrida, inson hayotining ma’nosini uning odamlarga, shogirdiga qilgan yaxshiligi bilan belgilaydi. Unga ko‘ra, hayotda har bir inson odamlar baxtini deb, ularning tashvishi bilan yashab, ayniqsa ziyoli qatlam o‘zining shogirdiga ota-onasidek ezgulikka yo‘naltira oladigan yaxshilik qila bilishi kerak deb, ta’kidlab o‘tgan. Ziyoli bo‘lish esa g‘oyat og‘ir, ammo ziyoli kishi ko‘pchilik anglab yetmagan, idrok etolmagan, hatto ko‘pchilik bilmagan narsalarni biladi, u bilganini boshqalarga o‘rgatadi va uning butun hatti-harakati ezgulikka qaratiladi deb hisoblagan.

Ustoz-shogird qadr-qimmati, bir-biriga bo‘lgan hurmatini bilmoq uchun yana bir bor tarixga nazar tashlasak buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temur davrida ham ustozning qanchalik sharaf egasi bo‘lganining guvohi bo‘lamiz. Amir Temur podshohligi davrida ikkita zo‘r olimni sinamoqchi bo‘libdi. Ularni shikorga (ovga) taklif etibdi. Otda uchchalalari ketayotganda Abu Said Barakaning oti oldinroq ketib qolibdi, o‘rni keldi, debdi-da Amir Temur allomaga qarab, Abu Said Barakani juda zo‘r olim, taqvo, avliyo deysizlar. Men podshoh bo‘lsam, siz yetuk ustoz alloma bo‘lsangiz, u bizni mensimasdan oldinga o‘tib ketib qoldiku, debdi. Alloma ―shohim bu insonga Alloh shunday ilm berganki, osmonga uchib ketmayaptiyam. Bu zotning o‘tirgan oti bu insonning ulug‘ligidan osmonga uchay deb ildam ketib qolayapti. Abu Said Baraka bilan hamzamon bo‘lganligimizdan Allohga shukur qilaylik, - debdi. Otni bir qamchilab, Abu Said Barakaga yetib olgan Amir Temur endi u kishiga so‘z boshlabdi: ―Bu allomani olim, avliyo deysiz, bizni mensimasdan orqada bemalol kelayapti. Bu qanaqa odam o‘zi, - debdi. Abu Said Baraka aytgan ekanlar: ―Amirim, bu insonning ilmi shu darajadaki, haliyam uni yer, zamin ko‘tarib turibdi. Bu zot mingan ot bu odamning ilmiyu taqvosini ko‘tarolmasdan asta-sekin kelyaptida. Bu ustoz bilan hamzamon bo‘lganimizdan allohga hamdu sano aytaylik,- degan ekan. Bu rivoyatda haqiqiy inson, haqiqiy

olim, haqiqiy ustoz, haqiqiy shogird timsoli berilgan. Sharq buyuklari hayotida ta`lim-tarbiyaga oid har qanday munosabatdan o‘rnak olganimizda so‘z sehri bilan insonlar qalbidan joy olgan Alisher Navoiyning ustoz haqida fikrlarini misol keltirib o‘tmasak bo‘lmaydi. Alisher Navoiy har doim ustozi oldida o‘zini nihoyatda kamtar tutishi, ustozi sha’ni-sharafini yuksaklarga ko‘tarishi, unga shogird bo‘lganlar o‘zini eng baxtli deb hisoblashiga haqli ekanliklarini ta’kidlashi, shogirdning ustoziga chin ehtiromi belgisidir deb hisoblagan. Alisher Navoiy bir davrada odamlar bilan suhbatlashib o‘tirganida, sal naridan 10-12 yoshli bir bola o‘tib qoladi. Shunda Alisher Navoiy o‘rnidan turib, unga ta’zim bilan salom beradi. Suhbatdoshlari hayron bo‘lishib:– Yosh bolaga nega o‘rningizdan turib ta’zim qildingiz? – deb so‘rashadi. – Bu yigitcha mening ustozimning nevarasi bo‘ladi, – deb javob beradi, Navoiy. Bu rivoyat zamirida chuqur ma’no bor. Alisher Navoiy hamisha ustozlariga buyuk ehtirom ko‘rsatgan, ularning nomlarini hurmat bilan tilga olgan. Abdurahmon Jomiyni o‘zining eng sevimli ustozi deb bilgan va ijodiy rejalarini ustozi bilan baham ko‘rgan, maslahatlar olib turgan. Buyuk Xamsani yaratishga kirishishdan oldin ham ustozining fatvosini olgan. Farididdin Attorni o‘zining ma’naviy ustozi deb bilgan va umrining oxirlarida Lison ut- tayr dostoni orqali unga o‘z ehtiromini ifoda etgan. Yana bir buyuk qomusiy olimimiz Xusayn Voiz Koshifiy shogird odobi haqida shunday deydi: ―Ustoz qabuliga kirganda yoki ustozini ko‘rganda, birinchi bo‘lib salom berish; ustozning oldida oz gapirish va boshni oldinga egib turish, ko‘zni har tomonga yugirtirmaslik; agar masala so‘ramoqchi bo‘lsa, oldin ustozdan ijozat olish; ustoz javob aytganda, e‘tiroz bildirmaslik; ustoz oldida boshqalarni g’iybat qilmaslik; o‘tirib-turishda hurmatni to‘liq saqlash, shogirdning ruhiy olamining muhim zamini ham bo‘lib, ularga poklik, do‘stlik, hamkorlik, hamjihatlik, sadoqat, mehr-muruvvatlilik, kasb tanlash imkoniyati, vatanparvarlik, milliy iftixor, insonparvarlik, xushmuomalalik, insoflilik, rostgo‘ylik, ornomuslilik, hamjihatbarorlik, andishalik, kattalarni hurmat qilish, sof muhabbatni qadrlash, vazminlik, to‘g‘rilik, baynalminalchilik, ustozini hurmatlash, ota-onasini hurmatlash kabilar kiritiladi deb takidlaganlar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Sharq buyuklarining ustozga bo‘lgan ehtiromi ularning ilmiy, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Ustoz, Sharq madaniyatida nafaqat ilm beruvchi, balki tarbiyachi, axloqiy rahbar va ma’naviy yo‘ldosh sifatida qadrlangan. Buyuk mutafakkirlar, falsafachilar va olimlar o‘z asarlarida ustozning nafaqat ilmiy bilimlarni uzatishdagi, balki shogirdni to‘g‘ri yo‘lga solish, axloqiy jihatdan shakllantirishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaganlar. Ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabatlar, ilmiy va ma’naviy merosning avloddan-avlodga o‘tishida, shuningdek, jamiyatda yuqori axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Mavlonova R.A., Raxmonqulova N.H. va boshq. Umumiy pedagogika.- T:. Fan va texnologiyalar.

2. D. Malikova. Sharq mamlakatlarida ustoz-shogirdlik an’analarining shakllanishi va rivojlanishi. Maqola.Science and Education» Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022

3. O‘.Q Tolipov. «Ustoz - shogirdlik qadriyatlari»-risola; Toshkent «Nizomiy nomidagi TDPU»-2015.

THE THEME OF LONELINESS IN ENGLISH AND UZBEK FOLKLORE

O‘zbekiston. Sayidova Moxichexra Islomovna
Head of the International Cooperation Department
Navoi State University

Abstract: Loneliness, as a universal human emotion, finds its profound reflection in the folklore of many nations. This article explores the manifestation of loneliness in English and Uzbek folklore, analyzing how it shapes the characters, narratives, and moral lessons within these traditions. Through comparative analysis, the study reveals both the shared and unique aspects of the two cultures' treatment of solitude.

Introduction: Folklore serves as a mirror of human experiences, emotions, and societal values. Among the myriad of themes depicted, loneliness stands out as a poignant motif that resonates deeply across different cultural landscapes. English and Uzbek folk traditions, despite geographical and historical differences, offer rich depictions of solitude, abandonment, and the yearning for connection.

Loneliness in English Folklore

In English folklore, loneliness often appears in ballads, fairy tales, and legends. Characters like 'The Lady of Shalott,' isolated on her island, or 'The Wandering Jew,' cursed to walk the earth alone, embody the pain and poetic beauty of solitude. Ghost stories, such as 'The Green Lady,' also portray spectral figures trapped in eternal loneliness due to past tragedies. Loneliness in English folklore often serves as both a punishment and a tragic consequence of fate.

Examples:

- 'The Lady of Shalott' – isolated from the world, weaving her fate from a distance.
- 'Wandering Jew' – symbol of eternal loneliness as divine punishment.
- English ballads – often feature lost lovers, abandoned souls, and exiled heroes.

Loneliness in Uzbek Folklore

In Uzbek folklore, loneliness is closely tied to themes of separation, longing, and spiritual journey. Epic narratives like 'Alpomish' portray heroes experiencing deep loneliness during their quests or imprisonment. Folk songs ('yalla,' 'lazgi') often express personal or collective sorrow of separation from loved ones. Unlike English folklore, Uzbek representations of loneliness frequently emphasize endurance, hope, and the ultimate reunion or redemption.

Examples:

- 'Alpomish' – heroic endurance in solitude for the sake of love and homeland.
- Folk songs and dastans – expressions of emotional loneliness due to migration, war, or separation.
- Proverbs – “Yolg‘izlik yomon, do‘stlik jonon” ('Loneliness is bitter, friendship is precious').

Comparative Analysis

While both traditions depict loneliness as a profound human experience, English folklore tends to frame it as an irreversible or tragic fate, often imbued with a mystical or supernatural dimension. Uzbek folklore, on the other hand, often portrays loneliness as a temporary trial that can be overcome through resilience, faith, and communal support.

Aspect	English Folklore	Uzbek Folklore
Nature of Loneliness	Tragic, mystical, inevitable	Temporary, test of resilience
Resolution	Often ends in tragedy	Leads to reunion or triumph
Common Figures	Ghosts, cursed wanderers	Exiled heroes, sorrowful lovers

Conclusion

The exploration of loneliness in English and Uzbek folklore highlights not only the shared human fear of isolation but also the culturally distinct ways societies understand and deal with it. English folklore often warns of the dangers of isolation, while Uzbek folklore offers hope that loneliness can be a passage to a greater spiritual and social unity.

References

1. Ashliman, D. L. (2004). Folk and Fairy Tales: A Handbook. Greenwood Press.
2. Thompson, Stith. (1977). The Folktale. University of California Press.
3. Afzalov, M. (1994). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Fan nashriyoti.
4. Propp, Vladimir. (1968). Morphology of the Folktale. University of Texas Press.
5. Ismatullaev, A. (2001). O‘zbek xalq dostoni: Tahlil va tadqiqotlar. Tashkent: O‘zbekiston.
6. Warner, Marina. (1994). From the Beast to the Blonde: On Fairy Tales and Their Tellers. Farrar, Straus and Giroux.

STATE OF DUST REDUCTION IN COTTON GINNING AND TEXTILE ENTERPRISES

O‘zbekiston.Otamirzayev Abdulkhadi
Namangan Engineering and Technology Institute
assistant. Republic of Uzbekistan, Namangan region.
Email: *otamirzayevabdulhodi545@gmail.com*

Annotation. During the cotton cleaning process and in textile enterprises, they are accompanied by a significant release of dust from technological and transporting machines into production premises and the atmosphere. Once settled, the dust will pollute production premises and the territory of the enterprise, creating unfavorable working conditions for people and equipment. Dust removal is carried out in workshops and individual dust-emitting installations to create normal sanitary and hygienic conditions. Before exhaust dust-laden air is released into the atmosphere, it is also cleaned of dust.

Keywords: cotton cleaning, textiles, dust content, discharge, raw cotton, cyclone, dust, pollution, norm, air, VZP-1200, atmosphere, dust suction, cleaning, dust collector, effect, result.

Аннотация. В процессе Хлопко очистке и в текстильных предприятиях сопровождаются значительным выделением пыли из технологических и транспортирующих машин в производственные помещения и атмосферу. Оседая, пыль загрязнет производственные помещения и территорию предприятия, создает неблагоприятные условия для работы людей и оборудования. Для создания нормальных санитарно-гигиенических условий производится обеспыливание цехов и отдельных пыле выделяющих установок. Перед выбросом отработавшего запыленного воздуха в атмосферу его также очищают от пыли.

Ключевые слова: хлоп очистка, текстиль, запыленность, выделения, хлопок-сырец, циклон, пыль, загрязнения, норма, воздух, ВЗП-1200, атмосфера, отсос пыли, очистка, пылеуловитель, эффект, результат.

Introduction.

If we compare the state of dust removal in cotton ginning and textile enterprises, these issues are much more positively resolved in textile enterprises. We consider cleaning dusty air sucked from dust sources, as well as air exhausted in pneumatic transport units, must be cleaned from dust before its release into the atmosphere.

Let's look at the structure of a conical cyclone:




Fig. 1. *1-inlet pipe, 2-conical body, 3-inner cone, 4-cap, 5-pipe.*

According to Fig. 1, dusty air enters the cyclone through the inlet pipe tangentially and acquires a rotational motion. Centrifugal force presses dust particles to the inner wall of the outer cone, along which they, rotating, roll down to the dust pipe and are discharged into the atmosphere. The airflow, also rotating and losing speed, in the lower part of the cyclone, where the outer flow passes into the inner cone, creates a vacuum that prevents dust from being released. Complete elimination of suction in the cyclone is achieved by sealing the dust pipe and installing a hopper or a rotary valve. Even a slight suction of air through the lower part of the cyclone sharply reduces the efficiency of dust retention. With a suction of 10-15% of air, the efficiency of its cleaning is insignificant.




Fig. 2. *Graph of the dependence of the dust-holding effect of a cyclone (D=1800 mm) on the size of dust particles.*

Fig. 2 shows the dependence of the dust-retaining effect of the cyclone on the size of the dust particles released with the exhaust air of the pneumatic conveying unit with a particle size of less than 50 m and with their retention in the dust of about 35%. The dust-retaining effect in this case is 60-65%. Experience in the operation of cotton ginning plants shows that when cleaning exhaust air with a high content of fibrous mass with cyclones, the dust-retaining effect reaches 94-97%. Conical cyclones, depending on productivity, are installed singly or in groups:




Fig. 3. *Diagram of installation of cyclones with the same direction of air rotation.*

When installing more than two cyclones in a group, the direction of air rotation in all cyclones must be the same.

We consider cyclone installations with the same direction of air rotation:




Fig. 4. *Diagram of installation of cyclones with different directions of air rotation.*

To capture dusty particles after pneumatic transport systems and from the aspiration system of technological machines, a two-section multi-cyclone unit is used.

To improve the cleaning of dusty air, in practice, instead of a conical cyclone, a cylindrical cyclone of the VZP-1200 brand, six cubic meters, is used:

Fig. 5. *The structure of a cylindrical cyclone.*

Scientific and practical research has shown that in the cylindrical cyclone VZP-1200, the air cleaning effect reached 95-96%, only this cyclone had to be reconstructed. Scientific and practical research was conducted in Namangan and Samarkand. In practice, with coarse cleaning, dusty air is cleaned from dust larger than 100 μ, the air dustiness after such cleaning can be more than 150 mg/m3. With an average cleaning of 10 μ and above, the air dustiness after cleaning should not exceed 150 mg/m3. With fine cleaning, dust smaller than 10 μ is captured, and the residual air dustiness should not exceed 2-3 mg/m3.

Conclusions:

1. The current state of dust removal in cotton ginning and textile enterprises has been thoroughly studied.
2. The state of existing cyclones has been studied, as well as the dependence of the dust-holding effect of a cyclone on the size of dust particles.
3. The shortcomings of the existing three- and six-cubic cyclones have also been studied.
4. A project has been proposed to improve the cleaning of dusty air in a cylindrical cyclone of the VZP-1200 brand.

List of references:

1. Отамирзаев А.А. *Инновационные решения по обеспыливанию хлопкоочистительных предприятий.* // Интернаука: электрон. научн. журн. 2023. № 44(314). URL: https://internauka.org/journal/science/internauka/314 (дата обращения: 02.07.2024).
2. Otamirzaev A. VACUUM CLEANING SYSTEM IN COTTON CLEANING FIELD IMPROVEMENT MEASURES // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2024. 12(129). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/19021 (дата обращения: 05.01.2025). **DOI - 10.32743/UniTech.2024.129.12.19021**
3. Р.К. Абдуллаев, Б.Т. Алиев, Ж.Б. Мамаджонов. *Анализ результатов исследований по международным стандартам.* Universum: технические науки №4 (109), апрель, 2023 г Стр 40-44. https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-rezultatov-issledovaniy-po-mezhdunarodnym-standartam
4. Р.К. Абдуллаев, Б.Т. Алиев, Ж.Б. Мамаджонов. *Влияние эффективности сушки, очистки и джинорования хлопка сырца на качество волокна*. Universum: технические науки №4 (109), апрель, 2023 г Стр 44-47. https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-effektivnosti-sushki-ochistki-i-dzhinirovaniya-hlopka-syrtsa-na-kachestvo-volokna
5. G. J. Jabborov, T. U. Otametov, A. Kh. Hamidov. Seed cotton processing technology. Tashkent «O‘qituvchi» 1987. Pages 128-146.
6. R.K. Abdullayev, B.T. Aliyev, J.B. Mamadjonov. *Technological loss of raw materials in cotton textile cluster and measures for their dramatic reduction*. Tashkent State Technical University named Islam Karimov. International Scientific Technology and Innovation Journal. 2023, Special edition, pages 20-26
7. B.T. Aliyev, J.B. Mamadjonov. *Paxtani dastlabki quritish va tozalash kompleksini yaratish.* Namangan muhandislik-qurilish instituti. Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali. 2023 yil № 2 Maxsus son. 274-280 betlar.
8. Р.К. Абдуллаев, Б.Т. Алиев, Ж.Б. Мамаджонов. *Инновационная разработка по джинированию хлопка-сырца*. Namangan muhandislik-qurilish instituti. Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali. 2023 yil № 4 Maxsus son. 229-235 betlar.

9. R.K.Abdullaev, R.M.Muradov, B.T.Aliyev. *Paxta chiqindilari tarkibidagi yigiruvga yaroqli tolalarni ajratish qurilmasi.* Buxoro muhandislik-texnologiya instituti. “Ilmiy tadqiqot va kadrlar tayyorlash tizimida innovatsion hamkorlikni rivojlantirishning muammolari va istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Buxoro, 24-25 noyabr 2017 yil, 102-105 bet.

10. ВЛИЯНИЕ МЕХАНИЧЕСКИХ ВОЗДЕЙСТВИЙ НА КАЧЕСТВА ХЛОПКОВОГО ВОЛОКНА И МЕРЫ ПО ИХ СНИЖЕНИЮ // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. Усманов Х.С. [и др.]. 2024. 7(124). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/17904 (дата обращения: 05.01.2025).

DOI - 10.32743/UniTech.2024.124.7.17904

REFLEKSIV QOBILIYAT- BO‘LAJAK TARBIYACHILAR KASBIY FAOLIYATINING MUHIM OMILI SIFATIDA

O‘zbekiston. Omonova Nuriya Shuhrat qizi
NavDU Registrator offisi menejeri

Annotatsiya. Ushbu maqolada refleksiya bo‘lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatida muhim shakl va metodlari yoritilgan. Bugungi kunda ta’limning strategik muhim masalalaridan biri refleksiv yondashuvlar asosida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini shakllantirish. Refleksiya bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida, ta’limning an’anaviy shakllari va usullari bilan bir qatorda (suhbatlar, kuzatuvlar, adabiyotlarni o‘qish, ko‘rib chiqish, tashkil etilgan ta’lim faoliyati, amaliy faoliyat) innovatsion shakl va usullarni yordamida dolzarb muammo maqolada ko‘rsatilib, shu bo‘yicha fikr, g‘oyalar bildirildi va ularga aniq tahlillar keltirildi. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalaridagi faol innovatsion jarayonlar pedagogik faoliyatning o‘rnatilgan nazariy va amaliy asoslarini tanqidiy qayta baholash bir tomondan, uni amalga oshirilayotgan faoliyatdan xabardor bo‘lishga imkon beradi, boshqa tomondan, ushbu faoliyatni tartibga solish vositalaridan (muvaffaqiyatli natijaga olib keladigan harakatlar va jarayonlar tizimi) mohirona foydalanishga imkon beradi. Shuni yana bir bor ta’kidlash lozimki, refleksiya kontseptual bilim va mutaxassisning shaxsiy tajribasi o‘rtasidagi eng muhim, hal qiluvchi bo‘g‘inga aylanadi. Refleksiyani o‘rganmasdan, kontseptual g‘oyalar shakllanadigan professional bilimlar, go‘yo ongda yetarlicha shakllanmaydi va bu harakatga bevosita rahbarlik qilishiga imkon bermaydi.

Kalit so‘zlar: refleksiya, kontseptual bilim, modernizatsiya, usullar, kognitiv, ta’lim, tarbiyachi.

Аннотация. В данной статье освещаются важные формы и методы рефлексии в профессиональной деятельности будущего воспитателя. Сегодня одним из стратегически важных вопросов воспитания является формирование профессиональной деятельности будущих воспитателей на основе рефлексивных подходов. Рефлексия в профессиональной деятельности будущих воспитателей наряду с традиционными формами и методами обучения (беседы, наблюдения, чтение, рецензирование литературы, организованная учебная деятельность, практическая деятельность) с помощью инновационных форм и методов в статье излагается актуальная проблема, излагаются мнения, идеи по ней и дается конкретный анализ. Активные инновационные процессы в социально-политической и экономической сферах общества критическая переоценка устоявшихся теоретических и практических основ педагогической деятельности позволяет, с одной стороны, осознавать осуществляемую деятельность, а с другой-умело использовать средства регулирования этой деятельности (систему действий и процессов, приводящих к успешному результату). Следует еще раз подчеркнуть, что рефлексия становится важнейшим, решающим звеном между понятийным знанием и личным опытом специалиста. Без изучения рефлексии профессиональное знание, в котором формируются концептуальные идеи, как бы недостаточно формируется в уме и не позволяет ему непосредственно руководить действием.

Ключевые слова: Рефлексия, концептуальное знание, модернизация, методы, познавательный, образовательный, педагогический.

Annotation. This article covers important forms and methods of reflection in the professional activities of the future educator. One of the strategically important issues of education today is the formation of professional activities of future educators on the basis of reflexive approaches. Reflection in the professional activities of future educators, in addition to traditional forms and methods of Education (conversations, observations, reading literature, review, organized educational activities, practical activities), an urgent problem with the help of innovative forms and methods was presented in the article, on which opinions, ideas were expressed and specific analyzes were brought to them. Active innovative processes in the socio-political and economic spheres of society, a critical reevaluation of the established theoretical and practical foundations of pedagogical activity, on the one hand, makes it possible to be aware of the activities being carried out, on the other hand, skillfully use the means of regulating these activities (a system of actions and processes leading to a successful It should be noted again that reflection becomes the most important, decisive link between conceptual knowledge and the personal experience of a specialist. Professional knowledge, in which conceptual ideas are formed without studying reflection, is, as it were, insufficiently formed in the mind and does not allow it to directly lead the movement.

Keywords: Keflection, conceptual knowledge, modernization, methods, cognition, education, educator.

Zamonaviy pedagogik ta’limning yetakchi maqsadlaridan biri kelajakdagi bo‘lajak tarbiyachilarning butun hayoti davomida o‘rganish istagi va qobiliyatini rivojlantirish, oliy o‘quv yurtida o‘qitish jarayonida olingan kasbiy bilim va ko‘nikmalarni tizimli ravishda to‘ldirish va boyitishdir. O‘zini takomillashtirish zarurati sifatida kognitiv qobiliyati tarbiyachilik faoliyatini asosi hisoblanadi. Tarbiyachi o‘ziga, ichki dunyosiga murojaat qilishi, o‘z harakatlarining sabablarini tushunishi lozim. Tarbiyachi uchun o‘zini o‘zi bilish va o‘zini pedagogik faoliyat sub'ekti sifatida, agar u mavzuda shakllangan refleksiv ko‘nikmalarga ega bo‘lsagina, jarayoni to‘g‘ri tahlil qila oladi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida ichki aqliy harakatlar va holatlar sub'ekti tomonidan o‘zini o‘zi bilish jarayoni sifatida refleksiv muammosi dolzarb masalalardan biri bo‘lganligi sababli chuqur tushunish va rivojlanishni talab qiladi. Ko‘pgina tadqiqotlarda refleksiya zarurligini isbotladi, zamonaviy tadqiqotlar uning ichki tabiat, tuzilishi, rivojlanish imkoniyatlarini tushunishga bag‘ishlangan bo‘lib, xususiyatlarini o‘rganish turli darajalarda (nazariy, uslubiy, amaliy) olib borish, shu bilan birga uning turli toifadagi mutaxassislarida namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Kasbiy faoliyatning turli sohalarida refleksiya mutaxassis sifatida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tarbiyachi o‘z faoliyati davomida talabalar, ota-onalar, hamkasblari bilan doimiy uzviylik asosida munosabatda bo‘ladi, shuning uchun uning refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish talabalar, ota-onalar xatti-harakatlarini, ularning shaxslararo o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishi, ziddiyatli aloqalarni tuzatishga va boshqalarga ta’sir qiladi. (N.G.Alekseyev, A.B.Karpov, V.N.Myasishchev, V.V.Ponomareva, S.L.Rubinshteyn, G.P. Shchedrovitskiy, B.D. Elkonin). Tarbiyachiningrefleksiv qobiliyatga ega bo‘lishi, bir tomondan, unga amalga oshirilayotgan faoliyatdan xabardor bo‘lishga imkon beradi, boshqa tomondan, ushbu faoliyatni tartibga solish vositalaridan (muvaffaqiyatli natijaga olib keladigan harakatlar va jarayonlar tizimi) mohirona foydalanishga imkon beradi. Bunday ikki tomonlama refleksiv jarayoni zamonaviy tarbiyachi uchun pedagogik faoliyatning haqiqiy sub'ekti sifatida harakat qilish uchun zarurdir. Refleksiya - bu nafaqat o‘zingizga va harakatlaringizga alohida baho berish, balki boshqa odamlar sizni qanday qabul qilishini tushunish qobiliyatidir. Pedagogik faoliyatning bir turi sifatida refleksiv tahlil o‘zini ham, u tomonidan tashkil etilgan pedagogik jarayonni ham ongli ravishda takomillashtirishga imkon beradi. Refleksiya bo‘lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatida muhim sifati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ta’limini modernizatsiya qilish kontseptsiyasiga va «ta’lim» ustuvor milliy loyihasiga

muvofiq, o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashga alohida talablar qo‘yadi. Talabalar, ota-onalar xatti-harakatlarini, ularning shaxslararo o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishi, ziddiyatli aloqalarni tuzatishga va boshqalarga ta’sir qiladi. (N.G. Alekseyev, A.B. Karpov, V.N. Myasishchev, V.V. Ponomareva, S.L. Rubinshteyn, G.P. Shchedrovitskiy, B.D. Elkonin).

Tarbiyachining refleksiv qobiliyatga ega bo‘lishi, bir tomondan, unga amalga oshirilayotgan faoliyatdan xabardor bo‘lishga imkon beradi, boshqa tomondan, ushbu faoliyatni tartibga solish vositalaridan (muvaffaqiyatli natijaga olib keladigan harakatlar va jarayonlar tizimi) mohirona foydalanishga imkon beradi. Bunday ikki tomonlama refleksiv jarayoni zamonaviy tarbiyachi uchun pedagogik faoliyatning haqiqiy sub'ekti sifatida harakat qilish uchun zarurdir. Refleksiya - bu nafaqat o‘zingizga va harakatlaringizga alohida baho berish, balki boshqa odamlar sizni qanday qabul qilishini tushunish qobiliyatidir. Pedagogik faoliyatning bir turi sifatida refleksiv tahlil o‘zini ham, u tomonidan tashkil etilgan pedagogik jarayonni ham ongli ravishda takomillashtirishga imkon beradi. Refleksiya bo‘lajak Tarbiyachiningkasbiy faoliyatida muhim sifati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ta’limini modernizatsiya qilish kontseptsiyasiga va «ta’lim» ustuvor milliy loyihasiga muvofiq, tarbiyachilarni kasbiy tayyorlashga alohida talablar qo‘yadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637 sonli qonuniga, O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirishning, ta’lim tizimi, turlari va shakllari dasturiga muvofiq, zamonaviy ta’limning maqsadi o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsni rivojlantirishdir. Ta’lim mazmuni o‘zini takomillashtirish, shaxsning o‘zini o‘zi anglashi, o‘zini o‘zi anglash uchun sharoit yaratishga qaratilgan, sub'ekti sifatidagi o‘quv jarayoni. Ushbu maqsadli o‘rnatish bilan bog‘liq holda, tarbiyachi ikki tomonlama vazifaga duch keladi: bir tomondan, o‘zini takomillashtirish sifatiga ega bo‘lish, boshqa tomondan, talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdir. “Refleksiya” tushunchasining nazariy rivojlanishi falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarda keltirilgan holatini ko‘rib chiqamiz. Falsafiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqilganda, refleksiya aqliy mulohaza vazifasini bajaradi va psixologik faoliyatini kuzatish jarayoni kamayadi. G. Leybnits refleksiya bilimni yuqori manbai deb ataydi. Bilim bu mavhumlik va umumlashtirish natijasidir. “Menimcha, - deb yozgan u, — his-tuyg‘ular bizni aqlning yordamisiz hissiy narsalarning mavjudligiga ishontira olmaydi. Shuning uchun men borliq g‘oyasi refleksiyadan kelib chiqadi deb o‘ylayman” deydi o‘z asarlarida.

Refleksiv fikrlash asoslari, yaratuvchi tushuncha va tasvirlar sifatida I.Kant qo‘ygan va uning nuqtai nazariga ko‘ra, modellashtirish boshlang‘ich material mavjud bo‘lganda sodir bo‘ladi. Uning asarlarida refleksiya epistemologik shaklga ega bo‘lib, bilish shakli sifatida qaraldi. “Sof aqlni tanqid qilish”da ong refleksiv manbai sifatida qaraladi: “barcha hukmlar va hatto taqqoslashlar, - deb yozgan I.Kant, - refleksiyani talab qiladi, ya’ni ushbu tushunchalarga tegishli bo‘lgan bilish qobiliyatini farqlash”ga yo‘naltiradi. Olimlar fikriga ko‘ra, refleksiya insonda u faol, qat’iyatli, sinchkovlik bilan ko‘rib chiqilgan e'tiqodga yoki ular asos bo‘lgan asoslarni hisobga olgan holda bilim yig‘indisiga ega va o‘z xulosalarini ishlab chiqa oladilar. Ilmiy tadqiqotlarda “refleksiya” atamasini talqin qilishda noaniqlikni keltirib chiqaradi, uning ta’sir mexanizmining universalligi bilan izohlanadi, bu teskari aloqa printsipiga asoslanadi. Ushbu tamoyil shaxsning o‘zini o‘zi boshqarishning turli darajalarida namoyon bo‘ladi: neyrofiziologikdan shaxsiygacha, bu yerda u tartibga soluvchi va konstruktiv funktsiyalarni bajaradigan va insonning ma’naviy dunyosining yaxlitligi va rivojlanishini ta’minlaydigan o‘z-o‘zini anglashning refleksiv jarayonlari bilan ifodalanadi. Zamonaviy falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarda biz refleksiyaning turli xil shakllari, turlari, jihatlari haqida gapiramiz. Biz pedagogik sohadagi refleksiv ko‘nikmalarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, tarbiyachida sodir bo‘ladigan refleksiv jarayonlar “qo‘zg‘atadi”, uning asosini fikrlash, aloqa va shaxsning o‘zini anglash holatlaridir. Refleksiv yondashuv, ayniqsa,

nazariy asoslar hali yetarlicha ishlab chiqilmagan yoki mavjud tushunchalar juda ziddiyatli bo‘lgan kasblar uchun dolzarbdir. Texnologiya, bunday sohalarda bilimlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish, ularning noaniqligi va nomuvofiqligi, shuningdek, professional vaziyatlarning oldindan aytib bo‘lmaydigan, noaniq tabiati tufayli samarasizdir. Bunday vaziyatda amaliyotchi mutaxassis nafaqat muammoni hal qilish vositalarini izlashi, balki yechimga ma’lum bir yondashuvni tanlashi yoki o‘z tajribasiga tayanib, o‘ziga xosligini yaratishi kerak. Ko‘p jihatdan, bu muammolar, bizning fikrimizcha, inson faoliyati yani u tanlagan kasblari uchun xosdir, ularning o‘ziga xos xususiyati faoliyatni har qanday texnologik tartibga solishni qiyinlashtiradigan boy psixologik fandir. Refleksiya mutaxassisning amaliy tajribasini, mavjud nazariy bilimlarini va tadqiqot yondashuvini birlashtirish qobiliyati sifatida noaniq amaliy muammolarni maqbul yechimini topish uchun mutaxassisning yuqori ijodiy intellektining namoyon bo‘lish ko‘rsatkichiga aylanadi. Ongning refleksiv xususiyatlari ko‘plab kasblarning psixogrammasining zarur tarkibiy qismidir, ayniqsa shaxslararo munosabatlar va birgalikdagi faoliyat sohasiga tegishlidir. Refleksiyaning rivojlanish darajasi yuqori mahorat va professionallik sub'ektiga erishishning hal qiluvchi omiliga aylanadi. Bu Tarbiyachiningkasbiy faoliyatdan to‘liq qo‘llaniladi. Tarbiyachi o‘z bilimlari, amaliy tajriba va differensial ta'lim yondashuvlarini qo‘llash usullarini targ‘ib qilishi, ishdagi hamkasblarining tajribasini o‘zlashtirish orqali haqiqiy professionalga aylanadi. Faqatgina kutilmagan, g‘alati, hayratlanarli voqealarga javoban o‘zining professional dunyosini doimiy ravishda qayta qurishga qodir bo‘lgan. Tadqiqotchi bo‘lib, tarbiyachi professional mahoratga ega bo‘ladi. Integratsiya qilish qobiliyati, ongning refleksiv xususiyatlariga asoslangan haqiqiy amaliy faoliyatga tadqiqot yondashuvini qo‘llash tarbiyachining kasbiy mahoratini aniqlashda mezon sifatida qaralishi mumkin. Tarbiyachi faoliyatida refleksiyaning ahamiyati haqiqatan ham juda katta va xilma xildir. L.N. Kulikovaning so‘zlariga ko‘ra, refleksiv jarayonlar“ tarbiyachining kasbiy faoliyatiga tom ma’noda kirib boradi”, ular talabalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zaro ta’sir qilish sharoitida, ularning o‘quv faoliyatini loyihalash va qurish jarayonida, o‘z faoliyatini introspektsiya va o‘zini o‘zi baholash bosqichida, o‘zini ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi sub'ekt sifatida namoyon qiladi. Tarbiyachining o‘z faoliyatiga refleksiv munosabati zarurati ko‘plab omillarda aks ettirishning ko‘p funktsionalligi bilan belgilanadi. Refleksiya tarbiyachining o‘zaro o‘quv jarayoniga ta’sirini tashkil etishning asosiy psixologik mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi, uni tarbiyachining talabalar faoliyatini refleksiv boshqarish jarayoni deb ta’riflash mumkin. Bunday refleksiv boshqaruv muayyan sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin: agar bir tomondan tarbiyachi talabaning ichki dunyosini tasvirlay olishi, uning umidlari, ehtiyojlari, qiziqishlarini tushunsa, tashvishlari, muammolari, quvonchlari va muvaffaqiyatlarini baham ko‘rsa va boshqa tomondan, u talaba faoliyatini shu nuqtai nazardan tartibga solishga harakat qilsa talabaning o‘zi, uning rivojlanish nuqtai nazaridan, boshqa odamlar bilan faol o‘zaro ta’sir o‘tkazishi va o‘zini o‘zi boshqarishning shaxsiy mexanizmlarini rivojlantirish jarayonidir. Bizning fikrimizcha, refleksiya tarbiyachining shaxsiyatining muhim kasbiy ahamiyatli sifatida qaralishi mumkin, bu empatiya va dinamizm bilan bir qatorda uning kasbiy tayyorgarligi darajasini belgilaydi. Bu mutaxassisning o‘z faoliyatining xilma-xil jihatlariga nisbatan amalga oshirilayotgan harakatlarining mumkin bo‘lgan va real natijalarini bashorat qilish, ongida yo‘qotish va yetarli darajada baholash qobiliyati sifatida ishlaydi. Pedagogik vaziyat tarbiyachidan yetarli darajada javobgarlikni talab qiladi. Shuning uchun tarbiyachi pedagogik (ijtimoiy) vaziyatni tahlil qilishi va natijalarni batafsil tahlil qila olishi lozim. Refleksiya tarbiyachining ijtimoiy idrok etish qobiliyatining tarkibiy qismi sifatida qabul qilishi mumkin, bu tarbiyachining o‘z talabalarini yetarli darajada idrok etish jarayonini ta’minlaydi va ular orqali o‘zini kommunikativ san'atning ajralmas qismi, Tarbiyachiningkommunikativ mahorati sifatida aks ettiradi. Ta’kidlash mumkinki, refleksiya -bu fikrlashning o‘ziga, o‘z jarayonlariga va o‘z mahsulotlariga yo‘naltirilganligi, bu “fikrlashda fikrlash”, o‘z bilimlarini o‘zlashtirish “qobiliyatidir”, - deydi S.L. Rubinshteyn. Refleksiya - bu insonning umumiy qobiliyati, haqiqiy insoniy hayot tarzining o‘ziga xos va asosiy mexanizmi, o‘z-o‘zini tadqiq qilish, o‘z-o‘zini loyihalash, o‘zini qurish faoliyati. Psixologiyada ham ushbu kontseptsiyaning aniq talqini yo‘q. Refleksiya psixologiyasi bo‘yicha tadqiqotlarni tahlil qilish bugungi kunda uni tushunishda bir nechta muhim jihatlarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Kontseptsiyaning nazariy rivojlanishi B.G.Ananyev, P.P.Blonskiy, L.S. Vygotskiy, S.L. Rubinshteynning asarlarida, ular inson psixikasini tashkil etish va rivojlantirish uchun asoslardan biri sifatida asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan refleksiyani aniqladilar, birinchi navbatda uning yuqori shakli o‘z-o‘zini anglashdir deb hisoblaydilar. Psixologiyada refleksiyani o‘rganish uchun nazariy shartlari S.L. Rubinshteyn tomonidan o‘tgan asrning 30-40-yillarida qo‘yilgan. Inson mavjudligining ikkita asosiy usulini va shunga mos ravishda uning hayotga bo‘lgan ikki munosabatini tavsiflab, u mavjudlikning birinchi usulida inson butun hayoti davomida, uning har qanday munosabati individual hodisalarga nisbatan munosabatlari qaratilgan, ammo hayotga emas. Umuman hayotga bunday munosabatning yo‘qligi, inson hayotidan o‘chmaganligi, uning ustida mulohaza yuritish uchun uning tashqarisida aqliy pozitsiyani egallay olmasligi bilan bog‘liq. Bu yerda tashqi refleksiya ko‘nikmalari ongning muhim shakllari orqali “men” ga singib ketadi. Ikkinchisi, mavjudlik usuli aks ettirishning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. U hayotning ushbu uzluksiz jarayonini to‘xtatib qo‘yadi, to‘xtatadi va odamni aqliy ravishda uning chegaralaridan tashqariga olib chiqadi, go‘yo odam undan tashqarida o‘z holatini ega laydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar uziladi va yangi refleksiya asosda tiklanadi. Bu erda refleksiv “o‘z ongini anglash” dir. Shunday qilib, S.L.Rubinshteyn uchun refleksiya va uning imkoniyati inson ongining ma’lum bir rivojlanish darajasiga bog‘liq. S. L.Rubinshteynning so‘zlariga ko‘ra, aks ettirishning eng muhim vazifasi “sub'ektning amalga oshirilayotgan faoliyatga ongli munosabatini” ta’minlash funktsiyasidir. Refleksiyaning 4 rivojlanish darajasi sub'ektning professionallikka erishishining hal qiluvchi, muhim omiliga aylanadi. Refleksiya kontseptual bilim va mutaxassisning shaxsiy tajribasi o‘rtasidagi eng muhim, hal qiluvchi bo‘g‘inga aylanadi. Refleksiyani o‘rganmasdan, kontseptual g‘oyalar shakllanadigan professional bilimlar, go‘yo ongda yetarlicha shakllanmaydi va bu harakatga bevosita rahbarlik qilishiga imkon bermaydi. Pedagogik faoliyatda refleksiya - bu har qanday kasbiy muammoni, kasbiy qiyinchilikni yoki muvaffaqiyatni aqliy - dastlabki yoki retrospektiv tahlil qilish jarayoni, natijada muammo yoki qiyinchilikning mohiyatini anglash, ularni hal qilishning yangi istiqbollari tug‘iladi. Tarbiyachi har kimning vaziyatdagi holatini aniqlash va baholash uchun aqliy harakatni amalga oshiradi va muhimi, o‘zining aqliy faoliyati asoslarini qanday ta’kidlashni biladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Norboevna, R. N. (2021, April). IMPROVING THE MEMBERSHIP SYSTEM IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. In Archive of Conferences (Vol. 20, No. 1, pp. 97-98).

2. Ravshanova, N. N. (2020). THE PRINCIPLE OF CONTINUITY IN ENVIRONMENTAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. Scientific Buletin of Namangan State University, 2(6), 369-374.

3. Nigmatov, A. N., & Ravshanova, N. N. (2020). Scientific Preschool Environmental Education and Training Research Methodology. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(08), 23-31.

4. Ravshanova, N. N. (2023). Designing Modern Models of Biological Education Theories and Content in Educators. Telematique, 22(01), 3034-3040.

5. Norboevna, R. N., Avezberdiyeva, N., Ne'matulayeva, O., Abdulayeva, N., & Abduraxmonova, S. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI EKOLOGIK BILIMLARNI O ‘ZLASHTIRISHDA FANLAR UZVIYLIGI. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(12).

6. Ravshanova, N. N., & Norqulova, L. S. Q. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI EKOLOGIK TARBIYALASHDA IJTIMOIY ZARURIYAT SIFATIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(11), 685 692.

NUTQDAGI KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH CHORALARI

O‘zbekiston. Haqnazarova Rayhona Sa’dilloyevna
Navoiy viloyati Nurota tumani MMTB ga qarashli
2-umumta’lim maktabi ona tili adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang’ich sinf maktab yoshidagi bolalarning nutq kamchiligidagi muammolari va ularni bartaraf etishda qo‘llaniladigan chora-tadbirlarning turlari. Disleksiya va uni oldini olish, korreksiyalashning ahamiyati. Bugungi kunda korreksiyalashda oila va o‘qituvchining bola hayotidagi o‘rni va ahamiyati orqali uni bartaraf etish usullari va metodlari.

Аннотация: Проблемы речевого дефицита детей младшего школьного возраста и виды мер, применяемых при его устранении. Дислексия и важность профилактики и коррекции. Сегодня методы и способы устранения коррекции определяются ролью и значением семьи и педагога в жизни ребенка.

Annotation: Problems of speech deficiency of children of primary school age and types of measures used in their elimination. Dyslexia and the importance of prevention and correction. Today, the methods and methods of eliminating correction through the role and importance of the family and the teacher in the child's life.

Kalit so‘zlar: nutq, talaffuz, logopediya, disleksiya, harf va so‘z, o‘qish, korreksiyalash, muhit, jarayon, maqsad.

Ключевые слова: речь, произношение, логопед, дислексия, буква и слово, чтение, коррекция, среда, процесс, цель.

Key words: speech, pronunciation, speech therapist, dyslexia, letter and word, reading, correction, environment, process, goal.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalanishiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bola har tomonlama yetuk bo‘lib voyaga yetishida albatta nutqi ravon bo‘lishi, o‘z fikrini erkin bayon eta olishi muhim sanaladi. Ba‘zi hollarda shunday holatlar bo‘ladiki bolalar nutqida turli xil nutq nuqsonlari uchrashi mumkin. Nutq nuqsonlarni bartaraf etishda logopediya yordam beradi. Logopediya — nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta‘lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o‘rganish, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fandir.

Logopediyaning predmeti — nutqida nuqsoni bo‘lgan shaxslarni o‘qitish va tarbiyalashning qonuniyatlarini o‘rganish. Maqsad — nutqida nuqsoni bo‘lgan shaxslarni o‘qitish,tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish, shuningdek nutq nuqsonining oldini olishdan iborat[1]. Nutq buzilishlari turlicha bo‘lib, yengil, o‘rta, og’ir va juda og’ir darajalarga bo‘linadi. Nutqning fonetik – fonematik tomondan rivojlanmaganligi — bu tovushlarni talaffuz etish va idrok qilish jarayonidagi kamchiliklar natijasida bolalarda ona tilidagi tovushlarni talaffuz qilish tizimi shakllanishining buzilishidir[2]. Bu logopediyada disleksiya deb yuritiladi.

Disleksiya – bu o‘qish jarayonining qisman buzilishi bo‘lib, bunda bola ayrim harflar va so‘zlarni adashtirib qo‘yishi yoki umuman esdan chiqarishi natijasida bo‘g’inlarni qo‘shib o‘qish, bo‘g’inlardan so‘z tuzish borasida kamchiliklar bilan tavsiflanadi[3].

Disleksiya grekcha ―dis-buzilish, lego-o‘qiyman disleksiyaning belgilari:

* almashtirib o‘qish;

* harflarni bo‘g’inlarga biriktira olmaslik,harf va bo‘g’nlarni qayta-qayta takrorlash, tushirib ketish,o‘rnini almashtirish natijasida ma‘noni tushuninmay, noto‘g’ri sekin o‘qish;

* so‘z qismlarini, bo‘g’inlari, qo‘shimchalarni boshqa harf, bo‘g’in yoki so‘zlar bilan almashtirish;

* tinish belgilari, pauzalarga rioya qilmaslik, so‘z o‘rtasida to‘xtab,pauzalar qilib, birinchi so‘zning ikkinchi qismini keyingi so‘zning birinchi qismi bilan o‘qib ketish[4].

Bu asosan savodga o‘rgatish davrida ko‘p uchraydigan holatlardan biri bo‘lib, bunday kamchiliklar asosan o‘qishga o‘rgatish davrida aniqlanadi va bartaraf etiladi. Bundan tashqari bolalarda so‘z boyligining kamligi, tafakkur, xotiraning pastligi va ruhiy zo‘riqish, oiladagi salbiy muhit, e‘tiborsizlik natijasi ham nutqdagi buzilishlarga sabab bo‘ladi.Ota-ona har doim ham bolaga o‘zining muammolarini ochiqchasiga ko‘rsatishi, bir-biriga baqirib urishishi ham bolaga salbiy

ta‘sir ko‘rsatadi. Ba‘zi hollarda esa ortiqcha erkalash ham nutq buzilishiga sabab bo‘ladi. Ya‘ni oiladagi muhitda bolaga so‘z o‘rgatish jarayonida erkalab uning tilida so‘zlarni talaffuz qilish ham boladagi nutq nuqsoning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi va ushbu jarayonda bola tilini korreksiyalash zarurati tug’iladi.

Tuzatuvchi ta‘limning maqsadi: bolalarda umumiy va nutq kamchiliklarini tuzatish hamda bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus logopedik metod va usullarni qo‘llash yo‘li bilan bolaning yoshiga muvofiq lug’at boyligi va mustaqil nutq bilan birga to‘g’ri, aniq, ravon nutqni tarbiyalashdan iborat[5] bo‘lib, ushbu jarayonda ota – ona va tarbiyalovchi o‘qituvchining hamkorligi katta ahamiyat kasb etadi. Bola bilan har ikkala taraf birgalikda shug’ullansa nuqsonni bartaraf etish shunchalik oson kechadi. Bolalar nutqini o‘stirish uchun har kunlik ishlatiladigan so‘zlardan foydalangan holda shu so‘zlarni yozib o‘qitish maqsadga muvofiq sanaladi. Og’zaki nutqni rivojlantirish orqali bolada o‘z fikrini bayon etishini ham rivojlantirishimiz mumkin. Tilimizda so‘zlar va ularning bir-biriga o‘xshash ma‘noli turlari juda ko‘p. Shulardan o‘rinli foydalangan holda bola nutqini yana boyitib rivojlantirishimiz mumkin. Shuni ta‘kidlash lozimki, tarbiya jarayoniga alohida yondashgan holda bolaning nafaqat nutqi balki uning fikrlashiga ham e‘tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tarbiya murakkab va uzoq davom etadigan jarayon, shuning uchun tarbiyalanuvchilar bilan alohida ishlagan holda ularning fikrlashi, dunyoqarashiga bog’liq holda tarbiyalash o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Dars davomida o‘qituvchi turli xil metodlardan foydalangan ularda yozma va og’zaki nutqni rivojlantirishi mumkin. Masalan, “O‘qib ko‘r-chi” metodidan foydalangan holda harflarni to‘g’ri o‘qiy olish ko‘nikmalarini hosil qilamiz. Ushbu metodda o‘qituvchi o‘quvchilarga yozma va bosma harflar bilan katta-katta qilib yozilgan so‘zlarni ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘qiydi. Tez va to‘g’ri o‘qigan o‘quvchilar rag’batlantiriladi. Bunda o‘quvchilarda yozma va bosma yozuvni ham o‘qish texnikasi rivojlanadi. Bu o‘yinni Alifbe davrida ham qo‘llash mumkin[6].

Xulosa: Bola nutqini rivojlanmaganligini aniqlash va tuzatishda oiladagi muhit va tarbiyalovchi o‘qituvchining hamkorligi orqali nutqni o‘stirish, to‘g’irlash mumkin. Avvalo tarbiya jarayoniga to‘g’ri yondashgan holda bolaga so‘zlarni talaffuz orqali o‘rgatish lozim. Bunda turli xil o‘yin metodlari orqali o‘qitish bolaning xotirasida yaxshi saqlanib qolishga yordam beradi. Chunki bola ayni boshlang’ich sinfda o‘yinqaroq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Logopediya: darslik/ M.Y. Ayupova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. —560 bet.
2. Maxsus pedagogika (Darslik). —T.: «Fan va texnologiya», 2014,368 bet.
3. Boshlang’ich ta‘lim uchun didaktik materiallar / Sh. Nurullayeva, O. Xaydarova/. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: ―Innovatsiya-Ziyo,2022,96 b.
4. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet
5. M.U. Xamidova. Maxsus pedagogika/o‘quv qo‘llanma/. - Toshkent: ―N1F MSH‖, 2020, 164 bet.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YIN VA O‘YINCHOQLARNING O‘RNI

O‘zbekiston. Bozorova Zilola Mustafoyevna
Navoiy shahri 10-sonli “Ertakcha” nomli
DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya. Maqolada bolaning nutqining paydo bo‘lishi va rivojlanishining psixologik va ijtimoiy ahamiyati, nutqning kommunikativ faoliyat tarkibidagi roli va bolaning bilish faoliyatiga ta'siri o‘rganiladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning so‘z boyligini oshirish, tushunchalarni o‘zlashtirish, polisemiyani va semantik soyalarni tushunishdagi o‘yinning o‘rni tahlil qilinadi. O‘yinchoqlarning bolaning shaxsiyatini rivojlantirishdagi, atrof-olam bilan tanishtirishdagi, o‘zaro munosabatlarni o‘rganishdagi va borliq haqidagi bilimlarini boyitishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Nutq, kommunikativ faoliyat, bilish faoliyati, maktabgacha yosh, nutq rivojlanishi, so‘z boyligi, o‘yin, o‘yinchoq, shaxsiyat rivojlanishi, o‘zaro munosabatlar.

Abstract. The article explores the psychological and social significance of the emergence and development of speech in children, the role of speech in communicative activity, and its impact on the cognitive activity of the child. The role of play in enriching the vocabulary of preschool children, mastering concepts, understanding polysemy, and semantic nuances is analyzed. The importance of toys in the child's personality development, familiarization with the world around, learning interpersonal relationships, and enriching their knowledge of the world is considered.

Keywords: Speech, communicative activity, cognitive activity, preschool age, speech development, vocabulary, play, toy, personality development, interpersonal relationships.

Аннотация. В статье исследуются психологическая и социальная значимость возникновения и развития речи у детей, роль речи в коммуникативной деятельности и её влияние на познавательную деятельность ребенка. Анализируется роль игры в обогащении словарного запаса детей дошкольного возраста, усвоении понятий, понимании многозначности и семантических оттенков слов. Рассматривается значение игрушек в развитии личности ребенка, ознакомлении с окружающим миром, изучении межличностных отношений и обогащении их знаний о мироздании.

Ключевые слова: Речь, коммуникативная деятельность, познавательная деятельность, дошкольный возраст, развитие речи, словарный запас, игра, игрушка, развитие личности, межличностные отношения.

Kirish. Bolaning nutqining paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganish nafaqat psixologiya nuqtai nazaridan dolzarb, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Nutq kommunikativ faoliyat tarkibidagi tarkibiy element, bu esa o‘z navbatida bolaning bilish faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Aloqa va nutq orqali bola insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi xazinasidan ma'lumot olishni o‘rganadi. Maktabgacha yoshdagi og'zaki monologik nutqni rivojlantirish maktabda muvaffaqiyatli o‘qitish uchun asos yaratadi.

O‘yinning nutq rivojiga ta’siri. Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirish uchun asosiy o‘yin vazifalaridan biri bu bolaning so‘zlarini boyitish, tushunchalarni o‘zlashtirishda, ishlatilgan so‘zlarning polisemiyasini va ularning semantik soyalarini tushunishda. O‘yinlarda nutq faoliyati rivojlanadi, ona tiliga qiziqish va e'tibor tarbiyalanadi. Oyin bolani har tomonlama har jihatdan togri tarbiyalashga qaratilgan faoliyatdir. Oyin insonni barkamol avlod sifatida rivojlantiradi.

O‘yinchoqlarning roli. O‘yinchoq bu narsaning oziga xos predmeti bolib, bolani maqsadini bilib oladi va shu maqsadga yonaltirishga komaklashadi. Kopgina tadqiqodchi olimlar shuni isbotladiki, o‘yinchoqlar orqali bolalar kelajakda o‘zlari duch keladigan vaziyatlarga tushadi va ulardan qanday vaziyatlardan chiqishga o‘rgatadi. Bola oyinchoqlar bilan tanishish, oynash orqali ular atrof-olam bilan tanishadi. Bolalar ozlari orasida boladigan munosabatlari, bir-birlariga muomila madaniyatlari, ozlari orasida xuddi kattalardek gaplashishlarini xoxlashadi. Oyinchoqlar orqali bola sizga, atrofdagilarga nima demoqchiligini tushuntira oladi. Ular oyinchoqlar orqali borliq haqidagi bilimlarini boyitishadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘yin nazariyasini va o‘yinchoqlarning bolaning shaxsiyatini rivojlantirishdagi o‘rni haqida L.S.Vygotskiy, A.N.Leontiev, D.B.Elkoninlar samarali izlanishlar olib borgan. Buyuk rus olimi A. M. Gorkiy «O‘yinchoq, avvalambor bolani hayratda qoldiradi va bu tuygu tushunishning boshlanishidir». Oyinchoq bolani atrof-muhit bilan tanishtiradi, ularni orgatadi, taassurotlarini mustahkamlaydi va muloqotga bolgan ehtiyojni qondiradi.

O‘yinchoq bola tugilganidan to 3 yoshigacha bolgan davrda katta ahamiyatga ega. Chunki ular oynash davomida ozlarini ragbatlantiradi, o‘yin tashkil etish qonunqoidalarini organadi: qogirchoq bilan ular ona va qiz bolib oynashsa, raketa yoki moshina, samolyot bilan ular haydovchi rolini o‘ynashga kirishib ketadi. O‘yinchoqlar orqali o‘yin qay tarzda ketayotganini va nima maqsad borligini tushuntira oladi. Bola ota-onaga ichidagi his tuygularini o‘yin orqali yetkazib beradi. Bola o‘yin mazmuni o‘yinchoqqa bogliqligini bilib, uning ijodiy faoliyatini shakllantiradi. Bola oyinchoq

oynash orqali ozini dunyosini shakllantirib, yangi goyalar bilan ortoqlashadi va biz shu goyalarni rivojlanishiga yordam berishimiz kerak.

O‘yinchoqlar bolalar uchun eng kuchli tarbiyaviy tasirga ega, chunki hamma narsalar xilma-xilligi bilan tasvirlanadi. Hayvonlar, osimliklar, transportlar, turli xil asbob-anjomlar, har xil shakllar, hattoki, inson ozi ham qo‘g ‘irchoqlar sifatida oyinchoqqa aytantirilgan. O‘yinchoqlar bola hayotida ilk hayot tasavvurlarni shakllantirib, asta sekinlik bilan rivojlantiradi. Bola o‘yinchoq o‘ynab osha muhitga kirishadi. Misol qilib oladigan bo‘lsak bola shifokor qo‘g‘irchogini oynash vaqtida o‘zini shifokorday gaplarini gapirib, bemorlarga yordam berishga urinishadi. Bola ulgaygan sari oyinchoqlarni saralay boshlaydi. Ular o‘zlariga manfaat keltiruvchi yoki oyin payti bola nimani xohlayotganiga qarab oyinchoqni tanlaydi. O‘yinchoq bolani har tomonlama, nutqini, xotirasini, hissiyotlarini, fikrlashini rivojlantirib, shakllantiradi. N.K.Krupskaya “O‘yinchoqlar bolalarni atrofdagi haqiqiy dunyo bilan tanishtirish, ularning hissiyotlarini rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega”deb yozgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Oyinchoqlarga turli xil tasniflar mavjud bolib ular: Didaktik o‘yinchoq, ta'limiy o‘yinlar, teatr o‘yini, sport o‘yini va musiqiy o‘yinlarga ajratiladi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o‘yin va o‘yinchoqlarning o‘rni beqiyosdir. O‘yinlar orqali bola so‘z boyligini oshiradi, tushunchalarni o‘zlashtiradi, ona tiliga qiziqishi ortadi. O‘yinchoqlar esa bolani atrof-olam bilan tanishtiradi, shaxsiyatini rivojlantiradi, o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. -T.: 2016 y., 29-dekabr.
2. L.S.Vygotskiy. O‘yin va uning psixologik rivojlanishda tutgan o‘rni.
3. A.N.Leontiev. O‘yin psixologiyasi.
4. D.B.Elkonin. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi.
5. N.K.Krupskaya. Bolalarni tarbiyalashda o‘yinchoqlarning ahamiyati.

TARBIYANING ASOSI MAKTABDA EMAS, OILADA QO‘YILADI

O‘zbekiston. Xalikova Dildora Yadullayevna
Navoiy davlat universiteti
Sultonova Nigora Tilav qizi
Tillar fakulteti talabasi

Annotatsiya.Mazkur maqolada tarbiyaning boshlang‘ich bosqichi sifatida oilaning o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Axloqiy tarbiyaning ilk bosqichlari aynan oilada shakllanishi, ota-onaning shaxsiy namunasining farzand tarbiyasidagi ahamiyati va bu jarayonda milliy qadriyatlarning roli haqida batafsil fikr yuritiladi.

Annotation.This article deeply analyzes the primary role of the family in the early stages of moral upbringing. It discusses how values are initially shaped at home and how parental behavior and national traditions contribute to a child's development.

Аннотация.В данной статье подробно рассматривается основополагающая роль семьи в начальных этапах нравственного воспитания. Анализируется влияние личного примера родителей и национальных ценностей на формирование личности ребёнка.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda sog‘lom, bilimli va ma’naviy jihatdan yetuk avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Biroq bu yuksak maqsadga erishishda ta’lim muassasalarining o‘zi yetarli emas. Chunki inson tarbiyasining eng birinchi va eng muhim bosqichi – bu oila. Bola dunyoga kelganidan boshlab, u atrof-muhitni, axloqiy me’yor va qadriyatlarni eng avvalo oilada o‘rganadi.

Oila – Tarbiyaning Boshlanish Nuqtasi

Oila – har bir inson uchun birinchi ijtimoiy makon bo‘lib, unda bola o‘zini tutish, boshqalar bilan muomala qilish, yaxshi bilan yomonni ajratish kabi ko‘plab hayotiy ko‘nikmalarni egallaydi.

Ota-ona farzandining ilk ustozidir. Ular nafaqat bolaga g‘amxo‘rlik qiladi, balki unga axloqiy me’yorlarni ham o‘rgatadi. Ota-onaning kundalik xatti-harakati, nutqi va turmush tarzi bolaga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bola ota-onaning namunasi sifatida shakllanadi.

Maktab va uning tarbiyada tutgan o‘rni

Maktab – tarbiyaning muhim davomi. Bu yerda bola nafaqat bilim oladi, balki ijtimoiylashadi, yangi do‘stlar topadi, mustaqil fikrlash va jamoada yashashni o‘rganadi. Ammo maktabdagi tarbiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan bolaning oiladagi tayanchiga bog‘liq. Agar bola oilada ijobiy tarbiya olgan bo‘lsa, u maktabdagi tartib va qadriyatlarga moslashadi. Aks holda, bu jarayon murakkab kechadi. Shu sababli, maktab-oila hamkorligi bolani to‘laqonli tarbiyalashda muhim omildir.

Ota-onaning shaxsiy namunasi

Psixologlarning fikricha, bolalar ko‘proq eshitgan emas, ko‘rgan narsasini takrorlaydi. Ya’ni, bola ota-onaning amaliy harakatlarini o‘ziga namuna sifatida oladi. Ota-ona halol, adolatli, mehnatsevar va mehribon bo‘lsa, bola ham shu sifatlarni egallaydi. Aksincha, oilada zo‘ravonlik, befarqlik yoki betartiblik hukm sursa, bu bolaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ota-onalar har bir harakatida farzand tarbiyasini yodda tutishi kerak.

Milliy qadriyatlar va qarbiya

Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Vatanparvarlik, kattalarga hurmat, mehr-oqibat, halollik kabi xislatlar bola ongiga dastlab oilada singdiriladi. Bu qadriyatlar bolani nafaqat yaxshi inson, balki jamiyat uchun foydali shaxs bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qiladi. Shu bois, ota-onalar bolaga bu qadriyatlarni faqat so‘z bilan emas, balki amaliy namuna orqali ko‘rsatishlari lozim.

Xulosa.Tarbiyaning eng muhim poydevori oilada qo‘yiladi. Bu jarayon doimiy va uzluksiz bo‘lib, maktabda davom ettiriladi. Bola tarbiyasida oilaviy muhit, ota-onaning shaxsiy namuna ko‘rsatishi, milliy qadriyatlarga sodiqlik asosiy omillardir. Sog‘lom jamiyatni barpo etish uchun eng avvalo sog‘lom va ma’naviy jihatdan boy oilalarni shakllantirish zarur. Shundagina yosh avlod odobli, iymonli, bilimli va jamiyatga foydali shaxs bo‘lib voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov B. Oila psixologiyasi asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Yo‘ldosheva M. Bola tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar. Samarqand: Barkamol avlod,2022.
3. Qodirov Sh. Zamonaviy tarbiya tamoyillari. Buxoro: Ma’naviyat, 2023.
4. Karimova N. Oila sosiologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
5. Raxmonov I. Ota-ona va farzand munosabatlari. Navoiy: Yangi asr, 2023.

AHMAD DONISHNING “RISOLA YOXUD MANG‘ITLAR XONADONI SALTANATINING QISQACHA TARIXI” ASARIDA YOSH AVLODNI KELAJAK KASBLARIGA YO‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK TALQINI XUSUSIDA

O‘zbekiston. Jamolova Lubat Ilhomovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti
i.l.jamolova@buxdu.uz

Annotasiya: Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoroda ta’lim-tarbiyaning asosiy mezonlari, davlatni boshqarish masalalari, jadidlarning ilm-fanni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi hamda Ahmad Donishning “Risola yoxud mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi” asarining pedagogik tahlillardan ayrim qarashlar orqali xalq ma’naviyatiga qo‘shgan hissasi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Donishning “Navodir ul-vaqoye”, “Risola yoxud mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi” asarlaridagi mehnatsevarlik va xalq boshqaruvidagi siyosat, tarjimonlik, binokorlik va va dehqonchilik ishlari, kasb egallash, oqillarning mehnati, hunarmand, nonvoylar, haq va nohaqlik to‘g‘risida, davlat amaldorlar, dunyoviy ilmlar haqida.

Аннотация: В данной статье говорится об основных критериях образования в Бухаре во второй половине XIX века, вопросах государственного управления, вкладе современников в развитие науки, а также вкладе «Рисела или краткая история царства Мангитларской династии» Ахмада Дониша в духовность народа посредством педагогического анализа.

Ключевые слова: Произведения Дониша «Наводир уль-вакайе», «Рисола юхуд мангитлар ханадони султанати, краткая история» посвящены тяжелому труду и политике в управлении народом, переводческих, строительных и сельскохозяйственных работах, приобретении профессии, труде интеллектуалов, ремесленников, пекарей, добрых и неправых, государственных чиновников, мирских наук.

Abstract: This article discusses the main criteria for education in Bukhara in the second half of the 19th century, issues of state governance, the contribution of the Jadids to the development of science, and the contribution of Ahmad Donish's work «Risola or a Brief History of the Sultanate of the Mangids» to the spirituality of the people through some aspects of pedagogical analysis.

Keywords: Industriousness and politics in public administration, translation, construction and farming, occupation, work of the wise, artisans, bakers, about right and wrong, state officials, secular sciences in Donish's works «Navodir ul-Vaqoye» and «Risola or a brief history of the kingdom of Mangitlar».

Kirish. Darhaqiqat, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, — bugun hayotimizning o‘zi eng asosiy va kerakli maqsadi — inson manfaatlarini har tomonlama ta’minlash masalasi dolzarb vazifa bo‘lib xizmat qilmoqda. Inson manfaatlarini ta’minlash uchun esa avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, uning dardu-tashvishlari, orzuniyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak. “Ertaga kech bo‘ladi”. Bunday so‘zlar aslida ham oddiy bir so‘z emas. Odamni nihoyatda o‘ylantiradigan shuningdek, tashvishga soladigan savollardir. Agar biz bugungi kunimizda “o‘zbek”, “o‘zbekistonlik” degan nomlar bilan hamisha yashab qolishini istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugunoq javob topishimiz va ularni munosib ravishda hal qilmog‘imiz lozimdir. Aks holda o‘tmish allomalarimiz orzu qilgan bugungi tinchligimizni saqlab qolishga, musaffo havodan simirib nafas olishimizga bugun kech bo‘lishi mumkin. Shavkat Mirziyoyev ziyolilarni tinchlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashda yanada faol bo‘lishga, ma’naviy fazilatlari bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Buxoro amirligi iqtisodiy jihatdan qoloq bo‘lib mazkur tuzumga va siyosatga qarshi chiqqanlarni zindon kutar edi. Buxoro amirligida zulm yuqori darajada bo‘lganligi uchun ko‘pgina fuqarolar oilalari bilan Buxorodan qochib ketishga majbur bo‘lganlar. Ahmad Donish mamlakatda adolatsizdik, iqtisodiy qiyinchilikni o‘rganish va uni qanday bartaraf qilish kerakligi haqida kuyinib “Mamlakatda adolatsizlik shu darajada avj olgan ediki, amaldorlar qo‘lidan oddiy dehqon, kosib bozorda o‘z mahsulotini erkin sota olmas, merosxo‘r o‘z haqqini va hissasini ololmas edi” deb e’tirof etgan edi.

Buxoro amirligidagi kamchiliklarni Ahmad Donish tahlil qilarkan aynan shu mavzuda ilmiy asar yozadi va amir Muzaffarni adolatli bo‘lishga chaqiradi. Asarning asosiy ma’nosi shuningdek mazmuni: Buxoro amirligi sharoitida adolatli va ma’rifatli davlatni yaratib, tuzumni isloh qilishni nazarda tutgan. Ahmad Donish amirdan xalqaro qonuniyatlariga rioya qilishini so‘raydi. Ahmad Donish amirdan eng avvalo shuni so‘raydiki, Buxoro amirligi elchilari bo‘ladigan inson eng avvalo yaxshi ma’ruzachilik qobiliyatiga ega, suxandon va sharoitga qarab to‘g‘ri va tez chora ko‘radigan shaxs tayinlanishi kerak. U amirlikda ko‘p qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘yilyapti va natija oddiy xalqqa jabr-zulm yetmoqda deydi. Qozilar qonunbuzarlarga to‘g‘ri jazo berishga intilishlari kerakligini ko‘rsatadi. Ahmad Donish davlat himoyasi to‘g‘risida fikr yuritib mudofaa ishlariga katta ahamiyat berilishi zarurligini ta’kidlaydi. Eng avvalo amir mudofaa masalasi bilan har vaqt o‘zi shug‘ullanishi shart deydi. Mudofaa holatlari qo‘shinlarning sardorlariga ham bog‘liq. Qo‘shinning boshliqlari botir, uzoqni ko‘radigan, irodasi mustahkam shaxs bo‘lishi kerak. Keksa amaldorlarning o‘rinlarida ularning avlodlari bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi. Amirlikning mansablari ko‘proq oqil-u dono, adolat egalariga berilishi maqsadga muvofiqdir.

Bosh qo‘mondon uch narsaga: jangovarlik, to‘gri fikrlilik va harbiy amaliyotga ega bo‘lishi hamda bunday fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, mansabdorlar bilim va katta tajribaga ega bo‘lishlari kerak. O‘z vazifasini bajaroyotganda xalq manfaatlarni ham hisobga olishi kerak. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni bu nafaqat bosh vazir yoki uning o‘rinbosarlari bo‘ladimi, hukumat a’zosi yoki hududlar hokimi bo‘ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak deya ta’kidlagandi. Ahmad Donish amirlik tuzimini adolatsizligini ko‘rib uni oxirati yaqin bo‘lishini aytadi. Buxoro amirligining tuzumi yomon bo‘lganligi tufayli bu davlat tez yakson bo‘ladi, yaqin kunlarda amirlikda katta o‘zgarishlar bo‘lishiga ishonaman, deb yozadi. Donishmandning aytishicha, zolim amir va uning amaldorlarining oxirgi kunlari yaqin. Amir va uning adolatsiz mansabdorlari yer yuzidan yo‘q bo‘ladilar va ularning boyliklari amirlikka qarshi chiqqanlarniki bo‘ladi va ular dorga osiladilar deb yozadi Ahmad Donish. Ahmad Donish kuchli demokratik davlat hamda ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat ustuvor bo‘lgan fuqarolik jamiyatini barpo etish orzusi bilan yashagan. Uning bu boradagi qarashlari hozirgacha ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Asarning asosiy mazmunini – xalqni ma’rifatli bo‘lishga chaqirish, insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish kabi g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. “Navodir ul-vaqoye”ni o‘z davrining entsiklopediyasi deb aytsak, “Risola” nomli asari bo‘lsa Mang‘itlar hukmronligi va davlat boshqaruvidagi siyosat tuzumi haqida so‘z boradi. Asar Ahmad Donish Peterburgga qilgan ikkinchi safaridan keyin 1868-1873 yillar oralig‘ida yozilgan. Ammo Buxoroda bosmaxona mavjud bo‘lmaganligi uchun chop etilmagan.

Asarda Ahmad Donish o‘zining adolatparvar hukmdor haqidagi qarashlari bilan birga mang‘it amirlarini tanqid qiluvchi fikrlarni ham bildirib, hukmdorlarning cheklanmagan hokimiyatiga qarshi chiqqan. Uning fikricha, «Haqiqiy hukmdor odobli, e`tiborli, kamtar, yeyishda, ovqatlanishda va hayotda parhezkor bo‘lishi darkor” degan. Ahmad Donishning fikrlaridan ma’lumki, u o‘z asarini yaratishda o‘z davrining boshqa tarixnavislaridan farqli o‘laroq xolisona, tanqidiy yondashgan. Asar o‘zi yozilgan davrdan ancha kechroq tarix ilmi ommasiga ma’lum qilingan. Mazkur durdona asar haqidagi ma’lumotni biror manbada uchratmaymiz. Vaholanki, Ahmad Donishning eng yaqin shogirdi hamda do‘sti bo‘lmish Sadriddin Ayniy ham ushbu asar haqida o‘z asarlarida ham ma’lumot keltirmagan. Faqatgina 1936-yilda u E.E.Bertels birinchilardan bo‘lib, Ahmad Donishning noma’lum asarining qo‘lyozmasini aniqlaganligini ma’lum qilib, uni «Risola» deb nomlaydi. 1946-yilda S.U.Ulug‘zoda asarning qisqacha mazmunini xalqqa taqdim etdi. Allomaning fikriga ko‘ra, “Davlat bir guruh kishilar ehtiyojlarini qondirish uchun emas, xalq manfaatlari uchun, mamlakatni obod qilish uchun xizmat qilmog‘i zarur. Har bir shaxs dunyoni gullab-yashnatish uchun, dengizlar kezib o‘rganish uchun, yer osti boyliklarini topish uchun, uning hamma qit’alari va aholisini bilish uchun hayot kechiradi”- deb yozgan edi Donish. Buning uchun hukmdor bilimdon, ma’rifatli, odil va o‘z fuqarolari manfaatlari uchun xizmat qilmog‘i shart. Albatta u qanday masalani hal qilmasin, eng avval o‘zini fuqaro o‘rnida, ularni esa o‘z o‘rnida tassavvur qilmog‘i lozim. Bu adolatni ta’minlashga imkon yaratadi». “Mamlakatni idora qilishda,-deydi Donish,- hukmdor muhim davlat muammolarini o‘z atrofidagi maslahatchilar bilan birgalikda hal qilishi kerak. Maslahatchilari ham donishmand va adolatli kishilar bo‘lishi zarur va ularning fikri bilan hisoblashishi shart, chunki ko‘pchilikning aqli, bir kishining aqlidan ortiqroqdir”. Ahmad Donish “Navodir ul vaqoe” asarida oila qurish va uni saqlash uchun ko‘p harakat qilish kerakligi, er-xotin munosabtlarida nikoh shartlarining bajarilishi azoblarsiz, qiyinchilik afsus nadomadlarsiz bo‘lmasligini ta’kidlarkan bu borada turli nasihatomuz dalillar asosida izohlab o‘tadi. Donishning fikriga ko‘ra, “Davlat bir guruh kishilar ehtiyojlarini qondirish uchun emas aksincha, xalq manfaatlari, mamlakatni obod qilish uchun xizmat qilishi joizdir. Buning uchun hukmdor bilimdon, ma’rifatli, odil va o‘z fuqarolari manfaatlari uchun xizmat qilmog‘i shart. U qanday masalani hal qilmasin, eng avval o‘zini fuqaro o‘rnida, ularni esa o‘z o‘rnida tassavvur qilmog‘i lozim. Bu adolatni ta’minlashga imkon yaratadi». “Mamlakatni idora qilishda,-deydi Donish,- hukmdor muhim davlat muammolarini o‘z atrofidagi maslahatchilar bilan birgalikda hal qilsagina mamlakat yanada uzoq yillar gullab-yashnaydi. Hukmdorning maslahatchilari ham donishmand va adolatli kishilar bo‘lishi kerak va ularning fikri bilan hisoblashishi kerak, chunki ko‘pchilikning aqli hamda bilimi, bir kishining aqlidan ziyodroqdir”.

Xulosa: Ahmad Donish mamlakat xuddi kelinga o‘xshaydi; turli xil hunarmandlar va kasb egalari esa uning zebi ziynatlaridir. Bular har qancha ko‘proq bo‘lsalar, mamlakat ham shunchalik ziynatlanadi, go‘zallashadi. Podshohlikning tartib-intizomi haqida gapiradigan bo‘lsak bular qanchalik mustahkam bo‘lsa mamlakat obodonligi oshadi. Agarda bular to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmasa, mamlakatni xarob bo‘lishi aniqdir. Keltirilgan fikrlardan shuni bilishimiz mumkinki, Donishning har bir asarlarida nafaqat siyosat yoxud davlatni boshqarish, ta’lim, qurilish, xalq manfaati, oila qurish-u oilada farzand tarbiyasi hamda hunar va kasb tanlash kabi ko‘plab muhim mavzular asosida yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Orziyev M.Z. “Ikki tarixiy siymo” Buxoro 2015-yil 20-bet.
2. Rahmon Muiniy. Ahmad Donish hayoti haqida. Buxoro, “Buxoro nashriyoti”. 2007-yil, 35-bet.
3. Hoji Muiniy. “Ahmad Donish hayoti haqida” 2007 yil, 4-8-betlar.
4. Sadriddin Ayniy “Esdaliklar”. T.,6 - tom: **Buxoro 2009-yil 48-bet.**
5.Sh.M.Mirziyoyev.“Milliy taraqqiyot yo‘limizni qa’tiyat bilan davom ettirib”.T.: “O‘zbekiston” - 2018 y 114-b. 2 Rahmon Muiniy. “Ahmad Donish hayoti haqida”. “Buxoro” nashriyoti 2007-yil 12-b.
6. Sh.Mirziyoyev.Oliy Majlisga Murojaatnomasi T:. “Adolat” 2017-y 12-b.
7. A.Donish.“Navodir ul vaqoe” O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 33b.
8. Sh.M.Mirziyoyev.“Milliy taraqqiyot yo‘limizni qa’tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”.T.: “O‘zbekiston” -2018 y 214-b.

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINI O‘QISH VA YOZISH AMALIYOTIGA TAYYORLASHNING DIDAKTIK VA METODIK TA’MINOTI

O‘zbekiston. Akhmadjonova Farangiz Akhrorjon qizi
TDPU doktoranti *axrarovna@bk.ru*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonidagi didaktik materiallar va metodik yondashuvlarning o‘rni yoritilgan bo‘lib, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar misolida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.
Global axborot asrida chet tillarini o‘rganish, ayniqsa ingliz tilini o‘zlashtirish, har bir shaxs uchun zaruratga aylangan. Xususan, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining o‘z til ko‘nikmalarini, ayniqsa o‘qish va yozish sohalarida mukammallashtirishi ularga nafaqat bilim, balki ta’lim berish qobiliyati, metodik salohiyatni ham shakllantirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, o‘qituvchi tayyorlash, o‘qish amaliyoti, yozma nutq, metodika, didaktika.

Til o‘rgatishda o‘qish – axborotni tahlil qilish, tushunish, izohlash; yozish esa – o‘z fikrini yozma ravishda ifodalash vositasidir. Bo‘lajak o‘qituvchi mazkur ko‘nikmalarni egallamasdan turib, dars jarayonida samarali o‘qitish faoliyatini amalga oshira olmaydi.

Didaktik ta’minot turlari:

O‘qish va yozish amaliyotini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan didaktik vositalar quyidagilar:
- Matn to‘plamlari (murakkablik darajasi bo‘yicha);
- Interaktiv ish daftarlar (Writing practice worksheets);
- Tuzilmaviy ko‘rsatmalar (Yozma nutq tuzilmasi uchun);
- Elektron test tizimlari (Google Forms, Quizizz).

Metodik yondashuv turlari:

1. Differensial yondashuv – har bir talabaga individual yondashish asosida o‘qish-yozish topshiriqlarini berish.
2. Ijodiy metod – o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, hikoya tuzish, insho yozish ko‘nikmasini shakllantirish.
3. Ko‘rgazmali metod – slaydlar, matnli videolar orqali tushunishni osonlashtirish.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini o‘qish va yozish amaliyotiga tayyorlash zamonaviy ta’lim metodikasi va texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Yuqoridagi metodlar yordamida talabalarning til ko‘nikmalari, mustaqil ishlash salohiyati va dars o‘tish kompetensiyasi rivojlanadi. Bu esa kelajakda sifatli ta’lim berish jarayoniga xizmat qiladi.

O‘qish kompetensiyasini shakllantirishda metodik yondashuvlar

Ingliz tilida o‘qish (reading) o‘quvchining lug‘at boyligi, grammatik bilimlari va umumiy madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarni matn ustida ishlashning quyidagi usullariga o‘rgatishlari zarur:

- **Skimming** – matnning umumiy mazmunini tezda anglash;
- **Scanning** – muayyan ma’lumotni topish uchun matnni ko‘zdan kechirish;
- **Intensive reading** – grammatik va leksik tahlil qilish orqali chuqur o‘qish;
- **Extensive reading** – o‘quvchilarning qiziqishlari asosida mustaqil kitob o‘qish.

Matnlar bilan ishlashda interaktiv yondashuvlar (masalan, savol-javob, «true/false» mashqlari, «gap to‘ldirish», «fikr bildirish» kabi topshiriqlar) qo‘llanilishi, talabalarni darsga faol jalb qiladi.

Yozish (writing) – bu o‘z fikrini aniq, mantiqiy va grammatik jihatdan to‘g‘ri shaklda ifodalash ko‘nikmasidir. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini yozish kompetensiyasiga tayyorlashda quyidagi bosqichma-bosqich yondashuv samarali hisoblanadi:

- **Pre-writing (tayyorgarlik bosqichi)**: g‘oyalarni yig‘ish, reja tuzish;
- **Drafting (qoralama yaratish)**: matnning ilk variantini yozish;
- **Revising (tahrir qilish)**: mazmuniy va tuzilma jihatidan takomillashtirish;
- **Editing (stilistika va grammatik xatolarni tuzatish)**;
- **Publishing (yakuniy versiyani taqdim etish yoki baholash)**.

Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarga **descriptive, narrative, argumentative, persuasive** va **compare-and-contrast** yozuv janrlarini o‘rgatishlari lozim. Shuningdek, yozuv topshiriqlarida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar (mavzuga oid insho yozish, maqola tahlil qilish, rezyume tayyorlash) alohida ahamiyatga ega

Raqamli texnologiyalar ta’lim tizimiga chuqur kirib kelgan hozirgi zamonda o‘qish va yozish kompetensiyalarini rivojlantirishda **onlayn resurslar, interaktiv platformalar** (Quizlet, Grammarly, Padlet, Google Docs) keng qo‘llanilmoqda. Talabalar ushbu vositalar yordamida matnlarni tahlil qilish, yozma ishlarni baham ko‘rish, bir-birining ishini tahrir qilish orqali o‘rganish jarayonida faol ishtirok etadilar. Shuningdek, **plagiatni oldini olish, fikrni mustaqil va ijodiy ifodalash** ko‘nikmalari ham shakllanadi.

Xulosa. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini o‘qish va yozish amaliyotiga tayyorlash zamonaviy til o‘qitish metodologiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘qish va yozish ko‘nikmalari orqali nafaqat lingvistik kompetensiya, balki kommunikativ, kognitiv va metakognitiv kompetensiyalar ham shakllanadi. Ushbu kompetensiyalar esa o‘qituvchining kasbiy faoliyatida mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini samarali shakllantirish uchun kompleks yondashuv zarur bo‘lib, bu didaktik materiallarning sifatli tanlanishi, metodik yondashuvlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanishni taqozo etadi. O‘qitish jarayonida individual va differensial yondashuvlarni tatbiq etish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, ehtiyoji va qiziqishlariga mos mashg‘ulotlar tashkil etish orqali o‘qish va yozish kompetensiyalari yanada samarali shakllanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini o‘qish va yozish amaliyotiga tayyorlash jarayoni ilmiy-metodik asoslangan, tizimli va interaktiv yondashuvlar bilan boyitilgan ta’lim texnologiyalari vositasida olib borilgandagina, raqobatbardosh, innovatsion fikrlaydigan va zamon talablariga mos pedagogik kadrlar tayyorlashga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson, 2007.
2. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. Longman, 2015.

3. Назарова, З.Ш. Чет тилларини ўқитиш методикаси, Т., 2021.
4. Til metodikasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va darsliklari.

NEMIS TILINI O‘QITISHDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIZIQARLI TAHLILLARI

O‘zbekiston. ***Xalilova Zilola Farmonovna***
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
zilolakhalilova@inbox.ru

Annotatsiya. Frazeologiya tildagi sobit so‘z birikmalari va idiomalarni o‘rganadi, bu so‘zlar ortidagi tarixiy ildizlar chuqur ma’no va madaniyatni tushunishga yordam beradigan ajoyib sohadir.

Kalit so‘zlar: nuans, madaniyat, noziklik, sinsemantika, ideomatizatsiya, frazema, metafora, obraz, tafakkur, ilmiylik, barqarorlik, almashish, nutqiylik.

Уникальность фразеологизмов в немецком языке.

Аннотация. Фразеология — это изучение устойчивых фраз и идиом на языке, увлекательная область, в которой исторические корни этих слов могут помочь нам понять более глубокий смысл и культуру.

Ключевые слова: нюанс, культура, тонкость, синсемантика, идеоматизация, фраза, метафора, образ, мышление, научность, устойчивость, обмен, дискурс.

Annotation:. Phraseology is the study of fixed phrases and idioms in a language, a fascinating field in which the historical roots of these words can help us understand deeper meaning and culture.

Key words: nuance, culture, subtlety, synsemantics, ideomatization, phrase, metaphor, image, thinking, scientificity, stability, exchange, discourse.

Kirish. Frazeologiya tildagi sobit so‘z birikmalari va idiomalarni o‘rganadi, bu so‘zlar ostidagi ma’no va ulug‘lik madaniyatni tushunishga yordam beradigan ajoyib sohadir. Frazeologik birliklarni o‘rganish orqali siz nafaqat so‘z boyligingizni kengaytira olasiz, balki tilning nuanslari va kontekstini ham chuqurroq o‘rgana olamiz. Frazeologiya nafaqat tillarni o‘rganish, balki xalqlar o‘rtasidagi madaniyatlarni kashf qilishning kalitidir.

Frazeologizmlar – frazema, so‘z gruppalari, ideoma, so‘z birikma, mustahkam birikmalar barchasi frazeologik birliklar jamlanmasidir. Burger ta’rificha frazeologiya lingvistikaning bir qismi bo‘lib, frazeologik birliklarni o‘rganadi. Frazeologiya - bu tildagi turg‘un so‘z birikmalari haqidagi fan bo‘lib, ular tuzilish va gapda alohida so‘zlar (leksemalar) vazifasi va ma’nosini qamrab oladi.

Frazeologiyani inson til faoliyatida lug‘at boyligini kengaytirish, dunyoni nomlash va qayta ishlash vositasi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Frazeologizmlar, birinchi navbatda, hissiyotlar, munosabat va hatti-harakatlar kabi ruhiy o‘zgaruvchanlikni qayta ishlash uchun ishlatiladi. Frazeologiya bilan bog‘liq holda endi tilning ruhiy leksikasi haqida gapirish mumkin.

Frazeologiya qismlar kesimida ma’nosi bo‘linmaydigan o‘zgarmaydigan va o‘zgaradigan qismlarda tahlil etilishi kerak.

Frazemalar nutqda asosan lisoniy ma‘noda uchraydi.Masalan; chakagi ochildi odatda ko‘p mara- (hayvonga nisbatan), uzluksiz jovra- kishiga nisabtan, yangi bir hodisa;

pulemyotning o‘q uzishiga ko‘chirgan; *Pulemyotning chakagi ochilib ketdi*.

(nemis tili frazeologik birlikda so‘zma –so‘z tarjimada bu ibora, xuddi oqadigan suv sharsharasidek), (to‘xtamay gapirish, ko‘p va to‘xtovsiz gapirish, jag‘i ochilmoq, jag‘i tinmadi, vaysamoq ma’nolarida ifodalanadi).

Er kann reden wie ein Wasserfall, ohne Unterbrechung und in einem fort.

(Chakagi tinmay, to‘xtovsiz gapirardi).

Sie ist sehr geschwätzig und redet wie ein Wasserfall.

(U juda gapdon, to‘xtamasdan gapirardi).

Die beiden redeten wie ein Wasserfall und ließen niemand anderen mehr zu Wort kommen.

(Boshqalarga so‘z bermay, ikkovi to‘xtovsiz gapirardi.)



<u>Frazemalarda sinonimik munosabat</u>
Ideografik semalari teng, bir yoki bir necha jihati o'zaro farqli frazemalar frazeologik sinonimlar deyiladi. Masalan; og'ziga tolqon sol-, mum tishl-, labi-labiga tegmaydi, chakagi –chakagiga tegmaydi, ayni bir lug'aviy ma'noni- mutlaq gapirmaslik suhbatda mutlaq qatnashmaslik ma'nosini anglatadi. Majlis boshlanguncha biroz kulishib o'tiraylik. Og'izlaringga talqon solib oldinglar. (Parda Tursun) Bir gapirib o'n kulardi, hammani og'ziga qaratardi. Bugun mum tishlab qoldi. (Oydin)**.**
Stumm wie ein Fisch sein nicht sagen , sich nicht äußern- indamay, lom-mim demaslik, dami chiqmadi— **mum tishlab qolmoq.** Baliqdek jim bo'lmoq, gapirmaslik.
Wir brauchen jetzt absolute Ruhe. Alle müssen stumm wie ein Fisch sein.
Bizda hozir tinchlik kerak. Hamma baliqdek jim bo'lishi kerak.



Frazeologik sinonimlar uch xil asoslanadi; lug'aviy ma'nosi jihatdan;
- Baho semasi;
- Nutqiy xoslanishi jihatdan;

Masalan : burnini ko'tar-burni ko'tarildi, kibrlandi, gerdaydi bulardan ma'no kuchlisi dimog'i shishdi. Frazemalar voqeylikni salbiy yoki ijobiy munosabatini yaqqol baholashda asos bo'lib hisoblanadi va tilda tug'iladi.
1.Die Nase hoch tragen- eingebildet und arrogant sein- (dimog'dor, mag'rur, kibr-havoli, tumshug'i osmonda) Die Nase hoch tragen: *eingebildet sein:* Ich trage jedenfalls nicht die Nase hoch, nur weil ich früher mal in der Bundesliga gespielt habe, erklärt Lesniak. (Kölner Stadt-Anzeiger 15. 2. 2014**,** 46).
2.**Jmdm. zu/in den Kopf steigen** – 1. jmdn. eingebildet, überheblich machen
dimog'dor, mag'rur 2. Benommen- dovdiramoq, betrunken sein mast, shirakayf)



Den Kopf voll haben – ugs.; an vieles zu denken haben, sich mit vielen Dingen beschäftigen. Boshi shishdi, miyasi g‘ovlab ketdi ikkinchisida ma’no semasi kuchliroq. Ming xil xayol bilan miyam g‘ovlab ketdi. (Oydin)

Sinonimik almashuv: sanamay sakkiz / sanamasdan sakkiz de-; Ko‘z ilg‘amas/ilg‘amaydigan, boshiga qilich kelsa ham / kelganda ham, xamirdan qil sug‘urganday/sug ‘urgandek, xamir uchidan patir/ xamirning uchidan patir, yer bilan yakson bo‘l/ yer bilan yakson qil, boshdan oyoq/ boshidan oyo;

Oyog‘ini qo‘liga ol- (masofani o‘ta tez sur’at bilan bosish) tarkibidagi leksemalardan bevosita anglashiladigan ma’nolarga zid oyoqni qo‘lga olgandan keyin , jadallik u yoqda tursin, umuman hech qanday harakat bo‘lishi mumkin emas. Boshida yong‘oq chaq/ danak/ tosh –frazema ma’nosi kuchayib boradi.

Son frazeologik birliklar nemis va o‘zbek tillarida:

im siebten Himmel sein-***o‘zini yettinchi osmonda his qilmoq;***

- von den Gefühlen höchsten (Liebes-)Glücks erfüllt sein

Sie liebt ihren Rolf innig und ist im siebten Himmel.[68]

mir ist alles eins- menga hammasi bir tiyin;

Zwei Seelen in einer Brust- bir yurakda ikki dil;

eine Schwalbe macht noch keinen Sommer- bir qaldirg‘och yoz qilmaydi**;**

vier Augen sehen mehr als zwei – to‘rt ko‘z ko‘proq ko‘radi ikkita ko‘zga qaraganda;

die erste Geige spielen - birinchi skripkani chalmoq, markazda bo‘ lmoq;

vier Wänden sein/ leben/ wohnen- to‘rt devorda yashamoq;

niemand kann zwei Herren dienen -hech kim ikkita xo‘jayinga xizmat qila olmaydi,

(bir qozonda ikki qo‘chqorning kallasi qaynamas);

zwei Fliegen mit einer Klappe schlagen- bir tosh bilan ikkita qushni o‘ldirish ;

Bir o‘q bilan ikkita quyonni mo‘ljallamoq”;

jedes Ding hat zwei Seiten –har narsaning ikki tomoni bor;

- jede Sache hat ihre gute und ihre schlechte Seite, hat Vor- und Nachteile;

zwischen zwei Stühlen sitzen- ikki stul orasida o‘tirmoq, ikki o‘t orasida qolmoq;

- in der unangenehmen Lage sein, sich zwei Möglichkeiten u.a. gleichermaßen verscherzt zu haben[69]

aller guten Dinge sind drei- hamma yaxshi narsa uchta; *„Stell dir vor, zu meinem Geburtstag habe ich ein Fahrrad, einen Photoapparat und noch Schallplatten bekommen.“ – „Na ja, aller guten Dinge sind drei.“* [70]

1. Burger, Harald: Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. 4., neu bearbeitete Auflage. Berlin, 2010

[69] Duden, 1996, S. 1491

3. Christine Palm: Phraseologie. Eine Einführung. Tübingen; Narr 1995

Dreimal umgezogen ist so gut wie einmal abgebrannt- uch marta ko‘chgandan ko‘ra bir marta yongan yaxshi; (nutqimizda o‘n marta kuygandan ko‘ra , bir marta o‘lgan yaxshi) iborasi qo‘llaniladi.

- bei jedem Umzug wird ein Teil der Wohnungseinrichtungen beschädigt oder geht verloren;

unter vier Augen- to‘rt ko‘z ostida-yuzma –yuz;

- (j-m etw.) ohne Zeugen, ohne Zuhörenden (sagen usw.)

Könnte ich Sie bitte kurz unter vier Augen sprechen?

das fünfte Rad am Wagen sein- mashinaning beshinchi oyog‘i, g‘ildiragi;

- überflüssig sein –ortiqcha;

Mit der Clique seiner Schwester wollte er nicht in die Ferien fahren, da wäre er doch nur das fünfte Rad am Wagen.[71]

Xulosa o‘rnida izohlanganda ikki til orasidagi iboralar o‘xshashligi va bir xil ma’no uchun xizmat qilishi tahlil qilindi, o‘z tilimizning muqobil variantlari mavjudligi o‘quvchi nutqini o‘stirishga va muloqot tilimizning rang –barangligini

oshirishga xizmat qiladi. Biz tilimizdagi frazeologik birliklarning serqirra va jozibadorligini tillar kesimida tahlil etib, nemis tili izohida tenglashtira olamiz va nutqimizda faol qo‘llaymiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Burger, Harald: Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. 4., neu bearbeitete Auflage. Berlin, 2010

2. Donalies, Elke: Basiswissen Deutsche Phraseologie.Tübingen, 2009

3. Fleischer, Wolfgang: Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. 2., durchgesehene und ergänzte Auflage. Tübingen, 1997

4. Christine Palm: Phraseologie. Eine Einführung. Tübingen; Narr 1995

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TA’LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISH – INTELLEKTUAL KAPITALNI RIVOJLANTIRISH DEBOCHASI

O‘zbekiston. Surayyyo Arziqulova Fayzullayevna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Kredit-modul tizimi asosida ta’limni individuallashtirish – intellektual kapitalni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Ushbu maqolada kredit-modul tizimi tamoyillari, uning talabalarning shaxsiy qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilishi, hamda innovatsion ta’lim usullari orqali intellektual kapitalni rivojlantirish jarayoni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Kredit-modul tizimi, individuallashtirilgan ta’lim, intellektual kapital, innovatsion ta’lim, ta’lim jarayoni.

Annotation: Individualizing education within the credit-modular system is a key factor in the development of intellectual capital. This article explores the principles of the credit-modular system, its adaptation to students' personal abilities and needs, and the process of intellectual capital development through innovative educational methods.

Keywords: Credit-modular system, individualized education, intellectual capital, innovative education, educational process.

Аннотация:Индивидуализация обучения в рамках кредитно-модульной системы является важным фактором развития интеллектуального капитала. В данной статье рассматриваются принципы кредитно-модульной системы, её адаптация к личным способностям и потребностям студентов, а также процесс развития интеллектуального капитала через инновационные образовательные методы.

Ключевые слова: Кредитно-модульная система, индивидуализированное обучение, интеллектуальный капитал, инновационное образование, образовательный процесс.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida intellektual kapitalni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri kredit-modul tizimi orqali ta’limni individuallashtirishdir. Bu tizim har bir

[71] Christine Palm: Phraseologie. Eine Einführung. Tübingen; Narr 1995

talabaning shaxsiy qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularga mos ta’lim yo‘nalishini tanlash imkonini beradi.[1] Innovatsion tafakkurni shakllantirish, kasbiy kompetensiyalarni oshirish va intellektual kapitalni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bir qator farmon va qarorlar qabul qilingan.[2] «Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni (2019-yil 7-mart, PF-5691-son), «2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori (PQ-81, 2022-yil 10-fevral).Ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini kuchaytirish va innovatsion mahsulotlar yaratish vazifalari ilgari surilgan.

Abstract. This article analyzes the main terms used in the science of Sufism and their connection with artistic images. The article shows such mystical concepts as “Wahdat ul-wujud”, “Fano”, “Baqo”, “Ishq ilahiy”, “Tajalliy”, “Suluk”, “Marifat”, “Zuhd” and their symbolic images - through images such as candle, flower, river, desert, sunlight, mirror, sea. These terms and symbols reflect the various spiritual stages that the soli goes through on the path to understanding divine truth. The article shows the importance of mystical ideas and the system of symbols in literature for the spiritual elevation of man. Analyzing the thoughts of scientists and mystics who developed the theoretical foundations of Sufism, not only the philosophical but also the artistic aspects of Sufi literature are revealed.

Keywords: Sufism, spiritual perfection, Fano, Baqa, Divine Love, Tajalli, Monotheism, Suluk, Maqamat, Enlightenment, Asceticism, Contentment, Symbolic symbols.

Tasavvuf ilmida o‘ziga xos istilohlar shakllangan bo‘lib, ular insonning ma’naviy kamolot yo‘lini, ruhiy holatlarini va ilohiy haqiqatni anglash jarayonlarini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Ushbu istilohlar ko‘pincha yondosh timsollar (ramziy obrazlar) bilan tushuntiriladi, chunki tasavvufiy haqiqat bevosita tushuniladigan oddiy tushuncha emas, balki sirli va ramziy tilda bayon qilinishi lozim bo‘lgan hodisadir.

Tasavvufiy istilohlar va ularga yondosh timsollar tasavvuf adabiyotida chuqur ma’noga ega bo‘lib, ular insonning ilohiy haqiqatga yetishish yo‘lidagi ruhiy tajribalarini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Ushbu tushunchalar ko‘pincha ramziy obrazlar orqali berilgan bo‘lib, ular tasavvuf adabiyotida keng qo‘llaniladi.

Tasavvufning eng muhim tushunchalaridan biri “Vahdat ul-vujud”, ya’ni borliqning yagona haqiqatga asoslanganligi g‘oyasidir. Ushbu tushuncha ko‘pincha nurlar va akslar timsolida tasvirlanadi, chunki mavjudotlar Allohning tajalliylaridir. Shu bilan birga, insonning ilohiy haqiqat bilan birlashishi “Fano” tushunchasi orqali ifodalanadi. Bu holat o‘zlikdan voz kechish, nafsni yo‘qotish degan ma’noni anglatib, shamning yonib tugashi timsoli bilan tasvirlanadi. Sham o‘z-o‘zini yoqib, atrofga nur sochganidek, solik ham o‘zini Alloh yo‘lida qurbon qiladi.

Tasavvufiy yo‘lning oxiri “Baqo”, ya’ni abadiy haqiqatga yetishish bo‘lib, u gulning yangidan ochilishi ramzi bilan ifodalanadi. Solik yo‘qolganidan keyin haqiqiy mavjudlikka ega bo‘ladi, xuddi gulning qurib, yana yangidan ochilishi kabi. Bu jarayonda eng muhim omillardan biri “Ishq ilohiy”, ya’ni Allohga bo‘lgan cheksiz muhabbatdir. U sharob va mastlik timsolida beriladi, chunki ishq insonga ruhiy jihatdan zavq bag‘ishlaydi, uni dunyo g‘amidan xalos qiladi.

Allohning koinotda zohir bo‘lishi “Tajalliy” tushunchasi orqali tushuntiriladi va u quyosh nuri bilan bog‘lanadi. Quyosh nuri har qanday joyda aks etishi mumkin bo‘lgani kabi, Allohning tajallisi ham hamma joyda namoyon bo‘ladi. Barcha mavjudotlar Unga intiladi va Unga qaytadi. Shu sababli, tasavvufning asosiy e’tiqodi bo‘lmish “Tavhid” tushunchasi, ya’ni Allohning Yagonaligi, ko‘pincha daryo timsoli orqali tasvirlanadi. Har bir irmoq oxir-oqibat daryoga qo‘shilib ketganidek, barcha mavjudotlar ham oxir-oqibat Allohga yetishadi.

Insonning ilohiy haqiqat sari ruhiy sayohati “Suluk” deb nomlanadi. Bu jarayonning badiiy ifodasi yo‘l timsoli orqali beriladi, chunki solik maqsad sari sayohat qiladi. Ushbu sayohat davomida inson turli “Maqomot” (ruhiy bosqichlar) dan o‘tadi, ular esa zinapoya timsolida tasvirlanadi. Har bir maqom solikni yanada yuksaltiradi va haqiqiy haqiqat sari yetaklaydi.

Haqiqiy haqiqatni anglash esa “Marifat”, ya’ni ilohiy bilim tushunchasi bilan bog‘liq. Bu jarayon ko‘zgu obrazi orqali ifodalangan, chunki haqiqatni anglagan solik Allohning aksini o‘zida ko‘ra boshlaydi. Biroq, bu haqiqatga yetishish uchun solik “Zuhd”, ya’ni dunyo ne’matlaridan voz kechishi kerak. Bu holat cho‘l obrazi bilan ifodalangan, chunki cho‘l yolg‘izlik va o‘zlikdan voz kechish timsolidir.

Oxir-oqibat, solik o‘zini butunlay Allohga topshirib, Uning istaklariga rozi bo‘ladi. Bu holat «Rizolik» deb atalib, dengiz ramzi orqali tushuntiriladi. Dengiz qanchalik to‘lqinlansa ham, u barqaror turadi – solik ham hayotning qiyinchiliklariga qaramay, Allohning irodasiga to‘la rozi bo‘lishi lozim.

Ushbu tushunchalar tasavvufiy adabiyotda turli olimlar va mutafakkirlar tomonidan keng yoritilgan. Ibn Arabiy, Abu Nasr as-Sarroj, G‘azzoliy va Najmiddin Kubro kabi olimlar ularning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo‘lsa, Jaloliddin Rumiy, Farididdin Attor, Alisher Navoiy va Hofiz Sheroziy kabi shoirlar ularni badiiy shaklda ifodalagan. Shu bois tasavvufiy istilohlar nafaqat falsafiy g‘oyalarning ifodasi, balki adabiyotdagi ramzlar tizimi orqali inson ma’naviyatini yuksaltirish vositasi ham hisoblanadi.

Tasavvufiy adabiyotda ishlatilgan istilohlar va ularning ramziy timsollari, insonning ma’naviy sayohatini, ruhiy o‘sish va ilohiy haqiqatni anglash jarayonlarini ifodalashda muhim vositadir. Timsollar orqali tasavvuf ilmidagi murakkab g‘oyalar va tushunchalar oddiy va aniq shaklda ifodalanadi. Tushunchalar va ramzlar, shuningdek, insonning ichki olamidagi jarayonlarni va Alloh bilan birlashish yo‘lini aks ettiradi. Tasavvuf adabiyotidagi bu terminlar va timsollar, solikning o‘zini tanishi va Allohga bo‘lgan cheksiz muhabbatini ifodalashda, tasavvufga oid falsafiy g‘oyalarni tushunishga yordam beradi. Bu tushunchalar nafaqat diniy va falsafiy nuqtai nazardan muhim, balki ular adabiyot va san’atda ham keng yoritilgan va ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan. Tasavvufiy istilohlar va badiiy timsollar, insonning ma'naviy sayohatini yorituvchi zamonaviy adabiyotda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ularni anglash va idrok qilish insonning ma’naviy o‘sishi va kamolotiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haqqulov I.Tasavvuf va she’riyat.–Toshkent,1991.
2 .Komilov N.Tasavvuf.–Toshkent:”Movarounnahr”O‘zbekiston”,2009.
3.Navoiy A. “G’aroyib us-sig’ar”.
4. Süleyman Uludağnıng .Tasavvuf terimleri sözlüğü.–Istanbul,1995.

JAMOADAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IQLIMGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR

O‘zbekiston. Jumayeva Sayyora Normurodovna
Osiyo xalqaro universiteti 2-kurs magistrati

Annotatsiya: Ushbu maqolad maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar jamoasi bilan olib boriladigan ishlar va unga ta’sir etuvchi omillar haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘lar: maktabgacha ta’lim tashkiloti, jamoa, ijtimoiy-psixologik iqlik, ziddiyat, omillar, sabablar.

Аннотация: В данной статье представлена информация о работе, проводимой с детским коллективом в дошкольных образовательных учреждениях, и факторах, влияющих на нее.

Ключевые слова: дошкольная образовательная организация, коллектив, социально-психологический климат, конфликт, факторы, причины.

Abstract: This article provides information on the work carried out with the children's collective in preschool educational institutions and the factors influencing it.

Keywords: preschool educational organization, collective, socio-psychological climate, conflict, factors, causes.

Ko‘plab MTTlarning tajribasi umum qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlarning pedagoglar tarkibini birlashtirish uchun ulkan samarani ko‘rsatdi.

Pedagoglar tarkibini o‘qitishda juda muhim omil bu ishda yuzaga keladigan turli xil nizolar va nizolarni hal qilishdir (masalan, pedagog kasal hamkasbini uning metodik kunida almashtirishdan boSh tortadi; pedagog o‘z hamkasbining guruhiga mukofot berish to‘g‘risidagi qarorga rozi emas va hokazo). Bunday vaziyatlarni hal qilish o‘zaro kelishmovchilikka emas, balki jamoani yig‘ishga qaratilganligi muhimdir.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, jamoani rivojlantirishning ma’lum bir bosqichida, ba’zida MTT rahbariga jamoada o‘zini o‘zi tartibga solishni faollaShtirish uchun yuzaga kelgan nizoga aralaShmaslik tavsiya etiladi.

MTTda kadrlar bilan bog‘liq vaziyat barqaror bo‘lganda, jamoa to‘ziladi, rahbarlar uni birlashtirish choralarini izchil amalga oshiradilar. Boshqaruvning eng muhim shartlaridan biri bu barcha rahbarlardan pedagoglarning barcha guruhlarining xususiyatlarini hisobga olish talabidir.

Yangi talablarni qo‘yar ekan, ushbu pedagoglarning kechagi yutuqlari haqida esdan chiqarmaslik kerak, aksincha ularni har doim eslab qolishga harakat qilish, Shu bilan yangi va mumkin bo‘lgan qayta qurish jarayonini idrok etish uchun qulay psixologik Sharoitlar yaratish kerak. Har bir pedagogga uni rivojlantirish, uning hamkasblari safida shaxs iyatini rivojlantirish uchun alohida yordam ko‘rsatilishi kerak.

MTT jamoasining tezkor shakllanishini belgilaydigan axloqiy va psixologik sharoitlar ichida hal qiluvchi MTT rahbarining jamoa tarbiyachi sifatida shaxs iy namunasi bo‘lib qolmoqda. O‘zaro fikrlaydigan odamlar jamoasini yaratish maqbul boshqaruv natijasidir va shu bilan birga optimal tashkil etilgan pedagogik jarayonning kafolati hisoblanadi. Barkamol ansambl bo‘lgan hamma pedagoglar, umumiy g‘oya bilan birlaShtirilgan, bir-birlarini va bolalarni tushunadigan odamlar - pedagoglar tarkibi idealdir.

Odatda, ziddiyat deb, qarama-qarshi yo‘nalgan qarashlarga, noxush hissiy kechinmalar bilan bog‘liq guruhlararo yoki shaxslararo munosabatlar orqali ifodalanuvchi to‘qnashuvlarga aytiladi.

Ziddiyatni keltirib chiqaruvchi omillar, sabablar nihoyatda ko‘p, lekin ularni 5 asosiy guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

- Informatsion-axborot omillari.
- Jamiyat miqyosidagi ayrim tizimlarning faoliyatiga bog‘liq omillar.
- Qadriyatlarga aloqador omillar.
- Munosabatlar omili.
- Xulq-atvor bilan bog‘liq omillar.

Ziddiyat turlari:

Shaxs nin o‘ziga aloqador bo‘lgan ichki ziddiyatlar
Shaxs va guruh o‘rtasida sodir bo‘ladigan ziddiyatlar
Guruhlararo ziddiyat yoki nizo
Shaxs lararo ziddiyatlar
Ochiq dan ochiq yuz beradigan ziddiyatlar.

Ziddiyatli holatlarda shaxs toifalari:

- Namoyishkorona toifadagi ziddiyatli shaxs.
- Rigid toifadagi ziddiyatli shaxs.
- Boshqarib bo‘lmaydigan toifadagi ziddiyatli shaxs.
- Aniqlikni talab etadigan toifadagi ziddiyatli shaxs.
- Nizosiz toifadagi ziddiyatli shaxs.
- Maqsadga yo‘naltirilgan toifadagi ziddiyatli shaxs.

Psixologlarning aniqlashlaricha, insonlarda eng kuchli taassurot qoldiradigan narsa (97,3%) hammaning oldida tanbeh eshitish va kamsitilishidir. Ayniqsa buni ayollar ko‘tarolmaydi. Shu bilan birga xoli joyda suhbatlshsangiz, tajriba ko‘rsatishicha, 66,3% odam o‘z aybiga iqror bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmat ishlarini tashkil etish jarayonda psixolog maktabgacha tarbiya tashkilotlari va ulardagi muammolarning o‘ziga xosligi psixologning ushbu muassasada ishlash vaqtida uning o‘ziga xos tomonlariga alohida etiborli bo‘lishni talab qilinadi:

- Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom psixologik muhitni yaratish va boshqarish asoslarini yoritish.
- Jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratish usullari xaqida tushuncha berish.
- Jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni, umumiy va ijtimoiy psixologiya, yoshlar psixologiyasi, tibbiy psixologiya, maktabgacha yoshidagi bolalar psixologiyasi xususiyatlarini inobatga olib ish yuritish.
- Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi dolzarb muammolariga bag‘ishlangan psixologik treninglar o‘tkazish.
- Bolalar bilan psixologik trening mashg‘ulotlarini olib borishni o‘rgatish.

maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari maktabgacha yoshdagi bolalarning psixoprofilaktika ishlarini olib borish, maktabgacha yoshdagi bolalar xulqi motivlari, tortinchoqlikning ijobiy va salbiy tomonlari, har bir yosh davriga xos bo‘lgan psixologik

xususiyatlari to‘g‘risida bilim, ko‘nikma va malakalarni chuqurlashtirish va yangilash.

Bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotiga moslashishiga oid ishlarni olib borishni o‘rganadilar;

Bolalardagi muammolarni oldini olishda korrektsion ishlarni amalga oshirish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni -T.:2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni -T.:2019.
3. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat- 2006 y.
4.Тетушкина М.К. Психологическая помощь и консультирование в практической психологии- 2001.
5.Потапова А.V. Нартова - Бочавер С.Детская психологическая служба- 2001.
14.Nishanova 3.T., Alimbayeva Sh.T., Sulaymonov. Psixologik xizmat – 2014.
6. Nazarova F.T.»Maktabgacha ta‘lim muassasalarida psixologik xizmatni yuritishga doir me‘yoriy hujjatlar» metodik qo‘llanmasi. Toshkent. “Tafakkur” nashriyoti. 2009- yil.4-bet.
7. Nishanova Z.T., Alimova G.K.Psixologik xizmat .Psixokorreksiya.T.:”Ijod press”nashriyoti. 2019-yil. 103-bet.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI O‘QUVCHILARI MA’NAVIYATINI HADISLAR VOSITASIDA SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

O‘zbekiston. Qosimov Ubaydulloh Avazbek o‘g‘li
Osiyo xalqaro universiteti 2-kurs magistrati

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari ma’naviyatini hadislar vositasida shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘quvchi, ma’naviy madaniyatini shakllantirish, tarbiyaviy tadbirlar, mazmuni, shakli va uslublari, aqliy (intelektual) tadbirlar, samaradorligi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о современных педагогических технологиях формирования духовности учащихся средних общеобразовательных школ посредством хадисов.

Ключевые слова: Формирование духовной культуры учащегося, воспитательные мероприятия, содержание, форма и методы, интеллектуальные мероприятия, эффективность

Abstract: This article provides information on modern pedagogical technologies for shaping the spirituality of secondary school students through hadith.

Keywords: Formation of a student's spiritual culture, educational activities, content, form and methods, intellectual activities, effectiveness

Yosh avlodda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish – milliy g‘oyamizning ezgu maqsadidir. Bunga erishishda ma’naviy-ma’rifiy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali olib borish uchun o‘quvchi yoshlarda bilim va ko‘nikmalarini oshirishimizda: Ma’naviy tarbiya tushunchasining mazmuni, uni tashkil etishning zaruriyati va ahamiyatini tushuntirish. Ma’naviy va ma’rifiy tarbiyani tashkil etishning pedagogik, psixologik, sotsiologik asoslari to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish. Ma’naviyat tushunchasi, ma’naviyatning jamiyat hayotida bajaradigan vazifalarini yoritish. Ma’naviyatning tarbiyaviy, adaptiv, uyushtiruvchilik, boshqaruvchilik va h.k. vazifalari haqida aniq tushunchalarga ega bo‘lish. Tarbiyachilarga ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning pedagogik va psixologik jihatlarini tushuntirish. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi yo‘nalishlari bo‘yicha tushuncha berish. O‘qituvchilarga ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish tizimi va ularning tarkibiy qismlari va asosiy yo‘nalishlari haqida ma’lumot berish. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ilg‘or tajribalar hamda zamonaviy bilimlar va tajribalarni o‘rgatish. Oliy o‘quv yurtlarida ma’naviy-mafkuraviy tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlarda

quyidagi masalalarni rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. Ma’naviy-mafkuraviy tadbirlar samaradorligini oshirish maq sadida milliy istiqlol g‘oyasining mohiyatini chuqur tushunadigan iqtidorli o‘quvchilardan iborat o‘quvchi-targ‘ibot guruhini tashkil etish va targ‘ibot ishlarida ularning salohiyatidan foydalanish. Milliy g‘oya va mafkura masalasi bilan bog‘liq dolzarb muammolarni, bugungi kundagi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ustivor yo‘nalishlarni aniqlash, ularni o‘quvchilar va aholi qatlamlari orasida targ‘ib qilish borasida o‘qituvchilarni ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga safarbar etish. Xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviyati va milliy qadriyatlari, diniy qarashlari va hayotiy udumlariga, yoshlarimizning ongini zaharlab, ma’naviy jihatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borish maqsadida “Islom va bag‘rikenglik” mavzusida davra suhbati tashkil etish. G‘oyaviy xurujlar, ularning g‘arazli asosdagi niyatlarini ochib tashlash, insonlarni ogohlikka chorlashda olimlar, siyosatchi mutaxassislar, ijodkor ziyolilar bilan hamkorlikda institutda o‘quvchilar o‘rtasida “Tinchlik va barqarorlik taraqqiyot mezoni” mavzusida yig‘ilish o‘tkazish. O‘quvchilar va aholi o‘rtasida yurtdoshlarimizning muqaddas islom dini va falsafasi, aziz avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug‘ qadamjolariga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat va ehtirom va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash borasida “Dinlararo bag‘rikenglik – jamiyat barqarorligining mezoni” mavzusida tadbir o‘tkazish. Ma’naviy-ma’rifiy darsdan tashqari o‘tkaziladigan ishlar; tashkil etish usullari: ya’ni kinoteatr, teatrlar, tabiat (o‘lkani o‘rganish), adabiyot va san’at muzeylariga olib borish; ulardan olingan taassurotlarni o‘zaro bahs-munozara qilish; badiiy asarlar bo‘yicha ilmiy munozaralar uyushtirish; turli ijodiy to‘garaklar tashkil etib, ularga yoshlarni qiziqtirish; taniqli kishilar bilan uchrashuvlar tashkil etish; tarixiy obidalar bilan tanishtirish; shuningdek, o‘quvchilar va o‘quvchilarda kutubxonadan foydalanish malakasini oshirish, darsdan bo‘sh vaqtlarda kutubxonalarda o‘z bilimlarini oshirishga qiziqtirish kabi usullarga e’tibor qaratish tavsiya etiladi. Oliy ta’lim bitiruvchi o‘quvchilarning ma’naviyat asoslari orqali g‘oyaviy immunitetini shakllantirish, ularning oliy o‘quv yurtidan va darsdan tashqari faoliyatini tashkil etish hamda oila, mahalla muhiti va jamoatchilik o‘rtasida olib boriladigan madaniy-ma’rifiy tadbirlarning samaradorligini ta’minlashga ham bog‘liq. Shu nuqtai nazardan darsdan tashqari ishlar jarayonida xalqimizning boy madaniy merosi vositasida oliy ta’lim va maktab o‘quvchi-yoshlari ma’naviy madaniyati va ma’naviy immunitetini shakllantirishning samarali andozasini yaratishda quyidagilarga asosiy negiz sifatida tayanish mumkin:

1. Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga yangicha metodologik yondashuv;

2. Falsafa, pedagogika, milliy g‘oya, etnografiya, tarix, etika, estetika, ruhshunoslik, uslubshunoslik fanlariga hozirgi zamon talabi jumladan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy yangilanish konsepsiyasi; uzluksiz ta’lim tizimini milliylashtirish, insonparvarlashtirish, ta’lim-tarbiya mazmuni shakl va usullarini yangicha talablar asosida takomillashtirish va amaliy ahamiyatini kuchaytirish. Madaniy-ma’naviy qadriyatlar asosida uyushtiriladigan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakl va usullari samaradorligi uning xarakterli xususiyatlarini aniqlab, belgilab olish bilan bog‘liq: O‘quvchining ma’naviy madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning mazmuni, shakli va uslublari, aqliy (intelektual) va tarbiyaviy ahamiyati zanjiri samaradorligi unga rahbarlik va nazorat qilish bilan xarakterlanadi. Tarbiyaviy tadbirlarga rahbarlik va nazoratning mantiqiy-pedagogik tizimini ishlab chiqishda quyidagilarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq:

1) oliy o‘quv yurti miqyosida darsdan tashqari o‘tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish;

2) tarbiyaviy tadbirlar tizimini aniqlash;

3) tarbiyaviy tadbir uchun moddiy va ma’naviy shart-sharoit yaratish;

4) tarbiyaviy tadbir natijasini nazorat qilish va umumiy rahbarlikni amalga oshirish;

5) tarbiyaviy tadbirlarning shakl, usul va vositalari haqida pedagogik jamoaga (gruppa rahbari, fan o‘qituvchilari, kutubxona mudiri, yoshlar jamoalari va h.k.) uslubiy yordam berish;

6) ma’muriy tashkilotchilik va uslubiy vazifani yaxlit amalga oshirish;

7) tarbiyaviy tadbirlar uyushtirishda ota-onalar, jamoatchilik bilan hamkorlik o‘rnatish;

8) dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbir uyushtirishda ta’lim-tarbiya birligini uyushtirishga erishish;
9) o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etishda ularni madaniyat, tarbiya va jamoa muassasalaridan keng foydalanishni uyushtirish;
10) oliy o‘quv yurti va gruppa tarbiyaviy tadbirlar rejasiga mos tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, hamkorlikda uyushtirish;
11) tarbiyaviy tadbir uchun madaniy va ma’rifiy manbalar bilan o‘quvchi o‘quvchilarni ta’minlash;
12) o‘quvchi-o‘quvchilar savodxonligini oshirish bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirish;
13) maktab kutubxonasini ma’naviy markaz sifatida tan olinishiga erishish;
14) o‘quvchi-o‘quvchining dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar, oilada olgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar yuzasidan bilimi, malaka va ko‘nikmalarini mustahkamlash, to‘ldirish va boyitish;
15) davr, jamiyat, o‘quvchi-yoshlar talabi, ma’naviy ehtiyoji va qiziqishiga mos mazmun asosida o‘z faoliyatini tashkil etish;
16) qadimiy an’analar asosida xalqimizning boy ma’naviy merosini o‘quvchi-yoshlar ko‘z o‘ngida gavdalantirish; onglilik va faoliyat yakdilligiga erishish;
17) ma’naviy qadriyatlar mohiyatini o‘quvchi ongiga singdi rish asosida milliy g‘ururni shakllantirishda ko‘rgazmali targ‘ibot axborotining yetakchiligi.

1. Jamoaviy o‘tkaziladigan tadbirlar: tajribalar jarayonida pedagogik talablar, shart-sharoitlarga tayangan holda, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning “Mustaqillik bayrami”, “Iydi Ramazon”, “Qadimiy milliy xalq o‘yinlari bayrami”, “O‘tmish allamolar tavallud to‘ylari”, “Ustoz va shogird” va boshqalar. Masalan, “Navro‘z bayrami” oldidan “Ezgulik nima?” degan masala yuzasidan bahs-munozara tashkil etish yoki “Mustaqillik bayrami”da Najmiddin Kubroning “Vatanni sevmoq - imon ishi” degan nuqtai nazari asosida fikr almashishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

2. Guruhlar bilan o‘tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar: fan to‘garaklari “Milliy qadriyatlar yuzasidan munozaralari”, “Ustoz va shogird”, “Ma’naviyat asoslari - mening taqdirimda”, “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat”, “G‘oyaviy bo‘shliqni to‘ldirish - davr talabi”, shuningdek ko‘rik-tanlov, bellashuv, o‘lka tarixini o‘rganish bo‘yicha sayohat, turli yo‘nalishlar bo‘yicha yurishlar, sayohatlar tashkil etish, madaniy-ma’rifiy joylarga sayohat, ko‘rgazmalar tashkil etish; “Ma’rifatnoma”, “Ma’naviyat asoslari - hayot ko‘zgusi”, “Ma’naviyat asoslarining tarixiy-falsafiy ildizlari” mavzusida uchrashuv kechalari, adabiy kechalar, konferensiyalar, seminar, ijodiy ishlar ko‘rik-tanlovi, “Ma’naviy qadriyatlar”, “Yosh mafkurachilar” bellashuvi, “Odobnoma” ruknidagi radio eshittirishlar muhokamasini uyushtirish; munozara va boshqalar.

3. Yakka tartibda tashkil etiladigan ma’rifiy tadbirlar: milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini o‘rganish yuzasidan ma’ruzalar tayyorlash; tarixiy, ilmiy, ommaviy, badiiy asarlarni mustaqil o‘qitishni tashkil etish; annotatsiya, referat, konspekt yozish; gazeta, albom, shiorlar, hikmatli so‘zlar, milliy istiqlol g‘oyasiga bag‘ishlab yozilgan varaqalar, jadvallar, xarita va diagrammalar tuzish. Hozirgi zamon sharoitida mutaxassisni boshqaruv ishlaridagi tajribalar bilan uyg‘unlashtirgan holda tayyorlash zaruratga aylanmoqda. O‘quvchilarning o‘zlarini namoyon etishlari uchun yoshlarning ijtimoiy faolligini hamda ularning shaxsiy manfaatdorliklarini kuchaytirishga ijobiy ta’sirni oshirish uchun o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishlari asosidagi tarbiyaviy ishlar majmui muhim omil bo‘ladi. Bunda, ayniqsa, yoshlar tashkilotlari o‘quvchilarning ijodiy faolligi va mustaqil faoliyatlarining namoyon bo‘lishiga, katta imkoniyat yaratishi kerak, u o‘quvchilar demokratiyasining real shakliga va o‘quvchilarning ijtimoiy-huquqiy o‘z-o‘zini himoya qilish vositasiga aylanishi kerak. O‘qishdan tashqari tashkil etiladigan mazkur shakllar oliy ta’lim muassasalari uchun ancha an’anaviy hisoblanadi va bu borada katta tajribalar to‘plangan. Madaniy-ommaviy va soprt tadbirlarini o‘tkazishning nihoyatda keng vazifalari bor. Bular ma’naviy-ma’rifiy, estetik vazifalardan boshlab, jismoniy va ekologik tarbiyagacha bo‘lgan muammolarni qamraydi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini maroqli tashkil etish huquqbuzarlik va ijtimoiy noloyiq xulq-atvorning oldini olishda ham eng samarali vosita hisoblanadi. Tarbiya - uzluksiz davom etadigan ijodiy izlanish jarayonidir.

Bu jarayonda o‘quvchilar mustaqil ishlashga o‘rganadilar, keyingi bosqichlarda o‘z ilmiy faoliyatlarini olib borishiga zamin hozirlanadi. Bu ishlarni amalga oshirishda pedagogning o‘rni kattadir. Unda o‘qituvchining ilmiy salohiyati, mahorati, dunyoqarashi, tafakkuri va targ‘ibot maqsadlarini o‘z vaqtida anglash katta o‘rin tutadi. Targ‘ibot jarayonida “maqsad” quyidagi funksiyalarni bajaradi Muammoning asosiy faoli yat yo‘na lishini aniqlab olish Muammodagi masala larni konkretlashtirib olish Ishning har bir bosqichini aniqlash Mo‘ljal sari yo‘na lishni belgilab olish Muam moni aniq lashga yo‘naltiruvchi omil larni izlab topish O‘quvchilar kitob va boshqa qo‘llanmalar bilan ishlashga o‘rgatib borilishi zarur.O‘quvchilar faqat darslik kitoblaridan foydalanibgina qolmay, ular qo‘shimcha adabiyotlardan ham foydalanishni o‘zlashtirishlari lozimdir. Qo‘shimcha adabiyotlardan mantiqiy va o‘z o‘rnida foydalanish, ularni ishlata bilish, o‘zining darsga tayyorlanishi yoki ilmiy izlanishlarni olib borishi jarayonida ulardan samarali foydalanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar kitob ustida ishlashlari uchun ular kutubxona fondidan foydalanishni bilishlari lozim. Kutubxonaga tegishli qoidalar asosida a’zo bo‘lish, kutubxona rejimiga rioya qilishni o‘rganish, kutubxona o‘quv zallarida o‘zlarini tutishlari va kitobdan foydalanishni o‘rganishlari lozim. Kutubxonada ular sistemali kataloglardan foydalanish, ulardan foydalanishni bilish, kitobni o‘z o‘rnida topa bilish va boshqa bu jarayonga taalluqli xatti-harakatlarni bilishlari lozimdir. O‘quvchilarning ilmiy tadqiqotlari mustaqil ish, laboratoriya ishiga ajratiladi. Rejadan matnning mazmuni kelib chiqishi lozim. Matnning mazmuni va reja bir-biridan mazmun jihatidan alohidalik kasb etmasligi lozim. Mantda materiallar va dalillar chuqur ilmiylik kasb etishi, mavzuning mazmun va mohiyatini ko‘rsatib berishi lozimdir. O‘quvchilar adabiyotlardan foydalanishni ham bilishlari lozim. Adabiyotlar mavzuga xos bo‘lishi kerak. Adabiyotlar ro‘yxatining to‘g‘ri berilishi o‘quvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarining samarali yo‘nalishini ta’minlaydi. Adabiyotlarning ro‘yxatini tuzishda avval O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, keyin Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Prezident asarlari, kitoblari va risolalari, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, keyin islom dini manbalari, tarixiy adabiyotlar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, nazariy-metologik adabiyotlar, qo‘shimcha adabiyotlar turishi lozim.

Ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning zamonaviy talablari. O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: O‘quvchilarning ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi yo‘nalishlari bo‘yicha bilim va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabitotlar

1. Muhammad payg’ambar qissasi. Hadislar. – Toshkent, Kamalak, 1991, 60-b.
2. “Manuscript Funds of Uzbekistan –O‘zbekistondagi Qo‘lyozma fondlari muhofaza qilish, kataloglashtirish va mutaxassislar malakasini oshirish”, 2019 yil iyun. Samarqand Xalqaro anjumanining maqolalari to‘plami. İstanbul 2020. Daurbekova I. Imom Buxoriyning “al-Jome’ as-sahih” asari qo‘lyozmalarining dunyo kutubxonalaridagi nusxalaridan namunalar. –B389.
3. Oltin Silsila sahihul Buxoriy. J.1. B.83. “HILOL-NASHR”.2012.
4. Shamsiddinxon ibn Ziyoviddinxon ibn Eshon Boboxon. Sihohu-s-sitta. Toshkent 1986. –B 36.
5. Shayx Muhammad Anvar Shoh Al-Kashmiriy. As-Samah al-Jariy ila jannat al-Buxoriy. Maktabat al-asharot al-mubshsharot.B-31
6. Shayx Muhammad Avvoma Faqih imomlar ixtilofida hadisi sharifning o‘rni.”HILOL-NASHR”nashriyoti, 2018. B-27.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. “Sharq” nashriyoti, 2011. B-69.
8. Xolid Mansur Abdulloh ad-Daris. Mavqifu al-imamayni al-Buxoriy va Muslim min ashroti-l-liqya va-s-simo’. –B 272.

YOSH FUTBOLCHILARDA KUCH SIFATINI NOSTANDART MASHQLAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

O‘zbekiston. Abduraxmonov Bekali Bektosh o‘g‘li
Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdan boshlab yosh sportchilarning kuch sifatini oshirishda yordam beradigan nostandart mashqlar hamda ularning foydasi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Futbol, sportchi, bola, mashq, nostandart, sezgir, tanqidiy, badminton, lapta, stol tennisi, futbol, xokkey, **jismoniy rivojlanish, ruhiy rivojlanish, ijtimoiy ko‘nikmalar.**

Аннотация. В статье представлена информация о нестандартных упражнениях, способствующих развитию силы у юных спортсменов дошкольного возраста, и их пользе.

Ключевые слова: Футбол, спортсмен, ребенок, упражнение, нестандартный, чувствительный, критический, бадминтон, лапта, настольный теннис, футбол, хоккей, физическое развитие, умственное развитие, социальные навыки.

Abstract. This article provides information about non-standard exercises that help improve the strength of young athletes from preschool age and their benefits.

Keywords: Football, athlete, child, exercise, non-standard, sensitive, critical, badminton, lapta, table tennis, football, hockey, physical development, mental development, social skills.

Mamlakatimizda futbolning ommaviyligini yanada oshirish, istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash hamda professional darajada tayyorlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish, trener va hakamlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash va mahoratini yuksaltirish, futbol infratuzilmasini yaxshilash, futbolni rivojlantirish va yuqori mahoratli futbolchilarni tayyorlashga juda katta e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning PF5887-son 2019 yil 4 dekabrdagi “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonnida O‘zbekistonda futbolni aholi o‘rtasida eng ommaviy sport turiga aylantirish, yuqori iqtidorga ega bo‘lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish va ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, bolalar va o‘smirlarning futbol bilan shug‘ullanishga qiziqishini oshirish, havaskor futbolni ommaviylashtirish, bu borada maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumta’lim maktablari hamda boshqa ta’lim muassasalari, mahalla va tashkilotlarda futbol bo‘yicha musobaqalarni muntazam ravishda tashkil etish chora tadbirlari yo‘lga qo‘yildi.

Yosh sportchining tanasi murabbiyning pedagogik ta'siriga eng sezgir bo‘lgan yosh chegaralari «sezgir» davrlar deb ataladi. Jismoniy sifatlarni barqarorlashtirish yoki kamaytirish davrlari «tanqidiy» hisoblanadi. Shu munosabat bilan maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini ham muntazam ravishda futbol bilan shug’urllainshlari ularning yoshga doir jismoniy fiziologik xususiyatlarini rivojlanishiga ko‘maklashadi. Yosh guruhlarga oid harakat ko‘nikmalarining hajmi dasturda berilgan bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalarda saflanish, umum-rivojlantiruvchi mashqlar, asosiy harakatlar, sport mashqlarini bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Bundan tashqari, bolalarni sport o‘yinlariga (Badminton, stol tennisi) va sport o‘yinlari elementlari (basketbol, xokkey, futbol, voleybol)ni bajarishga o‘rgatish zarur. Harakatli qoidali o‘yinlarga syujetli va syujetsiz o‘yinlar kiradi. Sport o‘yinlariga voleybol, basketbol, badminton, stol tennisi, futbol, xokkey kiradi. Sport o‘yinlariga voleybol, basketbol, sharcha, badminton, lapta, stol tennisi, futbol, xokkey kiradi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, sport mashg'ulotlarida vosita qobiliyatini takomillashtirish jarayonini boshqarish samaradorligi sezilarli darajada yuqori bo‘ladi, agar pedagogik ta'sirlarning aks etishi ontogenez davrining xususiyatlariga mos keladigan bo‘lsa. bunday tayyorgarlik mezonlari qo‘llaniladigan vositalar ko‘p qirrali bo‘lishi kerak. Tananing rivojlanishining kuchli nuqtasi bo‘lgan yosh sportchining tanasining genetik jihatdan yetakchi qismlarini hisobga olish darkor, shunda ko‘zlangan natijaga erishiladi G.S. Lalakov tomonidan yosh futbolchilaming tayyorgarlik davrida mikrotsikl variantlarining samaradorligi o‘rganilgan bo‘lib, ularni qay tartibda bajarish

haquda batafsil ma’lumotlar berilgan. Aniqlanishicha, ikkinchi mashg’ulotdan 22 soat o‘tganidan keyin chidamlilikni rivojlantirish bo‘yicha kichik hajmdagi mashg’ulotlami amalga oshirishni boshlash mumkin hisoblanadi. Texnik usullami samarali bajarish asosini muskullar ichidagi va muskullar o‘rtasidagi koordinatsiya jarayonlari yoki koordinatsion qobiliyat tashkil qiladi. O‘yinchilaming o ’rgatilishi, ayniqsa futbol texnikasida yosh futbolchilaming o‘rganitilishi unga bog’liq hisoblanadi.

Yosh futbolchilarda kuch sifatini oshirishga oid nostandart mashqlarga misollar:

- ✓ Plyometrik mashqlar (sakrashli mashqlar);
- ✓ TRX yoki resistance bands bilan mashqlar;
- ✓ O‘yin shaklidagi kuch mashqlari (masalan, turtish, tortish, og’irlik bilan estafeta);
- ✓ Koordinatsiya va reaksiya bilan uyg‘unlashgan kuch mashqlari;
- ✓ Stabilizatsion mashqlar (masalan, fitball ustida balansni saqlab bajariladigan kuch mashqlari)

Aynan **maktabgacha yoshdagi bolalar (3-6 yosh) uchun futbolning foydasi:**

Jismoniy rivojlanish: koordinatsiya, muvozanat, chaqqonlik, tezlik va moslashuvchanlik rivojlanadi.

Ruhiy rivojlanish: diqqat, sabr, ishonch, yetakchilik va jamoaviylik hissi paydo bo‘ladi.

Ijtimoiy ko‘nikmalar: do‘stlashish, o‘zaro yordam, qoidalarni tushunish va amal qilish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan futbol mashg‘ulotlar xususiyatlari: o‘yin shaklida bo‘lishi kerak, oddiy va tushunarli topshiriqlar (masalan: to‘pni aylantirish, to‘p ortidan yugurish, to‘pni to‘g‘ri ushlab yurish), 15-30 daqiqalik qisqa darslar, rag‘batlantirish — maqtov, medal, nishonchalar, ko‘p sonli tanaffuslar, dam olish vaqtlarini inobatga olish zarur hisoblanadi.

Futbol – bu faqat sport emas, balki bolani har tomonlama rivojlantirish vositasi. Maktabgacha yoshda to‘g‘ri tashkil etilgan futbol mashg‘ulotlari bolaning salomatligiga, ijtimoiylashuviga, harakat ko‘nikmalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yosh futbolchilarning tez va sifatli rivojlanishi uchun turli xil usullardan to‘g’ri foydalanish, to‘g'ri isinish usullarini qo‘llash, pliometrik va qarshilik mashqlarini o‘z ichiga olgan holda, sprint va HIITga e'tibor qaratish, ovqatlanish va dam olishga e'tibor berish, sportga xos mashqlardan foydalanish va aqliy tayyorgarlikni rag'batlantirish orqali murabbiylar va murabbiylar yosh sportchilarning sezilarli o‘sishiga yordam berishi mumkin. Fidoyilik, izchillik va to‘g'ri mashq qilish usullari bilan yosh futbolchilar o‘zlarining tezligi va ishlash qobiliyatlarini sportda ustunlik qilishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.T.Iseyev “Futbolchilarni yillik siklda tayyorlashni rejalashtirish” «ITA-PRESS» 2014. 460 b. O‘quv qo‘llanma TOSHKENT — 2014
2. M.X.Tadjiyeva, S.I.Xusanxodjayeva “Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” O‘quv qo‘llanma Toshkent “IQTISOD-MOLIYA” 2017
3. S.A.Abdumalikov, F.F.Haydarov “14-15 yoshli futbolchilarning tezkor-kuch sifatlarini o‘yin usullari orqali rivojlantirish” Problems and prospects for the emplementation of interdisciplinary research 324-327
4. Sabirova Nasiba Rasulovna “Yosh futbol o‘yinchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari” 10.53885/edinres.2021.48.16.054 297-304
5. I.M.Abdullayev “Yosh futbolchilarda tezlik sifatini rivojlantirish uslublari” «Экономика и социум» №2(117)-1 2024 25-29.

BOLALARDA TINGLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING O‘ZIGA XOSLIGI

O‘zbekiston. Temirova Nargiza Davlat qizi
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich fakulteti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
*Ilmiy rahbar:****Musayeva Shaxlo Kudratovna***
Renessans ta’lim universiteti Filologiya kafedrasi v.b.,dotsenti
E-mail: musayevasahlo81@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda tinglash madaniyatini tarbiyalash usullari, hamda tinglash madaniyatini shakllantirishda o‘zbek xalq ertaklarining o‘rni haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ertak, nutq,tinglash, og‘zaki nutq, yozma nutq, xalq ertaklari, kolorit, etnografik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы воспитания культуры слушания у детей дошкольного возраста, а также роль узбекских народных сказок в формировании этой культуры.

Ключевые слова: Сказка, речь, слушание, устная речь, письменная речь, народные сказки, колорит, этнографический.

Abstract: This article discusses methods of cultivating listening culture in preschool-aged children, as well as the role of Uzbek folk tales in developing listening skills.

Keywords: Fairy tale, speech, listening, oral speech, written speech, folk tales, coloring, ethnographic.

Jamiyatning ma’naviy takomili unda amalga oshiriladigan ta’lim - tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog’liqdir. Shu boisdan ham ta’limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma - bosqich ta’lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta’minlash zaruriyati yuzaga keladi. Ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘quvchi-tarbiyachi bilish faoliyatini yo‘lga qo‘yish muhimdir. Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinliki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilish lozim bo‘lgan masalalar ham talaygina. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tinglash madaniyatini shakllantirish masalalari birlamchi holatlardan biri hisoblanadi.

O‘zbek xalq ertaklari tinglash madaniyatini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Bu ertaklarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning tili va uslubi, obrazlar tizimi va syujet qurilishi bolalarning tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. O‘zbek xalq ertaklarining ko‘pchiligi og‘zaki an’ana asosida shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Bu esa ularning tinglovchiga mo‘ljallangan, eshitish uchun qulay shaklda yaratilganligini ko‘rsatadi[74]. Ertaklarning til xususiyatlari, jumladan, takrorlar, qofiyali so‘zlar, ohangdor iboralar bolalarning diqqatini jalb qiladi va ularning tinglash jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi. Shu bilan birga o‘zbek xalq ertaklaridagi obrazlar tizimi, til boyligini o‘zlashtirish ham tinglash madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ertaklardagi qahramon va personajlarning xatti-harakatlari, ularning o‘zaro munosabatlari bolalarning qiziqishini oshiradi, ularni diqqat bilan tinglashga undaydi. Ertaklarda qo‘llanilgan maqollar, iboralar, o‘xshatishlar va boshqa badiiy-tasviriy vositalar bolalarning lug‘at boyligini oshiradi, ularning nutqini boyitadi. Bular esa o‘z navbatida tinglash jarayonida yangi so‘z va iboralarni tushunish, ularning ma'nosini kontekstdan anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ertaklardagi milliy kolorit va etnografik elementlar ham kichik kitobxonning tinglash madaniyatini shakllantirishda o‘ziga xos rol bor. Ertaklar orqali bolalar o‘z xalqining turmush tarzi, urf-odatlari, an'analari haqida ma'lumot oladi[75]. Bu esa tinglash jarayonida matnning madaniy kontekstini tushunish, milliy o‘ziga xoslikni idrok etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan bir

[74] Jo‘rayev M. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi. – Toshkent: Fan, 1985.B.37.

[75] Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010.B.8.

qatorda o‘zbek xalq ertaklarining didaktik ahamiyati ham tinglash madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ertaklardagi axloqiy saboqlar, hayotiy hikmatlar bolalarni fikrlashga, xulosa chiqarishga undaydi. Natijada, tinglash jarayonida matndan ma'naviy-axloqiy g‘oyalarni ajratib olish, ularni real hayot bilan bog‘lash ko‘nikmalari rivojlanadi. Ertaklardagi yumorga boy epizodlar va qiziqarli vaziyatlar tinglash madaniyatini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Ular bolalarning e'tiborini jalb qiladi, tinglash jarayonini qiziqarli va zavqli qiladi. Bu esa tinglash motivatsiyasini oshiradi, uzoq vaqt diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘zbek xalq ertaklaridagi shunday tasviriy vositalar borki bu vositalar bolalarning badiiy didini shakllantiradi. Ular tinglash jarayonida so‘z san'atining go‘zalligini his qilish, badiiy ifoda vositalarini idrok etish qobiliyatini o‘stiradi. Ertaklardagi milliy qadriyatlar va urf-odatlar tasvirlari bolalarda milliy o‘zlikni anglash hissini uyg‘otadi. Bu esa ma’naviy olamini kengaytirib, tinglash madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, o‘z xalqining madaniy merosiga hurmat va qiziqish uyg‘otadi. O‘zbek xalq ertaklarining og‘zaki ijro an'analari bolalarning nutq ohangdorligini yaxshilaydi. Tinglash jarayonida ular intonatsiya, urg‘u va pauza kabi nutqning prosodik elementlarini o‘zlashtiradi. Ertaklardagi qahramonlarning xarakter xususiyatlari bolalarda empatiya hissini rivojlantiradi. Bu esa tinglash paytida personajlarning ichki kechinmalarini tushunish, ularning harakatlarini baholash qobiliyatini oshiradi. Ertaklarining til boyligidagi maqol va matallar bolalarning nutq madaniyatini yuksaltiradi. Tinglash jarayonida ular xalq donishmandligining ixcham ifodalari ma'nosini anglashni o‘rganadilar. Qadim o‘tmishga dahildor ma’navaiy merosimiz bilan yaqindan tanishadilar. Ertaklardagi syujet rivojining dinamikasi bolalarning diqqatini jamlash qobiliyatini kuchaytiradi. Bu esa tinglash paytida voqealar ketma-ketligini kuzatish, asosiy g‘oyani ajratib olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘zbek xalq ertaklarining falsafiy mazmuni bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi. Ular tinglash jarayonida hayotiy haqiqatlarni anglash, murakkab tushunchalarni idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Ertaklardagi tabiat tasvirlari bolalarning ekologik ongini shakllantiradi.

O‘zbek xalq ertaklari bolalarning tinglab tushunish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular o‘ziga xos tili, uslubi, obrazlar tizimi va syujet tuzilishi bilan bolalarning diqqatini jalb qiladi va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ertaklardagi takrorlar, qofiyalar va boshqa lingvistik elementlar bolalarning fonetik sezgirligini oshiradi, nutq apparatini takomillashtiradi. Qahramonlarning xatti-harakatlari va syujet rivojlanishi bolalarda qiziqish uyg‘otadi, diqqatli tinglashga undaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki o‘zbek xalq ertaklarida aks ettirilgan hayotiy vaziyatlar bolalarni kelajakdagi qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Qahramonlarning qat'iyatliligi va maqsadga yo‘naltirilgan harakatlari bolalarda sabr-toqat, matonat kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Bu xususiyatlar bolalarning shaxsiy rivojlanishida, kelajakdagi muvaffaqiyatlarida muhim rol o‘ynaydi. Ertaklardagi qahramonlarning muammolarni hal qilish usullari bolalarga ijodiy va noan'anaviy fikrlashni o‘rgatadi, bu esa innovatsion g‘oyalarni yaratish va murakkab vaziyatlardan chiqish yo‘llarini topishda foydali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T. “O‘zbekiston”, 2017 y.
2. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. «Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi». T., «Istiqlol», 2006.
3. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. «Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o‘rgatish metodikasi». T., «Sano-Standart», 2004.
4. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010.
5. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi. – Toshkent: Fan, 1985.
6. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti rasmiy veb-sayti: www.tai.uz
7. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi elektron katalogi: www.natlib.uz.

AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

O‘zbekiston. NamDTU assistenti Z. Jumanazarova

Annotatsiya: Ushbu tezisda amaliyotga yo'naltirilgan ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning ta'lim sifatini oshirish, talabalarda tanqidiy fikrlash va muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli ko'rsatib o'tilgan. Interaktiv ta'lim tizimlari, virtual laboratoriyalar, LMS, mobil ilovalar, multimedia vositalari va sun'iy intellekt asosidagi tizimlar kabi asosiy raqamli texnologiyalarning tavsifi keltirilgan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish bosqichlari va ularning samaradorligi ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta'lim, virtual laboratoriya, LMS, mobil ilova, multimedia, sun'iy intellekt, ta'lim sifati.

Аннотация: В данном тезисе анализируется роль и значение цифровых технологий в практико-ориентированном образовании. Показана роль цифровых технологий в повышении качества образования, развитии у студентов критического мышления и навыков решения проблем. Представлено описание основных цифровых технологий, таких как интерактивные образовательные системы, виртуальные лаборатории, LMS, мобильные приложения, мультимедийные средства и системы на основе искусственного интеллекта. Проанализированы этапы внедрения цифровых технологий и показатели их эффективности.

Ключевые слова: Практико-ориентированное образование, цифровые технологии, интерактивное обучение, виртуальная лаборатория, LMS, мобильное приложение, мультимедиа, искусственный интеллект, качество образования.

Abstract: This thesis analyzes the role and significance of digital technologies in practice-oriented education. It highlights the role of digital technologies in improving the quality of education and developing students' critical thinking and problem-solving skills. A description of key digital technologies such as interactive learning systems, virtual laboratories, LMS, mobile applications, multimedia tools, and artificial intelligence-based systems is presented. The stages of implementing digital technologies and indicators of their effectiveness are analyzed.

Keywords: Practice-oriented education, digital technologies, interactive learning, virtual laboratory, LMS, mobile application, multimedia, artificial intelligence, quality of education.

XXI asrda ta'lim tizimida yuz berayotgan innovatsion o‘zgarishlar raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylantirdi. Ayniqsa, amaliyotga yo‘naltirilgan ta'limda raqamli vositalarning roli beqiyos bo‘lib, ular nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayoni interaktiv, qiziqarli va talabalarning faol ishtirokiga asoslangan bo‘ladi.

Mazkur tezisda raqamli texnologiyalarning amaliyotga yo‘naltirilgan ta'limdagi o‘rni, ularning turlari, afzalliklari, qo‘llanilish yo‘nalishlari va real hayotdagi misollar orqali tahlil qilinadi.


Raqamli texnologiyalar bu — axborotni raqamli shaklda yaratish, saqlash, uzatish va qayta ishlashga asoslangan vosita va tizimlardir. Ta'limda keng qo‘llanilayotgan asosiy raqamli texnologiyalar quyidagilardan iborat:

Texnologiya turi	Tavsifi
Interaktiv ta'lim tizimlari	O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida faol muloqotni ta'minlaydi
Virtual laboratoriyalar	Amaliy tajribalarni simulyatsiya qilish imkonini beradi
LMS (Learning Management System)	Kurslarni boshqarish va monitoring qilish imkonini beradi
Mobil ilovalar	Har qanday joyda mustaqil ta'lim olish imkonini yaratadi
Multimedia vositalari	Video, audio, animatsiya orqali bilimni tushuntirish
Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar	Individual ta'lim yo‘nalishini shakllantirish imkonini beradi

Amaliyotga yo‘naltirilgan ta'lim — bu nazariy bilimlar bilan bir qatorda real ish sharoitiga yaqin muhitda ko‘nikma hosil qilishni maqsad qilgan ta'lim shaklidir. Raqamli texnologiyalar bu jarayonda:


- Ta’lim sifatini oshiradi va moslashtiradi;
- Talabalarda tanqidiy fikrlash va muammo yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- Ko‘p sonli ma’lumotlar bilan ishlashni o‘rgatadi;
- Amaliy mashg‘ulotlarda xatolardan xoli o‘rganish imkonini beradi.

Misol 1: Muhandislik yo‘nalishidagi talabalar virtual laboratoriyalar orqali murakkab mexanizmlarni yig‘ish va tahlil qilishni o‘rganmoqdalar. Masalan, "Labster" dasturi orqali biologiya, kimyo va fizika laboratoriyalari simulyatsiya qilinmoqda.



Rasm 1. Raqamli texnologiyalar asosidagi amaliy mashg‘ulot modeli

Misol 2: "Moodle" tizimi yordamida har bir talabaning o‘zlashtirish darajasi monitoring qilinadi, topshiriqlar beriladi va baholanadi.



Rasm 2. Virtual laboratoriyada simulyatsiya asosidagi o‘quv jarayoni

Tatbiq etish bosqichlari

Bosqich	Faoliyat turi
1. Rejalashtirish	Texnologiyani tanlash va o‘quv rejaga kiritish
2. Tayyorlov	O‘qituvchilarni o‘qitish, texnik baza yaratish
3. Joriy etish	Platformani ishga tushirish va talabalar bilan ishlash
4. Monitoring va tahlil	Jarayonni kuzatish, tahlil qilish va takomillashtirish

Raqamli texnologiyalar samaradorligi

Ko‘rsatkich	An'anaviy ta'lim	Raqamli texnologiyalar bilan ta'lim
Talabalar faolligi (%)	55	82
Mustaqil ishlash ko‘nikmasi	O‘rta	Yuqori
O‘zlashtirish darajasi (%)	60	85
Texnik vositalardan foydalanish	Past	Yuqori

Amaliyotga yo‘naltirilgan ta'limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash yuqori malakali, zamon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini interaktiv, ko‘rgazmali va natijador qiladi. Kelajakda raqamli vositalarning soni va sifati ortib borishi bilan, ta'limda ularning ahamiyati yanada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva G. Raqamli ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2022.
2. To‘xtayev B. Amaliy pedagogika asoslari. – Samarqand: Ilm Ziyo, 2021.
3. UNESCO. "Digital Learning: Education in the Era of Technology" – 2023.
4. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim portali.
5. Moodle.org – Learning Management System haqida ma’lumotlar.
6. Labster.com – Virtual laboratoriyalar platformasi.
7. Azizova D. Raqamli pedagogik kompetensiyalar. – Toshkent: Barkamol Avlod, 2023.

TARBIYA FANLARINI SIFAT BOSQICHIGA KO‘TARISHNING ZARURATI

O‘zbekiston.Sharopova Diyora

Navoiy davlat universiteti

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiya fanlari va ularning o‘qitilish jarayonlari haqida bugungi kunda olib borilayotgan metadalogik o‘qitish masalalari ilgari surilgan. O‘qitishning modulli tizimi davlat ta’lim standartlarining dunyodagi pedagogik asoslari tadqiq etilgan

Kalit so‘zlar: Ta’lim tarbiya, pedagogik asos, YUNESKO, ijtimoiy-gumanitar, modulli o‘qitish

Аннотатция. В статье рассматриваются вопросы современной методологии преподавания педагогических наук и процессов их преподавания. Модульная система обучения изучена в мировых педагогических основах государственных образовательных стандартов

Ключевые слова: Образование, педагогические рамки, ЮНЕСКО, социально-гуманитарное, модульное обучение

Annotation. This article presents the issues of methodological teaching of educational sciences and their teaching processes that are being carried out today. The pedagogical foundations of the modular system of teaching and state educational standards in the world are studied.

Keywords: Education, pedagogical framework, UNESCO, socio-humanitarian, modular teaching.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasi mavjud sharoitda O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz talim tizimi, yo‘nalishlari, o‘quv yurtlarida amalga oshirilayotgan pedagogik jarayonni qamrab oladi. Bugungi kunda ta;lim muassasalarining bir qachasida oliy o‘quv yurtlarida tarbiya fanlarini o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularda sohaning umumiy asoslari, metodologiyasi, ustuvor tamoyillari, pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish shartlari, samarali shakl, metod va vositalariga oid bilimlar yoritiladi. Fan asoslarining talabalar tomonidan puxta o‘zlashtirilishiga erishish yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbuslari bilan qabul qilingan “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Qarorida “o‘qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-laboratoriya anjomlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag’batlantirish” masalasi alohida ta’kidlab o‘tilgan[76].

[76] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27 -iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini

“Gumanitar” fanlarining umumiy asoslari yashash, terib-termachlab kun kechirishga asoslangan ibtidoiy tuzumda kattalar tajribasini yoshlarga o‘rgatishga qaratilgan amaliy harakatlardan boshlab, to bugungi kun – axborot asriga qadar bosib o‘tilgan insoniyat tarixiy taraqqiyotini ifodalovchi marifiy va tarbiyaviy g’oyalar negizida shakllangan. Shu sababli ularni puxta o‘rganish pedagogika kollejlari o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talabalari tomonidan bo‘lajak mutaxassis sifatida kelgusida kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish, ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalashga erishish imkoniyatini yaratadi.

Mavjud sharoitda mustaqil O‘zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko‘tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma’naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog’ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o‘z ustida ishlashi, o‘z mukammalligi xususida qayg’urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning nazariy asoslari ta’lim jarayonini tashkiliy, metodik jihatdan to‘g’ri tashkil etish, talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ular tomonidan chuqur bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratish imkoniyatini bildiradi.

Zamonaviy ta’limda sifat tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Sifat g’oyasi ta’lim tizimining barcha tarkibiy qismlari va darajalari uchun birdek taalluqli va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sifatni baholash ta’lim tizimining moddiy-texnik ta’minoti, kadrlar bilan ta’minlanganligi, ta’lim dasturlarining mavjudligi, o‘quv-me’yoriy hujjatlar to‘plamining yaratilganligi va boshqa elementlarini qamrab oladi.

“Sifat” atamasi mustaqil metodologik tushuncha sanaladi. Natijaning qo‘yilgan maqsadga moslik darajasi “sifat” tushunchasi bilan ifodalanadi. Sifat haqida so‘z borganda maqsadga muvofiqlik nazarda tutiladi. Ko‘zlangan maqsadga erishilganlik, tayyor mahsulotning mavjud me’yoriy hujjatlar hamda iste’molchilarning talablariga qanchalik mos kelishi, muvofiqligini aniqlash uchun “Maqsad nima?”, “Maqsad natijalandimi?”, “Tayyor mahsulot mavjud me’yoriy hujjatlar hamda iste’molchilarning talablariga mos keldimi?” kabi savollarga javob topish talab qilinadi. “O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi[77].

“Ta’lim sifati” tushunchasi jarayonning holati, natijaviyligini tavsiflashiga, ta’limning ijtimoiy-me’yoriy maqsadlarga mosligini ifodalashga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimida “sifat” tushunchasi: ta’lim xizmati, bitiruvchi (ya’ni, mahsulot)ning yaroqliligi; ta’lim xizmatini ko‘rsatishda rejalashtirilgan maqsadga erishilganlik; pedagogik faoliyat, ta’lim xizmatini ko‘rsatishning takomilga yetganligi, samaradorlikning ta’minlanganligi kabi holatlar to‘g’risida ma’lumot beradi.

“Sifat” tushunchasi odatda xizmat ko‘rsatuvchi va iste’molchi tomonidan nisbiy va absolyut tushuncha sifatida sharhlanadi. Tushunchaning nisbiy yoki absolyut ekanligi o‘z navbatida xizmat ko‘rsatuvchi va iste’molchining yondashuvini ifodalaydi.

Mazmuniga ko‘ra “ta’lim sifati” tushunchasi quyidagilarni ifodalaydi:

1) belgilangan maqsad, mavjud ehtiyoj, iste’molchilarning talablariga javob berib, me’yoriy hujjatlar ko‘rsatmalariga mos keladigan ta’lim xususiyati;

2) DTS, ijtimoiy buyurtma talablariga muvofiq tayyorlangan ta’limiy mahsulot yoki xizmatlarning yaroqlilik darajasi;

3) ta’lim xizmatini tashkil etish orqali olingan natijaning maqsadga, mavjud ijtimoiy-me’yoriy talablarga mos (mos emas)ligi, muvofiq (yoki nomuvofiq)ligi.

---

oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi PQ-3151-son Qarori

[77] Yo’ldoshev J.G’., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. T.: 2004. –B.43.

Ushbu tushuncha negizida quyidagi holatlar anglanadi: o‘qitish sifati (o‘quv jarayoni, pedagogik faoliyat); ilmiy-pedagogik kadrlar sifati; Ta’lim dasturi (o‘quv dasturlari)ning sifati; moddiy-texnik asos, axborotli ta’lim muhitining sifati; talaba sifati; ta’limni boshqarish sifati; ilmiy tadqiqotlar sifati va b.

Mohiyatiga ko‘ra “ta’lim sifati” tushunchasi ijtimoiy-pedagogik kategoriya sanaladi. OTM tomonidan ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmati sifatini baholashda bu jarayonda bevosita ishtirok etuvchi sub’ektlar (ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilar) hamda homiylar (ota-onalar, ijtimoiy institutlar, buyurtmachi – ish beruvchilar)ga munosabatning ochiqlik, oshkoralikka tayanishi talab etiladi. Bu esa o‘z-o‘zidan ta’lim xizmati sifatini belgilovchi asosiy omillarni belgilash, shakllantirish borasida o‘zaro kelishib va tasdiqlab olishni taqozo etadi.

“Bundan yuqori malakali pedagoglarga bo‘lgan talablarning ortib borishida, fanning fundamental asoslarini, zamonaviy metodlarni mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo‘lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi”[78]. Pedagoglarning ta’lim jarayonini tashkil etishdagi mahoratlari, yuqori kasbiy malakasi, ijodkorligi, o‘z ustida doimiy ishlashi, izlanishi, talabalarning ta’lim olishga bo‘lgan qiziqish, ehtiyoj va ijobiy munosabatlari, ta’lim sharoitlari (OTMning moddiy-texnik ta’minoti, bilimdon, o‘z kasbining ustasi bo‘lgan, mahoratli kadrlar bilan to‘liq ta’minlanganligi, ta’lim jarayonining ilg’or pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etilishi, boshqarishda demokratik va insonparvarlik tamoyillarining ustuvor o‘rin tutishi, pedagog va o‘quvchi (talaba)lar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka asoslangan ijobiy munosabat, OTMda qaror topgan sog’lom ijtimoiy-ma’naviy muhit va b.) ta’lim sifatini ta’minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, ta’lim sifati tushunchasi OTMning bitiruvchisi va uning tayyorgarlik darajasini ifodalaydi. Har bir ob’ekt o‘z xususiyatiga ega bo‘lgani kabi bitiruvchi ham nafaqat sifat, balki miqdor ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi zarur.

Pedagogikada, shuningdek, “ta’lim jarayonining sifati” tushunchasi ham ishlatiladi. Xo‘sh, ta’lim jarayonining sifati nima?

V.P.Panasyukning ko‘rsatishicha, ta’lim jarayonining sifati:

1) majmuaviylik;

2) aniq maqsadga yo‘naltirilganlik;

3) muvofiqlashtirilgan o‘zaro ta’sir jarayonining holati bilan aniqlanadi.

Ta’lim sifatini belgilashda ikki muhim asos alohida o‘rin tutadi. Ular iste’molchilar tomonidan qo‘yiladigan ijtimoiy talab hamda huquqiy-me’yoriy hujjatlar, DTSda o‘z in’ikosini topadigan me’yoriy talablardir. Eng avvalo o‘qitishning modulli tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

“Modulli o‘qitish” termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog’liq bo‘lib («modul», lat. modulus), uning bitta ma’nosi faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog’liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma’noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Modul – bu fanning fundamental tushunchasini takdim etadi: muayyan jarayoni yoki qonuni, bo‘limi, muayyan katta mavzusi, o‘zaro bog’liq tushunchalar guruhidir.

1982-yil YUNESKOning anjumandagi ma’ruzasida modulga “Mashqlarni xususiy tezlikda diqqat bilan tanishish va ketma-ket o‘rganish orqali individual yoki guruh mashg’ulotlarida bir yoki bir necha malakaga ega bo‘lish uchun mo‘ljallangan alohida o‘rgatuvi paket (to‘plam)” deb ta’rif berilgan edi. An’anaviy ta’limda o‘quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya’ni bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, modulli o‘qitishda ta’lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

[78] Begimqulov U. Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2007. – B.3

Modulli o‘qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog’liq:

- ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi darajasi;
- tinglovchilar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o‘qitishda o‘quv dasturlarini to‘la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o‘qitish imkoniyati yaratiladi. Ya’ni o‘qitishni individuallashtirish mumkin bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki ta’lim sifatiga erishishda unga nisbatan ijtimoiy va me’yoriy talablarning mohiyatini anglab olish maqsadga muvofiqdir. Zero, ta’limning innovatsion texnologiyalari xilma-xil bo‘lib, pedagog o‘qituvchi har bir mavzuga mos pedagogik texnologiyalarni to‘gri tanlashi, talabalarni atroflicha bilim olishlari uchun qulay metodik shar-sharoit yaratishi zarur. Zamonaviy sharoitda ta’lim sifatiga nisbatan quyidagi ijtimoiy va me’yoriy talablar qo‘yilmoqda. Ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini hozirgi zamon talablari asosida tashkil etish, yangicha fikrlaydigan, mustaqil va ijodiy faoliyat ko‘rsatadigan yuqori malakali pedagoglarga ehtiyoj katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27 -iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g’risida” gi PQ-3151-son Qarori
2. Yo‘ldoshev J.G’., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. T.: 2004.
3. Begimqulov U. Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2007.

TARBIYA FANLARINI O‘QITISHDA INNOVATSIYA VA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

O‘zbekiston.Kucharboyeva Durdona Navoiy davlat universiteti
“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya fanlarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik tajribalardan foydalanish, ta’lim modelining milliy metadologik jihatlaridan pedagogik o‘qitishda foydalanish, shuningdek, mahalliy tadqiqotchi olimlarning konsepsiyalari ilgari surilgan

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, ta’lim tarbiya, pedagogik mahorat, tajriba metodlari, pedagogik ta’sir

Аннотатция: В статье рассматривается использование современного педагогического опыта в преподавании педагогических наук, использование национальных методических аспектов образовательной модели в педагогическом обучении, а также концепций отечественных ученых-исследователей

Ключевые слова: Инновации, образование, педагогическое мастерство, экспериментальные методы, педагогическое воздействие

Annotation: This article presents the use of modern pedagogical experiences in teaching educational sciences, the use of national methodological aspects of the educational model in pedagogical teaching, as well as the concepts of local research scientists

Keywords: Innovation, education, pedagogical skills, experimental methods, pedagogical impact

Jahonda ta’lim taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat sifatida tan olingan, ta’limni boshqarish jarayonini takomillashtirish va uning sifatini baholash, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beradigan

mexanizmlarni amaliyotga joriy qilish ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” [79], deb uqtirdi.

Pedagogikada innovatsion muammolarni hal etishda o‘qituvchining ijodiy faoliyati eng dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Pedagogikaning ijodiy salohiyati uning barkamol shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo‘yishi va ijodkor shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish borasida dars samaradorligini ta’minlash, ta’lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta’limni texnologiyalashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda, ta’limda innovatsion texnologiyalarini joriy etish ta’lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o‘rin olgan.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta’limning sifat va samaradorligini oshirishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga ko‘chayib bormokda. Zamonaviy ta’lim dasturlari asosida innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etishda mamlakatimiz uzluksiz ta’lim tizimida rivojlangan xorijiy mamlakatlarning o‘qitish amaliyotida qo‘llanilayotgan ilg‘or pedagogik texnologiyalar va ta’lim innovatsiyalaridan foydalanilmoqda. Tadqiqot ishimizda ularning ayrimlari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

O‘z mohiyatiga ko‘ra bu yo‘nalish ta’lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to‘laqonli rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu esa Davlat ta’lim standarti talablariga rioya qilgan holda o‘quvchining intellektual rivojlanishi darajasiga yo‘naltirilib qolmay, uningning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarda, o‘quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Oliy, o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim tizimi uchun, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ishbilarmonlik o‘yinlari;
- muammoli o‘qitish;
- tabaqalashtirilgan o‘qitish;
- dasturlashtirilgan o‘qitish;
- kompyuterlashtirilgan o‘qitish;
- modulli o‘qitish.

Muammoli o‘qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj.Dyunning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30-yillarida tarqala boshladi. Dj.Dyun o‘qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy. Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so‘z, san’at asarlari, texnik qurilmalar, o‘yinlar va mehnat.

Bugungi kunda, muammoli o‘qitish deganda mashg’ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o‘quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o‘quvchilar kasbiy bilimlarga, ko‘nikmalarga, malakalarga ega bo‘ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Keyingi yillarda ushbu pedagogic muammolarga oid bir qancha adabiyotlar yaratildi. Jumladan, M.Ziyomuhamedov va M.Tojiyevning “Pedagogik texnologiya - zamonaviy o‘zbek modeli”[80], B.Xidirovaning “Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo‘llashning nazariy va amaliy asoslari”[81]nomli qo‘llanmalarida zamonaviy interfaol usullardan foydalanishning dolzarbligi va foydalanish usullari yoritilgan. Ammo mavzuni metodik jihatdan yoritgan o‘quv qo‘llanma yoki uslubiy qo‘llanma yozilmagan. Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, hozirgacha mavzu metodik nuqtai nazardan kompleks ravishda o‘rganilgan emas va bu bizga mavzuni tadqiq etish uchun asos bo‘ldi.

[79] Sh.M.Mirziyoevning Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak T.: O‘zbekiston, 2017.

[80] Ziyomuhamedov, M.Tojiyev. Pedagogik texnologiya - zamonaviy o‘zbek modeli//Lider Press. - Toshkent: 2009.

[81] Xidirova B. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo‘llashning nazariy va amaliy asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.

Mavzuning metodologik va nazariy asoslarini O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi[82], “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni[83], O‘zbekiston Republikasi Prezidenti asarlarida ta’limni rivojlantirishga oid bildirilgan fikr va mulohazalari, xulosalari ta’lim-tarbiya fanlarining metodologik asosini belgilashda muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Ta’limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta’lim markazida bo‘lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o‘qituvchilar kerak. Buning uchun pedagog o‘qituvchilarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o‘quv tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim. Shu bois kasbiy tafakkur ko‘p jihatdan ta’limni samarali tashkil etish, uning taraqqiyoti darajasiga asoslanadi. O‘z navbatida tarbiya ta’limini samarali tashkil etish ijtimoiy ehtiyoj tariqasida mustaqil munosabat tizimida vujudga keladi. O‘sib kelayotgan yosh avlod ongida ilmiy asoslangan qarashlar imkoniyati yaratiladi. Zamon talablari asosida pedagogika ta’limidagi bunday yondashuv ta’lim samaradorligini oshiradi.

Qadimgi Rim mutafakkiri Kvintilian “agar o‘quvchilar bir-biriga o‘rgatsalar, mustahkamroq va chuqurroq bilimlarga ega bo‘ladilar” deb ta’kidlagan, Rim faylasufi Seneka esa “Qui Docet Discet”, ya’ni “O‘qitayotgan ikki marta o‘qiydi” degan. O‘z navbatida, Y.Komenskiy “O‘z o‘rtoqlariga o‘rgatish va shu orqali o‘zi o‘rganish imkoni har bir bolaga foyda keltiradi” deb hisoblagan. Xulosa qilib aytganda kasbga bo‘lgan fidoyilik bilimi va tajribalarning birikmasi pedagog faoliyatining eng yuqori cho‘qqisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyevning Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Ziyomuhamedov, M.Tojiyev. Pedagogik texnologiya - zamonaviy o‘zbek modeli / Lider Press. - Toshkent: 2009.
3. Xidirova B. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo‘llashning nazariy va amaliy asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent, 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: 2020.

РОЛЬ ВЫСОКОКАЧЕСТВЕННОЙ ИНФОРМАЦИОННО- ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ НА РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА

Ашурова С.Ю.
Доктор педагогических наук, профессор
Институт развития профессионального образования
Уматалиева К.Т.
Докторант института развития
профессионального образования (PhD)
Ташкент Узбекистан

На сегодняшний день система профессионального образования является одной из самых обширных сфер человеческой деятельности. Во всем мире возросла социальная роль образования. От его направленности и эффективности во многом зависят перспективы развития человечества. «Ныне общепризнано, - говорится в одном из важнейших документов ЮНЕСКО, - что политика, направленная на борьбу с бедностью, защиту окружающей среды, укрепление прав человека, улучшение международного взаимовлияния и обогащение национальной культуры не дадут эффекта без соответствующей стратегии в области образования»

[82] O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent, 2023.
[83] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: 2020.

Образование сегодняшнего дня получило новый виток своего развития Для достижения задач поставленных перед системой образования в условия открытой образовательной системы необходимо активное внедрение информационных ресурсов и создания информационно среды для педагогов и обучающихся профессионального образования.

Создание высококачественной высококачественной информационно- образовательной среды влияющей на развитие методической компетентности педагога профессионального образования рассматривается в основном как достаточно сложная техническая задача, позволяющая коренным образом модернизировать технологическую основу системы образования, осуществить переход к открытой образовательной системе, отвечающей требованиям постиндустриального общества. Вместе с тем нельзя отрицать, что создание данной среды это не только чисто техническая задача. В широком смысле, образовательная среда подсистема социокультурной среды, совокупность исторически сложившихся фактов, обстоятельств, ситуаций. Она выражается в целостности специально организованных педагогических условий развития личности.[1]

Информационно-образовательная среда изучалась во многих аспектах. Из них стоит выделить следующие три.

Во-первых, как одна из сторон деятельности. Человек при этом рассматривается, как участник коммуникационного процесса, т.е. в основном с точки зрения своей способности представить личное знание в той форме, в какой это знание может быть отчуждено, т.е. в форме информации. А, восприняв информацию, вновь превращать ее в свое личное знание.

Во-вторых, как система исторически сложившихся форм коммуникации.

В-третьих, как созданная всем обществом информационная инфраструктура, позволяющая осуществить коммуникативную деятельность в масштабах, соответствующих уровню развития этого общества: издательства, библиотеки, информационные центры, банки данных, средства массовой информации и т.п.

Одной из особенностей информационной среды является то, что любая информационная среда предоставляет возможность получения необходимых для него данных, сведений, гипотез, теорий и пр., умение же получать информацию и преобразовывать ее необходимо воспитывать, вырабатывать, оно приобретается в процессе обучения. Ю. А. Шрейдер выражает это так: "В книгах можно прочесть о многом, но из них нельзя получить умения читать. Информационно-образовательная среда может сохранить многие знания, но не может сохранить в себе умения пользоваться ею

Информационно среда создается усилиями отдельной группы людей. Исследователи отмечают, что информационная среда учебной деятельности формируется:

преподавателем (он определяет содержание программы курса, выбор учебной литературы, методы преподавания, стиль общения и т.д.);

педагогическим коллективом учебного заведения (он определяет общие требования к учащимся, сохраняемые традиции данного учебного заведения, форму взаимоотношений педагогического и ученического коллективов и пр.);

государством как общественным институтом (оно определяет материальное обеспечение образования в целом, социальный заказ на формирование той или иной системы знаний и взглядов).

Анализ достоинств и недостатков, существующих образовательной среды, дидактических традиций национальной системы образования, а также современного состояния информационных технологий и средств телекоммуникаций, позволяет сформулировать следующие принципы, на которых должны строиться проектируемые в настоящее время информационно-образовательные среды[2]

Сформулированные принципы построения информационной образовательной среды делают необходимым рассмотрение информационно-образовательной среды, с одной стороны, как части традиционной образовательной системы, а, с другой стороны, как самостоятельной системы, направленной на развитие активной творческой деятельности учащихся с применением новых информационных технологий

Дидактика применения информационной образовательной среды в образовательной системе исходит из того, что наличие преподавателя в системе обучения является обязательным и его основная функция состоит не в передаче информации, а в управлении процессом обучения.

Информационной образовательная среда, организованная в сети Интернет, на web-сайте, представлена как совокупность субъектов информационного взаимодействия или воздействия; собственно информации, предназначенной для использования субъектами информационной среды; информационной инфраструктуры, обеспечивающей возможность осуществления обмена информацией между субъектами; отношений, складывающихся в связи с формированием, передачей, распространением и хранением информации.[2]

Однако большая часть педагогов профессионального образования не осознает необходимости в повышении уровня своей информационной культуры. Часть же педагогов убеждены в необходимости обучения.

Таким образом, можно подвести итог что вопрос совершенствования информационной культуры и компетентности педагога профессионального колледжа является весьма актуальным и требует дальнейшего изучения.

Использованная литература

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису-Ташкент. Узбекистан,2020 г.
2. Шрейдер Ю.А. «Информационные процессы и информационная среда». Научно-техническая информация. серия 2: Информационные процессы и системы Издательство: Всероссийский институт научной и технической информации РАН. Москва-2008 ISSN: 0548-0027

ZAMONAVIY RAHBARLARINING BOSHQARUV KOMPETENSIYASINI OSHIRISHNING RAQAMLI SAVODXONLIGI ROLI

Jo‘raqulova Gulxayo Rizo qizi
Professional ta’limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy ta’lim tashkilotlari rahbarlarining raqamli savodxonligining ahamiyati va raqamli transformatsiya davrida ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar ta’rifi berilgan. Shuningdek, raqamli ta’lim texnologiyalari orqali rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’limni axborotlashtirishning strategik maqsadi va raqamli texnologiyalarning samaradorligini oshirish omillari o‘rganiladi. Maqolada, ta'lim jarayonining sifatini oshirish uchun ta'lim muassasalarida samarali tizimni yaratish muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: raqamli savodxonlik, kasbiy ta'lim, raqamli texnologiyalar, boshqaruv kompetensiyalari, ta'limni axborotlashtirish, ta'lim sifati.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность цифровой грамотности руководителей профессиональных образовательных организаций и описываются изменения, происходящие в системе образования в эпоху цифровой трансформации. Также изучаются развитие управленческих компетенций руководящих кадров посредством цифровых образовательных технологий, стратегическая цель информатизации образования и факторы повышения эффективности цифровых технологий. В статье подчеркивается важность создания эффективной системы в образовательных учреждениях для повышения качества образовательного процесса.

Ключевые слова: цифровая грамотность, профессиональное образование, цифровые технологии, управленческие компетенции, информатизация образования, качество образования.

Abstract: This article examines the importance of digital literacy among leaders of vocational education organizations and describes the changes occurring in the education system in the era of digital transformation. It also explores the development of management competencies of leading personnel through digital educational technologies, the strategic goal of informatization of education, and factors for increasing the effectiveness of digital technologies. The article emphasizes the importance of creating an effective system in educational institutions to improve the quality of the educational process.

Keywords: digital literacy, vocational education, digital technologies, management competencies, informatization of education, quality of education.

Hozirgi raqamlashtirilgan dunyoda ta’lim tashkilotlarining rahbarlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — zamonaviy raqamli texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirish va ular asosida samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yishdir.

Kasbiy ta’lim tashkilotlari rahbarlarining raqamli savodxonligi nafaqat ma’lumotlar bilan ishlash qobiliyati, balki tahlil qilish, rejalashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim tashkilotlari rahbarlari o‘z ish faoliyatida pedagogika, boshqaruv, ijtimoiy fanlar va psixologiya sohalariga oid bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Shu jihatdan qaralganda, rahbarning boshqaruv malakasini takomillashtirish nafaqat uning shaxsiy yutuqlari, balki ta’lim tashkilotining samarali ishlashi uchun ham muhim omil sanaladi.

Jahon miqyosidagi ta’lim va ilmiy-tadqiqot markazlarida boshqaruv faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion hamda amaliy muammolar, zamonaviy o‘quv-tarbiya jarayonlarini raqamli asosda tashkil etish, axborotlarni qabul qilishning psixologik va pedagogik jihatlari, shuningdek, ta’limni raqamlashtirish sharoitida rahbarlarning ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarini shakllantirish, masofadan turib ta’lim berish, raqamli ta’lim texnologiyalarining didaktik hamda boshqaruv salohiyatini kengaytirish yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Rahbarlarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayonida media savodxonligini rivojlantirish, ta’lim tashkilotlarining standart media infratuzilmasini takomillashtirish, ilmiy matnlar bilan samarali ishlash ko‘nikmalarini oshirish, raqamli ta’lim texnologiyalari orqali rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli transformatsiya davrida butun dunyo bo‘ylab ta’lim tizimlari sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ushbu siljishlar kasb ta’lim tashkilotlari rahbarlaridan nafaqat boshqaruv malakalariga, balki texnologiyani institutsional jarayonlarga samarali integratsiya qilish uchun raqamli savodxonlikka ega bo‘lishlarini talab qiladi.

Raqamli texnologiyalar sohasidagi taraqqiyot kasbiy ta’lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Ushbu texnologiyalar orqali axborotni dunyoning istalgan nuqtasidan turib, turli mamlakatlardagi insonlarga yetkazish imkoniyati yuzaga keldi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar o‘quv jarayoniga samarali tarzda integratsiyalashgan bo‘lib, kasbiy ta’lim tashkilotlari doirasidan tashqarida ham rahbarlar o‘z boshqaruv faoliyatida zarur ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun mustaqil tarzda vaqt ajratish imkoniga ega bo‘lmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali rahbar kadrlarning kasbiy salohiyatini yuksaltirish va ularning boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish masalalari bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar hamda ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan olimlarning ilmiy ishlari tahlili:

Axborotlashtirish jarayonida jamiyatning rivojlanishi uchun ta’limni axborotlashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u kelajakdagi avlodlarni intellektual jihatdan yetuk va ijodiy fikrlay oladigan mutaxassislar sifatida tayyorlashga yordam beradi. Ta’limni axborotlashtirishning strategik maqsadi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali intellektual faoliyatni global darajada ratsionalizatsiya qilish, mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan oshirish va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos keladigan darajada ko‘tarishdan iboratdir.

Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarining samaradorligini oshirish omillaridan biri o'quv jarayonining sifatini aniqlashga imkon beradigan va muassasaning o'quv faoliyatiga obyektiv baho berishga qodir bo'lgan samarali tizimni yaratish muhim sanaladi. Sifatli ta'lim- zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etiladigan o'quv jarayonidir, bu jarayonda pedagog va ta'lim oluvchilarning yagona maqsad asosida birgalikda motivatsion, intellektual harakati tushuniladi.

Ta’limni raqamlashtirish sharoiti deganda ta’lim va tarbiyani targ’ib qiluvchi multimedia asosida barcha turdagi sharoitlar yaratilgan tizimli tashkil etilgan tuzilma nazarda tutiladi.

Kasbiy ta’lim tashkilotlari rahbarlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash darajasini aniqlash uchun maxsus indikatorlar tizimini ishlab chiqish lozim. Bunday indikatorlar tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin: raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalari, raqamli axborotni tahlil qilish va baholash qobiliyati, virtual jamoalarni boshqarish, bulutli texnologiyalarni qo‘llash, raqamli xavfsizlik choralariga amal qilish darajasi va h.k. Bu baholash tizimi orqali rahbarlarning raqamli kompetensiyalari darajasi aniqlanadi hamda ularni rivojlantirish bo‘yicha aniq individual yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Kasbiy ta’lim tashkilotlari rahbarlarining raqamli savodxonligi — bu nafaqat ularning shaxsiy kasbiy rivojlanish ko‘rsatkichidir, balki butun ta’lim tizimining innovatsion rivojlanish yo‘nalishlarini belgilovchi asosiy omil hamdir. Shu bois, kasbiy ta’lim tashkilot rahbarlarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvni shakllantirish zarur. Bunda malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish, raqamli liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda boshqaruv faoliyatiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Касторнова В.А. Образовательные порталы:структура и информацонные технологии наполнения и реализации //НиКа.2014.№2.-С.282-286.Петров А.В.Компьютерное образование,методология, теория, практика.- Волгоград, Перемена,2002-237с.
2. Дворянкин А.М.,Геркушенко Г.Г. Подсистема компьютерной диагностики знаний. Новые образовательные системы и технологии обучения в вузе:Сб.науч.тр.Под ред.Ю.В.Попова. Волгоград, ВолгГТУ, 2001-49-53
3. Rashidov A. Raqamlashtirish sharoitida o’quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish metodikasini takomilashtirish (kasbiy faoliyatda akt fani misolida).Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi avtoreferati. Qarshi, 2023-B.10.(48)
4. Jo‘rayev.V. T Ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy- madaniy kompetentligini rivojlantirish Pedagogika fanlari doktori (Doctor of Sciense) Farg’ona -2024.80 bet.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ЮРИСТОВ ПОСРЕДСТВОМ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТАННОГО ЯЗЫКА

Алишеров Камронбек Бахромович
Студент Университета мировой экономики и дипломатии.
(Ташкент,Узбекистан)
Кадиров Анвар Хуррамович
Соикатель Института развития профессионального образования.
(Ташкент,Узбекистан)

Интеграция Узбекистана в мировое правовое пространство, правовой компетентности, необходимости взаимопонимания и сотрудничества в правовых вопросах с различными странами мира, высокая потребность в межкультурной коммуникации, обеспечение национальной правовой безопасности Узбекистана, - все это инициирует появление в системе средне-специального юридического образования специалистов с развитой правовой культурой. Так, достижении этих задач является Указ Президента Республики Узбекистан

Указ Президента «О коренном совершенствовании системы повышения правосознания и правовой культуры в обществе» УП-5618 от 9 января 2019 года, Указ Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию правового юридического образования и науки в республики Узбекистан» УП-5987 от 20 апреля 2020 года, Постановление Президента «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республики Узбекистан» ПП-5117 от 19 мая 2021 года. В свою очередь для придания большей действенности государственных мер в области повышения правовой компетентности необходимы научно-теоретические исследования.

Важнейшим качеством любого специалиста является его способность к эффективному, психологически полноценному иноязычному профессиональному общению. Это требует развитие у будущего юриста языковой компетенции, под которой понимается умение пользоваться лингвистической системой в целях профессионального общения и в соответствии с ситуацией.

Таким образом, радикальные трансформационные процессы в сфере международных отношений, расширение международного сотрудничества в рамках экономической и политической глобализации, изменение требований, предъявляемых к выпускникам юридических техникумов с позиций повышения качества владения английским языком, устанавливают новые приоритеты в организации профессионально направленной подготовки юриста в условиях средне-специальной школы средствами английского языка.

Для удачного формирования правовой компетентности учащихся образовательных учреждений в процессе изучения инностранногоо языка нужно квалифицировать совокупность условий, которые станут помогать данному процессу и наиболее гарантировать повышение качества обучения их профессиональной подготовки. Так, Л.С. Выготский утверждал, что надо «заранее создавать условия, необходимые для развития соответствующих психических качеств, хотя они еще «не созрели» для самостоятельного функционирования» [1].

Для того чтобы обосновать педагогические условия, которые будут способствовать формированию правовой компетентности, необходимо уточнить, что мы под ними понимаем. В научной литературе встречаются различные точки зрения. Под педагогическим условием Н.М. Борытко понимает внешнее обстоятельство, оказывающее существенное влияние на протекание педагогического процесса, в той или иной мере сознательного сконструированного педагогом, предполагающего достижение определенного результата. [2, с. 20].

В.И. Андреев считает, что педагогические условия представляют собой результат "целенаправленного отбора, конструирования и применения элементов содержания, методов (приемов), а также организационных форм обучения для достижения ... целей" [3, с. 124].

В ходе данного исследования нами выявлена совокупность педагогических условий, обеспечивающих формирование правовой компетентности учащегося образовательного учреждения в процессе изучения инностарнного языка. В совокупности педагогических условий можно выделить четыре группы: основные, смысловые, организационно-методические, дополнительные.

Ключевые педагогические условия, обеспечивающие эффективность формирования правовой компетентности, включает в себя: содержания организационных форм, методов и приемов англоязычной подготовки реальным требованиям в их будущей профессиональной деятельности в сфере социальных и межнациональных контактов; применение интерактивных технологий обучения; индивидуализация процесса формирования основ правовой культуры; положительный эмоциональный фон практико-ориентированной лингвистической подготовки учащихся; педагогический мониторинг личностного роста учащихся в овладении основами правовой компетентности в процессе изучения иностранного языка и др. В качестве педагогических условий, обеспечивающих

эффективность формирования правовой компетентности учащихся в процессе изучения иностранного языка, как показало исследование, выступают следующие:

1. Основная группа: формирование мотивации учащихся, создающей у них обостренный интерес к пониманию правовой компетентности в процессе изучения английского языка. Мотивация - понимание и обоснование деятельности учащегося. Учащему не следует просто выполнять деятельность, а он должен мысленно мотивировать ее, устанавливать близкие и дальние цели, намечать перспективы, связывать задачи деятельности с задачами личностного роста и развития. Учитель помогает ученику, используя методы психодиагностики, тестирования и другие формы изучения личности учащегося; структура образовательного процесса на основе рефлексии и само регуляции. Рефлексия - проектирование и сдерживание определенного образа. Формирование само регуляции способствует организация образовательного процесса на основе деятельности учащихся; развитие средств и условий для самовыражения учащихся. Самовыражение - стремление к принятию своей природы «Я» окружающим миром. Этот подход осуществляется через осуществление «состояние успеха» для каждого учащегося. Задача учителя найти духовный потенциал ученика, поддержать его, приобрести решительность, авторитетность и чувство собственного достоинства; обеспечивать условия для познания творчества. Познание творчества - определение системы жизненных смыслов, вплоть до сути жизни. Познание роли правовой компетентности в системе жизненных смыслов.

2. Смысловая группа педагогических условий: обогащение смыслом правового материала в процессе изучения английскому языку и усовершенствование его аксеолого-когнитивных аспектов; ориентация на интересы и мотивацию учащихся в изучении правовых предметов и английского языка; применение в процессе обучения современных форм и методов обучения: технологии позиционного обучения Веракса, интерактивных методы, методы ролевых игр; обеспечение междисциплинарной интеграции как средства развития правовой компетентности учащихся и качества индивидуальных достижений в овладении английским языком; использование рефлексивных критерий анализа достижений учащихся.

3. Организационно-методическая группа условий: реализация в процессе обучения научно-обоснованного комплекса современных технологий обучения, направленных на формирование правовой компетентности учащегося юридического техникума средствами английского языка: интерактивные методики обучения, Интегративный лингво-психологический тренинг, технология позиционного обучения Веракса; построение учебного процесса, как интерактивного педагогического взаимодействия. Интерактивное педагогическое взаимодействие-это непосредственная целенаправленная межличностная коммуникация участников педагогического процесса.

Интерактивное взаимодействие - это взаимовлияние участников педагогического процесса, в основе которого лежит личный опыт жизнедеятельности каждого. Интерактивное взаимодействие предполагает систему взаимодействий: со стороны педагога - планируемых, со стороны учащихся - ситуативных и неожиданных, в процессе которых создаются условия оптимального развития их личности. Интерактивное взаимодействие представляет собой процесс обмена деятельностями между педагогом и учащимся, обусловленностью деятельности учащихся деятельностью педагога и наоборот. Это процесс совместной деятельности педагога и учащегося, атрибутами которого являются: пространственное и временное соприсутствие участников, создающее возможность личного контакта между ними; наличие общей цели, предвосхищаемого результата деятельности, способствующего реализации потребностей каждого; планирование, контроль, коррекция и координация действий; разделение единого процесса сотрудничества, общей деятельности между участниками; возникновение межличностных отношений.

В заключение отметим, что представленные педагогические условия комплексно связаны между собой, образуют единство, целостность и функциональность педагогической системы и способствуют формированию правовой компетентности у учащихся в процессе изучения иностранного языка.

Литература

1. Выготский, Л. С. Развитие высших психических функций - М. : Изд-во АПН РСФСР, 1960. - 155 с.
2. Борытко, Н. М. В пространстве воспитательной деятельности Волгоград: Перемена, 2001. — 145 с
3. Андреев, В. И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития. -2-е изд. / - Казань : Центр инновационных технологий, 2000. - 245 с.

